5. R.Rüstəmov, Quba dialekti, B., 1961.

DIALEKTAL TERMINOLOGIYA – ADABIY TIL LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRUVCHI MANBA

DIALECT TERMINOLOGY – A SOURCE THAT INCREASES THE WEALTH OF LITERARY LANGUAGE VOCABULARY

Abdiyev Murodqosim Bolbekovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
murodkasim63@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada adabiy til lug‘at boyligining oshirilishida dialektal so‘zlar bilan bir qatorda dialektal terminologiyaning o‘rni masalasi yoritilgan. Shuningdekō unda o‘zbek shevashunosligida amalga oshirilgan ishlar hamda dialektal terminologiya yuzasidan bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar xususida ham mulohazalar bildirilgan.*
Kalit so‘zlar: *adabiy til, sheva, dialektal so‘z, milliy terminologiya, lug‘aviy boylik, tadqiqot, areal xarita.*

Abstract. *In this article, the role of dialectal terminology along with dialectal words in increasing the vocabulary of the literary language is discussed. It also contains comments on the work done in Uzbek dialectology and the tasks to be performed in dialectal terminology.*
Key words: *literary language, dialect, dialectal word, national terminology, vocabulary, research, areal map.*

Turkiy xalqlar ichida o‘z mavqeyi va o‘rniga ega bo‘lgan o‘zbek tili ancha murakkab tarixiy sharoitda shakllangan bo‘lib, u turkiy tillar sistemasidagi ko‘p dialektli til bo‘lib, uning lahja va shevalari o‘zining fonetik, leksik hamda grammatik qurilishi bilan bir-biridan jiddiy farq qiladi. Bu farqlarning bosh omili unda turkiy tillar uch guruhi: o‘g‘uz, qipchoq va qarluq lahjalariga xos xususiyatlarning to‘la mujassam etganligidadir. Shu bois ham o‘zbek xalq shevalarini atroflicha o‘rganish, klassifikatsiya masalalarini aniqlashtirish, keng monografik hamda umumlashtiruvchi ilmiy-tadqiqotlarni yaratish dialektologlarning birinchi vazifasi ekanligini taqoza etmoqda.

O‘tgan asrning birinchi choragidan boshlab o‘zbek dialektologlari tomonidan Farg‘ona, Zarafshon vodiylari hamda Toshkent, Buxora, Qashqadaryo, Xorazm vohalari va boshqa hududlar

shevalaridagi xilma-xilliklar va o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rganish va ularning adabiy tilga munosobatini aniqlash, klassifikatsiya qilish hamda ularning areal xaritasini tuzishga tayyorgarlik ko‘rish borasida dastlabki qadamlar qo‘yildi. Bu ishlarda rus turkolog olimlari Y. D. Polivanov, K. K. Yudaxin, A. K . Borovkov, I. I. Zarubin V. V. Reshetovlar hamda G‘ozi Olim Yunusovlarnig xizmatlari beqiyosdir. Ayniqsa o‘zbek tili jonkuyari professor V. V. Reshetovning xizmatlari katta bo‘ldi. U nomzodlik dissertatsiyasini “O‘zbek tilining Marg‘ilon shevasi” (1940) doktorlik dissertatsiyasini “Toshkent viloyatining Qurama shevalari” tadqiqiga bag‘ishladi. Keyinchalik “O‘zbek dialektologiyasi”(1962, 1978) darsligini yaratdi.

Samarqand viloyati o‘zbek shevalarining o‘rganilishi va tadqiq etilishi Y. D. Polivanov nomi bilan bevosita bog‘liqdir. U “Samarqand shevasining unlilari” (1928), “Samarqand o‘zbeklari tilining namunasi”(1935), “Lug‘at va termin to‘plovchilarga qo‘llanma”(1934) singari shevalar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlari bilan viloyat shevalarini o‘rganishni boshlab berdi. Olimning bu ishlari o‘tgan asrning 30-yillarida uyushtirilgan ekspeditsiyalar mahsuli edi. Keyinchalik, anoqrog‘i, o‘tgan asrning 60-yillaridan shevashunoslik ilmi rivojiga U. Tursunov, Sh. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, S. Ibrohimov, A. Shermatov, A. Aliyev, N. Rajabov, Q. Muhammadjonov, A. Ishayev, T. Nafasov, B. To‘ychiboyev singari fidoiy tilshunoslar salmoqli hissa qo‘shishdi.

Ayni paytda Vazirlar Mahkamasi huzurida jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan “O‘zbek shevshunosligi markazi” direktori, professor Samixon Ashirboyev boshchiligida ancha salmoqli ishlar olib borilmoqda. U kishining bu boradagi xizmatlari benihoyatda ko‘p va keng qamrovli bo‘lib, markazda muntazam ravishda har oyda markaz a`zolarining yig‘ilishi o‘tkazilib turibdi. Ustoz Samixon Ashirboyev qalamiga mansub “O‘zbek dialektologiyasi”(Toshkent, 2022) darsligi esa barcha filologiya yo‘nalshlari uchun muhim qo‘llanma vazifasini o‘tamoqda. Markaz va uning viloyatlardagi bo‘linmalarida shevashunoslikka oid qo‘llanma, darslik, monografiyalar, dissertatsiya mavzulari va milliy transkripsiyasi hamda “O‘zbek shevalari izohli lug‘ati” uchun materiallar to‘plash singari dolzarb masalalar qizg‘in bahs-munozalar bilan muhokama qilib borilmoqda.

Adabiy tilning lug‘at boyligini doimiy ravishda boyitib boruvchi manbalardan biri milliy hunarmandchilik terminologiyasi hisoblanadi. Tilning bu lug‘aviy qatlami ham dialektal ko‘rinishda bo‘lib, uni yig‘ib olish ham o‘ta sermashaqqat ish hisoblanadi.

Arxeologik topilma, yodnoma, asotir, afsona va dostonlar, ertak hamda laparlar – bularning barchasi hozirgi O‘zbekiston hududida miloddan ilgari ham hunarmandlik bilan shug‘ullanib kelinganidan dalolat beradi. Masalan, Urgut tumani Mo‘minobod qishlog‘ida O‘rta Osiyoning bronza davriga oid qabristonda qazilma ishlari olib borilganda, qabrlardan birida odam suyaklari bilan birga, sopol idish va bronza, birinj taqinchoqlar, ya’ni «bronza» davriga xos bo‘lgan, miloddan oldingi asrlarda yasalgan buyumlar topilgan. Bular qo‘ng‘iroqchasimon zirak (sirg‘a)lar, bilakuzuklar, yirik bronza halqalar, bronza oyna (ko‘zgu), mingga yaqin mayda munchoq va marjon, sibizg‘a va boshqa predmetlardan iborat bo‘lgan [Asqarov, 1969, 56-62]. Bu kabi noyob topilmalar Samarqand vohasida qadim-qadimdan hunarmandlik ancha rivojlanganligini tasdiqlovchi yorqin dalildir.

Texnik vositalarning takomillashib borishi sababli O‘rta Osiyoda ham hunarmandlik yanada rivojlana boshlanganligini tasdiqlovchi ko‘plab daliliy ashyolar mavjud: qadimgi Afrosiyob hududidan topilgan va bu ashyolar miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid ekanligi tasdiqlangan «... ikkita gemma (sirtiga xat o‘yilgan yoki naqsh solingan qimmatbaho tosh) eng qadimiy tasviriy san’at yodgorliklaridan (shuningdek, hunarmandlik obidalaridan-M.A) sanaladi... Ikkinchi gemma esa ikki tomonli bo‘lib, yuz tomonida bo‘ynida yoy o‘qi sanchilgan va chopib

borayotgan serka tasvirlangan, orqa tomonida esa boshida to‘g‘ri chiziqlar bilan chizilgan uchburchak shaklidagi bezagi bo‘lgan qanotli buqa tasvirlangan» [Samarqand tarixi, I., 1971, 70].

Milodiy VI-VIII asrlarga oid Afrosiyob hududidan qazib olingan ashyolar orasida shisha idishlar, temirchilik o‘choqlari, maxsus sopol vannachalar, quyish qoliplari, to‘qish dastgohlari, ip yigirish va cho‘kichlash asboblari, tanga zarb qilish asboblari ham topilgan [Samarqand tarixi, I., 1971, 133]. Bu dalil hunarmandlikning o‘sha davrlardayoq keng yoyila borganligidan dalolat beradi.

Amerikalik tadqiqotchi E.Sheferning VII asrda Samarqanddan Tan imperiyasiga yuborilgan harbiy asirlar, ... atir-upa va bo‘yoqlar, ma’danli xomashyo, hamda metall, yog‘och, charm, jun va qimmatbaho toshlar (billur, serdolik (yashil qimmatbaho tosh), malaxit (yashil rangli tosh), havo rang kumush nitrat, sadaf, marjon, kahrabo, binafsha rangli oltin va kumush, gagat (tosh-ko‘mirning zargarlik buyumlari yasash uchun ishlatiladigan yaltiroq turi), rangdor tosh, jez kabilardan tayyorlangan hunarmandlik mahsulotlari nomlari to‘g‘risida ma’lumot beradi [Shefer, 1981, 302-340].

Arab tarixchisi Maqdisiyning uqtirishicha, IX-X asrlarda Samarqanddan chetga ko‘plab «simgin (kumushrang) matolar», «kimxoblar», «har xil shoyilar», «ro‘mollar», «uzangilar», «suvluqlar», «qayishlar», «katta mis qozonlar» [O‘zbekiston xalqlari tarixi, 1994, 92] eksport qilingan. Bu haqda Zahiriddin Muhammad Bobur ham shunday deb yozgan: «Samarqandning yana bir *matoi qirmizi mahmaldurkim* (ta’kid bizniki - M.A.), atrof va javonibqa eltarlar» [Bobur, 1989, 46].

XIV asrdan keyin – Amir Temur Samarqandni Movarounnahrning poytaxti qilib olgandan so‘ng ham yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. U poytaxtga dunyoning turli burchaklaridan mohir hunarmand va me’morlarni keltirib, eng go‘zal shaharlarning eng go‘zalini qayta barpo etishga kirishdi. Natijada, shahrimiz «Rub’i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur» – deb ta’riflangandi [Bobur, 1989, 46].

Ushbular o‘lkamizda qadimdan milliy hunarmandchilik rivoj topganligidan hamda turli sohalarga oid terminologik tizim bo‘lganligidan dalolat beradi.

Afsuski, XX asrning 20-yillarida ko‘p millatli sho‘ro davlatida zamonaviy adabiy tillar va zamonaviy yozuvlar yaratishga juda katta e’tibor berildi. Bunday ultraurinishlar tufayli jonli xalq tili bilan adabiy til va ularning me’yorlari orasiga juda katta va, ko‘pincha, sun’iy to‘siqlar qo‘yildi. Jonli xalq tili va shevalar maxsus siyosiy maqsadlarda kamsitildi, xo‘rlandi va buning bosh sababi, deyarli, IX asrdan boshlab, sho‘ro davri hokimiyatigacha bo‘lgan davrda birga yashab, birga ijod qilib, bir xil madaniyatni rivojlantirgan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq va boshqa turkiy qardosh xalqlar bir-biridan ajratildi, Markaziy Osiyoda eramizning boshidan XIX asrgacha kuchli davlatni tashkil qilgan o‘lka parchalab tashlandi. Markaziy Osiyoda uzoq yillar davomida hamkorlikda yashab kelgan o‘g‘uz, uyg‘ur, qarluq, qipchoq va boshqa etnik guruhlar tillaridagi lisoniy farqlarga qaramay, ular ko‘p yillar davomida umumiy mushtarak adabiy tildan foydalanib kelgan edilar. Sho‘ro hukumatining Markaziy Osiyoning kuchli davlatini parchalashga qaratilgan siyosati natijasida mahalliy shevalardan ancha uzoq bo‘lgan adabiy tillar va yozuvlar joriy etildi va adabiy til bilan xalq shevalari orasidagi ajralish paydo bo‘ldi. Shu kabi omillar adabiy til va xalq shevalariaro tafovutni kuchaytirdi va yagona o‘zbek tili tushunchasi barham topdi, ya’ni o‘zbek tili deganda, asosan, o‘zbek adabiy tili tushuniladigan bo‘ldi.

O‘tgan asrning 1925-40 yillarida mahalliy xalqni bir mintaqadan ikkinchi mintaqaga zo‘rlab ko‘chirish asosida shevalar orasidagi farqlar yo‘qola bordi. Ko‘chmanchi xo‘jalik sifatida badarg‘a qilingan aholining ko‘pchiligi o‘zlarining kasb-korini, hunarini ma’lum darajada yo‘qotdi. Xalqimizning muhim qadriyatlaridan biri bo‘lgan mana shunday boylikning funksional doirasi

toraydi. O‘zbek xalq jonli tilida bo‘lgan yuz minglab leksemalar unutilayozdi va buning «oqlovchi» tushunchalaridan biri «O‘zbek tili leksikasi», «O‘zbek adabiy tili leksikasi» qabilidagi sun’iy tushuncha bo‘ldi, deyish mumkin. Chunki bu terminlar ostida xalqning butun so‘z boyligi emas, balki saralangan, barcha uchun me’yor sifatida qabul qilingan, imlo va izohli lug‘atlarda o‘z aksini topgan so‘zlargina tushunildi. Agar hozirgi turk yoki rus, nemis, fransuz tillarining normativ (me’yoriy) imlo lug‘atlarida o‘z aksini topgan so‘zlar miqdorini shu tillarning shevalari leksemasi miqdori bilan solishtirilsa, keyingisining me’yoriy leksikasi to‘rt-besh baravar ko‘p ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Yevropa xalqlari madaniyat bo‘sag‘asiga XVI asrda qadam qo‘ydi. Bizning xalqimizning madaniyati esa kamida bir necha ming yillik tarixga ega. Demak, rasmiy lug‘atlarda aks etmagan so‘zlarimiz miqdori yevropaliklarnikidan bir necha o‘n baravar ko‘p bo‘lsa, ko‘pki, oz emas.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq hunarmandchiligi sohalari boy va rang –barang bo‘lib, milliy madaniy merosimizning eng ajoyib namunalarini o‘zida saqlab qolganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizning ko‘hna shaharlari bo‘lmish Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Toshkent, Termiz, Shahrisabz, Marg‘ilon, Urgut, Kattaqo‘rg‘on, G‘ijduvon singari shaharlarida do‘ppido‘zlik, telpakdo‘zlik, kashtachilik, atlasboflik, adrasboflik,do‘zandalik, zardo‘zlik, jiyakdo‘zlik, gilamchilik, bo‘yrado‘zlik, chitgarlik, kulollik, tandirsozlik, chinnipazlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, ganckorlik, zargarlik, pichoqsozlik, miskarlik, temirchilik, tunukasozlik, sandiqsozlik, ko‘nchilik, etikdo‘zlik, mahsido‘zlik, kavushdo‘zlik, holvapazlik, novvoylik, oshpazlik singari o‘ttizdan ortiq hunarmandchilik sohalari vakillari tomonidan milliy mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Ular nafaqat ichki bozorni, balki tashqi bozorda ham milliy hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirib kelishgan. Ayni paytda istiqlol tufayli ular qayta jonlantirilib milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlar ichki ehtiyojni qondirish bilan bir qatorda xalqaro tanlov va ko‘rgazmalarda faxrli o‘rinlarni egallashmoqda.

Taniqli tilshunos olim S. Ibrohimovning “ Farg‘ona shevalarinig kasb- hunar leksikasi”(1956) nomli monografiyasi va “Профессиональная лексика узбекского языка(на материалах Ферганских говоров) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi(1961) Farg‘ona vodiysi kasb-hunarlarining paydo bo‘lish tarixi, milliy hunarmandchilik terminlari etimologiyasini o‘z ichiga olgan katta lug‘aviy boylikni ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etgan. M. Abdiyev esa “Sohaviy leksikaning sistem tahlili muammolari“ (2004) nomli monografiyasi hamda “Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunarlari materiallari asosida)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Samarqand viloyatiga xos milliy hunarmandchilik terminlarini to‘plab, ularni zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga harakat qilgan. Dialektal xarakterdagi milliy terminlardan hozirgi globallashuv davrida milliylikni saqlab qolish maqsadida terminlarning muqobil variantlar qo‘llashni ishlab chiqarishda tadbiq etishda hamda jamoatchilik ichida ommalashtirishda foydalanish mumkin. Masalan, rezina – cho`zma, rapida – yengsa... Hali Buxoro, Xorazm, Qashaqdaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo singari vohalarda hamda chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz leksikonida juda ko‘plab dialektal xarakterdagi milliy hunarmandchilikka oid lug‘aviy boyliklar tadqiqotchilarini kutib yotganligini ta`kidlagan holda, akademik Sh. Shoabdurahmonov o‘rinli ta`kidlaganidek, “...zudlik bilan ularni yig‘ib olmasak, aks holda ular hamishalikka yo‘qolishi mumkin” [Shoabdurahmonov, 1962 ,56].

Haqiqatan, milliy hunarmandchilikka oid soha terminlarni zudlik bilan yig‘ib olish lozim. Ularning aksariyati ”O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ham qayd etilmagan. Akademik Sh. Shoabdurahmonov ta’biri bilan aytganda,” Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra milliy tilda qo‘llanuvchi so‘zlar miqdori bir millonga yetadi [Shoabdurahmonov,

1962, 65]. Bu o‘rinda milliy hunarmandchilik terminlarining ham mavjudligini hisobga olsak, ularning miqdori yanada oshishi mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, “xalq ichiga yurish qilish” orqali adabiy til lug‘at qatlamining salmoqli qismini tashkil etuvchi milliy hunarmandchilik terminlarini tezlik bilan yig‘ib olish hamda ularning areal xaritasini tuzish tilshunoslarimiz oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa yaratilishi ko‘zda tutilayotgan “Til korpusi” uchun muhim ashyo vazifasini o‘tashi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аскаров А. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // История материальной культуры Узбекистана. –Ташкент: Фан, 1969. - С. 56-62.
2. Самарқанд тарихи. I том. –Тошкент: Фан, 1971.
3. Шефер Э.Х. Золотые персики Самарканда. –М.: Наука, 1961.
4. Ўзбекистон тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
5. Бобур З.М. Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча, 1989.
6. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари.-Тошкент,1962.

KUL TIGIN BITIGTOSHI VA O‘ZBEK TILI SHEVALARI

KUL TIGIN STONE WRITINGS AND UZBEK DIALECTS

Baxtiyor Abdushukurov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. *Maqola qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan Kul tigin bitigtoshida qo‘llangan ayrim leksik birliklarning hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarga munosabatini qiyosiy o‘rganish, ularning semantik taraqqiyotini ochiqlashga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *turkiy yozma yodgorliklar, Kul tigin bitigtoshi, dialekt, sheva, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz, sheva, leksema, arxaizm.*

Abstract. *The article is devoted to the comparative study of the relationship of some lexical units used in the Kul tigin inscription from the ancient Turkic written monuments to the modern Uzbek literary language and dialects, and to clarifying their semantic development.*

Key words: *Turkish written monuments, Kul Tigin stone writings, dialect, Karluk, Kipchak, Oguz, lexeme, archaism.*

Qadimgi turkiy qavmlar ko‘hna zamonlardan buyon mavjuddir. Ayrim mutaxassislar ularning shakllanish davrini miloddan oldingi o‘ninchi ming yillik bilan bog‘lashadi. Binobarin, turkiy so‘zlashuv tili ham shu davrga borib taqaladi. Ammo qadimgi turkiy adabiy til yozma manbalarda aks etgani bois yozuv paydo bo‘lgunga qadar yetib kelgan og‘zaki ijod namunalari adabiy tilning mezonlarini belgilay olmaydi. Shu o‘rinda Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tilning keng hududda tarqalgani, o‘sha paytdagi mavqeyini ko‘rsatuvchi quyidagi fikri e’tiborlidir: *Ishonchli bir buxorolik olimdan va nishopurlik boshqa bir olimdan shunday eshitgan edim, ular*

bu so‘zni payg‘ambarga nisbat berib aytgan edilar: payg‘ambar qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o‘g‘uz turklarining xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: «turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi (MK,I,43-44). Bu turkiy qavmlar va ularning tillariga alohida ahamiyat berilganiga dalil sanaladi. Qolaversa, turkiy tilda go‘zal badiiy asarlar, yilnomalar yaratish mumkinligiga asosdir. Shu ma’noda qadimgi turkiy tilning holati, rivoji borasida asl manbalar, jumladan, ko‘k turk xatidagi yodnomalar, moniy va eski turk-uyg‘ur yozuvi yodgorliklari bizni keng, ishonchli ma’lumotlardan voqif qiladi. Mazkur turkiy yozma yodgorliklar hududiy jihatdan va maqsadiga ko‘ra turlichadir. Aytish joiz, qadimgi turkiy adabiy tilning taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodi va tarjima asarlari tili ham alohida ahamiyat kasb etgan. Bundan qadimgi turkiy adabiy til katta va uzoq tarixiy jarayonni bosib o‘tgani, zikr qilingan manbalar til xususiyatlarining xilma-xilligi oydinlashadi.

Turkiy manbalar yuzasidan chuqur izlanishlar olib borgan V.Radlov yozuv fonetik va morfologik jihatlariga ko‘ra uchta dialekt qadimgi turkiy adabiy tilning shakllanishi uchun asos bo‘lganini ko‘rsatib o‘tadi. Bular: 1) qadimgi shimoliy dialekt (turk-sir dialekti, bu «Oq turklar yoki g‘arbiy turklar» degan ma’noni bildirib, hozirgi O‘rta Osiyoda istiqomat qilgan turkiy qavmlarni bildiradi);

2) qadimgi janubiy dialekt (uyg‘ur tili). Bu dialekt uyg‘ur xoqonligi davrida shakllangan. Uning namunalari bizgacha xoqonlik inqirozga yuz tutgandan keyin yozilgan yodnomalarda yetib keldi: «Qutadg‘u bilig» asarining Hirot nusxasi va Turfondan topilgan bir necha yodgorliklar; 3) aralash dialekt (aralash til). Turkiy tilning uyg‘ur va moniy alifbosidagi manbalarning ko‘pchiligi aralash dialektda yozilgan. Bular: «Moniylarning tavbanomasi», «Qutadg‘u bilig»ning Qohira nusxasi, «Oltin yoruq» va shu tipdagi yodnomalar[1].

O‘rxun-Yenisey yodgorliklari, To‘nyuquq, Kul tigin, Bilga xoqon, “Irq bitigi” singari manbalar qadimgi turkiy tilning shimoliy dialektiga mansub. Kul tigin bitigida (bitigtosh 732-yilda o‘rnatilgan) turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining leksik, grammatik dialektal xususiyatlariga doir muhim ma’lumotlar aks etgan. Buni quyida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil jarayonida ham kuzatish mumkin.

Tüz so‘zi Kul tigin bitigida “to‘g‘ri, ishonchli” (ko‘chma) ma’nosini anglatgan: *bägläri yämä bodunï yämä tüz ermis* – beklari ham, xalqi ham to‘g‘ri ekan. Shu bilan birga, bu kalima yodnomada **tüzül** “to‘g‘rilanmoq, o‘rniga tushmoq” (KTb,5), **tüzsiz** “insofsiz” singari istilohlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Turfon matnlarida *tüz* ning “bir xil, aynan”, “haqiqiy” (ko‘chma) (DTS,602), “Devonu lug‘otit turk”da “to‘g‘ri, tekis narsa”, “bir xil, barobar” kabi semalari kuzatiladi: *beš eräŋäk tüz ermäs* – besh barmoq barobar emas (MK,I,143). “Tafsir”da “tik, to‘g‘ri”, “tekis yer” ma’nolarini anglatgan: *Boyï tüz yüzi körklüg* (138,1); *Tamuğqa tüšärlär netäg kim tewä kabi tüzdä tayïrlar* (131,10). Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari tilida leksemaning uchta ma’nosi ko‘zga tashlanadi:

a) “tekislik”: *Aydï: maŋa bir keŋ tüz yazï, sağ topraqlïq yer hāsil qïlïŋ* (QR,62v4);

b) “bir xil, aynan”: *Yarlïğ keldi: ey farištalär, bu qullarnïŋ tilläri köŋülläri birlä tüz ermäs* (QR,154r14).

v) “to‘g‘ri”: *Anda keδin tüz keŋäš qïlïp quδuğğa kemišüür bolup Yusufnï tüp südräyü quδuğ bašïğa keltürdilär* (QR,70r19). O‘z navbatida, asarda forsiy **rāst** o‘zlashmasi o‘rganilayotgan leksemaning sinonimi vazifasini o‘tagan o‘rinlar ham mavjud: *Ya’qub yalawač sordï: ey böri, Täŋri haqqï rāst ayğïl* (QR,72v6). Ma’lum bo‘ladiki, XIV asrga kelib so‘zning ma’nosi

[1]Қўчқортоев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. –Б.44-45; Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. -Тошкент: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. - Б.31-32.

kengaygan. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da uning “to‘g‘ri”, “tekislik, tekis yer” (ANATIL,III,251-252), “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa “sayhon, tekislik”, “bo‘z yer” (O‘TIL,II,218) semalari o‘rin olgan. Shuningdek, “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da o‘g‘uz shevalarida **dü:z (**tekislik, yalang joy;O‘XShL,93), Gurlan, Hazorasp shevalarida **duz** (cho‘l, sahro; O‘XShL,90) fonetk shakllari mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Turfon matnlarida “darvoza, eshik” ma’nosidagi **qapïğ** (DTS,420) so‘zi Kul tigin yodnomasida **Temir qapïğ** tarzida joy nomi tarkibida kelgan: *qurïğaru Tämir qapïğqa tägi süläyü bärmis* – g‘arbga Temir qopiqqacha lashkar tortib boribdi (KTb,8). X asrga tegishli bo‘lgan uyg‘ur yozuvidagi adabiyotlarda *qapağ* (DTS,420) shakliga duch kelamiz. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida *qapuğ* varianti “darvoza”, ko‘chma ma’noda “qabul qilish xonasi” semalarida (DTS,421) qo‘llanishda bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida *qapuğ, qapğa* (MK,I,401) fonetik muqobillari istifoda qilingan: *qapuğ ačuqluğï* (MK,I,166). Ilk nasriy manba sanalgan “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *qapuğ* “eshik, darvoza”, eski o‘zbek tilidagi adabiyotlarda *qapu* shakli “eshik, darvoza”, “jarlik, pastqam yer” (ANATIL, IV, 268-269) ma’nolarini anglatgan: *bir kimärsä qapuğ qaqdï* (QR,19r2). Tahlilga tortilgan leksema zamonaviy adabiy tilda ishlatilmasa-da, uning *qapi, qapqa* variantlari bugungi kunda Xorazm, Iqon, Turkiston, Chimkent, Sayram shevalarida muomalada ekanini ta’kidlab o‘tish joiz (O‘XShL,156). Atama “yopmoq” ma’nosidagi qadimgi *qap-* fe’li bilan – *ïğ* qo‘shimchasidan yuzaga kelgan (ESS,V,263).

Kul tigin bitigtoshida **in-** fe’li “inmoq, pastga tushmoq” ma’nosida voqelangan: *tağdaqï inmis tärilip yatmïs är bolmïs* – tog‘dagi pastga tushibdi, yig‘ilib yetmish er bo‘libdi (KTb,12). Mahmud Koshg‘ariy o‘z lug‘atida kalimaning “tushmoq” (MK,I,181), “yog‘moq” semalarinin keltirib o‘tadi:

Ol qar qamuğ qïšïn inär

Ašlïq tarïğ anïn ünär – qor va yomg‘irlar hammasi qishda yog‘adi, ekin, don undan unadi (MK,II,237). “Qisasi Rabg‘uziy” asarida “tushmoq” (QR,20v11) ma’nosi ishlatilgan bo‘lsa, Alisher Navoyi atamaning “tushmoq”, “egil-moq”, “(tong)otmoq” semalaridan foydalangan (ANATIL,II,37). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ma’nolari aks etgan: 1) o‘tirmoq, qo‘nmoq; 2) *shv.* yuqoridan pastga tushmoq; 3) *ko‘chma* kirmoq, paydo bo‘lmoq (O‘TIL,II,239). Hozirda Urganch, Xiva, Xonqa, Bog‘ot shevalarida *inmək* “cho‘kmoq, nuramoq” ma’nosini bildirsa, uning *yen-en-* varianti Surxondaryo shevalarida o‘zining dastlabki ma’nosida qo‘llanadi: *di:val indi* (O‘XShL,116).

Kul tigin yodnomasida “dushman” ma’nosi **yağï** so‘zi orqali berilgan: *Tabğač qağanqa yağï bolmïs* – Tabg‘ach xoqoniga qarshi bo‘libdi (DTS,224). “Oltun yoruq” yodgorligida **yat yağï** juft so‘zi “begona, raqib” ma’nosini bildirgan (DTS,247). Atama XI asr manbalari, ya’ni “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘otit turk”, shuningdek, “Qisasi Rabg‘uziy” asarlarida o‘z semasini davom ettirgan: *bu er ol yağïdïn qutulğan* - bu inson u dushmandan qutulgan (DTS,224); *…qayu yağï bu išni qïlğaykim özüŋüzgä qïldïŋïz* (QR,32r20). Garchi leksema eski o‘zbek tili manbalarida keltirilmasa-da, bugungi kunda Urganch, Xiva, Xonqa shevalarida *ya:g‘ы* shaklida kuzatiladi (O‘XShL,126): *yalg‘ыz ya:g‘ыdan bətər*. Adabiy tilda og‘i, Yog‘iboy (O‘I,129) singari ismlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Uning **yov** (**yağï-yav**) fonetik varianti esa quyidagi ma’nolarni anglatadi: “urush, jang holatidagi qarshi tomon, dushman, g‘anim”: *Bir soat chamasi otishgandan so‘ng, yov bizning o‘qimizga chidolmay, ikki darvoza orasida uch-to‘rt yuz o‘lik qoldirib, qochishga majbur bo‘ldi; “*qarama-qarshi maqsaddagi kishi; dushman, raqib”. *Qimor qizib, har kimsa bir-biriga yov* (O‘TIL,II,21).

Uyg‘ur xatidagi budda manbalarida “maymun” ma’nosi anglatgan **bičin** (DTS,98) zoonimi Kul tigin bitigida o‘n ikki muchal yil nomlaridan biriga nisbatan qo‘llangan: *bičin yïlqa yätinč ay*

yäti otuzqa qop alqdïmïz – maymun yilida, yettinchi oyning yigirma yettisida butunlay tugatdik (KTb,98). Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida “maymun”, hosila ma’nosida esa astroponim sifatida turkiy o‘n ikki muchal yillaridan to‘qqizinchisi, maymun yilini bildirgan (MK,I,387). “Najmul-farodis”da **bečin** (NF,92b16), Jamoliddin Turkiyda **bäčin** (15a1), Alisher Navoiy asarlarida **bijin** fonetik shakllari istifoda qilingan: *bijin tapsa yer tā ičigä sïğar…* (Navoiy,I,289). “At-tuhfa”da **yabčïn**, **yabčï** (28bm) variantlari uchraydi. Radlov lug‘atida chig‘atoy tilida **bičin**, usmonli turk tilida **pičin,** teleut tilida **mäčin** (RSL,IV,2115) singari fonetik shakllari ishlatilganligi haqida ma’lumot bor. **Mäčin** shakli hozirda ham Gurlan shevasida o‘zining tub ma’nosini saqlab qolgan (O‘XShL,180). I.Galevi **bičin**ni fors-tojikcha **buzine** “maymun” so‘ziga bog‘laydi (IRLTYA,140). Mazkur terminning turkiy tillarga mansub emasligini E.Sevortyan ham uqtirib o‘tgan (ESS,II,129).

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “tamom bo‘ldi, tugadi”, “o‘ldi” kabi semalarda kelgan **alqïndï** (MK,I,255) fe’li Kul tigin bitigida *alqïntï* shaklida talqin qilingan. Bunda ushbu so‘z “g‘oyib bo‘lmoq” ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan: *yär qayu bardïğ qop anta alqïntïğ* – har qaeyrga ketding, u yerlarda xo‘p (ko‘p) g‘oyib bo‘lding (KTb,9). To‘nyuquq yodnomasida “tamom bo‘ldi, tugadi”, Turfon matnlarida “o‘ldi” (DTS,38) ma’nolari kuzatiladi: *Türk bodun ölti alqïntï yoq boltï* – turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi (To‘n,3). Bugungi kunda qipchoq shevalarida tahlilga tortilgan kalimaning *alqïndï,* qarluq shevalarida esa uning *olqune* shakllari sovun qoldig‘iga nisbatan ishlatiladi[1].

Kul tigin bitigtoshida *apa* “bobo”, XII-XIV asrlarga mansub uyg‘ur yuridik hujjatlarida “opa” (DTS,47) ma’nosini bildirgan: *ïnanču apa yarğan tarqan atïğ* - Inonchu boba yarg‘an (qassob) tarqon otni (KTb,1). Atama 712-716 yillarda bitilgan To‘nyuquq yodnomasida **apa tarqan** tarzida bosh qo‘mondonni ifodalagan: *apa tarqanğaru ičrä sab ïdmïš* – Apa tarxon (bosh qo‘mondon)ga maxfiy xabar yuboribdi (To‘n,34). Demak, bu yerda “katta, bosh” ma’nosini anglatgan. Binobarin, ko‘hna manbalarda “bobo”, “ona”, “opa”, “katta” semalarida aks etgan *apa//aba* kalimasi bugungi kunda o‘zbek shevalarida bir qator ma’nolarda ko‘zga tashlanishi “O‘zbek xalq shevalar lug‘ati”da misollar yordamida ochiqlangan. Ya’ni *apa-ərə-ərə* shakllari Mang‘it, Urganch, Vodil, Toshkent shevalarida katta qiz qardoshni, *apa* varianti Mankent shevasida onani, Samarqand, Qoramurt shevalarida esa buvini ifodalaydi(O‘XShL,326-327).

Professor Qosimjon Sodiqovning yozishicha, *apa-aba* eski o‘zbek tilidagi **abağa** so‘zining shakllanishiga asos bo‘lgan. Navoiy so‘zi bilan aytganda, turklar *atanïŋ ağa-inisin abağa derlär*. Mazkur so‘z *apa-aba+ ağa “*katta og‘a” degan ma’noni anglatadi. Hozirgi o‘zbek tilida ham *apa*ning “katta, ulug‘” ma’nosi ayrim so‘zlar tarkibida saqlangan: *opog‘oyi* (*apa+ayi*) – katta ona, amakining xotini; *opog‘doda* yoki *opog‘ada* - birinchisi *apa+dada* (katta dada)dan, ikkinchisi *apa+ada* (katta ota)dan. *Opog‘doda*, aslida, otaning yoki onaning buvasi. *Opog‘ada* esa otaning yoki onaning otasi; *opog‘buvi* (*apa+buvi*) – katta buvi degani; *opoqi* (*apa+qi*) – opa, amaki yoki tog‘aning xotini[2]. Mahmud Koshg‘ariy *opoqi* dagi **-qi** qo‘shimchasining tarixi xususida shunday yozadi: *qi* – yaqinlik, qarindoshlik ma’nosidagi ismlar oxiriga qo‘shilib, sevgi va xayrixohlik ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha: *ataqï* - otaginam, *anaqï* – onaginam (MK,III,230). *Ana* ilk bor X asrga mansub bo‘lgan “Oltun yoruq” yodgorligi va Turfon matnlarida qo‘llangan (DTS,43).

V-X asrlarda, jumladan, Kul tigin bitigtoshida **äči** termini “aka, og‘a”, “amaki” ma’nolarida ishlatilgan: *inili äčili kiksürtükün üčün* – og‘a va inini [bir-biriga] qayragani uchun (KTb,6); *ol törüdä üzä äčim qağan olurtï* – o‘sha hukumat boshiga amakim xoqon bo‘lib o‘tirdi (KTb,16). Shuningdek, tekshirilayotgan yodnomada *äči* **äčü apa** juft so‘zi tarkibida kelib, “ota-bobo, ajdod”

[1] Раҳимов С. Ўзбек тили ўзбек тили Сурхондарё шевалари. – Тошкент: Фан, 1985. –Б.88.
[2] Содиқов Қ. Эски ўзбек адабий тили. –Т.: Akademnashr, 2020. -Б. 471-472.

ma’nosini kasb etgan: *äčümiz apamïz tutmïs yär sub* - ota-bobomiz boshqargan yer-suv (KTb,19). Yenisey bitiglarida *äči* “aka” (DTS,162), uning **ačа** varianti esa “qarindosh” semalarida kelgan (DTS,4). “Devon”da *ača* opaga, *ačï* esa barsag‘anlar tilida keksa ayolga nisbatan qo‘llangan (MK,I,114). Ayni paytda, Mahmud Koshg‘ariy ta’kidicha, **ičі** fonetik varianti ham akani (MK,I,114), ham erning katta ukasini bildirgan: *Erning kichik ukasiga **ini**, yoshi katta bo‘lsa **ičі** deyiladi* (MK,III,13). Tekshirilayotgan istilohning *acha-əchə-ɔchə* shakllari hozirda Namangan, Sijjak, Janubiy Tojikistonning qarluq shevalarida “ona”, “buvi”, Karkidon shevasida “qaynona” semalarida ishlatiladi (O‘XShL,328).

Kul tigin bitigtoshida **äkä** leksemasi “opa”ni ifodalagan: *ögälärim, äkälärim, käliŋünüm, qunčuylarïm* – onalarim, opalarim, kelinlarim, xonzodalarim (KTb,49). Yenisey, Turfon matnlari, “Oltun yoruq” asarida ham ayni shakl va semani ko‘ramiz: *äkä baltïr birgärü* – opa va kichik kelin (qayinsingil) bir joyda yoki birgalikda (DTS,167). “Devonu lug‘otit turk”da quyidagi izohlarga duch kelamiz: *Erkaklarning o‘zidan kichik qiz ukasiga **siŋil**, o‘zidan katta qiz birodariga **äkä** deyiladi; xotinning o‘zidan kichik qiz birodariga baldïz, o‘zidan kattasiga **äkä** deyiladi* (MK,III,13). Mamluklar davrida, ya’ni XIV asrda bitilgan “Attuhfa” asarida *äkä* “amma” ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan (24b10). Alisher Navoiyning “Majolisun nafois” tazkirasi hamda Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida zikr etilgan atama o‘zidan katta erkak qardoshga nisbatan ishlatilgan: *Mavlono Mahramiy... xoja Mansurning akasidur* (ANATIL,I,72); *Axir bir kun Shaybanxon akasi Sayinxong‘a aytdi* (ShT,112). “Boburnoma”da o‘zining dastlabki ma’nosida istifoda qilingan: *Poyanda Sultonbegimni «aka» der edim, Habiba Sultonbegimni «yanga» der erdim* (BN,266). Ko‘rinadiki, o‘rganilayotgan so‘z XV asrning oxiri – XVI asrda ham akaga, ham opaga nisbatan qo‘llana boshlagan. So‘ngra XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib, butunlay ulug‘ erkak qardoshni ifodalashga o‘tgan. *Aka-əkə-ɔkə* Buxoro, Qarshi, To‘rtko‘l, Xiva, Toshkent shevalarida “aka” ma’nosini bildirsa, Shimoliy Xorazm, Turkiston, Gurlan shevalarida *əkə* shakli otani anglatadi (O‘XShL,325).

Kul tigin bitigtoshida **čïqan** so‘zi “jiyan, xotin tomondan jiyan”ga nisbatan istifoda etilgan: *Tabğač qağan čïqanï Čan Saŋun kälti* - Tabg‘ach xoqonning jiyani Chang Sangun keldi (KTb,53). Kuli chur yodnomasida “unvon” ma’nosida uchraydi: **čïqan tonyuquq** (DTS,150). Bu aqrabolik oti Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘zining asl ma’nosini davom ettirgan. Ya’ni xolaning o‘g‘li, jiyanga nisbatan ishlatilgan (MK,I,382). Bugungi kunda bu kalima **ch’qan (chıqan)** shaklida Xiva, Urganch, Yangibozor shevalarida “dugona” ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi (O‘XShL,385). Shu o‘rinda aytish joizki, Kul tiginda zikr qilingan leksemaning **yigün** (tog‘aga nisbatan jiyan), **atï** (akaning o‘g‘li, jiyan) sinonimlari ham qo‘llangan: *äki šad ulayu ini yigünim oğlanïm bäglärim* – ikki shad keyingi ini jiyanim, bolam, beklarim (KTb,51); *Kul tigin atïsï Yolluğ tägin bitidim* – Kul tiginning jiyani Yo‘llug‘ tegin bitidim (KTb,51). Kul tigin bitigtoshida *yigün*ning *yägän* fonetik shakli *Yägän Silig bäg*ning unvoni sifatida ko‘zga tashlanadi (KTb,33). Mo‘g‘ilistondagi Suja dovonida topilgan IX asrga oid bitigda *yegin*, uyg‘ur yozuvida bitilgan budda manbalarida *yegän* variantlariga duch kelamiz (DTS, 52-253). Bu so‘z keyingi davr manbalarida kuzatilmasa-da, hozirda o‘zbek adabiy tilida *jiyan*, turk va turkman tillarida *yegen* tarzida qo‘llanib kelmoqda.

“Azob chekmoq, qiynalmoq” ma’nosidagi **ämgä-** fe’lidan yasalgan **ämgäk** so‘zi Kul tigin bitigida mehnat, qiyinchilikka nisbatan ishlatilgan: *On oq bodun ämgäk körti* – O‘n o‘q xalqi qiyinchilik ko‘rdi (KTb,19). Turfon vodiysida topilgan manbalar matni, X asr yodgorligi sanalgan “Oltun yoruq”da ayni shakl va ma’noda ko‘zga tashlanadi (DTS,172). Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida bu atama **emgäk** fonetik shaklida berilgan: emgäk ekindä qalmas - mehnat bo‘sh ketmaydi (MK,I,134). Shu bilan birga, bu kalima “Devon”da “yurak burug‘i, ich ketish”

ma’nosidagi **emgäk tolğağ** (MK,II,333) juft so‘zining shakllanishiga asos bo‘lgan. “Qisasi Rabg‘uziy” va “Mahbub- ul-qulub”, “Shajarayi turk” asarida asarlarida ham ayni semada uchraydi: *Emgäkdin alarğa ārām yoq* (ANATIL, III,563); *bir tevä va ya at yüz* emgäk birlän yürür erdi (SHT,29). Atama keyingi davr manbalarida qayd etilmasa-da, hozirda Janubiy Xorazm, Qipchoq, Xonqa, Mang‘it, Shimoliy Xorazm, Turkiston, Qilichboy shevalarida **əmgək/emgək (**mehnat, qiyinchilik) tarzida uchraydi: *əmgək chəkmək* (O‘XSHL,29); *emgəkləsə emgək artadı* (O‘XShL,97). Kul tigin bitigida tahlilga tortilgan so‘zning **is** sinonimi ham istifoda etilgan: *Bunča isig küčüg bärtükgärü saqïnmatï* – shuncha mehnatini, kuchini sarf etganini andisha qilmay (KTb,10).

Ko‘rinadiki, o‘rtada qariyb o‘n uch asrga yaqin muddat bo‘lishiga qaramay qiyosiy tahlilga tortilgan so‘zlarning talay qismi bugun o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishda bo‘lmasa-da, o‘g‘uz, qipchoq, qarluq shevalarimizda ishlatilib kelmoq- da. Ba’zilari aynan (**əmgək, yağï, in**) qo‘llanadi, ayrimlari fonetik (**tüz// düz, alqïntï//alqïndï, bičin// mäčin**), yana birlari ma’no (**čïqan, äkä, äči, apa**) o‘zgarishiga uchragan. Modomiki, leksikologiyada tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlar, ya’ni muayyan tilning lug‘at boyligi haqida so‘z yuritilar ekan, qadimgi turkiy til lug‘at tarkibida qo‘llangan leksemalarni biror urug‘ yoki qabilaga mansub deb bo‘lmaydi. Chunki qadimgi turkiy tildagi istilohlar o‘sha davrda yashagan qavmlarning barchasiga tegishli deb qarash zarur.

Darhaqiqat, Kul tigin bitigitoshida qo‘llangan istilohlarni qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklarni hozirgi o‘zbek adabiy tili hamda uning shevalari bilan qiyosiy o‘rganish, birinchidan, bitigitoshdagi turkiy leksemalarning semantik taraqqiyotini ochiqlasa, ikkinchidan, muayyan so‘zlar bugun ham ba’zi fonetik o‘zgarishlar bilan bo‘lsa-da, adabiy til va shevalarimizda faol ekanidan, uchinchidan, ayrim atamalar tarixiy rivojlanish natijasida iste’moldan chiqib, arxaizmga aylanganidan dalolat beradi.

Shartli qisqartmalar

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати . I-IV. – Тошкент: ФАН, 1983-1985.

At-tuhfa – Изысканный дар тюркскому языку: Грамматический трактат XIV в на арабском языке/Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, грамматический указател. Э.И. Фазылова и М.Т. Зияевой. –Ташкент, 1978.

DTS – Древнетиюркский словар. –Л.: Наука, 1969.

Jamoliddin Turkiy – Файзуллаева Ш.А. Исследование языка памятника XIV в. “Китабу булғат ал-муштақ фи луғат ат –турк ва-л қифчақ” Джамалад – Дина ат-Турки: Дисс.канд. филол.наук. – Ташкент, 1969.

IRTLYA – Историческое развитие лексики тюрских языков. – М.: Изд-во АН СССР, 1961.

KTb – Рустамий А. Сайланма/2-жилд/ Туркий тил махзани/ - Тошкент: Zilol buloq, 2022.

MK – Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк/Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН, 1960-1963.

NF – Нахджул – фарадис//Фазылов Э.Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIVвека. Т. I-II. –Ташкент: ФАН, 1966-1971.

RSL – Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I-IV. –СПБ, 1893-1911.

Tafsir – Бороков А.К. Лексика среднеазиатского тефсира XII-XIII ВВ.-М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963.

To‘n – Рустамий А. Сайланма/2-жилд/ Туркий тил махзани/ - Тошкент: Zilol buloq, 2022.

SHT - Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992.

ESS – 1) Севортян Э.В. Этимологический словар тюркских языков: Обшетюркские и межтюркские основы на гласные. –М.: Наука, 1974.

2) Севортян Э.В. Этимологические словар тюркских языков: Обшетюркские и межтюркские основа на букву “Б”. –М.: Наука, 1978.

3) Севортян Э.В. Этимологические основы на буквы “В”, “Г”, “Д”. – М.: Наука, 1980.

O‘I – Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

O‘XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.

QR – 1) Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. I-II Тошкент: Ёзувчи, 1990-1991.

2) Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. Kisasul-Enbiya. II. Dizin. Aysu Ata. – Ankara, 1997.

ALISHER NAVOIY ASARLARI LEKSIKASI VA O‘G‘UZ SHEVALARI

VOCABULARY OF ALISHER NAVOY'S WORKS AND OGUZ DIALECTS

Berdak Yusufov
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Navoiy tiliga qaysi sheva asos bo’lganligi va shoir asarlarida uchraydigan o‘g‘uzcha leksik birliklar haqida bahs yuritiladi. Mazkur o‘g‘uzcha so‘zlarning ba‘zilari og‘uz tillarida bo‘lgani, ammo ularning aksariyati o ‘zbek shevalarida mavjudligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *aylamak, beganmak, degul, dudoq, kutmoq, Navoiy, turkolog, cho’x, sheva, o‘g‘uz.*

Abstract. *This article discusses which dialect is the basis of the Navoi language and Ughur lexical units found in the poet's works. It is noted that some of these Oguz words are in Oguz languages, but most of them exist in Uzbek dialects.*

Keywords: *aylamak, beganmak, degul, dudoq, kutmoq, Navoiy, turkologist, cho’x, dialect, oguz.*

Navoiy davrida temuriylar davlatida turli xil qavmlar, xalqlar yashaganlar. U xalqlarning har birining tili, dialekt va shevalari bo‘lganligi tayin. Bu haqida A.K. Borovkov “Shunday qilib Alisher Navoiy hayotligida ko‘p dialektlar borligi shubhasiz,”– deydi. [Боровков, 1946:104] Shoirning o‘zi “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida “Har jamoat alfozi o‘zgalaridin va har guruh iborati yonalaridin mutag‘ayyir va bir necha xususiyat bila mutamayyizdurki, o‘zgalarda

yo‘qtur”[1]. Navoiy o‘sha davrda Movarounnahr va Xurosonda yashovchi, ayniqsa “Devon” va “Xamsa”da ko‘plab turk-o‘zbek qavmlarini o‘z asarlarida keltiradi. Ular jumlasiga quyidagi etnonimlarni ko‘rsatish mumkin: arlot, oqar, barlos, belugut, jaloyir, mang‘it, sulduz, tarxon, o‘zbak, qiyot, qipchoq, qo‘ng‘irot.

ANavoiy sevdi bir lo‘lini kezdik rub’i maskunda,

Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz[Алишер Навоий, 989:149].

Arlot ulusi tarxon elining uluq-kichigi ani muqtadoliqqa qabul qilibdurlar [Алишер Навоий, 2011:332]. Albatta, Navoiygacha ham ushbu qabilalarning tili, dialekt va shevalari bo‘lgan murakkab temalardan biridir”[Абдуллаев: 1968:238.].

XV–XVI asrlarda ham turli xil shevalar bo‘lganligi aniq. Buyuk shoir mazkur shevalarning qaysi biriga tayangan? Taniqli dialektolog Xudoyberdi Doniyorov aytganiday “Alisher Navoiyning tiliga asos bo‘lgan sheva, shunday deb aytish mumkin bo‘lsa, qaysi baxtli sheva ekan?” [Дониёpov, 1968:279]. Bu haqda F. Abdullayev shunday yozadi: ”Ulug‘ Alisher Navoiy asos solgan klassik o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari masalasi umuman eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi bilan mahkam bog‘liq bo‘lgan va hozirgacha tuzuk tekshirilmay kelayotgan g‘oyat murakkab temalardan biridir,” –deydi.

Navoiyning tili haqida birinchi bo‘lib Z.M. Bobur o‘z fikrini bildirgan. U “Boburnoma”da bu haqida shunday yozadi: “Eli turkdur. Shahr bozorisida turki bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur.

Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hirida nash’unamo topibtur, bu til biladur” [Дониёpov, 1968:280].

Boburning bu fikriga mashhur turkologlar o‘z munosabatini bildirishgan. V.V. Bartold Boburning bu gapini o‘sha davrda Andijonda to‘g‘ri til, ya’ni adabiy tilga yaqin til bilan so‘zlashgan, deb tushunish kerakligini aytadi[Бартольд: 1928]. Yana bir mashhur tarixchi A.Y.Yakubovskiy “Xarakterliki, Alisher Navoiy Hirotda yashasa ham uning asarlari Andijon lahjasida yozilgan. Bu yerda Bobur biror narsa orttirgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq,”– deb Boburning yuqorida aytilgan fikrini to‘g‘ri ekanligini qayd etadi[Якубовский, 1946:16].

Shundan keyin ham, hatto bizning davrimizda ham Navoiy tilining Andijon shevasiga mos kelishi haqida ko‘p gapirildi.

Ammo hozirgacha hammani qanoatlantiradigan fikr aytilmadi. Hatto P.T. Melioranskiy arab yozuvining turkiy tillar tovushlarini to‘liq ifodalay olmaganligidan bu masalani hal qilishga ishonchsizlik bilan qaragan.

X. Doniyorov adabiyotshunos Vohid Abdullayevning “Alisher Samarqandda” maqolasida“ Bobur Alisher tilining andijonliklarning muomala munosabatiga yaqinligini, Andijon tili bilan rost kelishini e’tirof etadi... Alisher tilidagi ko‘nikmalar yigitligining ayni avjida, xuddi shu yerda, Samarqandda zohir bo‘lgan”, degan fikrini keltiradi va “V.A. Abdullayev tomonidan ko‘rsatilgan bu sababni bizningcha, Andijon shevasining Navoiy tiliga asos bo‘lishini izohlovchi vajli dalillardan biri deb ko‘rsatish mumkin.

V.A.Abdullayev o‘zining shu maqolasida Alisher Navoiyning Samarqandda, ko‘pgina olimlar shu vaqtga qadar aytib kelganlariday, ikki yil emas, balki 4-5 yil bo‘lganligi haqida gapiradi va o‘zining bu fikrini ko‘pgina dalillar bilan isbotlaydiki, bu ham Navoiyning Andijon shevasida yozganligini isbotlash uchun xizmat qiladi,”– deydi [Дониёров, 1968:291].

Ko‘rinib turibdiki, X. Doniyorov V.A. Abdullayevning yuqoridagi birinchi fikrini Andijon shevasining Navoiy tiliga asos bo‘ladigan dalil bo‘la oladi desa, ikkinchi fikrini, ya’ni Navoiyning Samarqandda 4-5 yil bo‘lganligi fakti uning Andijon shevasida yozganligini isbotlashini yozadi.

[1] مير على شير . محاكمة اللغتين. ليدن ١٩٦٦.

Nahotki, Navoiyning Samarqandda 4-5 yil bo‘lishi uning tiliga Andijon shevasining asos bo‘lishiga va uning Andijon shevasida yozganligiga isbot bo‘la olsa! Navoiy Andijon shevasida emas, balki chig‘atoy tilida, ya’ni eski o‘zbek adabiy tilida yozganligi hammaga ma’lumku!

Boburning yuqorida aytilgan fikri haqida olimlar tomonidan har xil fikrlar aytilgan. Bu haqda A.K. Borovkov “Navoiy adabiy tilining eng yaqin asosi Farg‘ona shevalariga yaqin aralash shevalardan biridir,”– deydi [Боровков, 1946:107].

Navoiy tili qarluq dialektiga tayanadi. Lekin uning asarlarida qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga xos leksik birliklar ham qo‘llanilgan. Ma’lumki, o‘g‘uz tillariga turk, ozarbayjon, turkman, gagauz tillari kiradi. O‘g‘uz tillari va o‘zbek tili tarkibiga kiruvchi o‘g‘uz lahjasining o‘zbek adabiy tilining shakllanishida katta roli bor. O‘g‘uz qatlami haqida V.V. Radlov, A.K. Borovkov, A.Inon, Y. Eckman, F.Abdullayev, Kemal Eraslan, A.Madrahimov kabi olimlar bu masala haqida bir-biridan farqli fikrlar bildirishgan. Mazkur olimlarning ko‘pchiligi eski o‘zbek tilida o‘g‘uz qatlami masalasi murakkab ekanligini ta’kidlashgan. Masalan, F. Abdullayev “Endi Alisher Navoiy asarlari tilida ko‘plab uchraydigan o‘g‘uz elementlariga kelsak, masala ancha murakkab,” – deb yozadi [Абдуллаев, 1968:245]. Shuni qayd etish lozimki, mazkur masala murakkabligining sabablaridan Navoiy asarlaridagi, umuman eski o‘zbek tilidagi o‘g‘uz qatlamini aniqlash va ajratishning qiyinligidadir. A.Madrahimov ham Navoiydan o‘g‘uz lahjasiga oid so‘zlarni aniqlash juda qiyin ekanligini ta’kidlaydi [Абдуллаев, 1973:96]. Shuning uchun ham bu mavzuga bag‘ishlangan ishlar juda kam. Bu haqda K. Musayev “Bugun turkiy tillarning janubiy-g‘arbiy (o‘g‘uz), shimoliy-g‘arbiy (qipchoq), shimoliy-sharqiy (sibir) va O‘rta Osiyo (qarluq) guruhlari bir-biridan qaysi leksik ko‘rsatkichlari bilan farq qilishini hali aniq aytish qiyin. Bunday holat turkiy tillarning barcha sathlarida, ayniqsa leksika sathida farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarning tahliliga bag‘ishlangan maxsus ishlarning yo‘qligi bilan izohlanadi” [Мусаев:15]. Bundan tashqari, turkolog E. Nadjib bu haqda: “U yoki bu so‘zni u yoki bu dialektga tegishli deyish juda qiyin va qaltis ish,”– deydi.

Biz Navoiy asarlarida o‘g‘uzcha so‘zlarni aniqlash uchun quyidagicha ish tutdik. Ma’lumki, Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida har bir so‘z qaysi tilga oidligini ko‘rsatish uchun maxsus belgilardan foydalangan. U o‘g‘uz lahjasiga oid so‘zlarga “o‘g‘uzcha” belgisini qo‘ygan. Biz ana shu o‘g‘uzcha belgili so‘zlarni Navoiy asarlridan topishga harakat qildik. Ushbu so‘zlarni o‘g‘uzcha ekanligi yanada ishonchliroq bo‘lishi uchun ularni hozirgi zamon o‘g‘uz tillaridagi va o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasidagi shunday so‘zlarga solishtirib chiqdik va ba’zi o‘g‘uzcha deb taxmin qilgan so‘zlarni ham mazkur til va shevalardan izladik. Natijada Navoiy asarlarida quyidagi o‘g‘uzcha so‘z borligi aniqlandi.

Aya *(SI-426)* «kaft», aylamak*(VII-72)* “qilmoq”, arimoq(*IV-53)* “toza bo‘lmoq”, bayat(*VIII-202*) “xudo”, beyanmak (*I-392*) “yoqtirmoq”, beyla(*IX-231)* “bunday”, bilamak(*VIII-122)* “qayramoq”, barishmoq(*XVI-209*) “yarashmoq”, gunas(*III-551)* “quyosh”, gunash(*XVI-167)* “quyosh”, depsamak (I-666) “tepmoq”, dog‘i(*XVI-114*)“tag‘in”, dudog‘(*VI-429)* “lab”, il(*IX-251*)“yil”, ila*(TM-106)* “bilan”, injimak (*V-408)* “ranjimoq”, kibi*(TM-95)* “kabi”, kutmak *(TM-84)*“o‘tlatmoq”, panir(*IX-224)* “pishloq, sir”, savash(*II-149*) “urush”, sallanmoq “sollanmoq”, sechmak (*III-503*) “saylamoq, tanlamoq”, singak (I-*32)* “pashsha”, singir (*IV-247*) “payt”, utmoq (*III-154*) “yutmoq”, utanmoq (*V-136*) “uyalmoq”, uyumoq (*XVII-66*) “uxlamoq”, uyutmoq (*IV-53)* “uxlatmoq”cho‘x (*IV-85),* “ko‘p”,ev(*VII-287*)“uy” , eyla “unday, o‘shanday”, el (*IV- 459*) “qo‘l”, etmak *(III-185)* “etmoq, qilmoq”, o‘yla (*TM-160)* “unday, o‘shanday” o‘lmoq, (*TM-85*) “bo‘lmoq”, qopi (*I*-179) “eshik”.

Yuqorida keltirilgan Navoiy asarlaridagi o‘g‘uz qatlamiga oid til birliklarining ba’zilari faol bo‘lsa, ba’zilari juda kam uchraydi. Ushbu 37 ta so‘zdan 26 tasi hozirgi o‘zbek adabiy

tilida uchramaydi. Qolgan 11 tasi hozirgi adabiy tilimizda mavjud, ammo faol emas, shuningdek boshqa ma'noga, uslubiy bo'yoqqa ega. Masalan, "O'zbek adabiy tilining izohli lug'ati"da *aylamoq* so'zi *esk.kt* (eskirgan so'z, kitobiy so'z) belgisi bilan, *dudoq, ila, injimak shv. (shevaga oid so'z), savash folk*. (folklorga oid so'z) kabi. Shuningdek, Navoiyda *berk "*mustahkam, mahkam*", kutmak, "*mollarni oldiga solib haydab o'tlatmoq*"* ma'nolarida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi o'zbek adabiy tilida *berk* "yopiq" ma'nosida, *kutmoq* esa Navoiydagidan butunlay boshqa ma'nolarda qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'g'uz qatlamiga oid leksik birliklar Navoiy asarlarida, shuningdek o'tgan asrning 20-yillarigacha an'ana sifatida qo'llanib kelingan bo'lsa, 20-yillardan keyin bu an'ana adiblar ijodida ba'zi sabablarga ko'ra deyarli davom etmadi. Faqat ayrim shoirlar she'riyatida onda-sonda uchrab turadi. O'g'uzcha qatlamga oid so'zlar ko'proq sheriyatda qofiya, aruz talabi bilan ishlatilgan. A. Inon bu haqda "Chig'atay shoirlari esa qofiya zarurati tufayli qipchoq-o'g'uz kalima va shakllarni qo'llaganlar",– deb yozadi [İnan, 1991:56]. "Aruz vaznida yozilgan she'rlarda cho'ziq va qisqa hijolarning ma'lum tartibda gruppalanib ruknga (stopaga) uyushib kelishi bo'g'inning doim harakatda bo'lishini, ochiq bo'g'inni yopiq yoki yopiq bo'g'inni ochiq bo'g'inga aylantirishni talab qilar, bir bo'g'inni ikki bo'g'in hisobida kelishini taqozo etar edi. Mana shu talab nuqtayi nazaridan *ol-* formasining *bol-* bilan bir qatorda she'riyat tilida saqlanishi juda qo'l kelardi[1],"[Абдуллаев, 1968: 247] – deb yozadi F.Abdullayev. Shuni ham qayd etish lozimki, yuqorida keltirilgan o'g'uz qatlamiga oid leksik birliklarning ba'zilari o'g'uz tillaridan, masalan, ozarbayjon va turkman tilidan qabul qilingan bo'lsa, ularning ko'pchiligi o'zbek tilining o'g'uz lahjasidan o'zlashtirilgan. Bu haqda Navoiy tilini tadqiq etgan olimlardan biri K.K. Yudaxin shunday yozadi: "Eski o'zbek poeziyasiga bu o'zak (ya'ni o'l-Y.B.) kitob orqali g'arbdan kirishi shart emas, bevosita mahalliy xalq shevasidan olingan bo'lishi mumkin"[Юдахин, 1957;37].

Darhaqiqat, hozirgi o'zbek tilining o'g'uz shevalarida mazkur so'zlarning aksariyati mavjud. Yuqorida keltirilgan *o'l* fe'li "O'zbek tilining hozirgi Chimkent oblasti territoriyasiga tarqalgan o'g'uz shevalarida (Iqon, Qorabuloq, Qizilqishloq) *bol* formasi bilan bir qatorda *ol* shakli ham qo'llaniladi; Xorazmning janubiga tarqalgan o'g'uz shevalarida ikki forma ham bor" [Абдуллаев, 1968: 246].

O'g'uz tillarida, jumladan turk tilida *cho'q* "ko'p" so'zi bor. Navoiyda bu so'z cho'x shaklida qo'llanadi. Navoiyning "Favoyidul-kibar" devonida 9 baytdan iborat 110-g'azalida *cho'x* hatto radif bo'lib kelgan. Bu so'z ozarbayjon tilidan o'zlashtirilgan. Chunki "ko'p" ma'nosidagi *cho'q* so'zining *cho'x* varianti hozirda faqat ozarbayjon adabiy tilida ishlatiladi. Mazkur so'z o'zbek shevalarida uchramaydi.

Digər oğuz qrupu türk dillərinə nisbətdə Azərbaycan dilində o-laşma daha çoxdur. Bunun bəzi səbəbləri vardır. Azərbaycan dilinin cənub qrupu dialekt və şivələrində **a**, şərq qupunda isə **o** üstünlük təşkil etmişdir. Çağdaş Azərbaycan ədəbi dilinin fonetik əsasının müəyyənləşməsi zamanı koyne dialekt olaraq şərq qrupunun xüsusiyyətləri qəbul edilmiş, bununla da dildə o-laşma prosesi güclənmişdir. Tarixən tərkibində a səsi olan sözlər (av, avçı, qavırma, davşan, yavşan, qavıt və s.) çağdaş Azərbaycan dilində o səsi ilə (ov, ovçu, qovurma, dovşan, yovşan, qovut və s.) işlənir. **A** və **æ** fonemi cənub və cənub-qərb dialektlərini xarakterizə edən əsas əlamətlərdəndir. "Azərbaycan dilinin Naxçıvan dialektoloji atlası"nın 1-ci xəritəsində [Azərbaycan 2015:36] æ səsinin məxrəci dəqiqləşdirilmiş, yayılma arealı müəyyənləşdirilmişdir. Ədəbi dil ilə müqayisədə regionun qərb hissəsinin ə → æ → a istiqamətində dilarxasına (qalınlaşmaya: həyət → hæyæt → hayat), şərq hissəsinin isə a→æ→ə istiqamətində dilönünə (incələşməyə: yarpax→yærpæğ→yərpəğ) meyilliliyi qeydə alınmışdır. Xəritədən görünür ki, birinci istiqamət Şərur, ikinci istiqamət isə Ordubad şivələri üçün daha çox xarateriкdir. "Azərbaycan dilinin Qarabağ və Şərqi Zəngəzur dialektoloji atlası"nın 1-ci xəritəsində [Azərbaycan 2022:45] isə æ səsinin Zəngilan, Füzuli, Ağcabədi, Qubadlı, Laçın, Kəlbəcər rayonlarının ərazisində yayıldığı müəyyən edilmişdir.

Qərbi Azərbaycanın Meğri rayonunun Nüvədi şivəsi üçün ən mühüm səciyyəvi əlamət budur ki, şivədə a və o saitləri müşahidə edilmir. A, bəzən də ə saitinin müqabilində æ səsi, o saitinin müqabilində isə aº səsi işlənir, yəni bu qovuşuq səslər fonem variantı deyil, fonem səviyyəsində özünü göstərir: æxşæm ʿaxşamʾ, qæzæn ʿqazanʾ, sæqqæl ʿsaqqalʾ, aºrpæ ʿarpaʾ, æmı ʿəmiʾ, nænæ ʿnənəʾ, mæn ʿmənʾ, baºlıx, yaºğiş, daºvşæn, yaºvşæn, baºbæ, qaºvırqæ və s. [Əliyev 2023:30-34]. Qərbi Azərbaycanın Meğridən başqa, Qafan, Gorus, Qarakilsə, Zəngibasar, Vedibasar, İrəvan, Dərələyəz və başqa şivələrində də æ səsi müşahidə olunur.

Qovuşuq æ və aº səsləri fonosemantik dəyişmə yolu ilə söz yaradıcılığında mühüm rol oynamışdır. **Türkman** və **türkmən** etnonimlərinin **-man** və **-mən** hissəsi çox qədim tarixi olan şəkilçi morfemdir. Türk dillərinə məxsus şəxs sonluqları tarixən şəxsin özü ilə ifadə olunmuşdur: Mən türk**mən** (mən türkəm). Sən türk**sən**... Birinci şəxsin təkini ifadə edən şəxs sonluğunda saitin qovuşuq **æ** olduğunu düşünərək **æ→ə** və **æ→a** dəyişməsi ilə **türkman** və **türkmən** etnonimlərinin eyni sözün fonetik variantları olduğunu söyləmək olar.

Azərbaycan dilində isim-feil omonimliyinin çoxluğuna (at, it, yan, daş, saç, qırış, dan və s.) əsaslanaraq **əl** və **al**- sözlərini **æl** omoniminin æ>ə, æ>a keçidində fonosemantik dəyişməsi kimi düşünmək olar. Nəzərə almaq lazımdır ki, semantik cəhətdən **əl** ismi və **al**- feili ad-hərəkət modelinə uyğun gəlir.

Tarixən bir çox onomastik vahidlərdə, o cümlədən antroponim və toponimlərdə də æ saitinin a, ə, bəzən də e məxrəclərinə meyilliliyi nəticəsində yaratdığı dəyişmələri Azərbaycan və digər türk dillərində görmək olar: Alı ← Ælı^{i} → Əli, Alyar ← Ælyar → Əlyar → Elyar, Aslı ← Æslı^{i} →Əsli, Hasan ←Hæsæn →Həsən, Kaloğlan ← Kæloğlan → Kəloğlan → Keloğlan, Arzurum ←

Ærzurum →Ərzurum, Alxanlı/Alxannı (Füzuli rayonunda kənd adı) ← Ælxannı/ Ælxaᵒnnı/ Əlxannı (Naxçıvan şəhərində məhəllə adı) → Ælıⁱxan/ Əlixan (Qərbi Azərbaycanın Qızılqoç rayonunda kənd adı. Füzuli rayonundakı və Naxçıvan şəhərindəki toponimlər XX yüzillyin əvvəllərində Əlixan kəndindən deportasiya olunmuş azərbaycanlıların - əlixanlıların həmin ərazilərdə məskunlaşması ilə bağlı yaranmışdır. Füzuli rayon şivələri Azərbaycan dilinin qərb qrupu şivələrinin xüsusiyyətini daşıdığı halda, Alxanlı kənd şivəsi cənub xüsusiyyətlidir. Yerli sakinlər əsillərinin Naxçıvan və İrəvanlı olduğunu söyləyirlər. Bu isə deportasiya olunmuş əhalinin Naxçıvana, oradan Füzuliyə, əvvəlki adı ilə desək, Qaryaginə köçürüldüyünü göstərir), Alışar (Şərur rayonunda kənd adı) ← Ælıⁱşar →Əlişar (Qarakilsə rayonunda kənd adı), Amoğlu ← Æmoğlu → Əmoğlu (Qərbi Azərbaycanın Dərələyəz rayonunda kənd adı), Alagöz/Alayöz ← Ælæyæz → Ələyəz (Qərbi Azərbaycanda dağ, çay, kənd adları. Ælæyæz/ələyəz həm də mavi çiçəkləri olan dağ bitkisinin adıdır, ælæyæz/ələyəz aşının – şorbasının hazırlanmasında istifadə olunur. Sözün ala/ælæ/ələ hissəsi bitkinin rəngi, y elementi isə intervokal mövqedə g samitinin y məxrəsinə keçməsi ilə bağlıdır), Ermanısdan ← Ermænıⁱsdan →Ermənisdan və s. Onu da qeyd etmək lazımdır ki, qədim türk tayfalarından olan arman ← ærmæm → ərmən → ermən tayfasının adı etnotoponim kimi işlənmişdir. Qərbi Azərbaycanda milləti bilinməyən, özlərini gah erməni, gah da hay adlandıran əsilsizlər tərəfindən yerli azərbaycanlılara qarşı dəfələrlə törədilən soyqırım, deportasiya (1905-1906-cı illər, 1918-1920-ci illər, 1948-1953-cü illər, 1988-ci il) nəticəsində dialekt daşıyıcıları yalnız el-obasından deyil, dialektindən də uzaq düşmüşdür.

Naxçıvan qrupu dialekt və şivələrinin Şərur arealında qalınlaşmanın müşahidə edilməsi də məhz Şərur mahalının tarixən İrəvan xanlığının on beş mahalından (Sürməli, Qırxbulaq, Zəngibasar, Vedibasar, Şərur, Abaran, Göyçə, Talın, Gərnibasar, Dərəçiçək, Sərdarabad, Seyidli-Axsaqal, Qarpi, Səədli, Dərəkənd-Parçenis mahalları və Şörəyel sultanlığı) biri olmasıdır. "Kitabi-Dədə Qorqud" eposunda bu ərazilər Qazan xanın yurdu kimi təsvir edilir.

Azərbaycan dilinin şimal-şərq və şərq qrupu dialektlərində, o cümlədən Dərbənd [Азербайджан 2009:12], Quba [Rüstəmov 1961: 31-32], Bakı dialektlərində və Muğan şivələrində [Ширалиев 1983:29-30] ədəbi dildəki a saitinin müqabilində o səsinin işlənməsi də səciyyəvi dialekt əlamətidir. Bu dəyişmə b, p, v, m dodaq samitlərində əvvəl və ya sonra baş verir: boba ʻbabaʼ, hova ʻhavaʼ, bobat ʻbabatʼ, şomma ʻşamamaʼ, gomuş ʻcamışʼ, lovaş ʻlavaşʼ, yovaş ʻyavaşʼ, boş ʻbaşʼ və s. O-laşma bəzən dodaq samitləri olmayan məqamda da işlənir: qotuğ ʻqatıqʼ, xotın ʻxatınʼ, yoxun ʻyaxınʼ və s. Sonu a ilə bitən sözlərdə kombinator vəziyyətdə də bu prosesi izləmək mümkündür: aton ʻatanʼ, anon ʻananʼ, babon ʻbabanʼ və s.

İstər **æ**, istərsə də **aᵒ** və **o** saitləri ulu dilin səs sisteminə daxildir. O-laşma müxtəlif türk dillərində işlənmə dərəcəsindən asılı olmayaraq, ortaq türk əlamətidir. Bunu yalnız özbək dili ilə bağlamaq olmaz [Щербак 1962:69]. Sadəcə özbək dili dodaqlanma prosesini daha çıx mühafizə edir. O-laşma qohum olmayan dillərin (tacik, tat, kürd və s. dillərin) təsiri ilə baş verən hadisə deyil.

Azərbaycan ərazisinə bütövlükdə nəzər salınarsa, æ və aᵒ səslərinin iki mərhələsini görmək olar:

1. Törənmiş səslərlə bərabər mühafizəkarcasına özünü qoruyub saxlama;

2. A, ə, e səslərini formalaşdırmaqla öz məxrəcini qapatma. Birinci mərhələ törənmiş a və ya ə saitinin istiqamətinə görə qalınlaşma və incələşmə xüsusiyyətli iki tip dialekt formalaşdırmışdır: a) ədəbi dildəki ə səsinin müqabilində dilortası æ, dilarxası a, dodaqlanmaya meyilli aᵒ (**aᵒ←a←æ**) istiqamətində qalınlaşma; b) ədəbi dildəki a səsinin müqabilində dilortası æ, dilönü ə (**æ→ə**) istiqamətində incələşmə. Qalınlaşma Naxçıvan, Şərur (Düdəngə, Zeyvə, Aşağı Aralıq, Püsyan), Şahbuz (Biçənək, Kolanı, Nursu), Vedibasar, İrəvan, Qaşqay və s. şivələrdə,

incələşmə isə Culfa (Yaycı,), Ordubad (Düylün, Azadkənd, Nüsnüs, Gənzə, Kilit), Təbriz, Urmu, Xoy və s. şivələrdə müşahidə olunur.

2. A, ə, e səslərini formalaşdırmaqla öz məxrəcini qapatma. Bu mərhələ şərq, qərb və şimal qrupu şivələrinin əksəriyyətində özünü göstərir. Yarımqapalı e səsinə meyillilik qərb və şərq qrupu, eləcə də Muğan qrupu şivələri üçün xarakterikdir: qeyçi, qeyiş, qeynət, beyquş, yeşmağ və s.

Zaman-zaman æ səsinin işləkliyinin itirilmə səbəbi müharibələr, Azərbaycan torpaqlarının parçalanması, yad dil və ya dialekt mühiti, dialekt daşıyıcılarının deportasiyası, məcburi köçkünlük həyatı və s. məsələlər olmuşdur. Ədəbi dil və ya æ səsinin işlənmədiyi dialekt mühitində informasiya alana ağız aparatının önünü formalaşdıran æ səsinin informasiyası (ədəbi dildəki a səsinin müqabilində işləndiyi üçün) ə kimi, ağız aparatının arxasını formalaşdıran æ səsinin informasiyası isə (ədəbi dildəki ə, e və ö səslərinin müqabilində işləndiyi üçün) a kimi, ədəbi dildəki a səsinin informasiyası isə a^{o} və ya o kimi ötürülür. Məsələn: qæpı^{i} →qəpi ʿqapıʾ, qæræ→qərə ʿqaraʾ, pæxı^{i}l→pəxil ʿpaxılʾ, bæğ→bəğ ʿbağʾ, dælæğ ʿdalaqʾ; æ:rdæx'→ardax' ʿərdək/əyirdək, şirniyyat növüʾ, kæpænæx'→kapanax' ʿkəpənəkʾ, ælæx'→alax' ʿələkʾ, ælbæhæm→albaham ʿəlbəhəm, o saat, həmin andaʾ, qæşæx'→qaşax' ʿqəşəngʾ, kæfşæn→kafşan ʿkövşən/köfşən/köyşənʾ, hæyæt→hayat ʿhəyətʾ, əvlat ← ævlat → avlat ʿövladʾ, əvləmməx' ← ævlæmmæx' → avlæmmæx' ʿevlənmək/ öyləmməkʾ və s.

Dilarxası yarımdodaqlanan açıq a^{o} səsinin araşdırılması zamanı daha çox nəzərdən qaçan məsələ səslərə tarixi deyil, yalnız ədəbi dil ilə müqayisədə yanaşılması olmuşdur. Əgər dilortası æ səsinin qalınlaşma istiqamətinə nəzər salınsa, dildə dodaqlanmanın **o←a^{o}←a←æ** şəklində baş verdiyini görmək olar. Yarımdodaqlanan a^{o} səsi Azərbaycan dilinin Ağcabədi (Qaradolaq, Afşar), Zəngilan (Şatarız, Kolluqışlaq, Rəzdərə, Bartaz, Çöpədərə, Xurama, Muğanlı-Hacallı), Meğri (Nüvədi), Culfa (Boyəhməd, Ərəzin, Əlinçə, Camaldın), Ordubad (Tivi, Çənnəb, Baş Dizə, Üstüpü, Dəstə, Gənzə, Kotam, Kilit), Şahbuz (Badamlı, Kükü, Türkeş, Qızıl Qışlaq, Kolanı, Biçənək, Şada), Babək (Sirab, Qahab, Nehrəm, Qaraqala, Vayxır, Cəhri, Gərməçataq, Buzqov), Naxçıvan, Şərur, Kəngərli (Böyükdüz, Şahtaxtı) Vedibasar, İrəvan, Güney Azərbaycan (Səlmas, Qaşqay, Qaradağ), Şərqi Anadolunun Ərzincan, Elazik şivələrində sözün əvvəlində və ortasında işlənməkdədir: ba^{o}yatı, ça^{o}balamax, pa^{o}pa^{o}x/pa^{o}pa^{o}ğ/pa^{o}pəğ, na^{o}xoş, ca^{o}mış/ga^{o}mış, na^{o}nə, şa^{o}lvar, ha^{o}vlə, da^{o}ban/da^{o}bən, ma^{o}şın, əla^{o}və, ba^{o}yax, qa^{o}ymax, a^{o}yax, qa^{o}ysaba/qa^{o}ysava/qa^{o}ysafa, qa^{o}yın, qa^{o}yçı/qa^{o}çı, qa^{o}yış, ya^{o}ylax, qa^{o}ytmax, a^{o}yğır/a^{o}yqır, ya^{o}r, qa^{o}ya, na^{o}r, ya^{o}rpax və s.

Bütün bunlar göstərir ki, türk dillərinin taraxi-müqayisəli araşdırmalarında yalnız ədəbi dil materialları deyil, dialektlərin və yazılı abidələrin də nəzərdən keçirilməsi, bir sistem halında öyrənilməsi önəmlidir.

İstifadə edilmiş ədəbiyyat

1. Azərbaycan dilinin Dərbənd dialekti. Bakı: Elm, 2009.

2. Azərbaycan dilinin Qarabağ və Şərqi Zəngəzur dialektoloji atlası. Bakı: Elm və təhsil, 2022. 358.

3. Azərbaycan dilinin Naxçıvan dialektoloji atlası. Bakı: Elm və təhsil, 2015. 308.

4. Əliyev. Ə.İ. Meğri şivələri. Bakı: Elm, 2023.

5. Rüstəmov R.Ə. Quba dialekti. Bakı: Azərbaycan SSR Elmlər Akademiyası, 1961.

6. Ширалиев М.Ш. Диалекты и говоры Азербайджанского языка. Баку: Элм, 1983.

7. Щербак. А.М. Грамматика староузбекского языка. Москва - Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, 1962.

QORAQALPOG‘ISTONDAGI O‘ZBEK SHEVALARINING LINGVOAREAL TALQINI

THE LINGUOAREAL INTERPRETATION OF UZBEK DIALECTS IN KARAKALPAKSTAN

Ibragimov Yuldash Matkarimovich
filologiya fanlari doktori, professor,
Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbek shevalaridan to‘plangan sinxron ma’lumotlarni lingvoareal aspektda tavsif etish;

Kalit so‘zlar: hudud shevalari, lingvistik geografiya, areal metod, lingvistik karta, nolingvistik omillar, shevalarda diftonglashish, oppozitsiya, relavent hodisa.

Abstract: *The article examines synchronous data collected from the Uzbek dialects of Karakalpakstan in the linguareal aspect.*

Key words: *regional dialects, linguogeography, areal method, linguistic map, non-linguistic factors, diphthongization in dialects, opposition, actual event.*

O‘zbek dialektologiyasida yirik monografik tadqiqotlarning maydonga kelganligi endilikda shevalarimizni qiyosiy-tarixiy va tipologik tadqiqotning hozirgi zamon aniq va izchil metodi bilan til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi lingvistik geografiya va areal aspektda tadqiq etishni taqozo etmoqda. «Lingvistik geografiya faqat til tarixi va dialektologiya uchungina ahamiyat kasb etib qolmasdan, u xalqning etnogenezi, tarixi uchun ham juda muhim, chunki lingvistik geografiya muhim tarixiy manbadir [Авенесов 1958: 181]. Lingvistik geografiya bilan dialektologiya makon va zamon omiliga turlicha munosabatda bo‘lsa-da, makon omili lingvogeografiyada ham, dialektologiyada ham bir xil ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, territoriya omili lingvogeografiyaning asosini tashkil etadi. Lingvogeografiya keng territoriyaga ega bo‘lishi va bir paytda ko‘plab faktlarni qamrab odishi, umumlashtirish hajmining beqiyosligi bilan tasviriy va tahliliy xususiyatga ega bo‘lgan dialektologiyadan ajralib turadi.

Dialektal atlaslar tuzilishi dialektologiyadan lingvistik geografiyaga o‘tish davri hisoblanadi [Бородина 1966: 5]. Shu bilan birga, bu davr o‘zining nazariy ahamiyatiga ko‘ra lingvistik geografiya taraqqiyotining dastlabki jarayonidir. Dialektologiya tadqiqotilar to‘liq til materialiga, to‘liq tekst materiallariga ega bo‘lsa, lingvogeografiya esa, anketalashtirilgan kichik til faktlarigagina tayanadi.

Ma’lumki, dialektal xususiyatlar asta sekin istemoldan chiqib yo‘qolib ketadi. Ular haqidagi ma’lumotlar esa, lingvistik atlaslar va yozib olingan tekst namunalarida saqlanib qoladi. Yo‘qolib borayotgan xususiyatlarni yozib olish dialektologlarning muhim vazifasidir.

Karta tuzishdagi umumlingvistik va dialektologik tamoyil hamma atlaslarda barobar saqlanadi, ularning o‘zaro munosabati dastlab material tanlashda ham, kartalashtirishni amalga oshirishda ham asosiy o‘rin tutadi. Shunga qaramay, lingvistik atlaslar va dialektologik atlaslar o‘zining ko‘pchilik belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Farqlar dastlab anketalashtirish darajasidan boshlanadi.

Lingvistik atlas uchun material keng ko‘lamdagi savollar majmuasi asosida to‘plansa, dialektologik atlas materiali ma’lum dialektal xususiyatlarni modellashtiruvchi dastur asos bo‘ladi. Bunday dasturning har bir punkti alohida tema uchun mustaqil so‘roqlikni tashkil etadi. Masalan, lingvistik kartaning har bir so‘zi uchun savolga javob tariqasida tuzilishi uning dialektal ayirmaliklar tarqalishini aniqlaydigan dialektologik kartadan farqini aniq ko‘rsatadi.

Anketalashtirish bevosita, ya’ni to‘ppa-to‘g‘ri va bilvosita (korrespondent) orqali amalga oshiriladi. Anketalashtirish metodikasining bevosita, bilvositaligi, so‘roqlikka javob olish shakli orqali amalga oshirilishi, illustrasiya qo‘llashi, informator tilidan anketalashtirish yoki adabiy tildan tarjima qilish kabilar lingvistik kartani baholashda hisobga olinadi.

Lingvistik geografiya metodi bilan tilning istalgan aspektini fonetika (fonologiya), morfologiya, sintaksis, leksik-semantik, stilistik kabi aspektlarini tavsif etish mumkin. Lekin atlaslarda tilning hamma hodisasi o‘z aksini topa olmaydi. Bu hol atlasning turi va hajmi bilan bog‘liq. Lingvistik atlaslar yangi hodisalarni ham, tilda yo‘qolib boradigan hodisalarni ham o‘zida aks ettirishi lozim. Hozirgi atlaslar eski atlaslardan farqli ravishda til hodisalarini har taraflama o‘rganishga bag‘ishladi [Бородина 1966; Сарыбаев 1977].

Til hodisalarini yoki dialektal hodisalarni tadqiq qilishda ko‘pincha yondosh tillar va ularning shevalari materiallari bilan chog‘ishtiriladi. Bu, albatta, to‘g‘ri. Chunki qo‘shni tillar va shevalaridagi lingvistik hodisalar bir-biriga doimo o‘tib turadi. O‘tish hodisasi taraqqiyotning keyingi davri va masofaning yaqinligi bilan xarakterlanadi.

Ammo til va dialektlar taraqqiyotining qadimiy davri uchun xarakterli bo‘lgan ayrim hodisalarni izohlashda yondosh tillar va shevalardan hamma vaqt ham material topilavermaydi. Masalan, namangan gruppa shevalari uchun xarakterli bo‘lgan **r** undoshining o‘zidan keyin kelgan hamma til oldi undosh (*туссин* – tursun, *боддъ* – bordi, *жужжън* – xurjin, *оттоқ* – o‘rtoq, *кәттәшкә* – kartoshka)lariga singib ketishi Farg‘ona vodiysidagi boshqa shevalarda uchramaydi [Шерматов 1966: 13]. Ammo aynan shu hodisaning o‘zi O‘zbekistonning janub qismida joylashgan Qashqadaryo viloyatidagi shahar tip shevalarida mavjud. Bu hodisaning innovatsiya markazi qaysi ekanligi va uning irradatsiya markazi tarixan qay tomondan qay tomonga yo‘nalganligi haligacha noma’lum. O‘zbek shevalari atlasi yaratilganda mana shunga o‘xshash ko‘pgina muammoli masalalar yechimini topadi.

Shuning uchun kartalashtirilishi lozim bo‘lgan dialektal hodisalarni tanlashda shu territoriyada joylashgan sheva va dialektlar orasidagi eng muhim farqli hodisalar hisobga olinib, har bir sheva o‘z dialekti yig‘indisida, shu dialekt sistemasida o‘rganib chiqiladi. Chunki material yig‘ish uchun mo‘ljallab tuzilgan anketadagi savollar izoglossalar hosil qiluvchi til xodisalariga bag‘ishlangan bo‘lishi darkor. Har bir kartani tuzishda dastlab kartalashtirilgan til hodisalarining tarqalish chegarasi – izoliniyasi aniqlanib chiqiladi. So‘ngra, har xil sheva va dialektlarda mavjud bo‘lgan bir xil til hodisalari izoglossa sifatida kartalashtiriladi.

V.V.Reshetov o‘zbek shevalari dialektologik atlasi tamoyillarini asoslab berdi [Решетов 1958: 67-68]. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti turkiy va mo‘g‘ul tillar laboratoriyasida akademik Sh.Shoabduraxmonov boshchiligida [Шоабдурахманов 1958: 50-56]. Bizning QR o‘zbek shevalari dialektologik atlasini tuzishda hudud (areal)larning o‘zaro aloqasi lingvistik nuqtai nazardan dinamik bo‘lib, izoglossalarning kirib kelish, tarqalish areali, kuchliroq shakllarning kuchsizroq shakllar tomonga qarab siljishi, adabiy til va hudud shevalarining o‘zaro aloqada namoyon bo‘lishi, tilning taraqqiyot bosqichlari, chiziqlarining muvofiqlashuvi, markazga qanchalik yaqin yoki markazdan uzoqlashgan sari izoglossalarning quyuqlashib boraverish sabablari konkret misollar orqali izohlanadi.

Shundan kelib chiqib, o‘zbek adabiy tilida otning 3-shaxs egalik affiksi ***-си*** Qoraqalpog‘istondagi ***дж***-*lovchi* qipchoq dialekti ***-жиги*** formanti bilan: *бәржиги* – barchasi; *ҳәммәжиги* – hammasi kabi ifodalansa, uning to‘rtko‘l-ellikqal’a shevalarida ***-чики*** formanti qo‘llanadi: *бәрчики, әммәчики.* Har ikkalasida ham *bari, barcha, hamma* belgilash olmoshlari doirasida qao‘llanadi. O‘zbek tili qo‘ng‘irot shevasida **ə (a)** til oldi, ochiq, keng unlisi so‘zlarning ikkinchi va undan keying bo‘g‘inlarda o‘rta-keng **э (e)** unlisiga mos keladi: *мәлле* – malla, *кәлле* – kalla, *әзелден* – azaldan kabi. Bu hodisa qoraqalpoq tilining ta’sirida yuzaga kelgan. O‘zbek tilining Samarqand viloyati G‘allaorol, Baxmal; Janubiy Qozog‘istondagi Turkiston guruhida ham keng tarqalgan [Дониёров 1979: 156; Мухаммаджонов 1981].

Olmoshlar bo‘yicha. мен, сен, уол(у) kishilik olmoshlari jo‘nalish kelishigida: *маңа* – menga, *саңа* – senga, *уоңа / уошыға* – unga; mazkur shakl o‘zbek tilining qurama (***дж***-*lovchi*), Sherobod, Samarqand viloyatidagi qipchoq, Farg‘ona viloyatidagi qoraqalpoq, Janubiy Qozog‘iston, Shimoliy Tojikistondagi qipchoq shevalarida ham qayd qilindi. Turkiyshunoslikda mazkur shaklning kelib chiqishi haqida har xil fikrlar bildirilgan, ulardan biri *уоған*:*уоңа* – unga, **н** va **г** undoshlari metateza yo‘li bilan o‘rinlarini almashtirgan. E.V.Sevortyan ***-ған*** bevosita o‘zakka qo‘shilgan bo‘lib, u tarixan ikki tarkibli **-ға + -н** deb ko‘rsatadi [Севортян 1983: 66-70]. A.Ishayev E.V. Sevortyanning turkiy tillarga genetik jihatdan yaqin va uzoq qarindosh tillarga qiyoslash orqali E.V.Sevortyan fikrini to‘ldiradi.

Lingvistik kartalarda belgilangan shevaga xos hodisalarning tarqalish areali, tillarning o‘zaro aloqasi, taraqqiyot bosqichlarini belgilash, shevaga xos lingvistik hodisalarning kelib chiqish tarixini tiklaydi.

Dialektlardagi ishlab chiqarish, kasb-hunar yoki mehnat taqsimoti natijasida paydo bo‘lgan har bir so‘z, atama yoki termin muayyan dialektning leksik sistemasida umumiste’mollik vazifasini bajaradi: *bosh cho‘pon, enchididor qo‘y* kabi [Данияров 1975: 104]. Bu qishloq territoriyasida joylashgan dehqon-fermer xo‘jaligi aholisining barchasi chorvachilik yoki dehqonchilik bilan shug‘ullanishidan darak beradi. Demak, dialektal termin dastlab shu dialekt vakillarining hammasiga xos bo‘lgan so‘zlar bazasida vujudga keladi. Masalan, *момо* buvi va *чеча\яәңгә\жеңге* kelinoyi so‘zlari butun Qoraqalpog‘iston territoriyasida *buvi, kelinoyi* ma’nosida qo‘llanadigan so‘z bo‘lishi bilan birga, qarindosh-urug‘chilik terminlari hamdir.

Dialektlardagi har bir lingvistik hodisa o‘zining muayyan hududga tarqalish chegarasi bilan belgilanadi. Natijada Markaziy Osiyo va Qozog‘iston territoriyasida joylashgan turkiy tillarning dialektologik atlasi yaratiladi [Сарыбаев 1979: 39]. Kartada Xorazm viloyati Gurlan, Yangibozor tumanlari, Turkmaniston Respublikasi Toshhovuz viloyati Ko‘hna Urganch, Gubadog‘, Ilolli, Toshhovuz tumanlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan o‘zbek qishloqlari shevalaridan yig‘ilgan sinxron materiallar xarakteriga ko‘ra: 1) boshlang‘ich yoki tayanch karta, unda jadvallar materiallari muhim ahamiyat kasb etadi; 2) oraliq yoki yig‘ma karta. Bu kartada bir tipli yoki chog‘ishtiriladigan hodisalar jamlanadi. Mazmuni va material joylashtirish tamoyili jihatdan tayanch karta ish bajarishi jihatidan sintetik yoki analitik bo‘lgan holda faqat tematik kasb etadi. Kartadagi lingvistik nagruzka xarakteri tilning territorial tarqalishi yoki tayanch punktlarning siqiqligi bilan belgilandi. Tayanch tarmoq juda qalin bo‘lsa, hamma aholi punkti yoppasiga anketalashtiriladi. Kartalashtirish asnosida turli tasvirlar, figuralar, shtrixlardan foydalanildi. Ayrim nomlar belgi bilan tamg‘alandi. Kartani o‘qishni osonlashtirish maqsadida bir-biriga mos keluvchi affikslar va so‘z shakllari bir xildagi belgi ko‘rinishida berildi.

Xullas, lingvistik kartalarda belgilangan shevaga xos hodisalarning tarqalish areali, tillarning o‘zaro aloqasi, taraqqiyot bosqichlarini belgilash, shevaga xos lingvistik hodisalarning kelib chiqish tarixini aoiqlash, turlicha ko‘rinishga ega bo‘lgan hududiy sheva mazmuni bilan uni

ifodalovchi sheva chiziqlarining turli siqiqligi, birlashtiruvchi va ajratib ko‘rsatuvchi o‘zgachaliklarini kartalarda aks ettirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезмских говоров. – Ташкент: Фан, 1967.
2. Авенесов Р.И. Заключительное слово на координационым совещании по вопросам диалектологии тюркских языков. – «Вопросы диалектологии тюркских языков», Баку, 1958.
3. Бородина М.А. Ареалогия и некоторые вопросы романского языкознания **Вопросы** языкознания, 1975. -Т.2. –С.47.
4. Данияров Х. Опыт изучения джекающих диалектов в сравнение узбекским литературным языком. Ташкент, 1975, с.104
5. Джураев А.Б. Теоритеческие основы ареального исследования узбекоязычного массива. –Ташкент: Фан, 1991, -220 с.
6. Дониёров Х. Қипчоқ диалектининг лексикаси (Шарқий группа қыпчақ шеваларининг материаллари асосида), «ФАН», Тошкент. 1979, 156 б.;
7. Мухаммаджонов Қ. Жаубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. «ФАН», Тошкент. 1981 б. .
8. Мороховская О.Н. Формирование названий жилых построек в русском языке \\ Общий славянский лингвистический атлас. Материалы и исследования .1980. С.94-96.
9. Решетов В.В. О диалектологическом атласе узбекского языка, «Тезисы докладов II Регионального совещания по диалектологии тюркских языков», Казань.1958. стр. 67-68.
10. Сарыбаев Ш.Ш. Проблемы казахской региональной лексикографии. АДД. Алма-Ата, 1979, 39 с.
11. Севортян Э.В. Из истории тюркских прилагательных. Тюркологические исследования, М-Л., 1983, 66-70 с.

O‘ZBEK SHEVALARIDAGI FRAZEMALARNING AKSIOLINGVISTIK TADQIQI

AXIOLINGUISTIC STUDY OF PHRASES OF THE UZBEK LANGUAGE

Zulxumor Xolmanova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori
zulxumor-uzmu@mail.ru

Annotatsiya. *Frazemalarda til egasining ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, idroki, baholash me’yorlaridan kelib chiquvchi farqli belgilari mavjud. Frazemalar ikki yoki undan ortiq leksemalarning birikib, yaxlit bir ko‘chma ma’noni ifodalashiga asoslangan lug‘aviy birliklar bo‘lib, ma’lum kognitiv jarayonlar asosida til birligiga aylanadi. O‘zbek shevalaridagi frazemalar til sohiblarining turmush tarzi, turkiy xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari haqida qimmatli ma’lumot beradi.*

O‘zbek shevalaridagi frazemalarda fe’l-atvor, xarakter-xususiyatga oid qalriyatlar o‘z ifodasini topgan. Insonning jismoniy harakati va aqliy faoliyati, xulq-atvori frazemalar orqali ta’sirchan aks ettiriladi. Frazemalar voqelikni real hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan holatda baholab, belgi, harakat-holatning yuqori darajasini ifodalashga yo‘naltiriladi. Bunday frazemalar kognitiv metafora, metonimiyaga asoslanib, til sohibining tafakkur kuchi, badiiyatni his qilish salohiyati va baholash munosabatini ifoda etadi. Frazemalar narsa-buyum, voqea-hodisani baholash modellarini o‘z ichiga oladi. Frazemalar tarkibida tarixiy, arxaik leksemalarning saqlanib qolishi jihatidan struktur-semantik qiymatga ega.

Kalit so‘zlar: *frazema, real voqelik, kognitiv omil, araxaiklashuv, kognitiv metafora, kognitiv metonimiya.*

Abstract. *Phrasemes have different signs that come from the socio-cultural lifestyle, perception, and evaluation standards of the language owner. Phrasemes are lexical units based on the combination of two or more lexemes to express a single figurative meaning, and become a language unit based on certain cognitive processes. Phrases in Uzbek dialects provide valuable information about the lifestyle of the speakers, the cultural development of Turkic peoples, and social and political relations.*

Phrases in Uzbek dialects express character, character-characteristics. A person's physical movement, mental activity, and behavior are effectively reflected through idioms. Phrases evaluate reality in a situation that cannot happen in real life, and are directed to expressing a high level of character, action-state. Based on cognitive metaphor, metonymy, such phrases express the thinking power of the language owner, the capacity to feel the artistry, and the evaluation attitude. Phrases include object-item, event-event evaluation models. Phrasemes have a structural-semantic value in terms of preservation of historical, archaic lexemes.

Key words: *phrase, real reality, cognitive factor, archaicization, cognitive metaphor, cognitive metonymy.*

Shevalar tafakkur, madaniyat, tilning boshlanishi hisoblanadi. O‘zbek tilida qo‘llanadigan forscha-tojikcha *sheva* termini turk tilida *ağız* atamasi bilan nomllanadi. Turkiy qatlamga mansub *ağız* leksemasida “boshlanish” semasi mavjud.

Turk olimlari Hadra Kübra, Erkınay Tamtamışlar *ağız* so‘zida “boshlang‘ich” (“başlangıç”) semasi mavjudligi, shu sema asosida *yolun ağzı* “yo‘lning og‘zi”, *tünelin ağzı* “tunelning og‘zi”, *ırmağın ağzı* “irmoqning og‘zi” birkmalari tarkibidagi *ağız* so‘zi bilan aloqadorligi, *ağız sütü* birikuvida “tug‘ruqdan keyingi ilk (boshlang‘ich) sut” ma’nosini anglatishi haqida fikr bildirganlar. Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, inson tana a’zosini bildirgan *ağız* so‘zi bilan sigir sutining ilk uch kunlik davridagi ko‘rinishini bildirgan *ag‘iz* aslida bir so‘zdan, “boshlanish” semasidan shakllangan leksik omonimlardir.

Og‘iz I “tana a’zosi” – *og‘iz II* “taom” omonimlari o‘zbek tilida ham mavjud. Shavkat Rahmatullayev *og‘iz* I leksemasini “ikki lab oralig‘idagi teshik, “jag‘lar” oralig‘idagi bo‘shliq ma’nosida izohlagan. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “teshik” ma’nosini anglatgan ağ otidan kichraytirish ma’nosini ifodalovchi *-iz* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan (ESTY,I,82; Devon,I,89; DS,21).

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *og‘iz I* “tana a’zosi” ma’nosidagi birlikning 8ta ma’nosi keltirilgan. Sakkizinchi ma’nosi “ko‘chaning, yo‘lning boshlanish, kiraverish joyi” deb qayd qilingan: *ko‘cha og‘zi.*

E. Sevortyanning etimologik lug‘atida *og‘iz II* “taom” qadimgi turkiy tilda “uvib tush-, quyuqlash-” ma’nosini anglatgan *ağ* - fe’lidan *-(u)z* qo‘shimchasi bilan yasalgani aytilgan (ESTY,I, 406; DS, 24).

Aslida *og‘iz I* “tana a’zosi” – *og‘iz II* “taom” (turk tilida: *âg‘iz I* “tana a’zosi” – *âg‘iz II* “ağız sütü”) o‘rtasida “boshlang‘ich” semasi asosidagi aloqadorlik mavjud va bu sema tilning tarixiy taraqqiyoti natijasida sezilmay qolgan. Ko‘p ma’noli so‘zdan ma’no bog‘lanishining yo‘qolishi natijasida omonim yuzaga kelgan. Bu omonimlar qatori semantik usulda hosil bo‘lgan.

Shevalar frazemalarning ham boshlang‘ich manbasidir. Frazemalar til taraqqiyotining keyingi jarayonlarida yuzaga kelgan leksik-semantik, struktur-grammatik jarayonlar mahsuli bo‘lib, til sohibining ma’lum darajadagi tafakkur tarzini taqozo etadi. Keyingi yillarda frazeologizmlar barqaror birikmalar tarkibida qayd etilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, frazemalar barqaror birikmalarning boshqa ko‘rinishlaridan ko‘chma ma’noga asoslangan yaxlit bir lug‘aviy ma’noni ifodalashi bilan farqlanadi.

Buyuk mutafakkirlarimiz yaratgan aforizmlar maqollarning dastavval ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilib, keyinchalik anonim janr sifatida xalqqa nisbat berilganini asoslaydi. Xuddi shuningdek, frazemalarning yaratuvchisi ham yuksak tafakkur, teran idrok sohiblaridir. Frazemalar o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotining mahsuli, murakkab jarayon sifatida qaraladi, uning shakllanishida shaxs idroki va tafakkuri muhim o‘rin tutadi. Frazemalar ham xuddi maqollar singari shaxs tafakkuri mahsullaridir.

O‘zbek tilida ajdodlarimiz tafakkuri, xalq turmush tajribasi mahsullari bo‘lgan frazemalar ham borki, ularning ma’lum qismi shevalarda aks etgan. O‘zbek shevalari tarixiy, arxaik frazemalar saqlanib kelayotgan muhim manbadir [Xolmanova, 2022]. Shevalarda *momosini kurtigini yegan* (tarbiyali), *chumolining oshqozonini ko‘radigan* (uddaburon), *betini suvini besh to‘kmoq* (obro‘sizlanmoq) kabi frazemalar qo‘llanadi. O‘zbek frazemalari lug‘atidan shevalarga xos frazemalar ham o‘rin olgan [Rahmatullayev, 1992; 2022].

O‘zbek shevalarida qo‘llanadigan *betini suvini besh to‘kmoq* frazemasi insonning “obro‘sizlanish” holatini aks ettiradi. Frazema tarkibidagi *bet suvi* qo‘shma so‘zi arxaik hisoblanib, hozirgi o‘zbek tilidagi *obro‘* ma’nosiga teng keladi. *Momosining kurtigini yegan* frazemasi “tarbiyali” tushunchasini anglatadi. Frazema tarkibidagi *kurtig* turkiy xalqlarga xos taom nomi bo‘lib, o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi, shevalarda saqlanib qolgan. Frazema semantikasida turkiy xalqlar madaniyatida buvilar tarbiyasiga namuna model sifatida baho berilgani aks etgan. O‘zbekcha-turkcha frazemalarning aksiolingvistik tahlili barqaror birikmalar semantikasidagi qadriyat va baho qiymatini aks ettirishda muhimdir.

Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining og‘uz lahjasi vakillari tilida qo‘llanadigan "*Go‘zzi kambog‘olni otizidin*" iborasi salbiy ma’noda qo‘llanilib, ko‘zi alang-jalang bo‘layotgan odamga nisbatan ishlatilib, mazkur iboraning shu sheva muloqotida “*go‘zzi olmo teradi, “Go‘zzi chonoqinnon chiqodi”, “go‘zzi po‘stinni yirtiqidin*” degan salbiy bo‘yoqdorlikka ega variantlari ham uchraydi.

"*O‘yinnan ko‘pirni teyi yoxshi"* iborasi bir so‘z bilan aytganda, *daydi* so‘ziga teng keladi. *Oyrim odomloro uzini o‘yinnan ko‘pirni teyam yoxshi bo‘lodi* (shu sheva og‘zaki nutqidan).

"*Cholo eshitib, chotmoni yiqodi*" iborasi yo‘q narsaga vahima soladigan odamga nisbatan ishlatilib, o‘zbek adabiy tilidagi "*Pashshadan fil yasamoq*" iborasiga sinonim bo‘la oladi. *Cholo eshitip chotmonni yiqosanay uka* (shu sheva og‘zaki nutqidan).

“*It o‘lgan yer*” uzoq yer, “masofasi uzoq” degan ma’noni anglatadi[1].

[1] Sheva materiallarini shu sheva sohibi Z.Ibragimova taqdim etgan.

Ellikqal'a o'g'uz lahjasi vakillari tilida *so'z bermek, janyny almak* frazemalarining semantik qurilishida ikkita ma'no mujassamlashgan bo'lsa, *ustunden dusmek, ses bermek* frazemalarining birdan ortiq ma'no ifodalashini ko'rish mumkin**.** ***So'z bermek*** bir narsaga va'da bermoq, ahd qilmoq; kimningdir fikriga qo'shilmoq; ***janyny almak*** 1. O'ldirmoq. 2. Yurakka tushmoq.

Yomg'ir ekinning ***ko'ziga tegdi*** – Jizzax hududida ekinning unib chiqishi uchun ayni vaqtida yog'gan yomg'irga nisbatan aytiladigan ibora.

Bovur bosib qoldi – yangi tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan undan avval tug'ilgan opa yoki akasining mehri tushib qolishiga nisbatan ishlatiladigan frazema.

Paytavasi qo'qigan – beparvo, hech narsa bilan ishi yo'q dangasasifat odamga nisbatan aytiladigan frazema[1].

Qipchoq shevalarida "betini suvini besh to'kib" degan frazema qo'llanadi. Bu frazemada *bet suvi* deganda "obro', e'tibor" nazarda tutilgan. Bu tushuncha o'zbek tilida *obro'* so'zi bilan ifodalanadi (***ob*** – suv, ***ro'–*** yuz). "Qutadg'u bilig"da *obro'* **yüz suvï** "yuz suvi" parafrazasi orqali ifodalangan. *Otunqa qatïlma ey aslï arïγ, yüzüŋnüŋ suwïn eltgä sendin arïγ* – Tubanga aralashma, ey asli toza, sendan yuzingning suvini pok-pokiza olib ketadi [ya'ni tuban sening obro'yingni to'kadi] (QBN, 4185; 155a3). Asarda qo'llangan yüzi süvlan= iborasi "obro' qozonmoq" ma'nosini ifodalagan.

Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida qadriyatlarni o'rganadigan alohida yo'nalish – aksiolingvistika yuzaga keldi. Aksiolingvistika qadriyatlarning lisoniy voqelanishini tahlil qiluvchi soha bo'lib, til sohibining voqelik, narsa-hodisa haqidagi baho munosabatini o'rganadi.

Xorij tilshunosligidagi tadqiqotlarda qayd etilgan, leksemalarni aksiolingvistik yo'nalishda tahlil qilish usullaridan biri etnosemiometriyadir. Bu metod lisoniy birliklarni xalqning intellektual va ma'naviy madaniyatini tashkil etuvchi konseptual tuzilmalar bilan bog'liq holda ko'rib chiqishga qaratilgan usuldir.

Lisoniy birliklarning etnosemiometrik tahlili lisoniy birlikning etimologiyasi, izohli, ensiklopedik lug'atlardagi, badiiy matndagi ma'nolarini ko'rib chiqishga asoslanadi. Lug'atlardagi izohlar leksemaning ma'nolari, semalarini aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu o'rinda leksemaning birinchi bo'lib qaysi manbada va qaysi davrda qo'llangani ham muhim sanaladi.

Quyida etnosemiometriya yordamida so'z birikmasining frazemaga aylanishi va qadriyatni ifodalovchi lug'aviy birlik sifatida shakllanish jarayonini tahlil qilamiz.

Qipchoq shevalarida "aziz", "qadrli" ma'nosida *ko'zga dori* frazemasi ishlatiladi. Ko'zga dori" frazemasini tushunish uchun "aziz", "qadrli" ma'nosidagi *ko'zga to'tiyo qilmoq* frazemasiga murojaat qilish kerak bo'ladi.

To'tiyo forscha-tojikcha so'z bo'lib, turkiy xalqlarning eroniy xalqlar bilan muayyan ijtimoiy muhitda yashagan, madaniy-ma'naviy munosabatda bo'lgan davrlariga borib taqaladi. Keyinchalik, bu so'z faol qo'llanib, ma'no kengayishiga uchragan. *To'tiyo* izohli lug'atda shunday tavsiflangan: *To'tiyo* "mis zangidan hosil bo'lgan kristall"ni bildiradi. 1. Mis kuporosi (tiniq ko'k yirik kristallardan iborat modda, mis sulfat). Shahrisabz shevasida ishlatiladigan *totaki* – "yashil, zangori" rang ma'nosidagi leksema ham *to'tiyo* birligiga aloqadordir. 2. Qadimgi davrlarda ko'z og'rig'iga qarshi yoki ko'zni ravshan qilish uchun ko'zga surtiladigan dori [O'TIL, IV, 248].

Eski o'zbek tilida *to'tiyo, surma* so'zlari matn tarkibida *ko'z* leksemasi ishtirok etmasa-da, bevosita ko'zga aloqador voqelikni aks ettiradi.

Ma'lumki, o'z qatlam so'zlari semantikasida davrlar osha tilning ichki qonuniyatlari hamda tashqi omillar ta'sirida o'zgarishlar yuzaga keladi [Mirtojiyev,2010]. Bu holat o'zlashgan qatlam

[1] Jizzax shevasiga xos frazemalarni shu sheva sohibi S. Abdurahmonova taqdim etgan.

so‘zlari semantikasida ham kuzatiladi. O‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tili lug‘at fondiga kirgach, shu til birligi sifatida istifoda etiladi. O‘zlashgan so‘zlar muayyan tilning lug‘at fondida faol qo‘llana boshlagach, semantik o‘zgarishlar yuzaga keladi. Ma’lum davrlarda *to‘tiyo* ko‘zga surtiladigan surgini ifodalagan. Keyinchalik, “ko‘zga surish” semasiga asosan *ko‘zga to‘tiyo*, *to‘tiyo qilmoq* birliklari shakllandi. *Ko‘zga to‘tiyo* juda aziz, muqaddas yoki noyob narsalarga nisbatan ishlatiladi. *To‘tiyo qilmoq* “to‘tiyodek ko‘zga surtmoq, e’zozlamoq” [O‘TIL, IV, 248]. Bu o‘rinda to‘tiyoning noyobligi ham nazarda tutilgan. *To‘tiyo* malham sifatida surtilar ekan, uning tanqis bo‘lishi tabiiy hol. Keyinchalik, so‘z semantikasida “ko‘zga surish” semasidan “noyob, kamyob” semalari shakllandi. *Ko‘zga dori* juda qadrli va kam topiladigan narsa haqida ishlatiladigan ibora [O‘TIL, II, 446]. Bu semadan shakllangan *ko‘zga surtmoq* fe’li “aziz qilmoq, e’zozlamoq” ma’nosini bildiradi. *Ko‘zga surtmoq* ortiq darajada qadrlamoq, e’zozlamoq [O‘TIL, II, 446]. Non ushog‘ining ko‘zga surtilishi, muqaddas kitobni tavof qilish an’anasi shu semantik xususiyat bilan bog‘lanadi.

Ko‘rinadiki, *to‘tiyo,* dastavval, ko‘zga malham bo‘ladigan surgini ifodalagan, denotativ ma’noda qo‘llangan. Muayyan davrdan song *ko‘z* leksemasi semantikasida “ko‘zga surtish” semasi asosiy e’tibor nuqtasiga ko‘tarilgan. “Ko‘zga surtmoq” ma’nosidagi *to‘tiyo qilmoq* qo‘shma fe’li shakllangan. *To‘tiyo* leksemasida “ko‘k rang”, “kukun”, “malham”, “surgi” semalari mavjud bo‘lgan. Semantik kengayish natijasida “aziz qilmoq”, “e’zozlamoq” semalari yuzaga kelgan, *to‘tiyo qilmoq* tipidagi yangi leksema hosil bo‘lgan. Bu fe’l mumtoz lirikada ko‘p uchraydi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida bu birlik faol qo‘llangan. Masalan:

Necha oqg‘ay ko‘z yoshim, yetkur g‘uborin,

Ey, nasim, farzi ayn erur yoshorur ko‘zga solmoq to‘tiyo. Bu baytda *to‘tiyo* lug‘aviy birligining denotativ ma’nosi ifodalangan. Shoir ruhiy sitam oqibatida ko‘z yoshi to‘kkanini bayon qiladi va ko‘z yoshini to‘xtatish maqsadida unga malham bo‘luvchi g‘uborni yuborishni shamoldan so‘raydi. Bu o‘rinda *g‘ubor* so‘zining “kukun”, chang” ma’nosi nazarda tutilmoqda. Shoir fikriga misol keltiradi va tamsil san’ati asosida ta’sirchan ifoda hosil qiladi, yosharur, ya’ni yoshlanadigan (tabiiyki, ko‘zning yoshlanishi undagi jarohatdan yoki nosihatlikdan dalolatdir) ko‘zga malham sifatida to‘tiyoni surishlarini eslatadi, misol qilib keltiradi.

Demak, frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o‘ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko‘ra frazeologik birliklar alohida yondashishni, tadqiq qillishni talab qiladi.

Allohning ko‘zi o‘ng bo‘lsin, ayroni achimaydi, ahmoqqa Asaka bir tosh, arpasini xom o‘rmoq, beli og‘rimagan, ko‘kayi kesilmoq, kishi bilmas, bir beti bilan pishmoq kabi frazemalar ham shevalarda faol qo‘llanadi. Mazkur frazemalar o‘zbek xalqiga xos azaliy qadriyatlarning verbal voqelanishini ta’minlovchi vositalar sifatida qimmatlidir.

Frazemalar o‘zbek shevalaridagi olam manzarasini aks ettirish imkoniyatini namoyon qiladi. Frazemalar semantikasi tilning kognitiv tafakkur bilan aloqador belgilarini yoritishga xizmat qiladi. O‘zbek shevalardagi frazemalarni to‘plash va nashr etish, milliy til korpuslariga joylash tilshunoslikka doir tadqiqotlarni takomillashtirishda amaliy qiymatga egadir. Shuning barobarida o‘zbek tilining ijtimoiy funksiyalari, emotsional-ekspressiv xususiyatlarini tahlil qilishda, madaniy munosabat semalarini yoritishda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Топмадим. – Тошкент, 1998.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.

3. Раҳматуллаев, Ш. Ўзек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966.
4. Раҳматуллаев, Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992.
5. Rahmatullayev va boshqalar. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006 –2008.
7. Xolmanova, Z., Nasriyeva, D. O‘zbek shevalaridagi lakunar birliklar lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2022.

DIALEKTAL KORPUSNI QURISH VA UNING AHAMIYATI

CREATION OF DIALECTAL CORPUS AND ITS SIGNIFICANCE

Botir Elov
ToshDO‘TAU dotsenti, t.f.f.d. PhD

Oqila Abdullayeva
ToshDO‘TAU doktoranti, f.f.f.d. PhD

Annotatsiya*. Ushbu maqolada biz dialekt yoki shevani o‘rganishda dialektal korpusning nazariy va funksional rolini aniqlash uchun ba’zi asoslar berishga harakat qildik. Mazkur maqola orqali dialektal korpusning o‘ziga xos xususiyatlari, amaliy ahamiyati yoritildi.*
Kalit so‘zlar*: dialektologiya, dialekt, dialektal korpus, Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), raqamli platforma.*

Abstract*. In this article, we have tried to provide some foundations for determining the theoretical and functional role of the dialectal corpus in the study of a dialect. This article highlighted the specific features and practical importance of the dialectal corpus.*
Key words*: dialectology, dialect, dialectal corpus, Natural Language Processing (NLP), digital platform.*

O‘zbek kompyuter lingvistikasi va korpusshunosligida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan o‘zbek tilining dialektal korpusini yaratish va takomillashtirish ushbu sohada olib borilayotgan ishlarning sur’atini jadallashtirishga yordam beradi. Dialektal korpuslarning yaratilishi katta hajmdagi lingvistik ma’lumotlar bazasi va tarjima lug‘atlarini tuzishda, o‘zbek tilini avtomatik qayta ishlash, mashina tarjimasi va korpusga asoslangan tarjimashunoslikning ilmiy-nazariy muammolarini chuqur o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, har bir adabiy til tayanch dialektga ega bo‘lib, ma’lum bir sheva yoki shevalar guruhi adabiy til uchun asos, baza vazifasini bajaradi. Aynan shuning uchun o‘zbek korpus lingvistikasida dialektal korpusni tuzish muhim va ancha murakkab vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarida davrida har bir sohani kompyuterlar va sun’iy intellektsiz tasavvur qilish qiyin. Bugun dialektlarni o‘rganishning zamonaviy konseptsiyasi paydo bo‘lmoqda. Dialektni o‘rganishning zamonaviy konseptsiyasi ko‘plab yangi muammolar va masalalarni o‘z ichiga olish uchun yuqori darajada o‘zgartirilmoqda (Amery, 2009). Qadimgi

dialektologiyaning maqsadlarini o‘z ichiga olgan holda, zamonaviy dialektshunoslik quyidagi ishlarni qilishni taklif qilmoqda:

1) turli dialektlar va ularning mintaqaviy variantlaridan matnlarni va ma’lumotlarini elektron bazaga to‘plash;

2) ma’lumotlar bazalarini tizimli ravishda raqamli arxivlarda ekstralingvistik va lingvistik izohlari (annotatsiyalash) bilan saqlash;

3) inson va mashina uchun matnni ma’lumotlar bazasida tabiiy tilni qayta ishlash texnikasi va vositalaridan foydalanib ishlov berish;

4) yangi ma’lumotlarni topish va yangi xulosalar chiqarish uchun ma’lumotlar bazalarini hisoblash va statistik tahlil qilish;

5) sheva vakillari va boshqalar uchun leksik ma’lumotlar bazasi, lingvistik bilim matnlari va o‘quv materiallarini ishlab chiqish;

6) dialekt va til madaniyatini himoya qilish, saqlash va targ‘ib qilish uchun mavjud resurslardan foydalanish;

7) Tilni rejalashtirish va tilni qayta tiklash uchun dialekt ma’lumotlar bazasi va bilimlaridan foydalanish;

h) Ijtimoiy fanlarning turli sohalarida shevaga oid ma’lumotlarni taqdim etish.

Dialektal korpusning xususiyatlari

Uilyam Samarin dialektal korpusning oltita ajralmas xususiyatini taklif qiladi (Samarin, 1967: 55-68) va ularsiz dialektal korpus mavjud dialektni to‘g‘ri ifodalamaydi deb hisoblaydi. Samarin ushbu xususiyatlarni taklif qilganda, elektron platformada dialektal korpusni loyihalash haqida hech qanday fikr yo‘q davrlar edi. Dialektal korpusni sheva vakillarining muntazam nutqidagi matnlar bilan raqamli versiyada loyihalashda qo‘shimcha funksiyalar ajralmas hisoblanadi. Aslini olganda, zamonaviy dialektal korpus quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Dialektal korpusning xususiyatlari:

- **Miqdor**: Ma’lumotlar miqdori bo‘yicha u katta bo‘lishi kerak. Og‘zaki matnlarning har xil turdagi namunalari korpusda to‘planishi kerak. U nafaqat lingvistik ma’lumotlar va bilimlarni, balki shevalar jamoasi hayotining boshqa tomonlarini ham o‘z ichiga olishi kerak. Sheva vakillaridan olingan har qanday mos keladigan leksik resurs dialektal korpusda bo‘lishi kerak.

- **Sifat**: Axborot beruvchilardan to‘plangan matnlar tabiiy, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan, haqiqiy, tekshirilgan va ishonchli bo‘lishi kerak.

- **Vakillik**: Tanlangan ma’lumotlar va yig‘ilgan baza maqsadli guruh, ijtimoiy tabaqa, ularning hayoti va jamiyatdagi tilini aks ettirishi kerak degan ma’noda bir xil bo‘lishi kerak.

- **Tabiiylik**: Ma’lumot beruvchilar tomonidan yaratilgan matnlar va ma’lumotlar ma’lum bir sharoitda haqiqiy va mos deb qabul qilinishi kerak.

- **Turli-tumanlik**: Yosh, jins, din, ijtimoiy sinf va kasb-hunari kabi turli demografik o‘zgaruvchilarga tegishli bo‘lgan barcha turdagi matnlarni qamrab olishi kerak.

- **Muvozanat**: U turli yo‘llar va usullarda (tez, sekin, normal, norasmiy, tantanali, hissiy, sentimental, oddiy, tez, to‘xtab qolgan, duduqlangan, shoshqaloq, so‘zsiz) yaratilgan matnlarning to‘liq shakllarini o‘z ichiga olishi kerak.

- **Takrorlash**: Strukturaviy matnlar takrorlanishi mumkin. U matndagi so‘zlar, atamalar, grammatik elementlar, iboralar va boshqa komponentlarni aniqlashni osonlashtiradi. Shuningdek, u shubhali shakllar va so‘zlarni tekshirish hamda autentifikatsiya qilishda yordam beradi.

- **To‘liqlik:** barcha lingvistik elementlar hisobga olinadigan tarzda ishlab chiqilishi kerak. Tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘zlar, so‘z birikmalari, idiomalar, iboralar va jumlalarni tasvirlashi kerak.

- **Qiziqarli**: Unda shevalar jamoasining hayoti, urf-odatlari, qarashlari, marosimlari, madaniyati, afsonalari, tarixi, merosi va ekologiyasi haqidagi turli janrdagi matn va hikoyalar bo‘lishi kerak. Unda an’anaviy hikoyalar (dostonlar, hikoyalar, afsonalar), o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan hikoyalar (latifalar, tarixlar), faoliyat tavsiflari, obyektlar va vaziyatlar, voqealar, shuningdek, suhbatlar, muzokaralar va vositachilik kabi matnlarning bir nechta turlarini saqlash kerak.

- **Texnik**: Korpusga kiritilgan matnlar xatosiz, shovqinsiz va raqamlashtirish uchun mos bo‘lishi kerak. Nutq tezligi bir xil bo‘lishi kutilsa-da, shou va tezkor nutqlarga ham ruxsat beriladi.


- **Hissiy-emotsionlik**: ma’lumot beruvchilarning his-tuyg‘ulari va hissiyotlari (zavq, quvonch, og‘riq, qayg‘u, tashvish, umidsizlik, g‘azab va hasad) dialektal korpusda namoyon bo‘lishi kerak. Shaxsiy savollarga javob berish vaqtida ma’lumot beruvchilarning hissiy o‘zgarishlariga e’tibor qaratish lozim.

- **Madaniyatlilik**: U nutqning barcha mumkin bo‘lgan turlarini (rivoyatlar, guvohlar, xotiralar, shaxsiy hisoblar, ko‘rsatmalar, buyruqlar, rasmiy ifodalar, norasmiy muloqotlar, so‘rovlar, shikoyatlar, murojaatlar) o‘z ichiga olishi kerak: nutq turlari (bahslar, dialoglar, monologlar, o‘zaro ta’sirlar); matn turlari (qo‘shiqlar, qo‘shiqlar, beshiklar, raqs qo‘shiqlari, xalq qo‘shiqlari, topishmoqlar, latifalar, jaranglar); va nutq uslublari (hikoya, tavsif, tahliliy, tanqidiy, maqtov, minnatdorchilik, chaqaloq suhbatlari, aldamchi matnlar).

Dialektal korpusning ahamiyati

Elektron tarzda ishlab chiqilgan muvozanatli va vakillik dialektal korpusi hayotning barcha mumkin bo‘lgan tomonlari va yo‘llarini qamrab oluvchi katta hajmli va xilma-xil ma’lumotlar bilan ta’minlaydi (Himmelmann, 2006). Dialektal korpusning tahlili dialekt a’zolarining leksik bilimlarini aks ettiradi. Ko‘p o‘lchovli shakl va mazmun tufayli u ma’lum bir tadqiqot maqsadiga mos keladigan bir nechta tanlangan namunalar bilan qo‘lda tuzilgan an’anaviy dialekt ma’lumotlar bazalaridan ustundir. Elektron dialektal korpusi tuzilishi jihatdan katta, xilma-xil va ko‘p o‘lchovli bo‘lganligi sababli, u ma’lumot beruvchilar hayoti va jamiyatning barcha lingvistik va ekstralingvistik bilimlariga e’tibor qaratilishiga erishadi. U sheva va jamiyatning umumiy manzarasini ifodalaydi. Shuning uchun hayotni, jamiyatni va odamlarni ular foydalanadigan til ko‘zgusi orqali bilish va dialekt hamda adabiy til o‘rtasidagi farqli xususiyatlarini aniqlash uchun oz sonli dialekt ma’lumotlaridan ko‘ra katta va vakillik elektron dialektal korpusidan foydalangan ma’qul.

Dialektal korpusini qurish qiyin va ko‘p vaqt talab qiladigan ishdir (Ostin, 2013). Bu rejalashtirish, mablag‘, mutaxassis tilshunoslar, zamonaviy dasturiy vositalar va usullardan foydalanishni talab qiladi. To‘plangandan so‘ng, dialektal korpus matnni qayta ishlashning bir necha bosqichlaridan o‘tishi kerak (indekslash, matnni tozalash, normallashtirish, transkripsiya, domenlarni toifalash, tur-tokenlarni tahlil qilish, leksik tasniflash, chastotalarni taqsimlash, muvofiqlik, lemmatizatsiya, annotatsiyalash, birikma, so‘zlarni guruhlash, qayta ishlangan matnlarni yaratish uchun kontekstdagi kalit so‘z, tahlil qilish). Keyinchalik qayta ishlangan matn tilshunoslik va boshqa fanlarni o‘rganishda ishlatiladigan barcha lingvistik va ekstralingvistik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan asosiy matnni tayyorlash uchun ishlatiladi. Quyidagi diagramma dialektologiya va boshqa sohalardagi tadqiqotlar uchun lingvistik va ekstralingvistik ma’lumotlar va dialekt korpusining ma’lumotlaridan qanday foydalanishini ko‘rsatadi.



Zamonaviy tadqiqotlarda dialektal korpus dialektning ko‘plab masalalarini tushunish uchun ishlatiladi. Bu shevaning joy va vaqt bo‘yicha qanday o‘zgarishini bilish uchun ishlatiladi; dialektning so‘z boyligi vaqt o‘tishi bilan qanday ko‘payib, kamayishi; hodisalarga qarab so‘zlarning ma’nosi qanday o‘zgarishi; dialektning bir xil geografik mintaqada qanday o‘zgarishi; shevaning boshqa shevalar guruhidan qanday standartlashtirilgani va ekstralingvistik masalalar dialektning standart bo‘lishiga qanday yordam bergani yuzasidan muhim xulosalar olinishiga erishiladi. Agar tadqiqotlar to‘g‘ri va mukammal tuzilgan vakillik dialektal korpusiga asoslangan bo‘lsa, yuqoridagi masalalarni hal qilishi mumkin.

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo‘ldi... To‘rt yashar qizchasi qo‘liga ro‘molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo‘uriydi: ba'zan qo‘lida ro‘molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Sotiboldi qizchasini o‘lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganida qizcha uyg‘ondi va ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

–*Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin* [A.Qahhor 2007: 43-44].

Matnda bola nutqida qo‘llangan dialektal elementlar uning ijtimoiy differensial jihati (hududiy xoslanishi)ga ishora qiladi. Bolaning onasiga nisbatan shevaga xos ***ayamdi*** so‘zshaklini ishlatishi nutqning hududiy xoslanishini ko‘rsatadi. So‘zshaklining adabiy talaffuz me'yorlariga nomuvofiq tarzda aks ettirilishi esa ayni nutqiy ifodaga e’tiborni tortib, uning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Xullas, nutqning shakllanish bosqichida narsa-hodisa va harakat-holatlarni aks ettiruvchi bir qator leksik birliklar muloqot muhitiga bog‘liq holda so‘zlovchi nutqida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Ularning aksariyati hududiy va ijtimoiy belgilar ta’sirida yuzaga keladi va bolalar nutqining dialektal xususiyatlarini namoyon qiladi. Kichik yoshdagi bolalar nutqiga xos leksik

dialektizmlarning funksional-semantik xususiyatlarini monografik aspektda tadqiq etish o‘zbek tilshunosligidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Швейцер А.Д., Никольский Л.Б. Введение в социолингвистику. – М.: Высшая школа, 1978.
2. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.
3. Жирмунский В.М. Вопросы социальной лингвистики. – Л.: Наука, 1969.
4. Қаҳҳор А. Бемор // Танланган асарлар. – Тошкент: Ғ. Ғулом, 2007.

SHO‘RRABOD QISHLOG‘I SHEVASINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (KELISHIKLAR MISOLIDA)

GRAMMATICAL CHARACTERISTICS OF THE DIALECT OF SHORRABAD VILLAGE (EXAMPLE OF CONJUNCTIONS)

Rahmatov Mardon Mehmonovich
filologiya fanlari doktori, dotsent,
ToshDO‘TAU
mardonrahmat@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilining Qorako‘l tumani Sho‘rrabot qishlog‘i shevasining grammatik xususiyatlari kelishik kategoriyalari misolida o‘rganilgan. Shevaning o‘g‘uz shevalariga munosabati kelishik shakllari misolida ochib berilgan, ayrim o‘rinlarda sheva materiallari yondosh hudud shevalariga qiyoslangan. Mazkur grammatik shakllar tahlilida tasviriy, tavsifiy, taqqoslash, qiyosiy-tarixiy kabi bir qator lingvistik tahlil metodlaridan foydalangan.*
Kalit so‘zlar: *sheva, kelishik, o‘g‘uz, qarluq, affiks, grammatik shakl, grammatik xususiyat.*

Abstract. *The article examines the grammatical features of the Uzbek dialect of the village of Shurrabot in the Karakul district of the Bukhara region on the example of cases, which differ in some forms and meanings from other dialects of the Uzbek language. The article also reveals the relationship of this dialect to the Oguz dialects of the Uzbek language. In some places, the studied dialect material is compared with the dialects of the neighboring territory. A number of linguistic methods of analysis, such as descriptive, comparative, and comparative historical, were actively used in the analysis of these grammatical forms.*
Key words: *dialect, category of cases, Oghuz, Qarluq, affix, grammatical form, grammatical feature.*

Qorako‘l areali Buxoro o‘zbek shevalari orasida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur hududda tarixan ko‘plab turkiy urug‘ va qabilalar yashab kelgan. Bugungi kunda ularning ko‘pchiligi urug‘ va joy nomlari sifatida saqlanib qolgan. Tadqiqotchilar olimlar ayni shu nomlarga qarab shu yerda yashayotgan mahalliy aholining – o‘zbeklarning etnik kelib chiqishini belgilovchi faktor sifatida qarashadi. Shunday toponimlarning ba’zilari qadimgi o‘g‘uz (Sayyot,

Solur – o‘g‘uz tipiga kiruvchi shevada gaplashishadi) [Шамсиддинов 1964: 14-15], qadimgi qipchoq (Do‘rman – hozirda qarluq-o‘g‘uz tipiga kiruvchi shevada gaplashishadi) qabila va urug‘lariga tegishlidir. Shuningdek, arealda yana bir tip shevalar borki, ular haqida dialektologik tadqiqotlarda, boshqa ilmiy adabiyotlarda ma’lumot berilmaydi.

Qorako‘l arealida asosan turkiylarning o‘g‘uz va qarluq lahjalarida gaplashuvchi aholi vakillari istiqomat qiladi. Mazkur shevalarning lingvistik xususiyatlari tilshunoslar olimlar e’tiboriga tushgan [Шамсиддинов 1964; Аллаберганов 2016: 214]. Ularning tadqiqotlari asosan arealdagi o‘g‘uz shevalari tadqiqiga qaratilgan. Jumladan, I.Shamsiddinov, A.Allaberdiyevlarning tadqiqotlari tumanning o‘zbek o‘g‘uz shevalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. I.Shamsiddinov o‘z tadqiqotida Qorako‘l o‘g‘uz shevalarining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini Xorazm o‘g‘uz shevalari bilan qiyoslab o‘rgangan bo‘lsa, A.Allaberganov Buxoro o‘g‘uz shevalari leksikasini o‘rgangan. U ishda innovatsion markaz sifatida Qorako‘l o‘g‘uz shevalarini oladi va viloyat o‘g‘uz shevalari leksikasini tahlil qiladi. Har ikkala tadqiqot ham qiyosiy xarakterda bo‘lib, ikki mustaqil o‘g‘uz areallariga xos o‘xshash va farqli jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, D.Abdurahmonov ham Buxoro o‘g‘uz shevalarini yuzasidan turkum maqolalar e’lon qilgan [Абдураҳмонов 1981: 18-24].

I.Shamsiddinovning ta’kidlashicha, Qorako‘l areali til xususiyatlariga ko‘ra o‘zbek tilining o‘g‘uz guruhi shevalariga yaqin turadi, ammo, ayni vaqtda, uning ayrim lingvistik belgilari qarluq tipidagi Buxoro shevalari guruhiga ham mos kelishini e’tirof qilaydi. Shuning uchun olim Qorako‘l shevalarini aralash tipdagi shevalar qatoriga kiritishni ma’qul topadi hamda ularni o‘g‘uz tipli shevalaridan qarluq tipli shevalarga o‘tayotgan oraliq shevalar qatoriga qo‘shadi, ammo olim bu fikriga qo‘shimcha izoh bermaydi [Шамсиддинов 1964].

I.Shamsiddinov tadqiqot obektlari qatorida Paykent (hozirgi manbalarda Poykent), Sho‘rovot (Sobiq sho‘rolar davrida Sho‘robod, hozirgi rasmiy nomi Sho‘rrabot) aholi punktlari nomlari ham keltiriladi. Ammo tadqiqot obyekt sifatida tilga olingan mazkur aholi punktlarida yashovchi sheva vakillarning til xususiyatlari haqida ma’lumot berilmaydi.[1] Shuningdek, Qorako‘l shevalari xususida M. Mirzayev tadqiqotida ayrim mulohazalar keltiriladi. Ya’ni viloyat hududidagi boshqa o‘g‘uz shevalari qatorida Qorako‘l o‘g‘uz shevalarining ayrim fonetik, morfologik va leksik xususiyatlariga e’tibor qaratadi va ularga o‘z munosabatini bildiradi [Мирзаев 1969: 10-19], ammo bu ishda ham mazkur hudud o‘zbek shevalari va ularning til xususiyatlari tilga olinmaydi.

Ma’lumki, o‘zbek tilining grammatik kategoriyalari o‘zbek adabiy tili va shevalari uchun shaklan bir xil bo‘lib, uni tashkil etadigan so‘z shakllari, to‘g‘rirog‘i, affikslarining rang-barangligi bilan adabiy tildan farqlanadi. Albatta, shevalarning bu xususiyati uning boyligidan darak beradi. Biz ushbu maqolada faktik materiallarga tayangan holda (sheva egasi sifatida) Sho‘rrabot qishlog‘i shevasiga xos grammatik son, egalik va kelishik kategoriyalariga doir o‘z mulohazalarimizni bayon qildik.

Sho‘rrabot qishlog‘i shevasi o‘zining grammatik xususiyatlariga ko‘ra qarluq va qisman o‘g‘uz lahjalariga xos til elementlarini o‘zida aks ettiradi. O‘rganilayotgan shevaga xos til faktlariga tayanib aytish mumkinki, I.Shamsiddinovning Qorako‘l va Xarazm o‘g‘uz shevalariga xos grammatik xususiyatlarni o‘z ichiga olgan tasnifi mazkur shevaga to‘liq mos kelmaydi. Jumladan, shevada singarmonizmning kuchsiz saqlangani, grammatik shakllarning ko‘p jihatdan o‘g‘uz shevalariga mos kelmasligi kuzatiladi. Bu esa sheva vakillarining etnogenez jihatidan

[1]Poykent aholi punkti hozirda mavjud emas. Poykent XII asrdan keyin xarobaga aylangan. Hozirda u tepalik holiga kelib qolgan. Bu tarixiy shahar mahalliy aholi orasida shahri Hayvar yoki Poykan nomi bilan mashhur – sho‘rrabotliklar esa boshqa mahalliy aholi vakillari tomonidan poykentliklar deb yuritiladi.

qarluq guruh sheva vakillariga daxldor deb hisoblashga asos bo‘ladi. Ammo sheva vakillarining ko‘p asrlik faoliyati davomida o‘g‘uz sheva vakillari bilan yonma yon yashaganligi, doimiy madaniy-ijtimoiy aloqada bo‘lganligi nazarda tutilsa, bu ularning tiliga ham ta’sir qilmay qolmagan. Ularni kelishiklar misolida ko‘rib chiqsak.

Ma’lumki, tillarning tarixini o‘rganishda ilk yozma manbalarga tayaniladi. Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili va uning shevalari tarixi o‘rganilganda ham eng qadimgi turkiy yozma manbalarga murojaat qilinadi. Agar tilimizning dastlabki taraqqiyot davrida oltita kelishik shakli (grammatik ma’nosi yettita) qayd qilinsa, keyinchalik turkiy tillarga ularning soni va grammatik ma’nosida o‘zgarishlar yuz bergan. M. Mirzayev Buxoro o‘zbek shevalarida kelishiklarni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruhga differensiyalashgan to‘rt kelishikli (bosh, tushum, jo‘nalish, chiqish kelishikligi bilan farqlanuvchi) va ikkinchi guruhga differensiyalashmagan ikki kelishikli (qaratqich va o‘rin-payt kelishiklari) shevalarni kiritadi. Sho‘rrabot qishlog‘i shevasi besh kelishikli (bosh, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari) bo‘lib, ular qat’iy differensiyalashgan. Qarluq va ayrim o‘g‘uz shevalarida bo‘lgani kabi mazkur shevada ham qaratqich va tushum kelishiklari farqlanmaydi: qaratqich kelishigi (*-ning*) tushum kelishigi (*-ni, -i*) shakllari bilan qo‘llanadi. Boshqacha aytganda, shevadagi tushum kelishigining *-ni, -i* shakllari formal jihatdan bir xil bo‘lib adabiy tildagi *-ning* qaratqich kelshigi vazifasini bajaradi. V. Reshetov ta’biri bilan aytganda, shevada *-ni* affiksi yagona qaratqich-tushum kelishigi shakli sanaladi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 35; Абдураҳмонов 1962: 360]. Bu sheva hodisasi boshqa areallarda ham uchraydi. Jumladan, Toshkent-Farg‘ona shevalarida [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 35; Абдураҳмонов 1962: 360], Denov kichik dialektal zonasi qarluq guruh shevalarida ham mavjud [Turdialiyev 2022: 25-28].

Kelishiklar	Adabiy tilda	Shevada
1. Bosh kelishik	-	-
2. Qaratqich kelishigi	*-ning*	*-ni; -i*
3. Tushum kelishigi	*-ni*	*-ni; -i*
4. Jo‘nalish kelishigi	*-ga // ka // qa // g‘a*	*-gä // kä // qä; -ä, -yä*
5. O‘rin-payt kelishigi	*-da*	*-dä, -tä*
6. Chiqish kelishigi	*-dan*	*-dän // tän*

Bosh kelishik. Mazkur kelishikning grammatik ko‘rsatkichi mavjud emas.

Qaratqich kelishigi. ***-niŋ*** shakli o‘rganilayotgan shevada affiks sifatida qo‘llanmaydi. Uning o‘rnida tushum kelishigining ***-ni, -i*** shakllari qo‘llanadi.

***-ni* qaratqich kelishigi**. Bu grammatik shakl shevada faol qo‘llanadi. Masalan: *daraxtning bargi ~ däräxni bägi*, yo‘lning boshi ~ *jölni bāši*, buqaning shoxi ~ *buqani šāxi*, kitobning varag‘i ~ *kitāpni varāγi* kabi.

Shevada qaratqich kelishingining belgisiz qo‘llanishi faol: *ariq/γ süvi//ariγni süvi*, *qišloγ(ni) ādämläri.* M. Mirzayevning qayd qilishicha, mazkur grammatik shakl tayanch shevalarga xos bo‘lib, shaklan tushum *-ni*, lekin ma’nosi jihatidan qarashlilik, xoslikni bildiradi [Мирзаев 1969: 47]. Kelishikning bu tarzda qo‘llanishi Xorazm, Chimkent o‘g‘uz shevalarida ham kuzatiladi [Абдуллаев 1978: 78-79].

***-i* qaratqich kelishigi**. Mazkur grammatik shakl Qorako‘l va Xorazm o‘g‘uz (Hazorasp-Yangiariq, Sho‘raxon) shevalariga xos bo‘lib, undoshlardan keyin qo‘shiladi [Джуманазаров 1961: 7-8], ammo bu shakl Buxoro guruhi qarluq shevalarida kuzatilmaydi [Мирзаев 1969: 47]. Shuningdek, manbalarda dialektologik adabiyotlarda mazkur affiksning Andijon, Qo‘qon,

Farg‘ona, Pop, O‘zgan-Jalolobod-Suzoq kabi qarluq shevalarida I shaxs egalik qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘llanishi ham qand etiladi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 43].

O‘rganilayotgan shevada *-i* qaratqich kelishigi shaklining qo‘llanishi bilan bog‘liq quyidagi holat kuzatiladi: mazkur grammatik shakl faqat I-II shaxs birlik va ko‘likdagi egalik qo‘shimchalaridan keyin qo‘shiladi. O‘g‘uz lahjasiga xos boshqa holatlar kuzatilmaydi. Masalan:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	*ükämi māšini*	*ükövzi māšini*
II shaxs	*ükäŋi māšini*	*ükeyzi māšini*
III shaxs	*ükäsini māšini*	*ükälärini māšini*

Shuningdek, shevada *-i* qaratqich kelishigining kishilik olmoshlariga qo‘shilishi bilan bog‘liq quyidagi holatlar kuzatiladi, ya’ni III shaxsda va ko‘plik shaklidan so‘ng *-ni* shakli tiklanadi:

mäni kiyövim//dāmātim, säni kiyöviŋ//dāmātiŋ, üni kiyövi//dāmāti;
bizi kiyöv//dāmāt, sizi kiyövi(j)s//dāmāti(j)s, üläni kiyövi//dāmāti;
bizläni kiyöv//dāmāt, siläni kiyöv//dāmāt, üläni kiyövläri//dāmātläri.

Kim olmoshida ham *-i,* nima olmoshiga *-ni* qaratqich kelishigi qo‘shiladi: *Bu kimi kitāpi? Nimani iči/arqasida?* kabi.

Qaratqich kelishigining *-i* shakli mazkur sheva va unga yaqin hududlarga xos bo‘lib, mavjud ilmiy manbalarda qayd etilmagan. Shuningdek, til tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ba’zi ilmiy adabiyotlarda va darsliklarga mazkur affiks qayd etilmagan, ya’ni affiksning tarixiy manbalarda qo‘llanishiga doir qaydlar mavjud emas [Абдураҳмонов 2008: 84-86]. Umuman olganda, shevadagi *-ni // -nï, -i // -ï* qaratqich kelishigi affikslari ifoda etgan grammatik ma’nolar adabiy tildagi *-ning* kelishik shakli ma’nosidan farq qilmaydi.

“O‘zbek shevalarining morfologiyasi” kitobida Hazorasp-Yangiariq, Xorazm qipchoq-o‘g‘uz, Qoraqalpog‘istondagi Sho‘raxon hamda Chimkent o‘g‘uz (Iqon, Qorabuloq, Qarnoq, Qizil qishloq) va Qorako‘l shevalarida qaratqich kelishigining *-i // -ï* shakli bilan bir qatorda *-iŋ // -ïŋ* (sporadik tarzda *-uŋ*) affikslari mavjudligi qayd qilinadi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 40]. Ammo, ta’kidlash o‘rinliki, Sho‘rrabod qishlog‘i shevasida *-iŋ // -ïŋ* kelishik shakli mavjud emas.

Tushum kelishigi. Ma’lumki, o‘zbek shevalarida tushum kelishigining ***-ni // -nï, -i // -ï*** kabi turlari faol qo‘llanadi.

-ni // -nï affiksi. Mazkur grammatik shakl tushum kelishigining asosiy ko‘rsatkichi sifatida o‘zbek tili taraqqiyoti davomida doim amalda bo‘lgan. Shevada uning asosan *-ni* shakli amal qiladi va III shaxsdagi turdosh va atoqli otlarga qo‘shiladi: *Buxäräni qidirdim//äjländim. Kočäläni äyländim. Uställäni bezädi. Qöyni bāyla* kabi.

Tushum kelishigi shevada belgili va belgisiz holatda qo‘llanadi. Belgisiz qo‘llanishi: *darax ektim, čāy ištim, kitāp öqidim, almä yedim, süv septim, öt ördik, paxta terdik* kabi.

-i // -ï affiksi. Manbalarda keltirilishicha, tushum kelishigining bu shakli asosan o‘g‘uz lahjalariga xos bo‘lib [Джуманазаров 1961: 24], Xorazm o‘g‘uz, Sho‘raxon, Qarnob, Namangan, Farg‘ona, Pop, O‘zgan-Jalolobod, O‘sh, Qashqadaryo (qipchoq) shevalarida o‘zak-negizdan yoki egalik affikslaridan so‘ng tushum kelishigi ko‘rsatkihci *-i //-ï* ishlatiladi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 40]. Affiksning shevada qo‘llanishiga ko‘ra Toshkent tipidagi shevalarga (buxoro shevasining indfirent *-i* tovushiga) mos keladi.

O‘rganilayotgan shevada *-i* tushum kelishigi shakli faqat I-II shaxs birlik va ko‘likdagi egalik qo‘shimchalaridan keyin qo‘shiladi. O‘g‘uz lahjalariga xos boshqa hodisalar kuzatilmaydi. Masalan:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	*Qolimi jüvdim*	*Qoluvzi jüvdik*
II shaxs	*Qoliŋi jüv*	*Qoli(j)zi jüvdi(j)z*
III shaxs	*Qolini jüvdi*	*Qollärini jüvdilä*

Ma’lum bo‘ladiki, *-i // -ï* tushum kelishigi III shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin to‘liq tiklanadi.

Kishilik olmoshlariga qo‘shilishi: *mani, sani, uni, bizi - bizlani, sizi - silani, ulani* kabi (Qorako‘l, jumladan, hudud jihatidan yaqin joylashgan Sayyot, Solur o‘g‘uz shevalarida III shaxs ularni ~ *ulari*, qo‘llarni ~ *qo‘llari* tarzida qo‘llanadi). *Men, sen* olmoshlariga ***-i // -ï*** affiksining qo‘shilishi hodisasi Andijon, Qo‘qon, Farg‘ona, Pop, O‘zgan-Jalolobod-Suzoq kabi qarluq shevalariga ham xos [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 40].

So‘roq olmoshlariga qo‘shilishi:

Kimni ~ kimi? – yo‘lda kimi kördiŋ?

Nimani ~ nima(ni)? – boyčädä nimä örgändiŋ?

Qaerni ~ qerni?- qerni süpürey?

Jo‘nalish kelishigi. Ma’lumki, o‘zbek shevalarida jo‘nalish kelishigining ***-gä // kä // qa, -ja // jä, -a // ä*** shakllari qo‘llanadi. Sho‘rrabot qishlog‘i shevasida esa kelishikning ***-gä // kä // qa, -jä, -ä*** kabi turlari qo‘llanadi.

-gä // kä // qa, -jä, -ä affikslarining qo‘llanishi so‘zlarga qo‘shilishida ma’lum qat’iylik amal qiladi. *-gä // kä // qa* affikslari undosh bilan tugagan so‘zlarga, *-ja* // *-jä* shakli esa unli atoqli va turosh otlarga qo‘shiladi. Shevada kelishikining *-ya* fonetik varianti uchramaydi. Manbalarda *-ja// -jä* shakli Qarshi tipidagi shevalarda [Ashirboyev 2021: 52], *-a // ä* shakli esa o‘g‘uz, qipchoq, ayrim qarluq shevalariga xosligi qayd qilinadi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 44; ШЕрматов 1972: 83].

Sho‘rrabot qishlog‘i shevasida mazkur kelishikning *-gä // -kä // -qa* variantlari qo‘llanib, asosan III shaxsdagi turdosh va atoqli otlarga qo‘shiladi. Masalan: *Ātäm iškä kettilä. Pišäk daraxqa chiqti.*

-gä // -kä // -qa jo‘nalish kelishigining adabiy tilda va qo‘shni qishloq shevalarida qo‘llanishiga doir taqqoslama jadval:

Adabiy til	Sho‘rrabot	Solur
kitob+ga//yurakka	*kitāpka//yüräkkä*	*kitāpa//yürägä*
qishloq+qa//toqqa	*qišlāqqa//tāqqa*	*qišlāya//tāya*
to‘y+ga//uy+ga	*töj(g)ä//öj(g)ä*	*toja//öjä*
o‘qish+ga//ishlash+ga	*o‘qish+ka//ishlash+ka*	*o‘qish+a//ishlash+a*
o‘qigan+ga//ishlagan+ga	*o‘qiganŋa//ishlaganŋa*	*o‘qigana//ishlagan+a*

Belgisiz qo‘llanadi: *Akäm Tāšken ketti. Qaraköl bārüwdim.*

Belgili qo‘llanadi: *Akäm Tāškeŋŋä ketti. Qaraköl gä bārüwdim.*

-gä affiksi *-n* bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda palatal *ŋ* tovushiga o‘tadi va ikkilanadi: Yovonga bordi ~ *Javāŋŋä bārdi,* somonga qo‘shma ~ *sämāŋŋa qošmä//aralaštirma,* moshinga

mindi ~ *māšiŋŋä mindi,* mingga kiring ~ *miŋŋä kiriŋ.* Shuningdek, shevada *Toshkent, Samarqand* so‘zlarida *t/d* tovushlari tushib qolgani uchun *-gä* kelishik qo‘shilganda yuqoridagi kabi tovush o‘zgarishlari kuzatiladi: Toshkentga ~ *Tāškeŋŋä,* Samarqandga – *Sämärqaŋŋä* kabi. B.Jo‘rayevning ta’kidlashicha, bu kabi lingvistik hodisalar Yuqori Qashqadaryo oraliq o‘zbek shevalarida ham kuzatiladi [Кудратов 1968: 77].

Olmoshlarga qo‘shilishi. *Man, san, u* kishilik olmoshlariga qo‘shilganda *n* undoshidan keyin kelgan *-gä* bilan birga sayoz til orqa [Кудратов 1968: 76] palatal *ŋ* tovushiga (*n+g ~ ŋ´*) o‘tadi: manga ~ *mäŋä,* sanga ~ *säŋä,* unga ~ *üŋä* kabi*; biz, siz, ula* olmoshlariga esa jo‘nalish kelishigining *-a* shakli qo‘shiladi: bizga ~ *bizä,* sizga ~ *sizä* kabi. Shuningdek, ko‘plikdagi *bizlä, silä, ulä* olmoshlariga kelishikning *-ya* shakli qo‘shiladi*:* bizlarga ~ *bizlä/g/jä,* sizlarga ~ *silä/g/jä*, ularga ~ *ülä/g/jä; kimga* so‘roq olmoshiga *-a* affiksi qo‘shiladi: *kimä?* kabi.

-a // ä affiksi. Mavjud adabiyotlarda bu affiks Xorazm (o‘g‘uz), Sho‘raxon, Qorako‘l, Shahrisabz singari shevalarda qo‘llanib, to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘zning o‘zak-negiziga qo‘shilishi qayd qilinadi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 44]. Qorako‘l arealiga xos deb e’tirof etilayotgan bu til hodisasi o‘rganilayotgan shevada kuzatilmaydi. Ya’ni o‘g‘uz shevalaridagi kabi *-a // ä* affiksi to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘z asosiga qo‘shilmaydi, ammo ularning I-II shaxs egalik qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘shilishi kuzatiladi: qayerga? ~ *qerä?* qo‘limga ~ *qolimä,* go‘linga ~ *qoliŋä* kabi. III shaxsda esa kelishikning *-ja* shakli qo‘shiladi: qoliga ~ *qolijä* kabi.

-ja // jä affiksi. Manbalarda mazkur grammatik shaklning Xorazm-Xiva dialektlarida, Qorako‘l, Farg‘ona, Qo‘qon, Pop, Andijon, Namangan, Kattaqo‘rg‘on, Buxoro, Qashqadaryo (y-lovchi), Niyozboshi singari shevalarda o‘zak-negizdan so‘ng, aksariyat hollarda, III shaxs egalik affikslaridan keyin *–ga* affiksi *-ja // -jä* tarzida, shuningdek, Chimkent o‘g‘uz shevalari, Qatag‘on, Sherobod, Mang‘it, Beruniy, Gurlan, Turkiston Jo‘sh, Baxmal, Xorazm (qipchoq) kabi shevalarida ham qo‘llanishi qayd qilinadi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 44-45]. B. Jo‘rayevning tadqiqotida *-ja // -jä* shakli Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalarining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga (yoki shahar tipidagi) shevalarga xosligi aytiladi [Жўраев 1969: 11-23].

O‘rganilayotgan shevada *-jä* shakli faol qo‘llanishda bo‘lib, asosan unli tovush bilan tugagan asos va qo‘shimchalardan so‘ng qo‘llanadi. Shunga ko‘ra ularni ikki turga ajratish mumkin:

1. Unli tovush bilan tugagan so‘z asosiga qo‘shiladi. Masalan: *Buxāräjä bārüwdim. Qaläjä (qal’a – Poykent xarobalari) čiqtim. Āpäm paxtäjä ketti. Köčäyä čiqtiŋmi? Pečkäjä ötin tiq* kabi.

2. III shaxs egalikdan keyin esa *-ja // -jä* affiksi qo‘shiladi. Shevada jo‘nalish kelishigining egalikdan so‘ng qo‘shilishi haqidagi umumiy tasavvurni shakllantirish uchun quyidagi jadvalni e’tiboringizga havvola qilamiz:

Shaxs	Birlik		Ko‘plik	
I shaxs	*qolima*	*jaqamä* (yoqa)	*qolüwzä*	*jaqowzä*
II shaxs	*qoliiŋa*	*jaqaŋä*	*qoli(j)zä*	*jaqajzä*
III shaxs	*qolija*	*jaqasijä*	*qollärijä*	*jaqalärijä*

-la // -lä ko‘plik shaklidan keyin ham ayni shu holat kuzatiladi: sizlarga ~ *siläjä,* ularga ~ *üläjä*; so‘roq olmoshlari: Kimlarga ~ *kimläjä?* kabi.

Shuningdek, *kim?, nima?, qayer?, qachon?, qancha?* so‘roq olmoshlariga jo‘nalish kelishigi quyidagicha qo‘shiladi: kimga? ~ *kimä?,* nimaga? ~ *nimäyä?, qayerga? ~ qerä? qachongä? ~ qačoŋŋä?, qanchaga? ~ qančäyä?* kabi.

O‘rin-payt kelishigi. Dialektologik tadqiqotlarda qayd etilishicha,

kelishikning *-dä // -tä* shaklida qo‘llanishi qarluq shevalarining ko‘pchiligiga xosdir [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 48]. O‘rganilayotgan shevada ham kelishikning *-dä // -tä* shakllari qo‘llanadi: qaerda ~ *qerda*, shu yerda ~ *šerdä*, qo‘lida ~ *qolidä*, ichida ~ *ičidä*, shu orada ~ *šu arada;* sinovda ~ *sinašta*, qishda ~ *qištä*, ishda ~ *ištä*. Ta’kidlash lozimki, shevada chuqur til orqa undoshlari bilan yonma yon kelganda unlilar nisbatan qalinroq talaffuz qilinadi.

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	tomorqamda ~ *tamarqamdä*	tomorqamizda ~ *tamarqawüzdä*
II shaxs	tomorqangda ~ *tamarqaŋdä*	tomorqangizda ~ *tamarqe(j)zdä*
III shaxs	tomorqasida ~ *tamarqasidä*	tomorqalarida ~ *tamarqaläridä*

III shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin interkalyar *n* tovushining orttirilishi shevaga xos emas.

Shevada kelishikning belgisiz qo‘llanishi kuzatiladi: *Šu ketkäni bāhār kelädi* kabi.

Chiqish kelishigi. Shevada kelishikning *-dän // -tän /// -nän // -nan* fonetik variantlari qo‘llanadi. Manbalarda Urganch-Xiva, Xazorasp-Yangiariq dialektlarida, To‘rtko‘l, Sho‘raxon, Qorako‘l kabi o‘g‘uz, shuningdek, Toshkent, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Qarshi, Kattaqo‘rg‘on, Qarnob kabi qarluq shevalarida ham chiqish kelishigining *-dän // tän /// -nän // nan* shakli qo‘llanishi aytiladi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 5ä-52]. B. Jo‘rayev Yuqori Qashqadaryo shevalarida ham kelishikning *-dän // tän* ba’zan *-nän // nan* kabi fonetik varianti mavjudligi qayd qilinadi [Жўраев 1969: 23]. M.Mirzayev tadqiqotida kelishikning *-nän // nan* fonetik varianti haqida hech qanday ma’lumot uchramaydi.

-dän // tän affiksi**.** Buxorodan ~ *Buxāradän,* to‘ydan ~ *töjdän,* qirdan ~ *qïrdän,* o‘tdan ~ *öttän,* qishdan ~ *qištän* kabi. Masalan: *zördän zör köp, özidän özi.*

-nän // nan affiksi. Sho‘rrabot shevasida *-nän // nan* affiksi *-m, -n, -ŋ* undoshlari bilan so‘zlarga qo‘shiladi: onamdan ~ *ānämnän*, qumdan ~ *qumnän*, kundan ~ *künnän*, osmondan ~ *āsmānnän,* ishingdan ~ *išiŋnän,* aqlingdan ~ *aqliŋnän,* kundan kun ~ *künnän-kün*, undan bundan ~ *ünnän-münnün* kabi.

Chiqish kelishigining kishilik olmoshlariga qo‘shilishi:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	mandan ~ *männän*	*Bizdän//bizlädän*
II shaxs	sandan ~ *sännän*	*Sizdän//silädän*
III shaxs	undan ~ *ünnän*	*ülädän*

Egalik qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘llanishi:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	o‘zimdan ~ *özimnän*	o‘zimizdan ~ *özüvüzdän*
II shaxs	o‘zingdan ~ *öziŋnän*	o‘zingizdan ~ *özi(j)dän*

III shaxs	o‘zidan ~ *özidän*	o‘zlaridan ~ *özläridän*

O‘g‘uz shevalariga xos bo‘lgan III shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin o‘rin kelishiklaridan oldin oldin ortadigan *n* interkalyar tovushi mazkur shevaga xos emas.

Sho‘rrabot qishlog‘i shevasiga xos grammatik shakllar: otlardagi son, egalik va kelishik shakllari ayrim jihatlari bilan Qorako‘l o‘g‘uz shevalariga, ayrim jihatlari bilan Buxoro va boshqa qarluq lahjalariga mos keladi.

Sheva besh kelishikli bo‘lib, *-ni, -i* affikslari qaratqich va tushum kelishiklari uchun umumiydir. Ularning bu xususiyati o‘zbek shevalariga ham xos.

Sho‘rrabot qishlog‘i shevasida singarmonizm hodisasi kuchsiz saqlangan. Ammo uning qoldiqlari ba’zi so‘zlarda va grammatik shakllarda uchraydi.

ä – til oldi, indifrent tovush
i – til oldi, indifrent tovush
ü – til oldi, indifrent tovush
u – til oldi, indifrent tovush
ö – til oldi, indifrent tovush
o - til oldi, indifrent tovush

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allaberganov A. Buxoro o‘g‘uz shevalari leksikasi. Filol.fan.bo‘yicha fals.d-ri (PhD) …diss. – Toshkent, 2018.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978.
4. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2008.
5. Абдураҳмонов Д. Бухоро область ўғуз шевалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. № 6.
6. Джуманазаров Ю. Морфологические особенности хорезмского говора узбекского языка. Автореф. 1961.
7. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.
8. Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.
9. Қудратов Т. Ўзбек тилининг оралиқ шевалари (Шаҳрисабз, Яккабоғ, Чироқчи ва Қамаши районларидаги оралиқ шевалари материаллари мисолида). Филол.ф.номз. ....дисс. – Тошкент, 1968.
10. Turdialiyev A. Denov qarluqlari shevasida kelishiklarning qo‘llanishi. //Filologik tadqiqotlar: Til, adabiyot, ta’lim. – Temiz. 2002. № 7.
11. Turdialiyev A. Denov shevasining tasniflardagi o‘rni // O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv. – Toshkent, 2022.
12. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984.
13. В.В.Решетов, Ш. Шоабдураҳмонов. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962.
14. Шерматов А. Қуйи Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент, 1972.
15. Шамсиддинов И.И. Каракульский говор узбекского языка. – Ташкент, 1964.

NAMANGAN SHEVALARINING FONETIK-FONOLOGIK XUSUSIYATLARI

PHONETIC-PHONOLOGIC CHARACTERISTICS OF NAMANGAN DIALECTS

Darvishov Ibrohim O‘rmonovich
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD
ibmofifar@bk.ru

Annotatsiya. *Maqolada Namangan qipchoq va qarluq lahjalaridagi o‘ziga xos xususiyatlar, fonetik sathining tarixiy genezisi, tarqalishi va amal qilish areali masalalari haqida fikr yuritiladi. Shevadagi fonetik-fonologik lisoniy belgi-xususiyat va qonuniyatlarning voqelanish jarayonlari qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritilgan. Unda turkiy tillardagi unlilar bilan bog‘liq qipchoq lahjalaridagi singarmonizm va qarluq lahjalaridagi umlaut hodisalari haqidagi fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *etnik til faktlari, lahja, qipchoq va qarluq lahjasi, sheva, fonetik, leksik va grammatik tarkibning tarixiy o‘zgarishi, singarmonizm qonuniyati, umlaut, lablanish, fonetik kuchsizlanish, nazalizatsiya.*

Abstract. *The article discusses the specific features of the Namangan Kipchak and Karluk dialects, the historical genesis of the phonetic level, distribution and scope. From a comparative historical point of view, the processes of realization of phonetic-phonological linguistic signs-properties and patterns in the dialect are illuminated. It outlines ideas about synharmonism in the Kipchak dialects and the phenomena of umlaut in the Karluk dialects associated with vowels in Turkic languages.*

Key words: *facts of the ethnic language, dialect, Kipchak and Karluk dialect, dialect, historical change in phonetic, lexical and grammatical content, umlaut, phonetic weakening, nasalization.*

O‘zbek shevalari, ularning fonetikasini o‘rganishda o‘zbek dialektologiyasining o‘z an’analari, o‘ziga xos tamoyil va asoslari bor.

Keyingi paytlarda o‘zbek dialektologiyasi o‘zbek tilshunosligining ancha mukammal tarmog‘i sifatida shakllangan bo‘lishiga qaramay, soha bo‘yicha amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar ko‘lami sustlashib ketdi.

Barcha o‘zbek shevalari va ularning lisoniy xususiyatlari lingvistik geografiya, areal tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, O‘zbekistonning markaziy va aholisi zich yirik shaharlaridan uzoq joylashgan aholi shevalarini areal o‘rganilishi hali o‘z yakunini topmagan. Dialektal faktlarni o‘rganish xalqimiz milliy vakillarning etnik, mental, ma’naviy va madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Zero, til millatning bebaho qadriyati, Birinchi Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganidek: “tilda millat ruhi yashaydi”.

Singarmonizm va umlaut turkiy tillarning o‘ziga xos lingvistik qonuniy hodisasi bo‘lib, u qadimdan amalda. Lekin uning turkiy tillarda saqlanish darajasi har xil. O‘zbek tilining tayanch shahar shevalarida bu hodisalar o‘z kuchini deyarli yo‘qotgan, lekin ko‘plab qipchoq va qarluq shevalarida saqlanib qolgan. Shunday bo‘lsa-da, bir guruh tilshunoslar turkshunoslikka bag‘ishlangan adabiyotlarda uning mukammal qoidasi yo‘qligi, atamaning qanday lingvistik

hodisa ekanligi batafsil bayon qilinmaganini, uni assimilyatsiyaning bir turi ekanidan boshqa narsa emasligini ta'kidlaydilar [*Qoshg'ariy, 69; Bogoroditskiy, 13; Isxakov, 23; Reshetov, 295-299; Abdullayev 74-82; Tenishev, 93-96*].

Bizningcha, singarmonizm ham, umlaut ham alohida lisoniy o'ziga xosliklari bilan Namangan shevalar arealida amalda va u o'z qonuniyatlariga ega.

Singarmonizm so'zdagi unlilarning ma'lum nuqtayi nazardan uyg'unlashishi bo'lib, u haqida N.K.Dmitriyev "tovushlar assimilyatsiyasining ko'rinishlaridan biridir" – deb, izohlagan edi *[Dmitriyev, 38-40*]. U turkiy tillarning o'ziga xos qonuniyatlaridan hisoblanib, turkiy tillarning barchasida o'z aksini topganligi, hatto, adabiy tili nosingarmonistik bo'lgan o'zbek tilining, ayrim shahar shevalaridan tashqari, barcha shevalari singarmonistik ekanligi qayd qilingan [*Scherbak, 50-55*].

Singarmonizmning rudiment sifatida o'zbek adabiy tilida ham ko'zga tashlanishi, uning o'zbek tili shevalaridagi o'ziga xos spetsifik lingvistik belgi-xususiyatlari, "y"lovchi va "j"lovchi qipchoq shevalarida amal qilish qonuniyatlari haqida o'zbek adabiy tili, uning shevalari fonetikasi va fonologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar, ilmiy asarlar hamda qo'llanmalarda tilga olingan [*Reshetov, Shoabdurahmonov, 184-188; Kononov, 38-41; Abdullayev, 74-82; Atamirzayeva, 15-18; Mirtojiyev, 306; Jamolxonov, 32*].

Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun qator belgisi fonologik qimmatini yo'qotganligi, shuning uchun hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo'la olmasligi haqida fikrlar mavjud [*Nabiyeva, 3*].

O'zbek tilining ayrim shevalarida, xususan, Namangan shevasida singarmonizmning boshqa ko'rinishi – affikslar o'zakning fonetik xususiyatiga emas, balki o'zakdagi unlilarning affiks unlilar xarakteriga moslashishi kuzatiladi. Bunday moslik umlaut hisoblanadi.

Umlaut uyg'ur tili va hozirgi o'zbek tilining Namangan shahar, Uychi, Chortoq tumanlari, Yangiqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanlarining ayrim qishloq shevalariga xosdir [*Aliyev,14*]. Yangiqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanlari Qirg'iziston Respublikasi chegaralariga yaqin bo'lsada, singarmonizm ta'siri kuzatilmaydi. Buni Yangiqo'rg'on tumani markazi, uning atrofi va Qayqi qishlog'i aholisi Namangan shahriga, yaqin joylashganligi, u yerlarga umlautli sheva vakillarining ko'chib borishlari bilan izohlaymiz.

Lingvistik adabiyotlarda umlautning uch turi: palatal, labial va lingvial ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi.

Birinchi turda birinchi bo'g'inning orqa qator keng unilisi keyingi bo'g'inning tor lablanmagan unlisi ta'siriga berilib, old qator unliga aylanadi. Masalan, Namangan viloyatining Uychi shaharchasi, Chortoq shahri, Uchqo'rg'on tumani Qayqi qishlog'i shevasida: [*təshi*] toshi, [*bəshi*] boshi, [*qəshi*] qoshi, [*shəli*] sholi, [*səvip*] sovib, [*səgip*] sog'ib, [*əlivər//ɔvɔr*] olib yubor, [*ötvör//ətivər*] otib yubor, [*yözvör//yəzivo:r*] yozib yubor, [*qɔshqɔldɔ:*] qashqaldoq, [*təvip*] tabib, [*bərip*] borib, [*yəzip*] yozib kabi.

Ikkinchi turda birinchi bo'g'inning keng lablanmagan unlisi keyingi bo'g'inlardagi lablangan unlilari ta'sirida lablashadi. Masalan, (Namangan sh., Uychi t., Chortoq t.): [*tənür*] tandir, [*qöshü*] qoshiq, [*ö:dörütti*] ag'daryapdi, [*ödöʷüldü// ödöshüldü*] ado, tamom bo'ldi kabi.

Uchinchi turda og'izning ochilish darajasi o'zgaradi. Keyingi bo'g'inning tor *i* unlisi ta'sirida birinchi bo'g'inning old qator keng unlisi o'rta-keng unliga aylanadi. Masalan, uyg'ur tilida: [*kasish*] kesish, [*katti*] ketdi kabi. Biroq Namangan viloyatining umlautlashgan shevalarida uchinchi tur ko'rinishi deyarli kuzatilmaydi [*Atamirzayeva, 26*].

Umlaut ayrim turkiy tillarning lahjalarida, hatto qipchoq guruhga mansub dialektlarda ham ma'lum darajada mavjud. U singarmonizmga teskari proporsional bo'lib, turkiy tillarda nisbatan

keyingi hodisadir. Ayrim tilshunoslarning fikriga koʻra, [*Polivanov, (17) 35; (18) 33; Borovkov, 63; Reshetov, (20) 60; Reshetov, (21) 122*] umlaut assimilyatsiyaning keng rivojlanishi va oʻziga xos urgʻu zaminida vujudga kelgan. Bir guruh tilshunoslarning fikricha, umlaut singarmonizm kuchsizlanishi bilan bogʻliq.

Har ikkala – tanglay va lab garmoniyasi Namangan qipchoq shevalarida viloyatdagi boshqa shevalarga nisbatan kuchli. Lekin oltoy, xakas, boshqird va qirgʻiz tillaridagiga nisbatan kuchsiz. Bu oʻrinda N.S.Trubetskoy fikrlariga tayanish maqsadga muvofiq boʻladi [*Trubetskoy, (23) 352, (24) 31-36*].

Tanglay garmoniyasi janubiy-gʻarbiy Namangan shevalarida quyidagi koʻrinishlarga ega: a) oʻzakning birinchi boʻgʻinida til orqa unlilardan biri boʻlsa, soʻzning soʻnggi boʻgʻinlarida ham til orqa *(yoki qattiq)* unli tovushlar ishlatiladi; b) oʻzakning birinchi boʻgʻini til oldi *(yumshoq)* uililardan biri bilan boshlansa, unda soʻzning keyingi boʻgʻinlarida ham til oldi yumshoq unlilar ishtirok etadi.

Tanglay garmoniyasining qonuniyati Namangan qipchoq lahjalarida quyidagi koʻrinishlarga ega:

1. Soʻzning oʻzak qismi – tub leksik shakllarda. Koʻp boʻgʻinli soʻzlardagi birinchi boʻgʻin tarkibidagi unliga qolgan boʻgʻindagi unlilar moslashadi.

Dialektal arealdagi Namangan, Toʻraqoʻrgʻon, Mingbuloq, Pop tumanlariga qarashli koʻplab qishloqlardagi “j” lovchi va “y” lovchi qipchoq lahjalarida soʻzlashuvchi aholi shevalarida bunday tanglay garmoniyasi yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan: [*bɔliq*] baliq, [*mɔnti*] manti, [*qɔtiq*] qatiq, [*chɔchiq*] sochiq, [*chüməli*] chumoli, [*tɔgʼɔrɔ*] togʻora, [*sümələk*] sumalak, [*zəmbər*] zambil, [*tɔrgʻis//tɔrvis*] tarvuz, [*sɔmsɔ*] somsa kabi bir talay tub soʻzlarda singarmonizm oʻz qonuniyatini saqlab qolgan.

2. Soʻzning oʻzak qismiga qoʻshimcha qoʻshilganda. Namangan qipchoq lahjalarida qoʻshimchalar tarkibidagi unlilarning til orqa va til oldi variantlarga egaligi affikslarning til orqa qattiq va til oldi yumshoq variantlarini yuzaga keltirgan. Koʻplab soʻz yasovchi va shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar oʻzining kontrast juftlariga ega.

a) soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshilganda yoki qoʻshma soʻzlarda: [*pərmə+lө+ v+gich*] parmalagich, [*üy+mə+lə+mə*] uymalama, [*səvə+ch+ip*] savagʻich, [*memɔ+xɔnɔ*] mehmonxona, [*sɔmsɔx+piyɔs*] sarimsoqpiyoz, [*kөz+ əynək*] koʻzoynak, [*dümɔlɔ+q//yumɔlɔ+q*], [*sɔr+tɔrɔsh+xɔnɔ*] sartarosh-xona, [*nɔn+tɔxtɔ, qiymɔ+ tɔxtɔ*] nontaxta, qiymataxta kabi juda koʻp sodda yasama va qoʻshma soʻzlarda singarmonizm oʻz qonuniyatini saqlab qolgan.

b) sintaktik shakl hosil qiluvchi kelishik qoʻshimchalari qoʻshilganda:

– qaratqich va tushum kelishigi [*-di//dï,-ti//ti:*] [*bunni// münni*] burni, [*qɔzɔndi qulɔgʻi*], [*qɔzɔndi koʻtər*] qozonning qulogʻi, qozonni koʻtar, [*dədəmdi pichɔhlɔri*], [*enəmdi köynəhləri*] dadamning pichoqlari, onamning koʻylaklari, [*bɔgʻlɔrdi dɔrɔxlɔri*], [*sɔvchilɔrdi gəpləri*] bogʻlarning daraxtlari, sovchilarning gaplari, [*tɔshti təgʻdə*], [*ɔttʼ tüyɔgʻi*], [*ɔshti yeng*], [*tɔvɔhti yüv*] toshning tagida, otning tuyogʻi, oshni eng, tovoqni yuv kabi. Dialektal arealining deyarli barcha qipchoq shevalarida qaratqich va tushum kelishigi qoʻshimchalari talaffuzda deyarli farqlanmaydi;

– joʻnalish kelishigi [*-gʻoʻ//-gʻɔ//-ngɔ,-gʻa//-gə,-qa//-kə*]: “y”lovchi va “j” lovchi shevalarda [*numɔngɔ//numɔvgʻɔ*] nimaga, nega, aralash tip shevalarda: [*numɔngə*] nimaga, nega, [*qəygʻə//qөygʻɔ*] qayerga, [*toʻygʻɔ// toʻygʻa//toʻygə*] toʻyga, [*terəhti üchigə chihti*] terakning uchiga (eng baland joyiga) chiqdi, [*tɔgʻɔrɔgʻɔ sö:*] togʻoraga sol, [*öriqqö chüsh*] ariqqa tush, [*terəkkə chihti*] terakka chiqdi, [*ojivöegʻö ketti*] objuvozga chiqib ketdi kabi.

Xullas, o‘zbek xalq shevalarida hozirgi adabiy tilida uchramaydigan juda ko‘p belgilar saqlanib qolganki, ularni asosli ravishda ilmiy o‘rganish juda muhim tarixiy-lingvistik xulosalar chiqarishga imkon tug‘diradi. Xalq shevalaridagi bunday fonetik, leksik-grammatik fakt va asoslar, P.M.Melioranskiy ta’biri bilan aytganda: “...qadimgi yodgorliklarni tushunish va lingvistik analiz qilishda noyob qo‘llanma vazifasini bajaradi” [*Melioranskiy,3*].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Фонетика. – Ташкент: Фан, 1967.
2. Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. – Ташкент: Фан, 1967.
3. Абдуллаева Д. Ўзбек тили Ошоба шевасининг фонетик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1999.
4. Алиев.А.Ю. Наманганская группа говоров узбекского языка. Автореф. дис. ...док. фил. наук. – Ташкент, 1975.
5. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент, 1974.
6. Богородицкий В. А. Законы сингармонизма в тюркских языках. // Вестник научного общества театроведение//. – Казань, 1927.
7. Боровков А.К. К характеристике узбекских “умлаутний” или “уйгуризованних” говоров. – Фрунзе, 1946.
8. Боровков А.К. Узбекские говоры Наманганской области. – Ташкент, 1963.
9. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-китоб. – Тошкент, 2008.
10. Дмитриев Н. К. Грамматика башкирского языка. – М., 1948.
11. Исхаков Г. Гармония гласных в тюркских языках. ИСГТЯ, И. 1968.
12. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.
13. Ишаев А. Манғит шевасида ассимиляция ва диссимиляция // Тил ва адабиёт масалалари, 1959. – №3.
14. Ишаев А. Манғит шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари.// Ўзбек диалектологиясидан материаллар//. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 465 б.
15. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.
16. Мелиоранский П. М. Араб-филолог о туретском языке, СПб., 1900.
17. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
18. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ. – 2005.
19. Поливанов Е. Д. Материалы по грамматике узбекского языка. И. Введение. – Ташкент, 1935.
20. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературний язык. – Ташкент: Уз. Госиздат, 1933.
21. Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
22. Решетов В.В. Ўзбек тилининг қарлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1960;
23. Решетов В. В. Узбекский язык. I. – Ташкент: Уз. Госиздат, 1959.
24. Тенишев Э. Р. Строй саларского языка. – М.: 1976.
25. Трубетской Н.С. Избранние труди по филологии. Фонология и лингвистическая география. – М.: Прогресс, 1987. – С. 34.

26. Трубетской Н.С. Основы фонологии / Пер. с немец. А.А.Холодовича; Подред. С.Д.Кансиелисона. – М.: Аспект Пресс. – 2000. – 352 с. (Серия “Классический учебник”).

27. Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970.

28. Юдахин К.К. Узбекско-уйгурское языковие связи // Изв. АН КазССР. – № 86. Серия уйгуро-дунганской культури. Вып. И. – Алма-Ата, 1950.

39. Юдахин К.К. Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1958. – №1.

30. Юдахин К.К. Водил қишлоғининг лаҳжаси ҳақида бир неча сўз // Труди САГУ. – Ташкент, 1957.

31. Юдахин К.К. Некоторие особенности Карабулакского говора // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1957.

DEVONU LUG‘ATIT-TURK VA HOZIRGI O‘ZBEK SHEVALARI

DEVONU LUGATIT-TURK AND MODERN UZBEK LANGUAGES

Nurmurod Chiniqulov
ToshDO‘TAU, f.f.n. dotsent

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” (DLT) asari turkiy tillarning tarixini, xususan, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda muhim manbaa hisoblanadi.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabila, qavm va urug‘lar yashagan shahar, qishloq hamda yaylovlarni 15 yil mobaynida birma-bir kezib, so‘zlarni to‘plagan, 50 ga yaqin qavm va urug‘lar, jumladan, 20 ta qabila tilini qiyoslab, ularning kichik farqlari, nozik xususiyatlarini aniqlagan. Biz o‘rganayotgan qavm-qarindoshlik terminlarida ham turli xil qavm va urug‘larga xos so‘zlarni uchratamiz.

Biz DLT asarini tahlil qilar ekanmiz unda chorvachilik, qavm-qarindoshlik terminlari, taqinchoq, anatomiya terminlari xullas boshqa sohalarga oid bo‘lgan juda ko‘plab leksik qatlamga doir so‘zlarni shevalarimizda uchratamiz.

Xycycан, DLT da faol leksik qatlamda iste’molda bo‘lgan va hozirda shevalarda ham keng qo‘llanilayotgan ayrim so‘zlar:

- aba (I) – ona (o‘g‘uz) [DLT I, 113-24: ar. 80-12].

-aba (II) – ota (tubut) [DLT I, 113-24: ar. 80-15]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu atama hozir ham shevalarda saqlanib qolgan. Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on hamda Chust tumanlarida “ona” va “qaynona” ga nisbatan “aba” qo‘llanadi. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida esa otaning aka-ukalariga nisbatan “aba” qo‘llaniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, “aba” termini bugungi shevalarda erkak va ayol jinsiga xos ikkala qavm-qarindoshlik ma’nosini saqlab qolgan.

- arïg‘ – toza [DLT I, 95]; arig‘lik so‘zi ayrim shevalarda *“sara”*, “toza” ma’nosida qo‘llaniladi. - Yigitlarning *arig‘i* – yigitlarning *sarasi (Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Qurashayx qishlog‘i).*

- baldïz – xotinning singlisi (boldiz) [DLT I, 426-8; ar. 381-9; III, 13-13; ar. 5-12]. Ushbu atama Samarqand viloyati Qo‘shrabot, Jomboy kabi tumanlarda hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l, Amudaryo, Ellikqal’a va Xo‘jayli tumanlarida ham bugungi kunda keng

qo‘llanadi. Xususan, bu atama qardosh xalqlar qozoq, qoraqalpoq va boshqalarda faol leksik qatlamda qo‘llanadi.

- **uchdï –** er tïnï uchdï [DLT I, 177]; **uchmaq** – jannat [DLT I, 141]; Shevada (qipchoq) *uchmoq* fe’lining yuqoridagi misollardagi ma’nosi saqlanib qolganini kuzatishimiz mumukin. Masalan, ayrim hududlarda endi tug‘ilgan, chillasi chiqmasdan o‘lgan chaqaloqlarga nisbatan “uchar-qush”, “uchibdi” (tug‘ilgan chaqalog‘i uchibdi) shaklida mazkur fe’l formasi ishlatiladi (Nav. vil. Nurota tum. Chuya qish);

- **julun** – bo‘yin so‘ngagi ichidagi oq ilik; xarom mag‘iz. [DLT III, 30]; Shevada (qipchoq) aynan shu ma’noda qo‘llanadi;

- **esh** – o‘rtoq, hamroh [DLT I, 149]; Shevada (qipchoq) “u odam safarda **esh** bo‘lmaydi” ya’ni hamroh bo‘la olmaydi ma’nosida ishlatiladi;

- **qaq III** – yomg‘irda paydo bo‘lgan ko‘l [DLT II, 385]; Shevada (qipchoq) *qaq* - tog‘da qoyatoshlardagi tabiiy chuqurchalarga yig‘ilgan yomg‘ir suvi (Nav. vil. Nurota tum. Chuya qish).

Yana bir faktga e’tiborini qaratsak, O‘zbek tilining izohli lug‘uti (O‘TIL)da berilgan ayrim so‘zlar ma’nolari to‘liq izohlanmagan. Vaholanki, ularning boshqa ma’nolari DLT va hozirga o‘zbek shevalarida saqlanib qolgan. *Masalan, Sinchi – otlarning naslini, yoshini, fe’l atvorini yaxshi biladigan odam. Sinchilik-kasb.* Sin I -qomat, gavda [DLT III-jild, 152 b.] Sin – yuz, qiyofasi, turish holati; Sinini buzmaydigan odam (qipchoq shevasi).

Shevalardagi ayrim so‘zlar asosiy leksik qatlamdan chetga chiqib, uning o‘rniga forscha, arabcha yoki ruscha-baynalmilal so‘zlari egallagan. Masalan, Piyoz (f) piyoz, bir bosh piyoz (O‘TIL III-jild, 271 bet), bu DLTda *sog‘an, sog‘un* shaklda keltirilgan DLT I-jild, 338 b.) Shevalarda piyoz – *so‘g‘on* tarzda istemolda qo‘llanadi. Shuningdek, Zang (f) – tut, zangladi-tutug‘di kabi.

DLT da ayrim etnonimlar respublikamiz hududida enotoponimlarga aylangan. Masalan, Arg‘un (Tosh.vil.Qibray tumani), Qipchoq (Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Amudaryo tumani va boshqa nayman, qo‘ng‘irot, uymovut, saroy kabilar. Bu albatta alohida ilmiy tadqiq qilinadigan mavzu hisoblanadi.

Ma’lumki adabiy til leksikasining boyishi bir qirrasi ichki imkoniyatlar ya’ni shevalar hisobiga boyishi hech kimga sir emas. Shu o‘rinda DLT va o‘zbek shevalaridagi ayrim so‘zlar tahlil qilamiz. Xususan, filologiya fanlari doktori, professor B.Abdushukurov **rus tilidagi turkiy o‘zlashmalar** *жир, тавар (undan rus tilida tovariщ so‘zi яsalgan), наждак, чебурек, колбаса, карандаш, денги, ёгурт-ёгурт* va boshqalar.

Bundan tashqari ayrim DLTda ruscha so‘zlarning turkiy muqobillari uchraydi, masalan: Aŋut-**варонка**, səŋak-**кружка** (bu so‘zning shevada sarxum-o‘g‘iz, do‘lcha-qipchoq), tarus-**паталок**, tug‘aqliq-**пробка**, kəduk, kezuk – **плаш**, sarim – **филтр**, qarg‘u, qarg‘uch (dushman xavfidan saqlanish uchun эng baland joyga qurilgan minora) – **башня** va b.

Bir qator so‘zlar hozirgi adabiy tilmizda faol leksik qatlamda qo‘llanib kelmoqda, biroq ularning muqobillari DLTda mavjud va ayrim shevalarda hozir ham ishlatilmoqda. **Arabcha so‘zlar: tabib -** atasag‘un, sag‘un, эmchi, otachu, **xazina -** kömuch, kömchi, **hikoya** – ötkunch, **foyda** – tusu, **vasiyat** – tutrug‘, tutsug‘, **shamdon** (a+f) – tungshu, **tut** daraxti – ujma, **nuqta** – chekik, **oziq-ovqat** – tartin, **zaif** – qug‘shaq, **baxil** – saran va b.

Forscha so‘zlar: kaft – azut, aja, jizruq, **girdob** – эgrim, qasirqu (girdob quyun), **shox** – monguz, **dazmol** – ötuk, **savat** – sawdïch, sugän, **andava** – salï, **havoncha** – saqu, **dehqon** – tarig‘chi, **ziyrak** – tätik, **dasturxon** – tergi, tэwsi, **dastro‘mol** – ulatu, **gardish** – chig‘ri, **chinor** – chunuk, shunuk, **kulcha** – churäk (sheva o‘g‘iz), **darvoza** – qapg‘a (qapug‘-eshik), **gadoy** – qarachi, **baxt (davlat)** – qut, qiv, **pashsha** – qudg‘u, **garov -** tutug‘ va b.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlarning tili, shevasi, lahjasini o‘rganib adabiy til bilan solishtirib, qiyoslab, ularni taftish qilgan. “Devonu lug‘otit turk“ asarida izohlangan so‘zlarning bir qancha qismi o‘zbek adabiy tilining shevalarida hozirgi kunda ham saqlanib qolingan bo‘lib, bular shevalarda faol qo‘llaniladi. Mahmud Koshg‘ariyning umumjahon madaniyatiga qo‘shgan qimmatli tuhfasi “Devonu lug‘otit-turk” asari tilshunoslikka doir o‘lmas asar bo‘lishi bilan bir vaqtda, tarix, etnografiya, folklorshunoslik, geografiya bo‘yicha o‘quvchilarga atroflicha ma’lumot beradigan mukammal qomusiy asar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda “Devonu lug‘otit-turk “ asari mavjud bo‘lgan hamda ayrim o‘zbek shevalarida bugungi kunda iste’molda bo‘lgan juda ko‘plab so‘zlarni kuzatishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida mazkur yo‘nalishda chiqur lingvistik tadqiq etilishi hamda sheva elementlarini bevosita qiyosiy tahlil etilishi kabi dolzarb masalalarni kutib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ДЛТ- Девону луғатит-турк. –Т.:”Фан”, 1960, I,II,III -жилдлар.
2. Дренетюркиский словарь. –Л.: “Наука”, 1969, стр. 678.
3. Э.В.Севортян. Этимологический словар тюркских языков. Москва, 1974, стр.768.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2008, 1-5-жилдлар.
5. Ш.Раҳматиллаев Ўзбек тилининг этимологик изоҳли луғати. –Т,: “Университет”, 2000, 600-бет.
6. В.В.Радлов. Опыт словаря тюркских наречий. Том-И, Санкт-Петербург, 1893, стр. 967.
7. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.:”Фан”, 1971, 408-бет.
8. Ф.Абдуллаев. оъзбек тилининг хоразм шевалари. – Т.:”Фан”, 1961, 346-бет.
9. Ғ.Абдурахмонов, С.Муталлибов Девону луғатит-турк. –Т.:”Фан”, 1967, индекс-луғат 544 бет.
10. B.Abdushukurov “So’z tarixi – o’z tariximiz” Ma’rifat gazetasi 2024-yil 15-may.

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI LEKSIK OMONIMLARNING SHEVALARGA MUNOSABATI

RELATIONSHIP OF LEXICAL HOMONYMS IN UZBEK AND TURKISH LANGUAGES WITH DIALECTS

Abdurahmonova Muqaddas Tursunaliyevna
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Maqola o‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning shevalarga munosabati masalasiga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *adabiy til, sheva, turk tili, omonim so‘zlar, qiyosiy tahlil, neyrolingvistik tahlil.*

Abstract. *The article is devoted to the issue of the relation of lexical homonyms in the Uzbek and Turkish languages to dialects.*

Key words: *literary language, dialect, Turkish language, homonyms, comparative analysis, neurolinguistic analysis.*

Omonimlik hodisasi fikrni ta’sirchan ifoda etishda, tinglovchining e’tiborini jalb qilishda ahamiyatlidir. O‘z navbatida omonim so‘zlarning tushunilishi tinglovchidan bilim, mahorat, me’yoriy darajadagi tafakkur hamda fahmni talab etadi. Neyrolingvistik tahlillarda so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosini o‘zlashtirish miya faoliyati bilan bog‘liqligi alohida ta’kidlangan. A.R.Luriya so‘zning ko‘chma ma’nosi, omonim so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishda nutq mexanizmining buzilishi, nutqiy faoliyat ko‘rinishlarining me’yoriy darajada emasligi bilan bog‘liq to‘siqlar mavjud bo‘lishi haqida so‘z yuritadi. Aqliy rivojlanishida me’yoriylik buzilgan bemorlarning omonim shakllarni farqlamasliklarini ta’kidlaydi. So‘zning ko‘chma ma’nosi, omonim so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishda nutqda nuqsoni borlar, gung, kar-soqovlarning qiynalishlari haqida ma’lumot bergan. Omonim shakllarni farqlamasliklarini ta’kidlagan. Omonimlar ma’nosini tushunish inson tafakkuri, idroki bilan bog‘liqligini qayd etgan [Luriya, 2009:152].

Turk tilida x va h harflarining bir xil yozilishi va talaffuz qilinishi ham omonimlarni shakllantirishga xizmat qiladi:

Mahsus I sf. 1. Özgü. Maxsus, xos; *mahsus II sf. esk.* 1. Duyulan, anlaşılan, hissedilen. His qilingan.

Atoqli otlar- ismlar va joy nomlari ham omonim sifatida qaraladi: *makam I isim* Mevki, kat(I), yer. /mavqe; *makam II müzik* Klasik Türk müziğinde bir müzik parçası veya şarkının işleniş biçimi. /maqom.

Turk tilida omonimlarning yuzaga kelish omillari tahlil etilgan (Aygül Uçar, 2008:215]. Turk tilida omonimlar yuzaga kelish omillaridan biri semantik usuldir. Semantik usuldagi omonim hosil bo‘lishining eng faol ko‘rinishlaridan biri metonimiya asosida nom hosil bo‘lishidir:

Narsa-buyum ishlatilish maqadi va ashyosiga ko‘ra qayta nomlangan: ***Mantar I*** *isim, bitki bilimi. Mantarlardan, içinde zehirlileri de bulunan, silindir bir gövde ve üst tarafı şapka biçiminde olan ilkel canlıların genel adı (Fungi)./* Qo‘ziqorin; ***Mantar II*** *Bu tabakadan yapılan şişe tapası*. /shisha idishlar uchun yopqich(пробка для бутылок).

Narsa-buyum ilk aniqlangan joyi yoki uchrashi manziliga ko‘ra nomlangan: ***Misir I*** *İsim.* Duymayan kalmadı anlamındaki Mısır'daki sağır sultan bile duydu atasözünde geçen bir söz. /Misr. **Misir II** *isim, bitki bilimi* Buğdaygillerden, gövdesi boğumlu ve kalın, yaprakları şerit biçiminde, boyu yaklaşık 2 metre olabilen, erkek çiçekleri tepede salkım durumunda, dişi çiçekleri yaprakla gövde arasında koçan biçiminde olan bir kültür bitkisi (Zea mays). /Makkajo‘xori o‘simligi.

Belgi bildiruvchi leksema shu belgi stereotip sifatida uchraydigan millatga nisbat berish asosida qayta nomlangan: ***Osmanlıca I*** Osmanlı Türkçesi./ Usmonlicha, Usmonli turkchasi. **O*smanlıca II*** Osmanlının tavrı ve hareketleri gibi. /Usmoniylardek.

Birdan ortiq narsa-ashyoni bir narsaga o‘xshatish asosida omonimlar yuzaga keladi: ***öküzgözü I*** *a. (öküzgözü) bit. b.* Birleşikgillerden, sarı renkte, papatyayı andırır bir çiçek ve onun bitkisi, sığırgözü, mastı çiçeği, arnika *(Arnica montana).* /Arnika (qoqidoshlar oilasiga mansub o‘simlik nomi).

öküzgözü II *a. (öküzgözü) bit. b.* Kaliteli, kendine özgü kokusu olan şarap üretilen, orta kalın kabuklu, siyah renkli bir tür üzüm./ Uzum navi.

Tilning ko‘p funksiyaliligi so‘zlarning noaniqligini keltirib chiqaradi. Agar so‘zning turli ma‘nolari tizimli ravishda bog‘langan bo‘lsa, bu ma’nolarni bir-biridan qanday farqlash, ma’no

belgilarida ularning qonuniyligini aks ettirish kerak bo‘ladi. Tildagi ko‘p ma’noli va omonim so‘zlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash semantik usuldagi omonim yasalishining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Ko‘p ma’nolilik va omonim so‘zlarning qiyosiy tahlili ma’nosini ajratish muammolarini bartaraf etish usullarini ishlab chiqishga ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Tildagi kop ma’nolilik omonimlik bilan aloqador. Bir qaraganda ularni farqlash qiyin. Omonimiyaga misol keltirish so‘ralganda ishtirokchilar ko‘p ma’noli so‘zlarni taklif qiladilar. Ko‘p ma’nolilik va omonimlik matn orqali farqlanadi. Bir til oilasiga mansub tillarda ularni farqlash mushkuldir. Ko‘p hollarda ko‘p ma’nolilik va omonimlik farqlanmaydi. Tadqiqotchilar bu shakllarning bir-biridan shakllanishi, vazifasi, ma’nosi jihatidan farq qilishini asoslab berishgan. Xorij manbalarida ikki turdagi so‘zlar o‘rtasidagi farqlarni topishda o‘ziga xos yondashuvlardan foydalaniladi. An’anaviy tilshunoslik tajribasi va kognitiv tahlillardan foydalanish tavsiya etiladi. Kognitiv tilshunoslik mental jarayonlarning yuzaga kelish omillarini tahlil qiladi [Popova, Sternin,2007;13].

O‘zbek va turk tillaridagi omonimik qatorlar yuzasidan tajriba o‘tkazilganda inson tafakkurida lingvistik me’yor asosida qabul qilingan omonimlardan tashqari yashash muhiti, tafakkuri bilan bog‘liq mental omonimlar ham mavjudligi aniqlandi. Omonimik qatorlarda mentallik bilan bog‘liq quyidagi birliklar kuzatildi:

so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar ishtirok etgan: *suzmoq I* “suvda suzmoq” , *suzmoq II* “ovqatni suzmoq”, *suzmoq III* “ko‘zini suzmoq” *suzmoq IV* “sigir suzmoq”, *suzmoq V “*kartani suzmoq” (Y.N., 21 yosh); “ko‘zini suzmoq” ma’nosidagi *suzmoq III* shu shakldagi ibora tarkibidan olingan; *“*kartani suzmoq” ma’nosidagi *suzmoq V* so‘zlashuv uslubiga xosdir; *sur I* “partani sur”, *sur II* “cholg‘u asbobi”, *sur III* “bu yerdan ket” (N.T.,20 yosh);

omonimik qatorlarda sheva so‘zlari keltirilgan: *aya I* “ona”, *aya II* fe’l (A.G., 20 yosh); *barmoq I “*tana a’zosi”, *barmoq II* “taom”, *barmoq III* “o‘yin turi” (R.M.,23 yosh); “taom” ma’nosidagi *barmoq II behsbarmoq* so‘zi tarkibidan ajratib olingan; “o‘yin turi” ma’nosidagi *barmoq III* shevadagi o‘yin nomidan olingan; *o‘r I* “hosilni o‘rmoq”, *o‘r II* “sochni o‘ramoq” (“o‘rmoq” deyilmoqchi), *o‘r III* “gapga kirmaydigan”, *o‘r IV* “ipni o‘rash” (N.M., 20 yosh).

Turk tilshunosligida so‘zlarning o‘zaro omonim bo‘lishi uchun talaffuzi va yozilishi bir xil, ma’nosi turlicha bo‘lishi yetarli hisoblanadi: *akrep (chayon)- akrep (soatning kichik mili)|; çay (choy)- çay (soy); dahi (hatto) - dahi (dohiy);ağız(og‘iz)- ağız(sheva)- ağız(og‘iz suti).* Shuning uchun ham turk tilidagi omonimik qatorlarda ham so‘zlashuv uslubi, shevalarga xos birliklar ko‘p kuzatiladi: *örük I halk ağzında* Saç örgüsü. /Soch o‘rimi. *örük II halk ağzında.* Hayvanları çayıra bağlamaya yarayan kalın ip. /Arqon.

Bu esa turk tilida ham mental omonimik qatorlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Turk tlil omonimlar lug‘atini tuzishda quyidagi xulosalarga kelindi:

Turk tilidagi omonimlarni harflar miqyosida izohlasak, eng ko‘p omonim *K* (131ta), *S* (75 ta), *A* (70 ta), *B* (56ta). Eng kam omonim *V* (2), *I* va *R* (4). *J* harfiga omonim uchramadi. *K* tovushli so‘zlarning kop uchrashi og‘zaki muloqot, sozlashuv uslubi, shevalarning adabiy tilga ta’siri natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Aygül Uçar.Anlambilimsel bağlantılılık: Türkçe eylemlerde Çokanlamlılık ile eş adlılığın ayrımı. Conference: In S. Ay, Ö. Aydın, İ. Ergenç, S. Gökmen, S. İşsever and D. Peçenek (Eds.), Essays on Turkish Linguistics: Proceedings of the 14th International Conference on Turkish Linguistics, 6-8 August 2008. S.215.

2.Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. −М.: Книжний дом “ЛИБРОКОМ”,2009. −С.152.

3.Попова З.Д., Стернин И.А. Семантико-когнитивный анализ языка. – Воронеж: Научное издание, 2007. – С.13.

H.HAMIDOVTIŃ QARAQALPAQ TILI TARIYXI BOYINSHA MIYNETLERI

S.Shınnazarova
f.i.k, docent,
Nókis mámleketlik pedegogikalıq institutı

Annotaciya. *Maqalada ilimpaz H.Hamidovtıń «Qaraqalpaq tili tariyxınıń ocherkleri» miynetine sholıw jasalǵan. Qaraqalpaq ádebiy tilin dáwirlestirip úyreniliwi, Maxmud Qashǵariydıń «Devanu luǵat it – turk», «Muhabbatnama”, Hibbatul-Haqayıq” hám basqa da kóplegen esteliklerdiń XVIII ásirge shekemgi qáliplesken formaları, onıń qaraqalpaq tiline fonetikalıq, grammatikalıq hám leksikalıq tárepten qatnası, qaraqalpaq shayırları hám jazba derekleri boyınsha usı tiykarda máselelerdiń sóz etiliwine baha beriledi.*

Tayanısh sózler. *Til bilimi, til tariyxı. ilimpaz H.Hamidov.*

Qaraqalpaq tili tariyxın izertlewshiler degende belgili ilimpazlar D.Nasırov, O.Dospanov, Sh.Abdinazimovlar menen bir qatarda ilimpaz H.Hamidovtıń da ismi, til ilimi ushın islegen xızmetleri, ornı girewli.

H.Hamidovtıń «Qaraqalpaq tili tariyxınıń ocherkleri» miynetinde de ana tilimizdiń tariyxı, ótmishi, qáliplesiw basqıshları sóz etiledi. H.Hamidovtıń bul miyneti haqıyqatında da qaraqalpaq tiliniń tariyxınıń rawajlanıw máselelerin óz ishine aladı.

H.Hamidov qaraqalpaq tiliniń tariyxın izertlewdiń áhmiyeti, jaǵdayı hám wazıypaları haqqında óz pikirlerin bildiriw arqalı qaraqalpaq tilinde usı til tariyxı boyınsha ózinen ańldıńǵı aytılǵan pikirlerge, ilimpazlardıń kóz-qaraslarına ayrıqsha toqtap ótedi. Til elementleri, onıń tariyxıy qáliplesiwi haqqında tómendegishe pikir bildiredi:

«Til elementleri uzaq dáwirler dawamında dáregi bolıp, olardıń xalıqtıń jámiyetlik tutqan roline baylanıslı ózgeriwi yamasa biratala joq bolıp ketiwi de uzaq ásirler dawamında júzege keledi. Házirgi dáwirdegi tillerdiń bir qatar elementleri eń áyyemgi waqıtlarda payda bolıp, óz ústinen kóp zamanlarda hám payda bolıp olardıń sınaǵınan ótip usı kúnge kelip jetken. Til waqıttıń barometri sıpatında hárbir dáwirdiń ózgesheliklerin sáwlelendirip otıradı.Til óziniń rawajlanıwınıń dáslepki basqıshlarında júdá ápiwayı bolsa da óziniń dáwirlerine say sózlik fondına hám grammatikalıq qurılısına iye bolǵan. Sol dáwirlwrde payda bolǵan sózlik fondtıń hám grammatikalıq qurılıstıń tiykarı saqlanıp, biraq forma, san hám sapa jaǵınan ózgerisler menen biziń dáwirimizge deyin jetip kelgen. Áyyemnen kiyatırǵan bunday til elementleri házirgi dáwirdıń barlıq tillerde de gezlesedi. Bunday eń áyyemgi elementlerdi qaraqalpaq tiliniń sózlik fondında,grammatikalıq qurılısında da gezlestiremiz» [1.4.] dep haqıyqıy ilimiy kóz-qarasın bildiredi.

Ilimpaz óz kitabınıń usı kirispesinde belgili bir tildiń tariyxınıń ulıwma ocherklerin jasaw ushın aldın ala sol tildiń tariyxı boyınsha islengen baqlawlar, ayırım etapları boyınsha bir qatar izertlew jumıslarınıń bolıwı zárúr dep kórsetedi hám qaraqalpaq tili tarıyxınıń izertlewinde belgili orıs tlshi ilimpaz N.A.Baskakovtıń miynetin atap kórsetedi. Bul ilimpazdıń miynetlerine súyenip

akademik H.Hamidov: Onıń eki tomnan ibarat: «Qaraqalpaq tili» atlı miyneti tek ǵana qaraqalpaq tiliniń házirgi kúndegi máselelerine yamasa dialektologiyasına arnalıw menen sheklenbeydi. Bul jıslarında avtor qaraqalpaq tiliniń tarixınıń túpkilikli máselelerine hám onı úyreniwdegi wazıypalarǵa keńnen toqtalǵan. Demek, bizińshe tariyxıy aspektten qarap jazılǵan, onıń qaraqalpaq tiliniń fonetikası hám morfologiyası, sintaksis hám leksikası boyınsha jumısları, sonıń menen birge qaraqalpaq tiliniń qáliplesiwi máselelerine arnalǵan jumısları qaraqalpaq tili tariyxınıń kóp máselelerin ayqınlastıradı.

H.Hamidov qaraqalpaq tili tariyxı boyınsha joqarıda atap ótkenimizdey N.A.Baskakovtıń miynetlerin kórsetiw menen birge tilshi ilimpazlardan D.S.Nasirov, O.Dospanov, D.Saytov hám basqalardıń qaraqalpaq tili tariyxınıń bir qatar máselelerine tiyisli miynetleri payda bolıp, olarda tilimizdiń tariyxı belgili bir dáwir ishinde stillik aspektten qaraladı dep kórsetedi.

Ilimpaz H.Hamidov qaraqalpaq tili tariyxınıń qaraqalpaq xalqınıń tariyxına qatnası tuwralı sóz etkende, qaraqalpaq tiliniń tariyxın úyreniw tek ǵana bir til materiallarına tiykarlanıw menen sheklenbey, onı ózi menen sıbaylas ilimniń basqa da tarawları menen baylanısta alıp barılsa jemisli boladı. Tildiń ózi jámiyetlik qubılıslardıń biri bolǵanlıqtan, onıń ósip rawajlanıwı jámiyettiń basqa qubılıslardan ajıralǵan halda bolmaytuǵını málim. H.Hamidov bul miynetiniń kirispesiniń 2-bóliminde Qaraqalpaq tiliniń tariyxı – qaraqalpaq ádebiyatınıń tariyxı menen de tıǵız baylanıslı, sebebi kórkem ádebiyatta dóretetuǵın jazıwshı-shayırlar ózleriniń shıǵarmalarında tilden sheber paydalanıp, onı óziniń talantı menen bayıtıp otıradı deydi. Kirispesiniń 3-bóliminde qaraqalpaq xalqınıń tariyxı boyınsha qısqa maǵlıwmat berip, qaraqalpaq xalqınıń etnikalıq quralı,onıń sak-massaget qáwimleri menen baylanıslı ekenligi VII-II ásirlerde Kaspiy teńizinen baslap Ámiwdáryaǵa deyingi aralıqtı kórsetedi. H.Hamidov qaraqalpaq xalqınıń xalıq bolıp qáliplesiwinde qarluq, oǵuz, pecheneg qáwimlerin qaraqalpaq xalqınıń qáliplesiwine tiykar salǵan degen ilimiy tiykardı kórsetedi. Túrkiy tilleriniń úyreniliw tariyxınan qısqasha maǵlıwmatlar bóliminde túrkiy tili eń dáslepki ilimiy izertlewine Maxmud Qashǵarıydıń «Devonu luǵat-it-turk» miynetin atap kórsetedi. Onı shın mánisinde XI ásirde jazılǵan, ilim dúnyasında túrkiy tillerinde eń birinshi ret ilimiy izertlew obyekti boldı dep atap kórsetedi.

«Qaraqalpaq tiliniń tariyxın izertlew derekleri» dep atalǵan atalǵan bóliminde: qaraqalpaq tiliniń ertedegi jaǵdayların izertlep úyreniw ushın eń aldı menen qaraqalpaq xalqınıń óziniń basıp ótken jolı tariyxıy baǵdar bolıp xızmet isleydi – dep kórsetedi. H.Hamidov qaraqalpaqlardıń, olardıń ata-babalarınıń júrip ótken tariyxıy qáwimlerin atap kórsetedi. Ol haqqında ásirese N.A.Baskakovtıń «Qıpshaq qáwimleri X-XI ásirlerde pecheneglerdiń hám XI-XII ásirlerde Poloveclerdiń qáwimlik birikpelerinde XIII-XIV ásirlerde Altın Orda mámleketinde qazaq, ózbek, keyinirek qaraqalpaq awqamları bólinip shıqqan úlken Noǵay ordasınıń quramlarında XV ásirge deyin qatnasıp kelgen. Házirgi qaraqalpaq tiline tiykar bolǵan qáwimlik tiller óziniń tariyxınıń ádewir erte dáwirlerinde bulǵar tiliniń, ekinshi tárepten oǵuz tillerıniń tásirine, sonday-aq Orta Aziyanıń, áyyemgi xorezmlilerdiń aytarlıqtay tásirine ushıradı» [1.20]) degen pikirin basshılıqqa aladı.

Bul kitaptı jazıwda H.Hamidov professor N.A.Baskakovtıń usı til tariyxı boyınsha bir qatar ilimiy pikirlerin úyrenip shıǵadı hám belgili juwmaqlar shıǵaradı. Atap aytqanda, «Qaraqalpaq tiliniń tariyxın úyreniw boyınsha áyyemgi estelikler, máselen, áyyemgi ıdıslarda oyıp jazılǵan jazıwlardan baslap, evret, armiyan, grek, arab avtorlarınıń miynetlerinde, rus jılnamalarında hám onomastika, toponimika, jeke adam atları, urıwlıq atamalar, qalalardıń hám elatlı túsiniklerdiń atamalarına deyingi pecheneg hám bulgar tillerıniń estelikleri, Kodeks-kumanikus uyǵırlardıń qulpı taslarındaǵı jazıwları, áyyemgi uyǵır hám arab alfavitindegi qaraxaniylerdiń esteliklerinen

baslap eski ózbek hám Altın Orda ádebiy tilleriniń barlıq etapları boyınsha rawajlanıwına deyingi estelikleri boyınsha tereń monografiyalıq izertlewler júrgiziw zárúr»– dep kórsetedi.

«Orxon- Enisey jazıwı esteliklerиniń qaraqalpaq tiline qatnası» degen tema berilgen. Bul temada S.E.Malov, T.Aydarov, Fazilovlardıń miynetlerin basshılıqqa alǵan ayırım jerlerde miynetlerinen keltiredi.

H.Hamidov Orxon-Enisey estelikleri bólimin 5 toparǵa bólip úyrengen. 1.Tonikok esteligi, 2.Qultegin esteligi, 3. Bilke qaǵan esteligi, 4.Enisey estelikleri, 5.Tús jorıw esteligi. Soń usı temada Orxon-Enisey jazıwı estelikleri tiliniń qaraqalpaq tiline fonetika tarawında qatnası, morfologiyalıq ózgeshelikleri, Orxon-Enisey jazıwı esteliklerиniń leksikası haqqında toqtap ótedi. Bunnan soń 87-160-betlerge shekem «Maxmud Qashǵariydiń «Devonu luǵat it –turk» sózligi hám qaraqalpaq tili» degen temada usı sózliktiń qurılısı, fonetikası, grammatikası, leksikası máselelerine itibar qaratadı. Bul temadan soń «XIII-XV ásirlerdegi qıpshaq-oǵuz tiliniń estelikleri hám qaraqalpaq tili» temasına orın ajıratılıp onda Jamalatdin Turkiydiń «Kitab bulǵat ál mushtaq fi luǵat át turk wál qifshaq» (turkiy hám qıpshaq tillerin úyreniwge mútáj adamlar ushın qollanba kitap» atlı sózligine sholıw jasaydı. Qıpshaq oǵuz tili esteliklerиniń morfologiyalıq, fonetikelıq, leksikalıq ózgeshelikleri menen birge, XVIII-XIX ásirlerdegi jazba estelikler tiliniń morfologiyasına itibar qaratadı. Usı ásirdegi estelikler tiliniń fonetikası, morfologiyası, leksikası haqqında óz pikirlerin bildirgen.

H.Hamidovtıń «Qaraqalpaq tili tariyxınıń ocherkleri» miynetinde joqarıda atap ótilgen máseleler menen birge XVIII-XIX ásirlerdiń qaraqalpaq shayırlarınıń tili temasına orın berilgen. Bul temada Berdaq, Ájiniyaz, Kúnxoja shayırdıń tillik ózgeshelikleri, shıǵarmaları tiliniń fonetikası, morfologiyası hám leksikalıq quramı máseleleri aytılǵan. Demek bul kitabında H.Hamidov tárepinen qaraqalpaq tili tariyxın hár jaqlama dáwirlestirilgenin kóremiz.

Ádebiyatlar:

1. H.Hamidovtıń «Qaraqalpaq tiliniń tariyxınıń ocherkleri». Nókis, Qaraqalpaqstan, 1974.

G‘ALLAOROL TUMANI KASHSHOF QISHLOG‘I SHEVASI LEKSIKASI XUSUSIDA

ABOUT THE LEXICON OF THE DIALECT OF THE KASHSHOF VILLAGE OF GALLAOROL DISTRICT

UBAYDULLAYEV Alisher Abdusalomovich
Mizo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilining Qipchoq dialektiga kiruvchi Kashshof qishlog‘i shevasida faol qo‘llanuvchi ayrim so‘zlar fonetik va leksik jihatdan qiyoslanib, tahlilga tortilgan hamda bu to‘g‘rida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, dialektdagi leksik birliklar “Devonu lugotit turk”, “Qutadg‘u bilig” asarlarida keltirilgan shevaga xos leksemalarga qiyoslangan. Misolllar tahlilida taqqoslash, qiyosiy-tarixiy kabi bir qator lingvistik usullardan samarali foydalangan.*

Kalit so‘zlar: *Kashshof qishlog‘i shevasi, dialektologiya, qipchoq, qarluq, o‘g‘uz lahjasi, fonetik, leksik xususiyatlar, so‘zlashuv nutqi.*

Abstract*. In the article, some words that are actively used in the dialect of the Kashshof village, which is part of the Kipchak dialect of the Uzbek language, are phonetically and lexically compared and analyzed, and comments are made about it. Moreover, the lexical units in the dialect are compared to the lexemes specific to the dialect presented in the works "Devonu lugotit turk", "Qutadg'u bilig". Comparative, comparative-historical linguistic methods are used effectively in the analysis of examples.*

Key words: *Dialect of Kashshof village, dialectology, Kipchak, Qarluq, Oghuz dialect, phonetics, lexical features, colloquial speech.*

Millatimiz g'ururi va iftixori bo'lgan ona tilimizning sofligini saqlash, dunyo miqyosida rivojlantirish uchun muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan qarorlarning ahamiyati kattadir. Har bir xalqning o'zligini namoyon etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlari bo'ladi. Til shaxs va jamiyat salohiyati hamda madaniyati saviyasining o'ziga xos belgisidir. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak - millatning ruhini yo'qotmakdur" degan hikmatli so'zlari yurtning istiqboli tilda ekanligini chiroyli isbotlaydi. Darhaqiqat, millatning yuzi, yurtning istiqboli uning tilida, unga bo'lgan hurmatda o'z aksini topadi. Tilimizni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar, o'quv qo'llanmalar, yangi-yangi lug'atlar va darsliklar ko'plab nashr etilayotgani jamiyatimizning ziyoli insonlarini, kelajak avlodning tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Ma'lumki, mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan jonli xalq tili - bu sheva. Shevada shu xalqning hayoti va madaniyati to'liq o'z aksini topadi. Shevadagi jozibadorlik va ta'sirchanlikni ba'zan adabiy tilda yetkazib berish qiyin.

Bilamizki, til egasi nutq uchun qulay birlik izlaydi, fikrini oson, ta'sirchan va tushunarli yetkazish so'zlovchining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu bois adabiy tildagi birliklar shevalarda turli o'zgarishlarga (fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlar)uchrashi mumkin. Tilning sofligini saqlash borasida yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ishlarga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-dekabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyada tilimizning bugungi holati tanqidiy tahlil etilib, uni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar yo'nalishi aniq ko'rsatib berilgan. Xususan, turli sohalardagi ko'plab atamalarni o'zbekchalashtirish, yangi atamalarga mos muqobil so'zlarni topish, sheva so'zlarini o'rganishni yanada takomillashtirish, tilimiz sofligini ta'minlash uchun zaruriy choralarni ko'rish belgilangan. Bu esa tilshunos, shevashunos olimlar va tadqiqotchilardan bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlarida til sofligini ta'minlash borasidagi ishlarga alohida ahamiyat qaratishi zarurligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari va shu kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, sohalardagi atamalarni o'zbekchalashtirish, muqobili bo'lmagan tushunchalarga shevalarimizdan mos so'zni tanlash, turli qiyosiy va etimologik lug'atlar nashr etish, zarur atama, tushunchalarni ilmiy asoslash hamda ommalashtirish, shuningdek, o'zbek tili leksikasini ilmiy asosda har tomonlama o'rganish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbek tili leksikasini sheva so‘zlari bilan boyitish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratish zarur. S.Ashirboyevning ta’kidlashlaricha, shevalar to‘xtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarning doimiy ravishda nazariy jihatdan o‘rganib borishni taqozo etadi va ilmiy-nazariy ahamiyatini keltirib chiqaradi [Ashirboyev 2021:8]. O‘zbek sheva va lahjalarini o‘rganish hamisha dolzarb hayotiy ehtiyoj hamda zaruratni hosil qiladi. Tilimiz turkiy tillar ichida ko‘p lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. O‘zbek shevalarining leksikasini o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, o‘zbek tili qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo‘lib, asosan qipchoq lahjasiga kiruvchi Jizzax viloyati G‘allaorol tumani Kashshof qishlog‘i shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko‘ra sezilarli darajada farq qiladi.

O‘zbek tili turkiy tillar ichida ko‘p lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. O‘zbek tili qipchoq, qarluq va o‘g‘uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo‘lib, asosan qipchoq lahjasiga kiruvchi G‘allaorol tuman dialekti boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko‘ra farq qiladi. O‘zbek shevalarining leksikasini o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbek shevalarining murakkab tarkibiga egaligi, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O‘zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o‘ziga xosligi jihatidan ham o‘zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan ba’zi o‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholi yashaydigan hududlarga nazar tashlab shevalar bo‘yicha fonemalarning munosabatiga son jihatdan qarasak, ularning yagona bir markazga ya’ni adabiy til uchun asos bo‘ladigan markazga qarab yo‘nalishini ko‘ramiz. Adabiy tilning shakllanishida bevosita ishtirok qilgan ba’zi o‘zbek shevalarining unlilari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. V.V.Reshetov o‘zbek shevalarining tarixiy lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo‘shni tillar (tojik, qozoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o‘zbek shevalari tasnifini tuzdi. U o‘zbek xalqi tarkibida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan farq qiladigan uch dialekt borligini aniqlab, o‘z navbatida bu dialekt birliklari o‘zbek tili oilasida 3 lahjani vujudga keltirganligini ko‘rsatib beradi.

1. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi bo‘lib, uyg‘ur tiliga yaqin, tojik tili bilan yaqin etnolingvistik munosabatda bo‘lgan.

2. Qipchoq lahjasi – qozoq, qoraqalpoq tillari bilan yaqin.

3. O‘g‘uz lahjasi – turkman tili bilan yaqin.

Qipchoq shevalarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishda Professor X.Doniyorovning Samarqand viloyati sharqiy hududi shevalarining etnogenetik va lingvistik xususiyatlari bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari e’tiborga molikdir. Olimning “O‘zbek xalqining shajara va shevalari” (1968), “O‘zbek tilining j lovchi dialektlarini adabiy til bilan qiyoslab o‘rganish”, “Eski o‘zbek tili va qipchoq dialektlari”(1977), “Qipchoq dialektlarining leksikasi”(1979) va V.Egamovning “O‘zbek tilining G‘allaorol shevasi”(1955), H.G‘ulomovning Jizzax shevasi kabi bir qancha ilmiy va monografik tadqiqotlar yaratilaganligini alohida ta’kidlashimiz lozim.

Keltirilgan ilmiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, Kashshof qishlog‘i shevasi leksikasi o‘zbek shevashunosligida maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Biz Kashshof qishlog‘i shevalari leksikasi yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz natijalari o‘laroq sheva materiallarini quyidagi lingvistik belgilariga ko‘ra tasnif qildik:

1. Marosimlar bilan bog‘liq shevaga oid so‘zlar:

Maslahat oshi - to‘y marosimi oldidan qavm-qarindoshlar yig‘ilishib to‘y o‘tkazish haqida bo‘ladigan tadbir;

O‘tin oshi - to‘y marosimi oldidan yig‘ilishib to‘yga tayyorgarlik uchun o‘tkaziladigan tadbir;

Chupron to‘yi - sunnat to‘yi

Pata: to‘yi - fotiha to‘yi

Xudoyi - ehson berish

Sust xotin - yomg‘ir yog‘ishini so‘rab o‘tkaziladigan marosim

Jilgo‘ja - mollarni podachiga qo‘shib berishda o‘tkaziladigan marosim (darveshona)

Qo‘niq (***qönäq***) - so‘zi ham shevada “mehmon, to‘yda keladigan mehmon, to‘ylarda beriladigan kichik ziyofat” kabi ma’nolarda faol qo‘llanadi

Non sidiruv - unashtirsh marosimi

Kuyov chaqirdi - to‘ydan keyin kelin taraf kuyovni alohida mehmonga chaqirish marosimi

2. Taom nomlari bilan bog‘liq sheva so‘zlari:

Unosh - xamirdan tayyorlanadigan taom turi (ugra)

Kulchatay (kulchatoy) - xamirdan tayyorlanadigan taom turi (shilpildoq)

Oymosh - xamirdan tayyorlanadigan taom turi (ugra)

Lachira - xamirdan tayyorlanadigan taom turi (lavash xamiri)

Juqma - xamirdan tayyorlanadigan taom turi (yupqa, g‘ilvindi)

Barak - xamirdan tayyorlanadigan taom turi (chuchvara)

Qatlama - undan to‘y marosimi uchun tayyorlanadigan non turi

Cho‘zma - undan tayyorlanadigan non turi (ehson uchun, is ham deydi)

Qurtova - qattiq qurtni iliqroq suvga solib tayyorlanadi

Pichak - oshqovoq va ismaloqdan tayyorlanib tandirda yopib pishiriladigan ovqat turi

Chirich non - non xamiriga madordan solib tandirda yopiladigan non turi

Atala - bug‘doy uniga sariyog‘ qo‘shib tayyorlanadigan taom turi (asosan yaqinda farzandli bo‘lgan onalarga tayyorlanadi)

Qorasho‘rpa - sariyog‘ga tayyorlanadigan sho‘rva (qovurma sho‘rva)

Oqlosh - guruchi suvga qaynatib unga ayron yoki suzma aralashtiriladi (mastava)

Uvuz oshi - tug‘gan sigirning birinchi sutidan tayyorlanadigan taom turi

Sirguruch (shirguruch) - sut va guruchdan tayyorlanadigan quyuq taom (fors-tojikcha: *shir* – sut; *birinch* - guruch)

Chakki - adabiy tildagi suzmaning shevada atalishi

Jajmij - issiq nonga sariyog‘ qo‘shib qo‘l bilan aralashtirib tayyorlanadigan taom turi

Ko‘pkan non - tandirda yopiladigan non

Ko‘mach - cho‘qqa ko‘mib pishirilgan non (kepakdan tayyorlanib cho‘qqa ko‘mib pishiriladi va qoramolga beriladi)

3. Hayvon, hasharot nomlarining sheva variantlari:

Qumursqa - chumoli

Olashosqshoq - zag‘izg‘on

Mazichak - qo‘yning bolasi, qo‘zichoq

Pishak - mushuk

Zombir - boshqa ari turlariga nisbatan ancha yirik ari. Arining bir turi

Horra - kichkina, rangi sariq ari turi

Vayvayak - tulkining bir turi

Olaqush(avg‘onqush) - mayna

Boyqush - boyo‘g‘li

Qoshqir - bo‘ri

Kirpi - tipratikon
Qulun - otning bolasi, toychoq
Bo‘taloq - tuyaning bolasi
Ishshsak - ikki yashar qo‘y
Chori - to‘rt yashar qo‘y
Panji - besh yashar qo‘y
Gidik - itning bolasi

4. Qarindoshlikni bildiruvchi dialektal so‘zlar:

Katta ena - buvi
Katta ota - bobo
Aka - ota
Opa - ona
Opacha (opcha) - o‘zidan yoshi katta qiz farzand
Bo‘la - opa-singilning farzandlari
Jezda - yoshi katta ammasining turmush o‘rtog‘iga nisbatan
Pochcha - o‘zidan katta opasining turmush o‘rtog‘iga nisbatan
Checha - kelinoyi
Yanga - kelinoyi
Amaki - aka-ukaning farzandlari
Bola - qaynuka
Qiz bola - qaynsingil

5. Meva, sabzavot, o‘simliklarning shevada o‘ziga xos nomlanishi:

Ashkadi - qovoq, oshqovoq
Qoroli - olxo‘ri
Olmurt - nok
Nashvati - nok
Zardoli - o‘rik
O‘rik qoqi - o‘rikning quritilgani, turshak
Qoqi o‘t - moychechak
Chapcha - pishmagan tarvuz-qovunga nisbatan
Pidina - yalpiz
Shivit - ukrop
Chirich - mador o‘simligi
Chimoloy - chuchmomo

Misollardan ko‘rinadiki, o‘rtada uzoq muddat bo‘lishiga qaramay qiyosiy tahlilga tortilgan so‘zlarning aksariyati bugun o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmasa-da, mavjud shevalarimizda faol ishlatilib kelinmoqda. Ushbu leksemalarning ba’zilari ma’no o‘zgarishiga uchragan bo‘lsa, ayrimlari fonetik o‘zgarishlar bilan hozirgi adabiy tilda istifoda qilinmoqda. Bu esa, tilimiz, shevalarimiz va xalqimizning tarixiga borib tutashadi. Fonetik va leksik jihatdan o‘ziga xos bo‘lgan Kashshof qishlog‘i shevasi monografik tadqiqot olib boruvchi yoshlarni kutmoqda. Tilimiz boyligi sanalgan sheva va lahjalarimizdagi so‘zlarni yozib olib, bu orqali adabiy tilimizni yanada to‘ldirib, boyitib borish dialektologiya fani oldida turgan dolzarb masalardan biridir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, G‘allaorol tumani Kashshof shevasi qipchoq shevalari orasida o‘ziga xos leksik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hudud shevasi o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga mansub bo‘lib o‘ziga xos lug‘at boyligi bilan ajralib turadi. Nazarimizda, qishloq dialektal leksikasini o‘rganish, ularni ma’noviy guruhlarga ajratish va izohlash muhim ahamiyatga

ega. Shubhasiz, ular o‘zbek tilining dialektalogik lug‘atini yaratishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent. 2021. -B. 8.
2. Б.Абдушукуров. “Девону луғотит турк” ва ўзбек тили шевалари. “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan),- Toshkent, ToshDO‘TAU, 2021-yil, 22-may.180-bet.
3. M.Xolmurodova. “Qutadg‘u bilig”dagi nodir turkiy so‘zlar. “O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Toshkent, ToshDO‘TAU, 2020-yil 19-20-oktabr. 194-bet.
4. Ш.Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати(туркий сўзлар) Университет. -Тошкент, 2000.
5. Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН,1960-1963.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. – Тошкент: ФАН, 1983-1985.
7. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.
8. R.Suvonova. Qipchoq shevalariga xos so‘zlar lug‘ati. -Samarqand: 2019.

QIPCHOQ LAHJASIDAGI QARG‘ISH VA OLQISHLARGA OID AYRIM SO‘ZLAR IZOHI

EXPLANATION OF SOME WORDS FOR CURSES AND APPLAUSES IN THE KIPCHOK DIALECT

Kurbonov Zaynidin Oltinovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,
Samarqand davlat universiteti
kurbanovzaynidin1@gmail.com

Bo‘riboyeva Muqaddas Zayniddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
@MuqaddasZayniddinovna@mail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, asosan, adabiy tilda uchramaydigan, qipchoq lahjasiga mansub ma’lum bir hudud shevasida iste’molda bo‘lgan qarg‘ish va olqishlarga oid so‘zlarning ma’nolari izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *dialekt, leksik xususiyatlar, qipchoq lahjasi, bajanak, o‘g‘uz, yamak, bashg‘irt, basmil,qarg‘ish,olqish.*

Abstract. *In this article, the meanings of cursing and cheering words used in the dialect of a certain region belonging to the Kipchak dialect, which are not found in the literary language, are explained.*

Key words: *dialect, lexical features, kipchak dialect, bajan, oghuz, yamak, bashghirt, basmil, cursing, applause.*

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlashda tilga oid qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning o‘rni katta [4]. O‘z tilining, o‘z milliy mafkurasining nozik qirralarini-da, bilishi va o‘rganishi suv va havodek muhim. Milliy madaniyatni anglashi uchun, albatta, ona tili asosiy manbadir. Ma’lumki, til doimiy o‘sish va rivojlanishda bo‘lgan hodisa sifatida leksik, morfologik, fonetik, sintaktik jihatdan o‘zgarib, takomillashib boradi. Xususan, o‘zbek dialektlarining xilma-xilligi, lisoniy hodisalarning hududiy farqlanishi o‘zbek milliy tilining ildizlari nechog’lik mustahkam, ifoda imkoniyatlarining boy ekanligini isbotlaydi.

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda **sheva, dialekt, lahja** degan terminlar qo‘llanadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma’nolarini bilish albatta zarurdir. O‘zbek shevalari uch katta dialektga birlashsa-da, O‘zbekiston hududidagi har bir viloyat, tuman yoxud qishloq shevasi muayyan farqlarga ham ega. Buni Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo Navoiy, Jizzax viloyatlarining bir necha tuman va qishloqlarida; Shimoliy Xorazm, Ohangaron vodiysida, Mirzacho‘l va O‘ratepa atrofida yashovchi aholi iste‘molida bo‘lgan qipchoq lahjasi asosida ham ko‘rish mumkin [Ashirboyev S. 2013. 4].

O‘zbek tilining har bir lahjasi o‘zining xususiyatlari bilan bir-biri bilan ajralib va umumiylashib turadi. Qipchoq urug‘lari va tili xususida XIII–XIV asrga tegishli yodnoma *“Attuhfatuz zakiyati fil lug‘otit turkiya”* (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob kitob)da ham qimmatli tarixiy lingvistik ma’lumotlar mavjud. O‘zbek tilining qipchoq lahjasi har xil turkiy urug‘-qabila guruhi vakillarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida *qipchoq, nayman, qang‘li, laqay, uyshin, qoraqalpoq, saroy, qiyot, xitoy, tuyoqli, arg‘in* kabi ko‘pgina urug‘-qabilalar bor. O‘zbek baxshilarining aksariyati qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilardir. Qipchoq lahjasining lingvistik xususiyatlari *A. Shcherba, V.V. Reshetov, M. Mirzayev, F. Abdullayev, X. Doniyorov* va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Shu o‘rinda qipchoq lahjasining leksikasiga oid ayrim qarg‘ish va olqishni ifodalovchi so‘zlarning tahliliga e’tibor qaratamiz. Ma’lumki, qarg‘ish kishilarga faqat yomonlik tilash maqsadida qo‘llaniladi. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev “Qarg‘ish “yomonlik tilab aytiladigan so‘zlar”. *Otinoyining … og‘zidan qarg‘ish va nolish arimay qoldi* (Parda Tursun). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z aslida o‘sha davrda mavjud bo‘lib, “la’natla” – ma’nosini anglatgan **қарығ** – fe’lidan – **(ыш)** qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan; o‘zbek tili **а** unlisi **ä** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: **қарығ + ыш = қарығыш > қарғыш > қäрғиш.** Turk tilida **қарға** fe’li **қарғы –** tarzida talaffuz qilinishi aytilgan va **қарғиш** so‘zi ham keltirilgan degan fikrlarni keltirib o‘tadi [Rahmatullayev Sh.2000. 254].

Quyida shevasi asosan qipchoq lahjasiga mansub bo‘lgan Qo‘shrabot tumani aholisi iste’molidagi qarg‘ish so‘zlar tahlili keltiriladi:

Adabiy tilda	Shevada	Transkripsiya
U dunyo-yu bu dunyoda tirnoqqa zor bo‘lib o’t.	Vu dunyo-yu bi dunyoda tirnoqqa zor bo‘p vo‘t	Vü dünĵāĵu bi dünĵādä tirnāqqa zār böp vöt
Ko‘zing teshilsin	Ko‘zing teshilsin	Kozïŋ tešilsin
Ko‘zing oqib tushsin	Ko‘zing oqip tishsin	Kozïŋ āqïp tišsin
Topganing tobutingga buyursin	Topkaning tobitingga biyirsin	Tāpkanïŋ tābïtïŋa biĵirsin
Ustingga ajriq yog‘sin	Ustingga ajriq jovsin	Ustïŋa ajrïq jāvsin
O‘z boshingni o‘zing yegur	Vo‘z boshingni vo‘zing jegur	Vöz bāšïŋni vözïŋ jegur
Ko‘karmagur	Ko‘garmagur	Kogarmagur
Urug‘ingga o‘t tushsin	Urug‘inga vo‘t tushsin	Uruĝïŋa vöt tüšsin
Urug‘ing qurisin	Urug‘ing qurisin	Uruĝïŋ qurïsïn
Otasiga la’nat	Attasiga la’nat	ättäsigä länät

Olqish – kishiga ezgu niyatlar tilash, uning ruhini ko‘tarish, yaxshilik sari da’vat etish olqishning yetakchi belgisi sanaladi. Olqish “qo‘llab-quvvatlashni, mamnunlikni bildiruvchi qarsak”. *Yig‘ilganlar uni olqish bilan qarshi oldi.* Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “xursand qil”, “maqta” ma’nolarini anglatgan **–ал** fe’liga “takror” ma’nosini ifodalovchi **–қа** qo‘shimchasining **қы** shaklini va **–ш** harakat nomi qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan; ma’no taraqqiyoti natijasida harakat nomi otga ko‘chgan; o‘zbek tilida **а** unlisi **ä** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: **(ал+ қы= алқы)+ш= алқыш > älқиш** hosil bo‘lgan [Rahmatullayev Sh.2000. 530]. Hudud aholisi tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan olqish so‘zlar quyidagilar:

Adabiy tilda	Shevada	Transkripsiya
Oy borib, omon kel	Oy borip, omon ke	āĵ bārip āmān ke
Boshing toshdan bo‘lsin	Boshing toshtan bo‘sin	Bāšïŋ tāštän bösin
O‘zlaringdan unib o‘singlar	Vo‘zlarindan vo‘nib vo‘singlar	Vözlärindan vönib vosïŋlar
O‘zlaringdan ko‘payinglar	Vo‘zlaringdan ko‘payinglar	Vozlarïŋdan kopaĵïŋlar
Qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin	Qo‘shqaniminan qo‘sha qarisin	qošqanïmïnan qoša qarïsïn
To‘ydan boshi chiqmasin	To‘ydan boshi chiqmasin	Töĵdän bāši čïqmasïn
Haydaganing qo‘y bo‘lsin	Haydaganing qo‘y bo‘sin	Haĵdaganïŋ qoĵ bösin
Yetmishga yetib yursin	Jetmishga jetib jursin	Jetmišgä jetib jürsin
Saksondan sakrab o‘tsin	Saksandan sakrap vo‘tsin	Säksändän säkräp vötsin
To‘qson bilan to‘qnashib (uzoq umr ko‘rsin ma’nosida)	To‘xsanminan to‘xnashib	Toxsanmïnan toxnašïb
Yaxshiga yondosh bo‘lsin	Jaxshiga janashtir	Jaxšiga jänäštir
Tog‘day o‘yib bersin	Tovday o‘yip persin!	Tāvdäĵ öĵip persin
Sihat-salomatlik bo‘lsin	Tani sovlik bo‘sin	Täni sāvlik bösin
Niyatimiz dargohiga qabul bo‘lsin	Niyatimiz dargayida qabul bo‘sin	Niĵätimiz därgaĵidä qabul bösin

Olib borilgan tahlillarimizni xulosa qiladigan bo‘lsak, aholi tilida ishlatilayotgan olqish va qarg‘ishlar adabiy tildan, asosan, fonetik jihatdan farq qilishini kuzatamiz. Jumladan,

- *“-b”* tovushi o‘rniga *“-p”* tovushining ishlatilishi: *o‘yip persin, Oy borip*… kabilar;
- *“-g‘”* tovushi o‘rniga *“-v”* tovushining ishlatilishi: *sovlik, tovday*;
- *“-y”* tovushi o‘rniga *“-j”* tovushining ishlatilishi: *Jaxshiga janashtir, Jetmishga jetib jursin, jovsin (yog‘sin), jegur (yegur)* kabilar;
- *“o”* unlisi ko‘pincha *“a”* holida talaffuz qilinadi: *janashtir, saksandan;*
- *“h”* undoshi *“y”* tarzida talaffuz qilinadi: *dargayida* kabi.
- *“qilsin”, “bo‘lsin”* so‘zlari tarkibidagi *-l* tovushinning tallaffuzda tushib qolishi;
- *“bilan”* so‘zi *“minan”* tarzida talaffuz qilinadi;
- Ko‘p hollarda *o‘, u* unlisi bilan boshlanadigan so‘zlarda *“v”* undoshi orttiriladi;
- *“u”* unlisi *“i”* tarzida talaffuz qilinadi.

Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, olqish so‘zlarning qarg‘ish so‘zlarga nisbatan ko‘p ekanligining o‘zi o‘zbek millatining tinchliksevar, mehridaryo, bir-biriga yomonlik tilashdan yiroq xalq ekanligining guvohi bo‘lamiz. Yuqorida sanalgan ezgu niyatlarda qo‘llaniluvchi ko‘plab birikmalar shu hudud xalqining kundalik iste’molidagi so‘zlar ekanligi ham fikrimizning dalili. Ushbu maqolada faqatgina bir qanchasi xalq tilidan yig‘ildi va tahlil ostiga olindi. Chuqur izlanish olib borilsa bu kabi birikmalarni ko‘plab uchratish va o‘zbek tilining qay darajada yuqori ekanligini yana bir karra anglab yetish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent-2013. – b. 88
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент-2000. – б. 600
3. Oltinovich, K. Z. ., & qizi, B. M. Z. . (2023). Qipchoq lahjasidagi ijobiy ma’noga ega sifat so‘z turkumiga oid ayrim so‘zlar izohi. fan, ta’lim va amaliyotning integrasiyasiyasi, 4(2), 59-61. retrieved from ttps://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/55
4. “2020–2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” 2020-yil 20-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

IQON SHEVASI LEKSIKASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE LEXICON OF THE IKAN DIALECT

Xidraliyeva Zoxira Riskulovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dots. v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Iqon shevasining leksik xususiyatlarini aks ettiruvchi lug‘at boyligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiy til, sheva, dialektal so‘z, leksik qatlam, zamonaviy leksik qatlam, leksik-semantik tarkib, turkiy lahjalar, fonetik o‘zgarish.*

Abstract. *This article discusses the wealth of vocabulary that reflects the lexical features of the Iqan dialect.*

Key words: *literary language, dialect, dialectal word, lexical layer, modern lexical layer, lexical-semantic content, Turkish dialects, phonetic change.*

Ma'lumki, o'zbek shevalari o'zbek milliy tilining tarkibiy qismi sifatida umumiy leksik qatlamga ega [Ashirboyev, 1921:77]. Shuningdek, har bir sheva o'ziga xos leksik tarkibga egaligi bilan farqlanadi. Shevalar lug'at boyligini atroflicha o'rganish o'zbek shevashunosligi, til tarixi va adabiy tilga doir masalalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilining o'g'uz lahjasiga kiruvchi Iqon shevasi leksikasini zamonaviy leksik qatlamlarga bo'lib o'rganish, shevada ko'p asrlik tarixiy, moddiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi rang-barang til faktlari mavjudligini ko'rsatadi.

Maqolada har bir guruhga oid so'zlarni tanlashda ularning adabiy tilda qo'llanmaydigan va Iqon shevasi uchun xarakterli bo'lgan so'zlari olindi, ya'ni adabiy tilda qo'llanayotgan ayni nomdagi so'zlar kiritilmadi, faqat kuchli fonetik o'zgarishga uchragan soz'lar hisobga olindi va quyidagi semantik guruhlarga ajratildi:

Oziq-ovqat nomlari. Bunday so'zlarni yana quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

oziq-ovqat uchun ishlatiladigan mahsulotlar nomi:

1. *a:ɣ u:n, qa:ra u:n, et* (go'sht), *qaq et* (tuzlab, quritilgan go'sht), *qarakäsäk* (yog'siz, tuzlab quritilgan go'sht*), sü:r et* – тузлаб, қоқланган гўшт, *no:š pij:az* (urug'i olinadigan piyoz), *mä:skämaj (*tabiiy uy sharoitida, kuvida tayyorlangan sariyog'), *sa:rïmaj* (kuydirilgan sariyog'ning tuzsiz turi), *to:tramaj* (sariyog'ni qizdirganda tagida qoladigan tuzli qismi), *qujruq* (dumba*), qujruqma:j* (eritilgan dumba yog'i), *čä:rbimaj* (molning ichak atrofidagi yog'i), *toŋmaj (*eritilgan charvi yog'i*), a:mïtqa maj* (omuxta yog'), *a:šɣan xamir (*non yopish uchun tayyorlangan xamir*), pistamaj* (paxta yog'i, har qanday o'simlik yog'i)*, xamba:ja* (xamirturush) va b.;

taom nomlari: tamaq (ovqat), *gürüš a:š* (mastava), *u:maš* (umoch), *pul aš // tä:ŋgä a:š* (xamiri1sm^2 qilib kesiladigan suyuq ovqat), *ja:vɣana:š* (go'shtsiz tayyorlangan suyuq ovqat), *kö:ǯä* (go'ja), *sö:ka:š (*so'kdan tayyorlangan suyuq ovqat*), bašmaltaq (*xamiri 2sm^2 qilib kesiladigan quyuq ovqat*), xa:mïr* (shilpildoq)*, qa:vušqulaq* (xamiri qalinroq yoyilib, to'rtburchak shaklda kesiladi hamda bo'lakchalarning burchaklari birlashtiriladi*), qo:ɣïrtaq* (qovurdoq), *bo:lamaq* (atala)*, süjüɣa:š (*har qanday suyuq ovqat)*, sö:lämäk* (sumalak*), qara šorpa* (go'sht qaynagan suv*), käskän a:š* (ugra), *palav,* qatlama (un, suv, yog' va tuzdan yog'li qilib qorilgan xamir yog'da pishiriladi), *čä:lpäk, jupqa* (chalpakning qiyma tayyorlab o'ralgan turi), *čo:zma* (yog'da pishirilgan pishipriq turi)*, sirgürüš* (shirguruch)*, buɣdaj aš // qajïš aš* (lag'monga o'xshatib kesilgan xamir ovqat), *sö:ktär* (so'kni qaynatilgan suvda ivitilib, saryog' va shakar aralashtirib tayyorlanadi);

ichimlik nomlari: bo:za (bo'za), *ajran* (yog'i olingandan keyingi suyuq qatiq)*, sü:t* (sut), *a:ɣarɣan* (sut va sut mahsulotlari), *qurta:ba* (qurutni suvda ezib tayyorlangan ichimlik)*, qïmran (*tuya suti);

non nomlari: a:šïrɣan nan (uning zidi – patir)*, ta:z pätir* (yog'siz, achitmasdan tayyorlangan non turi. *Ta:z pätir* ta:z so'zi kal ma'nosida ishlatiladi), *maj pätir* (yog'li patir), *qatlama pätir* (patirning turi), *kü:lčä* (tarkibida yog', sut bo'lgan, hajm jihatidan nondan kichik va tirnoq bilan ishlov berilgan non turi), *to:qaš* (to'qoch), *kö:mäš* (ko'moch), *pö:lkäna:n* (bulka), *pičina:n* (pechenye);

ovqat tayyorlash jarayonida ishlatiluvchi so'zlar: zuva:la (yumaloqlangan, ma'lum miqdordagi xamir), *ja:praq* (shilpildoq xamirining bir parchasi), *ilmä* (qaynagan sut tepasida hosil bo'luvchi parda);

ba'zi shirinliklar nomi: *qumšäkär* (shakar), *qaqa-quqa* (to‘ydan to‘yga yuraverib, eskirib ketgan konfetlar), *šö:rtäk* (shimadigan konfet), *čü:ǯik* (konfetlar, shirinliklar), *väri:jnä* (варенье), *kämpit, kä:llä qant, čaqmaq qant, qa:q* (ö:rik qa:qï, qa:γun qa:qï, a:lma qa:qï – quritilgan mevalar), *qa:nqurt* (qovunni qaynatib, quritib tayyorlanadi) va b.

Kiyim-kechak nomlari. Ushbu guruhga kiyimlarning umumiy, aniq xillari nomi, shuningdek, kiyimlarning biror qismi nomi, kiyim materiallariga oid leksemalar kiritildi:

bosh kiyim nomlari: ta:qïja (do‘ppi), *tumaq* (yelka va quloqlarni berkitib turuvchi, ko‘pincha tulki mo‘ynasidan tikiluvchi telpak), *bö:rk* (bosh kiyim), *qulaqčïn, qa:šbaq* (peshonani tang‘ish uchun mo‘ljallangan kichik ro‘mol), *je:läk* (ayollar boshiga tashlanadigan maxsus tikilgan kiyim), *läčäk* (ayollar boshiga kiyiladigan o‘rama);

ustki kiyim nomlari: ǯi:letkä (nimchaga nisbatan ixcham, tanaga yopishib turadi), *i:tköjnäk* (mayin materiallardan chaqaloqlar uchun qulay qilib tikiladigan ko‘ylak), *kämzu:l* (kostyumning turi), *to:n* (qo‘yning terisidan tayyorlangan ichki tomoni junli, issiq po‘stin), *ča:lbar* (shalvar, shim);

oyoq kiyim nomlari: kä:piš // tä:piškä (tapochka), *sandal* (yozgi oyoq kiyimi), *mä:ssi* (mahsi), *kä:lävüš* (kalish), *ta:š kälävüš* (qattiq materialdan tayyorlangan), *ča:rïq (kovushning turi), ö:tik* (ki:jgiz ö:tik, re:ziŋkä ö:tik), *bo:tïj* (yomg‘irda kiyish uchun mo‘ljallangan, rezina etik);

*kiyim qismlarining nomi***:** *balaq* (pocha), *boγma jaqa* (bo‘g‘ma yoqa), *čö:nčäk* (cho‘ntak, kissa), *o:mïz* (yeng), *ädib* (ko‘ylakning qayriladigan etak qismi) *va a:rqalïq* (ayollar ko‘ylagining ko‘krak qismiga tikiladigan astari), *išta:nba:γ* (ipakdan to‘qib tayyorlangan, rezinka vazifasini bajargan).

Mato nomlari: *surip, ba:rqït* (duxoba), *bö:z, tavar, či:jbarqit* (mayda chiziqli velvet), *ištämpil* (штапель), *lä:stik* (satin), *girbišin* (крепдешин), *tri:jka (тринька), ši:jpo:n* (шифон).

Taqinchoq va zebu ziynat nomlari: *häšäm* (bezak), *ïsïrγa* (zirak).

Tabiat bilan bog‘liq so‘zlar: *qarasavuq, japalaq qa:r, no:šar* (do‘l), *tügünčäk* (mayda do‘l), *ja:γïn-če:čin* (yog‘inli kunlarga nisbatan aytiladi), *ǯïq* (shudring), *izγa:r* (qattiq sovuq), *üšik* (sovuq urishi).

Vaqt va fasl nomlari: *bursugun* (indinga), *ta:lčü:š // qa:qčü:š* (ayni tush payti), *bünnä:kün* **(**o‘tgan kuni**)**, *bunna:γïjïl* (o‘tgan yili), *e:r* (vaqtli), *bemäzgil* (bevaqt), *buruŋγï* (oldingi), *azan* (tong yorishgan payt) *aza:nnap* (ertalab), *a:zanda* (ertaga), *ä:rtäŋ* (ertaga), *šu gäz* (shu payt), *šu mä:äl* (shu mahal), *ara-ču:ra* (ba'zida), *sä:r* (sahar), *äskidin* (ilgari, burun), *jä:gädä* (gohida, ba'zida), *kü:zläj* (kuz bo‘yi), *ja:zlaj* (yoz bo‘yi), *qïrqïm* **(**payt), *tö:l gä:zi* (qo‘zilash mavsumi), *qa:γun pišïγï* (yoz, qovun pishadigan payt), *qa:raŋγïqïšda* (qahraton qish payti), *buγda:jpišïγïda* (bahorning so‘nggi kunlari).

Yoshni ifoda qiluvchi so‘zlar*: bö:bäk* (go‘dak), *bö:pä, täŋ-tö: š* (tengdosh), *kä:nǯätaj* (kenjasi).

O‘lchov, miqdor ifodalovchi so‘zlar. Iqon shevasidagi o‘lchov-miqdor ifoda etuvchi so‘zlar umumo‘zbek tilidan deyarli farq qilmaydi. Ammo ularning shakli va talaffuzida shevaga xosliklar bor*: qačavuš* (hovuch), *jo:maq* (zuvaladan yulib olingan kichik xamir bo‘lagi), *qa:rïš* (qarich), *ä:li (bir ä:li, i:kki ä:li* – barmoq hajmidagi o‘lchov birligi: *be:š qa:rïš i:kki ä:li), qïja:* (*bir qïja: ǯa:j* – ancha uzoq joy).

Yaqinlik va qarindoshlikni anglatuvchi so‘zlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

yaqinlikni ifoda etuvchi so‘zlar: do:s (do‘st), *e:š* (dugona), *tavušqa:n* (qarindosh), *atalaš* (ota urug‘idan bo‘lgan qarindoshlar), *ǯägǯa:d* (uzoq qarindosh), *a:γajnï* (qarindosh), *qaraγan* (urug‘ toifalari: *ha:ǯïxï:l, so:bïxï:l, xo:ǯa, toqlï...), to:γγan ata* (o‘z otasi), *kä:linqï:z* (qarindoshga tushgan kelin), *qï:z qo:ndï* (quda tushdi), *ba:j* (er), *kä:nna:ja* (kelinoyi), *da:da* (otaning do‘sti);

qarindoshlikni ifodalovchi so‘zlar: a:ja (ona), *a:pa* (buvi), *ä:ttä* (dada, aka), (ona), *to:tï* (opa), *a:jto://a:jto:tï* (opajon), *ini* (uka), *kälin-kä:ǯäk* (yosh kelin-qizlar), *hä:mä* (amma), *hä:mäto:tï* (ammasining qizi), *äkäǯi* (egachi), *ba:ldïz* (qayinsingil), *je:znä* (pochcha), *bö:lä* (xolavachcha), *ǯe:n* (jiyan) va b.

Hayvon nomlari: *si:r* (sigir), *buzav* (buzoq), *qačar* (yosh sigir), *tana* (mol), *xo:diq* (xo‘tik), *ö:ški* (echki), *o:laq* (uloq) *toqal* (yetilgan echki), *čibiš* (yungli echki), *uvaq mal // majda ma:l* (qo‘y-echki, qo‘zichoq, uloqlarning umumlashtiruvchi nomi), *qa:rama:l // i:jrik ma:*l (sigir, buzoq, ho‘kiz, buqa, qachar kabi yirik hayvonlarning umumlashtiruvch nomi), *bo:talčaq* (tuyaning bolasi).

Ba’zi mayda jonivorlar va hasharotlar nomi. Bu guruhga kiruvchi leksemalarni ham ikki guruhga bo‘lish mumkin:

mayda jonivorlar nomi: *čopaq* (kaltakesak), *jarγa:nat* (ko‘rshapalak), *zäväräk* (suvarak), *qo:šayaq čišqan* (yumronqoziq);

hasharotlar nomi: *čibin* (pashsha), *jo:lčibin* (pashshaning turi), *qavuzγa:n* (qora qo‘ng‘iz), *a:j (qïzïla:j, sa:rïγa:j, qa:baγa:j* – ari va uning turlari), *čö:kirtkä* (chigirtka), *äpäläk* (kechqurun chiroq atrofida uchadigan parvona), *ǯuma:l* (chumoli), *majǯuma:l* (mayda chumoli).

O‘simlik va daraxtlar nomlari:

poliz ekinlari: *qa:γun, da:mča* (handalak), *tü:läk* (poliz ekinlarining dastlabki tukkan mevasi), *do:rïllama qa:γun, ta:š qa:baq* (qovoqning turi), *qïzda:rï* (garmdori), *ǯö:gäri* (jo‘xori);

o‘t-o‘lan nomlari: *a:labota* (begona o‘t), *si:rqujruq* (begona o‘t), *ädräsma:n* (isiriq), *i:tuzum* (begona o‘t), *ja:všan, pišikqujriq, i:tla:la* (qizg‘aldoqning hidsiz, bargi yupqa, tez so‘ladigan turi), *a:tqulaq* (dorivor o‘simlik), *qarabarqïn, kö:kčičäk, qavraj, če:tik, qïrqboγïm, šäjtankäpiš, qa:qu, jelkü:k, jo:mïšqa* (beda), *jerxï:na, qo:jtikän;*

daraxt nomlari: *qarašö:rik ta:l* (olxo‘ri daraxti), *ta:l* (daraxt), *a:lma ta:l, ö:rik ta:l, ö:ški ta:l* (qayrqg‘och) va b.

Qurilish, joy, o‘rin bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar:

joy, o‘rin anglatuvchi so‘zlar: *qula:q ba:šï, a:jda:la* (keng dala), *jilan jo:l, bi ajaq jo:l, čoqalaq* (chuqurcha), *bosaγa* (ostona), *qara jo:l* (qishloq o‘rtasidan o‘tgan magistral yo‘l), *kültäpä, tö:män, qa:rïq, a:tïz;*

binokorlik va yashash joyi bilan bog‘liq tushunchalar nomi: *hajva:n* (ayvon), *ö:j* (uy), *kätt(ä)ö:j* (ota-ona istiqomat qiladigan hovli barcha farzandlar uchun katta uy sanaladi), *a:γö:j* (uyning mehmon kutadigan xonasi, zal), *kiškin(ä)ö:j* (bolalar xonasi yoki yotoqxonasi), *tünäk, ravaq, ašqultaq* (zina), *bädräp // ubornij* (hojatxona), *pisäk* (hovli devori);

bino, qurilishning qismlari va qurilishga daxldor ba’zi qurol-aslahalar, materiallar nomi: *zulpinǯa* (zanjir), *jo:maz* (yumaloqlangan loy), *kilt* (kalit), darancha (fortochka, tunakka havo almashinishi uchun qo‘yilgan), *kä:n, käsäk dava:l* (devor), *pa:xsa dava:l, balar* (to‘sin), *la:jsuvaq, a:jna* (deraza), *tündük* (tuynuk), *te:k* (tokcha).

Kasb-hunar nomlari: *jïlqïčï, da:lačï, palavčï, kä:pčikči, pa:xsačï* (paxsakash), *o:čaqčï, ba:šqarma* (rais, rahbar), *dö:käj (*boshliq, kazo).

Uy-ro‘zg‘or buyum nomlari. Bu guruhga konkret buyumlar, ro‘zg‘or asboblari, ularning ayrim qismlari, buyumlarni tayyorlashda foydalanilgan material turlari va h.k.lar kiradi.

uy-ro‘zg‘or buyumlarining umumiy nomi: *duqa:ba* (kosa), *käväš* (sopol idiš), *ča:lγï* (ovqatni suzish asbobi), *täli:ηk*ä (tarelka), *čïpta* (qamishdan to‘qilgan predmet, pishgan xamirni yoyib, sovutish uchun mo‘ljallangan);

uy jihozlari nomlari: *a:bdïra* (katta sandiq), *te:kčä* (kichik sandiq), *ča:čïq* (dasturxon), *qo:raq kö:rpä, so:zan,* (so‘zana), *tuginčäk* (bo‘g‘cha), *pö:stäk* (qo‘y-echkilarning terisi, to‘shama);

***biror ishni bajarishga xizmat qiluvchi qurol va vositalar nomi*:** *je:ŋsäk,* (tandirning haroratidan saqlanish uchun non yopganda qo‘lga kiyiladigan moslama), *a:t do:rba* (otlarga yem yedirishda ot boshiga osiladigan xalta), *ǯa:m* (kir yuvishga mo‘ljallangan katta tos), *i:lgäk* (eshik, deraza, sandiqlarni berkitish uchun moslangan qism), *i:nnä* (nina), *ǯuva:ldïz, kä:pčik* (g‘allani sovurish va tozalash moslamasi), *käli* (o‘g‘ir), *lä:ptä* (non yopishda qo‘lga kiyiladigan moslama), *tuva:q* (yer tandirning haroratini saqlash uchun qopqoq ustidan yopiladigan ko‘rpacha), *a:jrï* (panshaxa), *üšmäk jip* (g‘altak o‘ralgan ip), *o:jmaq* (angishvona), *qalaq* (un solishda foydalanadigan asbob), *ba:qïr* (paqir), *so:qa* (yer haydash asbobi), *ǯa:zlïq* (beda va shunga o‘xshash o‘tlarni maydalab kesadigan moslama), *sü:zäläk* (sut suziladigan asbob), *ö:lčäk* (sut o‘lchagich), *täŋiz äläk* (teshiklari katta g‘alvir), *käna:ra* (go‘sht ilish uchun yog‘och yoki temirdan yasalgan moslama), *ortmoq* (go‘shtni yoyib yoki savatdagi qurutni ilib, quritish uchun ishlangan moslama);

ro‘zg‘or obyektlari nomlari: *xa:mba* (g‘allani saqlash joyi), *tunäk, očaqba:šï, ja:tïr, kä:nba:šï.*

***idish nomlari*:** *mo:ndï* (katta sopol idish), *tabaq* (tovoq), *täkäš* (tog‘oradan kichik tovoqdan katta idish), tu:zlïq (tuzdon), *čila:pčïn* (qo‘lga suv quyishda ishlatiladigan mis idish), *čö:bäläk* (sopol idish), *qa:pčïq* (kichik qop).

Organizm va uning muchalariga oid so‘zlar:

***tashqi muchalar*:** *qa:lǯa* (gä:vdä), *če:š* (soch), *čat* (ikki oyoq orasi), *čatanaq* (ikki oyoq orasining eni), *činataj* (kichkina barmoq), *šavšaq* (barmoq), *ba:šmaltaq* (boshbarmoq) *ä:nsä* (ensa), *o:mrav* (ko‘krak), *bö:ksä* (beldan past qism), *baqaj* (baqbaqa), *si:jraq* (oyoq soni), *taqïm* (tizzaning bukiladigan orqa qismi) va b.;

ichki muchalar: *bü:r* (oshqozon buri), *čuv* (hayvon tuqqanda tushadigan yo‘ldosh), *zä:rä* (o‘t), *tö:š* (qovurg‘a osti go‘shti), *qa:pïrtqa* (qovurg‘a), *qursaq* (qorin), *baγïr* (jigar), *ja:tïr* (bachadon), *julun, käpirčäk* (burun suyagi), *qujmïš* (dumg‘aza);

Ba’zi kasalliklar nomi: *kö:jdirgi, köza:rïq* (ko‘z og‘riq), *maŋqa* (dimog‘ida gapiruvchi), *bïdïq* (tushunarsiz, tez gapirish), *sïzlavuq* (chipqon), *tämirätkä, u:čïq, učïnïq, čïlpïq* (ko‘z yiringi), *ni:näči* (govmichcha), *ïrïn* (yiring), *ïš* (shish), *jerik* (boshqorong‘i), *šapaq* (shabko‘r), *tilkičäk* (tilga chiqadigan yara), *qïlï:j* (g‘ilay), *qa:qrïq* (balg‘am), *siŋir* (so‘gal), *jel qa:ršïš* (qorin damlik), g*ära:n* (kar, garang), *mïšlaq* (burni oqib yuruvchi), *päkältäk* (past bo‘yli), *damba* (juda semirib ketgan), *taz* (kal), *mögädäk* (tug‘ma nogiron), *quniš* (bukri), *po:pa* (qizilcha).

Etnografizmlar. Bu guruhga mahalliy-milliy urf-odat, diniy, madaniy to‘y-marosim va motam nomlari kiradi. Iqon shevasi bunday so‘zlarga juda boy. Shuningdek, olqish, qarg‘ish ma’nolarini ifoda qiluvchi so‘zlarni ham etnografik leksikaga kiritish mumkin, chunki ularda ham xalqning o‘ziga xos ruhiyati, e’tiqod va nafrati o‘z ifodasini topgan:

to‘y marosimi bilan bog‘liq so‘zlar: *pa:ta:š // kičiga:š ~ fotiha oshi, küjövsalam, qï:zkö:rdi, küjövta:lat, be:šikkä:rtik // qula:γïnï čišlätkän* ~ chaqaloqligida unashtirib qo‘yish. *gilämqa:qtï, bäta:čar, a:š, ča:jišti, ǯümä* (chaqiriq, charlar), *zija:pat* (kuyovning do‘stlariga kelin tomonidan beriladigan ziyofat), *ja:stïqqo:ra:t* (yostiq quramoq) tadbiri nikohdan bir kun avval kunduz kuni qizning xonadonida xatm qilib, qarindosh-urug‘lar, qudalar mehmon qilinadi. *kä:jtastï, šo:rpa, kö:šäŋgäče:šti, qudata:nïšu:(v), kä:jt ta:naš, kä:linčü:šti, qï:zčïqa:rdï, kʲüjövkö:rdi (kʲüjövsala:m), bo:saγaba:stï, pa:xtasa:liš, jo:lto:siš, ja:stïqba:šï* ~ kuyov tomonidan yangalarga atalgan suyunchi puli; *tü:bäš* ~ turli munosabatlar bilan (sovg‘a, tog‘ora va shunga o‘xshash narsalar bilan)

yo‘qlash; *gülta:qqan e:š* (eng yaqin dugonasi), *köza:jdïn, kä:nba:šï, če:čü:(v), mäslä:ta:šï* ~ sunnat to‘yidan oldin qarindosh va do‘st-u yorlar bilan yig‘ilib, to‘yni o‘tkazish haqida maslahat qilinadigan tadbir. Ushbu leksik birlik *maslahat+osh komponentlaridan iborat bo‘lib, maslahat bilan birgalikda* quyuq ziyofat bo‘lishi, ya’ni turli taomlar – *osh* ham bo‘lishi nazarda tutilgan. *čo:qalaq mäslä:t ~ nikoh to‘yidan avval yigitning o‘rtoqlari bilan bir piyola choy ustida yig‘ilib maslahatlashish tadbiri; gilämqa:qtï* – qizko‘rdi (katta osh kuni kechqurun bo‘ladigan bazm), qizning dugonalari va yigit tomonidan kelgan yosh-yalang qizlar ishtirokida o‘tadigan bazm. Turkiston shahrida shevasida esa *gilämqa:qtï* – bolalar sunnat qilinganda, ertasiga qarindosh-urug‘larga beriladigan yengil ziyofat [Нуруллаева, 2001].

Qarg‘ish ma’noli so‘z va iboralar: *o:ŋmaγur, oŋmajsa, qaqmaš, quv bašïŋa körinsi, a:draqa:γur, äsi päs, äsäläŋ, hä jïssavuq, o:mranqap, o:mranqa:zïq, öläsä, qarajer jutqir, qaraŋ ö:škir, päjliŋ qu:rsï, xudaja kögärmägäjsä, xudaja bujurmasï, xudaja közigä be:si, sarda:ba qa:γur, surxïja:, da:vušïŋ ö:ssi, nusqaŋ qu:rsï, kä:lin o:maj, kälsa:p o:γur.*

Salbiy ma’noli so‘zlar: *jïrtïliš* (kerilmoq, maqtanmoq), *ajlančïqlaš* (atrofida aylanmoq), *andïmaq* (poylamoq, kuzatmoq), *čä:ltijiš* (maqtanmoq), *bïldïraš* (ishni, rejani buzmoq), *so:qraŋlaš* (oyoq ostiga qaramay qadam tashlamoq), *qaŋγïraš* (bemaqsad salanglab yurmoq), *kö:jmäŋnäš* (biror ish bilan ovora yurmoq), *käläkä qïlïš* (masxara qilish), *ja:qalašïš* (urishmoq), *mo:jïnnaš* (bo‘yniga olmoq), *tajraŋnaš* (shodon qadam tashlamoq), *sa:ndalmaq* (sarson bo‘lmoq, befoyda kezmoq), *tïŋqïjïš* (kishilarni pisand qilmaslik), *do:rdï:jmaq* (qovog‘ini solib, xo‘mraymoq), *bo:rsïγan* (oftobda qolib buzilmoq), *zï:mbïllab* (tezda yugurib borib kelmoq), *pa:rïllap* (maqtanib), *bö:läjip* (angrayib, hech narsani tushunmay), *bijläš* (egalik qilish, boshqarish), *pi:jpäŋnäp* (xushomad qilib, harakat qilmoq), *bö:läjip* (angrayib, hech narsani tushunmay), *qaŋγïraš* (bemaqsad kezmoq), *ba:šbaqalaš* (mo‘rala), *ši:jdaŋnap* (1. kalta kiyish; 2. quppa-quruq), *qara basïb* (g‘aflatda qolib), *qanqï:jγan, tïnqï:jγan* (mag‘rur, gerdaygan), *gä:rilläp* (maqtanib), *a:lqan-ta:lqan* ~ qattiq janjal qilish, muammoni uzil-kesil hal qilish: *Ba:zar qïmaj ǯa:nǯalnï jïγïštïrïŋnar, ha:zïr ǯä:ŋ(Jahongir) ta:γaŋ käsä, a:lqan-ta:lqan qïladï. Hä:mämiŋ i:šijäm, sö:zijäm bi xï:l, ägär kirissä, a:lqan-ta:lqan qïladï.*

bïčït ~ har qanday ishni yo‘qqa chiqarish, abjag‘ini chiqarish harakatiga aytiladi: *Ma:slar jïγïnnïjam bïčït qïdï. Ma:llar a:tïzγa čüšüp, ke:dip, ä:kinim bïčït o:dï. ǯi:nim čïqsa, he:š kimgä qaramajma, hä:mmäni bïčït qïlama.*

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Iqon shevasi leksikasida adabiy tilda muqobili bo‘lmagan etnografizmlar, taom nomlari, inson xarakteristikasi va shu kabilar bilan bog‘liq leksik birliklar mavjudki, ulardan adabiy til zaxirasini rivojlantirishda, o‘zbek tilining izohli lug‘atlar so‘zligini kengaytirish, o‘zbek shevalari lug‘atini tuzish, dialektologik tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2021. – 176 б.
2. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Т:. Фан, 1990. – 140 б.
3. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.
4. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. – 178 б.
5. Нуруллаева Ш. Туркистон қарлуқ тип шеваларида тўй маросими номлари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2001.
6. Холмедова З. Ўзбек тилининг Қарноқ шеваси лексикаси. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2005.

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDAGI AYRIM LEKSEMALARNING HOZIRGI O‘ZBEK SHEVALARI FRAZEMALARI TARKIBIDA QO‘LLANISHI

USAGE OF CERTAIN LEXEMAS IN THE EPIC “LAYLI AND MAJNUN” IN THE PHRASES OF CURRENT UZBEKI DIALECTS

O‘razova Iqbol Abdikarimovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
orazovaiqbola@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola “Layli va Majnun” dostonida qo‘llangan* chir, xarosh, qiziq *arxaizmlari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, birliklarning Navoiy ijodida ifodalagan ma’nosi tahlillar asosida aniqlangan. Shuningdek, ushbu leksemalar faol birlik sifatida iste’molda bo‘lgan davrida frazeosemantik yadro sifatida yangi frazemalarni shakllantirgani va bu birliklarning o‘zbek tili shevalarida saqlanib qolgani misollar bilan dalillangan, leksemalarda yuz bergan semantik o‘zgarishlar aniqlanib, xulosalar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar*: sheva, lahja, leksema, semema, sema, frazema, frazeosemantik yadro, ko‘chma ma’no, metafora, polisemiya, omonim, sinonim.*

Abstract. *This article is devoted to the analysis of chir, kharosh, interesting archaisms used in the epic “Layli and Majnun”, and the meaning of the units expressed in Navoi's work was determined based on the analysis. Also, it is proven with examples that these lexemes formed new phrases as a phraseosemantic core during their use as an active unit, and that these units were preserved in Uzbek language dialects, the semantic changes that occurred in the lexemes were determined, and the conclusions were stated.*

Key words: *dialect, lexeme, sememe, sema, phraseme, phraseosemantic core, figurative meaning, metaphor, polysemy, homonym, synonym.*

Turkiy xalqlarning o‘q ildizi juda qadim davrlarga borib taqalishini folklor merosi yaqqol ko‘rsatib beradi. Bu boy manbani yozma manbalar tili bilan qiyoslab tadqiq qilish tilshunoslik uchun muhim xulosa va qimmatli ma’lumotlarni berishiga shubha yo‘q. Zotan vaqt sinovidan o‘tib, asrlar osha yashab kelayotgan shunday tafakkur durdonalari borki, ular o‘zidagi ma’no xazinasi bilan kitobxonni chorlaydi. Kitobxon ommasi esa undan o‘z zamonasiga mos keladigan, davr muammolari bilan tutash, hamohang nuqtalarni izlaydi, uning yangi qirralarini kashf etadi. Ana shunday durdonalardan biri bo‘lgan “Xamsa” dostonlari ham barcha davrlarda nafaqat yuksak badiiyati, umumbashariy g‘oyalari tufayli e’tirof etilgan, balki, o‘zbek tilining yuksak mavqeyini belgilash, o‘zbek tilining bor salohiyatini, badiiy jilosini ochib berishni zimmasiga olgan va buning uddasidan chiqa olgan muhtasham asardir. Navoiy “Xamsa”si leksikasi juda boy bo‘lib, shu jihati bilan Navoiy tirikligidayoq til ixlosmandlari diqqatini tortgan. Navoiyni tushunish, Navoiyni anglashga bo‘lgan ehtiyoj Navoiy asarlari lug‘atini tuzishga undagan va bu ehtiyoj bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zero, “Navoiy tilining eskirgani, onglashilmas bir holga

kirgani bilan doston eskirmaydir. Yangi-yangi yozuvchilar bu dostonni soddaroq til bilan yangidan ishlab chiqarishni lozim ko‘ralar” [Фитрат II, 2000: 128].

Navoiy o‘z “Xamsa”si orqali arab tili jozibasini, fors tilidagi ko‘p yillik badiiy an’anani turkiy tilga olib kirgan holda yangi bir uslubni shakllantirdiki, bu o‘zbek tilining taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilish bilan birga adabiy til shakllanishi uchun ham turtki bo‘ldi. Navoiy sof turkiy so‘zlardan unumli foydalangan va bu birliklarning ba’zilari hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’moldan chiqishiga qaramay, shevalardagi frazemalar tarkibida yashab kelayotganini ko‘rish mumkin.

Alisher Navoiy “Xamsa” majmuasining tarkibiga kiruvchi “Layli va Majnun” dostonida ***köŋlidägi čirni yāz=*** frazemasi uchraydi: *Majnunniŋ atāsï äni išq bādïyasïdïn keltürüb, Ka’ba tavāfïɣa ālib bāɣrānï vä ul munājāt bahānasï bilä* ***köŋlidägi čirni yāzɣānï*** *vä duā qïlmāq tarānāsï bilä xātïrïdaɣï maxfiy maqāsïdïn tilidin čïqārɣānï vä Arafāt ahlïdïn arasāt qopārɣānï* [Navoiy, 2020: 132].

Frazemalar ma’lum bir tarixiy taraqqiyot davomida shakllanadi. Dastavval, frazema komponentlari birikma ko‘rinishida shakllanib, keyinchalik semantik yaxlitlik natijasida barqaror birikmaga aylanadi. ***Köŋlidägi čirni yāz=*** frazemasi tarkibidagi ***čir*** birligi mustaqil leksema sifatida Navoiy asarlarida uchramasligiga tayansak, leksemaning hamda frazema shakllanishini qadimgi turkiy til va undan oldingi davrlarga oidligi ma’lum bo‘ladi.

Chir leksemasi turkiy til qatlamiga mansub, frazema tarkibida qo‘llanishi ham fikrimizni asoslaydi. Chunki frazemalar tarkibida aksariyat hollarda turkiy leksemalar ishtirok etadi. Chunki, bu birlik so‘z sifatida nutqda qo‘llana boshlagandan keyin leksemalashuv jarayonini boshidan kechiradi. Odatda til egasi nutqida bu uzoq davrni talab qiladi. Leksema sifatida mental leksikonga kirgandan keyingini leksema so‘z birikma yoki gap shaklida birlamchi transpozitsiyaga uchrab frazemalashuv jarayonini boshidan kechiradi. *Chir* leksemasi SY da ham, ANATIL da ham, NAL da ham izohlanmagan. O‘TILda ushbu leksemaning omonim shakli, ya’ni taqlid so‘z shakli izohlangan. DTSda “ČĬR – *изобр*. треск разрываемой ткани (yirtilgan matoning ovozi): anïŋ tonïn čïr jïrattï” [ДТС 1969: 151] shaklida taqlid so‘z sifatida izohlangan va bu birlikni ham uning omonim shakli deyish mumkin. „Devon“ da ham yuqoridagi izohga hamohang ta’rif berilgan [Qarang: Кошғарий, 2017: 133]. *Chir* leksemasi sof turkiy so‘z va taqlidiy so‘zlar verbalizatsiyasi natijasi bo‘lgan „holatga kirit“ semali chi= asosli tub fe’ldan hosil bo‘lgan [Qarang: Миртожиев 2017: 111]. Leksema semasi uchun asos vazifasini „chirib to‘kilgan holatga kir=“ semali chiy= fe’li bajargan [Qarang: Миртожиев 2017: 111]. O‘zbek tilida shu asosdan yasalgan *chirimoq* leksemasi fikrimiz isboti bo‘la oladi. Ozarbayjon tilida *chirk* leksemasining „kir“ semasidan tashqari “yiring” [ADIL I, 2006: 486] semasi ham mavjud bo‘lib (O‘TILda kir semasi berilgan, ammo *yiring* semasi qayd qilinmagan), bu ta‘rif dostonning nasriy matni bayonida berilgan “yara” izohiga yaqindir: *“Majnunning otasi uni ishq biyobonidan keltirib, Ka’ba ziyoratiga olib borgani va u munojot bahonasi bilan* ***ko‘nglidagi yaralarni yorgani*** *va duo qilmoq ohangi bilan ko‘nglidagi maxfiy maqsadini tilidan chiqargani va Arafot ahlidan arasot ko‘tarilgani”* [Navoiy, 2019:331-332]. *Chir* so‘zi hozirgi o‘zbek tili izohli lug‘atlarida berilmagan, chunki eskirgan. Leksema yakka holda qo‘llanmasligi sababli “O‘zbek shevalari lug‘ati”da ham uchramaydi. Ammo bu leksema o‘zbek xalqi o‘g‘uz lahjasi vakillari nutqidagi *chir qisdi* frazemasi tarkibida saqlanib qolgan va faol ishlatiladi. Birlik biror falokat yoki yomon hodisa yuz berganda yoki borishi kerak bo‘lmagan joyga kutilmaganda borib, falokatga duchor bo‘lgan vaziyatda qo‘llanadi: *– Tāmä: čïqïp balā: bārmi, mänä, yiqïlip mäyip böli:p ötiripsän. – Qoy i:ndi, päläkättä,* ***čir qïsïp*** *čiqa:n, bölmäsä, yäkkä ö:zi hič toma čiqmi:ytti* (Buxoro viloyati, Olot tumani dialekti). Frazema pishgan yaraning o‘z-o‘zidan yorilishidagi holatni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali hosil qilingan.

Bu ibora orqali yuz berishi kerak bo‘lgan hodisa qancha oldini olishga harakat qilinsa ham sodir bo‘lishini anglatib, taqdirda yuz berishi kerak bo‘lgan voqeaga inson to‘siq bo‘la olmaslikni bildiradi va tinglovchiga tasalli berish maqsadida ishlatiladi. Keyinchalik leksemaning eskirib iste’moldan chiqishi, frazemadagi so‘zning asl ma’nodan uzoqlashishiga sabab bo‘lgan. Hozirda frazema ko‘proq o‘lim bilan bog‘liq falokatli hodisalarga nisbatan qo‘llangani uchun *ajal quvlab boribdi* frazemasi bilan sinonim sifatida ham qo‘llanadi.

“Layli va Majnun”da qo‘llangan *xarosh* o‘zlashmasining bugungi kunda nafaqat semantik o‘zgarishga, balki fonetik o‘zgarishga uchraganini ham kuzatish mumkin:

Eti teri zähmätidin ārïb,
A’zāsï ***xarāš****dïn qïzārïb [LM 2020:173].*

Mavjud lug‘atlarda *xarosh* leksemasining polisemantik so‘z sifatida 4 ma’nosi berilgan; bosh ma’no sifatida “yurish, kezish” semalari keltirilib, misol sifatida ayni bayt berilgan [АНАТИЛ III, 1984: 382]. Ammo bu izoh bayt mazmuniga mos emas. Ushbu misralar Qaysning Layli ko‘chib ketgan manzilga kelib, kasalligi sababli egasi bilan ketolmay qolgan qari itni ko‘rib qolish sahnasida itning tashqi ko‘rinishini tasvirlashda qo‘llangan. Fikrimizni nasriy bayon ham tasdiqlaydi: *Terisidagi yaralaridan go‘shti qochgan,* ***qashish****dan a’zosi qizarib ketgan edi* [Navoiy, 2019: 343]. *Xarosh* leksemasi fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan birlik bo‘lib, tojik tilida “qichish, tirnash” [ФЗТ, 1969: 466] ma’nolarini anglatadi va bu bosh ma’nodan lug‘atda ko‘rsatilgan boshqa ma’nolar o‘sib chiqqan: 2. dard, alam, azob (qichishish natijasida kishiga yetadigan azob, dard); 3. ta’sir, asar (qichishish natijasida tanada qoladigan asorat, iz); 4. xirillash [АНАТИЛ III, 1984: 382]. Ushbu leksema hozirgi o‘zbek tilida mustaqil birlik sifatida uchramasa-da, o‘zbek shevalaridagi frazemalar va qarg‘ishlar tarkibida saqlanib qolgan. Leksema o‘zlashma so‘z bo‘lgani uchun fonetik o‘zgarishga uchragan (a-i, o-i) va *xirish* variantini olgan. Jumladan, o‘g‘uz lahjasi vakillari nutqida *xirish tovlamoq* frazemasi mavjud bo‘lib, “janjalli vaziyat yaratish uchun bahona izlamoq” ma‘nosini ifodalaydi: *ǯi:m öti:r, xïriš tāvlämä, ānämä äytämän* (Buxoro viloyati, Qorako‘l tumani dialekti). Ushbu frazemaga sinonim sifatida o‘zbekcha tarkibli *qichiq tovlamoq* frazemasi ham nutqda mavjud. Yoki *yo‘q joydan xirish chiqarmoq, yo‘q joydan xirish topmoq* frazemalari ham “janjal yoki to‘polon uchun bahona topmoq” ma’nosida qo‘llanadi: *Jö:q ǯājdan xiriš tāpi:p urdi yiŋini, ana kö:ring tāmāshäni! Ā: ǯim de:yän bi:län ǯim bömiydi* (Buxoro viloyati, Qorako‘l tumani dialekti). Navoiy davrida ko‘pma’noli so‘z sanalgan leksema tilning keyingi bosqichlarida iste’moli cheklanishi natijasida semantik torayishga yuz tutgan. Natijada so‘zning bosh ma’nosi saqlangan. Bu ma’noning xalq tafakkurida qayta sintezlashishidan esa yuqoridagi frazemalar shakllangan. To‘polon yoki janjalni boshlagan bolasini qarg‘aydigan onalar nutqida qo‘llanuvchi *Ha xirish joningni olsin!* jumlasi ham fikrimiz isboti bo‘la oladi. Bu frazemalar shakllanishi negizida xalqqa xos kuzatuvchanlik mavjud. Agar e’tibor bersak, sho‘x bolalar va serharakat kishilar bir joyda sokin va jim o‘tirishi juda qiyin, bunday paytlarda ular biror yeriga (masalan, burniga, qoshiga) teginishi, tanasidagi yaralarini qo‘porishi yoki tanasining biror qismini tirnab turish odati bor. Navoiy hazratlari aytganday, „tezfahm“ va kuzatuvchi turk xalqi bu holatni metaforik qo‘llash natijasida ushbu frazemalar shakllangan. Xalq nutqida *Qo‘ling qichidimi? Oyog‘ing qichidimi?* kabi ibora ham ayni kuzatuvlar natijasida hosil qilingan.

Dostonda qo‘llangan *qiziq* leksemasi hozirgi o‘zbek tilida omonim xarakterdagi birlik bo‘lib, “Qiziq I – kishini hayron qoldiradigan, ajablantiradigan” [O‘TIL, IV, 2022: 184] semalari bilan bugungi kunda faol qo‘llansa-da, bu ma’no keyingi davr mahsulidir. Navoiy tilida ushbu ma’no *g‘arib, ajib* leksemalari bilan ifodalangan. Hozirgi o‘zbek tilida nofaol bo‘lgan va eskirish

arafasida turgan *qiziq II* leksemasi “juda issiq payt, holat; qizib turgan, qizigan” [O‘TIL, IV, 2022: 185] ma’nolarini bildirib, Navoiy asarlarida faol qo‘llangan:

Begānäni üy sārï yāvutma,
Örnüŋki, qïzïqdurur, sāvutma [LM 2020:203].

Baytda qo‘llangan birlik frazema bo‘lib, vazn talabi bilan inversiyaga uchragan. Ushu frazema o‘zbek shevalarida komponent almashinuviga uchrab, *issiq o‘rningni sovutma* tarzida bugun ham faol. Baytdagi *qiziq* leksemasi sifat turkumiga mansub bo‘lib “qizigan, isigan, issiq” [ANATIL, IV: 48] ma’nolariga ega. Dostonda *qiziq* leksemasi ayni ma’nosi bilan mustaqil holda ham uchraydi:

Tāğdïn kišikim tiläb nišānï,
Bir tödä qïziğ kül äŋläb ānï [LM 2020:203 78a15].

Ushbu baytda ham *qizig‘* leksemasi “issiq, qo‘rli” ma’nosini ifodalamoqda. *Qiziq* leksemasining bu ma’nosi nutqda faol qo‘llanmagani bois mustaqil birlik sifatida iste’moldan chiqish arafasida bo‘lsa-da, ammo shevadagi frazemalar tarkibida semantik yadro sifatida saqlanib kelmoqda. Masalan, nutqimizda *qiziq ustida* frazemasi qo‘llanib, “qizishib turgan paytda” [O‘TIL, IV, 2022: 185] semalarini ifodalaydi. Bilamizki, jahl chiqqanda inson tanasida qon aylanish tezlashadi, natijada tana qiziydi (Bu holat shevalarda *miyaga chiqmoq* frazemasi bilan ifodalanadi.) va ayrim kishilar o‘z-o‘zini nazorat qila olmay qoladi. Frazema jahlni nazorat qila olmaslik natijasida sodir qilingan xatt-harakatni tanadagi ichki o‘zgarish holati bilan tasvirlashdan hosil qilingan. *Qizig‘ida bosmoq, qizi-qizi bermoq* frazemalari ham ayni sema asosida shakllangan va *qiziq* leksemasi semantik yadro vazifasini bajarmoqda. *Qiziq ustida* frazemasida *qiziq* semantik yadrosi “holat” semasini ifodalasa, *qizig‘ida bosmoq* frazemasida “payt” ma’nosini anglatmoqda. *Qizi(q)-qizi(q) bermoq* frazemasida esa “nutqiy jarayon” semasini aks ettirmoqda. Bu ma’nolarning shakllanishi leksemani ko‘chma ma’noda qo‘llash va semantik bog‘liqlikni hosil qilish natijasi yuz bergan.

Ushbu tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

-Sheva xalq tarixini o‘z bag‘rida yashirgan katta madaniy boylik sanalib, tilning bor go‘zalligi va nafosatini o‘zida jilolantira olishi bilan adabiy tildan ustundir. Adabiy tilda “unutilgan” leksemalar frazema, maqol, matal, ertak, doston kabi folklor namunalar tarkibida saqlanib kelishi shevalarning o‘zbek tili dahmasi ekanini yana bir bor isbotlaydi.

- Dialektologik tadqiqotlarni mumtoz manbalar tili bilan qiyosan o‘rganish shevadagi ko‘plab leksik va frazeologik birliklarning etimologiyasini aniqlashtirishga xizmat qiladi, shuningdek bu birliklarning semantik taraqqiyotini, ya’ni “semantik xaritasini” shakllantirishga yordam beradi.

- Shevalardagi leksemalarning turli ma’no qirralari va frazemalardagi obrazlilik xalq tafakkuri mahsuli bo‘lib, bu birliklarni og‘zaki hamda yozma manbalar asosida kognitiv jihatdan tahlil qilish xalqning turli davrlardagi lisoniy olam manzarasi haqida xulosalar qilishda qo‘l keladi. Chunki millat tafakkuri davr va shu xalqqa xos bo‘lgan steriotiplar mahsulidir hamda tafakkur o‘zgarishlarining tilda aks ettirilgani uchun til barhayotdir.

Shartli qisqartmalar:

ADIL – Azərbaycan dilinin izahli lügeti.
АНАТИЛ– Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати
НАЛ – Навоий асарлари луғати
LM – “Layli va Majnun” dostoni
O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati

ДТС – Древнетюркский словарь.
СЯ – Староузбекский яык.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, I-IV жилдлар. 1983-1984.
2. Azərbaycan dilinin izahli lügeti. – Bakı: Şərq-Qərb, I, 2006.
3. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.
4. Фарҳанги забони тоҷикӣ. –М.: Советская энциклопедия, I. 1969.
5. Фитрат А. Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият, II жилд. 2000.
6. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т.I-II. – Ташкент: Фан, 1966-1971.
7. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. –Тошкент: Ғ.Ғулом, 2017.
8. Миртожиев М. Туркий туб сўзлар тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2017
9. Navoiy A. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2020.
10. Навоий А. Хамса [Матн]: Насрий баён. – Тошкент: Наврўз, 2019.
11. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1972.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: G‘.G‘ulom, I-VI jildlar. 2022.
13. https://eprajournals.com/IJMR/article/3152/abstractr.

BINOKORLIK LEKSIKASINI SHEVA SO‘ZLARI BILAN BOYITISH HAQIDA

ABOUT ENRICHING THE VOCABULARY OF CONSTRUCTION WITH DIALECTAL WORDS

Hasanov Abdumannon Majidovich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
abdumannonhasanov3137@gmail.com

Annotatsiya*. Ushbu maqolada aksariyat o‘zbek shevalarida uchraydigan, biroq adabiy til lug‘atlarida qayd etilmagan binokorlikka oid ayrim dialektal so‘zlar tahlilga tortiladi. Ularning ijtimoiy-lisoniy ahamiyati xususida munozara yuritiladi.*
Kalit so‘zlar: *binokorlik leksikasi, sheva, dialektal so‘zlar, adabiy til leksikasi, leksik bo‘shliq.*

Abstract. *In this article, some dialectal words related to construction, found in most Uzbek dialects, but not recorded in the dictionaries of the literary language, are analyzed. Their socio-linguistic significance is discussed.*
Key words: *construction lexicon, dialect, dialectal words, literary language lexicon, lexical gap.*

Binokorlik leksikasining shevalardagi so‘zlar bilan boyishi asrlar mobaynida takomillashib kelgan. Chunki azaldan o‘zbek diyorining inshootlar qurish bo‘yicha tajribalari ancha boy bo‘lgan va bu xalq tilida ham o‘z ifodasini topgan. Yurtimizdagi ko‘plab osori-atiqalar bu tajribalarning

mahsuli o‘laroq bunyod etilgan va ular hozirda ham dunyo ahlining e’tibori va etirofiga munosibdir. Ular tarixni bezash bobida ham, boshqa xalqlarga namuna bo‘lish bobida ham xalqimiz dili va didining ifodachisi bo‘lib, moziy va bugunning bemisl shohidi va ko‘rinishi sifatida xizmat qilmoqda. Tarix asliyatini o‘ziga jo qilgan bu inshootlar ajdodlarimizning bunyodkorlik xislatlaridan so‘zlaydi. Shundan anglash mumkinki, bunyodkor xalq tilida quruvchilik bilan bog‘liq juda ko‘p tushunchalar o‘z ifodasini topgan va ular adabiy tilning binokorlik leksikasini boyitishda ancha ahamiyatli hisoblanadi. Adabiy tilning lug‘at tarkibini tavsiflovchi izohli lug‘atlarga binokorlik va arxitekturaga oid qirqqa yaqin so‘z kiritilgan (albatta, bu lug‘atlarda *eshik, deraza, tom, devor* kabi hammaga tushunarli va faol so‘zlar termin sifatida baholanmagan: *arxit.* yoki *bnk.* pometalari bilan ajratib ko‘rsatilmagan). Bizningcha, mazkur miqdor sohaga oid terminlarning izohli lug‘atga kam kiritiliganligini ko‘rsatadi. Quyida biz lisoniy ahamiyati bilan ajralib turuvchi sohaga mansub dialektal so‘zlarning ayrimlarini tahlilga tortamiz va ularni ham me’yoriy lug‘atlarga kiritishni tavsiya etamiz.

Binokorlik mahsuloti bo‘lgan loy turli xususiyatlariga ko‘ra shevalarda detallashtirib nomlangan. Masalan, Qashqadaryodagi ayrim shevalarida somonsiz loy *g‘olagir* deb nomlanadi [Jo‘rayev 1969:128]. Qishloq hududlarda, hatto shaharlarda ham bugungi kunda loy (paxsa) imoratlar borligi (va qurilayotganligi) hech kimga sir emas. Azaldan ommabop bo‘lgan bu uslub bugungi qurilish sohasining ham muhim qismi hisoblanadi. Loyni tayyorlash jarayonida uning pishiq bo‘lishi uchun somon aralashtirilishi ham ko‘pchilikka ma’lum. Ammo somonning topilmasligi (yoki tejalishi) sabab loyni somonsiz ham tayyorlash mumkin. Bunday loy, asosan, g‘o‘la yoki g‘isht tayyorlashda foydalaniladi. Ayni shu jihatdan somonsiz loyning ham paxsa imoratlar qurilishidagi ahamiyati beqiyos. Shuni inobatga olgan holda, *g‘olagir* so‘zini ham adabiy til leksikasini tavsiflovchi izohli lug‘atlarga kiritish mumkin.

Surxandaryodagi ayrim shevalarda eshik romining ikki yon yog‘ochlari *jandari* deb nomlangan [Rahimov 1985:81]. Baxmal shevasida esa eshik romining pastki qismi tagdari tarzida ifodalanadi. Ushbu so‘zlardagi jan (yon) va tag komponentlari o‘z qatlamga tegishli va ko‘pchilika ma’lum. Bizningcha, mazkur so‘zlar tarkibidagi dari so‘zi fors tojik tilidagi dar – eshik so‘zining fonetik variantidir. Har ikkala so‘z ham o‘zbek tili uchun muhim bo‘lgan muhim tushunchaning nomi sifatida katta lisoniy va ijimoiy ahamiyatga ega.

Uy devorlarining ko‘tarilishida eshik, deraza kabi qismlar uchun alohida bo‘sh joy qoldiriladi. Ayni shu bo‘sh joyning ustiga qalin va mustahkam yog‘och (yoki metall shveller) “ko‘prik” shaklida qo‘yiladi. Chunki eshik yoki deraza o‘rnidan yuqorida devor (g‘isht) terish yana davom ettiriladi. Ayni vaziyatda qo‘llaniluvchi qalin va mustahkam yog‘och qarluq shevalarida *sandar* deb nomlanadi [Muhammadjonov 1981:144]. *To‘sin, strapila, xari* kabi so‘zlar qatorida bu so‘z ham qurilish jarayonidagi muhim tushunchani nomlovchi so‘z sifatida katta ahamiyatga ega.

Aksariyat qishloq xonadonlarida uy eshigi ustida tokcha qurilgan bo‘ladi. Eshik uchun mo‘ljallangan devordagi o‘rinning biroz baland qoldirilganligi yoki, odatda, eshikning inson bo‘yi barobar kaltaroq o‘lchamlisi tanlanishi shunday tokchalarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Quruvchilik tajribalaridan ma’lum bo‘lgan bu tip tokchalar uy-ro‘zg‘or anjomlarining ayrimlarini qo‘yish va saqlash uchun munosib joy hisoblanadi. Bunday tokcha Baxmal tumanidagi ayrim qarluq shevalarida seri tarzida nomlangan. Xuddi shu shakldagi nom (seru shaklida) eski turkiy tilda ham mavjud ekanligini qadimgi manbalardan ham bilish mumkin. [Koshg‘ariy 2017:400]. Bu esa *seri* so‘zining o‘zbek tilida ancha qadimdan qo‘llanilib kelganligini tasdiqlaydi.

Qurilishda faol qo‘llanadigan tushunchalardan biri Baxmal tumanidagi ayrim shevalarda *qulf-kalit* so‘zi orqali ifodalanadi. Bu so‘z terilayotgan g‘ishtlarning o‘zaro mutanosib qalanishini

ifodalaydi: bunda pastki qatorda kalanayotgan ikki g‘ishtning ustiga tepadagi g‘isht shunday qo‘yilishi kerakki, ostki va ustki g‘ishtlar cheti (chegarasi) ustma-ust tushmasligi kerak. Aslida, bu talab devorning yorilib (bo‘linib) ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Rus tilida *svyazka* deb ataluvchi bu tushunchaning ayrim shevalarda metaforik tarzda *qulf-kalit* deb nomlanishi, bizningcha, juda to‘g‘ri va maqsadga muvofiqdir. Bizningcha, bu so‘zni ham O‘TILda qayd etish foydadan holi emas.

Ta’kidlanganidek, aksar qishloq hududlarida loy uy va boshqa imoratlar uchun asosiy qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi. Biroq turli hududlarda loydan devor ko‘tarish jarayoni qanday yo‘sinda bajarilishiga ko‘ra farqlanadi. Masalan, muayyan hududlarda qo‘llaniladigan devor orasiga yog‘och qo‘yib, g‘isht (yoki guvala) terishga asoslangan *cho‘pkori* binokorlik boshqa hududlarda uchraydigan loyni to‘g‘ri (g‘isht qilib quritmasdan) devor ustiga bosish – *paxsa*dan keskin farqlanadi. Aksar hududlarda esa g‘isht (yoki guvala) va loyning o‘zidan (yog‘ochdan foydalanmay) devor ko‘tarish ommalashgan. Bunda albatta g‘ishtning quruq bo‘lishi talab qilinadi.

Kuzatishlar natijasida turli shevalarda qo‘llaniluvchi va adabiy til leksikasi uchun ahamiyatli bo‘lgan *zabarrav* “tomdagi ustunlar minadigan asosiy to‘sin”, *itorqa* “yog‘in suvlari ikki tomonga oqishi uchun o‘rtasi baland, yon tomonlariga qarab nishab qilingan tom yopish usuli” [Rahimov 1985:272], *yuvg‘i* “tik ustun ustiga qo‘yiladigan yog‘och”, *xim* “paxsachiga otiladigan bir otim loy” [Allaberdiyev 2018:185], *pasxona* “boloxona (ikkinchi qavat) tagidagi xona” *rajja* “devorni to‘g‘ri terishda foydalaniluvchi ip”, *xakkash* “eshik, derazalarning rejasini tuzuvchi” kabi quruvchilikka oid ko‘pgina dialektal so‘zlar mavjud ekanligi aniqlandi. Ularning umumiy qo‘llanilish areali, ahamiyatlilik darajasi va tegishli tushunchaning munosib nomlovchisi bo‘la olishiga qarab saralash va izohli lug‘atlarga kiritish foydadan holi emas.

Xulosa qilish mumkinki, xalqimiz bunyodkorligining ifodachisi bo‘lgan binokorlik bilan bog‘liq ko‘pgina so‘zlar hududlarda yashovchi aholi nutqida faol qo‘llaniladi va ularning adabiy til leksikasidagi tegishli bo‘shliqlarni to‘ldirish imkoniyatlari ancha kengdir. Bunday dialektizmlarni topish va sinchiklab o‘rganish, ulardan til leksikasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishda maqsadli foydalanish til rivoji uchun juda muhim.

Bugungi kunda binokorlik azaldagi kabi xalqimizning bunyodkorlik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. “O‘zbek pul topsa, uy qurar”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “O‘z uyim – o‘lan to‘shagim” kabi maqollar ham xalqimizning uy-joy qurish, uni obodonlashtirish, asrab-avaylash kabi milliy o‘ziga xosligini ko‘rsatib turadi. Ana shu jihatlar soha leksikasining katta ijtimoiy-lisoniy ahamiyatga molikligini ko‘rsatadi. Ta’kidlash lozimki, yuqoridagi kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlarning adabiy tilda faollashuvi va me’yorlashuvi tilning boyishiga, shuning barobarida, adabiy tilning ifoda imkoniyatlari kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2016. – 136 b.
2. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Фил.ф.б.ф.д (PhD) дисс. – Т., 2018. – 239 б.
3. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, тексталар ва луғат). Т.: Фан, 1969. – 168 б.
4. Йўлдошев Р. Тошҳовуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари. Филол.фан.номз. дисс. – Тошкент, 2002. –128 б.
5. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. – 488.

6. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари (қарлуқ ва қипчоқ тип материаллари асосида). – Т., 1981. – 179 б.
7. Рахимов С. Ўзбек тилининг Сурхондарё шевалари. – Т., 1985. – 96 б.
8. Фарҳанги забони точики. – М., Изд-во «Советская энциклопедия», 1969. 1-жилд, 659-бет.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли (Тузатилган 2-нашри). – Тошкент: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020.
10. Ўзбек халқ шевалари луғати. (масъул муҳаррир Шоабдураҳмонов Ш.) –Тошкент: “Фан”, 1971. – 409 б.

О ТВОРЧЕСКОМ СОТРУДНИЧЕСТВЕ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКОВЕДОВ

ABOUT CREATIVE COOPERATION BETWEEN RUSSIAN AND UZBEK LINGUISTS

Халилов Фархад Халилович
старший преподаватель кафедры русского языкознания
Национального университета Узбекистана
farkhad-khalilov@mail.ru

Одной из главных движущих сил развития науки является тесное творческое сотрудничество ученых всех национальностей в решении актуальных научных проблем. Это братское содружество ярко проявляется и в области языкознания. Ведущие русские ученые оказывали и оказывают зарубежным филологам и лингвистам повседневную помощь в решении насущных вопросов науки о языке.

Неоценимый вклад внесли русские ученые и в развитие узбекского языкознания. Много внимания уделяют они, в частности, исследованиям в области истории узбекского языка и в этой связи изучению древнетюркских памятников. Эти памятники не относятся к какому-либо отдельному, ныне существующему живому тюркскому языку, а являются общим фондом и общим культурным богатством всех тюркоязычных народностей, ибо в этих памятниках можно встретить элементы любого тюркского языка.

В исследовании древнетюркских письменных памятников принимают участие лингвисты и историки, этнографы и археологи, востоковеды и экономисты.

Огромную работу по изучению знаменитых орхоно-енисейских письменных памятников проделал проф. С.Е.Малов, опубликовавший по этому вопросу большое количество научных трудов.

Изучение дошедших до нас письменных памятников прошлого, вместе с живыми языковыми фактами, позволяет проследить не только процесс развития тюркских языков в прошлом, но и раскрыть истоки формирования современного литературного языка узбекского и других тюркоязычных народов.

Проф.А.К.Боровков в работе, посвященной развитию узбекского языкознания, отмечал: «Современный узбекский язык не есть новый язык, вновь возникший и развивающийся на основе одного из существующих живых местных диалектов. Основы грамматического строя и основной словарный фонд связывают его с языком ранних памятников восточно-тюркской письменности, начиная с XI—XII вв.» [1, 43]. А проф. В.В. Решетов подчеркивает, что «именно литературный узбекский язык, базирующийся на

городской диалектной основе ташкентско-ферганского типа, — на протяжении веков выступал в качестве организующей основы письменного языка; определяющим он является и в наше время» [4, 21].

Вот почему изучение истории формирования узбекского литературного языка и его диалектной основы является актуальной задачей, и тюркологи-узбековеды уделяют этой проблеме большое внимание. Об этом свидетельствуют, в частности, исследования С.М.Муталибова по письменным памятникам XI—XII вв., Г.А.Абдурахманова—по истории синтаксической конструкции, Х.Г.Газиева — по истории пунктуации узбекского языка и др.

Русские ученые внесли огромный вклад в научное изучение многообразных узбекских говоров и местных диалектов. Они заложили прочную теоретическую базу и показали практические пути описания и обобщения диалектологических материалов. С именами крупнейших знатоков и специалистов узбекской диалектологии — профессоров Е. Д. Поливанова, К.К.Юдахина, А.К.Боровкова, В.В.Решетова — связано зарождение узбекской диалектологии, как особой лингвистической дисциплины.

Большая работа проделана проф. Е. Д. Поливановым, описавшим значительное количество узбекских говоров. Им исследованы, в частности, звуковой состав ташкентского диалекта, каршинский, самаркандский, казак-найманский говоры, звуковая система говора г. Туркестана, фонетическая система говора кишлака Икан, говоры кишлака Кият-Қонграт Шаватского района Хорезмской области и др. Работа проф. Е. Д. Поливанова «Узбекская диалектология и узбекский литературный язык» (1933) явилась синтезом его исследований в области узбекской диалектологии и узбекского языка.

По классификации Е. Д. Поливанова узбекские говоры первоначально делятся на две большие группы: 1) иранизованные, или несингармонистические говоры — чагатайское наречие; 2) неиранизованные, или сингармонистические говоры — огузское и кипчакское наречия.

Е. Д. Поливанов дал трехчленную квалификацию узбекских говоров: чагатайское наречие (семь типов), огузское наречие (два типа) и кипчакское наречие (семь типов), а также две подгруппы — итого 18 типов узбекских говоров. Отсюда видно, насколько глубоко и всесторонне изучены им местные диалекты и говоры.

Одним из первых осуществил научное описание узбекских говоров проф. К.К.Юдахин. В 1925 г., будучи выпускником востфака САГУ, он выполнил дипломную работу на тему «Некоторые особенности карабулакского говора». Эта работа была впервые издана в 1927 г. в сборнике «Академику В. В. Бартольду», а в 1957 г. —в сборнике «Ўзбек диалектологиясидан материаллар». К.К.Юдахиным были описаны и опубликованы также материалы манкентского, вуадильского и лайлакского говоров.

В своей классификации проф. К.К.Юдахин первоначально установил четыре, а затем — пять групп узбекских говоров: 1) ташкентский, 2) ферганский, 3) кипчакский, 4) хивинский (хивино-огузский), 5) северо-узбекский.

Известный ученый-филолог проф. А.К.Боровков создал монументальные труды по всем отраслям узбекского языкознания, в том числе по узбекской диалектологии. Его исследования отличаются глубиной разработки больших теоретических проблем на базе огромного фактического материала, который умело использован автором для решения ряда принципиальных и комплексных вопросов, связанных с историей и путями развития узбекского языка, а также местных его диалектов и говоров.

В целях сплошного обследования узбекских говоров А.К.Боровков составил специальную подробную анкету; ему же принадлежит инициатива создания атласа узбекских народных говоров.

Проф. А.К.Боровков предложил два варианта классификации узбекских говоров. Первый вариант основан на фонетических признаках: «оканье» и «аканье», с одной стороны, «еканье» и «джеканье»,— с другой.

1.«Окающая» группа говоров охватывает городские центры и прилегающие к ним районы — Ташкентский, Андижанский, Ферганский, Самаркандский, Бухарский и др.

2.«Акающая» группа говоров характеризуется сингармонистическим укладом гласных и подразделяется на две подгруппы — «екающую» и «джекающую». К первой отнесены говоры Южного Казахстана (Чимкент, Манкент, Туркестан и др.) и южнохорезмские говоры, а ко второй —северохорезмские говоры и кишлачные говоры Самаркандской и Сурхандарьинской областей.

Второй вариант классификации проф. А.К.Боровкова, с учетом данных исторической диалектологии и сложившегося взаимоотношения между узбекскими диалектами и говорами, предусматривает следующие четыре группы: 1) средне-узбекский диалект, 2) шейбанидско-узбекский или «джекающий», 3) южнохорезмский диалект и 4) изолированные говоры различного происхождения.

1. Среднеузбекский диалект включает две группы говоров: 1) среднеузбекистанскую, охватывающую говоры ташкентского типа, самаркандско-бухарские и ферганские, и 2) северноузбекскую — говоры Чимкента, Сайрама, Джамбула, Мерке и некоторые другие узбекские говоры Южного Казахстана.

Первая группа, в свою очередь, делится автором на три подгруппы: а) говоры ташкентского типа—Ташкент, Ханабад, Хас, Такчи, Янгиюль, Чиназ (причем приводится аналогия между некоторыми говорами этого типа и говорами Наманганской области — Қараскон, Қарача-Шуркент, Қушан), б) самаркандско-бухарские говоры, в) ферганские говоры.

2.Шейбанидско-узбекский или «джекающий» диалект охватывает узбекские говоры различных (в прошлом кочевых или полукочевых) родовых групп (китай, кипчак, мангит, сарай, найман, минг, юз, кирк и др.), расселившихся начиная с XVI в. в различных районах Узбекистана (Северный Хорезм, Самаркандская, Кашкадарьинская, Бухарская, Сурхандарьинская области, кураминские говоры долины Ангрена, кипчакские, каракалпакские говоры Ферганской долины) и юго-западной части Таджикистана. В известной своей части это — говоры дошейбанидского происхождения.

3.Южнохорезмский диалект включает говоры Хивы, Ургенча, Ханки, Хазараспа, Шавата, Янгиарыка, Газавата, Шорахана п прилегающих селений. Этот диалект особо отличал еше Алишер Навои («Туркча-хоразмча»).

4.Изолированные говоры различного происхождения, а именно:

а)говоры Карабулака, Икана и Манкента (по всем данным, огузского происхождения), дошедшие до нас от эпохи IX—XII вв. и сохранившие фонетическое различение кратких и долгих гласных, форму родительного падежа на -инг (Қарабулак) и ряд других особенностей;

б)«умлаутные» говоры Наманганской области, уйгурских переселенцев и некоторые другие.

Все указаннне типы узбекских говоров охарактеризованы А.К.Боровковым с учетом их важнейших фонетических, лексических и грамматических признаков.

Много усилий приложил для развития науки об узбекском языке и проф. В. В. Решетов. Его научная деятельность направлена главным образом на описание отдельных говоров и теоретическое обобщение вопросов узбекской диалектологии, освещение проблемы диалектной основы узбекского литературного языка и изучение местных диалектов в общем тюркологическом плане.

С большим интересом относится проф. В. В. Решетов к вопросу о диалектной основе узбекского языка. Его труды «О диалектной основе узбекского литературного языка» (1952, 1955), «Диалектная основа узбекского национального языка» (1956), «Ўзбек тилининг қарлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси» (1960) показывают, что автор связывает изучение местных диалектов с историей языка. К последней из упомянутых работ приложена схема, характеризующая четыре группы карлуко-чигиле-уйгурского наречия узбекского языка: 1) ферганская группа с четырьмя диалектами, 2) ташкентская группа с двумя диалектами, 3) каршинская группа с двумя диалектами и 4) североузбекская группа с двумя диалектами, — итого 10 диалектов [4, 76].

Мысль проф. В. В. Решетова о карлуко-чигиле-уйгурской диалектной основе узбекского литературного языка была изложена им в ранее опубликованной работе «К вопросу об оканье в тюркских языках» (1959) и в его книге «Узбекский язык», ч. I, Введение, Фонетика (1959).

Автор считает, что диалектной основой современного узбекского литературного языка является тот язык, который сложился при Караханидах и в несколько модернизированном виде дошел до наших дней.

Это утверждение проф. В.В.Решетова отчасти совпадает с мнением акад. А.Н.Самойловича, который писал в своей работе «К истории литературного среднеазиатско-турецкого языка»: «В настоящее время намечаются находящие один на другой и связанные между собой периоды: первый— с центром в Кашгаре и с исходным моментом образования караханидского государства; второй — с центрами в бассейне нижнего течения Сырдарьи и в Хорезме и с исходным моментом укрепления ислама среди огузов и кипчаков; третий — с рядом центров в соседней части Чагатайского улуса и с исходным моментом укрепления культурной жизни в тимуридских владениях. Третий период развития литературного «среднеазиатско-турецкого языка исламской эпохи» был наиболее благоприятным по определявшей его исторической обстановке. В этот третий период действовали наиболее выдающиеся литературные деятели во главе с Алишером Навои, этот период оказался золотым веком в истории «среднеазиатско-тюркской» литературы и в этот период язык достиг наибольшего оформления и единообразия как язык классический, за которым именно в этот только период (XV—XVI вв.) закрепилось название «чагатайского» языка» [2,13].

Далее, особо отмечая, что чагатайский период, украшенный творениями Алишера Навои, является наиболее длительным (XV — начало XX в.) в истории этого языка, акад. А. Н. Самойлович пишет:

«Четвертый период развития литературного среднеазиатско-тюркского языка начинается на наших глазах, в XX в., и этот новый период, как сознают и его руководители, идет на смену периода «чагатайского» и потому уже не носит этого имени. Язык четвертого периода называется литературным узбекским языком» [2,14].

Опираясь на большой опыт и помощь русских тюркологов, узбекские диалектологи разрабатывают крупные научные проблемы. Так, завершил свою работу над исследованием хорезмского диалекта Ф.А.Абдуллаев; опорные говоры узбекского литературного языка

исследовал Ш.Ш. Шаабдурахманов; над вопросами узбекско-таджикского языкового взаимоотношения на материалах местных диалектов работали Х.Г.Гулямов и М.М.Мирзаев и т. д.

Особое внимание русских ученых привлекают словарный состав и грамматический строй современного узбекского языка. Об этом свидетельствует огромная работа, проделанная тюркологами-узбековедами в области лексики и лексикографии.

Анализ словарного состава узбекской периодической печати показывает, что лексика узбекского литературного языка в советский период выросла за счет русских или заимствованных через русский язык других интернациональных терминов и слов. Взамен старых, отживших свой век арабо-персидских слов, возник новый словарный пласт. Удельный вес интернациональных слов в отдельных номерах узбекских газет, в зависимости от характера публикуемых материалов (художественно- литературные, общественно-политические или научно-технические статьи) колеблется в среднем от 15 до 20%. Все эти новые явления в лексике современного узбекского языка внимательно изучаются русскими и узбекскими учеными-языковедами.

Плодотворные исследования проведены русскими учеными и по истории узбекской лексики. Труды проф.А.К.Боровкова: «Ценный источник для истории узбекского языка» (1949); «Очерки истории узбекского языка», III, Лексика среднеазиатского тефсира XII и XШ вв.» (1958); «Узбекский литературный язык в период 1905—1917 гг.» (1941) и другие — содержат богатый фактический материал и теоретические обобщения по исторической лексикологии. Крупнейшим исследованием А.К.Боровкова является его работа «Бадаи‘ ал’-луғат» —словарь к сочинениям Алишера Навои» (1961).

Характеризуя с лингвистической точки зрения Каршинскую рукопись тефсира, найденную в 1914 г., А.К.Боровков пишет: «По всем признакам язык нашего тефсира приближался, как отмечалось уже, к языку «Қис’ас ал-анбия» Рабгузи и примыкающих к этому сочинению XIVв. памятников более раннего периода, в том числе дидактической поэмы XI в. «Кутадгу-билик» [1 57]. На это указывают, прежде всего, фонетические и орфографические особенности. Далее отмечаются морфологические и лексические особенности тефсира, и здесь А.К.Боровков указывает, что «лексика тефсира еше в большей мере характеризует его разнообразные диалектальные источники и дает большой материал для определения эпохи этого памятника»» [1, 61].

В своей работе «Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка» проф. А.К.Боровков, останавливаясь на лексике поэта, особо подчеркивает: «Для Алишера Навои слово действительно было жемчужиной, драгоценным камнем, и ювелирная работа над драгоценностями, словами, была для него долгом поэта. Это обстоятельство не могло быть не замеченным». Еше в 1941 г. А.К.Боровков указывал, что настало время приступить к изучению словаря Алишера Навои и «вообще заняться подробно изучением литературного языка» [1,114].

Развитию словарного состава узбекского языка после присоединения Средней Азии к России, особенно развитию общественно-политической лексики и терминологии периода 1905—1917 гг., А.К.Боровков посвятил специальную работу, изданную в 1941 г.

Ряд работ русских тюркологов — лингвистов, историков, востоковедов был посвящен определению этимологии и семантики отдельных слов. Таковы, например, работы Е.Д.Поливанова «О происхождении названия Ташкента» (1927), «К этимологии турецкого уй, «дом, «юрта» (1934); А.А. Семенова — «Уйгурское «табук» (тапук) и его историко-бытовая параллель в языке узбеков XV в.» (1946); А.Н.Бернштама — «К семантике термина

оғил «сын» (1940); А.Н.Кононова — «К этимологии слова ўғил «сын» (1958), «Опыт анализа термина «турк» и др.

Ведущая роль русских ученых отчетливо видна в области лексикографии национального языкознания. Ценным вкладом в узбекское языкознание явились «Краткий русско-узбекский словарь» (1926) проф. Е.Д.Поливанова, «Краткий узбекско-русский словарь» (1927) проф. К.К.Юдахина, «Русско-узбекский» и «Узбекско-русский словарь» (1942) проф. А.К.Боровкова и проф. Т.Н.Қары-Ниязова, «Краткий русско-узбекский словарь» (1960) проф. В.В.Решетова и др. Во второй половине XX века в Узбекистане были достигнуты новые успехи в составлении словарей. Под общей редакцией проф. А.К.Боровкова изданы пятитомный «Русско-узбекский словарь» (свыше 70000 слов), «Узбекско-русский словарь» (50000 слов).

За годы независимости в Узбекистане узбекскими языковедами разработана научная терминология, составлены двуязычные терминологические словари по всем отраслям науки, а также толковый словарь узбекского языка в пяти томах и орфографический словарь узбекского литературного языка.

Русскими учеными изучено и теоретически обосновано лексическое взаимовлияние как односистемных, так и разносистемных языков; разработаны вопросы грамматического строя отдельных тюркских языков, развития письменности у тюркоязычных народов; составлены учебники и учебные пособия по национальным языкам, методические пособия по изучению национальных, русского и иностранных языков и т. д.

Труды русских ученых не только по тюркологии, но и в области научного изучения русского и других языков являются образцом для исследования и научного обоснования закономерностей развития национальных языков, в том числе узбекского языка.

Филологи всего мира с большим вниманием относятся к исследованиям русских ученых М.В.Ломоносова, А.Х.Востокова, И.И.Срезневского, Ф.И. Буслаева, А.А.Потебни, Я.К.Грота, Ф.Ф.Фортунатова, А.А.Шахматова, А.М. Пешковского, Л.В.Щербы, Д.Н.Ушакова, В.В.Виноградова, С.П.Обнорского, В.И.Чернышева, И.И.Мешанинова, А.А.Булаховского, А.В.Миртова и др. Ученые-языковеды Узбекистана широко пользуются трудами филологов Е. С.Истриной,В.И.Ярцевой, А.В.Десницкой, С.М.Абакумова, С.Г.Бархударова, Ф.П.Филина,А Б.Шапиро, Б.И.Барковского, Н.С.Поспелова, П.Я.Черных, Р. И.Аванесова, Б.А.Серебренникова, С.Е.Крючкова, А.Н.Гвоздева, Е.М. Галкиной-Федорук, С.М.Ожегова, В.А.Добромыслова и многих других.

Фундаментальные труды русских ученых, их всесторонняя творческая помощь оказали и оказывают неоценимую услугу филологам и языковедам Узбекистана в изучении актуальных вопросов языкознания: истории языка, формирования и развития национального языка, отношения местных диалектов к литературному языку, научной грамматики, усовершенствования национальной письменности, научно-технической и общественно-политической терминологии, сравнительного изучения родственных и неродственных языков и т. Д. Эти исследования вносят бесспорный вклад в дальнейшее развитие узбекского языка и литературы.

Список литературы

1. Боровков А.К., Узбекский литературный язык в период 1905—1917 гг, Ташкент, Учпедгиз, 1941.

2. Камалов Ф.К., О роли русских ученых в научном изучении узбекского языка // Общественные науки в Узбекистане № 4, Ташкент ,1963.

3. Поливанов Е.Д., Узбекская диалектология и узбекский литературный язык, Ташкент, Учпедгиз,1933.
4. Решетов В.В., Изучение узбекских народных говоров // Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1957.

SURXONDARYO DIALEKTAL ZONASIDA FOKUS NUQTA MASALASI

FOCUS POINT PROBLEM IN SURKHONDARYO DIALECT ZONE

Turdialiyev Anvarbek Xusinovich
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya. *XX asr o‘zbek tilshunosligida shevalarni tadqiq qilishning yangi bosqichi rivojlandi, ya’ni shevalarning hududiy tarqalishi va bir-biriga o‘zaro ta’sirini o‘rganish boshlandi va shu asosda areal lingvistka fani shakllandi. Areal lingvistika fanining shakllantirilishiga keyingi davrda til va shevalarni o‘rganishga nisbatan o‘zgacha qarash, uning taraqqiy qilish xususiyatlariga bo‘lgan yangicha yondashuv sabab bo‘ldi. Til va dialektlarni zonalashtirish areal lingvistikaning muhim masalalaridan bo‘lib, dialektal zonalarni tashkil etishda fokus tushunchasidan foydalaniladi. Til zonalari tarixiy taraqqiyotida hamma dialektlarga xos xarakterli xususiyatlari qisqarishi va mayda zonalarga ajralishi mumkin bu hodisa ham lingvistik geografiyaning o‘rganish obyekti sanaladi. Maqolada Surxondaryo dialektal zonasi xususiyatlari haqida hozirgi kun qarashlari jamlangan va bu dastlabki ma’lumotlar sanaladi.*
Kalit so‘zlar: *sheva, areal, geografiya, til, dialect, zona, tuman, qishloq.*

Abstract. *In 20th century Uzbek linguistics, a new stage of the study of dialects developed, that is, the study of regional distribution of dialects and their interaction with each other began, and the science of areal linguistics was formed on this basis. The formation of the science of areal linguistics was caused by a different approach to the study of languages and dialects, a new approach to the characteristics of its development. Zoning of language and dialects is one of the important issues of areal linguistics, and the concept of focus is used to organize dialectal zones. In the historical development of language zones, characteristic features of all dialects can be reduced and separated into small zones, this phenomenon is also considered an object of study of linguistic geography.*

The article summarizes the current views on the features of the Surkhandarya dialectal zone.
Key words: *dialect, area, geography, language, dialect, zone, district, village.*

Denov shevalari birinchi marta o‘rganilayotgani, uning atrof shevalari ham tadqiqot obyekti bo‘lmaganligi bois areal tadqiqdan oldin hudud shevasi dialektologik tadqiq qilindi. To‘g‘ri, tadqiq qilinayotgan Denov shevasi S.Rahimovning “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetika, leksika)1985)” nomzodlik dissertatsiyasida hudud aholisi tarkibi, sheva xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan, biroq muallif keltirgan qipchoq lahjasi vakillari yashaydigan hudud deb berilgan “Dahana” qishlog‘ida qipchoqlar emas, balki qadimdan qarluq lahjasi va tojik tilli aholi yashashi, Qoraxon, Qizilsuv qishloqlarida qipchoq, qarluq va tojik tilli aholi aralash yashashligi bizga ma’lum. Bu esa alohida qayta tekshirishni talab etadi. Tadqiqotda muallif ǯ-lovchi shevalarni til xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga ajratadi va ikkinchi guruhga Sho‘rchi tuman

shevasini ham kiritadi. Bizning kuzatish jarayonimizda hudud shevasi til xususiyati (singarmonizmni saqlash, saqlamasligi, shahar shevasi va tojik tilining ta'sir)ga ko'ra ikkinchi guruhdan ko'ra birinchi guruhga ko'proq yaqinligi ochiqlandi. Albatta, bu o'rinda Sho'rchi va Denov tumanlari chegarasi va keyingi davrda Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Denov, Sariosiyo tumanlarining ba'zi qishloqlari ajratib olinib yangi bir tuman Oltinsoy tumani tashkil qilinganligini e'tibordan qochirmasligimiz kerak. Fikrimizni isboti sifatida Sho'rchi va Denov chegarasi kesishgan Ohunboboyev, Hayrabod, Hazarbog' 5-bo'lim, Oltinsoy-Denov chegarasida kesishgan Xo'jasoat, Hayrandara[1] qishloqlari ǯ-lovchi shevalari S.Rahimov tasniflagan birinchi guruh shevasiga yaqinligini keltirishimiz mumkin. A.Jo'rayevning o'zbek tili massivini dialektal zonalarga ajratishdagi tasniflashni kuzatadigan bo'lsak Surxondaryo dialektal zonasida joylashgan shevalarni chuqur o'rganilmagani, tadqiq qilinmagani sabab ham bu zonani alohida dialektal zonaga ajratish munozarali deb ta'riflaydi olim.

A.Jo'rayev Surxondaryo dialektal zonasini asosiy lingvistik xususiyatlarini lingvoareal tadqiq qilish, fokus nuqtasini belgilashda A.Mamatqulov, S.Rahimov, M.Nosirov, X.Alimuradov, X.Hamroqulov kabi olimlarning dialektologik ishlaridan foydalanganligini ta'kidlaydi hamda quyidagi lingvoareal diagramma zanjirini[2] keltiradi:

D 1 - Sariosiyo tumani (qipchoq-20%, qarluq, oraliq shevalar);

D 2 - Boysun tumani (qarluq, qipchoq-30%, oraliq sheva, ikki tilli: o'zbek-tojik tili);

D 3 - Sherobod tumani (qarluq, qipchoq-80%, oraliq shevalar);

D 4 - Gagarin (Muzrabod) tumani (qipchoq-80%, qarluq, oraliq shevalar);

D 5 - Termiz tumani (qipchoq-40%[3], qarluq, oraliq shevalar);

O'zbek tilining janubiy dialektallarining tekshirilishidan ko'rishimiz mumkinki, Yuqori va Quyi Qashqadaryo dialektal zonalari[Джураев: 1991. 69-70]. Surxondaryo dialektal zonasidan anchagina yaxshi va atroflicha o'rganilganligini bilishimiz mumkin. Buning sababi Qashqadaryo shevalari nisbatan to'liq o'rganilganidir. Olim keltirgan diagrammada Surxondaryo viloyati hududlaridan faqat 5tasi dialektologik o'rganilgani va zonani aniqlash, fokus nuqtani belgilashda shu tadqiqotlardan foydalanilgani ma'lum bo'ladi. Albatta, shevalari to'liq o'rganilmagan hududni fokus nuqtasini belgilash munozaralarga sabab bo'ladi. Denov shevasini kuzatish davrida viloyatning boshqa tumanlari haqida ham qisqacha ma'lumot to'pladik. Hozircha faqat aholi tarkibi haqida qisqacha ma'lumot berib ketamiz, hududlarning sheva xususiyatlari esa alohida tadqiqot talab qiladi.

Jarqo'rg'on tumani (qipchoq-80%, qarluq, tojik, tatar, rus, koreys, qozoq, turkman) o'zbeklar 90 foiz; Qumqo'rg'on tumani (qipchoq-75%, qarluq, tojik, tatar, rus) o'zbeklar 90 foiz; Sho'rchi tumani (qipchoq-70%, qarluq, tojik, tatar, rus) o'zbeklar 90 foiz; Angor tumani (qipchoq-80%, qarluq, tojik, tatar, rus, turkman) o'zbeklar 90 foiz; Bandixon tumani (qipchoq, tojik) o'zbeklar 96 foiz; Qiziriq tumani (qipchoq-70%, qarluq, tojik, tatar, rus, turkman) o'zbeklar 80 foiz; Oltinsoy tumani (qipchoq-30%, qarluq, tojik, tatar, rus) o'zbeklar 70 foiz; Uzun tumani (qipchoq-20%, qarluq, tojik, tatar, rus, koreys, qozoq, turkman) o'zbeklar 60 foiz; Denov tumani (qipchoq-20%, qarluq, tojik, tatar, rus, koreys, qozoq, turkman, arab, jo'gi) o'zbeklar 60 foiz.

S.Rahimov tadqiqotida[Раҳимов. 1985. 24] Surxondaryo viloyatida Boysun va Sariosiyo tumani shevalarida ikki tillik mavjud deb bergan ma'lumoti ham zona shevalarini to'liq

[1] Xo'jasoat, Hayrandara qishloqlari Denov tumani tarkibida bo'lgan. Hozir Oltinsoy tumaniga qarashli.

[2] Muallif qo'llagan terminlarni o'zgartirmadik. Qarang: Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – Б. 78.

[3] Qipchoq lahjasi vakillarining foizda berilishi bizning o'rganishlarimiz natijasida belgilangan.

o‘rganilmaganidan xabar beradi. Haqiqatdan ham, zonaning deyarli barcha tumanlarida ikki tilda so‘zlashuvchi qishloq aholi vakillari mavjud. Bu esa murakkab dialektal zonani hosil qiladi.

Areal lingvistikada dialektal zonalar tarkib topishiga ko‘ra ham farqlanadi. Yuqorida biz Denov shevasini *“kichik dialektal zona”* sifatida tavsiya qildik, quyida esa buni izohlashga harakat qilamiz. Denov tuman aholisi asosan qarluq, qipchoq dialekti hamda tojik tilli aholidan, ayrim qishloqlarda esa tatar, turkman, qozoq, boshqird, arab, lo‘li millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Bu kam sonli millatlar joylashgan (yashash joyi) hududiga qarab qarluq va qipchoq shevasida muloqot qiladi o‘z tillarida ba’zi o‘rinlardagina suhbatlashadi. Lo‘lilar esa tojik tilida gaplashadi. Kichik dialektal zonaning fokus nuqtasi bu Denov shahar shevasi bo‘lib bu sheva 6-7ta *(a, ä, ā, o, u, i, e)* unlidan iborat. Kelishiklari soni 5ta va bu xususiyati bilan Toshkent-Farg‘ona dialekti bilan bir xillikni tashkil etadi. Samarqand-Buxoro dialekti kabi o‘rin-payt va jo‘nalish kelishigi Denov shahri shevasida farqlanadi. Fe’lning o‘tgan zamon davom shakli *-(a)jātgan* sifatdosh shakli hamda to‘liqsiz fe’l shakli bilan ifodalanadi: *qilajātgan edim, sorajātgan edi* tarzida. Ravishdoshga *-jātib* affiksi va *shaxs-son* qo‘shimchalari qo‘shish orqali aniq hozirgi zamon ma’nosi ifodalanadi: *dejäjātibdi, qojajātibdi* shaklida. Tayanch shevadagi bu morfologik xususiyat atrof shevalarga qilgan ta’siri bilan yetakchilik qiladi. Hozirgi kunga kelib tayanch sheva bo‘lgan Denov shahri shevasining ta’siri yosh (14-30) va o‘rta yosh (45 yoshgacha) bo‘lgan aholi nutqida yaqqol seziladi, hatto ayrim sheva vakillari o‘z shevalarida gaplashmasdan faqat o‘zlashgan Shahar shevasida muloqot qilganini ko‘rishimiz mumkin.

qarluq	**shahar shevasi**	**qipchoq**	**Adabiy tilda**
qilāpti	qïlajaptï	qilajātibdi	qilyapti
kelāpti	kelajäpti	kelajātibdi	kelyapti
dejāpti	de:āpti//dejäjäpti	dejäjātibdi	deyapti

Fokus nuqtadan, ya’ni shahardan uzoqlashgan sari zona shevasida sheva va til xususiyatlari saqlaganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga tog‘li O‘shor, Pojur, Sina qishloq tojik tili va qarluq shevalarini hamda Hayrabod, Hazarbog‘ 5-bo‘lim **ǯ**-lovchi shevalarini, shuningdek, Oybarak, Qizilfarg‘ona (a-lovchi) qarluq guruh shevalarini misol qilishimiz mumkin. Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki O‘rmon qishloq shevasi shaharga juda yaqin ekanligiga qaramasdan o‘z shevasini kuchli saqlagan, buning sababi qishloq aholisi tarkibi faqat qo‘ng‘irot urug‘i va ularning ko‘proq dehqonchilik bilan shug‘ullanishi bo‘lsa kerak, to‘g‘ri, qishloqda 22 ta xonadonda jo‘gilar ham yashaydi, lekin ular doim ko‘chada, safarda bo‘lganligi va qishloq aholisi bilan ijtimoiy aloqaga kirishmagani, urf-odatlari kesishadigan nuqtaning yo‘qligidan qishloq shevasi bilan kontakt hosil qilmagan. Kichik dialektal zona sifatida tavsiya etilayotgan Denov shevasini o‘rganish hudud shevasida qarluq lahjasining singarmonizmni yo‘qotgan shevalari, qipchoq lahjasiga oid shevalar hamda tojik tili muomalada borligini ko‘rsatdi. Bunda, albatta, qarluq shevalari fokus nuqtasi vazifasini bajarishi va atrof shevalarga ta’siri borligi aniqlandi. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozim tekshirilgan Denov shahri shevasi kichik dialektal zona sifatida hududda o‘z maqomini mustahkamlab, iqtisodiy, geografik joylashuvi, infratuzilmasi, etnik rang-barangligi bilan Surxondaryo dialektal zonasining fokus nuqtasi maqomiga ham da’vogarlik qila oladi. Dialektal zonalarni belgilash tajribasini kuzatadigan bo‘lsak, Termiz shahri shevasi poytaxt shahar ekanligi, siyosiy-madaniy tadbirlarning markazi, rivojlangan infratuzilma, sifatli tibbiyot, oliy ta’lim dargohlarining viloyat markazida ekanligi bilan aholi oqimini o‘ziga jalb qilib fokus nuqta vazifasini bajarsa, Denov kichik dialektal zonasi qadimiy qulay savdo markazi bo‘lganligi, iqlimi, xizmat ko‘rsatishning sifati, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay sharoitda va yirik

Denov bozori mavjudligi, viloyat aholisi tabiiy oqimi yo‘lida ekanligi bilan, boshqa tumanlari aholising doimiy o‘zi tomonga harakatga bo‘lishiga sabab bo‘ladi, muloqot esa, albatta, Denov shahri shevasida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 12.
2. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, Лексика). – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 24.
3. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 69-70.
4. Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
5. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 2004.
6. Иброҳимов Й. М. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 2000.

XORAZM DIALEKTAL ZONASIDAGI TURKMAN SHEVALARIDA Δ, Θ TOVUSHLARINING QO‘LLANILISHIGA DOIR

ON THE USE OF Δ, Θ SOUNDS IN THE TURKMAN DIALECTS OF THE KHORAZM DIALECT ZONE

Alimardanov Elyor
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. *O‘zbek tili massivining tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazm dialektal zonasining ma’lum areallarida turkmanlar istiqomat qiladi va iste’molda turkman tilidan foydalanadi. Xorazm dialektal zonasidagi turkman shevalari o‘zbek tilining ta’siri ostida o‘ziga xos rivojlanish yo‘lida borayotir. Maqolada dialektal zonadagi turkman shevalarida markaziy turkman shevalari va turkman adabiy tiliga xos apikal talaffuz qilinuvchi* ***δ, θ*** *tovushlarining qo‘llanilishi haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm dialektal zonasi, o‘zbek tili, turkman tili, sheva, fonetika, tovush.*

Abstract. *Turkmens live in certain areas of the Khorezm dialectal zone in the Uzbek language massive and use the Turkmen language in communication. Turkmen dialects in the Khorezm dialectal zone, which is influenced by Uzbek language, are developing in a unique way. The article provides information on the use in the central Turkmen dialects and the apically pronounced* ***δ, θ*** *phonemes characteristic of the Turkmen literary language in the Turkmen dialects of the Khorezm dialectal zone.*

Key words: *Khorezm dialectal zone, Uzbek language, Turkmen language, dialect, phonetics, phoneme.*

Xorazm dialektal zonasi o‘zbek tili massivining tarkibiy qismi sifatida turli til va lahjalarni o‘zida jam etgan. Jumladan, dialektal zonada o‘zbek tilining o‘g‘uz va qipchoq lahjalari,

shuningdek, turkman, qozoq, qoraqalpoq tillari muloqot funksiyasini bajaradi va fokus nuqtasi bo‘lgan Urganch-Xiva (o‘g‘uz) shevalari atrof sheva va tillarga muntazam ta’sir etadi. Shunga ko‘ra, mazkur dialektal zonada o‘zbek-turkman, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qoraqalpoq tillari kontakti ro‘y beradi. Ushbu kontakda aksar o‘rinlarda o‘zbek tili dominantlik qiladi, ya’ni ta’sir etuvchi til vazifasini bajaradi.

Turkman tili va shevalarining, nafaqat, o‘zbek tili va shevalaridan, balki boshqa turkiy tillardan farqlovchi muhim fonetik belgilaridan biri tishlararo (interdental) **δ, θ** tovushlarining mavjudligidir. **δ –** tishlararo (interdental) shovqinli, sirg‘aluvchi, jarangli tovush. **θ –** tishlararo (interdental) shovqinli, sirg‘aluvchi, jarangsiz tovush.

δ, θ undoshlari artikulyatsiyasiga ko‘ra, *“tishlararo undoshlar”*, *“interdental undoshlar”* va *“apikal tovushlar”* kabi terminlar bilan ataladi [Амансарыев 1970: 181]. Va farqli ravishda, boshqa turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tili va shevalaridagi **s, z** undoshlari dorsal tovushlar deyiladi. Turkiy tillardan mazkur apikal tovushlarning mavjudligi turkman tili bilan birga boshqird tilida ham uchraydi [Щербак 1970: 79; Амансарыев 1970: 181; Weýisow 2008: 61].

B.A.Serebrennikov va N.Z.Gadjievalar **δ** tovushini bobotil (prayazык) davrida so‘z boshida uchramasligini va qadimgi turkiy yozma yodgorliklarida intervokal pozitsiyadagina kelishini qayd etadi, *aδaq (oyoq), aδïγ (ayiq), qaδïŋ (qayin), aδïr (alohida), küδägü (kuyov), quδuγ (quduq), keδim (kiyim)* [Серебренников, Гаджиева 1986: 60]. Shuningdek, N.A.Baskakov ham mazkur tovushni qadimgi va o‘rta (eski) turkiy til davrlarida qo‘llanilganligini ta’kidlab, quyidagi misollarni keltiradi, *aδ-aq (oyoq), qoδ (qo‘ymoq), quδ-ruq (quyruq), beδ-ük (buyuk), qaδïŋ (qayin)* [Баскаков 1988: 103].

H.Ne’matov esa, o‘zining “O‘zbek tilining tarixiy fonetikasi”da, **δ** tovushi qadimgi turkiy tilga xos emas va eski turkiy til davrida yuzaga kelgan tovush sifatida qayd etadi [Неъматов 1992]. A.S.Amanjolov turk-runiy yodgorliklarida *adaq (oyoq), adγïr (ayg‘ir), ädgü (ezgu), käd (juda) adïr (ayirmoq), tod (to‘ymoq)* kabi ko‘plab so‘zlar **d** ishorati bilan yozilganini, ammo “Qutadg‘u bilig”ning uyg‘ur va arab yozuvidagi nusxalarida *aδaq, aδγïr, äδgü, käδ, aδïr, toδ* kabi so‘zlar **δ** ishorati bilan yozilganini qayd etadi [Аманжолов 2003: 31].

Ba’zi adabiyotlarda turkman tilidagi **δ, θ** tovushlari o‘rta fors (paxlaviy) tilining ta’siri natijasida yuzaga kelgan degan qarashlar ham bor [Амансарыев 1970: 181]. Ammo mazkur apikal tovushlar turkiy tillardan, nafaqat turkman tilida, balki fors tili bilan bevosita kontaktga kirishmagan boshqird tilida ham borligi ushbu fikrning noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, **δ** tovushi turkiy tillar tarixida qachon paydo bo‘lgani va qanday fonologik jarayonlar natijasida yuzaga kelgani noma’lum.

M.Koshg‘ariy “Devon”ida **δ** tovushining turkiy shevalar talaffuziga alohida to‘xtalib quyidagilarni bayon qiladi: “Yag‘mo, tuxsi, qipchoq, yabaqu, tatar, qayjumul va o‘g‘uzlar har vaqt ز ni so‘zda ى ga aylantiradilar va hech mahal ذ bilan so‘zlamaydilar. Chunonchi, ulardan boshqalar qayin daraxtini *qaδïŋ* desalar, bu qabilalar *qajïŋ* deydilar va hech mahal ذ bilan so‘zlamaydilar. Boshqa qabilalar qaynini, yaqinlarini *qaδïn* desalar, bular *qajïn* deydilar. Chigil va boshqa turkiy qabilalar tilida ذ bilan aytilgan so‘zlar qipchoq, yamak, suvor, bulg‘orlar hamda ruslarga va Rumga qadar borib taqaladigan boshqa qabilalarda ز ga almashtiriladi. Masalan, turklar oyoqni *aδaq* desalar, ular *azaq* deydilar. Chigil turklari *qarïn toδtï* – qorin to‘ydi desalar, ular *tozdï* deydilar. Boshqa ot va fe’llarda ham shunga qiyos qilish kerak. Xulosa qilib aytganda, chigillarda ذ bilan aytiladigan so‘zlar yag‘mo, tuxsi, o‘g‘uz va Chinga qadar cho‘zilgan yerlarda yashovchi ba’zi arg‘ularda ى bilan almashadi. Rumgacha bo‘lgan qipchoq va boshqa qabilalarda bu harf ز ga aylantiriladi” [Кошғарий 1960: 66].

Olimning xulosaridan ma’lum bo‘ladiki, eski turkiy til davrida mazkur apikal tovushning

qo‘llanilishi barcha turkiy shevalar uchun umumiy bo‘lmagan. Lekin qadimgi turkiy tilda mavjudligi, mavjud emasligi, eski turkiy til davrida yuzaga kelgani hali yechimini kutayotgan mavzulardandir.

δ tovushi Xorazm dialektal zonasining ota urug‘iga mansub turkman areallarining aksar qishloqlarida (Bezirgan, Kaltaminor, Otauba, Oqqamish, Sarimoy) barcha pozitsiyalarda faol qo‘llaniladi, *δa:t (narsa), hä:δir (hozir), ö:δim (o‘zim), gö:δ (ko‘z). Bir bayšï uδoq βaγtlï jo:l jörüjp (Bir baxshi uzoq vaqtli yo‘l yurib)… θiz hajθï tojo βarθaŋ biδem šoŋo bararïθ (Siz qaysi to‘yga borsangiz biz ham shunga boramiz). Men hä:δir bi jö:nde hij δa:t ajdïp bilmejen (Men hozir bu yerda hech narsa ayta olmayman). Šondo Magtumγulï bašïn dikländä göδ öŋü ümöδläp, kelleθi a:jlanik giden (Shunda Mahtumquli boshini ko‘targanda, ko‘z oldi qaorong‘ulashib, boshi aylanib ketgan).*

Turkiy tillar fonetikasiga bag‘ishlangan ishlarda **θ** tovushining turkman va boshqird tillarida qo‘llanishi qayd etilgan. Lekin **δ** tovushi singari qachon paydo bo‘lgani va qanday fonologik jarayonlar natijasida yuzaga kelgani noma’lum.

θ tovushi Xorazm dialektal zonasining ota urug‘iga mansub turkman areallarida barcha pozitsiyalarda faol qo‘llaniladi (Bezirgan, Kaltaminor, Otauba, Oqqamish, Sarimoy), *θa:n, θaγ, θö:δ, hajθï, na:θ* kabi. *Soŋ mïnnan a:damlar so:roja (So‘ng bundan odamlar so‘raydilar). Olar men hajsï tojo barsam barja (Ular men qaysi to‘yga borsam boradi). Bir serče bilviliŋ ja:nna barïp (Bir chumchuq bulbulning yoniga borib).*

Turkman shevalari fonetik jihatdan **z/δ, s/θ** tovushlarining talaffuziga ko‘ra 2 guruhga bo‘linishi adabiyotlarda keltiriladi: 1. apikal dialektlar, 2. dorsal dialektlar [Амансарыев 1970: 60]. Apikal dialektlarda **δ, θ** tovushlari qo‘llanilsa, dorsal dialektlarda **z, s** tovushlari qo‘llanilishi bilan xarakterlidir. Apikal dialektlarga taka, yovmut, go‘klan, salir, sariq, ersari, qoratoshli, alili, yemrali kabi shevalar kirsa, dorsal dialektlarga chovdur, noxur, anav, eski, mukri, suxri, kirach, arabachi, chandir, chagas, xatap, bayat, duyji, qipchoq kabi shevalar kiradi.

Ko‘rinadiki, **z/δ, s/θ** tovushlarining talaffuzi turkman shevalari uchun umumxarakter xususiyat kasb etmaydi. Shunga ko‘ra, Xorazm dialektal zonasining turkman shevalarida ham mazkur tovushlarning apikal hamda dorsal talaffuzlari uchraydi. S.Arazkuliyev To‘rtko‘l turkmanlarining qoraqalpoq tili ta’sirli turkman shevalarida mazkur tovushlarning apikal holda, o‘zbek tili ta’sirli turkman shevalarida esa, dorsal holatda talaffuz etilishini qayd etadi. Qoraqalpoq tili ta’sirli turkman shevalari, *salam sovuk, sыya, siz, sen* o‘zbek tili ta’sirli turkman shevalari, *sala:m sovuk’, siya, siz / sizer, sen* [Аразкулыев 1961: 48-50].

Aytish joizki, dialektal zonaning apikal talaffuzli shevalarida **z/δ, s/θ** tovushlarining dorsal ko‘rinishlaridan ham qo‘llaniladi. Bu esa, yondosh til va shevalarining ta’siri natijasidir. Olim S.Arazkuliyev o‘tgan asrning 60-yillarida **δ, θ** tovushlarining dorsal yoki unga yaqin ko‘rinishi shevalarning birinchi guruhida ham uchrashini, ammo bu holat ularda hozircha muhim xususiyatga ega emasligini, shunday bo‘lsa-da, aksar so‘zlarda qo‘llanishiga asoslanib, dorsallik bu guruhda ham o‘sishini bashorat qilgan edi [Аразкулыев 1961: 48-50]. Dialektal zonaning fokus markazi Urganch-Xiva shevalari ta’siridan ushbu undosh tovushlar dorsal holda talaffuz qilinishi kuchayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амансарыев А. Ж. Түркмен диалектологиясы. – Ашгабат: Түркменистан, 1970.

2. Аманжолов А.С. История и теория древнетюркскогописьма. – Алматы: Мектеп, 2003.

3. Аразкулыев С. Гарагалпагыстан АССР-ның Дөртгүл районындакы түркмен геплешиклери. – Ашгабат, 1961.
4. Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. – М.: Наука, 1988.
5. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
6. Кошғарий М. Девону луғотит-турк. – Тошкент, Фан. 1960.
7. Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. – М.: Наука, 1986.
8. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л.: Наука, 1970.
9. Weýisow B. Türkmen diliniň taryhy. – Aşgabat, 2008.

TIL KONTAKTLARINING BADIIY ADABIYOTDA AKS ETISHI

REFLECTION OF LANGUAGE CONTACTS IN FICTION

Sayfullayev Baurjan Nurumbeto‘g‘li
Alisher navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
sayfullayevbaurjan@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola tilshunoslikning kontakt va kontaktologiya masalasiga bag‘ishlanadi. Jumladan qozoq va o‘zbek tillari kontaktining badiiy adabiyotdagi xususiyatlari, ushbu ikki til oloqalari, qozoq adiblari asarlaridagi o‘zbek tili unsurlarining ishtiroki, o‘zbek tili leksikasi asosida so‘z yasalishi va o‘zbekcha so‘z yasalishi qolipida yasalgan so‘zlar o‘rganilgan.*
Kalit so‘zlar: *kontakt, dialekt, dialektizm, bilingvizm, bilingv, interferentsiya, adstrat, substrat, sheva.*

Abstract. *This article is devoted to the issue of contact and contology of linguistics. In particular, the characteristics of the contact between Kazakh and Uzbek languages in fiction, the relations between these two languages, the scope of Uzbek language elements in the works of Kazakh writers, word formation based on the Uzbek lexicon, and words made in the pattern of Uzbek word formation description is determined.*
Key words: *contact, dialect, dialectism, dvuyazychie, bilingv, interference, adstrat, substrate.*

Kirish. Jahon tilshunosligida til kontaktlari turlicha nomlanib keldi. Ular ichida “tillar ittifoqi” tushunchasi mashhur bo‘lib, u keyingi davrlarda ham qo‘llanib keldi. “Til kontaktlari” tushunchasi aynan “tillar ittifoqi”ni to‘laligicha almashtirmasa ham, tillar o‘rtasidagi aloqalar ularning umumiy masalasi jihatidan birlasha oladi. Bu masala areal lingvistikada yangi mazmunga ega bo‘ldiki, u bilan maxsus bo‘lim – kontaktologiya shug‘ullanmoqda, ya‘ni aloqadagi til va shevalar – kontaktologiya bo‘limida o‘rganiladi. Fanda lingvistik kontaktologiyaning turli talqinlari bor. Bu muammo *kontakt lingvistikasi* obyekti hisoblanadi. Kontakt lingvistikasi yoki lingvistik kontaktologiya ham areal lingvistika, ham umumiy tilshunoslikning obyekti bo‘lib kelmoqda. Shundan umumiy tilshunoslik asosan til kontaktlari bilan shug‘ullansa, areal

lingvistika, yuqorida ta‘kidlanganidek, har ikkala lingvistik hodisani, ya‘ni tillar kontaktini va shevalar kontaktini tadqiq qiladi.

Til kontaktining xarakterini U. Vaynrayx quyidagicha xarakterlagan edi:

1) kazual, ya‘ni doimiy bo‘lmagan, tasodifiy kontakt; bu tillarning muttasil bo‘lmagan kontakti tufayli yuz beradi, uning oqibatida u qadar ko‘p bo‘lmagan so‘z o‘zlashtiriladi;

2) permanent, ya‘ni doimiy va yaqin kontaktlar, ular tillarning intensiv kontaktlaridir. Qozoq-o‘zbek tillarining biz o‘rganayotgan arealdagi kontaktini keyingi kontaktlar jumlasiga kiritish mumkin, chunki bu arealdagi qozoq-o‘zbek til aloqalari qadimiy va doimiydir.

Shu jumladan, uzoq ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan qozoq va o‘zbek tillari o‘rtasidagi munosabatlar, shubhasiz, bu tillarning lug‘at tarkibida o‘z izini qoldirgan va bu jarayon hozirgacha davom etmoqda.

Kontaktologiya nazariyasi substrat, superstrat, adstrat, bilingvizm, interferensiya, konvergentsiya, divergentsiya, tillarni aralashtirish va boshqa muhim hodisalar bilan chambarchas bog‘liq.

Kirish. Umumiy til aloqasi ikki turli til yoki dialekt vakillari bir-biri bilan so‘zlashganda yoki yozishganda til kontakti sodir bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq til kollektivi orasida vujudga keladigan nutqiy aloqa til kontaktidir. Masalan, o‘zbeklar bilan qozoqlar bir-bir bilan so‘zlashganda, ya‘ni kontaktga kirishganda o‘zbek-qozoq til kontakti sodir bo‘ladi. Kontaktga kirishganda qo‘llangan til “kontakt tili” deb ataladi. Mazkur holda o‘zbek bilan qozoq o‘zbek tilida so‘zlashganda, kontakt tili o‘zbek tili bo‘ladi. Agar ular qozoq tilida so‘zlashsalar, kontakt tili qozoq tili bo‘ladi.

Aytish joizki, O‘zbekistondagi o‘zbek shevalariga xos mintaqaviy xususiyatlar O‘zbekiston qozoqlari nutqida o‘z ifodasini topgan va hatto mahalliy qozoq yozuvchilarining asarlarida ham qo‘llangan.

Ma‘lumki, til kontaktlari ikki va undan ortiq tillar va til ko‘rinishlarining ta‘siri va o‘zaro ta‘siri tufayli yuz beradi. Tillarning ko‘rinishlaridagi kontakt, ya‘ni shevalarning boshqa til shevalari bilan kontaktga kirishishlari tillar aralashgan va tutashgan hududlarda yuz beradi. Til kontaktlari *aloqadagi tillar* tushunchasi bilan ham yuritiladi.

O‘zbekistondagi qozoq va o‘zbek til kontaktlari natijasini ko‘proq adstrat tushunchasi bilan bog‘lash mumkin, ya‘ni bu jarayonda bu xalqlarning uzoq yillar davomida bir arealda yashashi va o‘zaro doimiy til kontaktida bo‘lishi ularning tillarida o‘zaro ta‘sirni yuzaga keltiradi va o‘zaro o‘xshash qatlamni hosil qiladi.

Ikki xalqning bir arealdagi o‘zaro aloqasi u ijtimoy zaruriyat hisoblanadi hamda bu ikki xalqning barcha faoliyat sohalarida namoyon bo‘ladi: dastlab ularning xo‘jalik faoliyatida, so‘ng madaniy hayotida va, albatta, tilida ko‘rinadi. Qozoqlar va o‘zbeklar yashayotgan areallarda kundalik muomala, radio, axborot turlaridan foydalanish, televidenie va ommaviy majlislarning o‘zbek tilida olib borilishi majlislar hamda o‘zbek tilida ish yuritishlar kontaktlarni belgilovchi faktorlar hisoblanadi. Biz uchun ularning til aloqalari muhim bo‘lib, bu shunchaki oddiy aloqa emas, balki intralingvistik mohiyatga ega bo‘lgan aloqadir.

Ma‘lumki, til kontaktlari bilingvizmni keltirib chiqarishi isbotlangan. Bu masala fanda atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, uning badiiy adabiyotdagi xususiyatlari to‘g‘risida maxsus dissertatsiya ham himoya qilingan. Xususan, yuqorida biz tilga olgan Q. X. Raximjonov ayni shu mavzuda dissertatsiya himoya qilgan. Unda aytilishicha, uning juda ko‘p shakllari va amaliyotda qo‘llanish omillari borki, ulardan biri muayyan regiondagi ikki tilning o‘zaro ta‘siri va uning shu arealdan yetishib chiqqan adiblar ijodida aks etishidir. Bu jihatdan o‘rganilayotgan mavzu materiallari har tomonlama bilingvizm xususiyatlari mahsuli ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi qozoq shevalarini areal jihatidan o‘rgangan T.Aydarov uning 2 arealini ajratadi:

1. Toshkent atrofi qozoq shevasi.

2. Buxaro qozoqlarining shevasi. Dissertatsiyamizda ushbu areal haqida to‘liq ma’lumot beriladi.

So‘zsiz, qozoq adiblari shu areallarning qaysi birida tug‘ilgan va ulg‘aygan va ta‘lim olgan bo‘lsa, o‘sha qozoq shevalarida muomalada bo‘lgan, shu tufayli ham bu sheva ularning asarlarida aks etmasligi mumkin emas. T.Aydarov bu shevalarda qayd qilgan va uning e’tiboridan joy olmagan leksik unsurlar mahalliy adib asarlarida mahalliy koloritni hamda badiiy imkoniyatlarni ifoda qilish uchun xizmat qilgan.

Ko‘rinadiki, qozoq-o‘zbek til arealida o‘zaro kontaktning mavjudligi qay yusinda bo‘lmasin, ilmiy adabiyotlarda e’tirof qilinmoqda. Albatta, bu kontakt o‘zlashtirayotgan tilning boyligini ta‘minlagan.

O‘zbek va qozoq tillari kontaktlarida o‘zbek tilining qozoq shevalariga mahalliy shevalaridan so‘zlar ko‘proq o‘zlashgan. Bu fikrni mahalliy adiblar ijodida bunday so‘zlarning qo‘llanish miqdorining fors va arab tillari o‘zlashmalariga nisbatan aytmoqdamiz. Bu, albatta, qozoq shevasi vakillarining o‘zbeklar bilan muloqotda o‘zbekcha (turkiy) o‘zlashmalarni o‘z nutqlarida nisbatan ko‘proq qo‘llashlari natijasi, boshqacha aytganda, qozoq tiliga yaqinligi tufaylidir.

Qozoqlar o‘zbeklar bilan muloqotda o‘zbekcha so‘zlarni o‘zbek tili fonetik qobig‘ida talaffuz qila oladilar, lekin o‘zbekcha so‘zlar o‘zaro muloqot doirasida qozoqlashtiriladi va qozoq tilining talaffuz me’yorlariga moslashtiriladi. Ta’kidlash joizki, bu xususiyat mahalliy adiblar asarlarida ham bu so‘z va so‘z shakllari o‘zbekcha (turkiy), forsiy yoki arabiy bo‘lishidan qat’i nazar qozoq tili fonetik xususiyatlariga bo‘ysundirilgan, oz sonli so‘zlar borki, so‘zning fonetik strukturasi o‘zbek va qozoq tillari strukturasiga teng keladi.

Mahalliy qozoq adiblari ijodidagi kontakt tufayli qozoqlar shevasiga o‘zlashgan so‘z va so‘z shakllarining ikki toifasi to‘g‘risida fikr yuritamiz. Bular: 1.O‘zbek tilidan o‘zlashgan so‘zlar va so‘z shakllari. 2. O‘zbek tili orqali fors hamda arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar va so‘z shakllari. Bunday so‘zlar tipi tarixiy emas, balki zamonaviy leksik qatlamlari o‘rganiladi, har bir so‘z qayd etiladi va ularning semantikasidagi o‘ziga xosliklar izohlanadi. So‘zning leksik-semantik izohlarida ayni o‘rinlarda ularning fonetik strukturasiga ham, ba’zan ularga etimologik xarakteristika ham berib boriladi.

Shuni ta’kidlash joizki, qozoq leksikologiyasiga oid ishlarda zamonaviy leksikaning mavzui guruhlari to‘g'risida fikrlarni uchratmadik, lekin professor T.Aydarovning ijodida so‘zlarni predmet va hodisalarning nomlari, harakat ifodalovchi, undov, harakat obrazi, belgisi, o‘lchovi, payti oziq-ovqat nomlari, qarindoshlik nomlariga ajratgan. “Қазақ диалектологиясы” mualliflari predmet, hodisalar nomlari, predmetning xususiyatlari, sifati, holat va ish-harakat va kasbiy so‘zlarni belgilaydilar. Biz bu tajribalardan foydalanamiz va har bir o‘zlashtirilgan manbalardagi so‘zlarni semantik guruhlarga ajratgan holda tavsiflashga harakat qilamiz.

Bunday so‘zlar, avval aytilganidek, ikki manbaga ega: 1) o‘zbek tili shevalari, so‘zlashuv nutqidan o‘zlashgan so‘zlar. Bunday so‘zlar qozoq adiblari ijodida ancha ko‘p uchraydi, albatta, bu holat, avval ta’kidlaganimizdek, ularning mahalliy o‘zbek aholisi bilan doimiy kontaktining natijasidir 2) adabiy tildan, ya’ni badiiy adabiyot, maktab, vaqtli matbuot, axborot tizimlaridan o‘zlashgan so‘zlar. To‘g‘ri, badiiy adabiyotdan o‘zlashgan so‘zlar kamchilikni tashkil etadi. Buning boisi qozoqlar o‘zbek adiblarining asarlarini, asosan, tarjimasini o‘qiydilar, lekin qozoq adiblarining o‘zbek tilidagi tarixiy va zamonaviy mavzudagi adabiyotlarni o‘z originalida o‘qishi

keng ommalashgan. Shuning uchun ham qozoq adiblari bu adabiyot tilidan anchagina so‘zlarni o‘zlashtirganlar (Bular to‘g‘risida o‘z o‘rnida fikr yuritiladi). Maktab, vaqtli matbuot, televideniyening qozoq og‘zaki nutqiga ta’siri to‘g‘risida to‘xtalishga ko‘p hojat yo‘q, chunki bu jarayon barchaga ma’lum. Bunday so‘zlar mavzuiy guruhdagi so‘zlarni izohlash jarayonida ta’kidlab boriladi.

Qarindosh-urug‘ va shaxsni bildiruvchi so‘zlar. Bunday so‘zlar nisbatan kam qo‘llangan. Buning boisi qozoqlarda milliy an’analarga jiddiy itoat ruhida tarbiyalanishi bilan bog‘liq. Shunda ham mahalliy xususiyatlar muayyan darajada o‘z ta’siri borligini ko‘rish mumkin:

mағa – tog‘a: *Есімде* ***mағa*** *жұртта жүрген кезім.*

Жал ұстап, тай, құнанды мінгендерім (СИ78). T.Aydarov Toshkent atrofidagi qozoq shevalarida *нағашы* o‘rnida tag‘a so‘zi qo‘llanishini qayd qilgan. Bu so‘z grafik jihatdan farqlansa-da, fonetik jihatdan aynandir. O‘zbek tili ta‘sirida bu so‘z qozoq tiliga kirib kelmoqda. Aslida qozoq tilida *нағашы* so‘zi tog‘a ma’nosini anglatadi va qo‘llanish doirasi ham keng. *Нағашы* so‘zidan mahalliy adiblar ham foydalanishgan: *Жылап қалдым ақ тайлы // Нағашымды көргім кеп* (MO24). Bu so‘zda ham *a/o* unlilari mosligi mavjud.

ер – er: *Егер менің* ***ерім*** *Сейіт халықтың қас жауы болса, онда сол халықтың досы кім?* (PP116). *Иә, сол жігіт болады біздің* ***еріміз*** (PP284). Qozoq tilida *er* so‘zi shaxslarga, ya’ni jinsni ko‘rsatishda qo‘llanadi, lekin bu so‘zning jufti halol ma’nosi qayd qilinmaydi, balki o‘zbek tilidan aynan olingan. Bu adibga personajning mag‘rurlanishini ifodalash uchun zarur bo‘lgan, chunki muallif nutqida uning *күйеу* varianti qo‘llanmoqda. Bu so‘z esa qozoq tiliga xosdir. Bu so‘zda ham fonetik aynanlik saqlangan.

Oziq-ovqat va unga aloqador so‘zlar. Bunday so‘zlar ham adib asarlarida kam qo‘llangan. Bu ham bo‘lsa, qozoqlar o‘z taomlariga ko‘proq e’tibor qaratganligidir. Albatta, mahalliy qozoqlar o‘zbeklar bilan bir arealda yashab, uning kundalik hayotida qo‘llanadigan so‘zlarini o‘zbeklarning turmush tarzidan olgan. Bunda oziq-ovqatga oid so‘zlar muhim o‘rin tutadi. Ulardan quyidagilar mahalliy adiblar ijodida ishlatilgan:

қатық – qatiq: *Бір көргеннен адам сыры байқалмас,*
Байқаймын деп бәлкім ешкім айта алмас.
Кей жандар бар ұйып тұрған ***қатықтай,***
Анау-мынау қозғағанға шайқалмас (TA16). Bu o‘rinda qozoq tilidagi *ayron* so‘zini qo‘llay olmas edi, chunki bu so‘z qo‘llansa mahalliy kolorit buzilar edi. Bu so‘z ham grafik jihatdan farqlansa-da, fonetik jihat aynandir.

Payt semali so‘zlar. Bunday so‘zlar ham kam uchraydi, buning boisi qozoq tilidagi umumturkiy payt ma’noli so‘zlardan unumli foydalanilganligi bilan izohlanadi.

азан – azon: *Хан арық барып* ***азанда***
Құлаштап жүзіп көргемін.
Тобымнан сірә жазам ба,
Дәл түсте Бардан көлдемін (MO73). *Бүгін* ***азаннан*** *бері атыңызды талай рет естіп, тұла бойым талай дірілдеп еді* (PP303). Qozoq tilida bu ma’no *таңерте* so‘zi bilan ifoda qilinadi. ShO‘Shda *азан* so‘zining ikki ma’nosi bor: biri – erta bilan, ertalab, ikkinchisi – ertaga. Qozoq adiblari uning birinchi ma’nosini olishgan. So‘zda *a/a(ä), a/o(ā)* fonetik mosligi bor.

O‘rin semali so‘zlar. Bunday so‘zlar ham sanoqli qo‘llangan. Aksincha mahalliy adiblar qozoq tilidagi umumturkiy o‘rin ma’noli so‘zlarga ko‘proq e’tibor qaratishgan.

таман – tomon: *Аң көрсе малы* ***таманда,***

Барлығы бітті – тамам да (MO53). *Кейде ол бүлк етпей, аласы мол үлкен тана көздерін жұмып, мойнын домбыраның құлағына* ***таман*** *әнтек ие түсіп, маужырап та отырды* (PP8). Qozoq so‘zlashuv tilida *таман (tomon)* so‘zi ishlatilmaydi. To‘g‘ri, misollardagi har ikkala qo‘llanishda o‘zbek tilidagi kabi yo‘nalish tushunchasi aks ettirilgan. Birinchi qo‘llanishda *таман* so‘zini жақ so‘zi bilan, ikkinchi qo‘llanishda so‘zni *қарай (qarab)* so‘zi bilan berish imkoniyati bor edi, lekin bunga poetik holat yo‘l qo‘ymas edi, ya’ni *таманда* so‘zi *тамам* da so‘z shakliga qofiya qilinganligini e’tiborga olish mumkin. So‘zda *a/o(ā)* fonemalari mosligi mavjud.

Qozoq adiblari o‘zbek so‘zlashuv tilida qo‘llanayotgan hamda o‘zbek shevalariga o‘zlashtirilgan foscha va arabcha so‘zlardan ham unumli foydalangan. Shuningdek, avval aytganimizdek, adabiy, ya’ni o‘zbek tilida nashr etilgan asarlarni o‘qib ham ulardagi ayrim so‘zlarni asarlarida qo‘llaganlar.

мейман – meҳmon: *Адалдық, арыменен нанын тапқан,*

Халқы бар ***мейман*** *десе барын шашқан.* (СИ13). Qozoq adabiy tilida uning *қонақ* variant asosiy leksik birlik hisoblanadi. Adib “O‘zbekiston” mavzusida yozgan she’rida qo‘noq so‘zidan foydalanishni ma’qul ko‘rmagan va o‘zbek tilidan o‘zlashgan *мейман* so‘ziga murojaat qilgan. Aslida, bu so‘z mahalliy qozoqlar shevasiga *мейман* variantida o‘zlashgan. So‘zda *й/ҳ, a/o* mosligi bor.

Fan, siyosat, tartib-intizomni anglatuvchi so‘zlar. Bu semantic guruhga kiradigan so‘zlarni mahalliy qozoqlar shevasida ko‘plab uchratish mumkin, bu o‘rinda badiiy adabiyotda qo‘llaganlari sharxlandi.

гән – gap: *– Мұнда біп* ***гән*** *бар екен* (PP120). *Бәсе, осында бір* ***гән*** *бар деп едім-ау* (PP258). Qozoq tiliga o‘zbek tilidagi gap so‘zi va uning boshqa ma’nolari o‘zlashtirilmagan, balki mahalliy qozoq shevalaridagina qayd qilinadi. Bu misollarda gap so‘zi muammo ma’nosida qo‘llangan. Adib o‘zbek tilidagi shu ma’nosini ma’qul ko‘rgan.

Belgi, miqdor, daraja anglatuvchi so‘zlar. Bu toifaga kiruvchi so‘zlardan unumli foydalangan, chunki bu so‘zlar mahalliy qozoq shevalaridan faol qo‘llanib kelmoqda:

бегене – begona: *Ешқашан да колхоз түгілі,* ***бегене*** *біреудің ала жібін аттаған емес* (PP14). Bu so‘z o‘rnida qozoq tilida *жат* so‘zi qo‘llanadi. Aksincha bu so‘z o‘zbek shevalarida ham keng istifoda qilinadi. Fonetik mosligi: *e/o, e/a*.

құрсан – hursand: *Енесіне бет бұрсаң,*

Болатындай тек ***құрсан*** (MO48). Bu so‘zning qozoq tiliga o‘zlashmaganligini adibning satr osti izohidan (*Құрсан – шат болу*) ham bilish mumkin. So‘zda *д* undoshi tushurilgan . Fonetik moslik: *қ/х, a/ a(ä).*

науада – mabodo: *Ақыры: “Барсаң бар, науады қолға түсіп немесе сезіліп қалып жүрсең, менен аулақ болғайсың! Біз өлігін көрсетпей кететін жақсы ит құрлы жоқпыз ба?” деді де, ағасы жатқан үйден су шыққандай далаға ата* ***жөнелді*** (PP57). Bu so‘zning nauda shakli SHO‘SHlariga ham hos. Ko‘rinib turibdiki, mabodo so‘zi qozoq tiliga kuchli fonetik o‘zgarish bilan olingan. Albatta, bu qozoq tili talaffuz hususiyatlariga moslashtirish talabi edi. Fonetik mosligi: *н/м, a/a (ä), a/o*.

Shaxs va uning xususiyatini anglatuvchi so‘zlar.

ада – ado: *Арманың* ***ада*** *болмас арна сенің,*

Туған жер, сірә сенің бар ма шегің?!

Сен үшін қызыл аяқ қырды кезіп,

Жалаң аяқ жар кешемін (TA16). SHO‘SHlarida tamom bo‘lmoq tushunchasi *ада* болу so‘zi bilan ifoda qilinadi. Mahalliy qozoqlar ham bu so‘zdan shu ma’noda foydalanadilar. Fonetik mosligi: *a/a, a/o.*

Payt semali so‘zlar:

дәйім – doim: *Дайынмын жұмсасаң да қайда дәйім* (TA148). Bu so‘zning til orqa variantidan ham foydalanishgan:

Жүретін дайым жарқылдап,

Жәнібек атам – ардагер (MO160). Bizningcha, *дәйім* fonetik ko‘rinishicha qo‘llanishi arab tili hususiyaatlariga yaqin keladi, aftidan adib bu variantni klassik asarlardan olgan bo‘lishi mumkin. *Дайым* esa *дәйім* so‘zining mahalliy xalq talaffuziga moslashtirilgan variant deb qaralishi mumkin.

Mahalliy adiblar o‘z asarlarida o‘zbek tili yozma adabiyoti va so‘zlashuv tilidagi faqat leksikadan emas balki, yasama so‘zlar, qo‘shmaa va juft hamda takroriy so‘zlar, so‘z turkumi imkoniyatlari, so‘zning Grammatik shakllari, frazeologizmlardan unumli foydalanishgan. Ularning ham ba’zilari qozoq tilining passiv qatlamida qo‘llanishda bo‘lgan va aksariyati uchun o‘zbek so‘zlashuv tili – mahalliy shevalardan va qisman adabiy til manba vazifasini bajargan.

So‘z yasalishi. Affiksatsiya. Bu usulda yasalgan bir qismida aynan o‘zbek tilidagi so‘z yasovchilar, ayrimlarida bunday affikslar qozoq tili fonetik hususiyatlariga moslashtirilgan variantda qo‘llangan, shuningdek, so‘z yasalishiga asos bo‘lgan so‘z o‘zbek tiliga, yasovchi affiks qozoq tiliga, aksincha, asos so‘z qozoq tiliga yasovchi affiks o‘zbek tiliga hos bo‘lishi harakterlidir. Bu o‘rinda yasalish qolipi o‘zbekcha, lekin o‘zbek tilidagi so‘z yasovchi affikslarning qozoq tilidagi variantlari aks etgan misollar tahlil qilinadi.

Ot yasalishi. Adiblar asarlarida o‘zbek tiliga hos ot yasalish va yasovchi asos va affikslar kam qo‘llangan, bu borada qozoq tilidagi so‘z yasash arsenalidan unumli foydalanishgan. Shu tufayli ham o‘zbek tiliga hos so‘z yasalishiga kamroq e’tibor qaratilgan. Bu masalada bizning yondashuvimiz: so‘z yasalishida asos, yasovchi affiks, yasama tahlil obyekti sifatida olindi.

-chi affiksi variantlari. Ma’lumki, *-chi* affiksi va uning variantlari bilan so‘z yasalishi barcha turkiy tillarda keng tarqalgan. Qozoq tilshunosligida uning ikki varianti tilga olinadi. Mahalliy adiblar asarlarida bu affiks orqali yasalgan so‘zlarning ayrimlari o‘zbek tilidagina qo‘llanishi e’tiborga olingan.

-ші variant. Turkiy so‘zlarga qo‘shilgan:

темірші – temirchi: *Өтініш біздер жасадық*

Темірші ағай – ұстаға (MO38). Temirchi degan tushuncha qozoq tilida keyingi davrdagina qo‘llanmoqda, ya’ni metaldan qishloq ho‘jaligi buyumlarini yasash mahalliy o‘zbek qozoqlari arealidagina tarqalgan.

Aytish joyzki, Forsiy prefikslar yordamida yasalgan so‘zlar uchraydi, aslida prefikslar qozoq tiliga xos emas.

бе(й)-, ба- prefiksi. Bu forsiy prefiks to‘g‘risida qozoq tilshunosligida ma’lumot uchratmadik.

бе- variant. Turkiy so‘z asosiga qo‘shilgan:

бейтаныс – betanish: *Бейтаныс итке жақын кеп,*
Басынан сипап-силама.
“Бас салғалы жатыр!” деп,
Қыршып бір алса, жылама (MO57). Tanish so‘zining *be* – old qo‘shimchasini olishi o‘zbek adabiy tili va uning shevalariga ham hosdir. Faqat mahalliy qozoqlar shevasida affiks va asos o‘rtasida *й* undoshining orttirilishi o‘ziga xoslikni ta’minlagan.

Qo‘shma so‘zlar. Bunday qo‘shma so‘zlar tarkibidagi ayrim so‘zlar o‘zbek tilida ham, mahalliy qozoq adiblari asarlarida ham affiklashayotgani ko‘zga tashlanadi, ba’zilarda so‘z birikmasi xususiyatini saqlagan bo‘lishi ham mumkin.

Forscha so‘zlar ishtirokida qo‘shma so‘z yasalgan:

кеселхана – kasalxona: *Аудан орталығында кеселханада жатқан* (PP19). Bu so‘z o‘rnida qozoq tilida ауруханa so‘zining qo‘llanishi faol: *Сейіт әйелін ауруханаға әкелген кеште түн бойы оның қасында болды* (PP111). Bu misolda *хопа* so‘zining affikslashayotganini ta’kidlash lozim bo‘ladi va uning ham so‘zlik, ham affikslik xususiyati jihatidan uni affiksoid deb atash taklif qilingan.

Juft so‘zlar. Juft so‘zlarda sinonimlar, ayni bir va turli shakldagi so‘zlar, asli forsiy asosga ega bo‘lgan ***ба-*** bog‘lovchi vositasi (turli variantlari bilan) bo‘lgan so‘zlar juftlashadi:

азық-ауқат – oziq-ovqat: *– Әрине, майдангерлерге азық-ауқат, киім-кешек керак-ақ.* (PP61). Bu so‘z o‘rnida qozoq tilida aziq-tuliq so‘zi ishlatiladi. Uning tarkibidagi *ауқат* so‘zi ham passiv qatlamga ega bo‘lib, uning sinonimi тамақ faol qo‘llanadi. Lug‘atlarda bu so‘zning vaqt so‘zi bilan bog‘liqligi aytiladi, bu so‘zni ov so‘zi bilan bog‘lash o‘rinli bo‘ladi, ya’ni *авла/авқа* va ***т*** ko‘plik qo‘shimchasi bilan izohlash o‘rinli bo‘lar edi.

Arabcha so‘zlar juftlashgan:

мейір-шапқат – mehr-shavqat: *Сона бір өткен кездерде адамға жалт етіп қараған сайын мейір-шапқаты мол тана көзді қыз Жамал еріксіз есіне түсті* (PP117). Qozoq tilida bu juft so‘z o‘rnida faqat ***мейір, мейірлі*** so‘zigina ishlatiladi. Bu juftlikda shavqat so‘zi qozoq tilida mustaqil qo‘llana olmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, til kontaktlari inson yashayotgan barcha mintaqalarda yuz berishi mumkin bo‘lgan jaryondir. Biz tadqiq qilayotgan mavzu va uning materiali til kanaktining qayta ishlangan varianti deb qarash ham mumkin, chunki bu so‘zlar va grammatik shakllar dastlab o‘zbek tilidan (o‘zbek shevalari yoki adabiy tildan) qozoq shevalariga o‘tgan va undan so‘ng badiiy asarlarda aks ettirilgan.

Qozoq adiblari ijodidagi o‘zbek tiliga xos til unsurlari bevosita shu adib shevasi, ya‘ni adib yashagan va yashayotgan makon insonlari shevasi bo‘lib, u, asosan, qozoq va o‘zbek millati vakillarining aralash va qo‘shni yashashlarining tarixiy va zamonaviy in’ikosidir.

Qozoq shevalariga o‘tgan o‘zbek tili unsurlari ikki xususiyatga ega: 1) bevosita o‘zbek shevalarining ta‘siri tufayli o‘tgan, 2) adabiy til muhiti jarayonida o‘zlashgan.

Qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, o‘zlashgan va adib asarlarida aks etgan leksik va grammatik (so‘z shakllari) unsurlar qozoq tilining xususiyatlariga fonetik jihatdan moslashtirilgan hamda adabiylashtirilgan.

Qozoq va o‘zbek til kontakti xalqning bir arealda muqim yashashi va ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy-siyosiy munosabatlari natijasi mahsulidir.

Qozoq tilidagi poetik asarlardagi o‘zbekcha o‘zlashmalar turli munosabatlar bilan ham bog‘liq ravishda yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin: lakunarlik hususiyati, qofiya, bo‘g‘in zaruriyati va boshqalar.

Qozoq va o‘zbek til aloqasini adstrat bilan bog‘lash ishimizning mohiyatini belgilaydi, lekin mahalliy qozoq adiblarining o‘zbek tili imkoniyatlari foydalanishida faqat adstrat sharoiti emas, balki ularning o‘zbek tilidan bilimlari, o‘zbek adabiyoti, qolaversa, O‘zbekistondagi fan va texnikadan, bu yerdagi siyosat, iqtisod va madaniyatdan xabardor bo‘lishi muhim omil bo‘lgan.

O‘zbekistonda bilim olganligi, o‘zbek tilidagi matbuotdan xabardor bo‘lib turishi, o‘zbek adiblari asarlarini o‘qib borishlari, qolaversa, axborot vositalarining umumiyligi, ommaviy tadbirlarda ikki xalq vakillarining birga qatnashishlari muhim ahamiyat kasb etgan.

The list of used literature:

1. Айдаров Т. Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктер. – Алматы: Мектеп, 1975, 184 – б.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
3. Айдукович Й. Основные понятия лексических контактологии (на материале русизмов в славянских языках) / II Международный конгресс исследователей руского языка «Русский язык: исторические судьбы и современностс», - Москва, 2004, 445 с.
4. Атабаева М.С. Қазақ тілі диалектілік лексикасының этнолингвистикалық негізі. – Алматы: Білім, 2006. – 228 б.
5. Раҳмонбердиев К. Ўзбек тил контактлари. – Тошкент: Фан. 1989. - Б.5.

FOLKLOR TILSHUNOSLIKDA METATILNING POETIK MAZMUNNI OCHIB BERISHDAGI O’RNI

THE ROLE OF METALANGUAGE IN REVEALING POETIC CONTENT IN FOLKLORE LINGUISTICS

Xolbekova Nargiza Zohidjonovna
FarDU mustaqil izlanuvchisi,
FarDU Akademik litseyi ingliz tili o’qituvchisi
kholbekova.1987@gmail.com

Anotatsiya: *Maqolada lingvopoetikada folklor tilshunosligida odatda, kitobxonlar umumiy ma’noni tushunish uchun metatilni zarurligini tushunishgandagina, ular uni tartibga solish uchun qanday shakldagi metall tildan foydalanishlarilari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *folklor tilshunoslik, lingvopoetika, metatil, metallingvistik funktsiya, kundalik metatil, lingvistik metatil,*

Abstract: *The article discusses metalanguage when speakers will begin a conversation in folklore linguistics to realize language would be much more appropriate. Often, when individuals realize that a language switch is necessary mid-conversation for the sake of collective understanding, they use metalanguage to orchestrate it.*

Key words: *folklore linguistics ,linguopoetics metalanguage, metalinguistic function, everyday metalanguage, linguistic metalanguage, metametalanguage.*

Darhaqiqat, ona tilida so‘zlashuvchilar nafaqat so‘zlarni tuzish yoki ularni aloqa jarayonida idrok etish uchun o‘z imkoniyatlaridan foydalanadilar, balki muloqot jarayonida tilning o‘ziga e’tiborni qaratadilar, tilni metallingvistik yoki metanutq funksiyasining ichki imkoniyatlariga murojaat qiladilar. To‘liq ona tilida so‘zlashuvchining xususiyatlaridan biri bu tildan foydalanish qobiliyati, shu jumladan metallingvistik yoki metanutq funksiyasi, bu shuningdek, metallingvistik aks ettirish, til haqidagi ma’lum g‘oyalar va bilimlarni o‘z ichiga oladi. G.M,Xyonigsvald bunday bilim va g‘oyalar majmuasini "xalq tabobati" va boshqa ilmiy bo‘lmagan bilim shakllariga o‘xshatib, " Folklor tilshunosligi " deb atashni taklif qildi. Lingvistik aks ettirishning bu elementlari "sodda (yoki tabiiy) tilshunoslik" deb ham atalgan. [Yakobson, 1960:350 377] Biz

hamma hollarda “insonning oddiy ongida Shakllangan va til, nutq, so‘z, ma’no, gapirish, jim bo‘l, va boshqa metalingvistik atamalar misolida mustahkamlangan til va nutq faoliyati haqidagi poetik g‘oyalarni nazarda tutamiz.".

“Folklor tilshunosligi” til fanining paydo bo‘lishidan oldin vujudga kelgan lingvistikaning birlamchi shakli (yoki bosqichi)dir (boshqa “sodda”, fangacha bo‘lgan bilimlar kabi, xalq tabobati nafaqat insonning jismoniy dunyo haqidagi asosiy g‘oyalarini ko‘rib chiqishga, balki yangi "protofizika" faniga asos bo‘lgan). Shuning uchun bunday mulohazani "tilshunoslikdan oldingi til bilimi" sifatida ham tavsiflash mumkin (xuddi s hunday, mifologiyaning ba’zi elementlarini "falsafadan oldingi falsafa" deb hisoblash mumkin).Shu bilan birga, til fanining paydo bo‘lishi hech qanday tarzda "xalq tilshunosligi" ning yo‘qolishiga olib kelmaydi, garchi bu vaziyatda "ilmiy" tilshunoslikning elementlari "xalq" tili bilimiga singib ketadi. Ilmiy bilimga ega bo‘lgan til haqidagi g‘oyalar, albatta, fanning rivojlanishiga, tegishli guruh yoki shaxsning maktab va boshqa ta’lim va madaniyat muassasalari orqali ilmiy bilimlarga jalb etilishiga qarab juda xilma-xil bo‘lishi mumkin[Niedzelski NA & Preston DR.Gruyter, 2000: 8]. Binobarin, “xalq tili va bilimi”ni lingvistikada aks ettirishni fandan tashqari shakli sifatida gapirish to‘g‘riroq bo‘ladi.

"Folklor tilshunosligi" juda keng faoliyat sohasi bo‘lib, garchi to‘liq amorf bo‘lmasa-da, lekin nisbatan erkin, chunki uning turli segmentlari turli yo‘llar bilan tashkil etilgan. Ilmiy bo‘lmagan tilni ilmiy jihatdan aks ettirishning xususiyatlaridan biri uning ko‘p funksiyaliligidir: u shaxs va til jamoasining turli ehtiyojlarini qondiradi, ayni paytda “folklor tilshunosligi”ning bazi elementlarini zaruratga qarab turli muammolarni hal qilishda qo‘llash mumkin.

Shunisi e’tiborga loyiqki, til hamjamiyati va uning shakllanish yo‘li madaniy hamjamiyat va shu tariqa umuman jamiyat uchun asosiy model bo‘lib xizmat qiladi (shuning uchun yovuzlikni tushunish endi boshqa birovning nutqi yoki begonaligi bilan bog‘liqlik emas balki, ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning yo‘qligi yoki juda past darajadagi belgisi sifatida takidlab o‘tiladi). Tilni aks ettirishda insoniyat jamiyatining muhim konstruktiv elementi bo‘lib, uning ta’rifi: "... ma’lum bir jamoaga mansublik ongining eng dastlabki va eng sodda shakllarida ushbu til o‘zaro ta’siri bilan tom ma’noda bog‘langan bo‘lib ko‘rinadi. Agar buning aksi bo‘lsa o‘zaro ta’sir sodir bo‘lmasa, shaxs o‘zini lingvistik hamjamiyatdan tashqarida topsa, demak, u umuman ijtimoiy hamjamiyatdan chiqib ketadi. Chet tilida so‘zlovchi umuman begona bo‘lib qoladi”, deb yozgan edi E.Kassirer.

Nutq faoliyati jarayonida turli xil tuzatishlar, aniqlashtirishlar, qo’shimchalar lingvistikning aloqa jarayoniga qo’shgan hissasi hisoblanadi. R.O.Yakobson tilning metallingvistik funksiyasi nima ekanligini tushuntirar ekan, ushbu turdagi faoliyatga ham ishora qildi: “Tushunmadim – nima demoqchisiz?”, deb so‘raydi adresat... va shunday refleksiv savollarni kutgan adresant, qiziqtiradi: "Nima demoqchi ekanligimni tushunyapsizmi?" [Arutyunova N.Di, 2000:19.]. Shunday qilib, metallingvistik faoliyat so‘zlovchi va tinglovchining muloqot jarayonida nutq strategiyalarining bir qismi bo‘lib chiqadi.

Badiiy matn bu ma’lum bir vaziyatda shaxsning nutqini takrorlash imkoniyatini amalga oshirishi mumkin. Bunday holda, adabiy matn ma’lum bir til hamjamiyatining nutq harakatlarining o‘ziga xos modelini o‘z ichiga oladi, ya’ni u boshqa narsalar qatorida metallingvistik / metanutq konstruksiyasi bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, adabiyotning turli janrlari turli darajada metallingvistik / metanutq modellari bilan to‘ldirilgan. Agar dramaturgiya yoki dialog janri (ham nasriy, ham she’riy) asosan shunday modellardan iborat bo‘lsa (faqat freym modellari va ularni to‘ldiradigan turli xil mualliflik mulohazalari mavjud), boshqa janrlarda nutq xatti-harakatlari modellari juda quyi o‘rinlarni egallashi mumkin,chunki qahramonning nutqi har

doim ham tom ma’noda takrorlanmaydi yoki etarlicha batafsil va aniqlik bilan tavsiflanadi. [Romashko S.A,2000:543 557. Agar adabiy qahramonlarning nutqiy harakatlarini bunday modellashtirishni adabiyotning metallingvistik o‘lchovining birinchi darajasi deb qabul qilsak, unda personajlarning o‘zlarining lingvistik aksini (ya’ni, ularning til va nutq haqidagi bayonotlari yoki fikrlari) tasvirlashi adabiyotning metallingvistik o‘lchovining ikkinchi darajasi bo‘ladi. Birinchi holatdada (nutq harakatlarini modellashtirish) biz muallifning metalingvistik yoki metanutq ishi haqida gapiramiz va muallifning asar qahramonini metallingvistik yoki metaverbal aks ettirishi ifodalanadi. Ikkinchi holatda, metallingvistik yoki metanutq asboblar to‘plami sifatida modellashtirilgan bo‘lib, bu lingvistik aks ettirishni yangi bosqichga olib chiqadi. Agar keyingi adabiy asarlar matatilni lingvistikada aks ettirishning turli darajalari o‘rtasidagi yanada rivojlangan va tabaqalashtirilgan munosabatlar tufayli qiziqarli bo‘lib chiqishi mumkin bo‘lsa, unda ilk, arxaik adabiyot asarlari qiziqarli bo‘ladi, chunki ular sof ilmiy bo‘lmagan metallingvistik yoki metanutq faoliyatining imkoniyatlarini aniq namoyish etadi: na tilshunoslik, na falsafa, na o’sha davrda bunday asarlar paydo bo‘lgan jamiyatlarda hech qanday mantiq hali mavjud emas edi, shuning uchun arxaik davrda nutqni adabiy modellashtirishning barcha imkoniyatlari faqat tilshunoslikning ilmiyligigacha bo‘lgan bosqichini to‘g‘ri va aniq aks ettiradi. Bundan tashqari, o‘tmish bilan bog‘liq holda, adabiyot metallingvistik / metanutq faoliyatini o‘rganish uchun yagona manba bo‘lib chiqadi: bu holda na to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatish, na boshqa manbalar (masalan, jonli nutq yozuvlari) mavjud emas. [Kassirer E,1985:231].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arutyunova N.D. Tilning sodda surati haqida sodda mulohazalar // Til haqida til. M.: Rus madaniyati tillari, 2000. S. 7 19.

2. Yu.V. Rojdestvenskiy. Umumiy filologiya. M.: Yangi ming yillik, 1996.

Romashko S.A. Eski Ahddagi til va nutq // Til haqida til. M.: Rus madaniyati tillari, 2000. S. 543 557.

3. N. D. Arutyunovaning umumiy nazorati va tahriri ostida. Moskva: Rus madaniyati tillari, 2000.

4. Cassirer E. Die Sprache und der Aufbau der Gegenstandswelt // Kassirer E. Symbol, Technik, Sprache. Gamburg: Meiner, [1932] 1985.

5. Gauger HM Wort und Sprache. Tübingen: Niemeyer, 1970 yil.

Hoenigswald HM Xalq tilshunosligini o'rganish bo'yicha taklif // Ijtimoiy tilshunoslik: UCLA ijtimoiy lingvistik konferentsiyasi materiallari 1964. Gaaga, Parij: Mouton, 1966.

6. Jakobson R. Tilshunoslik va poetika // Tildagi uslub. Ed. TA Sebeok tomonidan. Kembrij (Massa.): MIT Press, 1960. P. 350 377.

7. Niedzelski NA & Preston DR Xalq tilshunosligi. Berlin; Nyu-York: Mouton de 8.Gruyter, 2000. Olschansky H. Volksetymologie. Tübingen: Niemeyer, 1996.

8. Romaschko SA Zur poetischen Technik Hesiods: Erga 760 764. - Listy filologické. 115. 1992. 1, 115 119.

9. Sprachgefühl Sprachgefühl? Vier Antworten auf eine Preisfrage. Geydelberg: Lambert Shnayder, 1982 yil.

ETNIK ARABLAR VA ULARNING SHEVALARI

ETHNIC ARABS AND THEIR LANGUAGES

Rajabova Sadoqat Rasul qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada bugungi kunda o‘zbeklashgan etnik arablarning kirib kelishi, kirib kelish sabablari, O‘zekistonning qaysi hududlarida istiqomat qilishi, bugungi kunda ular qaysi hududlarda joylashib qolishgan, qaysi til va shevalardan foydalanilanishadi kabi jihatlar ochiqlangan. O‘zbekiston Respublikasining ko‘pgina qismi Samarqand, Buxoro, Navoiy, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida ushbu millat vakillarini istiqomat qiladi, ammo Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida uchratmaymiz. Ushbu hududlarda istiqomat qiluvchi o‘zbeklashgan etnik arablarning muloqot tili o‘zbek, tojik, arab tillari hisoblanadi. O‘zbek tilining esa yashash huquqdiga ko‘ra o‘g‘uz, qarluq va qipchoq lahjasida so‘zlashadi.*

Kalit so‘zlar: *etnik, arablar, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz, o‘zbek tili, arab tili, tojik tili…*

Abstract. *The article describes aspects such as the influx of Uzbekized ethnic Arabs today, the reasons for their influx, which regions of Uzbekistan they live in, which regions they have settled in today, and which languages and dialects they useRepresentatives of this nationality live in the Samarkand, Bukhara, Navoi, Khorezm, Kashkadarya, Surkhandarya, Andijan, Namangan, and Fergana regions of the Republic of Uzbekistan, but we do not find them in the Jizzakh, Sirdarya, and Tashkent regions. Uzbek, Tajik, and Arabic languages are the languages of Uzbekized ethnic Arabs living in these regions. According to the right of residence, the Uzbek language is spoken in Oguz, Qarluq and Kipchak dialects.*

Key words: *ethnic, Arab, Qarluq, Kipchak, Oghuz, Uzbek language, Arabic language, Tajik language...*

Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi bag‘ri keng va mehmondo‘st xalq hisoblanadi. Ushbu hududlarda turli elat va millatlarning deyarli ko‘pchiligini uchratamiz. Aynan O‘zbekistonda ham 100 ortiq o‘zga millat va din vakillari istiqomat qiladi. Qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, rus, kores, tatar, tojik, turkman, ozarbayjon, turk va boshqa millat vakillari hamda arablar hisoblanadi. “XX asrning 50-60 yillarida O‘rta Osiyo arablarining umumiy soni 6,4 ming nafar bo‘lib, shundan O‘zbekistonda 5,4 ming nafar bo‘lgan” [Ўзбек совет энциклопедияси 1971: 425-426]. Ushbu ma’lumotdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston hududining kattagina qismida istiqomat qilgan. Ma’lum bir siyosiy jarayonlar sabab keyinchalik ular o‘zlarini mahalliy millat vakillari sifatida tanishtira boshlaganlar. Bizda o‘z-o‘zidan “Ular aynan qaysi hududlarda yashagan?”, “Nima sababdan kelishgan?”, “Bugungi kunda O‘zbekistonning qaysi hududlarida arablar istiqomat qiladi?”, “Ular qaysi tillarda so‘zlashadi? kabi savollar tug‘iladi. Ushbu savollarga tarixga murojaat qilgan holda javob topishga harakat qilamiz. O‘zbekistonda yashovchi arablar turli xalqlar orasida o‘ziga xos rivojlanishi tarixiga ega ekanligi, qadimiy milliy rasm-rusumlari va an’analarini hozirgacha saqlab qolganligi bilan ajralib turadi.

Movarounnahrga arablarning kirib kelishi haqidagi ma’lumotlarni o‘rta asr yozma manbalarida, jumladan, Tabariy, Balazuriy, Ibn al-Asir, Yoqut Hamaviy, Narshahiy, Abu Tohirxo‘ja kabilarning asarlarida uchratamiz. Shuningdek, Beruniy, Yassaviy, Bobur, Al-Istaxriyning asarlarida ham arablar to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Sh.Iskandarov “O‘zbekiston arablari: an’analari va transformatsion jarayonlar” asarida Al-Istaxriyning quyidagi fikrini keltirib o‘tadi: “…arablar Movarounnahrni bosib olgandan so‘ng bu hududga ko‘chib kelib, yangi shahar qishloqlar hamda mahallalarni barpo qilgan”[Ал- Истачрий 1973].

Bundan tashqari, O‘zbekistonda yashovchi etnik arablarning tarixi, turmush tarzi, tili, urf-odatlarini haqida X.Vamberi, A.Grebenkin, Girshfeld, L.Sobolev, B.Karmisheva, N.Xanikov, I.Geyler, A.Kun, D.Logofes, G.Meyendorf, R.Rajabov, B.Mamarajabov, X. Donyorov, Sh.Iskandarov kabilarning ilmiy ishlarida ham turli xil ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Tarixdan ma’lumki, O‘rta Osiyoga arablar dastlab VII-VIII asrlarda kirib kelgan. Arablarning O‘rta Osiyoga ilk yurishi Narshahiyning “Buxoro tarixi” asarida “Ubaydulloh ibn Ziyod Muoviya tomonida Xurosonga yuborilib, u Jayhun daryosidan o‘tib, Buxoroga kelgan vaqtda Buxoro podshohi, o‘g‘li Tug‘shoda kichik yoshda bo‘lgan … Ubaydulloh ibn Ziyod Boykand va Romitonni olib, ko‘p kishilarni asir qildi. To‘rt ming buxorolik asirni shaxsan o‘ziga oladi. Bu voqea ellik uchinchi yilning oxiri va ellik to‘rtinchi yil (673-yil noyabr-dekabr) ning boshida bo‘lgan edi” [Ражабов 2012: 40]. Bu manbadagi ma’lumotlardan voqealar VII asr oxirlarida sodir bo‘lganligini bilib olishimiz mumkin.

Arab xalifaligi davrini tadqiq etgan olimlardan biri O.G.Bolshakov o‘z ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘sha davrda arablar O‘rta Osiyoga arab tilini olib kelganligini ta’kidlaydi. U abbosiylarning taxtga chiqishi musulmon olamida arab tilining yanada keng tarqalishiga sabab bo‘ldi deydi. O‘sha davrdan boshlab butun xalifalikda islomlashtirish va arab tilini kengroq yoyish boshlangan. Chunki bu tilda Qur’oni Karim nozil bo‘lgan va diniy - huquqiy rivoyatlar og‘izdan og‘izga ko‘chib yurgan [Большаков 1982: 5].

Movarounnahrdagi ushbu bosqinchiliklarning sababi u yerlarni egallash emas, balki islom dini va arab tilini yoyish edi. Shu maqsadda dastlab 654-yilda Maymurg‘ va 667-yilda Chag‘aniyondan boshlanadi. Manbalarda bu davrda **Xorazm** arablar tomonidan ikki marotaba talon-taroj etilgan va 711-yilda Qutayba Xorazmni o‘ziga bo‘ysunduradi [Muhammadjonov 2017: 28]. Buning natijasini biz bugungi kunda Xorazm viloyati Xiva atrofi hamda Pitnakda istiqomat qiluvchi arablarning ko‘chib kelib, yashab qolishini mana shu davrga bog‘lab o‘rganishimiz mumkin. Ularning tili va shevasiga diqqat qilsak, bu hududda yashovchi arablar bugungi kunda o‘z tillarini unutib, mahalliy aholi shevasini o‘zlashtirib o‘g‘uz lahjasida so‘zlashadilar.

Buxoro va Surxondaryoda istiqomat qiluvchi arablarning migratsiyasi haqidagi ma’lumotlarni Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridagi ma’lumotlarni keltirib dalillaymiz. “Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa Muoviya I (661-680) farmoni bilan Ubaydulla ibn Ziyod Amudaryodan kechib o‘tib **Buxoro** hududiga bostirib kiradi. Poykand va Romitonni egallab, Buxoro hukmdori qo‘shinlarini yengadi… Yo‘l-yo‘lakay arablar **Termiz** shahrini ham egallaydilar [Muhammadjonov 2017: 28].

VIII asr boshlarida Qutayba Ibn Muslim 709-yilda Buxoroni egallaydi va buxoroliklar har yili halifalikka boj to‘lashga, bundan tashqari uylarining yarmini bo‘shatib berishaga majbur etilganlar [Muhammadjonov 2017: 29].

709-yilda olib borilgan ushbu siyosiy jarayon sababli bugungi kunga kelib Buxoroning ko‘p tumanlari va Surxondaryoning janubiy qismi Sherobod tumanida ham ushbu arab millati vakillari joylashgan hududlarni uchratamiz. Ma’lumotlarga ko‘ra G‘ijduvon tumanining bir necha qishloqlari va boshqa juda ozchilk qishloqlarida arab tilida so‘zlashuvchi aholi mavjud bo‘lib,

qolgan koʻpchiligi oʻzbek-tojik tilida soʻzlashadilar. Oʻz davrida Buxoro tarkibiga kiruvchi Navoiy viloyatining Qiziltepa, Navbahor, Xatirchi hamda Nurota tumani markazidagi hududlarda ham arab millati vakillari istiqomat qiladi. Nurota va Qiziltepa hududidagi arablar bugungi kunda oʻzbek-tojik tilida soʻzlashadi. Navbahor va Xatirchi tumanida yashovchilar esa oʻzbek tilida soʻzlashadi .

Buxoro viloyatida yashovchi arablarning juda kamchilik qismi arab tilida faqatgina oilaviy muloqotdagina gaplashishadi. Boshqa holatda esa oʻzlari yashab turgan hudud shevasida soʻzlashadi.

Buxoro shevalari “Samarqand-Buxoro guruh shevalariga kiradi. Bu guruh shevalariga Samarqand, Buxoro, Qarshi, Koson, Chust, Xoʻjand kabi shevalar kiradi” [Ashirboyev 2021: 88].

Navoiy viloyatining Qiziltepa va Navoiy viloyati hududida yashovchi arablar shevasida tojik tilining ta’siri yaqqol sezilib turadi va oʻzbek-tojik tilida soʻzlashishadi. Xatirchi tumanidgi arablar esa qipchoq shevasida soʻzlashadi.

Surxondaryo viloyatida istiqomat qiluvchi arablar qipchoq mahallalarida yashovchilari qipchoq lahjasida, qarluqlar bilan istiqomat qiluvchilari qarluq lahjasida muloqot qiladilar.

710-yilda Qutayba Naxshab va Keshni bosib olib, Samarqandga hujum boshlash uchun tayyorgarlik koʻradi…711-yil Xorazmni egallagandan soʻng,.. 712- yil Samarqandga tashlanadi. Bu davrda Samarqand qoʻshinlari va Qutayba kuchlari teng boʻlmaganligi sababli Samarqand taslim boʻladi [Muhammadjonov 2017: 28].

712-yilda amalga oshirilgan ushbu tarixiy jarayon Samarqand viloyatining koʻpgina qismlarida arab millatiga mansub aholining joylashib, yashab qolishiga asosiy omil boʻlib xizmat qilgan. Oʻzbekiston hududining Qashqadaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlarida arablarning katta qismi joylashgan. Bugungi kunda oʻzlarni arab deb hisoblovchi aholining katta qismi ham mana shu hududlarda istiqomat qiladi. Jumladan, Samarqand shahrining eski shahar hududida, Pastdargʻomning Juma, Charxin, Chimboy, Goʻzalkent hududlarida, Kattaqoʻrgʻon, Ishtixon va Paxtachi tumanlarida yashaydi. Qoʻshrabot va Payariq tumanlarida ham oʻzlarini arab sanamasalarda koʻrinishi arablarga oʻxshab ketuvchi “eshonlar”, “saidlar” deb ataluvchi aholi vakillari ham istiqomat qiladi. Arablar asosan istehkom sifatida daryo boʻylarini tanlaganlar. Masalan, Pastdargʻom hududida yashovchi arablar Dargʻom arigʻi boʻylarini hamda Qoradaryoning Ishtixon bilan chegaradosh hududlarini tanlaganlar. Qoradaryo qirgʻoqlaridagi Pastdargʻomning Qorayantogʻ, Beshqahramonning ba’zi qishloqlari, Gʻalaba qishloqlarida va Ishtixonning Arabxona, Ulugʻ qishloq, Ravot qishloqlarida oʻzbeklashgan etnik arablar istiqomat qilishadi. Samarqand viloyatining Kattaqoʻrgʻon hamda Juma, Samarqand tumanida yashovchi aholi oʻzbek-tojik, oʻzbek tilida soʻzlashadilar. Oʻzbekchada soʻzlovchilarining tilida tojik tilining ta’siri yaqqol sezilib turadi, ammo tojikcha gapirishmaydi. Qolgan hududlarida istiqomat qiluvchi arablar mahalliy aholining tilini oʻzlashtirgan holda oʻzbekcha soʻzlashadi.

Samarqand viloyatining Ishtixon tumanining Arabxona, Ulugʻ qishloq, Ravot qishloqlari shevasida ham qarluq, ham qipchoq lahjasining unsurlarini uchratish mumkin.Bu hududda istiqomat qiluvchilarning tilidan ayrim misollar keltiramiz.

Qarindoshlik bildiruvchi soʻzlar:

Enä*-ona;*
Āta*-ota;*
Äjä*-ona;*
Dädä*-ota;*
Kättenä *– buvi;*
Kätätä*- buva;*

Ämäki *yoki* ***äkä****- otaning ukasi;*
Bāva*- otaning akasi;*
Momenä *– buvi;*
Bābejāta*- buva;*
Xāla*-onaning opa-singlisi;*
Bölä*- xolaning farzandlari;*
Ämmä*-otaning opa-singlisi;*
Ǯijän*- aka-uka, opa-singillarning farzandi;*
Tāγa*- onaning aka-ukasi;*
Äkä*- o‘zidan katta o‘g‘il bola qarindosh;*
Ükä*- o‘zidan kichkina o‘g‘il bola qarindosh;*
Āpa*- o‘zidan katta qiz bola qarindosh;*
Siŋil*- o‘zidan kichkin qiz bola qarindosh;*
Čaqalaq*- chaqaloq;*
Bāla*- yoshiga to‘lgan go‘dak;*
Ul*-o‘g‘il farzand;*
Qïz*-qiz farzand;*
Pāčča – *opaning turmush o‘rtog‘i;*
Küjāv *– singilning turmush o‘rtog‘i;*
Kelin*- o‘g‘ilning turmush o‘rtog‘i;*
Yäŋä *– akaning turmush o‘rtog‘i.*
Qajna *- qaynona;*
Qajnata *- qaynota;*
Qajnaka *- qaynaka;*
Qajnuka *- qaynuka;*
Qajnsiŋil *–qaynsingil;*

Yuqoridagi birliklar barchasi qarindosh-urug‘ nomlari hisoblanadi. Ba‘zi birlari adabiy tildagi muqobili bilan bir xil bo‘lsa, ba‘zi birlari esa adabiy tildan tubdan farq qiladi.

Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani Darg‘om kanali bo‘yidagi qishloqlari va Kattaqo‘rg‘on tumanida istiqomat qiluvchi arablar tili arab-tojik-o‘zbek tilida assimilatsiyalashgan bo‘lib, o‘zbek-tojik tilida gaplashishadi. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholining tilida tojik tilining ta’siri sezilib turadi.

Qashqadaryo viloyatining Koson, Qarshi, Kasbi, Nishon kabi hududlarda arablarning katta qismini uchratamiz. Qashqadaryoning ba’zi bir hududlari o‘z til xususiyatlarini saqlab qolgan holda arabcha so‘zlashadi. Arab tili kundalik oilaviy muloqotda qo‘llanilsa, ko‘cha-ko‘yda o‘zbek tilida so‘zlashadi.

Farg‘ona vodiysiga arablar 713-715-yilda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar sabab kirib borganlar, “713-yilda Qutayba qo‘shining bir qismi Choch viloyati, o‘zi boshliq asosiy kuch esa, Farg‘ona vodiysi tomon yo‘l oladi. Choch vohasi bosib olinib, uning bosh shahri Madinat ash-Shosh va juda ko‘p qal’a va qo‘rg‘onlarga o‘t qo‘yilib vayron etiladi. 715-yilning boshida esa Farg‘ona vodiysi uzil kesil egallanadi” [Muhammadjonov 2017: 28].

Farg‘ona, Andijon, Namangan hududlarida ham arab millatiga mansub aholi istiqomat qilishadi. Ular ham davr, makon nuqtayi nazaridan mahalliy tilni o‘zlashtirib arab tilini unutishgan va asosiy so‘zlashuv tili o‘zbek mahalliy shevalari hisoblanadi.

Arablarning O‘rta Osiyoga migratsiyasining asosiy maqsadlari arab tili va islom diniy madaniyatini keng targ‘ib qilish bo‘lgan. Abbosiylar davrida boshqa tillar bilan birga arab tili ham

keng ommalashtirilgan. Koʻchib kelgan arablarning katta qismi oʻz ona tili – arab tilini unutgan boʻlsa, aksariyat qismi bugungi kungacha ham saqlab qolgan.

Sh. Iskandarov arablarning Oʻrta Osiyoga kirib kelishini uch bosqichga boʻlib tavsiflab beradi.

1-bosqich VII asr oʻrtalari va VIII asrda koʻchib kelgan arablar Oʻrta Osiyo yerlarini egallash, islom dinini keng yoyish va mahalliy aholini talon-taroj qilish asosiy maqsadlari boʻlgan. Keyinchalik mana shu yerda qolib mahalliy aholi vakillariga singib ketgan.

2-bosqich IX-XV asrda koʻchib kelgan arablarni esa Amir Temur arab davlatlariga yurish qilib, aholisining katta qismini olib kelib, mahalliy xalqlar istiqomat qilib kelayotgan hududlarga joylashtiradi. Bu davrda kelib joylashgan arablarning katta qismi islom madaniyatining keng tarqalishi va islom diniy marosimlariga katta e'tibor berdi.

3-bosqich XVI-XIX asrlarda toʻgʻri keladi. Shu davrda koʻchib kelib oʻrnashgan arablar koʻpchilik qismi hunarmandlar, kosiblardan tashkil topgan. [Искандаров 2017: 52-53]

Arablar oʻz tili va dini, urf-odat, rasm-rusumlarini mahalliy aholiga oʻrgatibgina qolmay oʻzlari ham tub mahalliy aholining tili, urf-odatlarini oʻrganib yillar oʻtib oʻzlari ham mana shu mahalliy xalqlarga singishib ketgan.

X.Doniyorovning "Oʻzbek xalqining shajara va shevalari" [Донёров 1968] asarida oʻzbek qabila va urugʻlari haqida ma'lumot berar ekan tarixiy manbalarga tayangan holda arablarni ham oʻzbek urugʻlaridan biri sifatida koʻrsatib oʻtadi. Xususan, N. Xanikovning "Buxoro xonliklari tavsifi" [Хаников 1843] asarida urugʻlar nomini sanar ekan 51-urugʻ nomi sifatida arablar keltirilgan "… 49.Ulgan, 50.Qori, **51. Arab,** 52.Ilochi…" [Дониёров 1968: 37] va X.Doniyorovning "Oʻzbek xalqining shajara va shevalari" asarida "Xalq orasidan yigʻilgan bu 300 ta oʻzbek urugʻlarining (etnonimlarining) alifbo tartibidagi umumiy roʻyxati quyidagicha: A. Argʻin, **arab,** ala koʻylak, alipli, ar-sari (er sari, turkman)…" [Дониёров 1968: 80] kabi ma'lumotlarga tayanadigan boʻlsak, arab millati vaqtlar oʻtib mahalliy aholi bilan qorishib ketib oʻzbek urugʻlarining biri sifatida manbalarga koʻrsatilgan.

Arablar oʻz ota-bobolaridan qolgan urf-odat sifatida koʻchib yurishgan va keyinchalik oʻtroq turmush tarziga oʻta boshlagan.

Oʻzbekistonlik etnik arablarga bagʻishlangan ilmiy ishlarda ba'zi bir hududlarda arab tili saqlanib qolganligi, ammo koʻpchilik hududlarda esa arab tilini unutib mahalliy shevalarda soʻzlashishi aytib oʻtilgan. "Arablar asrlar davomida mintaqaning mahalliy aholisi orasiga singib, assimilyatsiyalashgan boʻlsa-da, ularning bir qismi etnik oʻzligini saqlab qolgan. Buning oʻziga xos muhim sabablaridan biri arab xalqining alohida yashab kelganligi bilan bogʻliqdir. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Poʻlati va unga tutash boʻlgan Rayimsoʻfi, Xoʻjaquduq, Andabozor, Boyterak, Darcha, Qanotli, Boʻrixona, Pistali, Nomard, Olachabop, Ogʻzikeng singari oʻnlab qishloqlarda arab tilining mahalliy shevasi saqlanib qolgan" [Ражабов 2011:56].

Arablar oʻz tillarini unutib mahalliy tilni oʻzlashtirib mahalliy xalqqa singib ketishining asosiy sabablaridan biri sifatida XX asrda sovet tuzimi davrida arab xalqiga oʻtkazilgan siyosiy tazyiqlardir. Bu davrda bolalar rus maktablarida oʻqish va yozishni oʻrganishlari majburiy ta'lim sifatida joriy qilindi. Bu siyosiy jarayonlar nafaqat arab, balki milliy tilimizda ham sezilarli, ogʻriqli izlar qoldirgan.

Yuqoridagi sabablar, ya'ni davrlar mobaynida mahalliy xalqqa singish hamda XX asrdagi siyosiy jarayonlar sababli Oʻzbekistonda yashovchi etnik arablar oʻz tilini yoʻqotib mahalliy tilni oʻzlashtirishgan, qisman juda ozchilik hududlarda esa saqlab qolishgan.

Sh.Iskandarov oʻz tadqiqotlarini olib borish jarayonida respondentlardan "Arab tilini qay darajada bilasiz?" deb soʻrovnoma oʻtkazganida Oʻzbekistondagi arablarning 45% "Arab tilini

bilmayman”, 31% “Yaxshi bilaman”, 11% “A’lo darajada”, 13% “Yomon darajada” deya javob bergan. Natijadan ham koʻrinib turganidek, arab tilini biluvchi shaxslardan koʻra bilmaydigan shaxslarning foizi koʻproq.

Biz ham Samarqand viloyatining Ishtixon, Kattaqoʻrgʻon, Pastdargʻom tumanlaridagi arab mahallalarida istiqomat qiluvchilar orasida shunday oʻgʻzaki soʻrovnoma oʻtkazganimizda deyarli barchasi arab tilini bilmasliklarini aytishdi. Kattaqoʻrgʻonda yashovchi arablar oʻzbek-tojik tilida, Pastdargʻomning Samarqand shahriga yaqin hududlarida yashovchi arablar oilada oʻzbek-tojik tilida, Ishtixon hamda Pastdargʻomning Ishtixonga chegaradosh hududi boʻlgan Chimboyda oʻzbek tilining qipchoq lahjasida soʻzlashishining guvohi boʻldik.

“Oʻzbekiston arablarining ularning qaysi tilda koʻproq muloqot qilishlari asosida tavsiflagan holda xulosalaydigan boʻlsak, quyidagicha manzara namoyon boʻladi: 1) oʻzbek tilida soʻzlovchi aholi; 2) tojik tilida soʻzlovchi aholi; 3) arab tilida soʻzlovchi aholisi (faqat Jugari va Jeynov qishloqlarida)” [Ражабов 2011: 157-158]

“Vobkent tumanida joylashgan Arabxona va Gʻijdivon tumaniga qarashli Chahdari kabi qishloqlarda ham arab tilida gaplashuvchi arablar istiqomat qiladi” [Искандаров 2017:159].

Bugungi kunda oʻzbek xalqining ajralmas bir qismi, hattoki, urugʻ sifatida keltiriladigan arablar bundan oʻn toʻrt asr oldin arab tili va islom dinini yurtimizga yoyish maqsadida kirib kelgan va keyinchalik mahalliy aholi bilan birgalikda yashab qolgan. Oʻzlarining bilim va hunarlarini mahalliy aholiga oʻrgatib oʻzlari ham ulardan koʻp narsalarni oʻrganishgan. Ular oʻz tillarini saqlash maqsadida mahalliy aholidan alohida yashaganlar. XX asrdagi siyosiy jarayonlar sabab mahalliy aholiga singib, keyinchalik oʻz tillarida soʻzlashmaganligi sababli arab tilini unutishgan. Bugungi kunda Oʻzbekistonda yashovchi arablarni juda ozchilik qismi arab tilida soʻzlashadi.

Masalan, Qashqadaryo viloyati Poʻlati va unga tutash boʻlgan Rayimsoʻfi, Xoʻjaquduq, Andabozor, Boyterak, Darcha, Qanotli, Boʻrixona, Pistali, Nomard, Olachabop, Ogʻzikeng singari oʻnlab qishloqlarda arab tilining mahalliy shevasi saqlanib qolgan [Рўзимуродов, Райҳонов, Ҳамроев 2000: 14–15]. Arablar shevasiga xos xususiyatlar, asosan, Poʻlati va unga yaqin joylashgan qishloqlar Olachabop, Rayimsoʻfi, Boʻrixona aholisi tilida qisman uchraydi [Ражабов 2012: 56]. Bugungi kunda yuqorida nomlari keltirilgan hududlarning juda ham kam foizida arab tilida gaplashadi. Oʻzbek tili asosiy muloqot tili hisoblanadi. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi Arabxona qishlogʻida yashovchi arab aholining ma’lum qismi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumaniga qarashli Jeynov qishlogʻidan koʻchib kelib mahalliy aholi bilan aralashib, hozirgi kunda oʻzbeklashib ketgan. [Дала ёзувлари 2012].

Oʻzbekiston hududida yashab kelgan arablarning geografik joylashuvi va miqdori haqida I.I.Geyler, A.Kun, D.N.Logofet, Girshfeld va Galkinlar ham ma’lumotlar berganlar. “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining 1875 yil 10-sonida, masalan, Amudaryo bo’limidagi (Qaraqalpog’iston) Sho’raxon mavzesida 47 xonadondan iborat arab jamoasi hayot kechirayotgani haqida xabar berilgan. Sho’raxon arablari haqida yana O.I.Shkapskiy ham eslatib o’tgan. L.Kostenkoning 1871 yilda chop etilgan “O’rta Osiyo va unga rus fuqaroligining kiritilishi” nomli asarida Zarafshon vohasida kam sonli ko’chmanchi arablar yashayotgani qayd etilgan. Girshfeld va Galkinlar Xiva xonligining harbiy statistik tavsifiga bag’ishlangan tadqiqotlarida Xorazmda arablar voha aholisi umumiy sonida juda kam foizni tashkil etishi, faqatgina Pitnak bekligida aholining 19% arablar ekanligi aniqlangan [Mamarajabov 2023: 695].

Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekiston Respublikasining koʻpgina qismi Samarqand, Buxoro, Navoiy, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Namangan, Fargʻona viloyatlarida ushbu millat vakillarini istiqomat qiladi, ammo Jizzax, Sirdaryo, Toshkent

viloyatlarida uchratmaymiz. Yuqorida nomi ta’kidlangan hududlarda ularning nomi bilan bog‘liq qishloqlar haligacha saqlanib qolgan.

Ushbu hududlarda istiqomat qiluvchi o‘zbeklashgan etnik arablarning muloqot tili o‘zbek, tojik, arab tillari hisoblanadi. O‘zbek tilining turli lahjalarini o‘zlashtirgan bo‘lib, Xorazm viloyatida istiqomat qiluvchilari o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasida qolgan viloyatda istiqomat qiluvchilar qarluq va qipchoq lahjasida so‘zlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.- T, 2021.
2. Ал- Истачрий. Китоби масолика ал- молок “ Материали по исторни киргизов и Киргизин” Том I- M., 1973.
3. Большагов.О.Г. Очерки истории арабской культуры. X-XI вв. М.:Наука,1982.
4. Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.- Т., “Фан”.- 1968.- Б.80.
5. Искандаров Ш. Ўзбекистон араблари: анъаналар ва трансформацион жараёнлар.- Т., “Yangi nashr”.,-2017
6. Mamarajabov B. O‘zbekistondagi arablarga oid tarixiy va etnografik ma’lumotlar tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. №3.
7. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi.T., “Sharq”-2017.B-29
8. Р.Ражабов. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси.- Т, 2012.
9. Ражабов Р. Ўрта Осиё кечган этномаданий жараёнларда араблар иштироки // Республика илмий анжумани материаллари.- Т: 2012.
10. Хаников Н. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843.
11. Ўзбек совет энциклопедияси.-Т,1971.

«JUDOLIK DIYORI» ROMANIDA DIALEKTAL SO’ZLARNING IFODALANISHI

APPLICATION OF DIALECT WORDS IN THE NOVEL ” THE LAND OF JUDAISM”

Tursunova Sanobar Najmiddinovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Murod Mansurning “Judolik diyori” romanidagi dialektologik so’zlar, Toshkent shevasiga xos fonetik, morfologik, leksik xususiyatlar tahlilga tortiladi. Bundan tashqari adib asarda Toshkent shevasi hamda bolalar nutqiga xos so’zlardan samarali foydalanganligi to’g’risida bayon etiladi.*

Kalit so’zlar*: dialektizmlar, grammatik shakl, dialektal so’zlar, mahalliy kolorit, morfologik, leksik xususiyat, personaj nutqi, sheva so’zlari.*

Abstract. *This article analyzes dialect words, morphological, lexical and phonetic features specific to the Tashkent dialect in Murad Mansur’s novel ” The land of Judaism”. In addition, the effective use of the Tashkent dialect and children’s speech words in the literary work is described.*

Keywords*: dialectisms, dialectal words, grammatical form, local color, morphological, phonetic, lexical feature,character speech, dialect words.*

Ma’lumki, badiiy asarning xalqchilligini ta’minlashda sheva so’zlari alohida o’rin tutadi.Badiiy asar tilining tasviriyligi, ifodaliligi, qahramonlar nutqining individuallashganligi ko’p jihatdan o’rinli va me’yorida qo’llangan sheva unsurlariga bog’liq. Biz bilamizki, badiiy adabiyot tilini dialektizmlarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Chunki, yozuvchi asarni yozishda badiiy tildan mohironalik bilan so’zlarni qo’llaydi.Bu badiiy asar tilining jozibali, ta’sirchan bo’lishini ta’minlaydi.

Dialektizmlar – umumxalq tilining ajralmas bir qismi bo’lib, asosan jonli so’zlashuv nutqiga xos leksemalar va iboralar, grammatik shakl hisoblansa ham ularning badiiy adabiyotda o’ziga xos alohida o’rni bor.

Dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik ko’rinishlari mavjud bo’lib, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida ularning barchasidan keng va unumli foydalanilgan. Zero, yozuvchi asarining eng birinchi ko’zga tashlanadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir.

Odatda, shevadagi fonetik o’zgachalikdan badiiy matnda estetik maqsadda foydalaniladi, chunki, bunday o’zgachalik, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi, qolaversa, hududiy mansublikni ta’kidlaydi, qahramon nutqining individualligini ta’minlaydi. Fonetik dialektizmlarning hosil bo’lishi fonetik jarayonlar-tovush o’zgarishi, tushishi, orttirilishi, ikkilanish hodisalari bilan yuzaga chiqadi.

1. So’z oxiridagi n undoshi z tovushiga almashadi: tomimizni-tomimizzi. Tomimizzi…tomimizzi… deydi-yu, u yog’ini aytolmaydi. Xo’rligi tutib qolyapti.[“Judolik diyori”,354-bet].
2. So’z boshidagi b undoshi m ga almashadi: buncha-muncha. Muncha toshbag’irsanle-er! Eshitsalaring-che, ablahlar!.. .[“Judolik diyori”, 198].
3. So’z boshidagi y undoshi j tovushiga almashadi: Yur-jur. “-Jur-jur! Nimaga angrayapsan? Qilg’ilikni qilib qo’yib?”… [“Judolik diyori”,277].
4. So’z boshida b undoshi v ga almashadi: bo’ldi-vo’ldi. – Sizga ne vo’ldi? Hoy, Mahmudxo’ja o’g’illari, o’zingizni tuting, deb yupatar, taskin berar edi. [“Judolik diyori”,364].
5. So’z boshidagi a unlisini o unlisiga almashishi: akam-okam.

Yoril-yoril, yoriltosh-a,
Men okamni ko’rayin-a,
Diydoriga to’yayin-a,
Aytadiganim aytayin-a,
Yoril-yoril, yoriltosh-a.
Sen yo’llarimni ochaqol-a… [“Judolik diyori”,291].

Ushbu nutqda shu so’z orqali personajning ruhiy holati, uning biroz tushkun kayfiyati aniq ko’rinadi.

Adib bu asarda fonetik dialektizmlar, so’zlashuv uslubiga xos fonetik hodisalardan keng va o’rinli foydalanganki, bularsiz yozuvchining asari jozibasi va xalqchilligini tasavvur qilish mumkin emas.

Binobarin, dialektal so’zlardan foydalanish orqali san’atkorlar personaj nutqini individuallashtiradi, mahalliy koloritga xos nutq yuzaga keltiradi hamda qahramonlar holatini chizib berish uchun ham, ularni qo’llashga e’tibor qaratadi.Shu bilan bir qatorda yozuvchi dialektal so’z va iboralardan foydalanishda chegara bo’lishi, nutqda suiste’mol qilishga yo’l qo’yib bermasligi haqida ham qayg’urishlari lozim.

Keyingi vaqtlarda o’zbek yozuvchilari ijodida dialektal so’zlardan foydalanishda biroz jonlanish sezilmoqda. Demak, yozuvchilar o’z asarlari tilining yanada boy va xalqchil bo’lishini

ta’minlash uchun ham dialektizmlarni kata mahorat bilan qo’llashga e’tibor bermoqdalar. Bunday holatni Murod Mansurning besh kitobdan iborat “Judolik diyori” romanida ham buni yaqqol ko’rish mumkin. Chunonchi, yozuvchi o’z asarlari tilini aniq hayotga yaqinlashtirish maqsadida personajlarni o’z shevalarida gapirtiradi. Bu esa yozuvchi asarlari tilining rang-barang bo’lishiga keng imkoniyat yaratadi. Masalan: “Hozir qattaykan?-dedi Sultonmurod akam shosha-pisha. –Yo opketib bo’lishdimi”.[“Judolik diyori”,68].

Keltirilgan matnlarda shevaga, asosan og’zaki nutqqa xos so’z shakllari ishlatilgan. Biz bu o’rinda qattaykan (qayerda ekan), op ketib (olib ketib), op (olibning shevaga, og’zaki nutqqa xos shakli) kabi qo’llanishlarni nazarda tutyapmiz.

Murod Mansur dialektizmlardan foydalanish orqali personajlar nutqini individuallashtiradi. Ayniqsa, nutqning dialogik ko’rinishida bu narsa yanada jonli va ishonarli holatda berilganligini yozuvchining romandan keltirilgan misollar orqali ko’rib o’tish mumkin . Jumladan , Maqsudxo’ja va Solilarning o’ziga xos tilini yaratish hamda ularning individual nutq xususiyatini chizib berishda dialektal so’zlarga murojaat etilganligini ko’ramiz:

“O’ zo’rakan. Baxting borakan, Maqsud. Endi bularni sening hovuzchangda boqib turamiz-dedi Soli **balivni** menga tutqazib, -Ma ushlab tur.

Oborgunimizcha, tag’in o’lib bo’lmaydimi? –dedim hayron qolib.

Lallayma! Hali tushurib... **ishshaygan** [175-бет]”. Bu parchada yozuvchi Maqsudxo’janing individual nutqini yaratish uchun Toshkent shevasiga xos xarakterli xususiyatlardan oborgunimizcha (olib borganimizcha), tag’in (yana), ishshaygancha (kulgancha) leksemalarini mahorat bilan qo’llay olgan. Yozuvchi bu yerda dialektizmlarni qo’llash orqali ikki masalani hal etgan: birinchidan, individuallashtirgan bo’lsa, ikkinchidan Toshkentcha koloritni ham yarata olgan. Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, yozuvchi dialektizmlar orqali personajlar nutqini individullashtirishda bir necha xil usullarni qo’llaydi. Avvalo romanda voqea sodir bo’layotgan Toshkent hududida yashovchi sheva vakillarining o’ziga xos nutqini beradi.

Murod Mansur o’zi tasvirlayotgan voqealarda o’sha joyga xos nutqiy manzarani berishda dialektizmlarga murojaat qiladi.

Binobarin, adib romanda personajlar nutqining joyga nisbatan tildagi mosligini ochish uchun, o’zi yashayotgan hududning turmush- tarzini tasvirlash maqsadida dialektal so’zlarga ko’proq ahamiyat beradi. Chunki har bir millat yo xalqning uy fikrlari, tili, madaniyati so’zlashuv jarayonida shakllanadi. Bu bevosita dialektizmlarga xoslangan bo’lib, yozuvchi Toshkent xalqi yo sheva vakillariga mansub leksik qatlamni o’z asari tiliga singdirgan holda aynan mana shu hududning vakillari timsolini haqqoniylik bilan tasvirlaydi. Jumladan, “Judolik diyori” ning ikkinchi kitobi “Najot farishtasi” deb nomlanadi. Unda aks ettirilgan voqea-hodisalar Kalkovuz[1] yoqasida, Olmazor, Qang’li, Izza, Tangritog’ etaklarida kechadi. Shu boisdan, romanda yozuvchi tomonidan Toshkent shevasining o’ziga xos jihatlari ochib berilgan. Bu joyda mazkur hududga xos nutq jarayonini yaratish maqsadida dialektizmlarning tuzilishiga ko’ra turli xil ko’rinishlaridan unumli foydalanilgan: “ –Allamahalda Bahriddin akamning **jo’ralari** qaytib kelishdi. Ammo o’zi ham, **munday** eng yaqin kuyovjo’rasi ham yo’q edi” [Birinchi kitob, 103].

Yuqorida keltirilgan matnlarda munday (bunday), jo’ra (do’st) kabi leksik dialektizmlari orqali Toshkent shevasiga xos mahalliy manzara yaratilgan.

Romanda personaj nutqida ko’plab fonetik dialektizmlar uchraydi. Bu, albatta, mahalliy koloritni yaratishga xizmat qiladi.Masalan, qamalup (qamalib), qo’riqdab (qo’riqlab), barakalda

[1] Tashlandiq bog'

(barakalla), ittimos (iltimos), mukopat (mukofot), duvana (devona) kabi ko’plab ana shunday so’zlarni esga olish mumkin. Ayrim misollar:

“-Ibi, axun, hay-hay, tapushgan jayumuzzi ko’rung. Haziq to’ramning astanasini qo’riqdab yatiyur ekansiz-da?..”[Ikkinchi kitob,65].

“- Hay- hay- hay, muncha qamalup olmasanguz, axun? Barakalda- barakalda! ” [Ikkinchi kitob,65].

“- Tapganga cho’ng mukapat var, ha!”[Ikkinchi kitob,67]

“- Bir duvana aldab opketup...”[74]

“- Viradar, ittimos, shusiz gaplashayluk, - dedi titrab – qaqshab”.[76].

Shunday qilib, adib ijodini o’rganish jarayonida dialektizmlarning barcha, ya’ni fonetik, leksik, morfologik hamda semantik ko’rinishlari mavjud ekanligi aniqlanadi.

Fonetik dialektizmlar so’zlarning tovush jihatdan mahalliy talaffuz etilishi hisoblanadi. Fonetik dialektizmlar tilshunoslikda keng miqyosda o’rganilgan. Bunga misol qilib, Fattoh Abdullayev[1]ning tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, “Judolik diyori” romanida juda ko’plab morfologik dialektizmlarning ishlatilganligini ko’ramiz. Masalan: “Oftobga qarasam, u teatr binosi tomidan oshib o’tib, kun peshinga yaqinlashib qopti” [Ikkinchi kitob,173].

“-Kichkinaligimda oyim bir marta Qoratoshga optushganlar” [Ikkinchi kitob,116].

Keltirilgan misollarda qopti (qolibdi), optushgan (olib tushgan) kabi morfologik dialektizmlari qo’llanilgan. Yuqoridagi dialektizmlarda ma’no kuchaytirish deyarli sezilmagan, faqatgina dialektik so’zlar qisqartirilgan shaklda namoyon bo’lgan va bu bilan romanning xalqchilligi ta’minlangan.

Umuman olganda, har bir ijodkor asari tilini boyitish uchun, mahalliy nutqni aks ettirish maqsadida dialektal qatlamga e’tiborini qaratadi. Bu bevosita yozuvchi Murod Mansur ijodida dialektal so’zlarning ishlatilishi, muallifning xalq tiliga ko’proq murojaat etganligi hamda uning shu tilga e’tibor qaratganligidan darak beradi. Yozuvchi Murod Mansur romanida Toshkent shevasi yarq etib ko’zga tashlanadi. Adib badiiy matnda asosan adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qiladi. Yozuvchi qahramonlar nutqi va ularning ichki nutqini berishda xalqona so’zlashuv uslubidan, o’zbek millatining o’ziga xos dunyoqarashidan aslo ayro tushgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезмских говоров. – Ташкент: Фан, 1967.
2. Murod Mansur ”Judolik diyori”. Birinchi kitob. Toshkent: Sharq, 2007-yil.
3. Murod Mansur ”Judolik diyori”. Ikkinchi kitob. Toshkent: Sharq, 2007-yil.
4. Qo'shjonov M. ”Ijod ma’suliyati”. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent: 1981-yil.
5. Yo’ldoshev B., Shodiyev Z. ”UFQ” TRILOGIYASINING LINGVOPOETIK TAHLILI MASALALARI. Monografiya. Samarqand: 2006-yil.
6. Yo’ldoshev M. Cho’lpon so’zining sirlari. Toshkent: Ma’naviyat, 2002-yil.

[1] Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезмских говоров. – Ташкент: Фан, 1967. -210 с.

O‘ZBEK ADABIY TILIDAGI PERIFRAZA VA O‘ZBEK SHEVASIDAGI “IKKILAMCHI NOMINATSIYA” HODISASINING QIYOSI

COMPARISON OF PERIPHRASE IN UZBEK LITERARY LANGUAGE AND THE PHENOMENON OF "SECONDARY NOMINATION" IN UZBEK LANGUAGE

Ortiqov Ramazon Raxmat o‘g‘li
Qarshi Xalqaro Universiteti o‘qituvchisi
ramazonortiqov76@gmail.com

Annotatsiya. *Bu maqolada o‘zbek adabiy tilidagi ikkilamchi nominatsiya va o‘zbek shevalaridagi ikkilamchi nominatsiya hodisasisning bir biriga o‘xshshligi, farqi, qiyosi haqida ilmiy-tahliliy fikrlar olib borilgan. Bu hodisalar tilimiz bilan parallel ravishda o‘sib rivojlanuvchi hodisa ekanligi to‘g‘risida ham fikr-mulohazalar yuritilgan.*
Kalit so‘zlar: *Ikkilamchi, perifraza, nominatsiya, sheva, lahja, urf-odat.*

Abstract. *In this article, scientific-analytical thoughts about the similarity, difference, and comparison of the secondary nominative in the Uzbek literary language and the secondary nominative phenomenon in the Uzbek dialects. It has been argued that these phenomena are parallel to our language.*
Key words: *Secondary, periphrasis, nominative, dialect, dialect, custom.*

Bugungi jahon tilshunosligida, xususan, turkologiya va o‘zbek tilshunosligida ikkilamchi nominatsiya (perifraza) hodisasini o‘rganish bo‘yicha anchagina ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sh. Balli perifraza hodisasining fikr ifodalashdagi eng muhim tasviriy vositalardan biri sifatida e’tirof etadi[Балли Ш. 1996:126]. Bu esa rus tilshunosligida ham bu hodisaga alohida to‘xtalganidan dalolat beradi. Shu vaqtgacha adabiy tildagi ikkilamchi nominatsiya hodisasini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘pgina ilmiy ishlarda uning amaliy jihatiga e’tibor qaratilib, uning ijtimoiy-lisoniy shakllanishi va ular bilan daxldor bo‘lgan jihatlar nazardan biroz chetda qolayotganini aytib o‘tish o‘rinlidir. Biz bu hodisaga faqat amaliy jihatlarga e’tibor berilgan deganda shuni tushunishimiz kerakki, ayni hozirda davom etayotgan muloqot jarayonida qaysi bir perifrazani qo‘llasak o‘rinli va qaysi birini qo‘llasak g‘alizroq ma’no hosil qilishi, amaliyotda qanday xususiyatlarni tajalli qilishi haqidagi ma’lumotlarni tushunish kerak. Vaholanki, ikkilamchi nominatsiya(perifraza) sof ijtimoiy hodisa ekanligini, uni ijtimoiy kriteriyalar bilan tahlil qilish kerakligini, lisonda ular qanday iz qoldirayotganligi haqidagi mulohazalarni ham o‘rganishni vaziyatning o‘zi taqozo qilmoqda. Perifrazalar jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi, yoki aksincha, butunlay iste’moldan chiqishi mumkin. Chunki tarixdan bizga ma’lumki, tarix sahnasiga qanchadan-qancha davlatlar va jamiyatlar kelib, rivojlanib va oxirida tanazzulga yuz tutgan. Xuddi shuningdek, perifrazalar ham o‘tmishdan to hozirgi kunga qadar uning rivojlanish dinamikasi goh pasayib, goh rivojlanib kelmoqda. Uning rivoji yoki tanazzuli u iste’molda bo‘lgan ijtimoiy muhitning taqdiri bilan bog‘liq ravishda kechadi. Masalaning eng muhim tomoni shundaki, perifraza insonning nutq odobi, til va nutq madaniyati, narsa-hodisalarga munosabati kabi kommunikativ akt bilan bog‘liq jihatlarni o‘zida namoyon etadi. Endi diqqatimizni bir narsaga qaratsak, bugungi kunda shevalarimizda saqlanib qolingan ikkilamchi nominatsiya hodisasi ham ayni biz yuqorida sanab o‘tgan xususiyatlarni o‘zida jamlagan. Yana shuni aytish mumkinki, shevalardagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi

adabiy tildagi ikkilamchi nominatsiya hodisasiga qaraganda ko‘p qirraliroq va xususiyroq xarakterga ega. Shevadagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi ma’lum bir sheva muhitining mentaliteti, madaniyati va ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog‘liq. Xususiyroq xarakterga ega deyishimizga sabab shundaki, biron bir dialektal zonadagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi, ikkinchi bir hududdagi sheva vakili tushunmasligi mumkin. Har sheva muhitining shu hududga xos bo‘lgan jihatlari, ikkilamchi nom qo‘yish an’analari bir-biridan biroz yoki tubdan farq qilishi mumkin. Bundan-da aniqlashtiradigan bo‘lsak, xususiylik individual shaxsgacha yetib boradi. Ya’ni, ikkilamchi nom qo‘yish individual shaxsning tafakkuri, dunyoqarashi va ma’lumotining darajasidan kelib chiqqan holda nomlashini aytish mumkindir.

Adabiy tildagi ikkilamchi nomlanish hodisasi va shevadagi ikkilamchi nomlanish hodisasida ham amalda bo‘lgan umumiy jihatlar mavjud. Jumladan, har ikkisida ham bir nomni ikkinchi marta qayta nomlanishi, har ikkisida ham madaniyatni, farosatni aks etishi va yengillikka, ijobiylashishga bo‘lgan intilishning mavjudligini aytish mumkin. Shu o‘rinda Sherbaning: “Tilda mavjud bo‘lgan u yoki bu hodisalarda har bir davrga xos bo‘lgan til taraqqiyoti an’analari mavjud bo‘lib, bu esa jamiyat til amaliyoti tomonidan ma’qullangan va tasdiqlangan bo‘ladi”[Щерба Л. 1974:179], - degan fikrini keltirishimiz mumkin. Bular ularning bir-biriga uzviy bog‘liq jarayon deyishga asos bo‘la oladi. Bundan tashqari shuni ham aytish mumkinki, go‘yoki, ikkilamchi nominatsiya hosilasi dastlab shevalarda tug‘iladi-yu, keyinchalik o‘sib-ungandan so‘ng adabiy til sferasiga o‘tib, hayotini shu muhitda davom ettiradi deyish mumkin. Aynan shuning uchun ham ularni bir-biridan ayri hodisa ham, ayni hodisa ham deyolmaymiz. Ularning ikkisi ham bir-birini taqozo qiladigan, bir-birini to‘ldiradigan hodisalardir. Perifrazalar ijtimoiy muhitdagi voqea-hodisalar, narsa va buyumlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalaydi. Shevalarda esa kishilarga nisbatan ham bu jarayon ishlatiladi. Adabiy tilga nisbatan ikkilamchi nominatsiya hodisasi shevalarda kengroq qamrovga ega ekanligini anglatadi. Vaqtlar o‘tib, ular faol iste’mol darajasiga chiqib, sayqallanib adabiy til uchun ham foydalanish hodisasiga aylanishi mumkin. Qolaversa, perifrazalar milliy o‘ziga xosliklar, milliy urf-odatlar, milliy tushunchalardan oziqlanadi. Agar shunday bo‘lsa, uni hech ikkilanmasdan shevadagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi bilan uzviy aloqadagi jarayon deyishimiz mumkin.

Fikrlarimizni asoslash uchun hozirda shevalarimizda amalda bo‘lgan ba’zi ikkilamchi nominatsiya hodisasining hosilalariga misollar keltirsak. Misollar orqali bu jarayonning nozik jihatlarini anglab olishimiz mumkin bo‘ladi. Dastlab, shevadagi ikkilamchi nominatsiya hodisasiga misollar keltirsak.

Dehqonobod tumani Olmali qishlog‘ida istiqomat qiluvchi aholi orasida yangi kelin bo‘lib kelgan kelinchak o‘z turmush o‘rtog‘ining aka-ukasi va opa-singil(qayta nomlash qaynota va qaynonaga nisbatan ham ishlatiladi, ammo biz kuyovning aka-ukasi va opa-singillarini qayta nomlanishini qamrab olishga harakat qildik)larini quydagicha qayta nomlaganini ko‘rish mumkin[Ortiqov R. 2022:43]:

Yangi kelin bo‘lib kelgan kelinchak o‘z turmush o‘rtog‘ining aka va uka(qayin aka va qayin uka)larini quydagicha qayta nomlagan:

Mullo *(ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib),* ***Shep****(Tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib),* ***Soldat****(Ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib),* ***Polvon****(Ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib),* ***Qariya****(Xarakteridan kelib chiqib),* ***Qo‘qon****(Ijtimoiy voqelikdan kelib chiqib),* ***O‘ris****(Tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib(odatda, eng kichik yoshli qayin ukasiga nisbatan)),* ***Oqbachcha****(Tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib),* ***Malla****(Tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib),* ***Kenja****(ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib, nibatan ommalashgan)*

Yangi kelin bo‘lib kelgan kelinchak o‘z turmush o‘rtog‘ining opa va singil(qayin opa va qayin singil)larini quydagicha qayta nomlagan:

Suluv qiz*(tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib),* ***Ammasi, Katta ammasi, Kichik ammasi, Katta qiz, Kichik qiz, Oyqiz, Momojon, Chevar qiz****(ijtimoiy mavqeidan kelib chiqib,* ***Muallim****(ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib).* Yuqorida keltirilgan ikkilamchi nominatsiya hosilasining barchasida aniq bir qonuniyat va aniq bir asos mavjuddir.

Endi adabiy tildagi perifrazaga misollar keltiradigan bo‘lsak, ular ham o‘z qonuniyatiga va asoslariga egadir.

Dala malikasi *(makkajo‘xoriga nisbatan),* ***Oq oltin*** *(paxta tolasiga nisbatan),* ***Kumush tola*** *(ipak qurtiga nisbatan),* ***Binokor*** *(quruvchiga nisbatan),* ***Mirishkor*** *(dehqonga nisbatan),* ***Zarshunos*** *(zargarga nisbatan),* ***Zangori kema kapitani*** *(paxta terish mashinasiga nisbatan, bu perifraza ko‘proq frazemalar, ayniqsa, frazealogik qo‘shilma deb atalgan turga mos keladi*[Ҳозирги ўзбек адабий тили 1980:341]*)* ***Ojiza*** *(ayolga nisbatan),* ***Ziyokor****(ilm ahliga nibatan),* ***Qalamkash*** *(rassomga nisbatan),* ***Qora oltin****(neft va ko‘mirga nisbatan),* ***Fasllar kelinchagi****(bahor fasliga nisbatan),* ***Bahor elchisi****(qaldirg‘och va boychechakka nisbatan)* va boshqa shu kabi misollarni aytish mumkin.

Bu keltirgan misollarimiz ham o‘z vujudga kelish asosiga egadir. Bu ikki sferadagi ikkilamchi nominatsiya hosilasi ham o‘zi nomlayotgan obyektga chambarchas bog‘liq holda bo‘ladi. Shuning uchun ham ikkilamchi nom aytilganda birlamchi nom ostidagi obyektni tushunish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Nomlanish jarayoni ham o‘ziga xos asoslarga ega bo‘lgan holda kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Балли Ш. Французкая стилистика. –М., 1996.
2. Щерба Л. Языковая система речевая деятелност. –Л, 1974.
3. Ortiqov R. Qashqadaryo hududida yashovchi, qipchoq va qarluq lahjasida so‘zlashuvchi aholi nutqida ikkilamchi nominatsiya. – Toshekent: 2022.
4. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektalogiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021.

XORAZM SHEVALARIGA XOS BO‘LGAN AYRIM SINTAKTIK XUSUSIYATLAR

SOME SYNTACTIC FEATURES SPECIFIC TO THE DIALECTS OF KHORAZM

Bekturdiyeva Adolat Omonbayevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti stajor-o‘qituvchisi
adolatomonbayevna@gmail.com

Annotatsiya*. Mazkur maqolada dialektal matnlarga xos bo‘lgan sintaktik xususiyatlar, sintaktik qoliplar, nutq talabi bilan yuzaga keluvchi inversiya hodisasi va undagi o‘ziga xosliklar o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi (Janubiy Xorazm shevalari) misolida hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisiga qiyosan tahlil qilindi. Adabiy tildagi sintaktik qurilishning (sodda gap sintaksisi) o‘g‘uz lahjasida qanday ko‘rinishlarda voqelanishi dialektal misollar bilan izohlab berildi.*

O‘tgan asrda yaratilgan sheva matnlari sintaksisini o‘rganishda amaliy va nazariy yordam beruvchi qo‘llanmalarning bugungi kun tilshunoslik nuqtayi nazaridan nechog‘li ahamiyatli ekanligi ochiqlandi.

Kalit so‘zlar. *Dialektal nutq, sintaktik qolip, gapda so‘zlarning tartibi, inversiya, logik urg‘u, birinchi darajali bo‘laklar, ikkincchi darajali bo‘lklar, ilova qurilmalari.*

Abstract. *In this article, the syntactic features, syntactic patterns, the phenomenon of inversion that occurs due to the demand of speech and the peculiarities of the Uzbek dialect of the Uzbek language (dialects of the Southern Khorezm) are presented in the present Uzbek literature. compared to language syntax was analyzed. How the syntactic structure of the literary language (syntax of a simple sentence) is manifested in the Oghuz dialect was explained with dialectal examples. It was revealed how important the manuals that help in learning the syntax of dialects created in the last century are today from the point of view of linguistics.*

Keywords*. Dialectal speech, syntactic pattern, order of words in a sentence, inversion, logical emphasis, first-order clauses, second-order clauses, application devices.*

Leksik va grammatik jihatdan yaxlit butunlikka ega bo‘lgan gaplarda so‘zlarning joylashish o‘rni sintaksisning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. So‘z tartibi uslubiyat, so‘z boyligi va nutq madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Bilamizki, yozma nutqda mantiqiy urg‘u olgan so‘z kesimdan oldin joylashadi. Lekin dialektal nutqda bu hodisa tamoman erkin bo‘lib, shakllangan fikrni ifodalashda asosiy diqqat qaratilgan bo‘laklarning, ba’zan esa so‘zlovchi tomondan esga kelgan bo‘lakning nutq avvalida aytilishi, emotsional-ekspressivlikni oshirish, do‘q-po‘pisa ma’nosini kuchli ifodalash, asosiy fikrdan so‘ng esga kelgan qo‘shimcha axborotning berilishi bilan xarakterlanadi. Shularni inobatga olgan holda ayta olamizki, dialektal matnlar sintaksisini o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda dialektologiya sohasida qator siljishlar, yangi yo‘nalishlar yuzaga kelmoqda. O‘zbek tili(shu jumaladan uning asosini tashkil qiluvchi shevalar)ning leksik, fonetik va grammatik jihatdan turkiy tillar qatorida alohida o‘ringa ega ekanligini ochiqlashga yordam beruvchi ilmiy ishlar talaygina. Bir asr oldin rus turkologlari tomonidan o‘zbek shevalarini o‘rganish, tasniflash ishlari boshlab berildi. Bu jarayon bevosita o‘zbek dialektolog olimlari tomonidan davom ettirildi, talaygina o‘quv qo‘llanma va monografiyalar yozildi. Ularda o‘zbek shevalarining leksik, fonetik va morfologik xususiyatlari tahlil etildi. Biroq dialektal matnlarni sintaktik jihatdan o‘rganishga amaliy yordam beruvchi ilmiy ishlar barmoq bilan sanarli. Nazarimizda dialektal sintaksis biroz oqsab qolayotganday.

1984-yilda tilshunos M.Turopova tomonidan “O‘zbek shevalari sintaksisi” monografiyasi yozilgan bo‘lib, unda qarluq lahjasi matnlari faqat sodda gap sintaksisi yuzasidan tahlil qilindi. Qarluq lahjasida qo‘shma gaplar tuzilishi va turlari, ularni bog‘lovchi vositalar esa e’tibordan chetda qolganday. O‘g‘uz lahjasi matnlarini sintaktik tahlil qilishda yagona manba sifatida esa Y.Jumanazarovning “O‘zbek tili Janubiy Xorazm (O‘g‘uz) dialekti sintaksisi” (1976) qo‘llanmasini aytishimiz mumkin. Mazkur kitoblarda yozib olingan sheva matnlari sintaktik tahlil etildi, shevalargagina xos bo‘lgan sintaktik qoliplar asoslab berildi. Inversiya hodisasining o‘zbek tili dialektlarida namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xosliklar XX asr tilshunosligidagi qarashlar asosida o‘rganildi. O‘tgan asrda yaratilgan mazkur qo‘llanmalar, ulardagi sintaktik vositalar va gap tuzilishdagi qoliplar, sinataktik jarayonlarni izohlovchi qoidalar, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalar va ularning turlari bugungi kun zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qayta tahlilga muhtoj deb o‘ylaymiz.

Bilamizki, dialektal sintaksisning asosiy xususiyatlaridan biri gap qurilishining o‘ziga xosligidir. O‘zbek tilida mantiqiy (logik)urg‘u tartib bilan zich bog‘liq. Bo‘laklarning logik

darajasi odatda kesim bilan bo‘lgan masofaga qarab o‘lchanadi. O‘zbek adabiy tilida tinch ohang bilan talaffuz qilinadigan darak gaplarda so‘zlarning odatdagi tartibi quyidagicha ifodalangan: *payt holi+o‘rin holi+ega+vositali to‘ldiruvchi+vositasiz to‘ldiruvchi+ravish holi+kesim.*[1] Bu gap bo‘laklarining har biri ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanganda o‘z aniqlovchisiga ega bo‘ladi. Adabiy tildagi mana shu odatdagi tartib logik-grammatik, uslubiy talablar tufayli o‘zgarishlarga uchraydi. Ammo bir narsani alohida ta’kidlashimiz kerakki, bir-biri bilan yonma-yon joylashgan har qanday gap bo‘lagining o‘rin almashishi inversiyani hosil qilavermaydi. Inversiya- bir-biriga semantik, grammatik va intonatsiya jihatidan bog‘langan hokim-tobe bo‘laklarning o‘rin almashuvi hodisasidir.[2]

Umuman oladigan bo‘lsak, hozirgi o‘zbek adabiy tilida gapda so‘zlarning tartibi, asosan, erkin. Qat’iy tartib ilmiy va rasmiy uslub doirasidagina amal qiladi. Badiy asarlar tili va og‘zaki nutqda gap tarkibidagi bo‘laklarining joylashuvi nisbatan ixtiyoriy. Dialektal nutda esa bu holatga mutlaqo cheklov qo‘yilmagan. Bu esa o‘z-o‘zidan inversiya hodisasining shevalarda o‘rganilishini taqozo etadi. Tahlilga tortganimiz O‘g‘uz lahjasida inversiya hodisasining namoyon bo‘lishida bir qator o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. O‘g‘uz lahjasi shevalarida sodda gap tarkibidagi bo‘laklarning joylashishini boshqa bo‘laklarning xususiyatiga qarab turlicha ko‘rinishlarda uchratishimiz mumkin. Avvalo, Nutq qaratilgan harakat yoki holat oldin aytiladi. Bunday gaplarda logik urg‘u bevosita kesimning o‘ziga o‘tadi: ***ajttim apasina, uzattim qoŋšiγa, äkkäldim öjinä, göjdirdiŋ qazanni****(ovqatni kuydirish ma’nosida).* Odatda kesim oldidan kelgan bo‘lak logik urg‘u oladi, ammo mazkur holatlarda kesimning o‘zi oldin kelib, logik urg‘uni o‘zida aks ettirgan bo‘ladi. Shuningdek, Xorazm shevalarida qarg‘ish va olqish mazmunidagi gaplarda ham kesim oldin ifoda etiladi va unga alohida diqqat qilinadi, ko‘tariluvchi ohang beriladi. Bunda ega vazifasidagi olmoshlar tushiriladi: ***zinqildama maŋa, get*** *(adabiy tilda menga injiqlik qilma, ket).* Ikkinchidan, aniqlovchi aniqlanmish bo‘lak oldidan keladi: ***ïzγar jer, mizziq bala, ǯöji xatin.*** Aniqlovchi-aniqlanmish tipidagi butunlay butunliklarni o‘zbek tilining barcha shevalarida uchratishimiz mumkin. biroq, bu tartibning o‘zgarishi turli hodisalarni tug‘diradi. Avvalo, predikativlik munosabati yuzaga keladi, shuningdek, bu tipdagi birkmalarning komponentlari almashganda dialektal nutqqagina xos bo‘lgan leksik ma’nolar anglashiladi. O‘g‘uz lahjasi (Xiva, Yangiariq) vakillari nutqida faol qo‘llaniluvchi bu kabi so‘z birikmalarini quyidagi misollar asosida ko‘rishimiz mumkin:

qovin tuxim *(qovunning urug‘i),* ***tuxim qovin*** *(urug‘likka qo‘yilgan qovun ma’nosida);*

tandir nan *(tandirda yopilgan non),* ***nan tandir*** *(faqat non yopiladigan tandir)*

bu:daj un *(bug‘doyning uni),* ***un bu:daj*** *(urug‘likka yoki sotishga emas, tegirmondan chiqarib, nonga, xamirga ishlatish uchun qo‘yilgan bug‘doy)*

tut joproq *(tutning yaprog‘i),* ***jopraq tut*** *(pilla mavsumida pilla qurtga berish uchun alohida ekilgan tutlar)*

āγāč bešik *(yog‘ochdan yasalgan beshik),* ***bešik āγāč*** *(beshik yasashga mo‘ljallangan yog‘och)*

O‘g‘uz lahjasiga oid dialektlar matnlarda bitishuv yo‘li bilan tuzilgan birikmalarda holat ravishlari fe’l kesimdan keyin keladi. Ifoda maqsadiga ko‘ra buyruq, do‘q qilish ma’nolarini beradi: ***sän söllämä ǯonqildap****(sen maqtanib gapirma),* ***jeγlama aŋqirip*** *(baqirib yig‘lama ma’nosida).* Sheva vakillari nutqining eng ahamiyatli tomoni alohida e’tibor qaratilgan narsa va hodisalarning birinchi o‘rinda aytilishidir: ***bijim japti nanni****(kelinoyim yopti nonni),* ***dajim zöttï γaltäkni*** (tog‘am tuzatdi aravani). Bunday komponentlarda nonni boshqa kishi emas, aynan

[1] A.G‘.G‘ulomov, M.A.Asqarova.“Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Sintaksis”.Toshkent-1965.167-b.

[2] Ю.Жуманазаров. Ўзбек тили жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик курилиши. Тошкент-1976. 70-б.

*kelinoyi(**biji**)*si yopganligi, aravani o‘zga emas, balki tog‘a(***doji***)si tuzatganligi ma’nosi ta’kidlanadi. Shuningdek, o‘rin, payt, sabab va maqsad bildiruvchi so‘zlar ham nutq talabi bilan birinchi o‘rinda aytiladi: ***azanda getämiz atiza*** *(ertalab ketamiz dalaga),* ***ičim ošγanina qajtip gäldim*** *(raxmim kelgani sababli qaytib keldim)* ***ïčïŋ qisilmäsin däp bärdïm*** *(zerikma deb berdim).*

O‘g‘uz lahjasidagi matnlarni sodda gap sintaktiksisi jihatdan tahlil qilar ekanmiz, uning gap qurilishidagi individualliklaridan yana biri sifatida buyruq gaplarda to‘ldiruvchining kesimdan oldinga o‘tib ketishi holatini aytishimiz mumkin. Biroq bunday qoliplarni adabiy tilda ham uchratishimiz mumkin. ***Dïjmäsïnï ütmä ǯälläpkänï***(nimchaning tugmasini uzib olma), ***öǯäkni čiqarma dešana*** (buzoqni tashqariga chiqarma) va shu kabilar.

O‘g‘uz lahjasi sintaksisini o‘rgangan tilshunos olim Y.Jumanazarov o‘zining “O‘zbek tili Janubiy Xorazm (O‘g‘uz) dialektining sintaktik qurilishi” qo‘llanmasida o‘g‘uz shevalarida faqat so‘zlar emas, balki affiks-qo‘shimchalar ham o‘rin almashib, inversiya hodisasiga sababchi bo‘lishi haqidagi ma’lumotni keltirib o‘tadilar. Odatda, kesimlik affikslari ot kesimga qo‘shilmasdan, undan oldin kelgan otlashgan so‘zga qo‘shilib, qat’iylik, keskinlik ma’nolarini bildiradi ba bunday holat asosan, lirik matnlarda kuzatiladi:

*Jara ajtgan sözïm**dïr** süǯï,*
*ǯanimni alγan qara**dir** ǯöǯǯï (qo‘shiqdan).*

Umuman olganda, gap bo‘laklarining tartibi adabiy til uchun ham, dialektlar uchun ham muhim lingvistik-struktural sohadir. Tartibni umumlingvistik planda tekshirish nutqni ikki ko‘rinishga ajratishni talab etadi. Birinchisi tilning ishlanmmagan tabiiy shakli(dialektal nutq), ikkinchidan, asrlar davomida ishlanib kelayotgan yozma shakli. Tilning tabiiy, ishlanmagan sohalarida, ya’ni sheva va dialektlarda gap bo‘laklarining joylanishiga ma’lum chegara qo‘yib bo‘lmaydi, lekin ularni farqlash lozim. Gap tarkibida sintaktik jihatdan shakllangan bo‘laklarning odatdagi tartibi o‘zgarsa, ma’no kuchayadi, e’tibor qarartilgan narsagagina ahamiyat beriladi. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Xorazm shevalarida (ayrim so‘z birikmalarini e’tiborga olmaganda**)** ega va kesimning, ikkinchi darajali bo‘laklardan to‘ldiruvchi va holning o‘rni qat’iy emas, balki erkindir. Prof. A.G‘ulomovning ma’lumotlariga asoslanib, avval asosiy narsa, tasdiq yo inkor munosabat bildirilib, boshqalar undan keyin aytiladi, asosiy fikr bayon qilingach, esga kelgan narsa, har xil izohlar birgalikda qo‘shib ifoda etiladi. Bu kabi jarayonlarni izohlashdagi yana bir o‘ziga xoslik sifatida tilshunos M.Turopova dialektal nutqda faol qo‘llaniluvchi “ilova konstruksiyalari” termini ostidagi birliklarga diqqat qaratadi va qarluq lahjasi misollari asosida sintaktik tahlil qiladi. Uning ajratilgan bo‘lak, so‘z gaplar va qo‘shma gaplar bilan o‘xshash va farqli tomonlarini aytib o‘tadi. Ammo ishning bu qismi hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisi bilan qiyosan o‘rganilganda ancha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bu hodisani tahlil qilish alohida bir ilmiy jarayon ekanligini inobatga olgan holda, biz “ilova konstruksiyalari”ni o‘g‘uz lahjasidan yozib olingan matnlardagi ko‘rinishini aytish bilan cheklanamiz. ***Ariqi elata toja barip gäldïk, könä ǯojdeji qoŋšilara.*** Bunday “konstruksiya” larda tinglovchi asosiy fikrni aytadi *ariqi elata toja barip gäldïk,* ya’ni *narigi mahallaga to‘yga borib kelganlig*i. Bu gapning birinchi qismi, ikkinchi qismda esa esiga kelgan ma’lumot tugallangan ohangdan so‘ng, asosiy fikrga ilova tarzida bayon etiladi *könä ǯojdeji qoŋšilara ,*ya’ni *eski uyidagi qo‘shnilarnikiga* borganligi ma’nosi anglashiladi. Bunday misollarni sheva vakillari nutqida ko‘plab uchratishimiz mumkin, biroq ularning hammasini “ilova qurilmalari” termini ostida birlashtirish nechog‘li ahamiyatli ekanligi qayta tahlilga muhtojdir. ***Pālvān jāpni rašini basïb bir qïz gäljatir, sāčlari jerni sïradi.***

O‘g‘uz lahjasi(Janubiy Xorazm) shevalarini, asosan, qishloq*(Gandimyon, Pishkanik, Sayot)* shevalari misolida sintaktik jihatdan tekshirar ekanmiz, uning yetakchi shahar shevalaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishini ko‘rishimiz mumkin. Dialektga xos so‘z birikmasi va

gaplarning o‘zaro munosabatini o‘rganish, birinchidan, sheva va dialektlarning adabiy tilga aloqasini, ikkinchidan, yozma adabiy tildan farqini, uchinchidan esa, ayrim yozma yodgorliklar bilan yaqinligini va uning bugungi O‘g‘uz lahjasi shevalari bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari Xorazm shevalari sintaksisida turkman, ozarbayjon kabi o‘g‘uz tillariga xos xususiyatlarni shuningdek, qipchoq tillariga yaqin formalarni ham uchratamiz. Bu holat mazkur shevaning qardosh turkiy tillarga o‘zining til qurilishi, sistemasi, leskik qatlami bilan nechog‘lik yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.G‘.G‘ulomov, M.A.Asqarova.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Sintaksis.-Toshkent:1965.
2. Ю.Жуманазаров. Ўзбек тили жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик курилиши. -Тошкент:1976.
3. О.Мадраҳимов. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. Фан. –Тошкент: 1973.
4. О.Мадрахимов. Ўзбек тили ўғиз лахжасининг Хива шеваси.-Тошкент:1981.
5. M.Turopova. O‘zbek shevalari sintaksisi.-Toshkent:1984.
6. Ф.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: Фанлар академияси нашриёти. 1966.

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

TOPONIMIK BIRLIKLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

SPECIFIC ASPECTS OF TOPONYMIC UNITS

Mo‘minjon Turdibekov
Renessans ta’lim universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
mominjonturdibekov@mail.ru

Annotasiya. *Ushbu maqolada toponimlar o‘zi atagan obyekt haqida ko‘plab ma'lumotlar berishi va bu ma'lumotlarni bir necha fanlar kesimida o‘rganish mumkinligi faktik materiallar yordamida yechib beriladi. Toponimika bilan shug‘ullanishda, avvalo bir qancha fanlardan yetarlicha bilimga ega bo‘lishni taqozo etadi. Toponimika, bir vaqtning o‘zida tilshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya kabi fanlarning tadqiq obyekti bo‘lishi mumkin.*
Kalit so‘zlar: *Toponimika, geografik nom, makrotoponimiya, mikrotoponimiya, atoqli ot, turdosh ot, etnologiya, etnografiya, tarixiy maskan, o‘lkashunoslik.*

Abstract. *In this article, toponyms provide a lot of information about the object they name, and this information can be studied in several disciplines using factual materials. When dealing with toponymy, first of all, it is necessary to have sufficient knowledge of several disciplines. Toponymy can simultaneously be the object of research of such sciences as linguistics, geography, history, ethnography.*
Key words: *Toponymy, geographical name, macrotoponymy, microtoponymy, common name, related name, ethnology, ethnography, historical place, local history.*

Toponimika onomastikaning geografik nomlar (toponimlar), ularning qo‘llanishi, ma‘nosi, kelib chiqishi, tarkibi, tarqalish areali, davrlar davomida taraqqiyoti va o‘zgarishini o‘rganuvchi bo‘limidir.

Tildagi maxsus atab qo‘yilgan nomlar – atoqli otlar onomastikada o‘rganiladi. Toponimikaning tarkibiga oykonimiya (yunoncha: oikos – uy, boshpana), gidronimiya (yunoncha: hidro – suv), oronimiya (yunoncha: oros – tog‘), kosmonimiya (yunoncha: kosmos – koinot) va h.k. kiradi.

O‘rganilayotgan obyektning hajmi, ko‘lamiga ko‘ra toponimiya makrotoponimiya va mikrotoponimiya tarmoqlariga ajratiladi. Makrotoponimiya yirik geografik obyektlar, siyosiy-ma‘muriy bo‘linishlarning katta tizimini qamrab oladi. Mikrotoponimiya esa alohida olingan hajman kichik hududlarga mansub geografik nomlarni nazarda tutadi.

Atoqli ot darajasiga ko‘tarilgan joy nomlari onomastikaning tadqiq sohasiga kiradi. Onomastikada atoqli otlar ham, ular bilan aloqador bo‘lgan turdosh otlar ham tadqiq obyekti bo‘lishi mumkin.

Toponimlar o‘zi atagan obyekt haqida ko‘plab ma‘lumotlarni berishi mumkin-ki, tilning boshqa hodisasida bunday imkoniyat mavjud emas.

Toponimika onomastikaning bir sohasi sifatida uning tarkibiga kiruvchi yo‘nalishlardan

ayrim o‘ziga xosliklarga egaligi bilan ajralib turadi. Avvalo, toponimika qamrovida geografik birliklar o‘rganiladi, qolaversa, ushbu birliklar o‘ziga xos yasalish xususiyatlariga ega. Toponimiyada har bir obyekt o‘z nomiga ega. Ularning alohida yasalish qonuniyatlari, usullari mavjud. Toponimlar apellyativ leksika (atoqli otlar uchun asos bo‘lgan birliklar) bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, toponimlarda konversiya – ko‘chish usuli keng qo‘llanadi.

Toponimlar ijtimoiy talab, kundalik ehtiyoj natijasi sifatida yuzaga keladi. Joyga nom berish jarayoni ehtiyoj, taklif, nom, moslashish, nomlanish kabi bosqichlarni tashkil etadi. Bunda biror geografik obyektga nom berish ehtiyoji yuzaga keladi, obyektning biror jihati (tarixi, aholining etnik qatlami, kasb-kori, joyning relefi, biror yirik obyektga yaqinligi va h.k.)dan kelib chiqib, nom taklif etiladi. Kelishish yoki tasodifiylik asosida paydo bo‘lgan nom qisqa yoki uzoq muddat obyektni nomlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlarda qayd etilganidek, *toponimlarning paydo bo‘lishi, turg‘unlashishi yoki, aksincha, almashinishi, ma‘nosida turlicha o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi jamiyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘ladi. Har qanday toponimik o‘zgarish jamiyatda amalda bo‘lgan til qonuniyatlari doirasida sodir bo‘ladi*.

Demak, nom ehtiyoj sababli yuzaga keladi. Bunda quyidagilar asosiy omil vazifasini o‘taydi:

1) geografik obyektning tarixi bilan bog‘liq holatlar. Eskimachit

2) aholining etnik qatlami, ya‘ni hududda istiqomat qiladigan aholining aksariyat qismini tashkil etadigan kishilarning qaysi xalq, millat, qavm, qabila yoki elat vakili ekanligi: O‘zbeklar, Nayman, Qipchoqlar, Arablar;

3) aholining kasb-kori, mashg‘uloti yoki tirikchilik qilishining asosiy manbasi: Qassob guzar, Sovunchilar, Shakarchilar;

4) geografik obyekt joylashgan manzilning relyefi: Bog‘ishamol,

5) geografik manzilning biror yirik obyektga yaqinligi: Bozorboshi,

6) geografik obyektning hajmi, o‘lchami, egallagan maydoni, katta yoki kichikligi: Katta qal‘acha, Qipchoqcha, Kattatom, Katta qishloq.

7) geografik obyektning joylashgan o‘rni: O‘rtaqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Pastchaqir va boshqalar.

Yuqoridagilar asosida, kundalik turmushning barcha jabhalarida bo‘lganidek, nom berish ham insonlarning ma‘lum ehtiyojlari natijasi o‘laroq maydonga keladi deyish mumkin. Nom biror geografik obyektni, manzilni shunchaki atash vositasi bo‘lib qolmay, balki ularni bir-biridan farqlash vazifasini ham bajaradi. Kundalik turmush, ijtimoiy hayotda mavjud tushunchalar kabi nomlar ham uzoq shakllanish va taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Davrlar o‘tishi bilan nomlarda ham turli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlarga bir qancha sabablar asos bo‘lishi mumkin. Lekin toponimika sohasi mutaxassislari, qolaversa, keng jamoatchilik oldida tarixiy nomlarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga bekamu ko‘st etkazish vazifasi doimo dolzarb bo‘lib qoladi.

Toponimik birliklarda ma‘lum ma‘nodagi barqarorlik mavjud. Bu haqda fikr bildirgan tadqiqotchilar toponimlarda turli o‘zgarish kam kuzatilishi, bu o‘zgarishlarning uzoq davrlar davom etishi, o‘zgarish ro‘y berganda ham asl, avvalgi nom xalq tilida uzoq muddat saqlanishi haqida ma‘lumot beradilar.

Hattoki, tarix sahnasidan yo‘q bo‘lib ketgan xalqlar, millatlar va elatlarning tillariga xos toponimlar asrlar davomida yashab qolishi mumkin. To‘g‘ri, jamiyatning taraqqiy etishi bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o‘zgarishlar, yangilanishlar yuz beradi. Toponimlar ham ma‘lum ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ta‘sirida bo‘ladi. Demak, toponimlarda ham o‘zgarish, yangilanishlar yuzaga keladi. Bunday o‘zgarishlar, asosan, kichik geografik obyektlar – mayda

aholi punktlariga koʻproq taalluqli boʻladi. Bunda bir necha aholi punktlarining birlashishi yoki yangi qishloqlarning paydo boʻlishi asosiy rol oʻynaydi. Yirik hududni, tarixiy maskanlarni atash uchun qoʻllangan Samarqand, Toshkent, Xujand, Isfara, Konibodom, Oʻratepa va boshqa toponimlarda oʻzgarishlar kamdan-kam holatlarda roʻy beradi (Oʻzgarish asosan uning fonetikasida yuz berishi mumkin). Nomlardagi oʻzgarishlar xususida fikr yuritar ekan, A.V.Superanskaya ham turli taʻsirlar, oʻzgarishlar natijasida koʻpchilik toponimlarning shakli – tovush qiyofasi oʻzgarishi haqida maʻlumot bergan. Demak, toponimlarning oʻzgarmasligi haqidagi fikrning nisbiy ekanligini inobatga olish kerak.

Yuqorida nomlarning paydo boʻlish omillari haqida soʻz yuritgan edik. Aslida joyga nom tanlashda asosiy, hal qiluvchi rolni xalq oʻynaydi. Xalq tomonidan maʻlum joyga nom berilgach, shu nom geografik obyektning oʻziga xos belgisiga aylanadi, davrlar oʻtishi bilan nomning fonetik tarkibi oʻzgarishi sababli uning asl maʻnosidan uzoq boʻlgan talqinlar, turli afsona va rivoyatlar maydonga keladi. Bu xalq etimologiyasi deb yuritiladi. Xalq etimologiyasi deganda, kelib chiqish manbai va maʻnosi noaniq boʻlgan atoqli otlarni nom bilan unga asos boʻlgan turdosh leksema orasida shakliy va maʻnoviy oʻxshashlikka asoslanib yoki afsona va rivoyatlardagi maʻlumotlarga tayanib talqin qilish tushuniladi.

Baʻzan nomlarda shu qadar katta shakliy oʻzgarishlar boʻladiki, vaqt oʻtishi bilan uning etimologiyasini aniqlash mumkin boʻlmay qoladi. Bunday holatda fonetik hodisalardan tovush almashishi, asos yoki qoʻshimchadagi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz variantiga oʻtishi kabilardan kelib chiqib tahlil olib borish lozimdir. Chunki nomda har qanday oʻzgarish boʻlishiga qaramay, uning asl shaklini aniqlash, etimologiyasini oydinlashtirish shart. Qayd etib oʻtilganidek, toponimlar xalqimiz tarixi, milliy qadriyatlarimizning bir shakli sifatida biz uchun muhimdir. Shu sababli til lugʻat boyligining bir qismi boʻlgan toponimlarni toʻplash, tizimlashtirish, ularni ilmiy tahlil etish ham ilm-fan, ham maʻnaviyat nuqtai nazaridan muhim sanaladi.

Toponimlar oʻzi mansub boʻlgan hudud tarixi, madaniyati, aholining turmush tarzi, tili hamda joyning geografiyasi haqida maʻlumot beradigan muhim manbadir. Shuning uchun toponimlar nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya, geologiya, etnografiya kabi sohalarning ham oʻrganish obyekti sanaladi.

Joy nomlarini oʻrganuvchi toponimika yoʻnalishi oʻzining ichki xususiyatlaridan kelib chiqib bir necha fanlar bilan uzviy munosabatni, aloqadorlikni shakllantirgan. Toponimika sohasi joy nomlarini nafaqat lisoniy jihatlari, balki shakllanish tarixi, joyning geologiyasi, geografiyasi, mahalliy aholining etnik qatlami kabi masalalarni ham oʻrganadi. Shu sababli toponimikaning qaysi fanga mansubligi borasidagi savolga qatʻiy javob berish mushkuldir.

Filologlar toponimika – leksikologiyaning bir qismi, yaʻni lingvistik fan desalar, geograflar: “bu – geografiyaning bir qismi” deydilar. Atoqli rus tarixchilari A.I.Sobolevskiy va S.B.Veselovskiy toponimikaning tarix faniga tegishliligini targʻib qilganlar. A.I.Popov “Toponimika – tarixiy fan” sarlavhali asar ham yozgan. Bu “talash”ni hech qachon bir yoqli qilib boʻlmasa kerak. Ammo shu narsa anik-ki, toponimika uchala fan chegarasidagi sohadir. Kimki toponimika bilan astoydil shugʻullanmoqni istasa, u bir necha fanni oʻrganib olishi zarur: filolog – etnografiyani, tarixni, tabiiy va iqtisodiy geografiyani, tarixchi – filologiyani, geografiyani, geograf – tilni, tarix va etnografiyani bilishi lozim.

Demak, toponimikaning eng birinchi xususiyati – uning tilshunoslik, tarix, geografiya, geologiya hamda etnografiya fanlari doirasidan oʻrin olganligidir. Toponimik material nomlari zikr etilgan fanlarning barchasi uchun tadqiq manbai sanaladi.

Toponimlar oʻzi atalgan hududning tarixi, uning tarixiy taraqqiyot yoʻlini ham yorituvchi bir vosita sanaladi. Deyarli barcha toponimlar biror-bir tarixiy hodisa yoki jarayon haqida maʻlumot

beradi. Shuning uchun toponimlar xalq tarixini o‘rganish manbai sanaladi. Joy nomlarida turli davrlardagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar, u yerda yashagan xalqning etnik xususiyatlari o‘z aksini topadi. Mashhur toponimshunos olim S.Qorayev “Buxoro viloyatida Abumuslim degan tepalik bor. Abumuslim 747-749 yillarda arab xalifaligining sharqiy qismida – Movarounnahr bilan Xurosonda ummoviylar hukmdorligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonga boshchilik qilgan. Uning asl ismi Abdurahmon ibn Asad bo‘lib, Abumuslim uning laqabidir. Bu tepalik VIII asr o‘rtalarida Buxoroning hozirgi Qiziltepa qishlog‘i yaqinida Abumuslim qurdirgan istehkomning xarobasidir, deya ma‘lumot bergan”. Abumuslim nomli tepalik Navoiy viloyati hududida ham qayd etilgan.

Janubiy Qozog‘iston hududidagi toponimlar haqida fikr yuritgan olim Q.Muhammadjonov mazkur hudud asrlar davomida turli xalq va qabilalarning to‘qnashuvi, aralashuvi markazi bo‘lib kelganligi, bu yerda massaget, usun, kango‘y, gunn, keyinchalik qarluq, o‘g‘uz va qipchoq kabi yirik qabilalar yashaganligi, joy nomlari ham shu xalqlar tarixi bilan uzviy bog‘liqligi haqida ma‘lumot bergan.

Shimoliy Tojikiston hududida ham ko‘plab tarixiy nomlar mavjudki, ular xalqimiz va bu erda istiqomat qilgan xalqlarning tarixidan darak beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Xususan, O‘ratepa shahri nomi ham tariximizning ajralmas bir qismi bo‘lgan tarixiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan. O.I.Smirnova shahar nomini Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘diy hujjatlarda Ustrushana, qadimgi Yunoniston va Rim mualliflari, Arab va Xitoy solnomalari, Beruniy, Koshg‘ariy, Bobur asarlarida Suduyshina, Shuoydushana, Szebudana, Osrushana, O‘ratepa shakllarida, turli davrlarda bitilgan tarixiy manba va kitoblarda esa Sutulisena, Surushana, Osrushana, Usrushana kabi nomlar bilan yuritilganligi haqida ma‘lumot bergan.

Toponimlarni sharhlashda tarixiy voqealarga tayanish zarurati tug‘iladi. Toponimlarning tarix fani uchun nechog‘lik qimmatli ekanligini rus toponimist olimi V.A.Nikonovning “shaharlar vayron bo‘lgan, davlatlar yemirilgan, tillar ham, xalqlarning o‘zi ham yo‘q bo‘lib ketgan, nomlar esa yashab qolgan! Nozik so‘zlar granitdan ham mustahkam bo‘lib chiqqan..., o‘tmishning ma‘nodor guvohlari bo‘lgan geografik nomlar qimmatli tarixiy yodgorliklar orasida alohida davrlarning tirik aks-sadosi sifatida eng faxrli o‘rinni egallaydi” degan so‘zlaridan ham anglash mumkin.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni mashhur olim H.Hasanovning “joy nomlariga qarab qadimiy savdo yo‘llari, qabila va tillarning tarqalishi, qal‘a va manzillarning o‘rinlari, suv va dovonlarning xosiyatlari, foydali qazilmalar, cho‘llarda quduqlar bor-yo‘qligi, joyning o‘simlik, hayvonot hamda iqlimiy xususiyatlari, kasb-hunar, tarixiy voqealar, afsona-rivoyatlar va boshqa xil ma‘lumotlarni bilib olamizki, bular hammasi xalq xo‘jaligi, madaniyatimiz tarixi uchun juda muhimdir”, degan qarashi ham tasdiqlaydi.

Bundan anglashiladiki, joy nomlari hudud tarixining muayyan darakchisidir. Joy nomlari geografiya fani bilan ham uzviy aloqada turadi. Toponimlar, avvalo, geografik obyektlarning aniq manzillarini ko‘rsatadi. Shuning uchun toponimika geografiya fani uchun alohida ahamiyatli bo‘lib, ayrim olimlar uni geografik fanlar sirasiga qo‘shadilar. Haqiqatdan ham, toponimlarning ma‘nosini aniqlashda geografik qonuniyatlar qo‘l keladi.

Hech shubhasiz aytish mumkinki, joy nomlarini geografiyadan ajralgan holda o‘rganib bo‘lmaydi. Chunki toponimikaning muammolarini geograflarning ishtirokisiz hal qilish mavhum va noto‘g‘ri xulosalarni keltirib chiqaradi.

Geografik qonuniyatlarni bilmasdan turib, toponimlarning etimologiyasi haqida fikr bildirish ko‘pincha xatolikni yuzaga chiqarishi borasidagi quyidagi fikrlar asoslidir: “Karmana shahri dastlab Bodiyai Xurdak deb atalgan. Buni Abu Bakr Narshaxiy “ko‘zacha” deb izohlagan.

Bizning fikrimizcha, Bodiyai Xurdak “kichik sahro” degan ma‘noni bildiradi. Chunki bodiya so‘zining ikkinchi ma‘nosi “dasht, cho‘l, sahro” demakdir. Bunday deyish uchun asos shuki, birinchidan, Karmana shahri cho‘li biyobon o‘rovida joylashgan, xuddi shu ma‘noda Dashtak nomli qishloqlari ham bor, ikkinchidan, ko‘za so‘zidan ko‘ra cho‘l (dasht, sahro) termini toponimlar hosil qilish “huquqiga” ko‘proq ega”.

Tilshunoslar toponim, joy nomi, yer – joy nomi, geograflar geografik nom deb atashganligi va qo‘llashganligi ma‘lum. Geografiya ilmining bosh vositasi – xarita. Xarita uch unsurdan tuziladi: nom, chiziq, rang. Uch vositaning asosiysi – nomdir. Nomsiz xarita bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, jahonni nomlarsiz tushunish, anglash va tavsiflashning ham iloji yo‘q. Geografiyaning asosiy birligi nom bo‘lganligi bois geograflar har qanday hududni, mamlakatni, joy nomlari majmuini o‘rganishdan boshlagan. Asosan, nomning ma‘nosi va qaysi xalq tilidagi so‘z ekanligi bilan qiziqishgan. Keyinchalik joy nomlarining imlosi, talaffuzi, tarixi, ba‘zi lisoniy xususiyatlarini ham tadqiq qilishgan. Shuning uchun ham geograflar toponimika geografiya ilmining obyekti deb qarashgan.

Geografiya va toponimikaning aloqasi xususida E.M.Murzaev nomlar vositasida hududning tabiiy-geografik, aholining joylashish xususiyatlarini, aholi manzillarining shakllanish jihatlarini aniqlash mumkinligini, nomlar ko‘p holatlarda o‘simliklar, jonivorlar, foydali qazilmalar, qishloqlar, daryolar va boshqa geografik obyektlarning nomlari bo‘lganda, u yoki bu hududning avvalgi yoki hozirgi tabiiy sharoiti haqida qo‘shimcha manba bo‘lishini qayd etgan. Shuningdek, toponimika topografga joyni suratga olishda unga tanish bo‘lmagan, ayniqsa, boshqa tilga xos bo‘lgan geografik nomni xaritaga ko‘chirishda yordamlashadi. Geografik nomlarni o‘rganish orqali Yerni geografik jihatdan bilishning va geografiya fani tarixining qiziqarli sahifalari ochiladi, toponimlar esa uning bosqichlarini o‘zida aks ettiradi.

T.Enazarov toponimlar odamlarning makon hamda zamonda qanday harakat qilishini ham belgilaydi deb hisoblaydi. Chunki muayyan hududda joylashgan son-sanoqsiz obyektlar qurshovida insonning adashmasdan u obyektdan bu obyektga borishi, obyektlar orasidan o‘ziga zarur obyektni topa olishi, makonda mavjud bo‘lgan turli xil geografik muhitlarni bir-biridan farqlay olishi, obyektlarning bir-biriga nisbatan joylashuvidan xabardor bo‘lishi katta ma‘rifiy-ma‘naviy ahamiyatga egaligidandir.

Toponimlar tadqiqida geografik kuzatishlarning ahamiyati haqida fikr yuritgan Yu.A.Karpenko real hayotda nomning tug‘ilishiga turtki bo‘lgan alomatni topish toponimika uchun nihoyatda muhimligi, tilshunoslik faqatgina toponim qanday paydo bo‘ldi degan masalani batafsil tahlil qilsa, geografiya ko‘pincha u nima uchun tug‘ilganligi haqida ma‘lumot berish mumkinligini ko‘rsatgan. Olim toponimika predmetini tashkil qiladigan obyektlar nomlari o‘rganilar ekan, geografiya tadqiqotning keng frontida toponimiya bilan mustahkam bog‘liqlikda bo‘lishi hamda bunda muhim jihatlardan biri toponimik etimologiya bo‘lib hisoblanishini uqtirgan.

Rus olimi V.A.Nikonov toponimika – tilshunoslikning til tarixi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya va boshqa bo‘limlari bilan kesishadigan, tarix, geografiya va etnografiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan maxsus bo‘limi ekanligini uqtirgan.

Anglash mumkinki, toponimiya tilshunoslik fani sohasi bo‘lsa-da, uning muammolari geografiya, tarix, etnografiya, o‘lkashunoslik kabi fanlar ishtirokida hal etiladi. Demak, toponimikada lingvistika chegarasida turib tarix, geografiya va boshqa fanlarning materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq, albatta.

Bizningcha, toponimika qaysi fan qatoriga kirishi borasidagi munozarani atoqli nomshunos olim S.Qorayevning quyidagi fikrlari uzil-kesil hal etgan: “ T oponimika shaharlar, qishloqlar,

daryolar, ko‘llar, tog‘lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o‘rganar ekan, bu fan lingvistlarga ham, geograflarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi. Geografik nomlar, ya‘ni toponimlar til lug‘at tarkibining bir qismi bo‘lib, til qonuniyatlariga bo‘ysunadi; so‘zni albatta tilshunoslik – lingvistika fani o‘rganishi kerak. Demak, toponimika atoqli otlarni o‘rganadigan onomastika fanining bir qismi bo‘lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi. Ikkinchi tomondan, geografik nomlar kartaning eng muhim elementi bo‘lib, biror mamlakat, davlat yoki o‘lka tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Ana shu nuqtai nazardan toponimikani geografik fanlar jumlasiga kiritish mumkin. Shu bilan birgalikda, joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Joylarga qanday nom berish, avvalo, jamiyatning muayyan bosqichidagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Joy nomlarining tarixini bilmasdan turib, toponimika bilan shug‘ullanish kutilgan natijani bermaydi. Ana shuning uchun ham toponimika tarix fanlari qatoridan o‘rin oladi. Shunday qilib, toponimika uchta katta soha: tilshunoslik, geografiya, tarix orasidagi fandir. Shunga binoan toponimikaning talaygina faktlari xarakter jihatidan xilma-xil bo‘lgan ko‘plab material – lingvistik, tarixiy va geografik material jalb qilingandangina to‘g‘ri izohlab berilishi mumkin”.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, toponimika tilshunoslikning alohida sohasi sanalgan onomastikaning tarkibiy qismidir. Toponimika lingvistika doirasida turib tarix, geografiya, etnografiya, o‘lkashunoslik va boshqa bir qator fanlar bilan aloqadorlikda tadqiq olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Смолиская Г.П. Топонимический ареал и вопроси реконструксии лексической системи язика (на словянском материале) // Вопроси язикознания. – 1978. – № 4. – С.115.
2. Karimov S.A., Bo‘riev S.N. O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – T.: Fan, 2006. – B.15.
3. Mullazode S.M. Toponimiya severnix rayonov Azerbaydjana. – Baku: Maarif, 1979. – S.137-138.
4. Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – С.49.
5. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B. 90.
6. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 1965. – B.22.
7. Muhammadjonov Q. Toponimlar – xalq tarixini o‘rganish manbai // “Onomastika Uzbekitana”. Tezisi 2- respublikanskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Karshi, 14-16 sentyabr 1989. – S.55.
8. Смирнова О.И. Очерки из истори Согда. – М., 1970. – С. 15-24.Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С.12-13.
9. Qorayev S. Toponimika va tarixiy geografiya // “Joy nomlari – xalq tili va ma'naviyatining nodir merosi” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Navoiy, 1998. – B.99-100.
10. Jonqobilov I. Geografiya va toponimika // “Nomshunos olim” Ilmiy-uslubiy nashr.– Qarshi, 2008. – B.137-138.
11. Murzaev E.M. Ocherki toponimiki. – M.: Misl, 1974. – S.81.
12. Enazarov T. O‘zbekistondagi ba'zi toponimlarning etimologik talqini. – T., 2004. – B.4.
13. Карпенко Ю.А. Лингвистика-география-история // Проблеми топонимического

этимологизирования. СС. –М., 1970. – Вип.4. – С.91.Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978. – B.7.
14. Turdibekov M. Shimoliy Tojikiston tarixiy toponimlari. – Toshkent: Nodirabegim, 2022.

DIALEKTAL KORPUS YARATISH TAMOYILLARI

PRINCIPLES OF CREATION OF DIALECTAL CORPUS

Ibragimova Zamira Yuldashevna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
i.zamira@karsu.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilining dialektal korpusini yaratishda jahon tilshunoslari tomonidan yaratilgan dialektal korpuslar bazasining tajribalariga suyangan holda ilmiy-nazariy, qiyosiy-tarixiy, etimologik tarzda o‘rganishga harakat qilindi. Chunki milliy tilimizning dialektal korpusini yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan ekanligini ta’kidlash joiz.*
Kalit so‘zlar: *dialektal korpus, shevalar bazasi, dialektal transkripsiya,*

Abstract. *In this article, an attempt was made to study the dialectal corpus of the Uzbek language in a scientific-theoretical, comparative-historical, etymological way, relying on the experiences of dialectal corpuses created by world linguists. Because it should be noted that the creation of the dialectal corpus of our national language is one of the urgent problems of today.*
Key words: *dialectal corpus, dialect database, dialectal transcription, electronic dictionary, electronic textbooks.*

Dunyo tilshunosligida XXI asrga kelib, korpus muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish harakati kuchaydi. Hozirda til korpuslarining ijtimoiy ahamiyati, tuzish tamoyillari, lingvististik teglar tizimini ishlab chiqish, avtomatik razmetkalash masalalari bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda globallashuv jarayonida dunyo tamaddunining virtual olamga ko‘chishi, ayrim tillar qo‘llanishining kengayishi boshqa tillarning saqlanib qolishiga xavf solmoqda, shuning uchun mazkur korpuslar tilning yashab qolishi uchun imkoniyatlardan biri sifatida ahamiyatlidir. Korpus borasida fanda o‘ziga xos ilmiy qaydlar mavjud.

Jahon tilshunosligida raqamli axborot vositalaridan foydalanish qulayligi hamda internet orqali milliy tillarni o‘zlashtirishga bo‘lgan harakat ta’sirida milliy korpuslarda shevalar bazasini yaratish tendensiyasi o‘smoqda. Natijada tilda mavjud dialektlarni nafaqat lingvistik, balki amaliy jihatdan tadqiq etish, bu orqali sheva birliklarini saqlab qolish, avloddan-avlodga etkazish imkoniyatining ko‘lami kengaymoqda: milliy til korpuslarida sheva birliklarini lingvistik aniqlashning umumiy tamoyillarini o‘rganish, shevalar korpusining janrlar bo‘yicha metarazmetkasini ishlab chiqish, dialektal transkripsiya lingvistik ta’minoti tizimini ishlab chiqishning amaliy ahamiyati oshmoqda.

O‘zbek tilining dialektal korpusining lingvistik bazasini yaratish, o‘zbek shevashunosligi muammolarini amaliy tilshunoslik tamoyillari asosida tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirishda

ilmiy nazariy asoslash bugunning muhim masalalaridir. Bunda o‘zbek tili shevalari korpusini shakllantirish orqali uning kompyuter uslubi, shevalarning xorijiy tillarga tarjima dasturlari va lug‘atlar, elektron darsliklar yaratish bilan bog‘liq ilmiy metodik ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu orada erishilgan natijalarni amaliyotga keng tatbiq etish muammosi hal etiladi.

O‘zbek dialektal korpusining ichki tizimiga oid ma’lumotlar, korpus bazasini tadrijiy to‘ldirish, ma’lumotlarni kiritish ketma-ketligiga doir lingvistik ko‘rsatmalar bilan birga shevalar korpusining ichki tizimda dialektal matnlarning *content, topic, jenre, source, locations* kabi maydonlar to‘ldirilishiga doir qarashlar aks ettirilishi lozim. Shunday ekan, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalari rivojlanishini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin va shu bilan birga lingvistika oldida turgan masalalari yechimida ham asta-sekin kompyuter texnologiyalari yordamida tuzilgan elektron matn korpuslariga murojaat qilish boshlangan[1:35], amaliy lingvistikada o‘zbek milliy korpusini tuzish muammolari asta-sekin o‘z yechimini topib kelmoqda.

O‘zbek dialektal korpusi ichki tizimiga ma’lumotlar kiritishga doir tadqiqotlarni o‘tkazishda “kuzatish”, “suhbat”, “hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish”, “ketma-ket joylash” metodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Dunyoda sun’iy intellektning dialektal korpuslar tuzish jarayonidagi o‘rniga alohida e’tibor berilishini Britaniya, Xelsinki, Gruziya, Rus tili korpusi, Hindiston (dialektlari korpusi), Xitoy Mandarin dialektlari korpusi, arab dialektlari sotsial Mediya korpusi misolida ko‘rib o‘tish mumkin. O‘zbek tili milliy dialektal korpusini tuzish, uning lingvistik va texnologik asoslari doirasida olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar va bu jarayonni o‘zbek tili korpusi (elektron resusrlar) [2: 37], o‘zbek tili ta’limiy korpusi, o‘zbek tili mualliflik korpusi[3:79], o‘zbek-ingliz, turk, koreys tili parallel korpusi[4:76], ustida olib borilayotgan amaliy tadqiqotlarda ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Korpus interfeysida qipchoq, qarluq, o‘g‘uz shevalari ichida she’riy, nasriy, she’riy-nasriy matnlararo; iborali matn, qissa, roman, afsona, aytim, matal, lof, intervyu, suhbat, hikoya, qo‘shiq, maqol, topishmoq, ertak, lapar, doston kabi janrlararo; ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-ma’rifiy mavzulararo filtrlash tugmalari kiritilgan bo‘lib, ushbu yuklangan ma’lumotlardan qipchoq, qarluq, o‘g‘uz shevalari qo‘llanish chastotasi, shevalarning mavzuviy qamrovi, umumiy va xususiy funksionalligi aniqlanadi[5:46]. Dialektal korpusning ichki oynasi, avvalo, autentifikatsiya (bu o‘zini tekshirish jarayoni), avtorizatsiya (bu kirish huquqini tekshirish jarayoni)[6:196] maydonida groups (guruhlar) va users (korpus boshqaruvchisi) qismalaridan iborat va users maydoni subdialektalkorpusi admini tomonidan kengaytirilishi mumkin[7:9].

Xullas, o‘zbek dialektal korpusini yaratishda jahon tilshunoslarning dialektal korpusini ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda o‘rganishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaliyarov U. M. O‘zbek ta’limiy korpusida dialektologik birliklarining ifodasi // Mejdunarodnыy jurnal iskusstvo slova. – 2021. – T. 4. – №. 4.

2. Abduraxmonova N. “O‘zbek tili korpusini yaratishda lingvistik annotatsiyalash tamoyillari.” Mejdunarodnыy jurnal iskusstvo slova 4.1-1 (2021).

3. Xamroeva SH. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Buxoro, 2018.

4. Liang Zhao, Eleanor Chodroff. The ManDi Corpus: A Spoken Corpus of Mandarin Regional Dialects. /Proceedings of the 13th Conference on Language Resources and Evaluation (LREC 2022)/ -P. 1985–1990 Marseille, 20-25. 07. 2022.

5. Abdulhakimovna K. M. Software and data entry principles of the online dialect database // current research journal of philological sciences. – 2022. – T. 3. – №. 11. – S. 46-53.

6. Xidirova I., Xidirova N. Gender Characteristics of Family Speech Speech (On the Example of the Uzbek Family) //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – T. 1. – №. 2. – S. 196-199.

7. Xolova Muyassar O‘zbek milliy shevalar korpusi tadqiqi. Monografiya. T. 2022 y. 149 b.

8. IBRAGIMOVA, Z. Y., & YABBARBERGENOVA, S. (2022). WORDS OF POSITIVE WISHES OF THE UZBEK AND KARAKALPAK PEOPLES AROUND THE TABLE. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Uchrediteli: Teoreticheskaya i prikladnaya nauka, (3), 685-688.

ABSTRAKSIYA ILMIY TADQIQOT METODI SIFATIDA

ABSTRACTION AS A METHOD OF SCIENTIFIC RESEARCH

Hakimova Muhayyo Karimovna
filologiya fanlari doktori, professor v. b.,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada abstraksiya ilmiy tadqiqot metodi sifatida o‘rganilgan. Dastlab uning bilish shakli ekanligi ochib berilgan. So‘ngra esa ilmiy tadqiqot metodi sifatidagi sifatidagi tavsifi berilgan. Mazkur metodning mohiyati sifatida hodisa, jarayon, predmetlarni o‘rganishda ularning ahamiyatli bo‘lmagan tomon va xususiyatlarini hisobga olmaslik, tadqiqotchining asosiy diqqatini o‘rganilayotgan jihat va xususiyatga qaratish kabi jihatlar yoritilgan*

Kalit so‘zlar: *abstraksiya, ilmiy tadqiqot metodi, bilish shakli, ajratilganlik, aqliy bilish, hissiy bilish, tushuncha.*

Abstract. *This article discusses abstraction as a method of scientific research. Initially, it was discovered that this is a form of cognition. Then a description of the quality of the scientific research method is given. As the essence of this method, such aspects as the phenomenon, the process, the neglect of their non-essential side and characteristics in the study of objects, the focus of the researcher's main attention on the studied aspect and feature are highlighted*

Key words: *abstraction, method of scientific research, form of cognition, separa*

Til taraqqiyoti insoniyat tamadduni, aqliy, ruhiy olamining shakllanishini o‘zida aks ettiradi. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabati chuqurlashib, olamni va o‘zini anglash jarayoni ham murakkablashib bordi. Bunday evolyusion hodisalar, albatta, tilda o‘z ifodasini topib boradi. Tilda abstrakt so‘zlarning hosil bo‘lishi ham (konkret so‘zlardan keyinroq) yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Abstrakt so‘zlar inson fikrlashi taraqqiyotining quyiroq bosqichida shakllangan abstraksiya jarayonining mahsulidir. [Брикотнина 2005: 45-46]

Insonlar, avvalo, olamni sezgi a’zolari yordamida bilganlar. Sezgi a’zolari yordamida o‘zlashtirilgan olamning hissiy manzarasi insoniyatga muhitga moslashish, muayyan sharoitda

yashab ketish imkonini berdi. Lekin taraqqiy etish uchun hissiy bilishning o‘zi yetarli emas edi. A.V. Brushlinskiyning ta’kidlashicha, sezgi a’zolari orqali hosil qilingan olamning hissiy manzarasi juda zarur, lekin predmet va hodisalarni, ularning mohiyatini, o‘zaro munosabatlarini chuqur, har tomonlama o‘rganish uchun yetarli emas. [Брушлинский 1986: 323]

Shu tariqa bilishning murakkab shakli, aqliy bilish, xususan, abstraksiya vujudga keldi.

«Abstraksiya» termini birinchi bo‘lib falsafaga oid asarlarda ishlatilgan. «Abstraksiya» ilk bor qadimgi Yunon faylasufi Aristotel tomonidan qo‘llangan. Rim faylasufi Boesiy (Anatsiy Manliy Severin, 480-524) ilmiy muomalaga kiritgan. [Фалсафа: қомусий луғат 2004: 7].

Abstraksiya falsafiy gnoseologik masalalardan bo‘lib, mazkur termin ostida uchta o‘zaro bog‘liq hodisa tushuniladi:

1. Bilish shakli. Abstraksiya bilish shakli sifatida predmet yoki hodisaning muayyan bir xususiyat va munosabatlarini fikran ajratish jarayoni. Abstraksiyalash jarayoni.
2. Abstraksiya mahsuli. Abstraksiya termini abstraksiyalash jarayonining mahsuli, natijasi uchun ham qo‘llanadi: abstrakt predmet.
3. Ilmiy tekshirish metodi. Abstraksiya tekshirish metodi sifatida ba’zi [Туленов , Ғофуров 1997: 82].

1. Falsafaga oid qomusiy lug‘atda abstraksiyaga shunday ta’rif beriladi: «Abstraksiya – bilish shakllaridan biri bo‘lib, u narsalarning bir qancha xossalarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni fikran nazardan soqit qilishdan hamda biror bir xossa yoki munosabatni ajratib ko‘rsatishdan iborat» [http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy].

Abstraksiya narsa va hodisalarning xususiyat va munosabatlarini boshqalaridan aqliy ajratish operatsiyasidir [http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy]. V.Kemerovning falsafiy ensiklopediyasida berilgan ta’rif esa ko‘proq ilmiy tekshirish metodini o‘zida aks ettiradi: «Abstraksiya nazariy va amaliy vazifalarni yechish, ma’naviy masalalarni anglash yo‘lida umumiy, o‘ziga xos va universal xususiyatlarni alohida o‘rganish maqsadida biror-bir xususiyat, munosabatlarni obyektidan aqliy ajratish jarayonidir. Abstraksiya ushbu jarayonning natijasi hamdir [Горский 1961: 21].

Tilshunoslikka oid izohli lug‘atlarda esa *abstraksiya* so‘zining ma’nosiga shunday ta’riflar beriladi:

Abstraksiya. 1. Bilishda narsa, hodisalarning muhim va muayyan belgi va qonuniyatlarini ajratish, bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida ularning juz’iy, ikkinchi darajali tomonlari yoki bog‘lanishlaridan xayolan uzoqlashib fikr yuritishdir [O‘TIL V, 2006: 28].

Abstraksiya – predmet yoki hodisaning ahamiyatli belgilarini ajratish uchun u yoki bu ahamiyatli bo‘lmagan jihat, xususiyat, aloqalarini fikran (xayolan) e’tibordan soqit qilishdir [http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy].

«Abstraksiya jarayonining natijasida turlicha fikrlar vujudga keladi. Masalan, tushunchalar (inson, hayvon, o‘simlik …), «abstrakt predmet» termini bilan nomlanuvchi predmetlarning alohida xususiyat va munosabatlari haqidagi fikrlar (oqlik, yetti, hajm, uzunlik, «teskari proporsional bog‘liqlik» …), ideal ob’ektlar haqidagi fikrlar (“absolyut qayishqoq tana”, nuqta)» [Бюиссанс 2016: 21]. Abstraksiya natijalarining turlicha ekanligi, jarayonning o‘zi ham har xil ko‘rinishlarda mavjudligini anglatadi. Abstraksiyaning bir necha turlari bo‘lib, asosiylari quyidagilardir:

- sodda hissiy abstraksiya – predmet yoki hodisaning ba’zi bir xususiyat va sifatlarini ajratish uchun boshqa xususiyat va sifatlari e’tibordan soqit qilinadi. Masalan, predmetning rangi uning shaklidan ajratiladi yoki aksincha. Voqelik cheksiz xilma-xillikka ega bo‘lib, inson idroki

uning barcha tomonlarini qamrab ololmaydi. Shu sababli sodda hissiy abstraksiya har qanday idrok jarayonida yuz beradi.

- Umumlashtiruvchi abstraksiya deb predmetning o‘xshamagan, farqli xususiyatlaridan uzoqlashib va bir vaqtning o‘zida o‘xshash, bir xil, umumiy xususiyatlarini ajratishga aytiladi. Mazkur abstraksiya natijasida tushuncha shakllanadi. Ma’lumki, tushunchada predmetlarning umumiy, muhim belgilari aks etadi.
- Ideallashtirish – real empirik hodisalarni ularning real kamchiliklaridan ajratgan holda ideallashgan sxemaga solish. Buning natijasida ideal ob’ektlar haqidagi tushunchalar shakllanadi. Masalan, «ideal jamiyat», «ideal gaz» kabi.
- Ayiruvchi (izolyatsiyalovchi) abstraksiya muayyan xususiyat va munosabatlarni predmetdan yoki boshqa xususiyatlaridan ajratish jarayonidir. Abstraksiyaning bu turi natijasida «abstrakt predmet» hosil bo‘ladi: *go‘zallik, qattiqlik* kabi. Mazkur abstraksiyada ham umumlashtirish mavjud bo‘lsa-da, farqli tomoni shundaki, ajratilayotgan xususiyat va munosabatlar fikran predmetlashtiriladi, moddiy tashuvchisidan (egasidan) alohida predmet sifatida idrok qilinadi [Бюиссанс 2016: 24-25].

Abstraksiya bilish shakli va uning natijasi sifatida inson tafakkurining muhim xususiyatlaridan biridir. «Bilish jarayonida biz narsaning hamma tomonlarini, xususiyatini, sifatini, uning boshqa narsa va hodisalar bilan bo‘lgan son-sanoqsiz munosabatlarini birdan qamrab ololmaymiz. Buyumni yaxlit holda, har tomonlama tahlil qilish yordamida chuqur o‘rganish uchun uni fikran parchalab, bo‘lib yuborish asosida muhim xususiyat, aloqa va munosabatlarini aniqlash lozim. Ya’ni narsaning alohida bir xususiyatini uning boshqa xususiyatlaridan fikran ajratish va uning barcha boshqa xususiyatlari, sifatlaridan diqqat-e’tiborni vaqtincha uzoqlashtirish kerak yoki boshqacha aytganda, narsaning ikkinchi darajali muayyan jihatlaridan uzoqlashib, uning muhim belgilari ajratiladi» [Rahmatullayev 2006: 5].

Abstraksiya hayotimizning har bir jabhasida, har bir lahzada bilish shakli sifatida mavjuddir. Masalan, biz kimningdir ma’naviyatini tahlil qilganimizda, jismoniy xususiyatlarini; tashqi ko‘rinishi haqida fikr yuritganda, ichki olamini e’tiborga olmaymiz. Mana shu bilish uchun ahamiyatli jihatning muhim bo‘lmagan jihatdan fikran ajratib olish abstraksiyadir.

Til juda murakkab hodisa bo‘lib, uning mavjudligi, mohiyati ko‘plab mezonlar bilan o‘lchanadi. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, «Odam bilan bog‘liq hodisalar orasida tilday murakkab, muhtasham va muhtaram boshqa bir hodisa yo‘q. Uning murakkabligi tilsim qadardir… [Кемеров 1998: 3]. Ushbu murakkab hodisani tadqiq qilish ham oson kechmaydi. «Necha ming yillardan beri ne-ne yorug‘ aql egalari til tilsimining sanoqsiz jumboqlarini yechish yo‘lida sa’y-harakat qiladi, tinimsiz izlanadi, ammo bu tilsim bag‘ridagi sinoatlar osonlikcha aqlga bo‘y bermaydi» [Кемеров 1998: 3].

Tilshunos serqirra tabiatga ega tilning muayyan birligini yoki xususiyatini tadqiq qilar ekan, u ushbu tadqiqot uchun muhim bo‘lmagan jihatlaridan abstraksiyalashishi lozim. Aks holda ilmiy maqsadga erishilmaydi, ob’ektning mohiyati ochilmay qolaveradi. Masalan, «fonema» birligi fenomen sifatida tovushning lisoniy-funksional belgilaridan iborat. Tabiatan «a» fonemasi mavjud emas. «A» tovushi bor va u «a» fonemasidan farqli hodisa. «A» tovushi cho‘ziq yoki qisqa, past yoki baland, g‘amgin yoki quvnoq ohangda talaffuz qilinishi mumkin. O‘zbeklar yiqilganda, hayron bo‘lganda yoki so‘roq ma’nosini anglatish uchun ham «a» tovushini talaffuz qiladi. Agar biz «a» tovushini tadqiq qilmoqchi bo‘lsak, uni fizikaviy, psixologik, musiqaviy nuqtai nazarlardan ham o‘rganishimiz lozim. Lekin tilshunos uchun tovushning bu xususiyatlari muhim emas. Tilshunos uchun tovushning lisoniy vazifa bajarishi ahamiyatlidir. Shu sababli tovushning

lisoniy xususiyatlari lingvistika uchun muhim bo‘lmagan jihatlaridan abstraksiyalangan va u «fonema» termini ostida tadqiq qilinadi.

S.Shaumyanning «Zamonaviy tilshunoslikda abstraksiya» nomli maqolasida lisoniy abstraksiya falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqola muallifining fikricha, boshqa soha tadqiqotchilari uchun yordam beruvchi mikroskoplar, kimyoviy reaktivlar kabi texnik vositalar tilshunos uchun yordam bera olmaydi. Tilning mohiyatini ochish uchun faqat abstraksiya jarayoni bilish metodi sifatida yordamga keladi. Til birliklari, jumladan, fonema, ideallashtiruvchi abstraksiya natijasi – ideal tovush sifatida o‘rganiladi. Zero, har bir tovushning o‘ziga xosliklari, nutqiy qo‘llanishlari, o‘zaro ta’sirlari, ottenkalari, talaffuz qilayotgan kishining fiziologik xususiyatlari e’tibordan soqit qilinib, tilshunos ongli ravishda o‘zi yaratgan ideal fonema birligini tadqiq qiladi [Фалсафа: қомусий луғат 2004: 34]. Uning bu qarashlariga Sh.Rahmatullaevning quyidagi fikrlari hamohangdir: «Lisoniy birlik sifatida leksema va morfema mavhum birlik hisoblanadi. Miyaning til xotirasi qismida har bir leksemaning, morfemaning alohida ramzi bo‘lib, ana shu ramzdagi axborotdan foydalanish qoidalari ham mavjud; har ikkisi asosida leksemalarning, morfemalarning talaffuz birligi holati yuzaga keltiriladi; leksema va morfema ana shunday nutqiy birlik holatida moddiy birlik, segment birlik sifatida namoyon bo‘ladi» [Туленов 1997: 6].

E.Byuissans maqolalarining birida har qanday til fakti abstrakt mohiyatga ega bo‘lib, ulardagi abstraksiyaning darajasiga ko‘ra diskurs nutqqa, til diskursga nisbatan abstrakt; diskurs tilga, nutq diskursga nisbatan konkret degan fikrni ilgari suradi. Olim so‘zlarni tashkil etuvchi tovushlarning ohangiga to‘xtalar ekan, ayni bir ma’no turlicha ohang bilan aytilishi mumkinligini yoritadi. Masalan, «U qachon keladi?» va «U nimani istaydi?» jumlalari bir xil ohang bilan talaffuz qilinishi yoki so‘zlovchining ixtiyoriga ko‘ra turlicha ohangda aytilishi, bu ohanglar ma’noga ta’sir qilmasligini ta’kidlar ekan, birliklarning lisoniy vazifasini unga ta’sir qilmaydigan xususiyatlardan ajratib o‘rganishni lisoniy funksional abstraksiya deb belgilaydi [Брушлинский 1986: 209-216].

Til va nutq bir-biri bilan abstraktlik va konkretlik munosabatida ekanligi ma’lum bo‘lgani holda, ilmiy tadqiqot uchun har ikkisi ham birdek muhimligini qayd qilib o‘tmoqchimiz. Agar shifokor qandli diabet kasalligining davosini topmoqchi bo‘lsa, u o‘nlab, yuzlab konkret kasallar bilan ishlaydi. Xuddi shunday tilshunos muayyan lisoniy hodisani tadqiq qilmoqchi bo‘lsa, albatta, nutqiy voqelanishini ham o‘rganadi. Masalan, so‘zning leksik ma’nosini shaklidan ajratib, semema sifatida o‘rganamiz, lekin uning mohiyatini nutqdan ajratgan holda tadqiq etib bo‘lmaydi. Lekin ilmiy maqsaddan kelib chiqib, bu ikki jihatdan o‘rni bilan abstraksiyalashish mumkin.

Abstraksiya tafakkurda yuz beradigan jarayondir. Tafakkurning oynasi esa til. Tilda abstraksiya jarayonining natijalari aks etadi. Abstraksiyaning turli ko‘rinishlari natijasida tushunchalar, abstrakt predmetlar vujudga keladi va ular tilda nomga ega bo‘ladi.

Abstraksiya insoniyat erishgan eng katta yutuqlardan biridir. Abstraksiya jarayonining natijasi o‘laroq fikrlash osonlashdi, tushuncha vujudga keldi, til shakllandi. Har qanday tilning asosida abstraksiya jarayoni mavjud bo‘ladi. Fonetik-fonologik sathdan sintaktik sath birliklarigicha abstraksiya mahsulidir.

Leksik sath birliklarining, jumladan, nomlovchi so‘zlarning shakllanishida abstraksiya jarayoni muhim o‘rin tutadi. Konkret yoki abstrakt tushunchalarni ifodalashidan qat’i nazar muayyan tushunchani nomlovchi har qanday so‘zda abstraksiya mavjud. Chunki mazkur so‘zlar ma’nosi zamiradagi tushuncha abstraksiya jarayonining natijasidir. Ma’lumki, tushuncha predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli bo‘lib, unda bir turdagi predmetlarning muhim bo‘lmagan belgilari e’tibordan chetda qoladi, faqat muhim belgilarigina

umumlashadi. Masalan, «bola» tushunchasida jamiki yoshi kichik insonlarning umumiy xususiyatlari aks etadi.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar (abstraktlashar) ekan, demak, uni to‘laligicha aks ettira olmaydi. Bu ma’noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini in’ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, to‘laroq ifoda etadi. Masalan, bargning yashilligini ko‘ramiz va u borliq bilan bevosita bog‘liq. Nima uchun aynan yashil rangda ekanligini aqliy bilish orqali anglaymiz. Bu esa ko‘rishga nisbatan bargning mohiyatini to‘liqroq ochib beradi. Lekin nima uchun shu rangda ekanligini anglash uchun uning yashilligini hissiy bilish kerak.

Abstrakt va konkret so‘zlar ziddiyatiga ikki xil: umumlashtiruvchi va ayiruvchi abstraksiya natijasi asos bo‘lgan. Konkret nomlar yaxlit, butun predmetlar va ularning sinfini, ya’ni narsalarni, tirik jonzotlarni, jarayonlarni, voqealarni, tabiat hodisalarini nomlaydi. Ular umumlashtiruvchi abstraksiya natijasida hosil bo‘lgan umumiy belgi, xususiyatlar asosida shakllangan tushunchalarni ataydi. Mazkur ikki abstraksiyaning farqli tomonlari quyidagi jadvalda aks etgan:

1.1 - jadval.

Abstraksiya turlari

	Abstraksiya turlari	**Nima ajratiladi?**	**Nimadan ajratiladi?**	**Nima e’tibor-dan soqit qilinadi?**	**Natija**	
					Manti-qiy sathda	**Til sathida**
	umumlashti-ruvchi	umumiyliklar	bir xil tipdagi voqeliklardan	umumiy bo‘lmagan o‘ziga xosliklar	tushun-cha	konkret nom
	ayiruvchi	ob’ektning xususiyatlari	ob’ektdan	ob’ekt	abstrakt predmet	abstrakt nom

Umumlashtiruvchi abstraksiyada olamda alohida-alohida holda mavjud narsalar ma’lum tushuncha va nom ostida umumlashtiriladi. Abstraksiyaning bu turida umumlashtirilayotgan narsalar (predmet, belgi, harakat, holat)ning o‘xshash tomonlari e’tiborga olinib, o‘ziga xos tomonlari e’tibordan soqit qilinadi. Masalan, olamda *atirgul, lola, lolaqizg‘aldoq, binafsha, boychechak, moychechak* kabi ko‘plab gullar mavjud. Ularning har biri o‘ziga xos bo‘lib, atirgul lolaga o‘xshamaydi, lola binafshaga o‘xshamaydi. Lekin ularning hammasi bitta nom bilan ataladi, «gul» nomi ostida bir tushunchaga birlashadi. Bu insoniyatga berilgan ne’matlardan tafakkur va tilning abstraksiyalash jarayoni mahsulidir. Agar umumlashtiruvchi abstraksiya jarayoni sodir bo‘lmasa, olamdagi barcha tabiiy va inson qo‘li bilan yaratilgan narsalar, insonlar, hayvonlar, o‘simliklar, belgi, miqdor, holat, jarayon, harakatlar barchasi alohida-alohida nomlar bilan atalsa, tasavvur ham qilish qiyin, nima sodir bo‘lishini. Inson ongi bu og‘ir yukni ko‘tara olarmidi? Yoki uning bor imkoniyati ularni eslab qolishga qaratilarmidi? Ularning barchasiga yangi nom qo‘yishga til imkoniyatlari yetarli bo‘larmidi?

Abstraksiyaning yana bir turi – ayiruvchi abstraksiyadir. Unda olamda ob’ektidan ajralgan holda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan belgi, xususiyat, holat, harakat ob’ektdan ajratilgan tarzda,

alohida voqelik sifatida tafakkur qilinadi, nomlanadi. Mazkur abstraksiyada belgi, xususiyat, holat, harakatning tashuvchisi e'tibordan soqit qilinadi. Bunda ajratilgan ob'ektlar gnoseologik xarakterda bo'lib, ularni faqat aql orqali bilish mumkin. Ushbu voqeliklarni nomlovchi leksik birliklar abstrakt so'zlar deyiladi.

Abstraksiyaning mazkur turida predmet va hodisalarning xususiyat va munosabatlari obyektidan fikran ajratilib, ongda alohida substansiya sifatida anglanadi. Bunda mazkur ajratilgan xususiyat, munosabatning ob'ekti xayolan yoki fikran e'tibordan chetda qoladi. Masalan, «yaxshilik» insonning xususiyatlaridan bo'lib, ushbu nomda mazkur xususiyat ob'ektidan, ya'ni insondan ajratilgan. *Yaxshilik* nomi atayotgan tushunchada real olamda insondan ayri tarzda mavjud bo'lmagan xususiyat insondan ajratilgan holda alohida substansiya sifatida umumlashgan. Avval xususiyat maqomidagi tushuncha substansiyaga aylanar ekan, tabiiyki, endi uning ham o'ziga xos belgilari, xususiyatlari shakllanadi. Masalan, *yaxshilik* leksemasida «kimgadir yoki nimagadir foyda keltirish», «ijobiylik» kabi belgilar mavjud.

Yurak va *ko'ngil* so'zlarini qiyosan tahlil qilishga harakat qilamiz. *Yurak* konkret so'z bo'lib, qon aylanish tizimini tartibga solib turuvchi a'zoni nomlaydi. Insonning ham, hayvonlarning ham qon aylanish tizimini boshqarib turuvchi a'zosi *yurak* deyiladi. Demak, *yurak* tushunchasinining shakllanishida bir turdagi predmetlarning umumiy va muhim jihatlari e'tiborga olinib, muhim bo'lmagan noo'xshash jihatlariga e'tibor qaratilmagan. Ya'ni bir turdagi predmetlarning umumiy tomonlari individual belgilaridan ajratilgan va miqdor jihatdan ko'p, sifat jihatidan turlicha bo'lgan predmetlar haqida yagona tushuncha shakllangan. Bu umumlashtiruvchi abstraksiya natijasidir. *Yurak* tashuvchisidan alohida tarzda mavjud bo'lmasa ham, u butunning qismi, organizmda ma'lum lokallikka va hududiy chegaraga, shaklga, rangga, hidga, og'irlikka ega. Ya'ni u bevosita kuzatishda berilgan. Shuning uchun til egalarida yurak haqida aniq tushuncha va obraz mavjud.

Ko'ngil abstrakt so'z bo'lib, kishining his-tuyg'u va kechinmalari manbaini nomlaydi. Barcha insonlarda his-tuyg'u, kechinmalar turlicha ekanligini hisobga olsak va u *ko'ngil* so'zi bilan atalishini nazarda tutsak, bu o'rinda ham umumlashtiruvchi abstraksiya amalda bo'layotganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, kimningdir shafqatsiz, kimningdir sof insoniy tuyg'ularining manbaini nomlashda umumiy belgilar muhim bo'lmagan belgilardan ajratilgan va *ko'ngil* so'zi bilan nomlangan. Bu so'zning shakllanishiga ham umumlashtiruvchi abstraksiya asos bo'lgan. Lekin *ko'ngil* so'zida yana bir abstraksiya turi amalda bo'lmoqda. *Ko'ngil* organizmda ma'lum lokallikka va hududiy chegaraga, shaklga, rangga, hidga, og'irlikka ega emas. U bevosita kuzatishda berilmagan. Ya'ni *ko'ngil* degan a'zo yo'q. Inson o'z tuyg'ularini amaliy tarzda emas, fikran ma'lum bir manbaga birlashtirmoqda. Bu mohiyat gnoseologik tabiatga ega. Ushbu tuyg'ular manbai insondan, uning ongidan ayri holda mavjud emas. Lekin ayiruvchi abstraksiya sabab u insondan ajratildi va alohida substansiya sifatida nomlandi. Demak, abstrakt nomlarning shakllanishida ham umumlashtiruvchi, ham ayiruvchi abstraksiya asos bo'ladi.

Tilshunoslikda abstrakt va konkret nomlarni aniq ajratish, ularni qat'iy chegaralash mumkin emas. Bunga abstrakt va konkret nomlar orasida oraliq holatlarning mavjudligini, abstrakt nomlar abstraksiya darajalarining turlicha ekanligini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Брикотнина Л.В. Специфика семантики абстрактных имен качества и ее экспликация в синтаксисе: Дисс. … канд. филол. наук. – Барнаул, 2005.
2. Брушлинский А.В. Мышление // Общая психология. – М., 1986.

3. Бюиссанс. Э. Абстрактное и конкретное в лингвистических фактах: речь-дискурс-язык // Political science (RU), 2016, N 3.
4. Горский Д.П. Вопросы абстракции и образования понятий. – М.: АН СССР, 1961.
5. Кемеров.В. Философская энциклопедия. – М.: Панпринт, 1998.
6. Маҳмудов. Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017.
7. Туленов Ж, Ғофуров Ю. Фалсафа. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. –Toshkent: Universitet, 2006.
9. Фалсафа. Энциклопедик луғат. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010.
10. Фалсафа: қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004..
11. Шаумян С. Абстракция в современной лингвистике // Вопросы языкознание. 2002, №1.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
13. http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy
14. http://slovarozhegova.ru/ Толковый словарь Ожегова онлайн

OLQISHLAR – LISONIY SHAXS MILLIY-MADANIY O‘ZIGA XOSLIGINI IFODALOVCHI VOSITA SIFATIDA

WELL-WISHES AS A MEANS OF EXPRESSING THE NATIONAL AND CULTURAL IDENTITY OF A LINGUISTIC PERSONALITY

Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
umurzakovamarkhabo@gmail.com

Annotatsiya. *Lisoniy shaxs muammosi lingvokulturologiyaning asosiy masalalaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos jihatlari, belgilariga ega. Lisoniy shaxs o‘zi mansub bo‘lgan madaniyat haqida axborot tashuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada o‘zbek polvoni lisoniy shaxsi, uning badiiy matnda voqelanishi ochib berilgan. Olqishlarning lisoniy shaxs lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi vosita ekanligiga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *lisoniy shaxs, lingvokulturologiya, lingvomadaniy tip, lingvomadaniy birliklar, olqishlar.*

Abstract. *The problem of linguistic personality is one of the main issues of linguacultural studies and has its own characteristics and peculiarities. Linguistic personality appears as a carrier of information about the culture to which it belongs.*

The article reveals the linguistic personality of the Uzbek wrestler and its implementation in a literary text. Attention is focused on the fact that well-wishes are a means of reflecting the linguistic and cultural characteristics of a person.

Key words: *linguistic personality, linguoculturology, linguacultural type, linguacultural units, well-wishes.*

Til insonlar orasida aloqa vositasigina bo‘lib qolmay, ular mansub bo‘lgan madaniyat, asrlar davomida shakllangangan qadriyatlar, urf-odatlar, milliy o‘ziga xoslik, hayot tarzi haqidagi axborotlarni saqlovchi xazina hamdir. Tilda lingvomadaniy jihatlarni aks ettiruvchi shunday birliklar borki, bu birliklar faqat shu tilga mansubligi, takrorlanmasligi, o‘ziga xos leksik-semantik, sintaktik-struktural xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bunday birliklarni tadqiq qilish lingvokulturologiyaning vazifasidir. “Tilda lingvomadaniy jihatlarning muqarrar ravishda mavjudligi antroposentrik tilshunoslik bag‘rida paydo bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishining tamal, to‘g‘ri va e’tirof etilgan g‘oyalaridan biridir” [Mahmudov 2017:136]. Insonlar qadimdan so‘zning qudratiga, yaxshi so‘zning yaxshilik, yomon so‘zning yomonlik keltirishiga ishonishgan. So‘z sehriga, uning qudratiga bo‘lgan ishonch turli olqish va qarg‘ishlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Olqishlar bugungi kunda ham kundalik hayotimizda keng qo‘llaniladi. Salomlashish, xayrlashish, yaqin insonlarga tabrik yo‘llashda, notanish inson bilan tasodifiy muloqotda ham olqishlarga murojaat qilamiz. B.Sarimsoqov so‘z sehriga asoslangan marosim folklori janrlari haqida so‘z yuritar ekan, so‘zning jodu qudratiga asoslangan marosim folklorini uch guruhga bo‘ladi, olqishlar va qarg‘ishlarni keng ommaviy ijro etiluvchi janrlar sifatida ajratadi. Olqishlar va qarg‘ishlar ham boshqa so‘z bilan bog‘liq janrlar qatori tarixan professional shaxslar tomonidan aytilgan bo‘lsa-da, keyinchalik ommaviy ijro bilan almashilganligini ta’kidlaydi [Sarimsoqov 1986:144]. Olqishlar xalqning asrlar davomida shakllangan madaniyati, qadriyati, urf-odatlari bilan birga orzu-umidlari, maqsadlari, intilishlari tashuvchisi hamdir. O‘zbek lingvomadaniyatida *to‘y* yetakchi konsept sanaladi. “Lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga ega molik axborotni uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universaliyalarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo‘ladi, u o‘zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni biriktiradi” [Usmanova 2019:204-205]. O‘zbeklarda to‘y bilan bog‘liq olqishlar ko‘p bo‘lib, xalq orasida boshqalarga yaxshi tilak tilashda *“Sizlarni ham to‘yga yetkazsin”*, *“Boshing to‘ydan chiqmasin”*, *“Topganingiz to‘yga buyursin”*, nikoh to‘yida aytiladigan *“keyingi yil beshik to‘ylariga kelaylik”*, *“o‘g‘il to‘ylariga kelaylik”* kabi olqishlar bu tushunchaning o‘zbeklar kundalik hayotida nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

T.Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida o‘zbek lingvomadaniyatini aks ettiradigan birliklar ko‘p va o‘z o‘rnida topib qo‘llanilgan. Asarda qo‘llanilgan birliklar voqelikni aks ettirish, badiiylikni ta’minlash bilan birga personajlar lisoniy shaxsining voqelanishida ham muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. “Lisoniy shaxs – muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuiga ega bo‘lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxsdir” [Usmanova 2019:178]. Lingvokulturologiyada lisoniy shaxs faqat nutq yaratish, undan muloqot paytida foydalanuvchi shaxsgina bo‘lib qolmay, o‘zi mansub bo‘lgan madaniyat haqida ham tasavvur bera oladigan shaxsdir. Lingvokulturologiyada olamning lisoniy manzarasi haqidagi tushuncha lisoniy shaxs tushunchasi bilan chmabarchas bog‘liqdir. “Olamning lisoniy manzarasi muayyan tilda muloqot qiluvchi kishilarning olam haqidagi obrazlar yig‘indisi, u haqidagi bilimlar tizimidir. Olamni har kim o‘zicha anglashi, tasavvur qilishi mumkin, ammo uning lisoniy ifodasi esa umumiy bo‘ladi. Olamni anglashda asrlar davomida to‘plangan bilimlardan foydalanilar ekan, uni aks ettirishda ham til zahiralariga murojaat qiladi, ammo bu uning bilimi, tildan foydalana olish imkoniyatlarining har xilligi bilan xilma-xillik kasb etadi. Biror bir millatga mansub shaxsning lisoniy qiyofasini tahlil qilish uchun shu tildagi iboralar, o‘xshatishlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi obrazlar tizimini tahlil qilish zarur” [Umurzoqova 2024:368]

Qissa voqealari o‘zbeklarning qadim an’nanalari, turmush tarzi, kundalik hayotini aks ettiradi. Ayniqsa, asarda o‘zbek kurashi bilan bog‘liq leksik birliklar o‘zbek polvonlari lisoniy

shaxsini voqelantirishda asosiy indikator vazifasini bajargan. Olqishlar qissada asosan kurash tushish jarayonida polvonlarni olqishlash uchun qo‘llanilgan bo‘lsa-da, kundalik hayotda o‘zbeklar nutqida ko‘p uchraydigan, voqelikka munosabatni ifodalovchi *bali, barakalla, otasiga rahmat, ko‘z tegmasin* kabi olqishlar ham faol qo‘llanilgan.

Asarda *to‘y, kurash, halollik* yetakchi konsept sanalib, har bir voqea bevosita shu tushunchalar, ularning odamlar tomonidan turlicha anglanishi, o‘ziga xos munosabatini aks ettiradi. “Juda ko‘p xalqlar og‘zaki ijodida alohida adabiy janr sifatida tan olingan olqishlar til va nutqda jonli nutqiy muloqot jarayonining faol

pragmatik omillaridan biri hisoblanadi. Og‘zaki va yozma adabiyotda olqishlarning lingvomadaniy hamda pragmatik interperetatsiya (talqin) xususiyatlari alohida e’tiborni tortadigan masalalardan biridir. Ularda variantlilik doimiy kuzatilmaydi, lekin genderlik xususiyati alohida e’tiborni tortadi” [Niyazova 2022:14]. *Ha, bo‘yingdan momong aylansin, o‘ynay ber, o‘zim kelin qilaman!* Keltirilgan ushbu misoldagi olqish so‘zlovchining yoshi kattaligiga, ayol jinsiga mansubligiga ishora qilgan. Odatda bo‘y bilan bog‘liq olqishlar voyaga yetgan yoki o‘spirinlik yoshidagi shaxslarga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi, bu olqishlarda ularning tashqi ko‘rinishidan, xususan, qaddi-qomatidan, bo‘yidan zavqlanish kabi ijobiy munosabat ham aks etadi. Asarda olqishlarning gender xoslanishiga ko‘ra erkaklar nutqida uchraydiganlari miqdor jihatdan ko‘p, chunki asosiy voqealar o‘zbek kurashi bilan bog‘liq tarzda kechadi.

“Olqishlarning kelib chiqishiga jamiyatdagi har xil ijtimoiy qatlamlarning,

turli kasb-hunar egalarining o‘z pirlariga ishonch-e’tiqodining ham muayyan ta’siri bor. Jumladan, turfa kasb-hunar egalarining o‘z faoliyatini boshlash yoki tugatishdan oldin kasb pirlariga murojaat qilib, ulardan madad so‘rashi, ishiga qut-baraka tilashi misolida buni kuzatish mumkin” [Niyazova 2022:12-13]. Asarda aynan pir bilan bog‘liq olqishlar ko‘p uchraydi. Yozuvchi bu olqishlardan personajlar lisoniy shaxsini voqelantirishda unumli foydalangan. Asar qahramonlari oddiy, sodda qishloq odamlari. Ular kurashni tomosha qilish jarayonida polvonlarga tanbeh beradilar, nasihat qiladilar. – *Bali polvon, bali! Mening qo‘lim emas, otamning qo‘li, deb olish, ha! – Polvon, piringni hamisha yod et, madad beradi!* Quyidagi misolda Bo‘ri polvonning xayolidan kechgan fikrlar ham polvonning e’tiqodi, ishonchi haqida tasavvur hosil qilishda ko‘maklashadi. Boshqa polvonlar kabi kurashda yengishning sababi pirlarning qo‘llashidan deb biladigan sodda, jo‘n tasavvuri ifodalanadi. *Bo‘ri polvon kulimsiradi: “Vo ukkag‘arning o‘g‘li-e! Otamning piri dedi-ya. Shunday demaganda yiqitolmasdiyam-da. Uni mening pirim qo‘lladi, ha! E, bali, o‘g‘lim-e, bali!”*.

Mehmondo‘stlik o‘zbek xalqining asosiy stereotiplaridan bo‘lib, mehmonga izzat-ikrom ko‘rsatish, e’zozlash yuksak qadriyatlardan sanaladi. Quyidagi olqish Bo‘ri polvon tilidan ko‘ngil so‘rab kelgan Nasim polvon va u bilan hamroh mehmonlarga nisbatan aytilgan. Bo‘ri polvon yuzko‘rmas bo‘lib ketgan bolalik do‘sti Nasimning fotihaga kelganini xushlamasa-da, u bilan kelgan mehmonlar izzatini qiladi. Xayrlashishda olqish aytadi: – *Esa, xo‘sh dengizlar! – dedi. – Bizni izzat qilib kelibsizlar, sizlarni xudo izzat qilsin!*

“Madaniyat kategoriyalari – makon, zamon, qismat, huquq, boylik, mehnat, vijdon, o‘lim va h.k. mavjud tizim qadriyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va ijtimoiy axloq hamda dunyoni o‘zlashtirishning namunalarini belgilab beradi” (Usmonova 2017:179). Quyidagi olqishlar polvonlik, unga xos fazilatlar, shaxsiy sifatlar haqida tasavvur beradi. Kurashda polvonlarning quloch ochishi, qo‘llarini o‘ynatib kurashi olqishlanadi. *Ha, qulochginangdan, polvonchalar!* Davradan turishda qilingan duo va olqishlarda ham kurash, polvonlar turmush-tarzi bilan bog‘liq birliklar lisoniy shaxsning o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. *Qani, ilohi omin, yurtimiz hamisha tinch, obod bo‘lsin, polvonlarimizning beliga quvvat bersin, sochilgan rizq-ro‘zimizni*

terib yeb yanagi davralargacha o‘ynab-kulib yuraylik, ollohu akbar! Olqishlar nafaqat olqish aytayotgan kishining shaxsiy sifatlari, dunyoqarashi, qiziqishlari balki olqishlanayotgan shaxs haqida ham axborot tashiydi. *Davra aylanayotgan Tilovberdi cho‘kkalab, yerni tavof qildi: ikki kaftini yerga surkab yuzlariga tortdi, qur to‘rida o‘tirgan chollar ro‘parasiga tiz cho‘kdi. Chollar kaftlarini baravar ochdi”– Belingga quvvat, bilagingga kuch, yuragingga o‘t bersin…* Keltirilgan matndagi *belingga quvvat, bilagingga kuch, yuragingga o‘t bersin* olqishi polvonga nisbatan aytilayotgan bo‘lib, uni aytayotgan shaxs ayni paytda olqishlanayotgan shaxsga zarur bo‘lgan jihatlarni sanaydi. So‘z qudratiga ishonch natijasida yashab kelayotgan olqishlarda xalqning milliy-madaniy qarashlari o‘z aksini topganligini quyidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin.

Ha, barakalla, ota o‘g‘i! o‘yna, o‘ynay ber! Otangga o‘xshab o‘yna! Barmoqlar mardona, chaqqon o‘ynadi. Davra bundan jo‘shib ketdi.

– Ha-ha-a-a!

–Otasining uli-da!

– E, bormisiz! Otangizga rahmat! Polvonning xo‘rozi samovar oladi! Ha!

E, yasha, otasining uli! O‘zbeklarda ota hurmatli zot sanalgani bois yaxshi insonning farzandiga nisbatan *otasining o‘g‘li* olqishi yuqori baho hisoblanadi. Yuqorida berilgan misolda Bo‘ri polvonning o‘g‘li Tilovberdi polvonga berilgan baholarning ichida bu qaratqich qaralmish shaklidagi *otasining uli* birikmasida lisoniy shaxsning dialektal mansubligi ham ifodalangan. O‘g‘il so‘zining *ul* sifatida qo‘llanilishi so‘zlovchining qipchoq shevasi vakili ekanligiga ham ishora qiladi.

Yozuvchi asarda Bo‘ri polvon lisoniy shaxsini shakllantirishda har bir holatda olqishlardan foydalangan. *“Bali! Bizning aslimiz shunday edi! – u xayolan o‘sha odam bilan gaplashdi. – Inchunin, o‘zining asliga tortmagan, uni unutgan odam – odam ham emas!”*

Xulosa qilib aytganda, olqishlar muayyan bir millat madaniyati haqida tasavvur berish bilan birga lisoniy shaxsning yoshi, jinsi, qiziqishlari, ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy mavqeyi, olam haqidagi bilimlari haqida ham axborot tashiydi. Olqishlar boshqa folklor janrlaridan o‘ziga xos lisoniy qolipga egaligi, fe’llardagi morfologik shakllarning xoslanganligi bilan ham ajralib turadi. Yozuvchilar badiiy matnda olqishlardan qahramonlar lisoniy shaxsini ifodalashda foydalanadilar, bu bir paytning o‘zida ularning hududiy mansubligi, jinsi, kasb-kori haqida ham ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z. 2017. – 176 б.

2. Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабитида олқишларнинг бадиий-эстетик вазифалари типологияси. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – 56 б.

3. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.

4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent. 2019

5. Тоғай Мурод. Yulduzlar mangu yonadi. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/togay-murod/to-aj-murod-yulduzlar-mangu-yonadi-is/

6. Umurzoqova M. Lisoniy shaxs tushunchasining lingvomadaniy aspektda o‘rganilishi. O‘zMU xabarlari. 2024, [14]. – B. 367-369. https://www.researchgate.net/publication/380403633_Lisoniy_shaxs_tushunchasining_lingvomadaniy_aspektda_o'rganilishi?_

XORAZM SHEVALARIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING ONOMASIOLOGIK TAHLILI

ONOMASIOLOGICAL ANALYSIS OF SOME WORDS IN THE DIALECTS OF KHORAZM

Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Urganch davlat universiteti
norbayeva75@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm shevalaridagi ayrim so‘zlarning atalish tamoyillari xususida fikr yuritilgan bo‘lib, ular tahlilida boshqa sharq tillarida mavjud manbalarga ham tayanilgan.*

Kalit so‘zlar: *nominatsiya, dialektal leksika, tarixiy-etimologik tavsif, nomlanish tamoyillari, tarkibiy tahlil.*

Abstract. *This article discusses the naming principles of some words in Khorezm dialects, and in their analysis, sources in other Eastern languages are also used.*

Key words: *denomination, dialectal lexicon, historical-etymological description, naming principles, structural analysis.*

Insonning olamni bilish jarayonida nominatsiya katta ahamiyatga ega bo‘lib, har qanday shaxs o‘zini qurshab turgan olam uzvlarini bilish orqali uning muhim belgilariga tayangan holda nom beradi. Shuning uchun ham nominatsiya barcha tillarga xos universal hodisa sifatida antik davrlardan buyon faylasuflarni qiziqtirib keladi. Ta’kidlash mumkinki, nominatsiya narsa va hodisalarni boshqalardan nom berish orqali ajratish, farqlash bilan bog‘liq lingvistik faoliyatgina emas, balki ularni bilish bilan aloqador gnoseologik vazifani bajaruvchi qudratli fenomen hamdir.

Shevaga xos so‘zlarni ham mana shu nuqtayi nazardan o‘rganish hozirgi kunda muhim va dolzarb masaladir. Jumladan, dialektal leksika ham o‘ziga xos nomlanish tamoyillari mavjudligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili amaliy san’at leksikasini tadqiq qilgan T.Tursunova kasb-hunarga oid so‘z-terminlarning leksik-semantik tabiatini ko‘zdan kechirish natijasida: “... nomlar predmetlarning ishlatilishi, belgilari, materiali, ishlab chiqarish usullari, bajaradigan vazifasi, buyumning birinchi ishlangan o‘rni, ishlab chiqaruvchi xalq yoki urug‘lar, ishlab chiqaruvchi kishi nomlari, naqshlarning o‘xshashligiga ko‘ra qiyoslash, tasviriy o‘xshatish (analogiya), xayoliy o‘xshatish (simvolika) asosida maydonga keladi”, – degan xulosaga keladi [Турсунова, 1978:77].

Xorazm shevalari leksikasini atalish tamoyillariga ko‘ra tasnif qilar ekanmiz, ularni nomga aylanguncha bo‘lgan ma’no taraqqiyoti, semantik o‘zgarishlari tadqiqi bilan birga olib borish zarurligiga amin bo‘lamiz. Dialektal so‘zlar ularning o‘zi qadar qadimiylik kasb etgani uchun ham ularning atalish tamoyillarini tarixiy-etimologik tavsifsiz ravshanlashtirish, muayyan bir tamoyilga nisbat berish imkoni bo‘lmaydi. Shu bois ham ularning nomlanish tamoyillarini belgilash qarindosh va qarindosh bo‘lmagan turli tillardagi nomlarni chog‘ishtirish, tarixiy-etimologik tavsifini berish, tarkibiy tahlilini amalga oshirish orqaligina ishonarli va asosli bo‘ladi. Biz ushbu maqolamizda Xorazm shevalaridagi ayrim so‘zlarning onomasiologik tahlili xususida fikr yuritamiz.

Šïpïrma – bosh kiyimi [Ўрозов, 1978:76]. Bu so‘zning asosi bo‘lgan fe’l *šïpïr-* Xorazm shevalarida “taqirlamoq” ma’nosini beradi. Masalan, tut novdasidagi barglarni (ipak qurti uchun), g‘o‘zapoyadagi ko‘saklarni birdaniga taqirlab olish *šïpïrïš* deyiladi. Shunga ko‘ra, bu fe’l “taqir”, “yalang‘och” ma’nosidagi “čïp” so‘ziga *-ïr* fe’l yasovchisini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan deyish mumkin. Xorazm shevalaridagi “taqir”, “hech narsasi yo‘q” ma’nosidagi *čïpraboj* so‘zi ham ushbu talqinga mos keladi. “Šïpïr-”ning “taqirlamoq” ma’nosidan *šïpïrma*ning “o‘g‘ri”, shu asosda “muttaham” ma’nolari kelib chiqqan. Uning “taqir” ma’nosi esa “qulay”, “o‘ng‘ay” semalari qadar kengaygan. Bosh kiyimiga nom bo‘lgan ma’no esa, fikrimizcha, ana shu sifatning otga ko‘chishi natijasida paydo bo‘lgan.

Abzal so‘zi F.Abdullayev tomonidan quyidagicha izohlangan: **abzal** +1. afzal; ortiq: *sän nä, hunnan abzalmïsan*? (Urg, 1). 2. asbob, qurol, jabduq: *jol abzalï šaj vosïn, jertaŋ azanda ketämis* (Gurl, 1); 3. Penis [Абдуллаев, 1961:16].

Bugungi kunda Xorazm shevalarida dastlabki ikki ma’nosi saqlangan, uchinchisi – vulgarizm sifatida esa deyarli ishlatilmaydi. Tabiiyki, mazkur so‘zning ham shakliy va ma’noviy o‘zgarishlarini o‘rganmasdan turib, uning onomasiologik tamoyili haqida biror xulosa chiqarish qiyin. Sh.Rahmatullayev ushbu so‘zga quyidagicha izoh bergan:

Abzal – bu ot TjRSga *avzol* shaklida kiritilib, [f-t] deb ta’kidlangan va asli *afzor* ekani aytilgan; nimagadir bu ot oxiridagi tovush *l* emas, *r* deb yozilgan (Balki harfiy xatolikdir). Demak, bu ot asli *afzol* tovush tarkibiga ega; tojik so‘zlashuv tilida *f* tovushini *b* tovushiga almashtirib aytish ham mavjud; o‘zbek tiliga ana shunday tovush o‘zgarishi bilan olingan. TjRSda bu otning ma’nosi “снаряжение, принадлежности, инструменты” tarzida izohlanib, *afzoli sarrochi* misoli keltirilgan. O‘TILda bu otning ma’nosi “ot-ulovni egarlash yoki aravaga qo‘shish uchun zarur asboblar majmui; egar-jabduq deb ta’riflangan”; demak, keng ma’noli ot o‘zbek tilida tor ma’noni anglatish uchun ishlatilgan. Bu otni o‘zbek tiliga olishda tojikcha noadabiy *abzol* shaklidagi *o* tovushi a tovushiga almashtirilgan. [Раҳматуллаев, 2009: 6].

Shu bilan birga ushbu so‘zning O‘TILga forscha abzor yoki afzor tarzida olingani qayd etilganini eslatish lozim. Demak, TjRSda berilgan afzor shakli “harfiy xatolik” emas. “Farhangi Dehxudo”da uning *avzor* shakli ham borligi qayd etilgan. “Burhoni qote’” hoshiyasida bu so‘zning qayd etilgan ma’nolari berilib, pahlaviy tilida *awzâr* shaklida bo‘lgani ko‘rsatiladi. [Табризий, 1375: 82]. Demak, bu so‘z aynan *qurol-yaroq* ma’nosini anglatgan bo‘lsa, uning kasbiy leksikaga oid ma’nolari ma’no kengayishi natijasida yuzaga kelgan.

Avsar (Mng‘, Gurl, Ybzr.) 1) tuya no‘xtasiga bog‘langan temir; 2) ovsar, anqov. Bu so‘z turkiy birlik sifatida “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”ga kiritilmagan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ovsar I sifatida “gap anglamaydigan, esi pastroq” ma’nosi, ovsar II sifatida “tuya boshiga kiydirilib qo‘yadigan maxsus boshvoq” [O‘zbek tilining izohli lug'ati, 2023: 558-559] ma’nosida berilgan. *Avsar* “Ozarbayjon tilining dialektal lug‘ati”da tuya og‘izbandi tarzida izohlangan. Nazarimizda, bu so‘zning yasalish asosi va tamoyilini Xorazm qipchoq shevalarida mavjud va bugungi kunda shu lahjaning ham kam son vakillari ishlatadigan sog‘inmoq; siqilmoq ma’nolarida *avsa-* fe’li izohlay oladi. *Avsa-* fe’li asosan *avsa-kusa-* tarzida juft holatda ham ishlatiladi: *seni asab-kusab keviydim – Seni sog‘inib, (siqilganimdan) kelgan edim.* (Yangibozor, Shirinqo‘ng‘irot). Demak, tuyachilikka oid *avsar (avsa- – siqil-)+r* tarkibli bo‘lib, vazifasiga ko‘ra nomlangan. Chunki bu jihoz aynan siqish, zichlash, tartibga solish vazifasini bajaradi. Ikkinchi ovsar (esi past) ma’nosi *avsa- sog‘inmoq+r* tarkibli bo‘lib, sog‘inch holatidagi odamni ifodalaydi.

Soppaš (Xo‘jayli, Mang‘it) – kechasi kiyib yotadigan do‘ppi [Ишаев, 1977:154]. Ushbu so‘z qayd etilgan ma’noda Gurlan, Yangibozor shevalarida *soppaš, sopbaš* shakllarida ham ishlatiladi. So‘zning A.Ishayev bergan izohiga asosan uning eroniy tillarga mansub ikki mustaqil

so‘z birikuvidan tashkil topganini kuzatamiz: *šäb* va *poš*. Mazkur so‘zdagi *šäb* komponenti “tun” ma’nosida deyarli barcha eroniy tillarda ishlatiladi. Jumladan, qadimgi forsiyda *xshapa*, “Avesto”da (avestoviy tilida) *xshap, xshapan*, *shap*, pahlaviyda *shawâk,* qadimgi hind tilida *kshâp* shaklida bo‘lgan bu so‘z kurdchada *shev*, afg‘oncha (paxtu)da *sha*, baluj tilida *shap*, shug‘non tilida *shab*, sarikiyda *xab*, munjiyda *xshāwa*, giloniyda *shäb*, farizandiyda *shaw*, yarniyda *shaew* tarzida ishlatiladi[1]. Shuningdek, mazkur so‘z qayd etilgan ma’noda fors tilida *shäb* شب [Персидско-русский словарь, 1983:90], tojik tilida *shab* [Русско–таджикский словарь, 1985:585] shakliga ega. Ikkinchi qism *posh* (ad.orf. *po‘sh*) esa hozirgi fors tilida *kiymoq; yashirmoq* ma’nosidagi *pushidan پوشیدن* fe’lining hozirgi zamon o‘zagidir [Персидско-русский словарь, 1983:315]. Demakki, *soppash* nomining asl lug‘aviy ma’nosi “tunda kiyiladigan kiyim”dir. Adabiy tilimizdagi *choyshab* so‘zida ham *shab* qismi “tun” degan ma’noni beradi va *choyshab*, fikrimizcha, *joyishab* – tungi o‘rin so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir. Shunga qiyosan, yuqoridagi fikrlarni asoslash mumkin. Bundan tashqari *s – sh, b – p* fonetik o‘zgarishlari ham tilimizda keng uchraydigan hodisa.

A.Ishayev o‘z lug‘atida *čoppaš* so‘zini keltirar ekan, unga “tepasi cho‘ziq do‘ppi” deb izoh beradi [Ишаев, 1977:172]. Bir qarashda *soppaš* va *čoppaš* so‘zlari bir so‘zning fonetik variantlari bo‘lib ko‘rinadi. Chuqurroq mulohaza qilsak, har ikkala so‘z ham bir sheva (Mang‘it shevasi) materiali sifatida berilgan va olim ularda bir-biriga ishora havolasini bermagan va ularni turli ma’nolarda izohlagan. Bizning fikrimizcha, olim bu borada to‘g‘ri yo‘l tutgan bo‘lib, “tepasi cho‘ziq do‘ppi” ma’nosidagi so‘zning genetikasi turkiy tillarga daxldor bo‘lib, asl shakli *sop(ï)baš*dir. Hozirda iste’molda bo‘lmagan mazkur tip do‘ppilar Gurlan, Yangibozor tumanlarida istiqomat qiluvchi keksalar nutqida ham *sopbaš* shaklida ishlatiladi. Mazkur so‘zning *sop* qismi aslida *sopï* bo‘lib, uning “ma’nosi “konus”dir. Konussimon, ya’ni quyi qismi keng bo‘lib, yuqoriga uchli bo‘lib borgan har qanday narsa “so‘pi” deyiladi. Tasbihning so‘pisi ham konussimon bo‘lgani uchun shunday atalgan. Boshi shu shaklga ega bo‘lgan kishini “so‘pibosh” deydilar. Agar biror narsaga konus shakli berilsa, “so‘pilandi” deyiladi [Рустамов, 1987:127]. Yuqoridagi dalillarga asoslangan holda, *soppaš* va *čoppaš* so‘zlari alohida kiyim nomlari degan xulosa chiqarishga asos bor.

Särpoš so‘zi ham shu tip nomlardan biri bo‘lib, bosh kiyimi, bo‘rk; idish ustiga yopiladigan har qanday yopiq (sochiq, maxsus qilingan dasturxon) [Абдуллаев, 1961:80] ma’nolarini anglatadi. So‘zning ikkinchi komponenti yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek*, pušidan (puš)* fe’liga aloqador bo‘lib, *särpoš*ning birinchi ma’nosida uning *kiymoq*, ikkinchi ma’nosida *yopmoq* mazmunlari yotibdi. So‘zning birinchi tarkibiy qismi ham eroniy tillar uchun umumiy hisoblanib, jumladan, pahlaviy tilida *sar*, “Avesto”da *asar* (boshsiz), qadimgi hind tilida *qiras, sar* tarzida ishlatilgan bo‘lsa, kurd, baluj, surxaida *sar*, astiy *sär*, vaxiy (voxon), sanglijiy, munjiy, gilakiy, farizandiy, arniy, natanziy kabi eroniy tillarda ham o‘zbek tiliga o‘zlashgan shaklida qo‘llanadi[2]. O‘zbek tilida polisemiya masalasini tadqiq qilgan T.Aliqulov *bosh* so‘zining turli ma’no qirralarini tahlil qilgan [Аликулов, 1966:11]. Bu xususda B.Jo‘rayev ham so‘z yuritib, “bosh” so‘zining 19 xil ma’nosini qayd qiladi [Жўраев, 1982: 46-49]. O‘zbekcha *bosh* so‘zidagi ko‘plab ko‘chma ma’nolar forscha *sar* so‘zida ham ko‘rinadi [Персидско-русский словарь, 1983: 26-28]. Demak, *särpoš* so‘zining izohlangan birinchi ma’nosida *sar* so‘zining bosh, ikkinchi ma’nosida ko‘chma ma’nolari asos bo‘lgan. *Sär* so‘zi Xorazm shevalarida *särdoz* (qoplarning og‘zini tikish uchun ishlatiladigan ip – chizim), *sarxum* (sarxum, krujka) so‘zlarida ham tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan ko‘chma ma’nolarning birida ishtirok etgan.

[1] شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. جلد ۳ ص ۱۲۳۹.

[2] شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸٦ . جلد ۳.ص۱۱۱۱.

Hozirgi kunda shevalarning bir-biridan asosiy farqi morfologik va fonetik belgilar bo‘lib, ularning leksik fondlari o‘rtasidagi o‘ziga xosliklar nisbati kamayib borayotgani sir emas. Bunga sabablardan biri shevalardagi katta qism lug‘aviy birliklar kundalik ehtiyojda zarur bo‘lmagani bois iste’moldan chiqib bormoqda. Masalan, birgina tegirmon bilan bog‘liq birliklarni onomasiologik jihatdan tahlil qilish asnosida bunga amin bo‘lamiz.

Äŋäl tegirmon toshi ustiga qo‘yiladigan og‘ir napsa (odatda katta tosh). F.Abdullayev bunga bir qo‘shiqdan “reyis buvam *äŋäldej*, toppïlarï šänäldej” misolini keltiradi [Абдуллаев, 1961:24]. Tegirmon toshi qattiqroq bosib, unni tezroq va sifatli chiqarishi uchun *äŋäl* qo‘yilgan.

Tegirmon toshining markazidagi bug‘doy tushadigan teshik esa *baqalaq* deb nomlangan: *“xaraza qarab dur, baqalaqï acčïlïp qalmasïn”*. Bu so‘z “Hayvonlarning tuyoq bilan ilik o‘rtasidagi bo‘g‘ini” [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2020:185] ma’nosini anglatuvchi *baqalaq* so‘zidan analogiya tamoyili asosida paydo bo‘lgan deyishimiz mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan “Tegirmon parragi o‘qining uchiga biriktirilgan va parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qism” ma’nosini beruvchi *baqa*ning kichraytirilgan shakli deb bo‘lmaydi. Ko‘rinib turibdiki, ular alohida narsalarning nomlaridir.

Shuningdek, “tegirmonga qo‘shilgan ot yoki eshak ko‘ziga bog‘lanadigan latta” ma’nosidagi *gözlik//kezlik* termini vazifasiga ko‘ra xoslash natijasida paydo bo‘lgan. *-liq//lïq* qo‘shimchasini biror nimaga xoslash vazifasini bajarishini *qollïq* (qo‘lqop) kabi bir necha so‘z misolida ko‘rishimiz mumkin.

Diyrman so‘zi *tegirmon*ning fonetik o‘zgarishga uchragan shakli bo‘lib ko‘rinsa ham, aslida “yorg‘uchoq, qo‘l tegirmon” ma’nosini ifodalaydi. F.Abdullayev bu so‘zga *“dïrmän tartmaqa därmanïmïz joq, xaraznï qošmaqa änǯamïmïz joq”* misolini keltiradiki [Абдуллаев, 1961:37], Xorazm shevalarida *diyrman* va *xaraz* boshqa narsa ekani ma’lum bo‘ladi.

Shuningdek, “sholi tegirmoni” ma’nosidagi *kirkirä* bugungi avlod vakillari nutqida butkul unutilgan. *Kirkirä* aslida qo‘l bilan aylantiriladigan kichik sholi tegirmonidir [Абдуллаев, 1961:56]. Bugungi kundagi sholi tegirmonlari *šalï xaraz* deb yuritiladi.

Demak, sheva lug‘at fondining onomasiologik tahlili tilimizdagi etimologik tahlilga tortilmagan ayrim birliklar shakllanishi va taraqqiyotida ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўз ФАН, 1961.
2. Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. –Ташкент, 1966.
3. Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурҳони қотеъ. – Теҳрон: Амири кабир, 1375 ҳ.ш.
4. Жўраев Б. “Бош” сўзининг маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – № 3. –Б. 46–49.
5. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977.
6. Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III. – Тошкент: Университет, 2009.
8. Русско-таджикский словарь. – М.: Русский язык, 1985.
9. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987.
10. Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Тошкент: Фан, 1978.
11. O‘zbek tilining izohli lug'ati. Olti jildli. Uchinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
13. Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978.
14. شمس الدين محمد بن خلف تبريزى . برهان قاطع. با اهتمام دكتر محمد معين. تهران. امير كبير. جلد ٣ ص ١٢٣٩.

ДИАЛЕКТИКАЛЫҚ ТӘЖІРИБЕ ЖӘНЕ ЛИНГВОМӘДЕНИЕТТАНУ
DIALECTICAL PRACTICE AND LINGUOCULTUROLOGY

Дуйсабаева Дилбар Ускановна
ТМПУ Қазақ тілі және әдебиеті кафедрасы доценті
d.duysabayeva@gmail.com

Аннотация. *Қазіргі таңда тілді оқыту барысында лингвомәдени құзыреттілікті қалыптастыруға айрықша мән берілуде. Мақалада диалектологиялық тәжірибені жүргізіп отыру, диалектілік лексиканы зерттеу мәселелерін лингвомәдени құзыреттілікті қалыптастыруда тұрақты көздерінің бірі ретінде тану қажеттігітілігі тиек етіледі. Жергілікті тіл ерекшеліктерін зерттеген ғалымдар, олардың пікірлері, диалектизмдердің жіктелуі сөз болады. Сонымен қатар, ауызекі сөйлеу тіліне де, әдеби тілге де, диалектілік аймақтық лексикаға да тән аралық құбылыс – дублеттерге тоқталады. Мақалада диалектологиялық сөздіктен пайдаланыла отырып, біршама сөздерге тоқталып, олардың қолданылу ерекшеліктері мен анықтамасы берілді.*

Түйін сөздер: *лингвомәдени құзыреттілік, диалектизм, диалектологиялық тәжірибе, дублеттер, тілдік ерекшеліктер, диалектологиялық сөздік.*

Abstract. *Currently, in the process of language teaching, special importance is given to the formation of linguistic and cultural competence. The article emphasizes the need to conduct dialectological practice, to recognize the problems of studying dialect vocabulary as one of the permanent sources in the formation of linguistic and cultural competence. Scientists who have studied local language features, their opinions, classification of dialectisms will be discussed. In addition, an intermediate phenomenon characteristic of spoken language, literary language, and dialectal regional lexicon - doublets - will be discussed. Using the dialectological dictionary, the article focuses on some words, features of their use and definition.*

Key words: *linguocultural competence, dialectism, dialectological experience, doublets, language features, dialectological dictionary.*

Кіріспе.Тіл - мәдениеттің бөлігі, бірақ мәдениет те тілдің бөлігі. Демек, егер мәдениетті адам санасы арқылы қабылданған, яғни адамның физикалық және рухани іс-әрекеті нәтижесінде пайда болған әлемнің өмір сүру салты десек, онда әлемнің тілдік бейнесі мәдениет арқылы толық қамтылмаған. Жаңа заман, жаңа талап ана тілі мен әдебиетін оқытудың методологиялық базасына, сондай-ақ нақты оқыту әдіс-тәсілдеріне жедел әрі түбегейлі өзгерістер енгізуді қажет етті. Э.Сепирдің пікірінше «Тіл мәдениеттен тыс, яғни біздің өмір салтымызды сипаттайтын әлеуметтік тұрғыдан еншіленген практикалық дағдылар мен идеялардың жиынтығынан тыс өмір сүре алмайды». [Сепир, 2019: 185].

Тіл - сол халықтың мәдениетін ғана емес, әлеуметтік өмір сүру ортасын, ұлттық ділі мен ұлттық дүниетанымын бейнелейді, сондай-ақ халықтың рухани және материалдық мәдениетін, әлеуметтік-мәдени қабатын өн бойында сақтай отырып, сол арқылы өскелең ұрпақты тәрбиелеудің, жеке тұлға ретінде қалыптастырудың бірден-бір тиімді құралдарының бірі саналады. Алайда, тіл-тілдік қолданыстан шығып қалған сөздердің, олардың білдіретін ұғым-түсініктердің жиынтығынан тұратын қойма емес. Идиомалық тіркестер құрамында тілдік қолданыстан шығып қалған, мағынасы түсініксіз не күңгірттенген сөздердің болуы заңды нәрсе.

Белгілі бір аумақтағы тілдің қолданысы, ондағы жергілікті сипатқа ие болған сөздер мен сөз тіркестері тілші-ғалымдардың зерттеу нысанына айналып отырады. Кейінгі кездерде тіл тарихы мен диалектикалық лексика туралы зерттеулер біраз азайып бара жатқан сияқты. Бұл тіл тарихының қайнар көздерінің, диалектикалық лексика нормаларының толық зерттелгенін білдірмейді, жай ғана бұл салаға деген ынтаның жоқтығынан деп ойлаймыз. Соңғы кездері, әсіресе, қазақ тілінің тарихи отанынан жырақта тұратын өкілдерінің тілдік нормаларын зерттеу қажеттілігі туындап, бұл сала әлі де тың зерттеулерді қажет ететінін дәлелдеп отыр. Бұл орайда мәселен, Өзбекстандағы қазақтардың ана тілдерін қолданудағы кейбір ерекшеліктер жөнінде айтсақ дейміз.

Негізгі бөлім. Жалпы, тіл зерттеушілерінің назарын ежелден өзіне аударып келе жатқан мәселе – ұлттық тілдің құрылымы, құрамдас бөліктері. Ұлттың басты белгісі тіл болса, оның дамып, қалыптасуының өзіндік сипаты болады, яғни әр ұлттың тілі өзіне тән дербес жолымен қалыптасып дамиды. Қазақ халқының ұлттық тілі де қалыптасу, даму жағдайына қарай: бүкіл ұлтқа қызмет ететін – әдеби тіл мен ауызекі сөйлеу тілінен және белгілі жеке аймаққа тән жергілікті ерекшеліктерден, диалектілерден тұрады [Қалиев 2005: 373].

Тіл белгілі этникалық ортаның мәдениетін таныту құралы, сол тіл мен мәдениет иесінің, этникалық тұлғаның, өзегін құрайды. Әр тілдік тұлға өзінің этникалық мәдениетін жеткізуші болып табылады, тілдік таңбалар мәдениет таңбасы ретінде қолданылып, ұлттық мәдениеттің ерекшелігін білдіреді.

Халық тіліндегі, әр өңірлердегі, әр жерлердегі жергілікті ерекшеліктер әр түрлі болады. Халық тіліндегі осындай жергілікті ерекшеліктерді жинап, зерттеуді мақсат еткен диалектологиялық экспедиция немесе, бүгінгі күнде диалектологиялық тәжірибенің тіл білімі үшін зор мәні бар. Қазақ тілінің диалектілік, сөйленістік (говорлық) құрамын белгілеу, олардың сипатын, тарихи негізін анықтау мәселелерін жергілікті ерекшеліктерді толық жинап, тереңірек зерттеу арқылы ғана толық шешуге болады.

Қай тілде болмасын құрамында дәстүрлі норма болып қалыптасқан, жалпыхалықтық деңгейде қолданылатын, баршаға ұғынықты әдеби сөздермен қатар, түрлі өңірде түрліше айтылып, өзгешеленіп тұратын сөздер мен сөз тіркестері көптеп ұшырасады. Диалект – жалпы халықтық сипаты жоқ белгілі бір жерде ғана қолданылатын тілдік ерекшеліктері бар территория. Ал, сөйленістің қамтитын аясы – шағын. Бірнеше сөйленіс бір диалектінің құрамына енуі мүмкін [Тасымов 2014: 8].

Шетелдегі қазақтардың тілі қазақ тіл білімінің диалектология саласында өткен ғасырдың 60 жылдарының соңына қарай зерттеле бастады. Қазақ жерінен тыс өзге елдердегі қазақтардың тіл ерекшелігі орналасу аумағы, рулық құрамының жақындығы бойынша қазақ жеріндегі говорлармен (бүгінде сөйленіс деп аталады) бірге, белгілі бір сөйленістер тобының (батыс, оңтүстік, солтүстік-орталық, шығыс) құрамында қарастырылды. Мысалы, Өзбекстанда жасайтын қазақтар тілінің говорлық сипатын

зерттеген ғалым Тұрап Айдаров екі топқа бөліп үйренеді. Жалпылама қолданыла бермейтін, тек білгілі бір аймақ шеңберінде ғана жұмсалатын сөздерге мысал ретінде: Ташкент төңірегінде *баспаны – чәугім, жұмыртқаны – тұқым*, Бұхара өңірінде *таразыны – шеккі, бәкіні – шаппа, кеуіртті – шырпы, оттық* деп атайтынын айтуға болады. [Айдаров 1975: 22-23]. Мұндай жергілікті халық тіліне ғана тән сөз қолданыс *диалектизмдер* болып табылады [Исаев 2007: 31]. Демек, біз диалекті деп – жергілікті қазақтардың түсініксіз сөздерін, тілдің дыбыстық үндестігімен шатастырып жүрміз. Оны тіл білімінің арнаулы саласы – *диалектология* дыбыстық, мағыналық тұрғыдан жан-жақты зерттейді.

Бірақ Ташкент, Сырдария облыстарындағы қазақ мектептерінде диалектілермен қоса, көбінесе нормаға сай болмаған бөгде сөздер араластырылып қолданылады: *мұнда, онда* сияқты есімдіктер – *бұ, яқ*; *бір, екі, төрт* сан есімдері – *біттә, екіта, төртта*; *төменге* түс – *пәске* түс; *жаны, қасы, маңы – қаптал* (сенің *қасыңда* жүрейін – сенің *қапталыңда* жүрейін); *есік – қапы* (*есікті* жап – *қапыны* жап), *негіз – тиқар; ұйым – шөлкем* т.б.

Өзбекстанның кейбір аймақтарында жасайтын қазақтарда қазақ тілінің дыбыс үндестігі ауызекі тілде біраз жойылған. Олардың тілдерінде өзбек тілінің дыбыс үндестігі қалыптасқан. Қазақ тіліндегі сөздерді өзбек тілінің дыбыс үндестігімен айтады. *Сен бе – сен ба – сен ма? Келе жатқан – кел атқан – кёлатырган, т.б. Сәлемдесу әдептілікке жатады ма?* Дұрысы: *Сәлемдесу әдептілікке жата ма?* Жағдай сұрасқанда да *жақсымысыз?, түзумісіз?* сияқты сөздер қолдану бірте-бірте әдетке айналып отыр.

Өзбекстандағы қазақтар тіл нормаларындағы сөздердің жіктелуінде де шатасулар байқалады: *Мен баруым керек – баруым керекпін (баруымыз керекпіз. Сен баруың керек – баруың керексің (баруыңыз керексіз). Ол баруы керек – баруы керекті (баруыңыз керекті)*

Кейде екі сөйлемді бірінен-бірін ажыратпай қосып айтатын жағдайлары да кездеседі: *Аласыңыз ба? Дұрысы: Аласың ба, аласыз ба? Жүресіңіз ба? Дұрысы: Жүресің бе, жүресіз бе? («ба» емес) Келесіңіз ба? Дұрысы: Келесің бе, келесіз бе? («ба» емес) Барасыңыз ба? Дұрысы: Барасың ба, барасыз ба?*

Бар, жүр, тұр, қал, отыр т.б. бұйрықты етістіктер екі түрлі бұзылған нұсқада айтылады. Бірінші бұзылған нұсқасы: *барсай (дұрысы: бар), жүрсей (жүр), тұрсай (тұр), қасай (қал), кесей (кел) т.б.* Екінші бұзылған нұсқасы: *барғын (бар), жүргін (жүр), тұрғын (тұр), қағын (қал), кегін (кел), отырғын (отыр) т.б.*

Сөздің түбірі бұзылған соң, жалғау жалғанғанымен түзелмейді. Керісінше бұзылған сөздерді көбейте береді: *барсай + шы (дұрысы: барсаңшы), жүрсей + ші (жүрсеңші), тұрсай + шы (тұрсаңшы), қасай + шы (қалсаңшы), отсай + шы (отырсаңшы), кесей + ші (келсеңші) т.б.; барғай + сың (дұрысы: барарсың), жүргей + сің (жүрерсің), тұрғай + сың (тұрарсың), қағай + сың (қаларсың), кегей + сің (келерсің), отқай + сың (отырарсың) т.б.*

Мен, сен, ол, олар, біз деген қарапайым сөздердің өзін *менші, сенші, олшы, оларшы, біздерші* деп өзгертіп айтады. Мектептерде оқушылар қазақ тілін қазақ тілінің дыбыс үндестігімен сөйлеуде де адасады: *бүгін ба? (дұрысы: бүгін бе), кеше ма? (кеше ме), дейсін ба? (дейсің бе), түсіндіңдер ма? (түсіндіңдер ме), сіздер ма? (сіздер ме) т.б.*

Осы сияқты бөгде сөздер мен диалект (сөйленіс) сөздерді ажырата білу, әдеби тілдік нормада сөйлеуге дағдылану және оқушыларды да дағдыландыру болашақ қазақ тілі және әдебиеті мұғалімдерінің негізгі міндеттерінің бірі. Мұғалімдер балаларға дұрыс білім беру үшін, өздері дұрыс сөйлеп, дұрыс жазуы керек.

Тіліміздегі осындай жергілікті ерекшеліктерді яғни диалектизмдерді жинап, қарастырудың білім алушылар үшін, ізденуші студенттер үшін зор маңызы бар. Диалектологиялық тәжірибенің (оқу практикасы) мақсаты – әр аймаққа тән диалектілерге

тән фонетикалық, лексикалық, грамматикалық ерекшеліктерді саралау, тілдегі жергілікті ерекшеліктермен таныстыру, диалектілердің тілді шұбарлау мен әдеби тілді байытудағы орнын көрсету.

Сондай-ақ, диалектизмді сөздер мен түрлі сөз тіркестерін, жергілікті тілдік деректерді жинап, зерттеу жұмыстарының қазақ тілі тарихы үшін, тілдің даму, өсу процестерін байқауда және қазақ тілінің басқа да туыстас түркі тілдерімен тарихи байланысын, қарым-қатынасын анықтауда, тілдік қорымызды байытып, молайтуда үлкен маңызы бар екендігі белгілі. Диалектілердің жалпыхалықтық тілге және әдеби тілге қатысын анықтауға, олардың өзара байланысын ашып алуға көп септігі тиеді.

Сондай-ақ, қазақ тілінің диалектілік, сөйленістік (говорлық) құрамын белгілеу, олардың сипатын, ерекшелігін, тарихи негізін анықтау мәселелерін жергілікті ерекшеліктерді толық қарастырып, оларды жинап, терең зерттеу арқылы ғана шешуге болатыны сөзсіз. Тіліміздегі диалектизмдерді ел, халық арасынан, мектеп оқушылары тілінен жинау әсіресе диалектологиялық тәжірибе жолымен, экспедициялық материалдар жинау жолымен жинап, тілдік ерекшеліктерді тұтынушы адамдармен тура, тікелей қарым-қатынас жасап, олардан байқалған жергілікті тілдік деректерді, түрлі сөз атауларын қағаз бетіне, не телефонның үнтаспаларына жазып алу арқылы іске асырылады.

Ізденуші студенттер диалектологиялық тәжірибе кезінде жергілікті (говорлар) тілдік ерекшеліктерді жинаумен бірге, сол аймаққа тән елді мекеннің орналасқан жері мен тарихы туралы, сол жердің географиялық ерекшелігі мен халықтарының табиғи өмір тіршілігін, сол жердің халқының айналысатын шаруашылығы мен кәсібі жайында да толық мәлімет, деректер жиғаны абзал. Сонда ғана ізденуші студенттің жиған жергілікті тілдік материалдары шынайы да нақты, сол жердің табиғи тілдік ерекшеліктерін толық ашуға бірден-бір негіз болады.

Диалектілік тілдік деректерді іздеп, жинаудың тілде бірнеше әдіс-тәсілдері бар. Солардың негізгі басты әдісі бұл - әңгімелесу болмақ, яғни әңгімелесу кезінде жергілікті тұлғалармен сақ та, мұқият болуы керек. Өзі сөйлесіп отырған тұлғамен жәй әңгіме дүкен құрған адам сияқты сөйлесіп, өзінің не мақсатты көздеп отырғанын білдірмейтіндей қылып, кез-келген тақырыпта әңгіме өрбіткені дұрыс. Бұл әдіс тәжірибе кезінде атқарылуға тиіс жұмыстың ең жауапты кезеңі болып табылады. Өзі әңгімелесіп отырған адамның аузындағы әр сөзге мұқият жіті көңіл бөліп, өзіне таңсық қажетті деп тапқан тілдік деректерін қағазға түртіп алып отырғаны жөн. Не болмаса әңгімелесушінің қасында отырған келесі ізденуші студент екеу ара айтылған әңгімелер арасындағы қажетті деп тапқан тілдік деректерді түртіп алып не телефон диктофонымен жазып алып отыру қажет. Осы бағытта диалектологиялық тәжірибе барысында жергілікті тұрғындармен күніне үш-төрт рет әңгіме-дүкен құрып отыру керек.

Мектеп оқушыларының тілінде, олардың сынып жұмыстарында жазған түрлі шығармалары мен мазмұндамаларында, өлең-жырлары мен түрлі шығармашылық еңбектерінде де жергілікті диалектизмді сөздер кездесіп отырады. Сол кездескен жергілікті диалектілік мәні бар сөздерді дұрыс жиып-теріп, зерттеп, оларды сөйлете білу диалектологиялық тәжірибе үшін, диалектология ғылымы үшін маңызы зор болмақ.

Диалектологиялық тәжірибе үшін негізінен шынайы мәліметтер жазбаша материалдардан алынады. Ізденуші студенттер тілдік мәліметтерді сол аймаққа, сол жерге тән түрлі газет-журналдар мен көркем шығармалар беттерінен, мектеп оқушыларының жазған шығармалары мен мазмұндамаларынан, өлең-жырлар мен іс құжаттары сенімхат, қолхат, түрлі арыз-шағымдар сияқты дереккөздерден де алады.

Диалектологиялық тәжірибенің сапасын арттыру үшін, тілдік мәліметтерді тиімді жию үшін әр ізденуші студент өзі сөйлесетін, әңгімедүкен құратын адамы туралы алдын-ала мәліметтер жиып алатын болса, және алдын ала арнайы қойылатын (ол адам туралы, кәсіпкер ме, малшы ма, егінші ме, балықшы ма, соған сәйкестеп) сауалдар әзірленуі керек. Әңгімелесу кезінде сол адамның еркін сөйлеп, көсілуіне жағдай жасап, арасында оған сұрақтар қойып, белгілі бір қызықты тақырыптарға әңгіме қозғаған жөн.

Қорытынды. Тіліміздің диалектілерін өз елімізден, әсіресе, халық арасынан жинақтау диалектологиялық тәжірибелер, экспедиция материалдары, тіл ерекшеліктерін пайдаланатын адамдармен тікелей қарым-қатынас жасау, жергілікті тілдік мағлұматтар, түрлі сөз атауларын қағаз бетіне түсіру немесе сөз тіркестері арқылы жүзеге асырылады. Жергілікті тілдік бірліктерді, диалектикалық лексика материалдарын талдауда талдау, синтез, негіздеу сияқты әдістермен бірге қарсы қою әдісі тиімді пайдаланылды. Оқу тәжірибе қорытындысы бойынша тиісті құжаттар тапсырады, атқарған жұмыстар талап негізінде бағаланады.

Қорыта айтқанда, тіл мен адам ажырамас бірлікте. Әлемде адамзаттан тыс тіл болмайтыны секілді, адам да тілсіз өмір сүре алмайды. Адамды тілсіз зерттеп білуге болмайтыны сияқты, тілді де адамсыз меңгеру мүмкін емес. Тіл адамның қоршаған ортасын, сол ортада қалыптасқан мәдениетті бейнелейді, мәдениетті сақтап, ұрпақтан-ұрпаққа, әкеден балаға жеткізеді. Тіл - таным құралы, адам оның көмегімен әлемді, мәдениетті танып, біледі. Сондай-ақ тіл - мәдениет құралы, ол адамды тұлға ретінде қалыптастырады, оның іс-әрекетін, өмір салтын, дүниетанымын, ұлттық мінезін, ділін, идеологиясын анықтайды. Тіл - айнымас қатал ұстаз, ол өзінде қалыптасқан идеяларды, пікірлерді, мәдени қабылдау модельдері мен іс-әрекеттерді таңудан танбайды. Тіл - әлем мен мәдениетті бейнелеуші әрі сол тілде сөйлеушілерді қалыптастырушы.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі:

1. Айдаров Т. Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктері (Өзбекстандағы қазақ говорларының материалдары бойынша). А., Ғылым. 1975.

2. Тасымов А. Қазақ диалектологиясы. А.: «Қазақ университеті, 2014.

3. Исаев С. Қазақ тілі. Оқу құралы, А.: «Өнер», 2007.

4. Сепир Э. Введение в изучение речи / Э. Сепир; переводчик А. М. Сухотин. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 211 с.

QARAQALPAQ TILINIŃ ARQA DIALEKTINDE TABU SÓZLERDIŃ QOLLANÍLÍWÍ

USE OF TABOO WORDS IN THE KARAKALPAK NORTHERN DIALECT

Qurbanbaeva Bazargúl Reymbaevna
Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı, filologiya ilimleriniń kandidatı, docent

Annotatsiya. *Maqolada qoraqalpoq tiliniń shimoliy dialektida qo'llaniladigan tabu so'zlar haqida so'z boradi. Urf-odatlarga va kasallik nomlariga boǵliq qo'llaniladigan tabu so'zlar shimoliy dialekt materialları asosida tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *etnografiya, dialekt, nutq, dialektik leksika, shevaga xos so'zlar, tabu so'zlar, urf-odat.*

Abstract. *The article provides that words used in the northern dialect of the Karakalpak language. The article employed the material of the northern dialect to evaluate taboo words associated with traditions and health issues.*

Key words: *ethnography, dialect, speech, a dialectic vocabulary, a dialectic word, taboo words, traditions.*

Til qubılısları júdá kóp túrli. Olarda insannıń qorshaǵan ortalıqqa, adamlarǵa, tábiyat qubılıslarına hám t. b. baylanıslı kóz-qarasları, túsinikleri sáwlelenedi. Usınday qubılıslardıń qatarında tabu sózlerdi ushıratıwǵa boladı. Bunday birlikler tildiń tiykarǵı sózlik qorında belgili orın iyeleydi. Sonıń menen birge, tabu sózler tildiń dialektlik qorında da ushırasadı.

Tabu. Ertede adamlar ele sanası rawajlanbaǵan waqıtta ayırım nárselerdiń atların aytıwdan qorıqqan. Máselen, tábiyat qubılısların káramatlı dep túsingen, olardıń atın tuwrı atawdan qorıqqan hám olardı basqa atama menen atawdı úrdiske aynaldırǵan hám t.b. Usıǵan baylanıslı tilde tabu sózler qáliplesken.

«Tabu fr. tabou < polinez. tapu-qásiyetli, tıyım salınǵan-áyyemgi qáwimlik jámiyette qanday da bir is-háreketlerdi islewge diniy tıyımlardıń jıyıntıǵı, ol tıyımlardı buzıw tábiyattan tıs kúshler menen jazalanǵan» [Qazaq tiliniń kirme sózder sózdigi 2019:482].

Tabu sózlerdiń qáliplesiwine baylanıslı bir qansha pikirler bar. Tiykarınan, tabu sózlerdiń tábiyat qubılısları insan ómirine qáwip tuwdırıwı múmkin bolǵan hár qıylı jırtqısh haywanlar yamasa túrli kesellikler sonday-aq, kelinniń jańa shańaraq aǵzalarınıń atın atawına baylanıslı qáliplesken.

«Tabu etnografiyalıq atama bolıp, Polineziya xalıqları arasında ırım sıpatında belgili bolıp kelgen. Tabu-bul qadaǵan etilgen, qol tiygizip bolmaytuǵın degendi bildiredi. Tabu sózlerdiń kelip shıǵıwında anaw yaki mınaw xalıqtıń ekonomikalıq sharayatı, úrp-ádetleri, kóz-qaraslarınıń áhmiyeti úlken bolǵanlıǵın kórsetedi. Máselen, ele ilim-texnika rawajlanbaǵan jámiyet rawajlanıwınıń dáslepki dáwirlerinde, anıǵıraǵı, qáwim hám feodalizm dáwirinde bazı bir xalıqlar ortasında jin, árwaq hám soǵan uqsas iláhiy nárselerge isenim júdá kúshli bolǵan. Bunday xalıqlar jin hám árwaqlarǵa jaqın bolǵan shaxs yaki nárse-buyım atların tilge almasa, olardan saqlanıw múmkin, bolmasa basına kóp apatlar jawadı, jin hám árwaqlar urıp ketedi dep oylaǵan. Sonıń nátiyjesinde yarım iláhiy sanalǵan qabila baslıqları ólgennen keyin olardıń jeke nárselerine tiyiw, olardıń atın tilge alıw júdá qadaǵan etilgen» [Rajabov 1996:287].

Tabu sózler hár qanday tildiń sózlik qorında ushırasadı. Olar bir qansha mánilik ózgesheliklerge iye bolıp keledi. Tilde tabu sózlerdiń úrp-ádet, dástúrlerge, túrli keselliklerge, ırımlarǵa baylanıslı ózgeshelikleri kózge túsedi. Olar tek tildiń tiykarǵı sózlik qorında emes, al dialektlik leksikanıń quramında da saqlanǵan. Olardıń ayırım dialektlerde saqlanıp qalǵanlıǵı, ushırasıwı ayrıqsha qızıǵıwshılıq payda etedi. Olardıń dialektlik leksikada da qollanılatuǵının názerde tuta otırıp, biz qaraqalpaq tiliniń arqa dialektinde jumsalatuǵın dialektlik tabu sózlerdi tómendegi toparlarǵa bólip qarawdı maqul kórdik:

1.Úrp-ádet, dástúrlerge baylanıslı dialektlik tabu sózler;

2. Kesellik atamalarına baylanıslı dialektlik tabu sózler.

Bunday dialektlik tabu sózler de bir qansha ayırmashılıqlarǵa iye bolıp keledi. Olar dialektlik leksikada ózine tán sıpatlı ózgeshelikleri menen ajıraladı.

1. Úrp-ádet, dástúrlerge baylanıslı dialektlik tabu sózler.

Qazaq, qaraqalpaq xalıqlarınıń úrp-ádet, dástúrlerinde tabu sózler qatań saqlanǵan. Máselen, ata-ene, qáyin aǵa, qáyin ini, qáyin apa, qáyin sińli, hátteki, qońsı-qobalardıń urıwı bir, urıwlas adamlardıń atın aytpay húrmet etilip, bul dástúr qaraqalpaq xalqında qatań saqlanǵan. Tabu sózlerdiń payda bolıwı erte dáwirlerge barıp tireledi. Tabu sózler tárbiyalıq áhmiyetke iye. Tabu sózler etnografiya menen baylanıslı. Sebebi, úrp-ádet, dástúrlerge baylanıslı tabu sózlerde xalıqtıń dástúri, húrmet, sıylasıǵı kórinedi. Tabu sózlerde etika, estetika bar. Mısalı, úrp-ádet, dástúrlerge baylanıslı qollanılatuǵın tabu sózlerde jası úlkendi húrmet etiw, sıylaw, húrmetin ornına qoyıw sıyaqlı máni bar. Ata-ananı húrmetlew, qız túsken jerinde kúyewiniń, onıń tuwǵan-tuwısqanlarınıń atın aytpay húrmet etiwi haqqında xalıq mınanday waqıya bolǵanı haqqında aytadı: «Qız balanıń sheberligi kiyimge oyıw-órnek salıwda, úydi bezewde kózge túsedi». S.P. Tolstov, T.A. Jdanko sıyaqlı alımlar tárepinen jıynalıp, úlken etnografiyalıq toplamǵa kirgizilgen sıńar máni beriwshi joqarıdaǵı sózler xalqımızdıń bir qansha bólegi ele Jańadarya, Orınbay qala átirapında otırǵan zamanda Aypara sheber degen jas jáwan tárepinen aytılǵan. Ayparaǵa sheber laqabı qız bala gezlerinde berilgen. Ol jaslay uzatılıp jiberilgen. Kúyewi menen qoy baǵıp júrip, dáryanıń arjaǵında atawda qamıslıqtıń arasında, qasqırdıń qoylardı alqımlap atırǵanın kórip, umtılıp, tayaqlap, onı qashıradı. Kúyewi bunı: «Úyge barıp tez pıshaq-qayraq ákel»,-dep jumsaydı. Aypara úyine kele:

-Sıldıramanıń arjaǵında, ızıńlamanıń arasında ulıytuǵın mańıramanı alqımlap ketken. Solardı hadallamaǵa, kesetuǵın menen janamanı berip jibersin, dedi,-dep Dáryabay, Atawbay, Qamshıbek, Qasqırbay, Qoshqarbay, Qılıshbay, Qayraqbay sıyaqlı ata, qáyni, qaynaǵalarınıń atın aytpay, awıspalı máni beriwshi sózlerdi irkilmesten tawıp aytıp, óziniń ne maqsette kelgenin anıq jetkergen. Kúyewiniń jáne onıń jaqınlarınıń, ulıwma ruwlaslarınıń atın aytpaw, olarǵa awıspalı mánige iye sıńar atlar qoyıp alıw mádeniyatı qaraqalpaq jáwanlarına elege shekem tán nárse. Bunı xalqımız iybeliliktiń, ádep-ikramlılıqtıń, sıylasıqtıń belgisi dep túsinedi. [Ábdiev, Reymov 2019:107-108].

Qaraqalpaq tiliniń arqa dialektinde tómendegidey tabu sózler ushırasadı. Qaraqalpaq xalqında er adamlar júdá húrmet etilgen. Hayallar olardı shańaraqtıń iyesi, basshısı sıpatında húrmet etip, «erim-pirim» dep sıylaǵan. Sonlıqtan kúyewiniń atın aytpay *meniń kisim, úydegi, úydegi kisi* (Q.-ózek, Quralpa) dep ataǵan.

Eger shańaraqta tuńǵısh perzent tuwılsa onı ata-eneniń (kempir-ǵarrınıń) balası dep esaplaǵan. Ata-eneniń húrmetine balanıń atın aytpay oǵan at qoyǵan. Mısalı, qız bolsa Ayman, ul bolsa hám t.b. Hátteki, bul tuńǵısh perzent óz ata-anasın ájaǵa, kishe dep shaqırǵan. Qaraqalpaq xalqında bul dástúr ele de saqlanǵan. Bul dástúr basqa xalıqlarda joq, tek qazaq hám qaraqalpaq xalıqlarında saqlanǵan. Úrp-ádet, dástúrlerge baylanıslı qollanılatuǵın *bóke* sózi dialektte eki túrli

mánini bildiredi: *bóke* 1) (Kegey.)-úydiń eń úlken balası; 2) *bóke bala* (Bozat.)-úydiń kishkene balası. Mısalı: Úydiń eń úlken balasın *bóke* deydi.

Eger enesiniń, qáyin sińlileriniń atınday bolsa ol adamnıń atın ayta almay *at teris* (T.-kópir), *at shep* (Qanl.) degen. Mısalı:

Ayta bersem, atań kópdur,
Aytpa hesh waq: «atı shepdur»,
Gezek Dáwekeńe kelip tur,
Qaraqalpaqqa dańqı ketken,
Ol Dáwletmurat Seytekovdur. (K.A.)

Bunday *atı teris, atı shep* dialektlik tabu sózleri awızeki sóylewde ónimli paydalanıladı.

Atshep tabu sózi haqqında S. Shınnazarova bılay dep jazadı: «*Atshep//atı shep* sóylesimde hayal adam kúyewi tárepinen jaqın aǵayin birdey ismdegi er hám hayal adamlardı usılay ataydı. Mısalı:

– *Atshep* qaynaǵanıń úyinde búgin qonaq bar qusaydı (Qanl.)» [Shınnazarova 2021: 40]

Tilde *shep* hám *teris* sózleri birdey, jaqın mánilerdi bildiretuǵın sinonimler bolıp esaplanadı. Qaraqalpaq tilinde «atshep» túrinde ushırassa, qazaq tilinde «atı teris» túrinde qollanıladı. Bul jaǵday túrkiy tillerde tabu sózlerdiń paydalanılıwındaǵı jaqınlıqtı, uqsaslıqtı kórsetedi. «Atı teris-eski isenim boyınsha qazaq hayalları qayın ata, qayın aǵalarınıń atın atawǵa bolmaydı «gúna» dep esaplaǵan. Sol kisiler atlas kishi adamlar bolsa, olardıń da atların atamay, atı teris dep ataytuǵın ádet bolǵan [Ótemisova 2012: 27].

Qaraqalpaq tiliniń arqa dialektinde usı *shep* sózi menen qollanılatuǵın basqa da tabu sózler bar. Ádebiy tildegi sapar ayı arqa dialektte «shep ay» dep ataladı. Sapar sózi, sonıń menen birge, qaraqalpaqsha adam atlarında da qoyıladı. Qaraqalpaq xalqındaǵı úrp-ádet, dástúrge muwapıq kelinniń kúyewiniń tuwısqanlarınıń atı tuwrı aytılmaydı. Máselen, arqa dialektte Sapargúl ismi «Shep ay» túrinde tabulıq mánide qollanıladı (Nókis r.).

Sapar ayı ataması bir qansha túrkiy tillerde bar. Tatar tilinde bul atama bılay paydalanıladı: «Sabır ay, sábár ay, sápár ay, sáfár ay musılman kalendarında ekinshi aydıń atı. Tuy sabır ayda bulmasın, sabır aydan alda tuynı qılıp qalayıq, tip áytálár. Sabır ay-awır ay, awırsınatlar. Sabır ay-sabırtsılıqsıs ay, tigánnár. Anta keshe tun ta tektermáyte, yulǵa da tsıqmaytı. Sáfár ay-xátár ay, tuy yasama yaramay». [Tatar teleneń zur dialektologik súzlege 2009:23].

Qaraqalpaq xalqında sapar ay qıyın, kiyeli ay dep túsinilip, bul ayda adamlar uzaq jolǵa, saparǵa shıqpaǵan, toylar bermegen, al xalıq shańaraǵı, bala-shaǵasınıń amanlıǵı ushın quday jolına sadaqa berip otırǵan. Xalıqta bunday túsinik házir de bar. Sonlıqtan da, xalıq arasında sapar ay «Bilmegenge bildirtemen, bilgendi ildirtemen» degen gáp bar.

Qaraqalpaqlarda úydiń bereketi ketpewi ushın uytqı soralmaǵan. Eger júdá májbúr bolsa, uytqı *bas juwǵı* (Kegey.) dep soralǵan.

Ulıwma, dialektlik sózler xalıqtıń turmıs tájiriybeleri, úrp-ádet, dástúrleri, tábiyatı, tariyxı hám t.b. menen tıǵız baylanıslı. Olardıń arasında arqa dialektte ushırasatuǵın úrp-ádet dástúrlerge baylanıslı tabu sózler de bar.

2. Kesellik atamalarına baylanıslı dialektlik tabu sózler.

Ertede adamlar medicinanıń rawajlanbaǵan waqtında awırıw aldında hálsizlikti sezgen hám ol awırıwdıń atın tuwrı aytpay, basqasha ataǵan. Adam ómiri ushın júdá qáwip tuwdıratuǵın, jaman, emi joq awırıw, keselliklerdiń atların atawǵa tıyım salınǵan. Sonlıqtan olar usı kesellik mánisin ańlatıwda túrli tabu sózlerdi oylap tapqan. Mısalı: *maqaw kesel* (Qanl., Jayx.), *kelte//kelte awırıw,* eger adam ilelep awırsa *uslap awırıw* (Shoman.), rak keselligin *atı bar awırıw* dep ataǵan. Dialektte bul awırıw *jińishke tamaq, jińishke japsaq* dep te aytıladı. Mısalı:

– Bayniyaz xojanıń kempiri jaqında qaytıs boldı ma?
– Awa, qırqı jaqında boldı.
– Onda ne tabıtı sınıp atır?
– He, ol ma ırımǵa ǵo.
– Qanday ırım?
– Ózi sol kempir jaqında ireń sheship ʸedi.
– Aqlıq balası *atı bar awırıwdan* ketip qaldı ǵo (rak ǵo).
– Dáwishtiń balası ma?
–Awa, sol ushın at izine shawmasın dep tabıttıń bir ayaǵın sındırǵan (Qanl.).

Xalıq jaman, emi joq, shıpası tabılmaytuǵın awırıwlardıń atın aytıwdan qorqqan, seskengen. Bul mısalda ırımǵa baylanıslı dialektlik tabu sózler qollanılǵan.

Kórkem shıǵarmalar tilinde de usı mánini bildiriw maqsetinde paydalanılǵan dialektlik tabu sózler ushırasadı. Mısalı: Ajar ishinen «nawqaslıǵı durıs shıǵar, *kelte awırıwınan* turǵanday túsi. Adam arıqlasa aydındaǵı kóshpedey shoshayǵan murnı qaladı eken-aw!» – dedi (K. S.). *Sabaqlı keselge* shatıldı (K.S.). Úy mashqalası jeńilip dúzelip kiyatırǵanına qaramastan kóp sarsıq, ishley kúyiniw Aqbiydaydı *jińishke japsaqqa* tap qıldı (T. Q.).

Bunda súzek keselligi-kelte awırıw, rak keselligi-sabaqlı kesel, jińishke japsaq dialektlik tabu sózleri arqalı bildirilgen.

S. Shınnazarova Qanlıkól sóylesiminde usı tabu sózdiń tómendegishe qollanılatuǵının atap kórsetedi: «Sóylesimde qollanılatuǵın jińishke tamaq, aǹǵalaq leksemaası medicinadaǵı onkologiyalıq awırıw (rak) mánisin aǹlatadı. Mısalı: Jezdem so jıl *jińishke tamaq* penen nawqaslanıp atır edi (Qanl.). Al *aǹǵalaq* sózi-onkologiya sóziniń fonetikalıq ózgeriske ushıraǵan túri» [Shınnazarova 2021:40]. D. S. Nasırov, O. Dospanov bul keselliktiń arqa dialektte mına atama arqalı aytılatuǵının kórsetedi: «Sabaqlas kesel – awırıwdıń túri (Kr.) [Nasırov, Dospanov 1983:253]. Sonday-aq «jińishke» sózi antroponim, toponim, gidronim, oykonimler hám t. b. quramında ushırasadı: X-XII ásirlerde Qońırat qalasınan 8-10 km qublada Jińishke (Topıraq qala) al 15-20 km batısta Qazıbay axun qorǵanı, 32 km arqa qashıqlıqta Hákim ata qorǵanları ornalasqan. Jergilikli qatıqulaq jası úlken adamlardıń aytıwınsha Jińishke qalasına suw aparıw ushın Jińishke degen adam saǵasın Xorezmdegi pitnek degen jerden Ámiwdáryadan saǵa alıp kanal qazdırǵan. Sol adamnıń atı menen bul kanal Jińishke kanalı dep atalǵan. Jińishke saldırǵan qalanı da (Topıraq qalanı da) sol adamnıń atı menen ataǵan. Waqıttıń ótiwi menen Jińishke atı kanalǵa baylanıslı saqlansa da qalaǵa baylanıslı Jińishke ataması umıtılıp, ol Topıraq qala dep atalıp ketken [Esbergenov 1993:19-20].

Eski Qońırat qalasında túslik shıǵısta 5 kilometr qashıqlıqta *Jińishke* házirgi Lenin jap kanalınıń boyına ornalasqan [Esbergenov 1993:74].

Ilimpazlar arqa dialektte awırıw, kesellikke baylanıslı basqa da tabu sózlerdi kórsetedi: «Uzınawırıw (uzunawırıw)-govorda kóp jatqan awırıwdı usılay aytadı.

Jaman awırıwǵa jaqsı as,
Uzınawruwǵa kespas (Mr.)» [Nasırov, Dospanov 1983:308].

Kesellik atamaları adamlarda hár qıylı qáweterleniw, qorqınısh sezimlerine baylanıslı basqa da tabu sózler arqalı bildirilgen. «Jaman awırıw degende boladı. Biraq birden awırıp tez jazılatuǵın awırıwdıń bir túrine aytıladı [Begjanov 1971:107].

Sonday-aq, kesellik atamalarına baylanıslı basqa da bir qansha tabu sózler qáliplesken. S. Shınnazarova «kelte tumaw» dialektlik tabu sóziniń paydalanılatuǵının kórsetedi: «Kelte tumawdı tik ayaqtan júrip ótkergen (Qanl.). Ád. t.-tumaw/gripp awırıw atamasın bildiredi. Demek, birinshi sıńarı sapalıq, qatnaslıq hám túr-tústi bildiretuǵın kelbetliklerdiń atlıq penen dizbeklesip keliwi

arqalı ósimlik, haywan, jánlik, adam awırıwınıń ataması hám basqa da semadaǵı sóylesimlik quramalı atlıqlardı jasaydı» [Shınnazarova 2021:40].

Al, T. Begjanov qaraqalpaq tiliniń Moynaq sóylesiminde «Atı jaqsı» (qurózek) dialektlik tabu sóziniń qollanılatuǵınına kórsetedi: Atı jaqsı – adamda bolatuǵın awırıwdıń bir túri. Bunı qurózek dep te ataydı [Begjanov 1971:107].

Kelteden turǵanday. Súzek (súzeg)-burınları adamlar súzek penen kóp awırǵan. Súzektiń kelte degen túri bolǵan. Adamlar birden qattı qıynalatuǵın bolǵan. Sonlıqtan usıǵan baylanıslı «kelteden turǵanday» degen dizbek qollanıladı. Tiykarında súzek penen awırǵan adam kóp waqıt, aylap ta jatatuǵın bolǵan. Bul dialektlik tabu sóz qazaq tiliniń dialektlerinde de usı mánide ushırasadı: *Kelte* (Alm., Jam.)-súzek, ish súzek [Qazaq tiliniń aymaqtıq sózdigi 2005:313].

Juwmaqlap aytqanda, qaraqalpaq tiliniń arqa dialektinde qollanılatuǵın tabu sózler úlken qızıǵıwshılıq payda etedi. Olardan xalıqtıń úrp-ádet, dástúrlerine hám kesellik atamalarına baylanıslı tabu sózler ónimli ushırasadı.

Paydalanilǵan ádebiyatlar:

1. Қазақ тілінің кірме сөздер сөздігі. Сөзлик. -Алматы: Ұлттық аударма бюросы, 2019.
2. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
3. Әбдиев А., Реймов А. Тахтакөпир тәрийпи. –Ташкент: Turon-Iqbol, 2019.
4. Шынназарова С. Ж. Қарақалпақстанның Қанлыкөл аймағындағы қарақалпақлардың сөйлеў тили өзгешеликлери. Монография. –Ташкент: Yosh avlod matbaa, 2021.
5. Өтемисова Г. Ж. Қазақ тіліндегі көнерген аталымдар лұғаты. –Алматы: 2012.
6. Татар теленең зур диалектологик сүзлеге. –Казан: Китап, 2009.
7. Шынназарова С. Ж. Қарақалпақстанның Қанлыкөл аймағындағы қарақалпақлардың сөйлеў тили өзгешеликлери. Монография. –Ташкент: Yosh avlod matbaa, 2021.
8. Насыров Д. С., Доспанов О. Қарақалпақ тилиниң диалектологиялық сөзлиги. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1983.
9. Есбергенов Х. Қоңырат. Тарийхый ҳәм мәдений естеликлери. –Нөкис: Билим 1993.
10. Есбергенов Х. Қоңырат. Тарийхый ҳәм мәдений естеликлери. –Нөкис: Билим, 1993.
11. Насыров Д. С., Доспанов О. Қарақалпақ тилиниң диалектологиялық сөзлиги. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1983.
12. Бегжанов Т. Қарақалпақ тили диалектологиясының мәселелеринен. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1971.
13. Шынназарова С. Ж. Қарақалпақстанның Қанлыкөл аймағындағы қарақалпақлардың сөйлеў тили өзгешеликлери. Монография. –Ташкент: Yosh avlod matbaa, 2021.
14. Бегжанов Т. Қарақалпақ тили диалектологиясының мәселелеринен. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1971.
15. Қазақ тілінің аймақтық сөздігі. –Алматы: Арыс, 2005.

QO‘SHMA TOPONIMLAR IZOHI

DESCRIPTION OF ADDITIONAL PLACE NAMES

Ergasheva Nodira Abdurayimovna
katta o`qituvchi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
ergasheva.68@list.ru

Annotatsiya*. Dunyo tilshunosligida toponimlarning tarkibiy qismlarini lingvistik paradigmalar asosida o‘rganish xalqning ijtimoiy hayotini, milliy, etnik, madaniy tarixini, shu xalq tilining tarixiy taraqqiyotini yoritishda ahamiyatlidir.*
Kalit so‘zlar*: Madaniyat tarixi, topoformantlar, linvistik paradigma, tog‘ komponentli.*

Abstract. *The study of the components of toponyms in world linguistics based on linguistic paradigms is important in illuminating the social life of the people, their national, ethnic, cultural history, historical development.*
Key words: *History of culture, topoformants, linguistic paradigm, mountain.*

Dunyo tilshunosligida toponimlarning tarkibiy qismlarini lingvistik paradigmalar asosida o‘rganish xalqning ijtimoiy hayotini, milliy, etnik, madaniy tarixini, shu xalq tilining tarixiy taraqqiyotini yoritishda ahamiyatlidir. Toponimlar muayyan tilda xalq tomonidan yaratiladi va o‘sha davrning ijtimoiy hayoti haqida axborot beradi. Toponimlar xalqning o‘tmishi, urf-odatlari, boshidan kechirgan turli xil ijtimoiy-siyosiy, etnomadaniy jarayonlarni o‘zida saqlovchi lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ana shu ma’noda toponimlar tilning tarixiy, lisoniy boyligi, xalq ma’naviyatining ajralmas merosidir.

O‘zbek tilida murakkab toponimlar bir qator topoformantlar asosida yasaladi: -abad/obod (Xayrobod); -kend/kent/kand (Mirkent, Samarqand); -oul (Turkmanoul, Qozoqovul), -qo‘rg‘on (Kattaqo‘rg‘on, Dalaqo‘rg‘on, Oqqo‘rg‘on), qum (Qizilqum, Qoraqum), -ko‘l (To‘dako‘l, Aydarko‘l), -tosh (Oqtosh), -qala (Ayazqala, Tuproqqala), -saroy (Oqsaroy, Ko‘ksaroy), -shahar (Yangishahar), -tog‘ (Qoratog‘, Bobotog‘) -chashma (Sarchashma), -daryo (Oqdaryo, Qoradaryo), ariq (Buzariq, Qizilariq, Egriariq), -yangi (Yangiyo‘l, Yangibozor, Yangiyer), qishloq (Sho‘rqishloq, Pishakqishloq), -suv, -su (Oqsuv, Chorsu, Qorasuv, Sho‘rsuv), soy (Chuqursoy, O‘rtasoy, Qipchoqsoy, Chimyonsoy), -bo‘loq (Mingbo‘loq, Fotimabo‘loq),-tepa (Oqtepa, O‘ratepa, To‘ytepa).

Yuqoridagi misollar tahlilidan toponimlarning vujudga kelishida ma’lum motivatsiya va ma’noga ega topoformantlar mavjudligini ko‘rish mumkin: -tog‘, -qala, - shahar, - ko‘l, -chashma, -suv. Masalan, Qoratog‘, To‘dako‘l, Sarchashma va boshqalar. Bu obyektlarning geografik joylashuv xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati bilan bog‘liq. Masalan: tog‘ komponentli toponim uning geografik joylashuvidan darak beradi, shahar komponentli toponimlarda esa bu georafik obyektning maydoni, ijtimoiy ahamiyati inobatga olinadi. A. A. Kamalov toponegizlarni qo‘shish natijasida paydo bo‘luvchi munosabatlarning xarakteridan kelib chiqqan holda, murakkab toponimlarni juft va aniqlovchi toponimlarga ajratadi. Juft toponimlarning bitishuv darajasi va strukturasi har xil bo‘lishi mumkin: murakkab, sodda va aralash: Oqtepa – Xonimqo‘rg‘on, Bog‘ishamol – Amir Temur qishlog‘i. Aniqlovchi toponimlar orasida A. A. Kamalov qo‘shma, aralash va kengaytirilgan toponimlarni ajratadi. Qo‘shilgan toponimlar struktura jihatidan turkiy

tillardagi izofaning I tipiga to‘g‘ri keladi, (ya’ni, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin bosh kelishikda turadi), masalan, Yangihayot, Bobotog‘, Yangiqo‘rg‘on va boshqalar. Qo‘shma toponimlarga aniqlovchi sifat, son, ravish va fe’l bilan ifodalangan toponimlar ham kiradi: masalan, Oqtepa, Dehqonobod, Oqtepa, Ko‘kelka.

Bizning tahlilimiz shuni ko‘rsatadiki, murakkab toponimlar bir necha model bo‘yicha yasalishi mumkin: “ot + ot”; Sohilbo‘yi, Bibixonim, Majnuntol, Ketmontepa, Murodtepa, Do‘stobod, Jahonobod, Go‘ro‘g‘li; “sifat + ot”: Xonsaroy, Sarbozor, Toshko‘prik, Yangisoy, Oqsuv, Yangiyer, Qoratepa, Qaynarbuloq.

Biz o‘zbek tilida qo‘yidagi modellar ko‘proq tarqalganligini ko‘rishimiz mumkin: «son + ot» Mingbo‘loq, Oltiariq, Beshkapa, Uchtepa, Mingchinor, Uchqo‘rg‘on, Besh qaraganda juda kam uchraydi: O‘zbek tilida qo‘yidagi modellar ham mavjud: sifatdosh + ot: Yangibozor, Yangiyo‘l, Eskianxor, Sho‘rquduq. ot + kesim: Otchopar, Cho‘lquvar, Jarko‘chgan. Bundan tashqari, o‘zbek tilida fors izofasi asosida yasalgan toponimlar ham mavjud: Bog‘ishamol, Bog‘ibaland, Cho‘libo‘ston. Tarkibiy toponimlarning murakkab toponimlardan farqi shundaki, ularda oxirgi komponent sifatida qo‘llanuvchi obyektni nominallashtiruvchi terminlar, 3-shaxs affiksi bilan birga qo‘llaniladi: O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati, Amir Temur jamoa xo‘jaligi, Zarafshon fermerlar uyushmasi. Qo‘shma toponimlar sirasiga tarkibida bir yoki ikkita aniqlovchi va bitta tayanch so‘z ishtirok etgan so‘z majmualaridan iborat bo‘lgan toponimlar kiradi. Tarkibiy toponimlarning birinchi komponenti aniqlovchilar ikkinchi komponentlari esa tayanch (hokim) so‘zlardir. Ular o‘rtasidagi aloqa yadro va yo‘ldosh munosabati kabidir: ayrim funksional uslublarda aniqlovchining mavjud bo‘lmasligi toponimning amal qilishiga ta’sir ko‘rsatmaydi, ammo tayanch so‘zning tushirib qoldirilishi toponimni til birligi maqomidan mahrum qiladi.

Qo‘shma toponimlar: Paxtachi tumani toponimlari orasida ham qo‘shma toponimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Hududda qo‘shma toponimlarning morfologik asosi va strukturasiga ko‘ra quyidagi turlari uchraydi:

- ot+ot strukturali toponomlar: Murod+tepa, Qiz+buvi, Dehqon+obod, Tosh+quloq, Tariq+poya, Sulton+obod.

- sifat+ot strukturali toponimlar: Tosh+ko‘prik, Sar+bozor, Oq+gumbaz, Oq+machit, Ko‘k+yelka, Kenja+yuz, Boy+tut, Ko‘k+saroy, Oq+tovuq, Yangi+hayot, Qo‘sh+chinor, Oq+qiz, Oq+tovus, Sar+chashma Qo‘sh+yog‘och, O‘rta+qishloq, Joman+jar, Kalta+toy, Yangi+hayot, Qamishko‘l, Gul+buloq, Oq+tepa, Qoraqishloq, Gulbuloq;

- son+ot strukturali toponimlar: Uch+machit, Ming+tut, To‘qqiz+kamar, Ming+yong‘oq, S(e)+metan;

- ot+fe’l strukturali toponimlar: Ilon+o‘tdi, Shoh+suvor, Ot+chopar, Sil+buroz (bu toponim aslida Silbuzar shaklida bo‘lgan, xalq jonli tilida metatezaga uchrab Silburoz shaklida talaffuz qilina boshlagan.

- ot+fe’l strukturali toponimlar: Ilon+o`tdi, Ot+chopar, Tuyatortar, Bo`rioshar, Odambormas, Oy+tegmas, Suv+chiqmas.

Toponimlarni lisoniy jihatdan tahlil qilish, ayniqsa, semantik xususiyatlarini o‘rganish xalqning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini, tilning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda, nominativ, kommunikativ, akkumulyativ funksiyalari mohiyatini aks ettirishda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Enazarov T.J. O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo‘llari: filol. fan. d-ri diss. avtoref. – T., 2006. - 58 b.

2. Xayrullayev X. Til va nutq birliklarining pog‘onali munosabati. Filol. fanl. dokt... disser. avtoref. –T. 2010. – 44 b.

3. Sanayev I.Ziyovuddin tarixi.Toshkent, 1995 y.206-b.

4. Sanayev I.Bu ko‘hna dunyo..Toshkent, 1996 y.26-29b.

O‘ZBEK TILINING QO‘QON SHEVALARIGA XOS AYRIM XUSUSIYATLAR

SOME CHARACTERISTICS OF THE KOKAN DIALECTS OF THE UZBEK LANGUAGE

Usmonova Sofiya Alimovna,
Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
sofiya.usmonova.72@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qo‘qon shahri va unga yaqin qishloqlar shevasiga xos dialektizmlar (leksik dialektizmlar, fonetik dialektizmlar, grammatik dialektizmlar) va ularning mavzuiy guruhlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *dialektizmlar, leksik dialektizmlar, fonetik dialektizmlar, grammatik dialektizmlar, dialektal leksikani mavzuiy guruhlash.*

Abstract. *This article discusses dialectisms (lexical dialectisms, phonetic dialectisms, grammatical dialectisms) and their thematic groups specific to the dialect of the city of Kokhan and nearby villages.*

Key words: *dialectisms, lexical dialectisms, phonetic dialectisms, grammatical dialectisms, thematic grouping of dialectal lexicon.*

Qo‘qon shevasi o‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga mansub bo‘lgan Farg‘ona guruh shevalari tarkibiga kiradi. Shevada umumfarg‘ona tip shevalarini birlashtiradigan lingvistik xususiyatlar bilan birga, u shevalardan farqlanadigan o‘ziga xos xarakterga ega til faktlari ham mavjud. O‘zbekistonda mavjud 17 ta yirik shaharlardan biri bo‘lgan Qo‘qon Farg‘ona vodiysining ga‘rbiy qismi, So‘x daryosining quyi oqimida joylashgan. Xonlik davrida shaharga turli hududlardan turli millat va elat vakillari (qirg‘iz, turk, qozoq, tojik, uyg‘ur, qipchoq, ming, qoraqalpoq va h.) kelib, o‘troqlashgan, muqim qolgan maskanlar Qo‘qon shahri va atrof tumanlar qishloq, ko‘cha, mahalla, guzarlari toponimiyasida o‘z aksini topgan. Masalan, Qo‘qonda bo‘lgan F.Nazarov bu yer aholisining milliy tarkibiga to‘xtalib: “Bularning ichida g‘olcha (g‘alcha, g‘archa – “balandlik”) – Pomir va Pomir mintaqasidagi tog‘li eroniyzabon (tojik) xalqlar “tog‘ forslari” yoki “sharqiy forslar” [10] ham yashashi haqida ma’lumot bergan.

G‘alcha – tog‘liklarni tojiklar “g‘archa” (g‘ar – tog‘ demakdir) deb atagan. O‘zbekcha talaffuzga “g‘alcha” shaklida o‘tgan, ular kelib o‘rnashgan joylar G‘alcha deb nomlangan. Vodiyda shu nomdagi qishloqlar o‘nlab topiladi.

Yaqin yillarda O‘zbekiston tumanidan Qo‘qon shahri tarkibiga kirgan G‘alcha qishlog‘i, shahardagi G‘alchasoy nomi ham shu etnonim asosida paydo bo‘lgan.

Mir Izzat, H.Vamberi A.I.Bryanov, A.P.Fedchenko, N.A.Kislyakov va boshqalar tomonidan yozilgan tarixiy manbalarda ham shaharda ko‘plab etnik aholi mavjudligini tasdiqlaydi. Masalan, A.I.Bryanov Farg‘onada yashovchi qabilalar ichida qipchoqlar oz miqdorni tashkil etishiga qaramay ancha kuchli ekanligi va xonlikning siyosiy hayotida muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan [3. 6].

Hozirgi vaqtda Qo‘qon shahri aholisining etnik tarkibini: o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, tojiklar, tatarlar, ruslar, yahudiylar, koreyslar, uyg‘urlar va boshqa millat vakillari tashkil etadi.

O‘zbek tilining Qo‘qon shevasini o‘rgangan Sh.Nosirov uning vokalizmi borasida Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Abdurahmonovlarning fikrlariga munosabat bildiradi. “Bizning bu sheva ustida olib borgan kuzatishlarimiz Qo‘qon shevasida [ɣ], [ɵ] unli tovushlarining mustaqil fonema bo‘may, [y], [o] fonemalarining pozitsion varianti sifatida qo‘llanilishini ko‘rsatdi. ...Shuningdek, yuqoridagi tekshiruvchilarning hammasida alohida fonema sifatida berilgan [a] unlisi ham (qo‘llanilish doirasining kengligidan qat’iy nazar) shevada ma’no farqlash xususiyatini yo‘qotgan” [6. 15-16]

Qo‘llanishi hududga ko‘ra cheklangan so‘zlar dialektal leksikani tashkil etadi. Dialektal leksika ma’lum hududda yashaydigan barcha kishilar qo‘llaydigan, o‘sha yerdagi aholi nutqiga xos bo‘lgan so‘zlardir. Binobarin ma’lum bir lahja va shevalarga xos bo‘lib, adabiy til leksikasiga kirmaydigan bunday so‘zlar dialektizmlar deyiladi.

Ma’lumki, dialektizmlar: 1) fonetik dialektizmlar; 2) leksik dialektizmlar; 3) semantik dialektizmlar; 4) grammatik dialektizmlar kabi turlarga bo‘linadi.

Adabiy tildagi so‘zlarni sheva vakillari o‘z shevalarining fonetik qonuniyatlariga amal qilgan holda talaffuz etadilar. Tovush o‘zgarishi va talaffuziga uchragan bunday so‘zlar **fonetik dialektizmlar** deyiladi [7. 221]. Masalan: *mäjräm* (bayram), *mičiča* (musicha), sälqit (sarqit), *lɔdɔn* (nodon), *mišiq* (mushuk), *čäč* (soch), *sɔv* (sog‘), *ɔbčiq* (olib chiq) kabilar.

Qo‘qon shevasiga xos ayrim fonetik dialektizmlarni ko‘ramiz: *i* unlisi ikki bir xil undosh tovush o‘rtasida kelganda tushib qoladi: *haqqattä, berraɣ, ɔlt:tä kabi. Ba’zi o‘rinlarda i>e hesɔp, išittim; u>i čimčiy, minčä, minäqa, e>ä män, sän; u>i äšillä, zäril, xunig, minäqädä* singari almashinuvlari kuzatiladi; *ehtiyot* so‘zida *h* tushirilib, biroz cho‘zib talaffuz qilinadi: *e:tijɔtläp gäpirdi, e:tijɔti särt, e:tijɔtläp qoymɔq v.h.; aytmoq* fe’lidagi *y* talaffuzda tushadi: *ät, ättim, ättišdi*. Shu o‘rinda hayotiy voqea haqida to‘xtalishni o‘rinli deb o‘ylayman:

*Bir mehmon Qo‘qonga keladi. Manzil bo‘yicha eshikni taqillatadi. Ichkaridan yosh kelin chiqadi falonchining uylarimi, deb so‘ragan mehmon “**ät bät bäs**” degan javobni oladi. Qayta so‘rashga hijolat bo‘lib, hech narsaga tushunmay qaytadi. Bo‘lgan voqeani Qo‘qonlik tanishiga aytadi, u kishi adashib boshqa joyga borib qolganini, uy egasi “u yer bu yer emas”, ya’ni siz aytgan manzil emas degan javobni berganini tushuntiradi.*

U, bu, shu ko‘rsatish olmoshlari yer, yoq so‘zlariga qo‘shilganda olmoshlar tarkibidagi *u* unlisi *ä* unlisiga o‘tadi. *U yoq – ä**ɣ**, bu yoq – bä**ɣ**, shu yoq – šä**ɣ*** kabi. Shuni ta’kidlash kerakki, Qo‘qon va unga yondash qishloq shevalarida ayrim tomonga ishora qiluvchi olmoshlar shaxsga nisbatan ham qo‘llanadi: turmush o‘rtog‘i – kuyoviga nisbatan: *bäɣ, bu kiši, bu kišim* so‘zlari. *bäɣdän so‘rädim, bu kiši šunäqa dillä, bu kišim ättilä* kabi. *Shu yoq olmoshi – šäɣ* II shaxsga nisbatan: šäɣ ättilä, šäqä ätɔräs.

Dialektizmlarning so‘zlardagi ko‘rinishi, so‘z doirasidagi turi **leksik dialektizmlar** deyiladi. Ular **dialektizm** – **so‘z** deb ham yuritiladi. Qo‘qon shahri va unga yaqin atrof

tumanlardagi qishloqlar shevalari misolida leksik dialektizmlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Narsa-buyum nomlari bilan bog‘liq leksemalar: rovindik (choyshab), *čɔrsi* - qiyiq, *nurtɔpɔ* nurtopo //avvalgi rangini yo‘qotib, o‘ngib qolgan kiyim: *oŋib/p ketkän kijimdi nurtɔpɔ dijdi;*

2. Dehqonchilik bilan bog‘liq leksemalar: *päjmänčäk* (ariqdan suv oladigan maxsus joy), *ɔpčin* (devor tagidan o‘tkaziladigan suv yo‘li), *čäγir tut*- tut daraxtining bir turi, *γäzänčinäk* - mevaning oxirgi va mayda hosiliga nisbatan ishlatilgan, *čilgi čumäk***.** Bu so‘z shevada uzumning boshqa donalariga nisbatan ertaroq rang kirish hodisasiga aytiladi. *Chillaki chillakini ko’rib chumak urdi.* Uning dialektal varianti: *čilgi čilgini korip čumak uradi.* T.Mirzayevning “O‘zbek xalq folklori” darsligida quyidagicha keladi:

Boqqa kirmoqchi bo‘ldim,
Chilgi uzmoqchi bo‘ldim.
Chilgi chumak uribdi,
Yorga yolg‘onchi bo‘ldim [2. 136].

Inson xatti-harakati, xarakter-xususiyati bilan bog‘liq leksemalar: pɔjčokir (kirishimli, sodda), lɔγär (eski), mɔsɔv (garang), uvdiq (lanj, bo‘shashgan), qirpi (mug‘ombir), saltisvoy (bolasiz ayol, xotin), qoläntäjäq – oyoq kiyimini paypoqsiz, paytavasiz kiyish: etijdi qoläntäjäq kijvɔgämmän; xopitmɔq (cho‘milmoq), *aqaläš// aqalli aqalash//aqalli: bir ɔj jɔtip aqaläši kөŋil soräp kemäpti-jä; ällɔdä-äziz alloda-aziz // arzanda: minčä bäläsini älädä-äziz qimämäsä endi.*

älmäj-äldžäj/ almoy-aljoy // tuturuqsiz, keraksiz; *ɔzminčiγ* // ko’p; bäqamti baqamti // yuzma-yuz; *ba:(γ)rämäq* // ma’ramoq: *ba:(γ)rämäj qojdi*, pič*ä päjä sɔpqojdim*; *birväväräŋkisigä* birvarangkisiga birvorakayiga: *birväväräŋkisigä mɔšinäni bɔšlap keldi*; *ziŋšɔv zinshov* // sinchkov: *birxil ɔdäm džä sirgä ziŋšɔv boläd*i; *tiŋšämɔq, tiŋšip* – birovlarning gapini o‘zlariga bildirib, sinchiklab, astoydil eshitmoq, *zɔvči zovchi//sovchi*; *idšikiläm*ɔq/ *ijikilamoq* **–** miridan sirigacha (chuqur) surishtirmoq. *Bu ɔdäm džä: idžikiläjdigɔndä, ilvirs ilvirs* // zimdan ish bitiradigan (odam); *ilγämɔq* ilg‘amoq – ko‘ngil ozishi: *qatiγ mäni ilγadi*; *kädžbäs* - kajbas – o‘jar; *kepätäy* kepatay // ahvol, holat: *shu kepätäjgä čušip qɔpti*; *häzil-täjpän* - hazilkash: *häzil-täjpän ortaγ‘m bɔrijdi, xäkkäri* **–** ovqatlarni tanlab, xilini yeydigan kishi, qurčaq –qo‘g‘irchoq; *läkälɔv- lakalov* // landavur: *džä*: *läkälɔv bälä-dä*; *mätuv* -matuv // angrov: *mätuv bob otirɔvir*; *mäšqipäs* // kayfiyatsiz: *mäšqipäs korinädi*; *häp* // jim: *endi häp tur*; *tekiz/tekis* - kelishgan. Muqimiy “Sayohatnomasida” bu so‘z qo‘llangan:

“Yayfan” kabi tolzor kam,
Yo‘q soyasida zarra g‘am.
Zebo sanam, qoshi qalam,
Tekizlari bisyor ekan [5. 200].

Oziq-ovqat tayyorlash, unga oid buyumlar nomi bilan bog‘liq leksemalar: *Kälpätir*- yangi qurilgan tanirda ichiga ko'kat solib qilingan patir; *bɔzɔr säräptä* **–** sabzavot ekinlari, don, gurunch savdo qilish. *bugun bɔzär säräptä qiliš keräk. qoramta* - oxirigacha yonib ulgurmagan cho‘g‘, qishda sandal (tancha)ga ozgina cho‘g‘ solib qo‘ramta solinsa, ko‘mirga o‘xshab issiq bo‘ladigan cho‘g‘ bo‘ladi; *qorsäläm*ɔq *// porsäläm*ɔq – makkajo‘xorini cho‘g‘da ko‘mib pishirmoq, *ɔch bösäŋ γsh-törtä mäkkä qorsäläp yevɔl, tuppa* - suyuq osh uchun ugraga nisbatan enli qilib tayyorlanadigan uzma yoki kesma xamir. Uvraga uquving yoq, palovni lanj qilasan, somsani yopolmaysan, tuppani kesolmaysan [4. 528]; *zirbäy* **–** zirbay oshga sabzi-piyoz bosib qo‘yish: *ɔšti zirväjini täjälläp poydi*; pop (choy qaynatadigan bak), popči (samovarchi), ɔlamazɔn (o‘t, olovning gurullab yonishi), *bärkäš* – lagan, *qatirma* - hozirgi kunda qatlama so‘zining shevaga xos varianti.

O‘t-o‘lan, chorvachilik, yem-hashak bilan bog‘liq leksemalar: *hulvä* – yalpiz, *joŋičqa*- beda, *päčäq**p**äjä* - molga berilgan o‘tning qolgan qismi, nushqit, *qotɔn* - *qo'ykatak.*

Biror shevaning o‘ziga xos grammatik shakllari **grammatik dialektizmlar** deyiladi [1. 186]. Adabiy tildagi *“-miz*” shaxs-son qo‘shimchasi Qo‘qon shevasining adabiy tildagi *“-yapti*” hozirgi zamon fe’li qo‘shimchasi assimilyatsiya holatlarida *“-**piz**”* qo‘shimchasi (boryapmiz-*bɔrjäppiz*) bilan talaffuz qilinadi. Qo‘qon shahri va atrof tumanlari shevalari morfologik jihatdan besh kelishikli tizimga mansub, qaratqich va tushum kelishiklari uchun -ni/-nï, -ti/-tï, -di/-dï kabi shakllar qo‘llanadi. Quyidagi matnda hudud shevalariga xos leksik, fonetik va grammatik dialektizmlarga misollarni ko‘rish mumkin:

bïzdä sümäläk žüdä äžäjïp bɔlädï. ɔzï hämmämïz jïγïlëdïgän bëjräm häm šü. bïrgäläšïp tüppä öšlärïnï pïšïrärdïk. qürïtïlgän hülvälärdän, jɔnγïčqälärdän sɔlïp sɔmsälär qïlärdïk. bärkäšlärdä hämmä šïrïnlïklärdän tɔrtïp mëvälärdï *γäzänčïnäklärïgäčä* bɔr. Kättä qɔzängä sümäläktï sɔp, bïr *säržïn* këlädïgän ɔtïnlärdän qäläp *pɔjärdïk.* čɔjänlärdä süvlär qäjnäp jɔtärdï. Xülläs, mäzzä qïlärdïk.

(*Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani Oxta-Tagob qishlog‘i*)

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon shahri va atrof tumanlari shevalari ham o‘zbek shevashunosligida alohida o‘ringa ega. O‘zbek shevalari tarkibida mavjud shevaga xos dialektizmlarni aniqlash, dialektal leksikani o‘rganish, dialektologik tadqiqotlar olib borish, lug‘atlar yaratish masalasi dolzarbligini yo‘qotmaganligini guvohi bo‘lamiz. Biz ushbu kichik ishimizda kafedra qoshida tashkil etilgan “Areal lingvistika” to‘garagi a’zolari tomonidan to‘plangan ba’zi ma’lumotlarni ham vaqt, ham matn nuqtayi nazaridan qisqa holda berishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, 2005.
2. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. Toshkent: -2008.
3. Брянов А.И. На память О Фергане, 1876-1901 г. Новый Маргелан. 1901.
4. Қодирий А. Меҳробдан чаён. Тошкент, 1992.
5. Муқимий. Асарлар тўплами. II томлик. II том. Тошкент, 1960.
6. Носиров Ш. Ўзбек тилининг Қўқон шеваси. Тошкент: “Фан”, 1971.
7. Турсунов У., Мухторов Ж.,Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992.
8. Ўзбек халқ шевалари луғати. Тошкент, 1971.
9. Ўзбек шевалари лексикаси. Тошкент, 1991.
10. http://az.lib.ru/n/nazarow_f_m/text_1821_zapiski.shtml. (Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии.М., Главная редакция восточной литературы изд. Наука, 1968).

O‘TOVSOZLIK LEKSEMALARINING TARIXIY MANBALARDA BERILISHI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI

PRESENTATION AND LEXICOGRAPHICAL INTERPRETATION OF YURT CONSTRUCTION LEXEMAS IN HISTORICAL SOURCES

Berdiyev Xusan Xolnazarovich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri
rustam_berdiyev1996@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada o‘tovsozlik leksemalari, u bilan bog‘liq tarixiy manbalar haqida ma’lumotlar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *degrezlik, rixtagarlik, temirchilik, pichoqchilik, chilangarlik, taqachilik, qulfgarlik, anjomsozlik, miskarlik, leksikologiya, leksikografiya, terminologiya, semasiologiya, so‘z yasalishi, morfologiya.*

Abstract. *The article provides information about herbal lexemes and related historical sources.*

Key words: *blacksmithing, blacksmithing, blacksmithing, blacksmithing, blacksmithing, shoemaking, locksmithing, tool making, coppersmithing, lexicology, lexicography, terminology, semasiology, word formation, morphology.*

O‘tov turkiy xalqlarning qadimiy milliy madaniyatning yorqin namunasi hisoblanadi. Soha leksik sistemasi tadqiqi hozirgi globallashuv jarayonida alohida ahamiyatga ega. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi xalqimizning moddiy va madaniy tarixi bilan uzviy aloqador holda asrlar davomida boyib kelmoqda. Unda xalqning ijtimoiy hayoti, turmushi, kasb-kori, qarashlari, an’analari, urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar va bu tushunchalarni aks ettiradigan leksik qatlam hamda uning tarkibiy bir qismi bo‘lmish terminologik sistemalari rivoj topib keldi. Shubhasiz, ular milliy mentalitet va tasavvurlar asosida shakllangan, taraqqiy etgan, qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Binobarin, o‘tovsozlik leksik sistemasi tadqiqi xalqimizning ma’naviyati, urf-odatlarini yoritib berish, tilshunoslikning dialektologiya, leksikologiya, leksikografiya, terminologiya, semasiologiya, so‘z yasalishi, morfologiya kabi bir qator bo‘limlariga xos nazariy fikrlarni to‘ldirish, ularga aniqliklar kiritish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Prof.S.Ibrohimovning ishlarida Farg‘ona viloyati kasb-hunar terminlari, aniqrog‘i, *degrezlik, rixtagarlik, temirchilik, pichoqchilik, chilangarlik, taqachilik, qulfgarlik, anjomsozlik, miskarlik, zargarlik* kabi 20 ga yaqin “metallsozlik” hamda kulolchilik, tandirchilik, suvoqchilik singari “nometallsozlik”ka oid so‘zlar tadqiq qilingan. M.Abdiyevning doktorlik ishida Samarqand viloyati kasb-hunar terminlari sistem tahlil qilingan. Ishda *gilamchilik, do‘ppichilik, kashtachilik* kabi soha terminlari keng va batafsil o‘rganilgan.

So‘z tilning asosiy struktur-semantik birligi bo‘lib, borliq hodisa-lari, narsa va predmetlarning xususiyatlarini nomlashga xizmat qiladi va u fonetik, leksik, semantik va grammatik belgilarning majmui sifatida amalda qo‘llanadi [Гак 1990: 464.]. So‘zda kontekstuallik xususiyati ham borki, bu haqda L.A.Novikov shunday deydi: “Kontekstual semalar tufayli nutq (matn)da til birligi ma’nosining konnotativ nozikliklari yuzaga keladi. Konnotativ ma’nolar

asosida esa yasama (okkazional) ma’no tarkib topadi” [Novikov 1990: 437].

Ko‘rinadiki, so‘z o‘ziga xos o‘ta murakkab lingvistik hodisa. So‘zga berilgan ta’riflarning ko‘pligi va rang-barangligiga hayratlanmasa ham bo‘ladi. Chunki tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarining serma’no va serqirra ekanligi ularning lisoniy ifodasi bo‘lmish so‘zda ham o‘z aksini topadi [Abdiyev 2004: 9].

Termin so‘zi M.Fasmerda ko‘rsatilishicha, lotincha *terminus* “chegaraviy belgi” ma’nosini ifodalaydi [Фасмер 1987: 48]. O‘zbek tilida XX asrning 40-50 yillaridan oldin «istiloh» va «atama» so‘zlaridan foydalanilgan [Ahadova 2007: 24-27].

Terminshunoslik sohasidagi ishlarda termin va terminologiyaning nazariy va amaliy masalalari tadqiq etilgan. Ular sirasiga termin bilan umumadabiy tildagi so‘z o‘rtasidagi munosabatlar, terminologik sistema bilan umumadabiy til o‘rtasidagi munosabatlar, terminlarning shaklla-nishi, taraqqiyoti, determinologizatsiya va sh.k. kiradi.

Tadqiqotlarda terminologiya: 1. Terminologiya maxsus sohadagi ma’no-ni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalarining yig‘indisi, majmui. 2. Terminologiya bu terminlar, ularning grammatik tuzilishi va tilda amal qilishi bilan bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik fanining bir bo‘limi kabi ma’nolarda qo‘llaniladi [Rajabov 1993: 8].

A.A. Reformatskiyning ta’kidlashicha, termin doimo muayyan termi-nologik maydonga aloqadorlik kasb etadi va ana shu maydon ichida u birgina ma’noga ega bo‘ladi [Reformatskiy 1961: 52]. Demak, ma’lum bir sohaga oid predmet yoki tushunchalarni ifodalovchi terminlar bir-biri bilan ma’nosi, leksik-grammatik strukturasi va boshqa xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda terminologiyani tashkil etadi.

G.O. Vinokur, V.M. Leychik, A.I. Moiseev, R. Doniyorov singari ko‘pchilik olimlarning fikricha, termin yasash xususiyati faqat otlargagina xosdir. Terminologiyaga bag‘ishlangan monografik ishlarning ko‘pchiligida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo‘lgan, shuningdek nomlash funksiyasini bajaruvchi so‘zlarga termin sifatida qaraladi. Ot so‘z turkumi boshqa so‘z turkumlariga nisbatan ko‘proq semantik imkoniyatlarga ega bo‘lib, yuqoridagi sifatlarning barchasiga egadir.

A.A. Reformatskiyning fikricha: «…zero, terminning asosiy funk-siyasi narsa va hodisalarni nomlashdan iborat ekan, demak, terminlar vazi-fasida asosan ot keladi» [Reformatskiy 1986: 163-198]. Shuningdek, R.Doniyorovining tadqiqotida ham shunday fikr mavjud: «faqat ot turkumiga oid so‘zlargina terminologiya obyekti bo‘la oladi» [Doniyorov1981: 21]. V.M. Leychik terminlar bilan atoqli otlar o‘rtasidagi bog‘lovchi qatlam nomenklatura deb izohlaydi [Leychik 1974: 13-25]. G.O. Vinokurning ta’kidlashicha, terminlar bu maxsus so‘zlar emas, balki maxsus vazifadagi so‘zlardir [Vinokur 1939: 5]. Biroq V.N.Prokorovaning fikricha, «Termin bo‘lishi kerak bo‘lgan tushunchalar ko‘lami shunchalik kengki, ularni ifoda etish uchun faqatgina otning semantik imkoniyatlaridan foydalanish yetarli emas» [Prokorova 1971: 471-473].

V.G.Gakning ta’kidlashicha, “Termin funksiya – leksik birlik qo‘lla-nishining bir turi. Quyidagi ikki xususiyatga ega bo‘lgan har qanday lug‘aviy birlik termin bo‘la olishi mumkin: nimanidir ifodalay olish va tushunchalar qatorida muayyan o‘rinni egallash xususiyatlari” [Gak 1971: 68].

Sohaviy leksika ikki planli, ya’ni termin sifatida ham, notermin sifatida ham qo‘llanadigan lug‘aviy birlikdir. Binobarin, yuqorida uni so‘z/termin atamasi bilan ifodalashda ilmiy va mantiqiy asos bor.

V.G.Gakning ko‘rsatishicha, terminotizm unsurlari til sistemasi lug‘aviy birliklariga xos barcha xususiyatlarga, shu jumladan, lisoniy belgi asimmetriyasi asosida yuzaga keladigan xususiyatlarga ham egadir. Shuningdek, u polisemiya va sinonimiya til faoliyatining eng muhim

shartlari ekanligi, binobarin, ularning terminotizimga xos ekanligi haqida gapirib, terminlashgan lug‘aviy birliklar asimmetriyasi sistemaga qaraganda, matn (nutq)da ko‘proq namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Modomiki, mazkur terminologik soha taraqqiyot bosqichini o‘tayotgan ekan, terminologik tizimda asimmetriya ta’siri o‘laroq yuzaga keladigan ko‘p ma’nolilik va ma’nodoshlik cheklangan [Gak 1971: 70].

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda o‘tovsozlik terminlarining shakllanish tarixi, etimologiyasi, yasalish asoslari hamda sistem tahlil qilish masalalarini belgilab olish mumkin.

Ma’lumki, Oltoy hududlarida II asrning boshlarida yuzaga kelgan buyuk ko‘chishlar natijasida ko‘chmanchilikka xoslangan (mobil) ro‘zg‘or buyumlari rivojlana boshlagan. Ularni ifodalovchi so‘zlar ommalashib, oltoy tillarining uy va o‘tov jihozlari leksikasini shakllantirgan [Usmonova 2011: 42]. O‘tovsozlik leksikasi nafaqat bugungi va o‘tmish turkiy adabiyot, balki boshqa xalqlar poetik merosida ham sezilarli iz qoldirgani ilmiy manbalarda e’tirof etiladi [Gumilyev 2007: 81].

Mazkur leksik sistemaga oid birliklar va ularning urf-odat hamda qadriyatlar bilan aloqasi, turkiy xalqlar hayot tarzining o‘ziga xos jihatlari, tabiiy, ijtimoiy, ma’naviy ildizlarga tutash xususiyatlari ko‘proq etnografik ilmiy adabiyotlarda yoritilganligini aytib o‘tmoq joiz [Karmisheva 1969: 114-142].

O‘tovsozlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar masalasida shuni aytish mumkinki, turli mavzular doirasidagi ishlarda mazkur masalaga munosabat bildirib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гак В.Г. Слово // Лингвистических энциклопедический словарь. – Москва: Энциклопедия, 1990. – С. 464.
2. Новиков Л.А. Сема // Лингвистических энциклопедический словарь. – Москва: Энциклопедия, 1990. – С. 437.
3. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Тошкент, 2004. – Б. 9.
4. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: В 4 т. / Пер. с нем. и доп. О.Н. Трубачева. – 2-е изд., стер. – Москва: Прогресс, 1987. – С. 48.
5. Аҳадова М. Терминми, атамами, истилоҳ? // Филология масалалари. – Тошкент, 2007. – № 4. – Б. 24-27.
6. Ражабов А.Н. Вопросы узбекской лингвистической терминологии в сопоставлении с русской: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1993. – С. 8.
7. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. В сб: «Вопросы терминологии». – Москва, 1961. – С. 52.
8. Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – Москва, 1986. – С. 163-198.
9. Дониёров Р. Ўзбек лексикографиясининг муҳим бир масаласи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1981. -№ 6. – Б. 21.
10. Лейчик В.М. Номенклатура – промежуточное звено между терминами и собственными именами // Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж, 1974. – С. 13-25.
11. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. Т. V. Сб. статей по языковедению. – Москва, 1939. – С. 5.

12. Прокорова В.Н. Синонимия в терминологии // Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. – Ч. II. – М., 1971. – С. 471-473.

13. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии // Семантические проблемы языков науки / Материалы научного симпозиума. – Москва: МГУ, 1971. – С. 68.

14. Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 42.

15. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.81.

16. Кармышева Б.Х. традиционные формы бытового уклада в конце XIX - начале XX в. // В кин: Этнографические очерки узбекского сельского населения. – Москва: Наука, 1969. – С.114-142.

FRAZEOLOGIK DIALEKTIZMLARNING SHAKLLANISH MASALALARI

ISSUES OF FORMATION OF PHRASEOLOGICAL DIALECTICS

Abdug‘afur Mamatov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada frazeologik dialektizmlarning shakllanish xususiyatlari, dialektal iboralar milliy tilning boyish manbalari ekanligi, ularning o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqi kabi muhim izohtalab masalalar tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *dialekt-lahja, sheva, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, milliy-psixologik, etnomadaniy aspekt, murakkab termin, parafraza, onomastik birlik, sof turg‘un birikma, idiomatik birikma.*

Abstract. *This article delves into the characteristics of the formation of phraseological units and dialectical expressions, emphasizing their reliance on national language sources, such as dialectical expressions and idiomatic phrases, within the Uzbek linguistic context.*

Keywords: *dialec, vernacular, linguoculturology, linguopragmatics, national-psychological, ethnomadic aspect, complex term, paraphrase, onomastic unity, endocentric compound and idiomatic compound.*

Xalq tomonidan bunyod etilgan, o‘ylab topilgan, xalq ijodi sifatida e'tirof etilgan frazeologik birliklar ilmda xalq tili frazeologiyasi deb yuritiladi. Shuningdek, dialekt-lahjaga, shevaga oid frazeologik birliklar dialektal frazeologik birliklar, folklorga tegishli asarlarning frazeologik birliklari tahlil etiladi.

Frazeologik birliklar asrlar davomida shakllanib, xalq tarixini, madaniyatini, turmush tarzini belgilab beruvchi omillardan biri bo‘lib kelgan va bu omillarning semantik tabiatini, boshqa tillarda muqobili uchramaydigan mental ko‘rinish va shakllarini lingvokulturologik tamoyillar asosida ilmiy tadqiq etish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb masalasidir.

O‘zbek tilshunosligida millatning etnogenezisi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o‘zida aks ettirgan frazeologizmlarning lingvokulturologik, lingvopragmatik, milliy-psixologik hamda

etnomadaniy aspektlarini tadqiq etishga qaratilgan lingvistik tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Xalqning moddiy-ma'naviy tamaddunida aks etgan milliy ong, tarixiy tajriba, dunyoqarash, tafakkur, milliy mental xoslanishni namoyon etuvchi frazeologik birliklar diaxron va sinxron jihatdan etnomadaniy aspektda tavsiflanmas ekan, uning milliy til bilan munosabatlari haqida batafsil fikr bildirib bo‘lmaydi. Zero, ajdodlarimiz ona tilimizda “buyuk madaniyat namunalari, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar”[1].

O‘zbek tilshunosligida dialektal frazeologizmlar maxsus tadqiqot sifatida o‘rganilmagan. Ayrim tadqiqotlarda dialektal frazeologik birliklarning xarakterli belgilari, leksik tarkibi, frazeologik variantlar, dialektal frazeologizmlarning struktural o‘zgarishlari, frazeologik sinonimlar, dialektal frazemalarning grammatik va semantik strukturasi ma'lum darajada tadqiq etilgan. Ayniqsa muayyan etnik birliklarning dunyoqarashi, tafakkuri va ruhiyatini aks ettiruvchi iboralarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jizzax viloyatining Baxmal, G‘allaorol, Zomin tumanlarida istiqomat qiluvchi etnik birliklar tilida o‘ziga xos xarakterli mazmun va mohiyatga ega iboralar uchraydi. Ular qishloq shevalarida faol qo‘llanib keladi.

Jumladan*, murni ko‘tarildi, dimag‘i ishti* kabi frazeologik birliklar adabiy tildan fonetik jihatdan farqlanadi. Quyida ayrim iboralarni tahlil qilishga harakat qildik:

ovzi-murni jo‘q- og‘ir-bosiq ayolni tasvirini ifodalashda ishlatiladi.

orqog‘o qorop kuvshagan - o‘zining gapidan qaytaveradigan, gapida turmaydigan, tayinsiz odamlarni tasvirlashda qo‘llaniladi.

*oto soqoli ovziga pitkan - o‘*z yoshiga nomunosib ish qiladigan erkakka nisbatan ishlatiladi.

oti ko‘ndalang chovodi - ko‘pchilikning fikriga ters gapiradigan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Buzovi qog‘on siyirday - ish qilish o‘rniga hadeb orqasiga qarayveradigan odamga qarata aytiladi.

Gabi qovmodi - so‘zi o‘tmadi ma'nosida ishlatiladi.

Jon jeridan ushlash - u yoki bu shaxsning ojiz yoki noo‘rin, noqonuniy ishlarini bilishi hisobidan unga shama qilish ma'nosida qo‘llaniladi.

Jarashmagan jomov - kelishmagan ish, nomaqbul harakatni ifodalovchi ibora.

Jag‘i jo‘q – nomaqul gaplarni ko‘p gapiradigan, vaysaqi, ezma odamga nisbatan ishlatiladi.

Jema-jemaga kelganda - hal qiluvchi pallada ishdan qochadigan, aldaydigan odamlarni tasvirlashda ishlatiladi.

Jilovi bo‘sh – gapga tez ko‘nadigan, yetakka yuradigan, qatiy fikrga ega bo‘lmagan, og‘uvchan odamlarni ifodalaydi.

Kistasi teshik - serchiqim, barakasi kamroq odamni tasvirlashda ishlatiladi.

Ko‘gayi kesildi – umidi uzildi, ishonchi yo‘qoldi, ko‘ngli qoldi, xafa bo‘ldi ma'nosida qo‘llaniladi.

Ko‘rag‘oyding-o‘lag‘oyding – xira, bo‘lar-bo‘lmasga shilqimlik qiladigan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Mistar bo‘lish – zor bo‘lish, xo‘rlanish, muhtoj bo‘lish ma'nosida qo‘llaniladi.

Nomozi taratiga turmaydi – qilgan ishi uning ovozasiga ham arzimaydigan odamni tavsiflash uchun ishlatiladi.

Non jemas – qizg‘anchiq, hasis insonlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

Nagizi och - xasis, ko‘ngli och, “ko‘rgansizning ko‘rgani qursin” iborasiga mos keladi.

Nagzi past - xasis, ko‘ngli och, “ko‘rgansizning ko‘rgani qursin” iborasiga mos keladi.

Nagzi to‘q – mijozi ko‘ngli va ko‘zi to‘q odamga shu kabi ta'rif beriladi.

Nargayida jo‘q - xayolida yo‘q, aslida yo‘q, tagida yo‘q kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Puti jirilish - yayov yurgisi kelmaydigan, yalqovroq yosh-o‘spirinlarga aytiladigan kesatiq ma'nosida qo‘llaniladi.

Solqi odam – ishni orqaga tashlayveradigan, quntsiz odam.

Sossiq oviz – og‘zidan har xil o‘rinsiz, betamiz gaplar chiqadigan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Sossiq gap – yolg‘on, uydirma gap, odamlar orasidagi yaxshi munosabatni buzishga olib keladigan yomon gap ma'nosida qo‘llaniladi.

Tongnoyi jo‘q – gapirib charchamaydigan, mazmunsiz ko‘p gapiradigan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

To‘qimi ovish – ishi yurishmagan, xafa bo‘lgan, hafsalasi pir bo‘lgan odamning holatini ifoda etadi.

Tezaging quriyma – asakang ketadimi iborsi ma'nosida qo‘llaniladi.

Uri tomoq – ko‘p ovqat yeydigan, yashirincha ovqat yeyishni yaxshi ko‘radigan odamni sifatlashda qo‘llaniladi.

To‘basi o‘yiq – epsiz, bo‘shang odam ma'nosida qo‘llaniladi.

Shoqi jo‘q – moldan farqi faqat shoxi yo‘qligi, molfahm, fahmsiz ma'nosida qo‘llaniladi.

Enam-enam diy beraman, sabizdiyam jiy beraman – o‘rinsiz, bevaqt bir necha harakat qilishga uringan o‘ysiz, bafarosatroq odamning tavsifi.

Eshimchaga qo‘shimcha – o‘rinsiz qo‘shilgan ortiqcha gap, keraksiz vaqtda qilingan noo‘rin ish ifoda etilgan ibora kabi faqat qipchoq dialektiga tegishli bo‘lgan, adabiy tilda yoki shevalarda variantlari mavjud bo‘lgan shuningdek, qipchoq shevalariga xos bo‘lgan *qabag‘ini chitmaslik, it kamirgan oshiqday, oyog‘ыпы qiyshыq bosmoq, ayranы achыmas, qыrmыzы qыchыmas* kabi frazeologik birliklar adabiy tilda, yoki boshqa shevalardagi variantlaridan biror komponenti bilan farqlanadi.

Jutag‘an tuvadaqtay, bo‘zlagan bo‘taday kabi frazeologik birliklar xalq dostonlarida uchrasa, *ovur oyoqli,qoy avzыdan chob olmasliq* kabi frazeologik birliklar adabiy tildan fonetik jihatdan farqlanadi.

Shevalarga xos frazeologizmlar tarkibidagi leksemalarni adabiy tilga moslashtirish ehtiyoji bilan ham iboralar shakllanadi. O‘zbek tilida ham hududiy jihatdan xoslangan frazeologizmlar u yoki bu hududda yashovchi kishilar nutqida fikrni obrazli ifodalash maqsadida shu hudud bilan aloqador ibora paydo bo‘ladi.

Frazeologik komponentlar ifodalagan tushunchalar, voqyea—hodisalar nolisoniy omillar asosida frazeologizmning biror komponentini yangisiga almashtirishga ehtiyoj tug‘iladi, shuningdek, tilning leksikasida sodir bo‘lib turadigan an'analar, dilektal so‘zlarning adabiy tilga o‘tishi (o‘zbekchalashtirish, purizm va x.) ta'sirida xam leksik va frazeologik tizimlarda muayyan o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Frazeologizmlar asosida yotuvchi obrazlarni yanada jonlantirib tasvirlash yoki uni kengaytirish xisobiga: a) ichki shaklni aniqlashtirish, oydinlashtirish; b) tashqi formani takomillashtirish; v) frazeologizmlarni hududiy yoki sotsial, ya'ni ma'lum til vakillarining o‘ziga xos xususiyatlarini ifoda etishga maxsuslashtirish ehtiyojiga ko‘ra dialektal so‘zlar frazeologik birliklarning komponentlari bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, dialektal frazeologizmlarning variantlari adabiy tilda mavjud yoki mavjud emasligi, sheva vakillarining hayot tarzi bilan bog‘liqligi, frazeologik birlikning u yoki bu shevalik

xususiyatini o‘zida aks ettirishi, frazeologik birliklarning qaysi dialektga mansubligini belgilovchi xususiyatlarini saqlab qolganligi hisobga olinishi zarur.

Xulosa shuki, turli shevalarga xos bo‘lgan frazeologik birliklarni to‘plash, ularni o‘zbek dialekt va shevalari bo‘yicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, o‘zbek tilshunosligida xalq tili frazeologiyasi, o‘zbek folklori frazeologiyasi, o‘zbek dialektal frazeologiyasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rinboev B., Bozorboev K. Alpomish dostoni frazeologizmlarining ta'biri. - Samarqand: SamDU nashri, 1998. – 42 b.

2. To‘ychiboev B., Qashqirli Q., Zominning til qomusi,-Toshkent, 2012 yil.108-134 betlar.

ADABIY TIL VA O‘ZBEK SHEVALARI TOVUSHLAR TIZIMI
SYSTEM OF SOUNDS OF LITERARY LANGUAGE AND UZBEK DIALECTS

Nurmanov Furqat Ismoilovich
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti
nurmonov.f@gmail.com

Annotatsiya*: ushbu maqolada turkiy (o‘zbek) tili fonetik tizimi hamda o‘zbek shevalari unlilar tizimi yuzasidan olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlardagi ilmiy xulosalar, unli tovushlar tizimining tarixiy hamda zamonaviy tasniflari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *til, fonetika, unli tovush, undosh tovush, tasnif, sheva, singormonizm, cho‘ziqlik, qisqalik.*

Abstract: *This article analyzes scientific conclusions from scientific and practical studies of the*

phonetic system of the Turkic (Uzbek) language and the vowel system of Uzbek dialects, historical and modern classifications of the vowel system.

Keywords: *language, phonetics, vowel, consonant, classification, dialect, syngarmonism, longitude, brevity.*

Borliqni anglashning asosi til (nutq) ekanligini bir qancha faylasuflar ham e’tirof etishgan. Jumladan, hozirgi zamon (modernistik) falsafasida ekzistensializm

(“mavjudlik falsafasi”) oqimining asoschilaridan biri Martin Xaydegger tilga shunday yuksak baho beradi: “Til – insoniyat boshpanasi”, “Til – borliqning uyi” [Гуннар Скирбекк, Нилс Гилье 2002: 467-468].

Til inson va uning borliq bilan o‘zaro munosabatini ta’minlovchi vosita. Shuning uchun har qanday bilim insonning borliq bilan munosabatidan kelib chiqadi. Bu munosabat til va tafakkur vositasida amalga oshadi. Tilsiz inson borliq bilan munosabatga kirisha olmaydi va natijada hech qanday bilim yuzaga kelmaydi. Falsafiy nuqtayi nazardan yondashilsa, inson ong-u shuurida shakllangan har qanday oddiy tushuncha til orqali, nutq tovushlari birikmalari orqali, ya’ni so‘z orqali ifodalanmas ekan, bunday tushuncha o‘zicha hech kimga, hatto, fikr qiluvchining o‘ziga ham ma‘lum bo‘lmaydi. Shuning uchun ham tarixda birorta tovush tilisiz kishilik jamiyati bo‘lmagan va bo‘lishi ham mumkin emas.

Ma’lumki, til tovushlar tizimi, uning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti fonetika bo‘limida o‘rganiladi. Tilshunoslikning bu bo‘limi tilni o‘rganishning dastlabki bosqichi sanaladi, shu bilan birga ma’lum davrlarda tovushlar tizimi qonuniyatlari va ulardagi o‘zgarishlarni to‘g‘ri anglashlashga yordam beradi.

Tilshunoslik tarixida qadimgi hind tilshunoslari birinchilardan bo‘lib unli va undosh tovushlarni farqlaganlar, portlovchi va sirg‘aluvchi, jarangli va jarangsiz tovushlarni, tovush birikmalarini, bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya, cho‘ziqlik va qisqalik kabi fonetik hodisalarni, jarayonlarni bilganlar. Shuningdek, qadimgi hindlar tovushlarning fiziologik - artikulyatsion xususiyatlari, boshqa tovushlar bilan almashinishi, bir tovushning boshqa tovush ta’siri bilan o‘zgarishi (kombinator o‘zgarish) kabi hodisalarni aniqlashga ham e’tibor berganlar. Ular tovushlarning artikulyatsion - fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tasnif qilganlar. Shu asosda, yuqorida aytilganidek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratganlar, nutq a’zolarining yaqinlashuvidan unlilar, bir-birlariga ta’siridan, ya’ni tegishidan undoshlar hosil bo‘lishini qayd etganlar [Расулов 2010: 11]

Tilshunos M.M.Mirtojiyev “O‘zbek tili fonetikasi” nomli tadqiqotida to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Ma’lum tovush yoki tovushlar kompleksida ma’no yoki maqsadning ifoda topishi lug‘aviy birlik, lug‘at, leksika hisoblanadi. Shu leksikaning ma’lum grammatik qonuniyatlar asosida kommunikatsiyaga kirishuvi nutq, ya’ni tildir. Bu o‘rinda tilning uch bosqichdagi tarkibiy qismi haqida gap boradi: tilning material manbai – tovushlar; shu material manbaini o‘z vositasida tashishi – leksika, lug‘at; o‘sha leksikaning kishilar muloqatga kirishuvi uchun o‘zaro kommunikativ aloqada bo‘lish qonuniyati – grammatika... Tovush tilni namoyon etuvchi materialdir” [Миртожиев 2013: 5]. Shuning uchun ham tilning fonetik tizimiga qiziqish hamda bu sohada amalga oshirilgan ilmiy nazariy va amaliy tadqiqotlar o‘zining uzoq tarixiga ega.

Tilshunoslikda nutq tovushlari ikki turli: unli tovushlar va undosh tovushlar. Til tarixiga oid manbalarda keltirilishicha [Sodiqov 2009: 110], “*Un* – “tovush, sas, ovoz” degani. Muhimi shundaki, *un* so‘zini faqat kishining nutq tovushlariga nisbatan qo‘llaymiz, hayvon tovushi, qushlarning sayrashi yoki boshqa fizik hodisalar natijasida yuzaga keluvchi shovqinlarni esa *tovush* yoki *ovoz* deymiz. Tilshunoslikdagi *unli, undosh* atamalari ham shundan olingan: *unli* – “ovozli; ovozga, ya’ni tovushga ega bo‘lgan” ma’nosini beradi. Bunday deyilishining sababi, unlini cho‘zib aytish mumkin, undoshni esa cho‘zib bo‘lmaydi”.

Zamonaviy tilshunoslikda o‘zbek adabiy tili unlilar miqdori 6 ta bo‘lib, unlilar artikulyasiyasi talabiga ko‘ra til oldi vat il orqa, cho‘ziq yoki qisqa variantlari uchun alohida shakl belgilanmagan.

Qadimgi turkiy til tovush qurilishining muhim belgilaridan biri unda unlilar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra old va orqa qator unlilariga bo‘linadi. Unlilarning bunday tasnifi “Qadimgi turk” davri tilida 8 ta, Qoraxoniylar davri turk tillarida 9 ta, Alisher Navoiy asarlari tilida 9 ta unli fonema amal qilgan, degan xulosa chiqishishga asos bo‘lgan.

Qoraxoniylar davri turkiy til unli fonemalari haqida M.Koshg‘ariyning “Devonu lug’ati turk” asarida, Temuriylar davri turkiy til unlilar tizimi xususida Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida aniq ma’lumot berib o‘tiladi.

Turkiy adabiy til fonetikasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda unli tovushlarning yug‘on va ingichka variantlari so‘z ma’nosini farqlashi, unlilar talaffuzidagi bunday tafovutni farqlay olmaslik turkiy tilda singarmonizm qonuniyatining amal qilishi susayishiga olib kelganligi ta’kidlanadi.

Sobiq sovetlar davrida qabul qilingan birinchi o‘zbek alifbosida 9 ta unli tovush iste’molga kiritildi. Mazkur o‘zbek-lotin alifbosi o‘zbek tili shevalari va qardosh turkiy xalqlar tili bilan uzviy bog‘langan edi. Keyinchalik o‘zbek alifbosida unlilar miqdori 6 ta deb belgilansa-da, ko‘pchilik o‘zbek xalqi talaffuzda 9-10 tagacha unli tovushdan foydalanadi.

O‘zbek shevalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda keltirilishicha, “singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda 6ta, singarmonizmli shevalarda esa 9-11 ta unli qo‘llanadi. Toshkent shevalarida o‘, e, ə, ɔ, o, u, Samarqand shevasida o‘, e, ə, a, o, u unlilari qo‘llangan bo‘lsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda ɔ unlisi bilan birgalikda a unlisi ham uchraydi. Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram) 11 ta (a, e, ə, i, o‘, ы, , o, ө, u, ү) unli mavjud. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda ham 11 ta unli tovush qayd qilinadi [Ashirboyev 2013: 15].

XX asr boshlarida bir guruh tilshunos olimlar: G‘ozi Olim, G‘ozi Yunus, Elbek va boshqalar o‘zbek tili shevalarini tadqiq eta boshlashdi. Bu tadqiqotlarda o‘zbek tili shevalarining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari tahlil etildi.

Turkiy til va uning o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari haqida birlamchi manba hisoblangan M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari o‘zbek shevalarini tadqiq etish uchun asosiy manba sanaladi. Olim o‘zi yashagan davr tili, lahjalari va ularning fonetik xususiyatlarini ham mukammal o‘rganib, lug‘atda ilmiy xulosalarini bayon qilgan.

O‘tgan asrning 50-70 yillarida hozirgi o‘zbek tilining shevalarini tadqiq etgan tadqiqotchilar: V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, C. Ibrohimov, M. Mirzayev, F. Abdullayev, T. Ibrohimov, Sh. Afzalov, H. G‘ulomov, Yo. G‘ulomov, V. Egamov, X. Doniyorov, A. Ishayev, H. Uzoqov, S. Tulyakov, B. Jo‘rayev, I. Farmonov, A. Shermatov, A. Aliyev, Yu. Jumanazarov, K. Nazarov, N. Rajabov, A. Mamatqulov, N. G‘afurova, G‘. Mirsoatov, S. Otamirzayeva, Sh. Nosirov, S. Zufarov, T. Yo‘ldoshevlar o‘zbek tili shevalarida unlilar miqdorini 9 tadan 11 tagacha deb ko‘rsatgan. Jumladan, Fattoh Abdullayev “Xorazm shevalari” (1961) kitobida xorazm shevalarida 9 ta unli fonema qo‘llangani, Sobirjon Ibrohimov “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” nomli monografiyasida bu hudud shevasida 9-10 ta unli fonema mavjudligi, Toshkent viloyati qurama shevasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan. V.V.Reshetov “Ohangaron vodiysi qurama shevalari” (1952) mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida qurama shevasida 9 unli fonema amal qilishi, Namangan o‘zbek shevalarini o‘rgangan Abdug‘ani Aliyev “O‘zbek tilining Uychi shevasi” (1960) mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida 9 ta unli tovushning fonologik xususiyatini, Qashqadaryo o‘zbek shevalari tadqiqotchisi A’zam Shermatov “Qarshi shevasining ba’zi fonetik xususiyati” (1959) maqolasida 10 ta unli tovushning fonologik xusussiyatini ochib bergan.

O‘zbek shevalaridagi unli tovushlaming miqdori va sifati munozarali masalalardan biridir, chunki dialektologik tadqiqotlarda unli fonemalar 18 tagacha yetadi, degan ma’lumotlar uchraydi.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o’zgarishlar tilning barcha jabhalariga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Bu o‘zbek milliy tilining o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari, o‘tmish tarixi va taraqqiyot yo‘llari bir tomonlama – mustamlakachilik siyosatiga mos ravishda o‘rganilishiga olib keldi. Tabiiyki, alifbo ham shunga mos ravishda o‘zgartirildi. O‘zbek tiliga xos so‘zlar va ularning talaffuzini ifodalovchi tovushlarning shakliy ifodasi alifboda to‘liq o‘z aksini topmadi. Natijada milliy til talaffuzini aks ettiruvchi tovushlar miqdori ham qisqardi.

O‘zbek adabiy tilida, barcha turkiy tillarda bo‘lganndek, unlilarning miqdori o‘tmishda hech shubhasiz 8-9 dan kam bo‘lmagan [Боровков 1945: 105], ya’ni unlilarning singarmonistik qarama-qarshi qo‘yilishi qonunmyati o‘zbek adabiy tili uchun ham xos bo‘lgan.

Davrlar o‘tishi bilan ma’lum ichki qonuniyatlar (o‘zbek tilining o‘z ichki qonunlari) va tashqi faktorlar (chet tillarning o‘zbek tili fonetik qurilishiga ko‘rsatgan ta’siri natijasida yuz bergan o‘zgarishlar) natijasida konvergensiya jarayonining kuchi bilan unlilarning miqdori kamaygan, til oldi-til orqa unlilar asta-sekin o‘rni, e’tibori bnlan bir-birlariga yaqinlashgan va shuning natijasida unli fonemalar miqdori asta-sekin kamayib, hozirgi miqdorga tushib qolgan.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligining fonetik tizimi eksprimental laboratoriyalarda nutq tovushlari, ularning artikulyatsion-fiziologik xususiyatlari, fonetik jarayonlar, ularning turlari, o‘zbek tilida urg‘u, uning turi va o‘rni kabi masalalar milliy tilimiz xususyatidan kelib chiqib tahlil etildi, ilmiy xulosalar chiqarildi. Chunki, til fonetkasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar adabiy tilning grammatik strukturasida va leksik tarkibida yuz bergan o‘zgarishlar bilan ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Professor M.Mirtojiyevning 2013 yilda nashr etilgan “O‘zbek tili fonetikasi” nomli kitobida nutq tovushlarining eksperimental tahlili asosida tasnif etilgan. Darslikda avval nutk tovushlari aspektlari tadqiq etilib, nutk tovushlarining ham fizik aspekti, ham bioaspekti har tomonlama tahlil etilgan. Muallifga ko‘ra, nutq tovushining biologik aspekti haqida gap ketganda nutq organlari anatomiyasi, fiziologiyasi va vazifa kechimi bilan birga nutq organlarining defektologiyasi va patologiyasiga e’tibor qaratish lozim. Chunki ular nutq tovushining ravon va to‘g‘ri talaffuzida muhim ahamiyatga ega. Nutq apparatini tashkil etuvchi har bir nutq organi va ularning faoliyati, mohiyati, nutq tovushini hosil qilishdagi asosiy yoki qo‘shimcha vazifa bajarishi kabi jihatlari ilmiy asoslanib, amaliy misollar bilan mustahkamlangan. Har bir nutq organining anatomik tuzilishi, joylashuv o‘rni, nutq tovushi hosil qilishdagi o‘zaro muvofiq faoliyati hamda fiziologiyasi tavsifidan so‘ng nutq tovushlari eksprimental tavsifi va tasnifini bayon qiladi.

Demak, o‘zbek tili vokalizm tizimi o‘zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida sakkiztadan o‘ntagacha unli fonemaga ega bo‘lgan. Agar bu fonemalarning tarixan cho‘ziq va qisqa variantlari ham hisobga olinsa, ularning soni yigirmatagacha yetadi. Hozirgi davr adabiy til fonetik tizimi sifat va miqdor jihatdan soddalashtirib oltitaga keltirildi. O‘zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida singormonizm hodisasining yemirilishi natijasida unli tovushlarning cho‘ziq va qisqa ko‘rinishi ham barham topdi. Ammo ayrim o‘zbek shevalarida unli va undosh miqdori, ularning tasnifi, artikulyatsiyassingarmonizm hodisasining ayrim ko‘rinishlari, ba’zi fonetik jarayonlar adabiy tilda uchramasa-da saqlanib qolgan. Shuningdek, til tarixining dastlabki davrlariga oid tadqiqotlardagi til fonetik tizimi haqidagi ilmiy xulosalar shevalar tadqiqotidagi ilmiy xulosalarga nisbatan yaqin, ya’ni unli fonemalarning qisqa – cho‘ziqlik, til oldi-til orqalik, ba’zan oraliq variantlari tasnifi va tavsifi ayrim o‘zbek shevalarida hozirgi kunda ham uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуннар Скирбекк, Нилс Гилье. Фалсафа тарихи (таржима). – Toshkent, 2002.
2. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2010.
3. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
4. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. – Toshkent, 2009.
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013.
6. Боровков А.К. Алишер Навоий как основоположник узбекского лит.языка. сб. “Алишер Навои”. – Л., 1945.

O‘ZBEK TILIDAGI SHEVAGA OID SO‘ZLARNI SEMANTIK TEGLASH MASALASI

THE PROBLEM OF SEMANTIC TAGGING OF DIALECT WORDS IN THE UZBEKI LANGUAGE

Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.,
Termiz davlat pedagogika instituti
raimnazarova1970@mail.ru

Annotatsiya*. Matnni avtomatik qayta ishlashning eng muhim murakkab bosqichi semantik tahlil hisoblanadi. Shuning uchun o‘zbek tili sheva so‘zlarini korpus uchun semantik teglashda ona tilining ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini, sheva so‘zlarining semantik imkoniyatlari hamda qo‘llanish vaziyatlarini ham inobatga olish muhim. Ayni masalalari yoritilgan ushbu maqolada muammoning yechimi sifatida ayrim misollar va usullar taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Dialektizmlar, til korpusi, semantik teglash, izohli lug‘at, Maxsus pometa, semantik to‘da.*

Abstract. *The most important complex step of automatic text processing is semantic analysis. Therefore, it is important to take into account the social and cultural features of the mother tongue, the semantic possibilities of dialect words, and the situations of use when semantically tagging Uzbek dialect words for the corpus. In this article, which covers the same issues, some examples and methods are presented as a solution to the problem.*

Key words: *Dialectisms, language corpus, semantic tagging, annotated dictionary, Special pometa, semantic cluster.*

O‘zbek tili korpus lingvistikasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar diqqatga sazovor. Hozirgi kunda bu yo‘nalish jadal rivojlanmoqda. Shunga qaramay, o‘zbek korpus lingvistikasida hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar talaygina. Jumladan, yaratilajak O‘zbek milliy korpusi tarkibida dialekt korpusini tuzish masalasi dolzarbdir. O‘zbek tilshunosligida bu borada yaxlit monografik tadqiqot yaratilmagan bo‘lsa-da, ayrim ishlar amalga oshirilmoqda [*Qarang:* 1].

O‘zbek tilida “Boysun onlayn shevalar bazasi (Saralash va qidirish imkoniyatlari bilan)” yaratilgan. Ma’lumki, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi, til tizimi uzoq davrning mahsuli bo‘lib, shu xalqning barcha a’zolari uchun tushunarli, iqtisodiy-ijtimoiy turmushda ko‘p qo‘llanadigan, aniq ma’no bera oladigan, so‘z yasalishi va yasash uchun asos bo‘ladigan juda boy leksema, so‘z va so‘z shakllariga, frazeologik birliklarga egadir. Bu tilning fonetik, leksik va grammatik turliligi ayni paytda Boysun shevalarining ham boyligi sanaladi. Shevaga oid ma’lumotlar bazasidagi lingvistik tahlillar bir necha bosqich va prinsiplarga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu bazaga murojaat qilinganda foydalanuvchi (baza keng foydalanuvchilar auditoriyasi uchun mo‘ljallangan)ga quyidagi imkoniyatlar taqdim etiladi: 1. Bosh sahifa. 2. So‘zlar jadvali. 3. Loyiha haqida. 4. Transkripsiya. 5. Aloqa [2.]

O‘zbek tilidagi shevaga oid so‘zlarni korpusda semantik teglash uchun eng asosiy manba o‘zbek tilining izohli lug‘atidir [3]. Shu bilan birga, salkam bir asr mobaynida o‘zbek shevalari bo‘yicha o‘nlab nomzodlik va doktorlik ishi qilindi, minglab maqolalar yozildi, kitoblar chop etildi. Jumladan, “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”, F.Abdullayevning “Xorazm shevalari”,

M.Mirzayevning “O‘zbek tilining Buxoro gruppa shevalari”, I.Shamsiddinovning “O‘zbek tilining Qorako‘l shevasi”, Sh.Nosirovning “O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi”, Q.Muhammadjonovning “Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi”, T.Yo‘ldoshevning “Tojikistondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi”, A.Ishayevning “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari”, S.Ibrohimovning “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi”, “O‘zbek tilining Andijon shevasi”, V.Egamovning “Samarqand oblastining G‘allaorol shevasi”, N.Rajabovning “O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari”, S.Rahimovning “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari”, B.Jo‘rayevning “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari”, A.Shermatovning “Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari”, Bosim To‘ychiboyev va Qozoqboy Qashqirlining “Zominning til qomusi” kabi ilmiy manbalar til ilmida shevalarning muhim ahamiyat kasb etishini namoyon etib [4], o‘zbek tilidagi shevaga oid so‘zlarni korpusda semantik teglash uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Davr talabi va o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning tavsifini takomillashtirish vazifalarining biri sifatida o‘zbek tilidagi shevaga oid so‘zlarni semantik teglash masalasini hal qilish turadi.

Lug‘at hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng iste’molda bo‘lgan 80 mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmani, fan, texnika, san’at va madaniyat sohasiga oid terminlarni, bir necha shevada qo‘llanadigan so‘zlarni, ba’zi tarixiy va eskirgan atamalarni o‘z ichiga olgan. Lug‘atda berilgan so‘zlarning amalda qo‘llanishi XX asr o‘zbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan. Lug‘at o‘zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo‘yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchi va talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan. Lug‘at maqolasining tuzilishida mantiqli sistemalilik mavjud. So‘zni semantik teglashda lug‘at maqolasining tuzilishi tajribasini qo‘llash samarali natija beradi [Ахмедова 2020: 41].

Izohli lug‘at va turli hudud shevalariga xoslangan lug‘atlarning bosh so‘z (lug‘at so‘zligi), lug‘at maqolasi va uning tuzilishi bilan farq qiladi. Ular orasidagi farqli jihatlarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

3.1.-jadval

Leksikografik manba	Bosh so‘zning berilishi	Lug‘at maqolasining tuzilishi
Izohli lug‘at	Leksema, turg‘un birikma, erkin birikma, qo‘shma so‘z	Bosh so‘z, semalari va izohlari, o‘z va ko‘chma ma’nosi, leksikografik belgi va izoh, ko‘rsatkich, havola
Dialektologik lug‘atlar	Sodda sheva so‘z (bir so‘zdan iborat), qo‘shma sheva so‘z (ikki va undan ortiq komponentdan tashkil topgan), birikma atama (ikki va undan ortiq so‘zdan iborat)	Shevaga xos so‘z va uning izohi


Ko‘rinadiki, ma’lumotlar bazasini to‘ldirish va semantik teglashda axborotlarning ma’lum qismini mutaxassis o‘zi tanlashi kerak bo‘ladi, chunki lug‘atda asosan, bosh so‘z / shevaga xos so‘z va izoh keltirilgan.

Chegaralangan leksika guruhiga mansub bo‘lgan shevaga oid so‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratib semantik razmetkalash maqsadga muvofiq: 1) adabiy tilda parallel qo‘llanadigan *karavot, so‘ri, chorpoya* kabi so‘zlar; 2) adabiy tilga mansub bo‘lmasa ham, ko‘pchilik shevalarda

qo‘llanadigan va yozma manbalarda ham uchraydigan *gurung, manglay, qo‘noq* kabi so‘zlar; 3) adabiy tilda varianti bo‘lmagan, ma’lum bir yoki birdan ortiq shevada qo‘llanadigan *yelvizak, yelvagay, archimoq, arna* kabi so‘zlar [6].

Shevaga oid so‘zlarni semantik teglashdan oldin o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan, O‘TILda berilgan shevaga xos so‘zlarning hamda yuqorida nomlari keltirilgan ilmiy manbalar asosida ma’lumotlar omborini yaratish kerak.

Ma’lumotlar omborini tuzishda dastlab uning arxitekturasi, strukturasi, tarkibi aniqlanishi lozim. O‘zbek tili milliy korpusi sheva ma’lumotlar bazasining tuzilishi quyidagicha bo‘ladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. O‘zbek tili milliy korpusida sheva ma’lumotlar bazasining tuzilishi

O‘zbek tili milliy korpusida sheva ma’lumotlar bazasi so‘zligi o‘zbek tilining izohli lug‘ati [7] asosida shakllantiriladi.

O‘zbek tili milliy korpusida sheva ma’lumotlar bazasining leksikografik ta’minoti ma’lumotlar bazasiga ma’lumotlarni kiritish uchun asos bo‘ladi. O‘zbek tili milliy korpusida sheva ma’lumotlar bazasining lingvistik ta’minoti ma’lumotlar omborida so‘zlarning izohini keltirish bo‘yicha qoidalar to‘plamini tashkil qiladi. Shevaga oid so‘z ma’lumotlar omboriga quyidagi ko‘rinishda kiritilishi mumkin:

3.2.-jadval

№	Shevaga xos so‘z	Maxsus pometa	Semantik guruh	Semantik to‘da	Izoh

1	**ARNA[8]**	Gidronim	joy nomi	kanal, jar, daryo o‘zani	**1** Ba’zi shevalarda (mas., Xorazm shevasida) – bosh kanal. **2** Ba’zi shevalarda (mas. Jizzax shevasida) – kichik jar. *Arna kelsa irg‘itdi, O‘r kelsa* o‘*rmalatdi, Shunday Hakim yo‘l tortdi.*“Alpomish”. **3** Shimoliy o‘zbek shevalarida (Qozog‘istonda) – daryo o‘zani, quruq o‘zan.
2	**JIROV [9]**	shaxsni kasbiga ko‘ra ifodalovchi so‘z	shaxs nomi	baxshi	Doston, terma aytib kuy-lovchi baxshi (o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq xalqlarida). *Qozoqlar orasida baxshilar, jirovlar.. elni oralab tentirab yurib, tirikchilik o‘tkazadilar.* M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari. *Jambul shoirlar jirovi, oqsoqol, Tillarga bol berding, ellarga ham maqol*. M. Shayxzoda.

Leksik-semantik teglar taksonomiya, mereologiya, topologiya, kauzatsiya, baho guruhlari bo‘yicha aniqlanadi.

Sheva ma’lumotlar bazasini yaratishda so‘zlik, semantik izoh va semantik teglar talab etiladi.

O‘TILda berilgan shevaga xos so‘zlarga e’tibor qaratsak:

DOVUSH *shv.* Tovush, ovoz. *Ko‘kaldosh alp harchand chinqirib qoldi, kuyib-pishib, ko‘p dovush qildi. Qorajon quloq solmay ketdi.* “Alpomish”. *Oh tortganda, to‘kilar ko‘zidan yoshi, o‘am bilan chiqadi bekning dovushi.* “Alpomish”.

DOVUSHLAMOQ *shv.* Qichqirmoq, tovush chiqarmoq; chaqirmoq. – *To‘xta, zolim! – dedi ham dovushladi.* “Erali va Sherali”.

DODA *shv.* Dada, ota. *Dodam pul berdi, sanolmadim.* (Topishmoq – Yulduzlar).

DOYI *shv.* Tog‘a. *Ro‘molimning uchi shoyi, O‘rtasida bordur oyi. Olib bering, jonim doyi.* “Qo‘shiqlar”. *Xon, Avazni dorga buyurgan ekan, doyim oraga tushib, ellik tayoq so‘rabdi.* S. Siyoyev, Avaz [8].

Ko‘rinyaptiki, bu yerda maxsus ko‘rsatma, havola va pometalar mavjud emas. Shu sababli axborot ma’lumotlar bazasida qo‘lda ishlov beriladi; ma’lumotlar omborida ushbu atamaning semantik teglanishi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

3.3.-jadval

	Shevaga xos so‘z	Pometa	Semantik teg	Izoh
	DOVUSH	Odamning nutqi / narsaning ovozi bilan bog‘liq	Tovush	Insonning nutqiy faoliyati natijasi yoki narsa-hodisaning chiqaradigan ovozi. *Ko‘kaldosh alp harchand chinqirib qoldi, kuyib-pishib, ko‘p dovush qildi. Qorajon quloq solmay ketdi.* “Alpomish”.
	DOVUSHLAMOQ	Nutqiy harakatgaoid	Harakat	Qichqirmoq, tovush chiqarmoq; chaqirmoq. – *To‘xta, zolim! – dedi ham dovushladi.* “Erali va Sherali”.

O‘zbek tili shevaga xoslangan so‘zlarni semantik teglash jarayonida muammolar kelib chiqishi tabiiy. Sh.Gulyamova ta’kidlaganidek, semantika tilning tuzilishi haqidagi bilimlardan tashqari falsafa, psixologiya va boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Semantik tahlil qilishda ona tilining ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini ham inobatga olish lozim. Inson tafakkurining jarayoni, fikrlarni ifodalovchi vosita – tilni rasmiylashtirish qiyin jarayon. Shuning uchun semantik tahlil haqli ravishda matnni avtomatik qayta ishlashning eng muhim murakkab bosqichi hisoblanadi [Гулямова 2022:37].

O‘zbek tilidagi shevaga oid so‘zlarni korpusda semantik teglash muammolaridan biri sifatida bir so‘zning turli shevalarda turli ma’nolarda kelishini ta’kidlash muhim. Jumladan:

SARI II *shv.* Eng yaxshi, sara. *[Go‘ro‘g‘li] G‘irrko‘kka qamchi berib, ajdahoga ko‘ndalang bo‘lib, sari yoy bilan otib, qilich bilan chopib tashlab, katta Mastonni bir o‘limdan ayirib yuborgan joyi bor edi.* “Xushkeldi”.

SARI III *shv*. Sariq, sariq rangli. *Yilqi bozori, toy bozori, Qurt bilan sari moy bozori.* “Ravshan” [11].

Bu kabi so‘zlarning tadqiqotchi Sh.Gulyamova tomonidan ko‘p ma’noli so‘zlarni korpus uchun tartiblash bo‘yicha ishlab chiqqan tavsiyasi asosida semantik teglashnishini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Buning uchun, dastavval, ularning har biri alohida teglanib, so‘zlar orasidagi ko‘p ma’nolilik filtr bilan va u orqali yaratiladigan model orqali farqlanadi. Ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilidagi shevaga oid so‘zlarni korpusda semantik teglash masalasi keng planda o‘rganilishi, alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Холова М. Transcription in the corpus of the uzbek national boysun dialect (on the example of Baysun district" j" dialects) // Journal of Critical Reviews, № 5. 2020. – С. 844-847.; Шевалар корпусининг жанрий теглашнинг лингвистик асослари // Международный журнал искусство слова, № 4. 2021.; O‘zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o‘rni (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) // Сўз санъати халқаро журнали. № 3. 2020.; Peech genres of texsts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound “J” dialects) //Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems. 2020. – P. 1103-1107.; Expression of situational verbs related to Boysun dialect in the uzbek national corps. (using the letter "j" in the dialect of boysun district as an example) // Scientific ideas of young scientists / Pomysły naukowe młodych naukowców / Научные идеи молодых ученых. 2020. – P. 151-155.; Boysun shevasi korpusi: ibtido (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) // Инновации в педагогике и психологии. SI-2№ 5. 2020..
2. https://www.dialect.uz/about
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (А.Мадвалиев таҳрири остида). 5 жилдли. −Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000-2006.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли. −Москва, 1980.
4. Ўзбек халқ шевалари луғати. (Масъул муҳаррир: Шоабдурахмонов Ш.) – Тошкент: Фан, 1971. – 407 б.; https://uza.uz/uz/posts/tiriklay-k-milgan-k-zlar-01-10-2019.
5. Ахмедова Д.Б. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол. фан. Бўйича фал. доктори (PhD) диссертацияси. − Бухоро, 2020. – Б. 41.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (А.Мадвалиев таҳрири остида). 5 жилдли. − Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000-2006.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 1-жилд. – 680 б.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 2-жилд. – 671 б.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 3-жилд. – 688 б.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. 4-жилд. – 608 б.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. 5-жилд. – 592 б.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 1-jild. – 680 b.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 2-жилд. – 671 б.

10. Гулямова Ш. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари: Филол.фан.докт. (DSc) дисс. – Фарғона, 2022. – 281 б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 3-жилд. – 688 б.

HUDUDIY TILGA SINTAGMATIK MUNOSABAT ASOSIDA YONDASHUV

APPROACH TO THE REGIONAL LANGUAGE BASED ON SYNTAGMATIC RELATIONSHIP

Raxmonov Navro‘z Sattorovich
NavDPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Bozorov Qilich Qodirovich
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sheva birliklarining hududiy tilda sintagmatik (qo‘shnichilik) munosabat hosil qilish imkoniyatlari va bunda lisoniy va nolisoniy omillarning shartlanganligi xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *sheva, polisemiya, ma’no taraqqiyoti, hududiy til, sintagmatik munosabat.*

Abstract. *This article discusses about the possibilities of forming syntagmatic (neighborhood) relations in the regional language based on the lexical-semantic features of the words specific to the dialect and the conditioning of linguistic and non-linguistic factors.*

Key words: *dialect, polysemy, meaning development, regional language, syntagmatic relationship.*

Tilning jamiyat bilan birga baravar taraqqiy etishi natijasida inson omili bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan ijtimoiy ehtiyoj tilshunoslik, jumladan, dialektologiya oldiga ham yangi-yangi vazifalarni qo‘yadi. Jumladan, shevaga xos tovush, morfema yoki so‘zni sintagmatik (qo‘shnichilik) munosabat doirasida o‘rganish, bu jarayonda lisoniy va nolisoniy omillarning darajasini aniqlash borasidagi tadqiqotlar sheva birliklarining o‘zaro birikish qonuniyatlarini belgilab berib qolmasdan, balki til, sheva tarixiga doir ayrim masalalarni sharhlashga va xulosalar chiqarishga materiallar bera oladi. “Devonu lug‘oti-t-turk” da adabiy tildagi xamirni yoyishda ishlatiladigan yog‘och asbob o‘qlov *yug‘urg‘uch* shaklida keltirilgan [DLT 2017:195]. Morfemalarning sintagmatik munosabat asosidagi birikishi asosida [**fe’l+ -g‘uch=narsa oti** qolipida] tahlil qiladigan bo‘lsak, bu so‘zdagi *-g‘uch* shakli fe’ldan ot yasovchi qo‘shimcha sifatida anglashilib turibdi. Biroq yasashga asos qism sifatidagi *yug‘ur* shaklining ma’nosi izohtalab. Bu so‘z qipchoq tipli ba’zi shevalarda *xamir qormoq*, ba’zi boshqa shevalarida esa *xamir yoymoq* ma’nosida haligacha saqlangan: *Qizim, xamirdi qordingmi, kiyin yug‘urib qo‘y* (Narpay tumani Oqtosh shahri). Anglashiladiki, *yug‘urg‘uch* tarixiy so‘zi *yug‘ur* fe’lining *“xamir yoymoq”* ma’nosidan yasalgan.

Dialektal so‘zning leksik-semantik xususiyatlari, sintagmatik munosabatga kirishuvi u yoki bu hudud shevalarida bir xil emas. Holbuki, so‘z haqiqiy bahosini sintaktik qurshov (birikma, gap,

matn) da namoyon etadiki, bu shevaning ohangi, jozibasini ko‘rsatish barobarida uning yashovchanligini ham ta’minlaydi.

Ko‘pgina o‘zbek shevalarida *o‘tkir* ma’nosida *itik / ittiy* so‘zi uchraydi. “Devoni lug‘tit turk” da *yitug (йumyг)* tarzida o‘z ma’nosida qo‘llangan [DLT 2017:329] Ma’no taraqqiyoti natijasida bu so‘zning shevalarda metafora asosida yuzaga kelgan bir necha semalari ham bor. Bu semalar hududiy jihatdan farq qiladi. Jumladan, bu so‘z Pastdarg‘om shevasida tig‘li asboblarga nisbatan (ittik pichoq, ittik qaychi kabi), Kattaqo‘rg‘on shevasida ko‘zga nisbatan (ko‘zi ittiy), Karmana shevasida quloqqa nisbatan (qulog‘i ittik), Qashqadaryo shevalarida shaxsga nisbatan (ittik bola) tarzida ishlatiladi. *Ittik* so‘zining shevalarda u yoki bu so‘z bilan metaforik usulda birikishi natijasida yuzaga kelgan semalari adabiy tildagi *o‘tkir* so‘zining ma’nolariga mos keladi. Shu o‘rinda o‘rinli savol tug‘iladi. Ushbu polisemantik so‘zning barcha semalari muayyan shevada tarixan mavjud bo‘lib, keyinchalik ba’zilari arxaiklashib unutilganmi yoki ayrim-ayrim semalari bilan boshqa shevalarga o‘tib qolganmi? Shunisi aniqki, shevalarda ham so‘zlarning ma’no taraqqiyoti asosida o‘zaro birikishida lisoniy omillar bilan birga sheva vakili yashaydigan geografik hududning tabiiy sharoiti, kasb-kori, moddiy-maishiy turmush tarzi, madaniyati, voqelikni anglash darajasi kabi qator nolisoniy omillar ham amal qiladi.

Ma’lumki, shevalarda *“haddan ziyod darajada qizib ketmoq”* ma’nosida *chatnamoq // channamoq // chonnamoq // chovlamoq* kabi fonetik dialektal so‘zlar qo‘llanadi. Biroq ushbu so‘zlarning ham sintagmatik jihatdan boshqa so‘zlar bilan munosabatga kirishishi hududiy jihatdan farq qiladi. Chunonchi, bu so‘z Xatirchi, Karmana, Navbahor tumani qipchoq va qarluq tipli shevalarida *oyog‘im chatnab ketdi, pechka chatnab ketdi* tarzida; qipchoq tipli Pastdarg‘om tumani shevalarida *channamoq* tarzida, asosan, ichki ta’sir natijasida (issiq kiyim kiyish yoki xonani qishda me’yordan ortiq isitish kabi) yuzaga kelgan qizish holatini ifodalaydi: *Channab kettingmi? Uy channab ketti*. Qipchoq tipli ko‘pgina shevalarda esa, jumladan, Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumani Kattaqishloq shevasida, Nurobod tumani shevalarida tashqi tabiiy ta’sir natijasidagi qizish holatini ifodalaydi. *Oftoba issiqda channab ketti. Mollar issiqda channab ketti (Kattaqishloq)*; *Tosh chonnab ketti. Attuva chonnab ketti (*Nurobod tumani qipchoq shevalarida). Qipchoq tipli Qo‘shrabot tumani Qo‘shtamg‘ali shevasida *chovlamoq* tarzida tashqi tabiiy ta’sir natijasidagi qizishga nisbatan qo‘llanadi: *Kunning issig‘ida yuraverib yuzlarim chovlab ketti.* Shu bilan birga, mazkur shevalarda *chonnamoq* dialektal so‘zi adabiy tildagi *chanqamoq, suvsiramoq* ma’nosida ham uchraydi. E’tiborlisi, bu so‘z har qanday sharoitdagi chanqashni emas, balki ortiq darajada qizib ketish natijasida yuzaga kelgan chanqash holatini ifodalaydi: *Yerlar chonnab ketti, Mollar chonnab ketipti* kabi.

Qipchoq tipli o‘zbek shevalarida *shirg‘ay* so‘zi keng tarqalgan bo‘lib, mazkur so‘z *bir tekisda, silliq, yaltiroq* semalarini o‘zida jamlagan: *Nonim shirg‘ay chiqti (Nurobod t. Qo‘rg‘oncha q.), shirg‘ay ko‘ylak (bir xil rangdagi) (Qo‘shrabot t. Qo‘shtamg‘ali q.), shirg‘ay qora, shirg‘ay ko‘k* (qipchoq shevalarida) kabi. Nurobod tumani Teraklisoy qishlog‘i shevasida ushbu dialektal so‘zning boshqa so‘zlar bilan sintagmatik munosabatga kirishuvi yanada mahsuldor. Mazkur hudud shevasida *shirg‘ay* so‘zi insonning yuziga, nonga, tekis yaltiroq toshga, yog‘ochdan yasalgan, ishlatilishi natijasida silliq, yaltiroq holga kelib qolgan har qanday ish qurolining sopiga nisbatan ham qo‘llanadi: *shirg‘ay tosh, shirg‘ay tayoq, shirg‘ay ketmon sopi, shirg‘ay yuz* kabilar. Anglashiladiki, mehnat jarayoni hisobidan ham (*shirg‘ay tayoq – cho‘ponlar tayog‘i, shirg‘ay ketmon sopi* kabi) mazkur so‘zning boshqa so‘zlarga birikish imkoniyati kengaya borgan.

Hil so‘zi qipchoq tipli o‘zbek shevalarida keng tarqalgan. Jumladan, Narpay tumani No‘g‘ay qishlog‘i shevasida ushbu so‘z boshqa so‘zlar bilan birikib, quyidagi ma’nolarni kasb etadi:

1. Yongan olovning hali so‘nmagan cho‘g‘i tafti, harorati. *Hali tondirdi hili bar. Tunuka choynnikti cho‘g‘ga qo‘yib chay qaynatsa bo‘ladi.*

2. Asfalt, beton yoki boshqa jismlardan uriladigan iliqlik yoki issiqlik. Ms. *Oyoq jalang jurma, Asvaltning hali hili bor.*

3. Cho‘g‘da ko‘mib pishirilgan sholg‘om yoki kartoshkaning hali sovimagan issiq holati. *Shalg‘amdi jema, hali hili bor.*

Ushbu dialektal so‘z Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumani Kattaqishloq qishlog‘i shevasida *hilin* tarzida *issiq shamol, garmsel*ni ham ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, dialektolog olimlarimiz tomonidan to‘plangan tavsifiy yo’nalishdagi lisoniy dalillarni yaxlit bir tizimga solish, dialektal so‘zlarning leksik-semantik, areal xususiyatlaridan kelib chiqqan holda boshqa so‘zlar bilan sintagmatik munosabatga kirishuvini o‘zbek dialektlari bo‘yicha o‘rganish soha taraqqiyoti uchun muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika. –T., 2022.
2. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘oti-t- turk. –T., 2017. (Nashrga tayyorlovchi Qosimjon Sodiqov)
3. Murodova N. O‘zbek dialektologiyasi.–T.2019.

LISONIY SATH HAQIDA

ABOUT LANGUAGE LEVEL

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori,
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. *Maqolada XX asr tilshunosligida muammoli va munozarali masalalardan hisoblangan lingvistik sath tushunchasi va uning ilmiy tadqiqi tavsifi xususida fikr yuritilgan. Lingvistikada sath va uning tavsifi bilan bog‘liq olib borilgan ishlar, tadqiqotlar hamda ularning muhim natijalari qayd etilgan. Ushbu fikr va mulohazalarga muallif o‘z nuqtai nazaridan munosabat bildirgan hamda tegishli xulosalarga kelgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvistik sath, til, nutq, til va nutq birliklari, til va nutq sathlari, fonema, morfema va so‘z, fonematik sath, morfematik sath, so‘z sathi; gap sathi, murakkab sintaktik qurilmalar sathi, abzas sathi.*

Abstract. *The article talks about the concept of the linguistic level and its scientific research, which is one of the problematic and controversial issues in linguistics of the twentieth century. Scientific works, studies, as well as their important results, carried out in the field of linguistics, differ in connection with the level and its characteristics. The author expressed his point of view regarding these thoughts and considerations, and came to the appropriate conclusions.*

Key words: *linguistic level, language, speech, linguistic and speech units, language and speech levels, phoneme, morpheme and word, phonemic level, morphemic level, speech level, sentence level, level of complex syntactic structures, paragraph level.*

Jahon tilshunosligida erishilayotgan yutuqlar fanimiz taraqqiyoti uchun katta hissa qo‘shayotgani shubhasizdir. So‘nggi yillarda mamlakatimiz tilshunosligida ham ovrupo tilshunosligi andozalariga asoslangan fundamental tadqiqot ishlari vujudga kela boshladi. Mazkur ishlarda, shubhasiz, umumiy tilshunoslik doirasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlardan o‘rinli foydalanilayotganini ijobiy baholash lozim. Zotan, hech bir fan faqat o‘z qobig‘ida ish olib borolmaydi va bu orqali biror muvaffaqiyatga ham erishib bo‘lmaydi. Shu bois, jahon tilshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlar barcha tillar taraqqiyoti uchun bir xilda xizmat qilmog‘i lozim. Shunday bo‘lgach, tilshunoslik fanining fundamental nazariyalari har bir xususiy tilshunoslikning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi tabiiydir.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, mamlakatimiz tilshunoslari tomonidan keyingi yillar davomida yaratilgan tadqiqot ishlarining aksariyati jahon tilshunosligida dolzarb bo‘lgan masalalar talqiniga bag‘ishlanmoqda. Mazkur tadqiqot ishlarida semantik sintaksis, funksional tahlil, til birliklarining paradigmatik va sintagmatik munosabatlari, transformatsion nazariya, nutq birliklarining pragmatik omillar qurshovidagi talqini, qiyosiy tilshunoslik va uning dolzarb muammolari, til me’yori, kognitiv tilshunoslik asoslari, pragmalingvistika va uning vazifalari kabi dolzarb masalalar xususida bahs yuritiladi. Bu, albatta, asosan an’anaviy lingvistik tamoyillar qolipida tadqiqot ishlari olib borilayotgan tilshunosligimiz uchun sobit qadam bo‘ldi. Biroq fan har doim taraqqiyotda bo‘lgani bois, tilshunosligimiz oldida hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar ham oz emas. Ana shunday muammolardan biri til va nutq birliklarining ierarxik munosabati ilmiy talqinidir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sath tushunchasi dastlab amerikalik faylasuflar tomonidan tadqiqotlar kun tartibiga qo‘yilgan edi. Boshqacha aytganda, mazkur tadqiqot ishlarida struktur sath tushunchasi qo‘llanilgani kuzatiladi. Biroq bunda bu tushuncha hali lingvistik ma’noda emas, balki jonli mavjudotlarga nisbatan ishlatilib, biologik ma’no kasb etgan (G.Ch.Braun, R.V.Sellars) [Solnsev V.M. 1972: 4]. Sath tushunchasi keyinchalik deskriptivistlar tomonidan lingvistik tahlil bosqichi ma’nosida iste’molga kiritildi. Mazkur tushuncha shundan so‘ng tahlil pog‘onasi yoki darajasi tarzida metodik nuqtai nazardan qo‘llana boshladi.

Shubhasiz, sath tushunchasi pog‘onali munosabat tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Ammo sathni turlicha tushunish mumkin. Shu bois deskriptivistlarning bu boradagi mulohazalari ham o‘ziga xosdir. Masalan, amerikalik taniqli deskriptivistlardan biri G.Glisonning quyidagi fikrlariga e’tibor beraylik: «Til strukturasida bir necha sath mavjud bo‘lib, mukammal o‘rganish uchun ularning har birini boshqalaridan ajratish lozim bo‘ladi. Ammo ularni bir-biridan uzilib qolgan hodisalar deb tushunmaslik darkor. Strukturaning har bir yuqori sathi tavsifini berish jarayonida kichik sath birliklariga asoslanish talab qilinadi. Masalan, morfemani tadqiq etishda fonemalarga tayanamiz. ...lingvistik tahlili qariyb bir paytning o‘zida olib borilishi mumkin bo‘lishiga qaramay, struktura sathlarining har biri alohida o‘rganilmog‘i kerak»[Glison G. 1959: 108].

Ye.V.Klobukov struktur tilshunoslik ko‘p yillar davomida til birliklarining sistem munosabatini faqat paradigmatika va sintagmatika tushunchalari asosida tadqiq etib kelganini, ierarxik munosabat tushunchasi esa o‘tgan asrning 70-yillarida ilmiy iste’molga kiritilganini ta’kidlaydi [Klobukov Ye.V. 2022]. To‘g‘ri, ierarxik munosabat masalasi bobida bajarilgan ishlar o‘tgan asrning 70-yillarida tadqiqotlarimizda tez-tez ko‘zga tashlana boshladi. Biroq, amerika deskriptivizmining keyingi bosqichi vakillari – strukturalizm namoyandalari hali o‘tgan asrning 60-yillarida (Z.Xarris, Dj.L.Treyger, Yu.A.Nayda, N.Xomskiy va boshqalar) sath (level) tushunchasini til birliklari bilan bog‘lab, pog‘ona tushunchasini ham tadqiqotlar kun tartibiga kiritgan edilar.

Praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan bajarilgan tadqiqot ishlarida sath tushunchasi ancha mukammal talqin etildi. Mazkur maktab namoyandalarining lingvistik nazariyalarida, amerikalik strukturalistlardan farqli ravishda, til birliklari tahlili ularning nutqda bajaradigan funksiyalari bilan uzviy bog‘liq holda olib borildi. Bundan tashqari, ular ma’no tushunchasidan (lingvistik va grammatik) yiroqlashmadilar. Bunda N.Trubeskoyning dastlab 1939 yilda nemis tilida chop etilgan «Fonologiya asoslari» (1960 yilda rus tiliga tarjima qilingan), shu maktab bilan bevosita aloqada bo‘lgan A.Martinening «Umumiy tilshunoslik asoslari» asari, V.Mateziusning gapning aktual bo‘laklari haqidagi ta’limoti, V.Skalichka hamda L.Novaklarning fonologiya muammolariga oid qator tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etdi va hozirgi paytda ham mazkur ishlar til sistemasi va strukturasini o‘rganishda dasturulamal bo‘lib qolmoqda [Trubeskoy N. 1960:372; Martine A. 1963: 347-566; Matezius V. 1967:239-245; Skalichka V. 1967: 84-87; Novak L. 1967: 95-99].

N.Trubeskoy fonologik sath birliklarining mukammal tavsifini berish uchun jahonning ikki yuzdan ortiq tiliga, shu jumladan o‘zbek tiliga ham murojaat etdi va o‘zining g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fonologik ta’limotini yaratdi. Olim fonema va morfema o‘rtasidagi munosabat masalasini ilmiy asoslay oldi va buning natijasida morfonologiya tushunchasiga birinchilardan bo‘lib asos soldi.

A.Martinening lingvistik nazariyasi asosida funksional tahlil muammosi yotganligini ko‘ramiz. Martinening funksional tahlil nazariyasi jahon tilshunoslarining barchasi tomonidan to‘liq tan olinganligi bilan ajralib turadi. Mazkur nazariya, asosan, tilning morfematik va so‘z sathi birliklari talqini, ularning funksional qimmatini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

V.Mateziusning gap sathi unsurlarining semantik-funksional talqiniga bag‘ishlangan gapning aktual bo‘laklari nazariyasi ham hozirgi kungacha o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Ayni paytda ham gap komponentlarining tema-rematik munosabati masalasi talqiniga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar yozilmoqda (I.P.Raspopov, N.A.Slyusarova va boshqalar).

Tilning fonematik sathi birliklari funksional tahlili bobida Praga tilshunoslik maktabida ulkan tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Bu borada N.Trubeskoy, R.O.Yakobson, V.Skalichka, L.Novak kabi tilshunoslar katta yutuqlarga erishdilar. Umuman olganda, struktur tilshunoslik tilning ichki tuzilishini modellashtirgan holda o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi [Nurmonov A. 2008: 51].

Fransuz tilshunosi Emil Benvenistning til sathlari va ularning o‘zaro munosabatiga doir mulohazalari ham ilmiy jihatdan salmoqlidir. U til materialining lingvistik tahlili uchun sath tushunchasining ahamiyati katta ekanligini ta’kidlaydi va bunda berilgan materialni segmentlash yaxshi natija berishini eslatib o‘tadi. Til materiali segmentlanishi so‘nggi bosqichida fonemalar qolishini, agar shundan keyin ham tahlil davom ettiriladigan bo‘lsa, fonemalarning differensial belgilari haqida ma’lumot olish mumkinligini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, E.Benvenist eng kichik segmentlar fonemalar ekanligini, differensial belgilar esa segment maqomiga ega emasligini ham atroflicha yoritadi [Benvenist E. 1974: 129-131].

Til materialini segmentlash muhim ahamiyatga ega ekanligi izoh talab qilmaydi, mazkur tahlil vositasi orqali til birliklarining o‘zaro munosabatinigina emas, balki ularning o‘zlari tegishli bo‘lgan sath doirasidagi o‘rnini ham belgilash mumkin. Masalan, fonematik sath birliklarini til materialini segmentlash orqali belgilay olamiz. Biroq mazkur operatsiyani subfonematik sath (fonemaning differensial belgilari) unsurlariga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi, ular muayyan fonemalarning ichki differensial belgilarinigina taqozo etadi. Subfonematik sath unsurlarini tahlil jarayonida boshqasi bilan almashtirish mumkin. Mazkur usul tilshunoslikda **substitutsiya usuli** deb ataladi. Albatta, substitutsiya usuli ham ma’lum maqsadda qo‘llaniladi. Masalan, biror

fonemaning o‘ziga xos differensial belgilarining nutq jarayonida bajarishi mumkin bo‘lgan funksional qimmatini aniqlashda mazkur usuldan foydalanish yaxshi natija bera oladi. Demak, segmentlanish xususiyati subfonematik sath unsurlariga emas, balki fonemalarga xosdir.

Biroq fonemani til materialining segmenti tarzida o‘rganish uning muayyan ob’ekt tarkibidagi o‘rnini aniqlashimiz uchun ahamiyatli bo‘lsa ham, bu orqali uning funksional faolligi xususida mulohaza yurita olmaymiz. Uni o‘zidan katta birlik sathida o‘rganganimizdagina funksional qimmat haqida fikr bildirishimiz mumkin va bir paytning o‘zida fonemadan katta til birliklari morfema yoxud so‘z xususida ham bahs yurita olamiz [Benvenist E. 1974: 131-135].

Shuni ham aytish kerakki, ba’zi so‘zlar borki, ular bir yo‘la tilning uch xil birligi talablariga javob bera oladi. Masalan, ***u*** grafemasini olaylik. Mazkur element fonematik, morfematik va so‘z sathlarining har birining komponenti vazifasida talqin etilishi mumkin. Biroq uni morfema deb, yoki so‘z deb talqin etganimizda tilning kichik sathi birligi maqomi neytrallashadi deb tushunmasligimiz kerak. Boshqacha aytganda, uni morfema tarzida o‘rganganimizda fonematik sath birligi morfematik sath birligining tarkibiga kirayotgani, u bilan pog‘onali munosabat tashkil etayotgani o‘z kuchini to‘liq saqlaydi. Shuningdek, u morfematik sath birligi sifatida so‘z tarkibiga kirayotganida ham morfema va so‘z o‘rtasidagi pog‘onali munosabat to‘liq saqlanadi. Bunday vaziyatda faqat shunga e’tibor berishimiz kerakki, ayni paytda tilning fonematik, morfematik va so‘z sathlari birliklarining ifoda materiali bir xil bo‘ladi, xolos.

Ravshanki, tilning so‘z sathi doirasida voqelanuvchi pog‘onali munosabat tahliliga yetganimizdan so‘ng, pog‘onalilik hodisasi maqomi keskin o‘zgaradi. Endi til birligi – so‘z bilan nutq birligi – gap o‘rtasida ierarxik bog‘lanish vujudga keladi.

Shu narsa e’tiborga molikki, gap tilning barcha sathlari birliklarining o‘zaro kesishishi ob’ekti sanaladi, zero, bunda fonematik, morfematik va so‘z sathlarining har biri real qo‘llanishi uchun imkon topadi. Gap tarkibida kelayotgan har bir sath birliklari o‘z-o‘zlari bilan **distributiv**, yuqori sath birliklari bilan esa **integrativ** munosabat tashkil etadi [Benvenist E. 1974: 136-137].

Muayyan til birligini, masalan, so‘zni kichik birliklarga segmentlash shu birlikning konstitutiv (tashkil etuvchi) unsurlari haqida ma’lumot beradi. Konstitutiv unsurlar, albatta, tahlil etilayotgan birlik sathidan kichik sathga tegishli bo‘ladi. Demak, bu jarayon segmentlanayotgan birlikning formasi xususida ma’lumot beradi. Shu birlik tarkibida jamlanib uning tarkibiy qismini tashkil etayotgan kichik sath birliklari ma’no ifodasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, muayyan birlikning integrativ xususiyati ma’no ifodasini beradi. Katta birlik ichida kichik birliklar ma’lum qoidalar (fonetik, grammatik) asosida o‘zaro birikolmas ekan, bu o‘rinda integratsiya tushunchasi nolga teng bo‘ladi. Bu haqda so‘z yuritganida E.Benvenist F.de Sossyurning quyidagi misolini keltiradi: «Belgining ifodalovchi va ifodalanuvchi jihatlarini ko‘p paytlarda gavda va ruh qorishuvini taqozo etuvchi inson (shaxsi) bilan qiyos qilishadilar. Biroq bunday qiyos unchalik o‘rinli emas. Bunda biror kimyoviy qorishuvni misol keltirish maqsadga muvofiqroq bo‘lardi. Masalan, kislorod va vodorod qorishuvidan iborat bo‘lgan suvni olaylik. Agar mazkur unsurlarni alohida oladigan bo‘lsak, ularning birortasi ham suv xususiyatiga ega bo‘lolmaydi» [Benvenist E. 1974: 137]. Bu, albatta, o‘z navbatida, til birligining integrativ xususiyati o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Til sathlari biri ikkinchisi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa ham, ularning har biri o‘zicha bir xil birliklar makroparadigmasini jamlovchi nisbiy avtonom mexanizmlarni taqozo etadi. Biroq real qo‘llanishiga ko‘ra mazkur avtonom mexanizmlar birliklari o‘zidan katta avtonom mexanizmlar tarkibiga kirmog‘i lozim. Bu jarayonda ular ikkinchi sath uchun qurilish materiali hamda uning integrantlari vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, har bir avtonom mexanizm birligi o‘zidan katta birlik sathida til birliklari integratsiyasini tashkil etadi. Masalan, fonematik sath birliklari –

fonemalar morfematik sath birligi – morfema tarkibiga kirganda undan kichik birliklar integratsiyasini hosil qiladi [Golovin B.N. 1979:146-147].

Bu tarzdagi til birliklari munosabatini nafaqat fonematik, morfematik sathlar doirasida, balki morfematik va so‘z sathlari, so‘z va gap sathlarining o‘zaro bog‘lanishida ham kuzatamiz. Bu, o‘z navbatida, til birliklarining funksional qiymat kasb etishi ularning o‘zaro munosabatiga uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Til birliklari uch xil: *paradigmatik, sintagmatik va ierarxik* munosabatda bo‘ladi. Biroq mazkur munosabatlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Agar paradigmatik munosabat til birliklarining o‘zlari tegishli bo‘lgan sath doirasidagi munosabatini taqozo qilsa, sintagmatik munosabat muayyan sath birliklarining ikkinchi sath ichida bir-biri bilan bog‘lanishini namoyon etadi. Bunda shu narsa xarakterliki, faqat muayyan bir sathga tegishli birliklargina munosabatga kirisha oladi. Masalan, fonema fonema bilan, morfema morfema bilan yoxud so‘z so‘z bilan sintagmatik bog‘lanishi mumkin. Ammo shuni ham aytish kerakki, sintagmatik munosabat ierarxik munosabatning shakllanishiga olib keladi. Gap shundaki, fonema fonema bilan yoki morfema morfema bilan o‘z sathlari doirasida munosabatga kirisha olmaydi. Buning uchun ularga o‘zlaridan katta sathni tashkil etuvchi qo‘llanish ob’ekti lozim bo‘ladi. Bu esa bir paytning o‘zida sathlararo munosabatning, ya’ni ierarxik munosabatning shakllanishiga ham olib keladi. Demak, sintagmatik va ierarxik munosabatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Til birliklari gorizontal qator bo‘ylab o‘zaro bog‘langan taqdirdagina o‘zlaridan katta birlik bilan pog‘onali munosabat tashkil eta oladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tilning har bir sathi birliklari o‘zlaricha alohida sistemani taqozo etadi. Ularning ierarxik munosabat doirasiga kirishi va boshqa sath birliklari bilan bog‘lanishi sistema tushunchasini kengaytiradi va yaxlit til sistemasi haqida tasavvur hosil qiladi. Bunday vaziyat nafaqat til sathlari birliklari munosabatida, balki nutq sathlari birliklari bog‘lanishida ham kuzatiladi.

Nutq sathlari haqida mulohaza yuritganimizda shuni ham aytish kerakki, tilshunoslik adabiyotlarida mazkur masala endigina tadqiqotlar kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shu bois hali nimalarni nutq birliklari tarzida o‘rganish va nimalarni shu talabga javob bera oluvchi sathlar sifatida e’tirof etish masalasi ham uzil-kesil hal qilingani yo‘q. Albatta, bu borada tilshunoslik fani taraqqiyotining qariyb hozirgi davrigacha til bilan nutqning farqlanmaganligi va buning natijasida til muammolari mukammal o‘rganilib, nutq bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratilmaganligi salbiy rol o‘ynadi.

Bunday vaziyatni o‘zbek tilshunosligida ham kuzatamiz. Bu haqda H.Ne’matov va O.Bozorovlar quyidagilarni mutlaqo to‘g‘ri ta’kidlaydilar: «Hozirgi o‘zbek tilshunosligida o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lgan til va nutq hodisalarining farqiga oid ayrim fikrlar bayon qilinayotgan bo‘lishiga qaramay, hozirga qadar bu masalaga e’tibor yetarli emas. Til bilan nutqni farqlab yondashish o‘zbek tili tadqiqotlari uchun asos qilib olinmaganligi nutq tovushi va fonema, fonetik va fonematik o‘zgarishlar, leksema, leksik va situativ nominatsiya, qurilma (modellari) va ularning yuzaga chiqishi, lug‘aviy birliklarning makro- va mikrotekstdagi xususiyatlari, o‘zbek tili sintaktik sathida mohiyat va hodisa kabi masalalarni atroflicha chuqur tadqiq etishga to‘sqinlik qilmoqda» [Ne’matov H., Bozorov O. 1993: 7-8].

Ayni paytda shuni alohida ta’kidlash lozimki, tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida til bilan nutqning uzviy bog‘liqligi to‘liq e’tirof etilgani holda, ularni farqlab o‘rganish lozim va zarurligi ham tan olinmoqda. Buning dalili tarzida nutq lingvistikasining, kechikib bo‘lsa-da, tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida ilmiy asoslanayotganini ko‘rsatish mumkin.

Ravshanki, nutq lingvistikasining o‘z maqomiga ega bo‘lishi fanimiz taraqqiyotining talablari bilan uzviy bog‘liqdir. Matn lingvistikasining ilmiy asoslanishi va u bilan bog‘liq

masalalar talqiniga an’anaviy tilshunosligimiz zaiflik qilayotganligi izoh talab qilmaydi. Bundan tashqari, gapning sof til birligi tarzida o‘rganilib kelinayotgani ham izohtalab ekanligi ko‘rinib qoldi. Biroq bu bilan nutq lingvistikasi til lingvistikasiga (lingvistika yazыka i lingvistika rechi) nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etadi, degan xulosaga kelish mutlaqo noto‘g‘ri bo‘lgan bo‘lardi. Nutq lingvistikasi til lingvistikasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u til birliklaridan katta birliklar va ularning sathlariga oid masalalar talqini bilan shug‘ullanadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, nutq lingvistikasi til lingvistikasining davomidir. Shu bois, til va nutq birliklari va ular tegishli bo‘lgan sathlar o‘rtasidagi pog‘onali munosabat biri ikkinchisi bilan bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi. Buni matnni segmentlash jarayonida ham, yoxud induktiv metod asosida matn shakllanishining sinteziga e’tibor berganimizda ham bemalol kuzatish mumkin. Demak, til va nutq birliklarini va sathlarini farqlab o‘rganish til bilan nutq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni inkor etmaydi va bu mumkin ham emas. Bu haqda aytilgan V.B.Kasevichning quyidagi mulohazasi ibratlidir: «Tilning (til sistemasining) sathlari bilan nutqiy faoliyat sathlarini farqlab o‘rganmoq darkor. Agar til sathlari bir-birlari bilan pog‘onali munosabatga asoslangan tartibdagi o‘ziga xos sistemani taqozo etsa, nutqiy faoliyat sathi – bu jumla shakllanishi jarayonida muayyan til sathining faollik ko‘rsatishi «takt»i yoki til mexanizmi qo‘llanishining alohida bosqichini tashkil etadi» [Kasevich V.B. 1977: 21].

Biroq V.B.Kasevich gap va u orqali ifodalanuvchi sath ham tilga tegishli ekanligini ta’kidlaydi: «Yaxlit holdagi xabar fragmentini til birligi – gapdan kichik boshqa birliklar bilan ifodalab bo‘lmaydi»[Kasevich V.B. 1977: 21]. Bizningcha, gapning xabar ifodasini berishi uning til birligi maqomida kelishini talab qilmaydi, xabar ifodasi nutqda shakllanadi va unda til birliklarining kognitiv-kommunikativ vazifalari kesishadi. V.B.Kasevichning o‘zi ham eslatib o‘tilgan fikrining uzil-kesil xulosa tarzida aytilmaganligiga ishora qiladi va shunday deydi: «Til va nutq faoliyatining sathlari soni va ularning sifati masalasi hali qat’iy hal etilishdan yiroqdir» [Kasevich V.B. 1977: 24].

Darhaqiqat, nutq sathlari masalasi tilshunosligimizda hamon izohtalab bo‘lib qolmoqda. Lekin til sathlari bobida bunday deya olmaymiz. Chunki tilda qancha birlik bo‘lsa, uning sathlari soni ham shuncha bo‘lmog‘i lozim. Nutq sathlari haqida esa hali biror qat’iy fikr aytilgani yo‘q. Chunki nutq birliklari masalasi hamon munozarali bo‘lib qolmoqda. Shu bois til va nutq sathlarining o‘rganilishi masalalarini bir-biri bilan qiyoslash qiyin.

Tilda fonema, morfema va so‘z kabi birliklar asosida fonematik, morfematik va so‘z sathlari shakllanishi haqida aytib o‘tgan edik. Mazkur sathlar ichida so‘z sathi o‘z nufuziga ko‘ra ajralib turadi. Uning birliklari vositasida voqelanuvchi gap sathi esa tilga emas, balki nutqqa tegishlidir. Biroq V.M.Solnsev bunda frazeologik iboralar va idiomalarni hisobdan tashqari deb biladi [Solnsev V.M. 1972:18]. Bizningcha, frazeologik iboralar va idiomalar masalasi izohtalabdir. To‘g‘ri, idiomalarni va frazemalarning aksariyatini nutq birligi deb bo‘lmaydi, ular tilimiz sistemasida tayyor holda mavjud bo‘lgani uchun til birligidir. Lekin gap qolipidagi frazemalar, masalan, nutqda ***Alining tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi*** tarzida qo‘llangan frazemali sintaktik qurilmani gap sathiga (yarusiga) tegishli emas, desak xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lmasmikanmiz. Albatta, bu o‘rinda ham frazema komponentlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilmoqda. Biroq bu masalaning semantik jihati bilan bog‘liq. Sintaktik nuqtai nazardan esa mazkur frazema gap sathining barcha talablariga javob bera oladi. Bu haqda aytilgan M.Mirtojievning quyidagi fikri haqiqatga yaqindir: «Frazeologizm birikma yoki gap qolipli bo‘lganligi va u bir lug‘aviy butunlikka aylanganligiga qaramay, o‘z sintaktik xususiyatlarini saqlab qoladi. ...Frazeologizm ham lug‘aviy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham uni so‘zga teng qo‘yib, gap tarkibida biror bo‘lak vazifasida keladi deb, shu fikr ilgari suriladi. Bunda birikma qolipli va gap qolipli

frazeologizmlar ham nazarda tutiladi. Biroq shu o‘rinda shuni unutmaslik kerakki, frazeologizm faqat semantik hodisadir. Shu vajdan ham u nutq tarkibida semantik qayta bo‘linishni yuzaga keltirsa ham, sintaktik qayta bo‘linishni yuzaga keltirmaydi» [Mirtojiev M.M.2004:187].

Darhaqiqat, frazeologik iboralarning bir turi turg‘un holdagi so‘z birikmasi sanalishi mutlaqo semantik nuqtai nazardan ahamiyat kasb etadi. Ammo ularning sintaktik salmog‘ida buning teskarisini ko‘ramiz. Fikrimiz dalilini frazeologik iboralar komponentlarining sintaktik munosabatida bemalol kuzatish mumkin. Bu o‘rinda Sh.Rahmatullaevning quyidagi mulohazasini keltirish maqsadga muvofiqdir: «Ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo‘ladi. Umuman, ibora tarkibida qatnashgan so‘zlar orasidagi sintaktik bog‘lanish o‘z kuchini saqlaydi, o‘lmaydi, faqat ichki bo‘ladi» [Mirtojiev M.M. 2004:10].

Eslatib o‘tilgan M.Mirtojievning fikri bilan ham, Sh.Rahmatullaevning mulohazasi bilan ham to‘liq qo‘shilish mumkin. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilshunosligida hanuzgacha frazeologik birliklarning sintaktik tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan monografik xarakterdagi birorta ham tadqiqot ishi kuzatilmaydi. To‘g‘ri, bunday fikr va mulohazalar keyingi yillarda chop etilgan ayrim darslik va o‘quv qo‘llanmalarda, ba’zi ilmiy maqolalarda ko‘zga tashlanadi. Masalan, H.Jamolxonov bu haqda quyidagilarni ta’kidlaydi: «Frazemalar tarkibidagi so‘zlarning bog‘lanishi erkin birikma yoki gap tarkibidagi so‘zlarning bog‘lanishidan farq qilmaydi: ularning barchasida so‘zlar tobelanish asosida bog‘lanadi, biroq: a) erkin birikmalardagi yoki gapdagi bog‘lanish nutq jarayonida, nutq bilan bir paytda sodir bo‘ladi; frazemalardagi bog‘lanish esa ancha avval yuzaga kelib, turg‘unlashib qoladi...» [Jamolxonov H. 2005:206].

Frazeologik birliklar haqida so‘z yuritilganda shuni ham aytish lozimki, gap shaklidagi frazemalar, bizningcha, real qo‘llanish shaklini nutqda topadi, tilda esa ular abstrakt holda mavjuddir. Masalan, *tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, yuragi yorildi, hafsalasi pir bo‘ldi* va h.k. kabi gap shaklini olgan frazemalarning tildagi variantlari *tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, yuragi yorilmoq, hafsalasi pir bo‘lmoq* tarzidagi mavhum (virtual) ma’noli modellarni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, gap shaklidagi frazemalarning nutq bilan uzviy aloqasi borligini ko‘rsatadi. Gap esa nutqda shakllanadi.

Shunday qilib, gapning lingvistik maqomini nutqdan ayri holda tasavvur etish qiyin ekanligini ko‘ramiz. So‘z birikmasini esa, garchi nutqda shakllansa ham, bu bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Birinchidan, u mudom hosila strukturani taqozo etadi. Ikkinchidan, so‘z birikmasi komponentlari gap tarkibida gapning ham komponentlari sanaladi. Bunday vaziyat so‘z birikmasini nutq birligi deb va shu bilan birga, uni nutqning alohida sathi sifatida o‘rganish uchun muammolar tug‘dirishi shubhasizdir.

Nutqning ikkinchi birligi murakkab sintaktik qurilmadir. U bir necha gapni o‘z tarkibiga birlashtira oladi va ular bilan pog‘onali munosabat tashkil etadi. Biroq murakkab sintaktik qurilma (shu jumladan, an’anaviy qo‘shma gap ham) masalasi tadqiqi tilshunosligimizda ko‘p jihatdan hali izohtalabdir. Nafaqat **murakkab sintaktik qurilma** termini, balki **qo‘shma gap** termini bilan ataluvchi sintaktik qurilma tushunchasi ham tilshunoslarimiz tomonidan turlicha izohlanmoqda. Ba’zi tilshunoslar qo‘shma gap tushunchasidan butunlay voz kechish lozimligini ta’kidlagan edilar (Ovsyaniko-Kulikovskiy, Sakulina, Karsevskiy va boshqalar). Ular uchun faqat (sodda) gap tushunchasi mavjud bo‘lgan. Biroq I.F.Vardulning fikricha, murakkab tuzilishli qurilmalarning barchasini ham sodda gap tarzida talqin etib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, I.F.Vardul nazarida an’anaga ko‘ra bog‘langan qo‘shma gap deb atalib kelinayotgan sintaktik qurilmalar umuman gap maqomiga ega bo‘la olmaydi, ergash gapli qo‘shma gaplar bunday maqomga egadir. Lekin

bog‘langan qo‘shma gap bo‘lmagach, ergash gapli deb ataluvchi qo‘shma gap tushunchasiga ham ehtiyoj qolmaydi . [Vardul I.F. 1977].

Mazkur muammo bobida boshqacha fikr va mulohazalar ham mavjud. Ular to‘g‘risida mazkur ishimizda to‘liq ma’lumot berishning imkoni yo‘q.

Nutqning murakkab sintaktik qurilmadan katta birligi abzasdir. Uning mazkur maqomi birinchi navbatda integrativ xususiyati bilan bog‘liq, bunda mustaqil gaplar, parsellyativ va ilovali qurilmalar, murakkab sintaktik qurilma kabilar qo‘llanadi. Abzasning nutq birligi ekanligini L.G.Fridman ham qayd etadi va quyidagilarni yozadi: «Kommunikativ rejaga ko‘ra gap asosiy sintaktik birlik sanaladi. Bundan katta sathlar birliklari murakkab sintaktik qurilma va abzasdir. Agar gap o‘zining barcha aspektlari bo‘yicha mukammal o‘rganilgan bo‘lsa, murakkab sintaktik qurilma va abzas hali mutlaqo o‘rganilgani yo‘q» [Fridman L.G. 1962:155-156].

L.G.Fridmanning mazkur mulohazasi o‘rinli, albatta. Lekin u abzas komponentlari jumlasiga faqat mustaqil gaplarni kiritadi, murakkab sintaktik qurilma va boshqa sintaktik strukturalar esa nazardan chetda qoladi. Vaholanki, uning yuqorida keltirilgan fikrida murakkab sintaktik qurilma nutq birligi sifatida alohida ta’kidlanganini ko‘ramiz. Murakkab sintaktik qurilma nutq birligi sanalar ekan, u nutqning gapdan keyingi alohida sathini ham tashkil etadi va abzas tarkibida qo‘llanilgach, u bilan pog‘onali munosabatga kirishadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, abzas nutqning eng yuqori darajadagi sathini taqozo etadi va o‘z tarkibiga mustaqil gaplar hamda murakkab sintaktik qurilmalarni kiritgani bois, integrativ xususiyat kasb etadi. Bu juda muhimdir, nutq birliklarining pog‘onali munosabati abzasning mazkur xususiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari, abzasning tugal xabar ifodasini berishi ham uning ana shu integrativ xususiyati bilan o‘lchanadi.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davriga qadar til sathlarining har biri mukammal o‘rganildi va bu sohada jahon tilshunosligida, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham fundamental tadqiqot ishlari vujudga keldi. Biroq boshqa fanlar bilan bir qatorda tilshunoslik ham har doim taraqqiyotda ekanligi izoh talab qilmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, erishilgan yutuqlar bilan chegaralanib qolmaslikni taqozo etadi. Bunday bo‘lishi tabiiydir, albatta. Chunki fan taraqqiyoti amalda mukammal deb hisoblanib kelinayotgan tadqiqotlarimizni qayta ko‘rib chiqishni, ularni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirishni talab qiladi. Ana shu nuqtai nazardan yondashilganda, til sathlari va ularning o‘ziga xos lingvistik tabiati masalasining talqiniga ham fanimizning so‘nggi yutuqlaridan foydalanilgan holda yondashishga to‘g‘ri keladi.

Albatta, til sathlarining har biri o‘zicha nisbiy mustaqil ekanligi, shuning uchun ham ular alohida tekshiruv ob’ektlari sanalishi tilshunoslarimiz tomonidan to‘liq tan olingan va bu borada biror jiddiy muammo kuzatilmaydi. Lekin shu bilan birga, muayyan sathning lingvistik tabiati talqinini bermoq uchun boshqa sathlarga ham murojaat etish lozimligi, bizningcha, shu sohada tadqiqot olib borayotgan tilshunoslargagina hammadan ko‘proq ayondir. Sir emas, o‘rta ta’limda ham, oliy ta’limda ham tilning fonetik sathi nutq tovushlari majmuasi bilan xarakterlanishi va bunday tovushlar fonetikada o‘rganilishi, morfologik sath esa so‘z shakllari majmuasi bilan belgilanishi va mazkur masala morfologiyada o‘rganilishi haqida ma’lumot beriladi. Biroq bu o‘rinda Ferdinand de Sossyurning o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi fikrlariga ham murojaat etilganida maqsadga muvofiqroq bo‘lardi: «Morfologiya til formalarini, fonetika esa tildagi tovushlarni o‘rganishi haqida so‘z yuritadilar. Bunday mulohaza nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nuqtai nazardan ham qoniqarli emas, zotan, biz aksariyat hollarda morfologik va fonetik masalalarning qaysi biri bilan shug‘ullanayotganimizni aniqlashga ham qiynalib qolamiz. …Eng avval shuni aytish lozimki, fonetika, uning asosiy vazifasi tovushlarni o‘rganish ekanligidan qat’i nazar, birinchi galda forma bilan shug‘ullanmog‘i lozim, formaning ishtirokisiz

tovushlarni o‘rganib bo‘lmaydi. Tovushlar bir avloddan ikkinchisiga izolyatsiya qilingan holda emas, balki so‘zlar orqali beriladi. Tovushlar so‘z sathida yashaydi. Bu esa, ikkinchi tomondan, morfologiyaning ham faqat forma muammosi bilan emas, balki tovushlar masalasi bilan ham shug‘ullanishi lozimligini ko‘rsatadi» [Sossyur F.de.1990: 68-69].

Ko‘rinadiki, F.de Sossyurning mazkur mulohazalari an’anaga aylanib qolgan fonetika nutq tovushlarini, morfologiya esa so‘z formalarini o‘rganuvchi sohalar ekanligi haqidagi xulosalarimizni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Olimning quyidagi fikri esa buning yanada yorqinroq dalili bo‘la oladi: «Morfologiya – bu muayyan ma’no anglatuvchi qismlarni aks ettiruvchi tovush birliklarini va mazkur birliklarning o‘zaro bog‘lanishini o‘rganuvchi fandir. Fonetika esa o‘z fiziologik va akustik belgilariga ko‘ra ajralib turuvchi tovush birliklarini o‘rganadi» [Sossyur F.de.1990:70]. Eng xarakterli jihati shundaki, Sossyur fonetik birliklarni so‘z shakli sathida o‘rganish lozimligini alohida ta’kidlaydi.

Bunday mulohazaga yaqin fikrni V.fon Humboldtda ham kuzatamiz [Gumboldt V.fon. 1984:10-117]. Olim til tovushlari tavsifini berishda yoki o‘rganishda so‘z shakliga murojaat etish lozimligiga alohida urg‘u beradi. Buning asosiy boisi so‘zning tovush hamda tushuncha birligidan iborat ekanligidir, albatta. Gumboldtda shu narsa e’tiborga molikki, u til taraqqiyotining dastlabki davrlarida tovushlar orqali o‘zak holatidagi birliklargina shakllanishi mumkin bo‘lganligini eslatib o‘tadi va bunga qadimgi sanskritda affikslar ishtirokisiz o‘zaklar qo‘llanganligini dalil qilib ko‘rsatadi [Gumboldt V.fon. 1984: 90-91].

Yuqoridagilardan tashqari, til birliklarining sintaktik munosabati faqat sintaktik sath uchun emas, balki morfologik sath uchun ham xarakterlidir. Fikrimiz dalilini so‘z sathida mavjud bo‘lgan til birliklarining sintaktik aloqasida ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Benvenist E. Obщaya lingvistika. –M.: Progress, 1974, 447 s.
2. Vardul I.F. Osnovы opisatelnoy lingvistiki (sintaksis i suprasintaksis). –M.: Nauka, 1977, 351s.
3. Glison G. Vvedenie v deskriptivnuyu lingvistiku. –M.: Izd. inostr. Literaturы, 1959, 485 s.
4. Golovin B.N. Yazыk // Obщee yazыkoznanie. –M., 1979, (7-292), 415 s.
5. Gumboldt V.fon. Izbrannыe trudы po yazыkoznaniyu. –M., Progress, 1984, 397 s.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Toshkent: Talqin, 2005, 271 b.
7. Kasevich V.B. Elementы obщey lingvistiki. –M.: Nauka, 1977, 182 s.
8. Klobukov Ye.V. Rol universalno-logicheskogo konsepta «aktant» v yazыkovoy kategorizatsii deystvitelnosti // Problemы kognitivnogo i funksionalnogo opisaniya russkogo i bolgarskogo yazыkov. Sbornik st.–Shumen, 2002 (internet materiali).
9. Letaeva L.A. Osnovnыe napravleniya lingvisticheskix issledovaniy na rubeje XX-XXI stoletiy (kratkiy obzor) // Languages, literatures, vыp.21.–Tyumen: Gos. universitet, 2008 (inter., 2008, Webmaster).
10. Martine A. Osnovы obщey lingvistiki // Novoe v lingvistike, vыp.Z, –M.: Izd. inostr. literaturы, 1963, (347-566), 566 s.
11. Matezius V. O tak nazыvaemom aktualnom chlenenii predlojeniya // Prajskiy lingvisticheskiy krujok. –M.: Progress, 1967, (239-245), 559 s.
12. Mirtojiev M.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Universitet, 2004, 222 b.
13. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993, 30 b.

14. Novak L. Proekt novogo opredeleniya fonemы//Prajskiy lingvisticheskiy krujok. – M.:Progress, 1967, (95-99), 559 s.
15. Nurmonov A. Lingvistik ta'limotning yangi bosqichi// O'zbek tili va adabiyoti, 2008, №6, 50-54-betlar.
16. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978, 405 b.
17. Skalichka V. O fonologii yazыkov Sentralnoy Yevropы// Prajskiy lingvisticheskiy krujok. –M.: Progress, 1967, (84-87), 559 s.
18. Solnsev V.M. O ponyatii urovnya yazыkovoy sistemы // Voprosы yazыkoznaniya, 1972, №3. s. 3-19.
19. Sossyur F.de. Zametki po obщey lingvistike. –M.: Progress, 1990, 275 s.
20. Trubeskoy N. Osnovы fonologii. –M.: Izd. inostr. literaturы, 1960, 372 s.
21. Fridman L.G. K issledovaniyu abzasa kak sintaksicheskoy yedinisы (na mater. nemeskogo yazыka) // Urovni yazыka i ix vzaimodeystvie. –M.: Izd. MGPIIYa, 1967, (155-156), 182 s.

XORAZM QIPCHOQ SHEVALARIDA RUS VA YEVROPA TILLARIGA MANSUB LEKSIKA

VOCABULARY BELONGING TO RUSSIAN AND EUROPEAN LANGUAGES IN THE DIALECTS OF KHORAZM KIPCHAK

Alimova Shahnoza Maqsudovna
UrDU dotsenti
shahnozaalimova@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm qipchoq shevalarida rus va Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar turli guruhlarga ajratilgan holda tahlilga tortilgan bo'lib, ularni sheva leksikasidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.*
Kalit so'zlar: *Xorazm qipchoq shevalari, o'zlashgan so'zlar, sheva leksikasi, rus va Yevropa tillari, fonetik o'zgarishlar.*

Abstract. *In this article, the words borrowed from Russian and European languages in Khorezm Kipchak dialects are divided into different groups and analyzed, and their importance in the lexicon of the dialect is shown.*
Key words: *Khorezm Kipchak dialects, adopted words, dialect lexicon, Russian and European languages, phonetic changes.*

Bugungi globallashuv jarayonida ilm, fan-texnika va texnologiyaning tez ommalashib borishi tilga yangi so'zlarni qabul qilish jarayonini tezlashtirdi. Bugungi kunda biror tilga muayyan muddat ichida qancha so'z kirib kelganini aniqlash imkoni bo'lmay qoldi. Tilga xorijiy so'zlar kirib kelishi uning barcha sathlariga sezilarli ta'sir ko'rsata oladi. Jumladan, har bir tilning o'ziga xos ohang, marom va orfoepik meyorlariga chet tilidan o'zlashgan so'zlar miqdor va ko'lamining ta'siri yo'q emas. Mutaxassislar forsiy so'zlar eng ko'p qo'llangan XV – XIX asrlardagi o'zbek tilida ana shunday olinma so'zlar ta'sirda *ota, ona, tog'a, qora* kabi asl turkiy

so‘zlar talaffuzi, bora-bora esa imlosi ham o‘zgarib, *ato, ano, tag‘o, qaro* tarzida aytishga va yozishga o‘tilganini taassuf bilan ta’kidlaydilar. F.Abdullayev tomonidan o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida tuzilgan bir lug‘atdagi “so‘zlarning 28,6 foizi arabcha, 16,9 foizi tojikcha, 4,7 foizi rus-internatsional, 50,3 foizi asli o‘zbek so‘zlaridan iborat” [Абдуллаев1972:33] bo‘lgani ko‘rsatilgan bo‘lsa ham, bu foizlar nisbati barqaror emasligini, xususan, davr o‘tgan sayin ularning soni va sifatida o‘zgarishlar yuz bergani ma’lum. Asarda o‘zbek tili lug‘at tarkibida yillar o‘tgani sari ruscha so‘zlar hissasi ortib borgani hisob-kitob orqali dalillab berilgan.

Bugungi kunda o‘zbek shevalaridagi rus tili, umuman, Yevropa tillaridan o‘zlashmalar xususida yakuniy to‘xtamga kelingan, aniq misollar va miqdorlar aks etgan xulosalar chiqarish to‘g‘ri emas. Chunki shevalardagi o‘zlashmalarning adabiy tildan farqlanuvchi muhim belgisi shuki, ular adabiy tildagi o‘zlashmalar iste’moldan chiqib ketsa ham, til fondida saqlanib qoladi, shevalarda o‘zlashmalar iste’moldan chiqib ketishi uning fonddan chiqib ketishiga olib keladi. Masalan, bundan 15 yillar oldin ishlatilgan *adisk* so‘zini (A disk) hozirgi shevalar leksikasida mavjud emas deb qaraymiz.

Ana shu kabi murakkab jihatlarni e’tiborga olib, biz XQSH[1]da rus va Yevropa tillaridan o‘zlashmalarni xarakteriga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish ehtiyoji bor, deb hisoblaymiz:

1. Muqarrar (qaror topgan, o‘rnashgan) o‘zlashmalar. XIX asr oxiri XX asr boshlaridan boshlab shevalarimizga o‘zlasha boshlagan va bugungi kunga kelib, o‘z so‘zlari qadar faollashgan va o‘zbek tili tabiatiga moslangan so‘zlar: *ïstäkän* [stakan], *samovar* [samavar], *tïrāqtïr* [traktor], *māšïn* [mashina], *zāvït* [zavod] kabi.

2. Muvaqqat o‘zlashmalar. Tilimizda muqarrar bo‘lishi aniq bo‘lmagan, saqlanib qolishi ko‘p hollarda ekstralingvistik omillarga bog‘liq bo‘lgan o‘zlashmalar: *trend [trend], brent* [brend], *šou* [shou], *pājnet* [paynet], *kïlïk* [click] kabi.

Mustaqillik davrida *ma’viza, aqiqa, valiyma, hasanot* singari arabiy kalimalarning hissasi keskin ortishi bilan birga ingliz tilidan *reyting, xolding, bot, piar, gigabayt, klaster* kabi so‘zlar ham kirib kelishi ekstralingvistik faktorlar sirasidan sanaladi.

Muqarrar o‘zlashmalar sheva vakillari tilida ishlatilganda turli fonetik o‘zgarishlarga uchraydi. Asosan, ruscha o‘zlashmalarda tovush ortish hodisasi kuzatiladi. So‘zlarning turli o‘rinlarida ushbu holat kuzatilishi mumkin:

1) proteza – so‘z boshida tovush ortadi: *ïškap* [shkaf], *ïstäkän* [stakan], *ïstol* [stol] kabi;

2) epenteza – so‘z o‘rtasida tovush ortadi: *tïrāqtïr* [traktor], *pïlan* [plan], *qűlűpnāj* [klubnika] kabi;

3) epiteza – so‘z oxirida tovush ortadi: *bänkä* [bank], *opuskä* [otpusk], *tänkä* [tank], *blänkä* [blank] kabi.

Shuningdek, so‘z oxirida tovushlarning tushish hodisasi, ya’ni apakopa, sheva vakillari nutqida ko‘p kuzatiladi. Masalan, *vällï* [velosiped], *tillï* [televizor], *kïla* [kilogramm] kabi.

Rus va Yevropa tillaridan kirib kelgan o‘zlashmalar aksar hollarda adabiy tilga va xalq shevalariga bir xilda – shakli va ma’nosida katta o‘zgarishsiz kirib kelishi zamonamizga xos bo‘lgan integratsiya jarayoni mahsulidir. Shuning uchun *ayyam* arabiy o‘zlashmasini boshqa sheva vakillari tushunishi qiyin bo‘lgani hamda boshqa shevalarning barchasida mavjud bo‘lmagani holda, *kolsentr* o‘zlashmasini hamma sheva vakillari tushunishi mumkin va bu so‘z deyarli barcha o‘zbek shevalarida mavjud. Boshqacha aytganda, muvaqqat o‘zlashmalar deganimiz tilimizga kirib kelgan o‘zlashmalarning ayni o‘zi yoki qisman fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir.

Xorazmning Rossiya bilan munosabatlari, o‘zaro aloqasi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ayniqsa, XIX asrning yarmida O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan istilo qilinishi natijasida bu

[1] XQSh – Xorazm qipchoq shevalari

munosabatlar yanada avj oldi. Ana shu munosabatlar tufayli o‘zbek tili, jumladan, uning shevalariga ham rus tili va u orqali Yevropa tillaridan ko‘plab so‘zlar kirib kela boshladi. Ularning ilk namunalari Ogahiy, Bayoniy, Komyob kabi tarixchilar, shu bilan birga o‘sha davr badiiy asarlarida uchraydi. Masalan, “Kaufman *guburnatur* bila Verufkin farmoni *imferatur* bila ikki tarafdin Xorazm ustiga yuruganlarining bayoni”: “Avvalg‘isi Turkiston lashkarining amiri Kaufman *general guburnatur*ni Turkiston lashkari bila,...” [Баёний 1994:38-39].

Shevalardagi ruscha baynalminal so‘zlar, ko‘pincha, ommaviy axborot vositalari, maktab, maorif orqali o‘zlashgan. Rus tili va u orqali o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tili va uning shevalari lug‘at tarkibiga tobora singib, xalqning kundalik turmushida faol ishlatiladigan eng muhim tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladigan bo‘lib qolgan.

Barcha tillardan o‘zlashgan so‘zlarda bo‘lgani kabi rus tili va u orqali kirib kelgan so‘zlarda ham o‘zbek tili va uning shevalariga oid qonuniyatlarga bo‘ysungan, ya’ni fonetik o‘zgarishga uchragan holda talaffuz qilinishi kabi xususiyatlarni saqlagan. Bunday so‘zlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin. Ular deyarli barcha sohalarni qamrab oladi.

1. Qishloq xo‘jaligiga oid so‘z va atamalar: *tïräqtïr* (traktor), *mäšïn* (mashina), *selkä* (selka), *pïlïq* (plug), *kűltïvatïr* (kultivator), *turbä* (truba), *suvärkä* (payvandlash), *pämädïr* (pomidor) kabi.

2. Transport, qurilish, sanoatga tegishli so‘zlar: *mantjor* (mantyor), *učotčik* (schotchik), *ekskavatïr (*ekskavator), *biton* (beton), *ïsmen* (smena), *ïstälbä* (stolba), *lom* (misrang), *verändä* (teraska), *äsvält* (asphalt), *vällï* (velosiped) va hakazo.

3. Madaniyat-maorifga tegishli so‘zlar: *biblätekä* (kutubxona), *tijatïr* (teatr), *kansert* (konsert), *artis* (artist), *zvänik* (zvanok), *klās* (sinf) kabi.

4. Uy-ro‘zgor buyumlariga tegishli so‘zlar: *ïškäp* (shkaf), *ïstäkän* (stakan), *svït* (svet), *tomočkä* (tumbochka), *lämpïčkä* (lampochka), *ädyäl* (odeyalo), *kästrol* (kostryulka), *pläntesä* (platensa), *ǯempïr* (jemfer), *vïlkä* (sanchqi), *gärelkä* (grelka), *tälinkä* (tarelka), *padnïs* (padnos), *misrobkä* (miyasorubka), *ustär* (stol), *samovar* (samovar) kabi.

5. Oziq-ovqat nomlariga tegishli so‘zlar: *bölkä* (buxanka), *ïškälād* (shokolad), *päčinä* (pechene), *kämpït* (konfet), *pirog* (pirog), *žarit* (jarkoye) kabi.

Shevalar lug‘at tarkibiga kirib kelgan rus tili orqali o‘zlashgan Yevropa tillariga mansub so‘zlar, asl kelib chiqishiga qaraganda ko‘pincha grek, lotin, nemis, fransuz, ingliz va boshqa tillarga xosdir:

1. Fransuzcha so‘zlar: *käston* (kostyum), *pälton* (palto), *käbinet* (kabinet), *triko* (triko) kabi.

2. Nemischa so‘zlar: *lager* [lager], *ïštamp* [shtamp], *šipïr* [shiyfer], *krän* [kran], *pärtuk* [fartuk] kabi.

3. Inglizcha so‘zlar: *väkzäl* [vokzal], *budžet* [byudjet], *rels* [rels] kabi.

Rus tili va u orqali yoki bevosita kirib kelgan yevropacha so‘zlar Shimoliy Xorazm qipchoq shevalariga o‘zlashishi til tabiatidagi muqarrar hodisadir. Shevalarga o‘zlashmalarning kirib kelish omillari adabiy tildan farq qilmagani kabi bu jarayonni boshqarish, unga ta’sir o‘tkazishning o‘zi ham adabiy tildagidan tafovutga ega emas. Rus va Yevropa tillaridan o‘zlashmalarga munosabat bildirish o‘zbek adabiy tilidagi ayni shu tip o‘zlashmalarga munosabatdan farqlanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1972. – Б.33.
2. МадраҳимовО. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. Фан, Тошкент, 1973.
3. Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. Сўз боши: Н.Жумахўжа,

И.Адизованики. – Тошкент; Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1994. – Б.38-39.
4. Ўзбек тили лексикологияси. Фан, Тошкент, 1981, - В 94.
5. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек шевалари. Фан, Тошкент, 1962.

TARIXIY DISKURSNING SOTSIOPRAGMATIK ASPEKTI

SOCIOPRAGMATIC ASPECT OF HISTORICAL DISCOURSE

Akbar Ruziyev Yusupovich
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU Kechki bo‘lim boshlig‘i
ruziyevakbar@navoiy-uni.uz

Annotatsiya. *Maqolada tarixiy diskursning sotsioprogmatik xususiyatlari, lingvokulturologik holatlarda tarixiy diskursning kelishi va pragmalingvistik xususiyatlarini aniqlash masalalari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *toponimika, stereotip, pragmalingvistik, lingvokulturologiya, sheva, areal tasnif, leksikografiya, sotsiopragmatika.*

Abstract. *The article talks about the socio-pragmatic features of historical discourse, the emergence of historical discourse in linguistic-cultural situations, and the issue of determining pragmalinguistic features.*

Key words: *toponymy, stereotype, pragmalinguistics, linguoculturology, dialect, areal classification, lexicography, sociopragmatics.*

Yunus Emroning fikriga ko‘ra, Sharq mamlakatlarida tarixiy asarlarga qiziqish yuqori. “Usmonlilar imperiyasi ostida hukmronlik qilgan mamlakatlardan tashkil topgan Yaqin Sharqda turklarning aksariyati islom diniga mansub. Diniy turmush tarzi va uning asarlarda aks etishi jamiyatlar e’tiborini tortadi. Shuningdek, Yaqin Sharqda yashovchi ba’zi odamlarning tarixiy asarlarda tasvirlangan hayotlarga taqlid qilishlari bildirilgan” [Yunus Emre. 2001. 16.].

“Ertug‘rul” kinossenariysi televideniedagi “sitcom” spektakllaridan farqli o‘laroq, turli format xususiyatlari bilan oldinga chiqadi. Serialning hikoyasi turk tomoshabinlarini Usmonlilar imperiyasining tashkil topgan davrlariga olib boradi. Kayi qabilasidagi voqealarni tasvirlab, davr sharoitlarini ochib bergan turkum, Anadoludagi boshqa qabilalar va qo‘shni davlatlarni tasvirlab, 1200-1300 yillarga oydinlik kiritishga harakat qiladi. “Dirilish” seriali bu hikoyalar bilan o‘sha davr voqealari va personajlari orqali tomoshabinning tarixiy xotiraga qaytishini istaydi. Kayi qabilasi — Anadoludagi o‘g‘uz naslidagi qabilalardan biri. Anadoluning turli joylariga ko‘chib o‘tib, jon saqlab qolishga harakat qiladi. O‘sha davrda Anadoluda “Anadolu Saljuqiylar davlati” hukmron bo‘lsa-da, Istanbul Vizantiyada, Suriya va Misr esa Ayyubiylar davlati tarkibida edi. Anadoluning sharqiy chegarasida mo‘g‘ullar hukmronligi mavjud bo‘lgan. Kayi qabilasi boshqa qabilalar bilan birlashib, Saljuqiylar davlatining davom etishini ta’minlamoqchi. Shuning uchun u sharqda mo‘g‘ullar, g‘arbda vizantiyaliklar, janubda vaqti-vaqti bilan Ayyubiylar, Anadoluda salibchi tamblierlari bilan kurash olib boradi. Bu kurash turli sabablarga ko‘ra qabilalar o‘rtasida ham bo‘lishi mumkin. Qabilalar o‘rtasidagi eng katta kelishmovchilik “Yo‘lbars knyazligi”ga egalik qilishda yuzaga keladi. Bu voqealar umumiy ma’noda “Dirilish” serialida sodir bo‘lgan

bo‘lsa-da, kurashning boshqa muhim tomonini ichkarida boshdan kechirgan xiyonatlar ekanligini aytish mumkin. Hikoyaga ko‘ra, har bir qabilada xiyonat qiluvchi janob va uning Alp tog‘lari bor. Shunday qilib, turg‘un oqimning oldi olinib, qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatga zamin yaratish orqali hikoya qilinadi.

Dirilish turkumidagi muhim voqealardan ba’zilari Alp tog‘lari va ovuldagi ayollar o‘rtasida sodir bo‘ladi. Avvalo, Alp bo‘lishning ma’lum qoidalari bor. Xalq diplomatiyasidagi yangi yo‘nalishlar va uning qiyinligi. Alp tog‘i bo‘lishni istagan har bir kishi Alp tog‘lari mashg‘ulotlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, uning tarbiyasida hissasi bor eng yaqin askar sifatida kurasha oladi. Demak, “Dirilish Ertug‘rul” kinossenariysida turli murakkab xarakterga ega qahramonlar ishtirok etadi va ularning nutqi ham murakkab pragmatik dasturga ega. Tahlilga tortish lozim bo‘lgan diskurs quyidagi holatlarda tanlab olindi:



“Ertug‘rul” kinossenariysida qahramonlar toifasi

“Mendirman Jaloliddin” kinossenariysi ziddiyatning keskinligi, voqealar rivojidagi kutilmagan o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. Yana bir e’tiborli jihati kinossenariyda o‘zbek, turk, mo‘g‘ul va boshqa xalqlar madaniyati ham aks etadi. Shu boisdan tadqiq jarayonida qiyosiy tahlilga tayanildi. Demak, xususiy diskurslar tahlilida quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- so‘zlikning tanlanishi, so‘z muqobillarining qo‘llanilishi;
- nutqiy vaziyatning yuzaga kelishi, nutqiy vaziyatga aloqador hodisalar;
- qahramonlar nutqining pragmatik dasturi;
- nutqiy vaziyatni hisobga olgan holda fikrning adresatga ta’siri;
- nutqning qanday ko‘rinishda tashkil etilganligi va bunda nutqning o‘ziga xosligi (monolog, dialog, polilog);
- turli lisoniy va nolisoniy birliklar, verbal va noverbal vositalardan foydalanish;
- fikrning mavzu va g‘oyaviy yo‘nalish liniyasini baholash;
- suppozitsiya, presuppozitsiya, implikatsiya, intensiyaning gender stereotiplarda xilma-xilligi;
- gender stereotiplarga muvofiq nutqning xoslanishi va h.k.

Gender stereotiplarni farqlash uchun turli xil ta’riflar va sinonimlarning mavjudligi ularni shaxsga bog‘liq bo‘lgan denotatsiyalarning turli sinflarini va shaxs belgilari guruhlarini, shaxsning tashqi ko‘rinishi elementlarini, shaxs belgilarini (faoliyati, tili, ongini) aniqlash bilan tizimlashtirishni talab qiladi (his-tuyg‘ular, iroda erkinligi, ism, marosim va ijtimoiy xulq-atvor), shaxsiy belgilar (yaxshilik va yomonlikni farqlash, xarakter, axloqiy rangli harakatlar).

6. Каримов К. Ағабий I-II. Нөкис, «Bilim», 2017.

O‘RTA CHIRCHIQ TUMANI SHEVASIDA ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARNING NOMLARINI VA NOMLAR BILAN BOG ‘LIQ DIALEKTAL SO‘ZLAR

NAMES OF ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND DIALECT WORDS RELATED TO THE NAMES IN THE LANGUAGE OF THE MIDDLE CHIRCHIK DISTRICT

Rayimqulova Dildora Izatilla qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, erkin tadqiqotchi

Annotatsiya. *Bu maqolada O‘rta Chirchiq tumani shevasi vakillaridan yozib olingan matnlar asosida dialektal misollar keltirilgan.Ushbu dialektal misollar leksik-semantik va maqollar nuqtai nazaridan farqlab berilgan.Ular sheva leksikasini faqat sheva vakillari nutqidan yozib olingan matnlar asosida o‘rganish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatgan.*

Kalit so’zlar: *urf-odat, diolektal so‘z, leksika, lug‘aviy qatlam, tahlil, sheva.*

Abstract. *In this article, we analyzed several alla texts in order to study the structure and linguistic layers of the lexicon of folk allas. We studied the structure and meaning of the dialectal words found in the texts of alla.*

Key words: *dialectal word, lexicon, lexical layer, caress, term, analysis, dialect.*

O‘zbek shevalar lug‘atiga urug‘chilik, urf-odat, xalq og‘zaki ijodi, madaniyatiga oid so‘zlarning faqat shevalarda qo‘llanishi etnografik dialektal so‘zlar deyiladi. Etnografik dialektal so‘zlar o‘zbek adabiy tilida va shevalarimizda xalqimizning asrlar davomida shakllangan juda qadimgi turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma’naviy madaniyati bilan aloqador ko‘pgina dialektal so‘z mavjud. Lekin bu xil so‘zlar-adabiy tilidagi etnografizmlar ham, adabiy til va shevalar uchun mushtarak bo‘lgan adabiy dialektal etnografizmlar ham, faqat sheva dialektalga xos etnografik so‘zlar ham bir-biridan farqlangan holda tadqiq etilmagan. Hattoki, rus

dialektalogiyasida ham shevalardagi etnografik so‘zlar dialektal lug‘atga kiritilishi yoki kirmasligi hal etilmagan.

Etnografiya so‘zi yunoncha so‘z olingan bo‘lib “etno”-xalq, “grafiya”-shunoslik. Ularning kelib chiqishi turmush tarzi, urf-odatlari moddiy va ma’naviy taraqqiyot darajasidan qat’i nazar teng holda o‘zaro tafovutda yoki umumiyligi va o‘xshashligini ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi mahsus fan sohasi. Etnografik hozirgi etnoslarning kelib chiqish ularning shaklanishi, joylashishi va etnik tuzilishi urf-odatlari ma’naviy-madaniyati va milliy xususiyatlarini tarixiy jarayon bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Tarixiy etnografika yo‘qolib ketgan xalq va elatlar tarixiy jarayonlar, maishiy turmush ma’naviy-madaniy xususiyatlarni tadqiq qiladi. Etnogragik bilimlar qadim zamonlardan paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, lekin mustaqil fan sifatida XIX-asrning o‘rtalarida shakllanib kelmoqda. “Dastlab bu atamani XVI-asrning oxirlarida nemis yozuvchisi I.Zummer ishlatgan, keyin esa XVIII-asrning oxirida va 1808-yilda maxsus jurnal shu nom bilan chiqa boshlagan. Etnografiya so‘zi mashhur fransuz tabiatshunosi va fizigi Jan Jak Amper taklifi bilan Parij antropologlari kongressida alohida fan sifatida qabul qilingan. O‘rta Osiyo xalqlariga tegishli ma’lumotlarni qadimiy ahamoniylar davriga oid qoyatosh bitiklarida, parfiyoniy, sug‘diy, xorazmiy, baxtariy yozma yodgorliklarida, xitoy sayohatnomalarida, sosoniylar Eronining o‘rta forsiy, pahlaviy tildagi yodgorliklarida, arman tilidagi manbalarda, qadimiy turkiy yozma yodgorliklarda uchratamiz.” O‘rta Chirchiq shevasi vakillari nutqida ham etnografiyaga oid leksik birliklar ham uchraydi. Bu birliklar shu hududdagi sheva vakillarining turmush-tarzi, urf-odatlari, yashash sharoiti, ma’naviyati va madaniyati haqida tegishlicha tushunchalar beradi. Inson o‘zligini anglashi uchun u avvalo o‘zining kimligini, kimning avlodi ekanligini, o‘z qadriyatlarini, urf-odatlarini bilishi lozim.

Bu yerda xalq urf - odatlari, ya’ni etnografik leksika haqida to‘xtalib o‘tamiz. Har bir sheva vakillarining yashash joyiga qarab ularning urf - odatlari shakllangan. Bugungi kunga kelib, bu uruf-odatlar har bir sheva vakillarining ya’ni bugungi avlodning nazaridan chetda qolib ketmoqda. Har bir urf - odatning kelib chiqishi bor. Ular shunchaki paydo bo‘lgani yo‘q. Bu urf-odatlar bizning ota - bobolarimiz kim bo‘lganligini bildiradi. O‘zbekistonda 12 ta viloyat bo‘lsa, har bir viloyatda tumanlar bo‘lsa, har bir viloyatning o‘ziga xos urf - odatlari bor. Shuni ham e’tiborga olish lozimki har bir viloyatning tumanida ham urf - odatlar bo‘lib, ular haligacha saqlanib qolgan. Bunga misollar keltirsak. Qarshida kuyov kelinni olov atrafida ko‘tarib uch marta aylantiradi. Bizning o‘rganayotgan obyektimizda ham bu urf – odat bor lekin, ular o‘rtasida farq bor. Ya’ni Qarshida kuyov kelinni ko‘tarib olov atrofida aylantirsa bizning sheva vakillarida kelin bilan kuyov birgalikda uch marta aylanadi. Bu urf – odat faqat ikki viloyatda emas boshqa sheva vakillarida ham uchraydi. Faqat bir-biridan farqli o‘laroq ajralib turadi.

Betochar // **betāčär**- nikoh to‘yining ertasi kuni kelin yangi tushgan xonadonga yuziga oq ro‘mol yopilgan holda kiriladi. Bu ro‘mol uchi paxta bilan o‘ralgan uzun cho‘p tutgan kichik yoshdagi o‘g‘il bola tomonidan olinadi va kelin yuzi ochildi deb hisoblaydi. Kelinni o‘choq boshiga olib borib, supra yoyib un elatadi va o‘choqqa o‘t yoqtiradi.

Tom to‘y // tām töj-yangi solingan uyga qarindosh-urug‘larni chaqirishadi. Mehmonlar to‘yana qilib uyga kerakli buyumlar olib kelishadi: Qurdoshimiz yangi uy olgandi, shunga tom to ‘y qildi. Uyi maktap oldida ekan. Qurdāšïmïz jängi uj ālgändi, šungä tām töj qïldï.Uji mäktäp āldidä ekän.

Oltin to‘y // āltin töj- Oltmish yoshga kirgan bobo va momolarning muborak yoshlariga qilinadigan to‘y

Kumush to‘y // kumuš töj -Elik yoshga kirganda onalar qilinadigan to‘y.

Challari // čälläri– To‘ydan keyin kelinning ota uyiga kuyovning qarindosh urug‘lari bilan keladi. Challari katta to‘y kabi o‘tkaziladi. Kuyovni kelinning qarindosh urug‘lari bilan tanishtiradi.

Qiz bazim //qïz bäzim – qizning to‘yidan bir kun oldin ota uyida o‘zining sinfdoshlari, qarindosh-urug‘lari va kuyovning qarindoshlariga qiladigan kichik bazimi.

Po‘xcha ko‘rsin // poxča körsin-To‘yga yaqin kuyov uyida bo‘ladigan marosim. Kuyov onasi yaqin qarindosh-urug‘lari va qo‘shnilarini mehmonga chaqirib, keliniga qilgan sarpo-surug‘ini ko‘satadi. Po‘xcha ko‘rsinga aytilgan kishlar bitta belboqqa boy chopon, bir kiyimlik va ro‘mol tugib chiqishadi.

Chaqiriq // čaqïrïq- kelinni qarindosh urug‘lari va kuyovning qarindoshlari to‘ydan keyin mehmonga chaqirishi.

Ata chaqiriq // ata čaqïrïq– kelinning otasi, amakilari, tog‘alari kuyovning uyiga mehmonga borishadi. Ularni alohida kutib olishadi. Ota chaqirida faqat erkaklar borishadi.

Oqliq berdi // āqlïq berdi- qiz taraf nozilik berganini bildirish uchun sovchilarga bir kiyimlik mato berishadi. Shunda kelin tarafning roziligini olgan bo‘ladi.

Og‘iz soldi // āγïz sāldi- qizning uyiga bormasdan qarindosh urug‘lardan so‘ratishi. Agar qiz tarafga yigit taraf maqul tushsa sovchlikka kelishaversin deyishadi yoki rat javobini beradi.

Chupron to‘y // čuprān töj-Sunat to‘y –yigitlarga to‘y berish. To‘y berayotganning ota – onasi toy olib kelishadi va boshdan oyoq sarpo qiladi.

Fotiha to‘y // fātixa töj- To‘y kuni kuyov tarafdan keladigan sarpo-suriqlar.

Ko‘rpa-xashar // körpa xašar-kelinning ko‘rpalarini tayyorlash uchun qilinadigan xashar. Qarindosh - urug‘lar, qo‘ni –qo‘shnilar chiqib birgalikda tayyorlaydi.

Qovurdoq // qāvurdāq- Chaqoloqqa kelin onasi tomonidan olib boriladigan marosim.

Uy bezatar // Uj bezätär- qizning bo‘lajak kelinlik uyini bezatish. Hämmä keldi ämmā häli bölam kelmadi.

Uy qoqdi- uyni tozalash ya’ni to‘shanchilarni uydagi hamma buyumlarni opchiqib bir chekadan tozalash

Ata yupatar // ata jüpätär- O‘rta Chirchiq tumani hududida to‘y kuni kelini ota uyidan kuyovnikiga olib ketgach, ota qizning nikoh to‘yida qatnashmaydi. Qiziga oq fotha berib jo‘natgach, otaga yaqin bo‘lgan kishilar qolib, otani yupatadi. Ya’ni yuragining bir parchasi bo‘lgan qizini o‘zga xonodonga berib yuborib, ko‘ngli buzilgan otaning qalbiga taskin berishadi. Bu odat ota yupatar deb nomlanadi.

Demak, bu shevada etnografik xususiyatlarni ifodalovchi dialektal so‘zlar faol qo‘llanadi. Bugungi kunda ham bu urf-odatlar hech qanday o‘zgarishsiz saqlanib kelinmoqda. Sheva vakillarining bir –biridan farqlari ham shundadir. Har bir sheva vakillarining o‘zlarining yashash joyiga qarab urf-odatlar mavjud. Ularning kelgusi yillarda yo ‘qolib ketmasligi uchun urf-odatlarni kelajak-yoshlarga yetkazish zarurdir.

Shevadagi nomlar bilan bog‘liq dialektalizmlar

O‘rta Chirchiq tumani so‘zining etimologiyasiga kelganda, bu haqida adabiyotlarda deyarli aniq bir ma’lumot yo‘q. So‘zning qismlari bo‘lgan “O‘rta” va “Chirchiq” morfemalari hozirgi nuqtai nazardan qaraganda “Markaz” ma’nolarini ifodalaydi. Bundan tashqari “Chirchiq” qismi bir qancha toponimik nomlarning oxirida uchraydi: Quyuchirchiq, Yuqorichirchiq, va boshqlar.

O‘rta chirchiq tumani 57 ta qishloq mavjud. O‘rta Chirchiq tumani haqida ilmiy manba yo‘q. Lekin O‘zbekiston xalqaro oltin meros hayriya fondining Toshkent viloyat bo‘limasining rahbari Zarifa Eshmirza “Shoh Iroq yo‘llari tarixi” degan kitob yozgan. V-VI asrlarda bu yerda Nukent

degan shahar bo‘lgan. Nukent so‘zi Nokent so‘zidan olingan bu yangi shahar fors-tojik tilidagi tarjimasi Nokent keyinchalik tillarning o‘zgarishi bilan Nukent deb atalgan. Nukent karvon yo‘lining choraxasida bo‘lgan. XII asrgacha rivojlangan. Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng bu shahar vayron qilinib, kimsasiz joyga aylangan. To‘ytepa deb nomlanishining aniq bir ilmiy manba yo‘q bo‘lib, rivoyatlar qolgan. Birinchi rivoyatda To‘ytepa hokimi qizni Qang‘a degan shaharga uzatadi. Shunda kelinning uyidan to kuyovning uyigacha osh qo‘lma-qo‘l o‘tib brogan shundan To‘ytepa nomi kelib chiqan deyiladi. Ikkinchi rivoyatda Muhammad Hazrati Alining kallasini olish uchun polvon keladi shunda Atham sahoba o‘zini Muhammad Hazrati Ali deb tanishtiradi. Atham sahobani kallasini olib tepib o‘ynashib, to‘y bergan shundan To‘ytepa deb nomlangan deyiladi. Uchinchi rivoyatda Ko‘k buloq yonida katta ko‘l bo‘lgan. Ko‘l toshganda odamlar tepalikka chiqib omon qolgan shundan To‘ytepa nomi qolgan deyiladi.

Burgandi // **bürgändi** -O‘rta Chirchiq tumanida **Burgalik** qishlog‘i bor. Burgalik qishlog‘ining nomining kelib chiqishining o‘ziga xos tarixi bor. Qadimda bu qishlog‘ o‘rnida burgandi yovoyi o‘simlik o‘sgan. Burgandi supurgi ya’ni yovoyi supirgi nomi. Shu yerlik aholi tomonidan burgandi soy deb nomlangan. Keyinchalik fonetik o‘zgarishga uchrab Burgalik deb atalgan. Bugungi kunda ham Burgalik deb nomlanadi.

Ozim Bürgälikdä turämän. ǯāšim on ušdä. Jāzdä ālmä, nāk, uzim pišändä kättä ämmäniŋ bal(a)läri kelädi.ǯāzni biznikidä otkäzädi.

Yung‘ich qalla // **Junγič qällä** -so‘zining ma’nosi mustahkam qurilgan, hech kim zab etolmagan qallaga ishlatiladi. Lekin O‘rta Chirchiq tumaning Yung‘ich qalla mahallasining nomi o‘simlik nomidan olingan. Yung‘ichqa yovoyi bedani nomi. Bu yerda yungichqa ko‘p o‘sganligi uchun shu yerlik aholi Yung‘ich qalla nomi qo‘ygan.

Kunlärdän bir kun äkäm bilän Jünγič qällägä bārdim. U ǯerdä heč qändäy qällä ǯoq ekän. Äkäm bu ǯerdä qällä ǯoq, Yünγičqa osimlikniŋ nāmgä qojilgän dedi. Kättälär jdä kop närsälärni bilädi.

Qaytmas // **Qäjtmäs–** bu qishlog‘ 1930-yillarida tashkil topgan. Bilovtisoy qishlog‘idan, tashlandiq, qamishzor, to‘qayzor, o‘zlashtirilmagan kimsasiz joyga ko‘chib kelishgan bo‘lib, 10-15 ta xo‘jalik kelib o‘rnashgan.Tashlandiq joy bo‘lganligi uchun boshida bu yerga o‘rnashishga qiynalgan, bazilari ketamiz deganda yo‘q ketmaymiz bu yerdan qaytish yo‘q deb Qaytmas qishlog‘i nomi kelib chiqan va shu nom bilan atalib kelinmoqda. Birinchi **artel** yani 10-15 ta kishi birkalikda dehqonchlik bilan shug‘illangan. Birida omoch, boshqasida ho‘kiz, eshak, bug‘doy qilib, birgalikda dehqonchlikni boshlagan.

Qäjtmäs qišlāγida qaysar va äjtgänini qilädigän ādämlär jäšäjdi. Balläri jdämexnetkäš, qïzlärï häm ādābli. Kättälärgä jdä hurmäti bäläntt. Ādämläri häm jdä mexmändost šinävändä. Ulär asāsän dehqānčilik vā čārväčilik bilän šuγïllanadi. Hämmä išläjdi, bāγïga ālmä, nāk, ānär vā Äzgine sāvzi vā kärtiškä jäm ekkädi.

Qora suv // **Qārä suv**– Bu suv qazib ishga tushirilgan davridan boshlab loyqa suv oqqan. Shu sababli bu suv nomi qora suv deyiladi. U yerning nomi ham **Qāra suv** deb nomlanadi.

Men yettmiš jkkinči mäktäpdä oqïjman. Mäktäp Qārä suvdä. Šuniŋ učun ämäkim ujidän qatnajman. Balläri ozim bilän öqijdi.

Katta kanal // **Kättä känäl–** hududning boshqa suv havzalaridan eng kattasi bo‘lganligi uchun va asosiy suv kanali bo‘lganligi uchun katta kanal nomni olgan.

Abduqādïr äkäniŋ xātini kättä känäl täräfdä turärdi. Ata-anasi izzät-hürmätli ādämlär bolgän.

Jong‘aboy ǯānγabāj – qozoqlar urug‘iga atab qo‘yilgan. Bu yerda qozoqlarning jong‘aboy urug‘i yashagan.

Ƶānγabāj xāzirgi kundä gulläb jäšnämāqda. Ƶänγï bāqčalar vä mäktäplär qurilmāq. Bügüngi jāšlarγa qulaj imkānijätlär ƶärätilmāqda.

Evalak // Eväläk– evi – turkiy tilidan olingan bo‘lib, “Iloh” yoki “Ilohni joyi”, maskani” ma’nosini bildiradi. Bu yerda diniy bilimga ega bo‘lgan insonlar yashagan. Bugungi kunda Evalak nomi bilan ataluvchi joy O‘rta Chirchiq tumanida 2 ta bo‘lib, bittasi mahalla, ikkinchisi esa qishloq nomiga qo‘yilgan.

Qajnanam äslidä Eväläkdän kelin bālgän bu ƶergä. Oziniη qïzlïq ujini kop esljdi. Qïzïmgä bālaligi haqïda gäpirip berädi. Qïzïm märāq bilän ešitädi.

Sho‘rto‘va // šörtövä – tepaliklari ko‘p bo‘lganligi uchun shu nom bilan atalgan.

Uch ovul // Uč āvul-qishloqning oxiridagi uchta xonadon bo‘lgan. Bugungi kunda kelib xonadonlar ko‘paygan bo‘lsa ham shu nom bilan atalmoqda.

Häjät šundäy ekän ädämlärdän uzāqdä jäšäsäη, ulärdän uzāqlašar ekänsän. Ozi Uč āvulgä kelgim kemägän. Qaynatam räxmatli seni esiη bār dep boläk qilgan. Mänä jašäb ƶuripmiz.

Akmal Ikromov // Äkmäl Ikrāmāv - Äkmäl Ikrāmāvning oldingi nomi Maksim Go‘rki bo‘lgan. Mustaqillikdan keyin nomini Äkmäl Ikrāmāv qo‘ygan. Lekin bu shaxs egasi bu yerda yashamagan. Faqatgina uning nomini qo‘ygan. Tadqiqotimiz paytida bu insonning aslida kim bo‘lganini hech kim bilmaydi. Faqatgini uning nomiga va ziyoli inson bo‘lganini bilishadi.

To‘men // Tomen-so‘zi quyosh chiqadigan tarafga nisbatan ishlatiladi.

Tāη ātišini kuzätiš naqadar äƶājip. Buni zavqïnï kuzätgän bilädi. Bir kuni ustāzimiz qujāš čiqïšnï čizib kelišimizni äjti. Ertä tāηdä turib, tāmgä čïqïb tāmen täräfgä qarab qujāš čïqïšnï čizdim.

Yuqorida keltirilgan joy nomlarimiz biz o‘rganayotgan hududning o‘zlari tomonidan ya’ni sheva vakillari tomonidan nomlangan bo‘lib, o‘zlarining shevalariga moslashtirgan. Har bir nomlarning o‘z nomlanishi mavjud. Har bir nom hududning kelib chiqishiga borib taqaladi. Hech bir nom shunchaki qo‘yilmaydi har birining o‘ziga xos tarixi va kelib chiqish va o‘z qarashlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirbayev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. 2021 176-b, 78-b.
2. В.В. Решетов.”Тошкент вилоятининг қурама шеваси фонетика ва морфологиясиі”. 1952
3. Тохир Содиков “Тошкент вилояти лексикаси” АКД. Тошкент. 1968.
4. Содиқов Тохир. “Тошкент вилояти шевалари лексикаси”, Автореферат кондидатлик диссертатсияси, Тошкент, 1968.
5. Ишаев А. Ўзбек лексикографияси. Т.,Фан, 1989. 3-37-б.
6. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. Тошкент.,Фан, 1990.
7. Ш. Шоабдурахмонов. Тошкент шевалари ўзбек шевалари. 1976

DIALEKTAL ANTROPONIMLAR MINTAQAVIY ANTROPONIMIKANING ASOSIY XUSUSIYATI SIFATIDA

DIALECTAL ANTHROPONYMS AS A MAIN FEATURE OF REGIONAL ANTHROPONYMICS

Qabulova Dilnoza Rustamovna
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dialektal antroponimlar mintaqaviy antroponimikaning asosiy xususiyati sifatida sanalib, uning asosiy jihatlari Xorazm shevalaridagi ayol ismlari misolida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Antroponimlar, dialektal antroponimika, mintaqaviy antroponimika, ayol ismlari, Xorazm shevalari.*

Abstract. *In this article, dialectal anthroponymy is considered as the main feature of regional anthroponymy, and its main aspects are revealed on the example of female names in Khorezm dialects.*

Key words. *Anthroponyms, dialectal anthroponymy, regional anthroponymy, female names, Khorezm dialects.*

Antroponimlar o‘z xarakteriga ko‘ra umumnutqqa yoki shevalarga xos bo‘lishi mumkin. Ammo ko‘pgina ismlarni ularning shakliga qarab adabiy yoki variant ekanligini belgilash qiyin. Buning uchun o‘zbek tili dialektlarida uchrovchi faqat shu dialektga xos bo‘lgan ismlarni bir joyga to‘plash va ilmiy tahlil qilish lozim bo‘ladi. Antroponimlarning shevaviy xususiyati ularning talaffuzi shaklidan bilinib turadi. Jumladan, qipchoq shevalarida so‘z boshida “y”–“j”, “x”–“q”, so‘z o‘rtasida “b”–“v”, “q”–“g‘” tovushlari almashinib talaffuz qilinadi.

Xorazm vohasi shevalari leksikasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan antroponimlar tizimi o‘ziga xos tomonlarga egaligi bilan ajralib turishi shubhasizdir. Xorazm ayol ismlari tilimiz boyligining tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbek tili turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan xilma-xil ismlarga boy bo‘lib, bu nomlar o‘zbek xalqining uzoq madaniy va ma’naviy qadriyatining ajoyib durdonalaridir. Chunki bu nomlarda xalqimizning tarixiy yo‘li, xalqning orzu -umidlari, armonlari, falsafiy, diniy, ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlari, e’tiqodlari, hurmat-ehtiromi o‘z ifodasini topgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, ismlar ham tarixdan guvohlik berib turadi.

Ma’lumki, antroponimlar tarixan va o‘z mohiyatiga ko‘ra dialekt hamda shevalarning mahsulidir. Chunki ular ma’lum oila a’zolari davrasida, muayyan kishilar jamoasi nutqida yuzaga keladi va o‘sha sharoitda yashaydi. Shunday ekan antroponimlarda ma’lum hudud aholisi tili (lahja va shevalar)ga xos xususiyatlar shakllangan bo‘ladi. Masalan, qipchoq shevalari muhitidagi nomlarda qipchoq shevalari xususiyatlari, o‘g‘uz shevalari muhitidagi nomlarda shu shevalarga xos lisoniy belgilar aks etadi. Shu sababli ham muayyan mahalliy hududlar, lahja va shevalar doirasida to‘plangan va tahlil qilingan ismlar nomshunoslikda “dialektal antroponimiya” deb [Думбрэвяну 1982:84] yuritiladi.

Antroponimika sohasida “dialektal antroponim” tushunchasi mavjud. N.V.Podolskaya dialektal antroponimni antroponimik tizimdagi ismlarning guruhlaridan biri deb shunday

izohlaydi: “Dialektal ism (atoqli ot) – 1.Dialektal leksika yoki formantlar asosida yuzaga kelgan ism. 2. Ismning dialektal varianti [Подольская 1988:31].

“Dialektal ism” tushunchasining ajralishi aslida “adabiy ism” tushunchasiga nisbatandir. Shu sababli simlarning turli variantlari haqida gap borganda “adabiy” va “rasmiy” variantlar bir turkumni, “kundalik turmush varianti”, “dialektal variant”, “mahalliy variant” ikkinchi turkum nomlarini tashkil qilmoqda va bu ikki guruh bir-biriga qarshi qo‘yilgan holda qiyoslanmoqda [Раҳимов 1998:15]. Keltirilgan variantlar N.V.Podolskayaning fikricha, bitta nomning rasmiy tilda yoki turmush tilida, adabiy tilda yoki lahjada uchraydigan shakllarini ko‘zda tutadi.

E.Begmatov va G‘.Sattorovlar ham mintaqaviy antroponimikaning o‘ziga xos xususiyatlarini sanar ekanlar, dialektal antroponimiya masalasi eng asosiy jihat ekanligini ta’kidlashgan. Ularning qayd qilishicha, o‘zbek mintaqaviy antroponimiyasi: 1) o‘ziga xos dialektal nomlarga egaligi; 2) ismlarning lahjaviy talaffuzga egaligi; 3) ismlar yasalishidagi lahjaviy xususiyatlar; 4) ba’zi antroponimik ismlarning sermahsul va serqo‘llanuvchanligi; 5) ba’zi turkum ismlarining bu mintaqada ko‘p uchrashi; 6) qo‘shma ismlarga xos bo‘lgan ba’zi bir juz’iy yasalish modellariga egaligi; 7) ismlar qisqarishidagi ba’zi o‘ziga xosliklar bilan xarakterlanadi [Бегматов 1989:113-114]. Shu asosda o‘zbek mintaqaviy antroponimikasi tadqiqotning dialektal o‘ziga xosligi o‘zbek tilshunosligining eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi tadqiqotchisi S.Rahimovning fikricha, bir mintaqa (hudud)da birdan ortiq lahja va shevalar bo‘lishi va shunga ko‘ra har bir shevaga xos ismlar yuzaga kelishi mumkin. Mintaqaviy antroponimiya konkret mintaqa (hudud)dagi barcha lahja va shevalarga xos bo‘lgan ismlarning xususiyatlarini o‘zida jamlagan, umumlashtirgan holda ifodalaydi. Chunonchi, Xorazm mintaqaviy antroponimiyasida o‘g‘uz lahjalariga ham, qipchoq lahjalariga ham xos ismlar mavjud. Xorazm dialektal antroponimiyasi haqida gap borganda har bir lahja ismlari alohida olib qaraladi [Раҳимов 1998:19]. Ammo biz Xorazm mintaqaviy antoponimiyasi haqida gapirayotganimiz uchun mintaqa doirasida umumlashtirilgan holda tahlil qilishni ma’qul topdik. Bundan tashqari har bir lahja va shevadagi nomlar orasida shaklan adabiy, ya’ni umummilliy tildagi ismlar bilan aynan mos keluvchi nomlar ham bo‘ladi. Bu ayol ismlarida ham ancha miqdorni tashkil qiladi. Shu asosda biz Xorazm mintaqaviy ayol ismlarini dialektal jihatdan tadqiq qilishda guruhlarga ajratdik:

1. Adabiy tildagi ismlar bilan aynan mos keluvchi ayol ismlari
2. Adabiy tildagi ismlarning lahjaviy variantlari
3. Ayol ismlarining qisqargan variantlari
4. Xorazm shevalariga xos ayol ismlari

Adabiy tildagi ismlar, ya’ni adabiy antroponimiya tushunchasining doirasi ancha kengdir. Unga quyidagi nomlar kiradi:

- adabiy til doirasida imloviy qoidalarga rioya qilib yoziluvchi ism shakllari bo‘lib, bu turkumga rasmiy antroponimlar ham kiradi;
- badiiy adabiyotda uchraydigan real shaxslarning atoqli otlari
- badiiy adabiyot obrazlarining to‘qima nomlari.

Shuni ta’kidlash lozimki, adabiy antroponimiya tarkibida ham, badiiy antroponimiya tarkibida ham, shuningdek, rasmiy antroponimiya tarkibida ham mintaqaviy, jumladan lahjaviy antroponimiya elementlari mavjud bo‘ladi. Adabiy tildagi ismlar bilan Xorazm shevalarida aynan mos keluvchi nomlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ular nafaqat erkak ismlari, balki ayol ismlarida ham anchagina. Xususan, *Adolat, Aziza, Barchinoy, Barno, Vasila, Gavhar, Gulchehra, Ra’no, Muyassar, Iqbol, E’zoza, Nasiba, Noila, Shahnoza, Shahlo* va hakazo.

Shuningdek, shevalardagi ismlarda muhim xususiyat, ularda adabiy tildagi ismlarning lahjaviy variantlari mavjud ekanligidadir. Ushbu shakldagi variantlarda ism o‘zi mansub shevaga xos shaklga ega bo‘ladi va ular nomning adabiy tilga moslashgan shakli bilan variantlilikni tashkil qiladi [Бегматов 1989:113-114]. Ismlarning variantdorligi masalasida R.Y.Xudayberganovning ishlari diqqatga sozovordir [Худойберганов 2008:10]. U o‘z tadqiqotida ismlarning lahjaviy variantlarini qipchoq shevalarida uchraydigan nomlar, o‘g‘uz shevalarida uchraydigan nomlar tarzida tahlilga tortgan.

Ma’lumki, ismlarning lahjaviy variantlari o‘z-o‘zidan turli fonetik o‘zgarishlar orqali yuz beradi. Xorazm shevalarida adabiy tilda mavjud ismlarning lahjaviy variantlari o‘ziga xoslikni tashkil qiladi. Sinkopa hodisasiga ko‘ra adabiy tildagi ayrim ismlar tarkibidagi “h”tovushi sheva vakillari talaffuzida tushib qoladi: *Gövär* [Gavhar], *Ša:sänäm* [Shohsanam], *Zö:rä* [Zuhra], *Ša:yïsta* [Shohista], *Meyrìvan* [Mehribon] kabi. Bu holat ismlarning lahjaviy variantlarini shakllanishiga xizmat qilmoqda. Yuqoridagi qayd etilgan ismlarning aksariyati arabcha antroponimlar bo‘lib, so‘z o‘rtasidagi “h” bo‘g‘iz tovushi arab alifbosidagi “hoyi xutti” yoki “hoye havvaz” harflaridan iborat bo‘lib, talaffuz jarayonida u tushib qoladi yoki “y” undoshiga almashiladi.

Xullas, Xorazm mintaqaviy ayol ismlarining dialektal o‘ziga xosligi aholi o‘rtasida udum bo‘lgan ba’zi ismlarda yoki ko‘proq ushbu hudud aholisi tomonidan faol qo‘llanuvchi ism shakllarida, shuningdek qo‘shma ism tarkibidagi antroponimik komponentlarda nomoyon bo‘ladi. Xorazm mintaqaviy ayol ismlarining fonetik-orfoepik jihatdan o‘ziga xosligi ismlarning shaklan mahalliy xalq shevalarining fonetik talablariga bo‘ysunganida o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э.А., Саттаров Г.Диалектные элементы узбекской национальной антропонимии// Ономастика Узбекистана. –Ташкент, 1989. –С. 113-114.
2. Думбрэвяну А.Н. Молдавская диалектная антропонимия. –Кишенёв, 1982. 160 с.
3. Подольская Н.В.Словарь русской ономастической терминологии. –М.:Наука, 1988. 250 с.
4. Раҳимов С. Хоразм антропонимиясига оид баьзи кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. 5-сон. - Б.39.
5. Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси. Филол.фан.н-ди...дисс. – Урганч, 1998. 131 б.
6. Худойберганов Р. Ўзбек антропономияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. –Ташкент, 2008. 26 б.

TOPONIMLAR BILAN BOG‘LIQ O‘ZBEK LAQABLARINING ETIMOLOGIYASI

ETYMOLOGY OF UZBEK NICKNAMES RELATED TO TOPONYMS

Karimboyeva Charos
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Amudaryo tumanida yashovchi sheva vakillarining laqablarini o‘rganish ko‘nikmalari, shuningdek, kelib chiqish sabablari, etimologiyasi, laqablarning toponimga aylanish jarayonlari haqida ma’lumot beriladi.*
Kalit so‘zlar: *laqab, taxallus, toponim, sheva, etnografiya, antroponimiya, xarakter.*

Abstract. *This article provides information on the skills of learning nicknames of representatives of the dialect living in the Amudarya district, as well as the reasons for their origin, etymology, and the process of turning nicknames into toponyms.*
Keywords: *nickname, toponym, dialect, ethnography, anthroponymy, character.*

Tilshunoslikda onomastik birliklarning axborot almashinuvi jarayonida eng faol qo‘llanadigan va o‘z sotsiolingvistik xususiyatlariga ko‘ra muhim ijtimoiy, lingvostilistik va etnomadaniy ma’lumotlar tashuvchi qismi ism, familiya, laqab, kunya, unvon, taxalluslarga qiziqish ortib bormoqda. Albatta, onomastik birliklarning tadqiqi, xususan, laqabning boshqa antroponimik birliklardan farqli jihatlarini ko‘rib chiqish, laqablar ismdan keyin alohida o‘rin tutishi, guruhlarga ajratilishi bo‘yicha ilmiy qarishlarini asoslagan olimlarimiz bor. Bu borada Ozarbayjon tilshunosi A.M.Pashaev [3.] va Y.N.Xojalepesovaning tadqiqotini keltirish mumkin [1,50.]. Rus tilshunosligida A.M.Selishev, B. K.Chichagov, G.V.Tropin, V.A.Gordlevskiylar ham laqablar bo‘yicha ko‘plab kitoblar va maqolalar e’lon qilingan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida esa A.Ishaevning kuzatishlari diqqatga molik. [1,50.] Ilk bor taxalluslar va laqablar adabiyotshunoslik aspektida B. Qoriyev, R. Vohidovlar tomonidan o‘rganilgan. Bu jihatdan o‘zbek onomastikasida E. Begmatov, Y. Menajiyev, X. Azamatov, D. Abduraxmonov, F.Abdullayev, O.G‘afurovlarning xizmati diqqatga sazovordir. XX asrning 60-yillarida professor E. Begmatov o‘zbek tilida kishi ismi, familyasi, laqabi, nisbasi va taxalluslarni etnolingvistik hamda lingvistik yo‘nalishlarda birinchi bor keng doirada ilmiy tahlil qilgan. [2,9.].

Laqab va taxalluslar shaxsning asosiy ismi, familyasiga nisbatan qo‘shimcha nom hisoblanadi, bu jihatdan ular yaqinlik va umumiylikka ega. Laqab termini o‘tmishda taxallus ma’nosida ham qo‘llangan. Ba’zi ijodkor va san’atkorlar o‘z laqablarini taxallus sifatida qabul qilganlar. Bunday taxalluslar laqab-taxalluslar deb yuritiladi [4, 9.].

Laqablar ko‘pincha kishi ismi bilan birgalikda keladi. Bu jihatdan u familya va otaismga o‘xshaydi. Taxallus esa ko‘proq asliy taxallus, asosan, mustaqil, alohida nom bo‘lib keladi. Bu jihatdan u ko‘proq ismga yaqin turadi. Til tarixida taxallus tushunchasi laqab, kuniya so‘zlari bilan ham ifodalangan, biroq ular boshqa-boshqa birliklar, ularni farqlash lozim [4, 9.]. Laqablarning til amaliyotida tarqalish doirasi keng bo‘lib, adabiy va xalq tilida (lahja va shevalar) keng tarqalgan. Chunki laqablar aslida xalq ijodi mahsulidir. Ushbu maqolamizda laqablarning toponimga aylangan holatini ko‘rib chiqamiz.

Tinqil [Tïnqïl]- adabiy tilda tez, chaqqon, uddaburon. Xonning oldiga hammadan burun, yugurib chiqqan. Xalq unga tinqildab chiqdi, yugurib chiqdi deb, *tinqil* laqabini qo‘ygan. Shundan

keyin shu joylar 1905-yillarda *Tïnqïl* ovul deb nomlangan. *O‘tagan tïnqïl*ni (turkmanlar otib ketgan, qabrtosh ham qo‘yilgan), *Jongavoy tïnqïl*. Hozirgi kunda bu joy Bosuv OFYda Qoramon ko‘chasi deb yuritiladi, ammo yoshi katta odamlar hozir ham Tïnqïl ovul deb ataydilar.

Quloq [Qulaq]- hozirgi kunda Amudaryoning Bosuv OFYda *Qulaq* ovul degan joy bor. U yerda aka-uka, qarindosh-urug‘ bir joyda yashaydi. Bu laqabning kelib chiqish sababi, ularning ota-bobolaridan qolgan. Katta bobosi Bobojon *qulaq* bo‘lgan. Xiva xonligi davrida Bobojon *qulaq* vazir bo‘lgan ekan. Hamma gapni xonga yetkazib turgani uchun, xalq vazirga “*quloq*” laqabini qo‘ygan ekan. Shundan keyin *Bobojon qulaq-To‘liboy qulaq- O‘rinboy qulaq* (mulla, 98 yoshda vafot etgan.) - *Gulmon qulaq - Yolg‘osh qulaq*, mana besh avlodki, shu laqab ostida chaqiriladi va bugungi kunda ular yashagan joy nomi toponimga ham aylangan.

Shoqol, chiyabo‘ri - Shog‘ol [Šaγal] - Avvallari hamma bir quduqdan suv ichgan ekan. Bir kuni shu quduqqa bir shoqol tushib, o‘lib qoladi. Shu joyning aholisi bir mullaga borib, bo‘lgan voqeani aytadi. Shu quduqdan biz suv ichib o‘tirgandik, endi suv harom bo‘lmaydimi?- deb savol beradi. Shunda mulla: “Quduqdan shoqolni olib, izidan qiriq chelak suv olib tashlang, keyin halol bo‘ladi, suvni ichaverasiz”- debdi.

Shu voqedan so‘ng bu joylarni *Šaγal ovul* deb, shu ovulda yashaydigan odamlarga *šaγal* laqabi qo‘shib aytilgan ekan. (Bahodir *šaγal*. Amudaryo, Qipchoq OFY).

Qoraqalpog‘istonning Xo‘jayli tumanida to‘xtamay, ovozining boricha tinmasdan gapiradigan odamga *šaγal* laqabi qo‘shib aytiladi. Ibrohim *šaγal*, Ismoil *šaγal.*

Dav [dāv]- adabiy tilda *dev* so‘zining ko‘rinishi bo‘lib, fors-tojik tildan o‘zlashgan, ertak va xalq dostonlarida shoxli, dumli, benihoyat ulkan odam qiyofasida tasavvur etiladigan xayoliy maxluq. [O‘TIL, I-tom, 217-b].

1905-yillarda Qoraqalpog‘istonning Amudaryo tumani Bosuv OFYda uch toifali boy bo‘lgan ekan: *batïrlar, qaralar, dāvlar*. Har birining ovuli, qal’asi va ko‘prigi bo‘lgan. Shularning ichida *dāv*lar avlodi hozirgi kunda ham istiqomat qilib kelmoqda va bu sulola nomi laqab tarzida saqlanib qolgan. Amudaryo tumani Bosuv OFY dagi ko‘prik ham shu nom ostida yuritiladi. “Bosuv” tojikcha – suvli degan ma’noni anglatadi.

Amudaryo tumanida ***dāv*** laqabini teskari ma’noda ya’ni jussasi kichkina bo‘lganligi uchun, masxaralab aytilgan holatlarni ham ko‘ramiz. (*Gulmirza dāv*).

Karid [Kārid]- qozoqlarning kerid//keryot urug‘idan bo‘lib, urush davrida hujjatiga o‘zbek deb yozilib ketgan. Vaqt o‘tishi natijasida keridlar yashaydigan joy xalq tilida *kārid* shaklida talaffuz qilinib, toponimga aylangan. Shu yerda yashaydigan ayrim odamlarga shu nom laqab tarzida qo‘shib aytilgan va aytib kelinmoqda. *Xolimbat kārid - Shomurat kārid - Ilhom kārid.* (Amudaryo tumani Bosuv OFY)

Go‘ja [Göžä] - o‘g‘irda (keli-kelisop) tuyib oqlangan jo‘xori yoki bug‘doydan tayyorlangan suyuq ovqat. [O‘TIL, I-tom, 201-b]. Mang‘itning janubida besh aka-uka *Doschan göžä, Eshchan göžä, Bobojan göžä, Sayitbay göžä, Sultan göžä*lar bir uyda ayollari bilan yashagan. Ular dehqonchilik qilib boyigan. 1920-1930-yillarda ocharchilik zamonda har kuni tushgi vaqtda odamlarga bir cho‘michdan go‘ja bergan. Shundan so‘ng bu aka-ukalarga go‘ja laqabi qoshib aytilgan. Hozir shu aka-uka yashagan joydan tepalik qolgan. Bu joyni shu yerlik aholi ***Go‘ja*** tepalik deb aytadi. Bu Mangitning janubida joylashgan. Bu laqab sulolaviy bo‘lib, hozirgi kunda Mang‘itning Bosuv OFY da *Rajab göžä, Karimboy göžä*lar yashab kelmoqda.

Bo‘yoqchi [Böjaqčï] - Amudaryo tumanining Xitoy OFYda bundan 100-150 yil avval Mambat degan odam yashagan. Shu ovulning odamlari u kishiga bo‘yoqchi laqabini qo‘shib aytgan. Sababi, faqat shu odamda eshak-arava bo‘lib, uning g‘ildiragini har doim qizil rangga bo‘yab yurgan ekan. Eski aravasini sotib, yangisini olsa ham g‘ildiragini qizilga bo‘yab olar ekan.

Bu holat shu davr uchun noodatiy ko‘rinish bo‘lgan. Natijada xalq unga *“böjaqčï”* laqabini qo‘shib aytgan va shu joylarni keyinchalik “*Böjaqčï ovul*” deb atay boshlagan.

Demak, xulosa o‘rnida aytish mumkinki, laqablar uzoq davrlardan buyon shevalarda qo‘llanilib kelinadi. Laqablar yaqin hududda yashovchi ismi bir xil kishilarni boshqalaridan farqlash va qaysidir insonni tezda tanib olish uchun ishlatiladi. Laqab shaxsning tashqi ko‘rinishi, xarakteridagi ma’lum belgi-xususiyatiga, kasb-koriga, nuqsonlariga, harakat-holatiga, urf-odatlariga ko‘ra qo‘yiladi. Biz ushbu maqolamizda yuqorida keltirilgan laqablarni ilmiy asoslangan holda Amudaryo tumanining deyarli barcha hududlarida istiqomat qiluvchi qipchoq lahja vakillarida laqab mavjud ekanligi va laqablarning toponimga aylanganligini yoritishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ўзбек антропонимикаси. Тошкент. Фан. 1985 й.
2. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. Автореферат канд.дисс. – Тошкент: 1965
3. Пашаев А. М. Прозвища в азербайджанском языке.
4. Низамова Ш. Тахаллусларнинг тарихий-лисоний тадқиқи. Номзодлик диссертацияси автореферати. Наманган – 2021
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Москва., 1938. 1-том.
6. Gulmanovna, Yangibayeva Nazira. "Til o ‘qitish dasturlarining ta’limdagi o ‘rni." *Miasto Przyszłości* 35 (2023): 247-249.
7. Gulmanovna, Yangibayeva Nazira, and Fauziya Matmuratova. "The Fascinating Origins of English Phrases." *Miasto Przyszłości* 37 (2023): 197-198.
8. Charos, Karimboyeva. "Shevalarda laqablarning kasbiy xoslanganligiga ko ‘ra tasnifi." *boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali* 3.2 (2023): 229-231.
9. Aminbayevich, Q. I., Abdullayevna, A. M., Shonazarovna, B. Z., Soatboy og’li, B. U., & Yuldosh og’li, B. O. (2021). Metafora as a factor of symbolic-memorial interpretation in the development of artistic speech. *湖南大学学报 (自然科学版)*, *48*(12).
10. Berdibayev, U. B. (2021). Tradition and originality in the context of Turkish literature (On the example of the creations ofabdulla oripov and ibroyim yusupov). *Asian journal of multidimensional research*, *10*(4), 266-270.

ANTROPONIMLAR LINGVOMADANIY SATH BIRLIGI SIFATIDA

ANTHROPONYM AS A LINGUISTIC-CULTURAL LEVEL UNIT

Otaxonova Sohiba Umidjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
sohibaotaxonova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda antroponimlarning lingvomadaniy sathda o‘rganilishi uchun asos bo‘lgan hodisalar, unsurlar va kishi nomlarining lingvomadaniy birlik sifatida e’tirof qilinishi haqidagi ayrim mulohazalar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *antroponim, lakuna, motiv, lingvomadaniy birlik, appelyativ, nominator, assotsiativlik.*

Abstract. *In this thesis has some comments about the recognition of the names of people, elements and phenomena as a linguistic and cultural unit, which are the basis for the study of anthroponyms at the linguistic and cultural level.*

Key words**:** *anthroponym, lacuna, motive, linguistic and cultural unit, appellative, nominative, associative.*

Til insonning butun borlig‘i-moddiy turmushi, madaniy, ma’naviy hayoti, etnik va ruhiy holati, aql-u tafakkuri, estetik olami, o‘tmishi, buguni va istiqbolini gavdalantiradigan musaffo oynadir. Ushbu oynaga qarab xalqning mentaliteti, etnik urf-odatlari va nutq odobini, uning o‘zigagina xos milliy xususiyatlarini bilib olish mumkin. Shuning uchun tabiat insonga in’om qilgan mo‘jizakor, nodir ne’mat bo‘lgan tilga fikrlash uchun kerak bo‘ladigan shunchaki jo‘n belgilar tizimi, majmuyi deb qarash, unga faqat hissiz, ruhiyatsiz vosita deb yondashish o‘rinli emas” [Юлдашев 2021:14]. Har bir xalqning milliy o‘zligi, eng avvalo, uning tilida zuhur etadi. O‘zbek tilining tabiati va mantig‘ida xalqimizning saviyasi va tafakkur tarzi o‘z tajassumini topgan. Aslida, so‘zimiz bizning o‘zimizdir. [Маҳмудов 1997:3] Tilimizdagi har bir birlik aslida milliy dunyoqarashimizni va o‘zligimizni aks ettiradi. Kishi nomlari haqida ham madaniy belgilar tashuvchi birlik mulohazasi o‘rinli bo‘ladi. Ushbu tezis orqali masalaning ayrim jihatlariga diqqat qaratamiz.

Ismlar xalq madaniyatini tashuvchi sifatida baholanishida bir qator sabablar mavjud bo‘lib ular quyidagicha talqin qilinadi:

1. Har bir ism aynan o‘zi mansub bo‘lgan til leksik qatlamidan o‘sib chiqqan bo‘lib, shakl va mazmun mushtarakligiga ega. Ism vazifasini bajaruvchi har qanday so‘zda ma’lum bir leksik ma’no yashirin bo‘lib, apellyativning ma’nosi va shakliy ko‘rinishi ism tanlanishda yetakchi vazifa bajaradi. Ismlar orasida boshqa tillardan o‘zlashtirilgan, ya’ni boshqa millat vakillari antroponimik tizimiga mansub bo‘lgan so‘zlar ham uchraydi. Bir qancha omillar nominatorlarni boshqa xalqlar antroponimik birliklariga murojaat qilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, biror film qahramonining xalq orasida mashhur bo‘lishi uning ismi va xarakteri orasida assotsiativlikni yuzaga keltiradi. Nominator esa yangi tug‘ilgan chaqaloqqa ana shunday xususiyat va mashhurlik tilagan holda madaniyat va milliylik uchun yot bo‘lgan ismni bolaga beradi. “... bugungi kunda ko‘z o‘ngimizda paydo bo‘layotgan *Messi, Amirxon* (Amir ismi avvaldan mavjud bo‘lishiga qaramay, bu o‘rinda mashhur hind aktyori nazarda tutilgan), *Esmeralda, Ishani* kabi ismlar

nominator orzu-havasi ifodasi deb qayd etish mumkin bo‘lgan qadimiy tamoyil asosida yuzaga kelgan [Юлдашев 2020:89]. Bunday ismlar salmog‘i bugungi kunga kelib ancha oshdi: *Devid, Denis, Demir, Indira, Kishen, Radha...*

2. Nominatorlar ism tanlagan paytda, asosan, o‘z milliy leksik fondi asosida shakllangan ismlarga e’tibor qaratishadi. Bu an’ananing o‘zi ismlarda shu til egalarining milliylikka alohida yondashuvini ko‘rsatadi. Ism sifatida gullar, jonzotlar, qimmatbaho ma’danlar, tabiatning ajralmas bo‘lagi bo‘lgan narsa-hodisalar nomining tanlanishi ham milliy o‘ziga xoslikka ega.

3. Ism qadimdan muqaddas so‘z hisoblanadi. Nafaqat, o‘zbeklarda boshqa xalq vakillari orasida ham ismning muqaddasligi, uning bevosita inson hayotiga ta’siri haqida yuqori ishonch mavjud. Ism muqaddas va shu bilan birga, o‘ziga xos ta’sir kuchiga ega bo‘lib, har bir shaxs uchun unga berilgan ism eng yoqimli so‘z hisoblanadi. Shu boisdan ham nominatorlar ism tanlashga alohida e’tibor bilan yondashganlar. Ism tanlash milliy marosim darajasiga ko‘tarilgan. Aqiqa (beshik to‘yi) marosimi qadim-qadimdan o‘zbek xonadonlarida yangi tug‘ilgan chaqaloq sharafiga o‘tkazib kelinadi. Aqiqa (arab. – “chaqaloq sochini olish, qurbonlik so‘yish”) – musulmon oilalarida yangi tug‘ilgan bolaga ism qo‘yish va “qorin sochi” (bolaning tug‘ilgandagi sochi)ga qaychi urish bilan bog‘liq odat. Johiliyat davridagi turli ma’bud va ma’budalarga atab qilinadigan qurbonliklar o‘rniga musulmon oilasida farzand tug‘ilganligining shukronasi sifatida bir qo‘y so‘yib (imkoniyatga qarab) Aqiqa marosimini o‘tkazishlik joriy etilgan. Islom an’anasida Aqiqani chaqaloq tug‘ilgan kunning 7 yoki 14, yoxud 21 kunlari o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu kunlarda Aqiqa o‘tkazilmay qolinsa, so‘ng qaysi kunda, qachon amalga oshirilsa ham vazifa bajarilgan hisoblanaveradi [O‘zME 2000.]. Bu marosimning o‘ziga xos an’analari kun kundan o‘zgarib tursa ham, asl mohiyati yangi chaqaloqqa ism berish bilan bog‘liq hisoblanadi. Chaqaloq qulog‘iga azon aytilib, uch marotaba ismi takrorlanadi. Odatda, bu vazifani oilaning yoki mahallaning kattalari yoki diniy ulamolar bajarishadi.

4.Ismlar nafaqat maishiy, balki diniy tomondan ham inson hayotida muhim. Ismlarda xalqning e’tiqodi ham bevosita o‘z aksini topadi. Xalq tarixi va bugungi kunini bir-biri bilan chambarchas bog‘lab turuvchi omillar bir qancha bo‘lib, madaniyat yashovchanligini bevosita belgilab beruvchi antroponimlar shular jumlasidandir. Madaniyatning yuksalishi xalq e’tiqodi bilan chambarchas bog‘liq hodisa sanaladi. O‘zbek madaniyatining rivojlanishi esa xalq e’tiqod qilgan dinlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, dastlabki diniy tafakkurlarning nomoddiy manbasi sifatida antroponimlar ilgari suriladi.

5.Ismning inson ruhiga o‘zgacha ta’siri psixologik tomondan tadqiq qilingan va o‘ziga xosliklari isbotlangan. Inson qulog‘iga eng yoqimli eshitiluvchi so‘z bu har bir insonning o‘ziga tegishli ismi ekanligi ko‘p marta ta’kidlanadi. Shundan kelib chiqib, har qanday ism o‘z egasining ong osti tizimiga, ruhiy dunyosiga ta’sir ko‘rsatuvchi kuchga ega. Ismlarning ayrim qisqartirilgan shakllari, nom egasiga noqulay tarzda atash kishi ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

6.Ismlar insonning jamiyatdagi faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Har qanday shaxs jamiyatda faol pozitsiyaga kirisha boshlashi bilan ism u uchun nihoyatda muhim unsurga aylanadi. Jamiyatda shaxslar bilan o‘rnatiladigan har qanday aloqa ism bilan boshlanadi. Shu o‘rinda shaxs o‘z ismidan qoniqishi, o‘zgalar tomonidan hurmat qilinishi muhim hodisa sanaladi. Nafaqat o‘zbek millatida, balki boshqa xalqlarda ham ismlarni qisqartirish hodisasi bor. Ammo bu o‘rinda me’yorni unutmaslik, shaxs uchun noqulay holatlardan chekinish va eng asosiysi, nominatorlar tomonidan bolaga to‘g‘ri va muqobil ism tanlanishi nihoyatda muhim.

7. Ismlar hech bir tilda tarjima qilinmaydi va o‘zining fonetik hamda akustik xususiyatlarini saqlab qoladi. Lingvokulturtologiya sohasining asosiy terminlaridan biri “lakuna” atamasi aynan ismlarga mos tushadi. “Lakuna” termini ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P.Vine va J.Darbelnelar

tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, unga shunday ta’rif berilgan: “Bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqealanadi [Vinay J 1958 :10] Ismlar ham o‘zining boshqa tillarda muqobiliga ega emasligi va tarjima qilinmasligi bilan lakuna hodisasiga misol bo‘la oladi. S.Vlaxov va S.Florinlar lakuna hodisasini ifoda vositalarining alohida kategoriyasi bo‘lgan realiyalar, ya’ni “biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari sifatida talqin qilishgan. Fikrimizcha, ismlar ham aynan boshqa tilda o‘z muqobiliga ega emas va ularni lakuna sifatida baholash mumkin.

8. Ismlar milliy udumlar bilan bog‘liq holatda o‘zining bir qancha muqobillari va shakllariga ega. Ism egasi turli davralarda va turli holatlarda ulardan foydalanadi. Ma’lum bir davralar uchun shaxs o‘ziga maxsus ism tanlash huquqi mavjud bo‘lib, taxalluslar shular jumlasidandir. Psevdonim (pseudos – yolg‘on, onima – ism; yunoncha) – shaxs tomonidan haqiqiy ism o‘rniga (tug‘ilganda berilgan, rasmiy hujjatlarda qayd etilgan) jamoat faoliyatida qo‘llaniladigan uydirma ism. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da taxallus lug‘aviy birligiga: “Biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va sh. k.) yoki siyosiy arbobning o‘zi uchun tanlab olgan boshqa ikkinchi nomi”, deb izoh berilgan [O‘TIL 2008, 4j :5]. K.S.Mochalkinaning fikricha, taxalluslar boshqa antroponimik birliklarga nisbatan kattaroq to‘plamdagi funksiyalarning murakkab o‘zaro ta’sirida yuzaga keladi, ya’ni maxsus ezoterik va reklama funksiyalarini bajarishi bilan boshqa onimlar (ism, familiya, otaism)dan ajralib turadi [Мочалкина К.С 2004:7.]

9. Ismlar ham folklor asarlari singari ajdodlardan avlodlarga meros tarzda o‘tadi. Nominatorlar ism tanlashda eng birinchi milliy antroponimlar fondidan foydalanadi. Ayrim hollarda boshqa millat ismlariga murojaat qilinishi mumkin.

10. Ismlarning davr o‘tishi bilan o‘zgarishi siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, siyosiy qaramlik davrini boshidan kechirmagan xalqlar o‘zining tarixiy ismlarini ancha vaqtgacha saqlab qoladi. Aksincha, boshqa millat vakillari aralashuviga uchragan xalqlarning ismlar fondida o‘zgarish sodir bo‘ladi. Misol sifatida Turkiya va Yaponiya davlatini oladigan bo‘lsak, mustamlaka davrini boshidan kechirmaganligi sababli turk va yapon ismlari fondi o‘zining qadimiyligini va sofligini saqlab qolgan.

Yuqorida kishi nomlarining milliy qadriyatlar elementlarini o‘zida tashuvchi birlik deb hisoblash uchun asos bo‘luvchi ayrim mulohazalarni keltirib o‘tdik. Tildagi har bir unsur, shu jumladan, antroponimlar markazida inson turgan ulkan faoliyat mahsuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент, 2021.

2. Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент, 1997.

3. Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2020.

4. O‘zME (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzME). Birinchi jild. – Toshkent, 2000.

5. Vinay J.P.,Darbelnet J. Stylistique compare du fraicais et de l’anglais. – Paris, 1958.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 4-jild.

7. Мочалкина К.С. Псевдонимы в системе современной русской антропонимии: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 184 с.

SALBIY TILAKLARNING FUNKSIONAL MAZMUNLARI XUSUSIDA

ON THE FUNCTIONAL CONTENTS OF NEGATIVE DESIRES

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna,
Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi
saydur01041973@gmail.com

Annotatsiya*. Maqolada "tilak” nutqiy janrida salbiy tilaklar til tizimida xitob, qasam, jerkish, so‘kish, qarg‘ash, duoibad kabi nutqiy aktlar va nutqiy janrlar tarkibida kelishi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *adresant, adresat, xitob, qasam, jerkish, so‘kish, qarg‘ash, duoibad.*

Abstract. *The article discusses that in the conversational genre “wish”, negative desires arise in the language system, including in speech acts and speech genres, such as shouting, swearing, neglecting, swearing, cursing.*

Key words: *addressee, addressee, cry, oath, neglect, swearing, curse.*

To‘plab o‘rganilgan faktik materiallar shuni ko‘rsatadiki, til tizimida salbiy mazmundagi tilaklar muayyan o‘rinni egallaydi. Salbiy tilaklarning mazmunida so‘zlovchining o‘zi va boshqalar uchun nomaqbul bo‘lgan adresat hatti-harakat va so‘zlariga bo‘lgan munosabatini, noroziligini anglatadi. Ular til tizimida turli nutqiy aktlar, jumladan, qarg‘ish, qarg‘anish, qasam ichish, so‘kish, so‘kinish kabilar tarkibida kelib, so‘zlovchi yoki tinglovchi yohud bularga tanish bo‘lgan kimsalar/narsa-predmetlarga yomonlik tilash kabi mazmunlarga ega bo‘ladi. Masalan,

1) **qasam+salbiy tilak:** *-Nima qilay, - dedim jiqqa yosh to‘la ko‘zlarimni ko‘ziga qadab. – Ont ichaymi! Non ursin! Kutmasam, non ko‘r qilsin, Kimsan aka!* [Hoshimov 2018:118].

2) **xitob+salbiy tilak:**

a) xitob + adresantning o‘ziga qaratilgan salbiy tilak:

-Voy o‘lay! Voy sho‘rim qursin, -degancha qo‘lidagi tugunni ayvonga uloqtirdi [Hoshimov 2018:45].

Peshindan keyin nuqul o‘ng qovog‘im uchaverdi. Qurib ketsin! Shu ko‘zim uchsa xafa bo‘laman. O‘zimni chalg‘itish uchun tappi qildim, hovlini chalib chiqqan bo‘ldim. Dilim o‘lgur hyech yorishmaydi [Hoshimov 2018:45].

b) xitob+muayyan joyga qaratilgan salbiy tilak: *Alvasti ko‘prikdan o‘tayotganimda yuragim yana hovliqdi. O‘lsin! Xosiyatsiz joy! Urush paytida Robiyaga ham shu ko‘prikda ajina daf qilgan* [Hoshimov 2018:46].

c) adresatga qaratilgan xitob+salbiy tilak: *Juvongina o‘lgur noinsof! Bolaning uvoli tutgur imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo‘q ediku! Cho‘loq bo‘lsa devor oshib o‘g‘rilik qilib bo‘lmagandur! To‘rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o‘lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o‘ylasang bo‘lmasmidi, imonfurush! Oy havolab ketdi. Ayvon qop-qorong‘u bo‘lib qoldi. Uyqu qani? Xayol ming ko‘chaga olib kiradi* [Hoshimov 2018:93].

d) o‘zga shaxsga qaratilgan xitob+salbiy tilak: *-O‘rgilay ovsinjon! **Cholim o‘lgur** yomon ish qildi. Shokirim bilan Zokirim urushga ketamiz, degan ekan, xovliqma deb yo‘lga solish o‘rniga o‘zi yetaklab voenkamatga oboribdi. Hyech kimga aytmay, jo‘natib keldi* [Hoshimov 2018:154].

3) tanbeh+salbiy tilak: *Qachon esing kiradi, juvon o‘lgur! – Xolposh xolagazining ikki chetidan changallagancha ikki qo‘lini mushtlab Fotima kelinga dag‘dag‘a qildi. – Hamma narsani gap deb gapiraveradimi?!*[Hoshimov 2018:89]

***4)* jerkish+salbiy tilak:** *Qorong‘u burchakda o‘tirgan allaqanday xotin yig‘layotgan bolasini jerkib ovutdi: -E, qiz bo‘lmay ajalning oldida ket!*

– Bolani qarg‘ama, Qumri!-dedi Oqsoqol beozor tanbeh berib [Hoshimov 2018:75].

***5)* so‘kish+tilak:** *-E, o‘l, aynimay! Nima qilasan qiz bolani uyaltirib? –Nega uyalarkan! Shokir akam aytdilar. Ochilboy Robiyaxonga sovchi qo‘ymoqchimish[Hoshimov 2018:88].*

– Yonib ketasan, tinmagur taka! Yonib ketasan! [Hoshimov 2018:135*]*

6) qarg‘ish + salbiy tilak: *A)-Juvonmarg! –dedi singlisining emas, o‘zining sochini yulib. – Iloyo, Zokir akaning arvohi ursin, xo‘pmi? Sendek singlim yo‘q, bildingmi! Otamning arvohiga soldim, benomus! Iloyo bu kuningdan battar bo‘l, sharmanda!* [Hoshimov 2018:404]

- Boshimni qayoqqa olib ketay!-Ikki qo‘lini aralash baland ko‘tarib sochini changalladi. – Urush qilmay, uying kuygurlar! Bolang o‘lgurlar! [Hoshimov 2018:149]

duoibad+tilak: *-Dod!-dedi to‘lg‘anib – Zokir! Bolam! Qandoq chidayman. Iloyo arvohing ursin, jon bolam! – Amallab qaddini rostladi-da, ko‘zi to‘la yosh bilan Zuhra kelinga yuzlandi. – U dunyo – bu dunyo kosang oqarmasin, juvonmarg! Kun ko‘rib, kuni ro‘shnolik ko‘rmagin, imonsiz! -Qarg‘amang, oyijon! – Fotima kelin qaynonasiga yopishdi. – Duoibad qilmang singlimni! Mayli bir kunmas bir kun o‘zi...*[Hoshimov 2018:408]

Ko‘rinadiki, salbiy tilaklar til tizimida xitob, qasam, jerkish, so‘kish, qarg‘ash, duoibad kabi nutqiy aktlar va nutqiy janrlar tarkibida kelib, mazmunan so‘zlovchiga yomon tilaklarni ifoda qilishligi bilan xarakterlanadi. Salbiy tilaklar kompozitsion tuzilishida *Non ursin! Non ko‘r qilsin!, juvon o‘lgur, qiz bo‘lmay ajalning oldida ket, tinmagur taka, Zokir akaning arvohi ursin, Otamning arvohiga soldim, uying kuygurlar, Bolang o‘lgurlar, U dunyo – bu dunyo kosang oqarmasin, juvonmarg, kun ko‘rib, kuni ro‘shnolik ko‘rmagin* kabi jumlalar adresatga qaratilgan salbiy tilaklar bo‘lib, mazmunan ushbu tilaklarning bevosita Xudo bilan bog‘laydi. Bu tilaklarning ijrochisi Xudo bo‘lib, uning ijobatida Xudoning qudrati yotadi. Shu sababli ham bu tipdagi salbiy tilaklarda birlamchi adresat bu Xudodir. Ikkilamchi adresat esa tinglovchidir. Ammo shuni aytish kerakki, o‘zbek tilida salbiy tilaklarning adresantning o‘ziga, adresatga, muayyan joyga, o‘zga shaxsga qaratilgan turlari ham kuzatilib, nutqiy jarayonda adresantning xitobini, ba'zan adresatning so‘zlari va xatti-harakatiga noroziligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров // Литературно-критические статьи. – Москва.: Художественная литература, 1986, – С. 428-472.
2. Дементьев В.В. Теория речевых жанров. (Коммуникативные стратегии культуры). – М, 2010. – С. 597.
3. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 762 b.
4. Nabieva, D., & Nurmanova, D. (2022). Manifestation Of The Generality-Specificity Dialectic In The Vowel System Of The Uzbek Language. Journal of Positive School Psychology, 6(8), 1765-1771.

5. Nurmanova, D. A. (2021). Neutralization of Consonant Opposition in Anlaut of the Uzbek Language. Academicia Globe, 2(6), 347-354.
6. Pulatjonovna, S. D. (2023). LINGUISTIC ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT. PEDAGOG, 6(11), 305-308.

QORAXONIYLAR DAVRIDA QARLUQ DIALEKTI

THE KARLUK DIALECT DURING THE PERIOD OF THE KARAKHANIES

Eshanqulov Dilmurod Xurramovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
dilmurodeshanqulov109@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qarluq davlati va qarluqlar, ularning tili, madaniy hayoti, o‘sha davrlarda yaratilgan adabiy asarlar hamda o‘zbek elatining shakllanishi haqida fikr yuritilgan.*
Kalit so‘zlar: *Qarluq-chigil, dialekt, o‘g‘uz, qipchoq, etnos.*

Abstract: *This article discusses the Qarluq state and the Qarluqs, their language, cultural life, literary works created in those times, and the formation of the Uzbek population.*
Key words: *Qarluq-chigil, dialect, Oghuz, Kipchak, ethnos.*

Elatning shakllanishida til ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek millatining tashkil topishida qarluq-chigil tili yetakchi rol o‘ynagan. Qarluq-chigil dialekti VIII-X asrlarda Yettisuvda Sharqiy Turkistonning g‘arbiy qismida, Sirdaryoning o‘rta oqimlarida, Movarounnahrda keng tarqalgan. Bu til Qoraxoniylar davlatining asosiy tili bo‘lgan.

Shu davrlarda Sirdaryoning quyi oqimlarida, Nurota tog‘ etaklarida o‘g‘uz tili dialekti ham qat’iylashib borgan. XI asr boshlarida Sirdaryoning quyi oqimlariga qipchoqlarning katta guruhi kelib o‘rnashadi va shu asr davomida qipchoq tili Movarounnahrning ayrim hududlariga tarqaladi.

Qipchoq tili qipchoq bo‘lmagan, Dashti qipchoqda yashovchi qabilalar tiliga ham ta’sir qiladi. Demak, XI-XII asrlarda G‘arbiy qoraxonlilar davlati hududida turkiy tilning uch yirik (qarluq-chigil, o‘g‘uz va qipchoq) dialekti mavjud bo‘lgan. Bu dialektlardan tashqari qabilaviy hamda hududiy dialektlar ham bo‘lgan. Biroq, tilga olingan uch yirik dialektning ta’sir doirasi juda keng bo‘lgan.

Dialektlarning ichida qarluq yoki qarluq-chigil dialekti Movarounnahr va unga tutash bo‘lgan hududlar aholisi orasida qat’iy o‘rnashib, G‘arbiy qoraxonlilar davlatining tili bo‘lib qolgan. Shuni aytib o‘tish kerakki, X asrning ikkinchi yarmi va XI asrlarda qoraxoniylar davlati hududida mavjud til bundan oldingi asrlardagi (VIII-X asr o‘rtalarigacha) qarluq-chigil tilidan biroz farq qilgan.

U davrda bu tilga qarluq qabila ittifoqi va keyin davlati tarkibidagi qabilalarning ta’siri kuchli bo‘lgan [Shoniyozov 1999: 12].

Qarluqlar davrida (IX-X), ular hukmronlik qilgan katta hududda bir qancha o‘troq (turk, tojik) yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi etnik guruhlar yashaganlar.Bu hududda yashovchi turkiyzabon aholining lahjalarida farq bo‘lganligini Mahmud Qoshg‘ariy o‘z asarlarida ko‘rsatib

o‘tgan. Shu bilan bir vaqtda olim ularning barchasi tushunadigan umumiy til (elat tili) mavjud bo‘lganligini ham qayd qilgan [Qoshg‘ariy 1960:65].

Ana shu ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan tilni Mahmud Koshg‘ariy “hoqoniya” tili deb atagan. Mazkur til IX-X asrlar davomida shakllangan bo‘lib, keyingi asrlarda yana ham takomillashib borgan. Qarluqlardan keyingi yirik etnos chigillar bo‘lgan [Koshg‘ariy 1960:66].

Har ikkala qardosh qabilalarning tillarida farq bo‘lmagan, ularning lahjalari (qarluq-chigil) lahjasi IX-X asrlarda o‘zbek elatining asosiy tili bo‘lgan desak adashmagan bo‘lamiz. O‘sha davrlarda qarluq va unga qardosh qabilalarning ko‘pchiligi o‘troqlashib, qadimdan turg‘un yashab kelayotgan turkiy aholi bilan aralashib, keyingilarning ta’siri bilan qarluq-chigil tiliga arab-fors so‘zlarining kirishi tobora ko‘paygan edi.

Ma’lumki Somoniylar davrida Movarounnahrda va unga tutashgan hududlarda ilm-fan keng taraqqiy etgan. Katta shaharlarda, masalan, Buxoro va Samarqandda ilmning bir necha sohalaridagi mutaxassislar (tibbiyot, falsafa, tarix, mantiq, astronomiya, geografiya va boshqa) yashab ijod qilganlar. Ularning ayrimlari (masalan, Ibn Sino) arab, fors va turkiy xalqlar hududida ma’lum bo‘lgan. Movarounnahr va Xuroson shaharlarida o‘nlab shoirlar yashab ijod qilib kelar edilar. Buxoro va Samarqandda yirik kutubxonalar bo‘lib, ularda arab-fors dunyosida ma’lum bo‘lgan turli sohalardagi kitoblar to‘plangan. Kitoblar shahar bozorlarida ham sotilgan.

Arab va fors tillarida asar yozish G‘arbiy qoraxoniylar davrida ham davom etgan. Bu tilda XI-XII asrlar davomida Buxoro, Samarqand, Shosh va Farg‘ona shaharlarida shoirlar , adiblar, tarixchilar, faylasuflar va boshqa soha mutaxassislari tomonidan o‘nlab asarlar yozilgan [Markaziy va Markaziy Osiyo tarixiga oid materiallar. X-XIX asrlar 64].

Demak, qoraxoniylar davrida ilm-fan so‘nmagan, u davom etib, taraqqiy etib borgan. Olimu shoirlarga xoqonlar homiylik qilib kelganlar.

Qarluq-qoraxoniylar davrida arab, fors tillarida yozilgan kitoblar bilan bir vaqtda turkiy tilda yozilgan asarlar ham paydo bo‘la boshlagan. Lekin ularning ko‘pchiligi bizgacha yetib kelmagan. IX asr boshlarida Misrda Abbosiylar xalifaligida yashagan ayrim turkiylar tomonidan she’r va qasidalar yozilganligi ma’lum. Ana shundan qiyos qilib, Movarounnahrda ham bu tilda asarlar yozilgan bo‘lishi kerak desak xato bo‘lmaydi. XI-XII asrlar davomida xalq og‘zaki ijodi ham keng rivojlangan. “Doda qo‘rqut” va O‘g‘uzxon haqidagi xalq dostonlari shu asrlarga kelib nafaqat ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troq qabilalarda, balki turg‘un yashovchi turkiy aholi orasida ham keng tarqalgan. “Doda qo‘rqut” dostoni VII-VIII asrlarda xazarlarda mavjud bo‘lgan, degan fikr mavjud [Esin 1978: 159]. Balki shu davrlarda turkiy xalqlarning sevimli dostoni “Alpomish” ham ommalashib ketgandir.

Shunday qilib, XI asr o‘rtalarida qoraxoniylar hududida o‘zbek elati o‘z adabiy tiliga va yozma hamda og‘zaki adabiyotiga ega bo‘ladi. O‘zbek ajdodlariga xos umumelat madaniyati shakllanishi jadal taraqqiy etib boradi. N. A. Baskakov qarluq til guruhi X-XI asrlarda paydo bo‘lgan deb yozgan edi.

K. Shoniyozov bergan ma’lumotga ko‘ra, qarluq til guruhi X-XI asrlarda emas, balki, IX-X asrlarda tashkil topgan. XI-XII asrlar davomida qarluq tili yana ham keng taraqqiy etib, shu davrning adabiy tili darajasiga ko‘tarilgan. Bu tilda XI-XIII asrlar davomida ko‘plab asarlar yozilgan.

Shu asarlar ichida eng e’tiborlilari Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Abu-l Abdulg‘afur al-Almoniy “XI asr” tomonidan yozilgan “Tarixi Qoshg‘ar”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”i O‘rta Osiyoda yozilgan (XII-XIII asrlarda) “Tafsir” va boshqalardir [Borovkov 1949: 67]. Bu asarlar turkiy tilning qarluq shevasida yozilganligi yirik tilshunos olimlar tomonidan tan olingan [Sherbak 1959: 108].

Ma’lumki, XIII-XV asrlarda Movarounnahr va unga tutash hududlarda turg‘un va yarim turg‘unlikda yashovchi aholining katta qismi turkiy tilli etnoslar edi.

Bularning ko‘pchiligi shu hududda qat’iylashib qolgan qarluq dialektida so‘zlashgan. Bu davrlardagi qarluqlarning lug‘aviy fondi arab va fors-tojik so‘zlari bilan boyib, grammatik tizimi esa birmuncha takomillashib qolgan edi. Mazkur tilning taraqqiy etish darajasini XIII-XV va undan keyingi asrlarda yozilgan asarlardan bilib, tushunib olish qiyin emas. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, bu asrlarda yozilgan asarlarning tilida o‘g‘uz va qipchoq so‘zlari ham sezilarli darajada bo‘lgan.

IX-X asrlarda Qarluq davlati hududida yashovchi xalqlar madaniyatida ham katta o‘zgarishlar yuz bergan. Qarluq davlatida yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning katta qismi o‘troqlashadi, shahar va qishloqlar soni ko‘payadi. Islom dini qat’iylashib, ilm-ma’rifat taraqqiy eta boshlagan. IX-X asrlarda, ya’ni somoniylar hukmronligi va xorazmshohlar davrida Movarounnahr va Xorazmda madaniyatning turli sohalari, ilmu-fan oldingi asrlarga nisbatan bir necha marotaba o‘sib, islom diniga e’tiqod kuchayib, Buxoro va Samarqand shaharlari Markaziy Osiyoning yirik diniy markazlari bo‘lib qolgan edi.

Bu hududlarda yashovchi shahar va qishloq aholisi madaniyatining Sirdaryo sohillarida, Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholiga ijobiy ta’siri kuchli bo‘lgan. Ilgari chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan qabilalarning ko‘pchiligi o‘troqlashadi, islom dinini qabul qilishadi, ilmga intilish kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Borovkov A.K. *Ценный источник для истории узбекиского языка.* – Moskva: Nauka, 1949.
3. Emel Esin. *Islamiyetden onceki Turk kultur tarixi va islama giris.* Istambul, 1978.
4. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk, -T.: 1960.
5. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk, -T.: 1961.
6. MISTSA-Markaziy va Markaziy Osiyo tarixiga oid materiallar. X-XIX asrlar.
7. Shoniyozov K. Карлук, давлати ва карлуклар: Узбек давлатчилиги тарихидан Масъул мухаррир: А. Мухаммаджонов). -T.: Шарк, 1999.
8. Sherbak A.M. (1959). *Oguz-name. Muhabbat-name*. Moskva. 1959.

TAYLOQ SHEVASINING BA’ZI XUSUSIYATLARI

SOME CHARACTERISTICS OF TAYLOQ LANGUAGE

Gulchehra Ahatova
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada turkiy xalqlar shevasida, xususan, Toyloq shevasidagi so‘zlarning aynan bir xil qo‘llanishi haqida so‘z boradi. Ushbu maqolada Tayloq shevasidagi so‘zlar adabiy til va boshqa turkiy tillar bilan qiyoslangan holda tadqiq qilingan.*
Kalit so‘zlar: *turkiy xalq, til, millat, sheva, Toyloq, mechkay, belanchak…*

Abstract. *The article talks about the exact same use of words in the dialect of the Turkic peoples, in particular, in the Toiloq dialect. In this article, the words of the Tailoq dialect are studied in comparison with the literary language and other Turkic languages*
Key words: *Turkish people, language, nation, dialect, Taylak, achvokka, swing.*

Maqolamiz shevashunos Darvishov Ibrohim O‘rmonovichning quyidagi fikri bilan boshlashni o‘rinli deb bildik: “Til ilmi shunchalik qudratga egaki, insonning lisoniy olami kimyoviy unsurlarni, ehtimollar nazariyasini, evalyutsion jarayonlarni kashf qildi” [Darvishov 2019] Haqiqatdan ham, til buyuk qudratga ega. Til orqali madaniyat, ma’rifat rivojlanadi, kashfiyotlar bo‘ladi, yangiliklar yaratiladi. Shunday ekan har bir xalq o‘z ona tili boyligini, shevalarini asrab-avaylamog‘i darkor.

Turkiy xalqlar qadimdan bir elat bo‘lgani uchun ular dialektida aynan bir xil so‘zlar, bir xil iboralar ko‘p uchraydi. Bizning e’tiborimizni tortgan narsa shu bo‘ldiki, turkiy xalqlar orasida, xususan, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Turkiya, Qoraqolpog‘iston, shuningdek, O‘zbekistonning barcha hududlarida ishlatiladigan ayrim sheva so‘zlarining Toyloq shevasida aks etganligi. Biz quyida shunday so‘zlarning ayrimlari bilan tanishamiz.

“**Mechkay** so‘zi haqida… O‘zbek tilida ko‘p ovqat yeydigan va yeb turib ham to‘ymaydigan insonlarga ochko‘z, yebto‘ymas iboralari ishlatiladi. Aynan ana shunday vaziyatlar uchun o‘zbek tilida va shevalarda mechkay so‘zi keng qo‘llanadi. Bu so‘z turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodida bir qo‘rqinchli jonivorga, ya’ni hozirgi zamon tili bilan aytganda vampir degan mahluqqa borib taqaladi. Turkiy xalqlar avvallari vampirlarni mechkay deb atashgan ekan. Turli xil farazlarga ko‘ra mechkay ham insonlarning qonini ichadi va ularning ichlarida yashaydi. Mana shu so‘z mo‘g‘ulchada mech—ya’ni maymun deganidir. Aytib o‘tilgan so‘z qardosh turkiy xalqlarda ham ishlatiladi. (Tatarchada—mechkey yoki mechekey, mechek, Ozarbayjon va Qozoqchada—mechkey kabi.) [https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek] O‘zbek tilida ushbu so‘z keragidan ortiq ovqat yeydigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Shevalarimizda mechkay so‘zi bilan birga uning o‘rnida boshqa iboralar ham ishlatiladi. Farg‘onada mechkay iborasi yonida nakas, kina, ochofat, nafsi buzuq so‘zlari ham ishlatiladi” [AUmarov nutqidan olindi].

Yebto‘ymas insonlarga nisbatan Surxondaryoda jutaqi, jeb to‘ymas, Qashqadaryoda esa jutaqi, jemiti, ochbaqa, xo‘ran so‘zlari qo‘llaniladi. Toshkent viloyatida esa suq deyishadi (Suq so‘zi “Devoni lug‘atit turk” asarida ham ochko‘z ma’nosida qo‘llangan). Sirdaryoda sandrdev, Jizzaxda esa ochofat, suqanoq, ochko‘z, Xorazimda yoho, ochko‘z so‘zi faol ishlatilar ekan. Qizig‘i shundaki, Toyloq qishloqlarining barcha shevalarida bu so‘zlarning barchasi faol ishlatiladi. (Navzandak, Chorvoqtepa, Yastepa, Adas, Shopolot qishloqlarida - ochko‘z, ochvoqqa,

buchka, mechkay, mesh, meshqorin, yemsak, ko‘rgamsiz, ko‘rmagan, to‘g‘ri ichak, yemsaq; Jumabozor, Qo‘rg‘oncha, Bahshitepada - yebto‘ymas, ochko‘z, ochofat, nag‘zi och. Demak, mechkay so‘zi va uning sinonimlari turkiy xalqlar, o‘zbek shevalarida, shu bilan birga Toyloq shevasida bir biriga o‘xshash shaklda qo‘llanar ekan.

Endi “Belanchak” so‘zining turkiy xalqlar tili va Toyloq shevasida qo‘llanishini ko‘rib chiqsak. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Bola uxlatish uchun xizmat qiladigan arg‘imchoqqa o‘xshash tebratish buyumi” deb berilgan [O‘TIL 2006]. Shu bilan birga izohli lug‘atda bela-fe’lidan, -n qo‘shimchasi bilan yasalgan otga kichraytirish, erkalash ma’nosini ifodalovchi -chak qo‘shimchasi qo‘shib hosil qilingan” deb berilgan. (Ammo bu ma’lumotga ozroq e’tirozimiz bor. Sababi bu so‘zdagi -chak erkalash, kichraytirish qo‘shimchasi emas, balki ot yasovchi , so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lish kerak. Chunki -chak erkalash , kichraytirish qo‘shimchasi otning qo‘shimchasi bo‘lib ,u faqat otga qo‘shiladi fe’lga emas.) Shevashunos Darvesh Ibrohim O‘rmonovich belanchakka ishlatiladigan buyumlarning nomlarini shevada shunday keltiradi: “Ikki toyoqchasi “belanchakkaltak” nomi bilan yuritiladi. Ko‘rpachasi kelinning onasi tomonidan mahsus tayyorlanadi va “belanchakko‘rpacha” deb ataladi. Arqoni esa “belanchak arg‘omchi deb nomlanadi. Ko‘rpacha ustiga yopiladigan -“belanchakyopinchiq” (yozligi yupqa, qishligi qalin), ko‘rpacha ustidan mahsus klyonka orqasiga qo‘yib tikiladigan belanchak jihozi-“belanchakko‘xlik” deb nomlanadi (Ko‘xlik fonetik o‘zgarishga uchragan, aslida boshqa so‘z ekanligi ma’lum. Xo‘l qilmaslik mahsus jihoz). [O‘TIL 2006]

O‘zbekistonning Namangan qipchoq sheva areallarida bo‘lanchak holatida talaffuz qilinadi. Qarluq lahjasi areallarida belanchak tarzida qo‘llanadi. Turkiy xalq shevalarida va O‘zbekistonning boshqa hududlarida quyidagicha ataladi:

Belanchak- Andijon, Jizzax, Surxondaryo;
Halinchak- Qozog‘iston, O‘sh, O‘zgan;
Halkinchak- Xorazm, Bog‘ot;
Sarinjoq- Urganch;
Balinchak- Qashqadaryo;
Jelbeshik- Qashqadaryo, Chiroqchi;
Jelbeshik- Samarqand, G‘allaorol;
Yelbeshik- Samarqand;
Hankilchak- Qoraqolpoq, Amudaryo;
Almoch- Buxoro;
Alvonch- Buxoro, Olot;
Alvons- Navoiy, Qiziltepa;
Samarqand Toyloq shevasida bu so‘zlarning barchasini uchratishimiz mumkin:
Yastepada- belginchak, halinchak, belanchak, halgunchak;
Jumabozorda- belg‘inchak, belanchak;
Navzandak- halunchak, yelbeshik, jelbeshik kabi.

Yuqoridaglardan ma`lum bo`ladiki, shevalar bir biriga chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi.O‘zbek shevalari ichida Toyloq shevasi alohida o‘rin tutadi va u til boyligimizning katta qismini o‘zida jamlagandir. Shu o‘rinda Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Turkiston qayg‘usi” kitobida keltirilgan quyidagi satirlarni keltirish o‘rinlidir: “Qaysi bir millatning ona tili o‘z hojatini o‘tolmay, boshqa yot tillar oldida mag‘lubiyatga uchrab, tiz cho‘kar ekan, unday millat ko‘p uzoqlamayoq, insoniy huquqlardan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg‘izgina vatanlarida emas, balkibutun borlig‘i bilan tarix yuzidan

yo‘qolishga majbur bo‘ladilar”[Sog‘uniy 2003].Shunday ekan biz gavharga boy ona tilimizni, bor boyligi bilan asrab qolaylik, dunyoga tarannum etaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reshetov V.V. Osnovnye osobennosti kipchakskix govorov Samarkandskoy oblasti. Nauchny byulleten‘ Samarkandskogo universiteta. 1940;(2):15-22.
2. Borovkov A.K. Uzbeksko-russkiy slovar‘. Moskva: Gosudarstvennoe izdatel‘stvo inostrannyx i nacional‘nyx slovarey; 1959. 836 s.
3. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Haydarov A, Rasulov I. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi; 1983. 232 b.
4. Sog‘uniy. Turkiston qayg‘usi. Toshkent, 2003.
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016.

O‘ZBEK SHEVALARI O`RGANILISHI TARIXIGA QISQACHA EKSKURS

A BRIEF EXCURSION INTO THE HISTORY OF THE STUDY OF UZBEK DIALECTS

Muxammadiyev Nodir Rustamzoda
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
nodirm@gmail.com

Annotatsiya: *Dunyo tilshunosligida tillararo dialekt so‘z o‘zlashishining bilish. O‘zbek shevalarning tarixiy uning kelib chiqishini bilish darajasi va mohiyati. O‘zbek adabiy tili xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi, chunki sheva bo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Ularni ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva terminlari bilan atash kuzatiladi. Biz ularni sheva deb atashni o‘rinli hisoblaymiz. Hozirgi o‘zbek tili uch guruh shevalarning (qipchoq, o‘g‘uz, qorluq) qo‘shilishidan tashkil topgan. O‘zbek tilida sheva va dialektlarning kuchli farqlanib qolishiga o‘zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab unga turkiy va turkiy bo‘lmagan tillarning, xususan, qo`shni tillarning ta’siri ham sabab bo‘lgan jihatlarini bilish.*

Kalit so‘zlar: *Dialekt, o‘zbek dialektologiyasi, sheva, dialektal matn, umumiy metod, xususiy metod, metodika, so‘z birikmasi, dialektal lug‘at.*

Abstract: *Knowledge of interlinguistic dialect word acquisition in world linguistics. The level and essence of knowing the historical origin of Uzbek dialects. The Uzbek literary language draws strength from national dialects, because without a dialect, our literary language will have no future. In scientific literature, they are referred to as dialect and dialect. We consider it appropriate to call them dialects. The modern Uzbek language is composed of three groups of dialects (Kipchak, Oghuz, Karluq). Knowing the strong influence of Turkic and non-Turkic languages, especially the Tajik language, caused the strong differentiation of dialects and dialects in the Uzbek language from the time when the Uzbek language began to develop independently from other languages.*

Key words: *Dialect, Uzbek dialectology, dialect, dialectal text, general method, special method, methodology, phraseology, dialectal dictionary.*

Ma`lumki, til ijtimoiy hodisa hisoblanib u kun sayin rivojlanadi va boshqa tillardan ajralib turadi. O‘zbek adabiy tili ham boshqa tillar qatori, xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi, chunki sheva bo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo‘lmasa, har qanday adabiy til o‘lik til hisoblanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosi hamda rivojlanish poydevoridir. Ularni ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva terminlari bilan atash kuzatiladi. Biz ularni sheva deb atashni o‘rinli hisoblaymiz. Shu o‘rinda shevashunosligimizning buguni hamda kelajagi haqida o‘ylab ko‘rib, shuningdek, bu sohaga oid ilmiy ishlari bilan tanilgan bir qancha olimlarning fikr-mulohazalari e’tiborga loyiqdir.

Shevashunosligimizning tarixi XI asrning mashhur tilshunosi Mahmud Koshg‘ariyga borib taqaladi. Uning «Devonu lug‘otit turk» asari turkiy xalqlar shevalarining so‘zligini arab tilida izohlab, o‘zida jamlagan mukammal va bebaho lug‘atlardan biri sanaladi. Ana shu lug‘at bahona turkiy qabila - urug‘larning tillari bir bobo tildan rivojlanib, taraqqiy etganiligi haqidagi ilmiy - nazariy qarash isbotlar asosida tasdiqlandiki, bu hol ona tilimizning o‘ziga xos nufuzini va tarixiy taraqqiyotini tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda Beruniyning dialektologya sohasiga oid fikrlari mavjud. Shevashunoslikka qo‘shgan hissasi shuki, u o‘zining “Saydana” asarida dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlarini keltirib o‘tadi. Asarida bir o‘simlik yoki moddaning nomini turli shevalarda turlicha nomlanishini yoki aksincha bir nom turli shevalarda turli o‘simlik nomini bildirishi mumkinligini yozib o‘tadi. Beruniy dorivor moddalarning turlicha nomlanishi amalda foydalanishni ancha qiyinlashitirishini aytib o‘tadi. Aholiga foydalanish oson bo‘lishi uchun modda nomining dialektal variantlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Hazrat Alisher Navoiy ham bundan sal kam olti asr oldin mana shu turkiy tilda, ya’ni eski o‘zbek adabiy tilida she’rlar yozib, olamni qurolsiz holda, qalam bilan egallagan allomalardan biri sanaladi. Mana shuning natijasida o‘sha vaqtda Xuroson hukmdori bo‘lgan Husayn Boyqaro tilimizga Davlat tili darajasini berish to‘g‘risidagi tarixiy farmonini e’lon qilishga majbur bo‘lgan. O‘zbek tili tabaqalanish (shevalarning ajralishi) yo‘li bilan emas, balki uyg‘unlashish (shevalarning qo‘shilishi) yo‘li bilan tashkil topgan. Hozirgi o‘zbek tili uch guruh shevalarning (qipchoq, o‘g‘uz, qorluq) qo‘shilishidan tashkil topgan. Shuning uchun o‘zbek tilining dialekt va shevalari Markaziy Osiyodagi boshqa turkiy tillarga nisbatan xilma-xil guruhlarga bo‘lingan. O‘zbek tilining tarkibida boshqa turkiy tillarga nisbatan sheva ko‘p. O‘zbek shevalari va ularning o‘ziga xos ayrim xususiyatlari, fonetik, morfologik xususiyatlarga ko‘ra bir-birlari bilan yaqinlashadigan va ayni vaqtda bir-birlaridan farq qiladigan dialektal guruhlari haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun ularning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi tasnifini bilishimiz kerak. Shevalarimiz XX asr boshlaridagi oktabr to‘ntarishidan keyinroq I. I. Zarubin, K.K. Yudaxin, A. K. Borovkov, ye. D. Polivanov singari turkolog olimlari va G‘ozi Olim, F.Abdullayev, V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, B. Jo‘rayev, S. Ibrohimov, M. Mirzayev, NX. Doniyorov, A.Ishayev, Q. Muhamedjanov, K.Nazarov, Y.G‘ulomov, A.Shermatov A.Aliyev, D. Abdurahmonov, N. Rajabov, B.To‘ychiboyev, K. Usmonov, A. Jo‘rayev, M.Abdiyev singari o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham u yoki bu darajada tasnif qilinganlar. Albatta, ularning bu sohadagi ishlarining ahamiyati bugungi kunda ham benihoya kattadir. O‘zbek tilining qarluq, o‘g‘uz va qipchoq lahjalari turkiy tillarning aksariyati qadimgi turkiy etnik urug‘ va qabilalarning biri negizida shakllanganligi tarixda o‘z aksini topgan, jumladan, qozoqlar, qirg‘izlar va Sibirdagi turkiy xalqlar tillari qipchoq, ozarboyjon, turkman, turk, gagauz kabi tillar o‘g‘uz, uyg‘urlar esa qarluq urug‘ va qabilalar tili negizida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek tili har uchala etnik guruhlar tilining birlashishi asosida tarkib topgan.

O‘zbek shevalarining tarixiy oqimi va uning murakkab dialektal tarkibi. Y.D. Polivanov «O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili» nomli asarida (1933) o‘tgan asrning birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi

haqida ma’lumot bergan edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub sabablari bir necha omillar ga borib taqaladi.

V. V. Reshetov o‘zbek tili dialektal rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi to‘g‘risida xabar beradi. Ular ichida o‘zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg‘ur, qipchoq, qangli, qatag‘on urug‘ va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta rol o‘ynagan.

O‘zbek tilining dialektal o‘ziga xosligida qadimgi urug‘ va qabilalarning turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy hayot tarzi, hududiy mustaqilligi, kasb-kori, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiylikni saqlab qolgan holda, boshqa hududlarda yashovchi o‘zbeklar tilidan ko‘pgina xususiyatlari bilan farqlanishiga olib kelgan, bu esa shevaning o‘ziga xosligini keltirib chiqargan.

Tarixchi olim K.Shoniyozovning ko‘rsatishicha, qarluqlar va ularga qon-qardosh bo‘lgan chigil, xalaj qabilalari Ile daryosi havzasida, Sirdaryoning janubiy oqimlari, Isfijobda va Farg‘ona vohasiga tarqalgan keng hududlarda yashaganlar. Turgesh qabilalari ittifoqi Yettisuvni egallagan. 766-yilda bu hududlar garluqlar tomonidan ishg‘ol qilingan. IX-X asrlarda o‘g‘uzlar Sirdaryoning quyi va o‘rta havzalarini hamda Orol bo‘ylarini ishg‘ol qilgan. Qipchoq qabilalari esa, asosan, Oltoy o‘lkasida, Irtish daryosi bo‘ylarida yashaganlar va keyinchalik ular Sibir, Gurjiston o‘lkalari-da, Volga, Dunay daryolari bo‘ylari hamda Markaziy Osiyoga tarqalganlar.

O‘zbek tilida sheva va dialektlarning kuchli farqlanib qolishiga o‘zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab unga turkiy va turkiy bo‘lmagan tillarning, xususan, tojik tilning kuchli ta’siri ham sabab bo‘lgan. Jumladan Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o‘zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o‘zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg‘izistondagi o‘zbek shevalariga qirg‘iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o‘zbek shevalariga tojik tilining ta’siri kuchlidir.

Avvalgi satrlarda aytilganidek, o‘zbek tili yirik uchta lahjani qamrab olgan, lekin har bir lahja orasiga qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmaydi, ya’ni aksariyat shevalar ayni bir til qonuniyatlariga amal qilishi mumkin, masalan, singarmonizm har uchala (markaziy shahar shevalarini hisobga olmaganda) lahjada uchraydi, shuningdek, unlilarning birlamchi cho‘ziqliklari qarluq va o‘g‘uz lahjalarida ham qayd qilinadi.

O‘zbek shevalarini o‘rganish metodlari O‘zbek shevalari tasviriy (tavsifiy) qiyosiy, qiyosty-tarixiy, lingvistik geografiya metodlarida o‘rganib kelinmoqda Tavsifiy (tasviriy) metod muayyan shevaga xos fonetik, leksik va grammatik xususiytalarning hozirgi holatini maxsus tuzilgan savolnoma bo‘yicha o‘rganishda qo‘llangan. Bunda sheva faktlari o‘zbek adabiy tili xususiyatlariga nisbatlab olinadi.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda Respublikamizda tilga bo‘lgan e’tibor jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Shuni aytish mumkinki, yurtimizning turli hududlarida yashovchi aholi shevasining o‘rganish dolzarb masalaga aylanib qoldi. Yurtimizdagi har bir viloyatning o‘ziga xos shevasi va bu shevalar rivojlanib borishi uchun alohida muhiti bor. Xususan, Qashqadaryo viloyatida turli millatlarning bir joyda o‘zaro ahil inoqlikda yashab kelayotganliklari tillararo aloqalarini rivojlantirishiga o‘ziga xos zamin hozirlaydi.

O‘zbek shevalarini o‘rganishda XIX asrning oxirlarida paydo bo‘lgan qiyosiy-tarixiy metoddan ham foydalanilgan. Dialektologik tadqiqotlarda dialektometriya metodi ham qo‘llaniladi. Bu metodda muayyan hududdagi lahja va dialektlar tarkibiga kirgan shevalarning

yaqinlik darajasi faktik materiallar asosida hisoblab chiqiladi va ular raqamlarda aks ettiriladi. Shuningdek, sheva hodisalarining statistikasi zarur bo‘lgan o‘rinlarda qo‘llanadi.

«O‘zbek dialektologiyasi» fani, ayniqsa, «O‘zbek tili tarixi» fani bilan uzviy bog‘langan. Shevalar va yozuv yodgorliklari til tarixi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Buning boisi shundaki, o‘zbek tili uzoq yillarni boshidan kechirdi, buning natijasi o‘laroq unga asos bo‘lgan shevalar hozirgi O‘zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shevalarning bu hududlarga tarqalishi, so‘zsiz, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda o‘ziga xoslikni belgilab beradi.

«O‘zbek dialektologiyasi» fani, ayniqsa, «O‘zbek tili tarixi» fani bilan uzviy bog‘langan. Shevalar va yozuv yodgorliklari til tarixi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Buning boisi shundaki, o‘zbek tili uzoq yillarni boshidan kechirdi, buning natijasi o‘laroq unga asos bo‘lgan shevalar hozirgi O‘zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shevalarning bu hududlarga tarqalishi, so‘zsiz, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda o‘ziga xoslikni belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtlarda respublikamizda tilga bo‘lgan e’tibor jadal sur’tlarda rivojlanib bormoqda. Shuni aytish mumkinki, yurtimizning turli hududlarida yashovchi aholi shevasining o‘rganish dolzarb masalaga aylanib qoldi, Qashqadaryo viloyati turli millatlarning bir joyda do‘stona munosabatda bo‘lib yashayotganliklarini tillararo aloqalarini rivojlantirishga olib keladi. O‘zbek adabiy tili xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi, chunki sheva bo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo‘lmasa, har qanday adabiy til o‘lik til hisoblanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosi hamda rivojlanish poydevoridir. Ularni ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva terminlari bilan atash kuzatiladi. Biz ularni sheva deb atashni o‘rinli hisoblaymiz. Xullas, o‘zbek shevalarining o`ziga xos xususiyatlarini eng qamrovli tadqiq etish tilshunoslik fani oldidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек шевалари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. 2015.
2. Тўйчибоев, Б., Юлдошев, Қ. Зомин тил қомуси.- Тошкент, 2012.
3. Абдиев М.Пастдарғом тумани ўғуз лаҳжаси ҳақида\\ Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 2015 йил, 5-сон
4. Исмоилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Фил.фан ном..дисс...- Тошкент.2011.
5. Турсунов У. Ўзбек терминологияси. Тошкент.1933.
6. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент, Фан.1962.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAGI IJTIMOIY MUNOSABAT SEMALI LEKSEMALARNING O‘ZBEK SHEVALARIGA MUNOSABATI

RELATIONSHIP OF LEXEMES OF SOCIAL RELATIONSHIP IN “DEVON LUGOTI TURK” WITH UZBEK DIALECTS

Azizova Nilufar
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilshunosligidagi tizimli tahlil, semantik maydon asosidagi tahlilning shakllanishi va leksemalarning semantik xususiyatlarini yoritishdagi imkoniyati yoritilgan. Leksemalarning semantik maydon tahlili yuzasidan jahon tilshunoligida hamda o‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar borasida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlar tarixida muhim o‘rin tutgan manba ekanligi, turli mavzulardagi tarixiy leksemalarni jamlagani, ularning ma’nosini o‘rganish amaliy ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Devonda keltirilgan leksemalarni semantik maydon asosida tavsiflash leksemalar ko‘lami haqida ma'lumot berishi, shu bilan bir qatorda maydon tarkibiga kiruvchi mikromaydonlarni o‘rganishda, ular o‘rtasidagi semantik munosabatlarni aniqlashda muhimligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *semantik maydon, tizimli tahlil, makromaydon, mikromaydon, uyali lug‘at, oziq-ovqat mikromaydoni, non mahsulotlari, sut mahsulotlari, taom nomlari*

Abstract*. The article describes system analysis in Uzbek linguistics, the formation of analysis based on the semantic field, as well as the possibility of clarifying the semantic properties of lexemes. The research carried out in world linguistics and Uzbek linguistics on the analysis of the semantic field of lexemes is briefly discussed. It is noted that the work of Mahmud Koshgari “Devonu lug‘otit turk” is an important source on the history of the Turkic peoples, that it contains historical lexemes on various topics, and the study of their meaning is of practical importance.*

It is emphasized that the description of the lexemes represented in Devon on the basis of the semantic field provides information about the scope of application of the lexemes, as well as the importance of studying the microfields included in the macrofield and determining the semantic connections between them.

Key words: *semantic field, system analysis, macrofield, microfield, mobile dictionary, microfield of food products, bakery products, dairy products, names of food products, cereal products.*

Mahmud ibn-ul Husayn ibn Muhammadil Koshg‘ariyning tilshunoslikka oid “Devonu lug‘otit turk” asari XI asrdagi til siyosati negizida yuzaga kelgan asar hisoblanadi. Bu davrda shahar va qabilalar o‘rtasidagi munosabatning yangi shakllari yuzaga kelib, muloqot shakllari sifatida turkiy til, arab tili, fors-tojik tilining rivojlanish tendensiyasi ham o‘zgacha tus ola boshlagan edi. Turkiy tilga muloqot vositasi siatida yondashuvning bir oz sustligi oqibatida bu tilning imkoniyatlarini yoritish, me’yoriy shakllarini ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga keldi. Davr ehtiyoji tufayli Mahmud Koshg‘ariyning ushbu fundamental asari dunyoga keldi. Bu asar nafaqat lug‘at, balki leksemalarning shakliy qonuniyati, semantik jarayonlar, fonetik qonuniyatlar izohi berilgan ilmiy manba sifatida ham qimmatlidir.

“Devonu lug‘otit turk” til va jamiyat, til va madaniyat, til va nutq, shevalar, tilning dialektal ko‘rinishlari aks etgan nodir manbadir.

«Devonu lug‘otit turk» («Turkiy so‘zlar lug‘ati») asari 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan. Bu asar qo‘lyozmasini ko‘chirgan kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiyning yozishicha, u nusxani Mahmud Koshg‘ariyning o‘z dastxatidan olgan.

«Devonu lug‘otit turk» 1915-1917 yillarda uch tom holida Istanbulda nashr etiladi. Shu nashr asosida K.Brokkelman asarni 1928-yilda nemischaga tarjima qilib, e'lon qiladi. Lug‘at 1939-yilda Anqarada Bosim Atalay tarjimasida usmonli turk tilida bosiladi. “Devon” o‘zbek kitobxonlariga S.Mutallibov tarjimasi asosidagi 1960-1963- yillardagi nashr orqali yetib keldi.

Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asari muqaddima va lug‘at qismidan iborat bo‘lib, muqaddimada muallif «Devonu lug‘atit turk» yaratish sabablari, o‘z ish uslubi, asarning qurilishi, turkcha so‘zlarning tuzilishida qo‘llanadigan harflar haqida, turkiy tilning xususiyatlari, tilda va lahjalarda bo‘lgan farqlar haqida fikr yuritadi.

«Devonu lug‘atit turk»ning asosiy qismi, lug‘at bo‘limida muallif o‘sha davrda iste'molda bo‘lgan hamma so‘zlarni qamrashga intilgan va ularni yetarli darajada ilmiy, tarixiy nuqtayi nazardan keng va to‘liq yoritgan. Yozuvchining ta’kidlshicha, devonda tilda qo‘llanib turgan so‘zlarning izohi berilgan. Olti mingdan ortiq so‘z sakkiz bo‘limda izohlangan. Mahmud Koshg‘ariy turkiy so‘zlarni arab tilidda izohlagan. Tushunilishi oson bo‘lishi uchun arabcha istilohlarni qo‘llagan. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida so‘zlar tovushlar sonining ortib borishiga ko‘ra joylashtirilgan. Ismlar va fe’llar ajratilib, turkiy tillarning fonetik-morfologik tasnifi hamda geografik tarqalishiga asosan tavsiflangan.

Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘atit turk» qoraxoniylar davridagi eski turkiy tilining fonetik, leksik, dialektologik xususiyatlarini nazariy jihatdan izohlab bergan.

“Devonu lug‘otit turk” tarixiy leksemalar jamlangan qomusdir. Bu leksik birliklarni o‘rganish va o‘zlashtirishning eng maqbul usullaridan biri semantik maydon asosidagi tavsifdir. Semantik maydon lug‘atda qayd etilgan leksemalarning mavzuiy guruhlarini aniqlash bilan bir qatorda lug‘aviy birliklar semantikasini tahlil qilishda, semalar mazmuniy munosabatlarini izohlashda ham muhim o‘rin tutadi. M.Mirtojiyev leksemalar semantik tarkibi ma'lum miqdordagi semalardan iborat bo‘lishini misollar orqali asoslab bergan [Mirtojiyev 2010].

M.B.Abdiyev leksemalarni semantik maydon asosida o‘rganishning ahamiyati va semantik maydonni tashkil etuvchibirliklar o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilgan [Abdiyev 2005:22].

F.Safarov semantik maydon afzalliklarini miqdor bildiruvchi leksik biliklar tahlili orqali ochib bergan [Safarov 2004].

“Devonu lug‘otit turk”da keltirilgan ijtimoiy munosabat semali leksemalarni tahlil qilish shu semantik guruhga oid turkiy leksemalarni aniqlash bilan bir qatorda leksemaning semantik imkoniyatlari, o‘z ma’no va ko‘chma ma’no, ma'no taraqqiyoti, leksema tarkibidagi semalarni tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. “Devonu lug‘otit turk”dagi aksariyat leksemalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi. Ammo bir qator leksemalar, ularning ma'no taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, semantik xususiyatlari o‘zbek shevalarida saqlanib qolmoqda va qo‘llanishda davom etmoqda. O‘zbek shevalari taxiy ko‘rinishdagi leksemlarni, ularning ma'no qirralari, leksemalarda aks etgan xalq bahosi va yondoshuvini aks ettirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Rang bildiruvchi so‘zlarning faoliyat-jaryon, ijtimoiy munosabatlarni ifodalashi ham kuzatiladi. الا ola so‘zi “Devonu lug‘otit turk”da o‘z va ko‘chma ma'nolarda qo‘llangan. O‘z ma'nosida oq va qora ranglarining aralashgan holatini bildirgan. Masalan, “oq-qora” rangli otga الا اث ala at deydilar”. Hayvon rangini ifodalashda الا so‘zi hissiy-ta'siriy jihatdan betaraf

semantikani aks ettiradi. Tanasida oq va qora ranglar aralash holda bo‘lgan hayvonning ko‘rinishini ifodalaydi.

Ola 1. Oq-qora, oq-malla va sh.k. qorishiq tusli (hayvonlar tusi haqida). O‘zbek tilining izohli lug‘ati ola so‘zidan yasalgan oq ola va qora ola qo‘shma so‘zlari keltirilgan: *oq ola* – asosan oq tusi bilan ajralib turadigan ola-bula; qora ola – asosan qora tusi bilan ajralib turadigan ola-bula (O‘TIL,III,105). *Qora ola* so‘zi *qorala* shaklida (sheva talaffuziga xos fonetik o‘zgarish natijasida bir so‘z shakliga kelgan va *qoralamoq* II so‘ziga nisbatan omonimik munosabat hosil qiladi: *qoralamoq* II qora tus bermoq, qora tusga kiritmoq, qora rang bilan bo‘yamoq, qora qilmoq. *Qalamni qoralamoq. Qog‘ozni qoralamoq*; 2. Qoralama matnni, nusxasini tayyorlamoq, qog‘ozga tushirmoq. 3 *ko‘chma* Ayblab, yomonlab gapirmoq yoki yozmoq. 4. Ko‘zdan qochirmay, qorasiga qarab, qorasini olib yurmoq, qorama-qora bormoq. 5. Son-miqdor bildiruvchi so‘z bilan qo‘llanib, shu so‘z anglatgan yoshga yaqinla-shishni bildiradi [O‘TIL V: 339].

ال ola so‘zi semantikasida quyidagi semalar mavjud: 1) oq va qoralik; 2) har xillik; 3) nomuvofiqlik, zidlik. Inson tanasidagi teri kasalligi ham shu ال ola rang nomining ko‘chma ma'nosi, ya'ni “har xillik” semasi asosida yuzaga kelgan. Lug‘atda bu kasallik nomi پس الا “ala pes” deb keltirilgan: سپ الا ola tanli odam (pes kasalligida inson tanasida oq dog‘lar paydo bo‘ladi);

Ola so‘zi “turli xil rangli, yo‘lli yoki gulli; chipor” ma'nolarini ham bildiradi: *Ilon chaqqan ola arqondan qo‘rqar. Ola* ko‘chma ma'noda *“t*ugal emas, chala” ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, hakkam-dukkam, bir tekis unib chiqmagan chigitga nisbatan qo‘llanadi [O‘TIL III: 105].

Ola so‘zining ko‘chma ma'nosida, asosan, salbiy baho-munosabat yaqqol sezilib turadi. Masalan, *ola ko‘z, olako‘z* 1) chaqchaygan katta ko‘z; 2) shunday ko‘zli kishi. *Olaymoq* katta ochilib, chaqchayib ketmoq, besaranjom o‘ynamoq, ola-kula bo‘lmoq (ko‘z haqida) [O‘TIL III: 105].

Olaymoq fe'lining orttirma nisbat shakli quyidagi ma'nolarda izohlangan: *olaytirmoq* 1)ko‘zlarini ola-kula qilib qaramoq, ko‘zlarini o‘ynatmoq, o‘qraytirmoq. 2)*ko‘chma* yomon niyat, yomon ko‘z bilan qaramoq [O‘TIL III: 106).

الا ala shaxsning fe'l-atvorini ham anglatib kelgan: الا ala - ola; tanasida oqi bor odam. تشئين الاسى يلقى اجثن الاسى كشى kishi alasi ichtin, yilqi alasi tashtin deydilar, ya'ni “Odamning olasi (buzuq fikri) ichida, yilqini tashida, sirtida”. Bu maqol hozirda “Mol olasi tashida, odam olasi ichida” shaklida ishlatiladi.

Ola leksemasidagi salbiy baho semasi o‘zbek xalq maqollarida ham o‘z ifodasini topgan. *Ola tovuq somon sochar, o‘z aybini o‘zi ochar*. Ola tovuq “aqli kalta”, “o‘ylamay ish qiladigan” shaxslarning ramziy ifodasi [O‘TIL III: 105].

“Devonu lug‘otit turk”dagi misollar va izohlardan الا *ola* leksemasining ko‘chma ma'noda davlat boshqaruvidagi munosabatni aks ettirgani kuzatiladi: بلدى الا خانقا بك beg xanqa ala boldï /bek xonga ola bo‘ldi / bek xonga qarshi chiqdi, xonning dushmani bo‘ldi, xonning dushmani bilan topishdi. Hozirgi o‘zbek shevalarida, jumladan, Surxondaryo shevalarida *ola qarash* “yomonlik qilmoq”, *ola bo‘ldi* “munosabatlari yomonlashdi” ma'nolarida ishlatiladi.

Ola sifat leksemadan yasalgan *olalanmoq* fe'li kam qo‘llanadi. *Olalanmoq* fe'lida ham shaxslar o‘rtasidagi munosabatga salbiy baho ifodalangan: *olalanmoq* 1**.** Ola-kula bo‘lmoq (ko‘z haqida). 2. O‘rtaga nizo tushib, ikkiga ayrilmoq, nizolashmoq. *Shaharning olalanish xabari o‘rdagacha ham eshitildi.* A. Qodiriy, O‘tgan kunlar [O‘TIL III: 106].

Ola so‘zi ishtirokidagi birikmalarda leksemaning “salbiy munosabat, nizo” semalari o‘z ifodasini topadi. *Ola* so‘zi *qaramoq* leksemasi bilan birikib, sub'ektning salbiy munosabatini noverbal vosita orqali ifodalashga xizmat qiladi: *ola qaramoq* ko‘zlarini olaytirib, o‘qrayib qaramoq [O‘TIL III: 106]. Birikma tarkibidagi baho munosabatining kuchayishi natijasida so‘zlar

munosabatida salbiy bahoga asoslangan ko‘chma ma'no yuzaga keladi. Natijada birikmadan yaxlit bir tushuncha hosil qilgan ibora shakllangan: *ola qaramoq* “yomon niyat, yomon ko‘z bilan qaramoq, ko‘z olaytirmoq”; “dushmanlik bilan qaramoq, bir tekisda, baravar ko‘rmaslik”.

Ola chiqdi iborasi ham xuddi shu holatda birikmadan yuzaga kelgan: ittifoqi, orasi buzildi [O‘TIL III: 105).

Ola leksemasining ijtimoiy munosabatlarni ifodalash semasi o‘zbek maqollarida ham o‘z ifodasini topgan. *Oltovlon ola bo‘lsa, og‘izdagini oldirar.* Ola bo‘lmoq *“*kelisha olmaslik”, “nifoq”, “nizo”. *Ovul iti ola bo‘lsa, bo‘ri kelsa birikar* maqolida ham shu mazmun aks etgan bo‘lib, *ola* leksemasiga *birikish* leksemasi mantiqan zid qo‘yilmoqda **[**O‘TIL III: 105].

“Devonu lug‘otit turk” katta hajmdagi leksik birlikalarni jamlagan tengsiz manba bo‘lib, undagi ko‘pgina so‘zlar shevalar orqali bugungi kunga ham yetib kelgan. Bu so‘zlarni o‘rganish, tahlil qilish, ma'no xususiyatlarini izohlashda semantik maydon tahlilining o‘rni ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Абдиев М.Б. Сохавий лексихаиикг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касбҳунарлари матсриаллари асосида). Филол. фан. д-и дисс. автореф. – Тошкент. 2005.

2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.

3. Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004.

4. O‘TIL–Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2006–2008.

5. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. T.: Фан, 1960-1963.

PAREMALARNING LINGVISTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI

LINGUISTIC AND LINGUO-CULTURAL RESEARCH OF PROVERBS

Ozoda Sharipova
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Ozodaxon925@gmail.com

Annotatsiya. *Har bir tilning paremiologik fondi shu tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyatini, an’analari va tarixini, milliy o‘zligi va o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi qimmatli merosdir. Ularda alohida shaxsdan tortib butun bir insoniyat jamiyati uchun daxldor bo‘lgan barcha masalalarga yechim, turli sohalarga munosabat bildirilgan deyish mumkin. Shu sababli ham paremiologiyaga tilshunoslar bilan bir qatorda adabiyotshunos, folklorshunos, etnograf, sotsiolog, psixolog kabi turli soha mutaxassislari tadqiqot olib borishlari mumkin bo‘lgan “hosildor maydon” sifatida qaraladi. Ushbu maqolada lingvistik va lingvokulturologik doirada amalga oshirilgan bir qator paremiologik tadqiqotlar tahlil qilinib, ularda keltirilgan paremiologik qamrov borasidagi munozarali qarashlarga munosabat bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *til, madaniyat, parema, paremiologik qamrov, maqol, matal, frazeologiya, aforizm, idioma, ibora.*

Abstract. *The paremiological fund of each language is a valuable heritage that shows the culture, traditions and history, national identity and uniqueness of the people who speak that language. It can be said that they provide solutions to all issues affecting the entire human society,*

from an individual, to various fields. For this reason, paremiology is considered as a "fertile field" in which specialists of different fields such as literary studies, folklorists, ethnographers, sociologists, psychologists, as well as linguists can conduct research. This article analyzes a number of paremiological studies carried out in the field of linguistics and linguocultural studies, and reacts to the controversial views on paremiological scope presented in them.

Key words: *language, culture, parame, paremiological coverage, proverb, matal, phraseology, aphorism, idiom, expression.*

Jahon tilshunosligida paremalarga tilning madaniy belgilarini, shu tilda so‘zlashuvchi kishilar tafakkur tarzini, psixologik holatini namoyon qiluvchi vositalardan biri sifatida qaraladi. Paremalarda uni yaratuvchi xalq e’tiqodining tarixiy izlari, turmush tarzi, hayotiy kuzatishlar va tajribalar asosida chiqargan xulosalari, atrof olam hodisotlariga bildirgan munosabatlari, ruhiy-emotsional kechinmalari ixcham, mazmundor shaklda aks etadi.

Jahon paremiologiyasida maqol va matallarni yig‘ish, tizimlashtirish, tasniflash bilan bog‘liq jarayonlar Aristotel davridan boshlanganligi aytiladi. O‘zbek tili tarixida ham bu sohada salmoqli ishlar qilingan va Mahmud Koshg‘ariy, Gulxaniy, Sulaymonqul Rojiy (Rojiy «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solgan) zamonlaridan to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

XVIII asrning boshlarida German paremiografi V.Vander Yevropa xalqlariga oid 250 000 dan ortiq maqolni o‘z ichiga olgan besh jildlik paremiologik lug‘atni tuzishi bilan zamonaviy Yevropa tilshunosligida paremiografiya sohasiga tamal toshini qo‘ydi. Shundan so‘ng R.S.Trench tomonidan maqollarning semantikasi, etimologiyasi atroflicha yoritilgan “On the Lessons of Proverbs” nomi ostida katta hajmli ingliz tili paremiologik lug‘ati yaratildi. Bu borada, ayniqsa, A.Taylorning xizmatlari benihoya katta bo‘lib, u o‘zining qator asarlari orqali paremiologiyaning qay darajada boy soha ekanligini ko‘rsatib berdi. Jumladan, “The Proverb” asarida olim maqollarning kelib chiqishi, muammolari, turlari, variantlari, ingliz tiliga boshqa tillardan kirib kelgan maqollar etimologiyasi haqida so‘z yuritadi.

O‘zbek xalq paremiologik fondini bir butun to‘plam holiga keltirish va rivojlantirishda rus namoyondalaridan missioner N.G.Ostroumov, paremiolog G.L.Permyakov, A.M.Bushuylarning ham xizmati katta bo‘ldi. A.M.Bushuy o‘zining nomzodlik va doktorlik ishlarida maqol va matallarni iboralardan ajratgan holda o‘rganishni, maqollarni tematik jihatdan tasniflash va to‘plashni tilshunoslik fani orqali amalga oshirishni o‘zbek xalq maqollari doirasida boshlab bergan olimlardan biri sifatida o‘zbek tili paremiologiyasini rivojlantirishga poydevor qo‘ygan deyishimiz mumkin. U boshchiligidagi tilshunos olimlar jamoasi olib borgan tadqiqotlar natijasi o‘laroq “Паремиология Узбекистана” bibliografik ko‘rsatkich kitobi nashr qilingan.

Fanda paremalarga folklordan ayri, mustaqil lingvistik tahlil muammosi sifatida qiziqish XX asrda paydo bo‘ldi. Maqollarni xalq og‘zaki ijodi, etnografiya, tilshunoslik obyekti sifatida tekshirish, idioma-ibora-maqol tizimida ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish uzoq tarixga ega. Dastlab leksikologiya, so‘ngra esa frazeologiya (Frazeologiya leksikologiya bag‘ridan XX asrning 50-yillarida mustaqil bo‘lim sifatida ajralib chiqdi.) tarkibida o‘rganilgan paremiologiya sohasi turg‘un birikmalar, xalq hikmatli so‘zlari, maqol-matallarini to‘plab tasnif qiluvchi va o‘rganuvchi soha sifatida o‘tgan asrning 70-80-yillarida jahon tilshunosligi faniga kirib keldi. Hozirga qadar bu yo‘nalish bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramasdan, o‘z yechimini, aniq ta’rifini kutayotgan, hali to‘la ochilmagan ko‘pgina bahsli muammolarga ega. Jumladan, ulardan biri frazeologik birliklarni turlicha talqin qilish oqibatida kelib chiqqan paremiologiyaning o‘rganish obyektini belgilashdagi tafovutli qarashlar bo‘lsa, yana biri nutqda tayyor holda

qo‘llanuvchi paremiologik birliklarni idiomatik xarakterga ega bo‘lmagan boshqa birliklardan farqlab turuvchi aniq chegarani belgilash masalasidir (idiomaning qamrov doirasini aniqlashda ham olimlarda turlicha yondashuv mavjud).

Jahon tilshunosligida ko‘pgina olimlarda frazeologik va paremiologik birliklarni ajratishda ikki xil (tor va keng) qarash mavjud. Ularning bir guruhi frazeologizmlar tarkibiga tor doirada faqat iboralarni kiritsa (A.E.Mamatov, T.G.Bochina, M.V.Porxomovskiy, Sh.A.Ganiyeva), keng ma’noda talqin qiluvchilar iboradan tashqari maqol, matallarni ham kiritishni taklif etadilar (Z.G.Axmedova, A.Sh.Traxova, A.A.Nasirov, L.E.Xolmuradova).

Shunday tadqiqotchilardan biri V.V.Vinogradovdir. U maqol va matallarni frazeologik birliklar qatoriga kiritadi. Sobiq sho‘rolar davrida Imperiya hududidagi barcha tillarning frazeologiyasi, jumladan, o‘zbek frazeologiyasi ham V.V.Vinogradov ta’limoti asosida tadqiq qilina boshlashi natijasida undan keyingi bir qator ishlarda ham paremiologik birliklarni alohida lingvistik tur sifatida e’tirof etmay, frazeologizmlar tarkibida o‘rganish hollari ko‘plab kuzatiladi. Shuning natijasi o‘laroq tilshunoslikda frazemalarning qamrov doirasini turlicha belgilash hozirgacha davom etib kelmoqda.

Garchi paremalarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma’no xususiyatlarini o‘rganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan chambarchas bog‘liq bo’lsa-da, biroq professor A.Mamatov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, frazeologiya tarkibida o‘rganilayotgan maqol, matal, aforizm, hikmatli so‘z, topishmoqlar alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzulardir [Mamatov 1999:56]. Zero, “Paremiologiya tilda mavjud bo‘lgan turli xil barcha iboralarni o‘rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni tadqiq etadi. Shu jihatdan ular o‘zaro farqlanadi. O‘rganish obyektining birligi, ya’ni bir necha so‘zdan tashkil topgan turg‘un, barqaror birikmalarni tekshirish paremiologiya bilan frazeologiyaning o‘xshash, umumiy tomoni hisoblanadi”.

Shuningdek, paremiologiyaning tarkibiga kiruvchi turlar hamda ularning integral va differensial tomonlarini belgilashda ham olimlar turlicha yondashganligi qator ilmiy-nazariy manbalarda aks etgan. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan turli qarashlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, maqol, matal, aforizmga qo‘shimcha tarzda metaforik ifoda, rivoyat, afsona, tilak, duo, qarg‘ish so‘zlar, ertak, bashoratlar, tabu, topishmoq singari barqaror so‘z birikmalari ham hikmatga yo‘g‘rilganligi, fikrni g‘oyat ixcham, siqiq, lo‘nda va obrazli ifodalashi bilan xalq paremik ijodi tarkibiga kiritilgan. Shunday olimlardan biri G.S.Vorkachev paremiologik birliklarga maqol, matal, aforizmlar va turg‘un so‘z birikmalari bilan bir qatorda topishmoqlarni ham kiritadi va o‘z fikrini shunday izohlaydi: maqollarda xalqning asrlar davomida sinovdan o‘tgan hayotiy haqiqatlari ixcham axloqiy baho sifatida umumlashtirilsa, tabuda bu ta’qiq yo‘sinini olgan. Topishmoqlarda esa xalqning narsa va hodisalarga nisbatan qarashlari ularning asliyatiga xos yetakchi belgilari orqali epitetli ixcham iboralar shaklida aks ettiriladi, ular barqarorlik, tayyorlik, jumboqlilik kabi xususiyatlarga ega. Maqol va matallar axloqiy baho hikmat darajasida xalq donoligini umumlashtirilsa, topishmoqlarda fikrni harakatga solish asnosida xalqning topqirligi, sinchkovligi, kuzatuvchanligi va hozirjavobligi namoyon bo‘ladi [Vorkachev 2010].

Biroq paremiologiyani tor ma’noda “muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar – paremalar tizimi” va “paremalarni o‘rganadigan fan sohasi” sifatida tasnif qilish va o‘rganish ma’qulroq.

Olib borilayotgan ko‘plab tadqiqotlarga qaramasdan bugungi kunga qadar jahon xalqlari tilshunosligi va folklorshunosligida mazkur paremik janrlar (maqol, matal, yumuq iboralar)ning o‘z ichidagi o‘zaro farqlari hamda umumiy jihatlari ham ko‘plab bahslarga sabab bo‘lmoqda. Olimlar fikrini o‘rganib chiqib, biz o‘z tadqiqotimizda paremik turlarga maqol, matal, aforizmlarni

kiritgan holda ular orasidagi tafovutni quyidagicha belgiladik: maqollar barqarorlik, tayyorlik, ko‘chma ma’noga egalik va muallifga ega emaslik; matallar barqarorlik, tayyorlik, ko‘chma ma’noga va muallifga ega emaslik; aforizmlar esa barqarorlik, tayyorlik, muallifga egalik xususiyati bilan ajralib turadi.

Yuqorida aytib o‘tganimiz ayrim bahsli jihatlarga qaramasdan, o‘zbek paremiologiyasining jahon hamjamiyati bilan bemalol bellasha oladigan bugungi holati bu sohada zahmatkash olimlarimiz tomonidan chuqur va benihoya katta mehnatlar qilinganligini isbotlab turibdi. Professor Sh.Rahmatullayev amalga oshirgan g‘oyat salmoqli ilmiy faoliyatining dastlabki davrlaridanoq, garchi maqollar bo‘yicha maxsus ishlar yaratmagan bo‘lsa-da, frazeologiya predmetini tor doirada tushunganligi hamda maqol va ibora o‘rtasidagi farqlarni imkon darajasida ajratganligining o‘zi olimning bu sohaga qo‘shgan ulkan hissasi bo‘ldi. Olim frazeologizmlar doirasini ancha toraytirdi va faqat ko‘chma ma’noga asoslangan barqaror birliklarnigina frazeologizmlar tarkibiga kiritdi.

B.Jo‘rayevaning nomzodlik ishlarida o‘zbek tilshunosligida ilk marta maqollarda ko‘p ma’nolilik, sinonimlik va variantlilik masalalari atroflicha yoritilib, ularning uzual hamda okkazional xususiyatlari ochib berilgan. Doktorlik dissertasiyalarida esa o‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari tadqiq etilgan. Maqollarning yondosh hodisalarga munosabati va lisoniy mavqeyi masalalari bilan bog‘liq olimaning mazkur ilmiy-nazariy mulohazalari, xususan, maqolning idiomaga munosabati, maqol va ibora, maqol va matal orasidagi munosabatlar, maqol-matal tipidagi paremalar tahlili, ayniqsa, alohida ahamiyatga molik. Shuningdek, olima tomonidan maqolning lison-nutq ixtilofidagi o‘rni masalasiga oydinlik kiritilib, aniq dalillar keltirish asosida tilshunoslikdagi birmuncha munozarali masalaga ham munosib asosli yechim berilgan: “Maqollar tarkibida ayrim qismlarning nisbatan erkin almashtirilishi (variantlanishi) ularning hosilaviyligini isbotlovchi omillardan biri bo‘lsa, sintaktik bo‘linuvchanligi (gap bo‘laklariga ajralishi) maqollarning nutqiy hosilaviyligini isbotlovchi yana bir dalildir. Demak, sintaktik jihatdan maqollar nutq birligi, nutqiy hosila hisobalanadi... Sintaktik jihatdan bo‘linuvchan, hosilaviy bo‘lgan maqollar ma’noviy va shu bilan birga vazifaviy jihatlariga ko‘ra tayyor va bo‘linmasdir. Shuning uchun maqollar leksemalar singari asrlardan asrlarga shakl va ma’nosini saqlagan holda o‘tib keladi, ularni lug‘atlarda to‘plash, sharhlash imkoniyatlari mavjud... Ular sintaktik qurilishi jihatidan nutqiy hosila mohiyatiga ega bo‘lgan holda ma’no va vazifa jihatidan lisoniy birlik tabiatiga egadir” [Jo‘rayeva 2002].

So‘nggi yillarda paremalarni lingvokulturologik doirada o‘rganishga katta urg‘u berilib, shu yo‘nalishda M.Asranova, F.F.Farxutdinovalar izlanishlar olib bordilar. M.Asranova paremiologik birliklar lingvistik tuzilishi va funsional yuklamasi bilan katta pretsedent potensialga ega bo‘lgani holda ular hodisa tavsiflari uchun yirik manba bo‘lib xizmat qiladigan keng fondni tashkil etishini o‘z tadqiqotida alohida ta’kidlab o‘tdi. Jahon tilshunosligida bugungi kunda maqollarning shakllanish manbalari, etimologiyasini ochib berish, ularning muayyan bir xalq hayoti, dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari bilan bog‘liqligini ko‘rsatish va bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilinayotgan bir vaqtda bu singari tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Turkiy tilli bir qator respublikalarda ham olimlar tomonidan paremalarni o‘rganish bo‘yicha ko‘plab salmoqli ishlar qilingan bo‘lib, ular bilan yaqindan tanishish orqali barcha turkiy tilli xalqlar uchun umummilliy xarakterga ega maqol va matallarni ajratish, ularning etimologik, xronologik, etnografik tadqiqini amalga oshirishda foydalanish mumkin. Turk tilshunosi Kamol Ayyubo‘g‘lining she’r va so‘zlashuv nutqida maqol va idiomaning o‘rni yoritilgan “Пословицы и идиомы в стихах и разговорной речи” nomli tadqiqoti, R.Sarsenboyevning qozoq maqol va

matallari til xususiyatlariga bag‘ishlangan ishlari, A.Annaurovning turkman maqol va matallari sintaksisiga oid amalga oshirgan izlanishlari bu borada xarakterlidir.

Poyon Bakirovning rus, o‘zbek va qozoq xalq maqollari lingvistik xususiyatlari bo‘yicha amalga oshirgan ishlari alohida e’tiborga loyiq. Olim uch til doirasida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlilni amalga oshirish bilan bir qatorda maqol, matal, ibora munosabatlariga ham alohida e’tibor qaratadi va maqolga xos xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi. P.Bakirovning tadqiqotida yana nominasentrik – ega va kesimi bosh kelishikdagi ot va harakat nomi bilan ifodalangan maqollarning semantik va struktur xususiyatlari ham batafsil izohlab berilgan[Bakirov 2007].

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek paremiologiyasining hozirgi ahvoli respublikamiz olimlarining bu sohada sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritganligidan dalolat beradi. Lekin tilshunoslarimiz oldida kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ham bisyor. Maqollar semantikasi, stilistikasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar yaratish, o‘zbek xalq maqollarining mukammal ko‘p tomlik izohli lug‘atini tuzish shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. док. ... дис. автореф. –Т., 1999.
2. Воркачев С.Г. Идея справедливости в русских паремиях: сила не в силе, а в правде II Язык и ментальность. Сер. «Славянский мир». СПб., 2010. Вып. 5.
3. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фанлари номзоди.... дисс. – Самарқанд, 2002.
4. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. (DSc) дисс. – Самарқанд, 2020.
5. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... док. филол. наук. –Т., 2007.

SAID AHMAD IJODIDA QO’LLANGAN XALQ MAQOLLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FOLK PROVERBS USED IN SAID AHMED'S WORK

Sayfiddinova Gulnoza Ulug‘bek qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
mehrsabiya@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqolada O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad ijodida qo‘llangan xalq maqollarining uslubiy xususiyatlari haqida so‘z bordi. Xalq og‘zaki ijodining adib asarlarida tutgan o‘rni va uning amaliy ahamiyati tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Xalq og‘zaki ijodi, maqol, obraz, xarakter, ibora.*

Abstract: *This article talks about the stylistic features of folk proverbs used in the work of the Hero of Uzbekistan, the national writer of Uzbekistan Said Ahmed. The role of folklore in literary works and its practical importance were analyzed.*

Key words: *Folk art, proverb, image, character, expression.*

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” nomli asarida Said Ahmadni ulug' ajdodlarimizning ilmiy merosi va ibratli faoliyatining bizning zamonamizdagi davomchisi ekanligini e'tirof etadi.[1,50] Yuqorida ta'kidlab o’tganimizdek, Said Ahmad kulgi yaratishda xalq og’zaki ijodi namunalarining turli janr va vositalaridan unumli foydalanadi. Obraz yaratish usullarini ham mohirlik bilan egallaydi. Bu o’rganganlarining natijasi esa asarlarida yaqqol namoyon bo’ladi. Shu kungacha xalq og’zaki ijodi namunalari adabiyotga albatta, o’zining katta ta’sirini o’tkazib keldi. Shuning bilan birga tan olish kerakki aynan mana shu xalq tomonidan yaratilgan barcha janr namunalari, u xoh maqol, latifa, bratli so’zlar, askiyalar –bularning barchasi adabiyotga sezilarli ta’sir etgan va uni boyitishga xizmat qilgan. Ular orqali adabiyot rangin bir dunyo kashf eta borgan. Qolaversa, qahramonlarni yanada yorqinroq tasavvur qilish va tasvirlash imkonini ham yaratdi. Said Ahmad xalq afsona va latifalaridan, askiyalaridan o’zining tabiati, xarakteriga moslarini tanlab oladi. Ularni yanada sayqallashtirib, saralaydi. Uning asarlarida tasvirlash uslubining xalq ertaklariga yaqinligi , uyg'unligi ko'rinadi: "Ko’z ochirmaydigan g'uv-g'uv chivinlar-u baqalarning tongotar bazmi Kuyganyorga hokim bo’ladi". Davomida esa, tasvirga yumor qo'shib yuboriladi. Bu esa ham kulgi, ham qayg’u uyg’otadi: "Bu yerning xalqi sodda, do'lvor kishilar quvlik nima, aldamchilik nima bilishmasdi. Mirobodliklar shuncha azob-uqubat bilan suv chiqargan joylariga qalampir ekishadi. Boshqalar qovun-tarvuz ekib katta daromad olganlarida, ular bodring ekib gapini 20 tiyinga ham sotolmay, qaytarib oborib mollariga yedirishadi"[2,51]. Bu yerda xalqning qanchalar sodda va har narsaga ishonuvchanligi kulgi qo’zg’aydi. Shuning bilan birga aldashni bilmaydigan, yolg’ondan hazar qiladigan xalqqa bo’lgan hurmati oshadi. Shu o’rinda Professor Borovkovning latifalar haqida aytgan qimmatli fikrlari yodimizga tushadi: "Adabiy latifalardan anchasining shuhrati Navoiy va Jomiy nomlari bilan bog’langan bo’lishi taajjublanarli emas. Chunki zehnlilik va hozirjavoblik yuqori adabiy zakovatning belgisi sanaladi! " Yozuvchi ijodi xalq og’zaki ijodi namunalari hisoblangan maqollar bilan shunday to’lib toshganki, boyitilganki, ularni o’qib, mazmunini anglab yetamiz va eshitganmizku deymiz o’zimizga o’zimiz, xuddiki tanishday, avvaldan ma’lumdek ko’rinadi. Vaholanki, ijodkorning asl mahorati ham ayni shu o’rinda namoyon bo’ladi. Yozuvchi bunday tesha tegmagan, ko’pchilikka ma’lum yoki ma’lum bo’lmagan maqol va iboralardan qahramonlarning nutqini boyitishda va ta’sirchanligini oshirish uchun qo’llaniladi. Adibning ustamonligi maqol va iboralarni qaysi qahramonlar tilidan, qanday jarayonda ishlatilayotganida ko’rinadi. Said Ahmat haqiqatan o’z ijod uslubi va usuliga ega bo’lgan serqirra ijodkor edi. Shuning uchun ham uning har bir asar qahramoni yoki ularning tilidan aytilgan dohiyona va qochirimli so’z va gaplari haligacha yodimizda muhrlanib turibdi. Uning asarlarini boyitgan bunday xalq og’zaki ijodi namunalaridan yozuvchi o’z o’rnida foydalangani ajib bir jozibadorlik kasb etadi.

Akademik Matyoqub Qo’shjonov yozuvchi jodini yuksak baholab shunday yozgan edi: "Said Ahmad prozasidagi epik tasvir ko’proq notekis, o’nqir-cho’nqir joylardan o’ziga yo’l ochib o’tadigan daryo oqimini eslatadi. Ba’zi joylarda u alohida bir shiddat va hayqiriq bilan tosh qoyalarga urilib-surilib, to’lqinlanib oqib o’tadi. Ba’zi joylarda esa kutilmaganda sokinlashadi, tinchlanadi, salobat kasb etadi. Gap faqat hayot voqealiklarini shu xilda "notekis" tasvirlashda emas. Said Ahmad san’atkor sifatida katta psixolog". Darhaqiqat uning asarlaridagi qahramonlar darrov yaqin kishimizga aylanadi. Ularning quvonchi-yu, alamlariga, shodlik va g’am-g’ussalariga sherik bo’lamiz. Ichki "men"ida sodir bo’layotgan hodisalar orqali ularning tabiati ochila boradi va biz qahramonlarni to’liqroq anglay boshlaymiz. Shuning uchun ham badiiy adabiyot birmuncha

murakkablikka ega. Chunki insonning ichki tuyg'ulari bialn bog'liq bo'lgan har qanday jarayon murakkabdir. Adib asarlarida qahramonning botiniy va zohiriy olami tezda ochiladi. Shuning uchun ham uning asarlari jahongashta. Bunga sabab esa asarlarining hali hanuz jahon minbarlarida namoyish etilayotganidir. «Kuyov» dramasida adib juda ko'p maqol va iboralardan foydalanganiga guvoh bo'lamiz: *"Notavon ko'ngilga qo'tir jo'mashov", "To'ringdan go'ring yaqin", "Ot qayoqqa yursa arava ham o'sha yoqqa yuradi", "Eshak minib oyoq ostini ko'rgandan, tuya minib uzoqni ko'rgan yaxshi", "Yomonning bir qilig'i ortiq", "Machit buzilsa, mehrobi qolar", "Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r", "Ishongan tog'da kiyik yotmas", "Asal aynimas, saryog' sasimas", "Ilon avragan quyondek", "Yoshlikda bergan ko'ngil, ayrilmas balo bo'lur"* kabi ibora va maqollar xalqimiz orasida juda keng tarqalgan bo'lib, adib bu namunalardan ustalik bilan foydalangan. Maqol va iboralar nutqimizni bezabgina qolmay, fikrimizni qisqa va lo'nda ifodalashimiz uchun yordam beradigan va ta'sir kuchi oddiy so'zga nisbtan ancha qamrovli bo'lgan xalq og'zaki ijodining bebaho namunalari hisoblanadi. Iboralar nutqqa tayyor holda kirgani holda, odatda bir so'zga teng keladigan so'z qo'shilmasi yoki gapdir. Maqollarda avlod va ajdodlarimizning hayotiy tajribalari, ularning jamiyatga bo'lgan oqilona v aodilona munosabatlari, ma'lum bir tarixiy sharoit, kishilarning ruhiy holatlari, estetik his-tuyg'ulari, xalqning ijobiy fazilatlari mujassamlashtirilgandir. Bu maqollar asrlar davomida tildan-tilga o'tib, boyib, sayqallanib, hozirgi ko'rinishiga kelgan. Xalq orasida keng tarqalgan maqollardan foydalanib yozilgan asarlarda o'qirmanni o'ziga tortadigan jihatlari bo'ladi, sababi bunday asarlarda samimiyat, insonni anglash birinchi o'ringa chiqadi. Aynan shunga o'xshash holatlarda siz o'zingiz avvaldan eshitib yurgan maqollaringizdan nutqingizda foydalana olishingiz lozimligini anglab yetasiz. Hamda sizda bu borada ko'nikma ham shakllanadi. Maqol va iboralardan nutqda foydalanish, nutqni yanada ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Oddiy so'zdan ko'ra sayqallangan maqol va iboralar boshqalarga tezroq yetib boradi va shu bilan birga juda tez reaksiya beradi. Demak, bir so'z bilan aytganda, ular nutqimizni bezaydi, jozibali qiladi. Adib Said Ahmad kulgisining haqiqiy xalqchil bo'lishida oddiy xalq tilidagi milliylik, soddalik, ifodaviylik, olmosday o'tkir va sof iboralar muhim rol o'ynadi. Biz buni,ayniqsa,qahramonlar yoki holat tasviridayaqqol namoyon bo'ladigan jonli xalq tilida uchraydigan ideomatik iboralar yoki frazeologikbirikmalardan foydalinishdako'rish mumkin. Bizga azaldan ma'lumki, hajviyada "ezopcha usulda yozish" degan bir ibora bor xalq orasida. Bunda esa asosan yozuvchining o'zi shaxsiy fikr-mulohazalari va o'y-xayollari, orzu-istaklarini shunchaki to'g'ridan-to'g'ri ifodalamay, balki fikrlarini kinoya bilanqochiriqqilib yoki majoziy uslubda ifodalaydi. Iboralardan foydalanadi. Said Ahmadgacha ham bu yo'nalish, uslubni bir qancha adiblar qo'llaganlar. A.Qodiriy, Fitrat, A.Qahhor kabi buyuk adiblar adiblar shular jumlasidandir. Yozuvchimiz Said Ahmad esa boshqa yo'nalishlar singari ayni bu uslubda ham yangilik yaratishga, kashf etishga intildi: Adib asarlari tiliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda kinoya yoki qochiriqdan ko'ra sof va samimiy kulgi ohangini ko'rishimiz mumkin. Va bu asarda birinchi o'ringa chiqadi. Bunday samimiy kulgiga yo'g'rilgan nutq esa albatta, asarning g'oyasini, obrazlarning qirralarini, Qahramonlarning atrofdagi voqea-hodisalarga, shuningdek, muayyan shaxs yoki narsaga o'zining munosabatni ochishga xizmat qiladi. Ularda hayotga bo'lgan muhabbatni, simpatiyani uyg'otadi. Adibning yolg'on kulgidan ko'ra samimiy kulgiga bo'lgan muhabbati xuddi shun o'rinlarda ko'rinadi. Said Ahmad insonni bir-biri ustidan kuladigan, kuldirishgaqaratilgan shunchaki yuzakikulgini emas, balki insonga muhabbatdantug'iladigan betakror kulgini yaratdi. Shu sababli ham adib asarlaridagi juda ko'p unsurlar hajv hosil qilishga xizmat qiladi va buunsurlar o'z navbatida, biz yuqoridagi bobimizda ta'kidlab o'tganimizdek, yozuvchi uslubini belgilovchi, asosiy, bosh xususiyatlardan biriga aylanadi. Muallif asarlariga diqqat qiladigan bo'lsak, ularda

qo’llanilgan turli nomlar, har xil laqablar, so’zlarni o’z ma’nosida emas, balki ko’chma ma’noda qo`llash, turli xil o’xshatishlar kabi bir qator vositalar kulgi uyg’otishga yordam beradi. Agar biz e’tibor beradigan bo’lsak, boshqa biror yozuvchiasarida bu vositalar, umuman, hajv uyg’otmasligi ham mumkin, biroq haqiqiy tug’ma iste’dod egasi hisoblangan yumoristSaid Ahmad barcha unsurlarni mohirona va dohiyona hajv uyg’otish vositalariga aylantira oladi. Shu o’rinda ulardan unumli foydalanishga ham erishadi. Uning asarlarida mazmun jihatidan xilma xil bo’lgan, turli mavzularni o’z ichiga qamrab olgan maqollarni ko’rishimiz mumkin. Adib har bitta maqoldan o’z o’rnida vaziyat va holatni inobatga olgan holda foydalanadi. Bunda albatta qahramonlarning ham emotsional, ruhiy holatini inobatga oladi. Maqol aslida arabcha so’zdan olingan bo’lib "so’z" degan ma’noni anglatadi. Azal azaldan maqollardan har jabhada unumli foydalanib kelingan. Sababi maqollar fikrni ta’sirchan, so’zni o’tkir qilibgina qolmay, nima demoqchi eknaligimizni tinglovchiga yetib borishini osonlashtiradi. Maqollar xalqning turish-turmushidan xabar bergan va ayni shu xalqning so’zamolligini, dunyoqarashini, ularning jamiyat va tabiatga shaxsiy munosabatini ifodalab kelgan. Maqollarni asarlarda qo’llash ham keyinchalik odat tusiga aylandi. Klassik asarlarimizda ham maqollar muhim o’rinda turgan. Birgina Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida 400 dan ortiq maqollar qushlarning tilidan aytiladi. Va ularning har biri ma’lum vazifani ado etadi. Maqollar yozuvchi tasvirlayotgan qahramonning qanday obrazdagi shaxs ekanligini ko’rsatib ham beradi. Masalan, "Kelinlar qo’zg’oloni" dramasida qo’llanilgan maqollar qaynona va kelinlarning xarakterini ifodalaydi, qolaversa ular o’rtasidagi munosabatni ham yaqqol namoyon etadi. Demak, maqollar obraz va xarakterlarni yanada teranroq ifodalash, voqealarga munosabatni aks ettirish, qahramonlarga satirik yoki yumoristik kayfiyat berish uchun, qolaversa asarga singdirilgan g’oya va asar mohiyatini ochib berishda, asar tilini boyitish kabi bir necha maqsadlar yo’lida qo’llaniladi. Adib maqollardan ikki usulda fodalangan. Birinchisi, xalq maqollari orqali turli obrazlarning xarakterini ochish va ikkikchisi, bu maqollardan ilhomlangan holda yangi aforizmlarni yaratish. Ijodkor ba’zi bir maqollarni kinoya tarzida ishlatadi.Va bu hajv yaralishiga asos bo’ladi. Maqollar vositasida qahramonlarning haqiqiy basharasi ochiladi. Har bitta personaj tilidan berilayotgan maqollar ana shu personajning atrofiga munosabatidan va bilim saviyasidan kelib chiqadi. Masalan, judayam qurumsoq va qizg’anchiq bo’lgan Inoyat oqsoqolning nutqida uchraydigan maqol va matallar albatta uning satirik xarakteri uchun juda mos keladi. *"Nafsini tiygan uzoqqa boradi", "Nafsi buzuq hayitda o’ladi", "Oziqlik ot horimas", "O’lgan o’lib ketaveradi, qolganga qiyin", "Bugun bir burda tejasang, ertaga noning ikkita bo’ladi"* kabi matal va maqollar, obrazli iboralari Inoyat oqsoqolning qizg’anchiq va hasis ruhiyat chizgilarini chizib beradi. Va personaj o’zi sezmagan holda ana shu nuqida foydalangan maqol va matallari, iboralari, askiya va latifalari orqaligini o’quvchiga o’zini kashf etib beradi. Bu esa asarning tub mohiyatini anglab yetishga yordam beradi. Yana "Toma toma ko’l bo’lur, hech tommasa ko’l bo’lur" maqoli ham xalqimiz orasida va Said Ahmad asarlarida keng qo’llanilgan. Said Ahmad asarlaridagi ba’zi bir maqolllar odatda, oddiy hodislarga kulgi uyg’otadi. Ular bevosita kulgi qo’zg’atadi. Misol uchun, "Mitti demang bizni, ko’tarib uramiz sizni", "Chumchuqdan qo’rqqan tariq ekmaydi" kabi maqollarda yumor kuchli tasvirlangan. Bundan tashqari faqat yumoristik va satirik holatni ifodalay turib, maqollar kinoya tarzida beriladiki, bunda ular xalqimiz satira va yumorining turli xil ma’nolarini ifodalaydi: *"Qurnoqdan chiqqan bulbul", "Ola qarg’aning yurishini qilaman deb, chumchuqning buti yirtilgan ekan", "Tanacha ko’zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi"*kabi maqollar. Adib ba’zi o’rinlarda asar tilini boyitish uchun, uning ohangdorligini ta’minlash uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan maqol va iboralarni o’zgartirib qo’llaydi. Masalan, xalqimiz tomonidan tez-tez uchrab turadigan *"To’nini teskari kiyib olmoq"* iborasi adib tomonidan silliqqina o’zgartirilgan: *"Tepa to’nini teskari kiygan payt"* tarzida.

Agar e’tibor beradigan bo’lsak, bu yerda *"Tepa"*so’ziga urg’u berilgan. Xalqona iboraga tepa so’zining qo’shilishi hamma bilan urishaveradigan, janjalkash va o’jarlik kabi kishiga xos bo’lgan holati ochib berish uchun qo’llanilgan. Maqol va iboralar asar tilining xalqchilligini oshiradi, uning real ekanligini va badiiyatini yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Asarni chinakamiga insoniyatga yaqinlashtiradi. Sababi haqiqiy xalqona ifodalangan sof va samimiy tuyg’ular umrbod yashaydi. Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, Said Ahmad faqat personajlar yoki qahramonlar nutqidagina emas, balki muallif nutqida ham ana shunday jozibador, yumorga boy bo’lgan maqol va iboralardan foydalangan. Muallif nutqining shiraliligini ta’minlagan bu maqol v aiboralar shubhasiz kitobxonni samimiy kulgisiga sabab bo’ladi. Lekin muallif nutqiga nisbatan personajlar tilida qo’llangan xalq og’zaki ijodining noyob durdonalarida yumoristik kulgining bo’yog’i yaqqol ko’rinadi. Misol uchun " Kelinlar qo’zg’oloni" dramasidagi Bashorat nutqida qo’llangan maqolga e’tibor beramiz: "Ishonmagin do’stingga, somon tiqar po’stingga"maqoli Sottiga nisbatan qo’llangan:

Sotti. Hozir issiq suv chapishtirib beraman. Tahoratingizni yangilab olasiz, oyijon.

Bo’ston. Pathalim o’lgur. Shu desangiz...

Bashorat. Suykalmay joning chiqsin!(Hali ham yelkasida dasturxon bilan turgan Nigoraga) Mana shu Sottixon ovsiningizga ehtiyot bo’ling. Aslo sir ayta ko’rmang, darrov sotadi. Ishonmagin do’stingga, somon tiqar po’stingga.[3,392]

Yozuvchi asargiga singdirgan badiiy niyatini o’qirmanga yetkazish uchun maqol, matal, iboralardan tashqari, xalq ertaklari va dostonlari orqali barchamizga yod bo’lib ketgan xalqona mubolag’alar orqali boyitadi. Masalan, loyga butunlay botib qolgan mashinani chiqarishga yordamlashgan yigitlarni "Har yigitlarki, yelkasida to’rttadan kishi o’tirsa bo’ladi", deb ta’riflaydi. Lekin bu azamat polvonlar beshtasi bir bo’lib, mashinani botqoqlikdan chiqarishadiki, ushbu holatdagi kulgi do’stona yumorning ko’rinishlariga xizmat qiladi. Bu kabi mubolag’alar, bir tomondan kulgi keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, tasvirlanayotgan qahramonni jonli ifodalaydi. Adibning ana shunday buyuk mahorat egasi edi.

Ustozlarining tog’day ishonchini qozonishga muvaffaq bo’lgan adib yumordan keng foydalanishda o’ziga xos va mos bo’lgan uslubni yaratdi. Jonli xalq tilidan unumli foydalana olish qobiliyatiga ega bo’lgan adibning asarlari, aynan, xalq og’zaki ijodi bilan sug’orilganligi uchun ham u dillarga, xalq qalbiga yaqin va hamohang. Uning yumori mana shu orqli xalqqa yaqinlashdi. Asarlarining ta’sir kuchi ortdi. Bularning zamirida adib aslo eskirmaydigan o’zbekona milliy kulgini yaratdi. O’zbek hajviyotiga sermazmun yumorni olib kirdi. Va uni mukammal tarzda boyitishga harakat qildi. Bu kulgi adib uslubi va tabiatini yorqin namoyon etuvchi ko’zguga aylandi. Uslub va tabiatini belgilab beruvchi omillardan biri bo’lib shakllandi. Ayni shu kulgi vositasida muhim ijtimoiy-axloqiy masalalarni o’rtaga tashlash va hayotning barcha haqiqatlarini aytish mumkin bo’ladi. Said Ahmad esa chinakamiga bunga erishdi. Kulgini chin san’at darajasiga olib chiqdi. U o’z ijodi orqali bunga erishdi. Shu sababdan ham uning asarlarida samimiy lirizm bilan quvnoq komizm birlikda ifodalanadi. Ular bir-birini doimo to’ldirib turadi. Va albatta hayotni teran va boy, mukammalroq aks ettirishga yordam beradi. Yozuvchining ijodi xalq bilan chambarchas bog’liq bo’lgan doim. Adib xalqning zukko, bilimdon, topqirligidan keng foydalanganiga asarlari orqali guvoh bo’lamiz. Folklor asarlariga xos bo’lgan san’atkorona til usublaridan , beqiyos tasviriy vositalardan, mukammal badiiy shakldan oqilona ishlatgan adibning o’zi ham ulardan bahramand ekanligidan dalolat beradi. Mana shunuing uchun ham uning asarlari qo’ldan tushmaydi va haligacha sahnalarda ijro etiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. 2008. 50-bet
2. S. Ahmad. Ufq.Trilogiya. –T.:Sano-standart, 2019. 51-bet
3. S. Ahmad. Saylanma, 3-jild. Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti. 2008. –B.392
4. G' Gulom. Mukammal asarlar to'plami.11-tom. –Toshkent.,1989
5. Sharofiddinov O.Said Ahmad san'ati//Xalqning ardoqli adibi.
6. Sharofiddinov O.Xalq sevgan adib. Said ahmad. Tanlangan asrlar. –T.: Sharq, 2010
7. Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni. –T.: 1976. www.ziyo.uz.com kutubxonasi.
8. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. –T.:Sharq, 2000.
9. Said Ahmad ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati va zamonaviy o'zbek adabiyoti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.Toshkent.:2020

"DEVONU LUG'ATIT-TURK" ASARIDAGI TOPONIMIK TERMINLAR TURKOLOG OLIMLAR NIGOHIDA

TOPONIMIC TERMS IN THE WORK "DEVONU LUG'ATIT-TURK" FROM THE VIEWPOINT OF TURKOLOGY SCIENTISTS

Ahmadjonova Maftuna Alijon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
maftuna.ahmadjonova96@gmail.com

Annotatsiya. *"Devonu lug'atit-turk" nafaqat birinchi turkcha lug'at, balki turk tilining birinchi grammatika kitobi, turli turk qabilalarining tillari haqida ma'lumot beruvchi birinchi dialektologik tadqiqot, turk geografiyasi haqida ma'lumot beruvchi birinchi turk qomusidir. Qoraxon davlatining boy geografik muhiti, toponimlarga boyligi mamlakat va sharqni bir-biridan ajratib turdi. Toponimlarning shakllanishida ko'plab lingvistik va ekstralingvistik omillarning roli bir qator toponimikaga oid maqolalar va dissertatsiyalarni o'rganish orqali aniqlandi. Maqolada devondagi bir qator eng qiziq toponimlar (Qishloq terminlari, Ko'l atamasi ishtirokidagi toponimlar), geografik nomlar yig'ish, ularning kelib chiqishini oydinlashtirish, bir qator sabablar tufayli nomlarni almashtirilish sabablari, ularning ma'nosini oydinlashtirish va aniqlash ushbu maqolada oldinda turgan vazifalardan biridir. Maqolada asarda keltirilgan toponimlarning tarixiy taraqqiyoti haqida so'z yuritiladi, bosqichlari oydinlashtiriladi, etimologik tahlil qilinadi, ma'nolari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.*

Kalit so'zlar: *"Devonu lug'atit-turk", tadqiqot, maqola, qoshg'ariyshunoslik, toponimika, devon, qishloq.*

Abstract. *"Devonu Lugatit-Turk" is not only the first Turkish dictionary, but also the first grammar book of the Turkish language, the first dialectological study providing information on the languages of various Turkish tribes, and the first Turkish commune providing information on Turkish geography. The rich geographical environment of the Karakhan state, the wealth of toponyms separated the country from the east. The role of many linguistic and extralinguistic factors in the formation of toponyms was determined by studying a number of articles and dissertations on toponymy. In the article, a number of the most interesting toponyms in the devan*

(village terms, toponyms with the participation of the lake term), collecting geographical names, clarifying their origin, the reasons for changing names due to a number of reasons, clarifying and determining their meaning are among the tasks ahead of this article. is one. The article talks about the historical development of the toponyms mentioned in the work, explains the stages, etymological analysis, comments on their meanings.

Key words: *"Devonu Lugatit-Turk", research, article, Kashgari studies, toponymy, Devon, village.*

“Devonu lug‘atit-turk” oddiy turkcha-arabcha lug‘at emas, bu yerda turkcha so‘zlarning ma'nolari va izohlari arab tilida berilgan. XI asrning eng mashhur yodgorligi “Devonu lug‘atit-turk” qadimgi turklarning hayoti, turmush tarzi, o‘yin-kulgilari, moddiy va ma’naviy sivilizatsiyasi, diniy dunyoqarashi va hokazo. Shuningdek, u aloqalar, ularning maxsus nomlari tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy terminologiyasi haqida qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etadi. Shunga ko‘ra, Mahmud Qoshg‘ariy haqida so‘z yurituvchi turkologlar uni tilshunos, tarixchi, etnograf, shuningdek, geografik deb ataydilar [Кононов А.Н. 1973 b. 3-9].

Qashqarlik Mahmudning o‘z asarida qo‘llagan uslubi jihatidan arab tilshunosi Ebu Ibrohim Ishoq ibn Ibrohim al-Farobiyning “Devan al Edeb fi Beyan Lug‘at al-Arab” asari bilan juda o‘xshashligi olimlar orasida muhokama qilinsa-da, bu haqiqat e’tibordan chetda. Asarning va uning muallifining umumiy turkologiya nuqtai nazaridan bahosi, uni bajarishga majbur qiladigan turi emas [J. Kelly (1971), s. 132-136].

Asar turk tilini bilmaydiganlarga o‘rgatish va turk tilining qudratini isbotlash maqsadida yozilgan “Devonu lug‘atit-turk” bugungi ma’noda amaliy tilshunoslik usuliga asoslanadi. Ya’ni maqol, ibora, she’r, rivoyat, doston kabi qisqa matnlar bilan nafaqat so‘zlarning ma’nolari berilgan, balki turkiylarning madaniy qadriyatlari ham tushuntirib berishga harakat qilingan. Bundan tashqari, zarur hollarda muhokama qilinayotgan so‘zning til xususiyatlari tushuntirilib, ularning turli turk qabilalari o‘rtasidagi aks-sadolari ham ifodalanadi. Shu sababli, “Devonu lug‘atit-turk” nafaqat birinchi turkcha lug‘at, balki turk tilining birinchi grammatika kitobi, turli turk qabilalarining tillari haqida ma'lumot beruvchi birinchi dialektologik tadqiqot, turk geografiyasi haqida ma'lumot beruvchi birinchi turk qomusidir. Qavmlar, so‘zlarga berilgan namunali jumlalar bilan yozilgan davrning turmush tarzi misollar orasida turkiy adabiyotning turli janrlarida she’r, matal, doston va rivoyatlar bilan qoraxoniylar davri va undan oldingi davrni aks ettiruvchi antologiyadir. [Abdulahad Nuri 1334-1339 (1918-1923)].

“Devon”dagi toponimik birliklardan keyin shahar, ko‘l, daryo, soy va hokazolar hamda geografik atamalar ham kiritilgan.

Qishloq atamasi ishtirokidagi toponimlar: Çimkend = «kend» geografik atamasi Chim nomi fonida ishlatiladi. Inchkend = Karqiyasi = Vecheli ismli odamga ergashganlar shahri. Ordukend = Qashg‘ar shahrining boshqa nomi. Özkend = Farg‘ona shahrining boshqa nomi. Bu toponimning “Ozchent\\Özcend” variantlarini “Devon”da ham uchratish mumkin; Samarqand\\Semizkend = mashhur shahar nomi; Tünkend = turkcha qo‘lda shahar nomi. Udhu kend = shahar nomi; Yarkand = shahar nomi; Yenkend= shahar nomi.

Ko‘l uchli toponimlar. Siding köl = Kochngarga yaqin ko‘l nomi; Yulduz ko‘l = Küche, Kindut va Uyg‘urlar chegaralaridagi ko‘l nomi; Körnğ köl = Qashg‘ara yaqinidagi ko‘l nomi;[*C.KAZIMOV 2007, 159-164*]

V. A. Juchkevich fikricha, har bir tarixiy davr o‘zining “toponimik lug‘atlari” bilan tavsiflanadi. Ularning moddiy-ma’naviy hayoti va hududiy assimilyatsiyasi jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy bosqichida shakllangan toponimlarda mavjud. “Tilshunoslikning

hozirgi taraqqiyotida tarixiy yo‘nalishda onomastik leksika bo‘yicha tadqiqotlarga bo‘lgan talabni yanada oshirish zarur” [*Qurbanov A.*1988].

Turkologiyada tarixiy onomastika muammolarini o‘rganish uchun turli tarixiy manbalar, yozma yodgorliklar, lug‘atlar va boshqalar katta va boy materiallarni berishi mumkin. Tarixiy onomastikaning eng izchil manbasi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asaridir.

“Devon” tarixiy onomastik birliklarning buyuk xazinasi; Bu borada ko‘plab olimlarning tadqiqotlari borligini yetarli deb bo‘lmaydi. Besim Atalay ta’kidlaganidek, “Devon” ustida vaqti-vaqti bilan yuzlab tadqiqotchilar ish olib boradilar va bor kuch-g‘ayratini sarflab, yangi tana yaratadilar [Besim Atalay. 1985].

Ayniqsa, “Devon”da shaxs va yer nomlari qo‘shimcha e’tibor talab qiladi va tadqiqotchi tomonidan kuzatiladi. Bu asarni yozish uchun turk dunyosini bosqichma-bosqich kezib, ko‘plab so‘z va ismlarni to‘plagan. Abi, Alp aya, Alp Ər Tonqa, Alp tegin, Betzən, Boğra Kara xon (antroponimlar), Bəgdili, Bulak, Başgirt, Bayat, Oguz (etnonimlar), Buxara, Artuç, Besh, Barçan, Jan baliq (toponimlar), Ila, Ishig köl, İtil, Sidhinq köl, Taman (gidronimlar) va boshqalar.

“M.Qashg‘ariyning lug‘ati adabiyot jihatidan juda boy. Bu yerda turkiy tillarga xos so‘zlar va ularning semantikasi haqida to‘liq va batafsil ma’lumotlar berilgan. So‘zlar yozib olinib, uning texnik izohi berilganda leksik birlikning qaysi tilga mansubligi, qanday ishlov berilganligi ko‘rsatiladi. “Lug`at tarkibiga kirgan barcha so`zlar inson faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi”[*Qurbanov A*1989; 98-bet]. Bu masalaga oydinlik kiritish uchun, avvalo, qoraxonli turklarning madaniyati va muhiti, ularning onomastik tizimi bilan tanishish lozim.

Bu davr haqidagi asosiy ma’lumotlarni Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni”, Yusuf Bolosog‘uniyning “Qutadg‘u bilik”i va boshqa davr yodgorliklaridan olish mumkin. Qaraxonli davlati islom davlati edi. Qashqar bu davlatning markazi hisoblangan. Mahmud Qoshg‘ariy davrida Qoraxonli zaminidagi maxsus nomlar qadimgi turk onomastika tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu jihatdan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”i tirik qomusiy asari bo‘lib, o‘sha davrda topilgan onomastik birliklarga boydir [*Axundov A.* 1983;6–11].

Qoraxon davlatining boy geografik muhiti, toponimlarga boyligi mamlakat va sharqni bir-biridan ajratib turdi. Qorabiy Qoraxon davlatining Movaraunnahr viloyati, Farg‘ona vodiysining bir qismi, Zarafshon oqimi bo‘yidagi Buxoro va Samaraqand, Farob (boshqa nomi: O‘tror), Hindiston shaharlari daryoning yuqori oqimi, uning sharqida O‘sh va O‘zkend (O‘zchend) o‘z ichiga olgan. Poytaxt dastlab O‘zkənd, keyin Samarqand deb atalgan, birinchi bosqich bu shaharlarda, ikkinchi bosqich Buxoroda yashagan.

“Sharqiy Qoraxonlar davlati Shash, yoki Chach (keyinchalik nomi: Dashkend), sharqida Talas, shimolda Isficab (Chimkend), Yettisuv viloyati, Farg‘ona vodiysining katta qismi, Qorag‘olga tushadigan Kashg‘ar soyi bo‘yidagi qishloq yoki uning janubida Qashg‘ar, Yurdud, Issiqko‘lundan oqib o‘tuvchi Chu soyida joylashgan Quz-O‘rdu, unga yaqin Yoxud Balasag‘un, Qora-O‘rdu, Ili daryosi bo‘yida Olmaliq. Balxash ko‘li, janubi va sharqida Cunqariya dashtlari, Ala ko‘li, Irtish oqimi, Tekla-Makan cho‘li, cho‘lda joylashgan Xotan shahri yaqinida Hindush va Qorakorum tog‘lari oralig‘idagi Gilgit shahrini o‘z ichiga olgan. Mamlakatning asosiy markazi Qashg‘ar, ikkinchi markazi Bolosog‘un, keyingi markazi Talas bo‘lgan. “Qutadğu bilik” va “Devon” yozilgan davrda poytaxt Qashg‘ar edi” [*Dilaçar A* 1995;17].

Mahmud Qoshg‘ariy o‘z asarida toponimik hududlarni aniqlashtirish maqsadida qadimiy shaharlar, ko‘llar, soylar va boshqa yerlarning nomlarini xaritaga tushirgan. Bu materiallarni xaritaga qo‘yishdan oldin turli manbalardan toponimlarni to‘plab, tizimga chiqargan va o‘z lug‘atini tayyorlagan. Buning uchun u dastlabki tamoyildan foydalandi. Toponimik yer o‘qi ko‘payib, kengayib borishi bilan buyuk geograf ma'lum bir qattiq aks ettiruvchi xaritani tuzgan.

Demak, Qoraxon davri toponimik tizimi, jumladan, toponimlarning chekka kengayish nuqtalarini bog‘lovchi izoglosslar haqida to‘liq ma’lumot berish mumkin edi. Bundan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, M.Qoshg‘ariy ham toponimist olim singari lingvistik geografiya (areal metod) usulidan unumli foydalangan va toponimik ob’ektlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklarni nisbatan bartaraf etgan.

“Devon”da berilgan dunyo xaritasi yer toponimlarini aks ettirgani bilan katta ahamiyatga ega. Bu birinchi turk xaritasi va o‘rta asrlarning eng qadimgi xaritalaridan biridir. Bolosog‘un shahrini markaz qilib olgan va diametri 17,75 sm bo‘lgan ushbu xaritada hech qanday tekislash qo‘llanilmagan, parallellar va meridianlar ko‘rsatilmagan. Ammo bundan qat'iy nazar, uning xato chegarasi juda kichik. Masalan, Qashqar bilan Yorkandin o‘rtasidagi masofa 8 mm qilib berilgan. Bu haqiqiy masofaga (195 km) 1:25 000 000 nisbatiga to‘g‘ri keladi. Bu yerda urushlar va geografik yo‘nalishlar, turk qo‘llari va davlatlarining geografik ketma-ketligi, hatto ekvator va shimoliy qutb, tog‘ va soylar, cho‘l va dengizlar tasvirlangan. Xaritada Arzi-Azharobodqon nomi bilan chizilgan Ozarbayjonning geografik joylashuvi va unga qo‘shni viloyatlarning ham o‘z nomi bor. Bu xaritani oldingi yil uchun ideal deb hisoblash mumkin [C.Kazimov 2008;90-96].

Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devoni”da onomastik birliklarni “Yaxshi otlar” deb atagan. M. Shokir Ülkütashir bu mavzu haqida so‘z yuritar ekan, “Devon”da to‘plangan ma’lumotlar orasida til va sheva darajalaridan tashqari o‘sha davr turkiy toponimlariga (joy nomlariga) mansub bo‘lganlar ham turkiy til nuqtai nazaridan muhim ekanligini yozadi. Avvalo, Mahmud Qoshg‘ariyning buyuk saltanati natijasida XI asrdagi turk dunyosining geografik-toponimik holati rasmiylashtirildi. Mahmud Qoshg‘ariy o‘zi o‘rgangan yerlar va o‘zi ishlatgan asarlarga tayangan holda arab va eron manbalaridagi onomastik birliklar va geografik ma’lumotlarni yozgan va sharhlagan. Ulug‘ turkiy ma’lumotlarga baho berish va o‘quvchilarni ishontirish uchun yuqorida ta’kidlanganidek “Devoniy”ga turkiy xaritani qo‘shishni ham unutmagan va shunga ko‘ra, to‘qqiz asrlik turk geografiyasi va toponimikasi Mahmud Qoshg‘ariy bo‘lish sharafiga muyassar bo‘lgan qarorida yetakchi [C.Kazimov 2008;90-96].

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni”dagi joy nomlari mohiyatan u tuzgan xaritada o‘z aksini topadigan joy nomlaridir. Umuman olganda, turli ob'ektlarga bir xil nom berish o‘sha davr toponimik birliklari uchun asosiy xususiyat hisoblangan. Masalan, keyingi asrlarda Xorazm viloyatida olib borilgan qazishmalarda buyuk toponim og‘zaki ravishda olgan Ayas cho‘ri nomini qolganlar nomiga bergan.

Qoraxoniylarning eng muhim ilmiy va fuqarolik markazlari Samarqand, Buxara, Forob, Shosh, Balasag‘un va Qashqar edi. M.Qoshg‘ariy ayrim masalalarni kishi nomlari lug‘atida tez-tez tilga olish orqali ma’lumotlar beradi. Eron xalqi ilgari Marakanda nomi bilan atalgan Samarqand aholisining xilma-xilligini shakllantirgan. Shaharda ko‘plab turklar yashagan.

Chach - zamonaviy Dashkindinning eng qadimgi ismi. Ularning tilida uchta tovush bo‘lmagani uchun arablar uni Shash deb yozishgan. “Shashkend” keyinchalik Dashkendega tarjima qilingan. Qizig‘i shundaki, Xitoy manbalarida shahar nomi Çö-Çi, Çö-Şi yoki oddiygina Shi, ya’ni xitoycha tosh degan ma’noni anglatadi.

Qashg‘ar shahrining tarixiy nomi Ordu-kend. Bu ism uning poytaxt ekanligidan dalolat beradi. Qadimgi Xitoy hududlaridagi shaharning nomi Solek yoki Sorak, xitoycha transkripsiyasi Su-lek, hozirgi xitoycha nomi Sufu, transkripsiyasi Ku-sha yoki Ka-sha. Hozir Qashqar Otadog‘dan oqib o‘tuvchi Qizilsu oqimining irmog‘i bo‘lgan Tumulining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Ko‘hna Qashg‘ar biroz uzoqroqda tepalikda qurilgan va qalin devorlar bilan o‘ralgan edi. Qadimgi Qashg‘ar xarobalari hozirgacha saqlanib qolgan. Muhim karvon yo‘llari chorrahasida joylashgan. U 76-viloyatdan boshlanadi.

Bolosog‘un o‘rta asrlarda turk dunyosining eng muhim shaharlaridan biri bo‘lgan. Uning printsipi VII-asrda yaratilgan. Uning birinchi nomi Qora-Ordu, Quz-Ordu, Quz-Baliq bo‘lib, turkchada “shimoldagi shahar” ma’nosini bildirsa, so‘qdda “Quz-Ulush” degan ma’noni anglatadi. Mo‘g‘ullar uni Gu-Baliq (guo — mo‘g‘ulchada «ko‘z» degan ma’noni bildiradi), arablar esa Biladi-Sagun (bilad — qarija — «ölkə», «Səhər») deb atashgan. Sagun shahri mo‘g‘ul tilida “qala” degan ma’noni anglatishi mumkin [C.Kazimov 2008;90-96].

“Devon”da tasvirlangan shahar nomlarining asosiy belgilari sifatida ko‘pliklarni ko‘rish mumkin. Masalan, bitta shaharning besh xil nomlanishini ko‘rish mumkin. Turkistondagi Asbicab nomli shaharga ham Isbicab, Sayram, Sayzam, Chimkent nomlari berilgan. Toshkent shahrining ham ikkita nomi bor: biri Shash, ikkinchisi Terken. Yana Balasagun shahrining ikki nomi bor: Kuz Ordu va Kuz Ulush [C.Kazimov 2008;90-96].

“Devon”da tasvirlangan shahar nomlarining yana bir elementi multivariantdir. Masalan, Kochu shahrining uchta variantiga e'tibor qaratamiz: Koche, Küche, Kuşen. Taraz shahrining Talas va Tiraz variantlari ham uchraydi. Xuddi shu shahar nomining o‘ziga xos belgisi ko‘rsatilgan. Masalan, Talas shahrining Talaş, Kichi, Kumi kabi lug‘aviy elementlar o‘zini namoyon qiladi[C.Kazimov 2008;203-207].

Mahmud Qoshg‘ariy “Devon”da tasvirlagan ayni toponimik birlikning etnolingvistik tamoyillarini oydinlashtirib, toponimik tizimlarning quyi va yuqori tizimlarini o‘zaro munosabati tarixini Cahid Kazimov yoritib berdi.

Mahmud Koshg‘ariy xaritasida berilgan shahar nomlari faslga qarab turlicha bo‘lgan. Bir ma’lumotga ko‘ra, “Qoraxonli xonimlar qishda Qashg‘arda, yozda Bolosog‘unda yashagan. Lekin haqiqiy poytaxt Qashg‘ar edi. Shu sababdan Qashg‘arni Ordu-Kənd deb atashgan” [*E.Bug‘ra 1987;*179-bet].

Ahmet Caferog‘lu shunday deb yozadi: "Mamlakatning asosiy joylariga xos bo‘lishi uchun geografik iboralar va joy nomlari e'tiborga olingan. Ba’zi joy nomlari “Devoniy”ga kiritilgan bo‘lsa-da, negadir ular xaritada ko‘rsatilmagan [*A. Caferoğlu 2004;* 41-bet].

Asarning asosiy ma'nosi - turkiy tillar Kamusu; Bu kitobning eng qimmatli boyliklaridan biri bu yerdagi onomastik birliklar to‘plamidir. Bu qadimgi turkning o‘sha davrdagi geografik holatini o‘rganish juda muhim.

Mahmud Qoshg‘ariy turk olami bo‘ylab ko‘p kezgan, ulug‘ go‘zalliklarni boshdan kechirgan va turkiylarning tarixini bir joyga to‘play olgan: “Turklarning barcha viloyatlari, qarorgohlari, dashtlari bir joydan ikkinchisiga sarson bo‘ldim”. Turk, turkman, o‘g‘uz, chigil, magan va qirg‘iz qabilalarining til va qofiyalarini ongimga to‘liq muhrlab qo‘yganman, shunda har bir qabila urg‘usi eng mukammal tarzda yuzaga kelgan” [*Genç R.1977;* 53-bet].

“Devon”dagi onomastik birliklarning tarixiy-etimologik tahlili qadimiy substratlarni ochish imkonini beradi va toponimlarning tobelanish imkonini beradi. Ijtimoiylashuvda onomastik birlik qaysi xalqqa tegishli ekanligi ayon bo`ladi. Tekshiruvlar shuni ko‘rsatadiki, barcha qadimgi turk toponimlarida semantika, ko‘plab qadriyatlar integratsiyalashgan. Tarixiy-etimologik o‘rganish orqali ko‘pgina topologik atamalarning aniq ma’nolari semantik tamoyil asosida ochiladi.

Tadqiqotlar natijasida turk xalqlarining etnik tarixi, boshqa xalqlar bilan munosabatlari, tarixiy-fuqarolik munosabatlari, etnogenez masalalari ham tarixiy onomastik birliklar asosida o‘rganilib, ma’rifatga ega bo‘ladi. Etnogenezni o‘rganish orqali “Devon”da etnonim va etnotoponimlarning paydo bo‘lish sabablarini oydinlashtirish mumkin. Bu sohadagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘lkalar toponimlarida o‘ziga xos qarama-qarshilikni topgan turk qabilalari faqat mahalliy aholi bo‘lishgan. Buni keyingi tadqiqotlar, ayniqsa, arxeologik qazishmalardan olingan materiallar ham tasdiqlaydi. Biroq tarixning turli davrlarida arab, mo‘g‘ul va eron

qabilalari ham bu yerlarga bostirib kirgan va bu davrda etnokomponentlarda ma’lum o‘zgarishlar ro‘y bergan, ya’ni etnik tarkib “yangilangan”.

Xulosa qilib atadigan bo‘lsak nihoyat, “Devon”dagi onomastik birliklarni o‘rganish tarixiy leksikologiya va tarixiy morfologiya muammolarini ana shu nuqtai nazardan hal etish mumkinligini ko‘rsatadi. “Devon”dagi onomastik birliklarning tarixiy-etimologik tahlili qadimiy substratlarni ochish imkonini beradi va toponimlarning tobelanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Kelly, On defining Dhÿ ath-ThalÀthah and Dhu al-Arba’ah”, *Journal of the American Oriental Society* 91/1 (1971), s. 132-136.
2. Divanu Lugati't-Türk, 'Atabetü'l-Hakayık, Divan-ı Hikmet Ankara Üniversitesi Açık Ders Malzemeleri 15 November 2017, 12:32 PM
3. Abdulahad Nuri, *Atalar Sözi*, İstanbul / Kastamonu 1334-1339 (1918-1923).
4. *Kitabu Dìvanu Lugati’t-Türk*, C.I, İstanbul 1333 (1917); C. II, İstanbul 1333 (1917), C.III, 1335 (1919).
5. C. Brockelmann, *Mitteltürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kaşgarìs Dìvan lugat at-türk,* Bibliotheca Orientalis Hungarica I, Budapest-Leipzig 1928.
6. D. Dilçin, *Arap Alfabesine Göre Divanü Lûgat-it-Türk’ün Dizini,* Ankara 1957.
7. *Divanü Lûgat-it-Türk Dizini,* Ankara 1972.
8. *Dîvânü Lûgati’t-Türk. Tıpkıbasım*, Kültür Bakanlığı Yayınları:1205, Ankara 1990.
9. *Mahmud Kaşgariy. Türkiy Süzler Devani (Devanü Lugatit-Türk)*, Özbekistan SSR Fanlar Akademiyasi, I. Tom, Taşkent 1960; II. Tom, Taşkent 1961; III. Tom, Taşkent 1963.
10. *Devanü Lugatit-Türk. İndeks-lugat,* Taşkent 1967, s. 1-405.
11. K. Mahmutov, “Grammatik kürsatkiç-Grammatiçeskiy ukazatel”, *Devanü Lugatit-Türk. İndeks-lugat,* Taşkent 1967, s. 406-476. Ş. Şükürov, “XI. Asr eski Türk tilining grammatik oçerki”, *Devanü Lugatit-Türk. İndeks-lugat,* Taşkent 1967, s. 477-541.
12. *Mehmut Qeşkeri, Türki Tillar Divani*, I. Tom, Urumçi 1981; II. Tom, Urumçi 1983; III. Tom, Urumçi 1984.
13. *Maòmud Kaşkari. Türik Sözdigi*, (Avdargan: A. K. Egebayev), I. Tom, Almatı 1997; II. Tom Almatı 1997; III. Tom Almatı 1998.
14. *Mahmud al-Kaşgarì, Compendium of the Turkic Dialects (Dìwan Lugat at-Turk)*, Part I, Harvard 1982; Part II, Harvard 1984; Part III, Harvard 1985.
15. Джанузаков Т.Д. Основные проблемы ономастики казахского языка. Автореф дис. … д-ра филол. наук. Алма-Ата, 1976.
16. Кононов А.Н. Изучение «Дивану лугат-ит турк» Махмуда Кашгарского в Советском Союзе\\ «СТ», 1973.
17. *C.KAZIMOV,* MAHMUD KAŞĞARLININ «DİVAN»INDA ONOMASTİK TERMİNLƏR *Bakı, “Elm”, 2007, səh.: 159-164.*
18. *Жучкевич В. А.* Общая топонимика. Вышэйш. шк., Минск: 1968.
19. *Qurbanov A.* Azərbaycan dilinin onomalogiyası. Maarif, Bakı: 1988.
20. *Qurbanov A. M.* Ümumi dilçilik. Bakı: Maarif, 1989. Pedaqoji institut üçün dərslik.
21. *Axundov A.* Torpağın köksündə tarixin izləri. Bakı, 1983.
22. *Dilaçar A.* Kutadğu Bilig İncelemesi. Ankara: TDK yay., 1995.
23. *Emin Muhammet Buğra.* Şarki Türkistan tarihi. Ankara, 1987.
24. *C.KAZIMOV,* MAHMUD KAŞĞARİ VƏ TARİXİ ONOMASTİKA MƏSƏLƏLƏRİ *Bakı, “Elm”, 2008, səh.:90-96.*

25. *Genç R.* Kaşgari Mahmuta göre XI yüzyılda Türk dünyası. Ankara, 1977.
26. *Ahmed Caferoğlu.* Kaşğarlı Mahmut. İstanbul, 2004.
27. *C.KAZIMOV,* KAŞGARLI MAHMUT'UN "DİVAN"INDA ŞEHİR ADLARI (ÇOK ADLILIK MESELELERİ) *Sayı / Number: 15, Ağustos / August 2008, Türkiye / İzmir, s. 203-207.*
28. *Google.com*
29. *Ziyo.net*
30. Wikipedia.org.

JANUBI-SHARQIY ANDIJON SHEVALARINING O'ZIGA XOS LEKSIK XUSUSIYATLARI

SPECIFIC LEXICAL CHARACTERISTICS OF SOUTHEAST ANDIJAN DIALECTS

Vazira Alimbekova
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Ma'lumki, shevalar xalqning o'tmishini, urf-odatlarini, qadriyatlarni yodga solib turuvchi manbadir. Aynan shu xususiyatlari uchun ham shevaga ona tili, milliy tilning asosi kabi sifatlashlar berilgan.

Shubhasiz, o'zbek shevalarini o'rganishda birgina tasviriy-tavsifiy jihatdan emas, balki aniq tarixiy-etimologik, turkiy va boshqa tillarning faktik elementlari asosida qiyosan tadqiq qilinishi va shu nuqtayi nazardan baholanishi ko'plab tarixiy-lingvistik, dialektologik, lingvogeografik, areologik va hozirgi adabiy tildagi nazariy va amaliy muamolarning yechimini topishda juda katta yordam beradi [Aliyev 2022:118].

Andijon hududi ham uzoq o'tmishdan buyon turkiy tilning rivojlangan o'choqlaridan biri bo'lib kelganini biz ushbu hududda[1] yashab ijod etgan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan meroslaridan bilishimiz mumkin. Ushbu hudud shevasi o'zining leksikasi, fonetikasi bilan boshqa hudud shevalaridan farq qiladi. Andijon shevasi S.Ibrohimov, A.Mamatovlar tomonidan o'rganilgan. Shunday bo'lsa-da, o'rganilishi, tahlilga tortilishi kerak bo'lgan o'rinlar talaygina.

Janubi-sharqiy Andijon shevalari o'zbek shevalarining kichik bir bo'lagi sifatida umumo'zbek shevalarining leksik strukturasidagi mavjud unsurlarning o'xshashligi kuzatilsa-da, biroq ayrim o'rinlarda leksik-semantik jihatdan farq qiladigan o'rinlar bor. Quyida hududda qo'llanuvchi oziq-ovqat nomlari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan leksik birliklar tahlilga tortildi. Janubi-sharqiy Andijon lingvoarealida leksik o'ziga xosliklar mavjud, ularni quyidagicha tahlil qilamiz:

1. Oziq-ovqat nomlari.
2. Oziq-ovqat bilan bog'liq bo'lgan so'zlar.
3. Adabiy til va yondosh shevalar bilan sinonimlikni hosil qiluvchi so'zlar.
4. Adabiy til uchun lakunar ayrim birliklarning shevadagi dialektal nomlari.

Oziq-ovqat nomlari:

Xunān (*xunon)* xamirni yoyib, ichiga qiyma solib pishiriladigan ovqat turi [Farmonov 1961:184]. Andijonning Abdullabiy, Progress, Qizilto'qay qishloqlarida **orämä** (*o'rama)* deb ham yuritiladi. Yurtimizning boshqa hududlarida hamda izohli lug'atda ushbu taom **xānim (***xonim)*

[1] Andijon viloyatining Jalaquduq, Xo'jaobod, Qo'rg'ontepa hududlari

[O‘TIL, IV tom 412] deyiladi. Izohli lug‘atda ham *o‘rama* so‘zi berilgan bo‘lib, ammo lug‘atda “yoyilgan yupqa xamirni kesib, o‘ziga xos shaklda yog‘da qovurib tayyorlangan taom” **[Izohli lug‘at, 161]**ni atab kelgan.

Pöškäl (*po‘shkal)* qatlamaga o‘xshab yupqa qilib yoyilib ichiga ozroq masalliq solib qozonda pishiriladigan ovqat. I. Farmonov tadqiqotida *po‘shkal* so‘zi “nonning juda yog‘siz turi, qozonda pishiriladi” deb ta’riflagan. [Farmonov 1961:178]

Qāqïrïm *(qoqirim)* shamollashga qarshi ho‘plab ichiladigan taom. Ushbu taom qatiq, piyoz, murch, sariyog‘, ta’bga ko‘ra qalampir, tuz va qaynagan suvdan tayyorlanadi. Zulxumor Xolmonova “O‘zbek shevalarining lakunar birliklar lug‘ati” kitobida ushbu taomni **qaqurüm (***qaqurum)* tarzida beradi. [Xolmonova 2022:100].

Laz (*laz)* qish uchun konservalanadigan oziq-ovqat turi. Qizil bulg‘or qalampiri go‘sht maydalagichdan chiqariladi, ta’bga ko‘ra pamidor ham qo‘shib qozonda qaynatiladi. Ushbu mahsulot Andijonning Baliqchi, Ulug‘nor tumanlarida **läzi** (*lazi)* shaklida qo‘llanadi.

Šäkärāp (*shakarob)* leksemasi Andijonda oshga qo‘shib yeyiladigan pamidor va piyozdan tayyorlanadigan salatning bir turi bo‘lib Toshkent shahrida aynan shu mahsulotga nisbatan *achchiq-chuchuk* leksemasi qo‘llanadi. Janubi-sharqiy Andijon hududida qish uchun sabzavotlardan tayyorlangan konserva mahsulotlari ham **xāmšäkärāp** (*xomshakarop)* (yog‘siz), **qö:ürmä šäkärāp** *(qo‘urma shakarob)* deb ataladi.

Xalqimiz orasida nonning ham turlari juda ko‘p. Ular nomi, tayyorlanish uslubi va mazasi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, Qo‘qon patir, Samarqand non, gijda non, lochira, qozon patir, to‘ntarma, qotirma (Jizzax), tosh non (Surxondaryo) kabi. Janubi-sharqiy Andijonda ham nonlarning boshqa hududlarda uchramaydigan turlari bor.

Kömäč (*ko‘mach)* qozonda yoki o‘tda pishirilgan non. [Xolmonova 2022:73] Ushbu mahsulot nonning bir turi bo‘lib, asosan, Mushkulkushot, Buseshanbi kabi kampirlar marosimida pishiriladi. Shartiga ko‘ra ko‘mach non achitqi solinmasdan irim qilib yettita qo‘shni xonadonlardan tilangan undan tul ayol tomonidan tayyorlanadi. Yoshi ulug‘ momolarning aytishiga qaraganda, ko‘mach nonni faqat tul ayollar va oila qurmagan qizlargina yeyishi mumkin. Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tish joizki, “qovurilgan bug‘doy”ga nisbatan Qashqadaryo shevalarida “ko‘rmach” so‘zi qo‘llanadi[1].

čirik non (*chirik non)* - piyoz, yog‘, ziravorlar solinib pishirilgan non shevada shu nom bilan yuritiladi. Yurtimizning ayrim hududlarida ushbu non *piyoz non* ham deyiladi.

γor-šor *(g‘o‘r-sho‘r)* leksemasi janubi-sharqiy Andijon hududida ho‘l meva va sabzavotlarga nisbatan qo‘llanadi.

Bulamïq *(bulamiq)* suyuq taom bo‘lib, bolalar ovqati hisoblanadi. Un sariyog‘da qizartirib qovurilib sut quyib qaynatiladi. Ushbu taom, asosan, bolalar ona sutidan ajratilganda beriladi. Bulamiq leksemasini Jizzax hududida ham uchratishimiz mumkin, ammo ushbu hududda bulamiq tuxumni un bilan atalash jarayonida yuzaga kelgan aralashmaga nisbatan qo‘llanadi [Umurzoqova 2021:299].

Köptirgi *(ko‘ptirgi),* **xämir türiš** *(xamir turish)* xamirni oshirish uchun solinadigan mahsulot. Xamir ko‘pganda kelasi safar xamir qilish uchun oshirilgan xamirdan olib qo‘yiladi. Ushbu mahsulot adabiy tilimizda *achitqi* [O‘TIL, II tom 122] deb ataladi. Shuning uchun ham shevada adabiy tildagi *xamir oshdi* birikmasi bilan birga *xamir ko‘pdi* birikmasi ham qo‘llanadi. *Köpmaq, xämir köptirmaq (ko‘pmoq, xamir ko‘ptirmoq)* tarzida O‘sh shevasida qo‘llanadi [Farmonov 1960:166].

[1] Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. Тошкент. 1999 – Б 57

Umač āš*umoch osh* ushbu taom ham yuqorida nomi qayd etilgan marosimda pishiriladigan suyuq taom bo‘lib, un va sutdan tayyorlanadi. Ushbu taom yog‘ochdan yasalgan cho‘mich yordamida kosalarga quyiladi. Taom iste’mol qilinganidan keyin idishlar yuvilib mevali daraxt tagiga to‘kiladi. Qashqadaryo shevalarda ushbu taom fonetik jihatdan o‘zgarib “imach osh” tarzida qo‘llanadi[1].

Sutāš *(sutosh)* sut va undan tayyorlanadigan suyuq ovqat. Sut qaynatilib ingichka qilib kesilgan xamir yoki guruch solib tayyorlanadi, ba’zi bir hududlarda ta’bga ko‘ra oshqovoq ham qo‘shiladi.

Tadqiqot ishi olib borilayotgan sheva vakillari nutqida **söl** *(so‘*l) leksemasi ikki xil ma’noda qo‘llanadi:

1. Qo‘yiq ovqatlarga nisbatan suvi ko‘proq bo‘lishiga nisbatan ishlatiladi. *Bugun kečka solli šävlä qilärkämmiz enäm äjtti.*
2. Qovurilgan go‘shtga nisbatan ham ishlatiladi. *Balāŋi sāvuγï āšip ketipti, közini qärä, qoj gošini ālip žindej söl qïber.*

Sujγāš (*suyg‘osh)* xamir yoyilib, mayda soch shaklida kesiladi, huddi mastava singari pishiriladi, lekin guruch o‘rniga kesilgan xamir solinadi. Kesilgan xamirni oftobda quritilib zaxira uchun ham olib qo‘yish ham mumkin.

Keskän āš *(kesgan osh)***, uzmä āš** *(uzma osh)* xuddi osh qilganday masalliqlar solinib qovurib suv quyiladi. Xamir yoyilib, mayda soch shaklida kesiladi va oftobda quritiladi, quritilgan xamir parchalarini quruq qozonda qizdirib, bir marta qovurib olinadi va elab ovqatga solinib, oshday damlanadi.

Nāmpalav *(nompalov)* taomi suvi qochgan va qotgan nondan tayyorlanadi. Go‘sht va barcha sabzavotlar to‘g‘ralib qovurilib suv quyiladi, biroz qaynagach to‘g‘ralgan nonlar qo‘shib o‘n daqiqaga dimlanadi. *Nonpalov* so‘zi non+palov so‘zidan hosil bo‘lgan bo‘lib nutqda fonetik jihatdan o‘zgarib *nompalov* tarzida qo‘llanadi.

Qish kunlarida qattiq sovuq bo‘lganda meva va sabzavotlarni ichiga muz kirib qoladi. Bunday holatni ifodalash uchun adabiy tilimizda *sovuq urmoq* iborasi ishlatiladi. Ushbu shevada bu ibora bilan bir qatorda **üšüg urmāq** *(ushug urmoq)* iborasi qo‘llaniladi. Kärtiškä, sävzlärdi *paxal bilän oräp qojïš, üšüg ürüp ketmäsin. Ettädän čillä kirädi. Qïštï čilläsi heš närsäni äjämäjdi.*

Kälpätir *(kalpatir)* nonning bir turi bo‘lib, achitqisiz xamir qoriladi, xamir yoyilib ichiga qaymoq suriladi, so‘ngra shakl berib tandirda yopiladi. Suyuq taomlar, asosan, sho‘rva bilan yeyish uchun tayyorlanadi.

U(v)uz *(uvuz)* sigir yangi tug‘ganda birinchi sog‘ilgan sutini qaynatib tayyorlanadigan, ko‘rinishi jihatdan tvarogsimon taom. Andijonning ayrim hududlarida **āγiz suti** *(og‘iz suti)* deb ham yuritiladi. Ushbu mahsulot tarkibi foydali moddalarga boy bo‘lganligi sababli bugungi kunda tibbiyotda dori-darmon tayyorlashda ham keng qo‘llanmoqda. Shu mahsulotga nisbatan yurtimizning Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand hududlarida *gilagay* leksemasi qo‘llanadi.

Oziq-ovqat bilan bog‘liq leksik birliklar.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ko‘chma ma’nolari bilan bir qatorda *tortmoq* fe’lining yolg‘iz va boshqa so‘zlar bilan birikkan holda bildirgan yigirmata ma’nosi berib o‘tilgan. Janubi-sharqiy Andijon shevasida ushbu fe’l *sut* so‘zi bilan birga **sut tārtmāq** *(sut tortmoq)* tarzida qo‘llanib sutdan qaymoq olish jarayoniga nisbatan ham ishlatiladi.

[1] Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. Тошкент. 1999 – Б 57

Sïzγïrmāq *(sizg‘irmoq)* leksemasi *sariyog‘* so‘zi bilan birga qo‘llanib qaymoqni olovda qizdirib sariyog‘ olish jarayoniga nisbatan qo‘llanadi.

Jäşäŋ *(yashang)* - ho‘l mevaning va rezavorlarning yangi uzilganiga nisbatan ishlatiladi. Adabiy tilimizda ushbu so‘zning aynan muqobil varianti mavjud emas, shu sababli ham insonlar nutqida bu kabi o‘rinlarda *yangi uzilgan* birikmasi, ba’zi bir holatlarda rus tilidan o‘zlashgan *свежий* so‘zi qo‘llanadi.

Näsvi *(nasvi)* leksemasi to‘y-hashamga yoki marosimda ishtirok etgan insonlarga atalgan tuguncha. Taxminimizcha, ushbu leksema izohli lug‘atdagi *hissa, ulush, rizq* ma’nosidagi ***nasiba*** so‘zining fonetik jihatdan o‘zgargan shaklidir.

Toqsï tāvāq *(to‘qsi tovoq)* ushbu leksema buyumni atab kelib, ma’lum bo‘laklarga ajratilgan taqsimchalar jamlanmasi. To‘qsi tovoqqa marosim va tadbirlarda shirinliklar yoki chaq-chuqlar solinadi. *Bü toqsï tāvāqta bādām kämikän qošip qojïlär. (<Bu taksi tovoqda bodom kam ekan qo‘shib qo‘yinglar).*

Āxsāxāltāvāq *(oqsoqoltovoq)* - yoshi ulug‘ keksalar uchun maxsus osh solingan lagan. *Satvaldï ata ančadan beri käsäl bolïp toj-häšämgä qošïlalmidi. Šü axsaxal tavaqtï neväräsidän bervar. Sa:ap boladï. (<Sotiboldi ota anchadan beri kasal bo‘lib to‘y-hashamga qo‘shilolmaydi. Shu oqsol tovoqni nevarasidan berib yubor. Savob bo‘ladi.)*

Mäzär*mazar* so‘zi o‘rganilayotgan shevada ikki xil ma’noda qo‘llanadi:

I.Marosim ma’nosida. Tadqiqot ishi olib borilayotgan hududda to‘ydan avval o‘tkaziladigan marosim bo‘lib, *kättä mäzär(kata mazar), kičik mäzär (kichik mazar)* kabi turlarga bo‘linadi. Ushbu marosimda kelin tomonidan kuyovga yuboriladigan sovg‘a-salomlar yuboriladi.

II. Kelinning yaqin qarindoshlari tomonidan to‘ydan keyin qirq kun davomida olib boriladigan ovqat.

Pešdästurxān *(peshdasturxan)* to‘y va marakalarda mehmonning yoniga alohida yasatilib patnos (la’li)da keltirilgan non, shirinlik va shunga o‘xshagan mahsulotlar. Ushbu leksema *pesh + dasturxon* so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan, og‘zaki nutqda esa fonetik o‘zgarishga uchragan *peshdasturxon* tarzida talaffuz qilinadi. *Pesh* fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib old ma’nosini bildiradi, *dasturxon* so‘zi izohli lug‘atda uy-ro‘zg‘or buyumi ma’nosi bilan birga *noz-nematlar* degan ma’noni ham bildiradi. Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, shevadagi *peshdasturxon* leksemasi *mehmonning oldiga qo‘yilgan noz-u nematlar semasini* bildiradi. Hududdagi yana bir o‘ziga xos xususiyat shundaki, mehmon uchun atab qo‘yilgan peshdasturxon mehmon kuzatilayotganda tugunchaga tugib beriladi. Shevadagi ushbu leksemani Z. Xolmonovaning “O‘zbek shevalarining lakuna birliklar lug‘ati” kitobida *pešdastarxan* shaklida uchratamiz [Xolmonova 2022: 95].

Nān puš täšlämāq *(non push tashlamoq)*. Agarda tandir juda issiq bo‘lsa, yoki xamir haddan tashqari ko‘pib ketgan bo‘lsa, tandirga yopilgan non hali pishmay turib tushib ketadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *pusht* so‘zining “kimsa yoki oilaning o‘zidan avvalgi avlodi yoki keyingi avlodi, avlod-ajdod; nasl” ma’nolaridan tashqari “yoqtirmaslik, toqat qila olmaslik” kabi semasi ham mavjud [O‘TIL, III tom 326]. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tandir haddan ziyod issig‘ligiga toqat qila olmagan non tushib ketadi va bu jarayon sheva vakillarining nutqida *nān püš täšädi (non push tashadi), tüšip ketti (tuship ketti)* birikmalari bilan ifodalanadi.

Nān güllä *(non gullamoq)* birikmasi o‘rganilayotgan shevada to‘liq oshmagan xamirdan tayyorlangan nonga nisbatan qo‘llanadi. Chunki agar xamir yaxshi oshirilmasa, tandirga yopilgan nonning ayrim joylari qavarib chiqadi.

Nutqimizda iste’mol uchun yaroqsiz holatga kelib qolgan ovqatlarga nisbatan *aynib qolmoq, achimoq, irimoq* leksemalari qo‘llanadi. Janubi-sharqiy Andijon shevasida **irimāq** *(irimoq)* leksemasi faqat sut mahsulotiga nisbatan qo‘llanadi.

Non mahsuloti agarda havo kirmaydigan idishlarda saqlansa, ilmiy til bilan aytganda, nonning yuza qismida mog‘or zamburug‘i paydo bo‘ladi. Ushbu holatga o‘rganilayotgan shevada **pöpänäk bāstï** (*po‘panak bosdi)*, **päŋlädi** *(pangladi)* deyiladi. O‘zbek adabiy tilida ushbu leksema nonga nisbatan berilmaydi. *Hovuzning chetlarini har xil po‘panak o‘tlari bosib ketgan.* (G‘.G‘ulom, Shum bola). Shevada esa bu leksema asosan nonga nisbatan qo‘llanadi. *Panglagan non, po‘panak bosgan non* kabi leksik birliklar faol qo‘llanadi. (Adabiy tilda mog‘or bosgan non deyiladi). *Nān pöpänäk bāsmästän āldin, küngä jäjip qurïtïp qoj.* (<Non po‘panak bomasdan oldin, kunga qo‘yib quritib qo‘y). Ma’lumot sifatida aytib o‘tishimiz o‘rinliki, pangladi so‘zi o‘rnida Qashqadaryo “je”lovchi shevalarida “bo‘rsiq”[1] so‘zi ishlatiladi.

Qäqirmäčäk (*qaqirmachak)* agarda osh damlanganda olov balandligidan osh tagining olishi yoki tandirdan non uzilganda tandirda qolib ketib singib pishgan qismiga nisbatan ushbu leksema qo‘llanadi. Xalq orasida shunday irim bor: kimki oshning qaqirmachog‘ini yesa, to‘yida yomg‘ir yog‘adi deyishadi. Qarnoq shevasida esa ovqatning qirib olinadigan qoldig‘i *qïrïndï* deb ataladi [Xolmedova, 2005:39].

Kešik *(keshik)* leksemasi o‘rganilayotgan shevada “kosada yegandan ortib qoldirilgan ovqat, biror marosim o‘tkazilganda mehmonlar kuzatilganidan keyin ortib qolgan noz-u nematlar”ga nisbatan qo‘llanadi. Ushbu semani bildiruvchi so‘z hali o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilmagan.

Adabiy til va yondosh shevalar bilan sinonimlikni hosil qiluvchi leksemalar

Kävärtäk *(kavartak)* yangi chiqqan uzum barglariga qiyma o‘ralib ipga tiziladi va osh zirvagida qaynatiladi, oshga qo‘shib tanovul qilinadi. Ushbu taom adabiy tilda va boshqa hududlar (Toshkent)da *tokoshi* deyiladi.

Doltä *(do‘lta)* sariyog‘ olish uchun qaymoq qizdirilganda tagiga cho‘kib qoluvchi qora quyqa. Adabiy tilimizda va boshqa hududlarda bu mahsulotga nisbatan *durda* lekemasi ishlatiladi. Qashqadaryo shevasida fonetik jihatdan o‘zgarishga uchrab “to‘rta”[2] shaklida qo‘llanadi.

Hämäk *(hamak)*, **xamek** *(xomek)* leksemasi adabiy tilimizdagi *pishmagan qovun, sapcha* so‘zlari o‘rnida qo‘llanadi [Farmonov 1960:183].

Čälap (*chalop)* so‘zi shevada qatiqqa suv va tuz solib tayyorlangan, asosan, yoz kunlarida ichiladigan yaxna ichimlikka nisbatan aytiladi. Yurtimizning boshqa hududlarida aynan shu mahsulotga nisbatan *ayron* atamasi qo‘llanadi.

Qurtap *(qurtop)* qatiq suzmasiga tuz solib yumaloqlab, oftobdada quritib tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsuloti. Yurtimizning boshqa hududlarida bu turdagi oziq-ovqatga nisbatan *qurut* leksikasi qo‘llanadi [Farmonov 1960:186].

Toqač *(to‘qoch)* kichgina non, kulcha. Odatda yosh bolasi bor xonadonlarda non qilganda qo‘shib to‘qoch ham yopiladi. *Toqāčli balä sujgunčik.* (Maqol)

Maj toqač *(moy to‘qoch)* adabiy tilimizdagi xamiri yupqa yoyib yog‘da pishiriladigan, is chiqarganda xolvaytar bilan qo‘shnilarga tarqatiladigan *cho‘zma, cho‘zma-chalpak* milliy taomi ushbu shevada shu nom bilan ataladi.

[1] Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. Тошкент. 1999 – Б 57
[2] Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. Тошкент. 1999 – Б 57

Ujitqi (*uyitqi)* so‘zi o‘rganilayotgan shevada qatiq tayyorlash uchun sutga solinidagin ozgina qatiqqa nisbatan qo‘llanadi. Qurama o‘zbek shevalarida **ujutqï** tarzida fonetik o‘zgarishga uchragan holda ishlatiladi [Farmonov 1960:171]. Adabiy tilda bu vazifadagi so‘z *ivitqi, tomizg‘i, oqliq* kabi leksemalar bilan yuritiladi.

Adabiy til uchun lakunar ayrim birliklarning shevadagi dialektal nomlari

Bog‘dorchilik mahsuloti bo‘lgan turshak, qoqi hatto qish va bahorda (mevalar pishib to‘kin-sochin bo‘lgunicha) ham kishilarga ozuqa bo‘lib xizmat qiladi. [Hasanov 2021:246].

Adabiy tilimizda mevalardan tayyorlangan yaxna ichimliklarga nisbatan umumiy sharbat yoki kompot leksemalari qo‘llanadi. O‘rik mevasining aynan o‘zidan emas, balki uning qoqisi (turshagi) qaynatib yoki issiq suvda ivitilib tayyorlangan ichimlik esa adabiy tilimizda *o‘rik sharbati* shaklidagi so‘z birikmasi orqali ifodalanadi. Janubi-sharqiy Andijon hududida ushbu chanqovbosdi mahsulot **Çüli** (*chuli)* (O‘XShL, 1971,) deyiladi. Ma’lumot sifatida aytib o‘tishimiz joizki, yurtimizning ayrim hududlari (Buxoro, Navoiy)da ayni shu tushunchani nomlovchi *g‘o‘lin* leksemasi ham qo‘llanadi [Hasanov 2021:247].

Shevalarda aynan *o‘rik sharbati* ma’nosini beruvchi *chuli* leksemasining qo‘llanishi uni xalq orasida so‘z birikmasi shaklida emas alohida leksema sifatida qo‘llanishiga imkoniyat beradi.

Yog‘ leksemasi shu mazmundagi so‘zlar uchun umumiylikni kasb etadi. Shunday ekan xalq orasida bu kabi mahsulotlar paxta o‘simligidan olinadigan yog‘ *paxta yog‘i,* kungaboqar o‘simligidan olingan yog‘ *kungaboqar yog‘i* singari so‘z birikmasi shaklida qo‘llanadi. Paxta o‘simligidan aniqrog‘i chigitdan ishlangan yog‘ mahsuloti shevada **āxjāγ** *(oxyog‘)***, āxmāj** *(oxmoy)* deb yuritiladi [Farmonov 1960:177].

Suv qaynatilgan holatda ham qaynatilmagan (xom) holatida ham iste’mol qilinadi. Xalqimiz orasidagi qaynatilgan suv janubi-sharqiy Andijon shevasida **dāxsu** *(doxsu)* deyiladi. Ma’lumot sifatida aytib o‘tishimiz o‘rinliki, yurtimizning ayrim viloyatlari (Buxoro, Qashadaryo)da qaynatilgan suv *objo‘sh* nomi bilan ham ataladi.

Xulosa qilish mumkinki, oziq-ovqat bilan bog‘liq dialektizmlar aholimiz orasida talaygina, ularni yig‘ish va ilm ahliga yetkazish orqali esa tilimizning ifoda ko‘lamini yanada kengaytirgan bo‘lamiz. Shevaga xos bo‘lgan so‘zlarni topish, ularni sinchiklab o‘rganish, dialektizmlardan tilimizda bo‘shliq bo‘lgan o‘rinlarni to‘ldirishda foydalanish, nafaqat tilimiz rivoji uchun, balki qadriyatlarimiz saqlanishi uchun ham muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2016. 80 bet.
2. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси.-Тошкент: Фан, 1990.
3. Ўзбек халқ шевалари луғати. -Тошкент: Фан,1971. -407 бет.
4. Ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент: Фан,1991. 229 бет.
5. Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Тошкент,1957.-351 бет.

XUSHMUOMALALIK (HURMAT) NAZARIYASI DUNYO TILSHUNOSLARI NIGOHIDA

THE THEORY OF POLITENESS (RESPECT) THROUGH THE EYES OF LINGUISTS OF THE WORLD

Ruziyeva Gulshoda Ziyatbek qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
g_u_l_sh_o_d_a@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xushmuomalalik (hurmat) nazariyasi tahlil qilinadi. Bir qator dunyo tilshunoslari tadqiq qilib o‘rgangan masalalar va fikrlar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *toponimiya va terminologiya, xushmuomalalik, sotsiopragmatika, birinchi darajali xushmuomalalik, ikkinchi darajali xushmuomalalik, inferensiya.*

Abstract. *This article analyzes the theory of politeness(respect). The main theories by a number of world linguists explore and highlight the issues and thoughts they have learned are provided.*

Key words: *toponymy and terminology, politeness, sociopragmatics, first-class politeness, second-class politeness, inference.*

Amerikalik sotsiolog E.Goffmanning asarlariga asoslanib [Goffman E. 1967. 22-28.], mualliflar o‘zlarining nazariyalarining asosiy elementi sifatida insonning qarama-qarshi ikkita ehtiyoji bo‘lgan shaxs tushunchasini tanlaydilar: bir tomondan, suhbatdoshning roziligi va ijobiy bahosini olish istagi (“positive face”), boshqa tomondan — mustaqil fikr va nisbiy hukm erkinligiga ega bo‘lish (“negative face”) deb nomlangan. Shunday qilib, lingvistik xushmuomalalik aloqa holatidan kelib chiqqan holda interaktiv strategiyalardan to‘g‘ri foydalanish qobiliyati sifatida tushuniladi. Ularning yordami bilan kommunikator suhbatdoshda yaxshi ta’assurot qoldirishi va ijobiy tasvirni yaratishi yoki aksincha, shaxsiy makonini kengaytirishi mumkin.

Braun va Levinson o‘z tushunchalarini izchil rivojlantirib, kommunikatorlarning har bir harakatini shaxsning yuziga potentsial tahdid nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadilar. Mualliflarning qarashlariga ko‘ra, aloqa jarayonida odam yuzini himoya qilishga intiladi va shu bilan aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadan chetga chiqadi. Shu asosda ijobiy (masalan, qiziqish, hamdardlik ko‘rsatish) va salbiy (masalan, pessimizm, kechirim so‘rash) xushmuomalalik strategiyalari ajralib turadi. Bundan tashqari, yuzga tahdid soluvchi xatti-harakatlarni baholashda (Face threatening acts) uchta asosiy ijtimoiy-madaniy o‘zgaruvchilar hisobga olinadi: ma’ruzachilar orasidagi ijtimoiy masofa (masofa), bir-biriga ta‘sir qilish darajasi (kuch) va ierarxiya (ranking) [Holmes J. *Gendered Talk at Work: Constructing Gender Identity Thought Workplace Discourse*. 2006.].

Olimlar tomonidan taklif qilingan batafsil nazariya, shubhasiz, turli sohalar vakillarining diqqat markaziga aylandi: kontseptsiya nutq harakatlarini madaniy taqqoslashda, gender tadqiqotlarida ishlatilgan, ijtimoiy psixologiyada qo‘llanilgan va hokazo. Ammo olimlarning xushmuomalalik nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga qo‘shgan aniq hissalariga qaramay, Braun va Levinsonning ishi bir qator tanqidiy sharhlarni oldi, shunday qilib, ushbu hodisani o‘rganishga yangi yondashuvlar belgilandi.

Xususan, Graysning universal qo‘llanilishi [Grice H. P. Logic and Conversation. 1975.] va inferensiya jarayonini statik idrok etish ba’zi olimlar tomonidan salbiy qabul qilindi. Bunday sharhlarga munosabat sifatida dolzarblik nazariyasi paydo bo‘ladi [Sperber D., Wilson, D. *Relevance: Communication and cognition* (2nd ed.). Blackwell Publishing. 1995.], uning mualliflari oldingi kontseptsiyaning kamchiliklarini hisobga olishga harakat qilishadi [Pizziconi B. Politeness. In: Mey, J.L., Ed., Concise Encyclopedia of Pragmatics, Elsevier, London. 2006.].

Pragmatik yondashuv doirasida xushmuomalalikni o‘rganish asoslari qo‘yilgan bo‘lsa-da, u ushbu hodisaning barcha jihatlarini to‘liq tugatmagan. Bugungi kunda mavzu juda dolzarbdir. Nafaqat xushmuomalalik tushunchasini aniqlashtirish, balki ushbu nutq normasining paydo bo‘lishi va tarqalishini, uning xilma-xilligi chegaralarini turli madaniyatlar kontekstida ko‘rib chiqish kerak. Xushmuomalalik muammosi bo‘yicha keyingi ishlar nutqni tanqidiy tahlil qilish, dolzarblik nazariyasi nuqtai nazaridan davom etmoqda; empirik ma’lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, keyingi tadqiqotlar uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Dunyo tilshunos olimlari “xushmuomalalik” pragmatik atamasiga turlicha ta’riflar keltirishgan. Ba’zi mavjud ta’riflar sof lingvistik, boshqalari ijtimoiy yoki ijtimoiy-kognitiv ildizlarga ega bo‘lsa, ba’zi boshqa ta’riflar esa diskursiv tabiatlidir [Haugh M. Anticipated versus inferred politeness. - Multilingua: 22, 2003. -P. 397 – 413.]. Quyidagi munozara mavjud adabiyotlarda xushmuomalalik ta’riflarining xronologik tahlilini ifodalaydi.

Lakoff xushmuomalalikni “shaxsiy muloqotda kelishmovchilikni kamaytirish uchun jamiyatlar tomonidan ishlab chiqilgan tushuncha” sifatida belgilaydi [Lakoff Robin. Language and Woman’s Place. - New York: Harper and Row, 1975. - P. 64.].

Leech xushmuomalalikni “mojaroli vaziyatdan qochish uchun sarflangan sa’y-harakatlar darajasi bilan o‘lchanadigan strategik mojarodan qochish” deb biladi [Leech G. Explorations in Semantics and Pragmatics. - Amsterdam: Benjamins, 1980.].

Xuddi shunday, Ide xushmuomalalikni “ravon muloqot bilan bog‘liq til” deb biladi [Ide S. Formal Forms and Discernment: Two Neglected Aspects of Universals of Linguistic Politeness. Multilingua, 1989. – P. 7-11.].

Kasper xushmuomalalik haqidagi ta’rifini insonning muloqotini yanada muvaffaqiyatli va jozibali qilish harakatlarining bir qismi sifatida shakllantiradi. Uning uchun “muloqot tubdan xavfli va antiganostik harakat sifatida ko‘riladi” [Kasper G. Linguistic Politeness: Current Research Issues. - Journal of Pragmatics, 1990 – P. 193-217.]. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, xushmuomalalik odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘z ichiga oladi, bu bizga bir birimiz bilan kelishishga, nizolarni oldini olishga yordam beradi va ijobiy ijtimoiy muhitni yaratadi. Bu boshqalarga xushmuomalalik va odob bilan munosabatda bo‘lishni va boshqalarni masxara qilish yoki xafa qilishdan saqlanishni anglatadi. Ko‘rinib turibdiki, kundalik hayotdagi muloqotda bu maqsadlarga har doim ham erishib bo‘lmaydi, lekin hech bo‘lmaganda yaxshi niyat va boshqa odamlarning his tuyg‘ulariga e’tibor qaratish orqali uyg‘unlikni saqlashga harakat qilish kerak.

Shuni ta’kidlash joizki, xushmuomalalikning ta’rifi nizolarni oldini olish va yengil muloqotni rivojlantirish vositasi sifatida hozirgi vaqtda xushmuomalalik haqidagi ko‘plab tadqiqotlar uchun murosa nuqtasidir. Bu odob-axloqning asl tuyg‘usi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni muammosiz amalga oshiradi va shu bilan e’tiborni xushmuomalalikning asosiy maqsadlaridan biriga ya’ni, odamlar o‘rtasidagi silliq muloqotni targ‘ib qilishga qaratishga xizmat qiladi [Haugh M. Revisiting the Conceptualisation of Politeness in English and Japanese. - Multilingua, 23, 2004. -P. 85-109.].

Shunga ko‘ra, diskursiv dinamik tushuncha bo‘ladimi yoki so‘zlashuv va ijtimoiy jihatdan statik fakt bo‘ladimi, muloyimlik tildan foydalanuvchining so‘zlashuvchi/tinglovchi/kontekst talablari yoki uch omilning kengroq konstruktiv ma’nosida yuzma-yuz o‘zaro ta’sir nuqtai nazaridan ushbu tildan to‘g‘ri foydalanishga e’tibor qaratish deya talqin qilinadi.

Tilshunoslar xushmuomalalikning ikki turini farqlaydilar: mos ravishda *birinchi darajali* va *ikkinchi darajali*. Bu farq lingvistik xushmuomalalik adabiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu sohadagi eng asosiy va uzoq davom etganlardan biri hisoblanadi. Boshqa tomondan, Freyzer xushmuomalalikning to‘rtta tasnifini taklif qiladi: ijtimoiy-me’yor ko‘rinish, suhbat-maksimal ko‘rinish, yuzni saqlaydigan ko‘rinish va suhbat-shartnoma ko‘rinishi [Fraser B. Perspectives on Politeness. - Journal of Pragmatics, 14, 1990. -P. 219-236.]. Xuddi shu to‘rttalik tasnifni quyida muhokama qilinadigan birinchi va ikkinchi darajali xushmuomalalik asosida ikki toifaga bo‘lish mumkin.

Birinchi darajali xushmuomalalik *ijtimoiy xushmuomalalik* deb ataladi, bu Kasper so‘zlariga ko‘ra, “to‘g‘ri ijtimoiy xulq-atvor va boshqalarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lishni” anglatadi [Kasper G. 1994. 15]. Freyzer birinchi darajali xushmuomalalikni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy moslik (o‘z terminologiyasida ijtimoiy norma ko‘rinishi va suhbat shartnomasi ko‘rinishi) deb biladi. Uotts birinchi darajali xushmuomalalik uchun muloyim xattiharakatlar atamasini taklif qiladi. U xulq-atvorning ikkita aniq shaklini ajratib beradi: muloqotning buzilishiga olib keladigan odobsiz xattiharakatlar va “boshqalar oldida shaxsning obro‘sini oshiradigan” muloyim xatti-harakatlar [Watts R. 1992. 43--69.].

Ikkinchi darajali xushmuomalalikni Kasper “til harakatida ratsional funksiyani ifodalash usullari”ning pragmatik tushunchasi sifatida ko‘radi. Freyzerga kelsak, ikkinchi darajali xushmuomalalik lingvistik nuqtai nazardan (so‘zlashuv-maksimal ko‘rinish va yuzni tejash ko‘rinishi) ko‘riladi. Uotts fikricha, siyosiy xulq atamasi ikkinchi darajali xushmuomalalikni anglatadi. U siyosiy xulq-atvorni “ijtimoiy guruh shaxslari o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlarni o‘rnatish va muvozanat holatida saqlash maqsadiga qaratilgan ijtimoiy-madaniy jihatdan aniqlangan xatti-harakatlar” deb ta’riflaydi, boshqacha qilib aytganda, Uottsning siyosiy xulq-atvori ijtimoiy muvofiqlikning kengroq konsepsiyasi bo‘lib, undan tor odoblilik tushunchasi kelib chiqishi mumkin.

Lich ikkinchi darajali xushmuomalalikni “strategik nizolardan qochish” deb ta’riflaydi, u “mojaroli vaziyatdan qochish uchun sarflangan sa’y-harakatlar darajasi” va “hamjihatlikni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash” bilan o‘lchanishi mumkin. Bu strategik ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, mojarodan qochish insonning xushmuomala bo‘lishining ongli harakatlari sifatida ko‘riladi [Leech G.1980. 11].

Nutqiy muloqotning yuqorida eslatilgan hamkorlik va xushmuomalalik tamoyillari asosan tinglovchi-adresantning “foydasi”ni ko‘zlovchi tamoyillardir. Bu tamoyillar simmetrik va nosimmetrik nutqiy vaziyatlarda bir xilda faollashadilar. Shaxslararo muloqot jarayonida so‘zlovchi o‘z foydasini ham unutmaydi, u o‘z shaxsiyatining qimmatini ko‘rsatishga, o‘z hurmatini saqlashga urinadi. Shaxsiy qadrini saqlashga yo‘naltirilgan tamoyil ko‘pincha nosimmetrik munosabatlar vaziyatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tamoyil kinoya mazmunidagi nutqiy harakatlar ijrosida faollashadi, chunki tabaqa pillapoyasida yuqoriroq o‘rin egallagan shaxs - so‘zlovchi pastki pog‘onada turgan tinglovchiga kinoya vositasida ta’sir o‘tkazishga harakat qiladi. Kinoya qo‘pollik va qat’iyatni bir oz bo‘lsa-da, yumshatish imkonini beradi.

Nutqiy vaziyat simmetrik munosabat doirasida yuzaga kelsa, fikr izhori ancha ochiq, kommunikativ maqsadlar aniq ifodalanayotgan nutqiy harakatlar ijrosida kechadi. Olamning rang-barang va unda kechayotgan voqea-hodisalarning turli-tuman bo‘lgani kabi muloqot vaziyatlari

ham turli xususiyatlarga egadir. Ular har xil sharoit, muhitlarda hosil bo‘ladilar, muloqot ishtirokchilarining munosabatlari ijtimoiy mavqega bir xilda ega bo‘la olmaydi. Aynan shu turli-tumanlik muloqot tizimining sotsiopragmatik ko‘rsatkichlarini, ijtimoiy deyksis qobig‘ini tashkil qiladi. Sotsiopragmatik belgilarni e’tiborga olmaslik nutqiy harakatlar jo‘yaliligi tamoyilining talablari buzilishiga olib keladi. Muloqot ishtirokchilarining munosabati, ular bajarayotgan ijtimoiy rol asimmetrik (notekis) bo‘lsa, odatda, kommunikatsiya tamoyili qoidalariga qat’iy amal qilish talab qilinadi. Tobe o‘rindagi kommunikant nutqiy harakat tanlovi qoidalariga so‘zsiz amal qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goffman E. Interaction ritual: essays on face-to-face interaction. 1967.
2. Holmes J. Gendered Talk at Work: Constructing Gender Identity Thought Workplace Discourse. 2006.
3. Grice H. P. Logic and Conversation. 1975.
4. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and cognition (2nd ed.). Blackwell Publishing. 1995.
5. Pizziconi B. Politeness. In: Mey, J.L., Ed., Concise Encyclopedia of Pragmatics, Elsevier, London. 2006.
6. Haugh M. Anticipated versus inferred politeness. - Multilingua: 22, 2003. -P. 397 – 413.
7. Lakoff Robin. Language and Woman’s Place. - New York: Harper and Row, 1975. -P. 64.
8. Leech G. Explorations in Semantics and Pragmatics. - Amsterdam: Benjamins, 1980.
9. Ide S. Formal Forms and Discernment: Two Neglected Aspects of Universals of Linguistic Politeness. Multilingua, 1989. –P. 7-11.
10. Kasper G. Linguistic Politeness: Current Research Issues. - Journal of Pragmatics, 1990 –P. 193-217
11. Haugh M. Revisiting the Conceptualisation of Politeness in English and Japanese. - Multilingua, 23, 2004. - Pp. 85-109.
12. Fraser B. Perspectives on Politeness. - Journal of Pragmatics, 14, 1990. -P. 219-236.
13. Kasper G. Politeness. In: Asher, R.E. (ed.)/Simpson, J.M.Y. (coordinating ed.). The encyclopedia of language and linguistics, vol. 6. - Oxford: Pergamon, 1994.
14. Watts R. Linguistic Politeness and Politic Verbal Behavior: Reconsidering Claims for Universality‟, in Watts, R., Ide S. and Ehlich K. (eds.), Politeness in Language: Studies in its History, Theory and Practice, Berlin: Mouton de Gruyter, 1992. -P. 43-69.

O‘ZBEK TILIDA “FARZAND” KONSEPTI VA UNING MAQOLLAR ORQALI VOQELANISHI

THE CONCEPT OF “CHILD” IN THE UZBEK LANGUAGE AND ITS REALIZATION THROUGH PROVERB

Kadirova Nigora Ulug‘bekovna
Qo‘qon shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi
nigora.kadirova.9090@mail.ru

Annotatsiya. *Maqollar har bir xalqning milliy qadriyatlarini, qadimiy an’analarini, qolaversa, tabiati hamda o‘sha xalqning dunyoqarashini va turmush tarzini o‘zida ifoda etadi. Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning timsoli, xalqning milliy madaniy merosi namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqida farzandga bo‘lgan munosabat milliy qadriyatga asoslangan bo‘lib, bu bir qator maqollarda o‘z aksini topadi. Mazkur maqolada “farzand” konseptining maqollar orqali voqealanishi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *metoforik ma’no ko‘chishi, nutqiy sinonimiya, konsept, milliy-mentallik, lingvokulturologiya, leksik birliklar, olamning lisoniy manzarasi.*

Abstract. *Proverbs express the national values, ancient traditions, nature, outlook and way of life of each nation. Each proverb shows the symbol of the people who created this proverb, the national cultural heritage of the people. The Uzbek people's attitude towards children is based on national value, which is reflected in a number of proverbs. This article analyzes the development of the concept of "child" through proverbs.*

Key words: *metaphoric meaning transfer, speech synonymy, concept, national-mentality, linguo-culturalism, lexical units, linguistic landscape of the world.*

Ma’lumki, so‘nggi yillarda jahon tilshunosligida konseptning o‘rganilishiga oid tadqiqotlar ko‘payib bormoqda. Bunday tadqiqotlarda odatda, “oila”, “millat”, “ona”, “farzand”, “ota” kabi madaniy tushunchalarni ifodalovchi konseptlarga alohida e’tibor qaratiladi. Barcha millatlarda farzand konsepti deyarli bir xil, unga nisbatan obrazli va qadriyatli munosabatlar asosida shakllangan kotseptual tashkil etuvchilar farqli bo‘ladi.

Til o‘zida rang-barang olam manzarasini asliga mos ravishda in’ikos ettirishga harakat qilar ekan, lekin bu akslanish olam manzarasining ko‘zgudagi kabi aksi bo‘lmaydi. Olamning lisoniy manzarasi shu xalq olamni qay holatda ko‘rishni istasa, shunga asoslanadi. Farzand tug‘ilishidan toki voyaga yetkungacha bo‘lgan davrda yosh va aqliy salohiyati o‘sib borishi jahatidan turlicha nomlanadi. Masalan; o‘zbek tilida farzand so‘zi chaqaloq, bola, o‘g‘il, qiz kabi tashkil etuvchilardan iborat umumiy tushunchadir.

Farzand jonga payvand.

Farzand belning quvvati.

Farzandim asal qandim.

Farzand so‘zining bunday tashkil etuvchilari mazmun jihatidan ulardagi yoshning turlicha ekanligi bilan farq qiladi.Yosh jihatidan farzandning eng kichigi chaqaloq. *Chaqaloq alladan shirin.*

“Bola” farzandning yurishni boshlagan davridan boshlab, o‘smirlikkacha bo‘lgan fursatni o‘z ichiga olgan davri. Xalq maqollarida bu davr farzandga asosiy tarbiya beriluvchi va uning xatolari kechiriluvchi bosqich sifatida ifodalangan.

Bolani yoshdan o‘rgat,
Xotinni boshdan o‘rgat,
Bolani ishga buyur, ketidan o‘zing yugur.
Bola bolaning ishi chala.
Bolani pullik ham qo‘yma, pulsiz ham qo‘yma.
Bolani bozor tomoqqa o‘rgatma.

Bola komponentli maqollarda metoforik ma’no ko‘chishidan ham keng foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin.

Bola oilaning ham guli, ham bulbuli.
Bolaning erkasi, bitning sirkasi.

O‘zbek maqollari tahlili shuni ko‘rsatadiki, farzandning voyaga yetgan davridan ularni jins nuqtaiy nazaridan farqlash boshlanadi. Ya’ni endi ular umumiy nom bilan emas alohida nomlanadi: “o‘g‘il”, “qiz”. Buni o‘zbek madaniyatida har bir jins vakillarining tarbiyasiga bo‘lgan munosabat turlichaligi bilan izohlash mumkin. O‘g‘il farzand ota izidan borishi lozimligi, mard, jasur bo‘lishi kerakligi uqtiriladi.

O‘g‘lingni sevsang qulingdek ishlat.
Yelka yag‘iri – otga meros,
Ota “yag‘iri” o‘g‘ilga meros.
Otasi ulgurmaganni o‘g‘li tugatar.
Ota kasbi – o‘g‘ilga harom emas.
Qo‘zi qo‘chqordan nishon, o‘g‘il otadan. [3, 456]

Maqollar tarkibida nutqiy sinonimiya hodisasi juda ko‘p kuzatiladi. Bularga yigit, er, o‘g‘il, o‘g‘lon sinonimiyasini misol qilish mumkin.

Yigit kishiga qirq hunar ham oz.
Er yigit el g‘amida.
El bilan bo‘lgan yigit, har balodan qutular.
Yetim o‘g‘lon it bo‘lar, yoqasi to‘la bit bo‘lar.

Kuzatuvlarimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki maqollar tarkibida “er” leksemasining ma’noviy ko‘lami yanada kengaygan.

1.Erkak jinsiga mansub kishi.
Er boyligi – yo‘lda,
So‘z boyligi – tilda.
Er – lafzidan, qo‘y – bo‘g‘zidan.
Er- xizmatdan topar.
2.Ayol kishi bilan nikoh ahdida bo‘lgan erkak:
Otam deb erni tashlama, so‘ng boshingni qashlama.
Er qoplar , xotin saqlar.
3. Jasur, mard kishi:
Er yigit – el g‘amida.
Yigit degan er bo‘lar, mehnat ko‘rsa sher bo‘lar.
Er boshiga tushgani, el boshiga tushgani.

O‘zbek madaniyatida qiz farzand onaga nisbatlanadi va ularning tarbiyasiga alohida etibor beriladi:

Arqog‘ini ko‘rib bo‘zini ol , Onasini ko‘rib qizini ol.
Ona aqli qiz aqli, ota so‘zi aql ko‘zi.

Faqat qizlargagina xos bo‘lgan fazilatlar ham maqollarda o‘z aksini topadi:

Pardali qiz – pariga tengsiz.
Qizi bor uy doim sarishta.
Yaxshi otga qamchi kerakmas, Yaxshi qizga – sovchi.
Yaxshi qiz erta turib soch tarar, yomon qiz erta turib non so‘rar.

Ayol jinsiga mansub shaxslarni o‘zbek tilida qiz, ayol, ona, amma, xola, buvi kabi nomlar bilan ataladi. Ular orasidagi asosiy tafovudlardan biri “yosh” masalasidir.

Tilda, xususan, o‘zbek tilida “yosh” ma’nosini anglatuvchi leksik birliklarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni bosib o‘tgan. Insonning umri, bu umrning davrlari nimaga asoslanib o‘lchangan, qanday qilib shaxs yoki jamiyat umrining davomiyligi o‘lchangan hamda ular qanday nomlangan degan savollar biz qo‘l telefonimizdagi sanalarga qaraganda, yoki ijtimoiy tarmoqda har kuni do‘stimizning tug‘ilgan kunlarini bizga eslatib turilganda har doim ham esimizga kelmaydi. Qadim ajdodlarimiz vaqt sarhisobini aniq kuzatish mumkin bo‘lgan tabiat hodisalari asosida belgilashgan. Masalan, kun (quyosh) orqali sutkaning yorug‘ qismi nomlangan. Ularda avval sutka tushunchasi bo‘lmagan, *ikki kundan keyin kelaman, uch kunlik yo‘l* kabi qo‘llanishlar ushbu qarashning hozirgacha bo‘lgan ta’siridir. Oy va uning turli ko‘rinishlari ham vaqt o’lchovi birligi bo‘lganligi bizga ma’lum.

Ayni davrda o‘zbek tilida inson umrining tug‘ilgandan boshlab o‘tkazgan vaqti, bu davrdagi har bir yil “yosh” so‘zi bilan nomlanadi. Ma’lumki, o‘zbek tilining izohli lug‘atida *yosh* omonim so‘zlar sifatida keltiriladi. Unda “ko‘z yoshi” va “vaqt, davr” ma’nosidagi ikkita so‘z shakldosh sifatida berilgan.

Turkiy xalqlarning qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullangani ma’lum. Ular yil hisobini bahor oyi, ya’ni barra o‘tlar o‘sgan paytdan boshlashgan. Zero, tabiatda chorvani o‘tlatish mumkin bo‘lgan vaqtdan, ya’ni qir, adir, kengliklarga chorva bilan ko‘chish vaqti yil sarhisobi uchun asos bo‘lgan. Bu o‘tlar, maysalar sabza urgan payt bo‘lgan.

“Fransuz olimi Lui Bazenning “Консепция возрасту у древных тюрскых народов” ya’ni “Qadimgi turkiy xalqlarda yosh konsepsiyasi” nomli maqolasi 1986-yilda “Зарубежная туркология” jurnalida e’lon qilinadi. Ushbu maqolada xitoyda 557-581 yillrada xukm surgan “Chu dinastiyasining solnomasi” dan quyidagi parcha keltiriladi: “Ular (ya’ni Mo‘g‘uliston hududidagi turkiy xalqlar) yillar almashinuvini va vaqtning sarhisobini yashil bo‘lgan o‘tlar orqali aniqlashardi. Bu davrda turkiy xalqlar, aniqrog‘i Mo‘g‘uliston hududagi turkiy xalqlar “Yash” so‘zi bilan barra o‘tlarni nomlashgan. Keyinchilik o‘tlar ko‘m-ko‘k bo‘lgan vaqtni yil sarhisobi 6uchun qo‘llashgan, ya’ni ushbu vaqtni va uning yana qaytirilishigacha bo‘lgan muddatni ham “yash” deb nomlashgan. Bahor oyida tug‘ilgan qo‘zichoq uchun shu bahor birinchi bahori, keyingi yil 2-bahori, 3-yil 3-bahori hisoblangan. Shunda 2 yil yashagan qo‘zichoq 3 bahorni ko‘rga n bo‘lgan. Ya’ni u 3 yosh bo‘lgan” *[4, 48-49].*

Yashil o‘t uchun qo‘llangan “yash” so‘zi o‘tning rangiga bog‘liq holda yashil (rang) so‘zining shakllanishiga asos bo‘lgan bo‘lsa, o‘tning sersuvligi asosida ko‘zning suvi ma’nosidagi yosh va vaqt ma’nosini beruvchi yosh kabi 2 ta yo‘nalishda ma’no taraqqiy etgan. Bu *yosh* so‘zi chuvash tilidan boshqa ko‘plab turkiy tillarda har xil fonetik o‘zgarishlar bilan mavjud. Masalan, qirg‘iz va oltoy tilida *jash* deyiladi. Bugungi kunda *yosh* so‘zining ko‘z yoshidagi va inson yoshidagi ma’nolar taraqqiyoti omonimiyagacha etib borgan.

Turkiy xalqlar keyinroq xitoylarning hayvon nomlariga asoslangan muchal kalendari, Arablarning hijriy kalendari, Grigoryan kalendari kabi o‘lchov birliklaridan foydalangan bo‘lsa-

da, lekin baribir hozirgacha yilning boshi bahorga to‘g‘ri kelishi konseptual ahamiyat kasb etadi. Buni ushbu maqollar orqali ham ko‘rish mumkin: *Avval — bahor, oxir — xazon. Yilning yaxshi kelishi bahordan ma’lum. Kun g‘amini sahar ye, Yil g‘amini bahor ye.* Demak, Navro‘z so‘zi fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lsa-da, bu bayramning asl mohiyati xalqimizning uzoq yillik tarixini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbek tilida “yosh” konsepti insonning jismoniy rivojlanish darajasini bildiradi. Bu rivojlanish insonning qancha umr ko‘riishi bilan belgilanishi ma’lum. Tilimizda boshqa ko‘pgina tillar qatori bolalik, o‘smirlik, etuklik (o‘rta yosh), qarilik kabi “yosh” konseptini tashkil etuvchi birliklar mavjud.

Ushbu konseptlarning tushunchaviy, qadriyatga asoslangan va obrazli tuzilmalari bor. Yosh konseptining tushunchaviy tashkil etuvchisining turli tillarda deyarli bir xil bo‘lishi haqida yuqorida aytib o‘tgan edik. Masalan, bolalik konseptini barcha tillarda yoshi kichiklik, etarli hayotiy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmaslik, yoqimtoylik kabilar tashkil etadi. Lekin ayrim o‘rinlarda “yosh” konseptining tushunchaviy tuzilmasida chegaralarning bir xil emasligi til egalarining hayot tarzidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Masalan, o‘zbek millatida erta turmush qurish natijasida yosh darajasining chegarasi ayrim millatlarga nisbatan farqli. Bizda turmush qurish uchun 40 yosh kattalik qilsa, g‘arb davlatlarida me’yor sanaladi. Qiz farzandni yoshiga qarab turmush yo‘li belgilanishi ham maqollarda o‘z ifodasini topgan:

Qari qiz ovga chiqar, ketidan g‘avg‘o chiqar.

Qari qiz yasanguncha to‘y tarqar.

Qari qiz er tanlamas, o‘lgan odam yer tanlamas.

Och kishi moy tanlamas, qari qiz boy tanlamas.

Yoki *Ayolning o‘ttizga kirgani — o‘tin bo‘lgani* kabi maqollar bor.

Ingliz tilida esa aksincha ma’no buruvchi “***Life*** begins at forty” (Hayot 40 yoshda boshlanadi) kabi maqollar mavjud. Bu misollardan ham ko‘rish mumkinki, turli tillarda yosh chegarasi masalasi farqli bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “yosh” konsepti juda keng masala bo‘lib, u monografik o‘rganilishi mumkin bo‘lgan mavzu. Bu kabi tadqiqotlar o‘zbek xalqining shaxs haqidagi qarashlari, tushunchalari, obrazli taffakuri, bu boradagi xulosa va tajriblarini milliy ruh va til orqali o‘ziga xos ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T., 1983.
2. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati. – T, 2006.
3. Shorahmedov Sh, Shomaqsudov Sh. Nega shunday deymiz. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent: 1998.
4. Xakimova M. O‘zbek tilida “vaqt” konsepti va uning maqollar orqali voqelanishi. “O‘zbek tili: kecha va buguni”. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021.

ABDULLA QODIRIYNING KICHIK ASARLARIDA LEKSIK VA FRAZEOLOGIK DIALEKTIZMLAR

LEXICAL AND PHRASEOLOGICAL DIALECTICISMS IN THE SMALL WORKS OF ABDULLA QADIRI

Muhabbat Matkurbanova
ToSHDO‘TAU erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida qo‘llangan leksik va frazeologik dialektizmlarning semantik voqelanishi o‘rganilgan. Adibning maqola, hajviya, felyetonlari tilining semantik-sitilistik rang-barangligi ta’minlagan dialektal birliklar lisoniy tasniflangan.*

Kalit so‘zlar*: leksik qatlam, jonli xalq tili, chegaralangan leksika, dialektal leksika, leksik dialektizm, dialektal semema, frazeologik dialektizm, konnotativlik, leksik paralellizm.*

Abstract. *The article examines the semantic realization of lexical and phraseological dialectics used in the small works of Abdulla Qadiri, a major representative of Uzbek literature. Dialectal units that provide the semantic-stylistic variety of the language of the writer's articles, comics, feuilletons are linguistically classified.*

Key words: *lexical layer, living vernacular, limited lexicon, dialectal lexicon, lexical dialecticism, dialectal sememe, phraseological dialecticism, connotativeness, lexical parallelism.*

Qo‘llanish hududi nuqtayi nazaridan chegaralangan til birliklari *dialektizmlar* (yunoncha *dialektos* – “tilning mahalliy ko‘rinishi”) hisoblanadi. Bunday leksik qatlam ma’lum bir hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo‘lib, ular nutqidagina faol qo‘llanishda bo‘lsa-da, bu birliklardan badiiy adabiyot va kinofilmlarda mahalliy koloritni aks ettirish, asar qahramonlari nutqini xususiylashtirish maqsadida keng foydalaniladi. XX asr boshlarida o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlagan holda davr adabiy tilini shakllantirish harakatida bo‘lgan “Chig‘atoy gurungi” a’zolarining bosh maqsadi xalq tilining yashrinib yotgan boy imkoniyatlarini tiriltirishdan iborat edi [1:170-171]. Adib ham ana shu maqsad yo‘lida kichik asarlari matnida so‘zlashuv uslubining boy va rang-barang imkoniyatlarini, shevaga xos unsurlarni davr adabiy tiliga olib kirish harakatida dialektizmlardan personajlar nutqini individuallashtirishda, davr ruhini aks ettirishda mohirlik bilan foydalanganligi kuzatiladi.

Leksik dialektizmlar. Bunday birlik odatda dialektizmlarning lug‘aviy birliklardagi ko‘rinishi hisoblanadi. Leksik dialektizm ikki turli bo‘ladi:

a) dialektizm-leksema, b) dialektizm-semema. Faqat shu dialektdagina ishlatilsa-yu, adabiy tilda yo‘q bo‘lsa, *dialektizm-leksema* deyiladi. Ba’zi hollarda biror dialektdagi leksema boshqa dialektdagi leksema bilan yoki adabiy tildagi leksema bilan ifoda jihatiga ko‘ra bir xil bo‘ladi-yu, mazmun jihatiga ko‘ra farqlanib turadi. Bu *dialektizm-semema* deyiladi. Masalan, *pashsha* leksemasining sememasi lug‘atda “yozgi qo‘sh parda qanotli hashorat” deb berilgan. Biroq ayrim shevalarda u *chivin* leksemasi o‘rnida ishlatiladi. “Ikki qanotli, uzun mo‘ylovli qon so‘ruvchi mayda hashorat” sememasiga ega bo‘lgan *chivin* leksemasi esa, *pashsha* leksemasi o‘rnida ishlatiladi [2:84].

Adib kichik asarlar matnida dialektal leksik birliklardan asar badiiyatini ta’minlashda o‘ta sinchkovlik va mahorat bilan foydalangan: *“Madaniayt boqchasining madaniy yigitlari o‘z*

*yonlarida bitta-bitta topilsa **“tutash”,** topilmasa **“baba”** yetaklab yurganlarini ko‘rib, biz afsus qila boshladiq, chunki biz ham ovildag‘i **chechalardan** ikkitasini olib kelgan bo‘lsaq, yetaklashib yurgan bo‘lar edik”* [3:131]. “Qizil bayroq” gazetasining 1922-yil 28-apreldagi sonida e’lon qilingan “Azob boqchasida yig‘i-sig‘i kechasi” nomli feyletonidan olingan mazkur parchada qo‘llangan *tutash (jonon, xonim); baba (kampir); checha (yanga, kelinoyi)* leksemalari shevaga xos leksik unsurlar sanaladi. Kichik asar sifatida felyetondagi voqeylikni yaqqol tasvirlashda, bu holatni o‘quvchiga beozor kulgi vositasida yetkazishda mazkur leksemalar o‘ziga xos vazifa bajargan.

Dialektizmlarning ham uslubiy imkoniyatlari, semantik-stilistik vazifalari matn doirasida aniqlashadi. Bunda yozuvchi muhim badiiy-tasviriy vosita sifatida dialektal so‘zlarning o‘ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatidagi vazifasidan badiiy tekstda ma’lum darajada foydalanadi. Adibning hikoya, maqola, hajviyalarida qo‘llangan dialektizmlar ham asar ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan: *“Ayniqsa uning **chigaldak** bir qog‘ozni og‘ziga solib, hech bir poyonsiz uzun qilib og‘zidan chiqaruvi bizni hayron qoldirar edi”* [3:106]; “*Turkiston statistiqa idorasining keyingi yig‘gan hisobiga qarag‘anda, ishtonsizlar **bana’ji** ko‘payibdirlar”* [3:170; “*Yozay desam, oshna og‘aynining sho‘rtumshuqlig‘idan, yozmay desam, “Mushtum” **jeznaning jekirigidan** qo‘rqaman”* [3:171]; *“Ba’dazon yuzimni qiblaga qaratib Maskovning shunday **balonishin** (baland) yeridan uy olib, menga o‘xshgan nimjonlarni **ramaqijonlik** (juda ozgan, to‘zgan) darajasida yetkazganning haqqiga duo qilaman* [3:259]. Misollardagi *chigildak (o‘ralgan), bana’ji (behad, hisobsiz), jezna (pochcha), jekirig (do‘q, po‘pisa), balonishin (baland), ramaqijonlik (juda ozgan, to‘zgan)* leksemalari dialektizmlar hisoblanib, ular matnda o‘z denotativ ma’nosidan tashqari, turli konnotativ ma’nolarni ifodalashga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, muallifning shunday hajviya, felyetonlari ham uchraydiki, bunda muallif qahramonlar nutqini individuallashtirish, davr ruhini aks ettirishda boshdan-oyoq asar matnini dialektal birliklar asosida tuziadi. Jumladan, “Mishtum” jurnalining 1925-yil, 25-noyabr sonida e’lon qilingan, yer islohoti masalalariga bag‘ishlangan “Ay, xuday urg‘anlar” nomli hajviyasi qahramoni, qishloq mulkdori bo‘lgan Sotimdov “j”-lovchi qipchoq shevasi vakili sifatida asar oxiragacha o‘z shevasida gapirtirilgan: *“ – Rahmetlik atam, - deydi Sotimdov, - qistovg‘a aqsaqal bo‘lg‘anda, Karim buqaqning balalaridan o‘ttiz tenab jerni naqd aqchag‘a satib ag‘an, vasiqasi naq usi chiqar! – deb yana bir qog‘ozni oladi”* [3:278]. Bunda muallifning asarda fonetik, morlogik, leksik dialektizmlarni mahorat billan qo‘llaganligi xalq tilining nodir bilimdoni ekanligini ham amalda isbotlagan.

Kichik asarlar matnidagi dialektal leksik birliklar, ularning qo‘llanishidagi sabab va omillar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, bularning asarlar matnida istifoda etilishining birinchi sababi sifatida XX asr boshlaridagi davr adabiy tilining fonetik, morfologik, sintaktik me’yorlari qatorida leksik, ya’ni so‘z qo‘llash bilan bog‘liq me’yorlarning ham hali to‘laligicha mukammal ishlab chiqilmaganligi bo‘lsa kerak. Bunda leksik me’yorlarni shakllantirishda Abdulla Qodiriyning o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshirishda xalq shevalariga asosiy manba sifatida tayanib ish tutgani aniqlashadi. Ikkinchidan, sevalardagi leksik paralellizmni bartaraf etish maqsadida muayyan shevaga xos so‘zni istifoda qilishda bu birliklarning barcha shevalarda iste’molda bo‘lishiga intilgan.

Ish-harakat leksemalariga oid bo‘lgan quyidagi misollarga diqqat qilaylik: *“Endi toycham juda ham gijinglab, xuddi to‘ralarnikidek bo‘lib ketdi. U yoq bu yo‘g‘ini supurgandan keyin ustunga **qantarib qo‘ydim**”* [3:16];

*“ – Hurriyat?! – dedi, orqasiga o‘girildi. O‘g‘illari yuziga suv sepdilar. Lekin ul hushsiz emas edi, balki **shodmarg‘ bo‘lg‘an** edi”* [3:54). “Uloqda” hikoyasi, “Shodmarg” nomli kichik

felytondan olingan mazkur parchada qo‘llangan, ajratib ko‘rsatilgan leksemalarning izohi quyidagicha: “QANTARMOQ” shv.– ovqatga, yem-xashakka yeta olmaydigan qilib, arqonni kalta qilib bog‘lamoq” (O‘TIL, V, 241-bet); “SHODIMARG BO‘LMOQ” shv. – sevinchdan to‘satadan yuragi yorilib o‘lmoq” (O‘TIL, IV, 591-bet). Ko‘ryapmizki, bu ikki leksemaning leksik dialetizm ekanligi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham qayd etilgan. Muallif bu kabi birliklarning qo‘llanishi orqali kichik asarlari tilining xalqchilligini ta’minlashga harakat qilgan. Kichik asarlar tilida ayrim o‘rinlarda leksemaning dialektal variantlari sinonim sifatida fikrni ta’kidlash, ma’noni kuchaytirish maqsadida ketma-ket keltirilgan: *“Basharti ul yerdan biror ilojining imkoni bo‘lmag‘an taqdirda, faqir bul janubda* ***picha, jichcha*** *harakat qilib ko‘raman”* [3:392]. *Ozgina – bir oz – oz-moz – picha – sal- xiyol – jindek - qitday – jichcha – andak – chizi* kabi narsa, vaqt, masofa, harakat-holatning miqdor-darajasini oz miqdorda ekanligini ifodalovchi bu leksemalar sinonimik qatoridagi picha, jichcha leksemalarining dialektal xoslanganligi lug‘atda keltirilgan [4:155]. Matndagi bu ikki sinonim leksemaning baravar keltirilishini ularning adabiy til uchun maqbul varianti hali me’yorlashib ulgurmaganligi bilan ham izohlash mumkin.

Bundan tashqari, kichik asarlar matnida *tumsa (tug‘mas sigir), bo‘yni g‘avslar (bo‘yni yo‘g‘on), janas (tezak), ko‘laga (soya), ujra (maosh), ganak (qimor puli), muxmal (noaniq), jibinlik (qo‘rqoqlik), guvranmoq (ming‘irlamoq), muncha (hammom), qarqunoq (o‘g‘ri), yumruq (musht), kijr (kuchi kam odam), ikmag (non), shayarib (sho‘xlik), yalg‘ov (payvand)* kabi bir necha leksik dialektizmlar ham qo‘llangan. Ahamiyatlisi, muallif bu unsurlarni aniq maqsad, talab va ehtiyojdan kelib chiqib qo‘llaganki, bu maqsabning asosida adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirishga bo‘lgan intilish yotadi. Dialektal birliklarning aksariyatining ma’nosi har bir sahifa so‘nggida qisqa izoh bilan berilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Frazeologik dialektizmlar. Statistik tahlillrimiz kichik asarlar matnida dialektizmlar miqdori 284 tani tashkil etishini ko‘rsatdi. Bu dialektizmlarning 128 tasi leksik dialektizm, 61 tasi fonetik-morfologik dialektizm, 95 tasi esa frazeologik dialektizmlar guruhiga mansubdir. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, adib asarlari tilini xalqchil, sodda va tushunarliligini ta’minlashda birinchi vosita sifatida so‘z va unga teng keluvchi xalqona iboralarni keng qo‘llagan.

Abdulla Qodiriyning did bilan qo‘llagan iboralari hissiy holat ifodasida, qahramonlar xarakteri va ruhiy holatini ta’sirchan ifodalashda so‘zdagi iqtisodning amaliy ifodasidir: *“Men o‘quvchining go‘sh haqindagi holini bilmayman. Lekin go‘sh otini eshitsam, og‘zimdan* ***kalaba-kalaba suv keladur****”* [3:80]; *“Ushbularning o‘qug‘an kishining dami dambalig‘a ketadi!”* [3:188]; *“Nima qilay, tanqa burunlarining yonig‘a yo‘lolmay chet-chetda* ***qo‘nqaboy bo‘lib yuribmanda****”* [3:248]; *“Bu elning nesi ko‘b?* ***Cho‘talchisi yoki bo‘talchisi****. Aytish uyat, ammo aytmaslik nomus”* [3:284]. Matndagi *kalaba-kalaba suv keladur; qo‘nqaboy bo‘lib yuribmanda; cho‘talchisi yoki bo‘talchisi* iboralari adabiy norma sifatida qabul qilinmaganligi bu birliklarning dialektal frazeologizmlar ekanligini tasdiqlaydi.

Kichik asarlarda adibning anologiya asosida qo‘llagan individual, shaxsiy yaratiqlari hisoblangan frazeologizmlar ham uchraydi: *“Shuning uchun faqat mengina temirchini ko‘rganda* ***qovog‘imning to‘qimini solib****,* ***tumshug‘imni bir yarim qarich osiltirib*** *javob bermas edim”* [3:308]; “***Gap ko‘p – qalam to‘mtoq, ishtaha karnay – palov bedarak,*** *otimiz ulug‘ – suframiz qurug‘...* kabi yuqori-quyi gaplar bilan mavzuni ikkinchi vaqtg‘a qoldiramiz” [3:214].

Adib asar qahramonlarini ta’rif-tavsif qilishda ishlatgan ibora va ibora tipidagi gaplar voqealar tasviri davomida qo‘llanib, ular orqali xarakter, obraz kayfitayi, uning holati o‘ziga xos tarzda bayon etilgan. Hikoya, maqola, hajviya va felyetonlar tilida qo‘llangan quyidagi parmeologik birliklar ham adabiy norma sifatida qabul qilinmagan, ular xalq lahja va shevalarida keng qo‘llanishdagi dialektal frazeologizmlar, ayrimlari esa muallif tomonidan yaratilgan iboralar

sanaladi: *quyruq burashga usta [3:246], bo‘yin tomirini o‘qlovdek qilib (3:388], o‘rgumchakka uya bo‘lib yotmoq [3:110], yelkasi yag‘irning choponini o‘g‘irlamoq [3:173], dumi qopqonda qolg‘onlar [3:133], savdogarlarning to‘ng‘iz qo‘pishi [3:171], tarixning boshini yorib, ko‘zini chqarganlar [3:191], yaratilg‘anicha qolg‘on [3:228], tog‘dagi mashoqqa besaranjon yugurish [3:303], yurt ichda sho‘ra ko‘rsatgan oliy [3:303].*

Fikrimizni umumlashtiradigan bo‘lsak, dialektal frazeologik birliklar kichik asarlar tilini soddalashtirish, aytmoqchi bo‘lgan fikrni xalqqa tushunarli qilib yetkazish vazifasini bajarishda muhim vosita sifatida qo‘llangan bo‘lsa, muallifning ibora barobaridagi grammatik tarkibli gaplari, birikmalari adibning til boyligigiga ijodiy yondashganligining amaliy ifodasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bunday dialektal birliklarning semantik-stilistik xususiyatlarini badiiy asarlar tili materiali asosida o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. -Тошкент: Ўзбекистон, 2002. -Б. 170-171.

2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek tili. -Tos hkent: Universitet, 2066. -B.84.

3. Абдулла Қодирий. Диёри бакр. Танланган асарлар. V жилдли. III жилд. (нашрга тайёрловчи Хондамир Қодирий). – Тошкент: Info Capital Group, 2017. – 566 b.

3. Хўжамқулов А. Ўзбек тилида метафоранинг таснифланишига доир / Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 20 йиллигига бағишлаб чиқарилган илмий мақолалар тўплами. Лингвист. 2-китоб. – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 85–88;

4. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. -Б. 155.

XALQ ALLALARI LEKSIKASINING TUZILISHI VA LUG‘AVIY QATLAMLARI

THE STRUCTURE AND LEXICAL LAYER OF THE LEXICON OF FOLK ALLA

Nasirova Kamola Baxramovna
ToshDO‘TAU, erkin tadqiqotchi
kamola@gmail.uz

Annotatsiya.*Ushbu maqolamizda xalq allalari leksikasining tuzilishi va lig’aviy qatlamlarini o’rganish maqsadida bir nechta alla matnlarini tahlilga tortdik. Alla matnlarida uchragan diolektal so’zlarning tuzilishi, ma’noviy imkoniyatlarini o’rgandik.*

Kalit so’zlar: *alla, diolektal so’z, leksika, lug’aviy qatlam, erkalama, atama, tahlil, sheva.*

Abstract.*In this article, we analyzed several alla texts in order to study the structure and linguistic layers of the lexicon of folk allas. We studied the structure and meaning of the dialectal words found in the texts of alla.*

Key words: *alla, dialectal word, lexicon, lexical layer, caress, term, analysis, dialect.*

Har qanday tilning leksik qatlami uning tarixiy taraqqiyot davri bilan bevosita bog‘liqdir. Mana shu xalqning kelib chiqishi, boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalari, iqtisodiy va madaniy

taraqqiyoti, maishiy turmush tarzi, ma’naviy va madaniy boyliklarining vujudga kelishi va vaqt o‘tgani sayin ularning o‘sib rivojlanib borishi, insonning ushbu hodisalarga bo‘lgan munosabatining o‘zgarib borishi natijasida leksik qatlamda ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu jarayon esa uning taraqqiy etib borayotganiga ishoradir. Ularning kelib chiqishi va ma’nolarini aniqlash, tadqiq qilish bir qancha tilshunos olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, jumladan T. Sodiqov “Toshkent violoati shevalari leksikasi” dissertatsiya ishida Toshkent viloyati leksik qatlamini o‘rganib, Toshkent viloyati shevalari leksik qatlamini ham ikki qismdan iborat ekanini asoslab bergan:[1]

1.Umumturkiy leksik qatlam-umuman tilda, shevalarda leksik ma’nolarning yaxlitligi katta rol o’ynaydi.

2.O’zlashtirilgan leksik qatlam-biror tilning ikkinchisiga bo’lgan ta’siri tilning turli tomonlarini: leksika, so’z yasalishi, semantika, sintaksis, fonetika va morfologik kabi tomonlarini o’z ichiga oladi. Ya’ni, biror millat tilidagi bir tub so‘zning leksik tarkibining yoki grammatik qurilishining ikkinchi bir tilga ayni shu xususiyatlar bilan o‘xshashligi va genetik aloqasi tasodifiy hol emas. Chunki, o‘zbek tilidagi qiyosiy tarixiy o‘rganish natijasida ba’zi o‘zbek sheva va dialektlari hamda qo‘shni qardosh turkiy tillarga xos leksik grammatik va fonetik jihatdan umumiyliklarni ham topish mumkin.

Ba’zi boshqa tillardan kirib kelgan so’zlar bugungi kunda mana shu xalq, yoki bir hudud sheva vakillari tomonidan ba’zi fonetik o’zgarishlarga uchragan, yohud o’z ma’nosidan boshqa ma’no kasb etgan bo’lsada mana shu xalqning tub so’zlaridek o’zlashib ketgan. Bu kabi o’zlashma so’zlar Toshkent viloyati hududi sheva leksikasida ham o’zini namoyon qiladi. Masalan əzən so’zi sheva vakillar tomonidan ko’p qo’llanadi. Bu Toshkent shevasida erta tong degan ma’noni anglatadi. Ǝzən aslida arab tilidan kirib kelgan bo’lib, shevada boshqa bir ma’no kasb etib o’zlashib qolgan. dj'lt - biror matoning sirti, g‘ilofi, kitob daftar solinadigan xalta, muqova, teri kabi ma’nolarni anglatadi. Aslida esa u fors-tojik tilidan o’zlashgan so’z. Bunday so‘zlar etimologiyasidan, fonetik o‘zgarishlaridan, semantik siljishlaridan qat'i nazar, Toshkent shevasiga va viloyat shevalariga tub so‘zlar singari o‘zlashib ketgan.

Fikrimizcha, ilning sheva qatlamini o’rganish uchun sheva vakillaridan yozib olingan matnlar orasida alla qo’shiqlari yaxshi manba bo’la oladi. Sababi, ona farzandiga alla aytganda qalbidagi bor tuyg’ularni to’kib-solganda hissoyotga berilgan holda o’z shevasini to’laqonli namoyon qiladi. Shu sabab ham biz ushbu ishimizda xalq allalari leksikasining tuzilishi va lug’aviy qatlamlari bilan qiziqdik.

Bizga ma’lumki, so‘zlar shakliga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy ko‘rinishga ega. Ma’no munosabatiga ko‘ra esa so‘zlar tilshunoslikda sinonim, antonim, omonim va paronim so‘zlar guruhlariga bo‘lib o‘rganiladi. Dialektolal so‘zlar ham shaklan sodda, qo‘shma, juft va takroriy ko‘rinishga ega bo‘lib, ma’no munosabatiga ko‘ra sinonim, antonym, omonim va paronim kabi turlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq. Tadqiqotimiz mobaynida shevashunos olimlarimiz tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda aytilgan dialektal so‘zlarning shakl jihatdan har bir turiga mansub so‘zlarni uchratdik. Quyida Toshkent viloyati Yangi yo’l tumani Ajiniyoz ota qishlog’i yaqinidagi Sayt ata mahallasidan yozib olgan allalarimizni tahlilini ko’ramiz.

Dala to‘la **biday**im,
Yig’arga **no‘vbat** keldi.
Atang ketgan o‘rimga,
Anang qiynalip qaldi.

[1] Т. Содиқов. Тошкент вилояти.

Biday-fonetik dialektal so‘z bo‘lib, birinchi bo‘g‘indagi **u** unlisi **i** ga almashgan, ikkinchi bo‘g‘indagi **o** unlisi **a** bilan o’rin almashgan. Birinchi bo’g’indagi g’ undoshi tushib qolgan. shu bois **i** unlisi cho’ziq talaffuz qilinadi. soda dialektizm.

Shuningdek, ushbu alla matnida **no‘vbat, atang, anang va qiynalip** kabi fonetik, sodda dialektal so‘zlar mavjud.

Atang bo’lsa **avitib**,
Berardi seni alla,
Anang seni **almatr**,
Ishlerim qilalmam, all.

Bu alla matnida dialektizmlarning bir nech turlari mavjud. **Atang, avitib, anang, ishlerim** kabi so’zlar fonetik, sodda dialektizm sanaladi. **Almatr-**morfalagik dialectal so‘z bo‘lib, bunda **–yotir** hozirgi zamon qo‘shimchasi tarkibidagi unlilar tushib qolishi natijasida **–tr** shaklini olgan. Bu ham sodda shaklga ega dialektizmdir.

Qilalmam-bunda so‘z eliziya hodisasiga uchragan bo‘lib, qila olmayapman so‘zlari birlashib shu ko’rinishga kelib qolgan. bu dialektizmimiz qo’shma dialektal so‘z hisoblanadi.

Uxlab katta bo‘lgin-ey,
Bir kunimga **engine**-ey,
Beshlik bersam qo‘lingga,
Pichankashim bo‘lgin-ey,
Alla balam, alla.

Engin-sof dialectal so’z bo’lib, yaramoq, foyda keltirmoq degan ma’noni bildiradi. Sodda dialektizm.

Beshlik-somon yoki xashakni bir joydan ikkinchi joyda kotarib olib o’tadigan mehnat quroli. Sof dialectal so’z. Tuzilish jihatdan sodda so’z.

Pichankashim-bu ham sof dialektizm bo‘lib, pichan so‘ziga –kash fors tojik tilidan o‘zlashtirilgan qo‘shimchani qo‘shishda hosil bo‘lgan. Pichan-xashak yig‘ishda yordamchim degan ma’noni bildiradi. Bilamizki, qishloq aholisi chorvachilik bilan shug’ullanadi. Chorva boqqan odamga albatta yegulik zarur. Shu bois ham qishloq aholisi yozning ko’p qismini pichan-chorva mollariga yegulik yig’ish bilan o’tkazadi. mana shu jarayonda yordamchi kuchning o’rni bilinadi. Ona bolasini eng og’ir yumushlaridan biriga katta yordam berishi mumkinligiga ishora qilmoqda. bu so’z ham tuzilish jihatdan sodda ko’rinishga ega.

Ko‘rib choqgan alla matnlarimiz tahlilidan kelib chiqib ayta olamizki, alla matnlarida dialektal so’zlarning shakliga ko’ra barcha turlarini uchratishimiz mumkin. Ammo shuni ham aytib o’tish joizki, dialektizmlarning sodda turi alla matnlarida o‘ta faol bo‘lib, ko‘plab alla matnlarida uchraydi.

Alla matnlarini tahlil qilar ekanmiz, unda so‘zlarning tuzilishiga ko’ra sodda va juft turlari faolligini, boshqalari ya’ni takroriy, qo‘shma va juft turlari esa yuqoridagi ikki turiga nisbatan nofaolligini kuzatdik. Tadqiqotimiz davomida deyarli barcha alla matnlarida sodda dialektal so‘z turini uchratdik. Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, dialektizmlarning sodda tuzilishga ega turi o‘ta faol o‘rinlarda qo‘llanadi.

Shuningdek alla matnlarining tahlili natijaida aytishimiz mumkinki, dialektizmlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan sinonim va omonim turlari uchraydi. 100 dan ortiq alla matnlarini tahlil qilish jarayonida dialektizmlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan antonim va paronim turlarini uchratmadik.

Alla matnlarida erkalamalar faol qo’llanadi. Erkalamalarning qay ma’noda qo’llanilishi onaning kayfiyati va vaziyatidan kelib chiqqan holda ifodalanadi. Agar onaning kayfiyati yaxshi

bo’lsa, ona farzandini ijobiy so’zlar bilan erkalab alla aytadi. Aksincha, u tushkun holatida bo‘lsa, farzandini tezroq uxlatish istagida ekanligi allasida ham namoyon bo’lishini kuzatdik.Tadqiqotimiz natijasida yana shunga guvoh bo‘ldikki, ona farzandiga alla aytish orqali atrofdagilarga: qaynona, qayniota, qaynisingil , turmush o‘rtog‘i va boshqa yaqinlariga aytolmayotgan istaklarini va dardini yetkazadi. Bu ham oiladagi munosabatni yaxshilashga va o‘zaro xurmatni saqlab qolishda muhimdir.

Beshik qo‘shiqlari onaning qalb izhorlari, bolasiga bo‘lgan mehr-muhabbatining bayoni sifatida bolani uxlatish, ovutish maqsadidda yangrovchi qo‘shiq bo‘lishi bilan bir qatorda, bolani uyquga tayyorlash, uyqudan uyg‘ongan bolaning kiyimlarini almashtirib olish, bolani atrof-muhit-borliq bilan tanishtirish onlarini ham o‘z ichiga oladi. Ona bu davrda ham turli qo‘shiqlar-erkalamalar, aldab-avrashlar, suyinmalar, quchmalaraytadi. Ularni ba’zan saj’li nasr, ba’zan nazm, ba’zan takror so‘zli gap va iboralar— xalq nutqiga xos ifodalar bilan aytadiki, bular ham mazmun va mohiyat, shakl va ifoda jihatidan allaga yaqin turadi. Mana shu o‘rinda alla matnlarida erkalama so’zlar aks etadi. Erkalama so’zlar onaning ichki his-tuyg’ulari jo’sh urgan nuqtada vujudga kelgani bois tadqiqotimiz natijasida alla matnlarida uchraydigan erkalama so’zlarning 70-80 %i dialektizmlardan iborat ekanini guvohi bo‘ldik.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, alla matnlarida uchragan erkalama dialektizmlar shaklan soda va takroriy ko‘rinishda, mazmunan esa ma’no anglatuvchi va ma’no anglatmaydigan dialektizmlarga bo‘linadi. Ma’no anglatuvchi dialektizmlar ham o‘z navbatida ikki guruhga bo’linadi:

3. Ijobiy ma’no anglatuvchi erkalamalr;
4. Salbiy ma’no anglatuvchi erkalamalr.

Ushbu bo‘limi erkalama dialektizmlarning barcha turlarini misollar bilan dalillab, izohlab o‘tishga harakat qildik:

Alla-yo, alla,	Ällä-jā, ällä,
Uxla qani, ingalog’im,	Uxla qanï.ingälāɣïm,
Nozikkina chaqalog’im,	Nozikkinä čaqaloɣïm,
Sochi uzun jingalog’im,	Sāči uzun ǯingälāɣïm,
O‘zi suyuk dingalog’im,	Ozi sujuk dingöalāɣïm,
Alla-yo, alla.	ÄllÄ-jā, ällä.

Ingalog‘im (ingāləg’im)-’loqim degan ma’noni bildirib, salbiy ma’noni bildiradi. Tuzilish jixatdan soda, ma’no anglativchi erkalama dialektizm sanaladi.

Jingalog’im (ǯingāləg’im)-buralgan ko’p eshilgan soch ma’nosini ifodalaydi. E’tibor beradigan bo’lsangiz bu soch bola ulg’aygan sari o’zgaradi. Man shu sochga jingalog’im deb erkalaydi.

Dingalog’im (ding)-ding-ding o‘yrin sochi qora va jingalak bo‘ladi. Yangi tug’ilgan chqaloqning qotaydigan bola. Ya’ni tinim bilmay, o‘rtoqlari bilan yugrib chopib, o‘ynaydigan bolaga ishora qilmoqda.

Bobina qizim, bobina,	Bābinä qïzïm, bābinä,
Ikki yuzi tobida,	Ikki juzi tābidä
Uxla endi alla-ya,	Uxla endi ällä-jä,
Quloq soldin ozgina.	Quloq sāldin āzginä.

Bobina (bɔbinä)-ma’no anglatmaydigan erkalash uchun qo’llaniladigan diolektal so’z. Ayniqsa qiz farzandga nisbatan qo’llanadi.

Alla, alla, alpinchoq,	Ällä, ällä, äloinčāāq,
Yelkasida shalpinchoq,	Yelkäsidä šälpinčāq,

Alla-yo, alla.	Ällä-jä, ällä.
Alla, alla, alpinchoq,	Ällä, ällä, älpinčāq
Yonboshida halinchak,	Jānbāšidä hälinčäk
Alla-yo, alla.	Ällä-jā, ällä.

Alpinchoq (älpinçɔq)-ma'no anglatuvchi dialektzm bo'lib, tirishqoq, ishtiyoqmand ma'nosida qo'llangan.

O'zbek shevalarida ham boshqa tillardan o'zlashtirilgan lug'aviy birliklar salmoqli o'rinni egalaydi. Shuning uchun ham o'zbek tilshunosligida so'z va atamalarni o'zlashtirish bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bularga V.V.Reshetov[1], A.Ishaev[2], Sh.Shoabdurahmonov[3], S.Ibrohimov, A.Shermatov va boshqa shevashunos olimlarning ishlari shular jumlasidandir.

O'zbek tili shevalarida tarkibida o'zlashtirilgan leksik qatlamning vujudga kelishi tarixiy jarayonlar va taraqqiyot bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Binobarin, tarixga nazar tashlar ekanmiz, xalqimizning boshiga tushgan sinovli kunlarda o'zga xalqlar tomonidan bosib olinishi va o'z madaniyati va ma'rifatini targ'ib etish harakatlari olib borilganligining guvohi bo'lamiz. Bu esa milliy tilimizga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Yillar o'tib hurriyat davriga etib kelsakda, o'zga tillardan kirib kelgan so'zlar tilimizda muqim o'rnashib qoldi. Buning ijobiy tarafi esa tilimizning boyishiga xizmat qildi. Bugungi kunga kelib ilm-fan, texnika odimlab borar ekan, yangi-yangi tushunchalar bilan birga yangi so'zlar tilimizga kirib kelmoqda. Jumdalan, birgina internet, youtube, electron pochta, twitter, fasebook kabi leksikalar tilimizga kirib o'zlashib qolmoqda. Tadqiqotimiz davomida bu kabi o'zlashgan so'zlarni alla matnlarida ham uchratdik. Jumladan, Toshkent viloyatining Toshkent tumanidagi Chuvalachi qishlog'ida bo'lganimizda MASTURA AYA dan yozib olingan alla matnida yuqoridagi kabi zamonaviy texnika rivoji bilan bog'liq atamalarga duch keldik.

Pochtadan xat keldi deb yuguraman alla-yo,
Xatda nelar yozilgan deb, qayg'uraman alla-yo.
Xat otangdan kelibdi alla bolam alla-yo,
Yurak bag'rim tilibdi, alla bolam alla-yo.

Alla aytib dardlarim to'kib olsam alla,
Faqat sen eshitasan, alla bolam alla.
Aka opang bosh ko'tarmas yutubidan alla,
Hatto xabar olmaydi, kitobidan alla.

Alla aytsam bolamga uxlamaydi-yo alla,
Zamonaning bolasi, ne istaro alla.
Internetda bormikin mazasi, alla-yo alla,
Nima berar mazasi alla-yo alla.[4]

O'zlashgan so'zlarning bir hududda boshqa hududga nisbatan keng yoyilishi o'sha hududning rivojlanishi tezligi bilan bog'liq. Biror shahar yoki qishloqda, xalq xo'jaligining biror sohasida o'zlashtirilgan so'zlarning miqdori ko'proq, boshqalarida esa kamroq bo'lishi mumkin.

[1] В.В. Решетов."Тошкент вилоятининг қурама шеваси фонетика ва морфологияси". 1952
[2] Ишаев А. Ўзбек лексикографияси. Т.,Фан, 1989. 3-37-б.
[3] Ш. Шоабдурахмонов. Тошкент шевалари ўзбек шевалари. 1976
[4] Alla matni Toshkent viloyatining Toshkent tumanidagi Chuvalachi qishlog'ida yashovchi MASTURA AYA dan yozib olingan.

Toshkent viloyati shevalari lug’at tarkibining vujudga kelishi, tarixi, uning rivojlanishidagi o‘ziga xos shart-sharoitlar shu so‘zlarning fonetik tuzilishida, yasalishida hamda ularda ro‘y bergan semantik siljish va ijobiy bo‘yoqlarning turliligida aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, alla matnlari shevalarni o’rganish uchun eng samarali manbadir. Xalq allalari leksikasi boy va rango-rang bo’lib, shevashunoslik tadqiqotlarida leksik qatlamni o’rganish uchun samarali xizmat qiladi. Alla matnlaridagi diolektal so’zlarning tuzilishi va lug’aviy qatlami bugungi kungacha o’rganilmagan. Shu bois xalq allalarining leksik qatlami o’z tadqiqodlarini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirbayev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. 2021 176-b, 78-b.
2. В.В. Решетов.”Тошкент вилоятининг қурама шеваси фонетика ва морфологиясиі”. 1952
3. Тохир Содиков “Тошкент вилояти лексикаси” АКД. Тошкент. 1968.
4. Содиқов Тохир. “Тошкент вилояти шевалари лексикаси”, Автореферат кондидатлик диссертатсияси, Тошкент, 1968.
5. Ишаев А. Ўзбек лексикографияси. Т.,Фан, 1989. 3-37-б.
6. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. Тошкент.,Фан, 1990.
7. Ш. Шоабдурахмонов. Тошкент шевалари ўзбек шевалари. 1976

“MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA IJOBIY MAZMUNDAGI KONTEKSTUAL ANTONIMLARNING BERILISHI

REFERENCE OF CONTEXTUAL ANTONYMS WITH POSITIVE CONTENT IN "MAHBUB UL-QULUB"

Muzaffarov Kamoliddin Abdusalom o‘g‘li
Toshkent amaliy fanlar universiteti
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Mahbub ul-qulub” asaridagi kontekstual antonimiya haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, adibning kontekstual antonimlar mohirona qo‘llash mahorati haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Annotation: This article talks about the contextual antonymy in the work "Mahbub ul-qulub" and comments on the author's skillful use of contextual antonyms.

Kalit so‘zlar: Antonimiya, antonim, kontekstual antonimiya, tazod, janr, leksema, fonetika, antonimik juft, kontekst

Key words: Antonymy, antonym, contextual antonymy, contrast, genre, lexeme, phonetics, antonym pair, context

O‘zbek tilida antonimlik hodisasi keng tushuncha bo‘lib, butun bir asar mazmunini ochib berish uchun; asardagi voqealar tizimini aniqroq, ravshanroq ko‘rsatish uchun; biror bir qahramonni, narsalarni, joylarni ijobiy yoki salbiy sifatlarini ko‘rsatib berish uchun antonimlardan foydalaniladi. Biror bir narsani yaxshiligi uning ziddi bilan namoyon bo‘ladi. Matnlarda antonimlarning antonimligi ochiq-oydin ko‘rinib turadi va bu so‘zlar matndan tashqari holatlarda ham antonimlik vazifasini bajaradi. Lekin ba’zan matnni o‘qiganimizda antonimlik vazifasini bajarayotgan so‘zlar matndan ajratib olganimizda bu xususiyatlarini yo‘qotadi. Bu faqat shu matn uchun antonim, matndan boshqa holatlarda antonimlik qilaolmaydi. Bunga kontekstual antonimiya deyiladi. Kontekstual antonimiyadan foydalanish uchun yozuvchi yoki shoir yetuk mahoratga ega bo‘lishi, yozayotgan asari uchun kontekstual antonimiyani shakllantira olishi kerak. Kontekstual antonimiya haqida bir qancha olimlar o‘zlarini fikr-mulohazalarini bildirib o‘tganlar va ularning yakuniy xulosalari juziy farq bilan deyarli bir xil. Kontekstual antonimiya haqida o‘zbek tilshunosliging zabardast olimlaridan, “So‘z variantlarining imlo lug‘ati”, “O‘zbek tilida antonimlar”

asarlari muallifi Rashid Shukurov o‘zining “O‘zbek tilida antonimlar” asarida kontekstual antonimiyaga shunday ta’rif beriladi: Tilimizdagi ko‘pgina so‘zlar o‘z ma’nosi bilan ham, ko‘chma ma’nosi bilan ham antonim bo‘la olmagan holda, ular nutqda bir-birlari bilan mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma’nolarda qo‘llanishi mumkin. Masalan, *faxr-qahr, o‘tkir-past* so‘zlari o‘zaro to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari bilan o‘zaro antonim bo‘la olmaydi yoki antonimik juftlik yasay olmaydi[Шукуров. 1977. –Б.54]. Olim ta’kidlaganlaridek tilimizdagi ko‘pgina so‘zlar o‘z ma’nosida antonim bo‘lolmaydi. Ular faqat kontekstual holatlarda antonimlik hosil qila oladi. “Mahbub ul-qulub”da ham shu holat kuzatiladi. Asarning bir necha o‘rinlarida kontekstual antonimlar ishlatilgan. Asarda bir turdagi so‘zlar kontekstual antonim vazifasida kelgan. Va faqat shu matn uchun antonimlik hosil qiladi. Ushbu gapimizni asardagi ushbu parcha bilan isbotlashga harakat qilamiz. Odil podshoh haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qora tufrog‘din gullar ochar va mulk ahli boshig‘a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorosidin osuda, zalama va avonlar aning tig‘i siyosatidin farsuda. Hirosatidin qo‘yu qo‘zi bo‘ri xavfidin emin va siyosatidin musofir ko‘ngli qaroqchi vahmidin mutmain[1:144]. Bu yerda *fuqaro va notavon, qo‘yu qo‘zi va bo‘ri, musofir va qaroqchi* kontekstual antonim sifatida kelayapti. Qo‘y va qo‘zi bir turdagi so‘z va matndagina kontekstual antonimiya vazifasini bajarayapti. Bu o‘xshash holatlar ko‘plab uchraydi. Olim fikrlarini davom ettirib, shunday deydi:

Ammo bu so‘zlar ayrim gaplar (kontekstlar)da bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma’noda qo‘llana oladi:

*Ko‘zlarida nozik bir **o‘t** bor. U f a x r o‘timi, yo qa h r o‘timi bilib bo‘lmaydi* (M. Ismoiliy).

Uning (Umidning) zehni past emas, aksincha, serg‘ayrat, hozirjavob fikri o‘t k i r ekanligini o‘qituvchilari ham, do‘stlari ham bilishardi (Mirmuhsin). Ayniqsa,.. «zehni past», «zehni o‘tkir» kabi birikmalarda past-o‘tkir so‘zlari antonimik ma’no kasb etadi. Bunday antonimlarni kontekstual antonimlar deb yuritiladi, Aslida (leksik ma’nolari jihatidan) antonim bo‘lmasdan faqat kontekstdagina qarama-qarshi ma’noda ishlatilgan so‘zlarni kontekstual antonimlar deyiladi.

Demak, yuqoridagi kabi asli antonim bo‘lmagan so‘zlar ayrim kontekstlardagina qarama-qarshi ma’noda qo‘llanishi mumkin[Шукуров. 1977. –Б.54]. Bunda ham Alisher Navoiyning asaridan parcha keltirilgan, shuning uchun adib asarlarining barchasi ta’sirchan. Ko‘rinib turibdiki kontekstual antonimlar asar ta’sirchanligini oshiradigan, asarning badiiy qiymatini saqlaydigan vositalardan biri.

Kontekstual antonimlar so‘zlashuvchining nutqdan foydalanish qobilyatiga bog‘lnq holda nutq jarayonida paydo bo‘ladi. Ular uchun muayyan qolip bo‘lmay, tez-tez o‘zgarib turadi. Shuning uchun ham kontekstual antonimlar ilmiy-texnik va rasmiy nuthda emas, balki asosan poeziyada, publitsistikada va og‘zaki nutqda ishlatiladi [Шукуров. 1977. –Б.53-57].

Odil podshoh haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat. Quyosh bila abri bahordek qora tufrog‘din gullar ochar va mulk ahli boshig‘a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorosidin osuda, zalama va avonlar aning tig‘i siyosatidin farsuda. Hirosatidin qo‘yu qo‘zi bo‘ri xavfidin emin va siyosatidin musofir ko‘ngli qaroqchi vahmidin mutmain. [1:144] Qo‘y bilan qo‘zi, musofir bilan qaroqchi kontkstual antonim vazifasini bajarayapti. Matndan ayri holda antonimlik vazifasidan chekinadi.

fuqaro	*notavon*
osuda	*farsuda*
qo‘yu qo‘zi	*bo‘ri*
musofir	*qaroqchi*

Shomdin to sahar xonaqohlar eshigi ochuq va xilvatlar ibodat nuridin yoruq.[1:145] Ushbu gapda *xonaqoh va xilvat* kontektual antonim vazifasida kelayapti. Xonaqoh savdogarlar, mehmonlar to‘planadigan joy, xilvat qaroqvsiz joy. Bunda odil poshahning siyosatidan yaxshi-yu yomon, koshona va vayronalar ham birdek bahra oladi degan ma’noni yuzaga chiqarayapti.

Shohg‘a dunyoda chin so‘z deguvchi va aning oxirati g‘amin yeguvchi. Yomonlar andin haroson va yaxshilar dushvorlig‘i oson.[1:146] Dunyo va oxirat so‘zlari konteksda antonim bo‘lib kelib, yaxshi-yomon ma’nosida qo‘llanilmoqda. Bu dunyoning o‘tkinchiligini, bu dunyo imtihonlaridan o‘tib, oxiratga

tayyorlanishimiz kerakligini ifodalayapti. “Mahbub ul-qulub”da kontekstual antonimlar kop’roq ot so‘z turkumi doirasida qo‘llanilgan. Keyingi matndagi barcha kontekstual antonimlar ot so‘z turkumiga talluqli va bir so‘z turkumi doirasida keltirilgan. Kamdan kam holatda yasama kontekstual antonimlar ishlatilgan. Konteksdagi antonimlarni birgalikda tahlil qilamiz.

hayvonliq	*mardumliq*
bir	*yuz*
sabat	*bog‘*
botmon	*xirmon*

Ko‘rib turganimizdek *hayvonliq va mardumliq* antonimlik vazifasida qo‘llanilmoqda. Hayvonning asl ma’nosi barchaga ma’lum.mardumliq do‘st ma’nosini anglatayapti. Konteksda ularning qilgan yomon ishlarini hayvonlikka o‘xshatayapti. Va ularga odamiylik juda ka, deyarli yo‘q ekanligini tasvirlayapti: “Odamiysizliqda maxluqotdin mumtoz, hayvonliqlari ko‘pu mardumliqlari oz.(153)

Bir diram uchun yuz haqni nohaq etguvchi va oz karam uchun ko‘p «lo»ni «naam» bitguvchi. Bir sabat uzum uchun bir bog‘ni kuydurmakdin g‘ami yo‘q va bir botmon bug‘doy uchun xirmonni sovurmoqdin alami yo‘q.[1:157]

Adib tabiblar zikrida faslida ham oxirgi baytda kontekstual antonimlardan foydalangan. Ushbu baytda *shifo va balo* so‘zlari kontekstual antonim vazifasida kelmoqda. Shifo bu-biror bir kasallikka davo bo‘luvchi vostida nazarda tutiladi. Tabobatda juda ko‘p o‘rinlarda ishlatiladi. Adabiyot ko‘chma ma’noda ishlatilib, “qalb shifosi”, “ruh shifosi” ma’nolarida qo‘llaniladi. Balo leksikasi esa ,asosan, noxush vaziyatlarda, salbiy tabiat hodisalriga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda ushbu leksikalar yordamida tabiblarning ijobiy hislatlari ko‘rsatilmoqda.

Bayt:

Hoziq tabibi xushgo‘y tan ranjig‘a shifodur,
Omiyyu tundu badxo‘y el jonig‘a balodur.[1:159]

shifo *balo*

Ne shoirona tarkiblari ahsan va ne oshiqona so‘zu dardlari shu’laafgan. Ba’zidin agar gohi birar yaxshi bayt voqe’ bo‘lur, ammo o‘n oncha yamon da’vo zohir bo‘lurki, u ham zoe’ bo‘lur.[1:161] Ushbu faslda adib shoirlarni ko‘proq yaxshi, ibratli narsalarni maromiga yetkazib yozish kerakligini, yozgan ijod namunalari xalq ko‘nglidan joy olsa, maqtanaverib o‘z mehnatini havoga uchirmaslik kerak deya voqe’ va zoe’ leksikalari orqali bayon qiladi.

Kotib shuaro so‘zining varaqnigoridur va so‘z maxzanining xazonadori. Xozin hunari amonat bo‘lur va tasarrufi xiyonat bo‘lur.[1:161] Bunda *amonat* va *xiyonat* leksemalari kontekstual antonim bo‘lib kelib, Xiyonatning asl antonimi vafo bo‘ladi. Faqat shu konteks uchun bu leksemalar antonimlik vazifasini bajarmoqda.

Biyik qiroati mahzi *ra’noliq* va anoniyat jamoatdin ilgari chiqmag‘ay ayni *rasvoliq* va nafsoniyat xayoli xalqqa *peshvoliq* va tasavvuri elga *muqtadoliq*

Keying matnda eng ko‘zga ko‘rinarli kontekstual antonim sifatida hamxona va begona leksemalarini olish mumkin. Chunki ushbu so‘zlar yaqqol aynan shu konteks uchun antonimlik vazifasini bajarayotganligi ko‘rinib turibdi. Ya’ni hamxona bu bir joyda, bitta xonada istiqomat qiladigan shaxslar. Begona esa umuman bir-biri haqida ma’lumotga ega bo‘lmagn shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Agar ayrim toifadagi odamlarga yaxshilik qilsang unga hamxona ya’ni eng yaxshi inson bo‘lasan. Agar unga foydang tegmay qolsa, unga shuncha yaxshiligingga qaramay begaona bo‘lsan deydi. Bu matn quyida keltirilgan.. Oz olsalar nosipos, ko‘p olsalar haqshunos. Aksari fosiq va badxo‘y va qolg‘oni kajtab’u durushtgo‘y. Harakotlari tuzuksiz so‘zlaridek va kalimotlari hashv va mahalsiz nozlaridek. Vafo alar tab’idin maslub, vafo ahli olida mardud va manqub. Mug‘anniy vafosiz, kungir hayosiz. Agar yillar rioyat qilibsen va hamxonadur, bir qatlaki bermading – begonadur.[1:167] *nosipos haqshunos*

hamxona *begona*

Biri yuz bo‘lurdin boshida ming savdo, bo‘zi katon bo‘lurdin ko‘nglida necha tamanno.[1:170] Bu matnda savdo-tamanno, bo‘z-katon leksemalari kontekstual antonim vazifasini bajarib kelmoqda. Bu

leksemalarni asl ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak, savdo leksemasi matndan ayro holda tamanno so‘ziga hech qanday antonim bo‘lolmaydi. Konteksda esa savdo qiyinchilik ma’nosida, tamanno xursandchilik ma’nosida kdelib kontekstual antonimyani xosil qilayapti. Yoki bo‘z va katon ham xudi shunday vazifani bajarmoqda. Bo‘z va katon matoning turlari bo‘lib, bitta turga kiradi, ammo bu yerda esa arzon va qimmat ma’nosini ifodalab kelmoqda.

…nafis ajnosni ayab chopon kiymasa, laziz ag‘ziyani isirkab qurug‘ non yemasa, .[1:171] Yuqoridagi matnda ham shunday holat takrorlanmoqda *nafis ajnos-chopon, laziz ag‘riy-qurug‘ non* leksemalari kontekstual antonimiyani hosil qilmoqda. Ikkala kontekstual antonimiyada ham arzon va qimmat ma’nosi ifodalanmoqda.

Shakovat tariqining nihoyatidur, hidoyat jodasining bidoyatidur, anoniyat g‘aflatidin seskanmakdur va bashariyat uyqusidin uyg‘otmakdur va nashoyist ahvolin anglamoqdur va noboyist af’olin tonglamoq va yaramas maxfiylarg‘a koshif bo‘lmoqdur va kerakmas da’viylariga voqif bo‘lmoq va a’mol qaboyihidin sharmandalig‘dur va af’ol fazoyihidin sarafkandalig‘ va ogahlig‘dur, bashariyat inodig‘a voqiflig‘dur, nafsi amora fasodig‘a va ko‘ngulga naformonlig‘idin mutag‘ayyir bo‘lmoqdur va ruhg‘a nafarjomlig‘idin mutanaffir bo‘lmoqdur.[1:188] *shakovat hidoyat*

….birovning berohlig‘idin chiqib, haqiqat yo‘lig‘a kirgay.[1:189] *berohlig‘idin haqiqat*

Qanoat ibodat quvvati hosil bo‘lg‘oncha quvvat bila o‘tkarmakdur va andin ortug‘ barcha nimaning havasin xayoldin, ko‘tarmakdur. Va benavolig‘ bila nafsni ozurda tutmoqdur va mahrumlig‘ bila quvoyi shaxvoniyni pajmurda qilmoqdur.[1:195] *o‘tkarmak ko‘tarmak*

Qone’ darveshning quruq noni, tome’ shohning xitoyi xonidin xo‘broqdur. Va forig‘i faqrandishning yovg‘on umochi olg‘uvchi g‘aniyning nabotiy kulochidin marg‘ubroq.

tuxmi bari g‘ino va shajaredur samari istig‘no; maedur - achchig‘ na nash’asi tarabangiz; yo‘ledur - qattig‘, ammo manzili farahomez.[1:196] Bu yerda quruq non va xitoyi non kontekstual antonim, ular aslida noning turlar, yovg‘on umoch va abotiy kulochda ham shu holat kuzatilayapti.

quruq non	*xitoyi non*
yovg‘on umoch	*nabotiy kuloch*
g‘ino	*istig‘no*
achchig‘	*tarabangiz*
qattig‘	*farahomez*

Achchig‘dur, ammo sudmand; qattig‘dur, ammo dofei gazand. Qaysi nomurod ilik etagiga urdikim, murod topmadi? Va qaysi giriftor ko‘ngul sabr bandig‘a qo‘ydikim, kushod topmadi? Farahlar miftohidur va bandlar attohidur.

Rafiqedur suhbati mumil, ammo oqibati murodqa qariyiliq va harifedur umidi uzun ammo nihoyati matlubqa hamnishinliq. Samandedur kohilxirom ammo manzilg‘a yetkurguvchi va buxtiedur saqilgom, lekin ma’mang‘a tushurguvchi.[1:198] Bunda sabrning ijobiy sifatini bildiruvchi kontekstual antonimlar qatnashayapti. Achchiq ammo xotirjam, qattiq ammo shirin deb tasvirlaydi.

achchig‘	*sudmand*
qattig‘	*dofei gazand*
umidi uzun	*Matlubqa hamnishinliq*
kohilxirom	*manzilg‘a yetkurguvchi*
saqilgom,	*ma’mang‘a tushurguvchi*

Ushbu maqolamizda biz “Mahbub ul-qulub”da keltirilgan ijobiy sifatni ifodalovchi kontekstual antonimlarni ko‘rib chiqdik. Va bir qanchasini imkon qadar tahlil tortik. Bobimizda kontekstual antonimlar ,asosan, qushlar, hayvonlar, misolida ko‘proq berilgan. Bunda yuqoridagi obrazlar orqali shaxs fel-atvoridagi ijobiy sifatlar akslantirilgan. Bunda bir qancha ijobiy sifatni bildiruvchi kontekstual antonimlar ijobiy sifatlarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Misol uchun tinchgina birovdan muttaxam bo‘lmasdan yegan yovg‘on umoching nechog‘lik oliy fazilatligi olqishlangan. Demak, ushbu ilmiy izlanishimiz o‘quvchilar uchun, adib asarlarini yanada teranroq tushunishga, Alisher Navoiy ijodini yanada chuqurroq anglash xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. “Yangi asr avlodi” 2019
2. Alibek Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati.-T., Adabiyot va san’at nashriyoti,1979
3. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik. “Tamaddun” nashriyoti, 2018

Internet saytlari:

1.www.arboblar.uz

2. www.navoiy.zn.uz

3. www.ziyouz.com

4. www.sputniknews-uz.com

5. www.saviya.uz

ILMIY MATNLAR TIPOLOGIYASIDA BIRLAMCHI MATN VA UNGA MUNOSABAT BILDIRUVCHI IKKINCHI TURDAGI MATNLAR HAQIDA

IN THE TYPOLOGY OF SCIENTIFIC TEXTS, ABOUT THE PRIMARY TEXT AND THE SECOND TYPE OF TEXTS THAT RELATE TO IT

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti tayanch
doktaranti Norbekova Madina Shuhrat qizi

Annotatsiya. Maqolada ilmiy matnlar tipologiyasida birlamchi va ikkilamchi tushunchalarning tahlili keltirilgan. Bu turdagi maqolalar jamiyatning ilmiy yutuqlarini idrok etish uchun ko'rsatma sifatida hizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy matn turlari, nutq janri, ikkilamchi axborot mazmuni, aloqa-vositachilik funksiyasi.

Abstract. The article presents an analysis of primary and secondary concepts in the typology of scientific texts. Articles of this type serve as a guide to the perception of scientific achievements of society.

Keywords: types of scientifi c text, speech genre, secondary information content, communication-mediating function

Har qanday matn uning qaysi xususiyatlari asos qilib olinganligiga qarab, bir nechta tasniflar bilan bog'lanishi mumkin. E.S. Troyanskaya, N.M. Razinkin ilmiy nasrdagi janr xilma-xilligi haqida yozadi [2,3,4]. Ular tur atamasi bilan birga janr atamasidan ham foydalanadilar. Janr atamasi adabiy tanqiddan olingan. Matn turi atamasi samarali modelni, matnning "namunasini" belgilash uchun ishlatiladi. Turli tematik mazmunga ega bo'lgan aniq matnlarning (matn nusxalari) funksional va strukturaviy xususiyatlarini aniqlaydigan konstruksiyalar mavjuddir. Matnning har bir turi unga berilgan o'ziga xos xususiyatlarning ma'lum bir tizimi (o'zgarmas, o'zgaruvchan) bilan ajralib turadi.

Matn turi - an'anaviy ravishda ma'lum bir maqsadga erishish uchun ishlatiladigan turli xil uslubdagi matnlar sinfi hisoblanadi, u standart aloqa sharoitida kommunikativ maqsadlar, standart kompozitsion tuzilish bilan tavsiflanadi. Bir xil turdagi matn turli uslublarga mansub nutq janrlari shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Nutq janri deganda ma'lum muloqot sharoitida ma'lum kommunikativ maqsadlarga erishish uchun an'anaviy ravishda foydalaniladigan matnlar sinfi tushuniladi. Shunday qilib, matn turi uning mavjudligining o'ziga xos shakllariga, nutq janrlariga nisbatan o'zgarmasdir. Nutq janri, o'z navbatida, muayyan kommunikativ maqsadga ega bo'lgan va muayyan muloqot sharoitida qo'llaniladigan matnlarning o'zgarmasligi sifatida ishlaydi.

Birlamchi, ikkinchi darajali tamoyiliga ko'ra matn turlarining bo'linishi mavjud. Ilmiy axborotning xususiyatiga qarab birlamchi va ikkinchi darajali matnlar farqlanadi. Birlamchi matnlarning maqsadi boshqa integral matn tomonidan taqdim etilgan kontseptsiyaga kompozitsion asoslanmagan, original ilmiy tadqiqot jarayonida olingan ilmiy ma'lumotlarni yetkazishdir. Ikkilamchi ilmiy matnlar boshqa muallif tomonidan yaratilgan asosiy matnni analitik-sintetik qayta ishlashning yakuniy natijalarini o'z ichiga oladi. Asosiy va hosila ontologik va kommunikativ asosiy ish o'rtasidagi o'zaro ta'sirning mohiyatini aniqroq aks ettiradi. Yangi yaratilgan matnda aks ettirish ob'ekti bo'lgan ikkinchi darajali ilmiy matnlar ilmiy muomaladagi yangi yutuqlar to'g'risida ma'lumot tarqatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Birinchi navbatda, kommunikativ-vositachi sifatidagi vazifasi muhim hisoblanadi. Ikkilamchi matnning asosiy xususiyati asos ishning muhim mazmuniga semantik muvofiqligi, unga nisbatan kichikroq hajmli matn mazmuni bilan cheklanganligidir. Bu asosiy matnning batafsil tavsifidan farqli o'laroq, "ajralmas model" dir [3]. Shu munosabat bilan, ikkilamchi matnlar "ikkilamchi axborot mazmuni" kabi xususiyat bilan tavsiflanadi. Ikkilamchi axborot mazmunining o‘zagi birlamchi manbaning eng muhim va foydali semantik ma’lumotlari bo‘lib, asl nusxaning asosiy ma’lumotlarini yiqitish, uni foydali ma’lumotlarni zichlashtirish orqali faktik ma’lumotlar sifatida taqdim etish natijasida yaratilgan o‘zgarmasdir. Shunday qilib, ikkinchi darajali matnlar minimal ortiqchalik bilan tavsiflanadi, bu ular uchun ma'lumotni siqish kabi sifatni muhim qiladi, bir qator umumiy xususiyatlarga ega bo'lib, o'ziga xos farqlarni ochib beradi. Kommunikativ-funksional yo'nalishga ko‘ra bu tur matnlar ilmiy-axborot (mavhum) va ilmiy-tanqidiy (baholovchi) matnlarga bo‘linadi. Ilmiy axborot matnlari konspekt, annotatsiya va xulosani o'z ichiga oladi [1]. Ularning asosiy vazifasi axborot va umumlashtirishdir. Ular birlamchi manba ma'lumotlarining operativ foydalanish uchun maqbul bo'lgan siqilgan shaklda saqlovchisi sifatida ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Брандес М.П. Стилистика текста. М.: Прогресс-Традиция; ИНФРА-М, 2004. 416 с.
2. Разинкина М.Н. Функциональная стилистика. М.: Высшая школа, 1989. 168 с.
3. Троянская Е.С. К общей концепции понимания функциональных стилей. // Особенности стиля научного изложения: Сб. статей. М.: Наука, 1976. С. 23-82.
4. Троянская Е.С. Полевая структура научного стиля и его жанровых разновидностей. // Общие и частные проблемы функ циональных стилей: Сб. статей. М.: Наука, 1986. С.16-28.

YAZAR NAZAR ESHANKUL'UN ESERLERİ VE HALK BİLİMİ

MODERN UZBEK PROSE AND FOLKLORE (IN THE EXAMPLE OF AUTHOR NAZAR ESHANKUL'S WORKS)

Chuliyeva Nilufar Azam qizi
Filolojide felsefe doktoru (PhD), Doçent,
Özbekistan Ulusal Üniversitesi doktora öğrencisi
nilufarchuliyeva19@gmail.com

Kısa özet: *Bu makalede özbek yazarı Nazar Eşankul'un eserleri incelemektedir. Analiz sırasında folklor eserleri ile bu yaratıcının eserleri arasındaki ilişki, eserlerin ideolojik ve sanatsal yönleri incelenmiştir. Tarihsel, karşılaştırmalı, analiz-sentez ve psikolojik analiz yöntemleri kullanılarak yapılan araştırmada yeni Özbek nesirinin kendine özgü sanatsal yönleri öne çıkarılmıştır. Özbek halk destanlarının Nazar Eşankul'un eserleriyle ideolojik ve sanatsal bağlantısı araştırıldı. Makalede, sanatçının mitin özgün özelliklerinden biri olan metamorfoz motifini kullanma becerisi ve yöntemi hakkında bazı makul görüşler yer almaktadır. Dünya nesirinde ve Özbek nesrinde metamorfoz motifinin konuyu düzenleme işlevi incelenmiştir. Bu motif üzerinden sanatçının insan ve toplum imajı hakkındaki düşünceleri ortaya çıkmıştır. Modern düzyazının folklorla bağlantılı olarak incelenmesi, şimdiki özbek ve dünya edebiyatının başarılarını ve özgünlüğünü gösteren bilimsel bir yöntem haline gelmiştir.*

Anahtar kelimeler: *folklor, efsane, düzyazı (nesir), motif, yöntem, stil, karakter, mitoloji, gelenek, milliyet, başkalaşım, hronotop.*

Abstract: *This article analyzes the works of Nazar Eshankul, one of the representatives of modern Uzbek prose. During the analysis, the relationship between the works of this creator and the works of folklore, ideological and artistic aspects were checked. The unique artistic aspects of today's Uzbek prose are highlighted in the research using historical, comparative, analysis-synthesis, and psychological analysis methods. The ideological and artistic connection of Uzbek folk epics with the works of Nazar Eshankul was investigated. The article contains certain reasonable opinions about the artist's skill and method of using the motif of metamorphosis, which is one of the unique features of the myth. The topic organizing function of the motif of metamorphosis in world prose and Uzbek prose was studied. Through this motif, the artist's thoughts about the image of a person and the image of society came to light. The study of modern prose in connection with folklore has become a scientific method that shows the achievements and originality of today's world literature.*

Keywords: *folklore, prose, epic, motif, plot, method, style, character, image, mythology, tradition, nationality, metamorphosis, chronotope.*

Giriş. Belirli bir sanatçının becerisi ve özgünlüğü, onun tarzına açıkça yansır. Bilimde "üslup bir kişidir" (J. Buffon) görüşünün sıklıkla vurgulanması, üslubun yaratıcının kişiliğini ve gerçeği ifade etme biçimini yansıttığını da göstermektedir. Nazar Eshankul'un eserlerindeki

üslupla ilgili olarak uzmanlar, onun modernist, sembolik-metaforik imge yöntemlerini yoğun olarak kullandığını vurguluyor. Ve kendisi bu konuda şunu söylüyor: “... kuru bir açıklama yapmanın geleneksel olduğu doğru ama bundan uzaklaşmaya çalışıyorum. Aslında çok geleneksel yazıyorum. Kendim öyle düşünüyorum. Nevai'ye, Babur'a, Meşrab'a ya da destanlarımıza bakın. Eğer onları dikkatli bir şekilde okursanız, ben basit bir geleneksel uygulayıcı olarak kalıyorum”. Düşüncelerine devam eden sanatçı, folklorun büyük bir edebi keşif kaynağı olduğunu ve onun yaratıcılığı üzerindeki etkisini kabul ediyor: "Folklor her zamanda sanatçıya yeterli bir olay örgüsü, ima, felsefe, metafor, üslup verir. Sadece onu bulmanız, okumanız ve çıkarmanız gerekiyor. Folklor bir denizdir, ne kadar derine inerseniz o kadar bilgelik ortaya çıkar. Eserlerimin çoğunda folklorun etkisi açıkça hissedilmektedir" [3:164]. Bu düşüncelerden ve çoğu filoloji uzmanının görüşlerinden yola çıkarak Nazar Eşhankul'un bazı eserlerini aşağıda incelemeye karar verdik. Genel olarak, modern Özbek düzyazısı ile folklorunun karşılıklı ilişkisini incelemek, sanatsal eserin poetikası ve içeriğini mükemmel bir şekilde anlamaya yardımcı olur. Nazar Eshankul'un eserlerinin folklorla bağlantısını araştıran çok sayıda bilimsel araştırma bulunmaktadır [1]. Bu çalışmalarda mitoloji konusuna daha çok önem verilmektedir. Biz de aşağıdaki çalışmamızda bu konuyu sadece Nazar Eşankul ve folklor açısından değil, aynı zamanda dünya yazarları – Nazar Eşankul – folklor açısından da incelemeyi amaçlıyoruz.

Yöntem. Bu makalede tarihsel, karşılaştırmalı, analiz-sentez, psikolojik analiz yöntemleri kullanılmıştır. Zira bu yöntemlerle Nazar Eşhankul'un eserlerinin dünya ve folklor edebiyatıyla ilişkisi, sanatçının üslup ve özgünlüğü, eserlerinin poetikası hakkında net sonuçlara varmak mümkündür.

Tartışma. Nazar Eshankul'un "Savaş İnsanları" adlı uzun hikâyesi (povest)inde savaşın yıkıcı, baskıcı, her zaman insanlıkla birlikte yaşayan sonsuz bir tehlike olduğu düşüncesi eserin metnine yerleştirilmiştir. Özellikle uzun hikayenin anlatım kısmında yani Normat'ın atalarının soyağacını gösteren olayda bu fikir çok net bir şekilde ifade ediliyor. Bu hikayede, önceleri savaş görmeden barış ve uyum içinde yaşayan kadim Kungirat halkının, daha sonra savaşın o topraklara girmesi, insanların birbirine düşman olması, yıkım, kuraklık, açlık, klanlar arası çatışmalar belirtilmiştir. Sonunda savaş, onların uyumlu evliliklerini yok eder. Bunun üzerine aşiretin büyüğü Boyhun (Boysun), kana bulanmış, çorak ve çorak topraklarını terk ederek savaşsız bir toprak arayışına girdi. Ancak nereye giderlerse gitsinler savaş onları yakalıyor. Yıllar sonra aşiretin büyüğü Boyhun, yaşlanıp ölüm döşeğinde yatarken halkına ve soyundan gelenlere şu vasiyette bulundu: "Savaşsız bir ülke bulamazsanız, o zaman kardeşler, arkadaşlar, eşler, insanlar birdir, birbirlerine ihanet ederler ve birbirlerini aldatırlar. Kanın aktığı yerde ihanet çok olur, mutluluk oradan uzaklaşır, insanlar yaşama bilimini değil, birbirini öldürme bilimini öğrenmeye başlar, su yerine kan içen yaratıklara dönüşürler. Savaş dünyadaki her şeyi kurutacak, sizi yeryüzünden silip süpürecek. Hepiniz cahil ve sapık savaşçılar olacaksınız...” [4:16]

Görüldüğü gibi hikâyenin anlatım biçiminde sunulması eserin konusunu, yazarın eser aracılığıyla söylemek isteyen amacını belirlemiştir. Ayrıca Normat'ın trajedisine ve onunla bağlantılı kaderlere de işaret eder. Bu noktada şunu da belirtmek gerekir ki, bu olay akıllara halkımızın güzel kahramanlık destanı olan, kadim Boysun-Kungirat halkının sanatsal bir özeti olan, kadim değerleri ve yaşam biçimi hakkında bilgi veren "Alpamiş"i getirmektedir. Destanın olaylarındaki keskin çatışmaların, kardeşlerin kibirlerinden dolayı aralarında çıkan kavgayla başladığı bilinmektedir. Sonuç olarak nesiller başlayan bu savaşın acısını birkaç yıl boyunca çekecekler. Destanda kibirli kardeşler Boyböri ve Boysari'nin düşmanlığı ve savaşı nedeniyle yaşanacak olayları Barçın "tahmin ediyor":

“Abzallab keltirding hayvon to‘ringdi,

Bul ko‘chishing, ena, mening sho‘rimdi(r),
Boy otamman biy boboma ne bo‘ldi?
O‘yilmay kuymasin kulbayi xonam,
Oh urib yig‘laydi mendayin sanam,
Qalmoqda qolar-da guldayin tanam...
Xudoyim saqlagay bandani omon,
Tushib boshimizga qayg‘uli tuman,
Ot abzallab olib kelding, enajon,
Yana qaytib elni ko‘rmagim gumon...” [2:46]

Bu destanda savaş ve çatışmaların sonuçlarının neler olduğu, insanların sonsuz acılar çekmesinin nedenleri; sevdiklerine ve vatanına duyulan özlemin acısı anlatılıyor. Kısa öyküde bahsi geçen yukarıdaki olay, bu destandaki barışın yüceltilmesi ve sonuçları temasıyla da örtüşmektedir.

İki eserde de benzer yönlerin ortaya konması amacıyla, "Alpamiş" ve "Savaş İnsanları" eserlerinde savaşı ve çatışmaları kınama ve barış için çabalama düşüncesinin ifadesini aşağıdaki kavramsal tablodan göstermek mümkündür:

Sanat eseri	Eserlerin olaylarının karşılaştırılması için alınan yerler	Savaşın ve karşılıklı çatışmaların kınanması fikrinin ifade edilmesinde benzer yönler	Özellikler
Alpamiş	Zekat olayı	Kungirat halkının açıklaması, çatışan mevzileri, kardeşler arasındaki kibirden dolayı kavgaları, bu savaştan yıllarca acı çeken nesiller, kibirli kardeşler – Boyböri ve Boysari’nin düşmanlığı ve savaşı nedeniyle Barçın'ın gelecekteki olaylara dair "tahminleri"	Destanın karakteristik sanatsal özellikleri: sac, abartı, epik klişeler, 7–8 heceli şiirlerle muharebe, savaş ve çatışmaların gösterilmesi
Savaş İnsanları	Giriş hikayesi "Savaşsız Bir Ülke" ile ilgili bir anlatim	Kungirat halkı hakkında anlatılması, savaşsız, barış ve uyum içinde yaşayan kadim Kungirat halkının yıllar sonra birbirlerine düşman olması, klanlar arasındaki çatışmaların anlatılması, klanın büyüğü yaşlı Boyhun'un (Boysun) kendi halkı için savaşsız bir ülke araması hakkındaki eski vasiyeti	Bir ailenin kaderi örneğinde, tüm ulusun savaş nedeniyle çektiği acılar, modern gerçekçi tasvir yöntemlerine dayanarak ifade edilmesi

Yani bu uzun hikayenin gelenekselliği sadece gerçekçi görüntüde değil, halkımızın bilgeliğiyle fikir ortaklığında da görülüyor. Sonuçta Nazar Eşhankul'un da belirttiği gibi: Gelenek bir kelimedir, atalarımızın, büyük dehaların süslediği bir sözdür, onların acılarını ve düşüncelerini

ifade etmek için buldukları biçimler, bize bıraktıkları dersler, felsefedir; bunların hepsi gelenektir" [3:61]. Hikâyede bu yönün tezahür etmesi, sanatçının eserlerinin halkımızın sanatsal düşüncesinden de etkilendiğini göstermektedir.

Abstract. *Folklore has been living side by side with humanity since the dawn of time. Its various genres serve to show people the path of goodness. Children's games have a special place among these genres. This article discusses the image of the wolf active in Uzbek and Turkish games.*

Key words: *game, wolf, traditionalism, symbol, motive of punishment.*

Bolalar folklorining ajralmas qismlaridan biri bu bolalar o‘yinlaridir. Ulardagi yoqimli chorlamalar, qiziqarli sanamalar har bir ishtirokchini o‘ziga tortadi va o‘yinning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Mana shunday bolalar o‘yinlarining yanada ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi,albatta, bu o‘yinlardagi obrazlarga ham bog‘liqdir. Biz bolalar o‘yinlaridagi bo‘ri zoonimi ham mana shunday ahamiyatga molik obrazlardan sanaladi. Ushbu obrazni izohlash uchun o‘zbek bolalar o‘yini “ Kraska” va turk bolalar o‘yini “ Kurt Baba” o‘yinlaridan

foydalanamiz. Dastlab, “Kraska” o‘yini haqida aytsak, Namangan viloyati Davlatobod tumanida yashovchi Musinaliyev Behruzbekning aytishicha: bu o‘yinni o‘ynash uchun kamida yettita bola bo‘lishi lozim. Bu bolalardan biri Bo‘ri, yana biri Kraska sotuvchi, qolganlari Kraska vazifasini bajarishadi. O‘yin boshlanishidan oldin, Onatovuq jo‘jalarini ranglar nomi bilan nomlab chiqadi. Misol uchun: qizil, sariq, pushti, qora kabi. So‘ngra, Bo‘ri Kraska sotuvchisinikiga keladi va eshikni taqillatadi.

- Taq-Taq,
- Kim u?
- Men Bo‘riman.
- Nima kerak.
- Kraska,
- Kraska yo‘q.

(shu payt kraska bo‘lib turgan bolalar qarsak chalishadi.)

- Bor ekan-ku,
- Qanday rangdagi kraska kerak?

(Bo‘ri xohlagan rangini aytadi.)

- Qizil

(Qizil rangni tanlagan bola chiqadi, bo‘ri uni quvlay boshlaydi.)

Bola maydonni aylanib, o‘z joyiga qaytib kela olsa, o‘yinni davom ettiradi. Agar o‘z joyiga qaytgunicha bo‘ri uni tutib olsa, bo‘rining asiriga aylanadi. Bo‘ri yana kraska sotuvchining uyiga keladi va rang tanlaydi, o‘yin shu tarzda davom etadi. Agar Bo‘ri tanlagan rangdagi kraska (bola) bo‘lmasa, kraska sotuvchisi “ Sotdim” deb aytadi. O‘yin Bo‘ri tomonidan Kraskalar va Kraska sotuvchisini tutguniga qadar davom etadi. Bu o‘yindagi obrazlarni tahlilga tortsak, Bo‘ri obrazi o‘zbek folklorida va o‘zbek adabiyotida qanday obraz? Bilamizki, hayvonlar obrazi, albatta, ko‘chma obrazda keladi. Chunki ular insonlarga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Bo‘ri ko‘plab xalqlar adabiyotida salbiy ma’no tashiydi. Lekin turkiy xalqlar mifologiyasida bo‘ri obrazi ijobiy ma’noda qo‘llaniladi. Chunki bo‘ri turkiy xalqlarning totemi bo‘lib,bu hayvon haqidagi afsona, asotir va rivoyatlar bevosita turkiy xalqlar diniy tafakkurining shakllanishi bilan bog‘liq.[1-2] Turkiy xalqlar bo‘riga muqaddas hayvon sifatida qarashgan. “ Turkiy qavmlarda bo‘ri bilan bog‘liq ilohiy, ijtimoiy, etnik tushunchalar kengaygan. Bo‘ri-turkiy qavmlarning etnik jihatdan ma’naviy hayotiga rahnamo hisoblangan.”[2-12] “Turkiy qavmlar madaniyatida bo‘ri o‘ziga xos ahamiyatga ega. U qadimgi yozma manbalarda “ bo‘ri”, “ bo‘ru”, “ ko‘r bo‘ri”, “ kurt”, “ ko‘k kurt”, “ ko‘k yolli kurt”, “ bo‘z kurt” nomlari bilan uchraydi. Ajdodlarimiz bo‘rini “ himoyachi”, “ boquvchi”, “ homiy”, “ qutqaruvchi”, “ yo‘l ko‘rsatuvchi”, “ xabarchi” deb ulug‘lab, ilohiylashtirganlar.”[1-3] Shuning uchun ham bo‘ri obrazini folklorning har bir janrida o‘zgacha uslubda uchratishimiz mumkin. “ Bo‘ri totemi turkiy xalqlar og‘zaki ijodida urug‘ boshi, balo-ofatlardan saqlovchi madadkor kuch sifatida ulug‘langan. Masalan, «O‘g‘uznoma»da bo‘ri asar syujetini rivojlantiruvchi asosiy obrazdir. U qabilaga madadkor, g‘amxo‘r, ularni o‘z panohida asrovchi kuch sifatida ko‘ringan. Bunday tasvir o‘zlarini bo‘ridan kelib chiqqan deb hisoblovchi ashin urug‘i bilan bog‘lanadi. Hozirgacha xalqimiz o‘rtasida aytilib kelingan «Cho‘loq bo‘ri», «Bo‘ri qiz», «Bo‘ri» kabi afsonalar va ertaklarda ezgulik g‘oyalari ifodalangan.”[3-17] Demak, bo‘ri qadimdan turkiy xalqlarning do‘sti, u insonlarni asrovchi beminnat yordamchi hisoblangan. Ushbu obraz haqida ko‘plab qarashlar mavjud: Dilrabo Mingboyeva bo‘ri haqida shunday fikrlarni keltiradi: O‘rta asrlarda Yevropa madaniyatida bo‘ri yovuzlik, ochko‘zlik ramzidir. U urush ramzi bilan bog‘lanadi. U urush “ ma’bud”i Marsga bag‘ishlangan hayvon hisoblanadi, rimlik va misrliklarda harbiy jasorat timsoli.[4-57] Kraska (bo‘yoq) o‘yinimizdagi bo‘ri obrazi maqsadi sari

intiluvchi, jasur, qat'iyatli obraz. Bu o'yin bolalarda hayot yo'lida doimo olg'a borish,faqat orzu bilan emas, balki maqsadga intilish g'oyalarini shakllantirishga yordam beradi. Turk bolalar o'yini hisoblangan " Kurt Baba" o'yining ham asosiy qahramoni ham Bo'ri obrazidir. . "Kurt baba" o'yini Turkiya bolalarining sevimli o'yinlaridan biri. Unda asosan qo'llaniladigan vositalar tuxum va ranglardir. Bu o'yinni o'ynash uchun eng ozi to'rt kishi bo'lishi kerak. Bu o'yinning boshlanishida sanamalardan foydalaniladi.

Bir kedi varmış
On a kadar sayarmış
1.2. 3. 4. 5. 6. 7. 8. 9. 10.

O'n chiqqan ishtirokchi Bo'ri bo'ladi. Shundan so'ng, Yumurtachi(tuxum sotuvchi) qatnashchilar xohishiga ko'ra tayinlanadi. So'ngra Bo'ri uchun alohida chiziq chiziladi. Yumurtachi uchun alohida va yumurtalar (tuxumlar) uchun alohida joylar chiziladi. Qatnashchilarning hammasi o'z joylariga turib olishlari bilan o'yin boshlanadi. Tuxum sotuvchi har ishtirokchiga har xil ranglardagi ism qo'yadi. So'ng "Kurt Baba" bilan o'zaro dialog boshlaydi.

Taq-taq,
Kim o?
Kurt baba
Ne ister?
Yumurta(tuxum)

Shundan so'ng, Bo'ri ranglarni sanaydi. Bo'ri aytgan ranglar "tuxumlar" ichida bo'lmasa tuxum sotuvchi sotdim deya javob beradi.

Qaysi rang?
Yashil.
Sotdim.
Qizil.

Qizil bu rangdagi tuxum qochishi kerak. Bo'ri uni tutib olishga harakat qiladi. Qochayotgan tuxum o'z joyiga qaytib kela olishi kerak. Kela olmasa bo'riga asir tushadi. O'yin shu tarzda davom etadi. Bo'ri bir tuxumni tutib olganidan keyin tuxum sotuvchining eshigini yana taqillatadi.

Taq-taq,
Kim u?
Bo'riman.
Nima istaysan?
Tuxum.
Qaysi rang?
Qizil sotdim.
Siyohrang.

Siyohrang tuxum qoch, bo'ri kelyapti deya tuxum sotuvchi tuxumni ogohlantiradi. Ushbu rangdagi tuxum qochishni boshlaydi. Bo'ri esa quvlashni boshlaydi. Agar tuta olsa ishtirokchi o'yindan chiqadi. Tuta olmasa yangi nom bilan o'yinni davom ettiradi. O'yin shu tarzda davom etadi. Oxirida tuxumlarning onasini ham tutsa, unga jazo beradi. Ikkala o'yinning ham yakuni jazo motivi bilan yakunlanadi. G'olib bo'lgan bo'ri " ranglar" va " tuxumlar" uchun turli xil shartlar qo'yishi mumkin. Masalan: raqs tushish, qo'shiq aytish, bir oyoqda ma'lum masofaga sakrash kabi. Ma'lumki, onalarimiz o'z farzandlarini " Bo'ri bolam" deb erkalatishadi. " Ona farzandining ulg'ayishi, xalq himoyasiga otlanishi, Vatan sharafini himoya qilishini orzu qiladi. Bu borada chopag'onlikda tengsiz bo'ri kultiga murojaat qiladi"[5-500] Bo'ri obrazi turk afsona, rivoyat va dostonlarining ham asosiy qahramonidir. Boshqurt dostonlarida shunday afsona bor.

Bir Xoqonning juda aqlli va go‘zal ikki qizi bor ekan. Bu go‘zal qizlarni otasi insonlar qizlarimga munosib emas, qizlarim faqat Tangrilar bilan turmush qura oladi deb o‘ylarkan. Xoqonning kichik qizi tepalikda tangri kelishini kutarkan, bir bo‘ri paydo bo‘ladi. Qiz uning Tangri ekaniga ishonib, u bilan turmush quradi. Kaochi xalqi bu go‘zal qiz va bo‘ridan targalgan.[6-65] Bundan ko‘rinadiki, bo‘riga qadimdan muqaddas hayvon sifatida qaralib kelgan. Turk afsonalarida bo‘ri “Gök yeleli” deb tasvirlangan. Bunga sabab osmonning sohibi bo‘lgan Tangrining rangidir. Demak, Tangri sababi bilan bo‘ri ham muqaddasdir. Bo‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi, oilasini himoya qiluvchi obraz sifatida ham qo‘llaniladi.[6- 65]Biz bu ma’lumotlarga tayanib ayta olamizki, bo‘ri insoniyat uchun qadimdan muqaddas hisoblangan ramzdir. Olimlarning aytishicha, ko‘plab yovvoyi hayvonlarni qo‘lga o‘rgatsa bo‘larkan-u, ammo bo‘rini hech qachon qo‘lga o‘rgatib bo‘lmas ekan. U ozodlikni sevuvchi, o‘z fikriga ega, o‘zini va oilasini doimo himoya qila oladigan zabardast hayvondir. Ammo bugungi kunda folklorning ayrim janrlarida unga salbiy obraz sifatida qarab kelinmoqda. Masalan: ertaklarda qonxo‘r, laqma obrazida gavdalantirilmoqda. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bo‘ri obraziga shunday keltiriladi.

- Bo‘ri- yovuz, qonxo‘r,shafqatsiz odam haqida.

- Bo‘ri tug‘di(yoki bolaladi) Kun chiqib turib, yomg‘ir yog‘ayotganda aytiladigan ibora. [7-695]Bugungi kunda bo‘ri obrazini ham ijobiy, ham salbiy obraz deb olishimiz mumkin. Shuni unutmaslik lozimki, bizning ota-bobolarimiz ushbu hayvonga hurmat bilan qarashgan. “ Kraska-kraska” va “Kurt Baba ” o‘yinlarida ushbu obraz bolalarning epchil,uddaburon,maqsad yo‘lida olg‘a qadam bosishini va qat’iyatli inson bo‘lib tarbiyalanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyeva O. In Uzbek and Turkish folk proverbs,the wolf is a zoon. Maqola. Special Issue “ Hi-Tech Tendencies of Scientific Research” 2022.

2.Mahmudov.Q.Turkiy bayroqlar ramzi. “ Fan va turmush” jurnali,1991-yil,12-son.[Elektron resurs].

3.Abdurahmonov. A.Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi Samarqand – 2006. B-356.

4. Mingboyeva.M. Timsollar tilsimi.Toshkent.Adabiyot.2022.B-280.

5.Egamberdiyeva.Sh. O‘zbek va turk allalarida jonivorlar obrazi talqinlari.Namangan davlat universiteti.Ilmiy axborotnomasi.B-1409.

6. Türk kültüründe sembollerin dili doktora tezi.Selçuk Kürşad Koca.B-312.

7.O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-jild.G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent.2022. B-964.

TURKIY XALQLARNING “MEHMONDO‘STLIK” AN’ANA VA QADRIYATLARINI AKS ETTIRGAN MAQOLLARNING KONSEPTUAL TUSHUNCHALARI

CONCEPTUAL NOTIONS OF PROVERBS REFLECTING TRADITIONS AND VALUES OF "HOSPITALITY" OF TURKISH PEOPLE

Eshankulova Shohista Xayitmuratovna
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
shohistaxon.eshankulova1990@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning maqsadi etnosemantikani o'rganish, tavsiflash va taqqoslash bilan bog'liq mehmondo'stlik tushunchalarini aks ettirgan maqollar, frazeologik birliklarda umumiy va milliy shartli belgilarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Maqola mavzusi turkiy xalqlarning mehmondo'stligini lingvistik kontseptsiyalashning lingvistik va madaniy xususiyatlari.*

Kalit so’zlar: *Mehmondo’stlik, mehmondo’stlik semantikasi, frazeologik birliklar, etnosemantika, lingvistik konseptsiya.*

Abstract. *The purpose of this article is to study ethnic semantics, describe and compare proverbs expressing the concepts of hospitality, general and national symbols in phraseological units. The subject of the study is the linguocultural features of the linguistic understanding of the hospitality of the Turkic peoples.*

Key words: *Hospitality, semantics of hospitality, phraseological units, ethnic semantics, linguistic concept.*

Mehmondo‘stlik o‘zbeklar, qozoqlar va qirg‘izlar umuman olganda turkiy xalqlar madaniyatidagi eng muhim qadriyatlardan biridir. Ushbu xalqlar “muqaddas va aziz” deb hisoblangan mehmonlarga nisbatan alohida munosabati bilan ajralib turadi. Turkiy xalqlar mehmonga ijtimoiy mavqeyi va moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, har doim quvonch va yordam berishga, ularni izzat-ikrom bilan quchoq ochib kutib olishga tayyor.

Mehmondo‘stlik nafaqat kundalik hayotda muhim, balki chuqur tarixiy ildizlarga ega. Hayot qiyin va oldindan aytib bo'lmaydigan cho'l va tog'li hududlarda mehmonlar qo'shimcha resurslar va qo'llab-quvvatlash manbayi sifatida tan olingan. Shuning uchun mehmondo'stlik omon qolish va rivojlanishni ta'minlashning bir usuliga aylandi ham. Qozoqlar, o‘zbeklar va qirg‘iz xalqlarida mehmon kutish – bu nafaqat urf-odatni yana mehmonni xushnud etishni, balki unga barcha vaqt va e'tiborni bag'ishlashni ham anglatadi. Qozoq va o‘zbek xalqlarida “mehmon” atamasidan tashqari “qo‘noq” leksemasi mavjud bo‘lib bu aynan shu leksemaning sinonimidir. “Mehmon” so‘zi forsiy so‘z bo‘lib, o‘zbek xalqi va qozoq xalqi “qo‘noq” so‘zidan keng foydalanishgan.

Biror joyga, biror kimsaning uyiga qo‘ngan, tushgan yo‘lovchi, sayyoh; mehmon.

• Inson qo‘noq bo‘lar Oyga, Zuhraga. X. Rasul.

• Opa, siz palovga unnang. Toza, sen E’zozxonni bolalari bilan olib kel, qo‘noq bo‘lib ketsin. H. G‘ulom, Mash’al[1]

[1] https://izoh.uz/uz

80-yillar, bolalik davrimizda “qo‘nuq” so‘zi bizning shevada ko‘p ishlatilardi: “Falonchining uyiga qo‘nuq tushdi”, “Falonchining uyidagi mehmonlarga qo‘nuq bering”. Bu kabi xitoblarni asosan to‘ylarda eshitish mumkin edi, chunki o‘sha davr to‘ylarida uzoqdan kelgan yoki alohida e’tiborda bo‘lgan mehmonlar uchun to‘yxonadan tashqari qo‘ni-qo‘shni, yaqinlarning uylarida alohida ziyofat berilar va bu mehmonlar guruhiga nisbatan “qo‘nuq” (“qo‘noq”) maqomi qo‘llanardi (“Falonchining uyiga qo‘nuq tushdi”). Mehmonlar dasturxoniga qo‘yish uchun yemaklar, biror ovqat qilish uchun masalliq, go‘sht, non kabi mahsulotlar bir tugunga tugilib to‘yxonadan keltirilardi. Shunday qilib, o‘sha paytlarda to‘yga oid atamaga aylanib ulgurgan “qo‘nuq” so‘zi ikki ma’noda: birinchisi, to‘yxonadan boshqa xonadonga tushgan mehmonlar guruhi; ikkinchisi, ular uchun to‘yxonadan keltiriladigan yemaklar tuguniga nisbatan aytilardi.

Keyinchalik to‘ylarning shakli o‘zgardi. Oqibatda “qo‘nuq” ham iste’moldan chiqib qoldi. Bu so‘zning adabiy tildagi “qo‘noq” shaklini bilamiz. Ammo bu so‘z kitobiy tuyulgani uchun mahalliy so‘zlashuv tilimizga ko‘chmadi. Shunday qilib, so‘zlashuv tilimizda “qo‘nuq”dan ham, “qo‘noq”dan ham voz kechib, asli forscha “mehmon”ni saqlab qoldik.

“Qo‘nuq” – aslida adabiy tildagi “qo‘noq”ning qadimiy ko‘rinishi.

Shakllari: Qo`noqxo`ja, Qo`noqqul

Kimlarga qo'yiladi: O'g'il bolaga

Kelib chiqishi: Kelib chiqishi aniqlanmagan.

Bundan tashqari ko‘p kuzatishlar, o‘rganishlar natijasidan shu ma’lum bo‘ldiki, qozoq va qirg‘iz xalqlari bu so‘zni negizini saqlab qolib, hozirda ham juda faol qo‘llashadi. Qozoq xalq maqollari ham bunga misol bo‘la oladi:

Qұtti qonak kelse, qoy egiz tabadi.

Qonaq kelse, et piser, et pispese, bet piser.

Qonaq qong‘an jerine auir, tas tүsken jerine auir.

Qonag‘inin altinin alma, alg‘isin al.

Xush mehmon kelsa, qo‘y egizak olib keladi.

Mehmon kelganda, egasi go'shtni pishiradi, agar go'sht bo'lmasa,
egasining yuzi qizarib ketadi.

Tosh tushgan joyda og'ir, kechasi o'tgan joyda mehmon og'ir.

Mehmondan oltin olmang, aksincha, minnatdorchilik so'rang

Қонақ келсе есікке, жүгіріп шық, кешікпе.

Agar mehmon kelsa, eshikka yugur, kechikmang.

Көңіл кең болса, үйдің тарлығы білінбес.

Qalbingizning kengligi uyingizning torligini yoritadi.

Қонағым, сен "ет" деме, мен "кет" демейін.

Mehmon, go‘sht so‘rama, ket demayman[1]

Tillar turlicha bo‘lgani bilan maqollarning ma’nosi o‘zbek tilidagi maqollar bilan ko‘lami bir xil.

Kelguncha mehmon uyalar, Kelgandan so‘ng mezbon uyalar. (165-b)

Kelish mehmondan, ketish mezbondan. (165-b)

Mehmon — aziz, mezbon — laziz. (165-b)

Mehmon — atoyi xudo. (165-b)

Mehmon joyi ko‘z ustida. (165-b)[2]

[1] https://www.soyle.kz/proverbs?cat=9МАҚАЛ-МӘТЕЛДЕР ПОСЛОВИЦЫ И ПОГОВОРКИ

[2] O‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; M as’ul muharrir: Sh.Turdimov. — T.: «Sharq», 2005.

Xulosa qilib aytganda, mehmondo‘stlik – insonlar qalbiga iliqlik beradigan, munosabatlarni mustahkamlaydigan xulq-atvor shakli bo‘lib, o‘chmas qadriyatlarimizdandir. Umuman olganda, barcha turkiy xalqlarning mezbonnavozligi boshqa xalqlardan ajralib turadi. Mehmonga bo‘lgan hurmat yuqoridagi keltirilgan maqollarda ham o‘z aksini topgan. Qardosh xalqlarning tildagi bu kabi qadriyatlarimizga oid so‘zlarni saqlab qolishimiz, uning ahamiyatini bilishimiz, bu kabi leksemalardan foydalanishimiz o‘z navbatida tilimizdagi barqaror birliklar, maqollarning bo‘yoqdorligini oshiradi. Bunday konseptli maqollar milliy qadriyatlarimizni o‘zida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://izoh.uz/uz
2. https://oyina.uz/uz/article/1782 12.07.2023 Qo‘noq, qo‘nmoq, qo‘shni – “Uyatli mehmonlar” va ularning dasturxoni ma’nosida qo‘llangan “qo‘nuq” so‘zi etimologiyasi” Abduvohid HAYIT.
3. https://uzsmart.ru/ismlar-manosi/ism/6028.html
4. https://www.soyle.kz/proverbs?cat=9МАҚАЛ-МӘТЕЛДЕР ПОСЛОВИЦЫ И ПОГОВОРКИ
5. O‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; M as’ul muharrir: Sh.Turdimov. — T.: «Sharq», 2005.

O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALLA JANRINING TADQIQI

STUDY OF ALLA GENRE IN UZBEK FOLKLORE

Umurzaqova Nargiza Abdurashidovna
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
nargiza@gmail.uz

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek xalq alla qo‘shiqlarining yozib olinishi, janr sifatida o‘rganilishi, ilmiy tadqiq etilishi hususida so‘z yuritildi. Tadqiqodchi olimlar tasnifi keltirildi va tahlilga tortildi.*

Kalit so‘zlar: *ona, alla, qo‘shiq, tadqiq, janr, hissiyot, qahramon, bola.*

Abstract. *The article talks about recording, studying and scientific research of Uzbek folk songs as a genre. The classification of research scientists was presented and analyzed.*

Key words: *mother, alla, song, research, genre, emotion, hero, child.*

O‘zbek folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodi namunalarini yig‘ish, tasnif va tadqiq etish uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega. Folklor namunalarini yig‘ish, tahlil qilish va ularni chop etish buyuk olim, tadqiqotchi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ati-turk” asari orqali boshlab berilgan bo‘lsa, biz folklor namunalarini Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, “O‘rhun-Enesey” bitiktoshlari, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi ko’plab asarlarda ko‘ramiz.

XII asr boshlarida folklor namunalarini o‘rganish, ularni tahlil qilish faoliyati keng tus ola boshladi. XVI-XVII asrlarda folklorshunoslik fan sifatida shakllana boshlagan bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib u mustaqil fan sifatida shakllandi.

Aytish kerakki, O‘zbek folklorshunosligi tarixida birinchi marta 1925-yilning oxirlaridan boshlab an'anaviy va zamonaviy xalq dostonlarining to‘la matnlari bevosita xalq shoirlari og‘zidan yozib olina boshlandi. Bu jihatdan Zarif Qodiriy va Muhammadiso Ernazar o‘g‘li faoliyati alohida e’tiborga sazovordir.

XX asr o‘zbek folklorshunosligi rivojlanish cho‘qqisiga chiqdi. Xalq og‘zaki ijoditaraqqiyotining yetakchi tamoyillari uning asosiy nazariy yo`nalishlaridan kelib chiqqan. Bular:

1. Xalq dostonchiligini kuzatib, xalq baxshilarining epik repertuarini aniqlash;
2. Xalq qo‘shiqchiligi bilan bog‘liq janrlar tizimi va tarkibini tadqiq etish;
3. Xalq ertakchiligi, uning taraqqiyoti, rivojlanish manbalari, mavzui turlarini tekshirish;
4. Xalq paremikasiga aloqador maqol, topishmoq singari janrlar bo‘yicha izlanish;
5. Xalq teatrini o‘rganish va hokazo.

Folklorshunos tadqiqotchilarimiz o‘zbek folklorshunosligimizning XX asr boshidan hozirgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyoti rivojlanish bosqichlarini quyidagicha tasnif erganlar:

1. XX-asrning 20-30 yillari;
2. XX-asrning 40-50 yillari,
3. XX-asrning 60-70-yillari;
4. XX-asrning 80-90-yillari,
5. Istiqlol davri o‘zbek folklorshunosligi.[1]

XX asr boshlaridagi falklorshunoslik tadqiqotlari qiyosiy-tarixiy aspektda o‘rganilib, xalq ijodi asarlarini to‘plash metodikasining ishlab chiqilishi folklorshunoslik fanining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Bu davrda o‘zbek folklorshunosligi rivojiga Abdurauf Fitrat, G‘ozi Olam Yunusov, Elbek (Mashriq Yusupov) kabi tadqiqodchi olimlar katta hissa qo‘shganlar. Ular o‘zbek folklori tabiati, janr tizimi va tarkibi badiiyatiga oid ilmiy qarashlar bildirib, xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plab, nashr etish va omma orasida targ‘ib qilish borasida samarali xizmat qilganlar.

Ilk folklorshunoslar ko‘proq to‘plovchi va nashr qiluvchi qiyofasida gavdalanadi. Lekin Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov va Elbek folklor to‘plovchi tadqiqotchi bilan bir qatorda birinchilardan bo‘lib folklor terminlari bilan ishlashni boshlab berishdi. G‘ozi Olim Yunusovning folklorshunoslik faoliyati serqirraligi bilan e'tiborni tortadi. U xalq asarlarini yig‘ish bo‘yicha uyushtirilgan ekspeditsiyalarning tashkilotchisi, rahbari bo‘ldi. Folklor namunalarini jonli ijroda ijodkor ijrochilarning bevosita o‘z og‘zidan aytuvchi shevasida ilmiy va etnografik ahamiyatga molik tarzda yozib olishni boshlab berdi. Tadqiqodchining alla janri to‘g‘risidagi maqolasi ham folklorshunosligimizdagi qimmatli tadqiqotlardan biri sanaladi. Olim "Alla to‘g‘risida bir ikki og‘iz so‘z" degan maqolasida Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan 1926- yil 1-iyunda yozib olingan erkaklar ijrosida bolani erkalovchi qo‘shig‘ini ilk bor e'lon qilgan[2].

E’tirof etish joizki, XX asr boshlaridagi falklorshunoslik tadqiqotlari qiyosiy-tarixiy aspektda o‘rganilib, xalq ijodi asarlarini to‘plash metodikasining ishlab chiqilishi, folklorshunoslik fanining yuzaga kelishiga asos bo‘ldi.

---

[1] Amanov Ulug'murod Sultonovich/ XX asr boshlarida o'zbek folklorining o'rganish tarixi. (Abdurauf Fitrat, G'ozi Olam Yunusov, Elbek faoliyati misolida)/Avtoreferat, 2018.

[2] Маориф ва ўқитувчи журнали. 7-8-сони. Тошкент. 1926-йил.

60-yillarning o‘rtalariga kelib folklor asarlarini o‘rganishga bo‘lgan e'tibor kuchaydi. O‘zbek xalq ijodi ko‘p tomligi nashr etila boshlandi. Folklorshunos olimlarning barcha kuchlari shu ishga safarbar etildi. Xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari 30 jildda e'lon qilindi. Bilamizki folklor asarlari orasida matn jihatdan qisqa bo‘lsada eng dilga yaqin, inson qalbini larzaga sola olish kuchiga ega janr bu qo‘shiqdir. 30 jildlikning 4- jildidan o‘zbek xalq qo‘shiqlari joy olgan. Ushbu to‘plamni bir qator folklorshunos olimlar bilan bir qatorda Muzayana Alaviya, H. Razzoqov, S. Rozimboyev, O. Safarov va K. Ochilovlar xalq qo‘shiqlariga bag‘ishlangan qismlarini nashrga tayyorlashdi. Ularda o‘zbek xalq qo‘shiqlarning qariyb barcha janrlari qamrab olindi. Har bir jildiga nashrga tayyorlovchilarning qo‘shiqlar haqidagi maqolalari kiritildi. Bu maqolalarda qo‘shiqlar badiiyatiga ham to‘xtalib o‘tildi.

Xalq qo‘shiqlarini o‘rganish o`rta asrlarga (12-asrdan 16-asrlargacha) borib taqaladi. Xalq qo‘shiqlarini o‘rganish, tahlil qilish va tasniflash o‘z navbatida ishimiz obekti bo‘lmish alla qo‘shiqlarining o‘rganilishi uchun ham yagona zamindar. Xalq qo‘shiqlarini o‘rganishni tadqiqotchi, folklorshunos olima Munavara Yoqibbekova to‘rtta davriy guruhga bo‘lib o‘rganadi.

1. Xalq qo‘shiqlari badiyatini o‘rganishning o‘rta asrlar uyg‘onish davri XV - XX asrlar.
2. Xalq qo‘shiqlari badiiyatini o‘rganishning milliy uyg‘onish davri. 1929- yillar.
3. Xalq qo‘shiqlari badiiyatini o‘rganishning yangi uyg‘onish va mustaqillik uchun kurash davri. (1961-1999 yillar)
4. Xalq qo‘shiqlari badiiyatini o‘rganishning istiqlol davri. (1991 yildan keyingi davrlar)[1].

Xalq qo‘shiqlari tadqiqi bo‘yicha birinchilardan bo‘lib Muzayana Alaviya tashabbus ko‘rsatdi. Uning "O‘zbek xalq qo‘shiqlari" monografiyasida qo‘shiqlarning o‘zbek xalqi maishiy hayotidagi turli marosimlarda tutgan o‘rni va estetik vazifasi haqida so‘z boradi. Bu turdagi qo‘shiqlar badiiyati xalqning urf-odatlari, ishonch-e'tiqodiga bog‘liq ravishda ochib beriladi. Ushbu monografiyada alla qo‘shiqlariga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. Alla qo‘shiqlarining badiati va ularning ona kayfiyatini, holatini, ichki dunyosini yoritib berish xususiyati haqida ham alohida to‘xtalib o‘tiladi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari endigina o‘rganilayotgan bir vaqtda tadqiqotchi Muzayana Alaviya mavjud materiallaridan kelib chiqib qo‘shiqlarning g‘oyaviy tematik va janr xususiyatlarini nazarda tutib, ularni besh guruhga bo‘lib o‘rganadi. Bular lirik qo‘shiqlar, mehr baytlari, termalar, mehnat qo‘shiqlari, mavsum-marosim qo‘shiqlari. Bu har bir guruh o‘zining ichki bo‘linishlariga ega bo‘lib, olima biz tadbiq qilayotgan alla janriga oid qo‘shiqlarni mehr baytlari tarkibiga kiritib o‘rgandi[2].

Xalq qo‘shiqlari badiiyatini o‘z ilmiy tadqiqotida keng yoritgan folklorshunoslardan biri dir. U G. Jahongirov boshlab bergan yo‘nalishni davom ettirib, bolalarga atalgan va ular ijro etadigan poetik merosimizni ilmiy asosda to‘playdi, o‘rganadi va tahlil qiladi. "O‘zbek bolalar poetik folklorining janrlar tarkibi va poetikasi" deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida kitob holida e'lon qilingan tadqiqotlari va maqolalarida bolalar qo‘shiqlarning badiatiga doir qimmatli fikrlarni bayon etish bilan birga olim erkalash allalarida sifatlashlarning qo‘llanilishi haqidagi mulohazalar yuritadi. [3] Farzand nomi o‘rnida almashinib qo‘llanadigan qo‘zichoq, qo‘chqor, toychoq, bo‘taloq, bulbul, qizil gul so‘zlarning ta'kidlab ko‘rsatilishi bolalar folkloridagi obrazlilikda yetakchi o‘rinda turishini ta’kidlaydi.

[1] Мунаввара Якуббекова. Ўзбек халқ қўшиқлфрининг лингвопоэтик хусусиятлари. Тошкент. Дис. Фил.фан.доктори. 2005.-260 б.

[2] Музайяна Алавия, Ўзбек халк маросим қўшиқлари, 49-бетб Ўзбекистон ССР «фан» нашриёти, Тошкент-1974

[3] Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори-Тошкент; Ўқитувчи, 1985-250 б.

Shu bilan birga O. Safarov xalq alla matnlarini yig‘ib “Alla yo, alla” nomi ostida nashr qildirdi.

Shomirza Turdimovning "O‘zbek lirik qo‘shiqlarida poetik ramzlar" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida xalq qo‘shiqlari poetikasi yaxlit holda tadqiqot obyekti bo‘lgani bilan o‘zbek qo‘shiqlari tadqiqotida yangi davrni, qo‘shiqlar poetikasini o‘rganish davrini ochib berdi.[1]

Xalq qo‘shiqlarning Sh. Turdimovdan keyingi o‘rganilishida uning yondashuviga ergashish, matn badiyatiga sinchkovlik bilan e'tibor qaratish uslubi shakllana boshladi. Ayrim qo‘shiq janrlarini monografik yaxlit bir butunlikda tadqiq etish ishlarining boshlanishi ham xalq qo‘shiqlari badiiyatining puxtaroq o‘rganilishi uchun yo‘l ochdi.

Darmonoy O‘rayeva "O‘zbek xalq qo‘shiqlarida paralelizmning xarakteri va badiiy kompozitsion vazifalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bilan xalq qo‘shiqlaridagi eng qadimiy va samarali badiiy tasvir vositalardan birini tadqiq etdi.

A. Musaqulov "O‘zbek xalq lirikasi" monografiyasida va doktorlik dissertatsiyasida xalq qo‘shiqlaridagi obrazlar va motivlarning tarixiy mifologik ildizlarini tadqiq etishga intildi.

Tadqiqotlarimiz natijasida xalq qo‘shiqning to‘la shakllanishi uchun poetik ko‘chimlar rivoji, miflar, maishiy turmushning ideallashtrilulivi, o‘ziga xos ramzlar tizimi, lirik syujetlar kabi omillar kerak ekaniga yana bir bor amin bo‘ldik.

Termalar,[2] tarixiy qo‘shiqlar[3], allalar[4], kelin salomlar[5], yig‘i-yo‘qlovlar[6] haqidagi tadqiqot ishlarida ham qo‘shiqlar badiiyatiga alohida e'tibor bilan qaralgan. R. Nosirov xalq qo‘shiqlarining kompozitsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotida mavsum-marosim va lirik qo‘shiqlar badiiyatiga doir qimmatli mulohazalar bildirgan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari janr sifatida o‘rganila boshlangan ekan alla qo‘shiqlari ham o‘z navbatida tadqiqotchilarimiz e’tiboridan chetda qolmaganini ko‘ramiz. O‘zbek folklorining zahmatkash tadqiqotchilaridan bo‘lmish Muzayana Alaviya hamda Oxunjon Safarov yetakchilardan bo‘lib bolalar folklorining gultoji bo‘lmish alla qo‘shiqlarining janr xususiyatlarini tadqiq etganlar. Bu borada Muzayana Allaviya 1959-yil fan nomzodlik dessirtatsiyasini yozar ekan, folklor qo‘shiqlari oprasida alla qo‘shiqlariga alohida ahamiyat qaratib, e’tirof etib o‘tadi.

Folklorshunos olim O. Safarov alla qo‘shiqlarini mukammal tasnif qilishga urunadi. Tadqiqodchi alla qo‘shiqlarini mazmun jihatdan quyidagicha tasniflaydi;

1. Erkalovchi allalar.
2. Maishiy allalar.
3. Tarixiy allalar.

Olim erkalovchi allalarga bolani erkalash, uni o‘rab turgan muhit bilan tanishtirish, onaning orzu-istaklari aks etgan allalarni kiritgan. Bu turdagi allalar xalq allalarining asosini tashkil etadi.

Maishiy allalarga tadqiqotchi tomonidan quyidagicha ta’rif berilgan: “ Bola shunchaki vosita vazifasini o‘taydi, xolos. Bolasini uxlatishni ko‘zlab beshigini tebrata boshlagan ona o‘zi kuylayotgan alla oqimiga g‘arq bo‘lib, o‘ylari chuqurlashgani sayin o‘z kechinmalari girdobiga

---

[1] Турдимов Ш. Г. Поэтические символқ в уэбекских народнқхпеснях. дис. канд. филол. наук-Ташкент ИЯЛ. 1987-184 с.

[2] Ўзбек фолклори очерклари. 3 томлик.-Тошкент-Фан. 1988-288 б.

[3] Джуманазаров У. А. Узбекские народнқе исторические песни (жанровая, специфика, классификация и поэтика) Автореферат дис...канд. филол. наук.-Ташкент. ТАИ. 1989-25 с.

[4] Якуббекова М.М. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекскиех народных калыбельных песен “Алла”. Ташкент. Дисс...канд. филол. наук. 1990.-167с.

[5] Исмонова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида “Келин салом” жанри. Филол. фанлари номзоди...дис. автореф.-Тошкент, 1999.-26 б.

[6] Музаффарова С. Ўзбек халқ йиғи-йўқловларининг поэтикаси. Филол. фанлари номзоди. Дис.-Тошкент. ТАИ. 2003.-160 б.

sho‘ng‘iy boshlaydi. Natijada ona o‘z ruhiy olamini ocha boshlaydi. Shu o‘rinda maishiy hayotida yuz berayotgan jarayonlarni allasida aks ettiradi deydi. [1]

1964-yilga kelib folklorshunos tadqiqodchilar To‘ra Nafasov va Komil Ochilovlar Surxondaryo, Qashqadaryo alla qo‘shiqlarini nashr yozib olib nashr ettirdilar. Bugungi kunda ushbu nashr ham o‘zbek allalarini o‘rganish uchun asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

1990-yilga kelib o‘zbek xalq alla qo‘shiqlarini ilmiy o‘rganish borasida keskin burilish yuz berdi. Munavvara Yoqubbekova “O‘zbek xalq alla qo‘shiqlarining o‘ziga xos janr va poetik hususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Ushbu ishda tadqiqodchi alla qo‘shiqlarini g‘oyaviy-mazmuniy va vazifa shakliga ko‘ra, ona mehrini ifodalanishiga ko‘ra, alla qo‘shiqlarining mativlari asosida tasniflab, alla qo‘shiqlarining g‘oyaviy-estetik vazifalarini ochib bergan. [2]

Keyingi yillarda Qurbonova N. H. “O‘zbek bolalar marosim folklori” nomli nomzodlik ishini yoqladi. 1994-yilda himoya qilingan ushbu ish ham bolalar marosimlariga bog‘liq holda alla qo‘shiqlarining o‘ziga xos ekanligini ko‘rsatib beruvchi omil sifatida e’tirofga loyiq.

1998- yilga kelib Rahmonov B. M. o‘zining “O‘zbek xalq epik she’r tuzilishi” nomli nomzodlik ishida xalq qo‘shiqlarini chiroyli tasnif qilish bilan birga, alla janriga ham to‘xtalib o‘tadi.

Nosirov R. H. tomonidan 2004-yil himoya qilingan nomzodlik ishi ham o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tub mohiyati, tuzilish jihatdan mukammallikka ega ekanini ochib berishga xizmat qildi. “O‘zbek xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasi” deb nomlanadigan ushbu ishda muallif xalq qo‘shiqlarining kompozitsion sathlarini aniqlab, mehnat va marosim qo‘shiqlarining kompozirsiyasiga alohida urg‘u beradi. Marosim qo‘shiqlarini tahlilga tortar ekan, alla qo‘shiqlariga ham to‘xtaladi.[3]

Ustozimiz Munavvara Yoqubbekova tomonidan 2005-yil f.f.d. darajasini olish uchun yozilgan “O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik hususiyatlari” deb nomlangan ushbu ishda xalq qo‘shiqlariga xos barcha jihatlar mohirona ochib berilshi bilan bir qatorda alla qo‘shiqlarida o‘xshatishlar haqida ilmiy, nazariy fikrlar yuritgan. [4]

2019-yil Rajabov D.Z. tomonidan himoya qilingan “O‘zbek xalq qo‘shiqlari tuzilishi…” nomli doktorlik dessertatsiyasida ham o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tuzilish strukturasi bilan bir qatorda alla qo‘shiqlarining ham tuzilish jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan. [5]

Xulosa qilib aytganda, xalq qo‘shiqlari bor ekan, ular orasida alla qo‘shiqlari ham o‘ziga xosligi bilan asrlar davomida bizni hayratga solib kelaveradi. Chunki bu turkum qo‘shiqlar nafaqat qalb izhori, balki, tilak va istaklar bilan boyigan, duoga to‘yinganligi bilan boshqa qo‘shiqlardan ajralib turadi. O‘zbek xalq allalari asosan folklor tadqiqotchilari tomonidan qo‘shiq janri tarkibida o‘rganilgan va tasnif qilingan.

Muzayana Alaviya, To‘ra Mirzayev, Oxunjon Safarov, Komiljon Imomov, Munavvara Yoqubbekovalar o‘zbek allalarining janr xususiyatini o‘rganib, tahlil qilganlar. Alla qo‘shiqlarini ona qalbidan sizib chiqayotgan hayotbahsh obi hayotga o‘xshaydi. Shunday ekan inson ruhiy

[1] O. Safarov Bolalarni erkalovchi o’zbek xalq qo’shiqlari Toshkent 1983. 88 b. 28-b

[2] Якуббекова М.М. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекскиех народных калыбельных песен “Алла”. Ташкент. Дисс...канд. филол. наук. 1990.-167с.

[3] Р. Х. Носиров. Ўзбек халқ қўшиқлари композитсияси. Тошкент. Дис. Фил.фан. ном. 2004.-160б.

[4] Мунаввара Якуббекова. Ўзбек халқ қўшиқлфрининг лингвопоэтик хусусиятлари. Тошкент. Дис. Фил.фан.доктори. 2005.-260 б.

[5] Ражабов Д. Ўзбек халқ қўшиқлари тузилиши: композиция ва образлилик. Тошкент. Дис. Фил. Фан. Доктори. 2019.-231 б.

olamining sinoatlari, tafakkur dunyosining mohiyati ayni alla qo‘shiqlari orqali o‘z jilvasini ko‘rsatadi.

Alla qo‘shiqlaridagi ona hissiyoti, obrazlar tahlili, alla qo‘shiqlarining janr sifatida tadqiqi amalga oshirilgan bo‘lsada, o‘zbek xalq allalari tarkibida yashirininb yotgan she’riy san’atlar, ramzlar tilsimi va takroriy o‘rinlar mohiyati kabi masalalar hanuzgacha o‘z tadqiqotini kutib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amanov Ulug'murod Sultonovich/ XX asr boshlarida o‘zbek folklorining o‘rganish tarixi. (Abdurauf Fitrat, G'ozi Olam Yunusov, Elbek faoliyati misolida)/Avtoreferat, 2018.

Маориф ва ўқитувчи журнали. 7-8-сони. Тошкент. 1926-йил.

2. Джуманазаров У. А. Узбекские народнқе исторические песни (жанровая, специфика, классификация и поэтика) Автореферат дис...канд. филол. наук.-Ташкент. ТАИ. 1989-25 с.

3. Исмонова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида “Келин салом” жанри. Филол. фанлари номзоди...дис. автореф.-Тошкент, 1999.-26 б.

4. Мунаввара Якуббекова. Ўзбек халқ қўшиқлфрининг лингвопоэтик хусусиятлари. Тошкент. Дис. Фил.фан.доктори. 2005.-260 б. Музайяна Алавия, Ўзбек халк маросим қўшиқлари, 49-бетб Ўзбекистон ССР «фан» нашриёти, Тошкент-1974

5. Музаффарова С. Ўзбек халқ йиғи-йўқловларининг поэтикаси. Филол. фанлари номзоди. Дис.-Тошкент. ТАИ. 2003.-160 б.

6. O. Safarov. Bolalarni erkalovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari.Toshkent. 1983. 88 b. 28-b

7. Ражабов Д. Ўзбек халқ қўшиқлари тузилиши: композиция ва образлилик. Тошкент. Дис. Фил. Фан. Доктори. 2019.-231 б.

8. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори-Тошкент; Ўқитувчи, 1985-250 б.

9. Турдимов Ш. Г. Поэтические символқ в уэбекских народнқхпеснях. дис. канд. филол. наук-Ташкент ИЯЛ. 1987-184 с.

10. Якуббекова М.М. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекскиех народных калыбельных песен “Алла”. Ташкент. Дисс...канд. филол. наук. 1990.-167с.

11. Ўзбек фолклори очерклари. 3 томлик.-Тошкент-Фан. 1988-288 б.

G‘OLIMA MUSINA IJODIDA “ALPOMISH” DOSTONIDAGI BARCHIN OBRAZINING O‘RGANILISH DARAJASI

THE DEGREE OF STUDY OF THE IMAGE OF BARCHIN IN THE EPIC "ALPOMISH" IN THE WORK OF GOLIMA MUSINA

Shohinur Rahmataliyeva Zafarjon qizi
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
shoxinurraxmataliyeva@gmail.com

Annotatsiya. *G‘.Musina o‘zbek folklorida o‘zining qator ilmiy manbalari bilan hali-hanuz o‘z so‘z quvvatini yo‘qotmagan olima hisoblanadi. Jumladan, olimaning folklor asarlarida xotin-qizlar obrazini keng va izchil olib borgan ilmiy ishlari diqqatga sazavordir. Ushbu maqolada, olimaning “Alpomish” dostonidagi Alp Barchin obrazini o‘rgangan ilmiy ma’lumotlari o‘rganilib, qator manbalar taqdim etildi, fikr-mulohazalar umumlashtirildi.*

Kalit so‘zlar: *Jangchi-mergan qizlar, tarixiy ayollar, “O‘g‘uznoma”, qardosh xalqlarda qahramon ayollar quvvati, Barchin.*

Abstract. *G'.Musina in Uzbek folklore with a number of scientific sources is still considered an apple that has not lost its verbal power. In particular, the scientific work of Olima, which carried out the image of women in folkloric works, is noteworthy. In this article, the scientific data of the scientist, who studied the image of Alp Barchin in the epic “Alpomish”, were studied, a number of sources were presented, feedback was summarized.*

Key words: *Warrior-sniper girls, historical women,” Oguznoma", the power of heroic women in fraternal peoples, Barchin.*

Folklorshunos olima G‘. Musina, uning ilmiy faoliyati haqida bugungi kunga qadar ko‘plab ilmiy materiallar saqlanib qolgan. Olimaning ish-faoliyatida diqqatga sazavor jihatlarni olima ayol obraziga alohida to‘xtalgani, tarixiy va dostonlardagi ayollarning izchil tahlil etgani bilan baholash mumkin. G‘.G. Musina o‘zbek xalq dostonlarida tasvirlangan xotin-qizlar obrazining tarixiy-etnografik asoslari, alp qizlar obrazining paydo bo‘lishi, turkiy xalqlar qahramonlik eposidagi jangchi-mergan qizlar obrazlarining tipalogiyasi, dostonlarda xotin-qizlarning salbiy obrazlari talqini, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisiga doir tadqiqotlar yaratgan. XX asr adabiyoti, o‘zbek tarixi va folklorshunoslikka doir qirqqa yaqin ilmiy-ommabop maqolalar va risolalar muallifi.[1. 92-b]. Xususan, olimaning “Alpomish” dostonidagi Barchin, Qaldirg‘och, Surxayl maston obrazlarining tahliliga oid ilmiy materiallari hanuzgacha qadrini yo‘qotgan emas.

Olimaning “O‘zbek xalq dostonlarida xotin-qizlar obrazi”, “Turonning alp qizlari” nomli kitoblarida Barchin obrazi tahliliga alohida to‘xtalib, obrazning boshqa xalq dostonlaridagi obrazlar bilan, shuningdek, qardosh xalqardagi dostonning versiyalari bilan o‘zaro qiyoslab o‘rganadi. Barchinning qahramonlik xususiyatiga alohida e’tibor qaratib, tarixiy jangchi ayollarning badiiy qorishmasi Barchinda jamlanganini ta’kidlab o‘tadi: “Xalq Barchinni juda go‘zal, aql-farosatda yagona va jismoniy tomondan pishiq, har qanday pahlavon erkakni ham yenga oladigan qilib kuylaydi”[4. 40-b] .

Barchin obrazi tahlilida olima dastlab obrazning “Alpomish” dostonidagi variantlaridagi umumiylik va farqli jihatlarini yoritishdan boshlaydi. Jumladan, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tomonidan

kuylangan variantni eng maqbuli deb hisoblab, buning asosiy sababi etib, “Alpomish” dostoning boshqa variantlarida Barchin jang maydonlarida bevosita ishtirok etshi, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida Barchin jangga kirmasligi, lekin erkaklarga xos jangavorlik ruhi obrazga singdirilgani, dostonning bu variantida obraz o‘zidan oldingi variantlarni umumlashtiribgina qolmay, o‘ziga xos jasorat, aql-u farosatli, tadbirli o‘zbek qizi siymosini gavdalantirgani deb ko‘rsatadi: “Alpomish” dostining Murod Otaboy o‘g‘li variantiga ko‘ra, “Barchin o‘zini zo‘rlik bilan olib ketmoqchi bo‘lgan qalmoq pahlavonlariga qarshi mardona kurashadi. Barchin qalmoq alplaridan uchtasini yakkama-yakka kurashda yengadi. Musobaqalarda qo‘yilgan shartlarni bajarib, g‘olib chiqqan Alpomishni belidan ko‘tarib, yig‘inni uch marotaba aylantiradi”[4. 41-b]. Demak, dostonning bu variantida Barchin unga davogar alplar, shuningdek, Alpomish bilan ham kurashuvchi ayol sifatida talqin etiladi.

Yana bir baxshi Zohir Qo‘chqor variantida Barchin va uning atrofidagi qizlar qilichbozlikda erkaklar bilan bellasha oladigan, o‘zlari asos solgan Guliston shahrini qahramonlarcha himoya qilib, Toychixon qo‘shinlariga qarshi kurashib, ularni yakson qilishlari haqida ta’kidlab o‘tadi. Navbatdagi, dostonning Bekmurod Jo‘raboyev kuylagan variantida doston sujetida Barchin qalmoq pahlavonlari bilan yakka o‘zi kurashadi.Qalmoq alplarining to‘qsontasini yoyini sindiradi, Alpomishniki mustasno bo‘lgan holda. Bu baxshining kuylagan variantida “qadimgi epos ning variantlaridagi matriarxat qoldiqlarining namunalari saqlangan feodal jamiyati kuylanadi”[4. 41-b].

Yana bir e’tiborli jihat borki, G‘olima Musina Alp Barchin va qirg‘iz xalqining bir necha eposlaridagi nomi tilga olingan xotin-qizlar obrazlarini o‘z ilmiy ishlarida o‘rganib, ularning yaratilish negizi bir asosga borib taqaladi degan xulosaga keladi: “Hech shubha yo‘qki, qirg‘iz va o‘zbek xalqi kuylagan mard ayollar haqidagi eposlar “Kitobi dada Qurqud” va “O‘g‘uznoma”da berilgan sujetlar asosida maydonga kelgan bo‘lishi mumkin.

“Bamsi-Bayrak” qissasi O‘rta Osiyoda yashovchi ko‘p xalqlarning og‘izaki ijodida sezilarli iz qoldirgan”. Bu jihatdan professor V.M. Jirmunskiyning “Alpomish” eposi haqidagi gaplari haqiqatga yaqindir. Olim “Alpomish haqida rivoyat va qahramonlik qissasi” kitobida shunday deb yozadi: “Alpomish” haqida o‘g‘uz versiyalarida IX - X asrlarda Sirdaryoning quyi oqimida yaratilgan “Kitobi dada Qurqud” siklidagi “Bamsi – Bayrak” eposi kuylanardi. Lekin undan avval u oltoyliklarga ma’lum edi. Ehtimol, o‘g‘uzlar O‘rta Osiyoga ko‘chmay turib, IV-VIII asrlardayoq bu sujet bo‘lgandir?” [2. 53-b].

G‘.Musina, shuningdek, o‘zining o‘rganishlari davomida Barchin obrazini tarixiy shaxs asosida yaratilgan bo‘lishi mumkin deb o‘ylab, buning isboti sifatida, Abulg‘ozi Bahodirning “Shajarai tarokima” asaridagi manbalarda keltirib o‘tilgan qahramon ayollar haqidagi faktlarni keltirib o‘tadi: “O‘g‘uz elina beklik qilgan qizlarning zikri: turkmanning tarix bilaturg‘on yaxshilari va baxshilari aytib tururlar: yetti qiz barcha o‘g‘uz elini og‘zina baqtirib, ko‘p yillar beklik qildilar. Onlarning birisi Oltun Go‘zaki, Sundunboyning qizi va Salor Qozon alpning haloli, bo‘yi uzun bo‘lur edi, ikkinchisi Qormishboyning qizi va Momishboyning haloli Barchin Salor edi, aning qabri Sir suvining yoqasida turur va xalqqa mashhur turur. O‘zbek anga Barchinning ko‘k koshonasi der. Koshinkorli yaxshi gumbaz turar; uchinchi, Qayiboyning qizi va Chavuldura Bola alpning haloli Shaboti erdi. To‘rtinchi, Quvondiboyning qizi Biakan alpning haloli Ko‘nin Ko‘rkli erdi. Beshinchi, Tumoqboyning qizi Ko‘rkin, Qo‘noqning haloli taqi bir Ko‘nin Ko‘rkli erdi; oltinchi, alp Arslonning qizi Kestan Qora alpning haloli Qorcha Bulodi erdi, yettinchi, Qiniqboyning qizi Dudalboyning o‘g‘li Kiymoqbekning haloli Kugodli erdi…”[3. 59-b].

Aynan bu yodgorlikni tarixiy ekanligini isbotlagan holda, bir qator rus oimlarini suratga olgan, ilmiy maqola sifatida chop etgan manbalarini asos qilib ko‘rsatadi:

Shu bilan birgalikda, xalq orasida mashhur bo‘lgan Sirdaryodan Qizilqumga qarab oqqan daryo izi qolganligini, shu qurigan daryo Barchindaryo deb atalganini keltirib o‘tadi. Aynan shu yerda “O‘g‘uz jilg‘a”, “Kelin tepa”, “Qiz qal’a”, “Kelin ariq” kabi joylarning bo‘lganini Kallur ham ta’kidlaydi.Demak, Barchin obrazining yaratilishida ma’lum bir tarixiy shaxs sabab bo‘lgan ekan. Tarixda o‘tgan alp ayollar obrazining xalq dostonlarida ko‘tarinkilik bilan kuylanish sabablari ham shundadir”[4. 43-b].

Olimaning yuqoridagi ilmiy qarashlari garchi yuqoridagi faktlarning keltirib o‘tilishiga qarmay, Barchin obrazining ma’lum bir tarixiy shaxsga borib taqalishi olimaning shaxsiy izlanishlari va qarashlariga asoslangan. Aslida, obrazning yaratilish jarayoni, undagi funksiyalarning mukammaligi bir tarixiy shaxsda emas, nafaqat turkiy, jumladan, o‘zbek qahramon, alp qizlaridagi jangavorlik, zukkolik, donishmandlikning yig‘inidisi sifatida olinganligini dostonni uqish, boshqa olimlarning ilmiy qarashlari bilan qiyos etish orqali anglash mumkin.

Barchin obrazini o‘rganish jarayonida, olima, qardosh xalq dostonlarida mashhur bo‘lgan “ Manas” xalq eposlaridagi ayollar obrazi bilan Barchin o‘rtasida o‘zaro o‘xshashlik, bog‘lnish borligini ta’kidlab, bunga ham alohida to‘xtalib o‘tadi: Manas dostonning ham bir necha varianti bo‘lib, ularning birini V. V. Radlov XIX asrning oxirida “O‘g‘loq” nomi bilan nashrga tayyorlagan. Ikkinchi nusxasini missioner V.I. Verbiskiy “Ay-Manis” nomi bilan ruschaga nasriy tarjima qildi. Dostonning asosiy qahramonlari Cheek Pergan va Ay-Manislardir. Ular uylanmoqchi bo‘lib, yo‘lda mergan qiz Qonikeyni uchratadi. Cheek Pergan Qonikeyga niyatini aytib, gap tashlaganda, Qonikey: “Cheek Pergan, men senga tegmayman, kurashamiz, agar g‘alaba qilsang, senga xotin bo‘laman, agar yengilsang o‘ldiraman” – deydi. Ular qilich chopishda, yoy otishda, kurashda sinashadilar. Cheek Pergan bilan Qonikey yetti yil bellashadi va nihoyat yigit yengib Qonikeyga uylanishga muvaffaq bo‘ladi.

Ikkinchi nusxada Ay-Manis Sayqal ismli mergan qiz bilan kuch sinayadi.

Uylanish kerak bo‘lgan yigitning qizlar bilan kuch sinashish epizodi qadimgi qirg‘iz eposida ham, qozoq, qoraqalpoq, o‘zbek xalq eposida ham uchrab turadigan hol. “Alpomish” dostonida qizning yigit bilan bellashadigan o‘rinlarni eski versiyalarini hisobga olmasak, deyarli uchratmaymiz, biroq Barchinning mardligini, adolatli siyosat bilan ish olib borishini eposning barcha qismlarida uchratishimiz mumkin.

Doston tahlili davomida olima, Qonikey obrazini mukammallashtirilgan, har tomonlama ideallashtirilgan obraz sifatida ko‘rsatilganini ta’kidlab, sujet yaratilishi, undagi motivlar o‘xshashligi qardosh xalqlarning o‘zaro bir umumiy folklor chashmasidan yaratilganiga ishora qiladi: “Qonikey xalq sevgan vatanparvar ayol, u mehribon ona va vafodor yor. Manas yovuz odamlar qo‘liga asir tushib, halokat jari yoqasida turganida uni vafodor xotini Qonikey qutqazib oladi. Qonikey(Sapirabega) o‘qimishli va botir xotin. Manas urushga ketgan vaqtda Qonikey urug‘ boshlig‘i bo‘lib, mamlakatni idora qilib turadi”[5. 52-b].

Olima eposdagi Qonikey obrazini ayrim hollarda Barchin obrazidan ustunroq tasvirlangan o‘rinlari bor eknligini aytib o‘tar ekan, Barchin obrazining ham ustuvor jihatlarini sanab o‘tadi: “Manas” va “Alpomish” eposidagi ayollar obrazi o‘rtasida o‘zaro tarixiy o‘xshashlik va bog‘lanish bor. Barchinoy Qonikey singari vatanparvar va vafodor yor. U har bir ishga adolat yuzasidan yondashadi. Alpomish qalmoqlar qo‘lida asir yotgan vaqtida Barchinoy sadoqat bilan kutarkan, farzandi Yodgorning otasi singari qahramon bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qiladi” [5. 53-b].

Yuqoridagi qardosh xalq dostonlaridagi Barchin va Qonikey obrazlarini qiyosiy o‘rgangan olima, yakuniy xulosasini quyidagicha yakunlaydi: Ikkala doston feodalizm davrida yaratilgani uchun unda patriarxat hayot tarzi sezilib turadi. Dostondagi Qonikey ham, Barchin ham asosiy

qahramonni to‘ldiruvchi obrazlar/ Lekin ular Shirin, Layli, Zulxumor, Oftob pari, Huroyim kabi boshqa birovning himoyasiga muhtoj bo‘lgan zaif qahramonlar emas, balki o‘z insoniy huquqlarini saqlab qolishda faol kurashchi ayollardir.[5. 53-b].

Olima Barchin obrazini qardosh xalq dostonlaridagi ayol obrazlari bilan qiyoslab o‘rganishi davomida, yuqoridagidek umumiy bayonga tayanib ularni funksiyadosh ekanligin ta’kidlab o‘tadi. Barchin obrazining tahliliga izchil to‘xtalib o‘tilmaydi. Obrazning tarixiy kelib chiqishi, eposdagi vazifasini quyidagicha izohlaydi: “Alpomish” dostonida Barchinoyning qahramonligi o‘ziga xos o‘rin egallab turadi. Feodalizm davrida yaratilgan dostonlarda xotin-qizlar ko‘pincha, aqlliligi, tadbirkorligi, vafodorligi bilan hammaga namuna bo‘lgan ayol sifatida ko‘zga tashlanadi. Barchinoy huddi shunday qizlardan. U qalmoq pahlavonlariga nisbatan ham, o‘z xalqiga va sevgani Alpomishga nisbatan ham adolat yuzasidan munosabatda bo‘ladi. Kuch ishlatish mumkin bo‘lgan joyda kuch ishlatadi, kuch kor qilmaydigan vaqtda tadbir bilan ish tutadi”.[5. 54-b].

Umuman olganda olimaning Barchin obrazi, uning boshqa dostonlardagi o‘xshash tiplari, eposning variantlaridagi obrazlarning umumiy, farqli jihatlarini o‘rganishi yuqorida ta’kidlaganimizdek diqqatga sazvor. Lekin, obrazning yaratilish negizi, uning eposdagi funksiyalari izchil tahlilga tortilmagan. Barchin obrazining qahramonlik funksiyasiga, jangavor ruhda yaratilgan obraz deb urg‘uning keng berilshi, uning eposdagi boshqa qator funksiyalariga, jumladan: “uzoq kutilgan farzand”, tanlanganlik, obrazning asosiy funksiyasi yurtni ham tashqi ham ichki tarafdan mustahkamlaguvchi, birlashtiruvchi, shuningdek, alpning asosiy tayanchi, etnosning yukini ko‘tarish Alpomish bilan teng harakat qilish jihatlari keng tahlilga tortilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Jo‘rayev. O‘zbek folklorshunosligi. - T;. Firdavs-Shoh. 2021.92-b.
2. Жирмунский В. М., Х. Т. Зарифов, Узбекский народный героический эпос, М., ГИХЛ, 1946. - с.53.
3. Абдулғазыхан. Родословная туркмен.М.,1958. - с.79.
4. Ғ. Мусина. Ўзбек халқ достонларида хотин-қизлар образи. Т., “Фан”//1983.
5. Ғолима Мусина.Туроннинг алп қизлари:(баде’а) – Т.Ёзувчи.1997. - 52-б.

BOLALAR FOLKLORSHUNOSLIGI TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

HISTORY AND STAGES OF DEVELOPMENT OF CHILDREN’S FOLKLORE

O‘rinova Maftuna No‘mon qizi
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
maftuna@gmail.uz

Annotatsiya: *Bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalar og‘zaki ijodi o‘ziga xos xususiyatlari, hajmi, janriy tarkibi, ijodkorligi va ijrochiligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada o‘zbek bolalar folklorining o‘rganilishi, uning taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Bolalar folklorshunosligi tarixi besh davrga ajratilib, mazkur bosqichlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida nazariy ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *bolalar folklori, qadimgi davr, alla, erkalama, ilmiy o‘rganish, taraqqiyot, ertak, tez aytish, topishmoq*

Abstract: *Children's folklore is a component of folk art. Children's oral creativity is distinguished by its specific characteristics, size, genre composition, creativity and performance. This article discusses the study of Uzbek children's folklore and the stages of its development. The history of children's folklore studies is divided into five periods, and theoretical information about the characteristics of these stages is given.*

Key words: *children's folklore, ancient times, alla, caressing, scientific study, development, fairy tale, riddle.*

Xalq ogʻzaki ijodi insoniyat tarixining koʻzgusidir. Unda basharning asli, oʻzligi va ruhiy-maʼnaviy dunyosi aks etadi. Folklorda kattalarning ijtimoiy-maishiy hayot bilan bogʻliq qarashlaridan tortib, shu jarayonda bevosita ishtirokchiga aylangan bolalarning zavq-u shavqqa toʻla ohanglari, shoʻxlikka qorishgan oʻyinlarigacha mujassam. Shu bois, bolalar folklori xalq ogʻzaki ijodining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalar ogʻzaki ijodi oʻziga xos xususiyatlari, hajmi, janriy tarkibi, ijodkorligi va ijrochiligi bilan ajralib turadi.

Bolalar folklorining mazmun-mohiyati haqida Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasida quyidagi maʼlumotni uchratamiz: “Bolalar folklori – ogʻzaki ijod namunalari. Odatda, bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Folklor janrining tarkibiy qismi. Oʻzbek bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar oʻyin qoʻshiqlari, erkalama, masxaralama va b.ni oʻz ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, oʻynashiga, qoʻshigʻiga moslangan boʻladi”. Demak, bolalar folklori ogʻzaki ijodning bir qismi sifatida uni boyitib turadi. Bolalar folkloriga tegishli matnlar kattalar tomonidan ham yaratilishi inobatga olinsa, ularning bir-biriga taʼsiri yaqqol aʼyonlashadi.

Darhaqiqat, dono va ijodkor xalq badiiy soʻzning kelajak avlod tarbiyasidagi kuch-qudratiga qadim zamonlardanoq ishonib kelgan. U oʻzining eng buyuk asarlarini soʻz sehri bilan dunyoga keltirgan. Badiiy soʻz xalq va millatning butun madaniy merosini abadiyatga muhrlagan. Hali yozuv mohiyati anglanmagan vaqtlarda ham odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishgan, oʻyin-kulgi qilishgan, surat chizishgan. Xalqimiz bagʻridan buyuk naqqosh-u roviylar yetishib chiqqan. Shu olis tarixning ildizlari oz boʻlsa-da xalq dostonlari, afsona-yu asotirlari, ona allalari, bola oʻyinlarida boʻy koʻrsatgan. Xalqning ushbu ijod namunalariga uning aql-zakovati, asriy orzu-armoni, bir soʻz bilan aytganda, ruhi va irodasi jamlangan. Xalq ijodi oʻsha xalqning jamoaviy donoligi, umumiy sanʼat mahsulidir. Bu sanʼatdan kelajak avlodning ham jismoniy, ham maʼnaviy tarbiyasi rivojida, jajji qalbni chiniqtirishda samarali foydalanilgan.

Bola dunyoga kelishi bilan onaning mehrini yoqimli allasi orqali his qiladi. Faqat bolaga atalgan ushbu poeziya kishi ongiga ona suti orqali kiradi. Bu poeziya keyinchalik rang-barang obrazlar, xilma-xil ohanglar bilan toʻlisha boshlaydi. Sekin-asta kattalarning bolalarga aytganlari – alla, erkalama, ovutmachoq, topishmogʻ-u tez aytishlar shaklida yigʻilib, kichkintoylar uchun katta ogʻzaki badiiy ijod yaratildiki, natijada bu adabiyot taʼsirida bolaning maʼnaviy-ruhiy dunyosi shakllana bordi. Mazkur adabiyot bolalarning yosh bilan bogʻliq barcha xususiyatlarini eʼtiborga olib, uning xarakter-xususiyatlarini oʻzida mujassam etdi. Bolalar uchun yaratilgan ogʻzaki ijod namunalari ularning kelajakdagi xatti-harakatlariga zamin hozirladi.

Tabiatan bola kattalarga taqlid qilishga moyil. Ular oʻz xatti-harakatida, amaliy faoliyatida kattalarga taqlid qilib, tezroq oʻsib-unishni maqsad qiladilar. Bolani yoshligidan oʻyin-u qoʻshiqlar orqali jamiyat uchun kerakli shaxs sifatida tarbiyalash, jamoaning munosib aʼzosi sifatida oʻstirish, butun imkoniyatlarini insoniyat uchun foydali ishga yoʻnaltirish ota-onaning, mahallaning eng muhim vazifasi boʻlib kelgan. Bunda bolalar folklorining xizmati nihoyatda kattadir.

Bolalar folklori vatanparvarlik, ota-ona, vatanga muhabbat, do‘stga sadoqat, ishonch kabi eng yaxshi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Qolaversa, kattalar bilan birgalikda hamkorlik qilish, ijtimoiy hayotdagi qiyinchiliklarga qarshi kurashish va ularni yengish kabi malakalarni o‘rgatadi. Ushbu omillarni bolaning xarakteri, kayfiyati va xohishini bilmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Ona va bola o‘rtasidagi muloqotdan boshlangan lirik his-tuyg‘ular bola o‘sgani sari kengayib, rivojlanib boradi. Alla aytgan onaning ijod jarayoni qiziq: u beshik ustida mayin kuylarkan, bugun aytgan so‘zlarini ertaga o‘zgacha qilib takrorlaydi, nimanidir qo‘shib yoki tushirib qoldiradi. Bola ulg‘ayib ko‘zga yaqin bo‘larkan, endi unga erkalama aytadi, injiqlansa, ovutmachoq bilan yupatadi. Xullas, kichik janrlar yig‘ilib, to‘lisha borib kichkintoylar uchun katta og‘zaki adabiyot – bolalar folklori paydo bo‘ladi. Bolalar folklori o‘z ritmi, uslubi, so‘zi, kuyi, obrazliligi bilan ajralib turadi. U faqat bola uchun mo‘ljallangan, uning kuylashi, o‘ynashi, aytib yurishiga moslashgan. Bolalar folklori birinchi tarbiya darsligidir, barcha ma’naviy boyliklarning tugamas xazinasidir. Bolaga atab yaratilgan og‘zaki adabiyot yosh avlodni tarbiyalashda ming yillardan buyon xizmat qilib kelayotgan ulkan merosdir.

Bolalar folklori xalq og‘zaki poetik ijodi bag‘rida insoniyat badiiy tafakkurining ilk bosqichidayoq shakllana boshladi. Buning asosli sabablari mavjud edi. Chunki bolalar ham ijtimoiy-maishiy hayotda kattalar bilan yonma-yon ishtirok etib keldilar. Ota-onalarining mehnat jarayonini bevosita kuzatib, ularga ko‘maklashdilar, turli-tuman marosimlarning ishtirokchisiga aylandilar. Bunday aralashuv bolalarning ijtimoiy hayot voqealariga o‘z munosabatini ifodalash uchun imkon berdi. Ular iqtidor va imkoniyatlari doirasida badiiy ijod jarayoniga aralasha boshlashdi. Bolalar o‘z tuyg‘ularini goh o‘yin tarzida, goh majburiy mehnat tarzida ifoda qildilar. Bu haqda folklorshunos O.Safarovning fikrlari asosli: “O‘yin tarzida kechganda bolalar ehtiroslarga to‘lib-toshib, o‘z zavqlarini jo‘shqin va samimiy ohanglarda kuylaganlar; majburiy mehnat tarzida kechganida esa og‘ir mehnat tufayli horg‘in va alamli tuyg‘ularini g‘amgin shaklda ifoda etganlar” [Safarov, 1985:3]. O‘zbek bolalar folklori shu tariqa ijtimoiy aralashuv tarzida yuzaga kela boshlagan.

O‘zbek folklorshunosligida bolalar folklorining to‘planishi, o‘rganilishi hamda uning davrlashtirilishi alohida tadqiq etiladigan masala hisoblanadi. Bu borada anchagina ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, o‘yin folklori poetikasini maxsus tadqiq etgan olim Sh.Galiyev o‘yin folklori to‘planishi va o‘rganilishi tarixini uch bosqichga bo‘lishni ma’qullaydi:

1. XI asrdan – XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davr.
2. XIX asrning oxiri – XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davr.
3. XX asrning 30-yillaridan keying davr [Galiyev, 1998:15].

Yuqoridagi tasnif davrlashtirish borasidagi dastlabki ilmiy tajriba sifatida e’tirofga arziydi. Ammo unda ba’zi jihatlar inobatga olinmagan. Birinchidan, bolalar folklorining yozib olinishi hamda ommalashtirilishi XI asrdan, ya’ni Mahmud Koshg‘ariy davridan boshlangani tugal xulosa emas. Qo‘limizdagi materiallar birinchi manba sifatida “Devon-u lug‘otit turk”ni tasdiqlasa-da, eng qadimgi davrlarda ham bolalar folklori umumfolklor bag‘rida yashaganini inkor etib bo‘lmaydi. Qoyatoshlarga tushirilgan tasvirlar, arxeologik tadqiqotlarda topilgan o‘yinchoq ko‘rinishidagi buyumlar bu masalaning o‘rganilish tarixini ancha ilgaridan izlash lozimligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, yuqoridagi tasnifda yana bir jihatni e’tiborga olish zarur. XX asrning 30-yillaridan keyingi davr ancha umumlashtirib yuborilgan. Bizningcha, bunda mustaqillik davrida bolalar folklorining o‘rganilishini alohida guruhlash lozim. Chunki barcha sohada bo‘lgani kabi folklorshunoslik yo‘nalishida ham mustaqillikdan keyingi davr tom ma’nodagi islohotlar davri

hisoblanadi. Mustaqillik o‘zbek xalq eposi “Alpomish”ga qo‘yilgan nohaq ayblovni yuvib tashladi, milliy urf-odat va an’analarga yangi nigoh bilan qarab, xalqqa “Navro‘z” ini qaytarib berdi. Shuningdek, bolalar marosim folklorining o‘rganilishi, diniy mavzudagi qo‘shiqlarning nashr qilinishi, “Yo ramazon” haqida dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi mustaqillik bergan ne’matning sharofatidir.

Bolalar folklorini Xorazm areali misolida tadqiq qilgan H.Ro‘zmetov tasnifi biz ko‘rsatgan ba’zi jihatlarni to‘la qamrab olgan:

1. Bolalar folklorini to‘plashning ilk bosqichi – eng qadimgi davrlardan to XIX asrning oxirigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

2. Bolalar folklorining o‘lkashunoslik yo‘nalishida to‘plab, ommalashtirilishi bosqichi – XIX asrning oxiridan XX asrning boshlari, aniqrog‘i oktabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

3. Bolalar folklorining ilmiy o‘rganilish bosqichi – XX asrning 20-yillaridan 90-yillarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

4. Bolalar folklorini o‘rganish va ommalashtirishning mustaqillik davri bosqichi – 1991-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi [Ro`zmetov, 2005:12].

Ushbu tasnifda davrlashtirishning aniqligini ko‘rish mumkin. Bunda eng qadimgi davrlardan tortib, mustaqillikkacha bo‘lgan zamon qamrab olingan. Mustaqillikning alohida ajratilishi ham maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichning juda katta davrni qamrab olishiga kelsak, bunda ham asos borligini ko‘ramiz. Chunki bu davrda bolalar folklori tushunchasi hali shakllanmagan va turli manbalarda uning namunalari to‘plangan edi, xolos. Biroq, tasnifga bolalar folklorining yaratilish bosqichi ham kiritilsa, yanada mukammallikka erishilardi. Shuningdek, 3-bosqichning nomlanishida “ilmiy o‘rganilish” jumlasi kiritilar ekan, bu chalkashlikka olib keladi. Chunki bolalar folklorini ilmiy o‘rganish mustaqillikdan oldingi davrida ham, bugungi kunda ham davom etib kelmoqda.

Kuzatishlar asosida shakllangan quyidagi tasnif ham oldingilarini inkor etmagan holda, bolalar folklorining taraqqiyot bosqichlarini o‘zida aks ettiradi:

1. Bolalar folklorining shakllanish va rivojlanish bosqichi – eng qadimgi davrlardan XXI asrgacha bo‘lgan muddatni qamrab oladi. Zero, bolalarning o‘z ijodkorligi asosida chandish, guldur-gup, topishmoq, sanama kabi janrlar bugungi kunda ko‘plab yaratilmoqda.

2. Bolalar folklorini to‘plashning birinchi bosqichi – eng qadimgi davrdan XIX asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

3. Bolalar folklorini to‘plash va ommalashtirishning ikkinchi bosqichi – XIX asrning oxiridan XX asarning 20-yillarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

4. Bolalar folklori o‘rganilishining uchinchi bosqichi – XX asrning 20-yillaridan 90-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

5. Bolalar folklorini o‘rganish va ommalashtirishning to‘rtinchi – mustaqillik davri bosqichi – 1991-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek bolalar folklorini o‘rganish, asosan, XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Dastlab rus o‘lkashunoslari tomonidan boshlangan to‘plovchilik faoliyati mahalliy ziyolilar tomonidan takomilga yetkazildi. Aytish joizki, o‘zbek bolalar folklori namunalarini to‘plash bundan ancha ilgari XI asrda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan boshlab berilgan edi. Shunday bo‘lsa-da, N.Ostroumov, A.Vasilyev, N.Nalivkin, M.Nalivkin, Burzinskiy G‘.Yunusov, Y.Peshcherova, Borovkov, S.Ayniy, Elbek, Fitrat, H.Zarif, Z.Husainova, G‘.Jahongirov, O.Safarov kabi olimlarning o‘zbek bolalar folklorini to‘plash va o‘rganishdagi xizmatlarini alohida ta’kidlash joiz.

O‘zbek bolalar folklorshunosligining shakllanish va rivojlanish tarixini shartli ravishda besh bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin. Bunda XX asrning 60-70-yillarini alohida ajratib ko‘rsatish lozim. Zero, bu davrda o‘zbek bolalar folklorining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi. Uning janriy tarkibi, genezisi va badiiyati tadqiq etildi. Bolalar folklori o‘zbek xalq og‘zaki ijodining alohida tarmog‘i sifatida asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Т.: Ўқитувчи, – 102 б.
2. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Т.: “Фан”, 1998. – 96 б.
3. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 147 б.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Б ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. – 496 б.
5. Сафаров О., Сафарова Ҳ. Қўшиқ билан зийнатланган ўзбек болалар ўйинлари. – Тошкент, 1985. – №2, 32-33-б.
6. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Т.: Фан, 1998. – 96 б.
7. Авезов С. Санама жанри табиати ва бадиияти. Диссертация автореферати. – Тошкент, 2004. – 19 б.

RAHMATULLA YUSUF O’G’LI REPERTUARIDAGI “ZEVARXON” DOSTONIGA OID MULOHAZALAR

COMMENTS ON THE EPIC “ZEVARKHAN” IN THE REPERTOIRE OF RAHMATULLA YUSUF’S

Abdusalomova Nigora Shuhratovna
O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
nigoraabdusalomova@gmail.com

Annotatsiya. *O’zbek xalq dostonchiligini baxshilar ijodisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. “Tohir va Zuhra”, “Sumanbar”, “Varqa bilan Gulshoh”, “Vomiq va Uzro”, “Rustamxon”, “Alpomish” kabi qator dostonlarni mohirona kuylagan Rahmatulla Yusuf o’g’li “Zevarxon” dostonini ham boshqa baxshilarimiz ichida ajoyib, mukammal tarzda kuylagan. Ushbu maqolada dostonning Rahmatulla Yusuf o’g’li versiyasidagi o’ziga xosliklar haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *doston,versiya repertuar, baxshi, qahramon, ijod, “Zevarxon”.*

Abstract. *Uzbek folk epos cannot be imagined without the work of bakhshis. Rahmatulla Yusuf ogli, who skillfully sang a number of epics such as “Tohir va Zuhra”, “Sumanbar”, “Varqa bilan Gulshoh”, “Vomiq va Uzro”, “Rustamkhon”, “Alpomish” sang the epic "Zevarkhan" among other poets. This article discusses the peculiarities of the version of the epic Rahmatulla Yusuf ogli.*

Keywords: *Epic, version, repertoire, bakhshi(singer), hero, creation, "Zevarkhan".*

O’zbek xalq og’zaki ijodi xazinasida “Zevarxon” nomi bilan o’rinlashgan ishqiy-romanik doston haqidagi dastlabki va batafsil ma’lumot 1947-yilda V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlar

hammuallifligida “Узбекский народный героический эпос” (“O’zbek xalq qahramonlik eposi”) nomi bilan nashr qilingan kitobida uchraydi. Mualliflar dostonning Ergash Jumanbulbul o’g’li va Islom shoirlar repertuarida “Sanobarxon” nomi bilan, Fozil shoir va Po’lkan shoir repertuarida esa “Zevarxon” nomi bilan mavjudligi haqida ma’lumot berishadi[3,287-292-b]. 1970-yilda Fozil Yo’ldosh o’g’li tomonidan kuylangan “Zevarxon” dostoniga yozgan so’zboshisida folklorshunos Malik Murodov “Zevarxon” dostonining bir qancha o’zbek dostonchilari, shu jumladan, Fozil Yo’ldosh o’g’li, Po’lkan shoir, Rahmatulla Yusuf o’g’li tomonidan kuylab kelinganini qayd qiladi[4,3-b]. Biz Fozil shoir va Rahmatulla Yusuf o’g’li repertuarlaridagina “Zevarxon” nomi bilan yozib olingan dostonni uchratdik. Bu maqolada Rahmatulla Yusuf o’g’li repertuaridagi “Zevarxon” dostoni xususida ba’zi mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Bu dostonni 1947-yil 11-iyunda Rahmatulla Yusuf o’g’lining o’zi yozib, Folklor arxiviga topshirgan. Umumiy hajmi 86 sahifani tashkil etadi. Qo’lyozma O’zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor arxivida 1445-inventar raqami ostida saqlanadi. Shoir dostonning so’nggi varag’ida “Zevarxon” dostoni haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: “”Zevarxon” dostoni haqida. Ba’zi qariyalar bu dostonni avval ertak bo’lib shoir Jolmon tomonidan doston qilingan deydi. Lekin bu aniq gap emas. “Gul va Sanobar” dostoniga qarasangiz ba’zan “Zevarxon” dostoniga o’xshag’anini ko’rasiz. Menimcha u ham “Zevarxon” dostonining boshqa bir varianti bo’lsa ajab emas. “Zevarxon” dostoni Qo’rg’on qishlog’ida ikki-uch martagina aytilib, keyin bu doston aytilmay yo’qolib ketgan. Lekin xalqning chala baxshilari o’rtasida so’zlari kam yoki ertak singari aytilib kelinmoqda. “Zevarxon” dostonini hech kim toza, o’xshatib aytolmaydida, deyishib baxshilar afsus qilar edi. Bu go’zal dostonni o’xshatib, xalq o’rtasida jilvalantirishga allaqachonlardan buyon orzuim bor edi. Sevgi qumg’onidan men ham andakgina ichdim. 1941-yili “Zevarxon” dostonini salgina orolantirib, Guliston jurnali redaksiyasiga yubordim. Toshkentdan yozuvchilar meni chorlag’andek bo’ldilar. O’sha vaqtlarda mamlakatimiz xavf ostida turg’on payt edi. Men qo’rqib Toshkentga borish u yoqda tursin, hatto tog’ sayriga chiqolmas edim. Yana elimizdan tuman ko’tarilib, bog’larga gular va har xil o’simliklar yashnab qoldi. Ko’nglimga katta bir surur quyuldida, bu “Zevarxon” dostonini demak ikkinchi bora tuzatdim. Rahmatulla Yusupov. 11.06.1947”[2]. Baxshining bu e’tiroflari dostonning o’rganilishida muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Ko’rib turganingizdek, dostonni baxshining o’zi yozib, 1947-yilda Folklor arxiviga topshirgan. Bu bilan “Узбекский народный героический эпос” (“O’zbek xalq qahramonlik eposi”) kitobida Rahmatulla Yusuf o’g’li variantining tilga olinmagani sababi ham oydinlashadi.

Sof sevgi, vafo, sadoqat va do’stlik kuylangan bu doston boshlanishida ham an’anaviylikni kuzatamiz.Ya’ni, odatda qator dostonlarda qahramon ma’shuqasini tushida yoki o’ngida bir nazar ko’rinish berishi bilan shaydo qiladi va shu bilan ma’shuqani izlash yo’lidagi sarguzashtlar ketma-ketligi boshlanadi va har turli qiyinchiliklarni yengib, visolga yetadi. Doston Sangilxon podsho va vazirining farzandsizligi va bir kunda, bir soatda ikkalasining ham farzandli bo’lishi bilan boshlanadi. Zevarxon va Sanobarning birinchi uchrashuvi ham an’anaviy tush vositasida ro’y beradi. Sarv daraxti tagida uxlab qolgan Zevarxonga tushida Sanobar o’zining zoti va manzilini bayon qilib, bilgi beradi va Zevarxonga sharob uzatadi. Bu asar kompozitsiyasida tugun vazifasini bajarib, voqealar rivojiga turtki beradi. Shu bilan Zevarxon safarga otlanadi hamda rang-barang voqealar, sarguzashtlar boshlanadi.

Zevarxon safarga otlanarkan, Fozil Yo’ldosh o’g’li versiyasi va “Kitobi Sanobar”dagi kabi ota-onasi unga nasihat qilib, qahramonning safarga chiqishiga qarshilik bildirmaydi. Sangilxon o’zining ham yoshligida ishq boshiga tushgani sababli o’g’lining Shamshodga borishiga qarshilik qilmaydi. Qirq kishini qirq tuyaga mindirib, Hakimjonni yo’ldosh qiladi.

Dostonning boshida asosiy qahramonlarga ta’rif berilmaydi. Ularning xususiyatlari voqealar davomida ochilib, oydinlashib, qahramon sifatida gavdalanib boraveradi. Ko’pgina ishqiy-romanik dostonlar syujeti uch qismdan – uchrashuv, hijron va yakuni visol qismlaridan iborat bo’ladi. “Zevarxon” dostoni esa ishq-muhabbatning muqaddimasi, yorni izlash yo’lidagi turli sarguzashtlar ketma-ketligi, qisqa visol, ayriliq va yangi sarguzashtlar davomiyligi, qayta topishish – besh qismdan iboratligini ko’rish mumkin. Doston syujetida dastlab voqealar tizimida oshiqlarning biri – Zevarxon harakatlanadi. Turli to’siqlardan o’tib, malikaga erishdim, deganida yana mashaqqatga, g’ayritabiiy kuchlar qarshiligiga duch keladi. Dostonning shu joyidan Zevarxon bilan birga Sanobar harakatlari boshlanadi. Shu asnoda, voqealar davomida uning aqlliligi, nazokati, uddaburonligi, zehni aks etadi[1].

Rahmatulla Yusuf o’g’li variantidagi doston kompozitsiyasini tashkil etgan syujet chizig’idagi sarguzashtlar ketma-ketligini quyidagicha tizmalarga bo’lish mumkin:

1. Zevarxonning Amu daryodan kechayotib Jayhun baliqdan omon qolishi;
2. Zevarxonning buloq izlab ketishi va shu asnoda Hakimjon va jo’ralaridan ayro qolishi;
3. Hakimjonning Eram bog’iga borishi va bog’ podshosining qizi Mehrangizning unga oshiq bo’lishi;
4. Zevarxonning barzangilar makoniga borishi va barzangi qo’lidan qutulishi;
5. Zevarxonning ro’dapolar cho’liga tushib qolishi;
6. Og’zida bir dona gavhar tishlab yurgan ho’kizdan hiyla yo’li bilan gavharni olishi;
7. Shamshod shahrida Sanobardan ayrilib qolishi va shaharma-shahar kezib, malikani izlashi;
8. Sanobarning qaroqchilarga uchrashi va ularni mot qilishi;
9. Sanobarning Istambul shahriga podsho bo’lishi;
10. Hakimjonni Mehrangizga uylantirib, Oqtoshga qaytishlari.

Dostonda qahramonlarning sarguzashtlari makonlar, mifologik personajlar bilan bog’liq holda kechadi. Amudaryo, chashmalik soy, Eram bog’i, barzangi bog’i, Zebit cho’li ─ ro’dapolar uchraydigan cho’l, Istambul shahri shunday makonlardandir. Baxshi har bir makonni, yangi qahramonlarni shunday go’zal ta’rif qiladiki, tinglovchida ajoyib tasavvur hosil bo’ladi. Bu makonlarda qahramonlar har qanday qiyinchilikka uchrashmasin, zehni, kuchi yordamida qutulib, yo’lida davom qiladi.

Zevarxonning safari davomidagi dastlabki to’siq murakkabligi bilan ahamiyatli. Yigirma kun deganda Amudaryoga yetishadi va narigi tomonga o’tish uchun kemaga o’tiradilar va birdan halokat boshlanadi. “…Nogahon yomon shamol qo’zg’alib, kemani surib, Jayhun baliqning og’ziga to’g’ri qildi: Jayhun baliq kemani yutgani ishqiraverdi. Shunda kema chappasiga aylanib ketdi.[5,85]”. Bu yerda doston bosh qahramoni Zevarxonning faolligi va zakovati ko’zga tashlanadi. Do’sti Hakimjonga o’q-yoyni baliqning chap ko’ziga otishini, o’zi esa o’ng ko’ziga otishini aytadi. Natija esa quyidagicha bayon qilingan.

Ikko’ziga(ikki ko’ziga) endi ikki o’q yetdi,
Ko’ring endi Jayhunday katta baliqdi.
O’q borib ko’zining ichidan o’tdi,
Jayhunning yuzida ag’nadi yetdi.
Ko’ring endi Jayhunday katta baliqdi,
Tog’day bo’lib suvning betida oqdi.
Suv ham keldi yuqoridan zo’r berib,
Jayhunni ob borib g’uburga(kamar) tiqdi[5,86].

Qahramonning xususiyatlari yuqorida aytganimizdek alohida ta’riflanmagan. Guvohi bo’lganimizdek sarguzashtlar davomida sekin-asta yuzaga chiqaveradi. Shu o’rindagi Zevarxonning o’ziga xos taktik usul bilan ish tutishi asar oxirigacha saqlanib qoladi va har bir to’siqni yengib o’tishda katta rol o’ynaydi.

Dostonning barcha versiya va variantlari uchun umumiy bo’lgan bir epizod Zevarxonning barzangilar qo’liga tushishidir. Fozil shoir versiyasida Zevarxonning zangilar qo’liga tushishiga bir necha kundan buyon uxlamagani sabab bog’ supasida uxlab qolgani sabab bo’lsa, Rahmatulla Yusuf o’g’li versiyasida bog’da qo’liga soz olib g’azal aytishi va barzangi qizining sevgisini rad qilishi sabab bo’ladi. Shu o’rinda soz olib g’azal aytish epizodi diqqatimizni tortadi. Qirq kecha-kunduz yorning ishtiyoqi bilan yo’l bosgan Zevarxon katta bir jannatday bog’ning ustidan chiqib qoladi. Ko’nglida bu manzilni Sanobarniki gumonlab, sozini qo’liga olib, holatini bayon qilib g’azal aytadi. Zevarxon barzangining panjalari orasidan sirg’alib tushadi va qutulib qochadi. Bu qutulib qochish tinglovchini ishontiradigan darajada real hayotga yaqin qilib bayon qilingan. Rahmatulla Yusuf o’g’li versiyasida Zevarxon har doim o’zi bila sozini ham olib yuradi. Bu detal boshqa versiyalarda uchramaydi. Qahramonning soz bilan yurishi ham bilimdon, san’atkor ekanligini ta’kidlaydi.

Dostondagi makonlardan biri Eram bog’i bo’lib, Zevarxon bilan yo’li ayrilgan Hakimjon shu bog’ga kelib qoladi va Mehrangizni uchratadi. Xalq og’zaki ijodida sehrli epik makon vazifasini bajaruvchi Eram bog’i bu versiyada biror vazifani bajarmaydi. Syujetga kirgan sehrli epik makonlar, buyumlar biror vazifa bajarishi kerak aslida. Bu motiv Fozil shoir versiyasida uchramaydi. Ammo “Kitobi Sanobar”da Eram bog’i berilmasada, jodugarning qizi Mehrangiz obrazi uchraydi. Mehrangiz Sanobarga yordam beradi va uni sevib qoladi. O’z navbatida Sanobar asar oxirida uni ham o’ziga xotin qilib oladi. Rahmatulla Yusuf o’g’li versiyasida Mehrangiz bilan Hakimjon uchrashadi va unga uylanadi. Baxshi o’sha davr siyosiy vaziyati sababli bu motivni o’zgartirgan bo’lishi ham mumkin.

Shu o’rinda doston kompozitsiyasidagi yana bir syujet chizig’iga diqqat qaratmoqchimiz. Zevarxon bir chorvoqda dam olib o’tirganida “…bir haybatli, shoxlari kalkav, o’rkachi do’ng, olachatob(ola-bula) ho’kiz og’zida bir dona gavharni tishlab kelaverdi……Ho’kiz og’zidagi gavharni yerga qo’yib, o’zi o’tlamoqqa mashg’ul bo’ldi. Zevarxon bir hiyla o’ylab, daraxtning bargini uzib, gavharning ustiga tashladi. Gavhar ko’rinmay qoldi. Ho’kiz qaytib kelib, gavharni topmay chakalakning orasiga kirib ketdi.[5,96]”. Bu yerdagi gavhar tilsimli narsa sanalib, taniqli ertakshunos K.Imomov yonar tosh, uzuk kabi tilsimli narsalarning dahshatli kuchlarga qarshi jang qilishda hal qiluvchi vazifa o’tashini yozadi[6,82]. ammo dostonda gavhar qo’llanilgan hech qanday jang tasviri uchramaydi. Keyinchalik Zevarxon bu gavharni Sanobarning ko’shki oldida tushirib qoldiradi. Gavharni topib olgan Sanobar Zevarxonga oqshom kelib gavharini olib ketishini bildirib, xat yo’llaydi. Fikrimizcha, bu o’rinda Zevarxon gavharni olib qo’yish bilan o’zining xavfsizligini ta’minlaydi. Bu ho’kizning kuch va qudrati, yovuzligi gavharning yorug’lik tarqatishi bilan bog’liq. Dengiz hayvoni ho’kiz gavhar bo’lmasa, atrofni ko’rmaydi, dushmanga hamla qilolmaydi. Bizningcha gavhar detali mifologik obrazlar uchun kuch-qudrat va yorug’lik baxsh etuvchi ramziy ma’noda qo’llanilgan bo’lsa kerak.

Doston suyujetidagi mazmun-mohiyat qator xalq ertaklarida uchraydi. Jumladan, o’zbek xalq ertaklarida “...doston mazmuni asosan “Ozodachehra”, “Malikayi Husnobod”, “Tuhmatga uchragan kelin” kabi ertak suyujetlariga yaqin bo’lib, g’oyaviy-tematik xususiyatlari jihatidan aynanlikka ega”.[7,98] Ya’ni “Zevarxon” dostoni suyujeti genetik jihatdan xalq ertaklari bilan aloqdorlikka ega. Jumladan, “Malikayi Husnobod” ertagi suyujetidagi kabi Sanobar podsholik qushi uning boshiga kelib qo’nishi sababi bilan Istambul shahriga podsholik qilar ekan, suratini

darvozaga yopishtirib, kelib suratga tikilgan kishini olib kelishlarini buyuradi.[5,112] Farqli jihati esa ertakda Husnobod o'zining qiz bola ekanligini berkitmaydi. Sanobar esa yosh yigit sifatida podsholik qilib, o'zining qiz bola ekanligini sir tutadi. Dostonda Sanobar Shamshod eli malikasi sifatida tasvirlanib, ko'makchi qahramon vazifasini bajaradi. Sanobar obrazi juda faol obraz bo'lib, uxlab qolgan Zevarxonga oshiq, bir parcha non, lakak, cho'g'on qoldirib uni sinashida, tadbir bilan qaroqchilar qo'lidan qutulib ketishi bilan aqlli, zukko, tadbirli ekanligi ko'rsatiladi. Dostonda muhabbat qudrati har qanday qiyinchilikni yengib o'tishi g'oyasi yetakchilik qiladi.

Xalq dostonlarining yashovchanligida, uning xalq merosi sifatida chuqur ildiz otishida so'zsiz baxshilarning xizmatlari beqiyos. Rahmatulla Yusuf o'g'li o'zi orzu qilganidek bu go'zal dostonni o'xshatib, xalq o'rtasida jilvalantira oldi. Dostonni o'qir ekanmiz, doston tilining tushunarliligini, aniq va obrazliligini, pok muhabbat tarannumini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdusalomova N, Jo'rayeva M. "Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Zevarxon" dostoni haqida mulohazalar//VIII International "Başkent" congress on humanities and social sciences proceedings book.─Ankara,2023. ─B.621-625
2. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institute Folklor arxivi. Inv.№1445.
3. Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. – М., 1947.
4. "Зевархон". Айтувчи, Фозил Йўлдош ўғли.–Тошкент: Фан,1970,
5. "Зевархон". Айтувчи, Раҳматулла Юсуф ўғли, нашрга тайёрловчи М.Саидов// Тоҳир ва Зуҳра, Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент,1974.
6. Имомов К. Ўзбек халқ эртаклари//Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. –Тошкент: Фан,1981.
7. Имомов К. Достонларда эртак мотивлари// Фозил шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар.3-китоб. – Тошкент,1973.

BASHARIYATNING BIRINCHI SHOIRI

THE FIRST POET OF HISTORY

Nasrullo Ergashov
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
nasrul-oh@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada baxshichilik san'atining Vatanimiz ma'naviy va madaniy taraqqiyotidagi o'rni, shuningdek Yangi O'zbekistonda ushbu sohada olib borilayotgan davlat siyosati darajasidagi ulkan islohotlar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar. *Baxshi, baxshi-shoir, baxshichilik san'ati, xalq baxshisi, epos, doston, dostonchilik maktablari, Bulung'ur maktabi, Qo'rg'on maktabi, Narpay maktabi*

Abstract. *The article reflects on the role of the art of giving in the spiritual and cultural development of our country, as well as on the great reforms at the level of state policy in this field in New Uzbekistan.*

Key words. *Bakhshi, bakhshi-poet, art of bakhshi, folk bakhshi, epos, epic, schools of epic writing, Bulung'ur school, Kurgan school, Narpay school*

Insoniyatning ilkinchi qo‘shig‘i alla bo‘lsa, (hazrati Odam Atodan keyin) bashariyatning birinchi shoiri – baxshidir.

Xalq baxshisi unvoni ta’sis etilgunga qadar ilk unvonsiz xalq shoirlari baxshilar bo‘lgan. Shoir ham, baxshi ham xalq dardini kuylaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, baxshi – xalq ichida yurib uning hayotini bevosita ko‘rib dardlarini kuylovchi shoirdir. Shu bois ham xalqsiz baxshini va baxshisiz elni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Baxshilar el orasida juda katta obro‘ga ega bo‘lgan. Ular hatto do‘mbira chertib urushlarni to‘xtatib qolgan, o‘zaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilgan. Qolaversa, xalqlarning tarixini, ularning bir-biri bilan do‘stona munosabatlariyu jangu jadallarigacha “Go‘ro‘g‘li”yu “Alpomish”dek mahobatli va qadimiy adabiy obidalar – dostonlar bag‘riga jo aylab bizgacha yetkazgan ham baxshilardir.

Albatta, qardosh xalqlar tarixi faqatgina qon-qardoshlik rishtalari, o‘zaro ittifoqchilik va jangu jadallardangina iborat emas. Ularning paydo bo‘lishi, yashash tarzi, e’tiqodu madaniyati, xalqning xarakteri, davlatchilik tarixi haqidagi kompleks ma’lumotlarni biz baxshilarning dostonlaridan bilib olamiz. Demak, baxshi faqatgina shoir bo‘lmay, o‘z xalqi tarixi haqida xabar beruvchi tarixchi, qomusiy olim hamdir. Faqat ularning olimu tarixchilardan farqi shuki, ilm ahli tarix haqida faktlarga tayanib axborot bersa, baxshilar o‘z xalqi tarixiy xotirasini ulkan eposlar, ya’ni dostonlar qatiga singdirib, Go‘ro‘g‘liyu Alpomish kabi xalq genetikasini o‘zida aks ettirgan qahramonlar fitratiga joylab so‘z san’ati vositasida avloddan avlodga yetkazuvchi ulkan so‘z san’atkorlaridir.

Mana shuning uchun ham buyuk jahongir Amir Temur ta’biri bilan aytganda “turkning bosh bo‘g‘ini” sanalgan o‘zbek degan shonli va ulug‘ turkiy millatning xalq xotirasi, tiliyu dili bo‘lgan baxshilar yurtimizni 130 yil bosqinchilik asoratida tutib turgan Chor Rusiyasi va Sho‘ro hukumati tomonidan ayovsiz qatag‘on qilindi, surgunga yuborildi, qamoqxonalarga tashlandi. Mana shuning uchun ham o‘zbekning 70 dan ortiq dostonini yod bilgan Muhammad Jomurod o‘g‘li Po‘lkanday shoir-baxshilari bandi qilinib hibsda sil kasalidan halok etildilar.

Chunki mustabid tuzum bilar ediki, buyuk millatni shonli xotirasidan uzmay turib uni butunlay yengib bo‘lmaydi, xalq tarixiy xotirasidan uzib qo‘yilmas ekan, u baribir bosh ko‘taraveradi. Mustamlakachilar qora niyatlariga millatning tili bo‘lgan shoiru baxshilarini, olimu ziyolilarini, millatga moddiyu ma’naviy nafi tegadigan odam borki qatag‘onu qirg‘in qilib erishdilar.

Albatta, bunday yovuzliklarga millat oydinlari tomoshabin bo‘lib turganlari yo‘q. XX asr boshlarida zamonaviy o‘zbek folklorshunosligiga asos solgan Hodi Zarif kabi folklorshunos olimlar, Hamid Olimjon singari fidoyi shoirlar O‘zbekistonning baxshichilik maktablari vujudga kelgan hududlariga ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirib, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kabi buyuk baxshilaridan o‘zbek va turkiy xalqlarning ulkan adabiy obidalari bo‘lmish “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlarni yozib olib bizga o‘lmas ma’naviy meros qoldirdilar. O‘tgan asrda nomi zikr etilgan bu va boshqa dostonlar, ularning turli baxshilar tomonidan kuylangan versiya va variantlari o‘zlarining og‘zidan turli yillarda amalga oshirilgan folklor ekspeditsiyalarida Hodi Zarif, Mahmud Zarif, Muzayyana Alaviya, To‘ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov, Asqar Musaqulov, Zubayda Husainova, Mamatqul Jo‘rayev, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqul, Latifa Xudoyqulova, O‘ktam Hakimov singari zahmatkash va fidoyi olimlarimiz tomonidan yozib olinib, o‘tgan davr mobaynida qayta-qayta nashrga tayyorlandi va chop etildi.

Millatimiz uchun qimmatli bo‘lgan ushbu folklor materiallarining kattagina qismi bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor arxivida saqlanadi. Aytmoqchimizki, to‘qson yili mustabid tuzum tazyiqi ostida kechgan, Navro‘z kabi tarixiy bayramlari va boshqa qadimiy urf-odatlari hukmron tuzum tomonidan taqiqlab qo‘yilgan o‘tgan yuz yillikda bu ishlarni amalga oshirish katta jasorat hamda fidoyilik talab etar edi. Shukurki, millatimiz oydinlari yelkalaridagi muqaddas vazifani sharaf bilan ado etdilar. Millat uchun g‘oyat muhim bo‘lgan ushbu ezgu ishlar shu bilan to‘xtab qolgani yo‘q albatta. XXI asr bo‘sag‘asida, ya’ni 1999-yilda “Alpomish” dostonining 1000 yilligi yurtimizda va xalqaro miqyosda YUNESKO tadbirlari doirasida keng nishonlandi; keyinroq 2019-yilda Termiz shahridagi maydonlarning biriga haykaltarosh Qurbon Norxo‘rozov yaratgan Alpomish haykali o‘rnatildi; 2000-yilda birinchi prezident Islom Karimov “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvonini ta’sis etish to‘g‘risidagi farmonga imzo chekdi; Qo‘rg‘on, Bulung‘ur va Narpay dostonchilik maktablari paydo bo‘lgan Samarqand zaminiga bu maktablarning buyuk vakillari Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Muhammadqul Jomurod o‘g‘li Po‘lkan kabi baxshi-shoirlarga yodgorlik o‘rnatildi; “Boysun bahori” an’anaviy folklor festivalini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi; ko‘pjildli “Qoraqalpoq folklori” to‘plamlari chop qilindi...

Yuksakdagi xayrli ishlar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mamlakat tepasiga kelgach, to‘laqonli va izchil davom ettirilmoqda. Bungacha baxshilar asosan to‘ylarda, xalq sayillarida, kurash va ko‘pkarilarda dostonu termalarini kuylash imkoniga ega edi, 2018-yil 1-noyabrda O‘zbekiston tarixida ilk bor yurtimizda Xalqaro baxshichilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida prezident qarori e’lon qilinib, unda har ikki yilda bir marta mazkur festival o‘tkazilishi belgilab qo‘yilgach, ular o‘z iste’dodini ushbu Xalqaro festivallarda namoyish etish imkoniga ega bo‘ldilar; prezident qaroriga ko‘ra 2019, 2021 va 2023-yillarda Termiz, Nukus va Guliston shaharlarida ushbu anjuman yuksak saviyada o‘tkazildi; Termiz shahrida baxshichilik maktabi ochilgach esa baxshilar ustoz-shogird an’analarini mazkur maktabda bolalarga saboq berish orqali davom ettirmoqdalar; 2019-yil 14-mayda prezidentimizning mazkur soha istiqbolini ko‘zlagan “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi yana bir qarori e’lon qilindi; ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosi o‘laroq 2020-yilda baxshichilik san’atimiz YUNESKOning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi; shu yili Termizda Respublika baxshichilik san’ati markazi hamda uning huzurida Baxshichilik san’atini rivojlantirish jamg‘armasiga asos solindi; shuningdek ushbu shaharda ochilgan Baxshichilik maktabi negizida Baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internati tashkil etildi; bugungi kunda 100 jildlik “O‘zbek xalq yodgorliklari” ruknida eng qadimgi davrlardan to shu kungacha yaratilgan o‘zbek xalq og‘zaki ijodi: dostonlar, ertaklar, qo‘shiqlar, maqollar, topishmoqlar va boshqa janrlarda yaratilgan folklor asarlari nashr etilmoqda; xalq ta’limi hamda oliy ta’limda folklor va xususan baxshichilik san’ati nazariya va amaliyot birligida o‘rgatib kelinmoqda... Bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Qisqa qilib aytganda, folklor va baxshichilik san’atiga bo‘lgan davlat siyosati darajasidagi ulkan amaliy e’tibor yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar singari bu sohada ham yangi era boshlanganidan darak beradi.

Xalq bor ekan, uning og‘zaki ijodi ham albatta bo‘ladi. Uning og‘zaki ijodi mavjud ekan, bu ijodni o‘rganuvchi fan va olimlar ham albatta bo‘lajak. Zero “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish” kabi ulkan eposlari bor, Sherna baxshi, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Bola baxshi, Shomurod baxshi, Qodir baxshi kabi ulug‘ baxshilari o‘tgan elning baxshichilik san’ati dunyo bor ekan yashayveradi...

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Jo‘rayev Mamatqul. Folklorshunoslik asoslari. Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2009.
2. https://president.uz/uz/lists/view/2125.
3. https://lex.uz/docs/4380951.
4. https://lex.uz/docs/230175.

ПАРАЛЛЕЛИЗМНИҢ ЭСТЕТИКАЛЫҚ ФУНКЦИЯСЫ

THE AESTHETIC FUNCTION OF PARALLELISM

Кдырбаева Улзада Кайрбаевна
Қарақалпақ мәмлекетлик университети
таяныш докторанты
ulzadakydyrbaeva@gmail.com

Аннотация. *Бул мақалада параллелизм, оның түрлери ҳәм көркем дөретпедеги хызмети үйренилди. Қарақалпақ қаҳарманлық дәстанлары саналған «Алпамыс», «Қырық қыз» ҳәм «Едиге» дәстанлары тилинде параллелизниң қолланылыў өзгешеликлери мысаллар жәрдеминде талқыланылды.*

Таяныш сөзлер: *параллелизм, ритмлик-синтаксислик параллелизм, лингвопоэтика, композициялық ўазыйпа, көркем-эстетикалық ўазыйпа, қаҳарманлық дәстанлар.*

Abstract. *In this article, parallelism, its types and function in the literary text were studied. The peculiarities of the use of parallelism in the language of “Alpamis”, “Qiriq qiz” and “Edige” epics, which are considered Karakalpak heroic epics, were analyzed with the help of examples.*

Key words: *parallelism, rhythmic-syntactic parallelism, linguopoetics, composition task, artistic and aesthetic task, heroic epics.*

Поэтикалық синтаксистиң ең кең қолланылатуғын стилистикалық қуралы параллел конструкциялар есапланады. Параллелизм дегенде форма ҳәм мазмун жағынан бирдей гармония тийкарында тәкирарланатуғын, грамматикалық қурылысы өзара жақын болған, еки яки оннан артық синтаксислик бирликлердиң қатар қолланылыўы түсиниледи. Бунда тийкарынан предметлер ямаса ўақыялар қатар келтирилген ўақытта салыстырылыўы яки қарама-қарсы қойылыўы нәтийжесинде пикир поэтикалық жақтан белгили бир форма ҳәм ритм менен көркем сүўретленеди. «Параллелизм грекше parellelos – қатар баратуғын сөзинен алынған болып, оны лирика поэтикасына тийисли атама сыпатында биринши мәрте Роберт Лаут 1778-жылы өз аўдармасында баспадан шығарған «Иса пайғамбар мийнетлери» китабында жазған сөз басында қолланған» [1.99-100]. И.Р.Галперин, В.А.Кухаренко, Ф.М.Хажиева сыяқлы бир қанша илимпазлар өз мийнетлеринде параллел конструкцияны синтаксислик-стилистикалық қураллар сыпатында атап өтеди.

Параллелизм дәстанлардың эмоционал-экспрессивлигин тәмийинлеп, сүўретленип атырғаның ўақыяны образлы ҳәм тәсирли баянлаўға, мазмунды еле де ашып бериўге ҳәм ең баслысы тыңлаўшыға аңсат жеткериўге хызмет етеди. Дәстанлар тили тийкарынан поэзиялық қатарлардан ибарат болғанлығы ушын, оларда ритмлик-синтаксислик параллелизмниң қолланылыўы жийи ушырасады. Ритмлик-синтаксислик параллелизмде

дузилиси жағынан бир сөз шақабына тийисли сөзлер ҳәм бирдей гәп ағзалары бир-бири менен өз ара уйқасты пайда етеди:

− Ойланаман сөзимниң хатасына,

Түйе ерер болар ма ботасына,

Тартып сөйле тилиңди, Гүлшин сақаў,

Хан да тийер бола ма атасына? («Алпамыс» дәстаны, 80-бет).

Параллелизм дүнья тил билиминде түрли дәрежеде үйренилген. Рус тил билиминде параллелизм кең көлемде изертленген болып, бул бойынша көплеген сабақлықлар, мақалалар, илимий жумыслар ҳәм монографиялар жазылған. Оларға Р.О.Якобсонның «Грамматический параллелизм и его русские аспекты», М.М. Плисецкийдиң «Положительно-отрицательное сопоставление, отрицательние сравнение и параллелизм в славянском фольклоре», В.С.Баевскийдиң «Поэтика психологического параллелизма», Л.А.Астафъеваның «Параллелизм в лирических песнях» атлы монографияларын атап өтиў мүмкин.

Түркий тиллердеги параллелизм дәслеп В.М.Жирмунскийдиң «Ритмо-синтаксический параллелизм как основа древнетюркского народного эпического стиха» деп аталған мийнетинде үйренилген.

Параллелизм мәселеси өзбек тил билиминде Д.Ўраева тәрепинен арнаўлы изертленген болып, оның «Ўзбек халқ қўшиқларида параллелизм» атлы монографиясы басылып шықты. Автор бул мийнетинде өзбек халық қосықлары тилиндеги параллелизмди, оның тәбиятын, түрлерин ҳәм қолланылыў өзгешеликлерин кең түрде үйренген.

Параллелизм қарақалпақ қаҳарманлық дәстанларында жийи қолланылған болып, олар музыкалылықты пайда етиў ҳәм баянланған пикирдиң тәсир етиў күшин арттырыў ўазыйпаларын атқарған. Соның менен бирге, параллел конструкциялар ўақыяның адамлар ядында узақ ўақыт сақланып қалыўын да тәмийинлейди. Бул болса, аўызеки әдебият үлгиси есапланған дәстанлар ушын үлкен әҳмийетке ийе есапланады.

«Параллелизмлер поэтикалық шығармаларда еки түрли: а) композициялық; б) көркем-эстетикалық ўазыйпа атқарады» [2.101]. Дәстанларда параллелизмниң композициялық ҳызмети тийкарынан ўақыяларды өз ара байланыстырыўда, салыстырыўда, қарама-қарсы қойып сүўретлеўде ҳәм белгили бир музикалылықты пайда етиўде жүзеге шығады. Ал, көркем-эстетикалық ўазыйпасы болса қаҳарманлардың ишки сезимлерин, руўҳый дүньясын ашып бериўге ҳәм образлы баянлаўға жәрдем береди.

Дәстанлар тилинде параллелизмниң қандайда да бир белгилер жәрдеминде берилиўи көп ушырасады. Бул белгилер инсанды қоршап турған орталық, ҳайўанатлар ҳәм өсимликлер дүньясы, тәбият ҳәдийселери, реңлер, санлар ҳәм буйымлар есапланып, олар арқалы дәстандағы қаҳарманның руўҳый жағдайы, сезимлери еле де образлы түрде жеткерилген.

Ашылған бағлардың гүли солар ма,

Әжел жетпей пайманаңыз толар ма?

Атажаным, не йерлерин аўырды,

Ақ үйиңе нашар тулға болар ма? («Алпамыс» дәстаны, 12-бет).

Келтирилген мысалда қаҳарманның руўҳый жағдайы тәбият пенен салыстырмалы түрде сүўретленген. Яғный, гүл бағда өседи, адам өмирде жасайды. Бағ ҳәм өмир, гүл менен адам адам салыстыра сүйретленген.

Параллелизде параллел конструкциялар бир неше принципке тийкарланып қолланылады: уқсаслық тийкарында, қарсылық тийкарында, шәртлилик тийкарында, себеп-

нәтийже тийкарында, нәтийже-себеп тийкарында ҳәм т.б. Дәстанлар тилиндеги параллелизмлерди үйренгенимизе, оларда еки: символлық ҳәм реал (ҳақыйқый) бөлимлер бар. Биз оларды салыстырыў яки өз-ара қарама-қарсы қойыў нәтийжесинде тийкарғы айтылажақ пикирди дурыс аңлай аламыз.

Ашылған бағда гүлим,
Бағда шәмен бүлбилим,
Тон кийдим деп қуўанба,
Атадан жекке қулыным («Едиге» дәстаны, 28-бет)

Келтирилген мысалда тийкарғы дыққат перзентке қаратылған. Лекин, оны әпиўайы тил менен берилместен парраллел конструкциялар жәрдеминде образлы баянланған. Яғный, бул жерде перзент реал образ, ал гүл ҳәм бүлбүл болса сымвол хызметинде жумсалған. Бунда реал ҳәм сымволлық образларды салыстырыў арқалы пикир толықтырылған.

Айнанайын андызым,
Аспанда гәўҳар жулдызым,
Тири бенде көрисер,
Аман ба едиң жалғызым? («Едиге» дәстаны, 32-бет).

Бул қатарлар ритмлик-синтаксислик параллелизмге мысал бола алады. Сондай-ақ, бул жерде қатарлар арасындағы мәнилик байланысты, яғный, уқсаслықты сезиў мүмкин. Себеби, «андыз – … дәри ушын пайдаланатуғын сары шөптиң аты, аўырыўға ем болады». [3.138]. Гәўҳар деп қымбат баҳалы тасты түсинемиз. Ал, ол аўыспалы мәниде жумсалғанда басқалардан жақсы қәсийетлери менен ажыралып турыўшы затқа қарата қолланылады. Гәўҳәр жулдыз деп аспандағы сан мың жулдыздың ишинде өзгеше болған ең жақты жулдыз нәзерде тутылған. Яғный, келтирилген қатарларда пайдалы шөп, өзгеше жулдыз ҳәм перзент барлығы параллел қойып сүўретленген. Оларды қатар қойып сүўретлеў арқалы перзенттиң ата-ана ушын қандай әзийз екенлиги аңлатылған.

Жүйрик едим, туяғымнан майрылдым,
Ушқыр едим, қанатымнан қайрылдым,
Әрман менен жатырыппан далада,
Бир себептен елатымнан айырылдым. («Қырық қыз» дәстаны, 125-бет).

Жуўмақлап айтқанда, параллелизм қарақалпақ қаҳарманлық дәстанлары тилинде қаҳарманлардың ишки дүньясын, сезимлерин қысқа ҳәм әпиўайы түрде, соның менен бирге образлы жеткериў ўазыйпасын атқарады. Дәстанларда параллелизмниң пайда болыўында метафора, метонимия, символ, теңеў, контраст ҳәм жанландырыў сыяқлы тилдиң көркем сүўретлеў қураллары тийкар болып хызмет атқарады.

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. Якобсон Р.О. Работы по поэтике. – Москва: Прогресс, 1987. – С. 478.
2. Ўраева Д. Ўзбек халқ қўшиқларида параллелизм. Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 165.
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. I том. Нөкис: Қарақалпақстан, 2023. – Б. 400.

ЭЛБЕК – ФОЛЬКЛОРШУНОС

ELBEK IS A FOLKLORIST

Ибрагимов Бекзод Жовлиевич
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: *Мақолада ўзбек фольклоршунослиги асосчиларидан бири бўлган Машриқ Юнус (Элбек)нинг халқ оғзаки ижоди намуналарини тўплагани, фольклоршуносликка қўшган ҳиссаси ҳақида маълумот берилган. Шунингдек, Элбек асарларида фольклорнинг ўрни борасида ҳам мулоҳазалар берилган.*

Калит сўзлар: *Элбек, лапар, эл адабиёти, болалар фольклори, фольклоршунослик, масал, эртак.*

Abstract: *The article provides information about Mashriq Yunus (Elbek), one of the founders of Uzbek folklore, who collected samples of folk art and contributed to folklore. Also, comments on the role of folklore in Elbek's works are given.*

Key words: *Elbek, lapar, folk literature, children's folklore, folkloristics, parable, fairy tale.*

Ўзбек халқ оғзаки ижоди тарихи жуда узоққа бориб тақалса-да, фольклоршунослик соҳаси фан сифатида пайдо бўлганига ҳали бир аср ҳам тўлмади. “Ўзбек тилида «фольклор» термини илк бор “оғзаки адабиёт”, “эл адабиёти”, “оғиз адабиёти” атамаларининг муқобили сифатида XX асрнинг 30-йилларидан эътиборан қўлланила бошланган. Шундан кейин халқ оғзаки бадиий ижодиёти “фольклор” термини билан, уни ўрганувчи фан тармоғи эса “фольклористика” (“фольклоршунослик”) деб юритала бошланди”. [Жўраев 2009: 13] Илм-фаннинг деярли барча соҳаларида янгиликка, янгиланишга интилган жадидлар эл адабиётини тўплаш ва ўрганишга ҳам катта эътибор қаратишган. Жумладан, Фитрат, Ғози Олим Юнусов, Ғулом Зафарий, Элбек каби ижодкорлар қишлоқма-қишлоқ кезиб, халқ оғзаки намуналарини йиғиб чиққан, улар ҳақида илмий тадқиқотлар қилган. Улар орасида Машриқ Юнус (Элбек)нинг ўз ўрни, ўз овози бор.

Ғози Олим, Элбек, Ғулом Зафарийларнинг дастлабки мақолалари бир қарашда ахборот-баён характерида бўлса-да, уларда фольклор жараёнининг у ёки бу жиҳатлари тўғри ёритилгани ҳамда халқ ижоди намуналари илмий жиҳатдан асосан ҳаққоний баҳолангани билан аҳамиятлидир. Шундан келиб чиқиб, Ғози Олим Юнусов, Элбек (Машриқ Юнусов) ва Ғулом Зафарийларни биринчи ўзбек фольклоршунослари бўлган эдилар, дея қатъий айта оламиз. [Мирзаев 2013: 220] Дарҳақиқат, шундай. Ходи Зарифов ўзбек фольклоршунослиги тарихида биринчи бўлиб XX асрнинг 20-йилларидаёқ халқ ижоди асарларини тўплаш ва нашр этиш учун махсус транскрипция ишлаб чиққан [М.Жўраев. 2009: 42] бўлса, Элбек халқ қўшиқларининг алоҳида жанрлари бўйича биринчилардан бўлиб илмий мақолалар эълон қилган фольклоршунос олимлардандир”. [У.Амонов. 2018: 19]

1919 йил бошларида Фитрат раҳбарлигида тузилган “Чиғатой гурунги”нинг фаол аъзоларидан бири сифатида Элбек эл адабиёти намуналарини тўплашга қизиқиш билдирган бўлса, кейинчалик Шокиржон Раҳимий, Ғози Олим Юнусовлар билан бирга ўзбек илмий комиссияси раҳбари ҳам бўлиб ишлади. Чўлпон, Ғулом Зафарий ва бошқалар билан бирга

Фарғонадан минглаб халқ мақол ва маталлари, халқ қўшиқ ва лапарларини, этнография материалларини тўплаб келади [Турдиев “Гулистон” 1990: 11-сон]. Ҳозирги замон ўзбек тилида кам қўлланадиган “Ўзбек халқининг изоҳли луғатига материаллар” номи остида мақолалар чиқаради, ўзбек тилининг мукаммал изоҳли луғатини яратиш учун муҳим манба бўла оладиган “Ўзбек фолклори луғати”ни тузишга ҳам киришади.

ХХ аср бошларидаги қалтис вазият шунчалик мураккаб эдики, миллий урф-одатлар, қадрият ва анъаналар, турли маросимлар давр муҳитига мослаштирилиб, қаттол тузум манфаатларига хизмат қилдирила бошланган эди. Халқимизнинг азалий орзу-аромнлари, юксак туйғуларини ифода этадиган фольклор намуналари ҳам сиёсийлаштирилиб, сўзлари бузилиш арафасида турган эди. Бундан жуда қаттиқ ташвишга тушган Элбек, Фитрат, Ғози Олим Юнусов каби жадидлар тезкорлик билан ушбу ижод намуналарини тўплаб, қоғозга тушириш зарурлигини ҳис этишди. Халқ орасига кириб, айни пайтда ёзиб олинмаса, унутилиб кетиш хафви тобора ортиб бораётганини теран англаб етади. Элбек халқ ижодининг дурдоналаридан бўлган қўшиқ (лапарлар)ни кечиктирмасдан тўплаш ва нашр қилишнинг биринчи жонкуяри сифатида бонг уради: «Адабий қимматни ўз ичига олган чуқур маънолари билан кўнгилни ўзига тортатурғон матал, эртак, чўпчак, жумбоқ ва лапарларимиз бугун ўз-ўзидан йўқолиб борадир. Буларнинг кундан-кун йўқолиб кетмакда эканини кўриб турғон биз ўзбекларнинг албатта жим турмай, буларни тўплашға ва китоб равишда босдириб тарқатишға ҳаракат этмагимиз тегиш эди. Бу кунларда шу тилакни илгарига суриб ҳаракат қилғувчи Ўзбек билими ҳайъати ва Билим кенгаши ипмий ўринлар бор эса-да, бир томондан буларни тўплаш ишига қизиққан кишиларнинг бўлмаслиғи, иккинчидан халқ адабиётининг энг юксалган ўринларининг тинчсиз бир ҳолда қолиб турғонлиғи бу ҳаракатларға тўсиқ бўлиб турмоқдир» [“Билим ўчоғи” 1922, 1-сон: 96].

Элбек фольклор намуналарини тўплаб, “Лапарлар” (1922), “Ашулалар тўплами”, “Болалар қўшиқлари” (1934—1935 йиллар) каби китобларни нашр эттирган. Шунингдек, унинг қатор насрий асарларида, шеърларида ҳам ўзбек халқ оғзаки ижодидан намуналар келтирилиб, мақол ва маталларимиз сингдириб юборилганки, бу орқали ижодкор миллий ўзлигимизни сақлаб қолишга интилганини сезиш мумкин. Жумладан, “Аноргул” номли қишлоқ турмушидан кичик ҳикоясида бир қатор халқ қўшиқларини, маросимларини келтириб ўтади. Ҳикоя қуйидаги тўртлик билан бошланади:

Олмани отдим харига,
Харидан ҳам нарига;
Аҳмад акам қиз берди
Ўзидан ҳам қарига.

Ҳикоя оддий қишлоқда яшайдиган ўзбек қизининг турмуш тарзи, орзу-армонлари ҳақида. Аноргулнинг дугонаси билан ўзаро суҳбати, турмуш кечинмалари орқали эл адабиёти қандай яралиши ва оғиздан-оғизга қандай ўтиши кўрсатилади. Икки ўртоқнинг ўзаро гаплашиб ўтириб қўшиқ айтиши ва қўшиқ матнини ҳам шу суҳбат асосида тўқиши жуда ишончли тасвирланган. Икки ёш бўйқизлар дугонаси Қумрининг дадаси жуда қарздор бўлиб қолиб, охирида шу қизини Рустам бойға уч юз сўм пулга сотмоқчи бўлганида унинг бегона йигит билан қочиб кетгани ҳақида гаплашар экан, бир қўшиқ айтиб юборишади. Халқ куйи йўлида айтилган бу қўшиқ эл адабиётининг қандай яралишига бир мисол бўлади. Қўшиқ қуйидаги жумлалар билан якунланади:

Оқ олма, қизил олма,
Йигитларга кўз солма,
Йигитларга кўз солиб,

Уят-номусга қолма!

Ҳикояда воқеалар қишлоқ аёлларининг суҳбати билан ривожланиб, қиз узатиш тўй маросимига боғланиб кетади. Шундан сўнг тўйдаги айтишувлар, лапарлар тасвири берилади. Асарда лапардан намуналар келтирилар экан, уларнинг нима мақсадда айтилаётгани, қандай ҳолатда ким томонидан куйланиши ҳам илова қилиб кетилади. Лапарлар шунчаки айтишув эмас, балки куёв ва келин томоннинг ўзаро шартлашуви, аҳдлашуви, бир-бирига қўядиган талабларидан иборат бўлиши кўрсатилади. "Ҳар икки тараф ҳам ўз ваъда ва шартларини шул йўлда битиндилар. Тун ярмидан ўтиб азон вақти яқинлашди. Барча секин-секин тарқалди. Ўйин битти", – деб якунлайди бобни ёзувчи. Ҳикоянинг кейинги қисмида тўй маросими, "Ёр-ёр" айтиш, келин салом, "Юз очиқ", «Кўрмана» каби маросимлар, тўйдан кейинги урф-одатлар тасвир этилади. Таниқли фольклоршунос Музайяна Алавия айтганидек, "Маросим қўшиқларининг асосий ижодчилари ва ижрочилари хотин-қизлардир. Улар турмушда эрксиз, ҳуқуқда тенгсиз яшаганлари устига, ҳаётнинг ҳам шафқатсиз силтовларига биринчи навбатда шулар рўпара бўлганлар". [М.Алавия 1972: 5] Элбек бир фольклоршунос сифатида халқимизнинг тобора йўқолиб бораётган урф-одатларини, қадриятларини шу ҳикоялар орқали сақлаб қолишга уринади.

Шоирнинг "Ўтмишим" достони ҳам халона услубда ёзилган бўлиб, мазмунан ва руҳан таниқли бахшиларнинг "Кунларим", "Таржимаи ҳол" сингари ўз ёшлик йилларида бошидан кечирган қийинчиликларини баён этувчи терма-достонларини ёдга солади. Шунингдек, бир қатор шеърларининг боши ёки ўртасида халқ қўшиқларидан иқтибос келтириб: "Бошидаги тўрт йўл халқ адабиётидандир" деган изоҳни бериб ўтади ва олинган парчани қўштирноқ ичида ҳавола қилади. Элбекнинг фольклоршунос сифатидаги изланишлари ўз-ўзидан шоир шеърларида ҳам акс этган. Жумладан, "Чўпон", "Икки бошоқ", "Куз", "Муждалар", "Кўк қизи", "Тоғда баҳор" каби битикларида халқонаа оҳанглар яққол намоён бўлади.

Баҳор бир келинчакдир,
Исми унинг чечакдир.
Қўшиғидир "ёр-ёр",
Сойлар ошиқ – уҳ тортар.

Тоғда мўйсафид ётар,
Келинчакка сўз отар.
Унинг дили жуда тор,
Лақаби муз, исми қор.
("Тоғда баҳор" шеъридан)

Эътибор қиладиган бўлсак, баҳорни келинчакка қиёслаш, баҳор айёмида "Ёр-ёр" айтилиши, қор қоплаган тоғни улуғвор мўйсафид сифати билан тасвирлаш халқ оғзаки ижодида кенг қўлланади. Элбекнинг ушбу йўналишдаги барча шеърларида айни шундай ўйноқи оҳанг, ўзига хос қофия ва ритм уйғунлиги акс этади. Неча минг йиллардан бери халқимиз тилида, хотирасида яшаб келаётган бундай шеър қурилиши XX аср бошларида ёзма адабиётда янгилик сифатида яхши кутиб олинди. Бу оҳанг халқнинг ўз миллий оҳанги бўлгани учун ҳам тез қабул қилинди ва юрак-юрагига сингий олди.

Машриқ асарларида халқ оғзаки ижодининг турли мотивлари ўз аксини топади. Ашурали Зоҳирий айтганидек, "...шоир Элбек халқ мулки – оғиз адабиётини халқдан олиш ва халққа қайтадан етказишда эл тилининг тушунарли таъсирларидан фойдаланган, эл

болалар адабиётида масалчиликни яратган катта санъаткор” [Элбек 1999: 10] эди. Дарҳақиқат, Элбекнинг масаллари халқ ичидан олинган, фольклор намуналари асосида яратилган. Масалан, “Сичқонхоннинг қиз узатиши” эртак-масали ҳам халқ оғзаки ижодидан олинган эртак асосида жуда яхши ифода этилган. Масал ритми, қофияси жиҳатидан мукаммал бўлмаса-да, шоир асл мазмун-моҳиятни болалар учун тушунарли тарзда гўзал ифода эта олган. Сичқонхоннинг қизига куёв излаб, дунё кезиб, охири ўз қавмидан муносиб номзод топишида “Тенг тенги билан”, “Пешонага ёзилганидан қутулиб бўлмайди” каби нақл ва халқ мақоллари мужассам.

“От ила одам” масалида ҳам эътиборни тортадиган жиҳатлар бисёр. Унда ўз яйловида тоза ўтлардан еб, тиниқ булоқлар сувин ичиб, роҳат-фароғатда, энг муҳими, эркинликда яшаб келаётган от бир куни ногоҳ яйловида бир ҳўкизнинг ўтлаб юрганини кўриб қолади. Бундан жаҳли чиқиб, уни ҳайдаб юбориш учун одамдан ёрдам сўрайди. Одам эса пиёда узоққа боролмаслигини баҳона қилиб, отни нўхталаб, миниб олади. От мақсадига эришади. Ҳўкиз яйловдан қувилади. Аммо унинг устига чиқиб, жиловини қўлига олган одам отни озод қилишни хаёлига ҳам келтирмайди. Асл вазиятни, одамнинг мақсадини англаб қолган отнинг ёлворишлари бекор кетади:

…Отнинг бундай ялинишларин кўзга илмай,
Унинг шундай ҳолиға ҳеч раҳм қилмай,
Қамчи билан айлантириб тўрт-беш урди:
Ҳўкиз билан бирга қўшиб боғлаб қўйди...[Элбек 1999: 132]

Шоир изоҳда “Бунинг асли халқ эртакларидан олинмишдир”, деган бўлса-да, унда ўша замон сиёсий тузуми яққол аксланади. Масал ёзилган вақтда, яъни 1921 йили Чор Россиясининг мустамлака сиёсати мустаҳкамланиб, халқ масалдаги ёрдам сўраб қўлга тушган от каби “қозиққа боғлаган” – эрки ва ҳуқуқларидан маҳрум этилган палла эди. Россия ва Буюк Британиянинг Ўрта Осиё учун кураши ҳаммамизга маълум. Уларнинг ҳеч бири ёрдам қўлини чўзганда самимият билан иттифоқ тузиш учун эмас, ўзига бўйсундириш ва йўриғига юргизиш учун ҳаракат қилган. Шу жумладан, руслар босқини ҳам ўша даврда ҳашпўшланиб, айрим тарихчилар томонидан агар Россия бўлмаганда, Ўрта Осиё Англияга қарам бўлиб қоларди, Росия бизни бошқа бир давлат босқинидан қутқариб қолди, деган қарашлар билан тарихни ўзгача талқин этишга уринилган. Ўшандай қалтис вазиятда Элбек ушбу масали билан халқнинг кўзини очишни, мустамлака сабаби ва оқибатини тушунтиришни мақсад қилган бўлса не ажаб.

Элбекнинг “Момогулдурак” тўпламига “Элбек тўплаган болалар қўшиқлари” номи остида 18 та халқ оғзаки ижоди намунаси киритилган бўлиб, асосан болалар томонидан ижро этилиши учун мўлжалланган қўшиқлардир. Бу қўшиқлар бугунги кунда ҳам боғча ва мактаб ёшидаги болалар томонидан севиб ижро этилади. Масалан, “Бойчечак”, “Офтоб чиқди оламга”, “Читтигул”, “Тепдим, сандиқ очилди”, “Лақашиқилдоқ” кабилар бугун ҳам жойларда фольклор мусиқа ва рақс дасталарининг аоссий репертуарларидан саналади. Аммо кейинги пайтда бу қўшиқлар ҳам бироз ўзгаришга учраганини кўриш мумкин. Халқ оғзаки ижоди турли вариантлари билан яшашини, замонга қараб ўзгаришларга юз тутишини ҳисобга олсак, бу табиий ҳол. Аммо бу қўшиқлар қайси даврда ёзиб олинганига қараб ўша давр турмуш тарзи, кишилар ҳаёти ҳақида тасаввур ҳосил қилиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, Элбек ижодининг энг муҳим йўналишларидан бўлган эл адабиёти намуналарини тўплагани ва фольклоршунослик соҳасидаги фаолияти бугунги кун учун ҳам ғоятда муҳим саналади. Халқ оғзаки ижоди қанчалик эрта ёзиб олинса, шунча асллиги сақланади, авлодларга ўз ҳолича етиб боради. Шу нуқтаи назардан Элбек тўплаган

ва нашр эттирган оғиз адабиёти намуналарини тадқиқ этиш, шоир ижодидаги фольклорга хос мотивларни ўрганиш бугун адабиётшунослар олдида турган муҳим вазифалардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Амонов У. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиши тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида) филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент: 2018.
2. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. Тошкент: Фан, 2009.
3. Мирзаев Т. Ҳоди Зариф суҳбатлари. Тошкент: SHAMSASA, 2013.
4. Турдиев Ш. Шоир Элбек «Гулистон» журнали, 1990, 11-сон
5. Ўзбек халқ ижоди. Нашрга тайёрловчи: М.Алавия. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
6. Элбек. Момогулдирак.Тошкент: Чўлпон,1993.
7. Элбек. Танланган асарлар. Тошкент: Шарқ, 1999.
8. Элбек. Лапарлар. «Билим ўчоғи» журнали, 1922, 1-сон, 96-бет

АЗА МАРОСИМИГА АЛОҚАДОР ПОЭТИК ОБРАЗЛАР
(Зомин тумани аҳолиси қўшиқлари мисолида)

POETIC IMAGES ASSOCIATED WITH MOURNING RITUALS
(Example of the songs of the people of Zomin District)

Юлчураев Орзубой Кўлибоевич
Мустақил тадқиқотчи (Гулистон ш.)
orzuboy.yulchurayev@mail.ru

Аннотация. *Аза маросимига алоқадор поэтик образлар инсоният тарихининг илк босқичларидаёқ дунёга келиб, инсондаги онг ва тил тараққиёти билан боғлиқ равишда шакл ва мазмун жиҳатидан тараққий этиб келган. Мазкур мақолада аза маросимига алоқадор поэтик образларига оид кузатишлар ҳақида Зомин тумани аҳолиси қўшиқлари мисолида сўз боради.*

Калит сўзлар: *Аза, маросим, поэтик образ, фольклор, жанр, норма.*

Abstract. *Poetic images related to the Aza(funeral) ritual came into the world in the early stages of human history and developed in terms of form and content in connection with the development of human consciousness and language. In this article, observations on poetic images related to the mourning ceremony are discussed on the example of the songs of the people of Zomin district.*

Keywords: *Funeral, ritual, poetic image, folklore, genre, norm.*

Инсон зоти яралибдики, дунё шодлик ва ғам, тўй ва мотам, ҳаёт ва ўлим каби зиддиятларга асосланган. Жудолик, оғир айрилиқ, ота-она, қариндош-уруғлар, ёру дўстлар учун аламли қайғудир. Аммо туғилиш бор экан, қайтиш ҳам бор. Шунинг ўзи зоминликлар орасида "ҳукм Олло" яъни Аллоҳнинг ҳукми деган ҳикматлар юради. Азадорлик киши

ҳаётининг интиҳосини қайд этувчи қайғули маросимдир. Маълумки, туркий халқларда аза маросими жуда қадим тарихга эга. Тилшунос Маҳмуд Қошғарийнинг "Девону луғотит турк" асари орқали етиб келган Алп Эртўнга ҳақидаги мотам қўшиқлари бунинг яққол намунасидир. Ўлим билан боғлиқ удум ва маросимлар зоминликларда "тайоқ ушташ", "қудайы", "жэти", "қырқ", "аққиар", "жыл" каби аза маросимларини ўтказиш удумлари бор. Марҳум ёки марҳумага яқин аёллар: она, қиз, опа, сингил ва умр йўлдоши кабилар томонидан юрак бағрингизни эзиб юборадиган айтиб йиғлашлар бугунги кунга қадар ҳам яратилмоқда ва айтилмоқда. Ушбу маросимларда ҳаётдан кўз юмган кишиларнинг ижобий ҳислатлари, жудолик аламлари айтиб йиғланади:

Вой, айтмай десам бўмойди,
Вой, доғингиз ўти қўймойди.
Вой, ишанган боғим, отам,
Вой, суянган товим, отам.

Йиғлаб йўқловчи фарзанднинг ҳонишларига асосланадиган бўлсак, ота кўп ҳам ёшини яшаб, ошини ошаган киши эмаслиги яъни нисбатан ёш қайтиш қилганлигини сезиш мумкин. Шунинг учун, «айтмай десам бўлмайди, доғингиз ўти қўймайди, ишонган боғим, суянган тоғим отам» дея йўқламоқда. Давомида:

Вой, қалдирғочдинг қанотига
Вой, қия байлаган, отам,
Вой, борса кемас жайларга
Вой, бел байлаган, отам.

Отасининг ўта нозик дид ила қалдирғочнинг қанотига қия бойланган дея ўхшатилиши, қалдирғочнинг қанотида бойланадиган жойнинг ўзи йўқ, бўлганда ҳам жуда омонат боғланиши, отанинг умри ҳам омонатдайлиги, борса келмас жойларга бел боғлаб кетган отасидан сиқилмоқда. Яна:

Вой, ғамга тўлсам жилаған,
Вой, сувлар бўйида ўтириб,
Сувдай робон бўғон, отам.
Вой, гул тагида ўтириб,
Гулдай хазон бўғон, отам.

Ғамга тўлган кезларимда, худди ўзининг ғамидай йиғлаган, сув бўйида ўтириб, ҳаётнинг, умрнинг оқиб ўтаётган сувнинг ровона бўлиб ўтиб кетишига ўхшатиб, гулдай рўзғор қуриб, сўлиган гулнинг баргидай хазон бўлганлиги айтиб куйинмоқда. Яна:

Вой, қайга миймондир бугун
Вой, уйгинамдинг тўрида,
Азиз миймоним, отам.
Вой, беганалар бекар экан,
Вой, бошингга кун тушганда,
Вой, отам-энам керак экан.

Ўз уйининг тўрида сўнгги бор меҳмон бўлаётган ота азиз меҳмон ҳисобланади. Кишининг бошига кун ташвиш тушганда, бегоналар малҳам бўлолмайди, ҳеч ким ота-онадек ташвишингга шерик бўлмайди, ўшандай ҳолатда ота-онанг керак экан деб нолимоқда.

Хуллас, зоминликлар ҳаётида мавсумий ва оилавий маросимлар ниҳоятда ранг-баранг бўлиб, улар аждодлариминг дунёқараши, эътиқоди, орзу-истаклари, урф-одатлари билан боғлиқ миллий қадриятларимизнинг гўзал намуналаридир.

Ислом дини таълимотлари халқ ҳаётига сингиб борган сари ундаги ҳозирда кераксиз маросимлар аста-секин сиқиб чиқарилмоқда. Ҳозирда, юқорида айтилган аза маросимларининг бир қисми удумликдан чиқиб бормоқда. Лекин, бугунгача улар тўла бартараф этилмаган. Уларнинг қай тарзда ўтказилишини ўрганиш амалий жиҳатдан кўра, элшунос ва қадимшунос олимларимиз ёндошувлари жуда муҳим аҳамият касб этади. Биз юқоридаги аза маросимларида зоминчасига айтиладиган айтиб йиғлашлардаги поэтик образлар яратилишига доир фольклоршунослик илми нуқтаи назаридан ўрганишни муҳим деб билдик.

Зоминликлар ҳаёт тарзига хос жиҳатлардан бири оилада, яқинлар орасида кутилмаган йўқотишлар рўй берса, бахтсизликка учраган бўлса оилабошининг фарзандлари, яқин қариндошлари орасида гапга чечан, "қуймақулоқ" айтиб йиғловчи, айтиш мумкинки, "гўянда"лик қилувчи кишилар топилган ва ўлим билан боғлиқ маросимларда "маҳорат" ила ижро қилиб келган. Масалан,

Вой кўргум, войдод кўргум,
Ота-энам, вой жигарим.
Жигаридан жигарим бўғон,
Кўланкаси майдоним.
Энди жигар қайдадур?
Кўланкаси майдоним.

Кишилик жамиятида яқинларини айниқса, ота-онадан жудо бўлиш инсоннинг руҳиятига кескин таъсир қилади, буни ҳис этиш қийин эмас, албатта. Яна, шундай йўқотишни ўз бошидан кечирган зоминликнинг фарёдини тинглаб кўрамиз:

Жонғоқ чағиб, дам берган
Отажоним ғамхўрим.
Жилик чағиб мой берган
Отажоним меҳрибоним.
Овзимга қараб жегизган,
Отажоним ғамхўрим.
Бўйимга қараб кийгизган,
Отажоним меҳрибоним.
Товдан таёқ кестирган
Отажоним ғамғўрим
Тол чибиқдай ўстирган
Отажоним меҳрибоним.
Гулдан таёқ кестирган
Отажоним ғамхўрим
Гул дастадай ўстирган
Отажоним ғамхўрим.
Бозорға борса бош бўғон
Отажоним ғамхўрим
Ҳол қўржинни жай қиғон
Отажоним меҳрибоним
Ҳол хуржуни сузилди
Отажоним ғамхўрим
Тандан жони узилди
Отажоним меҳрибоним.

Ўғилдир, қиздир фарзанд - ота-она учун тириклигида хизмат қилиши, уларнинг меҳрини қозониб, қариганида ғамхўрлик қилишга бурчлидир. Отаси тириклигида боласини эркалаб, ўзи емасада фарзандига илиниши унга "жонғоқ" (ёнғоқ) чақиб бериши, "жилик" (илик) чақиб бериши, уни ҳоҳишига қараб кийинтирганини, тоғларга олиб чиққанларини, гулга қарагандай меҳр билан парваришлаб ўстирганлигини, рўзғор ташвишлари ила олахўржинни бўйнига илиб, боласини опичлаб бозорга олиб боришларини эслаб, бир зум кўз олдидан болаликда отасининг қилган ғамхўрликларини айтиб йиғлаган, суянчиғини нарги дунёга кузатаётган фарзанд ноласининг ўзига хос ифодасидир. Энди худди шундайин онасини йўқотган фарзанднинг дилидаги "айтимлар"ини тингласак:

Онажон десам жон деган, онажоним меҳрибоним

Жоним болам сен деган, онажоним ғамхўрим.

Бўғонимга суюнган

Бўмағанимга куюнган, онажоним меҳрибоним.

Йўқотишларнинг катта ёки кичиги бўлмайди дейишади, аммо ҳар бир фарзанд учун оғир йўқотиш онани йўқотиш ҳисобланса ажаб эмас. Меҳрибон она фарзандини тўққиз ой вужудида кўтариб, туғилганидан то вояга еткунга қадар еб-ичишидан тортиб, соғлигига ҳам ғамхўрлик қилиши ҳеч кимга сир эмас. Ғамхўр онасини эслаб, фарзандининг бу ҳаётда ўрнини топганлиги, оила қуриб фарзандли бўлганлиги, топиш-тутиш ишлари ҳам ўз ўрнида эканлигидан суюнганлиги ёки аксинча ҳаётда турмуш ташвишлари ортиб, ишлари юришмай қолган пайтларда куйинганлигини эслаб ҳониш қилмоқда. Давом этамиз:

Толдан бешикка тойанғон

Тонгги уйқусидан уйғонган, онажоним меҳрибоним.

Тундан бешик толмоғон

Тунги уйқусидан уйғонган, онажоним ғамхўрим.

Бешикчи ҳунармандларимиз бешикни асосан тол дарахти шоҳларидан ясайди. Эмизикли она тунда толдан ясалган бешикка таяниб, бешик тебратиб қўли толмаган, ширин уйқусидан қолиб, бешикдаги боласини эмизиб ғамхўрлик қилганлигини тараннум этади.

Олтиндан чамов буратқон

Ойида холим сўратқон

Онажоним меҳрибон.

Олтиндай қимматбаҳо маслаҳатларини аямасдан, қизига чамалаш, ҳаёт милларини соатни бурагандай бурашни ўргатган, рўзғори бошқа қизини ҳар ойда ҳолидан хабар олишни назорат қилган меҳрибон она,

Кумушдан кўсов буратқон

Кунда халим сўратқон

Онажоним ғамхўрим.

Одатда тандир ёки учоқлардаги олов кўсов орқали қоловланади. Кумуш кўсовни рўзғорда қандай ишлатишни, таом тайёрлашни ўргатган, ўзга оилага мослашгунга қадар кунда ҳолидан хабар олишини таъминлаган она ҳақида куйламоқда. Яна:

Миймонлар кеса хўш деган,

Миймонхона бўш деган,

Онажоним ғамхўрим.

Миллатимизга хос меҳмондўстлик зоминликлар кундалик турмушида ҳам муҳим ўзига хос аънаналардан ҳисобланади. Кутилмаган меҳмон келсада, рўзғордаги бор имкониятдан келиб чиққан ҳолда, ўзи ёки боласи емасада бор топган тутганини меҳмон олдига қўйиш ва уларнинг кўнглига йўл топиш уддабурон, хушхулқ онанинг меҳмонхонаси

кўнгли каби кенг, қанча меҳмон келса ҳам кутиб олишини;

Олмадой қомирди бўш қиғон,

Миймонлар кўнглин хўш қиғон,

Онажоним меҳрибон.

Одатда ҳозирги кунда ҳам зоминликлар хамирли таомларни хуш кўради. Меҳмондўст онанинг олма ҳажмидай катталикдаги юмшоққина хамирдан меҳмонлар кўнглига маъқул келадиган таом тайёрлаб кутиб, кузатишларини айтиб йиғламоқда.

Меҳрибонлик ҳақида сўз кетса, кўз олдимизда онажонларимиз гавдаланади. Бутун вужудидан яралган фарзанд онасининг меҳрибонлигини бешикдан то, улғайган давригача бўлган жараёнларни усталик билан образли асосида кечинмалари билан ўртоқлашмоқда. Энди шундай меҳрибон онанинг ўз фарзандини йўқотиш кўргилигига учраган она фарёдини тинглаб кўрамиз:

Бойчечакдай очилиб,

Қизғалдоқдай тўлувдинг жоним болам.

Табиат ҳодисаларини илғаган, кузатган кишигина фарзандини эрта баҳорда очилган бойчечакка, қизғалдоқдай тўлиқ очилишига ўхшатишига қараганда боласи ёш, навқирон ёшда бўлганга ўхшайди. Яна:

Оққонам эдинг билагинг,

Озғинамиди билганинг, жоним болам.

Озғона бўса тилагинг,

Озғинамиди билганинг, жоним болам.

Билакларининг оқлигини, яъни фарзандининг туси оқроқ эканлиги, бу дунёнинг ишларини оз билганлиги, тилаклари ҳам шунга яраша кам эканлиги ҳақида куйинмоқда:

Жорилмай жетсин журагинг

Кўкам майса кўк майса, жоним болам.

Ўрилмай поя бўлдингма?

Кун кўрмай жонгина болам.

Сўнгги манзилга қадар фарзандининг юраги ёрилмасдан, яъни қўрқмасдан етиб олишини, кўклам майсасидек кўкариб, яшнамасдан, ўрилмасдан пояга айланганлигини, кун кўрмай яъни узоқ яшамасдан вафот этганлиги,

Жашгина бўп кетдингма, жоним болам.

Қуралайдай кўзинга, болам,

Ўргамчаклар ин бўлди болам.

Қаламдайин қошингга болам,

Қумурсқалар жай солди болам, жоним болам.

Озғина бўса тилавунг

Қаро жердинг тагида, жоним болам.

Юқорида айтганимиздек, юрак-бағри эзилган она боласининг ёш кетиши, унинг қуралайдай кўзларига қабрда ўргамчилар ин қўйиши, қаламсимон қошларига чумолилар жойлашишини ҳам ўйлаб дод солмоқда, тилаклари озлигидан, қаро ернинг тагига кетганлигидан фарёд чекмоқда.

Энди ўша юқорида “қырқ” аза маросимларида “гўянда”лар томонидан айтиладиган айтимларга эътибор қаратсак:

Эшик олди қумғондир,

Қумғонга қўлин жувғондир.

Бола-чақо келди деб,

Кўзин зўрға жувғондир.

Дунёдан ўтган ота ёки онани эслаб, ҳовлидаги қумғонга қўлини ювиб, дам олаётган пайтларида бошқа жойда яшайдиган фарзандлари келганларини эшитиб шоша-пиша ўрнидан туриб юз-кўзини ювганликларини;

Эшик олди чимдир
Ўлгандарни эсласам
Журак боврим кулдир.

Яқин-яқин йилларгача эшик олди яъни ҳовлилар табиий бўз чимлар билан қопланган эдилар. Чимнинг яхши бир томони яшиллиги билан бирга, чанг-тўзон кўтарилмаслиги қишлоқда яшаётган хонадон соҳибларига жуда маъқул келган. Шунинг учун эшик олди чимдир, ўлганларни эсласам, юрак бағрим ёки «бовур» яъни жигарим кулдир демоқда.

Эшик олди болқомиш,
Бошидан тушсам туви жўқ.
Ўлгандарни эсласам,
Бувинимни бари бўш.

Зоминликларда ҳовлига экилган ҳар хил сабзавотлар, экин-текинларни умумлаштирган ҳолда «болқомиш» яъни шакар қамиш маъносида қўллайди. Тасвирда эшик олдининг «болқомиш»ларнинг яъни экинларнинг узунлигидан унинг туби кўринмаслиги, йўқотганларини эсласа, «бувиним» яъни бўғинларимнинг бари бўшашиб кетади дейилмоқда.

Эшик олди ойдин кўл,
Ойна сосам ботмайди.
Ўлгандарни эсласам,
Жегандарим тотмайди.

Эшик олдини тинч-сокин ойдин кўлга ўхшатилиши, агар тажрибада кўрган бўлсангиз, ойна ёки кўзгу ҳажми каттароқ сувга ётқизилиб солинса ботмайди, шу маънода ўтганларни эслаганида еганлари ҳам татимаслиги ҳақида куйламоқда. Ундан ташқари «вой-вой»лаб йиғлаш республикамизнинг барча ҳудудларида бўлгани каби зоминликларда ҳам учрайди:

Вой, бу ўлим қандай ўлим,
Вой, барчага бирдай ўлим.
Вой, катта-киччилар ўтиб,
Вой, олам андуҳга тушганим.

Ўлим ёш танламаслиги, барчага бирдай келиши барчамизга аён ҳодисадир. Барча катта-кичик йўқотишлар инсон қалбини жуда катта андуҳга тўлдириб, руҳан толдиради.

Хулоса қилиб айтганда, Зоминликлар ҳаёти, маиший ижтимоий турмушида кенг тарқалган воқеа-ҳодисалар оғзаки ижод тури – халқ қўшиқларида ўз аксини топган. Бу қўшиқлар бир-бирини такрорламаган ҳолда, ранг-баранг бўлиб, уларнинг кўпчилик қисмини лирик қўшиқлар эгаллайди.

Аза билан боғлиқ маросим қўшиқларида образларнинг табиийлиги, инсоннинг табиати ва кишиларнинг бир-бирига инсоний муносабатлари баёнидаги самимият, айрим ўринларда ҳаёти давомида ёмонликлар қилган бўлса сир сақлаш усули билан ажралиб туради. Поэтик образларда масалан, ота-она, ака-ука, опа-сингил, қиз ва ўғил фарзанд каби қишлоқ одамларининг бошидан ўтказган тириклигида воқеликнинг ибратли жиҳатларини куюнчаклик билан қизиқарли услубда тасвирлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М. Қошғарий. “Девону луғотит турк” I том Тошкент 1960 йил.
2. Тўйчибоев Б. Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Т.: Akademnashr? 2012. – 400 б.
3. Тўраева Д.Н. Бадиий ғоя, ижодий тасаввур ва эстетик талқин масаласи: Филол. фанлари бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 150 б.

ABDULLA QODIRIY VA FOLKLOR

ABDULLA KADIRI AND FOLKLORE

Mirzayeva Salimakhon Rayimjanovna
Andijan State University,
Doctor of Philology, Professor

Annotatsiya*. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriy ijodi xalq og‘zaki ijodi namunalari, asarlarining xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq jihatlari, adabiy asarlarida xalq og‘zaki ijodi an’analaridan ijodiy va mazmunli foydalanishdan oziqlanadi.*
Tayanch so‘zlar*: Abdulla Qodiriy, xalq og‘zaki ijodi, “Mehrobdan chayon”, “O‘tkan kunlar”, latifa, hajviy, yumor.*

Abstract*. In this article, Abdulla Kadiri's creativity is nourished by examples of folklore, the aspects of his works related to folklore, and the creative and significant use of folklore traditions in his literary works.*
Key words*: Abdulla Kadiri, folklore, "Mekhrabdan chayan", "Utkan Kunlar", anecdote, comedy, humor.*

Introduction: In the 20s of the twentieth century, major changes took place in Uzbek realistic literature. These are manifested, firstly, in the strengthening of the nationalism of the work through the approach of traditional lyrics to real life and the creative use of folk songs, secondly, in the emergence of realistic dramaturgy based on pure life conflict, and thirdly, in the formation of a unique school of Uzbek novels in the order of world novels. it has been. Abdulla Kadiri (Julkunbay) was one of the great writers who participated in such a huge literary development, not only participated but also ensured its occurrence.

While writing comic stories while working for “Mushtum” magazine in the early 1920s, he deeply studied the art of Efendi anecdotes, humor and clowning as his main school of art, subtle puns from the art of “anecdote”, used praise and exaggeration creatively. To generalize, A. Kadiri learned the decent points of the art of comedy, on the one hand, from folklore, and, on the other hand, from the works of classic comedians such as N.V. Gogol, A.P. Chekhov, M.E. Saltykov Shchedrin, Sabir Takhirzada in the literature of Russian and other nations. we will not be wrong if we say that he learned.

The writer, who improved his skills in writing realistic stories and feuilletons, realized that the role and importance of character laughter in creating comic laughter is extremely great. "Tinch ish", "Kalwak Makhzumning xatira daftaridan", "Tashpulat tajang nima deydi?" folk ways of humor were successfully expressed in his works. In them, as the writer rightly noted, "you need to take the person from his life, his character, and make him laugh. That is, do not pretend that you made this funny, but he himself let it be made. Let him present himself. So that your opponent, who is left in laughter, will not be forced to laugh with you without conflict." One point in this extract strongly attracts one's attention. Even so, the basis of comic laughter consists of folklore traditions, such as the birth of a real person in real reality. If you pay attention, it is very believable

that people like Kalwak Makhzum, who consider themselves great, cannot come to terms with the changes taking place in real life. By preaching the Sharia, he propagated lies about the world, scared the idle people, and resisted working and living in a new way, which was the leading characteristic of the Kalwak Makhzum type.

Writer adheres to the traditions of folklore in creating humor and attaches great importance to the discrepancy between the character's appearance and spiritual world. Therefore, A. Kadiri tried to naturally express the mental experiences of the comic character.

All comic types created by the writer do not have the same appearance and character as in folklore. Each of them is unique in the writer's pen. For example, Kalwak Makhzum is more active than Imam Sharif. This was done not by the will of the writer, but by the pressure of vital material. Academician I. Sultan was right when he wrote the following about A. Kadiri's skill in creating comic types: "Abdullah Kadiri solves the creative issues before him as a satirist in the spirit of nationalism and using the people's artistic heritage. The positive ideal of the writer reflects the experiences of negative people. The "priyom" of confirmation by description is actually taken from the people and is a development of the "sarcasm" way, which is widely used in Uzbek folklore. When Abdulla Kadiri himself spoke about the nature and methods of humorism, he always emphasized that "in our nation, using expressions like humorism, his comic creativity is directly related to folklore."[1]

According to Kalwak Makhzum, the time is coming to an end, everyone is abandoning their religion and entering the corrupt path, and he remains alone as a firm step on the path of religion and sharia. This inappropriate temptation is the main source of false laughter in the character of Kalwak Makhzum.

As we get to know the character of Kalwak Makhzum, the comic types in oral drama come alive before our eyes. He talks everywhere, talks with his colleagues, and cannot hide his inner hatred when talking to others.

The writer emphasizes the dry silence characteristic of his speech and the exaggeration typical of the lively folk language. This arrogant old man smiles forcefully even if he is an emotional wreck, insults young men with long hair, and makes the reader feel that he hates women who wear “paranji”. In this way, the writer achieves the balance between the external and internal image of Kalwak Makhzum.

The writer consistently adheres to the method of depicting all the ugly aspects of the negative type by gradually strengthening them, characteristic of folk art. For example, the wives who come to see the groom are not shown Makhzum, but his neighbor Mullah Subhanqul. The motif of showing another person instead of the ugly groom is a method typical of folk tales, and A. Kadiri uses this method in order to strengthen the comic spirit and achieves success.

A. Kadiri's skill in creating a realistic prose comic is evident in the fact that he managed to illuminate the essence of people like Makhzum through their appearance, spiritual world, and highly individualized speech. The proportionality of the image in the internal and external images of negative types is a stable artistic tradition typical of folklore, and A. Kadiri managed to put this tradition on the foundation of realistic comic prose, which is just expanding.

The relationship of A. Kadiri's realism to folklore traditions is one of the issues that need to be seriously researched in our literary studies. True, there are valuable observations of folklorist O. Sabirov in this direction. He tries to introduce the issues of love and will in literary works from folklore traditions, in particular, in connection with issues such as the love of immortal characters such as Takhir and Zukhra, Farkhad and Shirin in folk art.

The writer was inspired by the general spirit of folklore works, and in the behavior of the characters he created, in describing their activities, the writer was nourished by family and household environment, traditions and rituals of the people. Of course, A. Kadiri's attitude to folklore traditions is not direct, but indirect. Even then, the writer turned to the traditions of folk art to convincingly reflect the realistic image of the characters he created, to develop and solve the conflict of the novels on the basis of life. More precisely, A. Kadiri's use of folklore traditions was realized on the basis of synthesis.

If you look carefully at the works of the writer, you can see that they have incorporated scenes from the people's life, especially comic characters typical of folklore, into their works. The art of entertainers and clowns in his novel "Utkan kunlar" is a vivid example of how real-life folk art is skillfully incorporated into the novel.

A. Kadiri's novel "Utkan kunlar" shows a tendency towards domestic and psychological imagery. Therefore, folklore traditions in his novel are also used from this point of view. In the novel "Mehrabdan chayan", the author gives more importance to the principles of socio-political image. Therefore, in this novel, the creator subjugates folklore traditions to this direction. Despite the fact that Anvar came from a poor background, he rose to the position of chief mirza in the Khan's palace with his knowledge and manners. However, with his patriotism, honesty and humanity, he could not stay in the palace environment forever.

In his novels, A. Kadiri approaches folklore traditions according to the situation and imagery, selects and uses them. In this regard, A. Kadiri founded the school of creating folk images in Uzbek literature using folklore traditions creatively. The image of “Safar Buzchi” in his only novel "Mehrabdan Chayan" is similar to the image of Efendi, who is brave, honest and always ready to serve for the truth. He tries hard to show that Anwar is a sincere, ambitious and honest person. There is a chaplaincy in the nature of a traveler. His peculiarity is that, even though he knows a lot, he pretends not to know, but when the time comes, he cuts off dishonest officials and reasonable priests with humor. “Safar buzchi” is a simple, honest craftsman, honest person, faithful person. He spares nothing and no one for the sake of truth. In the novel, this image gives the taste of evil scholars like Abdurrakhman. Therefore, it plays an important ideological and artistic role in the work.

When Anwar was appointed to the post of chief mufti, Safar argued with Mulla Abdurrakhman about his suitability for this position. Abdurrakhman, teacher, Samad, Shukur, Sufis used to talk about Anwar's unworthiness before prayer in the mosque hall. At this moment, Safar buzchi enters the bridle room and, not knowing the direction of the conversation, says: "I hope this guy will be a mirzaboshi... he is a very smart guy, it is better to be a civic-minded boy, ah, "labbai, taksir? ".

This is how the argument begins in the middle. Safar buzchi (who weaves one particular type of fabric) leaves to approve Anvar in every way. Abdurakhman (Imam), who swallows his pain, falls in between trying to keep Safar Buzchi speechless " – ... but our argument is not about his good deeds to the widower, whether this man can become the head of the mirzas, that is, whether he will succeed in a great cause, is above him.

– "Blessed, taksir," Safar said, "If he stays with me, hopefully he'll get over it!"

Imam Safar, unable to understand, stared for a while and asked:

– How do you know that he will succeed? God willing, I know, taksir! So? After all, it is better if the prayers of many people are many, – said the imam.

– but is his knowledge enough for this service?

– Enough, taksir, enough! After all, how do you know enough? After all... how do you know that it is not enough, taksir? I know that it is not enough, – said the imam, swallowing his bitterness, – a person who has reached such a position must have studied in Khoqand madrasas, even if he did not study in Bukhara Sharif, but your mirzabash he knows nothing except literacy.

– How do you know that he knows, taksir?

– Because I taught him myself... he was an orphan. It's God's grace, – Safar said without thinking, – how many years did you study in Bukhara Sharif, and finally you became the imam of the neighborhood... If God doesn't give it, taksir. He wants to become a mirza of mirzas without attending a madrasa; God willing, taksir!

The imam's seething with anger again, and his eyes became pale.

You are a stupid person! said. You are also a stupid mullah! – said Safar Buzchi.

The imam got up in anger and attacked Safar, but suddenly Samad buqaq stopped him.

– Damn you, impolite! – said Samad, – How can you dare to tell such rude things?..

"With this indecency," said Samad, " do you pray behind domla again, Safar!

– Do I get rid of you if I am not responsible!

– If you don't pray, Go away!!!

He... – Safar cursed the bully and left the room. The imam said to him, " damn you, cruel" and went back to his previous place. They just sat all three of them without saying a word. It's one thing, it's your fault, don't be sad!"[2]

From the debate between the imam and his companions and Safar Buzchi, it is clear that Safar Buzchi is firm in his beliefs and will not back down from anything for the truth he believes in.

Safar Buzchi is similar to the character of Efendi, who puts himself in the spotlight and tells everything openly. For him, truth is a word of honor. That's why you studied at that imam in Bukhara Sharif and became the imam of the neighborhood. Anvar says that he will become a “sarmunshi” (a type of position) without attending a madrasa. In order to prove the correctness of his point of view, he even refuses to pray standing behind this person in the mosque.

A. Kadiri creatively uses subtle aspects of folk humor in his works and uses new opportunities to create a positive character. In general, Safar is the real life appearance of Nasriddin Efendi, who represents the ideal of the ordinary people. That is, it is correct to say that the writer created a new syntactic image by generalizing the traditional image and the purely individual image.

A. Kadiri addresses to folk oral drama, especially to the art of curiosity, in order to fully reflect reality in his novels. In the novel "Utkan kunlar" he describes the character of Kavak devana so skillfully that he gives the work a strong comic effect: " Kavak devana is middle-aged, with a sparse beard, a thick coat, and an old hat on his head, as if against the heat of the day in addition to that, the other one was wearing a worn-out flowered robe and tied a new gray belt in five or six turns, and on it hung five or six chilims (a particular type of measurement), from water gourds, and different gourds, barely moving due to the weight of the gourds was a famous poet of his time". (p. 152).[3]

Devana Kavak, who seemed like a pastime to others, was actually not stupid, but very intelligent, and his words had a deep meaning. He makes fun of senior officials with the example of their pumpkins, laughs at himself and others. On the surface, the banter between the tea-drinkers and the Devana Kavak looks like idle fun. But the essence is hidden in these sayings about the people's attitude towards the leaders of the country.

Laughter is a means of humor for a Devana: "Devana Kavak showed one crooked gourds on his waist and said, "this one is Musulman cholak!", the little spectacle next to him pushed the gourd and said, "that one is Xudoy bachcha", he said caressingly, "Nor kalla" (Normuhammad qushbegi). He called the other two smooth gourds "squeamish, thin throat".[4]

Even though there is no khan in the Dewana language, there is a hidden hint of Muslimkul, who has a higher political power than the khan, and his ignorance, and the khan is a toy in his hands. And Nor Kalla was one of the arbitrary, ignorant and oppressive officials like Azizbek, and it was not for nothing that they were mentioned by the madman. The writer is able to directly express the violence-based politics of the mad clay, the seriousness of the working people's situation, and at the same time to make the reader laugh.

A. Kadiri was able to create invaluable works by properly using folklore traditions, especially oral drama, folk anecdotes, and the rich possibilities of figurative language. The important thing is that A. Kadiri was forever preserved in the history of our culture as a great artist due to the fact that he fully mastered folklore traditions and synthesized them with his artistic thinking.

It was found that there are three leading methods in the use of the people's comic art, its methods and tools in the creation of realistic comic by A. Kadiri. These are:

1. The principle of harmonious depiction of external appearance and behavior in accordance with the inner world of comic types characteristic of folklore. The principle of such an image is typical for folk epics and fairy tales, and the realistic Uzbek prose, which is just being formed, made appropriate use of this tradition of folklore.

2. The method of synthesizing the traditions of creating folklore-specific humor into the composition of one's work.

3. The method of using simple folklorisms in order to confirm the logic of the characters, their spiritual world and behavior.

So, A. Kadiri, as a great word artist, used the folklore and its immortal traditions appropriately and productively.

References:

1. Abdullah Kadiri, Kichik asarlar. Tashkent, 1969, p. 187

2. Abdullah Kadiri. Utkan kunlar. Mehrabdan Chayan. –T: Literary and art publishing house named after G. Ghulam. 1994, pp. 438-439 (Further examples are taken from this source -S. M).

3. Abdullah Kadiri. Utkan kunlar. Mehrabdan Chayan. –T: Literary and art publishing house named after G. Ghulam. 1994.

4. Abdullah Kadiri. Utkan kunlar. Mehrabdan Chayan. –T: Literary and art publishing house named after G. Ghulam. 1994.

BİLMECELERİN CAZİBESİ
(Özbek ve Türk bilmeceleri örneğinde)

THE ATTRACTION OF RIDDLES
(On the example of Uzbek and Turk riddles)

Tilavov Abdumurod Xolmuratovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Hojiyeva Oynisa Şabonovna
Alişir Nevâî Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi Doktora öğrencisi
niso-nur@mail.ru

Özet: *Bu makale bilmecelerin doğuşunu, türün özelliklerini incelemektedir. Makalede öncelikle Türk halklarında yaygın olan bilmecenin terimleri ve onların anlamı analiz edelmiştir. Sonra Dr. Feridun Tekin'in "Özbek bilmeceleri" adlı kitabında yer alan Özbek bilmecelerinin Türkiye Türkçesine tercümesi incelenmiştir. Bilmeceler cevirisindeki avanataj ve devantajlar örneklerle anlatılmıştır.*

Özbek ve Türk folklorundaki bilmece türleri karşılaştırılarak ortak ve farklı yönleri tespit edilmiştir. Tamamen aynı olan bilmeceler, artikülasyonla ilgili bilmeceler, harflar hakkındaki bilmeceler inecelenmektedir. Analiz, her iki ulusun bilmecelerinden örneklerle destekleniyor. Makalede birbirine uygun olan bilmeceler, şekli biraz farklı ama anlamı benzer olan bilmeceler, soru şeklindeki bilmeceler ve şaşırtmacalar, matemik bilmeceler, resimli bilmeceler hakkında da bilgi vereliyor ve her biri örneklerle destekleniyor. Ayrıca makalede Türkiye coğrafyasıyla iligili soru-bilmeceler de analiz edilmektedir. Analizlerin sonuçları makalenin sonunda verilmiştir.

Anahtar kelimeler: *Feridun Tekin, topishmoq, bilmece, folklor, Türk halkları, mit, şaşırtmaca.*

Abstract: *This article examines the birth of riddles and the characteristics of the genre. In the article, firstly, the terms of the riddle, which is common among Turkish people, and their meanings are analyzed. Then the translation of Uzbek riddles into Turkey Turkish in Feridun Tekin's book "Uzbek riddles" was examined. The advantages and disadvantages of translating riddles are explained with examples.*

By comparing the riddle types in Uzbek and Turkish folklore, their common and different aspects were determined. Riddles that are exactly the same, riddles about articulation, and riddles about letters and others are examined. The analysis is supported by examples from the riddles of both nations. The article also provides information about riddles that are compatible with each other, riddles that are slightly different in form but similar in meaning, riddles in the form of questions and diversions, and each of them is supported by examples. In addition, questions and riddles related to the geography of Turkey are also analyzed in the article. The results of the analyzes are given at the end of the article.

Key words: *Feridun Tekin, topishmoq, riddle, folklore, Turkish nations, myth, diversion.*

Giriş

İnsan doğası her zaman bilmeceleri ve sırları öğrenmeye, gizli bilginin derinliklerine inmeye istekli olmuştur. Özünde sır saklayan her şey insanı cezbeder, dikkatini çeker. Bu sırrın derinliklerine inene kadar huzurunu kaybeder. Ve merak ederek bir bulmacanın çözümünü bulmanın verdiği haz başka hiçbir şeyle karşılaştırılamaz. Belki bilmecelerin doğuş sebeplerinden biri de insanlığın bu gizeme olan arzusunun sonucudur...

Bilmeceler dünyanın her ülkesinde bulunan uluslararası bir türdür. Onların her milletin edebiyatında yeri vardır ve halkın büyük dehasını yansıtır. Bilmecelar, çok küçük yaştaki çocuklardan yaşlılara dek birbirlerini sınadıkları çok yaygın bir eğlence türüdür. Onlar milletin her temsilcisi tarafından eşit derecede seviliyor.

Özbek folklorunda az çalışılan türlerden biri olan bilmeceler, hâlâ karşılaştırmalı analiz ve araştırmaya ihtiyaç duymaktadır. Türk halkları arasındaki karşılıklı ilişkilerin yeni bir aşamaya girdiği ve güçlendiği günümüzde, folklor da dahil olmak üzere edebi konuların karşılaştırmalı incelenmesi büyük önem taşımaktadır. İki halkın ortak mirasına ait bilmecelerin kardeş halkların folkloru çerçevesinde analiz etmek günümüzün en önemli meselelerinden biri haline geliyor. Makalemiz bu güncel konulardan biri olan Özbek ve Türk bilmecelerinin tipolojisini netleştirmeye hizmet ediyor. Özbek Türkçesinden Türkiye Türkçesine cevirilen bilmecelerin başarıları ve hatalarını gösterir.

Bilmece terimleri

21 yüzyılda bile dünya çapında geçerliliğini kaybetmeyen bu harika folklor türünün tarihi, insanlık düşünce tarihi kadar eskidir. Folklorun çoğu türüyle birlikte bilmecelerin ortaya çıkışının temeli atalarımızın yaşam tarzıyla ilgili gerçek yaşam hakikatıyla birlikte, eski mitolojik hayaller, kelime sihri ve bunlarla ilgili inançlardan da etkilenmiştir. Ayrıca bilmecelerin oluşmasında tabular ve ritüeller de önemli bir rol oynamıştır. Bilmecelerin genetik kökleri, birçok folklorcu tarafından kabul edilen eski ritüeller ve büyülü görüşlerle ilgilidir. Rus bilim adamı M. Sokolov, bilmeceyi efsanevi bir vizyonu ifade etmenin bir yolu olarak tanımlıyor: "Eski zamanlarda bilmeceler belirli inançları aktarma işlevini yerine getiriyordu ve bilmeceleri anlatmak, dini görüşlerin sırlarını açıklamanın veya efsanevi vizyonları ifade etmenin bir yoluydu" [Sokolov 1938, 217].

Tatar halk bilim adamı M. Bakirov da bilmece kelimesinin kökenini "tabu" terimiyle ilişkilendiriyor: ***"Само слово «загадка» – «табышмак» образовано от корня «табу» – найти, отгадать*** *(Bilmece" - "tabışmak" kelimesi "tabu" kökünden türetilmiştir, kelimenin anlamı – "bul", "tahmin et")"* [Bakirov 2018, 111].

A. N. Pipin, günümüzde basitleşip eğlenceli hale gelen bilmecelerin, eski çağlarda insanların inançlarıyla yakından ilişkili olduğunu, bu nedenle bilmece söylemenin ve çözümünü bulmanın mitolojinin önemli bir parçası olduğunu da vurguluyor [Pıpin 1857, 137].

Türk halk edebiyatı uzmanı Profesör Şükrü Elçin, "Türk bilmeceleri" adlı kitabında, bilmecelerin büyük ile küçüklerin akılda, bilgide ve zekada üstünlüğünü sınamak için kullanıldığına değinirken, aynı zamanda ***devletin insanları arasında gizli bir iletişim yönteminin*** olduğunu da kaydediyor [Şükrü 1989,1].

Başlangıçta milletlerin inanç ve inanışlarını, ilk dünya görüşlerini, mitolojik görüşlerini, kozmogonik düşünceyi ifade eden, daha sonra karşılıklı yaratıcılık, zeka, bilgelik ve gözlem yeteneğinin testini oluşturan bilmeceler, farklı dönemlerde farklı terimlerle anılmıştır. Almanca'da ratsel, İngilizce'de riddle, Rusça'da zagadka, Fransızca'da enigma, Arapça'da luğuz, Farsça-Tacik konuşan halklarda ise çiston olarak adlandırılan bu türe, Türk halklarının eserlerinde çeşitli terimlerle rastlamak mümkündür.

Özbek bilmeceleri uzmanı Zubayda Husainova, Özbeklerde bilmeceler için "***nihoyat darajada ko'p*** (çok fazla)" [Husainova 1960, 28] terim bulunduğunu boşuna belirtmiyor. Bilim adamı bu türü temsil eden *topişmoq, topişmaçoq, topmaça, topar ço'pçak, top-top, top-top çöpçak, top-top matal, çöpçak, jumbok (jummok, jumok), matal, masala, uşuk, çiston, luğuz* gibi terimleri listeler.

Şükrü Elçin, bilmecelerin Batı Türklerinde "**bilmek**" fiilinden türeyen "**bilmece**", Kuzey ve Doğu Türklerinde ve ve Azerbaycanlılarda ise "topmoq (**bulmak)**" fiilinden türeyen "**tabzuğ**" ve "**tabmaca**" gibi kelimelerle ifade edildiğini söylüyor [Şükrü 1989,1].

Ayrıca Başkurtlar **yomak (yommak, yombak),** Tatarlar **tabişmak**, Kırgızlar **matal** terimlerini kullanırken, Kazaklar, Karakalpaklar ve Çuvaşlar her milletin dil özelliklerine göre **jumbok** (bulmaca) kelimesinin farklı biçimlerini kullanırlar.

Özbek dilinde bilmece terimi ana edebi terim olmakla birlikte, başka isimlerle de anıldığını gördük. Aynı durum Türk folklorunda da görülmektedir. Türk halk edebiyatında ana kavram **bilmece** olsa da Anadolu'nun bazı köy ve kasabalarında *masal, mesel, matal, hikaye, bulmaca, söz, dele, fıcık, gazelleme* gibi isimler de kullanılmaktadır.

Özbek ve Türk bilmeceleri tipolojisi

Bilmeceler, dünyadaki tüm halklar arasında eşit derecede popüler olan ve insanların yaşam tarzını, yaşam deneyimini ve ilgi alanlarını yansıtan bir türdür. Bilmecelerde bir nesne, kişi, olay ismiyle anılmaz, çeşitli metaforik tanımlarla, ince ipuçlarıyla, benzeri başka şeyler, olaylar veya durumlar ile anlatılır ve cevabı bulmaya teşvik edilir. Her bilmecenin temelinde cevaplanması gereken bir soru vardır. Bu nedenle bilmeceler iki ana bölüme ayrılabiliriz: bir bulmaca (soru) ve bir cevap bölümü. Bilmece cevabıyla bir bütün oluşturur.

I. Özbek halk bilmeceleri ile Türk halk bilmeceleri şekil ve içerik bakımından birbirine çok yakın olsa da **birbirini tam olarak tekrarlayan** az sayıda bilmece vardır:

1. Elsiz ayaksız kapı açar – Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.

(Rüzgar – Shamol)

2. Attan yüksek, itten alçak – Otdan baland, itdan past.

(Sele – Egar)

3. Yedi delikli tokmak, Bunu bilmeyen ahmak. – Yetti tuynukli to'qmoq, Buni bilmagan ahmoq.

(Baş - Bosh)

4. Zenginin elinde, fakirin dilinde – Boyning qo'lida, kambag'alning tilida.

(Para – Pul)

5. Akşam baktım çok idi. Sabah baktım yok idi. – Tunda boqdim ko'p edi, Tongda boqdim yo'q edi. (Yıldızlar – Yulduzlar)

6. Biz idik, biz idik,
Otuz iki kız idik,
Ezildik, büzüldük,
Bir duvara dizildik.
Biz edik, biz edik,
O'ttiz ikki qiz edik.
Ezildik, tizildik,
Bir devorga chizildik.

(Dişler – Tishlar)

Yukarıda gördüğümüz gibi her iki milletin folklorunda da çeşitli konularda aynı bilmecelere rastlanmaktadır. Bu onların ortak genetik kökenini gösterir.

Her iki milletin edebiyatında birbirine benzemeyen tekrarı olmayan bilmeceler de mevcut olup, içerik bakımından birbirini tekrarlamasa da şekil bakımından benzerlik açıkça görülmektedir.

II. Örneğin **harflerle ilgili bilmecelere** hem Özbek folklorunda hem de Türk folklorunda rastlamak mümkündür.

Özbek folklorunda:
Menda bor, senda yo'q
Osmonda bor, yerda yo'q. *(M harfı)*

Bende var, sende yok
Cennette var, yeryüzünde yok. (M harfı)

Türk folklorunda:
Bende var, sende var, âlemde yok
Cihanda var, Mısır'da yok, Şam'da yok.
(Menda bor, senda yo'q, olamda yo'q
Jahonda bor, Misrda yo'q, shomda yo'q). (N harfı)

III. Artikülasyonla ilgili bilmecelerde de benzerlikler görülmektedir.
Özbek folklorunda:
"Teg" desam, tegmaydi,
"Tegma" desam tegadi. *(Lablar)*

"Değ" desem, değmiyor,
"Değme" desem değiyor. (Dudaklar)

Türk folklorunda:
Anaya değmez, babaya değer,
Halaya değmez, amcaya değer,
Vallahi değmez, billahi değer.

Ya da:
Sana değmez, bana değer, dayıya da değmez. (Dudaklar)

IV. Bazı bilmecelerin **her satırının ayrı bir cevabı** vardır. Bu tür bilmeceler her iki halk edebiyatında de bulunabilir.
Özbek folklorunda:
Suvda Sulaymonni ko'rdim, *(Baliq)*
Tog'da talaymonni ko'rdim, *(Bo'ri)*
Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim, *(Sumalak)*
Dumalab yotgan toshni ko'rdim. *(Toshbaqa)*

Suda Süleyman'ı gördüm, (Balık)
Dağda bir hayvan izi gördüm, (Kurt)
Tuzsuz pişirilmiş bir aş gördüm, (Sumalak)
Yuvarlanan bir taş gördüm. (Kaplumbağa)

Türk folklorunda:

Suya düşer ıslanmaz, (Güneş)
At üstünde seslenmez, (Cenaze)
Minareden düşer kırılmaz. (Kâğıt)
Yere düşer paslanmaz. (Altın)

Bazı bilmecelerde **atasözleri veya deyimlerin** etkili bir şekilde kullanıldığına şahit olmak mümkündür. Yukarıdaki bilmece bizim görüşümüzün kanıtıdır. Altının paslanmazlığıyla ilgili hem Özbek hem de Türk dillerinde çeşitli atasözleri vardır (Altın pas tutmaz, Altın yere düşmekle pul olmaz – Oltin zanglamas, Oltin yerga tushgani bilan chaqa bo'lib qolmaydi).

V. Her iki halkın edebiyatında da ilginç, biraz hiciv, biraz alaycı **soru** – **bilmeceler** var. Türk folklorunda **kurnaz sorular** olarak bilinir. **Kurnaz sorular** bazen mantığa dayalıdır, bazen de beklenmedik komik bulgularla zihinleri şaşırtır. Bazen bir kelime oyunu oynayarak dinleyicinin zekasını test eder:

– Fil kadar büyük olup hiçbir ağırlığı olmayan şey nedir?
– Filin gölgesi.
Özbekçe:
– Filday katta bo'lsa ham, ammo og'irligi yo'q, nima?
– Filning soyasi.

– Kırıldığı zaman kullanılan şey nedir?
– Yumurta.
Özbekçe:
– Nima singanidan so'ng ishlatiladi?
– Tuxum.
– Nerede Cuma, Salıdan önce gelir?
– Sözlükte.
Özbekçe:
– Qayerda juma seshanbadan oldin keladi?
– Lug'atda.

Özbek halkının da buna benzer çeşitli soruları var:
Nima hamma tilda gapiradi? (Aks-sado)
Ne her dilde konuşuyor? (Eko)
Yumuq ko'z bilan nimani ko'rish mumkin? (Tushni)
Kapalı gözle neler görülebilir? (Rüya)
Kecha "ertaga", ertaga "kecha" bo'ladigan kun qaysi? (Bugun)
Dünün "yarın" ve yarının "dün" olduğu gün hangisidir? (Bugün)

VI. Göz ardı edemeyeceğimiz başka Türk bilmeceleri de var. Soru şeklindeki bu tür bilmecelerde ülkenin yer adları, büyük şehirleri, mahalle adları kısacası **coğrafyası hakkında** bilgi edinebilirsiniz [Tilavov 2019, 7]:
– İstanbul'un en yırtıcı semti hangisi?
– Kartal.
Özbekçe:
– Istanbulning eng yirtqich dahdasi qaysi?
– Kartal (Burgut).

– Türkiye'nin bir numaralı şehri hangisidir?
– Van.
Özbekçe:
– Turkiyaning birinchi nomerli shahri qaysi?

– *Van.*

Bu bulmacada, Türkiye'deki yer adlarının İngilizce kelimelerle eşsesliliği (İngilizce'de bir – one sözü "van" olarak telaffuz edilir; aynı zamanda Van, Türkiye'deki şehirlerden birinin adıdır) kullanılarak güzel bir kelime oyunu yapıldı.

VII. Folklorcu bilim adamı Shomirza Turdimov, şimdiye kadar Özbek folklorunda bilmeceler sırasından sayılan bazı örnekleri "çaldirmoq" olarak adlandırmanın yerinde olduğunu vurguluyor. Çaldirmoq, bir fikrin, şeyin, durumun, sayının yanıltıcı bir şekilde söylendiği ve rakibin bunu tespit edip söylemesinin istendiği soru cevap şeklindedir [O'zbek folklori 2021, 172]. Örneğin,

*"*Genç bir adam atının üzerinde bir kızla birlikte biniyordu. Önüne lakak (çillak)[1] oynayan bir grup çocuk çıktı. Bunun üzerine çocuklardan biri arkadaşlarına şöyle dedi: "Bakın, genç adam birinin kızını alıp kaçıyor." Bunu duyan kız oğlana cevap verdi:

– Canımın cananı,
Başımın pervanesi,
Bu adamın annesi
Annemin kayınvalidesi".

Kizin sorusundan bu adamın kızın amcası olduğu ortaya çıktı.

Benzer örneklerinin Türk bilmecelerinde de varlığına tanık oluyoruz ve bunlara Türk folklorunda "Salşırtmacı Bilmeceler" adı veriliyor. Bazı örnekler konumuza açıklık getirecektir:

"Havada uçan kazlara yerdeki topal kaz bağırarak "Ey yüz kazlar!" demiş. Cevap veren kazlardan biri "Biz yüz kaz değiliz, bizim kadar olsa, yarımız kadar olsa, bir de çeyreğimiz olsa, bir de sen topal kazla birlikte yüz olacağız."

Bu tarz çaldırmaklara Özbek folklorunda da rastlamak mümkündür.

"Bir kaz uçup geldi ve tepede oturan kazlara şöyle dedi:

"Merhaba, yüz kaz". Oturan Kazlar:

– Hayır, bizim adetimiz yüz değil, yüz olmak için daha bizim kadar olsa, yarımız kadar olsa, bir de çeyreğimiz olsa, bir de sen bize katılırsan yüz oluruz, dedi.

– Yerde kaç kaz oturuyor?

Cevap: 36 (36+36+18+9+1).


Türk halk bilimcisi İlhan Başgöz de buna Hesap Bilmecesi adını vermektedir [Başgöz 1993, 666].

VIII. Resimli bilmeceler.

Modern bilmeceler arasında resimlerle ilgili bilmeceler giderek daha popüler hale geliyor. Bu tür bilmeceler daha ilginç ve dikkat çekicidir. Basit bilmecelerden daha eğlencelidir. Genç nesil bu tip bulmacalara daha çok ilgi duyuyor. Genellikle resimli bulmacalar hem matematiksel hesaplama hem de mantıkla ilgilidir. Aşağıdaki resimli bulmacalardan bazılarına göz atalım:


Elinizde 1, 3, 5, 7, 9, 11, 13 ve 15 yazan toplar var. Bu toplardan sadece üç tanesini kullanarak 30 sayısını elde etmelisiniz. Nasıl yapabilirsiniz?

[1] Özbek halk oyunu



Cevabı: 9 olan topu cevirin ve 6 olsun. Şimdi 11+13+6=30 ile doğru cevabı bulacaksınız.

Bu pastada soru işareti olan yere hangi sayı gelecektir?



Cevabı: Dıkkatli bakarsak tum sayılar 21 oluyor. 15+?=21 yani soru işaretine “6” gelecektir.

Resimdeki t-shirt’te kaç tane delik vardır?



Cevabı: 8 tane. İki kolu, yakası, etek ve her iki tarafta 2 yırtıktan 4 tane yırtık, hepsi 8 tane.

IX. Her iki halkın folklorunda sayılarla ve hesaplamalarla ilgili bilmeceler vardır. Biz bunlara şertli olarak **matematiksel bilmeceler** adını verdik. Bu tür bilmeceler esas olarak okul çocuklarına yöneliktir; öğrencilerin zekasını arttırır, konsantrasyonunu ve mantıksal düşünmesini güçlendirmek için kullanılır.

Bu tur modern bilmeceler aynı şekilde Özbek edebiyati ve medyasında da bulunmaktadır. Matematik bilmeceleri okullardaki edebiyat dersleri ve matematik dersleri için aynı derecede faydalıdır. Bu nedenle bunların yaygın olarak kullanılması önerilir:

İki baba ve iki oğlu kahvaltıda yumurta yemektedirler, tam olarak 3 yumurta yediler, hepsinin 1 yumurtası vardı.

İki baba ve iki oğul nasıl 3 yumurtayı yemektedir?

Cevap: Babalardan biri Büyük Babadır, bu sebeple çocuğun babası hem büyük babanın oğlu iken hem de oğlunun babasıdır.

Böylece iki baba iki oğul olmaktalar.

Bu bilmecenin bir benzerine Özbek halk edebiyatında da rastlanır:

Uch odam ketmoqda: 2 ota va 2 o'g'il. Bu qanday qilib bo'lishi mumkin?

Javob: Bu bobo, ota va o'g'il edi. Bobo va ota – ikki ota, ota va o'g'il – ikki farzand sifatida.

Tercümesi:

Üç kişi gidiyor: 2 baba ve 2 oğul. Bu nasıl olabilir?

Cevap: Dede, baba ve oğuldu. Büyükbaba ve baba – iki baba, baba ve oğul – iki çocuk olarak.

Başka bir örnek:

3 ta archa o'sardi. Har birida 7 tadan shox mavjud. Har bir shoxda 3 tadan olma bor. Barcha daraxtning jami mevalari soni nechta bo'ladi?

Javob: Bitta ham emas. Archa olma meva bermaydi.

Tercümesi:

3 köknar ağacı var. Her birinin 7 dalı vardır. Her dalda 3 elma vardır. Bütün ağaçların toplam meyve sayısı kaçtır?

Cevap: Bir tane bile değil. Köknar ağaçında elme meyvesi olmaz.

Bilmeceler tercümesi

Bir milletin edebiyatının başka bir millete ulaşmasında temel aracı tercümedir. Özbek folklorunun örneklerinin de yer aldığı kitap, tercüme yoluyla diğer kardeş milletlerin okuyucularına ulaşıyor. Ne yazık ki bugüne kadar Özbek bilmecelerinin Türkçeye pek fazla tercümesi bulunmamaktadır. Feridun Tekin'in "Özbek Bilmeceleri" adlı kitabı bu konudaki ana kaynaklardan biri olmaya devam ediyor. Bu kitabın yanı sıra Muhammed Kayum Azizi ve Timur Kocaoğlu'nun "Binbir Bilmece" adlı kitabı da bulunmaktadır. Bu kitapta Afganistan Özbek lehçelerine ait 1001 bilmecenin tercümesi yer almaktadır [Kocaoğlu 2019, 1].

Kitap dört bölümden oluşuyor: metin (çeviriyazı / transkripsiyon), Türkçe ceviri, Sözlük ve Dizinler.

Afgnistan'daki Özbek ağızlarından derlenmiş bilmeceler üzerindeki bu çalışma iki bölümden oluşuyor: biri Türk Latin alfabeli, ikincisi Arap Özbek alfabeli. Özbekçe bilmecelerinin her biri uç ayrı sırada veriliyor. Özbekçe metin (transkripsiyonda), Türkçe cevirisi, aktarıcı (ravi) adı. Kitabın özelliği bilmeceler Özbekistandaki Özbek ağızlarıyla değil, Afganistandaki Özbek ağız özellikleriyle derlenmiştir. Ama derlenmiş bilmeceler Özbekistandaki Özbekler arasında da yaygın olduğunu da unutmamamız lazım. Aynen bu yüzden bu kitab bizim için de önem taşıyor. İşte kitaptaki bilmecelerden bazı örnekler:

Kündüz izzetke, kéçe xızmetke. (körpe)
Gündüz izzette, gece hizmette. (yorgan)
Saliha Habibullaqızı, Serpul şehri [Kocaoğlu 2019, 93]

Tillâ sanduq açıldı, içiden zer saçıldı. (âftâb)
Altın sandık açıldı, içinden altın saçıldı. (güneş)
Nesime Muxıqızı, Şıbırğan şehri [Kocaoğlu 2019, 130]

Bási taráğ, dummı oráğ. (xoráz)
Başı tarak, kuyruğu orak. (horoz)
Seyyiddavud Seyyidismailoğlı, Serpul şehri [Kocaoğlu 2019, 40]

Yukarıdaki örnekler Özbek folklorunda da aynı şekilde mevcuttur. Bu tür bilmeceler kitapta çoğunluktadır. O yüzden bu kitap da Özbek bilmecelerinin tercümesinde önemli yer almaktadır.

Kitaptaki bilmecelerin tercümesinde herhangi bir hatanın bulunmadığı söylenebilir. Kitap üzerinde çalışan her iki uzmanın da Özbekçe ve Türkçeyi çok iyi bildiği çeviriye yansımış diye biliriz.

Bilmecelerin çevirisindeki başarılar

Özbek folklorunda bilmeceler üzerine geniş çaplı araştırmalar yapan ilk isimlerden biri olan bilim adamı Zubayda Husainova'nın "Özbek Bilmeceleri" [Husainova 1966, 3] adlı kitabındaki bilmecelerin çoğu Türkçeye çevrilmiştir. İşte böyle bir çeviri Dr. Feridun Tekin'in "Özbek Bilmeceleri" adlı kitabında 952 bilmecenin çevirisi yer alıyor. Çevirmen, kitabın önsözünde bunu şöyle vurguluyor:

"Çalışmamızda yer alan 952 bilmecenin büyük bir kısmını "Özbek topişmoqlari", "Öqituvçi" Naşriyati, Taşkent, 1991.", "HÜSAİNOVA Z., Özbek Topişmoklari, Taşkent, 1966." adlı eserlerden seçilmiş olanlar oluşturmaktadır" [Tekin 2008, Önsöz].

Feridun Tekin'in bu kitabı 4 bölümden oluşmakta, kitabın ilk iki bölümünde bilmecelerin özellikleri folklorik ve dilsel açıdan incelenmektedir. Kitabının "Metin (Transkripsiyon ve Türkiye Türkçesine Aktarma)" başlıklı üçüncü bölümünde 952 Özbekçe bilmecenin orijinal transkripsiyonu ve Türkçe çevirisi sunuluyor. Araştırmacı 18 konu üzerinde Özbek bilmecelerini sunuyor.

Bazı Özbekçe terim ve kavramların gerekli yerlerde açıklanması dikkat çekicidir.

Örneğin,

Tepämdä kök dästurxån,
Dästurxåndä şirmåy nån.
Şirmåy nån bir dånädir,

Sindirilmäs heç qaçån.
(Åsmån, åy)
Tepemde mavi örtü,
Sofrada şirmay nan.
Şirmay nan bir tanedir,
Sindirilmez hiçbir zaman.
(Gökyüzü, ay)

Araştırmacı "shirmoy non" sözcüğünü Türkiye Türkçesine aktarmadan aynen veriyor. Anlamını netleştirmek için şu açıklamayı yapıyor: ***"Yüksek kaliteli una nohut ununda karıştırıp, süt ve yağ ilave edilerek hazırlanan ekmek"*** [Tekin 2008, 35]**.**

Başka bir örnek:
Çängaråqdä qoş çiråq,
U ne boldi, bålqantöz?..
(Çängaråqdä qoş çiråq –
Köz degäni emäsmi?)

Bu Özbek bilmecesinin başındaki "chang'araq" ("çengarak") kelimesinin şu önemli açıklaması vardır: ***"Otağ ya da evin kümbetinin dairevi tepe kısmı"*** [Tekin 2008, 59]**.**

Feridun Tekin'in bilmecelerin tercümesinde ciddi bir şekilde kafiye ve ahengi korumaya çalıştığı açıktır. Hatta bazı yerlerde Özbek bilmecelerinin Türkçe tercümesi orijinalinden daha güzel bir ritmik ahenk kazanıyor:

Tinmäs bittä,
Tiñlär miñtä.
(Radio)
Susmaz biri,
Dinler bini.
(Radyo)

Çeviride bilmecenin hem kafiyesi hem de şiir ölçüsü korunmuştur (her iki bilmecede de dizeler 4 heceden oluşur). Üstüne üstlük "i" sesi yardımıyla aliterasyon yüzeye çıkarılmaktadır. Bu bulmacanın çekiciliğini arttırıyor.

Bazı bilmecelerdeki mecaz kelimeler Türkçe tercümede daha anlaşılır olması açısından kendi anlamlarıyla verilmiştir:

Buxårådän kelgan minår,
Kelib, kelib on qolgä qonär. (Xınä)

Buhara'dan gelen minare,
Gelip, gelip on parmağa konar. (Kına)

Özbek dilinde sözdizimi türünde bir anlam aktarımı görmekteyiz. Buluntudaki on el (tam), on parmağı (yani parçayı) temsil eder. Çevirmen, bilmecenin (parmak üzerindeki) anlamının anlaşılmasını kolaylaştırmak için yan anlam sözcüğünün anlamsal anlamını kullanmıştır. Önemli olan içeriğin zarar görmemiş, aksine daha popüler hale gelmiştir.

Çeviri hataları

Feridun Tekin'in bilmecelerin tercümesine özel önem verdiği, mümkün olduğu kadar Özbek halkının milliyetini yansıtan kelimeleri Türkçeye cevirmeden, anlamlarını yorumlarla açıkladığı görülmektedir. Ancak yine de bilmecelerin çevirisi kusursuz değildir.

1. Transkirsiyonla ilgili hatalar

Bazı yerlerde kelimelerin transkripsiyon ve yazımıyla ilgili hatalar görülüyor. Bunlar ilk bakışta küçük ve önemsiz hatalar gibi görünse de, bu ince hatalar çeviri sürecinde içeriğe ciddi zararlar verebilir. Bunu aşağıdaki örnekle görebiliriz:

Qårå båtir åtdän tüşdi,
Äskärläri öräb ålişdi.
(Qåzån, tåvuq, kåsä)

Kara bahadır attan düştü
Askerleri kuşatıp aldı.
(Kazan, tavuk, kase) [Tekin 2008, 113]

"tovoq" kelimesinin transkripsiyonunda "o" harfini temsil eden å yerine u kullanılmaktadır. Sonuç olarak "tavuq" kelimesi "tavuk" olarak okunmuş ve çeviride yanlışlıkla "tavuk" olarak verilmiştir. Aslında bu kelimeyi "tabak" olarak tercüme etmek lazım.

Veya aşağıdaki bilmecenin çevirisinde de, transkripsiyondaki küçük bir hata nedeniyle ciddi anlam değişiklikleri meydana geldi:

Yaşäb yetmiş yetti kün,
Kiyär yetmiş yetti tün,
Küzdä üzib ålınar,
Åvqatlärgä sålinär.
(Käräm)
Yaşayıp yetmiş yedi gün,
Giyer yetmiş yedi gece,
Güzün üzüp alınır,
Yemeklere koyulur.
(Lahana) [Tekin 2008, 113]

Bu bilmecedeki Özbekçe "to'n" kelimesi transkripsiyonda "tön" şeklinde değil "tün" şeklinde verilmiştir. Bu kelime Türkçeye "gece" olarak çevrilmiştir. Sonuç olarak bilmecenin anlamı tamamen değişti. Çünkü bu bilmecedeki Özbekçe "to'n" kelimesinin anlamı "kaftan"dır. Bilmece de "kat kat kaftan giymek" metaforu üzerine kurulu. Halk arasında lahana hakkında "Kısacık boyu var, yedi kat kaftanı var" gibi bilmecelerin bulunmasının da nedeni budur. Küçük bir dikkatsizlik nedeniyle bilmecenin ana anlamı kaybolmuştur.

2. Kelimelerin çevirisiyle ilgili hatalar

Yukarıdaki örneklerde hatanın transkripsiyondaki küçük bir yanlışlıktan kaynaklandığını görüyoruz. Ancak kitapta kelimelerin doğrudan tercümesinde de yapılan ciddi hatalar var. İşte bazı örnekler:

İzläsäñ izi yoq, Soysañ qåni yoq. (Qayıq)
İzlesen izi yok, Soysan kanı yok. (Kayık) [Tekin 2008, 135]

Bu bilmecenin çevirisinde aynı anda iki kelimenin yanlış çevrildiğini görüyoruz. Özbek bulmacasındaki "so'ymoq" kelimesi Türkiye Türkçesindeki "soymak" fiiliyle verilmektedir. Fakat Türkçe "soymak" kelimesinin anlamı Özbek "so'ymoq" kelimesi ile aynı değildir. Sözlükte "soymak" sözünün anlamları şöyle açıklanmıştır:

1. *-i* Bir şeyin üzerinden kabuk, deri, zar vb.ni çıkarmak:
"*Takkesini geçirmiş, entarisini kuşanmış, elma soyuyordu."* - Aka Gündüz
2. *-i* Birinin giysilerini çıkarmak:
"*Yaralıyı soyuyor ve ilk tedaviye başlıyorum."* - Reşat Nuri Güntekin
3. *-i* Birinin üstünde, yanında veya bir yerde bulunan şeyleri çalarak alıp götürmek; dızlamak. [https://sozluk.gov.tr/]

"soymak" fiili yerine "kesmek" fiili kullanması daha doğruydu. "kesmek" kelimesinin anlamı Özbekçe "so'ymoq"la uygundu.

Bilmecedeki yanlış cevirilen ikinci söz "izlemek"tir. Özbekçe "izlemek" sözü Türkiye Türkçesinde "aramak" kelimesiyle eşit anlam taşır. Ama kitapta bu söz "izlemek" diye yanlış tercüme edilmiştir.

Qårä biyäm qalt etdi,
Qåbirğasi yalt etdi.
(Qılıç)
Kara devem kalt etti,
Kaburgası yalt etti.
(Kılıç) [Tekin 2008, 136]

Bu bilmecede "biya" kelimesinin yanlış çevrildiğini görüyoruz. Biya'nın “dişi at” anlamına geldiği bilinmektedir. Ancak tercüman bu kelimeyi "deve" olarak tercüme edilmiştir. Sonuç olarak bilmecenin metninde "kara deve" şeklinde tuhaf bir cümle ortaya çıkmış.

Kitapta buna benzer çok sayıda karışıklık gördük ve gelecek baskıların hataları düzeltip daha mükemmel çeviriler sunalacağını umuyoruz. Bu nedenle hepsini tek tek sıralamaya gerek duymadık.

Sonuç

Yukarıdaki tetkiklerden de anlaşılacağı üzere Özbek ve Türk halk bilmeceleri her bakımdan birbirine benzer ve birbirini tamamlar. Genel olarak Türk halklarının bilmeceleri arasında buyuk sınır inşa etmek doğru değildir. Bunların ortak özellikleri dikkate alınarak çalışılması ve analiz edilmesi uygundur.

Bu tür araştırmaların sonucunda bizim için önemli olan şu sonuçları öğrenebiliriz:

1. Özbek halkının bilmeceleri Türk kardeşlerimize, Türk halk bilmeceleri ise bilge ülkemize yabancı değildir. Her iki halk bilmecesi de bir veya başka bir dile çevrilebilir, edebiyatta ve ders kitaplarında kullanılabilir. Bu, her iki ulusun edebi hazinesini zenginleştirmeye hizmet ediyor.

2. Bilmeceleri anlamak, sindirmek ve cevap bulmak her iki ulusun temsilcileri için de zor değil. Tam tersine birbirlerini tamamlıyor ve zenginleştiriyorlar.

3. Bazı bilmecelerdeki yer adları kardeş Türk halkının kültürü, tarihi ve coğrafyasına ilişkin algımızı zenginleştirir ve Türkiye topraklarını derinlemesine incelememize yardımcı olur.

4. Bu güzel folklor türü, kardeş halkların birbirine yakınlaşmasına yardımcı olur. Yüzyıllardır onları birbirine bağlayan ortak edebi miras, ortak kültürlerini temsil etmekte ve ortak Türk değerlerinin unutulmamasına neden olmaktadır.

Kaynakça:

1. Başgöz İlhan. Türk bilmeceleri. Kültür Bakanlığı, Ankara, 1993. s. 666.
2. Bakirov M. X. Tatarskiy folklor. M.: 1938. s. 217.
3. Husainova Z. Topishmoq terminlari. O’zbek tili va adabiyoti masalalari. 1960. 3-son. s. 28.
4. Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari. Toshkent: “Fan”, 1966.
5. Kocasoğlu Timur, Azizi Muhammed Kayum. Birbir Bilmece: Afgaistan Özbek Ağızlarından. İstanbul: Uluslararası Türk Akademi Yayınları. 2019.
6. O‘zbek folklori. darslik / T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo‘rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov, Sh. Naraliyeva. – Almatı: SSK, 2021. B. 172.
7. Pipin A. N. Ocherki literaturnoy istorii starinnıx povestey i skazok russkix. SPb., 1857, S. 137.
8. Sokolov Yu. M. Russkiy folklor. M., 1938. s. 217.
9. Şükrü Elçin. Türk bilmeceleri. Kültür bakanlığı yayınları. Ankara, 1989.
10. Tilavov A. Bilmeceler Topishmoqlar Topishmoqlar Zagadki. «Sano-standart». Toshkent, 2019. s. 7.
11. Tekin Feridun. Özbek Bilmeceleri, Uşak. Elik Yayınları, 2008.
12. https://sozluk.gov.tr/

FOLKLOR VA BUGUNGI BOLALAR SHE’RIYATI

FOLKLORE AND TODAY'S CHILDREN'S POETRY

Gulnoza Voxidjonovna Abdullayeva
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada folklorning bolalar adabiyotiga ta’siri, an’ana va o‘ziga xoslik masalasi va bolalar she’riyatida lof janrining yuzaga kelishi tadqiq qilingan. G‘afur G‘ulom, Tursunboy Adashboyev va Hamza Imonberdiyevlarning lof janriga oid she’rlari tahlil qilingan, badiiy-estetik funksiyasi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Folklor, adabiy ta’sir, an’ana, o‘ziga xoslik, G‘afur G‘ulom, Tursunboy Adashboyev va Hamza Imonberdiyev.*

Abstract. *The article examines the impact of folklore on children's literature, the issue of tradition and identity, and the emergence of the lof genre in children's poetry. The poems of Gafur Gulam, Tursunboy Adashboyev and Hamza Imonberdiyev related to the lof genre are analyzed and their artistic and aesthetic function is explained.*

Keywords: *Folklore, literary influence, tradition, originality, Gafur Gulam, Tursunboy Adashboyev and Hamza Imonberdiyev.*

Bolalar adabiyotining asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashdir. Binobarin, ilm-ma’rifat bola tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Uning asosiy xususiyati faqat adabiy-estetik emas balki, ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turadi. Bu o‘rinda bolalar she’riyatining o‘rni beqiyos. Q.Qahramonov bugungi globallashuv davrida bolalar adabiyoti faqat tarbiya vositasi emas, balki undan bolalarning o‘ziga xos ruhiy olamini izlash zarurligini alohida ta’kidlaydi. Bolalar she’riyati tafakkurida hissiy tovlanayotgan manzaralarda bolalik olami sir-sinoatlari aks etadi. Binobarin, bu davr masalalariga esh tuyg‘u va ong qirralarini ta’sir predmeti darajasiga ko‘tarish, bugungi kun quvon-chu tashvishlarini yaxlit ifodasiga moyillik yangicha dunyoqarashni shakllantirish hamda voyaga yetkazish xususiyatlari bolalar she’riyatining taraqqiyot darajasini belgilab bermoqda. Shu bilan birga insoniy xarakterlar va o‘ziga xosliklarni aks ettirish, inson obrazidan foydalanish va uning hayotidagi muammolarni, quvonchu-tashvishlarni ham mazmunan, ham shaklan go‘zal tarzda ifodalash bugungi o‘zbek bolalar she’riyatining bosh vazifasidir. V.G.Belinskiy emotsionallik bolalar adabiyotining asosiy xususiyati deb biladi. Shu bilan birga yumorning ham mavjudligi muhim sanaladi. Yangi davr bolalar she’riyatida shakliy-mazmuniy yangilanishlar bilan birga xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqlik jihatlarni ham ko‘ramiz. Bunday she’rlarda lirik qahramon bolaning o‘zi, uning ichki olami, dunyoqarashi va bolalarcha o‘y-fikrlari, sho‘xliklari aks etgan. Folklorning yozma adabiyotga ta’siri natijasida yuzaga kelgan bu yangilanish bolalar she’riyatiga o‘ziga xoslik bag‘ishladi. Lof o‘zbek xalq nasrining mustaqil janrlaridan biri bo‘lib, o‘zining tuzilishi hajv va yumorga asoslanishi bilan ajralib turadi. Lof janriga xos badiiy-tasviriy usul bu voqelikini mubolag‘alash asosida bayon etishdir. Lofda so‘zga chechanlik, zukkolik, hozirjavoblik zohir bo‘ladi. Uni aytish mubolag‘ali epizodga mos javob qaytarish lofchidan o‘tkir zehn, sinchkovlik, tajriba, so‘zga chechanlik, uddaburonlik, hozirjavoblikni talab qiladi va musobaqa shaklida o‘tadi. M.Sulaymonov ham lofchining so‘zga chechanligi, zukkoligi va hozirjavoblik fazilati mazkur janrning tashkil topishida hal qiluvchi rol o‘ynashini aytib o‘tgan. Bu janrda tabiat va jamiyat hodisalari bo‘rttirib ko‘rsatiladi va bu orqali kulgu hosil qilinadi. Loflar syujeti dialog asosiga qurilgan bo‘lib, hajv va yengil yumorga moyilligi, voqea va hodisalar o‘ta mubolag‘ali tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Mubolag‘a va kulgiga asoslanishi bilan latifa va askiya janriga yaqin turadi. Lof asosan qiziqchi hamda askiyabozlar orasida shakllangan va ijro etilgan. O.Safarov lofning janriy tabiati haqida “uning tabiatida epiklik va dramatiklik o‘zaro uyg‘unlashib ketganligi tufayli lof epizodik og‘zaki drama ekanligi ko‘zga tashlanadi”, – deb

ta’kidlaydi.[1.B.319] Darhaqiqat, lofchilarning savol-javobi, o‘zaro musobaqa tarzda boradigan holati, bu so‘zamollikni kuzatib boruvchi, miriqib kuluvchi tomoshabini borligi, xalq qiziqchiligi tarkibida rivojlanganligi sabab og‘zaki drama sifatida baholash mumkin. Xalq og‘zaki ijodida lofning quyidagi xususiyatlari kuzatiladi: a) an’anaviylik (nasriy ifodasi); b) ikki kishi tomonidan aytilishi; s) savol-javob, musobaqa tarzda bo‘lishi; d) dialogik nutqqa asoslanganligi; e) asosan qiziqchi va askiyabozlar orasida ijro etilishi; f) raqiblar o‘zaro so‘zamollik bobida bir-biri bilan bahslashishi.

O‘zbek bolalar adabiyotida ham lof janri xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yuzaga keldi. Lof aslida nasrda bo‘lar edi. G‘.G‘ulom, T.Adashboyev, H.Imonberdiyev kabi ijodkorlar lof she’rlarini she’riy usulda yaratib, bolalar adabiyotini janr, shakl va mazmun jihatdan boyitdi. Dastlab, G‘.G‘ulom “Chaqchaqlashaylik” she’rida maqtanchoq, xovliqmaroq aldoqchi-lofchi bolalar obrazini yaratgan bo‘lsa, T.Adashboyev ushbu an’anani davom ettirib, novatorona shakl va mazmunda lof she’rlar yaratadi. Shoirning “Arslonbob afsonasi” [2.B.145] to‘plamidan o‘rin olgan “Lof emas” she’ri 1981-yilda yozilib, 1982-yilda “Jo‘nataman quyoshni” to‘plamiga kiritilgan. Ushbu she’rda lirik qahramon chumolini taqalab qamish o‘rdiradi, chigirtkalarni to‘rttasini ot qilib, qog‘ozdan qanot qilib, aravaga qo‘shib qamishlarni Oq saroy va Ko‘k saroyga tashitadi, o‘zi ham rosa mehnat qiladi. Ushbu lofda bolalar tafakkuriga mos hasharotlar obrazidan foydalanish, soddalik mavjud bo‘lib, dialog va musobaqalashish ko‘zga tashlanmaydi. Yosh bolalarning chegara bilmas hayolot olami, hamma ishni hayolda bajarib, qoyillatishi aks etadi. She’rdagi lirik qahramon tomonidan to‘qilgan mubolag‘a, uydirma yumorni yuzaga keltiradi. Shu to‘plamdagi “Latifboyning loflari” (1985 y) she’rida Latifjonning hayolot olamidagi uydirma-loflari yosh kitobxonda yengil kulgini yuzaga keltiradi. Ushbu she’r “Oqbura to‘lqinlari” [3.B.46] to‘plamiga ham kiritilgan. She’rning dastlabki misralarida Latifjon azaldan lofchi bog‘cha yoshidagi bola obrazida gavdalangan. Uni aldoqchi-lofchiligidan hamma “lof” deb chaqiradi. Ayni shu yoshdagi bolalar xarakter – psixologiyasida voqelikni bo‘rttirib ifodalash ko‘zga tashlanadi.

Bog‘chasida Nuri, O‘ktam / Latifjonni lof deydi.
So‘zlariga ishonmay hech / Lofga ola qop deydi.[4.B.141]

Keyingi misralaridan Latifboy loflarini boshlaydi. U ignaga ip o‘tkazuvchi asbob o‘ylab topib, Uzro buvini xursand qilishni, odamlarga ko‘tarishga qulay bo‘lgan tutqi-sopli yangi tarvuz navi yaratishni, guruchlarning kurmak va toshini teruvchi magnit yaratishi haqidagi kashfiyotlarini o‘rtoqlariga so‘zlaydi. Shu bilan birga adirlarni ko‘rgach boshqa bolalardek lol qolmasligini, ularni tog‘ning bolasimas, balki tuyaning o‘rkachi deb bilishini maqtanib gapiradi. She’rning xulosa qismida Latifboyning lofchiligi O‘ktam o‘rtog‘i tomonidan yana bir bor yodga solinadi. Ushbu loflar kimnidir aldash, musobaqalashish, o‘zini ko‘rsatish maqsadida emas, balki, bolalarga xos xarakter – odamlarga yordam berish maqsadidagi o‘y-fikr va xohishlaridir. Ushbu loflarda bolalarcha samimiylik, ezgulik mujassam, shu orqali bolalarga “har qanday ish qilsang ham uning zamirida ezgulik bo‘lsin”, – degan tushunchani singdiradi. Ushbu loflar shoir tomonidan roli o‘ynalayotgan Latifboy tomonidan tabiat va jamiyat voqea-hodisalarini bo‘rttirib, kulgili tarzda obrazli ifodalash asosiga quriladi va Latifjon kashfiyotchi lofchi sifatida gavdalanadi. “Orzularim qo‘sh qanotim” saylanmasi va “Latifboyning loflari” she’riy to‘plamlarida syujeti kengaytirilib, loflar rivojlantirilib beriladi. Shoir boshqa ijodkorlardan farqli ravishda o‘ziga xos bo‘lgan so‘zamol, uddabiron, hammaga yordam beruvchi lofchi Latifboy obrazini yaratdi. “Saylanma”da “Uchqur tulpor” turkumi ostida har bir lof o‘ziga xos “Ovning gashti”, “Barchasi yodimda”, “Poyga zavqi”, “Beshta sanoch”, “Shirmon kulcha”, “Yugan solib, egar urib” tarzda nomlangan. Har bir lov alohida syujet qurilishiga ega bo‘lsa-da, asosiy o‘zanda, Latifboy obrazida birlashadi. Ushbu loflar mustaqil voqelik asosida bo‘lib, bir-birini davom ettirmaydi va to‘ldirmaydi. Go‘yo bitta katta halqaga ilingan zanjirchalar misoli. Shuningdek, shoir “Uchqur tulpor” deb bejiz nomlamagan, boisi yosh kitobxon g‘aroyb sarguzasht uydirmalar hayolotida uchib yuradilar. “Yugan solib, egar urib” nomli lof she’rida ajoyib mubolag‘alardan foydalangan, bunda bolaga xos tasvirlash usuli mavjud. Loflar asosan lirik qahramon muallif nutqi orqali, folklorda esa, lofchi qahramonlarning o‘z nutqi asosida, dialogik qurilishda beriladi. Loflar o‘ta mubolag‘ali va bolalarga mos sarguzasht tarzda ifodalanishi mazmuniy o‘ziga xosligi sanaladi. Bilamizki,

sarguzasht asosan bolalar olamiga xos, shoir buni anglab Latifjonning uydirmalarini g‘ayritabiiy sarguzashtlarga boy tarzda yaratadi. Shoir Latifboyni janga otlanganday tasvirlaydi. U “tulki ovi jangiga otlangan. She’rning sintez qismida tulkining bir tovuqni yeb semirib, katta bo‘lib ketganidan to‘rt pahlavon terisini shilayotgani tasvirlangan. Bu mobolag‘ali tasvirni shoir shunday ishonarli tarzda ifoda etganki, bu jarayon beixtiyor bolani ishontiradi. *O‘sha tulki mo‘ynasidan, / Tikib berdik o‘nta po‘stin.* Shoir butunning qismini (tulkining mo‘ynasi va quyrug‘ini) shunday bo‘rttiradiki, tulkining qanday kattalikda ekanligi tasavvurda ham hayratlantiradi. *Ikki quloch quyrug‘idan, / Tayyorladik qirqta telpak.* Bu misralardan mubolag‘ani, o‘ta kattalashtirilgan xolatini ko‘ramiz. Mumtoz adabiyotda mubolag‘aning bu turi g‘uluv deb yuritiladi. Bunday ifoda usuli adabiyotshunoslikda groteskli tasvir deb yuritiladi. Jahon adabiyotida grotesk atamasi bilan ifodalanadi. Grotesk (ital. grotta-yer ostidagi uy)-badiiy adabiyot va san’atdagi obrazlilikning fantastika, kulgi va mubolag‘aga asoslangan bir turi, uslub, badiiy usul. [5.B.84] Ushbu lof she’rlarda reallik bolaning xayolot olami bilan birlashib ketgan bo‘lib, fantastikaga moyillik ham sezilib turadi hamda yumorni yuzaga keltiradi. O.Safarov lofning kompozitsion asosini dialog tashkil etishini aytib o‘tgan. T.Adashboyev loflarida esa dialog mavjud emas. Demak, ushbu holat ham o‘ziga xoslikir. Shoir she’rni boshlanishida Latifboyning ertagi ekanligiga ishora qilib, uni o‘z nutqi (muallif nutqi) orqali ifoda etgan, bu o‘ziga xos bir ko‘rinish va yana bir jihati shundaki, ertak janrida lofni ifoda etmoqda. Buni “lof ertak” deb atashimiz mumkin. Bu ertakda Latifboyning jasurligini lof orqali ifoda etgan va folklorga oid bo‘lgan lof va ertakning qorishgan-sinkretik usulini novatorona tarzda namoyon qilgan. Lofchilik kichkintoylar tabiatiga xos. Chunki ular o‘z o‘rtoqlari bilan gaplashganda albatta mubolag‘ali gaplardan foydalanadi. Ular qilgan ishlarini, ko‘rgan-kechirganlarini bo‘rttirib, suhbatdoshini lol qoldirib aytadi va bundan o‘zi ham rohatlanadi. T.Adashboyevning lirik qahramoni Latifboy ham shunday. U ishtirok etgan voqealarni lof bilan bayon etadi. “Beshta sanoch” she’rida ham o‘ta mubolag‘ali holga duch kelamiz. She’rning bu qismida Latifboyning salbiy fe’l-atvori bilan birga ijobiy xarakteri abjirligi, chaqqonligi obrazli tarzda namoyon etilgan. Maqtanchoq Latifboy bo‘rdoqiga beshta chivin boqqan. Bo‘rdoqiga boqilgan chivinlar Latifboyning loflarida shunchalik katta bo‘lib ketganki, ularni so‘yish uchun guzardan to‘rtta qassob chaqiradi. Qassoblar bolta, pichoq kabi asboblarini charxlab keladilar. Har bir bandda lof ishtirok etgan: terisidan sanoch tikilgani, yog‘larini sovungarga berganlari, go‘shti esa qarg‘alarga nasib bo‘lganini mubolag‘ali ifoda etgan. Ko‘zga ham zo‘rg‘a ilinadigan chivinlardan shuncha narsalarni bor qilib ko‘rsatish o‘zi bir lof. Ushbu lof she’rda reallik va xayolot, kulgi va mubolag‘a sintezlashgan holda, fantastikaga moyil tarzda ifoda etilgan. Mubolag‘aga asoslangan bu usuldan foydalanish bolaning tafakkur olamidagi o‘zgachaliklarni, ularga xos obrazli tasvir vositalarini ifoda etadi. Har bir lof xronikali syujet asosida ifoda etilgan. Ushbu lof she’r xalq og‘zaki ijodidagi “Qirq yolg‘on” va “Uch yolg‘onda qirq yolg‘on” ertaklari singari syujet qurilishiga ega. Ushbu ertaklardagi yolg‘onlar bir-biriga ulanib, davom etadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Bu ertaklarga xos bo‘lgan xususiyatlar shoir loflarida xalq og‘zaki ijodiga xos an’anaviylikni namoyon bo‘lganini bildiradi. Shoir poetik mahoratining o‘ziga xosligi yengil yumoristik kulgini yuzaga keltiruvchi uydirma, mubolag‘a, majoziylikdan bolalar tafakkuriga xos tarzda foydalanganidadir.

Xalq og‘zaki ijodida lofchilar ikkita, G‘.G‘ulomning lofchilari bir necha bo‘lsa, T.Adashboyevda birgina Latifboyning o‘zi bo‘lib, g‘ayritabiiy uydirma harakatlari va bo‘rttirmalari bilan kitobxonni hayratga soladi. Shoir loflarni birgina qahramon orqali ifoda etib, an’anaviylikdan chekingan holda o‘ziga xos obrazda namoyon qilgan. Predmetlarni, hayvonotu-nabotot olamini kattalashtirib, bo‘rttirib ko‘rsatish asosida lofni yuzaga keltiradi. Mubolag‘aning g‘uluv badiiy san’ati va groteskli tasvir usulidan mohirona foydalanadi. Latifboyning har bir lofiga alohida nom beradi va notabiiy voqealarni aks ettiradi. Tursunboy Adashboyevning lof she’rlarda quyidagi o‘ziga xosliklar kuzatiladi: a) she’riy tarzda, hikoya usulida bayon qilingan; b) muallif yoki lirik qahramon bola (Latifboy) obrazi orqali bayon qilingan; c) monologik nutqqa asoslangan; d) raqiblar bahslashuvi mavjud emas; e) mubolag‘a, g‘uluv, groteskli tasvir usulidan keng foydalangan. f) har bir lof alohida nomlar bilan ajratilgan, lekin lirik qahramon-lofchi birgina

Latifboy bo‘lib, so‘zamol, uydirmaga boy, jasur yigit sifatida beriladi; g) murakkab sujet qurilishiga ega bo‘lib sarguzasht tipida yaratilgan.

Lof she’rlar H.Imonberdiyev ijod labaratoriyasidan ham o‘rin olgan. Shoir “Lofchilar-aloqchilar” [6.B.11-12] she’rini yaratib, lof janrini bir qadar rivojlantirdi va shu nom bilan she’riy to‘plamini ham nashr ettirdi. Lofchilik mahorati folklorga xos ikki kishi – Ali, Vali obrazlarida namoyon bo‘lgan. Shoir bolalarning o‘zini lirik qahramon sifatida tanlagan. Shoir Ali, Vali obrazlarini bolalarga mos holda yaratgan. “Lofchi-aldoqchi” deyishi ham bejiz emas, aldoqchi so‘zi o‘ta salbiy bo‘yoqdorlikka ega emas, balki, biroz bolalarcha yolg‘onga moyillikni ifodalash uchun xizmat qilgan. Birinchi misrada Ali va Vali azaldan lofchiligi anglashiladi. Lekin bu lofchilar salbiy xarakterga ega emas, balki bolalarcha samimiy, xushchaqchaq aldoqchilardir. O‘zlari aytgan lofga mazza qilib kuladigan, beg‘ubor, so‘zamol, aqlli bolajonlardir. Ushbu lof she’rda Ali va Valining harakati kontrast asosiga qurilgan, ular bir-biridan o‘zishga harakat qilib, lof to‘qiydi, ya’ni o‘rtalarida do‘stona musobaqa tarzda syujet qurilishida ifoda etiladi. Har bir lof alohida bandlarda beriladi. Shoir she’rning tezis qismida quvnoq lofchi qahramonlarini tanishtirib o‘tadi. Bu qahramonlarga ajoyib ohangdosh ism tanlaydi, bu yumorni yuzaga keltirish bilan birga, bolaning xotirasida yaxshi saqlanadi, talaffuzga ham qulay. O.Safarov “Loflarda aksariyat hollarda qahramonlarning ismi o‘zaro qofiyalangan bo‘ladi. Ali, Vali, Soli singari. Tovushlarning bunday uyg‘unligi yumoristik kulguni yuzaga keltiradi”, – deb aytib o‘tgan. H.Imonberdiyevning loflarida ushbu ifodaning mavjudligi xalq og‘zaki ijodiga xos an’anaviylik belgisini anglatadi. Ko‘pikdan uy qurishar misrasining mazmunida beg‘ubor, yengil uydirma ekanligi ham anglashiladi. Ikkinchi banddan lofchilarning loflari boshlanadi. Ali o‘ziga xos rasm chizadi va Valiga ko‘rsatib maqtanadi. Uning rasmi shunday jonliki, chizilgan donlarni qushcha kelib yeb ketadi, hatto unga rahmat ham aytadi. Keyingi lofida Alining ajoyib iti borligini, vazifa qilib berilgan misollarni bemalol ishlashini, hatto, “xo‘jayin bemalol o‘ynab oling, she’r yodlashmi, masalami, tortinmay bemalol menga aytavering”, – deb Aliga yordam berishini aytadi. Vali qitmirlik qilib, ruchkni qanday ushlaydi, – deb savol bersa, hozirjavob Ali topqirlik va so‘zamollik bilan “tishi bilan tishlaydi” – deb javob qaytaradi. Vali uning uydirmalaridan hayratga tushmay, xotirjam “bo‘lishi mumkin”-deya javob qaytarib, o‘zining loflarini boshlayd. Vali ham vaziyatdan chiqib keta oladi, u ham lofchilikda Alidan qolishmaydi. O‘rtalarida so‘z o‘yiniga xoslangan holda uydirma-loflar musobaqasi va savol-javob tarzda ifoda etadi. Ushbu she’rda har bandda berilgan lofdan so‘ng, she’rning boshlanish qismidagi bandi naqorat tarzda beriladi. Bu ta’sirdorlikni oshiradi va bola xotirasida uzoq saqlanadi. Aldoqchilik, bo‘rttirib gapirish (lof tarzda), bu gaplaridan maqtanish holati har bir bolajonda bor. Lof orqali bolalar xarakterining bir qirrasini yumoristik kulgi asosida ochib bergan. Shoir tomonidan roli o‘ynalayotgan lirik qahramonlar to‘qigan loflar hayolot mahsulidir. H.Imonberdiyevning loflarda biror predmet, joy yoki hodisa kattalashtirilib, bo‘rttirilib ko‘rsatilmaydi. Balki, so‘zamolligi, zukko va topqirligi lofni yuzaga keltiradi. R.Barakayev “Jonajonim she’riyat” monografiyasida ushbu lof she’rga to‘xtalib: “Shunisi qiziqki, “Lofchilar-aldoqchilar”ni o‘qib, Ali bilan Valining yolg‘onlaridan xafa bo‘lmaysiz, chunki ular yolg‘on aytib birovni aldamaydilar, balki xayollariga kelgan loflarni bir-birlariga aytish bilan go‘yoki kim zo‘rroq lof aytishga bahslashadilar. Ularning loflari beg‘ubor, bu loflarning yolg‘onligini ularning o‘zlari ham bilib turadilar, faqat mana shu kim o‘zarga aytilgan loflardan bolakaylar o‘zlaricha zavq topadilar”[7.B.97], – deb izohlaydi. Nafaqat o‘zlari, balki kitobxonga ham zavq beradi, do‘stona bahslashish yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. T.Adashboyevning loflari ham hech kimga ziyon yetkazmaydi, uning qahramoni ham birovni aldamaydi, xafa qilmaydi, balki bolalarcha tasavvurini namoyon etadi. H.Imonberdiyevning G‘aroyibkent hangomalari (1994) to‘plamida “Lofchilar”[8.B.55] nomli she’rida Ali va Valining loflarini yana davom ettirdi. Unda qahramonlar qo‘lbola tayyora yasab Mirrix yulduziga, hatto Quyoshga ham bir zumda chiqib tushganlarini obrazlilik asosida, fantastik tarzda tasvirladi. Ali, Valini tanishtirish muallif nutqi, loflar esa lirik qahramon sifatida olingan bolakaylarning o‘z nutqi orqali beriladi. Vali nutqidagi “bir qadamlik joy”, “yetasan sovumay choy”, “kuyib kul bo‘lmadingmi” xalq og‘zaki ijodiga xos iboralar loflarning badiyatini yanada oshirgan. Ushbu olbraz ham so‘zamol, topqir, uddabiron aldoqchi obrazida namoyon bo‘ladi. Lofchilar obrazi

bilimdon, kashfiyotchi, sayohatchi sifatida gavdalanadi. Folklor va G‘afur G‘ulom loflarida lofchi qahramonlar birdan ortiq, ushbu an’anani H.Imonberdiyev ham davom ettirib lof she’rlaridagi lirik qahramonlarni ikki – Ali va Vali obrazlarida namoyon qildi. T.Adashboyevning “Latifboyning loflari” she’rida birgina obraz – Latifboy kashfiyotchilikka moyil, uddabiron tarzda gavdalanadi. Shoir Latifboyning “hislatlari” bilan yosh kitobxonni tanishtirib boradi.

A.Akbar va D.Rajablar ijodida alohida lof janri mavjud bo‘lmasa-da, lofga xos unsurlar: mubolag‘a badiiy san’ati va so‘zamol, hozirjavob, uddabiron bolalar obrazlari berilgan she’rlar mavjud. A.Akbarning “Kasalmand” she’ri bunga misol bo‘ladi. She’rda Vahobjon obrazida aldoqchi-lofchi bolajonlar qiyofasi berilgan. Tezis qismida uning nutqi orqali yolg‘onlari – goh oyog‘i, goh boshi, goh qulog‘ining og‘rishi (kasalligi) bo‘rttirilgan. Ikkinchi bandda bu holatdan jahli chiqqan aka obrazi orqali tanbehona savollar berilsa, uchinchi band-sintez qismida shu savollariga Vahobjonning topqirlik va uddabironlik asosida berilgan javoblari ifoda etiladi. Uning so‘zamolligi kasallikdan “iztirob” chekib, og‘rimagan joyi tirnoq va sochini ko‘rsatishi yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. She’r diologik nutq asosiga qurilgan. Bu she’rdagi mubolag‘a, hozijavoblik, uddabironlik asosida vaziyatdan chiqib ketish, yumorning mavjudligi lofga xos unsurlardir. Shoirning “Ukam tush ko‘rgan emish” she’rida tushida akulalarni yenggan bola obrazi, “Xayolparast” she’rida esa lofga xos mubolag‘ali tasvirlar – to‘rtburchak tog‘larni cho‘kich bilan o‘yib oshib o‘tmoqchi bo‘lgan, qaynoq yomg‘irlarda qolgan, yomg‘ir suvidan ko‘l dengizga aylanganini ko‘rgan va shu suvlardan xovuchlab ichgan bola obrazi orqali beriladi. Ushbu mubolag‘ali tasvir bolaning xayolida, “Uyquchining tushlari” she’rida esa Muzaffarning tushlarida ro‘y beradi. Ushbu she’rda narsa – buyum, va xasharotlar hamda voqelik mubolag‘a asosida beriladi. *Mushtdek-mushtdek arilar / Nishin sanchdi bo‘ynimga. Vishillashib ilonlar / Kirib oldi qo‘ynimga.* Muzaffar mushtdek arilar, vahshiy ilonlar va ajinalaran qochib, o‘zini qaynoq suvli soyga otadi, xatto qushlar ham uni cho‘qimoq bo‘lib kelishadi. Yosh kitobxon ushbu tasvirlarni xayratlanib, biroz hayajon va qo‘rquv bilan o‘qiydi. To‘rtinchi bandda bu voqealar lirik qahramonning tushida bo‘layotgani oydinlashadi va yumoristik kulgini yuzaga keltiradi. Shoir tush epizodini olib kiradi, ya’ni mubolag‘ali tasvir lirik qahramonning tushi orqali beriladi. Shoir lof she’r deb nomlamasa-da, bu janrga xos bo‘rttirish-mubolag‘ali tasvir mavjud. T.Adashboyev singari loflar birgina qahramon nutqi orqali beriladi. Bo‘rttirishlar bandma-band ortib boradi. She’rning sintez qismda tush jarayoni ekanligining berilishi shoir uslubining o‘ziga xosligini belgilaydi.

D.Rajabning “G‘aroyib sayr” nomli she’rida ham lofga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. She’rda hayvonot bog‘ida yuz bergan g‘ayritabiy mubolag‘ali tasvirlar maqtanchoq bola tilidan beriladi. Lirik qahramon – shoir tomonidan roli o‘ynalayotgan hayolparast, maqtanchoq bola. Bolalarga xos bo‘lgan xarakter, psixologik holat mubolag‘ali, yumoristik tarzda aks etgan. Antitezis qismida mubolag‘ali taasvirlar ifoda etiladi, so‘nggi to‘rt misrada xayolparast, so‘zamol qahramon bolajonning bunday vaxshiy hayvonlar makonida qanday qilib bemalol yurishi ochiqlanadi. She’r yakuniga yetguncha yosh kitobxon xayrat va qiziqish bilan o‘qiydi. Kutilmagan xulosa yumorni yuzaga keltiradi. She’rda predmet, jonzotlar, tabiat hodisalarini bo‘rttirib ko‘rsatish mavjud emas, balki lirik qahramon bolaning aytganlari mubolag‘ali tasvir bo‘lib, lofga xos jihatlar sanaladi. Lofchi bola obrazi so‘zamol, biroz maqtanchoq, xayolparastligi bilan lofchi obrazlar sirasiga kiradi.

Bolalar adabiyotida lof janrining badiiy-tarbiyaviy ahamiyati adabiyotga qiziquvchanligini oshiradi, so‘zga chechanlik va topqirlikni yuksaltiradi, tabiat hodisalarini, hayot bilan hayolni farqlaydi va undagi yuz beradigan voqea – xodisalarni anglab etadi, ularni bir – biri bilan solishtiradi, shu bilan birga dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayadi, bolakaylarda yengil kulgini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –T.:Musiqa, 2010. – B.319.
2. Адашбоев Т. Арслонбоб афсонаси. –Тошкент. Ёш гвардия, 1988. – Б.145.
3. Адашбоев Т. Оқбура тўлқинлари.-Тошкент.:Ёш гвардия.1985. –Б.46.

4. Адашбоев Т. Оқбура тўлқинлари.-Тошкент.:Ёш гвардия.1985. –Б.141.
5. Қуронов Д ва бошқалар. Адабиётшунослик луғат. – Т.: Академнашр,2013. – Б.84.
6. ИмонбердиевҲ. Лофчилар - алдоқчилар. –Т.:Чўлпон. 1991. –Б.11-12.
7. Баракаев Р.Жонажоним шеърият.Тошкент, 1989. – В.97.
8. Имонбердиев Ҳ.Ғаройибкент ҳангомалари. Тошкент.: Чўлпон. 1994. –Б.55.
9. Abdullaeva G. Iusses of artistic and literary influense of fairy-tale poems.
10. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal, 459-461, 2020.

O'ZBEK FOLKLORI –TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Nasriyeva Dilbar Muhiddinovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi, uning asosiy xususiyatlari, xalq og'zaki ijodining millatimiz ma'naviyatining yuksalishida tutgan o'rni, o'zbek xalq dostonlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z boradi.*
Kalit so'zlar: *folklor, doston, baxshi,o'zbek,madaniyat, ma'naviyat, urf-odat, ajdod, tarbiya, vatanparvarlik, ma'naviy meros.*

Abstract. *This article talks about folklore, its main features, the role folklore in the spiritual development of our nation and the educational value of Uzbek folks epics.*
Key words: *folklore, epic, uzbek, culture, spirituality, tradition, ancestor, education, patriotism, spiritual heritage.*

Folklor har bir millatning milliy va ma'naviy qiyofasi, uning tarixi, o'lmas qadriyatlarini mukammal aks ettiruvchi ko'zgu, ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy merosdir. Bu meros maqol-u matallar, ertak va dostonlar , topishmoqlar va boshqa janrlardagi asarlardan iborat. Folklor tarkibiga kiruvchi adabiy janrlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Insonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarga ko'ra , ular ham o'zgara boradi.Shuning uchun ham u milliy ma'naviyatimizning tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

Xalq og'zaki ijodi bizga uzoq tarixdan, xalqimiz o'tmishining cheksiz puchmoqlaridan , millatimizning takrorlanmas hayot yo'lidan so'zlaydi.Unda har bir millatning urf- odatlari, maishiy hayoti, tabiat va jamiyatga bo'lgan qarashlari, mehnat faoliyati,diniy tasavvurlari ,milliy o'ziga xosligi yaqqol ko'rinib turadi. O'zbek xalqining og'zaki ijod namunalari bosh ildizi Markaziy Osiyoda yashab o'tgan qadim turkiy xalqlarning mifologik qarashlariga borib taqaladi. Xalqning bunday qarashlari O'rxun –Enasoy toshbitiklaridan boshlab ,"O'g'uznoma", Qoshg'ariyning ,,Devonu lug'atit –turk",Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Yugnakiyning "Hibat ul haqoyiq" kabi durdona asarlarida ham o'z aksini topgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodining bebaho namunalari turli yozma manbalarda, yozuvchilarning, tarixchi olimlarning asarlarida, arxitektura yodgorliklarida , uy-ro'zg'or buyumlari, qadim qoyatoshlarda saqlanib kelgan. Folklorning ilk namunalari insonlar ibtidoiy jamoa bo'lib yashagan davrlarda yaratilgan. Ularda o'sha davrga xos urf-odat, dunyoqarash sezilib turadi

Badiiy adabiyot folklor namunalaridan boshlanadi. Xalq og'zaki ijodi uzoq o'tmish belgilarini saqlagan holda , insonlarning bugungi hayotiga hamohang tarzda singib ketib, asrlar osha o'z qadr- qimmatini yo'qotmagan. Shu boisdan ham qadim folklor namunalari xalqimizning, millatimizning ma'naviy mulkidir.Bu shunday bebaho mulkki, unda ajdodlarning ma'naviy qiyofasi , ruhi aks etib turadi.Zero, u bizga og'izdan o'gizga ,avloddan avlodga necha asrlar silsilasiga dosh berib, sayqal topib yetib kelgan boylik. Insonning dunyoqarashi, xatti –harakati , jamiyatda tutgan o'rni, xalqqa, vatanga, atrofdagi odamlarga munosabati uning ma'naviyatini

belgilab beradi. Ma’naviy qashshoq kimsa esa hayotda ro’y berayotgan voqealarga loqayd, e’tiborsiz bo’ladi. Ma’naviyati qoloq kimsa uchun Vatan, millat, xalq taqdirining ahamiyati bo’lmaydi.Shu boisdan, ajdodlarimiz farzand tarbiyasini hayotning dolzarb masalasi sifatida bilishib, ularning dunyoqarashini rivojlantirish yo’llarini izlashgan. Bunda ,albatta, xalq tomonidan yaratilgan og’zaki ijod namunalariga murojaat qilishgan. Shuning uchun ham xalq og’zaki ijodi milliy ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Xalq og’zaki badiiy ijodining asosiy xususiyati shundan iboratki, unda yaratuvchilik va ijrochilik jarayoni og’zakilik, jamoaviylikka asoslangan bo’ladi. Unda ko’zga tashlanadigan muallifning noaniqligi,an’anaviylik, tarbiyaviylik, ommaviylik, variantdoshlik kabi belgilar folklorning o’ziga xosligidir. Bu o’ziga xoslik xalq o’g’zaki ijodining deyarli barcha janrlariga taalluqlidir. Shuni ham aytib o’tish lozimki, xalq og’zaki ijodining yana bir muhim jihati ijod namunalarining o’zaki yaratilganligi va og’zaki yashayotganligidir. Zero, bu xususiyat hali arslar davomida xalqimizning ma’naviy mulki sifatida yashayveradi.

Xalq folklorining har bir namunasi yillar o’tgan sayin xalq jonli tilida saqlanib, sayqallanadi, ijro yoki amaliyot davomida turli o’zgartirishlar, yangiliklar kiritilib, ularning yangi variantlari paydo bo’ladi, lekin, asosiy bosh g’oya, fikr saqlanib qoladi. O’z tarbiyaviy ahamiyatini yo’qotmaydi. Og’zaki ijod asarlarining badiiylik jihatdan mukammallashib borishida , yangi – yangi variantlarning yuzaga chiqishida uni kuylovchi va tinglovchi, asrab-avaylovchi oddiy xalqning o’rni, xizmatlari beqiyosdir. Chunki vaqt o’tgani sayin xalqning ma’naviy dunyoqarashi o’zgaradi. Bugun yaratilgan ijod namunalari zamon o’tgan sayin davr talabiga javob bermay qolshi, shubhasiz. Insonlar badiiy tafakkurining rivojlanishi xalq og’zaki ijodi namunalarida variantlilikning yuzaga kelishiga olib keladi, ota- bobolarimiz ushbu og’zaki ijod namunalaridan turmushning turli vaziyatlarida foydalanishiga asqotgan bo’lsa, ajab emas.Folklor namunalari og’zaki yaratilib, asrlar davomida og’zaki tarqalar ekan, bunda badiiy tuzilishning barqarorligi, matndan, matnga o’tuvchi mazmunning qat’iylashganligini ko’rishimiz mumkin. Albatta, har bir ijroda asardagi nimadir o’zgaradi, nimalardir avvalgisidan boshqacharoq talqin qilinadi, nimadir qo’shiladi va yoki tushib qoladi.Har bir og’zaki ijod namunasining mazmuni uni yaratgan xalq vakillarining hayoti , turmush tarzi bilan chambarchas bog’liq bo’ladi. Umuman olganda, bunday ijod namunalarida xalqning, millatning nafasi ufurib turadi.

Folklor namunalari xalqning bebaho mulki hisoblanar ekan, ularni o’rganish ham hamma davrlarda dolzarb masalalardan biri bo’lib kelgan. Yosh avlodni tarbiyalashda uning ruhiyatiga ta’sir qilmasdan ijobiy natijaga erishib bo’lmaydi. Aynan xalq og’zaki ijodi namunalari insonning shaxs sifatida shakllanishi, kamol topishi uchun poydevor vazifasini o’taydi , desak mubolag’a bo’lmaydi.

Asrlar qa’ridan sado beruvchi folklor namunalarini xalq pedagogikasining asosiy poydevori , uning ,,xamirturushi’’ desak, mubolag’a bo’lmaydi. Aslida ham xalq og’zaki ijodi namunalari shaxs tarbiyasining eng maqbul va samarali tarbiya mezonidir. Bunday tarbiya usuli asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan sinalgan, sinovdan o’tgan.Xalqimizning qadimiy an’ana va qadriyatlari millatning ma’naviy dunyosini va dunyoqarashini rivojlantirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Bunday ma’naviy meros durdonalari shaxs ma’naviyatining har bir bosqichida o’zining munosib o’rniga ega,u inson tug’ilgan onidan boshlab,ona allasi bilan birgalikda singib boradi. Allaning har bir satri orqali onaning o’z farzandiga bo’lgan mehr-muhabbati, onaning bola tarbiyasidagi muhim o’rni yaqqol namoyon bo’ladi.Tarbiyada xalqning ma’naviy qadriyatlariga suyanish, ular orqali yoshlarga milliy g’urur tuyg’usini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bugun insonning ongi va qalbi uchun mafkuraviy maydonlarda ko’zga ko’rinmas kurash borayotgan bir vaqtda tarbiyaning xalqona usuli , oila tarbiyasi, xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi tushunchalar har doimgidek dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa , Yaqin Sharq mamlakatlaridagi mintaqaviy mojarolar avj olib borayotgan bir davrda xalqona tarbiyaning, dunyoqarashning, vaziyatga xolisona baho bera olishning o’rni nechog’lik zarur ekanligini his eta olishimiz darkor. Aytish mumkinki, yoshlarimizning Alpomishdek vatanparvar, g’ururli, Barchinoydek oriyatli bo’lib kamol topishi ajdodlarimizdan meros bo’lgan bu o’lkaning xavfsizligini, tinchligini , qolaversa ,dunyo hamjamiyatidagi mavqeyini belgilab beradi.

Badiiy adabiyotning barcha turida har bir davrda komil inson tushunchasi ijodkorlarning bosh g'oyasi bo'lib kelgan. Xalq og'zaki ijodida ham azal –azaldan komillik g'oyasi kuylanib kelingan. U xalqimizning ezgu orzu-umidi, ma'naviyatining uzviy qismi bo'lib kelgan. Shunday ekan, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari hozirgi davrda ham o'z aktualligini yo'qotgan emas.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasi masalasida so'z borar ekan, farzandlarimiz ruhiyatiga halollik, olijanoblik, to'g'rilik, adolat, insof, diyonat kabi tushunchalarni ma'naviyatimiz gultoji bo'lgan , xalqimizning boy ma'naviy merosi –xalq og'zaki ijodi namunalari orqali , avvalo, oila davrasida, qolaversa, maktab partalaridan boshlab singdirish biz- ota-onalarnig, ustozlarning asosiy vazifamizdir.Ta'bir joiz bo'lsa, ota-bobolarimiz tomonidan oila davrasida o'tkazilgan dostonxonliklar oilani muqaddas, farzand tarbiyasini esa undan ham ustun qo'ygan ajdodlarimizning naqadar boy ma'naviy qiyofaga ega ekanligidan dalolatdir. Ota –onaga muhabbat, tug'ilgan makonga sadoqat, qarindosh- urug'ga hurmat, hilm, adolat, qanoat, sabr va oriyat kabi tuyg'ular qon –qonimizga xalqimiz badiiyatining noyob gavharlari bo'lmish og'zaki yaratilgan asarlar orqali singdirilgan bo'lsa, ne ajab. Shu o'rinda sevimli shoirimiz Hamid Olimjonning quyidagi o'tli, beixtiyor bolaligingni eslatuvchi satrlari yodga keladi:

Bolalik kunlarimda
Uyqusiz tunlarimda
Ko'p ertak eshitgandim
So'zlab berardi buvim
Esimda o'sha damlar
O'zi uchar gilamlar…

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida ota-bobolarimizning oltinga teng pand-nasihatlari, kelajak avlodga bermoqchi bo'lgan o'gitlari, milliy fazilatlarimiz, insoniylik sifatlari, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat, ota-onaga hurmat , diniy e'tiqod kabi tuyg'ulari o'z aksini topgan. Jumladan, bugun biz so'z yuritmoqchi bo'lgan xalq og'zaki ijodining doston deb ataluvchi janrida ham yuqoridagi tushunchalar xalqimizga xos soddalik, samimiylik bilan ifodalangan.

Doston xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, hajm jihatidan katta, tugal badiiy ko'rinish beruvchi epik janr hisoblanadi. Dostonlar do'mbira jo'rligida ijrochi (baxshi) tomonidan ijro etiladi. Bunda ijrochidan ham ijroda, ham badihada juda katta bilim va mahorat talab qilinadi. Baxshidan u yoki bu dostonni shunchaki ijro etish emas, balki uni do'mbira jo'rligida tinglovchilarni mahliyo etadigan darajada kuylab berish talab etiladi. Shuning uchun ham dostonchi baxshilar tinglovchini rom etishning turli usullarini—so'z o'yinlari, musiqiy qochirimlar, dostonning eng qiziq, kulminatsion nuqtasida qisqa to'xtamlardan foydalanishgan. Ommaviy dostongo'ylik kechalari uyushtirilgan, dostonchi baxshilar o'zaro ijodiy bahslashgan.

Dostonlarda xalqimizning orzu-umidlari, baxtli kunlari, ro'shnoliklari haqidagi o'y-xayollari aks etgan. Insonlarning faqat yaxshilikka, yorug' kunlarga erishish umidi bian yashashi doston matnlarida chiroyli obrazlarda yoritilgan. Xalqimizning tuyg'ulari ularni bir –birini qo'llashga, hurmat qilishga, e'tibor ko'rsatishga undagan. Bundan tashqari dostonlarda to'g'rilik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, so'zga chechanlik, hozirjavioblik kabi sifatlar oddiy bo'yoqlarda, ta'sirli ifodalangan. Dostonlar bilan tanishar ekanmiz , dostonlarning til xususiyati, mavzu jihatidan ham juda rang-barang ekanligiga amin bo'lamiz. Xalqning til boyligi birinchi navbatda uning xalq og'zaki ijodida namoyon bo'lgani kabi, biror xalqning qandayligini bilish uchun uning folklorini o'rganish kerak. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi.

Folklorshunos olim Hodi Zaripov ,,Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug'at boyligi bilan belgilanadi''degan edi. Shunga ko'ra xalq dostonlari o'zbek tili tarixining serqatlamligini, uning bo'yoqdorligini o'zida to'la aks ettiradi.

Baxshilarning o'zbek tili imkoniyatlaridan unumli foydalanishi doston badiiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Har galgi ijroda tilimizning bor jozibasi yangicha jilolanaveradi. Ona tilining go'zal jihatlarini, nozik tovlanishlarini namoyon eta olgan og'zaki ijod namunalari ajdodlarimizning yuksak badiiy etikasidan dalolat beradi.

Adabiy –badiiy merosimizning bir qismi bo'lgan dostonlarimiz XX asrning 50-yillarida yuqori tabaqa manfaatini aks ettiradi, degan bo'lmag'ur ayblovlar bilan qoralandi. Allohga beadad shukrlar bo'lsinki, folklorshunos olimlarimizning sa'y –harakatlari bilan qo'yilgan ayblovlar olib tashlandi, bunday ijod namunalari xalq badiiy tafakkuri mahsuli ekanligi isbotlab berildi. Har bir xalqning buyuk tarixi uning xalq dostonlari bilan bog'liq. Xalq yaratgan dostonlar avloddan avlodga o'tib kelayotgan mahobatli afsona-yu asotirlar, qahramonlar, vatanparvarlik tuyg'ulari olamidir. O'zbek xalq dostonlarida o'zbek xalqining vatanparvarlik fazilatlari va qadriyatlarini , ajdodlaridan g'ururlanish, o'rnak olish , bag'rikenglik, mardlik kabi tushunchalar ulug'lanadi.

Dostonchilik an'analari hozirgi kunda ham davom etmoqda. Tinglovchilar bilan muloqot tarzining zamonaviylashib borayotganligi bois, baxshilar o'z asarlarini katta –katta konsert zallarida, turli anjumanlar va televideniyada ijro etib kelmoqdalar. Dostonlar og'zaki ijro etilgani uchun emas, balki og'zaki yaratilib ,asrlar osha yashab kelgani uchun ahamiyatli va qadrlidir.

Biz bugun ona tilimizga, madaniyatimizga, ma'naviyatimizga, mafkuraviy ma'naviy tahdidlar ko'lami avj olayotgan davrda yashayapmiz.Bunday tahdidlar farzandlarimiz hayotiga salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymayapti. Biz ma'naviyat haqida qancha gapirmaylik, bolalarimiz tafakkuri, dunyoqarashi ommaviy madaniyat ta'siri ostida shakllanyapti. Shu ma'noda bugun folklorni o'rganish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson ma'naviy dunyosining rivojlanishida xalq og'zaki ijodining o'rni haqida so'z borar ekan,avvalo, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanishi kerak. Onajonlarimizning mehri yo'g'rilgan allalari, momolarimizning erkalamalari, aytimlar, topishmoqlar va ertaklar bolaning tili va dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynaydi, aslida. Shu o'rinda qiziq savol tug'iladi . Bugun yosh onalarimiz qo'lida tarbiyalanayotgan bolajonlarimiz alla eshitib ulg'aymoqdami? Yoki hozirgi zamon buvijonlari nabiralarini ertaklar aytish orqali tarbiyalay olyaptimi? Bu kabi savollarimizning cheki yo'q. Javobi esa… Bu masala alohida bir mavzu.

Xulosa qilib aytganda , bugungi yoshlarni tarbiyalashda, ularni ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirlaridan asrab qolish maqsadida xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli va o'rinli foydalangan holda ularning ruhiyatiga ta'sir o'tkazsak, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.Xalq og'zaki ijodida komil inson g'oyasi azal-azaldan kuylanib kelingan va u xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan.

Xalq og'zaki ijodining til o'rganish borasidagi ahamiyati juda katta. Chunki biror xalqning tilini o'rganishdan oldin o'sha xalqning madaniyati, turmush tarzi, qadriyatlari haqida bilimga ega bo'lish kerak. Folklor namunalar esa bu jihatdan barcha talablarga javob beradi deb o'ylaymiz.

O'zbek folklori namunalarini yozib olish, nashr etish, tadqiq qilish, har tomonlama o'rganish, bunday ijod namunalarining o'tmishimiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish va anglab yetish barchamizning burchimizdir. Zero, folklor milliy madaniyatimizning asoslaridan biri hisoblanadi. Bunday madaniy merosni kelajak avlodga bus –butun, to'laligicha yetkazib berish sharafli ishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Mirzayev ,Sh.Turdimov .M.Jo'rayev va boshqalar . „O'zbek folklori''(darslik) Toshkent-2020

2. M.Haydarov . „Xalq og'zaki ijodi namunalarida tarbiya masalalari'',-T,:Fan,2004. 12-bet

3. Y.Meligaliyeva . „Xalq og'zaki ijodi namunalarida ta'lim –tarbiya masdalalari

4. F.Kalandarova . „Ta'lim –tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati

O‘ZBEK VA TURK ALLALARIDA IJTIMOIY HAYOT TA’SIRI OSTIDA VA XALQNING INONCH-E’TIQODLARI ZAMIRIDA YARATILGAN OBRAZLAR

IMAGES CREATED IN UZBEK AND TURKISH LULLABIES UNDER THE INFLUENCE OF SOCIAL LIFE AND BASED ON THE BELIEFS OF THE PEOPLE

Egamberdiyeva Shamsiya Mamajonovna
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
shamsiyaegamberdiyeva8@gmail.com

Annotatsiya: *Allalar, nafaqat onaning ichki his-tuyg‘ularini, balki uning ijtimoiy hayotga munosabatini ham aks ettiruvchi vositadir.Jamiyatdagi o‘zgarishlar, onaning jamiyatga, jamiyatning onaga munosabati onalar allalarida yaqqol bo‘rtib ko‘rinadi.Ona bu masalalarga o‘zini daxldor deb bilmasa-da, beshik qoshida bu mavzularni kuyga sola boshlaydi.Shuningdek, Xalqning inonch-e’tiqodlari ta’sirida yartilgan obrazlar ona leksikasidan alla matnlariga singiy boshlaydi.*

Kalit so‘zlar: *sovchi, pir, darvish, Mamo havo, farishta.*

Abstract: *Lullabies are a tool that reflects the inner feelings of the national mother, but also her attitude to social life. Changes in society, mother's attitude to society, and society's attitude to mother are seen well in mother's lullabies. Even though he does not know that it is relevant, he can put these topics to a tune at the crib. Also, the images torn by the influence of the people's beliefs are absorbed from the mother's lexicon into the texts of lullaby.*

Key words: *sovchi, pir, dervish, Mamo havo, angel.*

O‘zbek allalaridagi **sovchi** obrazi eridan erta beva qolgan ayolning nomusi, ori masalasini birinchi planga chiqaradi. O‘z kelajagini faqat farzandi taqdiri bilan uyqash ko‘rgan ona sovchilarga bergan rad javobini “Bellariga bosdim qamchi” satrlari bilan bildiradi. Sinekdoha orqali ifodalangan sovchining otining beliga urilgan qamchi –onaning g‘azabi ramzi ma’nosini ifodalaydi.

Qarshidan kelibdi sovchi, alla-yo alla
Bellariga bosdim qamchi, alla-yo alla
Alla dey-dey, hey deyman,
Shu o‘g‘limga to‘y deyman. [8,62]

“Sovchilik to‘grisidagi ilk ma’lumotlar 7-8 asrlarga oid O‘rxun-Enasoy bitiklarida uchraydi.Tunyuquq bitiktoshida “sov”, “sab” kalimasi so‘z, gap ma’nosida ishlatiladi. ”Irq bitigi”(Fol kitobi)da “sab”-so‘z, “sabchi”-habarchi,so‘z keltituvchi ma’nosida qo‘llangan”[1] deb ma’lumot beriladi O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida.Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida “Cawчi-kelin va kuyov orasida bir-biriga habar eltuvchi”[2] deb izohlangan. Odatda, sovchilar otda kelgan. O‘zbek folklorida sovchilar oq yoki qizil otda kelgani tasvirlanadi.Qora otda borish ish bitmasligiga sabab bo‘ladi degan qarashlar bo‘lgan.Sovchilar turmushga chiqmagan qiz xonadonida otasi yoki onasi tomonidan kutib olinsa, beva ayol xonodonida bevosita ayolning o‘zi bilan hamsuhbat bo‘ladi.Boshqa bir beva erkakdan habar yetkazgan sovchi onaning kuchli qarshiligiga uchraydi.Turmushga chiqmagan qizning xohishi ota-onasida bo‘lsa, beva ayol turmush achchiq-chuchugini totgan sifatida o‘z taqdirini o‘zi hal qiladi.

Pir obrazi- o‘zbek allalaridagi yetakchi obrazlardan biridir. Xalq og‘zaki ijodida eng og‘ir damlarida piridan najot topgan qahramonlar epizodlari ko‘p uchraydi.PIR-islom ta’siri ostida

[1] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. 7 жилд. ПАРЧИНСОЛИҚ. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 691 б.
[2] Қошғарий, Маҳмуд. Девону луғатит турк. Уч жилдлик. 3 жилд. /Таржимон С.Муталлибов. Нашрга тайёрловчилар А.Рустамов, Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Фан, 1963. – 169 b

yaratilgan obrazlardan biri bo‘lib, insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, unga Ollohni anglash yo‘lida tasavvuf sirlarini o‘rgatuvchi shaxsdir.

Chopog‘onlar yig‘dirib, alla
To‘yingda uloq choptiray, alla
Pirlarimni keltirib,alla
Peshonangga toptiray,alla.[8,61]

O‘zbek xalqi to‘y bermoq, uloq choptirmoqni orzu qilib yashaydi.O‘zbek xalq ertaklarida, dostonlarida uch kecha-yu-kunduz, yetti kecha-kunduz, hatto qirq kecha-kunduz to‘y bermoq lavhalari uchraydi.Alpomish dostonida ham Shohimardon pir aka-ukaning farzand ko‘rish munosabati bilan yozgan dasturxoniga qalandar darvish qiyofasida tashrif buyurganini ko‘rishimiz mumkin.Demak, pirlarning muridlari huzurlariga tashrifi, yangi tug’ilgan farzandni duo qilish udumi xalqimizning ming yillar muqaddam yaratilgan eposlarida ham namoyon bo‘lgan.

O‘zbek xalqining tarixiy-maishiy turmush tarzida Kundosh obrazi faol qo‘llaniladi. Kundoshlik masalasi har doim ziddiyatli masala bo‘lib, bu uyda huzur-halovat, osuda tunlar barham topishiga olib keladi.Kundoshining fitnasi bilan qaynonasidan yoki eridan gap eshitgan ayol nolalari alla satrlariga ko‘chadi.

Kundoshimning yo‘g‘ida, alla,
Qalayi edim kovushim, alla
Kundoshligi qurisin, alla
Balolarga qoldi boshim,alla [8,56]

Qalay-Mendelev davriy sistemasining IV guruhiga mansub kimyoviy element; bolg‘alanganda tez yassilanadigan,yumshoq,kumushsimon oq rangli metal.[Izohli lug’at:28] Demak, o‘tmishda ayollar qalayidan kovush kiyishi bor gap. Ayniqsa, uning taqillab ovoz chiqarishiga hamma ishqiboz bo‘lgan.Kundoshsiz uyda yashagan kelinning ovozi ham sho‘x, qalay kovushday taqillab chiqqan.Kundoshi kelgandan keyin esa, hayotida qorongulik, mahzunlik paydo bo‘ladi.Ma’lumki, tashvish hukm surgan joyda odamlar oyoq uchida harakatlana boshlashadi. Ya’ni oyoq kiyimlarining ovozi ham chiqmaydi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodida Kovush (oyoq kiyim) turmush o‘rtoq ramzini ham bajaradi. Kimda kim tushida kovushini yo‘qotib qo‘ysa, unga eri xiyonat qilayotgan bo‘ladi deb ta’bir qilinadi.

Lola- qalb ramzi. Ayolning lola kabi qalbi bugun so‘limoqni boshladi.Qalbni suvga solib so‘lishini oldini olsa bo‘larmidi? Kundoshi uyiga qadam bosgan kundan ayolning ko‘z yoshlari tinmadi.

Lola gullar bor, alla,
Suvlarga solsam solinmas, alla,
Kundoshlikning dardidan, alla,
Ko‘zlarda yoshim qurimas, alla. [8,56]

Dardlari dunyolarga sig‘magan ona o‘zi muqaddas deb bilgan, sig‘ingan, baxt olib kelishiga ishongan siymolardan madad so‘ray boshlaydi.O‘zi yetolmagan baxtni farzandiga ravo ko‘rib, unga g‘oyibdan omad kelishini tilaydi.

Tushlaringda Hizr ko‘rgin, alla,
Alla aytay,qo‘zim bolam,
Tinglasangchi-yo, alla,
Qulog‘ing solib asta
Uxlasangchi-yo, alla.[14,18]

Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva — islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizr Qur’onda tilga olinmagan, lekin ulamolar Qur’onda "Allohning quli" nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizr deb talqin qiladilar. Xalq orasida Xizrga odamlarda Allohga bo‘lgan e’tiqodni qo‘llab turish uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan, u hayot bulog‘idan "obi hayot" ichgan va umri boqiy bo‘lgan, o‘ng qo‘lining bosh barmog‘i suyaksiz bo‘lishi, nogahonda yo‘liqib, bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi kabi ogizdan ogizga o‘tib kelgan gaplar bor.Xizr orollarda yashaydi, osmonda uchadi, dunyo bo‘ylab kezib yuradi, har yili haj qiladi, juma kunlari Makka, Madina va Quddus shaharlaridagi masjidlarda namoz o‘qiydi. Dengizda suzuvchilarga homiylik qiladi,

maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga keladi: suvga cho‘kayotganlarni qutqaradi, yong‘inni o‘chiradi, o‘g‘rilar xurujidan, jinlarning xiylalaridan, ilon chaqishidan asraydi. Chol, suvoriy yoki yo‘lovchi ko‘rinishida paydo bo‘ladi, dehqon dalasiga yoki xirmonga nazar tashlasa, hosil barakali bo‘ladi maznunidagi rivoyatlar bor. So‘fiylar Xizrni avliyolar piri sifatida e’zozlaydi. [Tilakova 2021:913]Xizrga xos muhim sifatlardan yana biri uning homiyligi, qiynalgan, adashgan kishilarga yo`l ko`rsatishi, yordam berishidir. U yo`lda, dashtda, o`rmonda tunda ham, kunduzi ham kezib yuradi. Xizr go`yoki uyqudagi inson bilan ham muloqotga kirish xususiyatiga ega. U musulmon xalqlari tushunchalarida, asosan, nuroniy chol sifatida, Xizr bobo, Xo`ja Xizr, Hazrati Xizr nomlariga ega holda tasavvur etiladi. O`rta Osiyo xalqlari nazarida, Xizr nuroniy chol qiyofasida ko`rinadi, unga kim yo`liqsa, kim uni ko`rsa, baxtli bo`ladi. Ozarbayjon olimi M. Saidov Xizrni turkiy tilli xalqlarga taalluqli timsol deydi. Xizrni iliqlik, o`t, olov bilan bog`laydi. Uningcha, Xizr yo`lda qolgan, adashganlarga yordam beradi.

Huu huu Dervişler
Hak yoluna gitmişler
Hak yolunda bir pınar
Ne soğulur ne diner
Bunu içen dervişler
Murada ermişler [9,95]

Darvish obrazini bu kabi turk allalarida ko‘p uchratamiz.O‘zini Olloh yo‘liga bag’ishlagan, dunyo hoyu-havaslaridan voz kechgan, tarki dunyo qilgan kishi timsolini anglatuvchi darvishlar ko‘cha-ko‘yda , mahallalarda duolar, nashidalar o‘qib xalqqa pand-nasihat qilganlar.Darvish kiygan kiyimi-hirqaning ham o‘z ramziy ma’nosi bo‘lgan.”Dervişler söz konusu olduğunda, derviş nefsini öldürmüş, ölü bir bedeni sembolize etmektedir. Başındaki sikkesi (başlık) nefsin batışını ve ruhun doğuşunun temsili olarak bir mezar taşını sembolize eder. Sikkeler aynı zamanda dervişin yanan gönlü için birer baca vazifesi görür” [MENTEŞ, Melih Ümit 2011:42]

O‘zbek allalarida ayol o‘zining astronomik o‘tmishi hisoblanmish Mamo havodan namuna oladi va farzandini avlodi davomchisi sifatida e’tirof etadi.

Momo Havo merosim, alla,
Xushxulqligim, charosim, alla.
Yorginamdan yodgorim,alla,
Yigitlarning sardori,alla.[8,38]

Alla matniga ko‘ra ayol Mamo havodan meros bo‘lmish vazifasini bajardi, farzand ko‘rdi. Ammo yoridan ayrilib, uni yolg‘iz katta qilish mas’uliyati bilan qoldi. Farzandining ulg‘ayib, yigitlarga sardor bo‘larlik darajada kuchli, mard va teran tafakkurli qilib o‘stirishga ahd qildi.

Farishta obrazi insonni himoya qiluvchi, unga yaxshiliklar sog‘inuvchi, asrovchi motiv sifatida yuzaga chiqadi. Har bir millat allalarida bolani yomon ko‘zlardan asrovchi obraz sifatida farishta obrazi yaratiladi. U tunda bolaning yotog‘i ustida qanotlari bilan uchib yuradi, uni yomon tushlardan himoya qiladi.

Otang ketdi bozorga, alla
Onang qoldi bozordan, alla
Farishtalar boshingda,
Alla aytadi senga ,alla [14,23]

Bozor-ishqiy munosabatlar ramzi. Bozor obrazi vaziyat ramz bosqichidan o‘tib o‘zak ramzga aylangan.[Turdimov 2020:124] Hayotning eng qaynoq va gavjum joyi bozor ekan, odamzodning barcha ehtiyoji,orzu va armonlari bozor bilan chambarcha bog‘liq. Bozordan istaganingizni topishingiz, tomosha qilishingiz, sotib olishingiz mumkin. Shuningdek, bozor-dunyo ramzi bo‘lib ham ifodalanadi.O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov:

“Bozorga o‘xshaydi asli bu dunyo,
Bozorga o‘xshaydi bunda ham ma’ni.
Ikkisi ichra ham ko‘rmadim aslo,
Molim yomon degan biror kimsani”,

-der ekan, bozorning oldi-sotdi xususiyati va insonlarning bunda o‘z tashvishlari bilan andormon ekanligi, o‘z ehtiyojlari uchun nimadir izlash bilan ovora ekanligiga urg‘u beradi. Misralarda Ota-ona dunyo tashvishlari bilan bilan ovora bo‘lib turgan vaqtida bolani himoya qilish, unga alla aytish farishtalarga yuklanmoqda.

Hasretle, yanında
Her akşam melekler
Saf rüyalarında
Yatağında bekler [9,96]

Turk onasi har oqshom farzandini farishtalarga omonat qoldirar ekan, bolaning yotog‘i ustidagi malaklarning bolani kutishi va uni asrab-avaylashiga bolani ham, o‘zini ham ishontirmoqchi bo‘ladi.Bolaga go‘zal tushlar hadya qilgan farishtalar Yaratgan tomonidan yerga yuborilgan himoyachilardir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va turk onalari bolasini uxlatarkan, unga jamiyatni, atrof-muhitni, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni ham anglatishga urinadi.O‘zi muqaddas deb bilgan va inongan topinchlarini bolasiga singdiradi.Allaning tarbiyaviy-estetik mohiyati ham ana shunday munosabatlarda o‘zini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. 7 жилд. ПАРЧИНСОЛИҚ. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 691 б.
2. Қошғарий, Маҳмуд. Девону луғатит турк. Уч жилдлик. 3 жилд. /Таржимон С.Муталлибов. Нашрга тайёрловчилар А.Рустамов, Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Фан, 1963. – 169 b
3. Â m il Çelebioğlu, T ü rk Ninnileri Hazînesi, İstanbul 1982
4. Safarov O. O‘zbek bolalar folklori . – Toshkent – 2007. 17 – bet
5. Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Darslik. – T.: Musiqachi, 2010.
6. Turdimov Sh.Xalq qo‘shiqlarida ramz.-T:Fan,2020.B 134
7. Ninni Deyip geçme: Okusun da Öğrensin Ninni”, Buruciye Dergisi, Sivas Yaz 2008, S.2, s. 43-47.
8. Eng sara allalar. Nashrga tayyorlovchi Tilovov.A.–Toshkent.: Adabiyot uchqunlari, 2017
9. www.okumay ISEV.com.TÜRK NİNNİLERİNDEN SEÇMELER.isev.org.tr
10. Egamberdiyeva Sh.E. O‘zbek va turk allalarida ota obrazining qiyosiy talqinlari.//Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 561-564.
11. Egamberdiyeva Sh.E. Umumturkiy tillar allalarida alliteratsiya va assonans. //TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 32. – №. 2. – C. 46-50. http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2184
12. MENTEŞ, Melih Ümit (2011), Sema Ayini Semboller ve Anlamları, Cinus Yayınları, İstanbul. 42-47
13. Tilakova N. Folklor va mumtoz asarlarda Xizr obrazining talqini. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. SJIF 2021: 5.423. B-913
14. Munavvar mujda.Namangan-2014.To‘plovchi:Vahobova Shohista

O’ZBEK VA XITOY XALQ ERTAKLARIDA AYOL OBRAZI

IMAGE OF A WOMAN IN UZBEK AND CHINESE FOLK TALES

Nurmatova Shahnoza Akbarovna
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
tayanch doktoranti
Shaganehanim@mail.ru

Abstract. *The fairy tale genre, which is a component of Uzbek and Chinese folklore, is a companion of man since childhood. The fairy tale epic genre is distinguished by its own characteristics, size, emotionality, creativity and performance. The main idea of the tale is definitely conveyed to the reader and listener with the help of the images in it. Therefore, it is an important issue to study the characters in it, the place of their art in the fairy tale. In this article, we will talk about female heroes who are one of the main characters in Uzbek and Chinese folk tales. The role of women and girls in fairy tales, their role, character, different and similar aspects are shown on the example of two folk tales.*

Key words: *folklore, woman, wise, intelligent, fairy tale, Chinese, business person.*

Xalq og‘zaki ijodida hayolot va tafakkur, orzu umidlar shu bilan birgalikda reallik ham o‘z ifodasini topib, birgalikda hamohang ma'no kasb etib, qorishib ketadi. Ayollarga xos eng yaxshi fazilatlar va xislatlar, ularning donoligi va tadbirliligi, sehri kuchga ega ekanligi, makru hiylasi, nafosati, go‘zalligi ikki xalq ertaklarida o‘z ifodasini topgan. Aynan ertaklardagi ayol obrazi yordamida xalqning ayol haqidagi orzu umidlari, ideali, tasavvuri haqida ma'lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Ikki xalq ertaklarida ham ayollar obrazi maishiy hayotda tutgan o‘rni, o‘zini tutishi, hatti-harakati bilan tasvirlanadi.

Xitoy va O‘zbek ertaklarida ayol obrazi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy xalq og‘zaki ijodida ayniqsa sehrli xotinlar ko‘p uchraydi. Sehrli xotinlar tulki hayvonida o‘z aksini topgan. Xitoy folklorida tulki uzoq umr va epchillikni anglatadi. Odatda bu yosh qiz erkaklarni yo‘ldan ozdiradi, ularni haqiqiy yo‘ldan chalg‘itadi ("Bokira tulki").[1] Qadimgi Xitoyda xudolar tomonidan jazo sifatida tulkiga aylantirilgan buzuq ayol haqida afsona bor. Bu afsona ko‘pgina xitoy ertaklarida o‘z aksini topgan. Xitoy ertaklaridagi tulki ikki qarama-qarshi obraz – ideal xotin va xavfli iblis obrazini o‘zida mujassam etadi.

O‘zbek xalq ertaklarida ham asosiy qahramonlar, yoki bosh qahramon qizi, yoki dono xotini, aqlli qiz obrazlari ham ko‘p uchraydi. Masalan: “Dono yigit va uning qaylig‘i”[2] ertagida bir dono yigit aqlli xotini bo‘lishini istaydi, va shu istagi yo‘lida uni izlaydi. Murodiga etib o‘ziga o‘hshagan dono aqlli qizni uchratadi. Ikkisi ham o‘zlarining aqliyu fahmu farosati bilan bir biriga va baxtga yetishadi.

O‘zbek xalq ertaklarida ayolning donoligi, aqlliligi o‘zgacha ulug‘lanadi va qadrlanadi. Kerak bo‘lsa butun bir elu xalqning taqdiri qahramon qizning, xotinning donoligi bilan hal bo‘ladi. Huddi shunday obrazni o‘zida aks ettirgan ertaklardan “Ahmoq podshoning dono xotini” , “Dono xotin” , “Dono qiz” ertaklaridir.[3] Ushbu ertaklardagi xotin, qizlar o‘z aqliyu fahm farosati bilan butun bir elni xavfu xatardan qutqarib qoladi. O‘zi esa dono aqli tufayli tinch totuvlik, o‘zi istagan baxtu saodat va farovon turmush soxibasiga aylanadi. O‘zbek xalq ertaklari orasida dono, aqlli, ishbilarmon, fahm farosatli, gapdon qizlarga bag‘ishlangan ertaklar biroz yumorga boy dialoglarga to‘la bo‘ladi. Masalan: “Yamoqchining qizi va podshovachcha” ertagida otasi vafotidan so‘ng

[1] Китайские народные сказки / Пер. с кит., предисл., прим. Б. Рифтина. - М., 1972. - С. 43 -44
[2] Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 258 б.
[3] Ўзбек халқ эртаклари. Икки жилдлик / Тузувчилар: М.Афзалов, Ҳ.Расулов, З.Ҳусаинова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996. II жилд. – 320 б.

podsho bo‘lgan yosh yigit elak elaganda keti qimirlamaydigan qiz qidiradi. Qiz ham uning talabiga javoban:

— Mening ham, unday ahmoq podshovachchaga tega qolay, deb ko‘zim uchayotgani yo‘q, — debdi. Kampir:

— Hay, podshovachchaga tegmasang, qanday odamga tegasan? — debdi. Qiz unga:

— Men, ovqat eganda mo‘ylovi qimirlamaydigan yigitga tegaman, — debdi.

Kampir, qizdan bu javobni eshitib podshovachchaga xabar qilibdi.

Podshovachcha bu xabarni eshitib juda xursand bo‘libdi:

— Men ana shunday, mening gaplarimga javob topib beradigan esliroq qiz istagan edim. Mening istagim ana shu qiz ekan, — debdi.[1]

Bunday o‘quvchida yengil kulgu uyg‘otadigan dono qizning javoblari ertak davomida yana davom etaveradi. Bu esa o‘quvchida ko‘proq qiziqish uyg‘otishga sabab bo‘ladi.

Ertakdagi dono, aqlli qizlar shunchalar hozirjavobki ularning qiyin masalalarni mahorat, oddiylik va epchillik bilan echishlari kishida hayrat uyg‘otadi. “Kanizak bilan podsho” ertagida butun saroy ahlining boshiga tushgan savdoda aqlli kanizakning podshoga dono javobi kulfatdan, echimsizlikdan ularning xolos bo‘lishiga yordam beradi. Podshoning sevgan ayoli o‘limining ma'lum qilinishi butun saroy ahliga qiyinchilik tug‘diradi. Chunki uning o‘limi haqida xabar bergan mulozim shu ondayoq boshidan judo etilishi muqarrar. Bundan tashqari Sarvigul ismining aytilishi taqiqlangan saroyda, ushbu ismni quyidagicha talqin qiladi:

-Sarvigulning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?

Podsho bu misrani eshitgach, g‘am ostida qolib javob beribdi:

-Bargidan tobut yasab, guldin kafan etmoq kerak.

Javobdan hayratlangan podshoh esa aql farosatda tengi yo‘q kanizakni o‘zining yarim molu davlati bilan siylaydi:

— Bu ishing uchun senga davlatimning yarmini berdim, — debdi.

— Marhamatlari uchun tashakkur, — debdi qiz, — men ham o‘z davlatimning yarmiga sizni sherik qildim, bo‘lmasa.

Podshoning jahli chiqibdi.

— Sen kimning qarshisida turg‘aningni unutma! Men mamlakat shohiman, davlatning barchasi menda! Sen qul qizda davlat nima qilsin, ey beaql maxluq!..

— Afv etsinlar, podshohi olam, — debdi qiz, — davlatingizning hammasini bersangiz ham uni o‘z aql-idrokimning yarmiga teng ko‘rmayman!

Kanizakning bu javobidan podsho indayolmay, mot bo‘lib yerga qarabdi.[2]

Aqlli, dono, fahm farosatli, qo‘lidan ish keladigan, bir tadbirni aql bilan hal qiladigan qizlar, o‘zlarining harakatlari va jumboqlarni echishi bilan baxtga erishadi, yomonlardan nafaqat o‘zini balki yaqinlarini ham xalos etadi. “To‘lg‘onoy” ertagining bosh qahramoni tadbirli qiz To‘lg‘onoy o‘zining dono hatti harakatlari bilan yorining mushkulini oson qilib u bilan birga baxtli bo‘ladi.

Xitoy xalq ertaklarida go‘zal, nafosatli, oqila ayollar gul nomlari bilan ataladi. Qiz gul shaklini olmasligi mumkin, lekin uning ismi gul bilan aniqlanadi. An'anaviy gul qahramonlari - pion ("Ko‘zgudagi xotinlar"), lotuslar ("Mimoza"), nilufar ("Qizil nilufar"), xrizantema ("Xrizantema")[3] kabi ertaklaridagi gul nomlari bilan atalgan ayollar aqlli va donodir. Xitoy madaniyatidagi har bir gul alohida ma'noga ega. Pion an'anaviy ravishda olijanob xarakter, zodagonlik va boylikni ifodalovchi "gullar qiroli" hisoblanadi. Nilufar gullari muammolarni unutishga va qayg‘uni bartaraf etishga yordam beradi, deb ishoniladi. Lotus gulbarglari hayotning ilohiy manbasini ifodalaydi. Bu tasvirlarning barchasi tabiatning go‘zalligini va sehrli xotinlar egalik qiladigan boylikni ifodalaydi. Xitoy ertaklarida ko‘p hollarda gul nomi ila atalgan xotinlar sehrlangan bo‘ladi. ("Mimoza", "Qizil nilufar", "Oynadagi xotinlar" kabi ertaklarda)[4] Har ikki

[1] Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 258 б.

[2] Шарқ эртаклари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 256 б.

[3] Сяо Сюй. Лучший сборник китайских сказок. М. : Китайское детское издательство, 1999.

[4] 段宝林:《狼外婆故事的比较研究初探》,《民间文学论坛》, 1982 年, 创刊号。

madaniyatda ham parilar, sehrli xotinlar tabiat bilan chambarchas bog‘langan, faqat xitoy ertaklarida ayol va o‘simliklar o‘rtasidagi bog‘liqlik yanada aniqroq ta'kidlangan. Ertaklardagi pari yoki sexrli xotin bitta doimiy ko‘rinishga ega. Uning g‘ayrioddiyligi, asosan, sehrli atributlarda, uni o‘rab turgan yordamchilarda va u bir qismi bo‘lgan dunyoda yotadi. Kuyov ba'zan o‘zi bilmagan holda bo‘lajak xotinini chaqiradi. “Samoviy nog‘ora” [1]ertagida yigitning nayda chalishiga javob qaytargan pari xotin samoviy paridir. Qadimgi Xitoy tushunchalariga ko‘ra, nay chalish va ajoyib tovushlardan bahramand bo‘lishni xohlagan, osmondagi pari, qush Feniks deb ataladi. Feniks qushi o‘zining boqiyligi bilan mashhur va osmon parisi boshqa dunyo vakili sifatida ham bu xususiyatga ega. Shunisi qiziqki, bu ertakda ko‘plab belgilar boqiylikni anglatadi. Bu nayning ramziyligi bilan birgalikda pari feniks bilan aniqlangan deb taxmin qilishimizga imkon beradi.

Biz belgilagan sehrli xotinlarning turlarini narigi dunyoga mansublik, go‘zal ko‘rinish va donolik, tabiat bilan uyg‘unlik kabi umumiy xususiyatlar birlashtiradi. Shunday qilib, ertaklarda totemik, orzu qilingan ayol haqidagi xalq g‘oyalari saqlanib qoladi. Xitoy ertaklarida ayolga asosan sehrli ilohiy kuch sifatida qarash ustunlik qiladi. O‘zbek ertaklarida esa undagi donolik, aqllilik, tadbirlilik va hozirjavoblik ko‘proq ulug‘lanadi. Xitoy xalq ertaklarida sehrli xotinlar ma'lum bir rang sxemasiga mos keladi. Xitoyda u yashil (kuch rangi), qizil (imperatorlik va to‘y rangi) va oq (soflik, poklik, mangulik rangi) kabilarda o‘z akasini topadi. Ikkinchisi bir nechta xususiyatlarni birlashtiradi. Birinchidan, bu rang yuqori ijtimoiy mavqega ega ekanlikni ko‘rsatadi. Ikkinchidan, xitoy g‘oyalariga ko‘ra, bu "xiyonatkor, ayyor odam" degan ma'noni anglatadi. Ba'zi joylarda rangning boshqa dunyoga tegishli ekanligi ham ta'kidlanadi. Sexrli, pari xotinlarining oppoq yuzida doimo qizarish bor. Bu bir tomondan yoshlikni bildirsa, ikkinchi tomondan muqaddas semantikaga ega. Ranglar asosiy nuqtalarga mos keladi: oq - g‘arbiy, qizil - janub. Ularning kombinasiyalari pushtini (janubiy-g‘arbiy) hosil qiladi, buni biz sehrli xotinlarning yonoqlarida topamiz. Qahramonlar janubi-g‘arbiy qismida o‘zlarining bo‘lajak xotinlarini uchratishadi va ularga uylanishadi, bu "O‘zgarishlar kitobi" ga ko‘ra, mehribon odam bilan uchrashishni anglatadi (“Ko‘zgudagi xotinlar”, “Tulki ayol”). O‘zbek madaniyatida oltin va qizil rang boshqa dunyo bilan bog‘liq bo‘lib, u ham qirollik rangidir. Biroq, o‘zbek ertaklarida, biz qizning yorqinligi ta'rifini topishimiz mumkin bo‘lsa-da, xotinning suratida rangning batafsil tavsifini kuzatmaymiz. Xitoy xalq an'analarida ayol xarakteriga alohida ikki tomonlama qarash rivojlanganligini ta'kidlash mumkin. Bir tomondan, u boshqa dunyoga mansub mavjudot sifatida tartibni anglatuvchi "yan" nuridan kuch olib, tartibsizlik ramzi bo‘lgan qorong‘u "in" ni ifodalaydi. Ammo boshqa tomondan, u ham hayotni qo‘llab-quvvatlaydi, qahramonni ilhomlantiradi va unga ko‘maklashadi. Xotin boshqa dunyoga tegishli bo‘lgani uchun ham tartibsizlikning tashuvchisi, ammo asosiy e'tibor tanlangan dunyoda tartibni yaratishga qaratilgan.

Ertaklardagi sehrli xotinlarning maishiy hayotdagi ayollar bilan o‘xshashligi va yaqinligini erning ota-onasi ya'ni qaynona qaynotasiga nisbatan hurmat va e'zozda ham kuzatish mumkin. Qadimgi Xitoy oilasi qonunlariga ko‘ra, ayol oilaga kirib, turmush o‘rtog‘ining ota-onasiga g‘amxo‘rlik qilish va hurmat qilish mas'uliyatini o‘z zimmasiga oladi. Bu hurmat, e'tibor hatto er ularga ko‘rsatoyotgan mehrdan ham kuchliroq bo‘lishi talab etiladi. O‘zbek madaniyatida ham huddi shunday qarash hukmron. Ushbu motivni “Chantin va uning makkor otasi” ertagida uchratamiz.

Xitoy va o‘zbek ertaklarida sehrli xotinning ko‘rinishi odamlarning dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq. Madaniyatlarni kuzatish va qiyoslashda shunga amin bo‘lish mumkinki o‘zbek va xitoy an'analarida ayol haqidagi qarashlar va nuqtai nazari juda o‘xshash. Ikki xalq og‘zaki ijodida ayol har doim dono maslahatchi, yaxshi uy bekasi va yoriga vafodor va yordamchi. Ko‘pincha sehrli kuchga ega xotinlar xalq orzusida, tafakkurida ayol kishi shunday ishlar bilan shug‘ullanishni, undan manfaat ko‘rishni biladigan o‘ziga xos vositachi vazifasini bajaradi.

Qadimgi o‘zbek ertaklaridagi g‘aroyib qiz timsoli asosan pari, yalmog‘iz kabi obrazlarda aks etadi. Bu obrazlar insonlardan tashqari g‘ayb olami vakillari: chiltonlar, devlar kabi obrazlar

[1] 《中国民间故事选》第一册．作家出版社．1961 年版。

bilan ham munosabatga kirishadi. Pari o‘zbeklar orasida keng tarqalgan mifologik obraz bo‘lib, u qadimgi elimiz orasida alvasti, mortuv deb atalgan. Jin, ajina, shayton obrazlari arab folklori ta'sirida, pari, dev, ajdar esa Avesto asari ta'sirida o‘zbek folkloridan o‘rin olgan. «Tasavvurlarga ko‘ra parilar jin qavmiga mansub bo‘lgani uchun o‘tdan yaralgan deb hisoblangan. Parilar asosan uch xil ko‘rinishda tasvirlanadi:

1. Odam qiyofasida;
2. Jonivor yoki maxluq qiyofasida;
3. Narsa - hodisalar qiyofasida.

Odam qiyofasida tasvirlangan parilar odatda nihoyatda suluv, kelishgan qizlar timsolida namoyon bo‘ladi. Afsonalarda tasvirlangan parilarning ko‘pchiligi suv havzalarida, odam yashamaydigan tashlandiq joylarda, dasht yoki changalzorlarda yashashadi. O‘tkinchi yigitlarni o‘zlariga jalb qilishlari, yo‘ldan urishlari, avrashlari kabi jihatlari bilan ajralib turishadi. O‘zbek folklorida parilar qahramon uchun atalgan bo‘lib, ularning o‘zlari bu haqda bilishadi. Masalan: Go‘ro‘g‘li ularga yetishadi. Biroq, farzand ko‘rmaydi. Chunki mifologik tushunchalarga ko‘ra inson loydan yaralgan, pari o‘tdan. Dunyodagi ko‘pgina xalqlar ertaklarida g‘aroyib qiz bilan bog‘liq qadimgi syujet qahramonning sehrlangan (uyquga ketgan) malikani qutqarish evaziga Xitoy ertaklaridagi singari tabiat ustidan qandaydir magik hukmronlikka emas, balki uylanish va otasi qirolning yarim davlatiga ega bo‘lish huquqini qo‘lga kiritish evolyusiyasini boshidan kechirgan. Xitoy ertaklarida xon saroyi ta'rif va tafsilotlariga ahamiyat berilmaydi, koshona hayot maqtalmaydi, yigit o‘z sevgani bilan hashamatli qasrlarda emas, balki oddiy dehqonlar kulbasida yashaydi. Xitoy ertaklarida kuyovni qaynota saroyida sinovchi turlari ham bor. Jumladan “Osmon nog‘orasi” nomli ertakda yigit osmon parisiga uylanadi, biroq bu nikoh tezda bekor qilinadi, Chunki ota hurni osmonga olib chiqib, ko‘kda tutqin qiladi. Xotinini qaytarib olish uchun yigit qaynota huzurida uzundan uzoq nikoh sinovlaridan o‘tishi kerak. Chunki to‘ygacha kuyov bu shartlarni bajarmagan va nikoh marosimi shartlarini buzgan. Faqatgina qaynota sinovidan o‘tgan kuyovgina yana osmondagi tutqin xotinini qaytarib olishi mumkin bo‘lgan. Xitoy xalq ertaklarida ko‘p hollarda dunyo tomonlari haqida so‘z boradi. “Ko‘zgudagi xotinlar” ertagida osmondan tushgan qariya yigitlarga atalgan kelinlarni ko‘rishlari uchun oynalarini janubiy-g‘arb tomonga burishlarini buyuradi; “Xotin-tulki” ertagida tulki-qiz yori bilan vidolashib, uni qizni izlab topish uchun janubiy-g‘arb tomonga borishni uqtiradi. Qadimgi folchilar 70 qo‘llanmasi “Evrilishlar kitobi”da “Janubiy-g‘arb barakali tomon, u erda mehribon odam bilan uchrashasan” deyiladi. G‘arb tomon Xitoy folklorida alohida o‘rin tutadi. G‘arbning yana bir ma'nosi marhumlar saltanati joylashgan joy sifatida tushuniladi. “G‘arbga qaytish” xitoychasiga “o‘lmoq” ma'nosini ham anglatgan. Xitoy ertaklaridagi o‘zga olamda vaqt birliklari va davr kechishi ham o‘zgachadir. Buni ertak aytuvchilar ham alohida qayd qilishadi. Xitoy ertaklaridagi voqealar allaqanday Susambil, Bog‘i Eram, Ko‘hi Qofda emas, balki ertakchiga yaqin va tanish joylarda sodir bo‘ladi. Masalan, ertakchi folkloristlar Dun Szyun Lun va Szyan Yuan xitoy ertaklarini Shandun viloyatidagi Ishan qurg‘onida yozib olishgan. Ertak qahramonlari bilan turli g‘aroyib voqealar ham shu yerdagi Ishan tog‘larida sodir bo‘ladi. Bu holat arab yoki xitoylarga qo‘shni bo‘lgan hind ertaklari xarakteriga mos kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 258 б.
2. Китайские народные сказки [Текст] / пер. с кит. Б. Рифтина. - М. :Гослитиздат, 1959. - 231 с.
3. Хитой халқ эртаклари. Тошкент. 1954. -63 б.
4. Ўзбек халқ эртаклари. Икки жилдлик / Тузувчилар: М.Афзалов, Ҳ.Расулов, З.Ҳусаинова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. I жилд. – 256 б.
5. Хитой ва корейс халқ эртаклари. Тошкент. 1956. 9-13 б.
6. 中国民间故事选》第一册，作家出版社，1961 年版。
7. Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. – 155 б.

8. Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1981. – 288 б.

SHOMUROD SHOIR IJODIDA AN’ANAVIYLIK

TRADITIONALITY IN THE CREATION OF SHAMUROD POET

Egamqulov Kamoliddin Samad o‘g‘li
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Abstract. *South Uzbekistan's epic schools have a special place in the art of performance, and it has remarkable features such as characteristic melodiousness, fun way of telling, and epics in the repertoire that are not found in other epic schools. This article talks about the unique appearance of traditionalism in the work of Shamurod bakhshi.*

Key words: *tradition, bakhshi, epic, repertoire, intrigue, drum tune, terma.*

An’ana deganda, o‘tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o‘tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy qadriyat tushiniladi. An’ana milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va adabiy an’analar bo‘lishi mumkin. An’analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli an’analarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me’yorlari, urf-odat, marosim va boshqa an’ana sifatida namoyon bo‘ladi. An’analar yoshlarni tarbiyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o‘rgatish vositasi hamdir. Har bir davrning o‘z an’analari bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, mazmunan boyib boradi.

Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri an’anaviylik hisoblanadi. An’anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining og‘izdan og‘izga o‘tish jarayonida nisbatan barqarorligini anglatib qolmay, balki o‘sha asarning avloddan avlodga o‘tish jarayonida dastlabki ijrosiga xos xususiyatlarni, ijro va shaklini, tasviriy ifoda vositalarini va qahramonlarini nisbatan o‘zgarmagan holda saqlab qolganligini ham anglatadi.

An’anaviylik o‘zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Chunonchi, folklorning ilk namunalari qadimda yaratilgan, ularda o‘sha zamon kishilarining nisbatan qaror topgan urf-odatlari va hayotga oid qarashlari aks etgan. Bu hol folklor asarlari shakli, obrazlari va motivlari muayyan barqarorlik kasb etishini ta’minlaydi. Xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy zavqi, didi bor. Folklor hamisha shu xalqona estetik qonuniyatlarga amal qilib yashaydi.

O‘zbekiston xalq baxshisi Shomurod shoirning ijodida, kuylagan terma va dostonlarida ham xalq og‘zaki ijodiga xos an’anaviylikni ko‘pgina misollar bilan ko‘rishimiz mimkin.

An’ana jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birga, folklor asarlarini jamoaviy holda saqlab qolishning ham o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Shomurod shoirning ota-bobolari kuylagan terma va dostonlari avloddan avlodga, og‘izdan og‘zga o‘tib bizgacha yetib kelganligi, yashayotganligi, kuylash uslubi ham an’anaviyligidir. Ularda xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, orzu-istaklari nomoyon bo‘ladi. Bu an’ana davom etmaganida Go‘ro‘g‘li turkum dostonlar ichida “Ovsar dev bilan Gupsar dev” kabi doston ham bor ekanligini bilmagan bo‘lardik. Shomurod shoir kuylagan “Ovsar dev bilan Gupsar dev”, “Nurali”, “Sheralining otasini izlab Hindistonga borishi”, “Avazxon”, “Alpomish” kabi dostonlarida, “Biyigul”, “Fabrikaning yo‘lida”, “Mustaqillik”, “Qashqadaryo”, “Oypari” va boshqa kuylagan termalarida Chiroqchi dostonchilik maktabi va shu maktab vakillariga xos an’ana va xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Eng avvalo Shomurod shoir ijodida Chiroqchi dostonchilik maktabiga xos bo‘lgan an’ana – Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarning boshqa dostonchilik maktablarida kuylanmaydigan variatlarini ko‘rishimiz mumkin. Barcha Go‘ro‘g‘li turkum dostonlari kabi Shomurod shoir kuylagan variantlarda ham voqealar asosiy qahramonlar Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Yunus bilan Misqol

parilar, Soqibulbul, Ahmad sardor, merganlar, qirq yigit, qirq kanizlar va boshqa qahramonlar bilan kechadi.

Xalq og‘zaki ijodi janrlarida (doston, afsona, ertak…v.h.) mifologik obrazlarning ishtirok etib borishi ham an’anaviylikning bir ko‘rinishi hisoblanadi. “Ovsar dev bilan Gupsar dev” dostonida voqealar boshidan oxirigacha devlar bilan kechadi. Yoki bu dostonda ***pari, rudapo, jodigar, pir, qirq chilton, Xizr*** kabi obrazlarni ham uchratamiz:

“Shunda ko‘ring Avazday martti, tervatib karkan dovlatti. Qilichni sug‘irib tartti. Luxmanan qamishti o‘rib, ekovini arqon qilib, arqonga ulab, dayraga tayladi. Ana bu yana yetmadi. Buni ko‘ring uyrtmakdan Avaz bilan Ahmad sardorni suv yana olib ketti. Shunda ko‘ring asta -asta otti yoqalatib, arqonni sudrab, Avazxon otga qamchini urib borayotuvdi, oldidan bir yuz to‘qsonga kirgan bir ***ro‘dapa*** momo Avazxonni oldidan o‘rab, Avazxonga qarab bir so‘z aytib turgan joyiyakan… Moma oldini o‘rab, Avazxondan so‘rab:

– Ey bolam boshimda ro‘molim bo‘lsin o‘dag‘a. Sendan bolam men bo‘lay sadag‘a. Tanimadinga momangdi, – dedi”.[ALPOMISH MEDIA. Ovsar dev bilan Gupsar dev. Shomurod baxshi Tog‘ayev]

Dostonda qahramonlar hamisha pirlardan ko‘mak so‘rab boradi. Mifologik obrazlarni baxshi kuylagan boshqa doston va termalarda ham uchratamiz:

Osmonning bari to‘la ***farishta,***
Farishtalar yer yuziga kelayimish har ishda.
O‘zbekiston eliniya,
Islom Karimiba qildi sarishta.
Pirlar *qo‘llasina har ishda ye-e-ey*
Olla-yee Robbim-ayyee…[You tube. Favvora Film. Shomurod shoir Tog‘ayev. 2016.]

Shomurod shoir kuylagan dostonlarda an’anaviy hisoblangan tush, safar, to‘siq kabi sinov motivlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Ko‘pchilik dostonlarda kelgani kabi, “Nurali” dostonida ham Nurali Xiromon parini tushida ko‘rib oshiq bo‘ladi va izlab yo‘lga chiqadi:

– Ey Go‘ro‘g‘li bobo, bir oviz sunnatim so‘zim bor, aylanay bobojon sizga aytadigan so‘zimdi qarzi bor. Oqshom jotib erta bilan turayin, kecha ko‘rgan men tushim erta bilan jo‘rayin. Bobojon G‘irotti sizdan tilayin. Tang sahar bir tush ko‘rdim, tushimdi ichida ajayib ish ko‘rdim. Shu tushimdi bovojon o‘zinga xush ko‘rdim. Bir Xiromon degan pari meni tushimga kirdi. Shu parini suyub qoldim. Bering menga G‘irotti, jonim bobojon. Tarting karkan otti. Jilovdan bosing karkan jilov, Xudo menga beripti himmatti. Bir pari bugun tushumga kirib, bir piyala maydi menga uzatti. Yarim piyala men ichdim maydi, yarmi unda qoldi. Jon bobojon, bering G‘irotti. Menday nebarangiz bugun sizga nara tortib kelipti.

Mana dunyo olma ekan nor akan,
Zimistonda cho‘kib yotgan qor akan.
Jon bobojon men tushimdi bugun-erta jo‘radim,
G‘irotingdi bergin deya so‘radim.
Xuromona kiriptiya tushumga,
Menday Nuraliya unga intizor ekanee…
Hoy hey-ayeee
Robbima heee
Ollayyeee… [ALPOMISH MEDIA. Nurali dostoni. Shomurod baxshi Tog‘ayev]

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida safar motivi yetakchi o‘rinlarda keladi. Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarni Shomurod shoir variantlarida ham doston safar motivi bilan boshlanadi.

“Ovsar dev bilan Gupsar dev” dostonida Avazxon Masqa parini, “Nurali” dostonida Nurali Xiromon parini izlab yo‘lga chiqadi, “Sheralining otasini izlab Hindistonga borishi” dostonida Sherali lo‘lilar bilan ketib qolgan ota-enasi, Nurali akasini izlab yo‘lga chiqadi:

Ana ko‘ring Sherali martti, tervatib karkan davlatti. Pushtanman ayildi tortti. Otasi mingan Qizil jarda qirchiltan bergan qizil egardi Manjimko‘k otti beliga Rabbima Ovla deb bosdi. Rabbim Ovla deb jo‘nadi, Hindiston degan mamlakat-yurtga… [ALPOMISH MEDIA. Nurali dostoni. Shomurod baxshi Tog‘ayev]

“Ovsar dev bilan Gupsar dev” dostonida qahramonlarning to‘siqqa duch kelishini ko‘ramiz. Dostonda Go‘ro‘g‘li ***devlar*** qo‘liga asr tushib qolishini, Avazxonning ***tilsim*** orqali devlarni yengib otasini qutqarib kelishini ko‘ramiz. Yoki, “Nurali” dostonida ham Nurali ***daryo***, ***tog‘***, ***g‘or*** obrazlariga duch keladi, g‘orda dostonlarda an’anaviy shaklda keladigan ***Qizil dev***, ***Qora dev***, ***Oq devlarga*** duch keladi. Bu misollar ham baxshining qanchalik mahoratli ekanligini va an’anaviylikni saqlab qolganligini ko‘ramiz.

Chiroqchi baxshichiligida xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar, an’analar yaxshi saqlanib qolgan. Biz buni Shomurod shoir ijodida keladigan ramziy obrazlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Bilamizki, xalq og‘zaki ijodidagi ramzlar yozma adabiyotdagi ramzlardan farq qiladi. Yozma adabiyotda ramzlar asosan vaziyatga qarab keladi. Folklorda esa, malum qoidalarga amal qilgan holda (o‘zak ramzlar) ma’no anglatib keladi.

Masalan, xabarchi qushlar: ***g‘oz, qaldirg‘och*** – yaxshi xabar, ***o‘rdak,zog‘***, ***qarg‘a*** – yomon xabar ramzi;

Ranglar: ***oq*** – yigit, ***qizil*** – qiz, ***sariq*** – ayriliq;

Buyumlar: ***oyna*** – ezgu niyat, ***ro‘mol, ayollar taqinchoqlari*** – oila ramzi;

Mevalar: ***olma*** – muhabbat, oila, farzand, ***anor*** – ayol ***shaftoli*** – xiyonat ramzi;

Joylar: ***bozor*** – ishqiy munosabat, ***daryo*** – chegara, ***bog‘, imorat, tom*** kabilar – oila ramzi bo‘lib keladi.[Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. Фан, Тошкент, 2020.] Bulardan tashqari, xalq qo‘shiqlarida, dostonlarda, afsona va ertaklarda ko‘plab ramziy obrazlarga duch kelamiz. Biz bu ramzlarni bilmasak xalq og‘zaki ijodiga xos asarlarni mazmun-mohiyatini anglay olmaymiz.

Shomurod shoirning terma-dostonlarida ham ko‘plab ramziy obrazlarga duch kelamiz:

Jigit o‘lgir Mekkam chol
Letibamni *sindirding*
Otam olib beruvdi
Letibamni sindirding [ALPOMISH MEDIA. Boysun bahori. Shomurod shoir Tog‘ayev. 2002.]

“Biyigul” termasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, terma turmush o‘rtog‘idan ayrilayotgan, surgundan qaytib kelishiga ko‘zi yetmagan, beva qolishiga ishonib qolgan ayol oh-u zori bilan boshlanadi. Tog‘ay shoirni Mekkamboy birinchi marta surgun qildirganda qochib keladi va ikkinchi marta oilasi bilan surgun qiladi. Bu termani Shomurod shoir onasi va opa-singillari tilidan kuylaydi.

Termaning ikkinchi misrasida kelgan ***letiba*** aynan ramziy obraz bo‘lib kelgan. Letiba – ayollar turmushga chiqqandan keyin burniga taqiladigan xalqasimon taqinchoq. Ayollarning turmushga chiqqanlik belgisi hisoblangan. Bu termada *letiba* aynan oila, turmush ramzi bo‘lib kelgan. ***Letibamni sindirding*** – oilamni, ro‘zg‘orimni buzding, bolalarimni yetim qoldirding, tinchligimni yo‘qotding deb “Mekkam” chol degan obrazdan zorlanadi. “*Yigit o‘lgir, uying kuysin, Xudoy urgir, ko‘klamagir”,* – deb qarg‘aydi. ***Biyigulman Ravzangul*** – gullarning onasi edim, jannatning guli edim deya zorlanadi.

Keyingi bandi otasiz qolgan go‘daklar tilidan yangraydi:

Mulla to‘rg‘ay tong sahardan sayraydi.
Mulla to‘rg‘ay tong sahardan sayraydi.
Enajon, voh ena, ena-hay,
Nega mening otajonim kelmaydi?
Ena qurg‘ur sochin jayib jilaydi.
Jilama, enajon, jilama,
Jilag‘aning dushmanlaring bilama?
Yolg‘on aytmay rostin aytgin enajon,
Otajonim Sibirlardan kelama?

Xalq og‘zaki ijodida ramzlar so‘z, so‘z birikmasi, gap shaklida keladi. Bandning birinchi misrasi gap shaklidagi ramz bo‘lib keladi.

Eng avvalo, ***Mulla to‘rg‘ay*** obraziga e’tibor qaratamiz. Mulla to‘rg‘ay chumchuqsimon qush bo‘lib, xalq og‘zida u haqda ko‘plab afsona va qo‘shiqlar bor:

Mulla to‘rg‘ay bo‘z to‘rg‘ay,
Qanotimda xatim bo‘lg‘ay.
Kim meni go‘shtim yesa,
Yetti pushti yetim bo‘lg‘ay.[Dala ma’lumoti. Chiroqchi tumani, Quruqsoy MFY.]

Afsonalarga ko‘ra, kim mulla to‘rg‘ayni o‘ldirsa yoki go‘shtini yesa yetti avlodigacha yetim bo‘larkan. Ko‘rinib turiptiki, ***Mulla to‘rg‘ay*** obrazining o‘zida yetimlik belgisi ramzi bor.

Mulla to‘rg‘ay tong sahardan sayraydi – bolalikdan erta yetim qolayotganlik belgisi, tong sahardan – hali go‘daklik chog‘idan boshiga yetimlik azobi xabari kelyotganligidan istirob chekadi. Yetimlikdan, otasini sog‘inib onasiga zorlanadi.

Fabrikaning yo‘lidano ro‘molcha topib oldim,
Fabrikaning yo‘lidano ro‘molcha topib oldim,
Topib oldi demanglar kervonga sotib oldim.
Gulyoraxon bo‘ylaringdan Gulyora.

“Fabrikaning yo‘lida” deb nomlanuvchi termasida ***ro‘mol*** – oila ramzi bo‘lib kelganligini ko‘rishimiz mimkin. Yigit fabrikani yo‘lida qizni uchratib qoldi va unga oshiq bo‘lib uylandi. U quruq emas, ota-onasi kambag‘al bo‘lishiga qaramay (*kervon, kermon* – karmon, hamyon) qalin puli berib uylandi.

Ro‘mol uchib ketti re opa
Oq dayrani shamolina
Ota-enam kambag‘al vox-vor
Zavdoningdan ketti re rumol

Oq daryoni shamoliga ro‘moli uchib ketti – oilasi o‘xshamadi, endi o‘rtasida (*daryo* – chegara) to‘siq, chegara, ayriliq bor, boshiga (*shamol* – qayg‘u, g‘am, tashvish) qayg‘u keldi.

Shomurod shoir ijodida bu kabi an’anaviy ramziy obrazlarga ko‘p duch kelamiz:

Yigitti yaratting ***Tengri toshina*** – yigitni g‘am, tashvish, azoblar, hasrat (**tosh** – g‘am, tashvish[Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фолъклори. Илм ва фан. Тошкент 2023. Б.142]) uchun yaratgan, u Tangrining taqdiriga ko‘nib yashaydi.

Elimdan adashgan yolg‘iz ***so‘naman*** – eliga yomon otliq (so‘na – o‘rdak–yomon xabar) bo‘lgan, haydalgan, ayrilgan…

Qizil gulni *tarbiya qil ochiliba so‘lg‘incha* [ALPOMISH MEDIA. Nurali dostoni. Shomurod baxshi Tog‘ayev]

– qiz bolani bolaligidan bo‘yga yetguncha, undan keyin ham tarbiya qil, nazorat qil v. h.

Xulosa qilib aytganda, Shomurod shoir ijodida, kuylagan dostonlarida xalq og‘zaki ijodiga xos an’anaviylik o‘ziga xos yo‘sinda keladi. Shoir ota-bobolaridan o‘rganib kelgan doston va terma kuylash an’analarini davom etgan holda o‘ziga xos tarzda boyitib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афзалов М. Ўзбек халқ шоирлари // Шарқ юлдузи, 1946.
2. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – T. “Fan” 2008.
3. Mirzayev T., Xalq baxshilarining epik repertuari, T., 1979.
4. ALPOMISH MEDIA. Ovsar dev bilan Gupsar dev. Shomurod baxshi Tog‘ayev
5. You tube. Favvora Film. Shomurod shoir Tog‘ayev. 2016.
6. ALPOMISH MEDIA. Boysun bahori. Shomurod shoir Tog‘ayev. 2002.
7. Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фолъклори. Илм ва фан. Тошкент 2023. Б.142
8. ALPOMISH MEDIA. Nurali dostoni. Shomurod baxshi Tog‘ayev

DISKURSIV TAHLILDA PRAGMATIK VA MILLIY MENTAL OMILLAR

PRAGMATIC AND NATIONAL MENTAL FACTORS IN DISCOURSIVE ANALYSIS

Ismailov Jahongir Jaloliddinovich
O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
*UDK:*81’42:398.8qq1`q1

Abstract: *The article examines the problems arising from the theory of folklore discourse and folk songs, folk oral art, primarily its various socio-economic functions, as well as cognitive, educational and aesthetic tasks and goals.*

Keywords: *Folklore, ethnology, grammatical category, folk oral art, folklore tradition, formation of the cultural context of the 21st century.*

Til muloqot jarayonida reallashadi. Uning reallashuvi lisoniy jamiyatning lingvokulturologik imkoniyatlari, sosial xususiyatlar va pragmatik omillar bilan uyg‘unlashadi. Tilshunoslik XIX asrda tillarni qiyosiy-tarixiy va tipologik muammolari bilan shug‘ullanar ekan, uni madaniyat bilan mushtarak holda talqin qiladi. V.fon Gumboldt, G. Shteyntal, K.Fossler, A.Shleyxer, H. Paul, A. A. Potebni asarlarning markazida til va madaniyat yaxlitligi masalasi turadi.

Zamonaviy tilshunoslikning diqqat markazida lingvistik shaxs - muloqotda ishtirok etuvchi shaxs. Til fanining rivojlanishidagi bunday burilish, bir tomondan, gumanitar bilimlar sohasidagi integratsion jarayonlar, umuman, zamonaviy fanning antropotsentrizmi, ikkinchi tomondan, til fanining obyektiv mantig‘i bilan bog‘liq. Tilshunoslikning rivojlanishi, uning o‘rganish predmeti rasmiy til tuzilmalarini o‘rganishdan ularning mazmunini tahlil qilishga, so‘ngra nutqdagi mazmunli til birliklarining ishlashini tushunishga, so‘ngra ularning madaniy muhitdagi o‘rni, o‘ziga xosligi va dinamikasini aniqlashga o‘tdi. Antroposentrik tilshunoslikda lingvistik shaxs muloqotini o‘rganishda yondashuvlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin :

Kulturologik

A)Psixologik tahlil

B) Lingvistik shaxs *sotsial tahlil*

S) *sotsial tahlil*

D) *Lingvistik tahlil*

1) lingvistik shaxsning psixologik tahlili (psixologiyada belgilarning ko'plab tasniflari ishlab chiqilgan - temperamentlarning qadimiy modelidan tortib to urg'ulangan shaxslar nazariyasiga qadar; shu bilan birga, biz belgilarning har bir turi muloqotda namoyon bo'lishini ta'kidlaymiz. u yoki bu tarzda, ya'ni lingvistik pozitsiyalardan o'rganish mumkin);

2) lingvistik shaxsning sotsiologik tahlili (sotsiologiya va sotsiolingvistikada aniqlangan va tavsiflangan ma'lum ijtimoiy guruhlarning lingvistik ko'rsatkichlarini anglatadi - kichik guruhlardagi (oila, maktab sinfi, ishlab chiqarish jamoasi) ijtimoiy o'ziga xoslik ko'rsatkichlaridan tortib katta yoshdagilarning kommunikativ xatti-harakatlari ko'rsatkichlarigacha. guruhlar (yoshlar tili, gender nutqi xususiyatlari, ta'lim darajasi past bo'lgan odamlarning til ko'rsatkichlari);


3) til shaxsining kulturologik tahlili (lingvomadaniy tiplarni modellashtirish - xulq-atvori umuman til madaniyati me'yorlarini o'zida mujassam etgan va jamiyatning barcha vakillarining

xulq-atvoriga ta'sir qiladigan jamiyatning ma'lum guruhlarining umumlashtirilgan taniqli vakillari, masalan, “rus intellektuali” , “Amerikalik huquqshunos”, “Nemis ofitser”, “Ingliz janoblari”);

4) lingvistik shaxsning lingvistik tahlili (elita yoki ommaviy lingvistik madaniyat tashuvchilarning kommunikativ xatti-harakatlarini tavsiflash, odamlarning kommunikativ qobiliyatlari nuqtai nazaridan tavsiflash, ijodiy va standart lingvistik ongni tahlil qilish).

Til shaxsining tanlangan yondashuvlari va turlariga qo‘shimcha ravishda, shaxs ishtirok etadigan muayyan nutq nuqtai nazaridan tildagi shaxsni tahlil qilishni taklif qilish mumkin. Ushbu yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra pragmalingvistikdir, chunki u ma'lum bir nutq uchun xarakterli kommunikativ tonallik turlarini aniqlashga asoslanadi. Kommunikativ tonallik deganda biz kommunikantlarning o'zaro ta'siri jarayonida yuzaga keladigan va ularning o'zgaruvchan munosabatini va barcha aloqa vositalarini tanlashni belgilaydigan hissiy va stilistik muloqot formatini tushunamiz. Kommunikativ-pragmatik tahlilda muloqot ishtirokchilari, axborot, muloqot vaziyati va sharoiti hamda lisoniy unsurlar yaxlit qamrab olinadi. Bu unsurlar yaxlitlikda muloqot tizimini tashkil qiladi. Sistemada muhim va muhim bo‘lmagan unsurlar mavjuddir. Muhim unsurlar sistemaning mavjudligini ta’minlaydi va shu xususiyati bilan nomuhim unsurlardan farqlanadi. Sistem-struktur yondashuvda sistemaviy belgilarning sistema tashkil etuvchi, sistemada hosil bo‘luvchi va sistemaga betaraf turlarining ajratilishi ham ma’lum darajada unsurlarning muhim-nomuhimligiga muvofiq keladi.

Nutqni matn orqali muloqot sifatida tushunib, biz nutqning ikkita tasnifini qarama-qarshi qo‘yamiz - sotsiolingvistik (u muloqot ishtirokchilari belgisiga asoslanadi) va pragmalingvistik (u kommunikativ tonallik belgisi asosida qurilgan). Nutqning sotsiolingvistik tasnifi doirasida shaxsga yo‘naltirilgan va maqomga yo‘naltirilgan nutq ajratiladi, ularning har biri o‘z navbatida bir nechta kichik tiplarga (birinchi holatda - kundalik va ekzistensial, ikkinchisida - institutsional va bo‘lmagan). - institutsional) bo‘linadi. Pragmalingvistik mezon asosida ajratilgan nutq tipologiyasi turli asoslar bo‘yicha tuzilishi mumkin, ularning yetakchilari quyidagilardir :



Muloqot tizimi geterogenligi bilan xarakterlanadi. Geterogen unsurlarning har biri lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishiga turlicha, o‘z “talab”, “istak” va “xohish” va imkoniyatlari bo‘yicha munosabatda bo‘ladi. Shu bilan birga, ular orasida uyg‘unlik, muvofiqlik munosabatlari ham amal qiladi.

Muloqot tizimida ishtirokchilar unsuri faollik qiladi. Ishtirokchilarning kommunikativ intensiyasi lisoniy imkoniyatlarning tanlanishida birlamchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, boshqa unsurlar bilan “hisoblashish” ishtirokchi unsurining boshqa unsurlardan farqlanuvchi “qayishqoqlik”, moslashuvchanlik xususiyatlarining ancha yuqoriligi bilan belgilanadi. Boshqa

unsurlarda tanlanish yuqori darajada bo‘lsa, ishtirokchi unsurlari muloqot tizimida almashtirilmasligi ularning uyushtiruvchilik, tashkil etuvchilik xususiyati bilan bog‘liq. Almashtirilmaslik esa, o‘z-o‘zidan, moslashuvchanlikning yuqoriligini keltirib chiqaradi. Bu “birinchidan, amalga oshayotgan nutqiy muloqotning mundarijasi va vositalarini tayinlaydi. Muloqot mazmuni kommunikantlarning hamkorlikdagi faoliyati natijasi o‘laroq yuzaga keladi, lisoniy birliklarni tanlash va diskursning ushbu hamkorlikdagi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ikkinchidan, faoliyatdagi inson tasavvuridagi ob’yektlar olamini tashkil qiladi va mazkur ob’yektlarning mavjudligi ishoralarasosidagi muloqotning ilk va asosiy talabidir. Ishoralar asosidagi muloqot esa kommunikantlarning ideal ob’yektlar “olami” umumiy bo‘lgandagina amalga oshadi.”

Kommunikantlarning xususiyatlari (yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, mavqe-martabasi kabilar) lisoniy birliklarning kommunikativ vazifa bajarishida muhim rol o‘ynaydi. “Kommunikatsiyaning mohiyati faqatgina ob’yektiv va sub’yektiv faktlar umumiyligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bo‘lsa kerakki, kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismlari sifatida “so‘zlovchi”, “tinglovchi”, “ijro etish” va “tushunish” bo‘limlari ajratiladi.” Lisoniy birliklarni tanlash, ularga muayyan kommunikativ, emosional-ekspressiv vazifa yuklashda kommunikantlarning shaxsiy sifatlari katalizator vazifasini bajaradi. Ayniqsa, lisoniy birliklarni o‘z va ko‘chma ma’nolarida ishlatish, ularga nutqiy okkazional ko‘chma ma’nolar berishda bu omil yanada ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kommmunikatsiya jarayonida ishtirokchilarning pragmatik vaziyatga bo‘ysunishi muloqotning umumiy va universal qonuniyatlaridan biridir. Bunda nutqiy odob va muloqot madaniyati bo‘ysundiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shunga muvofiq ravishda muloqotga kirishuvchilarning lisoniy birliklarni tanlashi, ularga okkazional ko‘chma ma’nolar baxsh etishi va qo‘llashida andozaviylik, me’yoriylik tamoyillari amal qiladi. Masalan, “buyurmoq, ogohlantirmoq, maslahat bermoq, taqiqlamoq, taklif qilmoqkabi birliklar nutqiy tuzilma tarkibidan joy olib, uning mazmunini oydinlashtirish uchun xizmat qila olishi ma’lum. Lekin, Men maqtana olmayman, sendan aqlliroqman qabilida maqtanish nutqiy harakatining qo‘llanishi ehtimoldan ancha yiroq. Balki ushbu harakatni bajarayotgan shaxsning maqtanishga haqqi bordir. U o‘z suhbatdoshiga nisbatan aqlliligi haqiqatdir, lekin nutqiy muloqot odobi bunga yo‘l qo‘ymaydi.”

Komunikativ pragmatik tizimda kommunikant (shaxs) unsuri tarkibining o‘ta murakkabligi bilan xarakterlanadi. Tilshunos V.V.Bogdanov shaxs omilining quyidagi xususiyatlarini alohida uqtiradi:

1) lisoniy qobiliyat;
2) milliy mansublik;
3) ijtimoiy –madaniy mavqei (ma’lum ijtimoiy guruhga xoslik, kasb, lavozim, ma’lumot, yashash joy, oilaviy ahvol kabi belgilar);
4) biologik-fiziologik ko‘rsatkichlari (jins, yosh, sog‘lik, jismoniy nuqsonlarbor/ yo‘qligi);
5) ruhiy-psixologik turi (temperament, patologik ko‘rsatkichlar);
6) vaziyatga nisbatan o‘zgaruvchan ruhiy holati (kayfiyat, muvaqqat bilim, maqsad, qiziqish);
7) doimiy didi, qiziqish va odatlari;
8) tashqi ko‘rinishi (kiyinishi, o‘zini tutishi, xulq-atvori).

Albatta, tilshunosning bu ro‘yxatini yana davom ettirish, ularning ichki tarkibiy qismlarini muayyanlashtirish mumkin. Kommunikantlardan ijtimoiy, mavqe-martaba, yosh, jins jihatidan “imtiyoz”ga egalari va bu belgilarga salbiy yoki betaraf munosabatdagilari farqlanadi. Masalan, yosh, mavqe-martaba, ijtimoiy holat, jins yoki boshqa jihatdanteng va teng bo‘lmagan kommunikantlar farqlanadi. Tengqurlar, hamkasb yoki “hamlavozim”lar orasida lisoniy imkoniyatlardan foydalanish huquqlari teng taqsimlanadi.

Muloqot ishtirokchilari orasida “chegara”ning yo‘qligi ularning muloqot vositalaridan erkin foydalanishini ta’minlaydi. Shuningdek, “chegara”ning bir tomonlama yo‘qligi, ya’ni kommunikantlardan birining mavqe-martaba jihatidan ustunligi esa noverbal vositalarning vazifasini kuchaytiradi va ular verbal vositalar vazifasini bajaradi – lisoniy imkoniyatlarning voqelanishini sustlashib, bu noverbal vositalarning kuchayishi evaziga sodir bo‘ladi.

Demak, kommunikatsiya jarayonida ishtirokchilar pragmatik vaziyatga bo‘ysunishi bilan birga, ularning shaxsiy sifatlari va munosabatlariga bog‘liq ravishda pragmatik omillar shaxsiy omillarning ta’siriga beriladi. Bu esa kommunikantlarning muloqot tizimidagi faolligi, uni tashkil etuvchilik xususiyatining yuqoriligi, muloqotning boshqa unsurlarini o‘z atrofida o‘z maqsadiga mos ravishda uyushtirishi kabi omillar bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lingvistik shaxs” atamasini ilmiy foydalanishga Yu.N. Karaulov (1987), "lingvistik personologiya" atamasi (tilshunoslik sohasi, uning predmeti muloqotdagi shaxs).
2. http://lse2010.narod.ru/olderfiles/LSE2007pdf/LSE2007Karasik1.
3. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: Наука, 1971. (– 291 с.) – С. 46-47.
4. **Карасик. В.И. Дискурсивная персонология. 79-86-бетлар**
5. Тарасов Е.Ф. Проблематика изучения, описания и моделирования речевого общения. В кн.: Лингвистическая прагматика и общение с ЭВМ. М.: Наука, 1989. (–С. 5-33.) – С. 32.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Б. 66-87.
7. Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. -89 с. – С. 28-29.

SHOIRALAR SHE’RIYATIDAGI METAFORIK OBRAZ VA RAMZIYLIK
METAPHORICAL IMAGE AND SYMBOLISM IN THE POETRY OF POETS

Xaytaliyeva Nigora Sogibnazarovna
Nizomiy nomidagi MPU
“O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotation. *This article analyzes various similes and images used in the work of poets of different periods. Metaphorical images and symbolism play an important role in Uzbek poetry of the period of independence and after it. In the lyrics of the poet and the poetess, symbols such as love, pain, freedom, search for identity, nature and heart are often interpreted in deep metaphorical and symbolic meanings. The article is devoted to revealing these analyses.*
Key words: *poetry, metaphor, love, woman, freedom, symbol, image.*

She’rda inson umrining o‘tkinchiligi va manguligi qiyosan aks ettirilgan. Oddiy inson umrining yoshlik davri issiq o‘lkalarga uchib ketgandek, kishini tark etadi. Lekin hayotini she’rga bag‘ishlab, dunyodan yosh o‘tgan bo‘lsa-da, shoir umri mangulikka payvand. Inson hayotining tashvishlari bilan urgan shoir yuragi abadiyatga daxldor. Uning huzurida zangula chalib, ilhom qushlarini cho‘chitmagan ma’qul. Negaki, shoir ishq to‘la yurtning o‘rik gullariga chulg‘angan bahorini mangulikka muhrlash bilan band. She’rda oti aytilmasa-da, Hamid Olimjon siymosi aks ettirilgandek bo‘ladi. Yurtning “ishq-qo‘shiqqa to‘la”ligi, “bahorning o‘rik gullariga chulg‘angani” shunga ishoraday tuyuladi.

Yetakchi fikrni hayotiy muammo vositasida tasvirlash Z. Mo‘minova lirikasida ham keng

qo‘llangan. Shoira she’rlarining ilk satrlaridayoq diqqatni tortadigan qandaydir bir hayotiy muammo aks ettirilgani anglashilib turadi:

Bu odamning boshi tosh erur,
Hovlisidan ketmagin bahor.
Bu odamga qarindosh turur,
*Qoratovda yig‘lab yotgan qor [*Мўминова, 1992. 64]

Odamning boshi tog‘ning toshiga o‘xshaydi. She’rda tasvirlanayotgan qahramon – adoqsiz sinovli muammolar girdobida sabr bilan yashayotgan odam. Buni bandning adstlabki ikki qatoridan bilib olinadi. qahramonning iztirobli sinovlardan oqarib ketgan sochi va yig‘iga yo‘ldosh hayoti uchinchi va to‘rtinchi satrlardan ayon. Qoratovdagi qorning oqligi va yig‘layotgani o‘quvchida shunday fikr uyg‘otadi. She’rning davomida muammoning nimaligi ayon bo‘ladi: “***jo‘jabirday jon bilan uni tashlab, ayoli o‘lib ketdi. U har kuni qabristonga qatnaydi***”.

She’rxon bunda cheksiz sadoqatga ega va o‘z qanotidan ayrilgan Inson iztiroblarini tuyadi. Shoira o‘quvchini sadoqat tuyg‘usi tomon chorlaydi, bu tuyg‘u insonning o‘zak sifatlaridan biri ekanini tasvirlaydi. Shu sababli she’r sadoqat ko‘chasidan o‘tmaganlarga tanbeh bilan tugallanadi:

Bunda “bar”lar o‘ziga chorlab,
Restoranlar solganda suron.
Siz onamni shiyponda tergab,
Ayron ichib yayrayotgan inson.

Shoira she’r so‘ngida qarshilantirish usulidan foydalanadi: barlar chorlovi va restoran suroni qo‘ynidagi odam bilan shiyponda tergalayotgan chorasiz ona parallel tasvirlanadi. Shiypon va ayron detallari she’rga milliy kolorit baxsh etadi.

Shoira Oydin Hojievada ritorik ohang ustuvor bo‘lsa, Z. Mo‘minovada psixologik yechim, falsafiy mushohada ruhi baland.

Shunday qilib, o‘zbek shoiralarida poetik idrok o‘ziga xos bir tarzda shakllanganki, u natijada badiiy tafakkurning teran bo‘lishiga olib kelgan. Shoiralar millatga tegishli mavzularda, umumbashariy ahamiyatga ega muammolarni milliy uslublarni tasvirlay biladilar. Shu sababli ularning lirikasi yashovchan va qalblarga yetib borgan.

Poetik idrokning shakllanishi, uning tadriji va shoirning o‘zligini namoyon qilishi kabi masalalarda o‘zbek adabiyotshunosligida bir talay qimmatli fikrlar bildirib o‘tilgan. Zero, shoirning poetik idroki ko‘plab hodisalar orasidan eng muhimlarini tipiklashtirib tasvirlashda ham namoyon bo‘ladi.

Professor O. Sharafiddinov shunday bir masalaga e’tiborni tortgandi: “Poeziyamizda inson va uning taqdiri masalasiga, uning ichki dunyosiga e’tibor tobora kuchaymoqda, bu poeziyadagi realizmning chuqurlashuviga yordam bermoqda”. Mana shu psixologizm va realizmning uyg‘unlashuvi natijasida kuchli bir idrok [Шарафиддинов, 1979; 185] o‘y ko‘rsatadi.

Poetik idrok chuqur psixologizm va yorqin realizmga boy tarzda bo‘lmas ekan, u quruq xayoldan, foydasiz fantaziyadan iborat bo‘lib qoladi. Bir so‘z bilan aytganda, “xalqqa yaqinlik, hayotning jamiki baland-pastliklari, chigalu ravonliklari bilan idrok etishi, haqiqatni faqat ikki xil – oqu qora qilib emas, turfa xil ranglar bilan ifodalash, bularning barini chin yurakdan, g‘oyat samimiy ohanglarda ayta bilish” poetik idrokning imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi adabiy mezonlardir. Shoira Qutlibeka ijodida ham ana shunday teran qalbli lirik qahramon nigohi ustuvor:

Ozod O‘zbekiston, ozod o‘zbeklar,
Aytsam har tovshimdan sachrab chiqar cho‘g‘.
Har tovshi ko‘ksimda Tangritog‘ tiklar,
*Dunyoda bundan-da go‘zal unvon yo‘q [*Қутлибека,2002.4]

Professor S. Mamajonov yozadi: “o‘zining shaxsiy qiyofasini, ijodiy siymosini ko‘rsata olmagan, o‘zining original ovozi, stili va manerasiga ega bo‘lmagan shoir asari hatto ijodkorning

ostonasidan ham tashqariga chiqa olmaydi”. [Брюсов, 1972. 74]. Haqiqatdan ham poetik idrokda o‘ziga xos originallik, uslubiylik va maqsadlilik muhim o‘rin tutadi. Adabiyotshunos V. Bryusov ta’biri bilan aytganda, “haqiqiy shoirning har bir lirik she’rida yangi “men” bo‘ladi... Shoirning o‘ziga xosligini uning ijodiy priyomlaridan, sevimli obrazlaridan, metaforalaridan, vazni va qofiyalaridan payqab olish mumkin, ammo u har bir she’rida ifodalanayotgan his-tuyg‘u va fikrlarini takrorlamasligi shart” [Брюсов, 1972. 74].

Poetik idrok lirik kechinmalarning mujassamlanishi natijasida yuzaga keladi. Shu jihatdan professor U. To‘ychievning mana bu fikrlari e’tiborga loyiq: “...fikrlashning boshqa bir masalasi lirikada kechinma tarzida aks etadi. Kechinmada lirik tasvir obrazga aylanadi. Lirika uchun tafsilot emas, balki kechinma muhim”. [Брюсов, 1972. 74]Poetik idrok ana shu lirik kechinmaning tasvirli ko‘rinishidir.

Adabiyotshunos olim I. G‘afurov poetik idrokning xarakterli jihatlaridan birini shunday topib aytgan: “Insondan insonlikni topib tasvirlash, uning qalb olamiga chuqur kirib borish she’riyatning, uning go‘zal turi bo‘lgan lirikaning ham birinchi darajali vazifasidir” [Брюсов, 1972. 74]. Chunki “insondan insonlikni topib tasvirlash”da shunday poetik idrok borki, u “milliy xarakterlar yaratmasdan turolmaydi. Lekin (u) milliy xarakterlar yaratishda tamomila o‘ziga xos yo‘llardan boradi. Unda milliy ong yaxlit tarzda namoyon bo‘ladi”. Bunday holatda yaratilgan she’rda o‘ziga xos jarang, nazokat va bepoyon tafakkur, yangicha zavq-shavq aks etadi.

Shunday qilib, dunyo va o‘zbek adabiyotshunoslari o‘z tadqiqotlarida poetik idrokning turli qirralari haqida to‘xtalganlar. Ularni umumlashtirib, shunday ta’rif keltirib chiqarish mumkin: poetik idrok – bu shoirning o‘ziga xos, ko‘tarinki ruhdagi, psixologizm va realizmga boy, milliy tuyg‘ular bilan kechadigan lirik kechinmaning harakterli mujassamidir. Shu nuqtai nazardan O. Hojieva lirikasiga nigoh tashlab o‘tish o‘rinlidir. Shoira bir she’rida yozadi:

Xayolimning mayin osmonlarida
Ko‘nglimni guldayin mezonlarida
Mening mehrimga zor, sehrimga mahtal
Yuraging qush kabi charx urgan mahal
Kaftimni tutayin jonimni solib
Qo‘nsa-patlariga yetmagay ozor!
Mayli, qanotida jonimni olib-
Uchsin gar ketmoqni etsa ixtiyor!

Oshig‘iga fidokor ma’shuqaning xarakteri aks etgan she’r! Uning xarakteri shu qadar samimiyki, oshig‘ining “Yuragi qush bo‘lib uchib kelsa, kaftiga jonini solib qo‘ndiradi, toki u qushning patlariga ozor yetmagay”. Bugina emas! Oshiqning “Yurak qushi uchib ketmoqni istasa, uning qanotiga jonini soladi”. Chunki bu Insonning “xayoli mayin osmon, ko‘ngli gulday nafis”. Lirik kechinmaning bunday bir lahzalik manzarasini tasvirlab berish o‘quvchi tuyg‘ularini yuksaltiradi.

XX asrning 90-yillari o‘zbek shoiralari she’riyatning ana shunday yuksak ijtimoiy missiyasi borligini his qilib ijod etishgan. Bu davrdagi badiiy tafakkur milliy koloritga boyligi bilan ajralib turadi. Unda milliy ong, his-tuyg‘ular, tafakkur va qarashlar o‘z aksini topgan. Bu davr ayol shoiralarda poetik tilga e’tibor kuchaydi. Mafkura zug‘umidan qutilgan ijodkor rangin o‘y-xayollarini butun murakkabligi bilan ifodalashi uchun milliy tilning hissiylik, bo‘yoqdorlik, obrazlilik, aniqlik, ramziylik, tagma’nolilik singari bir dunyo imkoniyatlaridan foydalana bilishi zarur edi. Shunga erishilsagina ijodkorning bitganlari o‘quvchilar qalbini rom etardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 25-b.
2. Hojiyeva O. Mushfiq ona. – T.: Sharq, 1992. – 252-b.
3. Mo‘minova Z. Yonayotgan ayol. – T.: Adabiyot va san’at, 1992. – 64-b.
4.. Sharafiddinov O. Birinchi mo‘jiza. – T.: Adabiyot va san’at, 1979. – 185-b.

5. Sharafiddinov O. Cho‘lpon. –T.: Cho‘lpon. 1991. – 38-185-bb.
6. Qutlibeka. Ko‘ksimdagi Tangritog‘. – T.: Sharq konserni, 2002. – 4-b.
7. Mamajonov S. Uslub jilolari. – T.: 1972. – 76-b.
8. Bryusov.V Sochineniya. I tom. – M., 1972. Stranitsa 74.
9. To‘ychiyev U. Adabiy turlar va janrlar. 2 jild. – T.: – 18-b.
10. G‘afurov I. She’riyat – izlanish demak . – T.: Adabiyot va san’at, 1984. – 13-b.
11. Hojiyeva O. Mushfiq ona. – T.: Sharq, 1992. – 152-b.

FOLKORSHUNOS OLIM PORTRETIGA CHIZGILAR

DRAWINGS FOR THE PORTRAIT OF THE FOLKLIST SCIENTIST

Axmedova Sh.N.
BuxDU professori
Nazarova D.
Mustaqil tadqiqotchi
axxxmedova@mail.ru

Abstract. *The article discusses the literary portrait genre, its important features, and analyzes the literary portrait of professor O. Safarov dedicated to his teacher T. Mirzaev.*

Key words: *literary criticism, literary portrait, folklore, folklorist, academic, scientific world.*

O‘zbek tanqidchiligida adabiy portret yaratish tamoyiliga ko‘ra, asosan, uchta yo‘nalish ko‘zga tashlanadi:

1. Avval portretga chizgilar berilib yoki portret-maqola yaratilib, keyin mukammal adabiy portret yaratiladi. Bunga tanqidchi O.Sharafiddinovning portret yaratish tajribasi misol bo‘la oladi. Portretga chizgilardan keyin mukammal portret yaratishga o‘tish usulini uning G‘.G‘ulom, A.Qahhor kabi yozuvchilarga bag‘ishlangan adabiy portretlari misolida ko‘rish mumkin.

2. Ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri adabiy portret yoziladi. I.Sulton, M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, I. G‘afurov kabi olimlarning aksariyat adabiy portretlari shu usulda yaratilgan

3. Avval adabiy portret yoki ijodiy portret yaratilib, keyin uni to‘ldirish yoki boshqa munosabatlar (yubiley, xotira) bilan portretga chizgilar berilishi mumkinligini akademik M.Qo‘shjonovning I.Sulton ijodiga bag‘ishlangan ishlari ko‘rsatadi. Biroq adabiy portret yaratishning uchinchi yo‘nalishi kam uchraydi.

“Taniqli folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Beruniy nomidagi respublika Davlat mukofoti sohibi, professor, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti direktori To‘ra Mirzaev umrining yarim asrini xalqimizning dono dahosini yig‘ish, nashr etish va tadqiq qilishga, fan tashkilotchiligiga bag‘ishlagandir” [Safarov,2010:301],- degan so‘zlar bilan boshlanadi akademik T.Mirzaevga bag‘ishlangan, dastlab 2006 yilda “Buxoro mavjlari” jurnalning birinchi sonida chop etilgan portretga chizgilar.

Portretga chizgilarda folklorshunos olimning hayot va ijod yo‘liga qisqa nazar solinadi. Ustozining hayot va ijod yo‘lini chuqur o‘rgangan, uchrashuvlarda, muloqotlarda uning olamini kashf etgan professor O.Safarov T.Mirzaev haqida yirikroq tadqiqot yaratish, portretga chizgilarni adabiy portretga aylantirish yo‘lida izlana boshlaydi va shu yilning o‘zida yirik olimning adabiy portretini yaratadi.

O.Safarovning “To‘ra Mirzaev” deb nomlangan adabiy portreti birinchi yo‘nalishga mansub bo‘lib, avval portretga chizgilar berilib, keyin to‘ldirilgan holda folklorshunos olimning adabiy portreti yaratilganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek adabiy tanqidiga janr sifatida XX asrning 20-30-yillaridan kirib kelgan adabiy portretda shaxsning (yozuvchi, shoir, olim, davlat arbobi) mukammal qiyofasini tasvirlash asosiy o‘rinda turadi. Chunki unda inson – olim, yozuvchi yoki shoirning xarakteri, ichki olami, ijodiy faoliyati, muhit bilan aloqasi o‘z aksini topadi. Shu jihatdan qaraganda, bolalar adabiyotining yetuk bilimdoni, folklorshunos olim O.Safarovning adabiy portretlar yaratish yo‘lidagi izlanishlari e’tiborga loyiq. Ayniqsa, yirik folklorshunos olim, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining vitse-prezidenti lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan, akademik To‘ra Mirzaev hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan adabiy portret [Safarov, 2006,4] fikrimizning yorqin dalilidir.

Adabiy portret yaratishda uning quyidagi belgilariga e’tibor qilish zarur: a) shaxsning yaxlit ilmiy-ijodiy, ma’naviy, ruhiy, insoniy qiyofasini to‘liq ochib berish; b) hayotdagi aniq shaxsning mukammal obrazini yaratish; v) obrazni asliga mos holda tasvirlash uchun jonli xotiralardan, o‘zgalarning nutqi, mulohazalaridan unumli foydalanish; g) ilmiy va estetik tafakkurni publitsistik ruhga yo‘g‘irib, jozibali tasvir usullaridan foydalanish. Shuningdek, adabiy portretda muallifning portreti tasvirlanayotgan shaxsni yaxshi bilishi, yaqindan tanishi, u bilan ko‘p yillar muloqotda bo‘lganligi asarning ishonarli, o‘qimishli va qiziqarli chiqishiga xizmat qiladi. Ustozi hayotini yaxshi bilgan, chuqur o‘rgangan portretnavis folklorshunos olimning hayotiga kirib borar ekan, faxr bilan gapni birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1999 yilning 17 dekabrida saylovchilar bilan uchrashuvida so‘zlagan nutqida Buxoroi sharifning ko‘plab olimu ulamolari qatorida To‘ra Mirzaev nomining tilga olinishidan boshlaydi.

O‘z faoliyatini Surxondaryo viloyatida ona tili va adabiyot fani o‘qituvchiligidan boshlagan T.Mirzaevning Surxondagi xalq baxshilari repertuaridan og‘zaki ijodning namunalarini yig‘ib borishi va ular tug‘dirgan muammolar uni ustozi ulkan folklorshunos olim Hodi Zarif huzuriga boshlashidan to hozirgi kungacha bo‘lgan faoliyati, ilmda erishgan yutuqlari, madaniyatni rivojlantirishdagi rahnamoligi, jonkuyarligi adabiy portretda batafsil tasvirlangan. T.Mirzaevning ustozi Hodi Zarifning shogirdini faylasuf shoir G‘.G‘ulom bilan tanishtirgani, “yoshgina, sahroyiligi, soddaligi yuz-ko‘zidan bilinib turgan begona yigitchaning bu suhbatni maroq bilan tinglayotganini ko‘rib, unga baho bergani haqidagi lavhani keltirar ekan, olim shunday yozadi: “Akademik shoir G‘afur G‘ulomning bashorati rost chiqdi. To‘ra Mirzaev ustozi Hodi Zarifga munosib shogirdgina bo‘lib qolmadi, balki ilmiy izlanishlaru murabbiylikda ham uning o‘rnini to‘ldira olgan mehribon ustoz darajasiga ko‘tarila oldi”.

Tom ma’nodagi tanqidiy portret ijodkor, olim bilan bir makonu zamonda, bir adabiy muhitda yaratilsa, uning ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi. Chunki adabiy portret muallifi olimning ijodxonasiga yo‘l topib, uning ishlash manerasi, usuli, tadqiqot yaratish jarayoni turlicha hayotiy voqealar ichidan dalillar topib tanlab olish yo‘li, hayotni kuzatish usuli, ish sharoiti va payti, ishlash jarayonining o‘ziga xosligini o‘rganishga e’tibor qaratdi. Olim ijodxonasini tekshirish uning tadqiqotlarining yaratilish tarixi, ish uslubi, ijod qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, matn tadqiqotlari uchun muhim material beradi. Shuning uchun O.Safarov ustozi T.Mirzaevning “Alpomish” dostoni, uning baxshilar repertuaridan yozib olingan variantlari haqidagi tadqiqotlariga to‘xtalar ekan, uning jur’at va g‘ayrat bilan dostonni himoya qilish yo‘lidagi jasorati haqida to‘lib-toshib hikoya qiladi.

“To‘ra Mirzaev o‘zbek folklorshunosligining tarixini yaratish sohasida ham samarali izlanishlar olib bordi. Uning G‘ozi Olim Yunusov, Buyuk Karimov, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviyalarning folklorshunoslik faoliyatlarini umumlashtiruvchi maqolalari, ayniqsa, o‘zbek folklorshunoslik ilmiga asos solgan va uni jahon minbariga olib chiqqan fidoyi olim Hodi Zarifga bag‘ishlangan adabiy portreti, shuningdek, o‘zbek folklorshunosligi taraqqiyot tamoyillarini umumlashtiruvchi talay maqolalari diqqatga sazovor”, - yozadi olim. Shu o‘rinda yana bir muhim dalilni qo‘shimcha qilishimiz lozim: T.Mirzaev 2013 yilda “Hodi Zarif suhbatlari” deb nomlangan ham shakl jihatidan, ham mazmun jihatidan tarixiy-biografik yondashuv asosida yangi tadqiqot

yaratdilarki, bu kitob ustozga ehtirom ko‘rsatishning yuksak namunasi sifatida Ibrat maktabi bo‘la oladi.

Adabiy portretda akademik T.Mirzaev obrazi izchillik bilan yaratiladi: yoshligidan mehnatdan qochmaydigan a’lochi o‘quvchi, ilmga tashna nomdor stipendiant talaba, fidoyi o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi, ustozlari nazariga tushgan shogird, folklorga mehr qo‘ygan aspirant, ilmni hayotining mohiyati deb bilgan ilmiy xodim, xalq qo‘shiqlarini va dostonlarini yozib olinishida jonkuyarlik qilgan ekspeditsiya rahbari, fan nomzodi, fan doktori, o‘tkir folklorist, “Alpomish”ni o‘rganib, targ‘ib qilgan “alp” alpomishshunos, folklor tanqidchisi, folklor nazariyotchisi, yosh olimlarning bag‘rikeng ustozi, zukko suhbatdosh, folklor matnshunosi va noshiri, mehribon va insonparvar rahbar, Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti, o‘zbek follorini jahonga olib chiqishda turk, nemis, yapon va boshqa millat olimlari bilan hamkorlik o‘rnatgan xalqaro miqyosdagi simpozium va anjumanlar tashkilotchisi, xalqining va Vatanining mehrini qozongan tufayli bir necha nishon va ordenlar sohibi, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi hayot va ilm yo‘lidagi qiyinchiliklarni matonat bilan yenggan benazir inson, muruvvatli qalb sohibi, AKADEMIK. Kitobni o‘qir ekan, o‘quvchi ko‘z o‘ngida ibratli fazilatlarga ega bo‘lgan haqiqiy olim qiyofasi yorqin gavdalanadi.

Adabiy portret ham adabiy-tanqidiy tafakkurning mahsulidir, shuning uchun unda ilmiylik bilan birga obrazlilik ham bo‘lishi lozim. Soddalik, obrazlilik ilmiylik bilan sintezlashsa, haqiqiy adabiy-tanqidiy asar yaratiladi. Bu xususiyatlar mazkur adabiy portretning ichki sarlavhalarida yaqqol namoyon bo‘lgan: “ Hayot so‘qmog‘ida gul bor, tikan ham”; “Alpomish”ni alp o‘rganar, yoronlar”; “Jumbog‘im-jumboq”; “Folklor matnshunosligi va kitobatshunosligi so‘qmoqlarida” kabi qismlarda folklorshunos olimning hayoti, ilmiy izlanishlari, tadqiqotlari, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va yozib olishga doir faoliyati haqida so‘z boradi. Folklorshunos olim, ustoz O.Safarov “To‘ra Mirzaev” adabiy portretining kompozitsiyasida quyidagicha tasnif ko‘zga tashlanadi.

1. To‘plangan materiallar asosida yirik folklorshunos olim T.Mirzaevning hayoti, ijodi haqida hikoya qilish.
2. Olimning ko‘proq ilmiy hayoti va yaratgan tadqiqotlari tahliliga keng o‘rin ajratish.
3. Turli baxshilar repertuaridan yozib olingan dostonlar tahliliga e’tibor qaratish.

Ko‘rinib turibdiki, adabiy portretda olimning ilmiy faoliyati, boshqalarga notanish bo‘lgan qirralari haqida ham fikr yuritiladi. Ob’ektga olingan shaxsning ilmiy-ijodiy faoliyati bilan birga qalbi, orzu-armonlari, do‘stlari, shaxsiy hayotini qalamga olish adabiy portretning muhim qismlaridan hisoblanadi. Farang faylasufi Sent-Byov o‘zining «Adabiy portretlar», «Dushanba kunlaridagi suhbatlar», «Por-Royal» nomli asarlarida ob’ektga olingan yozuvchining nafaqat ichki dunyosi, balki hatto uy-joy sharoitiga ham chuqurroq kirishga intiladi. Uning fikricha, yozuvchining kundalik hayoti va odatlariga birinchi darajali ahamiyat berish lozim deb hisoblaydi [Sent-B’yov,1970:49]. Chunki har qanday yozuvchi, olim, boshqa oddiy insonlar kabi, real mavjudot bo‘lib, uni o‘rab turgan odamlar, ularning hayoti ijodida muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy portretda ham mana shunday “mayda-chuydalar”ning aks ettirilishi, ob’ekt - olimning insoniy qiyofasi chiziqlarini batafsil tasvirlash unga hayotiylik va yaxlitlik baxsh etadi. To‘ra Mirzaevga bag‘ishlangan adabiy portretda bu jihatlar to‘liq yoritilgan deyish qiyin, shunga qaramay, ustoz O.Safarovning respublikamizdagi yirik olim, professor, folklorshunos, akademik To‘ra Mirzaevga bag‘ishlangan adabiy portretining ahamiyati katta ekanligi namoyon bo‘ladi: birinchidan, olimning hayot yo‘li, mashaqqatlardan cho‘chimay, olg‘a borishi yoshlarni ilm yo‘lidagi fidoyilikka undaydi, ikkinchidan olimning sermazmun hayot va ijod yo‘li yoshlar uchun namuna bo‘la olishiga ishonch, ustozga mehr va sadoqat ko‘rgazish ruhi mo‘jaz adabiy portretni bezab turibdi.

Adabiy portret muallifi O.Safarov ustozi To‘ra Mirzaevning ilmiy-ijodiy portretini yaratib, o‘quvchini benazir inson, bag‘rikeng olim, yirik jamoat arbobi hayoti va ijodi bilan tanishtirish yo‘lida fidoyilik ko‘rsatdi. Haqiqatan ham Ustoz To‘ra Mirzaev ezgu amallari, yozgan kitoblari, odamlarga qilgan yaxshiliklari bilan o‘zlariga haykal qurib ketdilar, u kishini bilgan, tanigan inson borki, qalbida chuqur muhabbat, hurmat bilan eslaydi. Ezgu so‘z, ezgu ish, ezgu amal – buyuk

inson, akademik To‘ra Mirzaevning hayot a’mollariga aylanib, ilm ahlining hayotini yoritishga bag‘ishlandi. Shunday ekan, bu bebaho inson, uning hayot tarzi, ijodi, faoliyati haqida esse-romanlar, monografiyalar, tadqiqotlar yaratish adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan bo‘lib, kelajak avlodni buyuk ajdodlardan o‘rnak olishga chaqirish yo‘lidagi say’ harakatlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova Sh.O‘zbek adabiy tanqidchiligi janrlari. Toshkent. Fan, 2009.
2. Safarov O. Hassos folklorshunos va fan tashkilotchisi.Kitobda: Folklor – bebaho xazina. Toshkent. Muharrir. 2010. 301-bet.
3. Safarov O. To‘ra Mirzaev.Adabiy portret. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2006.
4. Sent-Byov Sharl. Literaturnыe portretы. Kriticheskie ocherki. – M.: Xudojestvennaya literatura., 1970. – S.49.

NAMANGAN VILOYATI QARLUQ SHEVA AREALLARINING O‘RGANILISHI

STUDY OF KARLUK LANGUAGE AREAS OF NAMANGAN REGION

Mahliyo Darvishaliyeva
Namangan davlat universiteti magistranti
ibmofifar@bk.ru

Annotation. *The article expresses opinions on the history and level of knowledge of the Karluk dialects of the Namangan region. Reactions and comments to the conclusions of scientists who studied Karluk dialects are described.*

Key words: *language, dialect, dialect, dialect, historical genesis of dialects, dialect area, dialect classification, phonetic, lexical, grammatical elements.*

Ma’lumki, o‘zbek tili ko‘p shevalidir. Ayniqsa, Namangan shahri va Namangan shahar atrof qarluq shevalari boshqa o‘zbek shevalaridan o‘ziga xos ajralib turuvchi lisoniy jihatlari, belgi-xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Namangan shahar dialekti haqida ayrim fonetik, leksik va grammatik belgilar, ayniqsa, jahon tillarida ham kam kuzatiladigan holatlar, “tilmi bu yoki shevami?” [9.6] kabi savollarning qo‘yilishi tilshunoslarni qiziqtirib qoladi va uni jiddiy o‘rganishga kirishiladi. Natijada Namangan shahar shevasi bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Viloyatning ma’muriy markazi Namangan shahar shevasining o‘ziga xos shakllanish jarayonlarida nafaqat turkiy, balki fors-tojik tilining fonetik, leksik va grammatik belgilari muhim rol o‘ynaganligi uchun boshqa o‘zbek shevalaridan farq qiluvchi Namangan shahar shevasining o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini o‘zbek tilshunosligining yetuk dialektologlaridan E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, G‘.O.Yunusov kabi olimlar o‘rgandilar, tasnifladilar va tahlil qildilar. Natijada shevaning lingvistik xususiyatlari haqida asosli to‘xtamlarga kelindi.

Viloyatning qarluq sheva arealidagi Namangan shahar shevasi va uning fonetik va morfologik xususiyatlari tilshunos olimlar S.Otamirzayeva [4.18;5.3-191] va S.Tulyakovlar [12.19;15.24] tomonidan, Uychi shevasi professor A.Y.Aliyev tomonidan XX asrning 30-60-yillarigacha o‘rganildi [1.18;15.28].

A.Y.Aliyev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida [2.52;15.23] Namangan viloyati shevalarining fonetik, leksik va morfologik jihatlariga umumiy tavsif bergan holda, Namangan shahar hududi va unga yaqin joylarda yashovchi aholi shevalarini batafsil yoritishga harakat qilgan. H.Sharipov nomzodlik ishining [13.18;15.25] ayrim o‘rinlarida Qirg‘iziston janubiga qo‘shni bo‘lgan Yangiqo‘rg‘on tumanining ba’zi qishloq shevalari haqida qisman ma’lumotlar mavjud. H.Sharipov tadqiqoti asosan qipchoq lahjalari va ayrim qarluq lahjasi birliklari ustida borgan.

Namangan viloyatidagi dialektlar haqidagi ilk ma’lumotlar V.Nalivkin va M.Nalivkinalar tomonidan yaratilgan lug‘atda qayd etilgan [2.52;15.24]. Bu lug‘at o‘zbek dialektologiyasi sohasida, xususan, Namangan shevasi bo‘yicha qilingan birinchi ish bo‘lgan, deyish mumkin. Dialektolog olimlar A.Aliyev va S.Tulyakovlarning ta’kidlashicha, Nalivkinlar lug‘atida sheva xususiyatlari aniq transkripsiya belgilari bilan berilmaganligi uchun Namangan shevasiga xos o‘rinlarni ajratib olish qiyin [2.31-40;15.22-24]. Ishga o‘sha davr nuqtayi nazari bilan yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Nalivkin Chor Rossiyasining Namangan uezdida fan, maorif va ijtimoiy masalalarni muvofiqlashtiruvchi bo‘limi boshlig‘i lavozimida ish olib borgan va areal shevasini etnografik tarzda o‘rgangan.

Shved turkshunosi Gunnar Yarringning Namangan dialektiga kiruvchi Qilich shevasiga bag‘ishlangan ingliz tilidagi kitobchasi 1937-yilda *(Jarring G. The Uzbek Dialect of Qilich.* (*O‘zbek tilining Qilich shevasi) Leipzig, 1937)* chop etiladi. Ishda, tilshunoslarning e’tiroficha, hozirgi Chust tumaniga qarashli Qilich (hozirgi Uzun qishlog‘i) shevasining ayrim fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarining tasviriy bayoni keltirilgan.

“Gunnar Yarring O‘zbekistonda, jumladan, uning atrofidagi joylarda, Namangan shahrida bo‘lgan emas, – deydi A.Y.Aliyev. – Matnlar, muallif ma’lumotiga ko‘ra, Qilich qishlog‘idan Afg‘onistonga qochib o‘tgan bir mullaning o‘g‘li Ahmadjon degan kishidan yozib olingan. Gunnar Yarring ana shu kishidan yozib olgan sheva materiallariga asoslanib, 1937-yilda “O‘zbek tilining Qilich shevasi” kitobchasini nashr qildirgan. Kitobda so‘z boshidan tashqari, o‘zbek shevalari xususiyatlarini ko‘rsatuvchi bo‘limlar bilan birga shevaga xos matnlar ham berilgan”. A.Y.Aliyevning yozishicha, G.Yarring sheva vakilidan yozib olgan “Bilaguzuk” qo‘shig‘i va “Uch yolg‘ondan qirq yolg‘on” ertagiga tayanib, o‘z izlanishlariga xulosa yasagan [3.37-42].

Professor A.K.Borovkov “umlautli” yoki “uyg‘urlashgan” shevalar tasnifiga doir” maqolasida Namangan, Uychi, Chortoq, Koroskon, Uchqo‘rg‘on, Qayqi kabi qarluq tip shevalaridagi umlaut hodisasining vujudga kelish sabablarini misollar orqali izohlab berganlar, biroq ularning izohlari umlautni to‘laligicha qamrab ololmaydi [6. 29-31;15.24].

Olim 1944-yilda amalga oshirilgan dialektologik ekspeditsiya davrida to‘plangan materiallari asosida “Namangan viloyatidagi o‘zbek shevalari” nomli maqolasini yozadi [7.31-59;15.24]. Maqolada Namangan viloyatining bir qator hududlaridagi o‘zbek shevalarining ayrim fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini ko‘rsatib berilgan. Ish Namangan guruh shevalarining tarixiy genezisi, ularning tasnifi masalalari haqida kengroq tasavvur hosil qilish uchun manba bo‘la oladi.

A.K.Borovkov tasnifi Namangan viloyatidagi barcha o‘zbek shevalarini to‘laligicha qamrab olmagan. Shunga qaramay, tasnifda ko‘rsatilgan ayrim shevalarni, ayniqsa, Namangan shahar va unga yaqin joylashgan hudud qarluq shevalarini ham kichik guruh qipchoq shevalarini ham shahar tip “umlautlashgan” shevalar tarkibga kiritgan [8.58-74;15.24]. Olimning Namangan shahar sheva xususiyatlariga asoslanib, viloyatning barcha hudud shevalarini “umlautlashgan” shevalar toifasiga kiritganligiga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki viloyatning aksariyat shevalari qipchoq lahjasiga mansubdir.

Professor E.D.Polivanov ham o‘zbek shevalarini tasniflashda Namangan dialektiga kiruvchi Namangan shahar va unga yaqin joylashgan Chortoq, Uychi hamda Shahand (To‘raqo‘rg‘on tumanidagi qishloq) aholi punktlari shevalarini eronlashgan shevalarning uyg‘urlashgan yoki umlautli 4-a tipiga kiritgan [10.54]. Olimning Namangan shahri, Chortoq, Uychi tumanlari shevalarini eronlashgan tip shevalar guruhiga kirishi haqidagi fikrlariga qo‘shilish mumkin. Lekin qipchoq lahjasining tipik vakillari istiqomat qiluvchi yirik Shahand qishlog‘i shevasining bu tipga kiritilishi munozaralidir. Chunki bu eng qadimiy aholi yashash joyida azaldan “y”lovchi va “j”lovchi qipchoq urug‘lari (saroy, olchin, qotog‘on, qurama kabi) yashab keladilar.

Professor G‘ozi Olim esa faqat Namangan shahar shevasini nazarda tutib, butun Namangan viloyatidagi shevalarni turk-barlos lahjasiga kiritadi [14.21;15.24]. Bu tasnif ham Namangan viloyati dialektlarini to‘la qamrab ololmaydi. Olim ishlarida Namangan shevalariga batafsil va sinchikovlik bilan to‘xtalmagan. Ma’lumki, o‘zbek shevalarining aksariyatida turk-barlos shevalari unsurlari mavjud.

Professor V.V.Reshetov “O‘zbek tilining Namangan shevasi haqida” maqolasida Namangan shahar shevasining tarixiy shakllanishi, uning fonetik va morfologik xususiyatlarini birinchilardan bo‘lib batafsil ilmiy asoslab berishga harakat qilgan [11.216;15.24].

Olim Namangan dialektiga kiruvchi qarluq shevalarni sanab qo‘ya qolmay, ularning boshqa turkiy tillar va o‘zbek shevalaridagi tutgan o‘rnini, lingvistik xususiyatlarini tarixiy qiyoslab, boshqa tilshunoslar tasnifiga nisbatan batafsilroq tahlil qilib bergan [11.216;15.24]. Namangan shahri, YAngiqo‘rg‘on tuman markazi, Uychi, Chortoq tumanlari shevalarini qarluq lahjasining umlautlashgan shevalar guruhiga kiritib, asosli tasniflagan. Namangan viloyatining boshqa

dialektal areallari haqidagi fikrlarini shevalardagi lisoniy unsurlar asosida umumlashtirib, misollar orqali qarluq yoki qipchoq tip lahjalarga ajratish mumkinligini tarixiy faktlar asosida tavsiflagan.

Genetik ildizlari uzoq o‘tmishga, turli etnogenezisga ega bo‘lgan Namangan viloyati qarluq shevalari bir qator tilshunoslarning diqqatini tortdi. Ularning o‘zbek shevalarini o‘rganish borasidagi izlanishlari o‘zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qildi va hozirda bu jarayon davom etmoqda.

Xullas, Namangan viloyatining ko‘plab dialektal areallari, ularning o‘ziga xos lisoniy jihatlari olimlarimizning yuqorida tilga olingan ilmiy izlanishlarida, tilga olinmagan bo‘lsa-da, bugungi kunda viloyatning barcha dialektal areallarida istiqomat qilayotgan aholi o‘zining turli rang va jilosiga ega bo‘lgan o‘zbek shevalarida aloqa qilmoqdalar. Ular o‘z shevalarida eng qadimgi turkiy va turkiy bo‘lmagan til unsurlarini saqlab kelmoqdalar. Shuning uchun ham Namangan dialektal areali bugungi kunda yana qayta monografik tadqiqotlar obyektiga aylanmoqda, bu esa o‘zbek tilshunos-shevashunoslari oldidagi eng ahamiyatli va dolzarb vazifalarning asosiysidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алиев А. Ю. Уйчинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1960. – 24 с.
2. Алиев А.Ю. Наманганская группа говоров узбекского языка: Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Тошкент, 1975. – 52 с.
3. Алиев А.Ю. Наманган диалекти ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан. 1967. – Б. 37-45.
4. Атамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Л., 1963. – 19 с.
5. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент, 1974. – 195 с.
6. Боровков А.К. К характеристике узбекских “умляутных” или “уйгуризованных” говоров // Белек – Малову. – Фрунзе, 1946. – С. 29-31.
7. Боровков А.К. Узбекский говоры Наманганской области. – Ташкент, Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1963.
8. Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских говоров // Изв. АНУз ССР. – № 5. – 1953. – С. 58-74.
9. Наливкин В., Наливкина М. Русско-сартовский и сартовско-русская словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда. – Казань, 1884. – С. 6.
10. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933.
11. Решетов В.В. О наманганском говоре узбекского языка. Сб. Академику В.А.Гордлевскому. – М., 1953. – С. 216.
12. Тулаков С. Морфологические особенности наманганского говора: Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 1965.
13. Шарипов Ҳ. Жанубий Қирғизистон ўзбек шевалари: Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Тошкент, 1967. – 21 с.
14. Юнусов Ғ.О. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр, 1936.
15. Дарвишов И. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б.147.

QO‘SHRABOT HUDUDIDA QIZ BOLALAR O‘YNAYDIGAN O‘YINLAR

GAMES PLAYED BY GIRLS IN THE KOSHRABOT AREA

Shuxratova Oydin
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya*: Qo‘shrabot hududi bolalar folklori janrlari xilma-ail va boydir. Ushbu maqolada hudud bolalar folkloridan qiz bolalar folklori alohida o‘rganildi va ularning naqadar muhim va jozibali ekanligi misollar bilan ko‘rsatildi.*
Kalit so‘zlar*: folklor, qiz bolalar o‘yinlari, quyoncha, mehmon-mehmon.*

Abstract. *The genres of children's folklore of the Kushrabot district are diverse and rich. In this article, the folklore of girls was studied separately from the children's folklore of the region and showed how important and attractive they are.*
Keywords: *folklore, girl children's games, rabbit, guest-guest.*

Xalq og‘zaki ijodi – hamma zamonlarda ham ijod sarchashmalari hisoblanib kelinadi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo‘shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o‘zining yuksak orzu umidlarini ifodalagan. Shu jihatdan bolalar og‘zaki ijodi, dastlab beshikdalik davridayoq kattalar tomonidan yaratilib, ulg‘ayib borgani sari turli janrlar bilan boyib boradi.

Har bir ota-ona farzandi dunyoga kelganidan keyin unga allalar, ertaklar, ovutmachoqlar aytib bera boshlaydi. Shunday qilib go‘daklikdanoq adabiyotga, ijodga to‘yingan bola ulg’aygani sari o‘zi ham mustaqil qo‘shiqlar aytgisi, raqs tushib o‘ynagisi kela boshlaydi, shu tariqa bolalar folklori yuzaga kela boradi. Dastlab alla, ovutmachoq, erkalamalardan boshlangan bolalar folklori borgan sari boyib, rang-barang tus oladi. Ular so‘z yordamida, harakatlar yordamida o‘ynaladigan o‘yin folklori yoki alohida raqsga tushib kuylanadigan qo‘shiqlar kabi turlarga ajraladi. Bolalar folklorinining rang-barangligini ularning alohida qiz bolalar, o‘g’il bolalar, qiz bolalar va o‘g‘il bolalar aralash o‘ynaydigan o‘yinlarga nisbatlab guruhlarga ajralishidan ham bilsak bo‘ladi. Qo‘shrabot hududi bolalar folklori ham xuddi shunday turlarga ajraladi. Qiz bolalar o’ynab ijro qiladigan qo‘shiq turlarini oladigan bo‘lsak, bu o‘yinlar aynan qiz bolalar uchun maxsus bo‘lib, o‘yinlar harakatlar yordamida yoki raqslar bilan birgalikda bajariladi. Bunday o‘yinlar keng tarqalgan bo‘lib, qiz bolalarning zehniy va jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi. Masalan, qiz bolalar ikki qo‘lini X shaklida yelkasiga qo‘yganicha o‘ynaladigan o‘yin va harakat bilan ketma-ket ravishda aytiladigan “**O‘roqchi-ketmonchi**” aytimini oladigan bo‘lsak, bu o‘yinda ikki qiz yuzma-yuz o‘tirishadi va qo‘llarini chalkashtirgan holda yelkasiga qo‘yib, qo‘llarini almashtirib aytimni aytishadi:

Halqa, halqa, bilaguzuk,
O‘ng qo‘limda o‘ng juzuk,
Tepdim sandiq ochildi,
To‘rga bodom sochildi.
Bodomlarni terguncha,
Qizil gullar ochildi.
Qizil gulning g‘unchasi,
Moy kulchaning gulchasi,
Moylarg‘a blab jesangchi,
O‘roqchi ketmonchi,
Ketmonchi, o‘roqchi.

Ushbu aytimni aytib bo‘lib ikki qiz ikki qo‘lini ushlashadi. Agar qo‘llari chalkashmasidan to‘g’i tushsa, do‘stlik bo‘lib, bu ikki qiz do‘st bo‘lgan hisoblanadi. Bunday aytimli o‘yinlarning turli joylarda turlicha variantlarini ko‘rishimiz mumkin. **“Do‘stmisan, dushmanmisan**” o‘yini va aytimi ham shunday qo’shiqlardan biridir:

Do‘stmisan, dushmanmisan,
Kel o‘ngacha sanaylik, do‘stligimiz sinaylik,
Bir, ikki, uch…..

Shu shaklda sanashib oxirida “do‘stmi yo dushman”ligi aniqlanadi.

Bundan tashqari qiz bolalar aytimlaridan raqsga tushib, jo‘r bo‘lib aytiladigan qo‘shiqlarni ham yozib oldik. Bunda o‘g‘il bolalar o‘ynaydigan o‘yinlardan asosiy farqlariga ham e’tibor berildi. Qiz bolalar o‘yinlarida, asosan, qo‘l yordamida yoki raqs bilan o‘ynaladigan o‘yinlar bo‘lib aynan qiz bolalarga xos xarakterlarni ochib beradi. Masalan, ushbu aytimga diqqat qaratsak:

Tog‘da lola, bir qiz bora,
Nima qilyapti, do‘ppi tikyapti,
Do‘ppisi qani, sotib yubordi,
Puli qani, aroq oldi,
Arog‘i qani, ichib qo‘ydi,
Shishasi qani, sindirib qo‘ydi,
Sinig‘i qani, ko‘mib qo‘ydi,
Ko‘mmay o‘l, gumdon bo‘l.

Bunda ham ikki qiz yuzma-yuz o‘tirishadi va ikki qo‘lini bir-biriga urishib aytimni qo‘shiq tarzida aytishadi. Va oxirida chapak chalib tugatib qo‘yishadi.

Qiz bolalar o‘yin qo‘shiqlarini faqat ikki yoki undan ortiq qizlar aytmasdan, yakka holda ham aytiladigan she’r va aytimlar ham mavjud. Masalan, ushbu she’rni endi aqlini taniyotgan qizchalarga oyilari o‘rgatishadi va o‘zlari jajji qo‘g’irchog’ini qo‘liga ko‘targan holda chiroyli harakatlar bilan aytishadi:

Qo‘g‘irchog‘im – Natasha,
Yeb qo‘yibdi, ko‘p kasha,
Endi nima qilamiz,
Do‘xtirni chaqiramiz,
Alo, alo, do‘xtirjon,
Bir qiz kasal bo‘libdi,
Uning oti qo‘g‘irchoq
Familyasi o‘yinchoq.

Ushbu aytim ham, qo‘shiq ham she’r tarzida aytilishi qizchalar kayfiyati va holatiga bog‘liq.

“**Mehmon-mehmon**” o‘yini ham qiz bolalar o‘yinlari tarkibiga kirib, uni turli harakatlar va aytimlar aytib, ko‘pchilik bo‘lib o‘ynashadi. Bunda ikki yoki undan ortiq qizlar qatnashadi va quyidagicha aytim aytishadi:

–Duk-duk, eshikni oching,
Uyingizga mehmon keldi.
–Omonmisiz, esonmisiz?
Bugun bizga mehmonmisiz?

Eshikni ochishadi va mehmon-mehmon o‘ynashib “turli noz-ne’matlar” tortib mehmon qilishadi.

“**Chakimtosh**” o‘yini ham qizlar o‘yinlariga kirib, beshtosh o‘yining (“happak tosh” ba’zi hududlarda) aynidir. Bunda bir necha qizlar o‘yin uchun yaroqli 5 tadan kichik tosh yig‘ishadi va o‘yinni bosqichma-bosqich o‘ynashadi. O‘yinda toshni ushlolmagan ola “ketdi” va keyingi navbat kelgunicha qoladi. Kim oldingi bosqichga yetib borsa, o‘sha g’olib bo‘lgan hisoblanadi. Bu o‘yin o‘ynalishi bilan bog‘liq tabularni ham uchrattik (ya’ni qiz bolalar bu o‘yinni ko‘p o‘ynashsa, o‘sha yilda qimmatchilik va qurg’oqchilik ko‘p bo‘ladi, degan tushuncha bor ekan). Bu o‘yinning Respublikamizning barcha hududlarida o‘ynalishini kuzatishimiz mumkin (O. Safarov, Bolalar o‘yin folkori).

Mavsum bilan bog‘liq qo‘shiqlarning ko‘pchiligi qizlar tomonidan aytiladi. Qo‘shiq ijrosi bilan birgalikda raqsga ham tushishadi. Masalan, **“Boychechak**” “**Chittigu**l” qo‘shiqlari shular jumlasidandir. Biz ham bu hududda qizlar ijro qiladigan mavsum qo‘shiqlaridan bir nechtasini yozib olishga harakat qildik:

Yomg‘ir yag‘aloq, yam-yashil o‘tloq,
Endi ekinlar chiqarar quloq,
Yashnasin dala, ochilsin lola

Tog‘lar qo‘ynida oqsin shalola
Tarnovdan toshib, oqadi shoshib,
Ariqlar tolar zo‘r anhor bo‘lib.

Ushbu qo‘shiq bir guruh qizlar tomonidan bahor faslida aytiladi. Bahor bayramlarida, xususan, Navro‘z sayllarida xursandchilik kuy va qo‘shiqlar bilan kuylanadi.

Tomchi, tomchi, tomchi yomg‘ir
Shamol esdi esdi g‘ir-g‘ir.
Baxmal-baxmal bo‘ldi bog‘im
Gullarga to‘ldi quchog‘im.
Bahor, bahor, bizga bo‘lar yangi hayot yor.
Yashil, yashil, yashil o‘tlar
Orasida sariq gullar o‘rik guli oq kapalak
Osmondagi bu kapalak,
Bahor, bahor, bizga bo‘lar yangi hayot yor.

Bahorni madh etuvchi bu qo‘shiq barcha hududda qizchalar tomonidan raqsga tushib kuylanadi.

Xulosa tarzida shuni aytishimiz mumkinki, har bir hududning o‘ziga yarasha urf-odatlari, an’analari, folklori mavjud bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, bolalar folklorining ham o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Qiz bolalar folkloridagi aytimlar, o‘yin-qo‘shiqlar bilvosita yashayotgan hudud tarixiga, an’analariga va turmush tarziga bog‘liq bo‘ladi. Qo‘shrabot hududi tarixi ham uzoq davrlarga borib taqalib, boshqa hudud folklori namunalariga qaraganda o‘z tarixiyligi va boyligini saqlab qolgan. Biz shu hudud qiz bolalar folkloridan namunalar yig‘ishga va ularni tahlilga tortishga harakat qilar ekanmiz, bir qancha yangiliklarga va savollarga duch keldik. Keyingi tadqiqot ishlarimizda bularni batafsilroq yoritishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. –T. 2017.
2. Safarov O. O‘zbek xalq bolalar o‘yin folklori. – T. 2013.
3. Mirzayev T., Turdimov SH., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O‘zbek folklori. –T. 2020.
4. Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. –T: O‘qituvchi. 1975. – B. 102.
5. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. –Т: Ўқитувчи. 1985. – Б. 250.
6. Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклорининг жанрий табиати, генезиси ва бадиий хусусиятлари. Дисс., – Т. 2005.

QO‘QON AREALIDA TO‘Y-MAROSIM QO‘SHIQLARINING TIL XUSUSIYATLARI

LANGUAGE CHARACTERISTICS OF WEDDING SONGS IN THE KOKAN AREA

Sotvoldiyeva Masturaxon Baxtiyorjon qizi
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya: *Maqolada Qo‘qon arealida yuz ochdi marosimida ijro etilgan xalq og‘zaki ijodi namunalaridan namuna va uning shevaga xos fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma‘lumot berilgan.*

Kalit so’zlar: *kelin salom, singarmonizm hodisasi, ayajonisi, öyna, kiyov, geminatsiya.*

Abstract: *The article provides examples of folk oral works performed in the Yuz Ochdi ritual in the Kokand region, as well as information about phonetic and lexical features characteristic of the dialect.*

Key words: *greeting the bride, the phenomenon of synharmonism, ayajonisi, mirror, bridegroom, gemination.*

O‘zbekiston atalmish go‘zal diyorimizda to‘y marosimlari o‘ziga xos tarzda juda go‘zal qo‘shiq va yor-yor sadolari bilan o‘tkaziladi. Yor-yor qo‘shiqlarini to‘plash va ularni nashr etishda uning badihago‘yligi, janr xususiyatlari, ijro o‘rni haqida bir qator folklorshunos olimlarimiz M.Alaviya, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, M.Jo‘rayev ,M.Yoqqubekova, F.Abdurahmonov,T.Mirzayev, N.Quranboyevalar ilmiy nazariy ishlarni olib bordilar. Bir millatga mansub bo‘lishga qaramasdan, turli hududlarda to‘y marosimlari bir arealnikidan boshqa arealniki farqlanadi. Shu jumladan, Yor-yor qo‘shiqlarida ham xalqona kechinmalarning, xalqona so‘zlarning ifodalanishida shevaga xos so‘zlar ko‘zga tashlanadi. Qo‘shiq tarkibidagi so‘zlarda fonetik va leksik o‘zgarishlar mavjud bo‘ladi.

Kelin salom ham to‘y marosimini ajralmas qismi bo‘lib Qo‘qon va unga yaqin hududlarda to‘y kunidan keyin, uchinchi kuni o‘tkaziladi. Kelin salomni kuyov tomondan yoshi katta onaxonlar yoki maxsus chaqirilgan laparchilar tomonidan ijro etiladi. Qo‘qon shahri va unga yaqin atrof hududlar umuman olganda Farg‘ona vodiysi aholisi shevasi qarluq tipidagi shevalardan sezilarli darajada ajralib tursada, ularni tipik qipchoq shevalari qatoriga qo‘shish ancha qiyin.

Buning asosiy sabablaridan biri aholining zich joylashganligi, markazga tomon intilish va adabiy tilga yaqinlashish o‘sib borayotganligidadir. Quyida O‘zbekiston tumani, Oqmachit qishlog‘ida tug‘ilgan, Mashrabxon ayadan yozib olingan kelin salom so‘zlari tarkibida qipchoq shevasiga xos bo‘lgan singarmonizm qonuniyati, reduksiya va elizya hodisalarini uchratamiz.

Kelin Salom

Ošga sabzi: tashladi:m, jor-jor salomni boshladim,
Salom, salom jor-jor kelin salom jor-jor,
Qabül ajlang Ollohim sizga salom jor-jor.
Ʒäjnamozi qo‘lida,dojim Xudo jo‘lida,
Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,
Qabül ajlang hoji onalar silarga salom jor-jor,

Hoji onalarga ta‘rif berish jaroyonida “**Jäynamoz**”so‘zida o unlisini til oldi,qisqa ä ga almashgan. Paytni bildiruvchi ravishga oid “doim” so‘ziga y tovushi orttirilgan. Siz olmoshiga esa ko‘plikni anglatuvchi “lar” qo‘shilganda elizya hodisasi yuz bergan, sizlarga-silarga.

Karmonidan pul bergan, ko‘ča to‘la qo‘j bergan.
Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,
Qabül ajlang dadajoni sizga salom jor-jor.

Har bir kishiga berilyotgan ta’riflar bir-birini takrorlamas o‘ziga xos tarzda keltirilgan bo‘lib, qaynota tarifida to‘y sarf harajatlari ham tilga olinyapti.**Karmon**- pul solish uchn maxsus ishlangan xaltacha, hamyon.Karmon shevaga oid so‘z hisoblanadi,katmon shaklida ham varianti mavjud va badiiy asarlarda barobar ishlatilgan. **Oychechak tangalarni guldor katmoniga soldi.(**Mirmuhsin,”Temur Malik”), **Har kimning karmoni o**‘ziga ma’lum.(Oybek,”Tanlangan asarlar”) **.**

Qäzon juvišga eringan, og’il tug’dim deb kerilgan,
Aklas ko‘rpa täklägan,kelinimga deb saqlagan.
Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,
Qabül ajlang ajaʒoni sizga salom jor-jor.

Lingval yoki palatal (tanglay) singarmonizm. Singarmonizmning bu turida so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator unlilar qatnashgan bo‘lsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham old qator unlilar ishtirok etadi, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator unlilar qatnashadi.

Bu qonunga koʻra soʻzning dastlabki bogʻinida **a, u, o, ï:, ï** unlilarida biri qatnashsa, keyingi boʻgʻinlarida ham ana shu unlilar keladi, shuningdek, soʻzda chuqur til orqa **q, y, x** undoshlari ishtirok qilishi mumkin, aksincha, soʻzning dastlabki bogʻinida **ä, e, i:, i, ö, ü** unlilaridan biri qatnashsa, keyingi boʻgʻinlarida ham xuddi shu unlilar keladi, bunday soʻzlarda **k, g** undoshlari ham qatnashishi mumkin. Bu qonun qarluq lahjasining shahar va shahar tipidagi shevalarida amal qilmaydi.

[S. Ashirboyev . O'zbek dialektologiyasi. Toshkent. 2021. 38-39 betlar]

Milliy libosimiz sanalgan atlas koʻylak toʻylarda urf boʻlgan kiyim sanaladi. **Atlas** kiygan ayol borki u albatta koʻzga tashlanib turadi. Atlas soʻzi bu misrada dissimilatsiya hodisasi natijasida **aklas** tarzida, **taxlagan** esa **taklagan** shaklida kuylangan.

Aya soʻzining ona yoki qaynonaga nisbatan qoʻllanilishi qator sabablar bilan bogʻliqdir. Chunki Oʻsh, Fargʻona va Qoʻqon guruh shevalarida va Baliqchi hamda Jalolquduq shevalarida aya soʻzi ona soʻzi oʻrnida qoʻllanadi. Bunday holat Jizzah, Piskent aholisi nutqida ham mavjud. Avallari radioeshittirish va telekoʻrsatuvlarda, ayniqsa Fargʻona vodiysidan chiqqan eng moʻtabar, atoqli ayollarning "aya" deb atalishi ham oʻz ta'sirini koʻrsatgan. Oila muhitida ona soʻzini qoʻllash sheva vakillari uchun noqulayroq seziladigandek koʻrinadi (Toshkent va Fargʻona shevalarida hanuz ona soʻzi ommalashmagan) aksincha aya soʻzida ma'no jihatdan ham talaffuz jihatdan ham ancha muloyimlik, yengillik seziladi.[.А.Маматов. Узбек тили лексикологиясидан материаллар.163-164 бетлар] Aya soʻziga **jon** affiksi qoʻshilganlanligi bu oʻrinda faqat erkalashgina emas kuyovning onasini eritishga koʻproq urgʻu berilmoqda. –Jon va –xon affikslari qoʻshilganda qanday maqsadda ishlatilishi ular qoʻshilgan soʻzlarnig lugʻaviy maʻnolariga bogʻliq boʻladi. Yangi tushgan kelinlar qaynona va qaynopa ya'ni kuyovning yaqinlarining barchasiga –jon qoʻshib aytishlari hozirgi kunda urfga aylanib ulgurgan. Oʻzidan katalarga murojat qilganda erkalanish va yalinish sezilib tursa, kichiklarga qoʻllanganda erkalatish anglashiladi.

Tāš öjnägä qaragan,gaǯǯagini taragan,

Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,

Ushbu ikki misrada "**oyna**" soʻzi singarmonizmli oʻzbek shevalariga xos boʻlgan ö-old qator, oʻrta keng,lablangan unlini ifoda qilmoqda. Ö tarzida talaffuz qilinishiga

Ö tarzida talaffuz qilinishiga böl, köl kabi misollar ham mavjud. Gajak-egilgan,egri ma'nosini anglatadigan tojikcha kaj(kach) sifatiga –ak qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan boʻlib,ikki chekkaga husn uchun yarim halqa shaklida tushirib qoʻyiladigan soch,zulf ma'nosini anglatadi. **Gaǯǯag** soʻzida geminatsiya hodisasini koʻrishimiz mumkin.

Qabül ajlang qaynisiŋilǯonlari silarga salom jor-jor.

Ogʻilga kirgan guvullab,sigir soqqan šovullab

Oʻgʻil-shevaga oid soʻz. Uy hayvonlarini saqlash va boqish uchun qurilgan bino ya'ni molxona.

Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,

Qabül ajlang holaǯonlari silarga salom jor-jor.

Jangi boqqa kirib chiqqan, beqasam toʻn kijib chiqqan,

Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,

Qabül ajlang kijov bola sizga salom jor-jor,

Bogʻ-oila, yor, sevishganlar uchrashuvchi visol joyi. Hayot quvonchhlari ramziy ma'nolariga ega.Butun borliq ulkan olam deb anglansa, bogʻ kichik olam modelidir.

Kuyov ta'riflanganda yangi boqqa kirib chiqqan deb takidlanishga sabab, bogʻ bu uning oila ichhidagi oʻzi qurayotgan yangi bir oilaga, yangi olamga ishoradir. Kuyov soʻzi kelinning ota-onasi hamda katta yoshdagi barcha qarindoshlarning nutqida qoʻllanilib, singilning eri, qizning eri va yoshi kichik barcha qarindosh qizlarning turmush oʻrtogʻi ma'nosini bildiradi. Qiz tomonga qarashli boʻlgan katta yoshdagilar, yor-birodarlar va qoʻni-qoʻshnilar bari-oʻzidan kichhik qizning erini kuyov deb atayveradilar. Bu soʻz shevada **kuyov, kiyov, kiyav** kabi shakllarda uchraydi.

Atlas koʻjlak qijqimi, jigitlarning šilqimi,

Salom,salom jor-jor kelin salom jor-jor,
Qabül ajlang kijov ǯo'ralar silarga salom jor-jor.
Bo'jnimdagi marǯonim to'kili:b ado bo'ldi,
Silarga ajtgan kelin salomim, do'slarim tamom bo'ldi-jej.

Do's-do'st bu so'z ham huddi siz kabi ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida tovush tushishi sodir bo'lyapti.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qo'qon arealidagi xalq og'zaki ijodi namunalari o'ziga xos dialektologik xususiyatlarga ega. Tadqiqotimiz davomida hududdagi namunalarda turli fonetik hodisalar, leksik farqlar, morfologik o'zgarishlarni aniqlashga va ularni tahlil qilishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ashirboyev . O'zbek dialektologiyasi. Toshkent. 2021.
2. А.Маматов. Узбек тили лексикологиясидан материаллар. Тошкент .2009
3.А.Ю.Алиев.Наманганская группа говоров узбекского языка. Ташкент.
3. Ш.Носиров.Кокандский говор узбекского языка. Ташкент.1965.
4. Х.Дониёров.Кипчок диалектларининг лексикаси. ФАН. Ташкент.1979
5. Toxliyev B., Sheraliyev E., Aliqulova H. Yor-yorlar. O'zbek xalq qo'shiqlari.-T.: 2009.
6. Internet ma'lumotlari.

GO'RO'G'LI TURKUM DOSTONLARIDA HASANXON OBRAZI TAHLILI

ANALYSIS OF THE IMAGE OF HASAN KHAN IN THE EPICS OF THE GOROGLI SERIES

G'afforova Sevinch Zayniddin qizi
ToshDO'TAU magistranti
sevinchluckygirl@gmail.com

Annotatsiya. *"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari yaratilishi, tarqalishi doirasi va ijro xususiyatlari, syujet tarkibi, kompozitsion qurilishi va uslubiy o'zgachiliklari, turkumlanish darajalari va jonli, og'zaki ijro sharoitlarida saqlanish holati bilan jahon xalqlari epik ijodiyotida ulkan bir badiiy hodisadir. Noyob folklor merosiga aylangan keng qamrovdagi epos Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq, Sibir, qisman Yevropa xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, uning versiya va variantlari o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qoraqalpoq, uyg'ur, ozarbayjon, turk, qrimtatar, arman, gruzin, kurd, ajar, lazgin, abxaz, qumiq, gagauz, qaraim xalqlari folklor ijodkorlari va ijrochilaridan yozib olingan hamda nashr etilgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab "Go'ro'g'li" turkum dostonlari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi, ammo ularda Hasanxon obrazining xususiyatlari mufassal yoritib berilmagan. Quyidagi maqolada ushbu obrazning dostondagi o'rnini aniqlashga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *Hasanxon, turkum, obraz, tahlil, genezis, tasvir.*

Abstract. *The epics of the "Gorogli" series are a huge artistic event in the epic creativity of the peoples of the world with the creation, scope of distribution and features of singing, plot composition, compositional construction and stylistic differences, levels of categorization and preservation in the conditions of live oral performance. The wide-ranging epic, which has become a unique folklore heritage, is widespread among the peoples of Central Asia, the Caucasus, the Middle East, Siberia, and partly in Europe. Its versions and variants are Uzbek, Tajik, Turkmen, Kazakh, Karakalpak, Uyghur, Azerbaijani, Turkish. , Crimean Tatar, Armenian, Georgian, Kurdish, Ajar, Lazgin, Abkhaz, Kumyk, Gagauz, Karaim folk artists and performers were recorded and published. Since the second half of the last century, studies have been carried out on the epics*

of the "Gorogli" series, but the characteristics of Hasan Khan's character have not been detailed in them. The following article is a prelude to the works aimed at determining the place of this image in the epic.

Key words: *Hasankhan, category, image, analysis, genesis, image.*

O‘zbek folklorshunosligida “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarini o‘rganish, ular haqida muayyan bir ilmiy fikrlar bildirish dostonlarning alohida-alohida kitoblar tarzidagi nashrlari bilan boshlandi. Bu jihatdan Hodi Zarifning 1941-yilda nashr etilgan “Ravshan” va “Malika ayyor” dostonlariga yozgan so‘zboshilari xarakterlidir. Taniqli folklorshunos Buyuk Karimiyning “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoniga (1941) yozgan so‘zboshisi ham ushbu turkum dostonlarini ilmiy asoslarda chinakamiga o‘rganishni boshlab berdi. Xalq dostonlarini to‘laqonli ravishda o‘rganish ishlari natijasida V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarning “O‘zbek xalq qahramonlik eposi”(1947) monografiyasi maydonga keldi.Monografiyaning kattagina bir bobi (165-279-b), shuningdek, “O‘zbek eposining umumiy xarakteristikasi. G‘oyalari, obrazlari, uslub” bobining (302-457-b) asosiy qismi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari tahliliga bag‘ishlangan. Unda olimlar birinchi marta “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari ikki geografik hududda, demakki, bir-biriga yaqin ikki epik an’analar birligida o‘nlab xalqlar orasida tarqalganligini asoslab bergan.

O‘zbek folklorshunosligida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari, uning ayrim namunalarini muayyan muammolar kesimida monografik tarzda o‘rganish bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar olib borila boshlandi va bu boradagi izlanishlar bugun ham davom ettirilmoqda. Jumladan, marhum professorlar M.Saidov hamda M.Murodov tadqiqotlarida bosh qahramon masalalariga [M.Saidov 1964, 1969; M.Murodov 1962, 1975] alohida etibor qaratgan bo‘lsa, boshqa olimlarda turkumlik, ayrim dostonlarning turkumda tutgan o‘rni, ulardagi syujet va kompozitsiya, ba’zi an’anaviy obrazlarning tadriji va tush talqini muammolari yoritilgan [M.Mirzayeva 1985;M.Mirkamolova 1972; J.Xalikulov 1984; K.Mamashukurov 1986; S.Sariyev 2007; A.Abdusamedov 1970; J.Eshonqulov 1996, 2011; A.Tilavov 2000; T.Xaydarov 1993].

Dotsent Abdiolim Ergashev “Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi” monografiyasida Janubiy O‘zbekiston baxshilari repertuarida Go‘ro‘g‘lining nevaralari Nurali va Sheralilar haqida dostonlar alohida-alohida turkumlar sifatida mavjudligini aniqladi, ularning namunalarini yozib oldi hamda umumo‘zbek dostonchiligida tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Filologiya fanlari doktori Sh.Turdimovning “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar” monografiyasi(2011) bosh qahramonning tug‘ilishi, bolaligi, or olishi, uylanishi va g‘oyib bo‘lishi haqidagi dostonlarning qiyosiy tahlili orqali “Go‘ro‘g‘li” turkumining shakllanishida asos bo‘lgan motivlar, epik qahramon va epik homiy, ularning g‘ayri qutbi obrazlari to‘g‘risida yangicha xulosalarni ilgari surdi, etnos va epos munosabatlariga doir e’tiborli mulohazalar bildirdi. Shuningdek, folklorshunos olimlar T.Mirzayev, M.Qodirov, O.Sobirovlar ham “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari xususida o‘z munosabatlarini bildirib o‘tgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, qadimiy mifologik, diniy-ilohiy qarashlarning xalq dostonlarida badiiy-estetik hodisaga aylanish jarayonlarini o‘rganishda, umuman, epos va ijtimoiy-maishiy hayot masalalarini tekshirishda bunday tadqiqotlarning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Dostonlar yuzasidan olib boriladigan tadqiqot ishlarida yetakchi va ko‘makchi obrazlarni aniqlash, ularning genezisi, dostonda tutgan o‘rni va vazifasini yoritish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan, ushbu turkum dostonlaridagi Go‘ro‘g‘li, Avazxon dostonlari bo‘yicha kengroq, Yunus pari, Misqol pari, Hasanxon, yordamchi devlar, xizmatkorlar, qirq yigit haqida ma’lumotlar qisman tahlil etilgan bo‘lib, ular ichidan Go‘ro‘g‘lining yana bir farzandi Hasanxon obrazi tahliliga chuqurroq yondashish, ushbu obrazning dostonlar rivojidagi o‘rni, vazifasini aniqlash folklorshunoslik uchun ilmiy yangilik hisoblanadi.

Folklorshunos olim Sh.Turdimov o‘zining “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari” monografiyasida [Sh.Turdimov 2011: 125] Go‘ro‘g‘lining to‘rt Hasani haqida so‘z yuritib, ulardan uchtasi Hasan Ko‘lbar, Hasan Chopson va Hasan Yakdasta aslida Go‘ro‘g‘lining sodiq xizmatchi devlari bo‘lib, ular doston genezesiga Go‘ro‘g‘li Yunus pariga uylanishi natijasida kirib keladi. Ushbu uch dev Ko‘hi Qofdan Taka Yovmit eliga Yunus parining ota-onasi topshirig‘i

bilan uni qo‘riqlash uchun jo‘natiladi va shu tariqa Go‘ro‘g‘lining sodiq xizmatkorlariga aylanadi. To‘rtinchi Hasan esa uning asrandi farzandi Vayangandan keltirilgan Hasanxon obrazi hisoblanadi. Ushbu xulosaga kelishda olim “Xoldorxon” dostonidagi Avazxon tilidan aytilgan ushbu jumlaga tayanadi:

“*...Otamning Hasanlari: Hasan Ko‘lbar, Hasan Yakdast, Hasan Chopson, Hasan.. shu to‘rtovi kelganda qanday qilar eding...”* [Xoldorxon. 1981:16]

Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi Hodi Zarifning so‘zlariga ko‘ra “*Qo‘lyozmada ochiq joy qolgan. Bunda to‘rtinchi Hasan sifatida Hasanxon nazarda tutilayotirmi, yo boshqa? Aniq emas”* [Xoldorxon. 1981:16].

Hasanxonning turkum dostonlardagi o‘rnini aniqlar ekanmiz, uning bolaligi, o‘smirligi, yigitlik chog‘i, o‘rta yosh paytlari aks etgan sahnalar bir nechta dostonlarda mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, Hasanxonning bolaligi tasvirlangan voqealar Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan baxshidan yozib olingan “Hasanxon” va “Chambil qamali” [Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, 1976]dostonlarida aks etgan bo‘lib, unda Vayangandan Temirxonning Hasanxon ismli o‘g‘lini olib kelish jarayonidatilga olingan “o‘ziga monand bachalar” so‘zi uning hali kichik yoshdagi bola ekanligidan darak beradi:

“...Ana endi Hasanxonni gavhar taxtga mindirib, necha yaxshi kiyimlardan kiygizib, necha o‘ziga monand bachalarni oldiga qo‘yib, necha karnay-surnay bilan otamning arvohi keldi, deb Temirxon podsho necha saltanat bilan chiqyapti bechora...”[Hasanxon dostoni 1976:51]

Shuningdek, Soqibulbul Temirxon podshoga qarata Hasanxonni otasi qiyofasida kelgan Hasan Chopsonning bo‘yniga o‘tqazing,deya qilgan murojaati ham Hasanxonning yosh bola ekanligiga misol bo‘la oladi.

“...Yosh bachani ko‘ndiringlar,
Gavhar taxtdan endiringlar.
Vali bo‘lsin nevarasi,
Bobosining yelkasiga
Norvon qo‘yib mindiringlar...”[Hasanxon dostoni 1976:57].

“Chambil qamali” dostonidagi Hasan Chopsonning Go‘ro‘g‘liga aytgan ushbu so‘zlarida ham Hasanxonning kichik yoshdagi bola ekanligiga misol bor:

“...Hasanxonni bo‘ynima mindirsam,
Undan keyin ishonaman so‘zingga,
Kokili bo‘ynida tursa sildirab,
Har zamonda ko‘rsam avjim keladi,
Yaxshi xizmat qip berayin o‘zingga...”
[Chambil qamali dostoni 1976: 113]

Ushbu misradagi “kokil” so‘ziga e’tibor qaratadigan bo‘lsak,.o‘zbek xalqining an’ana va urf-odatlariga ko‘ra yangi tug‘ilgan chaqaloqning sochi bir yoshga to‘lganida olinib, boshining atrofida soch qoldirilgan, va ushbu soch “kokil”, “haydar” deb atalgan. Yoki uzoq muddat farzandli bo‘la olmayotgan, farzandlari birin-ketin nobud bo‘layotgan oilada tug‘ilgan chaqaloqqa bir yoshga to‘lgandan keyin sochini oldirganda ensa qismida soch qoldirilib, niyat qilib kokil qo‘yiladi va ushbu kokil bolaning sunnat yoshiga yetganda 7-9 yoshida qirqib olingan. Mana shu marosim haqidagi ma’lumotlardan kelib chiqib ushbu dostonlarda Hasanxon 4-9 yosh oralig‘idagi bola degan xulosaga kelsak ham bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan shular ma’lum bo‘ldiki, “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining o‘rganilishi o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan bo‘lib, bu borada bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Ammo Hasanxon obrazining dostondagi o‘rni va vazifasi xususida mufassal ma’lumot yoritilmagan. Ushbu obraz haqidagi ma’lumotlar turkum dostonlari ichida tarqalib yotgan bo‘lib, tadqiqot ishining maqsadi ularni to‘plab saralashdan iborat. Yuqorida keltirilgan manbalarga asosan Po‘lkan baxshi tomonidan kuylangan “Hasanxon” va “Chambil qamali” dostonlarida Hasanxon obrazining bolalik chog‘i tasvirlari aks etgan degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chambil qamali. Doston. Aytuvchi: Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan / Nashrga tayyorlovchilar: Muhammadnodir Saidov, Zubayda Husainova // – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1976
2. Hasanxon. Doston. Aytuvchi: Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan / Nashrga tayyorlovchi: O.Sobirov// – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1976
3. Xoldorxon. Doston. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li / Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi: H. Zarifov// – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1981
4. Shomirza Turdimov. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011.

ANDIJON VILOYATIDA QORAQALPOQ SHEVASINING LINGVISTIK TADQIQI

LINGUISTIC STUDY OF KORAKALPOK DIALECT IN ANDIJAN REGION

Eraliyeva Naimaxon Raxmonjon qizi
Andijon davlat universiteti magistranti
naimaxontokhtasinova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Andijon viloyatining Andijon tumanidagi asli kelib chiqishi qoraqalpoq bo‘lgan xalq vakillarining til xususiyatlari, fonetik, leksik jihatdan farqli belgilari to‘g‘rsida fikr yuritildi.*

Kalit so‘zlar: *dialektlar, leksemalar, adabiy til, etnografiya, urf-odat, sheva, leksema,fonetik farq, leksik farq, morfologik farq.*

Abstract. *This article examines the features of the language, phonetically and lexically different characters of representatives of the people of Karakalpak origin in the Andijan district of the Andijan region.*

Key words: *dialects, lexemes, literary language, ethnography, tradition, dialect, lexeme, phonetic difference, lexical difference, morphological difference.*

Andijon viloyati nafaqat Farg‘ona vodiysining, balki mintaqaning eng gavjum, aholisi zich hududlaridan biri sanaladi. Unumdor yer va suv zaxiralariga boyligi asrlar davomida ko‘plab turkiy urug‘ va elatlarning bu yerga ko‘chib kelishiga sababchi bo‘lgan. Ular ichida qoraqalpoq urug‘i vakillari alohida o‘rin tutadi [1, 44].

Andijon, Baliqchi, Oltinko‘l, Shahrixon, Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa tumanlarida qoraqalpoqlarning *mang‘it, keneges, qipchoq, qo‘ng‘irot, oqmang‘it, qoramang‘it, to‘qmang‘it, sho‘hmang‘it, bekmang‘it, bo‘rimang‘it, to‘lqinmang‘it, daumang‘it, shuyit, temirxo‘ja, jamansho, maytan, uyruchi, teliming, nayman, xitoyqipchoq, jayqipchoq, besari, orolboy* kabi urug‘lari kelib joylashgan.

Baliqchi tumanidagi Orolxon, Andijon tumanidagi Nayman, Ulug‘nor tumanidagi Sariqsuv, Oltinko‘l tumanidagi Qoraqalpoq qishloqlarida mazkur xalq vakillari to‘p bo‘lib yashaydilar [2, 66].

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida tilni xalqning urf-odatlari, tarixiy an’analari va ma’naviy olami bilan bog‘liq ravishda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zero, “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi” [3,29].

Dunyo xalqlari umumiy belgilari bilan birgalikda xos jihatlari bilan ham boshqalardan keskin ajralib turadi. Bu fazilatdan qadim turkiy elatlardan sanalgan qoraqalpoqlar ham mustasno emas. Ularning urf-odatlari, birinchi galda, qoraqalpoq tilida yuzaga chiqqan. Qoraqalpoq tili asrlar davomida shu tilda so‘zlashuvchi xalqning tarixi, orzu-umidalri, maqsadlari, quvonch-u shodliklari, chekkan azob-uqubatlarini ifodalash uchun beminnat xizmat qilib kelgan. Qoraqalpoqlarning o‘zbeklar ichida muqim yashab qolishi shu til uchun innavatsion markaz vazifasini o‘tagan markaziy shevalardan uzoqlashishiga va o‘zbek tilida alohida qoraqalpoq shevasining shakllanishiga sababchi bo‘lgan.

Ma’lumki, qoraqalpoq tili qipchoq yo‘nalishidagi tillardan sanaladi va unda qipchoq lahjasiga xos xususiyatlar yuzaga chiqadi. Qoraqalpoq shevasi o‘z tabiatini ko‘proq saqlab qolgan hamda har xil o‘zgarishlarga kam uchragan tipik shevalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham qoraqalpoq shevasi o‘zining rang-barangligi, boyligi, ohori to‘kilmagan leksik-stilistik xususiyatlarga va katta imkoniyatlarga ega ekanligi, turli-tuman o‘ziga xos jihatlari bilan kishi e’tiborini tortadi. Bu shevadagi so‘zlar ma’lum darajada adabiy tilimiz mulkiga aylanib borayotgan bo‘lsa-da, uning katta bir qismi hali o‘zlashtirilgan emas, ya’ni u ochilmagan qo‘riq sifatida tadqiq etilmay kelmoqda. Qoraqalpoqlarning urf-odati, an’analari bir tomondan ularga yondosh yashayotgan boshqa urug‘ va elatlarnikiga mushtarak bo‘lib ketgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ayricha jihatlarda namoyon bo‘ladi [4,79].

Milliy adabiy tilni rivojlantirishda uning ichki imkoniyatlari sanalgan jonli so‘zlashuv tili – xalq shevalari va dialektlari muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy til bilan xalq tili va shevalari o‘zaro doimiy aloqada bo‘lib turadi va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi.

Buni Qoraqalpoq shevasi materiallarida ham kuzatish mumkin. Mazkur sheva quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. **Fonetik farqlar:**

1) ohangdoshlik hodisasi saqlangan: *köŋlüm (ko‘nglim), qiliq* kabi;

2) adabiy tildagi *y* undoshi o‘rnida *j* undoshi keladi: *yozdi – jazdi, yulduz – jüldüz, yantoq – jantaq* kabi;

3) *q* va *k* undoshlari so‘z oxirida tushib qoladi: *kichik – kichi, sariq – sari, tariq – tari* kabi;

4) diftong hodisasi mavjud: *echki – iechki, o‘rdak – uo‘rdak* kabi;

5) ba’zi so‘zlarda so‘z boshida *h* undosh tovushi orrtiriladi: *ari – hari, arra – harra* kabi;

6) so‘z o‘rtasida *q* undoshi *g‘* ga o‘tadi: *oqar – ag‘ar, yoqar – yag‘ar, chiq – chig‘ib, quloq – qulag‘i* kabi;

2. Morfologik farqlar:

1) *u, bu, shu* olmoshlari qadimgi turkiy tildagidek *ul, bul, shul* tarzida talaffuz qilinadi;

2) jo‘nalish kelishigidagi kelishik olmoshlari quyidagicha qo‘llaniladi: *mag‘an (menga), sag‘an (senga), ug‘an (unga)* kabi;

3) aniq hozirgi zamon fe`li *-jatirG‘-jätïr* va ba‘zan *-vätïr* kabi qo‘shimchalar bilan hosil qilinadi*: keläjätïr, kelävätïr, kepjätïr* kabi.

4) kelasi zamon sifatdoshi *-tianG‘-tïgän* kabi qo‘shimchalar bilan yasaladi: *jazatig‘an, kelätïgan* kabi.

6) o‘rin-payt kelishigi oldidan (i)n tovushi orttiriladi: *bashinda, qashinda* kabi.

3. **Leksik farqlar:** *Jezda (pochcha), echeyen jezda (oddiy pochcha), karsang (tog’ora), boldiz (kelinning opa-singlisi), so’rtak, hari, toptora, anna, checha, ona (opa), qalpoq, jayron, jun, tuya, meng, chavgon (qumg‘on), o‘rtoq, dag‘i, qut, el, quroq, qalqon, aynak, manglay (peshona), bo‘rk (telpak), emgak (mehnat), qo‘noq, ko‘lik (transport), mo‘ncha (hammom), qangli (ikki g‘ildirakli arava)* kabi.

Demak, shevalar va ularning xususiyatlarini mukammal ravishda o‘rganish tilimizning hozirgi holati va tarixini o‘rganish borasidagina emas, balki xalqimiz tarixini to‘laroq o‘rganish sohasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu shevalarni hozirgi adabiy tilimiz ichki manbasi sifatida o‘rganish va ularni hozirgi adabiy tilimizni yanada boyitish hamda mukammallashtirish nuqtaiy nazaridan tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Bu jihatdan qoraqalpoq shevasidagi qishloq xo‘jalik, chorvachilik, qavm-qarindoshlik, uy-ro‘zg‘or va kiyim-kechakka oid terminlarning leksik-

semantik xususiyatlarini tadqiq etish alohida qimmatga ega. Andijon tumanidagi Qoraqalpoq shevasi adabiy tilimizdan farq qiladi va rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolstova L.S. Karakalpaki Ferganskoy dolinы. – Nukus: KGI, 1959. – 183 s.
2. Ergashev A. Andijon viloyati etnotoponimlarining areal-onomastik tadqiqi. – Andijon: Hayot, 2024. – 170 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 29.

“JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA ETNOFOLKLORIZMLAR

ETHNOFOLKLORISMS IN THE NOVEL “JAZIRAMADAGI ODAMLAR”

Jumaboyeva Gulshoda Egamberdi qizi
Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Luqmon Bo’rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanidagi o’zbek xalqi orasida uzoq vaqtdan buyon qo’llanilib, an’anaga aylanib ulgurgan, ma’naviy me’rosimiz hisoblangan urf- odatlar, marosimlar hamda etnomadaniyatiyatini yoritib bergan etnofolklorizmlar tadqiq qilingan. Milliy urf- odatlar va marosimlarning mazkur romandagi poetik vazifalari yoritilgan va asar voqealarining xalqonaligini oshirishdagi ahamiyati ko’rsatib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: *urf- odat, marosim, motam, folklor, roman, xalqonalik, poetik vazifa.*

Abstract. *In this article, traditions and rituals in te novel by Lukmon Burikhon “ People in the Heat” that have been used for a long time and maintained as our national heritage among our nations were clearly indentified. The poetic function of national traditions and rituals are highlitedin the novel and their importance in increasing the nationality of the work is shown.*

Key words: *tradition, ritual, mourning, folklore, novel, nationality, poetic function.*

Har bir muallifning buyuk iste’dodi va samarali ijodiy mehnatining mahsuli bo’lgan badiiy asarida folklor an’analarining aks etishi e’tiborlidir. Chunki ming yillar mobaynida shakllangan qadriyatlar, ma’naviy boyliklar hamisha jamiyat taraqqiyotiga, insonning ruhiy poklanishiga xizmat qilib kelgan. O‘zbek adabiyotshunosligida yaratilayotgan badiiy asarlarda ijodkorlar badiiy idrok etilgan voqelikni tasvirlash usulida folklor unsurlaridan samarali foydalanmoqda. Folklorizmlar badiiy mukammal asarlar yaratishda, chinakam adabiyot maydonga kelishida ham asosiy o‘rinni egallaydi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyati ko‘zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak”[1]. O‘zligini anglagan har qanday xalq milliy ma’naviy sarchashmalarini ko‘z qorachig‘iday asraydi, uni keyingi avlodga meros qilib qoldiradi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Luqmon Bo’rixon ijodida milliy ma’naviy merosimizni aks ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli syujetlar tanlash adibning uslubiy o‘ziga xosliklarini belgilaydi.

“Jaziramadagi odamlar” romanida ijtimoiy turmush tasviriga aloqador etnografik folklorizmlar marosim va irimlar misolida, qahramonlarning tashqi ko’rinishini tasvirlash o’rinlarida o’rinli aks etgan. Misol uchun quyidagi parchadagi personajlardan biri bo’lgan Maysara hamda mulla Mirza tasviriga nazar tashlaylik:

[1] Мирзиёев Ш. Адиблар хиёбонига ташрифи чоғида сўзлаган нутқи. /Халқ сўзи. – Тошкент, 2020, 21май, №106 (7608).

Boshida iroqi do'ppi. Iroqi do'ppiga to'rt o'rim sochi chanbar etib o'ralgan. Egnida yeng etaklari uzun- uzun adras ko'ylak, ko'ylak ustidan bahmal nimcha kiygan. Paxtali bunday og'ir nimchalarni u paytning qizlari ko'cha- ko'yda atay kiyishardi.

Ixcham o'ralgan ko'kish salla, keng- mo'l surp ko'ylagi ustidan kiyilgan havorang yaktak, belida salqigina osilib turgan guldor qiyiq uning chaqqongina bo'y- bastiga yarashgan.

Ushbu tasvirdagi " to'rt o'rim soch", "yeng etaklari uzun- uzun adras ko'ylak" kabi jumlalardan haqiqiy o'zbek qizining suratini, " ko'cha- ko'yda atay kiyishardi" jumlasidan esa mintalitetimizga xos bo'lgan hayoli va iboli o'zbek qizlari siyratini, ayol iffatini ko'rishimiz mumkin.

Mulla Mirzaning tasviridan esa haqiqiy o'zbek erini ko'rishimiz mumkin. Parchadagi " qiyiq " so'ziga e'tibor beraylik. Qiyiq **(**chorsi, belbog', qiyiqcha, belqars) – belga bog'lanadigan to'rtburchak shakldagi mato, milliy kiyimning tarkibiy qismi. Turkiy xalqlarda erkaklar kiyimi (to'n, yaktak va boshqalar) ustidan belga bog'lanadi, ba'zan ikki va undan ortiq belbog' bog'lab yurish odati bor. Gulli, gulsiz matolar (bo'z, las, shoyi, atlas va boshqalar) dan tayyorlanib, kashta bilan bezatiladi.[1]

O'sha maktabni bitirayotgan yillariyoq ko'pkari chopardi, o'sha kezlariyoq taniqli chavandoz edi.

Safarmurod chavandozning tasviri berilgan yuqoridagi parchadan esa o'zbek o'glonlarining milliy o'yinimiz bo'lgan kurash bilan bolalik chog'laridanoq shug'ullanini anglab olish qiyin emas. Azaldan ot o'yinlari turkiy xalqlar ijtimoiy hayotining ajralmas bo'lagi bo'lgan. Ko'pkari ajdodlarimizning qadimiy va ommaviy tomoshalaridan biri hisoblangan . O'zbek millati aholisi etnomadaniyati vaetnososial turmushida xalq o'yinlaridan uloq (ko'pkari)ning roli beqiyosligi, ota va farzand, ustoz va shogird, keksa va yoshlar o'rtasida mehr-oqibat, mehmondo'stlik, o'zaro hurmat va e'tiborli bo'lish kabi insoniy tuyg'ularni shakllantirishda ahamiyat kasb etadi. Milliy o'yinlarimiz orqali yoshlarni mardlik, jasurlik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga, ularni jismonan va ma'nan barkamol etib voyaga yetkazishda, milliy o'zlikni anglashning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Mulla Mirza hech kimni bezovta qilmaslik niyatida chaqqongina chopqillab kelib, hamma bilan galma- gal qo'l olib salomlashib chiqdi. -Omi-in,- dedi u bo'sh stullardan biriga omonatgina o'tirib. – Xudoyim iqbollaringizni baland qilsin, uy -ro'zg'oringiz tinch, hotirjam bo'lsin! [2]

Dono xalqimiz orasida " Oltin olma, duo ol", degan naql bor. Shuning uchun uyga kelgan mehmondan duo olinadi. Duo – Xudoga iltijo qilib, o'zi yoki boshqalar uchun uzoq umr, baxt, najot tilash va yomonlikni qaytarishni so'rash. Duo barcha dinlarning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U ibtidoiy davrda so'zning sehrli kuchiga ishonish, uning yordamida ilohiy kuchlardan foydalanish mumkin degan ishonch asosida shakllangan. Duolar, xususan, o'zbek xalq afsun duolari ustida ishlagan olima Salima Mirzayevadir.[3]

Asar voqealarini jonli, hayotiy va ishonarli qilib gavdalantirishni maqsad qilgan ijodkor o'zbek xalqidagi har bir udum va an'anaga alohida ahamiyat bergan va ulardan kerakli o'rinlarda unumli foydalangan.

Ular o'sha kungi to'y dabdabasi hamyonlarining dabdalasini chiqargan bo'lsa-da, sir boy bermay,hamon "to'y muborak", "kelin muborak"ka kelib– ketib turganlarni bearmon siylashar,"vecher"imizda bo'lmadingiz, deya o'zlaricha o'pkalanishar, izidan o'sha tantanalarni ta'riflay-ta'riflay, zimdan maqtanib- maqtanib olishar edi.

O'zbek urf- odatlaridan biri to'ydan so'ng qo'ni – qo'shni, mahalla – ko'y , qarindosh – urug' to'y bo'lib o'tgan xonadonga " kelin muborak bo'lsin, to'yni yaxshi o'tkazib oldingizmi", deya xabar olish uchun mehmonga kelishadi. Mazkur asarda ushbu marosim juda aniq qilib bayon etilgan.

---

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati.Toshkent.O'zbekiston ilmiy ensiklopediyasi.Davlat ilmiy nashriyoti.
[2] Luqmon Bo'rixon Jaziramadagi odamlar . Toshkent, G'.G'ulom NMIU,2005, 25-bet
[3] Salimaxon Mirzayeva Afsun duolarining janr xususiyati va badiiyati. Fil fan nom diss, T, 2006

O'sha oqshom Shabnamlarnikida kichik bir xudoyi- maraka o'tkazilayotgan edi. ...bu Shabnamning onasi, Qalqonov muallimning xokisor xotini, ya'nikim mulla Mirzaning suyukli qizi og'ir bir kasallikdan qutulib oyoqqa turganligi uchun, shunchaki, shukrona tariqasida o'tkazilayotgan ma'raka edi. [1]

Aslida ma'raka (arab. — jang, yig'in) — biror muhim voqea, to'y, ta'ziya va boshqa munosabatlar bilan o'tkaziladigan marosim, yig'in. Ayrim tumanlarda turli munosabat bilan xonadonlarda o'tkaziladigan yig'inlar ham ma'raka deb nomlanadi.

Ko'p o'tmay otam boshiga do'ppi, egniga olacha choponini kiyib, shosha- pisha uydan chiqdi-da, darvoza tomon otildi, izidan uzun, serpopuk ro'moliga o'ralashgancha onam ham ildamgina jo'nadi.[2]

Xalqimizda a'za marosimida erkaklar boshiga do'ppi, egniga chopon kiyishi , ayollar esa katta ro'molni jagidan tang'ib o'rashi odat sanaladi. Bugungi kunda ham ushbu odatga amal qilib kelinmoqda.

Allaqachondan beri chuv- chuvlashga tushgan xotin- xalaj er- xotinning hol- ahvoliga boqib battar uvillashar, bir- birini quchoqlab ho'ngrashar, bu holdan tevarakdagi erkaklar ham quyilib kelayotgan ko'z -yoshlarini tiyolmay, kaftlari bilan arti- artib olishar edi.[3]

Badiiy asarlarda qo'llangan motam marosimlari insonni qay darajada e'zozlanishini ko'rsatib berish bilan birga qahramonlar ruhiy olami, uning insoniy qiyofasini ham yoritib berishga xizmat qiladi. Luqmon Bo'rixon ushbu badiiy asarida ham ma'raka marosimini shunday jonli tasvirlaganki, kitobxon bevosita O'roqboyning a'zasida ishtirok etayotgandek tasavvur qiladi. O'roqning armiyadan mayitini olib kelishganda onasi Xosiyat xolaning, otasi Fayzulla akaning ruhiy holati yozuvchi tomonidan real tasvirlab berilgan.

Yeti kun Fayzulla aka xonadoni aza ochdi. Yeti kun bu yerga uzoq- yaqindan kelib ketayotgan boshi ham, ko'zi ham hamdardlarning oyog'i uzilmadi . Yetti kun qo'shnimizning hovlisida ohu voh, yig'i- sig'i saslari tinmadi. [4]

Kishi vafot etganda motam marosini o'tkazish xalqimizga xos odat. Xalqimizda motam marosimi Odam Ato va Momo Havodan me'ros an'anadir. Folklorda qo'llanilgan motam marosimlarining genezisidan tortib, bugungi kunda islatilish o'rinlarini D. O'rayevaning tadqiqida ham atroflicha ko'rishimiz mumkin.[5]

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'z millatning urf- odatlari, marosimlari, milliy qadriyatlari, insonlarning his-tuyg'ularini badiiy asarlarida aks ettirayotgan ijod ahli kitobxon qalbida ajdodlari o'tmishiga bo'lgan, vatanga bo'lgan ehtiromini yanada oshiradi. Natijada kitobxon o'z ajdodlari tomonidan yaratilgan miliy me'rosga, asriy urf- odatlarga muhabbat ruhida tarbiyalanadi, milliy g'ururi yuksaladi. Ushbu romanda qo'llanilgan urf- odat va marosimlar asarga xalqona ruh bag'ishlagan. Luqmon Bo'rixon folklor orqali asarning tushunarli bo'lishini ta'minlagan, o'zbek xalqining etnomadaniyatini yoritib bergan hamda qahramonlar ruhiy olamini tasvirlab beruvchi vosita sifatida o'rinli foydalagan. Bunday unsurlardan foydalanish asarning kishi qalbiga singishiga yordam beradi, asarga milliylik, millih ruh kiritadi. Zero, ijodkor ahli xalqdan olgan narsasiga sayqal berib, yana xalqqa ajoyib tarzda yetkazib berishi milliylikni saqlab qolish va uni umrboqiy qilishga qo'shgan hissasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Luqmon Bo'rixon Jaziramadagi odamlar . Toshkent, G'.G'ulom NMIU,2005.

2. Мирзиёев Ш. Адиблар хиёбонига ташрифи чоғида сўзлаган нутқи./Халқ сўзи. – Тошкент, 2020, 21май, №106 (7608).

3. Salimaxon Mirzayeva Afsun duolarining janr xususiyati va badiiyati. Fil fan nom diss, T, 2006

[1] Shu manba 88-bet
[2] Shu manba 140-bet
[3] Shu manba 143- bet
[4] Shu manba 146-bet
[5] O'rayeva D. O'zbek motam marosimi folklorining janri tarkibi genezisi va badiiyati. Fil fan dok diss.avtoref, T,2005

4. Sh. S. Yo'doshev. Milliy ot sporti- "uloq- ko'pkari" o'yinining jamoyatda tutgan o'rni va uning ijtimoiy ahamiyati,maqola. Central Asian research journal for interdisciplinary studies(CARJIS) ISSUE 3,2021.

ANDIJON VILOYATI KONTINUUMLARI

CONTINUUM OF ANDIJAN PROVINCE

Abdusalomova Ozoda Abduxalil qizi
Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada Andijon dialekti va uning kontiniumlari, ularda qo'llangan fonetik, leksik, morfologik farqlar haqida so'z yuritildi.*
Kalit so'zlar: *til, o'zbek tili, areal lingvistika, kontinuum, dialekt, sheva, fonetik farq, leksik farq, morfologik farq, fokus nuqta.*

Abstract. *The article talks about the Andijan dialect and its continua, the phonetic, lexical and morphological differences used in them.*
Key words: *language, Uzbek language, areal linguistics, continuum, dialect, dialect, phonetic difference, lexical difference, morphological difference, focus.*

Har qanday tilning rivojlanish taraqqiyotida o'sha til shevalari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynagan shevalar va dialektlardagi o'zgarishlar hamma davrlarda ahamiyatli bo'lib kelgan. Jumladan, o'zbek adabiy tilining tayanch shevlaridaan sanalgan Andijon viloyati shevasidagi xilma-xilliklar, boshqa shevalarda takrorlanmas holatlar tilimiz lug'at boyligining takomillashishiga munosib xizmat qilib kelgan. Ayni paytda Andijon dialekti o'ziga xos jihatlari bilan hozirgi o'zbek adabiy tilidaan va boshqa shevalardan keskin farqlanib turadi. Bu borada Ye.D.Polivanov: "Dunyodagi hech qaysi bir til shevalararo o'zbek tilichalik farqlanmaydi", – degan fikrlariga qo'shilging keladi [1,3].

Ma'lumki, Andijon hududi boy tarixga ega qadimiy maskanlarda biri sanaladi. Uning hududida ko'p yillardan buyon o'zbeklardan tashqari ruslar, armanlar, tatarlar, tojiklar, uyg'urlar, ukrainlar va boshqa millat vakillari ham hamkorlikda yashab kelmoqda.Tilshunos olimlarning fikricha, Andijon shevasi o'z ichida fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan boshqa sheva va dialektlardan farq qilib turadigan kichik dialektal bo'linmalar tizimiga ham ega. Areal tilshunoslikda bunday bo'linishlar kontinuum tushunchasi bilan ifoda etiladi [2,95].

Bunday kontiniumlar Andijon viloyatida yuzlab songa ega. Shulardan biri Shahrixon tumani Segaza qishlog'i shevasi sanaladi. Qishloq aholisi tilida ayrim so'zlar tarkibidagi unli tovushlarning qo'llanishi bilan bog'liq farqli jihatlar uchraydi.

Adabiy til ko'rinishidagi ***sabzi*** so'zi ***sövzï*** tarzida, xuddi shunday ***savdogar, Shavkat, Ravshan*** kabi so'zlarda ham birinchi bo'g'in oldi qator *a* unlisi orqa qator lablangan yumshoq *ö* unlisi bilan aytiladi: ***sövdogar, Shövkat, Rövshan***. Shuningdek, ba'zi so'zlardagi orqa qator lablangan (ayrim manbalarda oraliq) *o* unlisi orqa qator lablanmagan *a* keng unlisiga almashib qo'llanadi: ***dağ suv, bağ(x)cha, balish, arqa taraf*** kabi.

Izboskan tuman Gurkirov MFY aholisi so'zlashuv nutqida ham *o* unlisi o'rnida *a* unlisining almashib qo'llanish holati uchraydi: ***tog'a (tag'a), yong'oq (yang'aq), bola (bala)*** kabi.

Fokus nuqtadan farqli o'laroq, boshqa dialektlarda deyarli uchramaydigan, yuqori tor unli fonemasi ham ayrim so'zlarda o'ziga xos tarzda talaffuz etiladi: *ikki, ikkiqat, ikkichi* so'zlaridagi birinchi bo'g'in *i* unlisi o'rta keng lablanmagan *e* unlisi tarkibiga singib orqa qator qattiq *ı* unlisiga moyilroq talaffuz etiladi. Hududning Andijon shahar shevasidan farqli ravishda yuzaga kelgan bu kabi dialektal unsurlarini aholining etnik tarkib topishi bilan ham bog'lash asosli bo'la oladi, negaki, Shahrixonning bir qism aholisi tojiklar, ko'pchiligi Qo'qon va qisman

Marg‘ilon shaharlaridan ko‘chib kelib o‘rnashgan o‘zbeklar, qolganlari saroy tip sheva vakillaridir [3,14].

Ma’lumki, til birliklari o‘z fokus nuqtasidan yiroqlashgan sayin o‘zida turlicha fonetik, leksik hamda morfologik farqlarni yuzaga chiqarishni boshlaydi. Bir dialekt tarkibidagi shevalarda o‘zaro bog‘langan, lekin kichik va muhim bo‘lgan farqlar bo‘ladi. Adabiy tildagi *ishkom*, ya’ni toklarni ko‘tarib qo‘yish, tarash, yoyish uchun poya va bag‘azlardan baland qilib qurilgan yoysimon so‘ri atamasi hududlararo quyidagi nomlar bilan atalib kelinadi:

Andijon, Baliqchi tumanlarida: **so‘rtak,** Paxtaobod, Ulug‘nor, Shahrixon, Oltinko‘l, Jalaquduq, tumanlarida: **so‘kichak,** Izboskan, Qo‘rg‘ontepa tumanlarida: **valish** tarzida aytiladi.

Oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan taom (boshqa shu kabi pishiriqlardan qatlamliligi bilan ajralib turadi), ya’ni *qatlama* atamasi Shahrixon va Qo‘rg‘ontepa hududlarida ***qallama***, Baliqchi tumanida ***malda***, Andijon tumani va unga yondosh qishloqlarda ***qahlama***, ayrim joylarda esa ***pahlava*** tarzida qo‘llanadi. Shuningdek, ayrim hududlarda kundalik buyumlarning nomlanishida ham o‘zgachalikka duch kelinadi. Masalan, Shahrixon tumani aholisi so‘zlashuv tilida *chopqi* (go‘sht, sabzavot va h.k to‘g‘rash uchun ishlatiladigan buyum) so‘zi adabiy tildan farqli o‘laroq ***dastkalla*** ko‘rinishida, *ombur* (mato va boshqalarni bir-biriga mahkamlash uchun ishlatiladigan asbob) so‘zi esa ***gupsi*** tarzida ishlatiladi. Shunga o‘xshash, ***xaskash*** – xashak, xas-cho‘p va shu kabilarni yig‘ish, to‘plash, shuningdek, chopilgan yer tuprog‘ini maydalab tekislash uchun ishlatiladigan, uzun dastali, ko‘p tishli qishloq xo‘jalik quroli Paxtaobod tumanida **otqi** tarzida, Andijon tumani va uning boshqa hududlarida ***grabil*** va **yertaroq** ko‘rinishida mavjud. Baliqchi va uning atrof hududlarida ham noodatiy so‘zlardan foydalanib kelinadi, asosan, katta avlod tilida ***xo‘pitmoq*** so‘zi amalda bo‘lib, suv havzalarida **cho‘milmoq** fe’li ma’nosini ifodalaydi. Ko‘p hududlarda uyning orqa tarafi ma’nosida **hovli** so‘zi ishlatilsa, baliqchiliklar so‘zlashuv nutqida ***hayat*** so‘zidan foydalanishadi.

Dialektal farqlar morfologik shakllarda ham ko‘zga tashlanadi. Xarakterli misollarni Baliqchi shevasidan topish mumkin. Baliqchi shevasi qipchoq lahjasiga taalluqli bo‘lgani bois, kelishik qo‘shimchalarning qo‘llanishi bilan bog‘liq farqlar mavjud. Masalan, tushum va qaratqich kelishigi shakllari ko‘pincha *-di* tarzida aytiladi: *akamdi kitobi, guldi uzmoq* kabi.

Ko‘rsatish olmoshlari hamda kompozitsion usuldagi qo‘shma ravishlarning iste’molda bo‘lishi ularni areal jihatdan farqlab ko‘rsatadi. Jumladan, *mana (ana) shu yer(-ga, -da, -dan)//mashet, mashek(t)-ka, ta, -tan, asherga, ashetta (-tan)*

Baliqchi shevasida: bu (shu) yer (-da, -ga)//*bayda, bayga, shayda, shetka.*

Xo‘jobod, Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa hududlari shevasida: *u(bu) yoq, mana(ana) shu//uyaq, buyaq, mashi, ashi* kabi.

Bundan ko‘rinadiki, olmoshlar va u ishtirokidagi yasama ravishlar eng ko‘p eliziyaga uchragan so‘z turkumlaridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Andijon dialekti bir umumiy nom bilan atalsa-da, uning tarkibidagi hududlar kichik farqlarni o‘zida mujassam etuvchi kontinuumlarga ega. Bu kontinuumlarni izchil o‘rganish barobarida nafaqat tilning leksik qatlamini boyitish, balki xalq hayotiga aloqador etnogenetik va etnografik xususiyatlarni ham tadqiq etish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Поливанов Э.Д. Узбекская диалектология и узбекскый литературный язык. Тошкент: Узгосиздат.1933. 49-б.

2. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookman print, 2023. –148 b.

3. Ibrohimov S. O’zbek tilining Andijon shevasi. Toshkent: Fan, 1967. 260-b

O‘ZBEK VA INGLIZ DIALEKTOLOGIYASINI QIYOSIY O‘RGANISH TAJRIBASIDAN: UNLILAR QIYOSI

FROM THE EXPERIENCE OF COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH DIALECTOLOGY: VOWELS COMPARISON

Abduraxmonova Nargiza Akmaljon qizi
ToshDO‘TAU magistranti
nabdurahmonova0701@gmail.com

Annotatsiya. *Bugungi kunda dialektologiya fani boshqa fanlar qatori jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga va rivojlanish bosqichiga chiqdi. Hamda shevashunoslikning dunyo mamlakatlaridagi borayotgan yo‘nalishi hamda O‘zbek dialektologiyasi tamomila farq qiladi. Biz ushbu maqola orqali ingliz va o’zbek dialektologiyasi unlilar tizimini o’zaro qiyoslaymiz.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek dialektologiyasi, ingliz dialektologiyasi, unlilar, variatsiyalar, adabiy til va dialect.*

Abstract. *Today, the science of dialectology, along with other sciences, has reached its place and stage of development in the world community. And the growing trend of language studies in the countries of the world, as well as Uzbek dialectology, are completely different. In this article, we will compare the vowel system of English and Uzbek dialectology.*

Key words: *Uzbek dialectology, English dialectology, vowel, variation, RP and dialect.*

Kirish

Jahon tilshunosligida dialektologiya fan sifatida XVII asr oxirlarida Germaniyada shakllandi. O‘zbek dialektologiyasi esa fan sifatida XX asr boshlarida tilshunoslikdan ajralib chiqdi. XX asr o‘rtalariga kelib o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha bir qator izlanishlar olib borilgan edi. Y.D. Polivanov, V.V. Reshetov, K.K.Yudaxin kabi rus olimlari, Sh.Shoabdurahmonov, A. Jo‘rayev, A.Shermatov, Y, Ibrohimov M, Murodova kabi o‘zbek olimlari o‘zbek dialektologiyasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shganlar. Shu vaqtdan boshlab o‘zbek shevalarini lingvistik geografiya metodi orqali o‘rganish boshlandi.

Biroq shevaga oid ilk qarashlar XI asrda yozilgan “Devonu lug‘otit turk” asariga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariy aynan dialektologiya haqida yozmasa ham uning yozgan ma’lumotlati dastlabki sheva haqidagi tushunchalar ekanligini payqash mumkin. U turli qabilalar haqida yozar ekan ularning yashash hududi va so‘zlashadigan tili haqida ma’lumotlar berib ketadi.

O‘zbek shevalari bugunga qadar turli yo‘nalishlarda bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan, lekin uni ingliz tili dialektologiyasi bilan qiyoslab o‘rganilmagan.

O‘zbek tili turkiy tillar oilasining qarluq guruhi tarkibiga kiradi, lekin o’zbek tili o‘zida o‘g‘uz va qipchoq lahjasi elementlarini ham aks ettiradi. O‘zbek shevalarining rang-barangligi tufayli ham unlilar tizimi murakkabdir. Shu sababdan o’zbek shevalaridagi unlilar miqdori haqida fikr yuritish biroz qiyinchilik tug‘diradi. Ayrim manbalarda unli fonemalar 18 tagacha yetadi, lekin ulardan konkret nutq tovushlarini hisobga oladigan bo‘lsak, unli tovushlar soni 13 ta bo‘ladi. Singarmonizmli shevalarda 11 ta unli qo‘llanadi, singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda esa 7-8 ta unli tovush qo’llaniladi. Toshkent dialektidagi shevalarda 6 ta unli mvjud bo‘lib, ular **i, e, ä, ā, o, u;** Samarqand shahar shevasida **i, e, ä, a, o, u** unlilari iste’molda bo‘lsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda ā unlisi bilan birgalikda **a** unlisi ham uchraydi. Qirg‘izistonning O‘sh, O‘zgan, Jalolobod kabi shevalarida **8** ta **– i, e, u, ü, ö, a ā, ä;** Olabuqa, Oqtam, Aravon shevalarida **7** ta – **i, e, u, ä, o, ā, a** unli mavjud. [1.32]

Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Shimkent, Sayram) **11**ta: **a, e, ä, i:, i, ï:, ï, o, ö, u, ü** unli mavjud. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda ham **11**ta unli tovush qayd qilinadi. [1.33]

O‘zbek tilida kontrast unlilar singarmonizmni saqlagan shevalarda keng iste’molda bo‘lib, ular old qator va orqa qator o‘ringa ega bo‘ladi. Ular quyidagilar: ***i: ↔ ï:, i ↔ ï, ö ↔ o, ü ↔ u, a, ā ↔ ä***

O‘zbek tili singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalarida ***ā*** unlisi bo‘lmagan, lekin bugunga kelib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida ushbu unli bu shevalarda ham ko‘zga ko‘rinmoqda.

Ingliz tili Hind –Yevropa tillar oilasining Roman –german tillar guruhiga kiradi. Biz bu til dialektologiyasini o‘rganish uchun Peter Trudgill va Chambersning “Dialectology” darsligini asos qilib olamiz. “Dialectology” tekstbukida unlilar talaffuz jihati shevalar aro, shu bilan bir qatorda adabiy til bilan ham qiyoslab tahlilga tortiladi.

Keyingi davrlarda tilshunoslik dialektologiyaga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Masalan, an'anaviy dialektologiyaning zamonaviy lingvistik qarashdan farqi shundaki, u tilning dialektal shakllarini tizimlar yoki tuzilmalarning bir qismi sifatida emas, balki alohida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Biz buni quyidagicha tasvirlashimiz mumkin. Ingliz tili til bo‘lim(sheva)larida ham unli tovushlarning bir necha xil variantlari uchraydi. Sharqiy Angliyadagi uchta shaharning mahalliy aksentlari ***road*** va ***nose*** kabi so'zlarda unli tovushlarning turli xil talaffuziga ega:

	road	*nose*
Lowestoft	[rʊʊd]	[nʊʊz]
Ipswich	[rʊʊd]	[nʊʊz]
Colchester	[rʌud]	[nʌuz] [2.33]

Quyidagi misollarda ham bir unli tovush turli shaharlarda turlicha talaffuz qilinishiga ko‘zimiz tushadi.

	rowed	*knows*
Lowestoft	[rʌud]	[nʌuz]
Ipswich	[rʊʊd]	[nʊʊz]
Colchester	[rʌud]	[nʌuz]

Bir dialektdagi so'zlar tarkibidagi qaysi fonema boshqa dialektdagi bir xil so‘zdagi qaysi fonemaga mos keladi – bu murakkab, Rp (adabiy til) va Sharqiy ingliz Norvich shahrida so'zlashadigan ingliz tili o'rtasidagi quyidagi fonologik farqlarni ko'rib chiqamiz;

	RP vowels	*Norwich vowels*		
dew, view	/ju_/	/ʊ/	*do, lose*	/u:/ / ʊ /
school, food	/u:/	/u:/	*go, load*	/ou/ /u:/
know, old	/ou/	/ou/	*home, stone*	/ou/ /ʊ/
put, pull	/ʊ/	/ʊ/ [2.37]		

Variatsiyalar fonemalarning paydo bo'lish chastotasi jihatidan farq qilishi mumkin. Ular bir xil inventarizatsiyadan foydalanishlari mumkin va shunga qaramay, so'z tarkibida ma'lum fonemalarning paydo bo'lish chastotasida farq qiladi. Agar biz yana Shimoliy va Janubiy inglizcha urg'ularni taqqoslasak, ularning ro'yxatlarida /æ/ (Sam, cat kabi) va /a / (salm, cart kabi) unlilar mavjudligi bilan mos kelishini sezamiz. Biroq, ular bu unlilarning chastotasida bir xil emas. *path, grass, laugh, dance, grant* va *sample* kabi elementlarni o'z ichiga olgan so'zlarning katta guruhi mavjud bo'lib, unda Shimoliy talaffuzda /æ/ va Janubiy talaffuzda / a / bo‘ladi:

	pat	*path*	*palm*
North	/æ/	/æ/	/a_/
South	/æ/	/a_/	/a_/

Shubhasiz, muhim fakt shundaki, ikkita dialekt bir xil fonemalar to'plamiga ega bo'lishi mumkin va shu bilan birga leksik birliklarda fonemalarning paydo bo'lish chastotasi tufayli sezilarli darajada farq qiladi. Bu o'ziga xos farq, ehtimol, Shimoliy aksentni Janubiy aksentdan ajratib turadigan eng muhim xususiyatdir va bu, albatta, barcha inglizlar biladigan xususiyatlardan biridir. Ammo, afsuski, yana bir bor diaspora yordamida ushbu turdagi farqlarni tasvirlashning oson yo'li yo'q edi. [2.38]

XULOSA. Avvalo shuni aytish muhimki, har bir tilning fonetik tuzilishi uning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ingliz adabiy tilida 6 ta unli mavjud bo‘lib, dialektologiyasida bu raqam o’zbek dialektologiyasidagi kabi farqlanadi. Ingliz tilining til bo‘limlarining har birida unlilar turlicha. Ayni bir so‘z qurshovida kelgan adabiy tildagi unli dialektlarda turlicha talaffuzga ega bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilida ham ayni bir so‘z tarkibida kelgan unli turli dialektlarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Ingliz tilidan farqli ravishda o‘zbek dialektologiyasida ayni bir unlining 2 xil talaffuz ko‘rinishi bor(kontrast unlilar) Ingliz tilida ayni bir unli 3-5 shakldagi talaffuziga ega.

Ingliz tilida turli dialektlar bir xil unlilar tarkibiga ega boʻlishi mumkin, lekin unli tovushlar talaffuz chastotasi bilan bir biridan farqlanadi. Oʻzbek tilida ham dialektlardagi bir xil unlilar biroz boʻlsa-da, talaffuz kuchli yoki kuchsizligiga koʻra farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ashirboyev. Oʻzbek dialektologiyasi. – T., 2016.
2. J.K.Chambers va Peter Trudgill. Dialectology Second Edition. Cambridge Press 2004
3. V.V.Reshetov. Sh. Shoabdurahmonov. Oʻzbek dialektologiyasi. T.: Oʻqituvchi. 1978.
4. Aminova N.S. Ingliz va oʻzbek tillaridagi diplomatiyaga oid leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari. Dissertatsiya.

XALQ OGʻZAKI IJODIDA OʻZBEK TOʻY QOʻSHIQLARI (YOR-YOR VA KELIN SALOM) TADQIQI CHORTOQ HUDUDI MISOLIDA

THE STUDY OF UZBEK WEDDING SONGS (YOR-YOR AND KELIN SALOM) IN FOLK ART ON THE EXAMPLE OF CHORTOQ AREA

Makhmudova Nodira
Master's student of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
nodiragafurovna@gmail.com

Abstract. *This study delves into the multifaceted significance of Yor-Yor and Kelin Salam, traditional Uzbek wedding songs, within the framework of folklore studies. Focusing on the Chortoq district of Namangan region, Uzbekistan, the research examines how these songs transcend their musical form to become cultural narratives. As argued by Ivanov, folklore studies recognize the power of wedding songs to illuminate a culture's social fabric and historical practices [1]. Through in-depth analysis of lyrics, melodies, and performance practices documented through fieldwork in Chortoq district, this study highlights the role of Yor-Yor and Kelin Salam in transmitting cultural heritage, shaping collective identity, and expressing a range of emotions within Uzbek society.*

Introduction. Uzbek weddings are renowned for their vibrant celebrations, meticulously woven with tradition. Music plays a central role, with specific songs designated to accompany different stages of the ceremony [2]. Two particularly noteworthy songs are Yor-Yor and Kelin Salam. Yor-Yor, a lively song sung primarily by women, welcomes the groom's party and expresses joyous wishes for the couple's future. Kelin Salam, sung by the bride's family, conveys a poignant mix of pride and sorrow as they bid farewell to their daughter.

Folklorists acknowledge the invaluable role of wedding songs in understanding a culture's social norms, family structures, and historical practices [1]. This study delves into the significance of Yor-Yor and Kelin Salam within the context of folklore studies in Chortoq district, Namangan region. By examining these songs through a folkloristic lens, we gain deeper insights into the cultural and social landscape of the region, enriching our understanding of Uzbek traditions and their expressions within a specific geographical location.

Methodological Approach: To gain a comprehensive understanding of Yor-Yor and Kelin Salam in Chortoq district, this research employed a qualitative approach, combining the richness of fieldwork with the insights gleaned from documentary analysis. Fieldwork involved attending and documenting wedding ceremonies within the district, focusing specifically on the performances of Yor-Yor and Kelin Salam. Interviews were conducted with local singers, musicians, and wedding participants to gain firsthand knowledge of the cultural significance and variations in performance practices across different families. Documentary analysis included

reviewing scholarly articles and books on Uzbek folklore, music traditions, and wedding rituals. This triangulation of research methods – attending ceremonies, conducting interviews, and analyzing scholarly works – ensures a well-rounded and nuanced understanding of the subject.

Results: The analysis of data gathered through fieldwork and documentary review revealed distinct characteristics of Yor-Yor and Kelin Salam in Chortoq district:

- Yor-Yor: Sung in a lively tempo with a call-and-response format, the lyrics of Yor-Yor often express blessings for the couple's fertility, prosperity, and harmonious life together [2]. The melody incorporates elements specific to local folk music traditions, often accompanied by rhythmic clapping and celebratory dancing by the women.
- Kelin Salam: Sung in a slower tempo with a melancholic melody, the lyrics of Kelin Salam delve into the complex emotions experienced by the bride's family – love for their daughter, pride in her new life, and a touch of sadness at her departure. The performance is characterized by a more subdued atmosphere, with female relatives often holding hands and swaying gently, reflecting the bittersweet emotions conveyed in the song [4].

Discussion: Yor-Yor and Kelin Salam serve as more than just musical entertainment during Uzbek weddings; they function as powerful cultural narratives that transmit values, traditions, and social norms across generations. The joyous celebration embedded within Yor-Yor reflects the importance placed on family continuity and procreation within Uzbek society [2]. Kelin Salam, with its bittersweet emotions, acknowledges the social significance of marriage and the complex web of emotions surrounding a daughter leaving her family unit [4].

The variations observed in performance practices across different weddings in Chortoq district highlight the dynamic nature of folklore. As Karimov suggests, while the core elements of the songs – lyrics, melody, and themes – remain relatively constant, subtle changes in instrumentation, ornamentation, or even specific words within the lyrics can be observed. These variations reflect the individuality of each family and performer, adding a layer of richness and dynamism to the cultural tradition [3].

Conclusion. By examining Yor-Yor and Kelin Salam within the framework of folklore studies, this research underscores the importance of wedding songs in understanding Uzbek culture in Chortoq district. These songs act as repositories of social norms, emotional expressions, and historical practices. Their continued performance ensures the transmission of cultural heritage and strengthens collective identity within the community.

References:

1. Ivanov V. P. Ocherki po istorii muzykal'nogo folklor Uzbekistana [Essays on the History of Musical Folklore of Uzbekistan]. Fan. 1989.

2. Jafarov M. To'ylar marosimlari [Wedding Ceremonies]. Sharq. 2003.

3. Karimov A. O'zbek xalq to'y marosimlarida kuychilik an'analari [Song Traditions in Uzbek Folk Wedding Ceremonies]. San'at. 2012.

4. Slobin M. All Ways Returning: Popular Music in Central Asia. American Ethnologist, 1996. 23(1), 5-45.

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA MIFOLOGIK RUDIMENTLAR

MYTHOLOGICAL RUDIMENTS IN THE WORK “KUTADGU BILIG”

Annamurodova Maftuna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asaridagi mifologik rudimentlar, undagi obrazlar haqida namunalar keltirilgan. Bundan tashqari asarda mifologik rudimentlar ya’ni*

qoldiqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Samoviy afsonalarning yuzaga kelishi va qadimgi ajdodlarimizning kosmogonik tasavvurlari ilk semantik asos vazifasini o'tagan. Samoviy afsonalar insonning o'zi yashab turgan zamin va uni o'rab olgan bepayon borliq sirlaridan voqif bo'lishga intilishi natijasida yaratilgan.

Kalit so'zlar: *Qut, bilig, yulduz, burj, yetti sayyora, "Erlikxon", rudumentlar, obraz.*

Abstract. *This article presents examples of mythological rudiments and images in the work "Kutadgu Bilig". In addition, the work contains information about mythological rudiments, that is, the remains. The emergence of heavenly legends and the cosmogonic imagination of our ancient ancestors served as the first semantic basis. Heavenly legends were created as a result of man's desire to know the secrets of the land he lives on and the infinite existence that surrounds him.*

Key words: *Kut, knowledge, star, constellation, seven planets, "Erlik Khan", rudiments, image.*

Asara haqida ma'lumot: Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari qoraxoniylar davri adabiyotida va adabiy tilining, eski turk falsafasining bebaho yodgorligidir. Asarning uch yirik qo'lyozmasi ma'lum:

Hirot (yoki Vena) qo'lyozmasi. Ushbu qo'lyozma uyg'ur yozuvida bo'lib, uni 843 hijriy (1439 milodiy) yili Hirotda Hasan Qora Sayil Shams baxshi ko'chirib tugallagan, hozir Venada saqlanmoqda (Wien, ÖNB, Cod. A.F.13).

Namangan (yoki Farg'ona) qo'lyozmasi. Bunisi taxminan XIII yuzyillikda arab xatida ko'chirilgan, hozir Toshkentda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (1809-ko'rsatkichli qo'lyozma).

Qohira qo'lyozmasi. Asarning bu qo'lyozmasi ham arab yozuvida bo'lib, taxminlarga qaraganda, XIV yuzyillikda ko'chirilgan, hozir Qohirada saqlanmoqda (Misr Milliy kutubxonasi, 168-ko'rsatkichli qo'lyozma).[1]

Kitobning oti asar qo'lyozmalarida ikki xil fonetik variantda keladi: arab yozuvli Namangan qo'lyozmasida bir o'rinda <*d*> harfi bilan <<*Qutadγu bilig*>> (QBN.11a, 13), boshqa bir yerda <*δ*> harfi bilan <<*Qutaδγu bilig*>> (QBN.19b,7) deb yozilgan. Asarning uyg'ur yozuvli Hirot qo'lyozmasida esa <*d*> harfi bilan <<*Qutadγu bilig*>> deb berilgan (QBH.11b, 7). Ushbu nomdagi *qut* so'zi <<qut, baxt; davlat>> ma'nosida; *-ad // -aδ* – fe'l yasovchi; *-γu* – sifatosh qo'shimchasi; *qutadγu / qutaδγu* <<qutlantiruvchi, baxtga eltuvchi>> degani; *bilig* <<bilim; asar, kitob>> anglamida. Shularga ko'ra, asarning oti <<Baxtga eltuvchi, qut berguchi bilim>> / <<Baxtga eltuvchi kitob>> ma'nolarini anglatadi.

<<Qutadg'u bilig>>ning to'rtinchi bobi yeti yulduz va o'n ikki burj ta'rifiga bag'ishlangan. Asarning Namangan nusxasida ushbu bob *Yeti kavākib, on iki buruj,* ya'ni <<Yetti sayyora va o'n ikki burj (to'g'risida)>> deb atalgan (QBN.11b, 10).

Hirot nusxasidagi ichki sarlavhada *Yeti yulduz, on iki ökäk buruj ayur,* ya'ni "Yetti yulduz, o'n ikki burj (to'g'risida) aytadi>> deyilgan (QBH.8a, 25).

Boshqa nusxalardan farqli o'laroq, bu sarlavhaga *tört yaγïz* birikmasining kiritilgani muhim va buning asosi bor. Qadimgi turkiy tilda *yaγïz* sifati <,yerning rangi>>ni, ya'ni <<bo'z; qo'ng'ir rang>>ni bildirgan: <<osmon>> *yašïl kök,* ya'ni <<moviy ko'k>> deyilsa, <<yer>> *yaγïz yer,* ya'ni <<bo'z; qo'ng'ir yer>> deya ta'riflanadi badiiy asarlarda. Bu so'z tuproqning sifati bo'lib kelganini e'tiborga olsak, *tört yaγïz* birikmasida uning boshqa bir ma'nosi yuzaga chiqadi: bu o'rinda *tört yaγïz* <<to'rt unsur>> deganidir. Anglashiladiki, o'tmishda *yaγïz* so'zining <<materiya, unsur>> ma'nosi ham bo'lgan. So'zning bu ma'nosi birlamchidir: avval u <<materiya,unsur>> ma'nosida bo'lib, keyinchalik <<tuproqning rangi>>ni ham ifodalay boshlagan ko'rinadi. Shulardan tayangan holda *Yeti yulduz, tört yaγïz, on iki ökäkniŋ erdükini ayur* sarlavhasini <<Yetti yulduz, to'rt unsur, o'n ikki burjning qanday ekanligini aytadi>> deb

[1] "Qutadg'u bilig so'zligi".Qosimjon Sodiqov.<<Akademnashr>>,2020. 3-bet.

tushunmoq kerak. Haqiqatdan ham, ushbu bobda yeti yulduz, o‘n ikki burjdan tashqari to‘rt unsur va ulardan olamning yaralgani haqida ham so‘z boradi.[1]

<<Qutadg‘u bilig>> bo‘yicha tuzilayotgan hozirgi lug‘atlarda asarda ishlatilgan so‘zlarning soni turlicha ko‘rsatilmoqda: ba’zilarida 4500 so‘z atrofida, hatto asardagi so‘zlar sonini 2500 atrofida ko‘rsatgan lug‘atlar ham bor.[2]

Vaholanki, asarning lug‘at boyligi matnda ishlatilgan so‘zlar qanday shaklda yozilgani, ya’ni ajratib yozilgan so‘zlar nechta ekanligi bilan belgilanmaydi. Matndagi so‘zlarni tashqi ko‘rinishiga qarab oddiygina sanab chiqish bilan asarning lug‘at boyligini aniqlab bo‘lmaydi: orasida mustaqil so‘zlar ko‘makchi fe’llar, juft so‘zlar bor. Muayyan leksik birlikning soda, qo‘shma yoki murakkab so‘z ekanligini belgilashdagi bosh o‘lchov semantika, uning ma’nosidir. Matndagi so‘z uning tushunchani anglatadi. Matnau bir so‘z shaklida ham, bir necha so‘z shaklida ham kelishi mumkin. Bir necha so‘z shaklida kelgani bilan, u bir tushunchani anglatsa, bitta so‘z sanalaveradi. Yoki u qo‘shma so‘z, murakkab fe’l bo‘lishi ham mumkin. Matndagi so‘zlarni leksik birlik sifatida aniqlash ba lug‘atga kiritishda uning quyidagi belgilariga e’tibor qaratilmog‘i kerak bo‘ladi:

Turkiy matnlarda so‘zlarning soni emas, uning qanday ma’nolarni anglatayotgani muhim. Turkiy asarning lug‘at boyligi ham unda qo‘llangan so‘zlar qanday va necha xil ma’noda ishlatilgani bilan belgilanadi.

“Qutadg‘u bilig”da samoviy jismlar bilan bog‘liq obrazlar:

Yetti Sayyora va O‘n ikki Burj haqida

Jumladan jahon bunyod bo‘lgandan so‘ng, u kun va oy bilan yoritildi.

Bunyod bo‘lgan bu olam tinimsiz aylanadi, u bilan qo‘shilib taqdir charxi ham gir aylanadi.

Yashil osmon avjida yulduzlar bunyod bo‘ldi, qorong‘u kecha bilan yorug‘ kun voqe bo‘ldi.

Osmondagi yulduzlarning bir qanchasi shunchaki koinot bezagidir, bir qanchasi maskn toppish uchun xizmat qiluvchi yo‘lchidir.

Ularning ba’zilari yuqoriroq, ba’zilari quyiroq, ba’zilari yorug‘roq, ba’zilari esa xiraroqdir.

Bulardan eng yuqorida Sekantr (Zuhal) yulduzi kezadi, u bir burjda ikki yilu sakkiz oy turadi.

Undan keying ikkinchisi O‘ngoy (Mushtariy) yulduzidir, u bir burjda o‘n ikki oy turib qoladi.

Uchinchisi Qo‘rud (Mirrix) yulduzidir, u mag‘rurona kezadi, qaysi tomonga yuzlansa, yashnagan narsalarni quritadi.

To‘rtinchisi Yashiqdir (Quyoshdir), u olamga nur sochadi, u jumla mavjudotga o‘z nurini sochadi.

Beshinchi bo‘lib Sevit (Zuhra) yulduzi go‘zal yuzini ko‘rsatadi, u kulib boqqanda jonlar orom oladi.

Undan keyin tilak va orzular timsoli bo‘lmish Orzu (Atorud) yulduzi keladi, u kimga yaqinlashsa, uni orzu-tilaklarga ulaydi.

Ulardan eng pastda Yalchiq (Oy) keladi, Quyosh bilan ro‘baru kelganda to‘lishadi.

O‘n ikki o‘kak (burj) yulduzlari bulardan bo‘lakdir, ularning ayrimlari juft-juft, ayrimlari toqdir.

Qo‘zi (Hamal) – bahorgi yulduz, keyin Uz (Savr) yulduzi keladi, Erandiz (Javzo) bilan Quchiq (Saraton) yaqin yuradi.

Arslon (Asad) bilan Bug‘doyboshi (Sunbula) qo‘shnidir, ketidan Ulgu (Mezon), Chazan (Aqrab) va Yoy (Qavs) bir-biriga esh bo‘lib keladi.

Ulardan keyin O‘g‘laq (Jaddiy), Qo‘nak (Dalv) va Baliq (Xut) yulduzlari keladi, mana shu yoritqichlar chiqqach, olam yorug‘lik kasb etadi.

Bularning uchtasi bahorgi, uchtasi yozgi, uchtasi kuzgi va uchtasi qishki yulduzlardir.

[1] “Qutadg‘u bilig so‘zligi”. Qosimjon Sodiqov.<<Akademnashr>>,2020. 3-bet.
[2] “Qutadg‘u bilig so‘zligi”. Qosimjon Sodiqov.<<Akademnashr>>,2020. 19-bet.

Bulardan uchtasi olov, uchtasi suv, uchtasi shamol va yana uchtasi tuproq bo‘lib, borliq jonli va jonsiz mavjudot shulardan bunyod bo‘lgan.

Mana bunday narsalar haqida ancha ko‘p gapirdim, bu bilim, aql va zakovat tufaylidan edi.

“Qutadg‘u bilig” asarida qadimgi turkiy mifologik rudimentlar.

Asarda qadimgi turkiy mifologik rudimentlar “Erlikxon” obrazi uchraydi. Asarning 3475-baytida:

Apa yazdı ersä bayat qınadı
Bu dunyağ tünäk qıldı ***<u>erklig</u>*** *iδi*
(Odam gunoh qilsa, xudo qiynaydi,
Bu dunyoni qorong‘u qildi Erklig egam) kabi bayt uchraydi.

Baytni ma’nosiga e’tibor bersak qadimgi turkiy mifologik obraz Erlikxon o‘zining yovuzlik funksiyasini bajarganligini ko‘ramiz. Erlikxon obraziga to‘xtalib o‘tsak.

Qadimgi turkiy miflarga ko‘ra yer osti olamining bosh xudosi *Erlik (Erklig)xon* **(**𐰴𐰺𐰼𐰍 – *[e]rkl[i]g***)**dir[1]. Turk-mo‘g‘ul mifologiyasida Erlik xon Ko‘k Tangrining inisi ekaniga ishora qilinadi. U miflarda “Qari bo‘lsa ham baquvvat, ulkan gavdali, ko‘zi qiyshiq, qoshi qalin va qora, soqoli tizzasigacha tushgan, mo‘ylabi buralib qulog‘ini o‘rab olgan, boshi o‘ta xunuk, shoxi esa daraxt ildizidek, sochi jingalak, qo‘lida ko‘kimtir temirdan yasalgan shamshirini ushlagan” holatda tasvirlangan.[2] Erlik yer ostida quturgan qora buqada sayr qilib yurib, yovuz yordamchilari ishini nazorat qilgan. Aytishlaricha, bu buqaning egarini tikishga bir otning ham terisi yetmas ekan.[3] Uning nomini tilga olish, eslash yomonliklarga olib keladi, degan tasavvurlar hozirgacha saqlanib keladi. Shundan bo‘lsa kerak, yozma manbalarda uning nomi kam uchraydi. Erlik obrazi qadimgi turkiy miflarda yer osti marhumlar va yovuzliklar, ko‘z yoshi bilan to‘la daryolar oqadigan o‘lka boshqaruvchisining obrazi sifatida namoyon bo‘ladi.[4] Erlik obrazi sinkretik xususiyatga ega. Chunki hind-budda obrazi *Yamu (Uata)*[5], tibet-lamaistik obrazi *Choydjal* va *Shindje* obrazlari xususiyatlari Erlik obrazida ham mujassamlashganini S.G.Klyashtorniy o‘z tadqiqotlarida qisman ma’lum qilib o‘tgan.

“Irq bitik”da Erlik xon obrazi yer osti olamining xudosi sifatida uchraydi. Masalan:


Asl matn:[6] *(XII) (e)r: (a)bqa: b(a)rmyš: taγda; q(a)ml(a)myš*[7] *t(e)ŋride: (e)rkl(i)g: tir: anča: biliŋl(e)r: j(a)b(y)z*[8]*: ol*
Ma’nosi: *(XII) er (yigit) ovga bordi, tog‘da qamlandi, tangridir Erklig (Erlik-osmonda), deyishadiki: shunday bilinglar yomon – bu.*

Boshqa bir mifda esa, Ko‘k Tangri Erlik xonni yer osti qorong‘ulik dunyosiga quvg‘in qilib, qavat-qavat qulflar bilan bog‘lab qo‘yadi. Keyinchalik u yer osti dunyosi qora ruhlarini boshqarib, yomonliklar qila boshlaydi. Uning yer osti dunyosi insonlar ko‘z yoshi va qoni bilan to‘la botqoqliklar va ko‘llardan iboratdir. Erlik xon o‘lkasi boshlanadigan g‘or og‘zini uning o‘g‘illari qo‘riqlashgan. Yer osti ruhlari bilan gaplashmoqchi bo‘lgan qam (shomon)lar mana shu g‘or og‘ziga kelib ruhlarni chaqirganlar. Barcha xudo va ruhlar kabi Erlik xonga ham qurbonliklar qilishgan. Qurbonliklar asosan tunda sodir qilingan. Qurbonlik hayvoni yoki narsasi, albatta, nuqsonli bo‘lishi talab etilgan. Agar Erlik xonga qurbonlik qilinmasa, u yer ostidan turli kasalliklarni yer yuziga yuboradi, deb tasavvur qilishgan. Uning saroyi ko‘z yosh va qon oqadigan *“To‘ymadim”** daryosi bo‘yida joylashgan. Qadimgi turkiylar yulduzli tun ramzi sifatida Erlik

[1] Kalafat Y. Doğu Anadolu’da Eski Türk inanclarinin izleri. AKM. – Ankara. 1995. – S. 36.
[2] Сагалаев А.М. Мифология и верования алтайцев. Центрально-азиатские влияния. «Наука». – Нов-ск: 1984. – С. 69.
[3] Bu ma’lumotlarga A.V. Anoxin o‘z izlanishlarida batafsil to‘xtalgan. Yana qarang: Анохин А.В. Материалы по шаманству у алтайцев. Госиздат. 1924.
[4] Каруновская Л.Э. Представления алтайцев о вселенной (Материалы к алтайскому шаманству) // «Советская этнография». Изд. АН. – М.: 1935. № 4-5. – С. 176.
[5] Михайлов Т.М. Из истории бурятского шаманизма (с древнейших времен по XVIII в.). «Наука». – Н.: 1980. – С.320.
[6] Кляшторный С.Г. Мифологический сюжеты в древнетюркских памятниках / Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. «Наука». – СПб: 2006. – С. 250
[7] Древнетюркский словарь. «Наука». – Л.: 1969. – С. 415. QAMLA – *камлать, совершать шаманские обряды,* deb berilgan.
[8] Shu kitob. JABÏZ – *ничтожный, плохой, слабый,* deb berilgan. – С. 222. В.В. Радлов. Опыт словаря тюркских наречий (Типография Императорской Академия Наук. – Санктпетербург: 1893) китобида Jабыз - *дурной, негодный,* deb berilgan.
* Yer osti dunyosidagi afsonaviy daryo nomi. Afsonaga ko‘ra, Erlik bu daryoda “qora qayiqda” suzib yurgan. Qarang: Алексеев Н.А. Шаманизм тюркоязычных народов Сибири. «Наука». – Нов-ск.: 1984. – С. 53.

xonni bilishgan. Yer osti dunyosida Erlik xonning to‘qqizta o‘g‘illari ***(Qarash, Mattir, Shingay, Ko‘mirxon, Badish biy, Yabash, Temirxon, Ucharxon, Kereyxon)***, ikkita qizi ***(Kishtey ona, Erka Sulton)***, elchilari (malaylari) va ***ajal ruhi Bo‘rt***[1] va boshqa yomon ruhlar ham yashagan.[2] Miflarda ular antromorf, temir boshli maxluqlar sifatida namoyon bo‘lgan.

Minusinsk yaqinidagi Oltin ko‘ldan topilgan bitigda ham shunga monand fikr mavjud: [3]

Asl matn:	
Transkripsiyasi: *(5) “tört $^{i}n^{ä}lgü^{4}$: $^{e}rt^{i}m(iz)$: $b^{i}zni$: $^{e}rkl^{i}g$: $^{a}d^{y}rty$: $y^{i}ta^{5}$:”* [6]	
Ma’nosi: *“... to‘rt martabali er edik, bizni Erklik ayirdi, yo‘qotdi [jonimizni oldi]”.*	

Bu yerda ham Erlikning o‘lim olib keluvchi, jonni tanadan ayiruvchi ekanligi aytilmoqda.

Demak yuqorida qadimgi turkiy manbalarining barchasida Erlikxon yovuz dunyoni zulmatga, qaorong‘u tunga aylantiruvchi obraz sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yuqoridagi “Qutadg‘u bilig” asaridagi baytda ham shu funksiya aytilmoqda.

Xulosa. “Qutadg‘u bilig” asaridagi qadimgi turkiy yozma manbalar singari qadimgi turkiy tafakkurni, qadimgi turkiy folklorni, qadimgi turkiy mifologik obrazlarni tashuvchi yozma yodgorlik hisoblanadi. Biz bundan qadimgi turkiy mifologik obrazlarda olib kelgan o‘zida bor asar sifatida bemalol qarashimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimjon Sodiqov. “Qutadg‘u bilig so‘zligi”.<<Akademnashr>>, 2020.
2. Jo‘raqo‘ziyev N.I. “Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folklorda kosmogonik mifologiya”. Toshkent shahri,2018.
3. Kalafat Y. Doğu Anadolu’da Eski Türk inanclarinin izleri. AKM. – Ankara. 1995.
4. Сагалаев А.М. Мифология и верования алтайцев. Центрально-азиатские влияния. «Наука». – Нов-ск: 1984.
5. Анохин А.В. Материалы по шаманству у алтайцев. Госиздат. 1924.
6. Каруновская Л.Э. Представления алтайцев о вселенной (Материалы к алтайскому шаманству) // «Советская этнография». Изд. АН. – М.: 1935. № 4-5.
7. Михайлов Т.М. Из истории бурятского шаманизма (с древнейших времен по XVIII в.). «Наука». – Н.: 1980.
8. Кляшторный С.Г. Мифологический сюжеты в древнетюркских памятниках / Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. «Наука». – СПб: 2006.
9. Древнетюркский словарь. «Наука». – Л.: 1969.
10. Алексеев Н.А. Шаманизм тюркоязычных народов Сибири. «Наука». – Нов-ск.: 1984.
11. Древнетюркский словарь. «Наука». – Л.: 1969.
12. Бисенбаев А. Мифы древних тюрков. – Алматы: 2007.
13. Малов С.Е. Енисейская письменность тюрков. – М.,-Л.: 1952.
14. Кляшторный С.Г. Стелы Золотого озера (к датировке енисейских рунических памятников) // Тюркологиcheский сборник. – Л.: 1976.

[1] Древнетюркский словарь. «Наука». – Л.: 1969. – С. 126. BURT – *кошмар;* J. Koloson esa *bür* – “обманом скручиват жертву” desa, K.K. Yudaxin qirg‘iz tilidagi *мӱрт* – “внезапная смерт”, *бӱрт кет* – “скоропостижно умерет”, deb tarjima qiladi.

[2] Бисенбаев А. Мифы древних тюрков. – Алматы: 2007. – С. 9.

[3] Малов С.Е. Енисейская письменность тюрков. – М.,-Л.: 1952. – С. 54.

[4] Древнетюркский словарь. «Наука». – Л.: 1969. – С. 209. INÄL – лицо, имеющее знатное происхождение, высокородный, degan ma’nolari ham berilgan.

[5] Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Типография Императорской Академии Наук. – Санктпетербург. 1905. – С. 524. *Jit - потерятся, исчезнут, погибнут,* deb berilgan. Matnda *$y^{i}ta$* so‘zi nimagadir tushib qolgan. Aslida bu so‘z matn ma’nosini to‘g‘ri ochib berishi uchun xizmat qiladigan so‘z hisoblanadi.

[6] Кляшторный С.Г. Стелы Золотого озера (к датировке енисейских рунических памятников) // Тюркологиcheский сборник. – Л.: 1976. – С. 258-267. *“Нас было четверо высокородных, Эрклиг разлучил нас. Увы!”* deb tarjima qiladi. Matnda *$y^{i}ta$* so‘zi tushib qolgan.

O‘ZBEK VA TURK ERTAKLARIDAGI UMUMIY VA FARQLI MOTIVLAR

COMMON AND DIFFERENT MOTIVES IN UZBEK AND TURKISH FAIRY TALES

Anarboyev Javlonbek Nurkeldi o‘g‘li
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
anarboyevjavlon16@gmail.com

Annotatsiya. *O‘zbek va turk xalqlarining madaniyati, tili va tarixi yaqinligi ertaklarda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, xalq ertaklarida mushtarak motivlar uchrab turishi tabiiy. Maqolada o‘zbek va turk xalq ertaklarida qo‘llaniladigan umumiy motivlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, so‘nggi asrlarda o‘zbek va turk xalq ertaklaridagi farqli motivlar ham tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *mifologik motivlar, hayvon motivlari, taqiq qilingan narsa yoki harakat motivi, sehrga oid motivlar, o‘limga oid motivlar, g‘ayrioddiy narsa va jarayonlar motivlari.*

Abstract. *The closeness of the culture, language and history of the Uzbek and Turkish peoples is also expressed in fairy tales, and it is natural that there are common motifs in folk tales. The article talks about common motifs used in Uzbek and Turkish folk tales. Also, different motifs in Uzbek and Turkish folk tales in recent centuries are analyzed.*

Key words: *mythological motifs, animal motifs, forbidden object or action motif, magical motifs, death motifs, unusual object and process motifs.*

Ertak janri xalq og‘zaki ijodiyotining eng muhim va eng qadimgi turlaridan biri sanaladi. Ertak qanchalik qadimiy janr bo‘lmasin, u vaqt o‘tgan sayin o‘zgarib boradi. Ertaklar tilining tiniqligi va bayon qilish uslubi, rang-barangligi, ko‘lamining kengligi, voqealarning g‘ayrioddiyligi, ezgulik hamisha yovuzlikdan ustun bo‘lishi bilan xalq orasida eng keng tarqalgan xalq og‘zaki janr hisoblanadi.

Qardosh o‘zbek va turk xalqlari og‘zaki ijodi bir-bir bilan chambarchas bog‘liq. Chunki bu xalqlarning tarixi va madaniyati ildizlari bir nuqtaga borib taqaladi. Ayni jihat ikki xalq ertaklaridagi motivlari orasida ham ma’lum umumiylarni o‘rtaga chiqaradi.

O‘zbek va turk ertaklarida quyidagi motiv turlari umumiy motivlar sifatida bilinadi:

1. Mifologik motivlar: ajdaho, uchuvchi ajdaho, gapiruvchi ajdaho.

2. Hayvon motivlari: sehrli hayvonlar, anqo qushi, xazina keltiruvchi hayvonlar, hayvonlardan o‘rganilgan bilim, odam qiyofasida bo‘lgan it, sehrli ot, sehrli ot bilan uchish, odamlar kabi gapiradigan hayvonlar, sudralib yuruvchilar, hayvonlar tillarini o‘rganish, yovvoyi hayvonlar shohligi, hayvonlar bilan sayohat, sudralib yuruvchilar shohi, yordamchi hayvonlar, rahmat aytuvchi hayvonlar, insonni boy qiluvchi hayvon, odamlarga nasihat qiluvchi hayvonlar, sudraluvchilarga turmushga chiqish, hayvon shaklidagi odamga uylanish.

3. Taqiq qilingan narsa yoki harakat motivi: suv ichishni taqiqlash, savol berishni taqiqlash, g‘ayrioddiy narsalarni oshkor qilish, taqiqlangan xona, taqiqlangan eshik, ma’lum joyda uxlashni taqiqlash, ishni ma’lum bir vaqtda bajarish, buzilgan taqiq natijasida o‘lim.

4. Sehrga oid motivlar: odamning xachir, eshak, it, qush, kaptar, laylak va boshqalarga aylanishi, odamning aylanishi, odamning toshga aylanishi, ichish orqali o‘zgarishi, kundalik o‘zgarishi, sehrli olma daraxti, qarindoshlardan olingan sehrli narsalar, sehrli atirgul, sehrli uzuk, jonivorlarning sehrli terisi, sehrli taroq, sehrli saroylar, sehrli stol, sehrli eshik, sehrli gilam, sehrli suv, sehrli narsa bilan odamni urish, sehrli narsalarni so‘rash, ko‘rlikni davolovchi sehrli narsalar.

5. O‘limga oid motivlar: qayta tirilish, ibodat natijasida jonlanish, qush shaklidagi ruh.

6. G‘ayrioddiy narsa va jarayonlar motivlari: yerosti dunyosiga sayohat qilish, hayvonga minib yerosti dunyosiga tushish, yerosti dunyosidan qaytish, parilar yashaydigan yer, parilar suv

ostida yashaydilar, ilon shaklidagi pari, qush shaklidagi pari, kaptar shaklidagi pari, inson shaklidagi pari, parilar podshosi, parilarning favqulodda qudrati, parilarga uylanish yoki ular bilan muloqot qilish, parilarga muhabbat, mitti, ko‘zsiz odam, dev, favqulodda katta-kichik odamlar, odam bilan dev o‘rtasidagi do‘stlik, devlar bilan odamlar o‘rtasidagi nikoh, favqulodda go‘zal ayol, favqulodda kelishgan erkak, g‘ayrioddiy quduq, g‘ayrioddiy shahar, tog‘larda yashovchi maxluq, devlar yashaydigan saroy, g‘ayrioddiy mevalar, mo‘jizalar, g‘ayrioddiy muolajalar.

7. Dev motivlari: odam go‘shtini yeydigangan dev, bilmagan holda odamxo‘rga uylanish, devlar podshosi, jinlar, odamlarning devning hukmronligini buzishi, dev uchun qurbon, ahmoq dev, devni o‘ldirish, devni qilich bilan o‘ldirish, devning qizi qahramonga yordam berishi, devning asiri bo‘lgan ayolning qahramonga yordam berishi.

8. Sinovlar va qahramonlarning bir-birini tanib olish jarayoniga oid motivlar: hayot hikoyasini aytib berish orqali tanish, qo‘shiq aytish orqali tanish, qo‘shiqni she’ri orqali tanish, parol orqali tanish, rasm orqali tanish, tanadagi belgilar orqali tanish, sochi orqali tanish, oltin soch orqali tanish, jismoniy xususiyatlar orqali tanish, belgilar orqali tanish, uzuk orqali tanish, ro‘molcha orqali tanish, turmushga chiqish uchun sinovlar, mahorat sinovlari, ba’zi savollarga javob topish, bajarib bo‘lmaydigan vazifalar , chumolilar yordamida aralash donlarni ajratish, bir kechada saroy qurish, favqulodda tezlikni talab qiladigan ishlar, juda chiroyli ayolni qidirish, sehrli obyekt, tadqiqot, qo‘rquv sinovi, tezlik sinovi, sabr sinovi, aniqlik sinovi, sodiqlik sinovi, vaqt sinovi.

9. Aqllilik va ahmoqlikka oid motivlar: farzanddan o‘rganilgan aql, hayvondan o‘rganilgan bilim, keksa odamdan o‘rganilgan hikmat, aqlli odamlardan o‘rganilgan hikmat, darveshdan o‘rganilgan hikmat, muqaddas kishidan o‘rganilgan hikmat, o‘layotgan otadan o‘rganilgan hikmat, ayoldan o‘rganilgan aql, tushida o‘rganilgan bilim, aqlli qiz, aqlli bola, ahmoq ayol, qo‘rqoq ahmoq.

10. Nayrang motivlari: oltin beradigan deb da’vo qilingan hayvonlar, aldash, usta o‘g‘ri, aldab qochish, qizdirilgan yog‘da kuydirib o‘ldirish, suvga cho‘kib o‘ldirish, arqon kesilganda qurbonning yiqilib tushishi, xiyla bilan kiyim almashtirish, sotuvchi qiyofasida aylanib yurgan sulton, o‘lim yoki uyquga o‘xshatib aldash, xiyonatkor vazir, xiyonatkor xizmatkor ayol.

11. Taqdirning kutilmagan tarafga o‘zgarishiga oid motivlar: kenja o‘g‘ilning g‘alabasi, sevimli kenja o‘g‘li, kenja ukasi akalariga yordam beradi, g‘olib kenja qiz, o‘gay qiz qahramon, yetim qahramon, juda yosh qahramon, dangasa qahramon, soqov qahramon, kambag‘al qahramon shahzodaga uylanadi, kambag‘al bola shoh bo‘lishi.

12. Kelajakni belgilashga oid motivlar: qasamni buzish jazolanadi, va’da va bitim tuzish, odam bilan hayvon o‘rtasidagi kelishuv, do‘stlik bitimi, bashoratlar, yoshning kelajakda buyuk shaxs bo‘lishini bashorat qilish, behuda harakatlar. bashoratning amalga oshishiga, la'natning amalga oshishiga yo‘l qo‘ymaslik.

13. Omad va taqdirga oid motivlar: Malika bilan pul tikish, taqdirning o‘zgarmasligi, ikkiyuzlamachi taqdir, tug‘ilishdan oldin aniq, omadli yoki omadsiz joylar, omad va taqdirning o‘zgarishi, omad va aql, hayvonlarning suhbatlaridan sirlarni o‘rganish, foyda keltiruvchi pari.

14. Jamiyat va davlatga oid motivlar: sulton, podshoh xarakteri, podshohning nikohi, malikalar, shahzodalar, sulton qizlari, podshohning vazirlari, boylar, tilanchilar, qullar, kanizaklar, er va xotin, bolalar va ota-onalar, aka-uka, uch aka-uka, opa-singillar, uch qiz, birodar, mehmondo‘stlik, yolg‘on nom bilan yoki firibgarlik yo‘li bilan mehmondo‘stlik, o‘qituvchi va uning shogirdi, cho‘pon, ovchi, shifokor, savdogar, novvoy, tegirmonchi, askar, o‘g‘ri, ziyofatlar, ba’zi millatlar.

15. Mukofot va jazo bilan bog‘liq motivlar: savobli amallar, yaxshilik bilan mukofotlanish, mehmondorchilik bilan mukofotlanish, boylik bilan mukofotlanish, podshohlik berish bilan mukofotlash, vazirlik berish bilan mukofotlash, hadya qilish bilan mukofotlash, o‘lim bilan jazolanish, o‘g‘irlik, kannibalizm, la’nat bilan jazolash, moy bilan yondirish.

16. Asir va qochqinlar bilan bog‘liq motivlar: Dev yoki yirtqich hayvon tomonidan o‘g‘irlanish, jin, shayton va pari tomonidan o‘g‘irlanishi, turli xil o‘g‘irlashlar, qasrda qamoq, zindonda qamoq, quduqda qamoq, yosh qizlarni asirlikdan qutqarish, sultonni qutqarish, asirlikdan

kelgan qizi.

17. G‘ayritabiiy shafqatsizliklar haqidagi motivlar: shafqatsiz o‘gay ona, shafqatsiz ota, shafqatsiz er, o‘rmonda tashlab ketish, chuqurga tashlab ketish, tog‘da tashlab ketish, ko‘zlarini o‘yib yaralash, vaqti-vaqti bilan yirtqich hayvonga berilgan qurbonlar, shafqatsiz xotin.

18. Gender bilan bog‘liq motivlar: sevish, ko‘rmasdan sevish, rasmni ko‘rib sevish, tushida sevish, chiroyli ovoz eshitib sevish, bir ko‘rishda sevish, sevib qolish, ishqibozlik, malikani sovg‘a qilish, olijanob ayolning kambag‘alga turmushga chiqishi, olijanob erkakning kambag‘al ayolga uylanishi, nikoh odatlari, turmush sharoiti, ko‘p xotin olish, majburan turmushga chiqish, sodiq ayol, homilador bo‘lish biror narsa yeyish.

19. Din bilan bog‘liq motivlar: namozning sirli qudrati, farzandli bo‘lish uchun duo, tiriltirish duosi, marosim sifatida namoz o‘qish, muqaddas suv, Xudo, ziyoratgohlar, masjidlar, salomlashish, Makkaga borib, hoji bo‘lish.

20. Xarakter xususiyatlari bilan bog‘liq motivlar: sabr-toqat, shukronalik, fidoyilik, itoatkorlik, jasorat, qahramonlik, sadoqat, vijdonlilik, insofsizlik, yolg‘on gapirish, noshukurlik, nopoklik, rashk, kuch ishlatish.

21. Boshqa motiv guruhlari: maqollar, formulali sonlar, qirq kunlik muhlat so‘rash, o‘lganlarni tiriltirish, ramziy ranglar, ramziy ismlar, qadrlangan qahramon, qahramonning qaytishi.

Avval aytganimizdek, o‘zbek va turk ertaklarida mushtarak motivlarning ko‘pligi diqqatni tortadi, farqli motivlar ko‘p emasligini aniqladik.

O‘zbek ertaklarida uchramaydigan va faqat turk ertaklariga xos bo‘lgan asosiy motivlar quyidagilardir:

Arab, arab opa, arab qizi, dengiz oti, baliq odam, sehrli qurbaqa, sehrli zaytun daraxti, sehrli sovun, o‘lgan onaning do‘stligi , o‘liklar er, tuxumda jon, qonda jon, favqulodda achchiq apelsin, favqulodda no‘xat, g‘ayrioddiy o‘tlar, unumdor va unumsiz dalalar, xoin muazzin, yahudiylar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BİLKAN, Ali Fuat **Masal Estetiği**, İstanbul, Timaş Yayınları, 2001.
2. BORATAV, Pertev, Naili **Folklor ve Edebiyat** II, İstanbul, Adım yay. 1982.
3. CEHANGİROV, Ğ **Balalar Ertekleri**, Taşkent, Özbekistan neşriyatı, 1972
4. CELALOV, Ğ **Özbek Halk Ertekleri Poetikasi**, Taşkent, Özb. SSR “Fen” Neşriyatı, 1976
5. CURAEV, M. **Özbek Halk Ertekleride “Sehirli”**
6. **Rakamlar**, Taşkent, Özb. SSC “Fen” Neşriyatı, 1991
7. MAKAS, Zeynelabidin **Türk Dünyasından Masallar**, Metin-İnceleme, İstanbul, Kitabevi, 2000
8. OGUZKAN, Ferhan **Yerli ve Yabancı Yazarlardan Örneklerle Çocuk Edebiyatı**, Anı Yayıncılık, Ankara 2001

BAXSHICHILIKDA MAZMUN, OHANG VA MUSIQA UYG‘UNLIGI

THE HARMONY OF CONTENT, MELODY AND MUSIC IN BAHASHICHI

Xayrulla Rajabov
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek baxshichilik san’atida mazmun, ohang va musiqaning o‘rni haqida so‘z boradi. Baxshichilik san’atida bu uch yamoyilning o‘zaro uyg‘unlik kasb etishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maqolada ana shu jihatning ilmiy va badiiy asoslari tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *baxshichilik, mazmun, ohang, musiqa, badiiyat, uyg‘unlik, baxshi, doston, folklor.*

Abstract. *This article talks about the role of content, melody and music in the art of Uzbek bakshish. The harmony of these three elements plays a crucial role in the art of Bakhshchilik. The article explores the scientific and artistic foundations of this aspect.*

Key words: *bakhshi, content, melody, music, artistry, harmony, bakhshi, epic, folklore.*

Baxshichilik qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, xalqimizning uzoq asrlik tarixi, urf-odati, ruhiy va etnopedagogik xususiyatlarini ajdodlardan avlodlarga o‘tkazishda muhim rol o‘ynadi. Xalq idealidagi o‘lmas qahramonlar, ularning vatanparvarlik, ona-yurt ozodligi uchun bahodirona kurashlari dostonlarda xalqona asosda yuksak badiiy kuylanib kelindi. Bu kabi tasvirlar uzoq asrlik an’analar ruhi asosida sayqallashtirilib, baxshi auditoriyasining kengayishiga, jonli ijroda yanada keng tus olishiga sabab bo‘lgan. Baxshichilik san’ati asrlar osha ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda rivoj topib, o‘ziga xos estetik ahamiyat kasb etib kelgan bo‘lsada, uning gullab yashnashi, jonli epik an’analarda rivoj topishi XIX asr va XX asr boshlarida ko‘zga tashlanadi. Bu davrda yashagan bir qator baxshi-shoirlarimizning kuchli quvvayi hofizasi, noyob iste’dodi, badihago‘ylik mahorati qadim dostonlarimizning jonli ijrolarda kuylanib kelishiga va keyingi avlod baxshilariga o‘tkazilishida muhim o‘rin egalladi.

Baxshi-shoirlarning haqiqiy epik an’analar ijrochisi sifatida shakllanishi, dostonchilik maktablariga xos usul va yo‘llarning tom ma’noda rivoj topishi ham ana shu davrlarga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham rus folklorshunosi Y. A. Novikov rus bilinalarining XIX va XX asr boshlari kuylovchilari o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatiga bo‘lgan an’ana haqida fikr yuritib, shunday deydi: “XIX-XX asrning ko‘pchilik aytuvchilari uchun ajdodlarning ijodiy merosiga ehtiyotkorona hurmat bilan munosabatda bo‘lish xosdir. Epik qo‘shiqlar ular tomonidan xalqning yozilmagan tarixi sifatida qabul qilingan. An’ananing nufuzi shu qadar kuchli ediki, ko‘pgina qo‘shiqchi-badihago‘ylar o‘zlarining ijodkorliklarini ko‘z-ko‘z qilmaslikni afzal bilishardi. Eposga bunday munosabat ancha qadimgi davrlarda ham ustunlik qilgan[1]”.

An’anaviy epos usullariga bunday yondashuv jarayoni janubiy voha baxshilari o‘rtasida ham ancha shakllangan edi. Voha dostonchiligi haqida fikr yuritganda shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu hududda dostonchilik an’anasi ancha kuchli va qadimiy xususiyatlarini saqlagan holda rivojlanib, baxshilar auditoriyasining kengayishiga sabab bo‘lgan. Bu borada folklorshunos M. Afzalov “O‘zbek xalq shoirlari” maqolasida alohida fikr bildiradi: “Sherna o‘z davrining eng chechan, so‘zga boy san’atkor shoirlaridan bo‘lib, shogird yetishtirishda ham Shernaga tenglashadigan ustoz bo‘lmagan. Shernazar shoir Surxandaryo va Qashqadaryo hatto Turkmanistonning ayrim shahar va qishloqlariga borib, doston aytib, tinglovchilarni xayratga qoldirgan. Xalq orasida o‘z dostonlari bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Ahmad yuzboshi, Saodat yuzboshi, Normurod Shernazar o‘g‘li, Jo‘ra Eshmurod o‘g‘li va boshqa iste’dodli xalq shoirlarini tarbiyalab yetishtirgan Shernazar Berdinazar o‘g‘lidir[2]”. Yoxud Boysun, Behsquton, Chiroqchi, Qamay dostonchiligi haqida ham xuddi shunday fikr yuritish mumkin. Chiroqchi dostonchilik maktabi haqida so‘z ketganda, bu maktabning o‘ziga xos usul va yo‘nalishi haqidagi xususiylik bevosita Rajab shoir (XIX asr boshlari), Xolnazar shoir (XIX asr o‘rtalari), Iskandar shoir (XIX asr o‘rtalari), To‘ra shoir (XIX asr boshi), Abdulla shoir Nurali o‘g‘li (1874-1957), Hamro shoir Ergash o‘g‘li va boshqa ko‘plab ustoz baxshilar nomini tilga olish bilan bog‘liqdir. Dostonchilik maktabi baxshilarining so‘z va sozni sayratish, noyob badihago‘ylik talantlari haqida juda ko‘plab naql va rivoyatlar xalq orasida bugungi kunlargacha saqlanib qolgan. Jonli ijroda badihago‘ylik salohiyatlarini namoyish qilib, ma’naviy barkamollikning yuksalishiga

[1] Ю. *Новиков*. Изд-во Вильнюсск. пед. ун-та, 2007; Т. 2. Вильнюс: Изд-во Вильнюсск. пед. ун-та, 2009; Т. 3.
[2] *Afzalov* M. *O‘zbek xalq shoirlari*//Sharq yulduzi, 1946.

xizmat qilganlar. Xuddi shunday umumiylik Beshqo‘ton Boysun dostonchilik maktabi baxshilari repertuariga ham xos bo‘lib, juda ko‘plab an’anaviy dostonlarni ijro etib, xalqimiz olqishiga sazovor bo‘lganlar. Abdurasul yuzboshi, Sherdan Mardonaqul, Alim yuzboshi, Eshmurod Sherdan o‘g‘li, Normurod Poyon o‘g‘li, Boymurod Boymat o‘g‘li, Eshqobil Qo‘shoq, Mulla Ermamat Badalov va boshqa ko‘plab baxshilar xuddi shu maktablarning iste’dodli ijodkor baxshilaridandir.

Shu bilan bir qatorda ushbu maktablarning g‘oyaviy yo‘nalishi va repertuar birligi umumiy ko‘rinishda bo‘lsa-da, ijro usullari, poetik ifodadagi o‘ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farq qilganlar. Buni professor H. Zarifov Sherobod dostonchiligi misolida ko‘rsatib bergan edi: “Sherobod baxshilari doimiy ravishda og‘zaki an’anani davom ettirib kelganlar. Ular o‘zlarining repertuarlari va ijro usullari jihatidan bizga ma’lum dostonchilar bilan umumiy tomonlarga ega. Shu bilan birga ularning ba’zi bir o‘zlariga xos xususiyatlari ham mavjud, repertuarida boshqa viloyatlarda bo‘lmagan ayrim dostonlar, jumladan, Go‘ro‘g‘lining o‘limi haqida doston bor[1]”. Haqiqatan ham Sherobod dostonchilik maktabi boshqa joylarda noma’lum bir qator syujetlarni, ayrim qadimiy motiv va tasavvurlarini saqlab qolganligi bilan ahamiyatlidir.

Baxshichilik san’atida ustoz-shogirdlik an’anasi, doston ijro etish, dostonchilik an’analariga rioya qilish har doim muhim masalalardan hisoblangan. Shu sababli ham baxshilar asrlar davomida dostonchilik an’analariga qat’iy amal qilib kelganlar. Ustozlari orqali o‘rgangan doston namunalarini xalq oldida namoyish qilib, repertuarni mukammallashtirishga har doim intilganlar. Natijada baxshini hamma tinglar, olqishlar, uning san’ati xalq uchun madaniyat o‘chog‘i vazifasini o‘tagan. Ana shu asriy orzular asosida baxshilar badiiy mukammal dostonlar kuylab, tinglovchilar auditoriyasini jalb etishga harakat qilganlar. Og‘zaki epik an’ana har doim soz va so‘z mutanosibligi asosida amalga oshirilgan. Soz va so‘z birgalikda jonli ijroda muhim hisoblangan. Yozib olingan matn esa uning bir tomoni, xolos. Ammo baxshining ruhiy hissiyoti, dramatik rol bajarishi, do‘mbiraning ming bir kuyi tinglovchiga faqat jonli ijrodagina zavq bag‘ishlaydi. Demak, baxshichilik san’atida soz va so‘z asosiy o‘rin tutar ekan, ustoz o‘z shogirdiga an’anaviy doston kuylash usullarini og‘zaki (yodlatish) asosida amalga oshirgan. Hattoki, ayrim baxshilarning savodxonligi ham bunga monelik qila olmagan. Chunki “Epik kuylovchi tug‘iladi, o‘sadi, o‘z san’atini o‘rganib, repertuarini yaratadi va oxir oqibatda tinglovchilar oldida muntazam chiqish uchun usta baxshi bo‘lib shakllanadi[2]”.

Ana shu asosda baxshichilik san’ati qat’iy epik an’analarda shakllandi, o‘ziga xos jonli ijroda yashab keldi. Ko‘plab an’anaviy doston namunalarining ijro etilishi ham baxshichilik san’atidagi ijodiy jarayonlar bilan bog‘liq holatlardandir. Ana shunday ijodiy jarayonlar ma’lum davr uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, XX asrda kechgan ilmiy texnikaviy rivojlanish, globallashuv, axborot almashinuvining tezlashgani, xalqimiz ommaviy savodxonlik darajasining oshgani, yozma adabiyot va boshqa san’at turlarining xalq madaniy hayotidan keng o‘rin olgani baxshichilik san’atining avvalgi mavqeyini ancha sustlashtirdi. Jonli og‘zaki ijro va an’analarning ma’lum ma’noda o‘zgarishiga olib keldi. Doston va uning ijrochilari dunyoqarashiga, ijro usuliga o‘zgacha yondoshuv holatlarini shakllantirdi. Bunday o‘zgarishlar baxshichilik san’atidagi qadimiy an’anaviy ijro jarayonlarini susaytirdi. Ijroda yangicha talqin va sahnaviy shakllar yuzaga keldi. Natijada baxshi tor doiradagina doston kuylaydigan bo‘lib qoldi. Izlanishlar natijasi Surxondaryo-Qashqadaryo ijrochiligiga doira, ba’zan chanqovuzni olib kirishga sabab bo‘ldi. Endilikda baxshilar to‘ylarda do‘mbiraga mikrofonni ulab, doira jo‘rligida sho‘x-sho‘x termalar, dostonlardan parchalar ayta boshladilar. Do‘mbira va doira jo‘rligida sho‘x ohanglar, davradagilar harakatini doston matniga qo‘shib aytish, eposdagi o‘ynoqi vaznlar va yengil she’riy misralardan foydalanishiga e’tibor qaratildi. Shu asosda doston kuylash usullari o‘zgarib, u sahnaga ko‘chdi. Bu harakatlar muayyan holatlarda baxshilar auditoriyasini saqlashga imkon yaratdi. Har bir yangilikka qiziquvchi xalqimiz baxshilarni chaqirtirib, butun kecha davomida doston ayttirishga emas, balki ikki-uch soat davom etadigan to‘yning tomosha qismida baxshilarga ham vaqt ajratib o‘n, o‘n besh minut dostonlardan parchalar, termalar eshitishga ko‘nika boshladi. Buning uchun baxshilar davrani qizitish va o‘zlariga jalb ettirish maqsadida

[1] Зарифов Ҳ. «Фолклор ва археология материалларини қиёсий ўрганишга доир», 1958.
[2] Путилов Б.Н. Эпической сказителство.-М.,1997.-стр.80.

sho‘x matnlar, o‘ynoqi kuylar topishi lozim edi. Shu asosda baxshilar “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kelinoy” dostonlaridan parchalar kuylab, yangicha usullarda doston ijro etish yo‘llarini shakllantirdilar. Natijada dostonlardan bunday parchalar va ayrim termalar kuylash vohada keng tarqaldi, hamda ayrim o‘zgarishlar bilan keng ijro etish taomiliga kirdi. Ana shunday izlanishlar natijasida baxshini yoshlar ham tinglar, u kuylayotgan davrada o‘yinchilar ham chiqadigan bo‘ldi.

Ammo endi doston aytish an’anasi, usul va yo‘llari buzilgan, matnlar sayozlashib qolayotgan edi. Bunday yo‘l 70-80-yillarda Qashqadaryo-Surxondaryodagi baxshilar orasida ommalashdi. Natijada ashulachilar singari baxshi-otarchilar guruhi shakllandi. Endilikda baxshilar yoshlarni ushbu san’atga jalb etish, qiziqtirish yo‘llarini izlay boshladilar. Izlanishlar natijasi ma’lum ma’noda baxshichilik san’atining jonli ijroda davom etishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa- da, ammo doston kuylash usullari o‘zgarib an’anaviy xalqona ifoda maqsadining buzilishiga olib keldi. Boshqacha aytganda “Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida eposning jonli an’analarida “jonlanish” ko‘zga tashlandi. Bunday jarayon iste’dodli dostonchilarning (masalan, qashqadaryolik Qodir Rahimov kabi) yetishib chiqishi va ularning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq, albatta. Ammo uni epos jonli og‘zaki an’analarining yangilanishi yoki ko‘hna an’analarning rivoji tarzida qarash mumkin emas. Chunki ko‘p asrlik dostonchilik epik an’analarining astasekinlik bilan tadrijiy davomli ravishda so‘na boshlashi juda ham murakkab dialektik jarayon bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy omillar ta’sirida turli yerlarda turlicha kechadi. Shunday ekan, Sherobod dostonchilik maktabidagi (Qodir Rahimov, Xushvaqt Mardonaqulov, Chori Umirov, Shoberdi Boltayev, Boborayim Mamatmurodov kabi baxshilar faoliyatidagi) jonlanish ham epos og‘zaki an’analari inqiroz davrining o‘ziga xos bir ko‘rinishi bo‘lib, uning asta- sekinlik bilan so‘na borishi qonuniy holdir[1]”. Shu asosda ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi o‘zgarishlar baxshilarning keng auditoriyasini cheklab qo‘ydi. Shogird baxshilarning ustozlar an’anasini davom ettira olmasligi bu qadimiy san’atning uzoq davom etmasligini ko‘rsatmoqda. Baxshichilik so‘nish davrida har bir poetik maktabning vakillari shu maktabning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qilardilarki, bunga Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil shoir, Po‘lkan shoir, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Umir Safarovlarning ijodi guvoh. Janubiy O‘zbekistonda og‘zaki an’anani og‘zaki asosda o‘rganib, uni keyingi avlodlarga yetkazishda ham Umir shoir Safarovdek baxshilarning o‘rni beqiyosdir. Umir baxshi dostonchilikda dong taratgan, an’anaviy doston kuylash usul va yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, o‘ziga xos soz kuylashi, yoqimli ovozi, voqealarni qiziqarli va obrazli ta’riflashi bilan alohida ajralib turgan. Bir qator talantli baxshi shogirdlarning tarbiyalanishiga sabab bo‘lgan. Hattoki, o‘z davrining so‘zga chechan baxshisi bo‘lgan Qodir baxshidek dostonchilar ham tog‘alari va bobosi taniqli baxshilar bo‘lishiga qaramasdan Umir shoirga shogird tushishga harakat qilgan. Bu haqda baxshining o‘zi shunday hikoya qilgan: “Men yetti yoshlarimda qishlog‘imizda to‘y bo‘ldi. Biz ham barcha bolalar kabi o‘yinkulgilar bilan mashg‘ul edik. Shunda odamlar: baxshi keldi, deb qolishdi uydan gilam poyondoz chiqarishdi. Qorabayir otdan qora soqolli, chaqnoq ko‘zli, qorin qo‘ygan etdor odam tushib, xurjundan do‘mbirasini olishi bilan odamlar oyog‘i ostiga poyondoz to‘shab, uygacha oyog‘ini quruq yerga bostirmay olib kirdi. Baxshining atrofidagilar bilan salomlashib, ko‘rishishiga ham qo‘yishmadi. Shu yerdayoq murg‘ak qalbimda bunchalik izzat-hurmat boisi nima, katta bo‘lsam men ham shunday e’tiborda bo‘larmikanman, degan o‘y keldi. Bir zumda vujudimga ichkaridan taralayotgan do‘mbira ohanglari kira boshladi[2]”.

O‘zbek xalqining uzoq o‘tmishdagi chet el istilochilariga qarshi qahramonona kurashi “Yusuf va Ahmad”, “Malikayi Ayyor”, “Intizor”, “Rayhon arab”, “Orzigul”, “Shirin va Shakar”, 40 ga yaqin Go‘ro‘g‘li yo‘nalishiga kirgan bir qator qahramonlik va romantik dostonlarda aks ettirilgan. Bunday ajoyib og‘zaki ijod namunalari O‘rta Osiyo turkiy xalqlari o‘rtasida juda keng tarqalgan. Barcha epik asarlarda xalqning ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, zulm va zo‘ravonlikka qarshi cheksiz nafrati ifodalanadi.

Milliy madaniyatimizning ma’naviy asoslari o‘tmish ajdodlarimizning mashaqqatli

[1] Mirzayev T. O‘zbek dostonchiligi va “Alpomish” dostonining Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti haqida // Alpomish. Doston. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti. -T.:1999.-5-bet.

[2] Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. Surxondaryo talqini. -T. Mehnat., 1999. -300-bet.

mehnatining natijasi bo‘lib, xalq og‘zaki ijodiyotining paydo bo‘lishiga va rivojlanishga poydevor bo‘ldi. Ilk milliy ma’naviy tafakkur kurtaklarining g‘uncha ochishi tufayli xalq og‘zaki ijodi o‘tmish ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy turmush tarzini o‘zida aks ettirgan ijobiy natijalarga ega bo‘lib bordi. Milliy ma’naviyat vatan ozodligi, mustaqilligi, uning taraqqiyoti uchun olib borilgan kurashlar natijasida yangi-yangi yuksak zafarlarga erishib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afzalov M. O‘zbek xalq shoirlari//Sharq yulduzi, 1946.
2. Mirzayev T. O‘zbek dostonchiligi va “Alpomish” dostonining Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti haqida // Alpomish. Doston. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li varianti. -T.:1999.-5-bet.
3. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. Surxondaryo talqini. -T. Mehnat., 1999. -300-bet.
4. Зарифов Ҳ. «Фолклор ва археология материалларини қиёсий ўрганишга доир», 1958.
5. Путилов Б.Н. Эпической сказителство.-М.,1997.-стр.80.
6. Ю. Новиков. Изд-во Вильнюсск. пед. ун-та, 2007; Т. 2. Вильнюс: Изд-во Вильнюсск. пед. ун-та, 2009; Т. 3.

QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI SHEVASIDAGI BA’ZI LEKSEMALAR TAHLILI

ANALYSIS OF SOME LEXEMES IN THE DIALECT OF QAMASHI DISTRICT OF KASHKADARYA REGION

Ergashova Shahlo Shokir qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilining Qipchoq dialektiga kiruvchi Qamashi tumani shevasida faol qo‘llanuvchi ayrim so‘zlar adabiy tildagi va mavjud shevalardagi so‘zlar bilan fonetik va leksik jihatdan qiyoslanib, tahlilga tortilgan hamda bu to‘g‘rida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, dialektdagi leksik birliklar “Devonu lugotit turk” va o‘zbek shevalariga qiyoslangan. Misolllar tahlilida taqqoslash, qiyosiy-tarixiy kabi bir qator lingvistik usullardan samarali foydalangan.*

Kalit so‘zlar: *Qamashi tumani shevasi, dialektologiya, qipchoq, qarluq, o‘g‘uz lahjasi, fonetik, leksik xususiyatlar, so‘zlashuv nutqi.*

Abstract. *In the article, some words that are actively used in the dialect of the Qamashi district, which is part of the Kipchak dialect of the Uzbek language, are phonetically and lexically compared with words in the literary language and existing dialects, and comments are made about it. Moreover, lexical units in the dialect are compared to “Devonu lug‘otit turk” and Uzbek dialects. Comparative, comparative-historical linguistic methods are used effectively in the analysis of examples.*

Key words: *dialect of Qamashi district, dialectology, Kipchak, Qarluq, Oghuz dialect, phonetics, lexical features, colloquial speech.*

Millatimiz g‘ururi va iftixori bo‘lgan ona tilimizning sofligini saqlash, dunyo miqyosida rivojlantirish uchun muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan qarorlarning ahamiyati kattadir. Har bir xalqning o‘zligini namoyon etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlari bo‘ladi. Til shaxs va jamiyat salohiyati hamda madaniyati saviyasining o‘ziga xos belgisidir. Ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda

borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak - millatning ruhini yo‘qotmakdur” degan hikmatli so‘zlari yurtning istiqboli tilda ekanligini chiroyli isbotlaydi. Darhaqiqat, millatning yuzi, yurtning istiqboli uning tilida, unga bo‘lgan hurmatda o‘z aksini topadi. Tilimizni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar, yangi-yangi lug‘atlar va darsliklar ko‘plab nashr etilayotgani jamiyatimizning ziyoli insonlarini, kelajak avlodning tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ma’lumki, mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan jonli xalq tili - bu sheva. Shevada shu xalqning hayoti va madaniyati to‘liq o‘z aksini topadi. Shevadagi jozibadorlik va ta’sirchanlikni ba’zan adabiy tilda yetkazib berish qiyin.

Tilning sofligini saqlash borasida yurtimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ishlarga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21- dekabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyada tilimizning bugungi holati tanqidiy tahlil etilib, uni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar yo‘nalishi aniq ko‘rsatib berilgan. Bu esa tilshunos, shevashunos olimlar va tadqiqotchilardan bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlarida til sofligini ta’minlash borasidagi ishlarga alohida ahamiyat qaratishi zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili leksikasini sheva so‘zlari bilan boyitish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratish zarur. S.Ashirboyevning ta’kidlashlaricha, shevalar to‘xtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarning doimiy ravishda nazariy jihatdan o‘rganib borishni taqozo etadi va ilmiy-nazariy ahamiyatini keltirib chiqaradi. [S.Ashirboyev 2021: 8]. O‘zbek sheva va lahjalarini o‘rganish hamisha dolzarb hayotiy ehtiyoj hamda zaruratni hosil qiladi. O‘zbek shevalarining leksikasini o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, o‘zbek tili qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo‘lib, asosan qipchoq lahjasiga kiruvchi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko‘ra sezilarli darajada farq qiladi.

O‘zbek tili turkiy tillar ichida ko‘p lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. O‘zbek tili qipchoq, qarluq va o‘g‘uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo‘lib, asosan qipchoq lahjasiga kiruvchi qamashi tuman dialekti boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko‘ra farq qiladi. O‘zbek shevalarining leksikasini o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbek shevalarining murakkab tarkibiga egaligi, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O‘zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o‘ziga xosligi jihatidan ham o‘zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan ba’zi o‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholi yashaydigan hududlarga nazar tashlab shevalar bo‘yicha fonemalarning munosabatiga son jihatdan qarasak, ularning yagona bir markazga ya’ni adabiy til uchun asos bo‘ladigan markazga qarab yo‘nalishini ko‘ramiz. Adabiy tilning shakllanishida bevosita ishtirok qilgan ba’zi o‘zbek shevalarining unlilari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. V.V.Reshetov o‘zbek shevalarining tarixiy lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo‘shni tillar (tojik, qozoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o‘zbek shevalari tasnifini tuzdi. U o‘zbek xalqi tarkibida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan farq qiladigan uch dialekt borligini aniqlab, o‘z navbatida bu dialekt birliklari o‘zbek tili oilasida 3 lahjani vujudga keltirganligini ko‘rsatib beradi.

1. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi bo‘lib, uyg‘ur tiliga yaqin, tojik tili bilan yaqin etnolingvistik munosabatda bo‘lgan.

2. Qipchoq lahjasi – qozoq, qoraqalpoq tillari bilan yaqin.

3. O‘g‘uz lahjasi – turkman tili bilan yaqin.

Qipchoq-o‘zbeklar qadimgi davrlarda turkiy xalqlarning qipchoq guruhiga kiruvchi ming, yuz, qirq, qipchoq (tor ma’noda) nayman, qangli, qiyot, qo‘ng‘irot, mang‘it, uyshinlar va kenagas,

jaloyir, misit, do‘rmon, qutchi, barqut, baxrin kabi urug‘ va qabilalar asosida tashkil topgan bo‘lib, qadimgi davrlarda Itil (Volga) va Dunay daryolari, Hazar (Kaspiy) dengizi, Orol dengizi, Ural tog‘lari va G‘arbiy Sibirdagi Irtish va Yenisey daryolari bo‘ylarida hamda Yettisuvda yashaganlar va Yettisuvda tuzilgan turk xoqonligida ham ancha katta mavqega ega bo‘lganlar. Ularni ba’zi adabiyotlarda kumanlar va polopeslar deb ham ataganlar. [Doniyorov, 1968: 8-9]. Qipchoq shevalarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishda Professor X.Doniyorovning Samarqand viloyati sharqiy hududi shevalarining etnogenetik va lingvistik xususiyatlari bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari e’tiborga molikdir. Olimning “O‘zbek xalqining shajara va shevalari” (1968), “O‘zbek tilining jlovchi dialektlarini adabiy til bilan qiyoslab o‘rganish”, “Eski o‘zbek tili va qipchoq dialektlari”(1977), “Qipchoq dialektlarining leksikasi”(1979) va B.Jo‘rayevning XX asrning 60-70-yillarida “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari” kabi bir qancha ilmiy va monografik tadqiqotlar yaratilaganligini alohida ta’kidlashimiz lozim. Qashqadaryo aholisining asosiy qismi qipchoq lahjasida, qolgan qisman qismi, ya’ni shahar hududiga oid qismi qarluq lahjasida so‘zlashuvchilar hisoblanadi [Jumashov 2023: 369].

Bilamizki, sheva materiallari adabiy tilimizni fonetik, leksik va grammatik jihatlardan boyituvchi asosiy boyish manbai sanaladi. Biz o‘rgangan Qamashi tumani shevasi ham qipchoq dialektiga oiddir. Biz dialektal materiallarimizni shu tumanda yashovchi sheva egalari tilidan yozib oldik.

Qipchoq lahjasi asosan fonetik va leksek o‘zgarishlarga juda boy lahjadir. Bu lahjaning ba’zi fonetik xususiyatlari quyidagicha ko‘rinishga ega:

So‘z boshida: y>j: yer – jer, yo‘q - jo‘q, yo‘l - jo‘l, yur - jur, yuz-juz;

So‘z oxirida: q>g‘: quloq – qulog‘, o‘rtoq - o‘rtog‘; **g‘> v**: sog‘- sov, tog‘-tov, bog‘-bov, tug‘ – tuv; **q>v**: bo‘yoq-bo‘yov; **p>b,v**: gap-gab, top-tov.

So‘z oxirida ba’zi so‘zlarda undoshlari tushib qoladi: sariq - sori, kichik -kichchi, tag‘in - tog‘i, atayin - atay.

X - Q undoshiga o‘tadi: xotin - qotin, tuxum - tuqum, xayol - qiyol, xat-qat, axir -oqir.

Qamashi tumani shevasini kuzatishlarimiz natijasida shunga guvoh bo‘ldikki, “Devonu lug‘otit turk” asari leksikasi bilan bugungi o‘zbek shevalarida qo‘llanilgan ba’zi so‘zlar o‘rtasida yaqinlik va ba’zi farqlar borligini, lekin bu ularni bir-biridan ayiruvchi emas, balki yaqinligini ifodalovchi tafovutlar ekanini ko‘rsatdi. Buni quyidagi misollarning qiyosiy tahlilida ham kuzatish mumkin. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati, Qamashi shevasiga iod ba’zi so‘zlarda ham fonetik va leksik o‘zgarishlarni kuztishimiz mumkin:

Qamashi tumanida istiqomat qilayotgan aholining shevalari j–lovchi shevalariga kiradi. Ular asosan “Y” harfi qatnashgan yoki ushu harflar gaplarning boshida kelgan so‘zlarda tovush almashish fonetik hodisasi sodir bo‘ladi. Masalan, **“yo‘q”** leksemasi o‘rniga **“Jo‘q”** tarzida talaffuz qilinadi. Qamashi tumani aholisi shevalarida tovush tushishi, orttirilishi va tovush almashishi hodisalari ko‘p uichraydi. Masalan:

“Olma” so‘zida ham tovush almashish hodisasi sodir bo‘lib,**“alma”**tarzida talaffuz qilinadi. **“Bodring”** leksemasi “**badring”** tarzida “o” unlisi “a” tarzida o‘zgaradi. Sheva egalari **“pamidor”**ni **“pamadir”,** “to‘g‘ramoq” so‘zini “to‘vramoq” tarzida talaffuz qilishadi.

Jir - leksemasi ham o‘rganilayotgan shevada **yog‘**(shevada **moy** leksemasi ham ishlatiladi) ma’nosida faol qo‘llanadigan shevaga xos so‘zlardan biri hisoblanadi. A. Rustamovning “ So‘z xususida so‘z” kitobida ta’kidlanishicha, **“jir”**so‘zi tilimizda “ yog‘”, “moy” ma’nosini anglatadi. Ozg‘in kishiga nisbatan “Bunga hech jir bitmayapti” yoki “ Buning hech jiri yo‘q” degan iboralar shu mazmundan kelib chiqqan (O‘zbek tilidagi “jir” da “jurnal” so‘zidagi kabi “j” talaffuz qilinadi) [Shukurov, 2018:312]. Shunisi qiziqki, rus tilidagi **“жир”**so‘zi asli bizning tilimizdagi ayni shu **“jir”** so‘zining o‘zidir. Chunki **“jir”** so‘zining turkiy so‘z ekanligi Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida qayd etilgan: ***ashichta jir yo‘q***-qozonda yog‘ yo‘q [DLT I: 313].

Kirpi - shevada adabiy tildagi **tipratikon** so‘zi o‘rnida faol qo‘llanadi. Mazkur leksema bugunda Xorazm shevasida **tipratikon** so‘zi o‘rnida **kirpi** so‘zi ishlatilib, bu so‘z turkiy tillarda ham ayni ma’noda qo‘llaniladi. [N.Axmedova, 2021:187] “Devonu lug‘otit turk” asarida ham ushbu uchraydi: kirpi- tipratikon, kirpi: oqlug‘ kirpi-tipratikonning juda katta xili [Koshg‘ariy

2017:167]. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da **kirpi** so‘zi qadimgi turkiy tilda mavjudligi hozirda sheva so‘zi ekani, **kirpi -** ko‘p tikan ma’nosini bildirishini aytib o‘tiladi [Rahmatullayev 2000:210].

Qöniq*(*qönäq*)**- so‘zi ham shevada “mehmon, to‘yda keladigan mehmon, to‘ylarda beriladigan kichik ziyofat” kabi ma’nolarda faol qo‘llanadi. Mazkur leksema DLT, QB asarlarida ham ayni ma’noda qo‘llanganligini kuzatish mumkin. “Qutadg‘u bilig” doston matnida ***qonuq (qon+(u)q) so‘zi “mehmon” ma’nosini bildirgan:

Nelük arsïqar sen aya öldäči
Özüŋ iki künlük qonuq boldačï .
Nimaga mag‘rurlanasan, ey o‘luvchi,
O‘zing ikki kunlik mehmon bo‘luvchi(san) [QBN 1972: 348].

Bu so‘z “Devonu lug‘otit turk”da *“mehmondorchilik, ziyofat”* ma’nosida qo‘llangan. O‘g‘uzlardan boshqa qabilalar tilida bu so‘z “uy egasi yoqtirmagani holda, birov uyida turish” ma’nosida qayd etilgan (DLT, III, 351). Hozirda Qashqadaryo, Surxondaryo shevalarida “mehmondorchilik, to‘ylarda beriladigan kichik ziyofat” ma’nolarida qo‘llaniladi.[Xolmurodova 2021:194]

Kön - leksemasi shevada ***teri*** ma’nosida ishlatiladi: *patinkaning köni jomon ekan.* M.Koshg‘ariyning “ishlov berilmagan teri”ning **kön,** aksincha, “ishlov berilgan teri”ning esa **qoɣuš** istilohi bilan ifodalanishi xususidagi ta’kidi muhim ilmiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etishini ta’kidlash lozim [H.Dadaboyev, 2021: 160]

Jrçi (jarchi) - odamlar ko‘p to‘planadigan joylarda rasmiy e’lonlar eshittirib yuruvchi kishi, qishloq joylarida to‘y va ma’rakalarga mahallalarda yurib qichqirib aytib chiqadigan kishi [Begmatov 2006:42].

Çeça:*(checha)**- shevada qo‘llaniladigan so‘z, u yanga, kelinoyi [Abdullayev 1961: 97] ma’nosini beradi, u kelinga nozik munosabatlarda maslahat berib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Odatda bo‘lg‘usi kelinlar o‘zi ishongan yaqin qarindoshlari ichidan bitta kelinni tanlab o‘ziga yanga qiladi. ***Çeça: qipchoq lahjasida uzoq davrlardan buyon ishlatiladi, hozirda bu so‘z keksalar nutqidagina saqlanib qolgan bo‘lib, yosh avlod ***yeňňa*** (yanga – nikohning ikkinchi kuni kechasi kelin bilan kuyov xizmatida qoluvchi ikki xotindan biri [O‘TIL 2013: 112-113] so‘zidan foydalanishadi. Ayrim manbalarda ushbu so‘z ***egä:t*** deb berilgan. ***Egä:t***– nikoh kechasi kelin yonida xizmat qiluvchi xotin, yanga [Koshg’ariy 1980:85] ma’nosini bildiradi.

Dastrxo:nçi (dasturxonchi) – to‘y, katta ziyofat va boshqa marosimlarda dasturxon tayyorlash va kelgan-ketganlarni kutish uchun belgilangan ayol [O‘TIL 2013: 574].

Mölla: (mulla) - o‘qimishli, taqvodor odam. O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madrasa ta’limini olgan shaxs.

Yuqorida biz birgina M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi ba’zi leksemalarnigina keltirib o‘tdik, bularning o‘zi ham tilimizning ya’ni shevalarimizning boyligini hamda ular bugungi kunga qadar ayrim hudud shevalarida saqlanib qolganligining yaqqol misolidir. Quyida Qamashi tumani dialektiga xos so‘zlardan ba’zilarini misol keltiramiz.

Qamashi shevasida	Ma’nosi
Ummik	sovliq sutini emmagani bois o‘sishdan qolgan qo‘zi
Do‘rji	ko‘tarasiga, hammasini birdaniga savdo qilish, olish
Do‘kan	uy-ro‘zg‘or buyumlariga yasalgan sopning uchuni tutunga toblaydigan tandir
Ko‘nargi	sutni uyutish uchun qo‘shiladigan qatiq. “Oqliq” ham deb aytiladi
Ko‘ktirnoq	ziqna, xasis kishi
Kuya	ichi qora odam (ko‘chma ma’noda)
Mukki	qo‘nji kalta etik
Naymit	pishiq-puxta kishi
To‘dakash	ko‘pkarida to‘da ichidan uloqni halol ayirib chiquvchi chavandoz

Chakkagir (chetkir)	To‘dakash halol ayirib chiqqan uloqni ilib ketish uchun chetda poylab turadigan chavandoz
Chibich	echki suti kamligi bois o‘sishdan qolgan uloq
En	chorva mollarining qulog‘ini kesib, teshib belgi qo‘yish
O‘la(ha)t	yer maydoni sug‘oriladigan, suvot tekislikdagi joy, qishloq
Shardoz	juvoldiz teshigidan o‘tadigan yo‘g‘on ip
Inak	sigir
Övüshtä	Oldi-berdi
Jävlük	Hamma, barcha, yoppasiga
Gajir	Gajir-jangari, qaysar, o‘jar

Misollardan ko‘rinadiki, o‘rtada uzoq muddat bo‘lishiga qaramay qiyosiy tahlilga tortilgan so‘zlarning aksariyati bugun o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmasa-da, mavjud shevalarimizda faol ishlatilib kelinmoqda. Ushbu leksemalarning ba’zilari ma’no o‘zgarishiga uchragan bo‘lsa, ayrimlari fonetik o‘zgarishlar bilan hozirgi adabiy tilda istifoda qilinmoqda. Bu esa, tilimiz, shevalarimiz va xalqimizning tarixiga borib tutashadi. Bugun yoshlarimiz deyarli o‘zaro shevada emas, balki, adabiy tilda muloqot qiladilar. Sheva so‘zlarining o‘ziga xos go‘zalliklarini shahar va viloyatdan ancha uzoqda bo‘lgan chekka qishloqlarda uchratish mumkin. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Qamashi tumani shevasi viloyat va tumanlararo qiyoslanganda, leksik jihatdan ham o‘ziga xos bo‘lib, shakliy tuzilishidan rang-barangdir. Shevadagi leksemalarning ayrimlari bir xil ma’noda ishlatilsa, ayrimlari ma’no kengayishi yoki torayishiga uchragan holda hozirgi kungacha yetib kelganligi ma’lum bo‘ldi. Tilimiz boyligi sanalgan sheva va lahjalarimizdagi so‘zlarni yozib olib, bu orqali adabiy tilimizni yanada to‘ldirib, boyitib borish dialektologiya fani oldida turgan dolzarb masalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent. 2021. -B. 8.
2. Jumashov Davlatyor. Yakkabog‘ shahri ayg‘irko‘l dialekti xususida “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan),- Toshkent, ToshDO‘TAU, 2021-yil, 22-may. 369-bet.
3. R.Suvonova. Qipchoq shevalariga xos so‘zlar lug‘ati. -Samarqand: 2019.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5-jildlik, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”– Toshkent, 2013.Ш.Раҳматуллаев.
5. Ўзбек тилининг этимологик луғати(туркий сўзлар) Университет. -Тошкент, 2000.
6. Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН,1960-1963.
7. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.
8. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 28.
9. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент: Фан,1966. -Б.160-249.
10. Шерматов А. Қуйи Қашқадарё ўзбек шевалари. -Тошкент, 1972.

YOR - YORLARDA POETIK RAMZLARNING O‘RNI VA VAZIFASI

THE PLACE AND FUNCTION OF POETIC SYMBOLS IN YOR-YORS

Xoliqulova Shaxlo
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yor-yor qo‘shiqlarining matnida qo‘llanilgan badiiy tasviriy vositalar, an'anaviy obrazlar, ramzlar tizimi, ularning tarixiy-genetik asoslari va badiiy-estetik vazifalari yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *timsol, variant, janr, obraz, ohang, uslub, ramz, marosim.*

Abstract. *This article highlights the artistic means used in the text of the “Yor-yor” songs, traditional images, a system of symbols, their historical and genetic basis and artistic and aesthetic objectives.*
Key words: *symbol, variant, genre, image, tone, style, symbol, ritual.*

Yor-yorlarda turli timsollar va ramzlarning ham o‘z o‘rni va vazifasi mavjud. Ular orqali qo‘shiqning jozibasi ortib, ma’no jihatidan yanada sayqallanadi.“ Poetik san’atlar orasida ramz birgina so‘z orqali keng mazmun ifodalash imkoniyatiga ega. Bu esa aynan qo‘shiq janrining talablariga mos keladi. Poetik ramz qo‘shiqlardagi mavhum tushunchalarni anglatish, qiyin bo‘lgan nozik tuyg‘ularni, turli ruhiy holatlarni bir yoki bir necha so‘z orqali ifodalashdir. U qo‘shiqning ohangdorligini ta’minlaydi, badiiy qimmatini oshiradi” [Турдимов, 2023: 123]. Ular ijro jarayonida bir-birini to‘ldiradi, biri ikkinchisi bilan chambarchas bog‘liq yuradi. Bu kabi ramz timsollarga: tabiat jismlaridan: oy, quyosh, yulduzlar, tol, qayrag‘och, gul, qush kabilar, narsa buyumlardan esa tilla (oltin), chimildiq, sirg‘a, ostona kabi bir qancha o‘zak va vaziyat ramzlar kiradi.

Oy oldida bir yulduz oy bolasi, yor-yor,
Kelin oyim so‘rasangiz boy bolasi, yor-yor.

Kelin va kuyov uylari ideallashtirib ko‘rsatilganidek, kelin oy bolasi deb, yulduzga qiyos qilinadi.

Kuyov yigit uylarini toldan yopgan, yor-yor,
Shunday qizni kuyov bolam qaydan topgan, yor-yor.
Topdi-topdi, demanglara ko‘rib olgan, yor-yor,
Har ikkovi bir-birini sevib olgan, yor-yor.
Uyalmasdan kuyov bolam gapga soling, yor-yor,
Shirin-shakar so‘zlar bilan ko‘nglin oling, yor-yor.

Bu kabi yor-yorlarning ham variantlari juda ko‘p, ularda asosan, onaning ikki yoshga tilaklari, maslahatlari, atrofdagilarga ularning qilgan ishlaridan faxrlanish va maqtovlar tashkil qiladi. Bu yerda asosiy obraz kuyov va kelin bo‘lsa-da, onaning tilidan kuylanayotgani uchun ona asosiy obraz hisoblanadi. Tol esa oshiq yigit erkak kishi bo‘lajak oilasining erkagi, o‘zi bunyodkoridir.

Chimildiqning yonida dasta qoshiq, yor-yor,
Kuyov pochcham so‘rasang, oltin oshiq, yor-yor.

Chimildiq bilan bog‘liq misralar yor-yorda ko‘p uchraydi, chunki kuyov-kelinning to‘ydagi asosiy o‘rni chimildiq hisoblanadi. Chimildiq bog‘ining tugilishi oilaning ramzi, u ikki yosh umrining oxirigacha qo‘sha qarishi, birga bo‘lishini tilash sababidan yaxshi niyat qilib bog‘lab qo‘yiladi.

Yor-yorlarda begona xonadonga uzatilish qismati barcha qizlar uchun bir ekanligi, bu qismatga qizlarning ko‘nishi hayot qonuniyati ekanligi ham ta’sirchan tarzda qo‘shiqlarda namoyon bo‘ladi.

Yor-yor qo‘shiqlari faqat ohang va uslub jihatidan emas, balki sheva xususiyati bilan ham hududlararo farqlanadi. Sheva hududiy yoki ijtimoiy asoslarda uyushgan jamoaning asosiy muloqot vositasi bo‘lgan til ko‘rinishi ekanligi, o‘sha hududda yaratilgan qo‘shiqlarning matniga ham ko‘chadi. Ammo ko‘p hollarda yor-yor to‘liq shevada aytilmaydi, bunda biz ayrim narsa-buyum nomlari, joy nomlari va urf-odat nomlarigina shevada kuylanayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi yor-yorlarda shu hududga xos bo‘lgan buyum nomlari, kishi nomlari, tilga olinadi.

Qutlug‘ bo‘lsin o‘ragan ro‘molingiz, yor-yor,

Ko‘klashmoqqa kelibdi do‘stlaringiz, yor-yor.

“Ro‘mol – oila ramzi. Ro‘molning marosimlardagi “oila”ni anglatuvchi magik ramziy ma’nosi folklor namunalari, xususan, xalq qo‘shiqlariga “oila” ramzi sifatida ko‘chgan” [Турдимов, 2023: 132]. Shunga ko‘ra, birinchi misradagi “qutlug‘ bo‘lsin o‘ragan ro‘molingiz”, birinchidan, turkiy xalqlar odatiga ko‘ra unashtirilgan qizga ro‘mol o‘rash odatini anglatib, uni yangi hayoti bilan qutlashni aks ettirsa, ikkinchidan, ro‘mol an’anaviy tarzda uchraydigan ramzlardan biri bo‘lib, “oila” ramzi sifatida qo‘llaniladi.

Obrazlar tizimida “...tom, olma kabi obrazlar bevosita mifologik zaminda paydo bo‘lgan va tarixan xalqning turli ibtidoiy inonchlariga, qadimiy mif va afsonalariga borib bog‘lanadi”, – deydi, folklorshunos J.Eshonqulov. Qo‘shiqlardagi ro‘mol – oila, tol – oshiq ramzini anglatishi ko‘p tahlil qilingan. Hamda ramzlar sof (olma – bu sevgi), qo‘shma gap (qizil olma – qiz sevgisi), gap (choponimning yengi tor – tor yeng sevgining poymol bo‘lishi, chorasizlik) ko‘rinishidagi turlarga ajratiladi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, yor-yor qo‘shiqlarining ayrim namunalari ommaviy repertuardan keng o‘rin olgan. Bu onalar, yangalar, kayvoni onaxonlar, ayol-qizlar yor-yorchiligi hisoblanadi. Ammo haqiqiy ijrochilikni egallash uchun muayyan tayyorgarlik ko‘rish zarur, albatta. Aytuvchilarning ayrim janrlar bo‘yicha professionallashuvi juda qadimdan boshlangan. Shunga ko‘ra, yor-yor ijrochilari ham qo‘shiqlardagi yashirin obrazlar hisoblanadi. Yor-yor ijrochilari amma-xolalar ham bo‘lishgan. Amma-xola, yangalar ikki yoshni yangi hayotidagi asosiy ishtirokchilar hisoblanadi. Kelin va kuyovni tanishtirish, to‘y urf-odatlari va marosimlarida ham boshlovchilik qilishadi. Shuning uchun, yor-yor misralarida amma, xola obrazlari ham bor.

Yor-yor aytib eshikdan ammang keldi, yor-yor,

Kelinoyim ko‘zlari yoshga to‘ldi, yor-yor.

Aytuvchi, ko‘pincha, kelin-kuyov tilidan kuylaydi va dardu-hasratlarini ham ular tilidan bayon qiladi. Yor-yorlarda obrazlar olami keng, unda kelin bo‘lmish qizdan tortib, to‘yning eng kichik detallarigacha tilga olinadi. Qiz haqida aytilayotgan yor-yorda sevgilisi boshqa bo‘lgan yoki raqibi haqida, ota-onasi haqida kuylanayotgan bo‘lishi ham mumkin.

Yor-yor aytuvchi, kelinning dardini qo‘zg‘ab qo‘yadi (barcha uzatilayotgan qizlarning dardu hislari, orzu xayollari bir xil yoki o‘xshashdir) yoki uni shu misralar orqali ovituvchi so‘zlar aytadi. Yor-yor orqali qizga yangi boshlanayotgan hayotda baxtli bo‘lish qiyin ekanligi, haqiqiy hayoti endi boshlanayotganligini uqtiradi. Shunday qilib, yor-yorchilar atrofni kuzatib, odamlarni o‘rganib, ularni qo‘shiqlariga qo‘shib kuylagan. Natijada, bu qo‘shiqlar jonli, hayotiy chiqqan. Ular insonlarning tuyg‘ularini tarannum qilishi, ayol tilidan jamiyatdagi ma’lum bir kamchiliklar, masalan, ba’zi “muhabbat”larning yengil bo‘lib ketgani, muhabbat savdosini o‘yin bo‘lgani, bevafolar obrazi ham tilga olinadi.

Yor-yorlardagi kelin qizlik davridan uzilishni istamaganligi, ota-ona uyidan ketish kabi azaliy odatga qarshi chiqa olmasligi, taqdiriga ko‘nishga majburligi kabi holatlar qo‘shiqda xarakterli ochib berilishi insonlarga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, folklor asarlari ijrochisi doimo auditoriyani hisobga oladi. Yor-yor ijrochisi ishtirokchilarning ruhiyati va marosimning qaysi qismi o‘tkazilayotganligini hisobga olib og‘ir, mungli yoki sho‘x usuldagi yor-yorlarni kuylaydi.

Xalq qo‘shiqlarida tasvirlangan odamlar, obrazlar bizga har tomonlama fe’l atvori va his tuyg‘ulari bilan juda yaqindir. Chunki har bir qo‘shiq, toki shu holatga kelguniga qancha chig‘iriqlardan o‘tib, qancha ijodkorlarning quvvai hofizasidan bahramand bo‘lib, ko‘pning dardu hasratini o‘zida mujassam etgan. “Har kim o‘z Laylisini qo‘shiqqa qo‘shadi”, deyiladi, xalq hikmatli so‘zlarida. Mamlakatimizda yashayotgan millatlarning turmushi, tirikchilik sharoiti, o‘rab olgan muhiti tanishdir. Odamlarning g‘am-tashvishlari ham, shodu xurramliklarining ham mavzusi bir xil tushunarli. Sharqning odami o‘zidek sodda, samimiy qo‘shiqlarini asrlar bo‘yi kuylab kelganining o‘zida bir olam hikmat mujassam.

Albatta, har bir odat va marosim kabi yor-yorlar ham o‘zining tarixiy ildiziga, iqtisodiy zaminiga, g‘oyaviy asosiga egadir. Hayot kishilarda orzular, ezgu maqsadlarni uyg‘otadi. Bu maqsad va tilaklarni esa, ochiq bayon etishning usulini aks ettirganda, chiroyli, foydali va

ta’sirchan yo‘lini o‘ylab topadilar.

Yor-yorlar faqat mazmun jihatdan emas, balki badiiy tasvir mutanosibligi, izchilligi, ma’no bilan shaklning uyg‘unligi, timsollar olamining rang-barangligi, badiiy san’atlarning qo‘llanilish tamoyillari jihatidan ham noyobdir.

Yor-yorlarda ko‘tarinkilik bilan birga emotsionallik yetakchilik qiladi. U kuylanar ekan, mungli ohang insonni o‘ylashga majbur qiladi. Siz sho‘x tarona yangraganda hech qachon o‘yga cho‘mmaysiz. Mungli, og‘ir kuy insonni o‘ylashga, fikrlashga majbur qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Давлат ўқув педагогика, 1959. – Б. 48.
2. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Нашрга тайёрловчилар: Музайяна Алавия, Сафарбой Рўзимбоев, 1983 – Б. 294.
3. Ўзбек фольклори очерклари. Уч том. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 2000.
4. Турдимов Ш. Ўзбек мифологияси ва фольклори. – Тошкент: Илм ва фан, 2023. – Б. 123-129.

O’ZBEK XALQ QO’SHIQLARIDA QADIMGI INONCHLARNING POETIK KO’RINISHLARI

POETIC APPEARANCES OF ANCIENT BELIEFS IN UZBEK FOLK SONGS

Farog‘at Tursunova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Anotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalqining folklor san’ati, folklor-etnografik jamoalar va ularning rivojlanish tarixi haqida fikr yuritilgan. Musiqiy folklor tarixi hamda musiqiy folklorda ta’lim va tarbiya jarayoni keng yoritilgan. Folklor qo‘shiq ijrochiligidan namunalar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so’zlar: *Folklor, nomoddiy madaniy meros, arxeologiya, ashula, cholg’u, xalq qo’shiqlari, xalq og‘zaki ijodi.*

Abstract. *This article discusses the folklore art of the Uzbek people, folk-ethnographic communities and the history of their development. The history of musical folklore and the process of education and training in musical folklore are widely covered. Examples of folklore song performance are cited.*

Key words: *Folklore, intangible cultural heritage, archeology, singing, musical instruments, folk songs, folklore.*

O’zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o’rni, insoniyat tamaddunlariga qo’shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og’zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko’rinadi. O’zbek forklorini yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o’tgan asr avvallaridan boshlangan bo’lsa-da, xalq og’zaki ijodini chinakam, har tomonlama o’rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko’rsatish, anglab yetish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro’y berdi. Ushbu xayrli ishlarning bosh sababchisi mustaqilligimiz bo’ldi. 1990-yilda Navro’z bayramining umumxalq tantanasi darajasida nishonlash an’anasining boshlanishi, «Alpomish» dostonining 1000 yillik to’yi va eng ulkan tarixiy voqea O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to’g’risida»gi farmonining e’lon qilinishi va bu ishning amalga oshishi til, adabiyot qatorida o‘zbek folklorining ham har tomonlama o’rganish

ishlariga keng imkoniyatlar yaratdi. «Folklorshunoslik va dialektologiya» kafedrasining ushbu universitet tarkibida tashkil topishi fikrimizni dalillaydi. «O'zbek folklori» fanining yangi talablar asosida o'qitilishi ushbu kafedra faoliyatining muhim bir qismi hisoblanadi.

Ma'naviyat kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to hayotining eng so'nggi lahzasigacha o'zi mansub xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan mutlaqo yiroq bo'lgan kishi shu an'analar ichida ulg'aygan, uning ongi, shuuri shu qadim an'analari ta'sirida shakllangan bo'ladi. Har bir sohaning o'z tarixi bo'lganidan, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o'z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o'tmishga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariy zamonidan to bugungi kungacha xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo'lsa bularning bari o'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganishga o'zining munosib ulushini qo'shgan.

Prezidentimiz tomonidan ko'plab hayotbaxsh farmonlar bilan bir qatorda, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va Navro'z bayramini qayta tiklanishi xalqimizning ma'naviy hayotida katta iz qoldirdi. Shubhasiz, aytish mumkinki, bugun mamlakatimiz iqtisodiy, madaniy sohada nimaiki yutuqlarga, yuksalishlarga erishgan bo'lsa, ana shu sa'yi harakatlarning alohida o'rni bor. Zero, til millat tafakkurini shakllantiruvchi bir mezondir. Til va tafakkur bir biriga bog'liq jarayon. Millatning til ravnaqi, shubhasiz, uning badiiy asarlarida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi ana shunday tafakkurni shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Folklor turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondoshuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etdi.

Adabiy til leksikasining shakllanishi, rivojlanish va o'zgarish bosqichlarining xususiyatlarini aniqlashda epik ijod namunalari alohida o'rin tutadi. Ulardagi qadimiy so'z va birikmalarning lug'atini o'rganish nafaqat folklorshunoslik, balki tilshunoslik oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Tilni o'rgatishda folklor asarlarining janriy xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish talab etiladi. Doston, ertak kabi yirik epik janrlar til taraqqiyotida qanchalik muhim o'rin tutsa, qo'shiqlar, maqol, matallar kabi eng kichik janrlar ham birdek qimmatli va ahamiyatlidir. Folklorning yozma adabiyotga ta'siri, umuman so'z san'ati haqida gap ketar ekan, folklor ko'plab san'atlarning ibtidosi ekanini, badiiy ijod, musiqa, raqs va tasviriy san'at ildizlari folklor bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Qaysiki ijodkor folklor an'analari ichida yashagan, uni o'ziga singdirgan bo'lsa, o'sha ijodkorning asari til jihatdan ham, badiiylik nuqtai nazaridan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning o'rni beqiyosdir. Yuksak saviyada ijro etilgan yoxud yozilgan har qanday badiiy asar bu, eng avvalo, til hodisasidir. Ona tilning eng go'zal jihatlarini, nozik tovlanishlarini namoyish eta olgan asargina mukammal asar hisoblanadi. Har bir tilning o'ziga xos milliy fazilatlari va go'zalliklari bo'ladi. Ana shu fazilatlar va go'zalliklarni faqat yuksak saviyadagi asarlargina namoyish eta oladi. Bunday asarda til yana bir bor yangilanadi, u yana bir yuksak pog'onaga ko'tariladi. Bunday asar tafakkurni yangilaydi, tilga mehr uyg'otadi, tilimizni har xil buzilishlardan asraydi.

Og'zakilik – xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzi. Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og'zaki ravishda avloddan avlodga, og'izdan og'izga ko'chishidan paydo bo'ladi. Bu o'rinda umumfolkloriy bilim va folklor an'analari asos vazifasini o'taydi. Xotira manbaiy va folkloriy bilim bir yoki bir necha shaxslargagina tegishli bo'lmay, butun bir xalqning bilim va an'analaridan iborat bo'ladi. Bu bilim va an'analar ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug'dan urug'ga o'tib, yangi davr ruhida, yangi ijrochilar va ijodkorlar salohiyatidan sayqal topib yashaydi. Bu xil sayqallanish u yoki bu folklor asarining shakli va mazmuniga qandaydir o'zgarish kiritishi – nimaningdir qo'shilishi yoki tushirib qoldirilishida bo'y ko'rsatadi. Aytaylik, biror-bir tarixiy fakt unutilishi sababli asardan tushib qolishi mumkin.

Har bir xalq yoki elat, avvalo tarixi, madaniy birligi bilan ajralib turadi. O'zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko'p ilmiy-madaniy xususiyatlarga ega bo'ldi. O'tmish ajdodlarimiz an'analari qadriyatlari asrdan-asrga, avloddan-avlodga saqlanib, taraqqiy

topib keldi. Xususan, milliy-madaniy xususiyatlarimizni saqlanib qolishida xalq og'zaki badiiy ijodining roli beqiyos bo'ldi. Jumladan, xalqimizni o'ziga xos urf-odat va marosimlari bola tarbiyasi, mehmonnavozlik tabiati , axloq-odob qoidalari, pazandachilik malakasi, mehnat va turmush tarzi tartiblari folklor asarlari orqali bizgacha yetib keldi. Uzoq o'tmishda guruh-guruh bo'lib xalq sayillarida, ommaviy bayramalarda turli tuman tomoshalar ko'rsatgan xalq qiziqchilari, qo'g'irchoqbozlar, dorbozlar, raqqos va xonandalarni ijodiy uyushmalarini folklor ansambilini o'ziga xos namunalari deyish mumkin. Chunki folklor asarlarini ommaviy ravishda ijro etuvchilarning aksariyati professional bo'lmay, balki havaskor ijrochilar bo'lib ularni repertuari ham sof xalq og'zaki ijodidandir. Xalq ijodiyotini asrash va rivojlantirishda folklor-etnografik ansambli rahbarlarining bu sohadagi ijodiy iqtidori muhim ahamiyatga ega. Ammo bu yo'lda tinmay izlanish lozim bo'ladi. Xalqning eng sara qo'shiqlarini ansamblga jalb qilingan ijrochilarning o'zidan yozib olish mumkin. Folklor ansambli repertuarida ayniqsa ijro uslubining muayyan tomonlari shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ansambl repertuariga an'anaviy xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga (qayta ishlangan yoki mustaqil yaratilgan), mualliflar asarlarining kiritilishi zamonaviy ohanglarni kuchaytirish, shuningdek, milliy qadriyatlar ustuvorligini taminlashga xizmat qiladi. Bunday yangi qo'shiqlar va mualliflar asarlari vatanparvarlik, Vatan tuyg'usi bilan to'lib-toshgan hozirgi kunimiz qahramonlarining qalb istaklarini aks ettiruvchi asarlar bo'lib, yoshlar tarbiyasiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Unutmaslik kerakki, ko'pincha xalq qo'shiqlarining qayta ishlangan va badiiy sayqal berilgan namunalari aholining estetik didi va badiiy so'zni his qilish ko'nikmasiga, ko'hna musiqa folkloriga nisbatan ko'proq ma'qul va mos boladi. Shuning uchun folklor etnografik ansambllari repertuari shakllanishining dastlabki bosqichlarida qayta ishlangan qo'shiqlarga shuningdek, qo'shiq mualliflarining folklor uslubida xalq ruhiyatiga mos yaratgan qo'shiqlariga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunda folklor ansambl repertuariga mualliflar asarlarini puxta o'ylab, asarga tanqidiy yondashib saralash nihoyatda muhim.

O'tgan asrning 50-70-yillarida O'zbekiston hududida qator arxeologik izlanishlar olib borilgan. Bundan sal avvalroq rus olimi professor, Ovchinnikov rahbarligidagi ekspeditsiya Boysun tumaniga qarashli Machay qishlog'ida joylashgan tog'li hududda "Teshiktosh" g'orini topadi. Keyinchalik mashhur arxeologlar S.Tolstov, YA. G'ulomovlar qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri Qo'yqirilgan qal'a (shahar xarobalari)ni topdilar. Taniqli o'zbek olimi A. Kabirov hozirgi Navoiy viloyati hududida joylashgan Sarmishsoy qoyatoshlarini kashf etdi. Teshiktosh g'orining devorlariga ishlangan rasmlar orasida milliy folklor san'atiga oid namunalar topildi. 80- yillarga kelib folklor-etnografik ansambllari faoliyatining qayta tiklanishi madaniy hayotimizdagi tahsinga sazovor ijtimoiy hodisa bo'ldi. Ansambllar o'z ishlarini yana qayta boshlashlari an'anaviy folklor taraqqiyotida alohida bosqich sifatida muhimdir. Oradan sal vaqt o'tmay, respublikamizda bunday ansambllarning soni 200 taga etdi. Ammo bu madaniy hodisa ilmiy asosda o'rganilmay qolaverdi. Ularning tashkil etilish tarixi yoritilmay qolaverdi. Shu bilan bog'liq holda ansambllar uchun zaruriy amaliy qo'llanma va uslubiy tavsiyalar ham kam yaratilgandi. Binobarin, bunday ansambllar repertuarining badiiyati va janr jihatdan rang-barang bo'lishi uchun, shuningdek, borlarini qayta tiklash va yangi folklor-etnografik ansambllarini tashkil qilishga bel bog'lagan madaniyatimiz jonkuyarlari uchun maslahat, tavsiyalar beradigan qo'llanmalar bo'lishi zarurligini hayotning o'zi talab etmoqda. Folklor barcha san'at turlari ko'rinishlarini o'ziga mujassamlashtirgan. Folklorning bir talay namunalari so'z va kuy uyg'unligida ijro etiladi. Doston va termalarni do'mbira jo'rligida kuylash an'anaviy bo'lsa, qo'shiqlar dutor va doira jo'rligida, chog'uchilar ansambli jo'rligida kuylangan. Boshqa bir folklor asarlarida so'z yetakchi o'rinni egallaydi. Ertak, afsona, rivoyat, lof, naql, latifa, topishmoq va maqol janrlari shunday xarakterga ega.

Folklor musiqa san'ati, folklor etnagrafik ansambllari, xalq udumlari, urf-odatlar, mavsumiy marosimlar an'anaviyligi, turli-tuman hodisalarni tabiat hodisalariga ta'sir ko'rsatishiga intilishi bilan ijtimoiy hayotda katta o'rin tutadi. Marosimlarni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar marosimlar folklorini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Akbarov, Musiqa lug‘ati. Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti - 1987 y.
2. F. M. Karamatov, “O‘zbek xalq musiqa merosi”. Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – 1978 y.
3. Yarashev, J. T. (2013). “Bukhorcha” and “Mavrigi” song classes–as a national and noetic spiritual values of the Uzbek nation. ТРАДИЦИОННАЯ И СОВРЕМЕННАЯ КУЛЬТУРА: ИСТОРИЯ, АКТУАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ПЕРСПЕКТИВЫ, 114.
4. Yarashev, J. T. (2019). Research on Bukhara music heritage through axiologic features. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
5. Yoshiyevna, U. M. R., & O’G’Li, R. A. R. (2021). MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA “VENA KLASSIK MAKTABI” NAMOYONDALARI HAYOTI VA IJODIYIY FAOLIYATI BILAN TANISHTIRISH USLUBLARI. Scientific progress, 1(3).

MAHMUD KOSHG‘ARIY FONETIK-FONOLOGIK QARASHLARI VA NORIN SHEVASI

MAHMUD KOSHGARI'S PHONETIC-PHONOLOGICAL VIEWS AND NORIN DIALECT

Odiljonova O‘g‘iloy Abdupatto qizi
NamDU magistranti

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek shevalari tarkibidagi Norin shevasi fonetik-fonologik tarkibi tarixiy-qiyosiy asoslarda XI asr tiliga nisbatan tahlil qilingan. Norin shevasidagi ayrim tovushlarning bugungi til – sheva jar ayonlaridagi o‘rni va mavqeyi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *fonetik birlik, fonema, fonetik sath, fonologik sath, tarixiy fonetika, fonemalar taraqqiyoti.*

Abstract. *The article analyzes on a historical and comparative basis the phonetic and phonological composition of the Norin dialect, which is part of the Uzbek dialects, in relation to the language of the 11th century. The role and status of some sounds of the Norin dialect in the modern linguistic and dialectal context are discussed.*

Key words: *phonetic unit, phoneme, phonetic level, phonological level, historical phonetics, development of phonemes.*

Tildagi o‘zgarishlar, xoh u adabiy til, xoh sheva bo‘lsin, birdaniga emas, balki asta-sekinlik bilan uzoq davr davomida sodir bo‘lishi mahlum jarayondir. Dastlab onda-sonda uchraydigan fonetik hodisalar, fonetik variantlar, yonma-yon qo‘llanishlar asta-sekin qonuniyatga aylanadi.

Har bir taraqqiyot davri uchun xos bo‘lgan fonetik xususiyatlar va ularning ildizlari, butunlay o‘zgarib ketmagan jihatlari Namangan viloyati Norin shevasining undoshlar tizimida ham saqlanib qolgan.

Mahlumki, qadimgi turkiy til undoshlarining qattiqligi (yo‘g‘onligi) va yumshoqligi (ingichkaligi) bilan eski turkiy va hozirgi o‘zbek tilidan keskin farqlangan.

Eski turkiy tilda *q* va *k, g‘* va *g* kabi ikki juft undosh orasidagina qattiq-yumshoqlik farqi saqlanib qolgan xolos. Boshqa undoshlarda bunday holat sezilmaydi[1]. Biroq Namangan viloyati Norin qipchoq shevalariga eski turkiy tilning ilk taraqqiyot davrlaridagi undoshlar tahlilga[2] asoslangan holda fikr yuritsak, *ng* undoshining yumshoqlik va qattiqlik jihatini ko‘ramiz.

[1] Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тирихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи. – 1992.
[2] Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент: 1960. I том. – Б. 218.

Ng – shevada chuqur til orqa sonor tovushi Namangan viloyati Norin shevalari fonetik-fonologik tizimida Koshg‘ariy davri tili fonetik-fonologik strukturasidagi ayrim unsurlarini saqlab qolgan. Norin tumani Changitma, Norinkapa, Uchtepa, Kemaboshi, Do‘mar va yana ko‘plab qishloqlari shevasida til o‘rta va chuqur til orqa sonorligi bilan farqlanadi. Barcha o‘zbek shevalari va adabiy tilda bo‘lganidek, faqat so‘zning o‘rtasi va oxirida keladi: [*mengayam*] menga ham, [*yanghtta*] hozir, [*ong*] oling, [*keng*] keling, [*song*] soling, [*bong*] bo‘la qoling, [*tongngh*] tang‘imoq kabi.

Norin dialektal arealida XI asr turkiy til davridagi kabi[3] yumshoqlik va qattiqlik fonologik belgilari, ma’no farqlashni yuzaga keltiradi: [*numong(g‘)o*] nima uchun, nima sababdan – sabab ravishi so‘rog‘i, [*numonga*] nimaga – ot turkumi so‘rog‘i. [*bozorg‘o numong(g‘o) boroson?*] Bozorga nima uchun (nima olishga) borasan? [*muni numonga soloy?*] Buni nimaga solay? kabi.

Bugungi kunda bu holat faqat ayrim so‘zlar miqyosidagina Koshg‘ariy davri tili xususiyatlarini o‘zida saqlab qolmoqda. Shevada qadimgi tipik jarayonligi susayib, asta-sekinlik bilan tillar integratsiyasi tufayli tugab bormoqda.

Turkologlar tomonidan *ng* undoshining urchishi, tarixiy taraqqiyoti murakkab masala ekanligini[4] tahkidlangan. Norin shevalarida turli hollarda *n* tovushi sifatida saqlanganligi, *y* va *g‘* tovushlariga aylanganligi hamda asliday qo‘llanishini ko‘rishimiz mumkin.

Qadimgi va eski turkiy tildagi *yaling* so‘zidagi *ng* undoshi *yolin* tarzida *n* ga aylangan: [*yolin*] alanga, [*yalngiz*] so‘zida *g‘* ga o‘zgargan: [*yolg‘iz*] yolg‘iz, [*songak*] so‘zida *y* undoshiga o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin: [*suyak*] suyak kabi. Mazkur shevada *ng*undoshi o‘zining tarixiy aslini ko‘p so‘zlar-da saqlab qolgan: [*onggir*-cho‘ngqir*][5] notekis, [*engak*] engak: ruscha podborodok, [*ongay//o‘ng*] qulay, [*uniqon*] rangi o‘chgan kabi.

Bundan tashqari, xalq jonli tilida, ayrim turkiy adabiy tillarda *ng*undoshi *v* tarzida qo‘llanishi yoki umuman tushib qolishi mumkinligi haqida fikrlar bor[6]. Biroq Namangan viloyati Norin shevalarida *ng* undoshining *v* undoshiga aylangan holatlari yoki umuman tushib qolishi uchramaydi. Chunki bu shevada *ng*undoshining alohida o‘rni juda keng va ahamiyatli lisoniy-fonologik imkoniyatlari borligi kuzatiladi.

Shunisi xarakterliki, Norin shevalarida, huddi XI asr turkiy til davridagi kabi, bu undosh so‘z, o‘zak tarkibidagi unlilarning qattiq, yumshoqligigi va o‘zidan keyin kelgan undosh tovushlarning artikulyatsion o‘rniga ko‘ra uch xil pozitsiyada talaffuz etiladi: a) o‘zakdagi unlilar yumshoq, til oldi unlilari bo‘lsa, *ng*undoshi nihoyat yumshoqlashib, til oldi tomon siljiydi. Til uchi egilib pastki tishga, egilgan joyi bilan yuqori tanglayning old tomoniga tegadi: [*ekkg‘zg‘ng*] ekdiring, [*buzung*] buzing, [*shynig-chi*] singling-chi kabi; b) o‘zakning tarkibida til orqa unlilari bo‘lsa, orqaga siljiydi, til orqa undoshidek talaffuz etiladi: [*noningingizdon bering*] noningizdan bering, [*yangg‘ kepth*] hozir kelibdi, [*bungo*] bunga kabi; v) o‘zak tarkibida til orqa unlilari bo‘lib, [*ng*] undoshidan so‘ng [*g‘,q*] chuqur, [*g*] sayoz til orqa tovushi kelsa, nisbatan orqaga siljib, chuqur til orqa tovushidek talaffuz etiladi, burunlashish kuchayadi. [*ng*] ham, [*g‘*] undoshi ham sof *ng, g‘* undoshlaridek talaffuz qilinmaydi: [*yolongg‘och*] yalang‘och, [*omog‘ongu*] olmagan-ku, [*bo‘mog‘onu*] bo‘lmaganku, [*biqinglog‘on*] bilqillagan, yumshoq, [*ingqillog‘on*] inqillagan.

Norin shevalarida [*ng*] undoshi qator undoshlarga nisbatan turg‘un bo‘lsada, sporadik o‘zgarishga yuz tutadi: [*ng>y*]: [*shynim*] singlim, [*ko‘ynim*] ko‘nglim, [*suyak*] so‘ngak kabi. Lekin bular Toshkent tip shevalaridagidek yoki qarluq lahjalari kabi keng tarqalgan emas.

---

[3] Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент, 1963. I том –Б. 110.

[4] Малов С.Е. Памятники древней тюркской письменности. – М.: Наука, 1951. – С.11; Шербак А. М. Грамматика староузбекского языка. – М. – Л., 1962; Сравнительная фонетика тюрского языка. – Л., 1970; Решетов В.В, Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари ва уларнинг ҳақида умумий маълумот. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1962; Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961.

[*] *Маҳмуд Кошғарий онгур сўзи ғор – чуқурлик маъносида қўлланишини таъкидлаган. ЖҒН қипчоқ шеваларида бу сўз фақат нотекис йўл маъносида ишлатилади.*

[5] Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент, 1963. I том –Б. 110.

[6] Дмитриев Н. Фонетические закономерности начала и конца тюркского слова. ИСГТЯ. I. –С. 271; Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970. – С.97; Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси.– Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 61- 66.

Norin qipchoq shevalarida chuqur til orqa *x* fonemasi bo‘g‘iz undoshi *h* undoshi kabi talaffuz qilinadi. Qipchoq shevalarida x (qattiq) va h (yumshoq) undoshlarining fonematik belgilari yo‘q, ma’no farqlanmaydi.

H – sirg‘aluvchi, jarangsiz bo‘g‘iz undoshi. Talaffuzda boshqa umumo‘zbek shevalaridagidan farq qilmaydi. Dialektal areal qipchoq shevalarida *h* undoshi so‘zning istalgan pozitsiyasida, chuqur til orqa *x* o‘rnida ishlatiladi: [*hayht*] hayit, [*hamma*] hamma, [*boho*] baho, [*ohmoq*] ahmoq, [*doroh*] daraxt, [*uhlo*] uxlamoq (uyqi) kabi. Lekin so‘z boshida ishlatilish darajasi shevalararo bir xil emas.

Norin qipchoq shevalarida *h* so‘z boshida kelganda “y” lovchilarda nemischa *(ich)* tarzida talaffuz etiladi, “j”lovchilarda tushib qoladi: [*hangama//angama*] hangoma, [*harakat//arakat*] harakat, [*haptg‘yak//apthyak*] haftiyak, [*hoppo//oppa*] semiz, [*hanaphya//anaphya*] hanafiya kabi.

Praga lingvistik maktabining fonologik kontseptsiyasi bo‘yicha, bir xil fonning qurshovida erkin almashinish munosabatida bo‘lgan ikki tovushning biri o‘rnida ikkinchisining kelishi ma’noga tahsir etmasa, bu tovushlar bir fonemaning ikki varianti hisoblanadi. Odatda erkin almashinish munosabatida muayyan belgisiga ko‘ra o‘zaro yaqin bo‘lgan tovushlar bo‘ladi. Lekin mahlum umumiy belgiga ega bo‘lmagan tovushlar bunday munosabatga kirishmaydi.

Shunisi xarakterliki, Namangan viloyati Norin shevalarida akustik-artikulyatsion jihatdan umumiylikka ega bo‘lmagan tovushlarda ham o‘zaro erkin almashish distributsiyasi kuzatiladi. Xususan, shevadagi *s>h* undoshlarining bir xarakterli xususiyati quyidagicha: bu fonetik o‘zgarish morfemik birliklarning moddiy shakliga ham tahsir qiladi. Xususan, unli bilan tugagan asos qismga uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasi *-hi* shaklida qo‘shiladi: [*ena+hi*] onasi, [*oto+hi*] otasi, [*bolo+hi*] bolasi, o‘zlashma so‘zlarda: [*mohna+hi*] mashinasi, [*so‘mka+hi// homka+hi*] sumkasi, [*mohna+hi*] mashinasi. Namangan viloyati Norin shevalarida so‘z oxirida *h* undoshining *s* undoshi o‘rnida qo‘llanmaydi.

Ma’lumki, rus va boshqa Ovropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning boshida bir bo‘g‘in tarkibida kelgan ikki va undan ortiq undoshlarni talaffuz qilish qiyinligi tufayli, og‘zaki nutqda talaffuz qulayligini tahminlash uchun bunday leksema nomemalari fonetik tuzilishi turkiy nomemalari fonetik arxitektonikasiga moslashtiriladi. Natijada ana shunday o‘zlashma leksemalarning fakulg‘tativ varianti vujudga keladi.

Norin qipchoq shevalarida *h* undoshi *sh*, *ch* va hatto, bahzan *t* undoshi bilan ham ana shunday munosabatga kirisha olishi kuzatiladi. Masalan: *sh>h:* [*hilpiq*] shilpiq, [*himar*] shimarmoq, [*hishsha*] shisha, [*holviroma*] shalviramoq, [*himar*] shishirmoq, [*ma’noqo//mahnaqa*] mana shunaqa, [*mahinday*] mana shunday, [*mahincha*] mana shuncha kabi.

Ayrim hollarda til oldi, jarangsiz *t* undoshi ham bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi *h* undoshiga almashadi: [*o‘hlot*] o‘tlat, [*qahna*] qatnamoq, [*ihtivar*] itqib yubor, irg‘itmoq kabi.

Ko‘rinadiki, Namangan viloyati Norin shevasida *h* undoshi juda faol qo‘llanadi va turli pozitsiyalarda ayrim undoshlar o‘rnida almashinib kela oladi. Bu esa sheva vakillarining M.Koshg‘ariy mansub bo‘lgan turkiy sheva bilan genetik bog‘liqligi haqidagi xulosalar kelib chiqishiga turtki bo‘ladi. Chunki u o‘zini unli bilan boshlangan so‘zlar oldiga *h* undoshini orttirib qo‘llaydigan uruqqa mansubligini ko‘rsatgan edi[7].

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi fonetik-fonologik nazariyalar bilan hozirgi o‘zbek tili va Namangan viloyati Norin shevalari ayrim undoshlarini qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, tarixiy jihatdan undoshlar keskin o‘zgarishlarga uchramagan. Undoshlarga oid o‘zgarishlar, asosan, yangi undoshlarni o‘zlashtirish va tovush almashinishlari bilan chegaralanadi, bu esa til tarixining asl ko‘rinishi – shevalarda undoshlar unlilardan ko‘ra barqaror bo‘lgan deb xulosa chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент, 1963. I том

[7] Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент, 1963. I том –Б. 17.

2. Дмитриев Н. Фонетические закономерности начала и конца тюркского слова. ИСГТЯ. I. –С. 271; Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970. – С.97; Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси.– Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 61- 66.
3. Малов С.Е. Памятники древней тюркской письменности. – М.: Наука, 1951. – С.11;
4. Шербак А. М. Грамматика староузбекского языка. – М. – Л., 1962; Сравнительная фонетика тюрского языка. – Л., 1970;
5. Решетов В.В, Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978;
6. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари ва уларнинг ҳақида умумий маълумот. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1962;
7. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961.

XORAZM “GO‘RO‘G‘LI” TURKUMI DOSTONLARINING BADIIY XUSUSIYATLARI

ARTISTIC CHARACTERISTICS OF EPICS OF KHORAZM "GOROGLI" SERIES

Razzaqberganova Oltinoy Faxraddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
oltinoyrazzoqberganova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm dostonchilik an’analari, “Go‘ro‘g’li” turkumliligining Xorazm dostonchilik san’atida tutgan o‘rni, eposning Xorazm versiyasiga xos badiiy xususiyatlari, Qo‘rg‘on versiyasi bilan qiyoslangan holda mushtarak va farqli jihatlari versiyalardan olingan parchalar asosida yoritib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *Xalq og‘zaki ijodi, doston, dostonchilik an’analari, versiya, motiv, obrazlar tavsifi, qiyosiy folklorshunoslik.*

Abstract: *In this article, the epic traditions of Khorezm, the unique artistic features of the Khorezm version of the epic "Gorogli", the common and different aspects compared with the Kurgan version are highlighted based on excerpts from the versions.*
Key words: *Folklore, epic, epic treditions , version, motif, description of images, comparative folklore.*

Xalqimizning boy madaniy merosi bo‘lgan folklor asarlarini yig’ish, asliyatiga zarar yetkazmagan holda yozib olib, nashr qilish, o‘rganish, tadqiq qilish o‘tmishdan to bugungi kunimizgacha folklorshunoslik ilmining dolzarb masalalaridan bo‘lib kelgan..

Xususan, Xorazm dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o’rganishda Hodi Zarifov, To’ra Mirzayev, Omonulla Madayev, Malik Murodov, Muhammad Nosir Saidov, Safarboy Ro’zimboyev, Shomirza Turdimov, San’at Sariyev, Nasiba Sabirova kabi bir qator olimlarimiz tomonidan ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Xalq dostonlari ichida “Go‘ro‘g’li” eposi epik ko‘lami va tarqalgan hududining kengligi , turkumliligi, o‘ziga xos qahramonlik, vatanparlik, haqsevarlik, ishqiy-sarguzashtlarning go‘zal jabhalarda kuylanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz orasida “Go‘ro‘g’li” turkumliligi ikki versiyada tarqalgan bo‘lib, birinchisi, Samarqand dostonchilik maktablari vakillari repertuaridan o‘rin olgan. Bu versiya o‘z ichiga qirqdan ortiq dostonni qamrab oladi. Ikkinchisi, Xorazm versiyasi bo‘lib, u, asosan, Xorazm vohasida yashovchi baxshilar repertuaridan o‘rin olgan. Mazkur versiya , asosan, o‘g‘uz eposi bilan aloqador bo‘lib, turkman, qisman ozarbayjon va turk versiyalariga yaqin keladi.

Dostonning har ikkala versiyasi turkumga kirgan dostonlar soni, hajmi, syujet va motivlar tarkibi, obrazlari tizimi, badiiy o‘ziga xosliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Xususan, ikkala versiyaning xalq baxshilari tomonidan ijro etish usullari, yo‘nalishlari , dostonchilik an’analari

mavjud. Samarqand dostonchilik maktabida do‘mbira chertib, yakka holda bo‘g‘iq ovoz bilan ijro etilgan bo‘lsa, Farg‘ona vodiysida dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan. Ikki yo‘nalishdan farqli o‘laroq Xorazm doston kuylash an’anasida tor, dutor, g‘ijjak, garmon, doira jo‘rligida ba’zi hollarda juft holda, ba’zan esa yakka holda ochiq ovozda ijro etilgan. Xorazm dostonlarini maxsusu o‘rgangan olim S. Ro‘zimboyev fikricha, vohada tarqalgan “Go‘ro‘g’li” dostonlarining umumiy soni 24 tadir. Shundan 18 tasi yozib olingan.

Doston versiyalarini o’zaro qiyoslar ekanmiz, mushtarak va farqli xususiyatlarini ko’ramiz. Masalan, tush, safar, o’ch olish, uylanish, sinov kabi syujetni harakatga keltiruvchi motivlar dostonning har ikkala versiyalari uchun xos, ammo bir qancha o’ziga xosliklari ham mavjud. Qo’rg’on dostonchilik maktabi vakili Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Po‘lkan versiyasida qahramonning tug‘ilishi Zargar shohi Shohdorxon tushida ayon bo‘ladi:

“Guburlarim bugun uxlab tush ko‘rdim,
Men tushimda bir qabohat ish ko‘rdim,
Yo bilmayman, o‘zi manglayning sho‘ri,
Yovmit eldan keldi ikkita bo‘ri,
Kelgan bo‘ri qur’andozlar, kim bo‘ldi?
Ikki bo‘ri tog‘da ikki sher quvdi,
Sherbachchalar qo‘yga oralab qoldi,
Qo‘yimning o‘ligin har yoqqa otdi.
Tutunim burnimdan chiqib ketdi.
Bu tushumning ta’birlari ne bo‘ldi?
Tepamdan bir lagan tillam sochildi,
Og‘zimdan bit tolpir qushim uchildi,
Imoratim bari tep- tekis bo‘ldi,
Shu’lasi olamni yop-yorug‘ qildi.
Qur’andozlar ayting, tushim na bo‘ldi?
Bir chinor elimdan ko‘karib ketdi,
G‘alt etib shoxasi osmonga yetdi.
Qur’ay, qur’ay soyalagan kim bo‘ldi?
Sochlaringni tol-tol qilib taranglar,
Bu gaplarni kim ko‘rgandan so‘ranglar.
Tushi qursin ta’birlari ko‘p yomon,
Bu tushimning ta’birlarini yo‘ringlar… “
[Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Po‘lkan, 1967, 13-b]
Yusuf qur’andoz ta’biri:
“Bilmaganing bildirayin bilmasang,
Podshohim , maqsadga yetding, o‘lmasang!
Bu tushingning ta’birini aytayin,
Tag‘ina-a ko‘nglinggga og‘ir olmasang.
Zimiston ayrilmas tog‘larning qori,
Tushing qursin, bildim manglayning sho‘ri!
Yovmit eldan kepti ikkita bo‘ri:
Ikkovidan yaxshi farzandlar bo‘lar,
Qo‘yingni o‘ldirgan bo‘ri ikkovi.
Boshlarinnga necha savdolar solar
Fuqarongning ko‘ngli qarolar bo‘lar,
Tushingning ta’biri shuldir podshoyim.
Shu biravi elatingga shoh bo‘lar,
Tushingning ta’biri shuldir, podshoyim!
Tepangda sochilgan tillang qoningdir,
Og‘zingdan uchgan qush joningdir.
Qulagan imorat sening tanangdir,

Tushingning, qursin ta’birlari shu bo‘ldi”. [Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Po‘lkan, 1967, 13-14b]

Xorazm versiyasida ushbu tush motivi qahramonning bobosi Jig‘alibek tushida ayon bo‘ladi:

“…Gecha bir dush go‘rvadim, alima oltin oshiq barvadilar, shoyad aytg‘onlaring shuni o‘ngdagisi bo‘lsa…” [Xorazm dostonlari, 2004, 19-b]

Xalq qo‘shiqlarida oltin oshiq – o‘g‘il farzand ramzini ifodalagan:

“Oltin oshiq o‘ynag‘an o‘g‘ling bo‘lg‘ay yor- yor,

Qizil guldin ochilg‘an qizing bo‘lg‘ay yor- yor” [“Yor- yor” dan]

Shuningdek, eposning obrazlar galeriyasida hamda nomlanishida ham farqlarni kuzatishimiz mumkin, Dostonning Xorazm versiyasida qahramonga ism qo‘yish marosimi o‘tkaziladi va Ravshan deb ism qo‘yiladi: “…Elni kadxudolarini yig’nab bolaga od qo‘yishni maslahat atdi. Birav u dadi, birav bu dadi oxiri bir oqsoqol aytdiki, bu farzandning yo‘li ravshan bo‘lsin qarong’iliqdan yoqtiliqqa chiqdi. Shu sababdan odi ham Ravshan bo‘lsin dadi.” [Xorazm dostonlari, 2004, 21-b]

Garchi Ravshan nomidan ko‘proq Go‘ro‘g‘li ismi bilan tanilgan bo‘lsa-da, bu nom rasman eran va chiltonlarning “nafas o‘g’lon” i bo’lib alplik maqomiga erishganidan so‘ng qahramonga eranlar tomonidan beriladi:

“…Eranlar jam bo‘lib munda turdilar,

Yig’ilishib manga fotiha berdilar,

Ravshan otim - Go‘ro‘g‘li deb qo‘ydilar.

Endi o‘z yo‘lingga borg’il Go‘ro‘g‘li” [Xorazm dostonlari, 2004, 44-b]

Bu syujet talqini beixtiyor qahramonlik eposi “Alpomish” dostonida qahramonga bolalikda Hakimbek deb ism qo‘yilib, Alpinbiy bobosidan qolg‘an yoydan Asqar tog‘iga o‘qini nishonga tekkizib Alpomish nomini olib alplik maqomiga yetishgan voqealarni yodga soladi. Qahramonga alp bo‘lib yetishgach ikkinchi nom berilishi qahramonlik dostonlariga xos xususiyatlardan biridir. Ushbu xususiyat eposning Xorazm versiyasida saqlangan.

Samarqand dostonchilik maktabi vakillari versiyasida ism qo‘yish marosimi o‘tkazilgan (Rahmatulla Yusuf o‘g‘li versiyasida) bo‘lsa-da, qahramonga g’ayritabiiy go‘rda tug’ilganligi uchun Go‘ro‘g‘li nomi berilgan , Ravshan esa qahramonning otasining ismi bo‘lib kelgan. “Hasanbek bolani ushlab, hovlisiga olib qaytdi. Ana shuytib, Hasanboy hovlisiga borib, bir kata boqma qo‘yni so‘yib,to‘y qilib, barcha turkmanlarni chaqirib, bolaga nima deb ism qo‘yishni so‘radi. Shunda turkmanlarning eng keksa bir boboyi: “ Bu bolaning oti o‘zi bilan Go‘ro‘g‘li bo‘lsin”, degan edi, barcha ma’qullab Go‘ro‘g‘li deb ism qo‘ydilar”

[Rahmatulla Yusuf o‘g‘li. 2006, 36-b]

Shuningdek, Xorazm versiyasida ba’zi obrazlar nomlari ham o’zgarishlarga uchragan .Go‘ro‘g‘lining Rayhon Arab o‘g‘irlab ketgan yangasining ismi Gulandom , Rayhon Arabning qizining ismi esa Bibijon, Go‘ro‘g‘li otasining ismi Odibek, onasining nomi berilmagan. Eposning Samarqand versiyasida Go‘ro‘g‘li yangasining ismi Xoljuvon, Rayhon Arab qizining ismi Zaydinoy, qahramon otasining ismi Ravshan, onasining ismi Bibihilol.

Xorazm dostonlarida prozaik bo‘laklar qisqa bo‘lganidek, she’riy parchalar Samarqand dostonchiligidagidek uzundan-uzun misralarda emas, aksincha, qisqa-qisqa ko‘rinishlarda ifodalanadi. Bundan tashqari aynan dostondagi lirik parchalar ham turli vazifalarni ifodalaydi: Folklorshunos olim Omonulla Madayev poeziyaning dostonlarda bajaradigan vazifasini quyidagicha izohlaydi: - “Xorazm dostonlarida she’riy parchalar asosan lirik xarakterga ega bo‘lib, ularda qahramonlarning asar voqealari munosabati bilan paydo bo‘lgan ichki kechinmalari, ularning psixologik holatlari yoxud portretlari tasvirlanadi”. [Omonulla Madayev, 1973, 37-b]

Darhaqiqat, “Go‘ro‘g‘li” eposini Xorazm versiyalarida ayollar obrazining tasviri , asosan, she’riy misralarda ifodalangan.

Gulamdon obrazi portreti:

“…Qo‘llari xinoli, bormoqda yuzuk,

Adab bilan so‘zlar, ko‘zlari suzuk,

Qoshlari kamondir bellari nozik,

Gulandomdek sevar yorni ko‘rmadim.
Andalib-u shaydo erur tillari,
Chaman bog’lab tar ochilg’an gullari
Bilmam qayda emish aning ellari,
Gulandomdek sevar yorni ko‘rmadim…” [Xorazm dostonlari, 2004, 32-b]

Rayhon Arabning qizi Bibijon obrazi portreti:
“…Bir oshiqing azobing chekar,
Ko‘zlaridan yoshlar to‘kar,
Labing novvot, tiling shakkar,
Tur, Bibijon, turg’il endi, ,
Eyningda atlas- daroyi,
Yuzing mot qiladur oyi,
Sansan parilarning toyi (tengi),
Tur, Bibijon, turg’il endi…” [Xorazm dostonlari, 2004, 82-83-b]

“Samarqand dostonlarida she’riy parchalarning asosiy qismi dostonda ifodalanayotgan voqea rivojini aks ettirish protsessida belgilanadi. Ular ,asosan, epik xarakterga ega bo‘lib, ularda asar syujetining dramatik o‘rinlari, shuningdek, qahramon olib borayotgan jang kartinalari kabi aktiv harakat ko‘rinishlari ifodalanadi” [Omonulla Madayev 1973, 39-b]

“Qizilbosh deganga nayza sanchilar,
Maydon ichida qolib loshi yanchilar,
O‘ch olgan so‘ng ha demayin ustingdan,
Og‘iz kerib g‘ing deyishlaring tinchilar” [Rahmatulla Yusuf o‘g‘li, 2006, 18-b]

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari turkiy xalqlarning mushtarak madaniy merosi, erkinlik va hurlikni, birdamlikni, qahramonlikni, ishqiy-muhabbat, oriyat kabi insoniy go‘zal xislatlarni ulug‘lovchi bebaho asardir. Eposning Xorazm versiyasi turkumga kirgan dostonlarning ixchamliligi, o‘ziga xos ijro uslubi, musiqa kuylarining o‘ynoqiligi, ijroda eposning syujet tarkibida nasrdan ko‘ra nazmga ko‘proq e’tibor qaratilishi, badiiyati jihatidan ajralib turadi. Vohada “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridan birorta qo‘shiq tinglamagan, Go‘ro‘g‘li obrazini bilmagan birorta odamni topish qiyin. Taniqli folklorshunos M. Saidov “O‘zbek xalqi orasida bu eposni ,eng avvalo, Xorazmdan axtarish kerak” [Saidov M. 1969, 139-b] – deyishi ham bejizga emas. Epos Xorazm dostonchilik va qo‘shiqchilik san’atida muhim tutuvchi xalq og‘aki ijodi xazinasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Saidov M. “O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat” , Toshkent, 1969.
2. Madayev O. Xorazm dostonlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari” Toshkent – 1973.
3.Xorazm versiyasi – “Go‘ro‘g‘li”. Xorazm dostonlari/ Nashrga tayyorlovchilar: S. Ro‘zimboyev, G. Eshjonova- Urgench: Xorazm,2004.
4.“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” Doston/ Aytuvchi Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Po‘lkan. Nashrga tayyorlovchi Malik Murodov – Toshkent: Badiiy adabiyot,1967.
5. “Go‘ro‘g‘li”/ Aytuvchi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi T. Mirzayev /Toshkent. Sharq, 2006.

BAHODIR QOBULNING “OTACHIROQ” ASARIDAGI QIPCHOQ LAHJASIGA OID DIALEKTIZMLAR

DIALECTICISMS ON THE KIPCHAK DIALECT IN "OTACHIROQ" BY BAHODIR QABUL

Xoliqulova Kumushoy Ikrom qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
kumushoyxoliqulova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qipchoq lahjasi vakili Bahodir Qobulning “Otachiroq” asarida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari, ularning etimologiyasi va adabiy tildagi muqobil variantlari, leksik-semantik xususiyatlari o‘rganilgan.*
Kalit so‘zlar: *uy-ro‘zg‘or buyumlari, leksema, etimologiya, o‘zlashma so‘zlar, Baxmal shevasi.*

Abstract. *This article focuses on some of the household items and related words found in Bahadur Qabul's Atachiroq, a representative of the Kipchak dialect, with their etymology and literary language alternatives. is compared. In addition, several everyday names are also mentioned. The lexical-semantic aspects of such words occurring in the speech of representatives of the Kipchak dialect are analyzed.*
Key words: *household items, lexeme, etymology, borrowed words, Bakhmal dialect.*

Sheva forscha so‘z bo‘lib, ravish, tarz, yosin degan ma’nolarni anglatadi va tilining o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan kichik bir qismi bo‘lib, o‘zlarining geografik o‘rinlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Barchamizga ma’lumki, o‘zbek tili 3 ta yirik lahjaga bo‘linish bilan bir qatorda ko‘plab shevalarni ham o‘z ichiga oladi. Shevalar xalqning etnik kelib chiqishi bilan birga uning yashash hududi hamda mehnat faoliyati bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi.

O‘zbek adabiy tilining rivojida shevalarning o‘rni juda muhim. Sababi, adabiy tildagi bo‘shliqlar aynan shu tilning turli shevalari hisobiga to‘ldiriladi, ya’ni aksariyat shevalarda faol qo‘llanadigan, ammo adabiy til va boshqa hudud shevalarida uchramaydigan dialektal so‘zlar adabiy til lug‘at tarkibiga me’yor sifatida qabul qilinishi mumkin.

Tarixan bizga ma’lumki, insoniyat ibtidoiy to‘da davridan buyon uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasashgan va ulardan foydalanishgan. Keyinchalik esa ular yanada takomillashib, foydalanishga qulay tarzda qayta takomillashtirilgan. Hozirgi kunga kelib esa uy-ro‘zg‘or buyumlari bejirim, qulay va chidamli ko‘rinishga keltirildi. Negaki, inson aqli takomillashuvi hayot tarzining tubdan yaxshilanishiga ko‘mak berdi. XI asrda ham odamlar svilizatsiyadan ancha yiroqda bo‘lishlariga qaramay, turli xil uy-ro‘zg‘or anjomlaridan foydalanganlar. Jumladan, qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida ham uy-ro‘zg‘or buyumlarining anchagina qismini berib o‘tadi va ularning asl kelib chiqish asosini izohlashga harakat qiladi. Masalan, qazan – ovqat pishirishga mo‘ljallangan buyum. M. Koshg'ariy lug‘atida ashich so‘zi – qozon ma’nosini bildirgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir hududning o‘ziga xos shevasi mavjud bo‘lib, qipchoq lahjasi tarkibiga kiruvchi Baxmal shevalarida ham uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasining ajralib turuvchi jihatlari mavjud. Ularni tahlil qilishda Baxmal tumanida tug‘ilib, zilol suvlarini ichib, tog‘larining har qarichiga nisbatan muhabbat his qilgan adiblardan biri Bahodir Qobulning “Otachiroq” hikoyalar va qissalar to‘plamiga to‘xtalib o‘tamiz. Adib asarda o‘zining bolalik yillari, qishloq urf-odatlari, turmush tarzi hamda “ena”sining o‘gitlari haqida hikoya qilar ekan, o‘z navbatida Baxmal shevasining o‘ziga xos jozibasini aks ettiruvchi xususiyatlarni qahramonlar nutqida mohirona qo‘llash bilan birga o‘quvchi uchun tushunarsiz bo‘lgan so‘z va jumlalarni ham izohlab ketadi: “*Opani – aya, opachani – opa, qaroni – qora, kasratkini – buqalamun, ko‘nani – ko‘hna deb yozolmayman… Onasini uyda, aslida opa deydi-yu, yozganda aya deb yozibdi, vax-xa-xa deb, birinchi bo‘lib jon jo‘ram Nafas kuladi*” [B. Qobul. Otachiroq. 2021. 10-bet]

Quyida asarda uchraydigan uy-ro‘zg‘or buyumlari va ularga aloqador bo‘lgan so‘zlarning adabiy tildagi muqobili hamda etimologiyasiga biroz to‘xtalib o‘tamiz:

1. *Boshtag* – yostiq (17). 2. *Xanjala* – yuvib, titilib, uzun arqon holatiga keltirilgan, yigirish uchun tayyorlangan jun kalava (19). 3. *Kelagay* – turkcha so‘z bo‘lib, ozarboyjonlarda ayollar ro‘moli ma’nosini anglatsa-da, biz tahlil qilayotgan asarda bu sut mahsuloti sifatida ta’riflanadi:

Misqolning sigiri tug‘ibdi. Kelagayi yaxshi ekan. Pallasidan olib qo‘ydim [B. Qobul. Otachiroq. 2021. 19-bet]. 4. *Shayin* – ikki uchiga tarozi pallalari osib qo‘yilgan moslama (52). So‘zning etimologiyasiga qaraydigan bo‘lsak, manballarda arabcha so‘z sifatida e’tirof etiladi. 5. *Rizqxona* – yerto‘la (64). So‘zning shaklidan ham uning yasama so‘z ekanligi ko‘rinib turibdi (rizq+xona). Bunda asosiy o‘zak qism (rizq) arabcha ekanligi qator undoshlar qo‘llanganligidan ham ayon bo‘ladi. Rizq, ya’ni oziq-ovqatlar saqlanadigan yopiq binoni anglatib kelmoqda. 6. *Olqindi* – kir yuvilaverib kichirayib qolgan kirsovun yoki yeyilib ketgan qumqayroq (80). Qadimda esa olqindi va unga o‘zakdosh so‘zlar ancha faol bo‘lgan, xususan, buni Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk” asarida keltirilgan misollarda ham ko‘rish mumkin: “*alqïndï*” – tamom bo‘ldi, tugadi. Alqïndï peŋ – narsa butunlar tamom bo‘ldi, tugadi. Er alqïndï – odam o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi (alqïnur, alqïnmaq)” [DLT.I.T.1960. 255-bet]. Shuningdek, “Devon”da bu so‘zning fe’l shakli “*alqtï*” (boshqa bir o‘rinda “alqdi”. DLT.III.T.1963. 449-bet) shunday izohlagan: “*alqtï’’*: *ol tavarïn alqtï – u molini yo‘q qilib yubordi* (DLT.III.T.1963. 425-bet). Yusuf Xos Holibning “Qutatg‘u bilig” asarida ham bu so‘zga bur necha o‘rinda duch kelamiz: “*Nechə tersə dunyo tuger alqtïnur’’.* Ma’nosi: “*Qancha mol-dunyo yig‘magin, termagin utugaydi, olqinadi*” (QB. T. 1971. 78-bet). “*Alqïndï*” – “*tugadi*”, “*tugayotgan*” degani bo‘lsa, uning ziddi, bo‘lishsizlik shakli: “*alqïnchsiz*” ham “*bitmas, tuganmas*” ma’nosida qadimda keng iste’molda bo‘lgan. Misol: *alqïnčsiz tükätinčsïz* – bitmas-tuganmas. *Alqïnču* esa – *o‘layotgan, o‘tkinchi* demak (DLS. M. 1969. 37-bet). Bu so‘z etimologiyasi haqida lug‘atlarda ma’lumot mavjud emas. Bizningcha, “aql” o‘zagi qadimgi turkiydagi “*tugamoq, o‘lmoq, o‘ldirmoq*…” kabi ko‘plab ma’nolarga ega bo‘lgan “*ɵl*” arxetipiga borib taqaladi. Qadimgi “*ɵl*” esa – hozirgi tilimizdagi “*o‘l*”, ya’ni barcha turkiy tillardagi “o*‘lmoq*”, “*o‘lim*” so‘zlari negizi. “Этимологический словарь тюркских языков” lug‘atida keltirilishicha, hungar olimi, G. Vamberi “*ɵl*” arxetipining “*o‘lmoq*” emas “*o‘ldirmoq*” ma’nosi qadimda birlamchi bo‘lgan, degan fikr bildirgan. Bunga misol qilib olim major (hungar) tilida “*ɵl*”ning “*o‘ldirmoq*” ma’nosi saqlanganligini keltiradi. Chunki major tiliga bu so‘z qadim zamonlarda o‘zlashgan (ESTYA. I. M. 1974. 526-bet). 7. *Posangi* (80) – kelib chiqishi forscha so‘z bo‘lib, quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) tarozi pallalarini tenglashtirish yoki narsa tortilayotganda idish og‘irligini chiqarib tashlash uchun tarozining bir palla-siga qo‘yiladigan qo‘shimcha tosh yoki yukcha; 2)texnikada — mashina va mexanizmlarning aylanuvchi qismlarini muvozanatga keltirish uchun birik-tiriladigan qo‘shimcha yukcha (metall parchasi). Mashina, avtomobil g‘ildiragining ravon aylanishini ta’minlash uchun unga metall parchasi biriktiriladi; 3) soat mexanizmining asosiy rostlagichi (balansir). [O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil]. 8. *To‘shanchi* – uyga to‘shaladigan gilam, olachalarning umumiy nomi (88). 9. *Ip ulatgisi* – kalavadagi ipning uch qismi, ipning uzilgan joyi (91). 10. *Chag‘at* – cho‘ponlarning narsa, qoralari bir joyga to‘planib, ustiga egalikligini bildiruvchi biron yopinchi tashlangan uyum…[B. Qobul. Otachiroq. 2021. 109]. 11. *Chakki* – qatiqni xaltachaga solib suvini oqizib tayyorlanadigan sut mahsuloti, suzma (117).

12. *Nappar* – chekich (ba’zi hududlarda nonpar) (126). 13. *Janda* (fors. — ko‘hna, eski) — 1) ustki kiyim. Mato bo‘laklaridan (quroq usulida) uzun va keng qilib tikilgan. Asosan, qalandar va shayxlar kiygan (xirqa). Hozir ma’noda — juldur chopon, yaktak; 2) qo‘lda to‘qilgan ip mato turi. Asosan, qo‘lda, keyinroq fabrikada yigirilgan ipdan yo‘l-yo‘l katak gulli qilib o‘ziga xos tarzda qalin qilib to‘qilgan. Naqsh mujassamoti ingichka yo‘llar mayda kataklardan iborat keng yo‘llar bilan bir maromda almashinib kelishiga asoslangan, har bir rangli ip o‘z yo‘g‘onligiga ega bo‘lgan (maye, qizil rang 2 va qora rang 6 ipdan iborat bo‘lgan). Janda matosi o‘ta pishiqligi va rangining odmiligi bilan ajralib turgan. Turkiston (Tojikiston, O‘zbekiston)da jandadan to‘n tayyorlangan. XX asr 20-yillaridan janda to‘qish deyarli barham topgan. [O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil]. 14. *Cho‘vva* – qo‘l yuvish uchun suv quyiladigan idish, oftoba (139). 15. *Tutantiriq* (208) – 1). O‘t oldirib olish uchun xizmat qiladigan mayda tarasha, payraha va shu kabilar; tutatqi.

Quruq tutantiriq. [Afandi:] *Qozonni osib qaraydiki, o‘choqqa tutantiriq yo‘q.* (Latifalar). *U suv to‘ldirib tayyorlab qo‘yilgan qumg‘on tagiga olov yoqdi. Hushyor shogirdlari hatto tutantiriq ham tayyorlab qo‘yishgan ekan* (Mirmuhsin. Me’mor)

Ko‘chma ma’noda biror narsaning amalga oshuviga, yurishib ketishiga sabab, omil.

Lingvistik tahlilga olinayotgan ushbu asarda adibning tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i til xususiyatlarini va lug‘at boyligini ko‘rsatishga alohida urg‘u berilgandek tuyulsa-da, yozuvchining asl maqsadi hudud va u yerdagi insonlar hayotiga o‘quvchini yanada yaqinlashtirish bo‘lganligi shubhasizdir. Shu sababdan ham ba’zi o‘rinlarda shevaga xos so‘zlarga asar ichidayoq yozuvchi tomonidan ta’rif berib, ma’nolari tushuntirib o‘tilgan.

Maqolada faqatgina uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasigagina emas, balki kundalik hayotda ishlatiladigan, insonlar turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta so‘zlar ham tahlil qilinadi: 1.*Ovushta* – ikki odamning boshqalar bilmaydigan, o‘rtadagi oldi-berdisi yoki siri. [B. Qobul. Otachiroq. 2021. 94]. 2. *Chochala* – xonadonga yangi kelin yoki chaqaloq kelganda rizqli, nasibali bo‘lsin degan ma’noda boshlari ustidan sochiladigan shirinlik, qand-qurslar yoki shu jarayon bilan bog‘liq marosim nomi. 3. *To‘qqiz balor* – Baxmal tumanida odatda uy ichidagi xonalar shift qismiga nechta balor (uylar shiftiga qo‘yiladigan uzun kesilgan daraxt bo‘lagi, yog‘och) ketganligiga qarab nomlanadi. Masalan, 7 ta balorligi – yetti balor, 11 ta balotligi – o‘n bir balor va h.k. Balorlar doim toq sonda qo‘yiladi. 4. *Turamo* – kech kuz, oktabr-noyabr. 5. *G‘ov* – adabiy tilda to‘siq ma’nosida qo‘llansa-da, qipchoq shevalarida darvozaxona, ya’ni ko‘chadan hovliga kirish qismini anglatadi. 6. *Avli.* Bu so‘zining etimologiyasi haqida aniq ma’lumotllar hozircha aniqlangan emas, lekin ba’zi qipchoq shevalarida qo‘llanilib, yaxshiroq, ulug‘roq degan ma’nolarda ishlatiladi. Misol: *Begunoh balaning ko‘nglini og‘ritguncha, ayollarni haltasiga o‘g‘irlik qilganing avli edi.* [B. Qobul. Otachiroq. 2021. 31]. 7. *O‘trik* – yolg‘on, o‘trikchi – yolg‘onchi. So‘zning etimologiyasiga qaraydigan bo‘lsak, bu so‘z ilk bor Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida keladi va qipchoqlar tilida mavjud ekanligi haqida ma’lumotlar beriladi. 8. *Dajam* – tezkor, dadil insonlar yoki harakatlarga beriladigan ijobiy bo‘yoqdagi sifat. 9. *Voyish* – tok o‘stirish usullaridan biri. Qo‘sh qatorlab (qatorlar orasi 4— 5 m, qatorlardagi tuplar orasi 2,5— 3 m) ekilgan toklar bal. 2,0—2,5 m, kengligi 3 m qilib qurilgan baquvvat yog‘och so‘riga ko‘tariladi. [O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000]. 10. *Alag‘da* – 1) notinch, bezovta (ko‘ngil, xayolga nisbatan).

– yo‘ldosh hamrohlari qurshovida ancha yerga borib qolgan bo‘lsa ham, orqasiga o‘girilib qarardi… ko‘ngli alag‘da edi. (*H.* G‘ulom, Toshkentliklar).

– chol, xayoli alag‘da, nima qilarini bilmay, dasturxon chetini qayirib yonboshladi (X. Sultonov. Onamning yurti).

Turkiy tillardagi uy-ro‘zg‘or leksikasi turkiy xalqlarning tarixiy aloqa va munosabatlari, etnik kelib chiqishlari va tillarning tarixiy taraqqiyoti bir-birlari bilan chambarchas bog‘liqligidadir. Ko‘rinadiki, qadimgi turkiy til yozma yodgorliklarida uy-ro‘zg‘or ishlarida qo‘llangan so‘zlarning aksariyat qismi shevalarimizda faol qo‘llanishda.

Xulosa. Keltirilgan misollardan asar ichida hali etimologik kelib chiqishi ochiqlanmagan va boshqa shevalarda uchramaydigan so‘zlar ham talaygina ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, Baxmal tumanining turk-barloslar yashaydigan hamda ularga yaqin hududlarning areal lingvistik xususiyatlarini, urug‘lar va tillar orasidagi munosabatlarni o‘rganish masalalari hanuz ochiqligicha qolayotganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahodir Qobul. Otachiroq. – Toshkent: 2021.
2. Erkinboyeva N. Jondor shevasidagi uy-ro`zg`or buyum nomlarida o'zlashma qatlam masalasi.
3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: 1960.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING O‘RGANILISHI VA TASNIFI

STUDY AND CLASSIFICATION OF UZBEK FOLK TALES

Samadova Gulnoza Abdikarim qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
gulnozasamadova98@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklarining olimlar tomonidan o‘rganilishi, ularning tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga hissa qo‘shgan tadqiqotchilarning qarashlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.*
Kalit so‘zlar: *ertaklar, motiv, folklor, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar.*

Abstract. *This article provides information about the study of Uzbek folk tales by scientists, their history, the views of researchers who contributed to Uzbek folklore, and their characteristics.*
Key words: *fairy tales, motif, folklore, magic tales, life-household tales, tales about animals.*

Inson tug‘ilibdiki, beixtiyor folklor san’ati durdonasi bo‘lgan ona allasini eshitib, ozgina ulg‘aygach esa ertaklar tinglab o‘z tafakkurida olam manzarasini gavdalantiradi.

“Jahon madaniy merosining bu o‘lmas asarlari bizga insoniyatning nasl-u nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi[1].

Har bir yaratilgan asar muayyan shakl, muayyan mazmun va g‘oyaning ifodasi sifatida ma’naviy mulkka aylanish, madaniy merosdan munosib o‘rin olish uchun harakatlanadi. Xalq og‘zaki ijodi millat ma’naviy xazinasining asosiy va muhim tarkibiy qismidir. Shunday xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri – ertaklardir. Ertaklar folklorning keng tarqalgan ommaviy janrlaridan biri bo‘lib, u bilan xalq hayoti, ijtimoiy turmushi, ma’naviy dunyosi, dunyoqarashi bilan uzviy bog‘langandir.

Ertak janri dunyo xalqlari folklorida ham so‘z san’atining eng ommaviy, eng demokratik turi hisoblanadi. Uning paydo bo‘lishi uzoq o‘tmishga, sinfsiz jamiyatga borib taqaladi hamda o‘zida xalqning tilak va orzularini aks ettiradi.

A. M. Gorkiy o‘zining “Ming bir kecha”ga yozgan so‘zboshisida ertak janri va uning g‘oyaviy-badiiy ahamiyati to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildirgan edi.

“Ming bir kecha” xalq og‘zaki ijodining eng yaxshi va monumental namunasidir. Bu ertaklar mehnatkash xalqning “shirin xayollari zavqiga”, erkin o‘yinidan zavqlanishiga ifoda qiladi, sharq xalqlari fantaziyasining jo‘sh urgan kuchini ifoda qiladi. Bu suxandonshunoslik juda qadim zamonlarda vujudga kelgan, uning rang-barang ipaklari butun yer yuziga yoyilib, uni hayron qolarlik darajada go‘zal so‘z san’ati bilan qoplagan.”[2]

A. M. Gorkiyning “Ming bir kecha” ertaklariga bergan bahosi o‘zbek xalq ertaklariga ham taalluqlidir. Chunki ertak janriga xos xususiyat barcha xalqlar ertaklari uchun mushtarakdir. Bu narsani ertaklarning syujeti, kompozitsiyasi, g‘oyaviy mazmunida ko‘rish mumkin.

O‘zbek xalq ertaklari Buyuk Karimov[3], Fattoh Abdullayev, Mansur Afzalov, Komiljon Imomov, G‘ayrat Jalolov, Xudoyberdi Egamov, Tojiboy G‘oziboyev, Ro‘zimboy Safarov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o‘g‘li, Husanboy Rasul o‘g‘li, Nurali Nurmat o‘g‘li, Rahmon buva kabi o‘nlab ertakchilardan ertaklarni yozib olganlar, tahlil qilganlar va nashrga tayyorlaganlar.

O‘zbek ertakshunosligida birinchi bo‘lib M.Afzalov ertaklarni fantastik va realistik turlarga bo‘lib, hayvonlar haqidagi ertaklarni fantastik ertaklar tarkibiga qo‘shib yuborsa-da, bu tasnifiga

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga (2019-yil 5-10-aprel) bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan
[2] «Минг бир кеча», 1-том, Тошкент, 1959 йил, 4-бет.
[3] Каримов Б. Ўзбек халқ эртакларининг баъзи бир хусусиятлари ҳақида. ЎТВА. 1995. № 5–6. – Б. 57–62.

rioya qilmay, hayvonlar haqidagi ertaklarni alohida o‘rganadi va shu zaylda o‘zbek xalq ertaklarining uch ichki xilga egaligini e’tirof etadi[1]:

Bularni:

a) hayvonlar haqidagi ertaklar;

b) sehrli-fantastik ertaklar va

v) hayotiy -satirik ertaklar tarzida ifodalaydi.

Uning shogirdi K. Imomov esa ustozi tasnifiga asoslanib, o‘zbek xalq ertaklarini sehrli va hayotiy singari ikki turga bo‘lib, hayvonlar haqidagi ertaklarni sehrli ertaklar silsilasida o‘rganmoqni ma’qul topadi. O‘z navbatida, hayotiy ertaklarni ham jangnoma tipidagi, ishqiy-sarguzasht tipidagi va hajviy kabi uch ichki xilini farqlab ko‘rsatadi[2].

S. Jumayeva va Z. Usmonovalarning tadqiqotlari o‘zbek xalq ertaklari silsilasida hayvonlar haqidagi ertaklar alohida guruhni tashkil etishini, shuningdek, novellistik ertaklar ham talaygina ekanligini yorqin tasdiqlaydi.

Ana shu mulohazalarga tayanib, hozircha o‘zbek ertaklarining uch ichki turini farqlab o‘rganish maqsadga muvofiq.

Bular quyidagilar:

1. Sehrli-fantastik ertaklar.

2. Hayvonlar haqidagi ertaklar.

3. Maishiy-hayotiy ertaklar.

Sehrli-fantastik ertaklar. Bu tipdagi ertaklar batamom xayoliy uydirma asosiga qurilganligi, ibtidoiy insonning animistik tasavvur tushunchalarini ifodalab kelishi jihatidan boshqa turdagi ertaklardan keskin farq qiladi.

Sehrli-fantastik ertaklarda voqelik favqulodda shiddatli sirli tusda, g‘ayrioddiy muhitda, sehr-jodu ishtirokida, g‘ayritabiiy personajlar hamkorligida yuz berishi bilan xarakterlanadi. Ularda voqea yuz berayotgan makon va zamon tilsimli, sirli bo‘ladi. Jonsiz narsalar jonlantiriladi va ular insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadi.

Sehrli-fantastik ertaklarda evrilish fantastik motivi yetakchidir. Shunga ko‘ra qahramon sehr-jodu yordamida turli shakllarga kiradi, o‘z qiyofasini o‘zgartirish imkoniga ega bo‘ladi. Ertak qahramonining turli-tuman narsa-buyumlarga, hayvon va parrandalarga aylanishi metamorfoza hodisasi sanaladi. Ularda qahramonlar sehrli-tilsimli predmetlar yordamida o‘z istak-tilaklarini ro‘yobga chiqaradiki, buning zamirida ibtidoiy insonlarning magik tasavvur tushunchalari yotishidan darak beradi.

Sehrli-fantastik ertaklarda dev, pari, jodugar, alvasti, jin singari g‘ayritabiiy personajlar demonologik obrazlar ishtirok etadi. Ular sehr-jodu kuchiga ega, kerakli narsa-hodisalarni, jonivorlarni istagan paytda o‘z sehru jodusi bilan bordan yo‘q, yo‘qdan bor qila biladi, ularni o‘zi xohlagan qiyofaga sola oladi. Bunday xususiyat Xizr, Simurg‘, yalmog‘iz kampir va ajdar (uch boshli, yetti boshli) kabi mifologik-personajlarga ham xos.

Biroq Xizr, Simurg‘ personajlari hamisha homiy sifatida ijobiy mohiyatga ega. Yalmog‘iz kampir esa goh homiy sifatida ijobiy fazilatlar sohibi, goh o‘ta shafqatsiz, har qanday razillikdan qaytmaydigan, hatto odamxo‘rlikdan huzurlanadigan salbiy personaj sifatida harakat qiladi. Bu personajlarning barchasi ibtidoiy ajdodlarimizning qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalarini o‘zlarida badiiy modellashtirgan.

Shuni eslatish o‘rinliki, sehrli-fantastik ertaklarning mazmun-mundarijasini tashkil etuvchi motivlar g‘oyat ko‘p va behad rang-barangdir. Ular orasida ayniqsa, sayohat motivi, sarguzasht motivi, sinov motivi, tush motivi, evrilish, befarzandlik, tasodifiy homiladorlik, keksalikda farzand ko‘rish, g‘ayrioddiy tug‘ilish va ulg‘ayish, yetimlik, o‘gaylik singari motivlar ko‘p uchraydi.

Sehrli-fantastik ertaklarning o‘ziga xosligi ulardagi personajlarning alohida aniq nom bilan atalmasligida ham ko‘rinadi. Zero, bu personajlarning aksariyati biror belgisiga ko‘ra vositalari va

[1] Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Т.: Фан, 1964.

[2] Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Т.: Фан, 1991. –Б. 67.

uslubiy jilolarga egaligi bilan ajralib turadi va xalq ertaklarining eng qadimiy na’munalari sifatida nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Bu tipga mansub ertaklarning yaratilishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo‘lgan. Ularda hayvonlar yetakchi personajlar bo‘lib, insonlar qiyofasida tasavvur etilgan va badiiy jonlantirilgan. Shunga ko‘ra ularning syujetida inson obrazi keyingi o‘rinda turadi, ko‘p hollarda voqelikka inson aralashmaydi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar dramatik ijroga asoslangan; professional ijrochilar tomonidan hayajonli qilib aytib beriladi. Aytish jarayonida ijrochi ertakdagi hayvon-personajlarning turfa harakatlari va ovozlariga taqlid qiladi, ertak tarkibidagi she’riy-parchalar bo‘lsa, ularni kuyga solib ijro qiladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar o‘tmishda axborot berish maqsadida kattalarga aytilib kelingan bo‘lsa, XX asr o‘rtalaridan etiboran kattalar tomonidan bolalarga aytiladigan bo‘ldi.

Maishiy-hayotiy ertaklar. Bu ertaklarning mazmuni bevosita real hayotga bog‘liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik hayotiy uydirma asosida tasvirlanadi, hayotiy real kishilar bosh qahramon bo‘lib keladi. Maishiy-hayotiy ertaklar ortiqcha bo‘lib keladi. Maishiy-nayotiy ertaklar ortiqcha uydirmalardan deyarli xoli bo‘lib, ularda ayrim hollardagina fantastik detallar uchrashi mumkin.

Maishiy-hayotiy ertaklarda voqelik makoni aniq shahar yoki qishloqda kechadi, aniq qahramon ishtirokida yuz beradi. Ular mazmun-mundarijasi va g‘oyaviy yo‘nalishi, obrazlariga ko‘ra sehrli-fantastik va hayvonlar haqidagi ertaklardan farq qiladi. Ularda aniq shaxsning o‘z aql kuchi, tadbirkorligi, chidam va matonati, yuksak insoniy fazilatlari tufayli murod-maqsadiga yetishuvi ko‘rsatib beriladi. Shu sababli maishiy-hayotiy ertaklar syujetini ijtimoiy-maishiy mazmundagi voqelik tashkil etadi. Ularning aksariyatida jamiyatdagi ijtimoiy kamchiliklar, nosozliklar, mehnat ahlining hukmron tabaqa vakillaridan noroziligi umumlashma obrazlarda ochib beriladi. Bunday ertaklarning aksariyati tanqid qilishga asoslanganligi tufayli shartli ravishda hajviy ertaklar deb yuritiladi. Biroq aytish joizki, maishiy ertaklarning barchasi ham tanqidga asoslanmagan, shu vajdan bunday ertaklar o‘zbek folklorshunosligida shartli ravishda tanqidga asoslangan ertaklar tarzida yuritiladi.

B. Sarimsoqov ertak janrini poetik tabiati, strukturasi, voqelikni aks ettirish nisbati, obrazlar dunyosi jihatidan hayvonlar haqidagi ertaklar, majoziy, sehrli va maishiy ertaklarga bo‘lgan. Aniq va puxta o‘ylab amalga oshirilgan tasnifda ichki turga mansub ertaklarning o‘zaro farqi yoki yetakchi xususiyatini aniqlovchi muhim belgilari tadqiqotchining e’tibor markazida bo‘lgan.

Ba’zi tasniflarda ertaklar sehrli-fantastik, majoziy, hayotiy ertaklar, maishiy-satirik ertaklarga bo‘lingan. Bu tasnifda sehrli-fantastik, majoziy ertaklardan tashqari tasnifga tortilgan ertaklar o‘zaro bir-biriga o‘xshash, teng bo‘lib, tom ma’nodagi maishiy ertaklarni anglatadi. Tasnifda hayvonlar haqidagi ertaklar tushib qolgan yoki ataylab majoziy ertaklarga qo‘shib yuborilgan, qolaversa, hayvonlar haqidagi ertaklar sehrli ertaklarga nisbatan qadimiy bo‘lgani uchun tartiban ikkinchi o‘rinda emas, aksincha, birinchi qatorda ko‘rsatilmog‘i lozim edi. Satirik ertaklar esa maishiy ertaklarning ichki guruhidir.

Shuningdek, ajratib ko‘rsatilgan hayotiy-satirik ertaklar esa ichki turlarga mansub alohida tiplar sanaladi. Mazkur tip ertaklarning badiiy-shakliy tuzilishi hamda obrazlar tizimi, estetik funksiyasi va tabiati ularni maishiy ertaklarga qarashli ekanini tasdiqlaydi. Buni har ikki tip ertaklarda mavjud voqea va hodisalarning sodda va lo‘nda, ayni paytda, hayotiy motivlarda ta’riflanishi, ta’limiy-estetik funksiyaning bir xilligi isbotlaydi.

G‘. Jalolov ertaklarni uch turga ajratib o‘rgangan. Bular: majoziy ertaklar, sehrli-fantastik ertaklar va xayotiy-satirik ertaklar. Bu yerda hayvonlar haqidagi ertaklar tushib qolgan yoki ularni majoziy ertaklarga qo‘shib yuborilgan[1].

X. Egamov esa o‘zbek xalq ertaklarini quyidagicha tasnif etgan:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar:

a) majoziy ertaklar;

b) bevosita hayvon hayoti haqidagi ertaklar.

[1] Жалолов Г. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: “Фан”, 1976.

Bu yerda a bilan b guruhiga doir ertaklar o‘zaro o‘rin almashganda mantiqan to‘gri bo‘lar edi.

2. Sehrli-fantastik ertaklar:

a) arxaik ertaklar;

b) klassik ertaklar.

3. Hayotiy-maishiy ertaklar:

a) sotsial-antagonistik ziddiyatlarni ifoda etuvchi ertaklar;

b) xalq turmushidagi nuqsonlar ustidan kuluvchi ertaklar. Ko‘rinadiki, mazkur tasniflar turli-tuman tuzilganligi bilan o‘zaro farqlanib turadilar. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi, obrazlar tizimi, badiiy tasvirlash mezoni, syujet tuzilishiga ko‘ra uch turga bo‘linadi. Bular: hayvonlar xaqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar.

M. Afzalov o‘zbek xalq ertaklarini tasniflash jarayonida ayrim motivlar haqida umumiy mulohazalarini bildirgan[1]. G‘. Jalolov “O‘zbek xalq ertaklari poetikasi” kitobida ertaklardagi motiv va obrazlar masalasiga alohida bir fasl ajratgan: Olim safar, mevadan homilador bo‘lish, ota vasiyati, tush, qiyofani o‘zgartirish, uydan haydalish motivlarini alohida-alohida izohlaydi[2]. X. Egamov ertakchilik an’analari aloqalariga doir tadqiqotida motiv va syujet, ko‘chib yuruvchi motivlar, ko‘chib yuruvchi syujetlar muammosini o‘rgangan, motiv va sujet munosabat iga doir kuzatishlarini turkiy xalqlar ertaklariga tatbiq qilgan. J. Yusupov ertak va marosim munosabatlarining tarixiy-tipologik tahlilini xorazm ertaklari misolida ko‘rsatib beradi. Sh. Turdimov tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarda e’tibor qaratilgan shart-sinov motivlarining asosiy qismi «alplik tizimi tushunchasi bilan bog‘liq holatda tushuntiriladi[3].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, xalqimizning asriy orzularini ro‘yobga chiqargan mustaqillik ma’daniy merosga bo‘lgan munosabatni tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlar tizimini keng ko‘lamda tadqiq va targ‘ib etishning misli ko‘rinmagan imkoniyatlari ochildi.

Xususan, o‘zbek xalq ertaklarini tadqiq etishda ajdodlarimiz tafakkurining taraqqiyoti bilan bevosita aloqadorlikda o‘rganish, folklor xalq tarixi munosabatini chuqur yoritib berish, o‘zbek folklorining dunyo madaniyati rivojidagi o‘rnini belgilashga doir yangi izlanishlar, tadqiqotlar yaratila boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga (2019-yil 5–10-aprel) bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.

2. “Минг бир кеча”, 1-том, Тошкент, 1959 йил, –В. 4.

3. Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Т.: Фан, 1964.

4. Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: 1999.

5. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Т.: Фан, 1991. –Б. 67.

6. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., «Musiqa», 2010. –B.368.

7. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. - O‘zbek folklori / darslik: Toshkent – 2020.

8. Жалолов Г. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: “Фан”, 1976.

9. Каримов Б. Ўзбек халқ эртакларининг баъзи бир хусусиятлари ҳақида. ЎТВА. 1995. № 5–6. – Б. 57–62.

O‘ZBEK LAPARLARI VA TURK KARSHILIKLI MANILARINING QIYOSIY TAHLILI

[1] Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Т.: Фан, 1964.

[2] Жалолов Г. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: “Фан”, 1976.

[3] Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. - O‘zbek folklori / darslik: Toshkent – 2020.

COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK LANGUAGES AND TURKISH ANTI-TURKIAN MEANINGS

Turobova Mohinur Ravkat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola o‘zbek va turk laparlarining ilmiy-nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda lapar va karshilikıi manining o‘xshash va farqli jihatlari hamda qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, har ikki qardosh xalq urf-odati, madaniyati bilan bog‘liq ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Lapar, karshilikli mani, bilaguzuk, oltin uzuk, soy, buloq.*

Abstract: *This article is devoted to the scientific-theoretical study of Uzbek and Turkish lapars. In this article is given information about similar and different aspects of lapar and as well as a comparative analysis of this musical genre. Also have informations related to the customs and culture of both brother nations.*

Key words: *mutual mani, bracelet, gold ring, bourn, spring.*

O‘zbek xalqi qadimiy madaniyati, tarixi, urf-odati, an’ana, marosim va betakror so‘z san’ati bilan boshqa xalqlardan yaqqol ajralib turadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbek folklorida hozirga qadar “lapar” atamasining etimologiyasi (kelib chiqishi) haqida farqli qarashlar uchraydi. Shu bois, ushbu atama anglatgan ma’no shu kungacha mavhumroq bo‘lib kelmoqda. Ammo Nozim Qosimov lapar atamasini tojik tilidagi “labbar”, ya’ni biror gapga javob qaytarish ma’nosidagi so‘zdan vujudga kelgan degan fikrni olg‘a suradi. Turkiy tillarda tojik tilidagi lab so‘ziga “burdan” fe’lining hozirgi zamon o‘zagini qo‘shish orqali javob qaytarish ma’nosini ifodalovchi “labbar” so‘zi yasalgan. Biroq so‘z o‘rtasida ikkita jarangli “b” o‘zaro reduksiyaga uchrab, ular o‘rnida yagona “p” tovushi qo‘llanila boshlagan. Natijada. “labbar” so‘zi “lapar” shakliga kelib qolgan [Qosimov N, 2008:10].

Ilgari laparlar “qizlar bazmi”da ijro etilgan. Ijro tarzi jihatidan lapar ikki, uch yoki yakka bir ijrochi tomonidan ham aytiladi. Laparning o‘ziga xos janr xususiyatlaridan biri – ularning bir-biriga zid ikki jinsga mansub kishilar tomonidan ijro etilishi hisoblanadi. O‘zbek xalq laparlari turkiy xalqlar she’riyatida qadimdan yetakchilik qilib kelgan barmoq tizimida yaratilib kelinadi. Barmoq tizimi esa misralardagi hijolarning miqdoriy tengligiga asoslanadi. O‘n bir hijoli laparlar 4+4+3 nisbatidagi turoqlardan tashkil topgan laparlar ko‘p uchraydi. O‘zbek xalq laparlarida o‘n ikki hijoli vazn ham ko‘p qo‘llaniladi va ular 4+4+4 nisbatidagi turoqlardan tashkil topgan [Qosimov N, 1998]. Xo‘sh, turk xalqida laparga qanday ta’rif beriladi?

Yoğun bir çalışma temposunun ardından boşta kalan zamanlarında geleneksel yaşamlarının bir parçası sayılan çeşitli törenleri, düğünleri, eğlenceleri ve önemli olayları kutlarlar. Bu türden gelenekler içerisinde halk edebiyatının bir çeşidi kabul edilen “mani söyleme geleneği”nin de ayrı bir yeri vardır. Dolaysıyla, bu şiir tarzı gelenekler içerisinden çıkmıştır, denilebilir. Zamanla, kırsal kesimde yaşayan toplulukların karşı karşıya bulunduğu sosyal, ekonomik ve siyasal dönüşümlerin manilere yansıdığına tanık oluyoruz. Mani sözcüğü dört mısradan oluşan ve yedili hece vezni ile düzenlenen kısa bir halk şiiridir. Birinci ikinci ve dördüncü mısraları kendi aralarında kafiyeli üçüncü mısraları serbest olur. Genellikle aşk ve tabiat konularını anlatırlar. Mani kelimesi (Arapça ma’na, ma’ni’den) manalarını verir [Süreyya Özbek, 2010: 20].

Tarjimasi: “Og‘ir ishlardan so‘ng yoki bo‘sh vaqtlarida madaniy hayotning bir parchasi sanalgan turli xil marosimlar, to‘ylar, bayramlar va muhim voqealarni qutlarlar. Bu madaniyatlarni ichida xalq adabiyotinin bir turi sifatida qaralgan “lapar so‘ylash madaniyati” ning ham alohida o‘rni bor. Shuningdek, bu she’r turi urf-odatlardan paydo bo‘lgan. Qadimda insonlarning bir birlariga bo‘lgan munosabatlari, yashash tarzi aynan “mani” larga ko‘chganini ko‘ramiz. “Mani” so‘zi to‘rt misradan tashkil topgan va yetti hijodan tuzilgan qisqa xalq she’rlaridir. Birinchi,

ikkinchi va to‘rtinchi misralari o‘z orasida qofiyali uchinchi misrasi erkin misradir. Odatda sevgi va tabiat mavzulari ko‘p uchraydi. “Mani” so‘zi arabcha “ma’no” demakdir.

Ko‘rib turganimizdek, ikki qardosh xalq orasidagi urf-odatlar deyarli o‘xshash. Lapar tojik tilida so‘zga javob qaytarish, ya’ni “hozirjavoblik” so’zidan kelib chiqqan deya qaralsa, turklarda esa arab tilidadi “ma’no” so’zidan kelib chiqqan, deya qaralyapti. Misollar:

Kız	Qiz
Hey pınara varanlar,	Ey, buloqqa borganlar,
Altın yüzük bulanlar,	Oltin uzuk topganlar,
Muradına ermesin,	Murodiga yetmasin,
Bileziğimi bulanlar.	Bilakuzugimni topganlar.

Oğlan	Yigit
Hey pınara varmadım,	Ey, buloqqa bormadim,
Elim, yüzüm yumadım,	Qo‘lim yuzim yuvmadim,
Terzi kız kolun kırılsın,	Tikuvchi qiz, qo‘ling sinsin,
Ben bilezik bulmadım.	Men bilakuzuk topmadim.

Yuqorida keltirgan karshilikli manidan ma’lum bo‘lmoqdaki, turk xalqining azaldan turli to‘ylar, bayramlar, marosimlarda yigit-qizlar davrani yanada qizdirish uchun shunday aytishuvlar aytganlar. Shu jumladan, o‘zbek xalqining “Bilaguzugim” lapari ham ushbu karshilikli maniga juda o‘xshash.

Qiz
Soy bo‘yida turgan yigit,
Qosh-u ko‘zini suzgan yigit,
Bilaguzum olgan yigit,
Endi bergin bilaguzugim.

Yigit
Soy bo‘yida turganim yo‘q,
Qoshu ko‘zimni suzganim yo‘q,
Bilaguzuging olganim yo‘q,
Olganlar bersin bilaguzuging.

Har ikkala laparda ham yigit va qiz suv bo‘yiga bormoqda va u yerda bilaguzuk va uzuklarini yo‘qotmoqdalar. Ikkala laparda ham suv bo‘yiga borilmoqda. Turkiy xalqlarda azaldan suv muqaddas hisoblangan. Suvga tuflamaslik, uni toza saqlash ham muhim odatlardan sanalgan. Ota-bobolarimizning “tushingni suvga ayt”, “siringni suvga ayt” degan gaplari ham bejiz emas. Suv insonni tinchlantiradi, yengillashtiradi, ichimizdagi g’uborni oladi. Ushbu lapardagi soy, buloq detallarining ishtiroki ham aynan shunga borib taqaladi. Ikkala xalq aytishuvida ham yigit va qiz suvni oldiga borib u yerda aytishuv aytib bir-birlari bilan dardlashib, suhbatlashmoqdalar. O‘zbek folklorida suv – yorug‘lik, baxt kabi bir qator ramziy ma’nolarni bildiradi. “Dunyoning ko‘pgina davlatlarida suvdan o‘tish nikoh ramzi hisoblanadi” [Turdimov, 2020: 129]. Bilamizki, buloqdan toza suv chiqadi. Toza suvga yangi boshlanajak oilaga sof tuyg‘ular bilan qadam qo‘yish deb qarasak bo‘ladi.

Bilakuzukni ayollar o‘ng qo‘lga taqadilar, o‘ng qo‘l bilan barcha yaxshi amallarni bajaramiz. Bilakuzukning o‘ng qo‘lga taqilishini yaxshi ishning boshlanishi, deb ham qarash mumkin bo‘ladi. Oltin uzuk esa nikoh marosimidagi muhim atributlardandir. Shu jumladan, dostonlardagi tushda uzuk taqib bir- biriga bog‘lanish lavhalari ham ushbu fikrga yaqqol misoldir. Azaldan turkiy xalqlarda, xususan, dostonlarda ham malikalar to‘yida boshdan oyoq zeb-ziynatlar taqqanliklari va ularning juda muhim ekanini bilamiz. Yuqoridagi har ikkala aytishuvda ham bilaguzik detalining kelishi, hamda qiz uni suv oldida tushirib qoldirishi ushbu aytishuvning o‘xshashligini ko‘rsatsa, laparda yigit qizning bilaguzugini olgani, karshilikli manida esa yigit bilaguzukni olmaganini aytishi farqli jihatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Н. Фолклор мусиқа ижрочилиги – Тошкент: Талқин, 2008, Б. – 10.
2. Қосимов Н. Ўзбек халқ лапарлари жанр спесификацияси ва бадиияти диссертацияси – Тошкент: Ўзб. Рес. фанлар академияси. 1998.
3. Özbek Süreyya. Kıbrıs Türk toplumunda sosyal, ekonomik ve siyasal dönüşümlerin manilerde irdelenmesi yüksek lisans tezi – Ankara: 2010, s. – 20.
4. Алавия М. Оқ олма қизил олма тўплами- Тошкент: Ўзб. Рес.фанлар академияси 1972,100-бет.
5. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz – Toshkent: O‘zb. Res. fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2020. B. – 129.

NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA MIFOLOGIK TALQIN NAMUNALARI

EXAMPLES OF MYTHOLOGICAL INTERPRETATION IN NAZAR ESHONQUL'S WORKS

Solijonova Mohina Abdujabbor qizi
Andijon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. *Bilamizki , mif va mifologik qarashlar qadim davrlardan beri mavjud bo`lib , ular yozuvchi tomonidan asarga olib kirilganda badiiy estestik zavq va voqelikni gavdalantirish uchun muhim omil bo`lib xizmat qiladi.*

Nazar Eshonqul asarlarida ham mifologik talqin yetkchilik qiladi .Bugungi maqolada adib asarlaridagi mifologik qarashlarni ko`rib chiqamiz .

Kalit so‘zlar: *mif , hikoya , roman , Iblis , allyuziya, adabiyot.*

Abstract. *We know that myths and mythological views have existed since ancient times , they were brought into the work by the writer , they serve as an important factor for embodying artistic aesthetic pleasure and reality . Nazar Eshanqul also has a mythological interpretation in his works.*

Key words : *myths , story , novel , Demon , allyuziya , literarure.*

Kirish. Adabiyot insonning ma`naviy va ruhiy kamolotini oziqlantiruvchi omildir . Har bir yozuvchi o`z asarida yangi bir g`oyaviy tushunchani kitobxonga taqdim etishga harakat qiladi . Nazar Eshonqul ham o`zining hikoya va qissa , ayniqsa , romanlari bilan xalqimiz ko`nglidan chuqur o`rin olgan . Uning asarlarida modernistik qarashlar yaqqol namoyon bo`ladi . Adib ko`plab hikoyalar : “ Ajr ”.

“Tobut ” , “ O`lik mavsum ” , “ Zulmat saltanatiga sayohat ” , “ Shamolni tutib bo`lmaydi ” kabi hikoyalarida mifik qarashlarni o`zgacha yo`sinda yorita olgan.

Bundan tashqari , adib qissalarida ham o`zining alohida yondashgan uslubini ko`rishimiz mumkin.

Ma`lumki , muayyan ijodkorning mahorati va o`ziga xosligi uning uslubida yaqqol namoyon bo`ladi . “ Uslub – odam ” ( J. Byuffon ) degan qarashning ilmda ko`p bora ta`kidlanishi ham uslubda ijodkorning shaxsi va voqelikni bayon qilish usuli aks etishidan darak beradi . Nazar Eshonqul qissalari uslubida muallifning badiiy mahorati namoyon bo`ladi . Adib qissalari ulardagi voqealarning o`zgacha badiiy ifodasi , kompozitsion qurilishi so`z qo`llash jihatlari bilan o`zbek realistik qissalarida tubdan farq qiladi . Shuningdek , ijodkor qissalari uslubida folklor bilan mumtoz adabiyotning ham ta`siri seziladi . Yozuvchining “ Tun panjaralari ” qissasida Alisher Navoiy qalamiga mansub epigrafni ham ko`rishimiz mumkin :

Boshimg`a , ko`rki , ne tun keltirubsen ……..

Ijodkor uslubiga xos bo`lgan allyuziya ( " lotincha allusion – ishora , xazil ; barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy , maishiy , tarixiy yoki adabivoqelikka ishora qilishga asoslangan stilistik usul " [ Куронов Д ….Мамажонов З .., Шералиева М , 2013 : 26 . ] orqali qissalarning g`oyaviy -mazmuniy kengligi , muallif aytmoqchi bo`lgan fikrlar xilma – xilligi ta`minlangan .

Dastavval adibning hikoyalariga e` tibor qaratadigan bo`lsak , hikoyalar hajman ixcham bo`lsa – da , mazmunan butun bir tarixiy voqelikni qamray oladi deyishimiz mumkin . " Sibizg`a nolasi " hikoyasi , mif – hikoya bo`lib , unda tarixdan barchamizga ma`lum bo`lgan – Iskandar Zulqarnayn haqidagi rivoyat asarga sinkretik tarzda olib kirilgan , Iskandar – buyuk hukmdor bo`lib , u mifologik qarashlar bo`yicha boshida shoxi bo`lgan va har gal soch va soqolini oldirganda , unga xizmat qilgan sartaroshni o`limga hukm etgan . Oradan yillar o`tib yurtida so`nggi sartarosh qoladi , u ham Iskandarni boshidagi shoxni ko`rib yuragi yorilay deydi , sartaroshni o`ldira olmaydi , biroq endi u abadiiy saroyda yashashga majbur bo`ladi . Har doim u sartarosh dardini quduqqa ayatadi , uning yonida bo`y cho`zgan qamishlar bu sirni butun olamga kuy qilib yoyadilar . Hikoyaga diqqat qiladigan bo`lsak nega aynan " Sibizg`a nolasi " – chunki u ham nayning bir turi ya`ni barcha sirlarni oshkor etuvchi vositaviy unsur bo`lib xizmat qilgan . Hikoyada – Iskandar kelbatiga shunday tavsif berilgan ;

Iskandar shu darajada ilohiy zotki , unga bandasining qo`li tegsa , aqldan ozishi turgan gap , uning Axuramazdaga hos bo`lgan salobati , yuzidan , boshidan taralyatgan nur har qanday odamni zabonsiz qilib qo`yadi .

[Nazar Eshonqul Saylanma I .2022. 405 .]

Berilgan fikrdan anglashimiz mumkinki ,yozuvchining ushbu hikoyasi boshdan oxir to`la mif bilan birlashib ketgan , voqelikni aniq bayon qilish uchun Iskandarni yuksakka ko`targan . Bilamizki , Axuramazda – zardushtiylikning muqaddas xudosi bo`lgan , tinchlik , osoyishtalik ramzi sifatida ulug`langan . Iskandar esa hikoyada unga tenglashtirilgan , Hikoyada yozuvchi asarni o`qishla emas , fikrlash zamon va o`tmish bilan bog`lashga ham ishora qiladi .

Atoqli adabiyotshunos Izzat Sulton ta`kidlaganidek : " badiiy asar qahramonlarning ta`sir kuchi – ularning ijobiy yoki salbiy bo`lishida emas , balki bu qahramonlarning hayotiyligida ,ya`ni hayot haqiqatiga mosligidadir " – deydi .

Yozuvchi ushbu hikoyasi orqali o`z ichida aytmoqchi bo`lgan , so`zlarni ayta olmayotganiga ishora qilgan bo`lishi ham mumkin. Bekorga adib boshidanoq " Qamishlar nolasiga quloq tut " deya ishora etmagan .O`sha davr vaziyatidan olib qaraydigan bo`lsak , jamiyatdagi voqeliklar ham aynan asarga ushbu afsonani olib kirishga turtki bo`lgandir .

So`ng adibning qissalariga fikrimizni qaratadigan bo`lsak , Xususan , " Qora kitob" qissasida ham mifopoetik talqinni ko`rishimiz mumkin . Asarda qahramon o`z o`g`lining Iblis uchun qurbon bo`lishiga ham roziligini uning kundaligidan o`qib qoladi . Kundalikda yozilishicha : o`g`il Iblis bilan birlashishga qaror qiladi . O`g`il o`zini to`g`ri yo`ldaman deb o`ylaydi , biroq uning qalbiga Iblis kirib bo`lgandi .

" Bu yo`lda qurbon bo`lsang arziydi. Axir , Ibrohim ham o`g`lini qurbon qilmoqchi bo`lgandi " . [Nazar Eshonqul . Saylanma II .2022.]

Ko`rinadiki , bu jumlada Ibrohim alayhissalomga ishora bor bo`lib , U o`z o`g`lini qurbonlik qilmoqchi bo`lgan lahzada Yaratgan tomonidan qo`chqor tushiriladi va Ibrohim alayhissalom qo`chqorni qurbonlik qiladi . Ammo qissada Iblis so`ziga ko`nib unga butkul ishonib qolgan o`g`il tasviri bor edi , uning ko`ngli va vujudiga Shayton o`rnashib olgandi .

Adib insoniyat va Iblis o`rtasidagi bunday kurash abadiy ekanligini asarda yana bir bor ta`kidlaydi . qissa qahramoni farzandlarining xató qilayotganini ko`rib , butkul tushkunlikka tushib qolgan kunlarda Odam Atoni ucharatadi . Ular orqali asarga yana bir mifik vosita va sujet olib kiriladi . Bu bevosita Odam Ato va Momo Havo qissasi bilan bog`liq edi . Ular taqiq etilgan mevani yeb jannatdan quvildilar. Iblis ularni o`z nayrangi bilan yo`ldan ozdirdi, Yaratgan esa ularni Yerga

badarg`a qildi, shundan buyon insonyatning jismiga Iblis kirib keldi va yovuzlik va qabihliklarga unday boshladi . Qissa so`nggi juda ma`nodor va mazmunli jumlalar bilan yakunlanadi .

Asbob buzilsa , uni yaratgan ustaga olib borib tuzatamiz . Odamzodning ham buzilgan qalbini uni Yaratgan ustagina tuzata oladi . Kim ustalikka da`vogar bo`lsa , kim uni men tuzataman desa, uni faqat yana ham ko`proq vayron qilishga olib keladi . Har kim o`zi yaratgan narsaga ustalik qilgani yaxshi .

[Nazar Eshonqul . Saylanma II . 2022. 574].

Nazar Eshonqulning mahorati shundaki, Shayton insonyat bilan doimo yonma -yon bo`lib , kelajakni fojealarga duchor etishini juda ta`sirli tasvirlaydi . " Men xanjarimni tutgancha Iblisga yaqinlashdim va uning qo`lidagi ko`rib tong qotib qoldim . U hozirgina kemaga chiqqan erkak va ayolning yonida turar , qo`lida huddi ularniki kabi go`dak bore di . Ayol Bolani bir chetga o`tirgizib , ust – boshini siqa boshladi . Aftidan , Iblis shuni kutib turgan edi , qo`lidagi bolani hozirgina ayol qo`ygan bolaning oldiga o`tirgizib , ayolning bolasini qop- qora qo`yniga yashirdi . Ust – boshini siqib bo`lgan ayol Iblis qo`ygan bolani olib , eri izidan kema ichidagi hujralardan biriga kirib ketdi . Iblis qo`ynidagi Bolani pastga uloqtirar ekan , xunuk va g`olibona qah – qah urdi " . [Nazar Eshonqul . Saylanma II . 2022] .

Ko`rinadiki , muallifning badiiy fantazyasi diniy syujetga ishora qiladi va bu syujet motivi asosida Shayton obrazining insonyat uchun doimiy havf ekanligini o`zgacha badiiy ifoda etadi.

Qo`shimcha qilib aytadigan bo`lsak , muallifning nafaqat hikoya va qissalari mifopoetika bilan yo`g`rilgan , uning romanlarida ham mifologik talqinni ko`rishimiz mumkin . Misol tariqasida , ko`plab kitobxonlar tomonidan sevib mutoalaa qilinyotgan " Taqiq mevasi "romaniga ham yozuvchi mifni sinkrteik holda olib kirgan . Asar boshdan ohir mif asosida shakllangan . Asar ikki novelladan iborat bo`lib : birinchi qism -Havo , ikkinchi qism – Malak deb nomlanadi . " Romandagi Odam Ato va Momo Havoning asarga ko`chma , ya`ni sujet timsolida berilishi , ularning Jannatdan quvilishi , Shayton obrazining romanda keltirilishi hamda Odam Ato to`g`risidagi afsona – mif muallif nutqi orqali asarga singdirib boriladi . Bu afsona asarning kompozitsion qurilishida muayyan o`rin tutib , qahramonlar hayoti va taqdiriga qiyosan falsafiy mohiyat kasb etadi .

Asarga epigraf qilib Alisher Navoiyning " Layli va Majnun " dostonidan bayt keltiriladi;

Bu tifl ilgiga bir varaq ber ,
Lekin manga ishqdin sabaq ber ! (X bobdan)

Muallif aynan Alisher Navoiyning ushbu baytini olganiga sabab , bu jumlalar orqali asar ruhiyati va mohiyati qisman bo`lsa –da ochib beriladi . Nazar eshonqulning ko`p qissa va hikoyalarida ham mumtoz adabiyotga morajaat etilganligini guvohi bo`lamiz . Bu roman uchun ham muallif Alisher Navoiyning asaridan parcha bergan holda o`z romanini boshlagan .

Havo deb nomlangan qismda : Odamning Havoga bo`lgan tuyg`ulari va Ma`bud deya ta`rif etilgan Shaytonning " taqiqlangan mevani " uzishga undashi hamda sahnada " Jannatdan quvilish " tomoshasi orqali asarga singdirilganini guvohi bo`lamiz.

Bilamizki , Odam Ato va Momo Havo jannatdan man etilgan mevani yeyishlari tufayli badarg`a qilingan . Yozuvchining bu romani nafaqat adabiyotda , balki folklorda ham muhim ahamyat kasb etadi . Mif , din va adabiyot negizi ostida birlashgan romanda yozuvchi , ilk Odamning jannatdan quvilishini mohirona ochib bera olgan. Asar muallif tilidan bayon etilgan bo`lib , bosh qahramon ham muallifning aynan o`zi , ya`ni " Odam " dir .

Roman boshlanmasi shunday jumlalar bilan boshlanadi :

Aynan shu joyga kelganda hammasi boshqatdan boshlanardi : yana qayta farishtalarning ham so`lagini oqizadigan darajada mevalari g`arq pishgan daraxt yonida turgan ayolni , unga

meva uzib berayotgan qop- qora sharpani qayta – qayta tasavvur qilar , bu manzaraning suratini o`zimcha chizardim .

[Nazar Eshonqul . Saylanma II . 2022. 279].

Yozuvchi bu jumlalar orqali aynan Odam Ato to`g`risidagi rivoyatga ishora qiladi. G`arq pishgan meva oldida turgan ayol bu Momo Havo edi, Shayton esa mevani uzishga undardi.

Romanning birinchi novellasida , Odam va Ma` bud o`rtasidagi ziddiyat va Havoning tobora Ma` budga ishonishi , natijada Odamdan uzoqlashishi hamda man etilganligini bilsa-da , taqiq mevasidan uzishi romanda sahna tomoshasi orqali bayon etilgan . Avval bu rivoyat sahnada ijro etilmaganligi uchun butun Shahar buni intizorlik bilan kutdi. Hattoki teatr ko`chasidan bir marta o`tmagan kishilar ham bu tomoshaga mushtoq edilar. Ular Eva va Iblis rolida kimlar o`ynashini va " taqiq mevasini " uzgan Havoni ko`rishni istardilar. " Jannatdan quvilish " ning rejissyori bo`lgan Ma`bud , bu rol uchun faqat Havoni tanladi , o`zi esa Shayton rolini ijro etdi.

Ma`bud uchun aslida bu teatr tomoshasi emas, Havoning mevani uzishi , Odam bilan munosabatlari keskinlashishi muhim edi , chunki Yaratgan man etgan ishni qilinishi Shaytonning " g`alabasi " edi.

" Ma'bud " taxallusini ham Shaytonga Havo bergandi , Havo shaytonni o`z idealiga aylantirgandi: ***Ma`bud uning uchun ham pir , ham kamolot , ham teatr ,ham muqaddas sahna , ham e`tiqod timsoliga aylandi .*** **[Nazar Eshonqul . Saylanma II . 287 ]** . Bundan seziladiki , Ma`bud - Havoni o`ziga ishontirib ,barcha o`y xayollarini band qilib bo`lgan edi.

Asarda " Ma` bud " ga shunday ta`rif beriladi :***bu yerdagi hamma narsa uniki , u bu sahnada Yaratgan qiyofasida paydo bo`lar edi. Jon berish va olish – hammasi Ma`budning inon ixtiyorida edi*** . Bilamizki , Shayton farishtalar orasida Yaratganga itoat etmagan farishtadir. Yozuvchi Ma`bud orqali shaytonga ishorat berdi.

Havo esa ayol qiyofasida daraxt mevasini uzib ham yeyishga undalgan personaj edi. Birinchi novella yakunida shayton o`z niyatiga yetdi , ya`ni taqiq mevasini Havoga uzdirgan edi.

Asarning ikkinchi novellasi " Malak " deb nomlandi va bir necha qismlarga bo`lindi. Novellaning bu qismida ham Odam va Havo haqidagi rivoyat keltirildi. Bilamizki , Malaklar ular pari va farishtalar bo`lib , ular Yaratgan tomonidan yaratilgandir. Asarning ikkinchi novellasiga Malak deb nom berilishiga sabab , u juda go`zal va xushro`y edi deb ta`riflangan : ***Malak mening xayolim va ko`nglimga olma gulli oppoq ko`ylak kiyib kirib kelgandi; u shu darajada nozik , shu darajada navqiron ediki , hozirgina gullagan yosh niholning gulbarglar qoplab olgan edi, hamisha hovlimizdagi olmadan " Havoning " muattar hidi kelib turardi , Malakdan ham huddi shunday hid taralardi*** . . Ta`rifga e`tibor qaratadigan bo`lsak , Malak ham huddi Havo timsolida gavdalangandi . Roman bosh qahramoni o`zi sevib qolgan Malakni huddi " taqiq mevasini " uzgan Havoga qiyos tarzda yaratdi. Rivoyatlarga ko`ra , Shayton birinchi odamdan foydalandi va o`z maqsadiga erishdi. Novellaning ikkkinchi qismida bosh qahramon Majnun tarzida Malakka ko`ngil qo`ydi , biroq Malak Shaytonni tanladi . Qiz institutda o`qirdi , Shayton uning oldiga o`qituvchi qiyofasida keldi. Hamma bilimlarni bilishi , zehnli va juda dono , qat`iyatliligi Malakni jalb etdi va o`zi bilmagan holda Shaytonga ko`ngil qo`ydi . Shayton maqsadi Malak orqali o`zining zurriyodini dunyoga keltirish edi .Chunki u….u.. Iblis edi. Buni shu jumlalar orqali ham bilib olishimiz mumkin **:** ***Iblis mening*** **malagimni** ***so`nggi odam tug`ib beradigan ayolga aylantirmoqchi edi*** .

Roman bosh qahramoni shayton nasli tug`ilmasligi uchun o`z sevgilisi Malakni o`ldirdi. Ko`plar Odamni aybladi , uni qamoqqa soldilar, ammo Odam baxtiyor edi. Chunki , u g`alaba qozongandi.

Asar so`nggi " Marsiya " deb nomlandi . Bilamizki, marsiyalar folklor janriga oid bo`lib , u qaysidir personaj vafoti tufayli kuylanadigan ijro yoki matndir. Xotimada Malak vafot etdi. Bosh qahramon holati esa **;** ***Ha ,men mahbusman . Iblis mening muhabbatimdan ohirgi odam yaratishini istamaganim meni mahbusga aylantirdi.*** Odam shayton g`alaba qozonmasligi uchun , rivoyatdagi Odam Ato va Momo Havo kabi tavqi la`natga duchor bo`lmaslik uchun o`zini va

Malakni qurbon qildi . Asar sujet va kompozitsiyasiga din , mifologik qarashlar hikoya uslubida bayon etildi. Voqealar bosh qahramon O….. tilidan bayon etildi.

Nazar Eshonqulning qaysi janrda yozilgan asarini o`qimaylik voqelik tasviri aniq va yaqqol gavdalanadi . U ko`p asarlarida antropologik miflardan foydalanadi , asli ularning ham o`z zamirida o`zgacha yo`sin va maqsad yashirin . Muallif kitobxonni o`ylashga va idrok etishga undaydi.

Xulosa qiladigan bo`lsak , Nazar Eshonqul hikoya , qissa va romanlari o`ziga xos badiiy ifodaga ega. Qissa va roman tilidagi mazmuniy serqatlamlilik muayyan ramzlar , miflar badiiy sintez va allyuziya asosida aks ettirilgan . Muallif mahorati va uslubining o`ziga xosligi ham aynan ushbu unsurlarda manoyon bo`ladi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar Eshonqul . Saylanma I .2022.
2. Nazar Eshonqul . Saylanma II . 2022.
3. Куронов Д ….Мамажонов З .., Шералиева М , 2013 : 26 .
4. Мирзаев И . Бадиий услуб сехри . Самарканд 2000.
5. O`zbek mifologiyasi .birinchi qism .
6. Xurshid Davron kutubxonasi ma`lumotlari .

SAMARQAND VILOYATI QIPCHOQ LAHJASINING O‘RGANILISH TARIXI

HISTORY OF STUDY OF KIPCHAK DIALECT OF SAMARKAND REGION

Rahmonova Dilso‘z Shukur qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola Samarqand viloyati qipchoq lahjasining o‘rganilish tarixini yoritib beradi. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlar va erishilgan natijalar tahlil qilinadi. Shuningdek, Pastdarg‘om tumani lahjasining o‘rganilish darajasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Maqolada Samarqand viloyati qipchoq lahjasining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Lahjaning o‘ziga xos jihatlari misollar yordamida tushuntiriladi. Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati qipchoq lahjasining o‘zbek tilshunosligi uchun ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kelajakda lahjani yanada chuqurroq o‘rganish zarurati ta‘kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand viloyati, qipchoq lahjasi, o‘rganilish tarixi, Pastdarg‘om tumani, fonetik xususiyatlar, leksik xususiyatlar, grammatik xususiyatlar, o‘zbek dialektologiyasi.*

Abstract. *This article will cover the history of the study of the Kipchak dialect of the Samarkand region. The work carried out by the researchers and the results achieved are analyzed. Special attention is also paid to the level of study of the dialect of the Lowdargom district. The article details the phonetic, lexical and grammatical features of the Kipchak dialect of the Samarkand region. The specific aspects of the dialect are explained using examples. The results of the study show the importance of the Kipchak dialect of the Samarkand region for Uzbek linguistics. At the same time, the need for further study of the dialect is emphasized in the future.*

Key words: *Samarkand region, Kipchak dialect, history of study, Pastdargom district, phonetic features, lexical features, grammatical features, Uzbek dialectology.*

O‘zbek tili turli lahja va shevalarni o‘z ichiga olgan boy va xilma-xil tildir. Ushbu lahjalardan biri Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bo‘lib, u o‘zining o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Samarqand viloyati qipchoq lahjasi asrlar davomida

shakllangan va rivojlangan bo‘lib, mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odatlari va an‘analarini o‘zida aks ettiradi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki turkologiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Lahjaning tadqiqi turkiy tillarning taraqqiyoti va o‘zaro ta‘sirini o‘rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, lahja ma‘lum bir hududning tarixiy-madaniy merosini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bir necha o‘n yilliklar davomida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Dastlabki izlanishlar XX asr boshlarida boshlangan bo‘lib, keyinchalik yanada kengaytirildi va chuqurlashtirildi. Turli davrlarda V.V. Reshetov, K.K. Yudahin, E.D. Polivanov, A.K. Borovkov kabi taniqli olimlar lahjaning fonetik, leksik va grammatik jihatlarini tadqiq etishgan.

Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbek tilshunoslarining yangi avlodi lahja tadqiqiga o‘z hissasini qo‘shdi. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Ishayev kabi olimlar lahjaning turli jihatlarini atroflicha yoritib berishdi.

Shu bilan birga, Samarqand viloyatining ba‘zi tumanlari, jumladan, Pastdarg‘om tumani shevasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Ushbu hududning o‘ziga xos til xususiyatlari tadqiqotchilar e‘tiborini tortadi. Pastdarg‘om shevasining boshqa tumanlar shevalari bilan o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar XX asr boshlaridan buyon olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar turli usullar va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar lahjaning fonetik , leksik va grammatik xususiyatlarini yoritish uchun tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va statistik tahlil usullaridan foydalanganlar.

Tavsifiy usul lahja materiallarini to‘plash va ularning asosiy xususiyatlarini tavsiflashda qo‘llaniladi. Tadqiqotchilar lahja sohasidagi dala ishlarini olib borishgan, ya‘ni lahjani o‘z muhitida kuzatish va o‘rganish orqali ma‘lumotlar to‘plashganlar. Ular mahalliy aholi bilan suhbatlar o‘tkazish, og‘zaki nutqni yozib olish va so‘z boyligini qayd etish kabi usullardan foydalanganlar.

Qiyosiy-tarixiy usul lahjaning boshqa lahja va shevalar, shuningdek, o‘zbek adabiy tili bilan taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotchilar Samarqand viloyati qipchoq lahjasining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash uchun uni boshqa hududlardagi o‘xshash lahjalar bilan qiyosiy o‘rganishgan. Bundan tashqari, lahjaning tarixiy taraqqiyotini kuzatish uchun eski yozma manbalardan ham foydalanilgan.

Statistik tahlil usuli lahja materiallarini miqdoriy jihatdan o‘rganish imkonini beradi. Tadqiqotchilar lahjadagi ayrim fonetik, leksik va grammatik hodisalarning uchrash chastotasini aniqlash uchun statistik ma‘lumotlarni to‘plash va qayta ishlashgan. Bu usul lahjaning umumiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr boshlarida V.V. Reshetov va K.K. Yudahin kabi olimlar lahja materiallarini to‘plash va tavsiflashga e‘tibor qaratishgan. Ular asosan lahjaning fonetik va leksik xususiyatlarini yoritishga harakat qilishgan. Keyinchalik E.D. Polivanov va A.K. Borovkov lahjaning grammatik tuzilishini ham o‘rganish zarurligini ta‘kidlashgan.

Mustaqillik yillarida Samarqand viloyati qipchoq lahjasini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar qo‘llanila boshlandi. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Ishayev kabi olimlar lahja leksikasini mavzuiy guruhlarga ajratib o‘rganish, sheva so‘zlarining etimologiyasini aniqlash, lahja va adabiy til munosabatlarini tadqiq etish kabi usullardan foydalandilar.

Pastdarg‘om tumani shevasi bo‘yicha A.Shermatov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida e‘tiborga loyiq . Tadqiqotchi tuman shevasining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini batafsil yoritib bergan. U sheva materiallarini to‘plash va tahlil qilishda an‘anaviy usullar bilan birga eksperimental fonetika usullaridan ham foydalangan.

Xorijiy tadqiqotchilar ham Samarqand viloyati qipchoq lahjasini o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Jumladan, nemis olimi G.Doerfer qipchoq lahjalarining tasnifiga oid tadqiqot olib borgan va Samarqand viloyati qipchoq lahjasiga oid muhim fikrlarni bildirgan .

Lahjani oʻrganishda aholining etnografik xususiyatlarini inobatga olish ham muhim sanaladi. Ayrim tadqiqotchilar, xususan, B.Jahongirov Samarqand viloyati qipchoq lahjasini oʻrganishda etnografik jihatlarni ham eʻtiborga olish zarurligini taʻkidlagan.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi boʻyicha olib borilgan koʻp yillik tadqiqotlar natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi fonetik jihatdan oʻziga xos xususiyatlarga ega. Unda unlilarda labiallashtirish hodisasi kuzatilib, /o/ va /oʻ/ unlilari /u/ unlisi bilan almashishi mumkin. Shuningdek, ayrim undoshlar talaffuzida ham farqlar mavjud. Jumladan, qipchoq lahjasida /q/ undoshi koʻpincha /gʻ/ tarzida, /k/ undoshi esa /g/ tarzida talaffuz etiladi [Shoabdurahmonov 1983:11].

Lahja leksikasi juda boy va xilma-xil boʻlib, unda turkiy, forsiy va arabiy soʻzlar faol qoʻllaniladi. Ayrim soʻzlar oʻzbek adabiy tiliga nisbatan farqli maʻnolarda ishlatilishi mumkin. Masalan, "qozon" soʻzi adabiy tilda "idish" maʻnosini anglatsa, lahjada "katta idish" maʻnosida qoʻllaniladi [Ishayev 1993].

Grammatik jihatdan Samarqand viloyati qipchoq lahjasi bir qator oʻziga xos xususiyatlarga ega. Kelishik qoʻshimchalari va shaxs-son qoʻshimchalarida ayrim farqlar kuzatiladi. Feʻlning oʻtgan zamon shakllari ham adabiy tilga nisbatan farqlanishi mumkin [Asqarova 1994].

Pastdargʻom tumani shevasi Samarqand viloyati qipchoq lahjasining ajralmas qismi boʻlib, umumiy xususiyatlar bilan birga oʻziga xos jihatlarga ham ega. Tuman shevasida baʻzi fonetik oʻzgarishlar, masalan, /h/ undoshining qoʻshilishi yoki tushib qolishi kuzatiladi. Shuningdek, shevada ayrim oʻziga xos soʻzlar ham mavjud [Shermatov 2008].

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi hududiy jihatdan bir xil emas va ichki farqlanishlarga ega. Viloyatning turli tumanlarida lahja xususiyatlari bir muncha oʻzgarishi mumkin. Bu hol aholining kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻliq boʻlishi mumkin [Shoabdurahmonov 12].

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi namunalarini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Lahjada yaratilgan maqollar, topishmoqlar, ertaklar, dostonlar va qoʻshiqlar xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini oʻzida aks ettiradi [13].

Lahja leksikasi xalq tabobati, hunarmandchiligi va qishloq xoʻjaligi sohalari bilan bogʻliq terminlarni oʻz ichiga oladi. Ushbu terminlarni oʻrganish orqali xalqning moddiy va maʻnaviy madaniyati haqida qimmatli maʻlumotlar olish mumkin [Ishayev 1993: 14].

Samarqand viloyati qipchoq lahjasining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar muhim rol oʻynagan. Viloyatning geografik joylashuvi, savdo aloqalari va etnik tarkibi lahjaning oʻziga xos xususiyatlarini belgilab bergan [Ibrohimov 1995].

Lahja taraqqiyotida adabiy til bilan oʻzaro taʻsir ham katta ahamiyatga ega boʻlgan. Bir tomondan, lahja adabiy tilga taʻsir koʻrsatgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, adabiy til lahjaning ayrim xususiyatlarini oʻzlashtirgan. Bu jarayon til taraqqiyotining tabiiy hodisasi sanaladi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat oʻzbek tilshunosligi, balki turkologiya uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ular qipchoq guruhidagi boshqa tillar va lahjalarni oʻrganishda qimmatli manba boʻlib xizmat qiladi [Doerfer G 1968: 17].

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu lahjaning oʻzbek tilshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrishimiz mumkin. Tadqiqotlar lahjaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini atroflicha yoritib bergan boʻlsa-da, hali oʻrganilishi lozim boʻlgan jihatlar ham mavjud.

Lahjaning fonetik xususiyatlari boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, qipchoq lahjasi oʻzbek adabiy tilidan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Unlilarda labiallashtirish hodisasi va undoshlarda /q/, /k/ kabi tovushlarning oʻzgarishi lahjaning oʻziga xos jihatlaridan sanaladi. Biroq, bu oʻzgarishlar hududiy jihatdan qay darajada farqlanishi va boshqa omillar taʻsirida yuzaga kelishi masalasi hali toʻliq oʻrganilmagan.

Leksik jihatdan Samarqand viloyati qipchoq lahjasi juda boy va xilma-xil ekanligi aniqlandi. Lahjaning soʻz boyligi turli sohalarga oid terminlarni oʻz ichiga oladi. Shu bilan birga, ayrim soʻzlarning kelib chiqishi va taraqqiyoti masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Kelgusida lahja

leksikasining etimologik tahlili va boshqa tillar bilan qiyosiy oʻrganilishi yangi ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Grammatik jihatdan lahja oʻzbek adabiy tilidan farqli xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Biroq, bu farqlarning kelib chiqish sabablari va tarixiy taraqqiyoti masalasi hali toʻliq oʻrganilmagan. Shuningdek, lahjaning sintaktik tuzilishi va stilistik xususiyatlari ham alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Samarqand viloyati qipchoq lahjasi hududiy jihatdan bir xil emas va ichki farqlanishlarga ega. Viloyatning turli tumanlarida lahja xususiyatlari bir muncha oʻzgarishi mumkin. Bu farqlanishlarning sabablari va omillarini aniqlash uchun keng qamrovli dala tadqiqotlarini olib borish zarur.

Pastdargʻom tumani shevasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar alohida eʻtiborga loyiq. Ushbu tuman shevasining oʻziga xos jihatlari aniqlanib, boshqa tumanlar shevalari bilan qiyosiy oʻrganildi. Biroq, Pastdargʻom shevasining boshqa qipchoq lahjalariga munosabati va oʻzaro taʻsiri masalasi hali toʻliq yoritilmagan.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining muhim manbalaridan biri ekanligi ham tadqiqotlar natijasida oʻz tasdigʻini topdi. Lahjada yaratilgan folklor namunalari xalqning turmush tarzi va madaniyatini oʻrganishda qimmatli manba hisoblanadi. Kelgusida ushbu namunalarning janr xususiyatlari va badiiy-estetik qimmatini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Samarqand viloyati qipchoq lahjasining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar katta rol oʻynagan. Ushbu omillarning lahja taraqqiyotiga taʻsirini yanada chuqurroq oʻrganish uchun multidisiplinar yondashuvni qoʻllash maqsadga muvofiq boʻladi.

Shuningdek, lahjaning adabiy til bilan oʻzaro taʻsirini ham inobatga olish lozim. Bu taʻsirning yanada teranlashishi va kengayishi natijasida lahja va adabiy til oʻrtasidagi farqlar qisman yumshashi mumkin. Til taraqqiyotining ushbu jarayonini kuzatish va tahlil qilish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Samarqand viloyati qipchoq lahjasi oʻzbek tilshunosligi tarixida muhim oʻrin tutadi. Bir necha avlod tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida lahjaning asosiy xususiyatlari ancha yaxshi oʻrganildi. Tadqiqotlar lahjaning fonetik, leksik va grammatik jihatlarini atroflicha yoritib berdi.

Shu bilan birga, lahja tadqiqi hali tugallanmagan jarayon boʻlib, kelgusida yangi izlanishlarga boy mavzu sanaladi. Samarqand viloyatining ayrim tumanlari, xususan, Pastdargʻom tumani shevasini yanada chuqurroq oʻrganish va boshqa qipchoq lahjalariga munosabatini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Lahjaning shakllanishi va rivojlanishiga taʻsir koʻrsatgan omillarni tadqiq etishda multidisiplinar yondashuvni qoʻllash maqsadga muvofiq. Bu esa oʻz navbatida lahjaning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy qiyofasini ham yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati qipchoq lahjasini oʻrganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu boradagi izlanishlar nafaqat oʻzbek tilshunosligi, balki jahon tilshunosligi rivojiga ham munosib hissa qoʻshadi. Kelajakda lahja tadqiqini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish barcha tadqiqotchilarning muhim vazifasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reshetov V.V. Osnovnye osobennosti kipchakskix govorov Samarkandskoy oblasti. Nauchny byulleten‘ Samarkandskogo universiteta. 1940;(2):15-22.

2. Yudahin K.K. Uzbekskiy yazyk. Chast‘ 1. Vvedenie. Fonetika. Morfologiya. Moskva: Izdatel‘stvo AN SSSR; 1941. 138 s.

3. Polivanov E.D. Materialy po grammatike uzbekskogo yazyka. Vyp. 1. Vvedenie, fonetika i morfologiya. Tashkent; 1935. 72 s.

4. Borovkov A.K. Uzbeksko-russkiy slovar‘. Moskva: Gosudarstvennoe izdatel‘stvo inostrannyx i nacional‘nyx slovarey; 1959. 836 s.
5. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Haydarov A, Rasulov I. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi; 1983. 232 b.
6. Ishayev A. Samarqand viloyati qipchoq shevalari leksikasi [nomzodlik dissertatsiyasi]. Samarqand; 1993. 158 b.
7. Asqarova M. Samarqand viloyati qipchoq shevalari fonetikasi [nomzodlik dissertatsiyasi]. Samarqand; 1994. 144 b.
8. Shermatov A. Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani o‘zbek shevalari. Toshkent: Fan; 2008. 120 b.
9. Doerfer G. Die Klassifikation der Türksprachen. Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft. 1968;118(2):276-294.
10. Jahongirov B. Samarqand viloyati qipchoq shevalarining etnografik xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti. 1987;(3):45-49.
11. Daniyarov X. Opyt istoricheskogo izucheniya uzbekskix dialektov. Tashkent: Fan; 1975. 130 s.
12. Rasuljanovna RN. Issledovaniya po kipchakskomu dialektu uzbekskogo yazyka [dissertation]. Tashkent; 1984. 170 s.
13. Afzalov M. Samarqand o‘lkasi xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: Badiiy adabiyot; 1960. 182 b.
14. Marufov Z. Samarqand viloyati shevalari leksikasi. Toshkent: Fan; 1981. 98 b.
15. Ibrohimov S. O‘zbek tili Samarqand viloyati qipchoq shevalari tarixidan. Samarqand; 1995. 84 b.
16. Toshkent: Mumtoz so‘z; 2015. 168 b.
17. Johanson L. On Turkic Converb Clauses. In: Haspelmath M, König E, editors. Converbs in Cross-Linguistic Perspective. Structure and Meaning of Adverbial Verb Forms. Berlin, New York: Mouton de Gruyter; 1995. p. 313–347.
18. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016.

TURKIY MIFOLOGIYANING QADIMGI TURKIY YOZMA MANBALARI TASNIFI

CLASSIFICATION OF ANCIENT TURKIC WRITTEN SOURCES OF TURKIC MYTHOLOGY

Rajabbayeva Ozoda Axror qizi
ToshDO‘TAU magistranti
azizovaozoda113@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadimgi mifologiya manbalari davrlashtirilmaganligini hisobga olib, Nasimxon Rahmonovning adabiyot davrlarini tasniflashga doir fikrlariga asoslanib, qadimgi mifologiyaning yozma manbalari guruhlantirildi. Har bir davrga tegishli bo'lgan manbalar haqida ma'lumotlar va obrazlar o'rganildi hamda manbalarning kelib chiqishi va turkiy mifologiyadagi ahamiyati oydinlashtirildi. Turkiy mifologiya va oqimlar ta'sirida yozilgan qadimgi yozma manbalar bo'yicha izlanish olib borgan tadqiqotchilarning fikr va mulohazalari o'rganilib, tahlilga tortildi.*

Kalit so'zlar: *davrlashtirish, manba, mif, afsona, mifologik obraz, oqim, buddaviylik, moniylik, shomonlik.*

Abstract. *In this article, taking into account that ancient mythology is not periodized, written sources of ancient mythology were grouped based on the ideas of Nasimkhan Rakhmonov on the classification of periods of literature. Information and images about sources belonging to each period were studied. The origin of the sources of each period and their importance in Turkic mythology are discussed. The opinions and opinions of researchers who conducted research on ancient written sources written under the influence of Turkic mythology and currents were studied and analyzed.*

Key words: *periodization, source, myth, legend, mythological image, flow, Buddhism, monism, shamanism.*

Asosiy qism. Hamma davrda adabiyotning turlicha tasnif qilinishiga guvoh bo'lish mumkin. Ayniqsa, O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari barcha paytlar uchun ahamiyatli bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, M.Buzruk, A.Fitrat, A.Samaylovich, N.Rahmonov kabi olimlar adabiyotni davr va hududiy jihatdan tasnif qilishgan. Adabiyotni davrlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan professor Nasimxon Rahmonovning "O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari" monografik tadqiqoti so'ngi paytda shu mavzuda amalga oshirilgan eng mukammal tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrlashtirish tadrijini turkiy mifologiya manbalari prizmasida ham ko'rish mumkin. Olim tilga olgan davlar manbalari mifologik aspektda ham aktualligicha qoladi. Agar mifologik manbalar alohida davrlashtirilmaganligini hisobga olsak, N.Rahmonov adabiyotni davrlashtirishda ilgari surgan metodologik asoslarni mifologiyaga ham tatbiq qilish mumkin bo'ladi. Chunki adabiyot bilan mif bir-biriga bog'liq bo'lib, adabiyotning ildizi mifga borib taqalishi barchaga ma'lumdir.

Quyida N.Rahmonov tasnifini keltiramiz:

1. Islomgacha bo'lgan qadimgi turkiy adabiyot:

a) Buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyot;
b) Moniylik oqimidagi turkiy adabiyot;
c) Shomonlik oqimidagi turkiy adabiyot.

2. G'aznaviylar davri adabiyoti
3. Qoraxoniylar davri turkiy adabiyoti
4. Oltin O'rda adabiyoti
5. Temuriylar davri chig'atoy adabiyoti

O'rta asr xalq adabiyoti. [N.Rahmonov 2016:17].

Bu davrlashtirishda islomgacha bo'lgan qadimgi turkiy adabiyot davri qadimgi turkiy mifologiya uchun muhim davr bo'lgani sabab ushbu davrdagi manbalar xususida to'xtalib o'tsak.

Mif va afsonalar adabiyotning ilk ko'rinishi bo'lib, unda turkiy qavmlarning falsafiy qarashlari, botiniy olami, tabiat hodisalariga munosabati ekanligi manbalar o'rganilganida o'z tasdig'ini topgan. [N.Jo'raqo'ziyev 2012]. Mif va afsonalardagi syujetlarni kuzatar ekanmiz, buddizm va moniylik oqimi davridagi manbalarga nisbatan shomonlik oqimi ta'sirida paydo bo'lgan manbalar yetakchi ekanligini ko'rish mumkin. Shunday bo'lsa-da, har bir oqimda yaratilgan manbalar vazifasi va mifologik obrazlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi

Buddaviylik ta’sirida “O‘n turli ezgulikning madhi”, “Nazar solish haqida”, “Shirinsuxanlik haqida” alqovlari, ”Maytrisudur”, “Sakkiz yukmak”, “Yetikan sudur”, “Oltin yorug‘”, “Xayrli qonunning oq lotos guli” kabi manbalar yaratilgan. Bular ichida mashhur bo‘lgan asar “Oltin yorug‘”asari bo‘lib, uning yaratilishida turkiy qavmlar ishtirok etganligi turkiy qavmlarning mifologiyasi va afsonalaridagi qahramonlar asarda aks etishi bilan o‘z isbotini topgan. Bunga yaqqol misol qilib Erlikxon obrazini keltirish mumkin. Erlikxon obrazi “Oltin yorug‘”da ham, turkiy qavmlar uchun ham halokat keltiruvchi yovuzlik timsoli hisoblanadi. Shuningdek, Zervan va Xurmo‘zd mifologik obrazlari zardushtiylik va buddaviylikda, ya’ni “Oltin yorug‘” bilan ayni obrazlar hisoblanadi. [N.Jo‘raqo‘ziyev 2012:381]. Bu asarda kosmogonik miflardan tashqari g‘or bilan bog‘liq miflar ishtirok etgan afsonalar mavjud. Bunga Atavaka ismli shaytonning budda oqimiga qarshi chiqishi bayon qilingan afsonani misol qilib keltirish mumkin. Turkiy qavmlar quyosh va oyga topinganlar. “Oltin yorug‘” asarida ham quyosh va oy obrazini ko‘rish mumkin. Bu kabi dalillarni ko‘plab keltirish mumkin. Bu asar turli sohalar uchun kerakli manba bo‘lganligi uchun ham ko‘plab tillarga, jumladan, sanskrit, xitoy, tibet, turkiy, tillariga, endilikda esa nemis, turk, rus, o‘zbek, uyg‘ur, mo‘g‘ul tillariga tarjima qilingan. “Oltin yorug‘” asarida duolar, alqovlar matni ham bo‘lib, turkiy mifologiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobiy yorliq sifatida Utret xonim, Qutlug‘ xonim kabilarning topshirig‘iga binoan hajm jihatdan kichik tavba duolari, shuningdek, mifologiyaga aloqador bo‘lgan afsona va hikoyatlar ham mavjud.

Buddaviylik oqimi davridagi yana bir muhim manba “Yetikan sudur” asari bo‘lib, ko‘plab tillarga tarjima qilingan va tadqiq qilingan. Undagi matnlar kosmogonik miflardan tashkil topgan. Bu manbadan yulduzlar burjiga murojaat qilish orqali fol ochish va magik unsurlarda foydalanilgan.

“Sakkiz yukmak” asari ham buddaviylik oqimi davri uchun muhim manba hisoblanadi. Bu asarning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari bo‘lib, matnida budda aqidalari haqida, kosmogonik miflarga asoslangan, sehrgarlikka asoslangan namunalar uchraydi. Asar matni barchaga tushunarli bo‘lgan.

Buddaviylikdagi manbalar matniga ko‘z tashlaydigan bo‘lsak, unda ko‘proq tavba duolari asosiy o‘rin tutganiga guvoh bo‘lamiz. Lekin ko‘p tavba duolarini yozma tarzda saqlashning imkoni bo‘lmagan. Chunki u paytlarda tavba uchun duolarni amalga oshirish paytini oddiy odamlar kuzata olishmagan va tarjima qilishni to‘g‘ri deb hisoblashmagan.

Shunday qilib, buddaviylik davridagi yaratilgan barcha manbalarda turli janrlardagi matnlarni, xususan, qo‘shiqlar, maqollar, fol kitoblari, tavba duolari, alqovlar, she’rlar, magiya bilan bog‘liq matnlarni tahlil qilish mumkin. Ushbu manbalar matnlari hali to‘lig‘icha o‘rganilmagan. Bu davrdagi manbalar turkiy qavmlar uchun muhimligining sababi shuki, undagi matnlarni turkiy qavmlar tarjima qilish bilan birga, o‘zlariga aloqador bo‘lgan mifologik obrazlarni, hikoyalarni kiritib, manbani kengaytirgan va boyitgan. Bu manbalarni buddaviylik aqidalarini yoyishga mo‘ljallangan adabiyot sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Keyingi yana bir muhim bo‘lgan davr moniylik oqimi davri hisoblanadi. Bu oqim ta’sirida yaratilgan eng mashhur asarga “Xuastuanift” manbasi yorqin misol bo‘ladi. Bu asar moniylar uchun madhiya sifatida yangragan. Asarning o‘ziga xosligi shundaki, bu asar moniylik oqimining kelib chiqish sabablari va uning mohiyati, tutgan o‘rnini tushuntirish va tahlil qilish uchun yaratilgan. Asar qahramonlari turkiy qavmlarning mifologik obrazlari bilan o‘xshashligini ko‘rish mumkin. Masalan:

Asl matn: Ikinti (ikkinchi). Yama kun tangrika iki yaruq ordu ichra olurug‘ma tangrilarka qamug‘ burxanlarnung arig‘ nomning. Adgu qilinchlig‘ uzutlarning. Yir (sub) yaruqunung. Tozi yiltizi tirnaguli tangri yiringaru barsar ongu qapig‘i. kun ay tangri ol. Biz tangrig boshug‘ali. Yaruqug‘ qarag‘ atirg‘ali tag‘da tali tagzinur tort bulungug‘! Yaritur tangrim suida baru bilmatin kun ay tangrika iki yaruq ordu ichra olurug‘ma tangrilarka nacha yazintimiz arsar. Arksizin tug‘ar batar arki bar arsar tuymasin tidimiz arsar. Kantu ikinti bilmatin yazinmish yazuqig‘ boshunu otunur biz. Manastar birza…

Ma’nosi: Kun, Oy xudolariga, ikki nur saroyi ichra o‘tirgan xudolarga-hamma burxanlarni, pok-muqaddas yozuvlarni, yaxshi xulqli xabarchilarni, yer-suv nurini, tuproqni, ildizlarni birga

xudolar makoniga jo‘natgan edik. Oldingi darvoza-Kun, Oy xudolarnikidir. Beshala xudoni ozod qilgani, nur bilan zulmatni (bir-biridan) ajratgani (nur) tag-tugi bilan aylanib, to‘rt tomonni yorityapti. Ey Xudoyim! (Biz) gunoh (ichida) yurib, bilmasdan, Kun, Oy (xudolari) halok bo‘lyapti, dedik. Zaifligi bilan (ular) chiqadi va botadi, qudrati bor bo‘lsa edi, quyosh chiqmas edi. Biz o‘zimiz Kun, Oy xudolaridan yuqorimiz, dedik. Ikkinchi (marta) bilmasdan qilgan gunohlarimizdan xalos qilgin, deb iltijo qilyapmiz: Gunohlarimizni kechirgin! [N.Jo‘raqo‘ziyev 2018:131-132].

Moniylik oqimi davriga tegishli bo‘lgan “Xuastuanift” da ham turkiy qavmlarning miflaridagi alohida o‘ringa ega bo‘lgan Ko‘k Tangri obraziga ko‘p to‘xtalgan. Ushbu asarda ham turli janrlar mavjud bo‘lib, asosan kosmogonik miflar, ya’ni osmon jismlari bilan bog‘liq miflar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Moniylik she’rlarida turkiylarga xos bo‘lgan personajlar ham mavjud. “Irq bitik” ham moniylik uchun muhim manba bo‘lib, undagi Bu davr manbalari ham qadimgi turkiy mifologiya uchun muhim manba. Erlikxonning olami tasvirlashini diqqatga molikdir “Irq bitik” tush va uning ta’biriga asoslanadi.

Davrlar ichida eng keng tarqalgani shomonlik oqimidagi davr bo‘lib, turkiy mifologiyada, obrazlarda shomonlikning ta’siri yaqqol seziladi. Shomonlik – diniy e’tiqod shakllaridan biri. Bu so‘zning ma’nosi “dono odam”, “barcha hodisalardan xabardor” degan ma’nolarni anglatadi. Yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta’siriga ishonish shaharnining asosini tashkil etadi. shaharda uning ruhoniylari–shomonlar ruhlar bilan aloqa bog‘lay oladigan, bo‘lajak voqealarni oldindan aytib bera oladigan shaxslar deb, ularga sig‘iniladi. Shomon oqimida fol ko‘rish, so‘z magiyasiga asoslangan miflar va afsonalar katta o‘rinni egallaydi. Bu davr manbalariga qadimgi turkiy-run yozma yodgorliklarini misol qilish mumkin. “O‘rxun-Enasoy” yozma yodgorligi bu oqim davrida vujudga kelgan. Shomonlik kultlari turkiy adabiyotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Shomonlik oqimi ta’sirida ko‘plab manbalar yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z qimmatiga ega. Olamning yaralishi bilan bog‘liq bo‘lgan turkiy miflar va afsonalar shomonlik bilan bog‘liq. Shomonlik O‘rta Osiyoda buddaviylik ta’sirida vujudga kela boshlagan. U turkiy qavmlarni birlashtirishda g‘oyaviy vazifani bajargan. “O‘rxun-Enasoy” yodgorligida qadimgi turkiy dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘lgan kosmogonik miflarning izlarini ko‘rish mumkin. [N.Jo‘raqo‘ziyev 2018]. Shomonlik haqida ko‘plab olimlar izlanishlari asosida o‘z fikrlarini bildirishgan. V.N.Basilovning aytishicha, “Shomonlik dunyoqarashi turli ruhlarga ishonish bilan bog‘liq bo‘lib, bu oqim animistik ruhdagi oqimdir”. Sh.Turdimov esa “Shomonlik dunyoqarashi asosida bevosita ruhlar tomonidan tanlanib, o‘rgatilgan xos kishilarning, odamlar jamoasi va homiy ruhlar dunyosi o‘rtasida vositachilik qilib, homiy ruhlarning tanlangan shaxs vositasida jamoani boshqarishga ishonch va ayni paytda, shomonning ruhlar yordamida jamoaga yordam berishi bilan bog‘liq yaxlit e’tiqodiy tizim turadi” degan fikrlarni ilgari suradi. [N.Jo‘raqo‘ziyev 2018:65].

Barcha oqimdagi manbalar qimmatli va ahamiyatli bo‘lib, barchasida olamning yaralishi bilan bog‘liq bo‘lgan miflar, ya’ni kosmogonik miflar asosiy o‘rinni egallaydi. Har bir oqim ketma-ketlikda yuzaga kelgan bo‘lib, alohida qimmatga ega.

Xulosa. Qadimgi turkiy mifologiyani davriy jihatdan o‘rganish, manbalarini tahlil qilish fan uchun samarali yo‘l bo‘ladi. Chunki mif va afsonalarning barchasi mana shu oqimlarga bog‘liq. Buddaviylik, moniylik va shomonlik oqimlari ta’sirida yaratilgan manbalarning tag ma’nosida mif mavjud. Ushbu manbalarni o‘rganib, insonning olam haqidagi ilk tasavvurlarini mifologik obrazlar yordamida o‘rganib olish imkoniyati yaratiladi. Lekin bu manbalar hali yetarlicha to‘liq o‘rganilmagan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan asarlarning matnlari bo‘yicha izlanishlar qilinib, tahlil qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Monografiya. “Mumtoz so‘z”. - T.:2016.

2. Jo‘raqo‘ziyev N. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar va turkiy folklorda kosmogonik mifologiya. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.-T.:2018.

3. Jo‘raqo‘ziyev N. Qadimgi turkiy mifologiyaning turk-budda manbalari. “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani.-T.:2019.

4. Jo‘raqo‘ziyev N. Qadimgi turkiy manbalarda mif va uning ildizlari. Сборник статей Республиканской научно-практической конференции посвященной 120-летию со дня рождения Марины Ивановны Цветаевой Buxoro.-2012.

5. Jo‘raqo‘ziyev N. Qadimgi turk budda adabiyoti namunalari turkiy mifologiyaning manbasi sifatida. Yosh tilshunos va adabiyotshunoslarning an’anaviy Respublika ilmiy-amaliy anjumani. T.-2016.

YAKKABOG‘ SHEVASINING LEKSIK QATLAMIDAGI SO’ZLAR

DIALECT-SPECIFIC WORDS IN THE TRADITIONAL LEXICON OF THE YAKKABOG DIALECT

Toshtemirova Gavhar Quvvataliyevna
ToshDO‘TAU magistranti
gavhartoshtemirova@mail.ru

Annotatsiya. *Ma’lumki, So’nggi yillarda Respublikamizda tilga bo’lgan e’tibor jadal sur’atda rivojlanib bormoqda. Shu munosabat bilan yurtimizning turli hududlarida yashovchi aholi shevasining o’zbek adabiy tiliga munosabati masalasini o’rganish dolzarb masalaga aylandi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Yakkabog’ tumani Te-rak qishlog‘i va unga tutash xududlar shevasiga xos bo‘lgan leksikani tahlil qilish hamda uning o’zbek adabiy tilida tutgan o’rnini o’rganish katta ahamiyatga ega.*

Kalit so’zlar: *Dialekt, leksika, sheva, shevaga xos so’zlar, fonetik o’zgarishlar, qarluq.*

Abstract. *It is known that in recent years attention to the language has been rapidly developing in our republic. In this regard, the study of the relationship of the dialect of the population living in different regions of our country to the Uzbek literary language has become an urgent issue. In this article, the main criterion is the analysis of the vocabulary of the names of dishes characteristic of the dialect of the village of Terak, Yakkabog district, Kashkadarya region, and the study of the question of its relationship with the Uzbek literary language.*

Key words: *dialect, vocabulary, adverb, dialect words, phonetic changes, deafness.*

Kirish. Har qaysi adabiy til milliy xalq yoki millat tilining yuksak bosqichi bo‘lib, u me’yorlashgan yoki me'yorlashtirilgan til hisoblanadi.

O’zbek adabiy tili bir necha tamoyillardan foydalaniladi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an`anaviy, ramziy va boshqalar.

Har bir adabiy til o`zining tayanch dialektiga ega bo`ladi. To`g`ri, o`zbek adabiy tilining shakllanishida shevalaming barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma`lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya`ni o`zbek adabiy tili muayyan sheva va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o`sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo`lib, u doimo rivojlanishda, o`zgarishda bo`ladi, shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog`liq ravishda taraqqiy etib boradi, aksincha, adabiy til o`zining tayanch dialektiga ega bo`lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. O`zbek adabiy tili shartli ravishda fonetik jihatdan Toshkent shahar dlalektiga, morfologlk jihatdan esa Farg`ona dialektiga tayanadi.

Farg`ona dialektidagi so`z shakllari, asosan, fe`l shakllari xususan o`zbek adabiy tiliga norma sifatida qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan bog'lab qo`yish juda ham to`g`ri emas, balki o`zbek adabiy tili shevalar hisobiga boyib, mukammallashib borishini bilamiz. Shu ma`noda shevalar adabiy tilning boyish manbai bo`lib qoladi. Garchand, adabiy tilda qarluq-chigil-uyg`ur lahjasining unsurlari ko`p uchrasada, unda qipchoq va o`g`uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o`rinlar mavjud. Masalan, adabiy tildagi *jun, jo`natmoq, joni, jo`nalish* so`zlari qipchoq lahjasiga xosdir. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dilektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi mavzuni aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham *fonetik dialektizm, morfologik dialektizm* va *leksik dialektizm* turlariga ega bo'ladi. *Fonetik dialektizm* badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Masalan, *onakki/ikki* (Marg'ilon), *galdi/keldi* (Xorazm).

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlaming qo'llanishidir. Masalan, *Shotto* – shu yerda "Qora ko'zlar", *gech galdingiz* "Xorazm".

Leksik dialektizm shevaga oid so`zlarning badiiy asarlarda qo'llanishidir. Masalan, darponmanlar – bezovtalanmanglar "Xorazm", Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko`rinishidir. Shu jarayonda badiiy so`z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o`tadigan shevaga murojaat qilishlari e`tirof etilgan.

Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki o`rinda foydalanadi, ya`ni dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko`rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida hamda adabiy tilda sinonimi bo`lmagan so`zlarni imkonsizlikdan qo`llaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahaliiy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodaiashda to`lig`icha sheva xususiyatiaridan foydalangan holda tasvirlaydi. Bunga J. Sharipovning "Xorazm", T. Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarlarini keltirish mumkin. Shuni ta`kidlash lozimki, dialektlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri bo`lib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta`sirchan kuchi orqali bir asarda qo`llangan dialektizm keyingi asarlarga o`tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o'zlashib ketishini ta'minlaydi.

Bizga ma'lumki, "Xar bir til va dialekt leksik tarkibi asosini xayotiy zarur tushunchalar ifodasi bo'lgan, davrlar mobaynida turg'un va yashovchan bo'lgan, shu til egalarining barchasi uchun umumiy bo'lgan so'zlar tashkil qiladi. Bularga tabiat xodisalari (chaqmoq, yomg'ir, shamol, qor), tabiiy unsurlar (suv, daryo, daraxt, tog', tosh), xolat – harakat (yurmoq, uxlamoq, ichmoq) ni va shu kabilarni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bu so'zlar o'zbek tilida so'zlashuvchi jamoa uchun umumiy bo'lganidek, shevalar uchun ham umumiydir. Shunga ko'ra, o'zbek tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so'zlar o'zbek shevalari va o'zbek adabiy tili leksik tarkibining ham asosiy qismini tashkil etadi " (Reshetov. B.B, Shoabduraxmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi, - Toshkent, 1978, 162 – bet.).

Boshqa shevalarda bo'lgandek, Yakkabog' " ye " lovchi qarluq shevasida ham aynan shunday xolatda ko'rish mumkin. Chunki bu sheva vakillari nutqida ham adabiy tildan o'rin olgan leksemalar, ko'pincha fonetik o'zgachaliklar bilan qo'llanaveradi. Shunday leksikalar jumlasiga: ko'ra, qiyiz (qingiz), gilam, dasturxan (dasturxon), chaynak (choynak), piyala (payola), kasa (kosa), qoshiq, qozan (qozon), kabi uy-ro'zg'or buyumlari; non, qont (qand), sho'rva, paluv, (palov), qotiq (qatiq), sut singari oziq-ovqat nomlari, kaklik, chumchiq (chumchuq), kaptar, ot, eshak, tuya, qo'y, echki kabi xayvonlar; tol, terak, jontaq (yantoq), g'o'za, mosh, zig'ir, arpa, badring (bodiring) qabilidagi o'simliklar, don va meva nomlari; xandaq, soy, tov (tog') kabi geografik nomlar va boshqalar kiradi.

To'plangan materiallarni adabiy tilda uchramaydigan, faqat region she-vasiga xos leksemalarni uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilardan iborat: 1) adabiy tilda muqobili bo'lmagan so'zlar; 2) adabiy tilda muqobili bor so'zlar; 3) adabiy til leksemalar bilan sheva leksemalari ma'nolaridagi o'zgachaliklar.

1. Adabiy tilda muqobili bo'lmagan so'zlar. Muayyan bir sheva vakillarining moddiy turmush kechirish tarzlari, ular joylashgan hududning iqtisodi, ma'lum bir joyda u yoki bu ishlab chiqarish soha-sining rivojlanishi tufayli shu xududda ishlovchi aholi leksikasida boshqa xududlardan farq qiluvchi so'zlar yuzaga kelgan. Masalan, chorvachilik bilan shug'ullanadigan joylarda chorvachilikka oid, dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lingan regionlarda g'allachilik, bog'dorchilik, paxtachilik va shunga o'xshash sohalarga oid maxsus so'z va terminlar xossasi paydo qilingan. Bundan tashqari, biror hudduda qadimdan o'troq bo'lib ishlab kelgan aholi boshqa xududlarda ya-shovchi aholidan o'ziga xos moddiy-madaniy turmush tarzi, aholi ruhiyati va boshqa ko'plab xususiyatlari bilan ham bir muncha farqlanadi. Bu omillarning barchasi, tabiiyki, sheva vakillari tilining leksikasida o'zining yaqqol ifodasini topgan. Garchi, o'zbek tili shevalarining leksik tarkibida an'anaviy leksika asosiy o'rinni egallasada, qayd etilgan omillar u yoki bu shevada faqat shu shevagagina xos bo'lgan, adabiy tilda qo'llanmaydigan leksik qatlamning nutqida saqlanib, lokal xarakterga ega bo'lib qolgan (Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги замон узбек тили – Тошкент, 1969. 159-160-бетлар).

Adabiy tilda qo'llanmaydigon, faqat shevalargagina xos leksemalarga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin: *kurtik* – qishda aravaning katta g'ildiragi bosimida xosil bo'lgan iz; *onata* – ekin ekilgandan keyin u unib chiqqunga qadar birinchi sug'orish; *dalla* – mevaning yeyishga yaroqli qismi; *chapchaqovun* – to'liq yetilmagan qovunga nisbatan aytiladi; *yachmich* – issiq nonni maydalab qaymoq aralashtirilib tayyorlanadigan taom; *kelichak* – quritilgan mevalarni solib maydalashga moslashgan temir idish; *kelisop* – mevalarni urib ezishda ishlatiladigan temirdan yasalgan buyum; Senam Jumanning ulig'a o'shqap *gavso'qat* (o'zidan besh-olti yosh kichik bolalar bilan o'ynaydigan bola ma'nosini ifodalaydi) bo'p qoldingma, hech ko'chadan kelmay qolding (Yakkabog'–Terak); Olim *g'indanak paypanglab* tikanni ichiga kirib ketdi (Yakkabog' Terak); Anavi *ganajik shippilab* suvga borib keldi (Yakkabog', Turon). Respondentlarning izoh berishlaricha "*gavarak* ham *ganajik* ham bir xil ma'noda, ya'ni, kichkina o'zini eplay olmaydigan lekin sho'x bolaga nisbatan aytiladi. Bu so'zlarningni adabiy tilda aynan ma'nosi ko'rsatilmagan.

2. Adabiy tilda muqobili bo'lgan shevaga xos so'zlar. O'zbek tili sheva va lahjalarning xilma-xilligi, ulardan har qaysisining o'ziga hos leksik qatlamalari mavjudligini tasdiqlovchi omillardan yana birini quyidagicha sharxlash mumkin: u yoki bu shevada mavjud bo'lgan leksemalarning ma'nosi adabiy tilda yoxud o'zga shevalarda boshqa-boshqa leksemalar bilan ifodalanadi: bunday so'zlar shaklan bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi, lekin ular real borliqdagi ayni bir tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi.

To'plangan materiallardan Yakkabog' tumani Qarluq shevasida ham ayni shu xildagi ko'plab munosabatdosh so'zlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Sheva vakillari nutqida "shippa borib, shippa qayt" degan jumla ko'p ishlatadi. Unda shippa leksemasi adabiy tildagi g'irillab so'zi anglatgan ma'noni qoplay oladi. Shu bilan birga, adabiy tilda shippa so'zining manosini tez, darrov kabi so'zlar hamda oyoqni qo'lga olib frazeologizmi bilan ifodalanish mumkin. Masalan, Jamshid bozorga *shippa borip, shippa qayt* (Yakkabog', Terak). Hamsiya *xashmanlab* yopishmasdan oldin haqiqatni bilingda! bu yerda "xashmanlab" so'zi adabiy tildagi "bilmay" so'zining aynan o'zi. Fonetik jihatdan farqlansada, "bilmay" so'zi bilan aynan ma'nodoshdir. Malla momo yoshi kata bo'lsayam, shunday *qirqqopar* (bu yerdagi "qirqqopar" leksemasi adabiy tildagi "yolg'on" so'zi bilan bog'liq sinonimdir). To'plangan materiallarni tahlil qilib ko'rilganda, quyidagi so'zlarga oid leksemani shevada ishlatilib, ularning o'zbek adabiy tilida ham muqobillari borligi aniqlandi: *lovlovi* – lavlagi; *chsnak* – chesno'k; *bolgar* – bulg'or qalampiri; *savak* – hokondoz vazifasini bajaruvchi asbob; umalig – 3 yoki 4 litr suv solib (asli rus tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, умывальник – ya'ni qo'l yuvish uchun foyda-laniladigan jumrakli kichik sisterna) qo'yiladigan qo'l yuvishda foydalaniladigan asbob.

3. Avvalo shuni qayd etish lozimki, Qarluq shevasida ham kishilik faoli-yatining barcha sohalarini qamrab olgan leksik qatlamlar mavjud bo'lib, ular tar-kibidagi so'z va terminalarning bir qanchasi adabiy tildagi so'z va terminlar bilan munosabatdoshlikni xosil qiladi. Adabiy tilda "bahor, kuz oularida kechasi haroratning pasayishi tufayli mayda tomchilar tarzida yerga inadigan

havodagi, ya’ni, atmosferadagi bug’, namlik; havodan ingan musaffo tomchi” ma’nosini ifodalash uchun ‘shabnam” hamda “shudring” so’zlari bilan munosabatdoshlik xosil qiladi: *Uyg’anib kelip, boqqa chiqsam shuvat chushipti* (tushipti) (Yakkabog’ Qarluq).

Yakkabog’ tumanining Turon, Tatar, Samoq qish-loqlarida informantlarning quyidagi jumlasidagi “shuvat” so’zining ma’nosiga etibor berildi: *Xavo soviptimi kechasi shuvat tushipti (chushipti).* Jumladan “shuvat” so’zi “yerning yoki narsalarning betida xosil bo’ladigan yupqa qorsimon zarralar” manosini ifodalashi ma’lum bo’lmoqda. Bu o’rinda shuvat leksemasi ayni shu ma’no bilan adabiy tildagi “qirov” so’zi bilan munosabatdosh bo’lib kelaoladi. S. Rahimovning guvohlik berishicha, Surxandaryo viloyatining Sariosiyo tumanida xam shuvat so’zi “qirov” manosini ifodalab kelar ekan (ertalab shuvat tushipti) (Рахимов С. Сурхандарё узбек шевалари луғати. 187- бет.). Keltirilgan dalillardan shevadagi shuvat so’zi, birinchidan, omonim bo’lib kelsa (shudring va qirov tamoman boshqa-boshqa metereologik xodisalardir), ikkinchidan, adabiy tildagi shudring va qirov so’zlari bilan munosabatdoshlikni xosil qilgan.

Endi quyidagi jumlalarga e’tibor beraylik: *Erali arg’amchini olib kel.* “Bu gap adabiy tilda arg’amchi arqon leksemasini anglatadi”. *Alimardon lappa – lappa ovqat yesang bo’meyma, ozib cho’ki bo’p ketibsan,* (bu gapda cho’ki – ozg’in ma’nosida keladi. O’z navbatida, shevadagi cho’ki so’zi asli ma’nosida “novda, shox bo’lagi; yog’och parchasi; biror maqsad uchun maxsus tayyorlangan tayoqcha” ma’nolarini bildirib, adabiy tilda norma deb qabul qilingan cho’p leksemasi bilan munosabatdosh bo’lib hisoblanadi.

Umuman olganda, Yakkabog’ tumanida Qarluq lahjasida ishlatilayotgan va adabiy tilda boshqa – boshqa shaklda munosabatdosh bo’lgan so’z va terminlar juda ko’pligi bilan ajralib turadi

Kuzatishlarimiz natijasida ayni shu sheva vakillari nutqida faol qo’llanayotgan ko’plab leksemalar borligi aniqlandi. Ular esa o’zbek adabiy tilida qayd etilmagan, aniqrog’i, “o’zbek tilining izohli lug’ati”da o’z ifodasini top-magan. Hatto, biz tomondan aniqlangan bu kabi so’zlarning aksariyat qismi “O’zbek xalq shevalari lug’ati”da ham aks ettirilmagan.

Xulosa. Keltirilgan dalillarning har biri o’ziga xos sheva leksemalariga ega bo’lib, ular xozircha o’zbek adabiy tiliga kirmaganligidan dalolat beradi, bu Yakkabog’ tumani Qarluq shevalari leksik jihatdan boyligini ko’rsatadi.

Bu so’zlarning xozirgi kunda ham sheva vakillari tomonidan keng ishlatib kelinayotganligi ularning barqaror tus olinganligini tasdiqlaydi.

Ularni doimiy ravishda “O’zbek xalq shevalari lug’ati”ga qo’shib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Nodirabegim. 2021.176 b.
2. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek shevalari. – Toshkent, Fan. 1962. 370 b
3. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, O‘qituvchi. 1978. 231 b.
4. Шоабдурахмонов Ш. Карлукский наречий узбекского языка. –Тошкент, 1983.
5. Jo‘raev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent, Fan. 1962.
6. Jabborov X. O’zbek tilining dexqonchilik leksikasi. Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2017.
7. Qudratov T. Quyi Qashqadaryo oraliq shevalari. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1968.
8. Shoimova N. O’rta Qashqadaryo “je” lovchi qipchoq shevalari leksikasi. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2001.

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARIDA OILA TUSHUNCHASI MASALALARI

ISSUES OF THE CONCEPT OF FAMILY IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS

Ro‘ziqulova Xumora
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek xalq maqollarida oila tushunchasining aynan mazmundoshligi haqida so‘z yuritiladi. Tarjimaning bir qancha muhim innovatsion usullarini topish hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘ziga xos xususiyatlarni qarama-qarshi qo‘yish uchun boshqa tilda tarjima qilish uchun maqsadli tilda ba’zi maqollarning ekvivalentlari berilgan. Ushbu maqolaning natijalari va misollari oila haqidagi ingliz va o‘zbek maqollarining ba’zi bir farqlarini ajratib olishga va ularning badiiy xususiyatlarini o‘rganishga yordam beradi.*
Kalit so‘zlar: *maqol, oila, qadriyat, ota-ona, farzand.*

Abstract. *This article talks about the meaningfulness of the concept of family in English and Uzbek folk proverbs. Equivalents of some proverbs in the target language are given for translation into another language in order to find some important innovative methods of translation and to contrast the unique features of English and Uzbek languages. The results and examples of this article help to distinguish some differences between English and Uzbek family proverbs and to study their artistic features.*
Key words: *proverb, family, value, parents, child.*

KIRISH

Xalq yaratgan ma’naviy madaniyatning yaxlit bir butunligi bu, albatta, o‘sha xalqning maqollari hisoblanadi. Har bir xalqning og‘zaki yoki yozma yodgorligini olib qaraylik, unda bani bashar xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan asotir-afsonalar, uzoq tarix qa’ridagi ibtidoiy tasavvur va tushunchalar asrlar davomidagi kuzatishlardan hosil bo‘lmish hayotiy hikmatlar qaymog‘i-insoniy tafakkur tajribasining in’ikosini ko‘ramiz. Ingliz va o‘zbek xalq maqollari ham ana shunday ming yillar ichida yig‘ilib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan, xalq orasida aytilib, puxtalanib, avloddan avlodga eng yaxshi ma’naviy meroslardan biri bo‘lib o‘tib keladi. O‘tmishda yaratilib va ishlatilib kelinayotgan eng yaxshi maqollar, xalq donishmandlarining namunasi sifatida, hozir ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday maqollar va hikmatli so‘zlar har bir xalqning ma’naviy boyligining qimmatbaho xazinasini tashkil etadi.

MUHOKAMA

Ushbu maqolada oila haqidagi misollar yordamida ushbu ikki tildagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilaylik. “Oila” tushunchasi “mehr”, “sog‘liq”, “boylik” va “mehnat” kabi ijtimoiy tushunchalar qatorida sodir bo‘ladigan inson hayotida qimmatli mavhum tushunchadir. Maqollarni so‘zma-so‘z tarjima qilish, boshqa tillarda maqollarning ma’nosini ifodalash uchun yetarli emas, chunki uning mazmuni tarjima qilingan tilda mavjud. Bu maqolning asosiy ma’nosini noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ingliz va o‘zbek tillarida maqollarning ekvivalentlarini topish usuli ushbu tillardagi oila haqidagi maqollarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun ishlatiladi.

It is hard to wive and thrive both in a year – Ro‘zg‘or tushdi boshga, qo‘l tegmadi oshga.

Ushbu maqolda jumla tuzilishi deyarli barcha maqollarga xos bo‘lganligi e’tirof etiladi, o‘zbek millatiga tegishli. Tilda ko‘plab sinonim so‘zlar va iboralar mavjud, maqollar bir-biriga sinonim bo‘lishi mumkin. Ba’zan ularning ma’nolari o‘xshash va ular kontekstda bir-birining o‘rnini bosishi mumkin. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan oila tashvishi, ro‘zg‘orga g‘or sifati berilishi ham bejiz emas. Ushbu maqol mazmunan shu ma’noni aks ettirgan.

He that has a wife has a master – Xotin – erning vaziri.

Ushbu maqol orqali ikkala millat hayot tarzida ham er va xotin bir-biriga suhbatdosh, hamfikr bo‘lishligi, oila tashvishlarida maslahatgo‘y bo‘lishi kerakligi aytib o‘tilgan. Aynan shu maqolga mazmunan hamohang tarzda yaratilgan bir qancha maqollarimiz mavjud. Jumladan:

Be one flesh – Er-xotin – qo‘shho‘kiz.

Ushbu maqol mazmuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, hayot mashaqqatlarida er-xotin bir safda turib berishi kerakligi aytilgan. Bunday mazmundagi maqollar ingliz xalqi madaniyatida ham aks etib turganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mother, like daughter – Onasini ko‘rib qizini ol, egasini ko‘rib molini ol.

Bolaga yoshlikdan tarbiya berish kerakligi va bu tarbiyada ota-ona farzandlariga o‘z xatti-harakatlari orqali ko‘zgu bo‘lishi haqida ta’kidlangan. Xalqimizda o‘g‘il otadan, qiz farzand onadan o‘rnak olishi aytilgan. Demak, har ikki millat farzand tarbiyasida kattalarning ahamiyatli ekanligini xalq og‘zaki ijodi orqali bayon qilishgan.

Oila mavzusida o‘zbek xalqning folklorida ko‘plab maqollar mavjud, ularning aynan mazmuniy tenglarini boshqa tillarda uchratish kamyob hodisa, buning asosiy sababi shundaki, oila haqidagi ko‘plab o‘zbek maqollari xalq madaniyatini va turmush tarzini ko‘rsatib beradi.

XULOSA

Xulosa qilish kerakki, maqollar ingliz va o‘zbek tillarida juda ko‘p mavzularni qamrab oladi. Ular bir-biridan semantik, strukturaviy, stilistik va hatto, pragmatik jihatdan farq qiladi. Maqollar millat madaniyatining ko‘plab kamchiliklarini qamrab oladi. Maqollar mavjud bo‘lgan til madaniyatini tavsiflash, aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi. “Oila” tushunchasi bilan bog‘langan ingliz va o‘zbek maqollari millatning mentaliteti, madaniyati va urf-odatlarini aks ettiradi va ushbu millat tilida muhim o‘rin tutadi. Ikkala tilda oila haqidagi maqollar xilma-xil bo‘lib, ular orasida sinonimik va antonimik maqollarni topish mumkin. Ammo ularning sinonimik va antonimik munosabatlari mutlaq deb hisoblanmaydi, chunki ular kontekstga qarab tanlanadi, natijada, ularning ma’nolari ham ozgina o‘zgarishi mumkin. Shu sababli, maqolni tegishli joyda qo‘llash nutqni ravon va ta’sirli qiladi. Chunki yuqorida aytib o‘tganimizdek, maqollarda nutqda tez-tez ishlatiladi va ular vaqt, joy, holat va boshqa amaliy omillarga qarab tanlanadi. Bundan tashqari, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar maqollarning ishlatilishi, mazmunan ifodalanishi va boshqa xususiyatlariga bevosita ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mieder W. International Proverb Scholarship. New York: Garland Publishing, 1993. P. 27-63.

2. Gryzberg P. Proverb. New York: Brockmeyer, 1994. P. 227-241.

3. Abrahams R. D. Proverbs and proverbial expressions. In R. M. Dorson (Ed.), Folklore and folklife. Chicago, 1972. P. 117-127.

4. Mieder W. Proverbs: A handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004.

5. Norrick N. R. How proverbs mean. Berlin: Mouton, 1985.

6. Taylor A. The proverb and index to “the proverb”. Hatboro/ PA: Folklore Associates, 1962.

BOLALAR QO‘SHIQLARIDA RANG SIMVOLIKASI VA MIFOLOGIK TIZIMLAR

COLOR SYMBOLISM AND MYTHOLOGICAL SYSTEMS IN CHILDREN'S SONGS

Dilyayra Erkinova
ToshDO‘TAU talabasi

dilyayraerkinova97@gmail.com

Annotatsiya. *Ranglarning xalq ogʻzaki ijodida tutgan oʻrni beqiyosdir. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi namunalarida ranglar muhim badiiy ahamiyat kasb etib, poetik koʻrinishlari bilan e'tiborni tortadi. Folklordagi ramzlar tizimidagi rang bilan bogʻliq obrazlar dunyoning barcha xalqlarida keng yoyilib, an'anaviy shaklga kirganligi bilan alohida ajralib turadi. Rang ramzlar asrlar davomida shakllanib tarixan xalqning qadimiy mifologik tasavvur, e'tiqodiy qarashlariga bogʻlanadi. Ana shunday xususiyatlarning oʻzbek folklori ayrim janrlarida, bolalar folkori va bolalar qoʻshiqlarida qanday ramziy ifoda etishini, ularning tipologik xususiyatlarini oʻrganish, bolalar qoʻshiqlarida ranglar bilan bogʻliq mifologik holatlarning oʻrganilishi haqida maqolada soʻz yuritiladi.*

Kalit soʻzlar*: rang ramzlar, bolalar folklori, mif, mifologik tizimlar, obraz, qoʻshiq.*

Abstract. *The role of colors in folklore is incomparable. In the examples of Uzbek folk art, colors have an important artistic significance and attract attention with their poetic appearance. Color-related images in the system of symbols in folklore are widely distributed in all nations of the world and are distinguished by the fact that they have entered into a traditional form. Color symbols have been formed over the centuries and are historically connected to the ancient mythological imagination and beliefs of the people. The article talks about the symbolic expression of such features in certain genres of Uzbek folklore, children's folklore and children's songs, the study of their typological features, the study of mythological situations related to colors in children's songs.*

Key words*: color symbols, children's folklore, myth, mythological systems, image, song.*

Ranglar har bir soha tabiatiga koʻra turlicha ma'no kasb etadi. Folklor va adabiyotda ranglar birinchi galda ramziy mazmun tashiydi. Xalq ogʻzaki ijodida ranglarning ramziylashtirilishi muayyan sabablar bilan bogʻliq. Shu bois bu muammo sirlarini oʻrganish hamma zamonlarda zakovat ahli diqqatini tortib keldi. Rangdan badiiy vosita sifatida foydalana boshlangach, uning poetik obraz sifatidagi badiiy-timsoliy xususiyatlarini oʻrganishga e'tibor kuchaya bordi. Borliqdagi narsalarga va tabiat hodisalariga, inson fe'l atvoriga xos xususiyatlarning ranglarda aks etish omillarini oʻrganishga qiziqish ortdi.

Folklor va adabiyotda ranglarning ramziy ma'no-mohiyatini ochib berish, tasnif qilish, struktural va semantik qatlamlarni oʻrganish juda murakkab. Chunki ranglar u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odati, marosimi, qadimiy qarashlari bilan chambarchas bogʻliq va hamisha bir qolipga sigʻmaydi. Ranglar bilan bogʻliq ramzlar inson kechinmalarini ixcham, purma'no, ta'sirchan qilib ifodalashga imkon yaratadi. Ranglar epik asarlarda xalqning u yoki bu epik qahramoni haqidagi tasavvur, tushunchalarni ifodalasa, xalq qoʻshiqlarida lirik qahramonning his-kechinmalarini, qalb tuygʻularini, fikr-oʻylarini jonli va ta'sirchan aks ettirib keladi. Bunda ijodkorlar unga turlicha munosabatda boʻlishi kuzatiladi [Roʻziyeva 2016: 41].

Oʻzbek folklorining ayrim janrlarida rang simvolikasiga doir bir qator ishlar qilingan boʻlsa-da, bolalar folklori, xususan, bolalar qoʻshiqlarida ranglarning qanday ramziy mazmun tashishi va ulardagi mifologik tizimlarga doir tahlillar kamligi ularning chuqqurroq tahlil qilinishiga ehtiyoj tugʻdiradi. Bolalar qoʻshiqlaridagi ranglarga daxldor ma'nolarni oʻrganish ularning janriy xosliklarini toʻgʻri belgilash, badiiy xususiyatlarini oʻrganish imkoniyatini kengaytiradi.

Oʻzbek bolalar folklori uzoq davrlardan beri mavjud. Unga kattalar ham, bolalar ham birdek hissa qoʻshishgan. Bolalikning qalb tebranishlari, ehtiroslari, oʻziga xos shoʻxliklari va voqelikka munosabatlari bolalar folklorida oʻz ifodasini topgan. O.Safarov bolalar qoʻshiqlarini ijro oʻrni, ijtimoiy-estetik mohiyati jihatidan toʻrt guruhga ajratib oʻrganish maqsadga muvofiq [Safarov 1984: 327] ekanini aytadi. Bular: 1) oʻyinga chorlovchi qoʻshiqlar; 2) ma'naviy oʻyin qoʻshiqlari; 3) turli qoʻshiqlar; 4) hazil-mutoyiba qoʻshiqlari.

Kattalar hamisha oʻz farzandini oʻylab, erta-yu kech mehnat qilganlar. Bunday holatda ularning bola taqdiri haqida qaygʻurishi chuqurlashib, talay qoʻshiqlar toʻqilishiga sabab boʻlgan.

Ayniqsa, chaqaloqni parvarish etish mas'uliyati behad katta bo‘lgan. Bu yo‘lda ularga qo‘shiq madadkor bo‘lgan. Bolalarni qo‘shiq bilan uxlatganlar, yig‘lasa kuylab ovutganlar, erkalaganlar, qo‘shiqlar yordamida chaqaloqqa daxldor rasm-rusumlarni bajarganlar. Shu zaylda alla, aytim-olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qiziqmachoqlar yuzaga kelgan. Bular bolaning beshikdagi davri va undan keying davri bilan bog‘liq.

Tag‘in shunday qo‘shiqlar borki, ularni kattalar qachonlardir u yoki bu munosabat bilan to‘qiganlar. Bular marosim va mavsum qo‘shiqlari bo‘lib, davr o‘tgani sari ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojga ko‘ra kattalar repertuaridan bolalar repertuariga o‘tgan. Bularga: "Boychechak", "Chittigul", "Yo, ramazon" kabi qo‘shiqlar misol bo‘ladi.

Ulg‘ayish ehtiroslari, o‘yinlar, kattalar bilan munosabatlar, hayotda o‘z mavjudligini anglay borish shavq-u zavqlari murg‘ak qalblardagi tebranishlarni rang-barang ohanglarda gavdalantirib, bolalarning o‘zlarini ham qo‘shiqchi – shoirga aylantirib qo‘ygan. Shu yo‘sinda aytish mumkinki, ular yaratgan qo‘shiqlar o‘zbek bolalar folklorining xilma-xil janrlarga boy eng katta tarkibiy qismini tashkil etadi.

Bolalar qo‘shiqlari o‘zining turli ramzlarga boyligi bilan o‘ziga xoslik tashkil etadi. Kattalar folkloridan bo‘lganidek, bolalar qo‘shiqlarida ham ranglar turli ramziy ma'no bildirib, obrazlilikni kuchaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalar qo‘shiqlarida ham rang ramzlar barqaror shakl va tub mazmunga ega. Xalq qo‘shiqlaridagidek bolalar folklorida ham rang vositasida yaratilgan sifatlashlar yetakchi o‘rin egallaydi.

Oq rang odamlar tomonidan ezgulik timsoli sifatida qabul qilinadigan qadimiy yorug‘lik rangidir. U hayot boshlanishi asosi hisoblangan sut va urug‘ ekvivalentidir; u tashnalikni qondirib, tanani tozalovchi suv timsolidir; oq rang shu bilan bir qatorda yuqori begona sferalar timsolidir, chunki u bulutlar, samoviy poklik va yorug‘lik bilan bog‘liq. Aynan shuning uchun ham oq rang qadimdan ezgulik, ko‘payish va muqaddas belgi hisoblanadi [Ro‘ziyeva 2016: 44]. Bolalar qo‘shiqlarida ham oq rang xuddi shunday sifatlarni ifodalab kelishini ko‘ramiz.

Oq ipakdek ko‘ylak qor.
Dehqonlarga tilak qor,
Goho meni quvalab,
Uyga kiritar tentak qor [Safarov 1984: 327].

Bolalar uchun qor quvonch, baxt timsolidir. Ipak matosi qimmatbaho bo‘lganidan, bola qorni ham oq ipakdan ko‘ylakka qiyoslab o‘zining bola ko‘nglidan dil izhorlarini bayon etadi.

Bolalar qo‘shiqlarida ranglarning ko‘proq turli xil narsa-buyum, parranda-yu qushlar bilan poetik sifatlanib, ramziy obraz hosil qilishi ko‘p uchraydi.

Oq-oqqina qushlar bor.
Qushlari uchib ketdi,
Kuchugi cho‘chib ketdi.
Oqqina kuchuk hov-hov etar,
Qorni to‘ysa, yumalab yotar.

Bu qo‘shiqdagi "oq qushlar" va "oq kuchuk" birikmasida oq epiteti qushning tinchlik, omonlik fazilatlarini ko‘rsatish uchun, oq kuchuk ham bolalarga xos beg‘uborlik, rahmdillik xususiyatlarini ifodalashda xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodida va adabiyotlarda oq rang va qora (ko‘k) rangning ko‘pincha bir-birig zidlanish holatlari kuzatiladi. Buni biz bolalar folklori janrlaridan o‘yinlarda va qo‘shiqlarda kuzatishimiz mumkin.

Ko‘plab o‘yinlar syujetini tashkil etgan voqea-hodisalar real voqea-hodisalardandan olingan bo‘lib, ularning kelib chiqishida qadimgi ajdodlarimizning animistik, totemistik va turli tasavvurlar qarashlari yotadi. Bolalar o‘yin folklorida keng tarqalgan "Oq terakmi, ko‘k terak" o‘yini asosida ibtidoiy insonlarning oq va ko‘k ranglar haqidagi mifologik qarashlari yotadi. Shomirza Turdimov ham bu o‘yin haqida o‘zining "Hikmatlar xazinasi" kitobida: "Bu o‘yin bahor marosimining tarkibiy qismi bo‘lgani uchun faqat marosim marosim paytida o‘ynalib, keyinchalik u kattalar, so‘ngra bolalar o‘yiniga aylangan. Bizningcha, bu o‘yin o‘zida kun-tun, qish va bahor

to‘qnashuvi haqida qadim tasavvurlarni ham o‘zida mujassam etadi. Qish yengilsa, bahor g‘olib keladi, tun chekinsa, kun uzayadi. Zero, o‘yin folklori zamirida asosiy urg‘u shunga qaratilgan”, – deb yozadi. Yana o‘yinning bunday atalishida terak bargining bir tomoni oq, bir tomoni ko‘k bo‘lishi yoki shu ranglar orqali kun va tun haqidagi tasavvurlar bilan bog‘lash mumkin. Xalqimizda oq rang baxt, yaxshilik, sog‘-salomatlik, tinch hayot ramzida, ko‘k rang esa mangulik, o‘lim ramzida ifodalanishi ham o‘yinda bu ranglarning ramziy ifodasini aniqlashda qo‘l keladi. O‘yin mohiyatiga ko‘ra, ”oq terak“ raqib safi tomon ketgan bolaning sog‘-salomat qaytishiga, ”ko‘k terak” esa raqib safi tomon ketgan bolaning qaytib kelmasligiga, u safda qolib ketishiga ramziy ishora bo‘lib o‘yin mazmunini ochishga yordam beradi. Xorazmda bu o‘yinning “Oy terakmi, kun terak” degan nomda uchrashi ham oq va ko‘k ranglar bu yerda bir-biriga zid tushunchalarni, kun-tun, bahor-qish kabi ma’nolarini ifodalashini tahlil qilish mumkin. Yana bu o‘yinda xalqning terak bilan bog‘liq mifologik qarashlarini tahlil etish mumkin. Bu o‘yinning tarixiy ildizlari turkiylarning terak daraxtini totem sifatida ardoqlaganliklarini inkor etmaydi. Buni biz turkiylar yashagan joylarda terak nomi bilan bog‘liq toponimlarning ko‘pligidan ham bilish mumkin. Boshqa o‘rinlarda qadimda turkiy qabilalar bu o‘yin orqali boshqa qabiladan qiz olish yoki buyumlarni ayirboshlash maqsadida ham foydalanishgani haqida ham ma’lumotlar uchraydi.

Bolalar o‘yin folklorida oq va ko‘k ranglarning zidlanib kelish holatini ko‘rdik. Bu holatni bolalar qo‘shiqlarida ham uchratish mumkin.

Oppoqjon dastidan
Qizil gul ochildi.
Qizil gulning xumchasi,
Oppoqjonning bachasi.
Oppoqjon o‘libdi,
Ko‘k ko‘ynakni yopipti.

Bu yerda qizil gul lola ma’nosida kelyapti. Lola guli erta bahorda ochilishi hammamizga ma’lum. Qish chekinib (oppoqjon o‘libdi), o‘z o‘rnini bahorga bo‘shatishi (ko‘k ko‘ynakni yopipti) she’rda tasvirlangan. Bu yerda oq va ko‘k ranglar qish va bahor ma’nolarini ifodalab kelishi kuzatiladi.

Bolalar qo‘shiqlarida ham xalq dostonlarida uchraydigan ola ot obrazi ko‘p bora qo‘llanilgan.

Olatoy, bulatoy,
Man sani yo‘rg‘alatay.
Yo‘rg‘a otim o‘libdi,
Go‘shtini kimga sotay.

Folklorshunos Mamatqul Jo‘rayev “Ola ot kultining o‘zbek eposidagi izlari” maqolasida xalq dostonlarida epik ot obrazining har jihatdan mukammal ishlanganligini ta’kidlab, epik ot obrazining ola, chovkar bo‘lishining qadim mifologik va hayotiy asoslarini isbotlab bergan [Jo‘rayev 1996: 29-37].

Ola rang kosmik mutanosiblikni, uyg‘unlikni ifodalovchi ramziy-timsoliy ma’nolarga ega. Bu rang turkiy xalqlar orasida muqaddaslashtirilgan ot topinchida ham muhim o‘rin tutgan. Mifologik tasavvurlar asosida xalq orasida ola ot muqaddas otga aylangan va epik qahramonlar otining ola rangda bo‘lishi an’anasi shakllangan [Ro‘ziyeva 2016: 70]. Bolalar qo‘shiqlarida ham ola ot shuning uchun tasvirlangan bo‘lsa ajab emas.

Olatoy, bulatoy,
Man sani yo‘rg‘alatay.
Yo‘rg‘alama, chopa qol,
Shamoldan o‘zib ketay,
Tezroq shamolga yetay.

Qora rang qadimgi odamlar uchun qorong‘ulik, tun, ajal, yer osti dunyosi, baxtsizlik, yomonlik timsoli bo‘lib kelgan. Qora rangga ko‘pincha salbiy ma’noda qarash hozirgi kunda ham bor. Bolalar qo‘shiqlarida ham qora rang turli jonzot, predmetlar nomi bilan kelib, ramziy obraz hosil qilishi kuzatiladi:

Bache, bache bozi,

Kim qora qozi,
Kim o‘yinga chiqmasa,
Bo‘yniga tosh-tarozi.

Qo‘shiqda qora qozi jumlasini ko‘ramiz. Nima uchun aynan qora qozi? Bilamizki, qadimda hamma qozilar ham insofli, adolatli bo‘lmagan. O‘z kasbini suiiste’mol qilib, xalqni aldab, ularni nochor ahvolga solgan qozilar ko‘p bo‘lgan. Buni biz xalq og‘zaki ijodida ertaklarda, dostonlarda ko‘p uchratamiz. Albatta, xalq o‘ziga yomonlik qilgan insonlarni kashf etmay qolmagan. Qilmishi tuban, yomon bo‘lgani uchun ham bolalar qo‘shig‘ida qora rangi bilan sifatlanib kelib, o‘yinga chiqmay aldagan bola go‘yo qora qoziga tenglashtiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalar qo‘shiqlarida ifodalanadigan ranglar o‘ziga xos ramziy ma’no kasb etadi. Bolalar qo‘shiqlarida qo‘llangan rang ramzlar ham boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi kabi asrlar davomida shakllanib, tarixan xalqning qadimiy mifologik tasavvur, e’tiqodiy qarashlariga bog‘lanadi. Bolalar qo‘shiqlari tarkibida rang ramzlar obrazni xarakterlash, sifatlash, tasvirni badiiylashtirish, ramzlashtirish singari muhim vazifalarni ham bajaradi. Bolalar qo‘shiqlarida ranglarning ko‘proq turli xil narsa-buyum, parranda-yu qushlar bilan poetik sifatlanib, ramziy obraz hosil qilishi ko‘p uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro‘ziyeva M. O‘zbek folklorida rang simvolikasi. – Toshkent: Fan, 2016.
2. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. –Toshkent: Fan, 2010.
3. Turdimov Sh. Lirik qo‘shiqlarda ramz // O‘TA. – Toshkent, 1982. 3-son. –192 b.
4. Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklori tabiati. Buxoro, 2020.
5. Jo‘rayev M. Ola ot kultining o‘zbek eposidagi izlari // Adabiyot ko‘zgusi. – Toshkent, 1996. 2-son. –B 29-37.
6. Boychechak. Bolalar folklori. Mehnat qo‘shiqlari. Ko‘p tomlik. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar O.Safarov va K.Ochilov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. – 336 b.

TO’RTKO’L HUDUDIDAGU TO’Y MAROSIMLARINING LOKAL XUSUSIYATLARI

LOCAL CHARACTERISTICS OF WEDDING CEREMONIES IN TORTKOL REGION

Yusupova Asalxon
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek til va adabiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada To‘rtko‘l va Xozarm hududlarida nishonlanadigan nikoh to‘yi haqida ma’lumoq keltirib o‘tilgan. To‘ydagi urf-odatlar, ramzlar hamda har xil an’anlar haqida muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar*: obraz, tahlil, qiyos, lokal, marocsim, urf-odat, meros, an’ana, nikoh, aytim, ramz, badiiy ifoda.*

Abstract: *In this article, information is given about the wedding ceremony celebrated in the regions of Tortkol and Xorazm. Wedding customs, symbols and various traditions were discussed.*

Key words*: image, analysis, comparison, locale, ritual, tradition, heritage, marriage, symbol, artistic expression.*

Marosimlar qadim zamonlardan beri nishonlanib kelmoqda. Marosimlarda asosan milliy qadryatlar, har bir xalqning o‘ziga xos bo‘lgan an’analari aks etadi. Nikoh marosimi xalqimizning sevimli marosimlaridan biri bo‘lib, turli-tuman an’ana, urf-odat va ramzlarni o‘zida jamlagan.

Nikoh to‘yi balog‘atga yetgan yigit va qizning o‘zaro roziligi bilan oila qurishi, bir yostiqqa bosh qo‘yishi, kelin va kuyovning nikohini nishonlash marosimidir. Nikoh umuminsoniy qadiryatlarni o‘zida mujassamlashtirgan urf-odat bo‘lib, ibtidoiy jamiyatning so‘nggi davrida yuzaga kelgan va keyinchalik yozma tarzda qonuniylashtirilgan marosim shaklini olgan [Jo‘rayev 2008:78]. Nikoh arabcha so‘z bo‘lib, “uylanish, erga tegish, er-xotinlik, er-xotinlikni shariat yo‘li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domla tomonidan o‘qiladigan shartnoma” ma’nolarini bildirgan. Er-xotinlikni hammaga bildirish maqsadida xalqimiz to‘ylar tashkil qilishgan.

Nikoh marosimi sovchilik orqali boshlanadi. Ba’zi bir viloyatlarda dastlab ayollar qizning uyiga sovchi bo‘lib borishadi. Ammo Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘istonning ba’zi tumanlarida avval erkaklar sovchilikka borib kelgandan keyin ayollar tog‘ara ko‘tarib borishadi.

Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l tumanida to‘ydan oldin “O‘g‘ri patir”, “Maslahat oshi”, “Oq yertish”, “Eshik ochar”, “Fotiha”, “Qiz yig‘in (qiz bazmi)” kabi urf-odatlar qizning uyida o‘tkazilsa, “Ko‘rpa tikdi”, “Non yopar”, “Yigit yig‘in” kabi urf-odatlar yigitning uyida o‘tkaziladi. Huddi shu kun o‘tkaziladigan urf-odatlar – “Kelinni kuzatish”, “Kelin salom”, “To‘sh qaytarar”, “Kelin o‘tirsin”, “Matir bog‘lash marosimi” (ba’zi hududlarga “belbog‘ yechar” deb ham yuritiladi) va boshqa bir qancha qiziq urf-odatlar o‘tkaziladi. To‘ydan keyin “Kuyov ko‘rdi” (“Kuyov salom”), “Supra qoqdi”, “Kelin chaqirdi”, kabi bir qator marosimlar o‘tkaziladi.

“O‘g‘ri patir” marosimida kuyovning onasi yaqin qarindoshlari bilan qizning uyiga “dasturxon” keltiriladi. Unda patir va shirinliklar bo‘ladi. Qiz tomon “dasturxon”dagi shirinliklarni olib qolsa, rozilik belgisi hisoblanadi.

“Eshik ochar” ya’ni “Fotiha” to‘yi qizning uyida o‘tkaziladi. Bu marosimning asosiy taomi shirguruch (sutburunch) hisoblanadi. Shirguruch bo‘lg‘usi kelinning oq va pokiza ekanligining ramzi va payg‘ambarimizning sevimli taomi sifatida ham e’zozlanadi. Shu kuni kelin-kuyov va uning jo‘ralariga o‘zi tikkan qopchaga bo‘yalgan tuxumlarni solib, kuyov uchun sarpo va shirinliklar yuboradi.

Fotiha to‘yida qo‘y so‘yilgan va kelgan mehmonlarga sho‘rva bilan “qat-qat patir” tortilgan. Bu udumda kuyov oilasi tomonidan patir yopib borilishi va dasturxonga patir qo‘yilishi “ikki yoshning turmushi patirday yog‘li bo‘lib o‘zaro bir-biriga qapishib, o‘zlaridan ko‘payib yursinlar” degan ramziy ma’noni bildirgan. Marosim yakunida qudalarga “oqlik” tarqatilgan, ya’ni oq ro‘molga ikki yoshning taqdiri birlashganligi elga ma’lum qilish maqsadida juftlab sindrilgan non bo‘laklari va shirinliklar solingan. Bu xalq tilida “non sochiq” deyiladi [Jo‘rayev 2008:124]. Huddi shu kuni qudalar “maslahat oshi” udumuni ham o‘tkazishadi. Kuyov qiz tomonga to‘ydan oldin beradigan narsalarni kelishib olishgan. Masalan, qiz uchun kiyim-kechaklar, oltin taqinchoqlar, qalin puli (Xorazm tomonlarda qalin puli boshqa viloyatlarga qaraganda ancha qimmat hisoblanadi), bitta qo‘chqor, kelinning yaqinlariga sarpolar, bular xalq tilida “parajuz aytish” deb yuritiladi.

“Kelin kuzatar” marosimi to‘y kuni qizning uyida bo‘lib o‘tadi. Bu marosimda chimildiq (To‘rtko‘l tumanida ko‘shani deyiladi) bir tomonini yoshi ulug‘ bo‘lgan onaxon ushlab turadi va boshqa ayollar ham atrofini ushagan holda tik turishadi. Ko‘shana ostida kelin va dugonalari o‘tirishadi. Kelinning onasi qizini duo qilib, peshonasini oq ro‘mol bilan bog‘laydi. Buning ma’nosi kelinning yuzi yorug‘ bolib kuyov uyiga borishidir. Shu paytda yoshi ulug‘ onaxon aytim aytadi.

Avval boshdan Alloni yod atali, yor-yor
Payg‘ambarlar ruhini shod atali, yor-yor
Bor, bor qizim, bor qizim baxting bo‘lsin yor-yor
Sulaymonning taxtindi taxting bo‘lsin, yor-yor.
* * *
Innam uji sindi dab
Urding anam yor-yor,
Indi getib boraman
Dinding anam yor-yor.

Aytimning ikkinchi qismida qiz onasiga murojaat qiladi. Onasi uni urganini va endi qizi ketib tinchib qolganini (qayg‘uga botmoq ma’nosida) aytadi.

Shundan keyin qiz otasidan oq fotiha olib, o‘zi uydan chiqib ketadi. Kuyov kelinni chiqishini mahallaning boshida kutib turdi. Xorazm tomonlarda kuyov kelinni olib ketish uchun to‘y kuni kelinning uyiga kirmaydi. Bu qaynota va qaynonaga nisbatan hurmat belgisi hisoblanadi. Ba’zi, hududlarda, masalan, Andijon va Namangan viloyatlarida qizni olib ketish uchun kuyov navkar bo‘lib kelayotgan yigitlar yor-yor aytib kelishi holatlari kuzatiladi [Murodova, 2012:43].

“Chiroq aylantirish” udumi Xorazm viloyatining tumanlarida, shuningdek, Urgutda kelinning uyida yoqilib, kelin-kuyovning atrofidan aylantirilgan chiroqni yangalar olib boradilar. Shunday qilinsa, kelin-kuyov oilasining chirog‘i sirayam o‘chmaydi, deb yaxshi niyat qiladilar [Jo‘rayev 2008:134]. Xorazmda nikoh to‘yida kelin keladigan yo‘lning ikki tomonidan olov yoqilgan va kelin tushgan “bo‘lish arava“ ana shu olov orasidan o‘tib, kuyovning uyi tomon yo‘l olgan. G. P. Snesarev bu udum “O‘rta Osiyo xalqlarining olov bilan poklanish marosimi asosida kelib chiqqan”, deb hisoblaydi [Jo‘rayev, 2008:146].

Kelin-kuyovning uyiga kelganda oyog‘i ostiga qaynonasi gilam to‘shaydi, ustida oq poyandoz qoyiladi. Keyin kelin bilan kuyovning boshidan shirinliklar sochiladi va ular ostona yoniga borishgandan keyin “Kelin salom” qilishni boshlaydi. Kelin yonida ikkita yanga turadi. Salom payti kelinga har xil sovg‘a-salomlar-u kiyimlik matolar beriladi. Salomdan keyin qaynona kelinning peshonasini uch marta ostonaga tekkazadi. Bu udum shuni anglatadiki, kelin har doim egilib-bukilib xizmat qilishi, hamda hech qachon quda tomonga tik qaramasligidir.

Huddi shu kuni “belbog‘ yechar” udumi ham o‘tkaziladi. Bunda kuyovjo‘ralar kuyovning beliga belbog‘ni qattiq, chigal qilib bog‘lashadi. Agar kuyovjo‘ralar ichida hazilkashi bo‘lsa, belbog‘ning tugunlariga shunchaki yangaga hazil tariqasida achchiq qalampir surtib qo‘yadi. Kelin tomonda kelgan yanga shu tugunlarni yechishi kerak bo‘ladi. Yechilgan tugunlar kelin-kuyovning hayotida tushunmovchiliklar, chigalliklar bo‘lmasligini bildiradi. M. Jo‘rayevning “Marosimnoma” kitobida yozilishicha, “Tugunlarni yechish” yo‘l ochish, visolga yetishish, mushkul ahvoldan xalos bo‘lish vositasi sifatida qaralgan [Jo‘rayev 2008:17]. Folklorshunos olim N. Quronboyev tomonidan yozib olingan ma’lumotga ko‘ra “belbog‘ yechish” udumining bajarilish jarayonida ko‘zga tashlanadi. Masalan:

Kuyov jo‘ralar:
Kela qoling, yangajon
Yecha qoling, yangajon
Agar yecholmasangiz
Jo‘sha qoling, yangajon
Yanga:
Belbog‘ni men yechaman
Nechun senga jo‘shaman
Agarda shovqin qilsang
Qizni olib ketaman.
Kuyovjo‘ralar:
Egiling, egiling, jon yanga
Bukuling, bukuling, jon yanga
Yecholmaysiz belbog‘ni
Ololmaysiz siz tanga [Jo‘rayev, 2008:18].

Shu udumdan keyin kelin yanga kuyov va uning jo‘ralariga to‘sh yediradi. To‘sh keltirilgan tovoqqa kuyovjo‘ralar pul solib berishgan, to‘sh yonida kuyov va uning jo‘ralari uchun qaynatilgan tuxum va suzmaga solingan chuchvaralar ham bo‘ladi. To‘sh qaytara udumi boshqa hududlarda to‘ydan keyin o‘tkaziladi. Masalan, Toshkent viloyati tumanlatida kelinlarni to‘shga chaqirish udum bo‘lgan. “To‘shga chaqirdi” deb yuritilgan bu udumga ko‘ra yangi kelinni kuyovning yaqin qarindoshlari to‘sh pishirib mehmonga taklif qilishgan [Murodova, 2011:51].

Etnograf G. P. Snesarov gurlanliklarning nikoh to‘yi bilan bog‘liq qiziq bir udumni qayd qilgan. Kelinni olib kelishgandan keyin kuyovning onasi uch marta “kelinimga qizil sigirni

berdim” deydi. Bu udumning o‘ziga xosligi shundan iboratki, qaynona aynan qizil rangli sigirni berishini aytadi “qizil sigir bersa, qaynona va kelinning tili bir bo‘ladi” deyishadi gurlanliklar [Jo‘rayev, 2008:54].

Hozirgi kunga kelib bu udum marosim shaklidan chiqib ketgan.

Chimildiq tortilgan xonaga kelin-kuyov kirgandan keyin kuyov kelinni ko‘tarishi, hamda kelinning boshi chimildiqning tepasidan ko‘rinishi kerak. Bu kuyov kelinni umrbod qo‘lida ko‘tarib yurishini anglatadi.

“Kuyov salom” yoki “Kuyov ko‘rdi” deb yuritiladigan bu marosim to‘ydan uch kun o‘tib qizning uyida bo‘lib o‘tadi. “Kuyov salom” udumda kuyov va uning jo‘ralariga shirguruch (sutburunch) tortiladi. Kuyov jo‘ralar tovoqni yeb bo‘lib, unga pul solib berishadi. Ovqatdan keyin hamma bir joyga yig‘ladi va kuyov va uning ikkita jo‘rasi kuyov salom qiladi. Qaynota va qaynona tomonidan kuyov va uning jo‘ralariga sarpo hamda sovg‘a-salomlar beriladi.

“Supra qoqdi” udumi to‘ydan keyin o‘tkaziladigan marosim hisoblanadi. Uy egalari to‘y xizmatchilariga hamda yordam bergan insonlarga rahmat sifatida marosim tarzida o‘tkazadigan udum hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев М, Худойқулова Л. Маросимнома. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси. 2008. – 207 б.

2. Murodova M. Samarqand folklorida yor-yor // O’zbek tili va adabiyoti jurnali. 2012, 4-son. – B. 43.

3. Murodova M. To‘y marosimlarida to‘sh qaytarar udumi // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2011, 2-son. – 51 b.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Madvaliyev A. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 1996. – 66 b.

“OLTIN BESHIK” AFSONASI YOXUD TARIXIY HAQIQAT IFODASI

"GOLDEN CRADLE" LEGEND OR AN EXPRESSION OF HISTORICAL TRUTH.

Mahliyo Xudoyberdiyeva Ilhomjonovna
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya.*Ushbu maqolada "Oltin beshik" afsonasi, uning turli xil manvalardagi talqinlari va tarixiy haqiqatga qanchalik yaqin ekanligi Is'hoqxon To'ra Ibratning "Tarixi Farg'ona" tarixiy asaridan, Nabijon Boqiyning "Qodiriy qidirgan kitob" nomli asaridan olingan asosli ma'lumotlar asosida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oltin beshik, afsona, Ho'qand, Bobur, minglar sulolasi, beshik, Samarqand, Farg'ona, "Boburnoma", to'qima rivoyat,tarixiy haqiqat.*

Abstract. *In this article, the "Golden Cradle" myth, its interpretations in different ways and how close it is to the historical truth are taken from the historical work "Tarihi Ferghana" by Ishaq Khan Tora Ibrat, and from the work called "The Book Searched by Qadiri" by Nabijan Baqi. revealed on the basis of data.*

Key words: *Golden cradle, legend, Khoqand, Babur, dynasty of thousands, cradle, Samarkand, Ferghana, "Baburnoma", textile narrative, historical fact.*

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Qo'qon xonligining vujudga kelishi haqida turli xil ma'lumotlarni uchratamiz. Tarixchilar o'zining tarixiy asarlarida, yozuvchilar ham o'z badiiy asarlarida atroflicha Minglar sulolasining kelib chiqish tarixini yoritishadi. Qo'qon tarixnavislari asarlari asosan, fors, arab va turkiy tillarda bitilgan manbalarga tayanadi. Qo'qon tarixshunoslik

maktabining vujudga kelishida oldingi zamon tarixchilarining asarlari, shuningdek, Sharq mutafakkirlarining tarixnavislik an'analari muhim rol o'ynaydi.

Qo'qon xonligining birinchi tarixnavisi Fazliy Farg'oniy (Abdulkarim Namangoniy) bo'lib, u "Umarnoma" nomli kitob muallifidir. Asar Amir Umarxon ko'rsatmasi bilan tojik tilida she'riy yo'l bilan yozilgan. Biroq asar xonga ma'qul bo'lmaydi,chunki Namangoniy asarida Minglar sulolasining asoschisi "Oltin beshik" haqidagi rivoyatni keltirmaydi.Bu rivoyat Umarxonning Bobur orqali Temur va temuriylar bilan qarindoshligini isbotlashi kerak edi. Bu ishni Mushrif Isfaragiy amalga oshiradi, ya'ni xonning shajarasini tuzib beradi.

"Oltin beshik" haqidagi rivoyatlarni yana ko'plab yozuvchilar asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Shulardan biri, Is'hoqxon To'ra Ibratning "Tarixi farg'ona" asaridir. Asarda rivoyat quyidagicha keltiriladi:" Ho'qand xonlarining ibtidosi Oltin beshik deb "Tarixi Shohruxiy"da bayon qiladur. Ul vaqtda Ho'qand yo'q, atrofda Tirg'ov degan va Chinkant bo'lub, Andijon xonlaridan Boburxon ibn Umarshayxning Andijondan qochib ketib turgan vaqti ekan. Ul kishi o'z oilasindan bir bachasi va bir marziai g'abiyni necha xil oltun va kumushlar bilan tazyin qilib, aning beshiklarini kimxob va atlaslarga o'rab, Boburxonning qochub o'tub turgon yerig'a maxfiy tashlab, anga posbonlar qo'yub, tofub olmoq uchun bo'lak xalqlarning muoyana bilmaki lozim. Bolaning otini Oltun beshik deb, andin necha qarn o'tub avvali to'qquz yuz o'n to'qqizinchi hijriydan Oltun beshikdan Shohruxxon o'rtasi ikki yuz yildan ziyodaroq o'tub, o'n ato bilan bir ming bir yuz yigirmanchi sanasi Shohruxxon julus etib, mufassal yozilgan ta'rixlari ham bor edi"[1]. Ushbu asardan olingan parchadan ko'rishimiz mumkinki, Oltin beshik Minglar sulolasining bosh asoschisidir. Amir Umarxonlar Bobur shajarasining davomchilaridir. Tarixdan yaxshi xabardor bo'lgan Ibrat tarixiy dalillarga tayangan holda buni isbotlab bergan.

Xudoyorxonning ikkinchi o'g'li Muhammad Aminbek ham o'zining 1894-yilda "Turkiston viloyatining gazeti"da bir necha bor chop etilgan "Farg'ona muzofotining xonlari xususidagi voqeotlar" nomli kitobida ham Boburning Samarqanddan chiqib, Farg'onaga kelishda havosi ma'qul bo'lgani, Naymancha soyi bo'yida farzandi qolganligi va uning ismini Oltin beshik deb qo'yganlarini aytib o'tadi. Asarda Oltin beshikdan o'n pusht o'tib, ya'ni ikki yuz yildan so'ngra Shohruxxon tavallud topganligi, o'n sakkiz yoshida taxtga o'tirganligi bayon etilgan.

Is'hoqxon To'ra Ibrat va Muhammad Aminbek fikrlarini qo'llab quvvatlaydigan yana bir manba yaqinda nashrdan chiqqan Nabijon Boqiyning "Qodiriy qidirgan kitob" nomli asaridir. Nabijon Boqiy ham ushbu asarida "Oltin beshik" afsonasi haqida gapirib, uning qanchalik tarixga yaqin ekanligini ochib bergan. Fikrlarimiz isbotini quyidagi asardan olingan parchalar orqali ham ko'rishimiz mumkin: "Roviylar andoq rivoyat qiladilarki, hijriy 909 yilning muharram oyida Boburjon ibn Umarshayx Farg'ona viloyatidin Xuroson azimati bilan olis safarga otlangan chog'ida o'z oilasida yangi tug'ilgan go'dakni kimxob va atlaslardan yopinchiq yasalgan Oltin Beshikka yo'rgaklab, yostiqchasi ostiga bir xaltacha dur-javohirni yashirib, posbonlar tayinlab, xilvatroq quloqboshiga tashlab ketadi. Go'dakning axlati tushadigan tuvakcha ham gavharu nuqralarga to'ldirilgan edi"[2] .

Tashlab ketilgan beshikni buloq boshidan uch mirob topib oladi va biri beshikni, biri xaltachadagi tillani va biri beshikning tuvagini oladi. Miroblar Mingboyga bolani tashlab ketishini aytadi. Lekin mirob bolani olib ketadi. Bola yo'lda tinmay yig'laydi. Shunda mirob bolani tuvagiga qaraydi , ichida gavharlar bo'ladi. Demak, bu Bobur Mirzoning o'g'li deb o'ylaydi.Mingboy mirob bolaga g'amxo'rlik ko'rsatib, tarbiyalay boshlaydi. Tuvak ichidan topilgan gavharlarni mirob qishlog'i ravnaqiga sarflaydi. Oltin Beshik Bobur farzandi ekanligi haqida ovoza tarqaladi. Bu holatdan oqsoqollar qo'rqishadi, chunki Bobur avlodini tarbiyalayotgan qishloq haqida eshitgan Shayboniyxon barchani ayamasdan yoppasiga qirib yuborishi mumkin edi. Shu sababli ham, bolani yo'qotishni talab qilishadi.Kengashda Laylo mudarris bolaning ayni Bobur avlodidan ekanligini quyidagi dalillarni keltirish orqali isbotlab beradi. "-Men ham dalil bilan gapirishni yaxshi ko'raman. Bu voqea 907-hijriyda ro'y bergan. Mirzo Bobur o'z qo'li bilan yozgan "Voqeoti""da shunday deydi: "Necha kundin so'ng mening ulug' onam Eson Davlatbegimkim, men Samarqanddin chiqqonda qolib edilar. Samarqandda qolg'on ko'ch-urug' va och va oruq bila keldilar. Ushbu qish o'rtasida Shayboqxon Xo'jand suyini muz bila kechib Shohruhiya va Piskent

navohisini chopti. Xabar kelgach, kishimizning ozlig'ig'a boqmay chopa otlanduk. Xo'jandning quyi kentlari- Xashtiyak to'g'risi bila mutavajjuh bo'lduk. Mahkam zarb sovuq edi. Bu navohida Hodarvesh yeli o'ksumas, hamisha tund qo'par. Ul martabada sovuq edikim, o'shal ikki-uch kunda ikki-uch kishi bu orada sovuqning shiddatidin o'lub edi. Manga g'uslg'a ehtiyoj edi. Bir ariq suyidakim, yoqalari qalin muz to'ng'ib edi, o'rtasi suvning tezligi jihatidin yax bog'lamaydur edi, bu suvg'a kirib g'usl qildim. O'n olti qatla suvga cho'mdim, suvning sovuqligi xeyli ta'sir qildi. Tonglasi Xo'jand suyini Xoslar to'g'risidin muz ustidin o'ttuk. Suvdin o'tib tunqatib Piskentga kelduk..."[3]

-Ana xolos!-deb qarsak chalib yubordi Mingboy.-Sizlar esa, afandilar, mirzo Boburning Faxrunniso ismli to'ng'ich qizi go'dakligida vafot etgan, to'ng'ich xotini bilan Toshkandda ajralushgan deb boshimizni qotiryapsiz. Vaholanki, mirzo Bobur Samarqanddan ulug' onasiga ergashib kelgan go'zal kanizakni darhol nikohiga olgan… Bu voqea hijriy 907-yilning qish faslida sodir bo'ladi, erta kuzakda esa rafiqasi mirzo Boburjonga qo'chqordek o'g'il tug'ib beradi. Hozir mening uyimda pishillab uxlab yotgan go'dak yetti oylik bo'ldi, sut tishlari chiqib qoldi. Xo'sh, Oltin Beshik mojarosiga shu joyda chek qo'yamizmi yoki yana munozarani davom ettiramizmi?".[4]

Xulosa. "Oltin beshik" haqidagi afsona necha yillardan buyon xalq og'zaki ijodida, yozuvchi va shoirlarning asarlarida turli xil talqin qilib kelinayotgan bo'lsa-da, to'qib chiqarilgan to'qima rivoyat emas. Yuqorida keltirilgan ikkala asardan olingan parchadan ham, Xudoyorxonning ikkinchi o'g'li Muhammad Aminbek kitobida keltirgan ma'lumotlarga ko'ra ham Minglar sulolasining Bobur avlodlari ekanligi dalillar orqali isbotlab berilganligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, Nabijon Boqiyning "Qodiriy qidirgan kitob" asaridagi Bobur "Boburnoma"sidan keltirilgan parchaning mantiqqa asoslangan holda asoslab berilganidan ma'lum bo'ladiki, Oltin Beshikning shunchaki afsona emas, balki tarixiy haqiqat ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is'hoq to'ra Ibrat.Tarixi Farg'ona.Toshkent., "Ma'naviyat" 2005. 7-bet.
2. Nabijon Boqiy. Qodiriy qidirgan kitob. Toshkent.,"TRUST AND SUPPORT" 2023.14-bet.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent., "Zukko kitobxon" 2022.47-bet.
4. Nabijon Boqiy. Qodiriy qidirgan kitob. Toshkent.,"TRUST AND SUPPORT" 2023.40-bet.

FOLKLORSHUNOSLAR TOMONIDAN DOSTONCHILIKNI O‘RGANISH AN’ANALARI

TRADITIONS OF STUDYING THE EPIC BY FOLKLORE

Rahimqulova Muhayyo Rahimqulovna
ToshDO‘TAU talabasi
rahimkulovamuhhayo@gmail.com

Annotatsiya. *Dostonchilik, bir necha yuz yildan buyon xalqimizning tom ma'nodagi badiiy merosiga aylangan. Maqolada dostonlarning o'rganilish tarixi xususida so'z boradi. Dostonlarning turli xalq baxshilaridan yozib olingan variantlari, ulardagi umumiy va o'ziga xos jihatlari tadqiq qilingan. Dostonning xalq baxshilaridan yozib olinish jarayoni qachon, qaysi baxshidan, kim tomonidan yozib olinganligi, shu yozib olingan nusxa nashr qilinganligi haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Folklorshunos olimlar tomonidan dostonlarning eng mukammal va badiiy jihatdan o'rganilish an'analari tahlil etilgan. Maqolada etnik jihatdan, dostonning baxshilar va olimlar ijodiga ta'siri, va an'analari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar*: Dostonchilik, folklor, dostonchilik o'rganilish an'analari, folklorshunos olimlar, strukturaviy vazifasi, xalq og'zaki ijodi.*

Abstract. *Epics have become the literal artistic heritage of our people for several hundred years. The article talks about the history of the study of epics. Variants of epics recorded from various folk traditions, their common and unique aspects are studied. Record epics from various folk dances The process of recording epics from folk dances is described when, from which dance, by whom it was recorded, and when this recorded copy was published. Folklorists have analyzed the most perfect and artistic tradions of studying epics. In the article, the influence and traditions of the epic on the work of poets and scholars are studied from an ethnic point of view.*

Key words: *Epics, folklore, traditions of studying epics, folklore scholars, structural function, folklore.*

Doston – xalq og'zaki ijodining [1:10] eng yirik janri bo'lib, davr tuzimidagi xalq ruhiyatini, xususiyatlarini aks ettiradi. Zamonlar o'tishi bilan ular yangi-yangi mavzular va g'oyaviy mazmun bilan boyib boradi. Dostonlar xalq tomonidan yaratilgach, ijodkor xalq ular orqali o'z maqsadlari, orzu-istaklari, his-tuyg'ularini ifodalaydi.

Dostonlarning birinchi ijodkori unitilib, ular nasldan naslga, avloddan avlodga o'tishi natijasida xalq mulkiga aylanadi. Xalq og'zaki badiiy ijodining yuksak professional san'at turi doston va dostonchilikdir. Uning paydo bo'lishi taraqqiyoti baxshilar faoliyati bilan mahkam bog'langandir. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida dostonlar necha ming yillardan beri baxshilar tomonidan kuylanib sayqallanib, avlodlarga og'zaki tarzda o'tib kelgan. Baxshi "Alpomish" dostonini kuylaganda uning mardligi, Barchinni so'zlaganda go'zal va oqila qiz ko'z oldimizda gavdalanadi. Shuning uchun doston ham har bir tinglovchiga beqiyos ma'naviy zavq bergan va katta bayram bo'lgan. Bu kechalarda odamlar o'rtasidagi hamma ginaxonliklar unitilgan, turmush tashvishlar chekingan. Yoshu qarilar, erkak-ayollarning butun xayoli dostondagi voqealar bilan band bo'lgan. Insoniyat badiiy tongi ufqidagi birinchi ijodkor baxshilar bo'lgandir. "Mullali ovul – qo'rqoq, baxshili ovul – botir" degan maqol bejizga aytilmagan. Xalq nazdida elda baxshining bo'lishi shodlik ,xursandchilik, to'qchilikdan nishonadir. Xorazmda "Yurtga balo kelar bo'lsa, to'ra bilan to'zon kelur, yurtga davlat qo'nar bo'lsa baxshi bilan o'zon kelur", degan hikmatning keng tarqalishi ham xalq ijodkorlariga xosdir.

Davri bilan bog'liq dostonlarning boshlanishida yozib olib nashr ettirish, dostonlarning genetik xususiyati, va ularni turkumlilik, variantlilik xususiyatlari o'rganilgan keyinchalik esa an'analar, obrazlar o'rganilgan. M.Saidov, M.Murodovlar tadqiqotlarida bosh qahramon talqini, badiiylik va mahorat masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, boshqalarda esa turkumlik, ayrim dostonlarning turkumda tutgan o'rni, ulardagi syujet va kompoziyasi, talqin etilgan.

Dostonlarni o'rganish yozib olishdan boshlandi. Xalq ichidan, baxshilardan, xalqning ziyoli qatlamlaridan, ijrochilardan yozib olish an'analaridan davom etdi. Bu boshlanish Hodi Zarif, To'ra Mirzayev, G'ozi Olim Yunosov, Abdulla Alaviy, Komiljon Imomov bir qancha olimlar, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla shoir, va boshqa ko'plab baxshilardan xalq dostonlarini yozib olishgan.

Hodi Zarifov o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo'lib XX asrning 20-yillarida xalq ijodi asarlarini to'plash va nashr etish uchun maxsus transkripsiya ishlab chiqqan. Bu ilmiy prinsip

chuqur nazariy bilim va keng ko‘lamli matniy tayyorgarlikka asoslanganligi uchun ham hozirgi qadar nafaqat o‘zbek, balki qardosh turkiy xalqlar folklorshunosligida ham samarali qo‘llanilmoqda. Hodi Zarifov butun umrini o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotini to‘plash va ilmiy o‘rganishga bag‘ishlagan, ayniqsa uning yirik eposshunos B.M.Jirmuniskiy bilan hamkorlikda yaratilib, rus tilida nashr etilgan “O‘zbek xalq qahromonlik eposi”, monografiyasi shuningdek, o‘zbek xalq dostonlarining epik tabiati va tarixiy asoslarini tekshirishga oid qator maqolalari xalq eposini fundamental tadqiq etishning mumtoz na’munasi bo‘lishi bilan birga o‘zbek folklorshunosligi maktabining ilmiy-nazariy asosi ham hisoblanadi.

Hodi Zarif “Malika Ayyor” dostonini birinchi bo‘lib 1939-yil yozib nashrga tayyorlagan, buni o‘zi ham katta bir o‘rganishga birinchi qadam bo‘ldi. Endi o‘rganish an’analari shu tarzda boshlandi. Yozib olingan dostonlarni, o‘rganilishini keyinchalik davrlashtirishga e’tibor berildi. Dostonlarni strukturasi, kompazatsiyasi, obrazlari, keyingi davrlarga kelib ularning badiiyati xususiyatlari tarixiyligi, o‘rganildi. Mustaqillik davri XX asr boshlari XXI asr oxirlariga kelib esa endi u xalqning maishiy turmushi bilan bog‘liq, dunyoqarashi jihatlariga qaratildi.

Alpomish va Go‘ro‘g‘li dostonlari ham shu tarzda o‘rganish an’analaridan boshlandi. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining noyob obidalaridan biri. Doston asrlar davomida og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tib kelgan. Bu jaroyonlarda, tabiiyki, u tarixiy sharoit tufayli turli o‘zgarishlarga uchragan. Dostonda o‘zbek xalqining milliy urf-odatlari, turmush tarzi, odob-axloq mezonlari, oilaviy rasm-rusmlari, til-sheva xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

“Alpomish dostonini yozib olish jaroyoni, G‘ozi Olim Yunusov tomonidan boshlab berildi. Shoir Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Hamraqul baxshidan dostonning bir qismini yozib olgan. G‘ozi Olim Yunosov maqolalarida “Alpomish “ dostoni haqida so‘z yuritgan shoir dostonni Gomerning “ Odisseya” asari bilan qiyoslagan.

To‘ra Mirzayev [2:91-158] dunyo folklorshunosligida ilk bor o‘zbek xalq qahromonlik eposining klassik namunasi hisoblangan. “Alpomish” dostonini to‘la o‘rganib, bu epik asarning o‘zbek baxshilari repertuarida qayd qilingan barcha variantlarini qiyosiy tadqiq etish asnosida dostonning o‘zbek xalqi epik tafakkuri taraqqiyotida tutgan muhim o‘rnini belgilab berdi. Olim doston syujetining tarixiy asoslari, shakllanish bosqichlari va badiiy rivoji, syujet tizimidagi yetakchi motivlar poyetikasini izchil o‘rganib, “Alpomish” dostoni yaratilgan davrni aniqlab berdi. To‘ra Mirzayev o‘z faoliyati davomida bu dostonni baxshilardan qayta va qayta yozib olib, ilmiy o‘rganishni izchil davom ettirdi, ko‘plab variantlarini birinchi bo‘lib chop ettirdi, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan namunaning ilmiy-akademik nashrini amalga oshirdi, doston matnining boshqa tillarga o‘girilgan tarjimalarini nashr ettirib, o‘zbek xalq qahromonlik eposini dunyo xalqlari madaniyatining benazir badiiy qadriyatlaridan biriga aylanishga xizmat qildi. T.Mirzayev “Alpomish” dostonining beshta baxshi varianti va Raxmatulla Yusuf o‘g‘li repertuaridagi “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining mukammal nashrini tayyorladi.

G‘olima Musina o‘zbek xalq dostonlarida tasvirlangan Xotin-qizlar obrazining tarixiy-etnografik asoslari, alp qizlar obrazining paydo bo‘lishi , turkiy xalqlar qahromonlik eposidagi jangchi-mergan qizlar obrazlarining tipologiyasi, dostonlarda xotin-qizlarning salbiy obrazlari talqini “Alpomish”, ”Go‘ro‘g‘li“ dostonlarining genezisiga doir tadqiqotlar yaratgan olima hisoblanadi.

O‘zbek folklorida “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining tutgan o‘rni ham beqiyos. “Go‘ro‘g‘li” dostoni xalqimiz “Taqdirnomasi” ekanligi aytish mumkin. Dostonning asosiy obrazi Go‘ro‘g‘li xalqimizning milliy qahramoni sifatida hamisha ommani yuksak ideallar sari chorlab kelgan. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari mag‘zida xalqimiz tarixi o‘ziga xos timsoli aks ettirilgan deb ayta olamiz, tom ma’noda “Go‘ro‘g‘li” o‘zbek xalqining mifo-epik tarjimayi holi, badiiy holatdagi tarixiy xotirasidir.

Malik Murodov [2:143-148] “Go’ro’g’li” dostonlarining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari xalq baxshilarining obraz yaratish va ularni umumlashtirish usullari, Go‘ro‘g‘li obrazining tarixiy asoslari, dostonda ifodalangan xalqchil g‘oyalarning tipik obrazlar tasviri bilan bog‘liqligi kabi masalarni o‘rgangan. Olim o‘zbek eposshunosligining muhim nazariy masalalaridan biri – “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining obrazlar tizimi va badiiyati masalalarini tahlil qilgan. Mazkur

dostonning variantlari, syujet va kompozisiyasi, bu turkum dostonlarida xalq orzu-istaklarining ifodalanishi, ularning baxshi-shoirlar repertuarida tutgan o‘rni, shuningdek, xalq baxshilarning ijodiy maktablari, doston kuylash mahorati yuzasidan tadqiqotlar olib borgan.

O‘zbek xalq dostonchiligadagi turkumlilik hodisasini o‘rgangan Muazzam Mirzayeva o‘zbek xalq dostonlarida turkumlik va turkumlashtirish mezonlari, turkumlikning mohiyati, turlari va uning xalq dostonchiligida tutgan o‘rni, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Nurali” biografik turkumliklarining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, xalq dostonlarida nasliy turkumlik va uning epik mezonlari masalasini “ Hasanxon”, “Dalli”, “Ravshan” dostonlari misolida tadqiq etgan.

Go‘ro‘g‘li turkumi dostonlari yaratlishi [4:106-112] tarqalish doirasi va kuylanish xususiyatlari bilan ham, syujet tarkibi, kompozision qurilish va uslubiy o‘zgachiliklari bilan ham, turkumlanish darajalari va jonli og‘zaki ijro sharoitlarida saqlanish holati bilan ham jahon xalqlari epik ijodiyotida favqulodda bir badiiy hodisadir. “Go‘ro‘g‘li” (ko‘ro‘g‘li) silsilasi dostonlarini o‘rganishdagi jiddiy muomalardan biri ularning yaratilish davri, yuzaga kelgan o‘rni, tarqalish xususiyatlari va tadrijiy taraqqiyotini aniqlash masalasidir. Voqealar asosi XVI-XVII asrlarda Janubiy Ozorbayjonda yaratilganligini, hatto uning ayrim qo‘shiqlari shu xududlarda o‘sha davrda sodir bo‘lgan Jaloliylar harakatining boshliqlaridan biri oshiq va qo‘zg‘olonchi Ko‘ro‘g‘li tomonidan ijod qilinganligini, va shunga ko‘ra tarixiy shaxs Ko‘ro‘g‘li epos bosh qahromon ekan takidlaydi.

Folklorshunos turkman olimi B.O.Qoriyev shunday yozadi. “Ko‘ro‘g‘li”ning Janubiy Ozarbayjon versiyasi “Tarixiyligi”ni ta’kidlash bilan biz unda eposning shakllanish jarayonidagi muayyan bir bosqichni ko‘ramiz. Eposning nisbatan qadimiy, O‘rta Osiyoga xos asoslari mavjudligini ham inkor etib bo‘lmaydi.

O‘zbek olimi Sh.Turdimov esa epik qahramon G‘o‘ro‘g‘lining yoshlik davridagi xatt-harakatlarini “alplik dardi” bilan izohlaydi bu og‘zaki epos, tarixiy va etnagrafik jihatdan asosli nazariy qarashdir deb takidlaydi.

Sh.Turdimov “Go‘ro‘g‘li” dostonining syujeti va obrazlar tizimining mifologik hamda tarixiy asoslari qadim-qadimdan Turkiston kengliklarida yashab kelgan ajdodlarimizning tasavvurlari, dunyoqarashlariga bog‘liq sak, massaget va o‘g‘iz epik an’analari asosida eradan avvalgi ming yilliklarda yaratilib, bosqichma-bosqich sayqal topib, to‘liq badiiy-estetik sathga o‘tdi, degan xulasaga keladi.

“Go‘ro‘g‘li“ turkumidagi dostonlarning keng omma orasida tarqalishida Soqi Bulbulning hissasi juda katta bo‘lganligi va u baxshilarning piri-ustozi sifatida tan olinganligi ta’riflanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining deyarli barcha janr na’munalarida ot obraziga duch kelamiz. Ushbu janrlarning har birining tabiatiga ko‘ra ot obrazi ham turli mazmun va ma’no kasb etadi. O‘zbek xalq dostonlarida epik ot obrazi o‘ta mukammal darajada ishlangan. Dostonlarda ot obrazi kuch qudratni ifodalash bilan birga, dostonning yanada qiziqarli chiqishini ta’minlovchi detal vazifasini bajaradi. Bu badiiy tasvir vositalarining o‘z o‘rnida va mukammal tarzda ishlatilishi shubhasiz, xalq dostonchisining badiiy mahoratini namoyon qiladi.

Folklorshunos Abdumorod Tilavov [3:3-4] dostonlarda ot obrazini talqin etdi. Dostonlarimizdagi mifologik qatlamni, yuksak badiiyatni, epik qahramonning mardligi, jasorati va qahramonliklarini uning doimiy hamrohi ot obrazisiz tasavvur etolmaymiz. Shuning uchun ot obrazini tadqiq etish xalq ijodi durdonalari bo‘lmish dostonlarimizning badiiyatini, undagi mifologik qatlamni o‘rganishdir. Xalqimiz “Ot–Murod“ deb aytadi. Otning murodligi zamirida olam-olam ma’no bor degan iborani aytib o‘tgan.

Xalq og‘zaki ijodi hamisha xalqning badiiy tarixi, milliy va ma’naviy qadriyatlarining sarchashmasi bo‘lib kelgan. Xalq dostonlari bir qarashda insonning insonga muhabbatidan o‘sib chiqqandek tuyilsada, uning zamirida daho ijodkorning o‘z xalqiga yoki xalqning o‘z qadriyatlariga bo‘lgan sadoqati, hurmati mujassam topadi. Folklorshunoslikning tub nazariy masalalaridan biri xalq og‘zaki ijodini tabiatini namayon etuvchi jamoviylik, og‘zakilik, an’anaviylik xusiyatlaridir. Dostonlarning genezisi, bosqichlarini o‘rganishilishi, mazkur turkum

dostonlarning tub ildizlari, versiya va variantlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishda, bir qancha folklorshunos olimlar tomonidan o‘rganilib taxlil etilib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – T.: Фан, 1979. – Б. 9-10.
2. Jo‘rayev M. O‘zbek Folklorshunosligi. – T., 2000. – B. 91-158.
3. Tilavov A. Ot obrazi. – T., 2021. – B. 4-5.
4. Mirzayev T. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining yaratilish davri masalasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2018. – №1. –B. 106-112.

XALQ DOSTONLARIDA GO’ZAL YOR TASVIRI VA TAHLILI

DESCRIPTION AND ANALYSIS OF BEAUTIFUL LANDS IN FOLK EPISTLES

Rahimqulova Ohista Annaqul qizi
ToshDO‘TAU talabasi
ohistarahimqulova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada badiiy asardagi va xalq dostonlarining ayrim turlaridagi go’zal yor(ayol) tasvirining ba’zi o’rinlari tahlilga tortildi va badiiy asar bilan muqoyasa qilindi.*

Kalit so’zlar: *Xalq dostonlari. Romantik doston. Qahramonlik dostoni. Badiiy asar. Go’zal yor.*

Abstract: *This article artistic in a work and people epics some types beautiful place(a woman) of the image some seats to the analysis and a work of art with was compared.*

Keywords*: folk epics, a romantic epic, the sage of addiction, a work of art, beautiful place.*

Jomon xotin kepak bermay o’g’ri qilar itini,
Oshtaxtaga g’archillatib o’ltiradi bitini. (Xalq maqoli)

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan xalq maqolining turli ko’rinishdagi variantlari mavjud: “Erni er qiladiganam xotin, qaro yer qiladiganam xotin”,”epli xotin, sepli xotin” kabi biroq maqolamiz aynan bu haqida emas. Maqolamiz sevikli yor, vafodor ayol obrazining xalq dostonlaridagi tasviri va tahlili xususida. Bizga ma’lumki,badiiy adabiyotni nasrni,nazmni go’zal ma’shuqa obrazisiz tasavvur qilish mushkul, albatta. Aynan bu obrazning tub ildizi, genezisi ilk syujetdagi Momo Havvoga borib taqaladi. Badiiy adabiyotda bu obrazni, ya’ni yorga bo’lgan muhabbat botiniy ma’noda Yaratiqqa bo’lgan muhabbat deb talqin qilinadi va har bir asarda ,eposda, romanda aynan oshiq-mashuqa-raqib(ag’yor) obrazlari keladi va bu obrazlar Odam Ato-Momo Havvo-iblis uchligiga o’xshatiladi. Zeroki, go’zal yorga umuman insonlarning bir-biriga bo’lgan sevgisi bu albatta, go’zal tuyg’ular sanaladi va chin yurakdan sevgan inson qalbida ezgu tilaklar, sof tuyg’ular hukmron.Bu albatta, Yaratganga yaqinlik, uni sevish, bizningcha! Bu haqida juda ko’plab yozilishi, gapirilishi mumkin, lekin biz fikrimizni muxtasar qilsakda, maqolamizning asosiy qismiga o’tsak. Adabiyotshunoslarimiz ta’kidlab o’tganidek:

“Epos millatning pasporti, eposi tan olinmagan davlat millat ham, davlat ham bo’la olmaydi”.

Albatta, yuqoridagi fikrlar juda asosli va to’g’ri. Illo har bir xalqning nafaqat eposi, balki uning adabiyoti, ma’naviyati orqali biz o’sha xalq haqida uning madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusmlari, hattoki e’tiqodi to’g’risida ko’plab ma’lumotlarga ega bo’lishimiz mumkin.To’g’ri, xalq dostonlarida go’zal qiz, suyukli yor turlicha doston turlariga ko’ra uning ishtirokini inobatga olgan holda turlicha ta’riflanadi, talqin qilinadi. Dastlab biz badiiy adabiyotdagi go’zal yor tasvirini berishni joiz topdik: “O’tkan kunlar” romanida Kumush tasviriga e’tiborimizni qaratsak: “Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig’a tartibsiz suratda to’zg’ib,quyuq jinggila kiprak ostidag’i tim qora ko’zlari bir nuqtag’a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko’rgan kabi…qop-qora kamon

,o’tib ketkan nafis, qiyig’ qoshlari chimirilgan-da,nimadir bir narsadan cho’chigan kabi…to’lg’an oydek g’uborsiz oq yuzi biro z qizilliqg’a aylangan-da, kimdandir uyalg’an kabi…”

Juda go’zal-a?! Ushbu jumlalarni o’qiyotib, yozayotib hech tugatgisi kelmaydi odamning, go’yo o’sha go’zal ko’z oldimizda bor bo’y basti bilan gavdalangandek. Yoki dostonlarimizning gultoji hisoblanmish “Alpomish” qahramonlik turiga mansub dostondagi yor tasvirini ko’rib o’tsak. “Shul vaqtlarda Barchin ham barkamol, bo’yi yetgan, har yag’irini o’n besh qarich keladi, bu ham alp”. Bu albatta, yuqorida aytib o’tganimizdek qahramonlik dostoni Barchin-alp qiz, ayol, balki unga yanada jimjimador so’zlar bilan badiiyat berish, ta’riflash muhim emasdur. Uning ta’rifiga e’tibor beradigan bo’lsak, beixtiyor bu qizni o’zi deymiz. Bu bejizga xalq dostoni, xalq og’zaki ijodi emas, unda mubolag’aga keng o’rin berilishi bu albatta, tabiiy bir hol. Lekin bizningcha, aynan yor, ayol obraziga yanada chiroyliroq ta’riflanishi zarurmidi, illo u alp bo’lsada, avvallo u nozik xilqat vakili aynan uning boshqa vakillardan ajratib turadigan ham uning shu jihatlari hisoblanadi. Bu xalq dostoni u o’z nomi bilan xalqniki og’izdan-og’izga o’tib kelgan, uni o’zgartirishning iloji border,ammo uning qanaqadur badiiyligiga putur yetar,zero u shunday saqlanib qolgan , shunday bizga yetib kelgan. Endi biz xalq dostonlarining ishqiy-romanik turidagi go’zal yor ta’rifiga o’rin beramiz. “Kuntug’mish” dostoni Kuntug’mish Xolbekaning su’rati ko’rgandagi ta’rifi: “Xolbeka oyimning to’lgan kamoli oyday jamoli munavvar bo’lib turibdi”. Qoraxon Xolbekaning ko’rgandagi ta’rifi: “Qog’ozda bir qiz turibdi qayqayib qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo’lib , shirin qilib qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo’ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi. Qoraxon insof qilib qarasa, No’g’oy yurtining qizi tuva yer yuzining barnolari bir tola mo’yiga arzimaydi”. Albatta maqola o’quvchisida o’z-o’zidan savol tug’iladi , oshiq bu yerda Kuntug’mishmi yoki uning otasi Qoraxonmi? Chunki Xolbekani Kuntug’mish ko’rgandagi ta’rifi hajmi, qamrovi juda qisqa. Qoraxon ko’rgandagi ta’rifi esa juda chiroyli ta’riflangan shahzoda bir necha marta Xolbekani su’ratini ko’rar ekan, qayta-qayta xushini yo’qotadi uning go’zalligini ta’riflashga majoli yetmas shu jihatdan doston kuylayotgan baxshi Xolbeka ta’rifini mukammalroq qilib Qoraxon zimmasiga yuklagan,bizningcha. Endi yana bir shu turga mansub dostondagi yor tasvirini ko’rib o’tsak: “Go’ro’g’lining tug’ilishi”dostonidagi Bibi Hiloloyning Ravshan ko’rgandagi ta’rifi: “Ravshanbek tiklab qarasa, hur tal’atli, maloyika kelbatli, shirin so’zli, jodu ko’zli, zulfi tol-tol bo’lib betiga tarmashgan latibasi labiga tushgan, munchoqlari kindikdan oshgan”. Albatta, bu ham ishqiy-romanik turdagi doston na’munasi bu albatta tabiiy hol bo’lishi joizdir. Xulosa qilib aytganda, har qanday adabiy tur bo’ladimi? Janr bo’ladimi? Nasrmi? Nazmmi? Barchasida yor tasviri juda go’zal va chiroyli ta’riflar orqali beriladi, ta’riflanadi. Zero go’zal qizni, yorni sevish yuqorida ta’kidlaganimizdek uning botinida buyuk Yaratiq turadi. Biz yuqoridagi fiklarimizga qo’shimcha tarzda shuni aytib o’tishimiz lozimki, qahramonlik dostonlarida ham qizni, yorni ta’rifiga kengroq va go’zalroq ta’riflashimiz lozim deb topdik. Mayli qanday bo’lishidan, qanday ta’riflanishidan qat’iy nazar xalq dostonlari bizning milliy va o’lmas, qimmatli boyligimizdur.Ularni boricha qadrlash, qabul qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Alpomish” dostoni “Zukko kitobxon” nashriyoti ,T-2022,44-bet.
2. “Kuntug’mish”dostoni Ilm-ziyo-zakovati”.T-2021, 7-10-betlar.
3. “Go’ro’g’lining tug’ilishi” “Ilm-ziyo-zakovati”.T-2021, 14-bet.
4. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar”romani. “Sharq” nashriyoti. T-2005, 28-bet.

O‘G‘UZ LAHJASINING FONETIK TABIATI

PHONETIC NATURE OF OGUZ DIALECT

Qurbonova Dilafruz
Termiz davlat universiteti talabasi
@qurbonovadilafruz820.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda fonetik tabiati haqida so‘z boradi. O‘g‘uz lahjasining fonetik xususiyatlari Xorazm hududidan to‘plangan materiallarga asoslangan holda tahlilga tortilgan va tadqiq qilingan, shuningdek, mazkur lahjaning qo‘llanish statistikasi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *o‘g‘uz lahjasi, fonema, kontrast vokallar, singormanizm, lingval singormanizm, assimilyatsiya, prokopa, sinkopa, geminatsiya, apakopa, degeminatsiya.*

Abstract. *This article talks about the Oguz dialect of the Uzbek language, its specific features and phonetic nature. Based on materials collected in the Khorezm region, the phonetic features of the Oguz dialect were analyzed and studied, and statistics on the use of this dialect were determined.*

Key words: *Oguz dialect, phoneme, contrast vowels, singormanism, lingual singormanism, assimilation, procope, syncope, gemination, apacope, degemination.*

Ma’lumki, o‘zbek, umuman, turkiy xalqlarning ildizlari miloddan oldin Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan mahalliy tub qabila va urug‘lar-qarluqlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlarga borib taqaladi. O‘zbek xalqi va tilining shakllanishida qarluq urug‘lari bilan qipchoq hamda o‘g‘uz urug‘larining ham hissasi bor. Shuning uchun mazkur urug‘larning tarixi va tilini o‘rganish muhim vazifalardan biridir [Abdurahmonov 1999: 5, 14].

O‘zbek dialektologiyasida o‘g‘uz lahjasining fonetik tabiati o‘ziga xos jihatdan yoritilgan bo‘lib, ushbu mavzu doirasida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Chunonchi, G‘ozi Olim Yunusov (“O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba”, 1936), V.V. Reshetov (Sh.Shoabdurahmonov bilan hammualliflikda chop etilgan “O‘zbek dialektologiyasi” darsligida, 1978), F. Abdullayev (“O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi”, 1978; “O‘zbek tilining Xorazm shevalari”, 1964) va boshqalar mazkur lahjani tadqiq etgan. O‘g‘uz shevasiga xos xususiyatlar ayrim darslik, qo‘llanma va tadqiqotlarda ham o‘z ifodasini topgan [Saidov 2021: 8.]

O‘g‘uz lahjasining fonetik xususiyatlari juda rang- barangdir. Jumladan, G‘ozi Olim Yunusov Xiva-Urganch shevalarining fonetik xususiyatlari bo‘yicha quyidagilarni yozadi: “Xiva shevasi o‘zining tovush uyg‘unligining saqlanganligi va uzun unliligi bilan ajraladi. Xiva shevasida til o‘rta k, g tovushlarining bo‘luvi, va k o‘rnida g ishlatiluvi diqqat etadigan fonetik xususiyatlardandir” [Yunusov 1935: 22]. Samixon Ashirboyev esa o‘g‘uz lahjasining fonetik tabiati bo‘yicha quyidagi fikrlarni keltiradi: “Bu lahja shevalarida a,u ,ü, i:, i, ï, ï:, o, ö, ä, e unlilari qo‘llanadi; kontrast unlilar mavjud; dastlabki bo‘g‘inda e unlisi ä unlisiga o‘tadi: kel-gäl, dedi-dädi; -däj qo‘shimchasidagi ä unlisi ï unlisiga o‘tadi: šundïj; so‘z boshida k tovushi jaranglashadi: ketti-gitti,kel-gäl; q va ğ undoshlari palatizatsiyalashadi: q'ani va h.k” [Ashirboyev 2021:91]. O‘g‘uz lahjasining fonetik tabiatini yanada ochiq ifodalash uchun quyidagi matnni misol keltirishni joiz deya hisobladim: “*Män on sakkïz ja:šïmda qoj baqaradim. Atam qassapchïlïq ataradi. Man qoj baqmaqa bir getkännän ʊn- ʊm beš gündä bïr gälärädim. Bir kün gäsäm,bizläni elätni aqsaqalïni jipäkini ʊgïllaptila. Bu aqsaqqalni Mätmïrat aqsaqqal därädila. Bu adam yammapčïlïq ataradi. Bu ʊgïllannan jipäkni mäni mojnïma tašadïla,gäljänädim, bu jipäk män gämästän uč gün burïn ʊgïllannan; Bïr gün geślikä gälip, ʊgïllap getti,däp tö:mät tašadïla. Mäni atam ʉula vilän urïštï. Soŋ janqï aqsaqqal janna bïr toda bajlanï alïp,xana arz ätmäkä barïptïla. Mäni ikki paššal alïp, gitti. “Männän jipäkni qačan aldiŋ ,näštip aldiŋ”,- däp soradïla.Män hämmä vaqijani sölläp pärdim. Qačan qoj baqïštan galjanimni, bu gäplädän xavarïm joqlïqini äjttim. Xan maŋa ji:rma tazij urïšnï bujïrdi.Mäni urïp, zïndana tašadïla. Üč gunnan soŋ mäni qa:zïya qoštïla”.(Xeva shevasi)* [Ashirboyev 2016:115].

Shuni aytish lozimki, ushbu matnning asosiy fonetik elementlaridan biri lingval singormanizmning uchrashida: *atam, qassapčiliq, ataradi, baqmaqa, aqsaqalïni, aqsaqqal, qačan*. Bundan tashqari jaranglashish hodisasi bir qancha o‘rinda kuzatiladi: *getti,gäsäm,gün, getkännan,geljänädim*. Demak, o‘g‘uz lahjasiga oid bo‘lgan til orqa, jarangsiz, portlovchi k fonemasining o‘rnida til orqa, jarangli,portlovchi g fonemasining kelishi matnda o‘z isbotini

topmoqda. O‘g‘uz lahjasiga oid yumshoq consanantlardan keyin kontrast til oldi vokallarning kelishi [*getti, gäsäm, gün, ätärädi, mäni, ätäm, männän, sölläp pärdim*] va, shuningdek, qattiq konsanantlardan keyin kontrast til orqa undoshlarning kelishi ham [*ʊgïllap, ʊgïllannan, baqïštan, qarap, qïrq,qačan, aqsaqqal*] ko‘p hollarda kuzatiladi. Matnda o‘rta keng,til oldi, lablanmagan e fonemasining quyi keng,til oldi, lablanmagan a fonemasiga o‘zgarishi [*män, gälärädim, gäsäm, däp, arz ätmäkä, gälip, därädila*], til orqa,jarangsiz, portlovchi k va chuqur til orqa, jarangsiz, portlovchi q fonemasi bilan tugagan leksemaga egalik affiksi qo’shilganda fonemaning standart holatini o‘zgartirmasligi [*jipäkini, joqlïqini*] qayd etiladi.

Mazkur matnda fonetikaga doir o‘zgarishlarning statistikasini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Assimilyatsi –ya	Sinkopa	Apokopa	Geminatsi- ya	degeminatsiya	Protеza	Spirintiza- tsiya
1)getkännän; 2)ᵛoγïllaptila; 3)ᵛoγïllannan; 4) gunnan; 5) gitti; 6) männän; 7) sölläp ; 8) baqïštan; 9) äjttim;	1)gäsäm; 2)bizläni; 3)tašadïla; 4)gämäs- tän 5) tö:mät; 6) ji:rma; 7)gäplädän 8) mäni	1)däräd ila; 2)tašadïla; 3) ᵛoγïllaptila; 4)barïptïla	1)aqsaqqal; 2)aqsaqqalï-ni; 3) janna;	1)baqmaqa; 2) gešlikä; 3) arz ätmäkä	1) jipäkini 2) jipäkni	1)vilän; 2) gäljä-nädim; 3)galja- nimni, 4)xava-rïm

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilamiz:

o‘g‘uz lahjasiga oid elementlar adabiy til normalaridan ancha farq qilishini, ya’ni fonetik differensiatsiyani kuzatish mumkin;

leksemalar tarkibida assimilyatsiya hodisasining ko‘p ekanligining o‘zi til doirasidagi elementlarni, ya’ni unli va undoshlarning o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi qanchalik kuchliligi ko‘rib o‘tamiz;

prokopa hodisasining deyarli kuzatilmaganligini e’tiborga olsak, o‘g‘uz lahjasida nisbatan boshqa lahjalarga qaraganda old fonemalarning tushish jarayoni bilan bog‘liq bo’lgan holatlar akslanmagan;

o‘g‘uz lahjasida qipchoq lahjasidek singormanizm birinchi planda, biroq labial singormanizm deyarli uchramaydi;

o‘g‘uz lahjasida jaranglashish hodisasining kuchli ekanligi va o‘rta keng, til oldi, lablanmagan e fonemasining quyi keng, til oldi, lablanmagan a fonemasiga o‘zgarishi uni boshqa lahjalardan keskin farqlaydi;

o‘g‘uz lahjasida ko‘p hollarda leksemalardagi spirantizatsiya hodisasida lahjaning alohidalanishini ko‘rib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘.O‘zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida. –T.: 1999.
2. Saidov Y. O‘zbek dialektologiyasi. o‘quv metodik qo‘llanma. –B.: 2021, B.74.
3. G‘ozi Olim Yunusov.O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. –Toshkent, O‘zdavnashr, 1935.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent, Nodirabegim. 2021.
5. Reshetov V.V, Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, O‘qituvchi. 1978.
6. Abdullayev F. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. T.: 1978.

SURXONDARYO VILOYATI QIPCHOQ LAHJASIGA OID QAYDLAR
(Muzrabot tumani misolida)

NOTES ON THE KIPCHOK DIALECT OF SURKHANDARYA PROVINCE
(In the case of Muzrabot District)

Elinor Bozorova
Termiz davlat universiteti talabasi
elinorbozorova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shevalarning o‘zbek adabiy tilining boy manbayi ekanligi haqida fikrlar berilgan. Mazkur qarashlar Muzrabot tumanining qipchoq lahjasida kuzatilgan barqaror birliklarning qiyosiy tahlili yordamida ochib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *o‘zbek xalq shevalar lug‘ati, O‘XSHL, O‘TIL, qadimgi davrlarda turkiy xalqlar, ming, yuz, qirq, qipchoq, nayman, qiyot, qo‘ng‘irot, mang‘it, uyshinlar va kenagas, jaloyir, misit, do‘rmon, qutchi, barqut, baxrin, qadimgi davrlar.*

Abstract. *This article discusses the fact that dialects are a rich source of the Uzbek literary language. These views are revealed by means of a comparative analysis of stable units observed in the Kipchak dialect of Muzrabot district.*
Key words: *dictionary of Uzbek folk dialects, O'XSHL, O'TIL, Turkic peoples in ancient times, thousand, hundred, forty, kipchak, nayman, qiyat, kungirat, mangit, uyshinlar and kenagas, jaloyir, misit , doron, kutchi, barqut, bahrin, ancient times.*

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p lahjaliligi bilan farqlanadi. Uning taraqqiyot davrini tushunish va izohlashda sheva, dialekt, lahja degan terminlar qolmadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma’nolarini bilish albatta zarurdir [Ashirboyev 2016: 12]. O‘zbekiston hududining mavjud 14 viloyatida shevalarning turli namunalari kuzatiladi, ular o‘zbek tilining lug‘at manbayining yanada boyishiga va rivoj topishiga asos bo‘ladi deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi [Ashirboyev 2016: 79].

O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, uni vaqtlar oralig‘ida o‘rganish filologiya fanining tadrijiy taraqqiyoti uchun nazariy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shevalar o‘zbek milliy tilning tarkibiy qismi sifatida adabiy tilning shakllanishi uchun boy material bo‘lib xizmat qiladi [Ashirboyev 2016: 85].

Ma’lumki, o‘zbek tilining boyishiga shevalarning adabiy tilda qo‘llanmaydigan dialekt leksikasi muhim ahamiyat kasb etadi [Mirziyoyev Sh. 2019. 22/10]. Shunisi ahamiyatliki, “O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari tarixiy taraqqiyoti uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish” haqida muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ham urg‘u berilgan hamda o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq o‘z aksini topgan [https://lex.uz/docs/-5058351]. Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri tomonidan “2019-yil 4-dekabrda imzolangan “O‘zbek tilining davlat tili sifatida qo‘llanilishini kengaytirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab quvvatlash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha 2019-2020-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi”da “O‘zbek shevashunoslik markazi”ni tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Bilamizki, sheva materiallari ozbek adabiy tizimini fonetik, leksik va grammatik jihatlardan boyituvchi asosiy manbalardan biri sanaladi. 1971-yilda Sh.Shoabdurahmonov muharrirligida nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalar lug‘ati” (keying o‘rinlarda O‘XSHL) II tomlik OTIL tarkibidagi leksik birliklarning dialectal asoslari, shuningdek, lakunalar bilan boyitgan bo‘lsa ajab emas.

Biroq O‘XSHLdan so‘ng shevashunoslik doirasida tayyorlangan lug‘atlarda shevadagi leksemalarni yig‘ib, har kim o‘z nazariyalariga asoslanib qayd etishganki, shevashunoslikda O‘XSHLda aks etgan leksikografik tamoyillardan chekinish holati kuzatilgan. Ba’zi holatlarda esa mazkur standartga nomigagina amal qilish holatlari sezilgan.

Biz tadqiqot maydonimiz hisoblangan qipchoq lahjasida [Qipchoq-o‘zbeklar qadimgi davrlarda turkiy xalqlarning qipchoq guruhiga kiruvchi ming, yuz, qirq, qipchoq (tor ma’noda) nayman, qangli, qiyot, qo‘ng‘irot, mang‘it, uyshinlar va kenagas, jaloyir, misit, do‘rmon, qutchi, barqut, baxrin kabi urug‘ va qabilalar asosida tashkil topgan bo‘lib, qadimgi davrlarda Itil (Volga) va Dunay daryolari, Hazar (Kaspiy) dengizi, Orol dengizi, Ural tog‘lari va G‘arbiy Sibirdagi Irtish va Yenisey daryolari bo‘ylarida hamda Yettisuvda yashaganlar va Yettisuvda tuzilgan turk xoqonligida ham ancha katta mavqega ega bo‘lganlar [O‘rinova 2023: 374] so‘zlovchi Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani Dehqonobod qishlog‘ida istiqomat qiluvchi etnik aholi shevasi misolida yoritilgan.

Mazkur qishloq aholisi nutqida mazkur lahjaning o‘zlashishi hudud vakillarining aksariyat qismi Qashqadaryoning Dehqonobod qishlog‘idan ko‘chib kelishi bilan bog‘lab ko‘rsatish mumkin. Biz tomonimizdan o‘tkazilgan dialektologik kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, hududda istiqomat qiluvchilarning nutqida qo‘llanuvchi frazeologizm, hikmatli so‘zlar, maqol, leksemalarlarning deyarli ko‘pchiligi garchi adabiy tilda kuzatilsa-da, aholi so‘zlashuvida qipchoq lahjasi elementlari bilan sug‘orilganligi ko‘rib o‘tish mumkin. Suhbat mavzusi esa o‘z ichki uzvlaridan: suhbat- hasbi-hol va suhbat –voqeali qismlardan iborat bo‘ladi, Masalan, respondentlar bilan bo‘lgan subatdan: Memmä, men 1958 jildan beri – Pädärkäsijam bārma? (kuladi) – Bűűű, večer bār edimä, bäläm (hayron holatda), večer bār edimä, xātin bār edimä, kim bāredi, tomga kirgizädi,

šű čimïllïqtämga ötiradi, bir vöntagina xotin berga o‘tiradi, bölli [Xolova 2023: 40]!

Shu bois tuman aholisi nutqida evfemik va disfemik xarakterli leksemalar odatiylik darajasini egallagan. Quyida biz hudud shevasida kuzatilayotgan maqollarda qipchoq lahjasiga doir leksik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Jemädim kādinïŋ qajmāγïni, (Yemadim kodining qaymog‘ini,)

Zār qïlldi kübiniŋ ajrāniga. (Zor bo‘ldim kubining ayroniga.)

[ma’nosi: har bir ne’matni o‘z vaqtida qadrli, qadrsilantirish oxir-oqibat xorlikka mahkum etadi. Sinonimi: Nimani xor qilsang, shunga zor bo‘lasan./ Maqol aholining yashash tarzi bilan bog‘liq yuzaga kelgan]. Maqolda quyidagi leksek birlikni tahlilga tortamiz:

kādi [kodi/ ad.t. qovoq. Qovoq - qattiq tanaga ega, ichi bo‘sh dumaloqsimon hosil qiladi, qadimdan uy ro‘zg‘or buyumi - turli narsalarni saqlovchi idish sifatida foydalanib kelingan [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qovoq];

kübi [kubi] – ayollar tomonidan uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan buyum sifatida talqin etiladi. Bu temir yoki yog‘ochdan tayyorlanadigan bo‘lib, uning ichida uzun taxtadan qilingan moslama mavjud, u ayollarning qatiqdan moy ajratoishda ko‘mak beruvchi asosiy uskuna. Bu asbobdan ancha vaqtlardan buyon qishloq ayollari tomonidan sigirlar sog‘ilib, uning sutidan qatiq tayyorlanadi. Qatiqni ma’lum vaqt davomida suv bilan aralashtirilib tayoqdan qilingan moslama orqali yaxshilab ko‘pirtiriladi. So‘ngra kubining ust qismida sarimoy paydo bo‘ladi. Sarimoylar olinib, qo‘ylarning qorin qismida joylashgan ishkammasi [tozalangan molning qorni]ga solinadi va uni ancha yillargacha saqlanib, iste’mol qilinadi. Shundan: Sarimoy – sasimas, asal – aynimas maqoli aholi ortasida tarqalgan bo‘lsa, ajab emas;

ajrān [ayron] – o‘sha sarimoyning ostidagi suyuq ichimlikka nisbat berilib, aytiladi. Manbalarda: 1) qatiqning kuv (guppi)da moyi ajratib olingandan so‘ng qolgan suyuq qismi. O‘zbekistonning ayrim joylarida chalob ham ayron deb ataladi. Ichimlik sifatida ishlatiladi.

Ayronning suvi maxsus tayyorlangan xaltadan o‘tkazilib, suzma (chakki) tayyorlanadi, suzmadan qurt qilinadi. Odam uchun foydali moddalarga boy;) qatiq yoki suzmadan suv, ziravorlar, oshko‘klar, muz qo‘shib tayyorlanadigan chanqovbosti ichimlik [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ayron].

Bundan tashqari Surxondaryo vohasining boshqa hududlarida kuzatilgan:

har kim kätägidä xorāz [Har kim katagida xo‘roz] (қўлидан иш келмайдиган киши тўғрисида)// *Muzrobot tumanida tashqarida birovga qattiq gapira olmagan, biroq uyda xo‘jayinlik qiladigan shaxlarga nisbatan*;

māxtaγan kelin töjda ösirär [katta bildirilgan ishonchning puchga chiqishi]; Har kimdi har därdi bār, käl qïzdï er därdi bār. [yagona maqsad yo‘ida ishni amalga oshirish.] *Muzrabotda qisman sinonimlik: äzägä bārgan har bir xātin, dardini ājtip ǯilajdi;*

ǯāman gäpdän yān qutulmas (yomonlikda kamol yoqligi);

Āč borï ǯörtaga kelädi (Muzrabot tumanida: āč borïjam ǯöγïda kelädi, kutilmaganda, tayyorgarliksiz xonadonga kelgan mehmonga nisbat);

Kűn čiγïp ǯovgan hävadän qorq [Xolova 2022:101], [Omonturdiyev 2019: 34] (kun chig‘ip jovgan havodan qo‘rq) mazmuni: o‘zgaruvchi insondan ehtiyot bo‘lish lozimligi uqtiriladi.

Xulosa o‘rnida professor Sh.SHoabdurahmonov ushbu fikrlarni ta’kidlab o‘tmoqchiman. “Ko‘rinib turibdiki, ko‘rsatib o‘tilgan ko‘plab so‘zlar qo‘llanishi kamaygan va ba’zi so‘zlar umumis’temoldan butunlay chiqib ketgan. Agar zudlik bilan keksa avlod nutqida saqlanib kelayotgan noyob so‘z va iboralar zudlik bilan yig‘ib olinmasa [Raxmanov 2023: 230], barcha mas’uliyatni zimmamga olib aytamanki, ular hofizasidagi bir qism dialektizmlar yo‘qolib ketishi mumkin” va olim tomonidan aytilgan ushbu qayd bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. M. “Milliy o’zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli”. “O’zbekiston ovozi”, 2019-y, 22-oktabr
2. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.MirziyoyevningFarmoni. https://lex.uz/docs/-5058351
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: Nodirabegim. 2021.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. //darslik // – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2016. – 136 b.
5. Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalar leksikasi // O‘zbek shevalari leksikasi. – T.: Fan, 1966.
6. Suyunova R. Qipchoq shevalariga xos so‘zlar lug‘ati . – Samarqand . Sam DU. 2019.
7. Xolova M. A. O‘zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o‘rni (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. - №. 5.
8. Abdulhakimovna K. M. Some sketches on food semantics in Boysun dialectism //International Journal on Integrated Education. – Т. 2. – №. 6. – С. 149-152.
9. Abdulhakimovna X. M. Surxondaryo shevalari korpusiga sheva matnlarini ichki tizimga kiritish prinsiplari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 39-45.
10. Turdialiyev A. “Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va inovatsion ta’lim texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy anjuman materiallari to‘plami. Nukus. 2022-yil 10-noyabr.
11. Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.
12. Омонтурдиев А., Раҳмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларнинг изоҳли луғати. – 2019.

13. Raxmanov B., Boypo‘latova S., Qo‘ziboyeva S. (2023). Problems of comprehensive study of kipchok dialects and ethnographism of kashkadarya and surkhandarya. Modern Science and Research, 2(10), 228–232. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/ science-research/article/view/24865.
14. O‘rinova Z. Surxondaryo qipchoq guruh shevalarida ba’zi mulohazalar (Sho‘rchi tumanida Yangibozor qishloq shevasi misolida)// J: “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. 2023-yil 20-may.
15. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ayron.

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASINING TARAQQIYOTI VA UNGA ALOQADOR HODISALAR

DEVELOPMENT OF UZBEK DIALECTOLOGY AND PHENOMENA RELATED TO IT

Anvar Eshnazarov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
Anvarjon14091995@gmail.com

Anotatsiya. *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Javog‘i qishlog‘ining shevasiga oid so‘zlarning ilmiy tahlili berilgan. Shevashunoslikka oid nazariy qarashlarga munosabat bildirilgan va misol tariqasida berilgan noadabiy leksik birliklarning adabiy tildagi muqobili qiyosan tahlil qilingan. Shevaga oid so‘zlarning hozirgi adabiy tilimizga qay darajada yaqinligi, ularning leksik va grammmatik jihatdan farqli tomonlari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, fonetik jihatidan qisman farq qiluvchi leksemalar ham nazariy jihatdan qiyosiy tahlilga tortilgan. O‘zbek tili dialektologiyasi, shevashunos olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlari misolida sheva, dialekt, lahja atamalarining bir-biridan farqi va adabiy tilimizda tutgan o‘rniga ham alohida e’tibor berilgan. Misol tariqasidan tanlab olingan so‘zlar leksikamizda salbiy, ijobiy bo‘yoqdorligi yoki neytral ekanligiga ham alohida urg‘u berilgan.*
Kalit so‘zlar: *dialekt, shevashunoslik, sotsiolingvistika, lahja, sheva, adabiy til, neytral leksika, sinonim.*

Abstract. *In this article,a scientific analysis of the words related to the dialect of the village Javagi, Yakkabog‘ District, Kashkadarya Region is given. The literary equivalent of non-literary lexical units that responded to theoretical views about linguistics and given as examples is comparatively analysed. How close the words of the dialect are to our current literary language, their lexical and grammatical differences are mentioned. Also, lexemes with partial differences in phonetics are theoretically subjected to comparative analysis. In the example of the dialectology of the Uzbek language, scientific research conducted by linguists, special attention was paid to the differences between the terms dialect, dialect, dialect and their place in our literary language. It is also emphasized that the words selected as examples are negative, positive or neutral in our lexicon.*
Key words: *dialect, linguistics, sociolinguistics, dialect, dialect, literary language, neutral lexicon, synonym.*

O‘zbek tili turli lahja, sheva va dialektlardan tashkil topgan. Adabiy tilda qo‘llanuvchi so‘zlar shevalarda boshqacha variantda ishlatilishi mumkin. Yoxud tilimizda yo‘qolib ketayotgan ba’zi so‘z va qo‘shimchalar shevalarimizda barqaror ishlatilayotgan bo‘ladi . Bu o‘rinda tilshunoslar shunday leksik birliklarni chuqur o’rganishi, adabiy til doirasida tahlil qilishi va keng

ommaga taqdim etishi mumkin. Shundagina olinma so‘zlarning ba’zilarini o‘z tilimizdagi ekvevalenti bilan almashtira olish mumkin. Avvalo, sheva, lahja, dialekt atamalarining o‘xshash va farqli jihatlariga e’tibor qaratildi:

Sheva – biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan kichik qismi (*oraliq sheva, shevalar guruhi* degan terminlar ham bor) (ЎТИЛ // Биринчи жилд. – Москва: 1981. – 406). *Toshkent shevasi, Shahrisabz shevasi, Qo‘qon shevasi, Buka shevasi* kabi shevalarni misol sifatida keltirish mumkin.

Lahja – shevaning fonetik, leksik, so‘z yasalishi hamda grammatik xususiyatlarini ma’lum bir tizim asosida o‘zida birlashtirgan shevalar yig‘indisi[1] (ЎТИЛ // Биринчи жилд. – Москва:1981. – 430).

Ayni vaqtda tilimizda uchta lahja bor: *1) qorluq lahjasi, 2) qipchoq lahjasi3) o‘g‘uz lahjasi*. Ularning nomlanishi turkiy urug‘-qabilalar nomidan shakllangan. Lahja so‘zi arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, *tarz, ravish, yo‘sin* singari ma’nolarni bildiradi.

Dialekt atamasi – dialektologik adabiyotlarda lahja, sheva ma’nolarida ham ishlatiladi. Hoziri kunda esa u umumlingvistik dialekt atamasi ma’nosida ishlatilmoqda. Dialekt atamasi grek tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, Prof. V.V.Reshetov bu atamani o‘z tadqiqotlarida shevalar guruhi ma’nosida faol darajada qo‘llagan. Mazkur atama bu fanga oid rus tilidagi ilmiy hamda ilmiy metodik adabiyotlarda ham uchraydi (Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘D – Toshkent. 2012. – 11).

O‘zbek tili shevashunosligi V.V.Reshetov, F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, B.Jo‘rayev, X.Doniyorov, Y.G‘ulomov, Y.Jumanazarov, A.Ishayev, D.Abdurahmonov, N.Rajabov, Q.Muhammadjonov, N.Shoimova kabi dialektolog olimlar tomonidan chuqur o‘rganib tahlil etilgan. Shuningdek prof. I. I.Zarubin, prof. K. K. Yudaxin; prof. G‘ozi Olim, prof. A. K. Borovkov, prof. V.V.Reshetovlar tomonidan shevalarimizni tasnif qilish bo‘yicha olib borilgan ishlarni shevalarimizning mamlakatimiz va qo‘shni davlatlarning hududlarida joylashishi jihatdan tasnifiga misol bo‘la oladi (Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘D – Toshkent. 2012. – 23).

XX asrning 50-90 yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda uchraydi. Masalan, F.Abdullayev, A.Shermatov, B.Jo‘rayev; A.Aliyev, Saidmuso Rahimov o‘zbek shevalarini guruhlab o‘rganishgan (Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘D – Toshkent. 2012. – 30). Bu esa ko‘pgina noma’lum xarakterga ega shevaga xos birliklarning ma’nosi va shakllanish tarixiga oydinlik kiritadi.

O‘zbek dialektologiyasi *geografiya* fani bilan uzviy aloqador, ya’ni, har bir sheva haqida ma’lumot to‘planganda, shu sheva vakillari joylashgan territoriyaning ko‘lami, aholining miqdori, shu territoriya iqlimi va boshqa ma’lumotlar ham to‘planadi, ya’ni geografik muhiti ham yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi *o‘zbek xalqi tarixi, adabiyoti, etnografiyasi, san’ati* fanlarining ma’lumotlariga ham tayanadi va ular uchun boy material beradi (Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi O‘D – Toshkent, 2013. – 8). Shuningdek, areologiya ham dialektologiyaning bir tarmog’i sanalib, bevosita geografiya fani bilan mushtarak sohalardandir. Dialektologiyaning o’rganish obyekti shevaga oid so’zlar bo’lsa, areologiya fani esa shevaga oid so’zlarni hududiy jihatdan, geografik xususiyatiga ko’ra tahlil qilishdan iboratdir.

O‘zbek dialektologlari. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi va tasnif qilinishida jahon ahamiyatiga molik bo‘lgan professor E.D.Polivanov, mashhur professorlar K.K.Yudaxin, G‘ozi Olim, A.K. Borovkov, V.V.Reshetov kabi olimlaming buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy o‘zbek olimlari yetishib chiqdi. O‘zbek shevalari akademik Sh.Shoabdurahmonov, professor va fan doktorlari M.Mirzayev, F.Abdullaev, S.Ibrohimov, X.G‘ulomov, Y.G‘ulomov, A.Aliev, A.Shermatov, A.Jo‘raev, O.Madrahimov, T.Yo‘ldoshev, N.Rajabov, X.Doniyorov, T.Nafasov, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov va boshqa olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan (Ashirboyev S. O‘D – Toshkent, 2013, – 45).

Shevalar har bir xalqning umumiy milliy tili tarkibiga kiradi, lekin ular shu milliy adabiy tildan o‘zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi. Demak, sheva milliy adabiy tilning bir tarmog‘i sanaladi. O‘zbek adabiy tili murakkab tarixiy jarayonda tashkil topgan.

Eski o‘zbek tilida yozilgan asarlar umumxalq o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, ularda turli mahalliy shevalarning xususiyatlari aks etgan edi. Masalan: bir asarda yaqin so‘zi uchrasa, ikkinchi asarda esa shu ma‘noda yovuq so‘zi uchraydi (Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘D – Toshkent. 2012. – 20).

Demak, sheva(lar)ga xos bo‘lgan so‘zlarda ham ma‘noviy o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Adabiy tilning orfoepik qoidalari hamma shevalar uchun umumiy bo‘lgan bir xil talaffuz me’yorlarini hosil qiladi. Xuddi shuningdek, adabiy tilning orfografik qoidalari shevalarimiz uchun so‘zlarni to‘g‘ri yozish me’yorlarini amaliy jihatdan kuchaytirishga yordam beradi.

Tahlil uchun Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Javog‘i qishlog‘ida yashovchi insonlar tomonidan og‘zaki so‘zlashuv uslubida ishlatiladigan so‘zlarni tanlandi. O’rganilgan so‘zlar adabiy tilda nisbatan kam qo‘llaniladi yoki umuman qo‘llanilmasligi kuzatildi. Misol uchun keltirib o‘tish joizki: *beqiliq, boyna, boynagi, chinaqay, do‘qalash, g‘ujurli, gajir, girillak, glagay, hayat, itirqim, kaypang, olashaqshaq, pidana, pinna, pori, qo‘tan, sergimoq, shapshak, sho‘tanoq, sho‘ttak, siyirmoq, so‘narmoq, sonsiz, taypish, timirskilanib, tuyatoppon.*

Ayrim fe’llarning talaffuzida farqlar kuzatiladi. Chunonchi; *shunday qilib-sh*uytib deb aytiladi. Yana shunday otlar borki aytilishida ozgina tafovut seziladi: *supurgi-shivitki, lovlovi-lavlagi* kabi. Shuningdek, yana ayrim so‘zlar xalq tiliga boshqa tildan o‘zlashgan va shu tildagi so‘zdan foydalanadi. Qishloq aholisi bundan ellik-oltmish yil avval turli joylardan ko‘chib kelishgani bois bu yerda yashovchi kishilar tallaffuzida ham turlichalikni uchratish mumkin. Keyingi davrlarda boshqa hududdan qiz olib, qiz uzatish ko‘paygani bois yosh bolalar nutqida turli shevalarga xos so‘zlarni uchratishimiz mumkin. Bu bevosita onalar nutqi bilan bog‘liqdir.

Quyida biz o‘sha so‘zlarni va ularning adabiy tilimizdagi izohini berib o‘tamiz (tahlilda tilshunos Shavkat Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” ga murojaat qilindi. Tahlil davomida e’tibordan chetda qoldirilgan ayrim so‘zlarning jadvali tuzildi). Ba’zi so‘zlar haqiqatda yuqorida tilga olingan qishloq aholisining doimiy kundalik so‘zlashuvida ishlatilib kelinmoqda. Bu so‘zlar faqat shu qishloq shevasida emas boshqa qishloqlarda ham ishlatiladi. Savdo-sotiq, bordi-keldi va to‘y-marosimlardagi yaqinlik sabab Javog‘i qishlog‘i odamlarining shevalari Yakkabog‘ tumanidagi boshqa qishloqlar, jumladan, Sovuqbuloq, Qasnoq, Tezob, G‘ozliq, Qo‘tontepa va Chiroqchi tumanidagi O‘ymovut qishlog‘i odamlarining shevalarida uchraydi.

Bu o‘rinda Qashqadaryoning qipchoq lahjasida bo‘lgan “J” lashishga oid so’zlar tahlilga tortilmadi. Bu ayni sheva bo‘lsa-da, bittagina tovush o‘zgarayotgani uchun adabiy tildagi har bitta “Y” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlarini misol keltirishni joiz deb topilmadi. Qolaversa, voha tilidagi so‘z so‘ngida keluvchi “G‘” undoshining “V” kabi talaffuz etilishini ham, so‘z oxiridagi “Q”, “K” undoshlarining tushirib qoldirilishini ham yozish ma’qul topilmadi.

Ushbu tadqiqotda, asosan, adabiy tildagi so‘zlarning shevada boshqacha aytilishi yoki yondosh so‘zga yaqin talaffuz etilishi tahlil qilindi. Umuman olganda, hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xorijiy so‘zlarning ko‘plab olinishi yoki ba’zi qo‘shimchalarning tilimizdan yo‘qolib borayotganligi tufayli ularning o‘rnini chekka hududlardagi o‘zbek shevalari orqali to‘ldirish, muqobil variantini aniqlash lozimdir. Zotan, ushbu izlanish milliy tilning ravnaqi va naqadar boy ekanligi belgilashga xizmat qiladi.

Fonetik jihatdan farqlanuvchi so‘zlar

T/R	Shevadagi so‘z	Adabiy tildagi variant	Izohi (O‘xshash va farqli jihatlari)	So‘z turkumi
1.	Belqars	Belbog‘	Qo‘shma so‘zning ikkinchi qismidagi so‘zda o‘zgarish yuz bergan.	Ot
2.	Billa	Birga	Tovush o‘zgargan.	Olmosh

3.	Birich	Guruch	Tovush o‘zgargan.	Ot
4.	Boshmardoq	Boshbarmoq	Tovush o‘zgargan.	Ot
5.	Buva	Bobo	Tovush o‘zgargan.	Ot
6.	Buytib, betib	Bunday qilib	Tovush o‘zgargan.	Fe’l
7.	Byaqda	Bu yoqda	Tovush o‘zgargan.	Ot
8.	Byarda	Bu yerda	Tovush o‘zgargan.	Ot
9.	Chuchchi	Chuchuk, shirin	Tovush tushishi va tovush ortishi ro‘y bergan.	Sifat
10.	Chapcha	Sapcha; Qovunning kattaroq tugunagi, hali pishmagan mayda qovun	Tovush o‘zgargan.	Ot
11.	Dostiq	Yostiq, bolish	Tovush o‘zgargan.	Ot
12.	Dumaloq	Yumaloq	Tovush o‘zgargan.	Sifat
13.	Do‘ppi	To‘p	Tovush o‘zgarishi va ortishi yuz bergan.	Ot
14.	Duvol	Devor	Tovush o‘zgargan.	Ot
15.	Elanish	Yalinish	Tovush tushishi va tovush o‘zgarishi yuz bergan.	Fe’l
16.	Ena	Ona, oyi	Tovush o‘zgargan.	Ot
17.	Eyaqda	U yoqda	Tovush o‘zgargan.	Ot
18.	Eyarda	U yerda	Tovush o‘zgargan.	Ot
19.	Gittak	Qittak, Ozgina	Tovush o‘zgargan.	Sifat
20.	Hi	Ha	Tovush o‘zgargan.	Modal so‘z
21.	Iyarib	Ergashib	Tovush o‘zgargan.	Fe’l
22.	Ko‘ppala, ko‘ppalavola	Ko‘p, bir talay	Tovush ortishi yuz bergan.	Ravish
23.	Ko‘cha osh	Go‘ja osh	Tovush o‘zgargan.	Ot
24.	Lovlovi	Lavlagi	Tovush o‘zgargan.	Ot
25.	Makkai	Makkajo‘xori	Tovush tushishi yuz bergan.	Ot
26.	Meylov	Mo‘ylab	Tovush o‘zgargan.	Ot
27.	Navoda	Mobodo, bordi-yu	Tovush o‘zgargan.	Bog‘lovchi
28.	Oya	Ona	Tovush o‘zgargan.	Ot
29.	Pichchi	Picha	Tovush o‘zgarishi va ortishi yuz bergan.	Sifat, ravish
30.	Shashov	Shoshqaloq	Tovush tushishi yuz bergan.	Sifat
31.	Shirvunich	Shirguruch	Tovush o‘zgargan.	Ot
32.	Shirchoy	Sutchoy	Qo‘shma so‘zning birinchi qismidagi so‘z	Ot

			boshqasi bilan almashgan.	
33.	Shivitki	Supurgi	Tovush o‘zgargan.	Ot
34.	Sho‘tanaq (sho‘tanoq)	Sho‘x–shaddod	Tovush ortgan.	Sifat
35.	Sho‘ttak	Nordon, sho‘r (sho‘rdak),	Tovush o‘zgargan.	Sifat
36.	Shuytib, shetib	Shunday qilib	Tovush o‘zgargan.	Fe’l
37.	Shyaqda	Shu yoqda	Tovush o‘zgargan.	Ot
38.	Shyarda	Shu yerda	Tovush o‘zgargan.	Ot
39.	Tuva, teva	Tepa, tepalik	Tovush o‘zgargan.	Ot
40.	Ul	O‘g‘il	Tovush tushgan.	Ot
41.	Uytib, etib	Unday qilib	Tovush o‘zgargan.	Fe’l

`

Morfologik jihatdan farqlanuvchi so‘zlar

T/R	Shevadagi so‘z	Adabiy tildagi variant	Graditsional shakli	So‘z turkumi
1	Ajriq	Chim	Neytral so‘z	Ot
2	Alqindi	Ishlatilgan sovun, sovun bo‘lagi	Salbiy	Ot
3	Alag‘da bo‘lmoq	Xavotir olmoq	Salbiy	Ibora
4	Arimoq	Ketmoq, daf bo‘lmoq	Ijobiy	Fe’l
5	Arg‘amchi	Ingichka arqon.*[1]	Tabu va yevfimizm doirasida ilonni anglatgani uchun salbiy ma’noda ishlatiladi.	Ot
6	Avramoq	Ishontirish, ko‘ndirish*	Ijobiy	Fe’l
7	Aya	Ona	Neytral so‘z	Ot
8	Bayavoy	Bahaybat, gavdali	Ijobiy	Sifat
9	Bachcha	Bola	Neytral so‘z	Ot
10	Bepallaki	O‘ylamay gapiradigan	Salbiy	Sifat
11	Beqiliq	Shum	Salbiy	Sifat
12	Biyi	Qaynona	Neytral so‘z	Ot
13	Bodi	Olifta	Salbiy	Sifat
14	Boyna	Biroz avval	Neytral so‘z	Ravish
15	Boynagi	Haligi	Neytral so‘z	Sifat
16	Bultur	O‘tgan yili	Neytral so‘z	Ravish
17	Bo‘la	Amakivachcha, ammavachcha, xolavachcha, tog‘avachcha	Neytral so‘z	Ot
18	Bo‘xcha	Kiyim-kechak o‘ralgan tugun*	Neytral so‘z	Ot
19	Chakki	Suzma	Neytral so‘z	Ot

[1] Yulduzcha bilan alohida belgilangan so‘zlar Shavkat Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”dan olindi. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). Toshkent, 2000.

20	Chaqqon	Yengil, yupun	Neytral so‘z	Sifat
21	Chayla	Kapa	Neytral so‘z	Ot
22	Checha	Yanga	Neytral so‘z	Ot
23	Checha n	So‘zamol	Ijobiy	Sifat
24	Chikin(a)	O‘xshab (Undaychikin-unga o‘xshab)	Salbiy	Ko‘ma kchi
25	Chin	Rost	Neytral so‘z	Sifat
26	Chinchi naki	Haqiqiy	Ijobiy	Sifat
27	Chinaq ay	Jimjiloq	Neytral so‘z	Ot
28	Darma yit	Boqimanda	Salbiy	Sifat
29	Do‘ng	Tepa	Neytral so‘z	Sifat
30	Do‘ngli k	Tepalik	Neytral so‘z	Ot
31	Do‘qal ash	Qo‘zg‘ash, aralashtirish	Salbiy	Fe’l
32	Doritm oq	Yaqinlashtirmoq	Salbiy	Fe’l
33	Dovur	-gacha	Neytral so‘z	Ravish dosh
34	Dovrup pa	Nahotki, bo‘lishi mumkinmas	Salbiy	Modal so‘z
35	Emchi	Tabib	Neytral so‘z	Ot
36	Ertachi	Barvaqt, vaqtli	Neytral so‘z	Ravish
37	G‘ujurl i	Tadbirli	Ijobiy	Sifat
38	Gajir	Janjalkash	Ijobiy	Sifat
39	Girillak	Aylana	Neytral so‘z	Sifat
40	Glagay	Yangi tuqqan sigirning suti	Neytral so‘z	Ot
41	Govxo na	Molxona	Neytral so‘z	Ot
42	Gurri	Urishqoq	Salbiy	Sifat
43	Gurung	Suhbat	Neytral so‘z	Ot
44	Havo	Yomg‘ir, yog‘in	Neytral so‘z	Ot
45	Hachcha	Tirgak	Neytral so‘z	Ot
46	Halinchak	Arg‘imchoq	Neytral so‘z	Ot
47	Hayat	To‘r, adoq, hovlining to‘ri	Neytral so‘z	Ot
48	Hayiqmoq	Qo‘rqmoq, hadiksiramoq	Salbiy	Fe’l
49	Hiyla	Ana	Neytral so‘z	Olmos h
50	Hiyyi	Ha, albatta	Salbiy	Modal so‘z

51	I-i	Yo‘q	Salbiy	Modal so‘z
52	Ilashmoq	Zich bo‘lmagan holda yopishmoq, tegmoq*	Neytral so‘z	Fe’l
53	Iring	Injiq qaysar	Salbiy	Sifat
54	Itirqim	Ko‘p, sanoqsiz	Salbiy	Ravish
55	Janqovul	“J” bilan gapiruvchilar	Salbiy	Ot
56	Jittilamoq	Qilpillab o‘zini ko‘rsatmoq	Salbiy	Fe’l
57	Jomaykor	Ish kiyimi	Neytral so‘z	Ot
58	Juvona	Ho‘kiz	Neytral so‘z	Ot
59	Kakkillamoq	Sharaqlab kulmoq	Salbiy	Fe’l
60	Kamitir	Oqsoqol	Neytral so‘z	Ot
61	Kaypang	Oxirini o‘ylamaydigan kishi, o‘ylamay shoshib qaror qabul qiluvchi	Salbiy	Sifat
62	Kayvoni	Yoshi ulug‘ bilgich	Neytral so‘z	Ot
63	Kuchuk	It	Neytral so‘z	Ot
64	Kuttacha	Nimcha, jaket	Neytral so‘z	Ot
65	Lahat	Qabr	Salbiy	Ot
66	Laxcha-to‘ppa	Xamirli ovqatning bir turi	Neytral so‘z	Ot
67	Lo‘la	Katta bolish	Neytral so‘z	Ot
68	Lo‘x	Qamishning boshqacha turi	Neytral so‘z	Ot
69	Mayak	Tuxum	Neytral so‘z	Ot
70	Mashak	Qunduz, ondatra	Neytral so‘z	Ot
71	Mo‘rcha	Chumoli, qumursqa	Neytral so‘z	Ot
72	Moma	Buvi	Neytral so‘z	Ot
73	Moy	Yog‘	Neytral so‘z	Ot
74	Murdashov	Yuvg‘ich		Ot
75	Muyum	Narsa, buyum	Neytral so‘z	Ot
76	Naynov	Bo‘lar-bo‘lmasga aljiraydigan	Salbiy	Sifat
77	Naqiris	Xasis, ziqna	Salbiy	Sifat
78	O‘lamsa	Nozik, kasalvand	Salbiy	Sifat
79	Obtova	Qumg‘on	Neytral so‘z	Ot
80	Olashaqshaq	Hakka	Neytral so‘z	Ot
81	Pandiyat	Saboq, dars, xulosa	Neytral so‘z	Ot
82	Paqir	Chelak	Neytral so‘z	Ot
83	Pasil (Bir pasil)	Bir oz, bir dam	Neytral so‘z	Ravish
84	Payanap	Suvning chiqishi, izova suv	Neytral so‘z	Ot
85	Pidana	Yalpiz	Neytral so‘z	Ot
86	Pinna	Puxta, mug‘ombir	Salbiy	Sifat
87	Pishak	Mushuk	Neytral so‘z	Ot
88	Piyova	Yovg‘on	Neytral so‘z	Ot
89	Pori	Go‘ng	Neytral so‘z	Ot

90	Potirdoq (patirdaq)	Qoqi, ko‘kat	Neytral so‘z	Ot
91	Povut	Xalal, xalaqit	Salbiy	Ot
92	Puchcha	Mug‘ombir, ichidan pishgan	Salbiy	Sifat
93	Qalampir	Garmdori	Neytral so‘z	Ot
94	Qalang‘i-qasang‘i	Tagi zoti past	Salbiy	Sifat
95	Qalpoq	Do‘ppi	Neytral so‘z	Ot
96	Qasqon	Gardish, doira shaklidagi temir	Neytral so‘z	Ot
97	Qayishmoq	Yonini olmoq	Ijobiy	Fe’l
98	Qitmir	Quv, shum	Salbiy	Sifat
99	Qo‘tan	Qo‘ra, qo‘yxona	Neytral so‘z	Ot
100	Qultum	Ho‘plam, yutum	Neytral so‘z	Hisob so‘z
101	Qumursqa	Chumoli	Neytral so‘z	Ot
102	Sergimoq	Qurimoq, nami qochmoq	Neytral so‘z	Fe’l
103	Shalaq	Og‘zi yomon	Salbiy	Sifat
104	Sholaq (sholax)	Mazax, kalaka	Salbiy	Ot
105	Sholcha	Gilamcha, to‘shamchi		Ot
106	Shapshak	Betgachopar, o‘ylamay gapiradigan	Salbiy	Sifat
107	Shiptir	Kiyimi nam va sasigan	Salbiy	Sifat
108	Siyirmoq	Shilmoq, archimoq	Salbiy	Fe’l
109	So‘g‘un	Keyin	Neytral so‘z	Ravish
110	So‘narmoq	Mo‘ltirab qaramoq	Salbiy	Fe’l
111	So‘rri	Novcha, bo‘yi uzun.	Salbiy	Sifat
112	Sonsiz	Uquvsiz, befarosat, didsiz	Salbiy	Sifat
113	Tapalanglab	Hovliqib, dovdirab	Salbiy	Fe’l
114	Tappi	Tezak	Neytral so‘z	Ot
115	Tarmashmoq	Mahkam ushlamoq, yopishmoq*	Salbiy	Fe’l
116	Taypish	Hovliqma	Salbiy	Sifat
117	Timirskilanmoq	Sinchkovlik bilan qaramoq	Salbiy	Fe’l
118	Tirrancha	Kuchi yetmasa ham zo‘ravonlik qiladigan, zumrasha	Salbiy	Ot
119	Tirtanglamoq	Biron ishga kuchi yetmasa ham o‘zini urmoq		
120	Toti	Bodi, olifta	Salbiy	Sifat
121	Tuyatoppon	Beso‘naqay, beo‘xshov	Salbiy	Sifat

122	Unnamoq, unnab qolmoq	O‘tirmoq, o‘tirib qolmoq (hidga nisbatan)	Salbiy	Fe’l
123	Uvuz	Tug‘ish oldidagi sigirning yelinidagi suyuqlik	Neytral so‘z	Ot
124	Xamsiya, hamsoya	Qo‘shni	Neytral so‘z	Ot
125	Xaymi	Xo‘pmi	Salbiy	Modal so‘z
126	Xezlanmoq	Qasdlanmoq	Salbiy	Fe’l
127	Xiyli (xiylivola)	Ko‘p	Neytral so‘z	Ravish
128	Xurri	Xurrak otuvchi	Salbiy	Sifat
129	Yo‘ng‘ichqa	Beda	Neytral so‘z	Ot
130	Zardoli	O‘rik	Neytral so‘z	Ot

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma), – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 11.
2. Ashirboyev Samixon O‘zbek dialektologiyasi O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun, – Toshkent, 2013. – B. 8.
3. Sh.Rahmatullayev. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” (turkiy so‘zlar), – Toshkent, 2000.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 430
5. [1] Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. –B. 23.
6. Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 30.
7. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun – Toshkent, 2013. – B. 8.
8. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013, – B. 45.
9. Enazarov T. J., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev SH. S, Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, Universitet, 2012. – B. 20.
10. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). Toshkent, 2000.

DIALEKTOLOGIK TADQIQOTLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZADAGI ROLI VA AHAMIYATI

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF DIALECTOLOGICAL RESEARCH IN LINGUISTIC EXPERTISE

Rahmatova Marg‘iyona Sayfiddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya. *Dunyodagi barcha xalqlar, millatlar, davlatlar o‘z tillariga ega bo‘lgani kabi o‘zining mahalliy shevasiga ham egadir. Bu esa har bir xalq tillarining turli-tumaligiga asos bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, mana shu til va shevalar haqida inson nutqining xarakteristikasi, hattoki uning qaysi hududda yashashini, qaysi sheva vakili ekanligini ham bilib olishimiz mumkin. Aynan hozir yoritmoqchi bo‘lgan mavzumiz ham dialektik so‘zlar orqali shaxsning hududini aniqlash hisoblanadi. Buning uchun, lingvist ekspertdan yaxshigina bilim va ko‘nikma talab qilinadi. Har bir so‘zning leksik-semantik tahlilini bera olishi, fonetik hodisalarni aniqlashi lozim.*

Kalit so‘zlar: *dialektologiya, dialektik aspekt, lingvistik aspekt, lingvist ekspert, leksik tahli, semantik tahlil, fonetik tahli.*

Abstract. *All the peoples, nations, and countries of the world have their own languages as well as their local dialects. This is the basis for the diversity of the languages of each nation. At the same time, we can learn about the characteristics of human speech about these languages and dialects, even in which region he lives and which dialect he represents. The topic that we want to cover right now is the definition of the territory of a person through dialectical words. For this, good knowledge and skills are required from a linguist expert. It is necessary to be able to give a lexical-semantic analysis of each word, to identify phonetic phenomena.*

Key words: *dialectology, dialectical aspect, linguistic aspect, linguist expert, lexical analysis, semantic analysis, phonetic analysis.*

Dunyoda nechta xalq, millat, davlat bo‘lsa, shuncha milliy til ham mavjuddir. Shu bilan birgalikda, tillarning o‘ziga xos xarakteri, xususiyati, grammatikasi, fonetik hodisalari, shevalari, argon-jargonlari ham alohida farqlanadi. Bu esa xalqlarning turli xarakteristikasini ifodalaydi hamda bir-biridan farqli jihatlarini bildiradi. Dunyo qanchalik rivojlanib borsa ham, uning milliy tili, shevalari saqlanib asrlar davomida yashayveradi. Misol uchun, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida “j” lovchi aholi yashaydi. Bu esa tojik tilining ta’sirida shakllangan. Bu esa uzoq asrlar tarixiga borib taqaladi. Ya’ni bu hududlar tarixan “j” lovchi xalq bo‘lsa, hozirgi kunda bu holat kam foizni tashkil etadi. Misol uchun, jilamoq (yig‘lamoq), jilan (ilon), jiyishtir (yig‘ishtirmoq) kabi.

Tilshunoslikda leksik, fonetik, grammatik, sintaktik birliklarning hududiy xoslanishi masalasi bilan dialektologiya fanining areal lingvistika sohasi shug‘ullanadi. Areologiyaning maxsus tadqiq usullaridan biri lisoniy-jug‘rofiy metodi bo‘lib, bu A.Jo‘rayev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov, N.Murodova, I.Darveshov kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan [Джураев 1991:218].

Lingvistik geografiya, areal lingvistika sohalarining huquq tizimi bilan integratsiyalashuvi shaxsiy yozishmalarda til birliklarining hududiy xoslanishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Areal lingvistika va lingvistik geografiya sohalari bo‘yicha Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida 20 dan ortiq turkiy til va ularning shevalari lingvistik-geografik metod asosida tahlil qilingan [https://www.youtube.com/embed/]. Bu metodlar bizga, o‘z navbatida, shevada yozilgan matnning muallifini aniqlashda yordam beradi. Qanday qilib deysizmi? Albatta, buning uchun, dastavval, lingvist mutaxassislarimiz yordamga keladi. Ular matnni morfologik, sintaktik, semantik, grammatik tahlil qilish jarayonida turli xil metodlardan foydalanadi. Ayniqsa, noadabiy unsurlarga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki bir so‘z Qashqadaryo shevasida boshqa ma’noda, Xorazm viloyati shevasida boshqa ma’noda ifodalanishi mumkin. Masalan, Qashqadaryo viloyati da *“Zo‘rmisiz(san)”* so‘zi shaxslar o‘rtasida salomlashish jarayonida *“yaxshimisiz”* ma’nosida ishlatiladi. Lekin Xorazm viloyati shevasida esa *“Zo‘rmisan, Kuching ko‘pmi, kurashasanmi”* degan ma’noda ishlatiladi. Mana shunga o‘xshash holatlar juda ham ko‘p bo‘ladi.

Dialektologiya sohasida lingvistik ekspertiza yo‘nalishining o‘rni juda ahamiyatli. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarning tahlilida ham dialektologiya, ham lingvistik ekspertiza sohalarining tahlil usullaridan muvofiq tarzda foydalanish samarali natija beradi. Dialektologik tahlilda noadabiy unsurlarning etimologik va hududiy xususiyatlari aniqlansa, lingvistik ekspertiza

jarayonida esa noadabiy unsurlarning mazmuniy ifodasi, inson qadr-qimmati, haq-huquqlariga salbiy ta’sir kuchi, matn muallifining ijtimoiy mansublik darajasi, ilmiy salohiyati, nutqiy vaziyatdagi ruhiy holati kabilar tahlil qilinadi. Bu ikki tahlil jarayonining hamohanglikda amalga oshishi xulosaning tugal va asosli bo‘lishini ta’minlaydi.

Lingvistik ekspertiza AQShda har tomonlama taraqqiy etgan. Anonim xatlar muallifini hududiy xususiyatiga ko‘ra aniqlash masalasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda institut talabalaridan tezkor insho olingan va matndagi xatolarni hududlar bo‘yicha tipiklashtirib maxsus korpus yaratilgan [Perkins 2016: 176]. Bu sud lingvistik ekspertiza sohasidagi muammoli masalalarning yechimiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, anonim xat muallifini aniqlash uchun umumiy va xususiy korpus zarur. Avvalo, yozishmadagi noadabiy unsurlar guruhlanadi va kodlashtirilib noma’lum muallifning nutqiy xatolari asosida korpus yaratiladi. So‘ng butun respublika bo‘ylab hududlararo noadabiy unsurlar tipiklashtirilgan korpusi asosida anonim yozishma individual korpusi bilan o‘zaro qiyoslanadi. Shundan keyingina taxminiy xulosaga kelinadi.

Tadqiqotchi olim S.N.Zeitlin “Nutqiy xatolar va ularning oldini olish” mavzusidagi tadqiqotida nutqiy-me’yoriy buzilishlarni quyidagicha farqlaydi:

a) so‘z shakllanishi – so‘zlashuv jarayonida tasodifiy, inson bilmagan holda noadabiy shakllangan so‘zlarni qo‘llashdan iborat;

b) morfologik – so‘z tarkibining g‘ayritabiiy shakllanishi va nutq qismlarini ishlatishdan iborat;

c) sintaktik – so‘z birikmalarini, oddiy va murakkab jumlalarni noto‘g‘ri tuzishdan iborat;

d) leksik – noadabiy leksik unsurlar, kanselyarizm, parazit so‘zlardan iborat;

e) frazeologik – frazeologik birliklarni noadabiy me’yorda qo‘llashdan iborat;

g) uslubiy – so‘zlashuv uslublariga rioya qilmaslikdan iborat [Цейтлин 1982:21].

Quyida esa lingvistik ekspertizani amalga oshirish uchun ma’lumotlar tadqim etildi, bunda birinchi bosqich yordamga keladi. Ya’ni shaxsiy yozishmada qaysi mavzuda gap borayotganini aniqlash kerak. Bunda A ismli shaxsga B ismli shaxs Telegram tarmog‘i orqali SMS xabar yo‘llangan.



Bu matndagi so‘zlarni dialektologik jihatdan tahlil qilinadi. Shunda, dastlab, ekspert oldiga savol qo‘yiladi: yozishmalarda nima haqida gap boryapti? Ekspertga berilgan ma’lumot ma’lum tizimda emas, avvalo, uni maqsadli ravishda tizimga solib olish kerak. Qabul qiluvchi va jo‘natuvchining suhbat faktiga ko‘ra ma’lumotlar bir tizimga solindi. Yozishmalarda umumiy quyidagi so‘z va gaplar qo‘llanilgan: *qanaysan* (qandaysan, adabiy shakli yaxshimisan), *nechiga kelasan* (nechida kelasan), *urush qilib yotiptila* (urush qilyapti), *ln yamon borgm kelopti* (lekin yomon borgim kelyapti), *nima qilay dugon* (nima qilay, dugona), *qolmaydilarmi* (qolmadilarmi),

ln bormoqcjimanda silanikiga dugon (lekin bormoqchimanda silanikiga dugon), *biladilada* (biladilarda). Bulardan *nechiga, yotibdila, yamon, dugon, biladila* kabi so‘zlar shevaga oid hisoblanadi. Bu matnda bir nechta xatolarga yo‘l qo‘yilgan.

Texnik xato	**Grammatik xato**	**Leksik xato**	**Imloviy xato**	**Qo‘shimcha qo‘llash bilan bog‘liq xato**
blmayman	Biladilada	Dugon	qanaysan	Nechiga
Boladi	Yotibdila	Ln	yamon	Kelopti
bormoqcjimanda	Silanikiga	Bn		
Borgm				

(1.1-jadval)

Bu matndagi shevaga oid so‘zlarni qaysi hududga egaligini tekshirish uchun ularning ma’nosini aniqlab olishimiz kerak. Masalan:

So‘z turkumi	**Tasnifi**	**Misol**	**Adabiy shakl**
Son so‘z turkumi	o‘rin-payt kelishigi o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘llangan	*nechiga*	Nechida
Fe’l so‘z turkumi	-dilar shaxs-son shakli -dila tarzida	*yotibdila, biladila*	yotibdilar, biladilar
Fe’l so‘z turkumi	-yap zamon shakli - op tarzida qo‘llangan	*Kelopti*	Kelyaptilar
Sifat so‘z turkumi	*o tovushi o‘rniga a tovushi qo‘llanilgan*	*yamon*	Yomon

(1.2-jadval)

Shuningdek, kelishik shakllarining o‘zaro o‘rin almashinuvi Buxoro shevasida ko‘p uchrashiga guvoh bo‘lish mumkin. Shuning uchun ham, yuqoridagi yozishmalar Buxoro shevasiga oidligi aniqlandi.

Hozirgi kunda tilshunosligimizning dolzarb va yechilishi kerak bo‘lgan sohalardan biri dialektologiyadir. Negaki har bir hududning alohida shevalar lug‘ati aks etmagan. Dialektologik tadqiqotlar yuzasidan oldimizga qo‘yilgan maqsad har bitta viloyat, tuman, qishloq, mahallalar turkumida lug‘at yaratishdir. Agarda lug‘at yaratilsa, bu lingvist ekspert mutaxassislariga ham ancha yengilroq bo‘lardi. Chunki hozirgi kunda anonim xatlarning muallifini sheva unsurlari orqali aniqlash ancha osonroq ish hisoblanadi. Bu jarayonda har bitta so‘z va qo‘shimchaning qo‘llanilishi asosiy vazifa kasb etadi. Shuning uchun ham dialektologik tadqiqotlarda lingvistik ekspertiza sohasining roli va ahamiyati ancha katta. Ayniqsa, jinoyatlar doirasida qaysi shevaga oid shaxs yozgan yoki yo‘qligini faqat mutaxassis ekspert aniqlab berishi mumkin. Bu esa ekspertizaning rolini yana to‘liq ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джураев А.Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент, 1991. – С. 218.; Мухаммеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дисс...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988. – С. 44.;

Иброхимов Й. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2000. – В. 366.; Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент, 2006. – В. 309.; Дарвешов И. Жануби-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи: Филол. фан. д-ри. …дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – В. 54.; Sheraliyev Sh.E. O‘zbek tili sharqiy Xo‘jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nomz. …diss. – Toshkent, 200., – B. 148

2. Ernazarov Tolib. Lingvistik geografiya va areal lingvistika. https://www.youtube.com/embed/vxyyVGvDG.

3. Perkins R. Linguistic Identifiers of L1 Persian speakers writing in English. NLID for Authorship Analysis. Unpublished doctoral dissertation. Aston University, Birmingham, U.K, 2012.; MacDonald P. “We All Make Mistakes!”. Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students’ Written English, in Complutense Journal of English Studies, № 24, 2016. – pp. 103-129.; Koppel M., Schler J., & Zigdon K. Determining an author’s native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD ’05. 2005. – 624-628 pp. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947; Malmasi S. and Dras M. Multilingual native language identification. Natural Language Engineering, 23(2), 2015. – 163-215 pp. doi:10.1017/S1351324915000406; Malmasi S., Tetreault J., & Dras M. Oracle and Human Baselines for Native Language Identification. Proceedings of the Tenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, 2015. – 172-178 pp. doi:10.3115/v1/w15-0620; Shatz I. Native Language Influence During Second Language Acquisition: A LargeScale Learner Corpus Analysis. Proceedings of the Pacific Second Language Research Forum, 2016. – 175-180 pp.

4. Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей. – Москва: Просвещение, 1982, – 21 с

“BONU” ASARIDA QO‘LLANILGAN DIALEKTIZMLAR

DIALECTISMS USED IN “BONU”

Dilhayot Sotiboldiyev
Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy rahbar: **Sofiya Usmonova**
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Iqbol Mirzoning “Bonu” romanida qo’llanilgan dialektizmlar va ularning “O’zbek tilining izohli lug’ati”, “O’zbek xalq shevalari lug’ati” keltirilgan sheva so’zlari izohi, lekin lug’atlarda uchramaydigan ma’lum hudud shevasiga xos dialektizmlarining qo’llanilishiga oid ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlar: *“Bonu” romani, dialektal leksika, “O’zbek tilining izohli lug’ati”, “O’zbek xalq shevalari lug’ati”, ayrim sheva so’zlari.*

Abstract. *In this article, dialectisms used in Iqbal Mirza's novel "Bonu" and their explanation of dialect words listed in "Annotated Dictionary of the Uzbek Language", "Dictionary of Uzbek Folk Dialects", but not found in dictionaries information on the use of dialectisms specific to the regional dialect is given.*

Key words: *"Bonu" novel, dialectal lexicon, "Annotated dictionary of Uzbek language", "Dictionary of Uzbek folk dialects", some dialect words.*

O‘zbek adabiy tili o‘zining dastlabki davridan boshlab, o‘z taraqqiyotining hamma bosqichlarida lahja va shevalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib kelgan. Bunda adabiy til, bir tomondan,

shevalarga faol ta’sir ko‘rsatadi, ikkinchi tomondan ular hisobidan boyib boradi. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Chunki mahalliy lahjalar eng qadimgi davrlarda o‘sha davrga nisbatan mustaqil til vazifasini bajargancha xalqning ma’lum bir qismi uchun asosiy aloqa vositasi va kurash quroli hisoblangan. O‘zbek adabiy tilining hozirgi davri taraqqiyotida va mukammallashishida matbuot, nashriyot, maktab, radio, kino, teleko‘rsatuv, teatr kabilarning ahamiyati kattadir. Bu sohada shoir-yozuvchilar, madaniyat va san’at arboblari, olimlarning alohida ahamiyati borligini yana bir bor qayd etish joiz. [7, 54].

Hozirgi o‘zbek adabiy tili, albatta, o‘zbek shevalari orqali boyigan, kamolga yetgan, taraqqiy topgan. O‘zbek shevalari o‘zining rang-barangligi, serjiloligi bilan ajralib turadi. Bu hodisalar oddiy so‘zlashuv jarayonlarida, balki badiiy asarlarda ham yaxshigina kuzatiladi. “Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dialektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizm, morfologik dialektizm va leksik dialektizm turlariga ega bo‘ladi” [O‘zbek dialektologiyasi, Samixon Ashirboyev, 76]. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarning mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki o‘rinda foydalanadi, ya’ni: 1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko‘rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida; 2) adabiy tildagi mavjud so‘zni shevadagi sinonimini qo‘llaydi.

Biz mazkur maqolada, Iqbol Mirzoning ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘lgan “Bonu” romanida uchraydigan dialektizmlar xususida fikr yuritmoqchimiz. Asarda dialektizmning ham fonetik, ham morfologik, ham leksik turlariga xos namunalarni uchratamiz.

Asarda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan, “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”dan o‘rin olgan dialektizmlar qolaversa, umuman, lug‘atlarga kiritilmagan xalq tomonidan asrlar davomida qo‘llanilib kelayotgan sheva so‘zlari - dialektizmlarga ham duch kelamiz. Biz ushbu mushohadalarimizni quyidagi misollar orqali ko‘rib o‘tamiz. Ushbu mulohazalarimizni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) “O’zbek tilining izohli lug’ati”ga kiritilgan sheva so‘zlari; 2) “O’zbek xalq shevalari lug‘ati va xalq shevalarida qo’llanadigan sheva so‘zlari.

1. “O’zbek tilining izohli lug’ati”ga kiritilgan sheva so‘zlari sifatida quyidagi misollarni keltiramiz:

M: “Kerakmas, ularga tegmanglar, ular meni do‘stlarim”, deb **g‘ishava** qilganim esimda. [6] G‘ishava – xarxasha. O‘TILda: *g‘ishava shv: qaysarlik yoki injiqlik bilan qilinadigan janjal, xarxasha*. [5- jild, 2020: 450]. M: Shahardan chiqishimiz bilan Yusuf rulni **tuyqus** Gazli tomon burdi, qarasam, uning avzoyi chatoq, begona, kimsasiz cho‘lda mashinasini shamoldek uchirib boryapti [37]. O‘TILda: *tuyqus shv. birdan (to‘satdan) yuz bergan; nogahoniy*. [4-jild, 2020: 184]. M: U chap qo‘limni tutib, **ilkis** tortdi, muvozanat ketdiyu qumga yonbosh yiqildim. [38]. O‘TILda: *ilkis shv. birdan, shartta.* [2- jild, 2020: 194]. M: Onam akamning yuzini avaylab yuvib, sochiq bosib, **so’riga** baliqday yotqizib qo’ydi. [55]. O‘TILda: *so’ri shv. katta taxta karavot*. [3-jild, 2020: 618]. M: U kutilmagan hamladan o‘zini yo‘qotib, boshini kafti bilan panalagancha “voy **bibijon**”lab chinqirib, ariq labiga o‘zini tashladi. [56]. O‘TILda: *bibi shv. onaning yoki otaning onasi; buvi(nabiraga nisbatan) ma’noda kelgan.* [1-jild, 2020: 251]. M:–Men **domod**ga hech qarz berganim yo‘q, hazillashgandir, – dediyu o‘ylanib qoldi.[74]. O‘TILda: ***domod*** *(kuyov, qalliq) shv. ayn. kuyov*. [1-jild, 2020: 642]. M: Hamma qadrdonlarim – o‘chog‘u **bolorgacha** birma-bir xayrlashib keldim. [75]. O‘TILda: *bolor (to’sin, ustun) shv. imorat tomiga ko‘ndalangiga tashlanadigan yog‘och; to‘sin.* [1- jild, 2020: 309]. M: Uylarni **yig‘nab**, bolalar kiyimiyu akamning kostyum-shimlari, chakmonlari, opamning ko‘ylaklarini taxladik [128]. O‘TILda: *yig’namoq shv. yig‘moq to‘plamoq*. M: Shifoxonaga farroshlikka ham olishmadi: “Ish? Ish otliqqa yo‘g‘u, sizlar yayov kepsizlar...” dedi tarvuz yutganday yumaloqqorin ma’mur ko‘zlarini **go‘laytirib** [129]. O‘TILda: *go‘laymoq shv. baqrayib qolmoq, angrayib qolmoq*. [1-jild, 2020: 530]. M: Opam ham alam, ham g’azabga to‘lib, “Bo‘ldi, bularning beradigan bebaraka puliga qarab bolalarimni qaqshatib qo‘ymayman, undan ko‘ra **go‘mma** pishirib sotaman”, dedi. [129]. O‘TILda: *go‘mma shv. ichiga go‘sht yoki ba’zi sabzavotlar solinib, yog‘da pishiriladigan somsaning bir turi.* [1-jild, 2020]. M: Yillik, oylik, kunlik ish rejamni va barcha qo‘llanmalarimni,

konspektlarimni **ijikilab** tekshirib, arzirli nuqson topa olishmadi. [140]. O‘TILda: *ijikilamoq shv. so‘rayvermoq, so‘rab-surishtiravermoq.* [2– jild, 2020: 175]. M: **Hechqursa**, uch-to‘rt tanga topib, onajonimning joniga ora kirarman, opalarimga, Shoira opamga qarasharman. [150]. O‘TILda: *hechqursa shv. hech bo‘lmaganda, loaqal.* [5-jild, 2020: 525]. M: Meni **yaznam** bo‘ladi, ammamni eri, – dedi... [163]. O‘TILda: yazna shv. pochcha. [5-jild, 2020: 100]. M: It egasini, **pishak** pochchasini tanimaydi. [169]. O‘TILda: *pishak: shv. mushuk.* [3– jild, 2020: 302]. M: Yaxshigina **gurung** bo‘ldi. [175]. O‘TILda: **gurung 1) qizg‘in suhbat, gap; bahs; 2) shv. gap.** M: Qulluq, qulluq, hammamizga muborak! Obbo **zing‘archa**-ey! – onaizorimning ovozi tovlanib ketdi, – dadasini erkasi, opalaringni, akalaringniyam tabriklash esingdan chiqmasin... [178]. O‘TILda: *zinqarcha shv. ayn. jinqarcha.* [2-jild, 2020: 152]. M: Bo‘yi cho‘zilib, **miyig‘i** nish otib, ovozi do‘rillab qolipti. [186]. O‘TILda: *miyiq shv. mo‘ylov.* [2- jild, 2020: 590]. M: Birinchi martdan bahor keldi deb aytaverish mumkin, shu kundan uyg‘ongan tuproqning **namxush** hidi taraladi, daralarda yollarini hilpiratib moviy shabadalar toychoqlardek o‘ynoqlaydi. [187]. O‘TILda: namxush – [f. yarim (chala) quruq] shv. *nimxush, biroz namli*. [3- jild, 2020: 17]. M: Agar sening daraxting gullagan chog‘ida **ushuq** urib ketgan bo‘lsayu sen qaysi aql bilan g‘o‘raga ko‘z tikib, halvodan umid qilasan? [188]. O‘TILda: *ushuk shv. sovuq.* [4- jild, 2020: 312]. M: Qiz bolani **kallapo‘sh** bilan ur, yiqilmasa erga ber, deydi. [209]. O‘TILda: *kallapo‘sh[boshni o‘rovchi; do‘ppi] shv. bosh kiyimi, do‘ppi.* M: Qurib ketgur hubobday nozik ko‘ngilchamga **kirpining** tikoniday nishdor so‘zlar tegib ketmaydimi? (209-b). O‘TILda: *kirpi shv. tipratikan* (2-jild, 375-b). M: Tumshug‘ingiz **ityaloqda**-yu, xayolingiz saryog‘da. [236]. O‘TILda: *ityaloq shv. itga ovqat beriladigan idish, itning tuvagi.* [2-jild, 2020: 243]. M: Agar qishda dam olaman desam, qishlog‘imda onamni duosini olib yonida o‘tirardim, – birdan oilaliman, ikkita bolam bor, deganim esimga tushib, – sandalda **jujuqlarimni** achomla-ab, ertak ayti-ib... – deb qo‘shib qo‘ydimu ko‘nglim buzilib, ko‘zimdan yosh tirqirab ketdi. [242]. O‘TILda: *jujuq. shv. yosh bola; go‘dak.* [2-jild, 2020: 111]. M: Ikki tavaqali kungirador darvozadan kiraverishda xorazmcha **dolonga** o‘xshagan edi. [283]. O‘TILda: *dolon [f.usti yopiq yo‘lak; dahliz] shv. darvozadan to hovligacha qurilgan, ikki tomoni devor, usti yopiq keng yo‘lak.* [1-jild, 2020: 640] M: Cho‘ntak soatiday keladigan qora **lappakchalardan** biri pishgan yong‘oq po‘stlog‘iday yorilib yotibdi [286]. O‘TILda: *lappak shv. yalpoq, yassi.* [2-jild, 2020: 487]. M: Kechqurun akam dorbozning mahsisiday yuzlari tirish Murod **jo‘gidan** olgan pufakni uzatsa, ushlashga ham ta’bim tortmay, qo‘llarimni orqamga yashirib olgan paytim bir kun kelib shularning eshigida cho‘ri bo‘lishimni o‘ylabmidim? [288]. O‘TILda: *jo‘gi ayrim o‘zbek shevalarida lo‘li*. [2- jild, 2020: 116]. M: “I-ye, omad qushi boshingga qo‘nsa, **chuchkirmay** tur, afandi”, deb ortidan halloslab chiqdim. [351]. O‘TILda: *chuchkurmoq shv. aksa urmoq, aksirmoq*. [4- jild, 2020: 518].

Bundan tashqari, Iqbol Mirzoning “Bonu” romanida bir so‘zning polisemantik va omonimlik holatlarini ham ko‘plab kuzatiladi. Ayrim, dialektlar ko‘p ma’noli yoxud omonim bo‘lgan bo‘lsa, asarda xuddi shu so‘zlar sheva so‘zdagi ma’noni ifodalamasligi mumkin. Masalan: “Qishloqning **kayvonisi** kelib: – Ovoz olib yig‘lang, odamlar ayb qiladi, – deb qulog‘imga pichirlab ketdi.” [67]. O‘TILda: kayvoni: kayvoni – [kayvonga oid; qoracha] 1. yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan, ko‘p narsani biladigan; 2. umuman, ko‘p narsa biladigan, uddaburon. 3. shv. dasturxonchi. Parchadagi *kayvoni so‘zi yoshi ulug‘, ko‘p narsani biladigan* ma’nosini ifodalaydi. M: Sotuvchi g‘o‘r bo‘lsa, oluvchi **sur** bo‘ladi [128]. O‘TILda: Sur I. dudlab yoki osib qo‘yib quritilgan, qoqlangan; sur II bez, surbet; Sur III 1) ot to‘q kulrang, tillarang qorako‘l. 2 sft. to‘q kulrang tusdagi; surrang; Sur IV sh. salobat; Sur V [shox, muguz; karnay] din. Qur’onda aytilishicha, qiyomat kuni Isrofil farishta tomonidan chalinadigan, shox (muguz)dan ishlangan karnay. [3-jild, 2020: 590]. M: –Aha, sigirga **to‘qim** urganday yarashdi-ku, qiziy, – deb og‘zini qiyshaytirib kuldi. [136]. O‘TILda: to‘qim 1) jazliq yoki egar ostiga qo‘yiladigan, odatda, kigizdan qilinadigan ot-ulov abzali; 2) shv. tandir yoki o‘choqning namat yoki matodan qilingan yopig‘i. M: Tog‘am ayni ish borligini, zudlik bilan **uchoqqa** minsam, Moskvada o‘zi kutib olishini aytib qoldi. [149]. O‘TILda uchoq: uchoq I esk. Samolyot, vertolyot kabi uchish apparati; Uchoq II shv. etn. kinna, suq. M: It egasini, pishak **pochchasini** tanimaydi. [169]. O‘TILda: pochcha 1 opaning eri; 2 esk. ismlarga qo‘shilib, hurmat ma’nosini bildiradi; 3 shv. o‘zidan kattalarga

murojaat shakli. [3-jild, 2020: 303]. M: Baribir o‘z uying – o‘lan **to‘shaging**. Birovning yurti senga boshpana bo‘lishi mumkin, lekin vatan bo‘lolmaydi. [184]. O‘TILda: to’shak I jun, paxta singari yumshoq narsa solib tikib tayyorlangan, yotish, o‘tirish uchun to‘shaladigan buyum, anjom; to‘shak; II yotish uchun solingan o‘rin; ost va ustga tashlanadigan (solinadigan) narsa; III shv. ko‘rpacha, poyandoz. [4- jild, 2020: 250]. M: Bechora chala bo‘g‘izlangan cho‘chqaday chinqirib, ikkala kaftini **choviga** bosgancha kenguruga o‘xshab engashib juftoyoq tashlab yugurib qoldi. [211]. O‘TILda: Chov I anat. qorinning pastki qismi bilan son oralig‘i; but; Chov II shv. eshshak. [4- jild, 2020: 502].

Asarda “O’zbek xalq shevalari lug‘ati va xalq shevalarida qo’llanadigan sheva so‘zlari ham anchagina uchraydi: *Chekich – chakich, yangi yasalgan nonga uriladigan tamg‘a vazifasini bajaruvchi uy-ro‘zg‘or buyumi*. (Farg‘ona, Toshkent) [8]. M: Bir kuni yuzlari **chekich** urilganday cho'tir kishi "hormanglar", deb kirib kelib, bo'sag'adagi ho'l lattaga oyog'ini arta-arta hol-ahvol so'ragani, onam sichqonlardan nolib, margumish zarurligini aytgan... esimda. *Jo‘yala – jo‘yak, egat.* (Buxoro) [21]. M: Ibi, xudojonim, ordona, ishqilib **jo‘yalani** arasiga yiqilib qomasam go‘rgaydi. M: Yo meniki bo‘lasan, yo hech kimniki! – deb mashina eshigiga tarsillatib **shappat urdi**. ***Shappat urdi -*** *shapaloq,* ***shappatlamoq*** *– shapatilamoq, shapaloqlamoq.* [309]. [40]. ***Poksho‘y*** *– murdani yuvib kafanlovchi shaxs.* (Buxoro, Samarqand). Ertasi sahar **poksho‘y** kelguncha yaqinlari mayitni yuvib-tarab qo‘yishi kerak edi.[65]. ***G‘ijirqum*** *qum, ayrim shevalarda shilqum, shulqum.* M: Nazarimda, oppoq ko‘ylagimda ko‘ringan qora dog‘ o‘rnimdan turishim bilan cho‘lning g‘ijirqumidek to‘kildi-yu oq atirgulga aylandim-qoldim. [44]. **Begoyi** juma – marosim nomi, (Buxoro). M: –Ertaga dadamga begoyi juma, tur, Bonujon, buncha uxlading, – dedi opam.[68]. **Hadisa** – (Qashqadaryo, Samarqand), **halisa** (Buxoro) halim “каша, приготовляемая особым образом из очищенных зерён пшеницы и мяса” [O‘XShL, 282.] M: –Erta bilan borib bir kosa halisa yeb, bitta yo‘rg‘alab o‘yin tushib kelaman – deb hammani kuldirgan edi...[69]. *Chayishmoq – es-hushini yo’qotmoq, hushidan qisqa vaqt ayrilmoq.* M: Boshimga birov to‘qmoq bilan urganday es-hushim **chayishdi**, o‘zimga o‘zim begona bo‘ldim, sillam qurib, yana qabr ustiga yiqildim. [93]. ***Hapachak*** *– yara, xalq tilida ko’z yara, frunkl.* M: Tabobatdan sal-pal xabardor bemorlar hapachakni qaychi bilan kesib, zardobni sitib chiqarishga tushdi. [99]. ***Apa, apajon*** *– o’zidan yoshi atta yoki qarindosh opalarga muroaat, apa so’zi Angren shahar shevalarida ham onaga murojaatni bildiradi.* M: Qancha vaqt o‘tdi, o‘ziga ayon, birdan jiyanim Feruz “Apa, apajon!” deb baqirib - chaqirganidan o‘zimga keldim. [106]. ***Qo‘mitmoq*** *– ochmoq, qimirlatmoq.* M: Fikri-zikrim ularning qum bosgan idrok bulog‘i ko‘zini qo‘mitish bo‘ldi. [130]. ***Gijbadang, “g’isht”*** *shevadagi sinonimlar – o’ta kuchli mast holat.* M: Hammalari gijbadang mast , xona tuman tushganday tamaki tutuniga to‘lgan. [169]. M: Tog‘am hech nimani bilmaydigan darajada “g‘isht” mast, uyquni urayotganmish. [171]. ***Sarixok*** *– tuproqboshi, mozorboshi.* M: Soat oltilarda opalarim bilan dadamni ziyorat qilgani sarixokka – mozorboshiga o‘tib keldik. [190]. ***Qo‘ranta*** *– qo’ramta, qo’r qoplagan cho’g’.* M: Ertalab Volodya amaki kelib qarasa, Jontemir begona ayol bilan tutun hidiga dudlanib, qo‘ranta bog‘lab yotibdi. [217]. ***Jalosini solmoq*** *– jalochilik, shalaqilik, urushqoqlik.* M: Kelib, ajrashganingiz haqida sud qog‘ozini ko‘rsatmasangiz, boshqa qorangizni ko‘rmay, deb jalosini soldi. [236]. **Jir bitib qolmoq** – mazkur ibora kambag’al odamning boyishi ma’nosini bildiradi. M: Dushmaningiz ko‘p, bilib bo‘ladimi, birortasi o‘chingizni mendan olib “Sobirga jirbitib qoldi, sog‘ish kerak”, deb yetkazsa, qarabsizki, yerto‘lada yarimo‘tkazgichga aylanib o‘tiribmanda. [255]. ***Palpis*** *–Urganch, Xiva, Gurlan shevalarida isqirt, iflos ma’nosida qo’llansa, Farg’ona shevalarida* ***polpis*** *– lapashang ma’nolarida keladi. Asarda polpis so’zi lapashang, landavur ma’nosida kelgan.* – M: Namuncha polpis bo‘lmasam! [296], **Ovoz olib** – ovoz chiqarib, aytib yig’lamoq. M: Ovoz olib yig‘lang, odamlar ayb qiladi, – deb qulog‘imga pichirlab ketdi.” [67].

“Bonu” asarida Xorazm sheva elementlarini ham kuzatamiz. M: Hozir ina kasal bo‘bkalasan, keyin sani isha omidila, bitta ko‘na tilfonni dab bina yonib guyavarasan? – deb urisha ketdi. [179]. M: Mang‘layi kara, sani yashulli axsham ishdan aldi, anuv bala sotgan ayal ishi bo‘yincha uni sudga chaqirmishla, “Man neyerdagi odamla uchun sudda tik turadigan kishimanmi?” deb jini korishib, biza bakirdi. Novvoyxonang iyasigayam bizim go‘zimizcha tilpon etib, ungayam uqtirdi.

Manimcha, u ishdanam ayrilding, bichara. O‘zim bilan apkitiyin dasam, ikki xana uyda yeti kishi turamiz. Xo‘jayin dim iplas adam, kunda bashimizi saniydi... To‘xta, bir ayol bor adi Dilbar digan, go‘rsang, bama’niga o‘xshiydi, namozxon. Manda rakami bo‘lsa gerak. Bo‘ldi-e, mizillama!” deb telefon tita ketdi. [226-227].

Asarda Namangan shevasidan ham foydalanilgan. M: Tezda yetib kelmasan, ehval chatto, akan uchinchi jahon urushi qilutti, odomla isnod qiladi deb o‘zini o‘zi urutti, bilasan, didongni peli bundayam bo. [320]. M: Oya, mani sochim tim qoro, ko‘zim alvaliday dummalo, tarbiya ko‘rmaganla maniyam lo‘libashara deb po‘qillatib otib teshlasa-ya, abammi ko‘ramanmi?! [334].

“Bonu” romanida qo’llanilgan ayrim so’zlar izohli lug’atlarda ham, dialektik lug’atlarda ham topilmadi. Sheva vakillari bilan muloqotga kirishib topishga muvaffaq bo’lindi. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunimizda oldimizdagi masala dialektik lug’atlarni yangilash, tayyorlash, takomillashtirish va nafaqat, jonli nutqda balki asarlardagi dialektlarni ham alohida lug’at holiga keltirish kerak.

Samixon Ashirboyev ta’kidlaganidek: “...dialektlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri bo‘lib qoladi.” [2. 77].

Xulosa qilib aytganda, “Bonu” asari ham nafaqat, adabiyotimizda, balki, sheva so’zlarini o‘rinli qo‘llanilganligi bilan tilshnoslikda ham alohida o’rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev F.“O’zbek tilining Xorazm shevalari”. Toshkent – 1963.
2. Ashirboyev S. “O‘zbek dialektologiyasi” “Navro‘z” nashriyoti Toshkent – 2023.
3. Iqbol Mirzo “Bonu” Sharq nashriyot–matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2020.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 5 jildli. “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent – 2020
5. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati “Fan” nashriyoti, Toshkent – 1971.
6. Oyina.uz
7. Rajabov N. “O‘zbek shevashunosligi” “O‘qituvchi” Toshkent – 1996, 55.

O‘ZBEK TILIDA TARZ SHAKLLARINING LEKSIK VA USLUBIY VOQELANISHI

LEXICAL AND METHODOLOGY OF STYLE FORMS IN THE UZBEKI LANGUAGE

Karimova Mahliyo Atobayevna
Urganch innovatsion universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tili fe’l so‘z turkumidagi harakat tarzi shaklllarining leksik, morfologik, sintaktik sathda ifodalanishi hamda uslubiy vosita sifatida tarz ma’nosini anglatuvchi birliklarning nutqda qo‘llanishi masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarz kategoriyasi, morfologik sath, sintaktik sath, simmetriya, assimetriya, ko‘makchi fe’l, semantik dominantlik, harakat fe’llari, segment vosita, supersegment vosita, sintaktik inversiya, konnotativ ma’no.*

Abstrakt. *The author discusses expressing manner of action in Uzbek verbs in lexical, morphological, syntactical layers and their use in speech in the form of stylistic devices.*

Keywords: *category of manner, morphological layer, syntactical layer, symmetry, asymmetry, auxiliary verb, semantic dominance, action verbs, segmental device, suprasegmental device, syntactic inversion, connotative meaning.*

O‘zbek tilshunosligida lisoniy birliklarning o‘ziga xos ko‘rsatkichlari va alohida birikuv qoidalari asosida umumlashtiruvchi grammatik kategoriyalar hosil qilishi masalasi dastavval tilshunos olimlar A.G‘ulomov va M.Asqarovalar [1,252] tomonidan tadqiq etildi. Shundan so‘ng

esa, xususan, fe’lning zamon, shaxs-son, nisbat va tarz kategoriyalari bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Fe’lning yuqorida sanab o‘tilgan kategoriyalari sirasida harakat tarzi shakli ma’nolarining ko‘pligi va ushbu ma’nolar voqelanishda faqat morfologik sath vositalari bilan cheklanmasligi bilan xarakterlidir. Xususan, morfologik sath doirasida tarz ma’nolari nafaqat ko‘makchi fe’lli qurilmalar bilan, balki zamon shakllari vositasida ham ifodalanishi mumkinligi aniqlangan. Ma’lumki, fe’lning zamon kategoriyasi harakatning nutq paytiga munosabatini ifodalaydi. Bu zamon shakllarining barchasi uchun umumiy xususiyatdir, zamon kategoriyasining mohiyati ham shundan iborat. Zamonning har bir turi esa umumiylik va xususiylik belgilariga ega. Masalan, o‘tgan zamon fe’li harakatning nutq paytigacha voqelanishini ifodalaydi, bu umumiylik – o‘tgan zamon fe’lining mohiyati. Bu zamonning shakllari ana shu umumiy ma’no asosida birlashadi, har biri esa o‘ziga xos xususiyatga ega [2,53]. Demak, harakat fe’llari tarkibidagi zamon shakllari uning jarayonlilik tarz ma’nolaridan birini ifodalay oladi deya xulosa qilish mumkin. Masalan: *Bo‘ri polvon kalishini* ***yechdi****. Mahsichan* ***bo‘ldi****. Qora choponi o‘ngirlarini qayirib, belbog‘iga* ***qistirdi****. Telpagini bostiribroq* ***kiydi****. Keng ham do‘ng peshonasini, turtib chiqqan yonoqlarini* ***siladi.*** *Taka soqolini* ***siladi****. Kaftlarini tuflab-tuflab* ***ho‘lladi****.* (T.Murod, Oydinda yurgan odamlar). Ushbu misollardagi o‘tgan zamon fe’llari (*yechdi, bo‘ldi, qistirdi* va *kiydi*) harakatning tugallanganligini anglatadi. Biroq ayni shu parchadagi *siladi* va *ho‘lladi* fe’llari o‘tgan zamonda bo‘lishiga qaramasdan ularni tugallangan ma’noni ifodalaydi deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Sababi, *silamoq* fe’li o‘zining lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra harakatning takroriyligini anglatadi, bunda uning lug‘aviy ma’nosi zamon shakli yuklaydigan grammatik ma’nodan ustun. Keyingi fe’l *ho‘lladi* o‘zi birikib kelgan *tuflab-tuflab* ravishdoshining takroriy ma’nosi bilan uyg‘unlashib ketgani uchun ushbu fe’lni ham nutq kontekstida tugallanganlik ma’nosini ifodalaydi deb bo‘lmaydi. O‘tgan zamon shakli har doim ham harakatning tugallanganligini ifodalayvermaydi. Bunda tarz ma’nosi bevosita harakat fe’lining lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Shuningdek, zamon shakllari harakatning davomiyligini ham ifodalay oladi. Masalan: *Aravadan chiqarilg‘on burul ayg‘ir g‘o‘za uvatig‘a ekilgan ekin barglarini* ***iskab qaramoqda edi****. Avaz bug‘chamalang‘on ko‘rpa, yostiq va oziq-ovqatlarni arava oldidan tushurib, yong‘oq qatoridag‘i o‘ruk ostig‘a* ***taxlamoqda edi*** (A.Qodiriy, Quyosh bilan ham kurashaman). Ushbu parchada *iskab qaramoq, taxlamoq* fe’llari davomiylik va tugallanmaganlik ma’nolarini ifodalamoqda, xususan, *qaramoq* fe’lining lug‘aviy ma’nosida davomiylik semasi majud bo‘lsa, ikkinchi fe’lning lug‘aviy ma’nosida bunday sema mavjudligi sezilmaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘zbek tilshunosligida davomiylik tarz kategoriyasi ikki hadli binar oppozitsiyadan iborat davomiylikni ifodalaydigan va ifodalamaydigan formalar ekanligi bir qancha adabiyotlarda e’tirof etilib, birinchi had belgisiz, unda “davomiylik” ma’nosi ham, uni ifodalovchi forma ham mavjud emas; ikkinchi had esa, belgili *(-yap),* unda “davomiylik” ma’nosi borligi qayd etilgan [3,4].

Demak, zamon shakllari sirasida o‘tgan zamon, davomiy zamon, uzoq o‘tgan zamon va kelasi zamon shakllari harakatning davomiyligi, takroriyligi, tugallanganligi, tugallanmaganligi, uzlukliligi hamda uzluksizligini ifodalay oladi. Lekin ushbu semantik funksiyalar matn konteksti va fe’lning lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Masalan: *1.Ko‘tarmadagi chelak Avazning yodidan ko‘tarilgan edi: aravaning ostig‘a kirib chelakni yeshib* ***ola boshladi****. Yunus ota labidagi nos ushoqlarini yaxtagining yengiga arta-arta arava yonig‘a kelib yalang oyog‘i bilan* ***shotini bosdi*** (A.Qodiriy, Quyosh bilan ham kurashaman). *2. Ha, ul kishi Marv shahrida saroy vaziri bo‘lib turganlarida menga xayrixoh bo‘lib, kechalari mendan hind hisobini* ***o‘rganur edilar*** (M.Osim, Aljabrning tug‘ilishi). *3. Zumrad kampir qarshisida bugun ham odatdagidek o‘zini ojiz, nochor sezib, ezilganicha ichkariga* ***yo‘naldi****. Chap qo‘ldagi uyga kirib, kitoblarni deraza oldidagi stolga* ***qo‘ydi****. Paltosini yechib, satin kamzulini* ***kiydi*** (O.Muxtor, Yillar shamoli). Ammo morfologik sathdagi boshqa bir harakat tarzi ma’nolarini ifodalovchi turkum birliklar, ya’ni ko‘makchi fe’llar [4,268] zamon shakllaridan ko‘ra keng qamrovli, shu bilan birga, ular ifodalovchi ma’nolar harakat fe’lining lug‘aviy ma’nosiga tobelanishi kuchsizroq. Bunda ko‘makchi fe’llar va zamon shakllari tarz ma’nosini ifodalash xususiyatiga ko‘ra lingvistik assimetriya hosil qiladi. O‘zbek tilidagi mavjud ko‘makchi fe’llar, ularning ma’nolari, formalari, ishlatilishi, vazifalari va etimologiyasi akademik A.Hojiev tomonidan chuqur tadqiq qilingan,

uning fikricha, o‘zbek tilida butunlay ko‘makchi fe’lga aylangan birorta ham fe’l mavjud emas. Zero, ayrim mustaqil fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasida ham qo‘llanadi va turli-tuman ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi [5,14-15]. Ma’lumki, belgi va ma’no, shakl va mazmun bir-biriga to‘liq mos kelavermaydi. Chunki aynan bir belgi yoki shakl bir necha funksiya bajarsa, aynan bir ma’no bir necha belgi (shakl) yordamida ifodalanadi.

Umuman olganda, harakat tarzi birgina ko‘makchi fe’l emas, harakat fe’li ravishdosh shakli + ko‘makchi fe’l qurilmasi orqali ifodalansa-da, ko‘makchi fe’lning ma’nosi ingliz tilidagi predloglar ma’nosidan o‘zining lug‘aviy ma’nosini saqlab qola olish xususiyatining kuchliroqligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, morfologik sathda ko‘makchi fe’lli qurilmalar ifodalaydigan tarz ma’nolari birgina ko‘makchi fe’l bilan cheklanmaydi. Zamon shakllari kategoriyasidan farqli o‘laroq o‘zbek tilida ko‘makchi fe’llar harakat tarzining “qobiliyat” ma’nosini ham ifodalay oladi. Masalan: *1. Bunday vaziyatda, ayniqsa, xushomadgo‘ylarga qiyin: rahbarlar qo‘yniga kirib ketishning mashqini olgan bu kimsalar, yangi xodimliklarida Asror Valievichning ham issiq bag‘riga bir-ikki* ***talpinib ko‘radilar*** (U.Azim, Ishxonadagi ko‘rgazma). *2. Yana arazlash uchun bahona topolmay turgan Iboqjon: “Hozir enamga aytib beraman!” deb yugurib uyiga* ***qarab ketardi*** (N.Boqiy, Qiyomatli tog‘a). Sintaktik sathda tarz ifoda vositalarini kuzatar ekanmiz, o‘zbek va ingliz tillari orasidagi simmetriyaga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni, o‘zbek tilida ham turli hollar, xususan, ravish holi va payt holi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: 1. *U eng bejirim etikning bir poyini olib,* ***shosha-pisha*** *opaga* ***ko‘rsatdi*** (U.Azim, Bir dasta qizil gul). *2. Ayol bu xabarni o‘chirib yubordi. So‘ng* ***bamaylixotir*** *oshxonaga* ***o‘tib***, ***xayolchan*** *tarzda* ***ovqatlanayotgan*** *eriga boqdi* (N.Ibroximova, Yozuvchi). 3. *Zulayho* ***tars-tars yurib*** *ketar chog‘i oliftaga bir tabassum hadya etdi* (I.Sulton, Yusuf va Zulayho). *4.* ***Birdan*** *ko‘rinmas odam* ***tilga kiradi*** (U.Azim, Bir dasta qizil gul). Ta’kidlash joizki, sintaktik sathda tarzni ifodalovshi hol bilan birikkan harakat fe’li ko‘pincha ko‘makchi qurilmaga ega bo‘lsa-da, asosiy tarz ma’nosi bevosita hol orqali anglashiladi. Sintaktik sath vositalari o‘zining lug‘aviy ma’nosini saqlab qolish va boshqa sath tarz vositalarini semantik nuqtai nazardan ma’lum bir darajada o‘ziga tobelantira olish xususiyati bilan ajralib turadi. Bunday semantik dominantlik ushbu birliklarning birikma boshida joylashuvi bilan asoslanishi mumkin. Masalan: *1. «Nari qoch! Chetga o‘t!» degan shovqinlar kuchayib, daraxt bo‘yniga solingan sirtmoq tortildi, u* ***ohista og‘a boshladi*** (A.Ibrohim, Ildiz). Shuningdek, sintaktik sath vositalari harakatni bajarish qobiliyati ma’nosini ham ifodalashi mumkin. Masalan: *1. Rossiyaga savdoga borib bor-budidan ayrilgach, bir* ***amallab*** *yarim tunda yolg‘iz o‘zi qishlog‘iga* ***kirib kelgan*** (A.Muxtorov, Haydarqul hayolllari). *2. O‘shanda otasi ayrim odamlarga o‘xshab, baqir-chaqir qilib o‘tirmagan, xuddi og‘ziga bir kaft nos tashlab olganday, lablarini mahkam qimtigancha qamchiga zo‘r bergan va sho‘rlik yigit uning changalidan* ***zo‘r-bazo‘r qochib qutulgandi*** (N.Norqobilov, O‘g‘ri). Ushbu misollarda sintaktik sath ifoda birliklari harakatni bajarishga sarflangan kuch-quvvat va salohiyat darajasini ko‘rsatib, ayni shu ma’no harakat fe’lining lug‘aviy ma’nosi bilan umumlashgan holda harakatni bajarish qobiliyati ma’nosini ifodalamoqda.

An’anaviy tilshunoslikda so‘zlarning uslubiy bo‘yog‘i, ya’ni ifoda semalari asosida so‘zlarning uslubiy tasnifi keng o‘rganilgan. Bu tasnifda so‘zlar, asosan, umumiste’mol so‘zlari, qo‘llanilishi chegaralangan so‘zlar, uslubiy bo‘yoqqa ega so‘zlar, kitobiy so‘zlar va so‘zlashuv tiliga xos so‘zlar kabi guruhlarga bo‘linib, maktab va oliygoh darsliklarida, ilmiy tadqiqotlarda keng izohlangan [6,62]. Tarz ma’nosining uslubiy ifodalanishiga oid ko‘plab misollar va ularning keng tahlilini keltirib o‘tish mumkin. Ammo, ushbu uslubiy vositalarni avvalambor guruh va turkumlarga ajratib olish lozim. Tarz ma’nolarining so‘z tarkibidagi fonetik o‘zgarishlar vositasida ifodalanishi uslubiyatga aloqador bo‘lib, yozma manbalarda uning voqelanishiga deyarli guvoh bo‘lmaymiz.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. –Тошкент: Фан, 1961. –252 б.
2. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. –Б. 53.
3. Жалолова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл турларининг чоғиштирма тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. –Б. 4.

4. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 268 б.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 14-15.
6. Неъматов Н., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 62.

QIPCHOQ LAHJASIDAN OLINGAN MATNLARNING SINTAKTIK TAHLILI VA STATISTIK YONDASHUV

SYNTACTIC ANALYSIS AND STATISTICAL APPROACH OF TEXTS FROM THE KIPCHOK DIALECT

Mamayusupova Nilufar Jo‘ra qizi
Termiz davlat universiteti talabasi
nilufarjorayevna0424@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda qipchoq lahjasining o‘rganilishiga doir umumiy qarashlar ifoda etilgan bo‘lib lahjaning xususiyatlatri tilshunoslikning sintaktik sathiga yondashgan holda tahlilga tortilgan va statistic yondashilgan.*
Kalit so‘zlar: *Qipchoq lahjasi, sintaktik tahlil, sodda va qo‘shma gaplar, egali hamda egasiz gaplar, sheva, lahja.*

Abstract. *This article expresses general views on the study of the Kypchak dialect, and also analyzes the features of the dialect using an approach to the syntactic level of linguistics and a statistical approach.*
Keywords: *Kipchak dialect, syntactic analysis, simple and compound sentences, possessive and non-possessive sentences, dialect, dialect.*

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. Professor Y. D. Polivanov asrimiz birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o‘zining ilmiy ishlarida ma’lumot bergan edi [Reshetov V. Shoabdurahmonov Sh. 1978: 34]. O‘rta Osiyo mamlakatlarida, asosan, O‘zbekiston va Qozog‘istonda tarqalgan o‘zbek tilining shevalaridan biri qipchoq shevalaridir. U No‘g‘ay qipchoq ostguruhiga mansub hisoblanadi. Qipchoq lahjasi shevalarining Movarounnahrga kirib kelishi XVI asr Shayboniyxon bilan bog‘liq degan fikrlar mavjud. Biroq Movarounnahrda qipchoqcha gapiradigan qabilalar mavjud bo‘lgani oldindan ma’lum. Dialektologiyada Surxondaryo va Qashqadaryoda qipchoqlar tarqalishi ko‘proq degan nazariyalar mavjud. Farg‘ona va Toshkent bundan mustasno deya ko‘rsatiladi. Qipchoq lahjasini eng yirik tadqiqotchi Xudoyberdi Doniyorov o‘rgangan. Bugungi kunda esa Ravshanova T. [Ravshanova T. 2023:126], Norboyeva X. [Norboyeva X. 2024:107], Alimova Sh. [Alimova Sh. 2022:144] kabilar nazariy yoritilishi kuzatilsa, Xolova M. [Xolova M. 2023] hamda Bobobo‘tayev M. ning tadqiqotlarida esa lahjaga leksikografik amaliy yondashuvlarni kuzatish mumkin. Qipchoq lahjasining Surxondaryo hududi kesimida tahlil etadigan bo‘lsak, Boysun (70% aholi [Xolova M. 2023.88.]), Denov, Sho‘rchi, Sherobod, Qiziriq, Jarqo‘rg‘on, Oltinsoy (qisman); Farg‘ona hududi: Buvayda, Dang‘ara, Beshariq, Uchariq, Qo‘shtepa; Namangan hududi: Pop, Norin, Uychi; Andijon hududi: Baliqchi, Shahrixon; Sobiq Xiva xonligi: Gurlan, Yangi Bozor kabilarni, shuningdek, eng ko‘p qipchoqlar tarqalgan hududlar sifatida Xiva, Hazorasp, Qo‘shko‘pir, Bo‘g‘ot hamda Turkmaniston hududlarini ham olishimiz mumkin.

Bizning tadqiqot oyektimiz qipchoq lahjasiga oid matnlarning sintaktik tahlili ekan, bu sohada sanoqli izlanishlar olib borilganligi ta’kidlash joizdir. Bular M. Turobova tomonida Toshkent shevasi hamda Y. Jumanazarovning o‘g‘uz shevalarining sintaktik xususiyatlari doirasidagi tadqiqotlardir [Ashirboyev S.49.]. Ushbu o‘rinda e’lon qilingan sheva materiallari

asosida shevalarning ayrim sintaktik xususiyatlarini yoritishga harakat qilinadi. Ta’kidlanganidek, o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari, asosan, fonetika, leksika, morfologiyada namoyon bo‘ladi. Sintaksis esa hozirgi adabiy tilning so‘zlashuv shaklini ko‘proq aks ettiradi. Bu, ayniqsa, savol-javoblardan iborat matnlarda ko‘zga tashlanadi. Xalq shevalaridan yozib olingan ertak, lapar va boshqa janrdagi matnlarda ham, asosan, adabiy tilga xos bo‘lgan xususiyatlar aks etgan. Samarqand viloyati “ǯ”lovchi shevalaridan namuna (Qulota qishlog‘i):

Tojγa minip kelgänim ǯijrän čibar, (To‘yg‘a minip kelganim jiyran chibar)
Qoj-qojdagi quvmak söz bijdän čiγar, (Qo‘y-qo‘ydagi quvmak so‘z biydan chiqar)
Ǯigittiŋ alγan jari ǯaqši bosa, (Jigitting olg‘an yari jaqshi bo‘sa)
Tal čibiqtaj buralip ujdän čiγar. (Tal chibiqtay buralip uydan chig‘ar)
Arγimaqtiŋ balasi harimajdi, (Arg‘imaqting balasi harimaydi)
Däri dijdi ǯuräkkä sarimajdi, (Dari diydi jurakka sarimaydi)
Ǯigittiŋ alγan jari ǯaqši bosa, (Jigitting olg‘an yari jaqshi bo‘sa)
Jeki ǯeŋi siräjäm tozimajdi. (Yeki jengi sirayam to‘zimaydi)
Tojγa minip kelgänim quralaj kok, (To‘yg‘a minip kelganim quralay ko‘k)
Avdarilip čapaman ajilim berk. (Avdarilip capaman ayilim berk)
Qizdi körgän ǯerimdä qiliγim kop, (Qizdi ko‘rgan jerimda qilig‘im ko‘p)
Qimiz sorap ičämän suvsadim dep. (Qimiz so‘rap ichaman suvsadim dep) [Ashirboyev S. 2016:106.]. Biz bilamizki, sintaktik tahlil 3 ga bo‘linadi. Bular:

- Bog‘lanish bilan bog‘liq, ya’ni so‘z birikmasi tahlili;
- Gap bo‘laklari bilan bog‘liq tahlil;
- Gap qurilishi bilan bog‘liq tahlil.


1. Dastlab so‘z birikmasi bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu she’riy to‘rtliklarda jami 35 ta so‘z birikmasi qo‘llanilgan. Ularni birikish usuliga ko‘ra tasnif qilish quyidagicha ko‘rinish oladi:

1-jadval

№	Bitishuv	Boshqaruv	Moslashuv
1.	ǯijrän čibar	tojγa minip	ǯigittiŋ jari
2.	minip kelgänim	ǯijrän minip	Arγimaqtiŋ balasi
3.	qoj-qojdagi quvmak	bijdän čiγar	ǯigittiŋ jari
4.	quvmak söz	ujdän čiγar	
5.	alγan jari	ǯuräkkä sarimajdi	
6.	ǯaqši bosa	tojγa minip	
7.	Tal čibiqtaj	kok quralaj	
8.	čibiqtaj buralip	quralaj minip	
9.	buralip čiγar	qizdi körgän	
10.	alγan jari	Ǯerimdä kop	
11.	ǯaqši bosa	qimiz ičämän	
12.	jeki ǯeŋi		
13.	siräjäm tozimajdi		
14.	minip kelgänim		
15.	avdarilip čapaman		
16.	berk čapaman		
17.	ajilim berk		
19.	körgän ǯerimdä		
20.	sorap ičämän		
21.	suvsadim dep ičämän		

Izoh: Qipchoq lahjasiga oid matnning so‘z birikmalari jadvali

1-diagramma



Izoh: Qipchoq lahjasining bog‘lanish usuliga ko‘ra statistikasi

Bundan anglashiladiki, qipchoq lahjasiga oid to‘rtliklarda:

Bitishuvli so‘z birikmasi - 21 ta; 60%;

Boshqaruvli so‘z birikmasi – 11 ta; 31%;

Moslashuvli so‘z birikmasi – 3 ta; 9% ni tashkil etadi.

Bitishuvli so‘z birikmasi odatdagidek, har ikkisiga nisbatan ko‘proq o‘rinni egallaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘shimchalarning belgisiz qo‘llanilishi keng qamrovga ega hisoblanadi, lekin biz buni shevadan olingan matnlarni so‘z birikmasiga ajratish jarayonida ham kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan: ǯijrän minip, qimiz ičämän, quralaj minip. Bu misollarda, asosan, boshqaruvli so‘z birikmasida tushum kelishigi bilan bog‘liq belgisizlik ko‘rib o‘tilgan. Moslashuvli so‘z birikmasida esa qaratqich kelishigi -ning qo‘shimchasi -tiŋ tarzida qo‘llanilgan, ǯigittiŋ jari, Arγimaqtiŋ balasi kabi. Bu holat faqatgina moslashuvli birikmadagina yuz bermasdan boshqaruvli so‘z birikmasida ham o‘z aksini topgan. Misol uchun: - ni ushum kelishigi -di holida; -ga jo‘nalish kelishigi esa -g‘a tarzida qizdi körgän, tojγa minip kabi so‘z birikmalarida yaqqol namoyon bo‘ladi: otli so‘z birikmasi – 15 ta; fe’lli so‘z birikmasi – 20 tani tashkil etgan. Tahlil jarayonidan ma’lumki, otli so‘z birikmasiga nisbatan fe’lli so‘z birikmasi salmoqli o‘rin olgan.

2. Gap bo‘laklari bo‘yicha tahlil. Barcha gap bo‘laklari o‘ziga xos tarzda qo‘llanilgan. Gaplar tarkibida inversiya hodisasi kuzatiladi. Misol uchun: Tojγa minip kelgänim ǯijrän čibar. Bu gapda kesim to‘ldiruvchidan oldinga o‘tgan.

Tojγa minip kelgänim quralaj kok,
Avdarilip čapaman ajilim berk.
Qizdi körgän ǯerimdä qiliγim kop,
Qimiz sorap ičämän suvsadim dep.

Ushbu bandda 3-qatordagi gap bo‘laklari o‘z o‘rnida, boshqa barchasida esa inversiya hodisasi ro‘y bergan va bularda to‘ldiruvchi va holdan oldin kesim o‘rin olgan. Tahlil uchun olingan she’riy parchada undalma, kirish so‘zlarning ishtiroki kuzatilmaydi.

3. Gap qurilishi bo‘yicha tahlil. “ǯ” lovchi sheva vakillari tomonidan yozib olingan she’riy to‘rtliklarda: sodda gaplar – 8 ta; qo‘shma gaplar – 2 ta. Tahlil jarayonidan anglash mumkinki, sodda gaplar qo‘shma gaplarga nisbatan son jihatdan ko‘proqni tashkil etadi. Qo‘shma gaplarning ergashgan qo‘shma gap turi qo‘llanilgan.

Egali gaplar – 7 ta;

Egasiz gaplar – 5 ta. Egasiz gaplarning shaxsi ma’lum turi qo‘llanilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish lozimki, tahlil uchun Samarqand viloyati Qulota qishlog‘i aholisi tomonidan yozib olingan she’riy parchani sintaktik tahlil qilish jarayonida o‘zbek adabiy

tili bilan o‘zbek dialektologiyasi sintaksis qonuniyatlari deyarli farqlanmaydi, ya’ni standart tilga oid va shevaga oid matnlar tarkibidagi so‘z birikmalari, gap bo‘laklari, shuningdek, gap qurilishlari deyarli farq qilmaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbek shevashunosligida sintaksis bilan qilingan tadqiqotlar u qadar ham ko‘p emas. Bu mavzuda hali bir qancha ishlar amalga oshirilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O’zbek dialektologiyasi. T.: Navro’z, 2016. 49-b
2. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O’zbek dialektologiyasi. T.: O‘qituvchi,1978.
3. Tursuntosh R. Qipchoq lahjasida qavm-qarindoshlik atamalarining qo‘llanishi // образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 21. – №. 1. – С. 126-128.
4. Narbayeva X. Olmoshlarning qipchoq lahjasidagi va adabiy til o ‘rtasidagi tafovutlar // Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 107-109.
5. Максудовна С. А. Фонетические особенности хорезмско-кыпчакского диалекта // Международный журнал междисциплинарных исследований EPRA (IJMR). – 2022. – Т. 8. – №. 3. – С. 144-148.
6. Холова М. Database of the uzbek dialect online dictionary and notes on the translation of the kipchak dialect into english // Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 4.//
7. Bobotayev M. Analysis of some lexemas of the kipchok dialect and their linguistic characteristics in the" explanatory dictionary of the uzbek language" //международный журнал языка, образования, перевода. – 2023. – Т. 4. – №. 2.
8. Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка // Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 88.– С. 3-206.

SHO‘RCHI TUMANI XUSHCHEKKA QISHLOG'I SHEVASIDA QO‘LLANUVCHI AYRIM DIALEKTAL SO‘ZLAR XUSUSIDA

ON SOME DIALECT WORDS USED IN THE DIALECT OF KHUSHCHEKKA VILLAGE, SHORCHI DISTRICT

Hazratqulova Shohsanam Sharofiddinovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
sharofiddinovnashohsanam@agmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola Sho‘rchi tumani Xushchekka qishlog‘ida uchraydigan ba’zi so‘z va iboralarni tushuntirishga qaratilgan. Bu shevada uchraydigan dialektal so‘zlar izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Qipchoq shevasi, evfemizm, kuchli fonetik o‘zgarish, singarmonizm.*

Abstract. *This article focuses on the explanation of some words and phrases found in the village of Khushchekka, Sho‘rchi district. Dialectal words found in this dialect are explained.*

Keywords: *Kipchak dialect, euphemism, strong phonetic change, synharmonism.*

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan shevalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu til tarkibidagi qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalalariga birikuvchi shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlari bilan birga leksikasida ham o‘ziga xosliklar rang-barang. Biz maqolada qipchoq lahjasi tarkibiga kiruvchi Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumani Xushchekka qishlog‘i shevasida

qo‘llanadigan, ammo adabiy tilda va boshqa shevalarda uchramaydigan ayrim dialektal so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Shevaning leksik tarkibida hayvon nomlari, ularga xos sifatlar, oziq-ovqat mahsulotlari, narsa-buyum nomlari va insonga xos sifat va xususiyatlarga oid so‘zlar talaygina. Dastlab, insonlarga xos sifatlar va belgilarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular, asosan, salbiy bo‘yoqdorlikka ega. Masalan***, güppi, sâvsäkät, näjnâv, tülpä, pârïq***.

näjnâv so‘zi shevada bo‘yi uzun, ammo fahm-u farosati kamroq, ko‘p gapiruvchi yoki qo‘lidan hech bir ish kelmaydigan bo‘shang odamlarga nisbatan ishlatiladi. Bu so‘zning o‘zbek tilining izohli lug’atida ham ikki ma’nosi qayd etilgan. 1. *bo‘yi baland, novcha* bo‘lsa; 2. *sodda bo‘shashgan* odamlarni bildiradi [O‘zbek tilining izohli lug’ati, 2008:13]. Xushchekka qishlog’i shevasida shu so‘zdan hosil qilingan ***näjn-näjn*** taqlid so‘zi mavjud. Bu so‘zni asosan, nihoyatda ko‘p gapiruvchi, mijg‘ov odamlarga nisbatan ishlatishadi. Masalan, *ïnï* ***näjnâv näjn-näjnläb*** *bašïmdï âvrïtïbžârdï.*

sâvsäkät – ishga yaroqli, lekin hech bir ish qilmaydigan odam. *Ïnï* ***sâvsäkätgä*** *ajtqâna süv-püv äpkelämäkän.* ***pârïq –*** o‘ziga e’tibor bermaydigan, sodda odam. *Atäŋï kördim Ahmadi* ***pâriq,*** *enäŋi kördim tâvânï žârïq.* ***güppi –*** o‘zini eplolmaydigan gavdali odam. ***Güppi*** *bo‘lmaj, ujâq-büjäyiŋä qarab žur.* ***pökki-*** gavdali, semiz lekin kuchsiz odam. ***Pökki*** *bo‘p qâpsän.* ***lâdan-*** biror ishni qilishga harakat qilgan, lekin eplolmagan bola. ***Lâdannïŋ*** *janï âzabdä.* ***Pâxïr-*** kambag’al odam. ***pâxïr*** *žo‘lï pânada, žâtar žajï žonada.* Bu so‘z adabiy tildagi *faqir* so‘zining ***f < p, q < x*** tovushlari mosligi asosida kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan shakli.

Shevada ***bïjbaq*** so‘zi ham qo‘llanilib, bu so‘z ikki xil ma’noda ishlatiladi:

1) *vafot etgan odam* hamda 2) *hech bir ishni eplolmaydigan odam* ma’nosida qo‘llanadi. Bizningcha, ***bïjbaq*** leksemasi *bebaxt* so‘zning fonetik o‘zgarishga uchragan shakli bo‘lishi mumkin. Shuni ham qayd etish kerakki, aynan o‘lgan odam haqida fikr bildirilganda ***bečara*** so‘zini qo‘llash ham ko‘p uchraydi. Shu vaziyatda bu ikki so‘z sinonimlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Ushbu shevada qo‘llanuvchi ***tülpä*** so‘zi adabiy tildagi *telba* leksemasining kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan shakli. Chunki ushbu so‘zning shevada qo‘llanish ma’nolari *telba* so‘zining izohli lug’atdagi ma’nolaridan biri *aqldan ozgan, devona, jinni* so‘zlariga teng. Biroq uning boshqa ko‘chma ma’nolarini ifodalamaydi [O‘zbek tilining izohli lug’ati, 2008:56]. Masalan, adabiy tilda ***telba to‘lqinlar*** birikmasidagi *telba* so‘zining o‘rniga ***tülpäni*** ishlatib bo‘lmaydi. Xushchekka shevasida ushbu so‘zning ma’nosi toraygan.

Ushbu shevada ***käjpäŋ*** so‘zi *befarosat****, oŋrov*** so‘zi *ahmoq,* ***or*** so‘zi *tajang,* ***žöpkäči*** esa *gap tashuvchi odam* ma’nolarini beradi. Shevadagi ***or*** so‘zi omonimlik xususiyatiga ham ega, u bir vaqtning o‘zida *tajang* odamni va *balandlikka tik holatda chiqqan yo‘l*ni anglatadi. Bu so‘zning o‘zbek tilining izohli lug’atida *jarlik, chuqurlik, tepalik, balandlik* hamda *o‘jar, johil* ma’nolarida ishlatilishi qayd etilgan. ***or*** so‘zidan hosil qilingan ***orlamoq*** fe’li ham omonimlik xususiyatini saqlagan. *1. tajang, jahli tez insonning o‘zi bilan o‘zi yoki atrofdagilar bilan chiqisholmay qolishi, 2. tik yo‘ldan tepaga ko‘tarilmoq.* Tepaga ko‘tarilmoq ma’nosini beruvchi so‘z izohli lug‘atda ***o‘r tortmoq*** birikmasi orqali ifodalangan [O‘zbek tilining izohli lug’ati, 2006:159]. ***žöpkäči*** so‘zi, asosan, ayollarga nisbatan qo‘llanib, *g‘iybatchi* ma’nosini beradi. Agar erakaklarda gap tashish holati kuzatilsa, unday erkaklar ham ***žöpkäči*** ataladi. Bu hudud shevasida bir qator joy nomlari ham shevaga xos maxsus so‘zlarga misol bo‘la oladi. Masalan, ***žâna, žâγalam, sâγanaq*** kabilar shular jumlasidandir. ***žâna*** - bir tomoni adirlik, bir tomoni jarlik bo‘lgan yolg‘izoyoq yo‘l. *Pâxïr žo‘lï pânada, žotar žajï žânada.* ***žâγalam*** - pastroq adirlik va ariq va kanallarning chekkasi ma’nosida qo‘llanadi. ***selgä-*** sel keladigan joy. ***Selgä****ning ïčïda ojnämänglär*. ***sâγanaq –*** selgalarning ichi va yoqasi. *Selda bo:mäsä,* ***sâγanaqda*** *tosh bo:mäjdi.* ***selâbä-*** selda oqib kelgan o‘tin.

Ushbu shevada *yozgi oyoqkiyimni* ***šatak****, ko‘p yosh bolalardan iborat jamoani* esa ***bäčkänlär*** deb atashadi. Masalan, ***Bäčkânlârâv bäčkänlär****, tez keŋlär*. Shuningdek, ***älämžä:m*** so‘zi ham qo‘llanib, adabiy tildagi miqdorni bildiruvchi *ko‘p, anchagina* so‘zlarining shevadagi variantidir. Masalan, *älämžä:m žol žurdi.* Fikrimizcha, bu so‘z *olamjahon* so‘zining kuchli fonetik o‘zgarishga uchrashi natijasida paydo bo‘lgan. Shevada qo‘llanuvchi ***žïldïr****moq* so‘zi omonimlik xususiyatiga ega. Uning birinchi ma’nosi *mol yoki qo‘ylarning o‘tlab turgan joyini salgina o‘zgartirib, siljitib*

qo‘ymoq, ikkinchi ma’nosi esa, *biror ulov bilan ma’lum bir kishini manziliga yaqinroq joyga eltib qo‘yish*dir. ***žïldïratïp ke:moq*** birikmasi esa uyda bog‘lovda boquvda turgan mol yoki qo‘rada boqilayotgan qo‘ylarni adir, o‘tloqqa o‘tlatib kelish ma’nosida qo‘llanadi. ***ulaqmoq*** so‘zi ham ko‘p qo‘llanib, odamlarga nisbatan ham, hayvonlarlarga nisbatan ham ishlatiladi. Bir topshiriqni oxirigacha eshitmay shoshilib ketgan odamga nisbatan ***ulaγïb ketdi*** birikmasini qo‘llashadi. Qo‘y sigirlarga nisbatan ishlatilganda esa to‘dadan ajralib, adashib ketish ma’nosini beradi.

Xushchekka qishlog‘i tog‘li hududlarga yaqin joylashgani sababli, aholisi yovvoyi hayvonlarga ko‘p duch kelishadi. Shu sababli shevada hayvon nomlarini atashda evfemizm hodisasi ham uchraydi. Xususan, bo‘ri va ayiqni ***žândar*** deb aytishadi. Ushbu holat xalq ongida qadimdan saqlanib qolgan bu hayvonlardan qo‘rqish bilan bog‘liq. ***Jondor*** so‘zining izohli lug‘atdagi ma’nosi *tirik, tirik mavjudot* deb berilgan [O‘zbek tilining izohli lug’ati, 2006:105]. Surxondaryolik yozuvchi Shukur Xolmirzayevning “Bodom qishda gulladi” asarida ham bu so‘z uchraydi: “O‘rmonda jondor ko‘p: silovsin bor, to‘ng‘iz bor.” Ushbu misoldan Surxondaryoning ayrim hududlarida barcha yovvoyi hayvonlarni *jondor* deb atashini bilishimiz mumkin. Ushbu hudud shevasida bo‘ri bilan bog‘liq yana bir evfemizm mavjud. Uni ***qâršïqul*** deb ham atashadi.

Ilk bahor kunlarida bolalar daraxtlar tagidan, tutzorlar va adirlardan ***guldirgich*** qidirishadi. Bu kichik hashoratni topib oyoqqa surtadigan bo‘lsa, tez yugurish mumkin deb ishonishadi. Chumoli ini kabi qumloq inchada yashovchi, nihoyatda tez harakatlanuvchi ushbu jonzot ***güldirgič*** deb ataladi. Bu jonzot Samarqand shevasida ***čülili,*** Jizzax shevasida ***čülačüla*** shaklida qo‘llanadi.

Xushchekka qishlog‘ida uchrovchi taom nomlari boshqa shevalarda ham uchrasa-da, tayyorlanish uslubi turlichaligi bilan farq qiladi. Masalan, ***koläbi toppä, qurtâva, qâγanaq, gilagaj, uvuz, umâč šullä, žizziq(x), qâvurmâč, čajžâv*** va h.k.

qâγanaq deb endi tuqqan sigirning birinchi sog‘ilgan sutiga aytiladi. Bu so‘z Saidmuso Rahimovning “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari” kitobida ***qâqanaγ*** shaklida beriladi [S.Rahimov, 1993:22].

Xulosa qilib aytganda, Xushchekka qishlog‘i shevasi o‘ziga xos dialektal so‘zlarga boy. Bu so‘zlarning ayrimlari adabiy tildagi so‘zlarning kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan shakli bo‘lsa, ayrimlari adabiy tilda uchramasligi bilan xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. – Денов: 1993. –Б. 22.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008.
3. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektalogiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021.
5. Кошғарий М. Девону луғот-ит турк. – Тошкент, 1963. I том
6. Решетов В.В, Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978;
7. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари ва уларнинг ҳақида умумий маълумот. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1962.

O’ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA HAYVONLAR HAQIDAGI ERTAKLARNING ETIMOLOGIK ASOSLARI

ETYMOLOGICAL FOUNDATIONS OF TALES ABOUT ANIMALS IN UZBEK FOLKLORE

Adahamova Ruxshona Zokirjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
arz09112004@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hayvonlar haqidagi ertaklarning uslub va me’zonlari, o’zbek xalq ertaklarida hayvon obrazlari tahlili ,insonlar bilan hayvonlar o’rtasidagi munosabatni aks ettirgan ertaklarga misollar keltiriladi*
Kalit so’zlar: *folklorshunoslik, hayvon-personajlar,maqsad va yondashuv, antagonist,afsona.*

Abstract. *The style and criteria of tales about animals, analysis of animal images in Uzbek folk tales, examples of tales reflecting the relationship between humans and animals are given in this articles.*
Key words: *folklore, animal characters, purpose and approach, antagonist, legend.*

O’zbek folklorshunosligida ertaklarning eng qadimgi namunalari hayvonlar haqidagi ertaklarni tashkil etadi. Aynan shu jihati bilan hayvonlar haqidagi ertaklar bevosita o’zbek folklorshunosligining tarixiga daxldor. Ular evolutsiyasi, mazmuni, shakli-shamoyiliga ko’ra boshqa tip ertaklardan farq qiladi. Bu xildagi ertaklarni sehrli yoki maishiy ertaklar qatoriga qo’shib bo’lmaydi,chunki ularda tilsim asosida qurilgan hodisalar yo’q. Ularning ayrimlarida esa yetakchi, yordamchi va antagonist hayvon-personaj o’rnida shum odam ishtirok etadi. Binobarin, ular syujet semantikasi va tarkibi sehrli, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarning oralig’ida shakllangan. Hayvonlar haqidagi ertaklarning oraliq tipi yetakchi qahramon-shum odam bilan,yordamchi hamda antagonist hayvon personajlarga asoslanadi. [Afzalov M. 1964:21]

Raqobat zamiriga qurilgan voqea va hodisalar bir oz g’ayritabiiy, ammo asosan hayotiy manbaga ega bo’lib, ularning ildizi ibtidoiy tushunchalar, ovchilik va chorvachilik an’analari, nihoyat, qadimgi asotirlar qa’riga kirib boradi.Bu xil ertak qator o’ziga xos belgilar bilan farqlanib turadi. Bu belgilar,birinchidan,ertaklarda hayvon-personajlarning shartli qo’llanishida ko’zga tashlansa, ikkinchidan, ertak motivlarining real hayvonlar xarakteri bilan bog’liq holda yuzaga kelganlarida, uchinchidan esa, epik motivlarda patriarxal-qabilachilik tuzumiga xos xususiyatlar hamda urug’laro ziddiyatning aks etishida namoyon bo’ladi.

Hayvon-personajlar shartli qo’llanadi. Bu ularning odamsifat munosabati va nutqida a’yon bo’ladi. Hayvon personajlarni odamsifat ta’riflash, u yoki bu belgini axloq normalari bilan bog’lash ibtidoiy kishilarning o’simlik, hayvon va odamlarni bir narsa deb o’ylashdan boshlangan. Ana shunday tushunchalar zoomorf hamda antropomorf shakllarda berilishini ta’minlangan. Buning sababi qadimgi urug’, qabila a’zolarining odam o’limidan so’ng o’z totem hayvoniga aylanadi, deb ishonishidan kelib chiqqan. Ana shu ishonch va e’tiqodlar hayvon va parrandalarni odamlarning jonidan paydo bo’lgan, degan tasavvur paydo bo’lgan. Shuning uchun ham ayrim hayvon, parranda-darrandalar odam bilan bir qatorga qo’yilgan va ularni odamlar deb belgilaganlar. Mifologik afsonalarga asosida mana shunday turli xil shartli formalar vujudga keladi. [ImomovK.1981:22].Masalan, Boyqiz aslida xonning qizi bo’lgan. U kambag’al cho’ponni sevib qoladi, shunda otasi uni qo’ng’izga aylangin deb qarg’aydi. Va u qo’ng’izga aylanadi. Shunday qilib ibtidoiy hayotdagi u yoki bu hayvonlardagi olg’irlik, ayyorlik, zo’ravonlik, shavqatsizlikga o’xshash har bir harakat, insonga xos ahloqiy bilan bog’langan.

Eng qadimgi davrda yuzaga kelgan xalq ijodi asarlari, jumladan ertaklarda ham o'sha davrlardagi ovchilik, baliqchilik va boshqa kasblar bilan shug'ullanuvchi insonlarning qarashlari, ishonchlari, e'tiqodlari ifodalangan. Ular hayvonlarni insonlar kabi gapiradigan, fikrlaydigan qobiliyatga ega deb tushunganlar. Yuzaga kelgan ertak va afsonalar nasldan-naslga, asrdan-asrga o'tib bir qismi bizgacha yetib kelgan. O'zbek xalq ertaklari orasida hayvonlar haqida yaratilgan ertaklar anchagina o'rnini tashkil etadi, bularda ham hayvonlar, qushlar,o'simliklar inson kabi gaplashadi ,tortishadi, do'stlashadi , do'stini dushmandan, yaxshini yomondan ajratadi.Masalan, "Susambil" ertagida uy hayvonlari ,parrandalar birlashib, yaxshi, faravon, tinch joy axtarib Susambil mamlakatiga yetib boradilar.Hayvonlar tilidan mehnatkash halqining turmushi ifodalanadi.

Susambilga ketishda eshak arilarga shunday deydi:"Ey ukalar, sizlar ham bizga o'xshab och qolib ,qiynalganga o'xshaysizlar.Bizning tanamizda shira qolgani yo'q .Soraganlaring bilan hech narsa chiqmaydi.Shiramizni xo'jaynilarimiz so'rib olgan. Agar ovqat kerak bo'lsa ,biz bilan yuraveringlar! Susambilga ega bo'lish uchun vaxshiy hayvonlar (sher,yo'lbars,bo'ri va boshqalar) hujum qilganda, insonga yaqin bo'lib u bilan bog'langan uy javonlari – eshak xangraydi ,ho'kiz suzadi,ari chaqadi,xo'roz qichqiradi.Xullas hamma bir jon,bir tan bo'lib, vaxshiy jonivorlarni yengadilar va "o'tning quyug'i suvning tinig'i, unda juda erkaliklar, azob-uqubat yo'q'' Susambilga ega bo'ladilar.

Bu ertakda o'tmishda mehnatkash xalq ommasining yaxshi, tinch, farovon, adolatli hayot kechirish orzusi ifodalagan. Biz hayvonlarning haqidagi ertaklarning qaysi birini olmaylik barchasida ma'lum maqsad va ma'lum yondashuv mavjud.

Bizning xalqimiz tarixan jamiyatdagi ma'lum illatlarni ochib berishda aynan hayvon obrazlariga tayanganlar. bu borada esa ertaklar ahamiyatli. . Masalan, "Duradgor bilan najjor" ertagini olaylik. Bunda duradgorning taxtani ishlab, arralab turganini ko'rgan maymun ham inson qilayotgan ishni bajarmoqchi bo'ladi-yu, biroq uning dumi taxta orasiga qisilib qolib, azob beradi. "Dod!" deydi maymun. Bundan chiqadigan ditaktik, axloqiy xulosa "Har kim o'zi bilgan ishni qilishi kerak. Bilmagan ishning uddasidan chiqa olmay, maymunga o'xshab sharmanda bo'lib qolmasligi kerak" demakdir.

Insonlar bilan hayvonlar o'rtasidagi munosabatni aks ettirgan ertaklardan biri "Egri va To'g'ri" ertagidir. Bu ertakda To'g'rivoy to'g'ri, sodda, ziyrak bo'lgani, birovga xiyonat qilmagani uchun maqsadiga yetadi. Egrivoy esa do'stiga xiyonat qilib, noto'g'ri yo'l bilan borgani uchun jazosini tortadi. Bu ertakdan maqsad kishilarni to'g'ri, sofdil, do'stga mehribon, xiyonat qilmaslik kabi ijobiy axloq normalari asosida tarbiyalashdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek xalq folklorshunosligida hayvonlar haqidagi ertaklar yaxlit funksional tizimni yuzaga keltiradi. Voqea-hodisalar, xususan, personajlar talqinida ramziylik bilan birga majoziylik o'zaro uyg'unlashib keladi. O'zbek xalqining milliy va ma'naviy qadriyatlarini yuksaltirishda biz bunday tahlilga tayanishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov "O'zbek folklori" darslik Toshkent-2020.
2. Kemal H.Karpat,Studies on Turkish Politics and Society:Selected Articles and Essays,(Brill,2004),441.
3. Afzalov M.O'zbek xalq ertaklari haqida.-T.:Fan,1964.-B.21.
4. Hayvonlar H haqidagi ertak.Xalq og'zaki ijodi. 1297.
5. Imomov K.O'zbek xalq prozasi,- T.:Fan,1981.-B.22.

MUROD MUHAMMAD DO‘ST, ASARLARIDA SHEVAGA XOS SO‘ZLARNING QO‘LLANISHI HAMDA O‘ZBEK ADABIY TILIGA MUNOSABATI
(“Galatepaga qaytish” va “Dashtu dalalarda” asarlari misolida)

THE USE OF SPEAKING WORDS IN THE WORKS OF MURAD MUHAMMAD DO‘ST AND ITS RELATIONSHIP TO THE LITERARY LANGUAGE OF UZBEK
(In the example of the works “Galatepaga qaytish” and “Dashtu dalalarda”)

Isoqova Guljahon Jahongirovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada M. M. Do‘stning “Galatepaga qaytish”, “Dashtu dalalarda” asarlaridagi shevaga xos so‘zlarning qo‘llanilishi va ularning tahlili, hamda o‘zbek adabiy tiliga munosabati haqida fikr -mulohazalar bayon etilgan.*
Kalit so‘zlar: *qipchoq lahjasi, leksika, adbiy til, qiyosiy tahlil, dialekti.*

Abstract. *This article describes the use of dialectal words and their analysis in the works “Galatepaga qaytish”, “Dashtu dalalarda” by M. M. Do‘st, as well as opinions and comments about the relationship to the Uzbek literary language.*
Key words: *Kipchak dialect, lexicon, literary language, comparative analysis, dialectism.*

Bilamizki, har bir adabiy til avvalo, o‘z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Shuningdek, o‘zbek adabiy tili ham uzoq tarixiy-taraqqiyoti davomida dastavval o‘z ichki imkoniyatlari asosida, jumladan, dialekt va shevalar orqali boyib boradi, rivojanadi. Xalq shevalariga xos so‘zlarning adabiy tilga kirishi, adabiy tilning boyligiga aylanishida yozuvchi va shoirlarning va, umuman, badiiy adabiyotning o‘rni kattadir. Zero, ma’lum bir hudud shevasiga xos so‘z va birikmalarning adabiy tilga o‘zlashtirilishi asosan badiiy asarlar orqali yuz berishi hech kimga sir emas. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarning aks etishi dialektizmlar deyiladi. Bunda shevadagi qaysi qatlamning aks etishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar, leksik dialektizmlar kabi turlarga bo‘linadi. Leksik dialektizmlar shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanilishidir. Fonetik dialektizmlar badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Ma’lumki, fonetik dialektizmlarda emotsional bo‘yoq kuchli bo‘lmaydi. Bundan tashqari, shevaga xos bo‘lgan tovushlar sistemasini faqatgina transkripsiya orqali berish mumkin. Morfologik dialektizmlar badiiy asarlarda shevaga xos morfologik elementlarning qo‘llanilishidir. Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko‘rinishidir. Shu jarayonda badiiy so‘z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o‘tadigan shevaga murojaat qilishlari e’tirof etib kelinadi. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. Badiiy asar tilining ifodaliligi, qahramonlar nutqining individuallashgani ko‘p jihatdan o‘rinli va me’yorida qo‘llanilgan sheva unsurlariga bog‘liq. Badiiy adabiyotda dialektizmlardan ikki o‘rinda foydalaniladi:

1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko‘rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida;

2) qahramonnig xarakterini, o‘ziga xosligini ko‘rsatish uchun [Fayzullayev, 1975: 3].

Murod Muhammad Do‘st, ham o‘zining asarlari bilan adabiyotimizning kitobiylashgan tilini yangilab, unga jonli xalq tili ranglari va ohanglarini olib kirdi, sheva doirasida qolib ketayotgan so‘z va iboralarning adabiy tildan o‘rin olishga to‘la huquqli ekanini isbotlab berdi. Yozuvchi o‘z ijodida folklor uslubidan keng foydalanadi. Murod Muhammad Do‘st, ning “Galatepaga qaytish” qissasi (1983) istiqlol arafasi o‘zbek nasrida muhim voqea bo‘ldi. Yozuvchi bu va boshqa qissalarida olis qishloqlarda yashayotgan oddiy kishilarning kundalik mehnat og‘ushida

kechayotgan hayotini diqqat-e'tibor bilan kuzatadi, ularning o'ziga xos tabiati va insoniy saviyasini yorqin gavdalantiradi. Mendan bitta asar bilan yozuvchi adabiyotda qolishi mumkinmi deb so'rashsa: "Ha! Bu Murod Muhammad Do'st, va uning "Dashtu dalalar" hikoyasi" – deb javob qaytarardim. Hikoya xalq og'zaki ijodi va XX asrdagi nasrning eng so'nggi yutuqlarini yelkasida ko'tarib turibdi. Umuman, dasht odamlari qiyofasi, xarakteri, tili va ichki kechinmalarini, istehzoyu qochirimlarini XX asrda hech bir yozuvchi M. M. Do'stchalik badiiy yorqin, xarakterli, izchil aks ettirolgani yo'q [https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nazar-eshonqul-otdan-tushmagan-yozuvchi.htmll] .

Bu asarlarni xususan, "Galatepaga qaytish" va "Dashtu dalalarda"larni o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldikki, bu asardagi ayrim dialektizmlar, iboralar ma'nosi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilmagani ham bu asarlar bizga adabiy tilimizning leksik boyligini o'rganishda zarur dialektologik manba bo'la oladi. Endi yuqorida aytilgan asarlardagi leksik dialektizmlar haqida to'xtalsak.

"Galatepaga qaytish" va "Dashtu dalalarda" asarlarida qo'llangan leksik dialektizmlar:

Tumsaymoq- tumtaymoq-biror narsadan xafa bo'lib, ranjib yoki jahli chiqib qovoq solib o'tirmoq [O'TIL 2008: 189]. *M: Opa tag'in tumtayib oldi* [Murod Muhammad Do'st 1983: 48].

Gardankash-fors. Qo'zg'olonchi, o'jar gapga ko'nmaydigan [O'TIL 2006: 488]. *M: Ochil Kuch gardankash odam edi*. [Murod Muhammad Do'st 1983: 9].

Ilkis-birdan, shartta. (O'TIL II: 194). M: *G'aybarovning jahli qo'zg'adi, mullaga ilkis qaradi* [Murod Muhammad Do'st 1983: 28].

Baqamti- ba+ qamti(turk. so'z) yaqin holda [Murod Muhammad Do'st 2006: 186]. M: *Lekin mulla Chorini baqamti ham keltirmagan* [Murod Muhammad Do'st 1983: 26].

Yovuqlashmoq-yaqin kelmoq, yaqinlashmoq. [O'TIL 2006: 24]. M: *Keyin egardan tushib, nazardan qolgan mahalgina oralari sal yovuqlashqanday bo'ldi* [Murod Muhammad Do'st 1983: 26].

Xobdori -"xob"- uyqu, uyqudori [O'TIL 2008: 403]. *M: Bitta xobdorini akasiga uzatdi* [Murod Muhammad Do'st 1983: 31].

Jelag-Xotin-qizlar boshga tashlab yuradigan ro'mol [O'TIL 2006: 80]. M: *Boshiga jelagini olib yugurdi* [Murod Muhammad Do'st 1983: 20].

Uvat -Dala yoki ekin maydoni ichida, chetlarida qoldirilgan bo'sh yer, tor yo'l [O'TIL 2008: 262]. M: *U yo'ng'ichqapoya chetidagi pastak uvatga o'tirdi*. [Murod Muhammad Do'st 1983: 49].

Palaxsa-palaxsa- 1. Yer chopganda yo haydaganda uvalanmay, butun holda ko'chgan katta yapaloq kesak. 2. Har qanday qattiq narsaning undan ajralgan yaxlit yapaloq parchasi [O'TIL 2006: 208]. M: *Avliyoning go'ri ko'p qon ichgan edi: ustidagi toshlarning hammasi qo'ng'ir tusda, qotgan qon palaxsa-palaxsa bo'lib yorilgan* [Murod Muhammad Do'st 1983: 56].

Bo'tana- Loyqa, qum, tuproq kabilar aralshgan suv [O'TIL 2006: 421]. M*: Bo'tana bo'lib, pishqirib oqqan suv* [Murod Muhammad Do'st 1983: 54].

So'ljaymoq -1.Es hushini yo'qotib angrayib qolmoq, serraynoq. 2. Qovog'ini lab-lunjini osiltirmoq. 3. Bujmaymoq, burishib tirishmoq [O'TIL 2006: 613]. M: *Mulla battar so'ljaydi* [Murod Muhammad Do'st 1983: 40].

Sipqarmoq-bir simirishda ichmoq, tagi- tugigacha simirmoq. [O'TIL 2006: 519]. M: *Choynak tubidan sirqitib uzatgan bir piyola taxir choyni sipqordi* [Murod Muhammad Do'st 1983: 6].

Beboshvoq 1. Bo'shatib, yechib yuborilgan, boshvoqsiz. 2. Ko'chma ayni ma'nosi bebosh. [O'TIL 2006: 202]. M: *U shusiz ham yolg'iz qizini uzoq elga beboshvoq qo'yib yubormagan bo'lardi* [Murod Muhammad Do'st 1983: 40].

Andarmon- fors. Band, mashg'ul, biron ishga va shu kabiga berilmoq qiziqib ketmoq. (O'TIL 2006: 84). M: *Eratlab qo'liga gavron olib cho'lga chiqib ketgani bilan to shomgacha podaga andarmon bo'lib yuradi* [Murod Muhammad Do'st 2013].

Obijo'sh - Objo'sh -Qaynagan qaynoq suv. (O'TIL III: 72). M: *Ichgali bir qultum obijo'sh ham bermadi*[Murod Muhammad Do'st 1983: 41].

Dastsho‘ -qo‘l yuvadigan idish [O‘TIL 2006: 575]. M : *Dahlizga chiqib, dastsho‘ bn oftoba keltirdi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 48].

Tarrak- Palak otib o‘sadigan poliz ekini va uning bodringdan ko‘ra yirikroq kuvrak hosili [O‘TIL 2006: 576]. M: *...suvi bo‘lmasa ham xurjunidan birorta tarrak qovuncha chiqardi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 61].

Mayishmoq -bukilmoq, egilmoq (asosan, qomat yoki oyoq-qo‘l haqida) [O‘TIL 2006: 528]. M: *Charchoq bilan og‘riqdan mayishib zo‘rg‘a yuradi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 57].

Taysalladi- bir necha ma’nolari mavjud, biz keltiradigan gapdagi ma’nosi : hadiksiramoq, shu holda o‘zini orqaga olmoq. [O‘TIL 2006: 642]. M*: Hech mo‘ljalim yo‘q, deya- Nazar Maxsum taysalladi.* [Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Tusmollamoq- tusmol, taxmimga asoslanmoq, tusmol taxmin asosida ish ko‘rmoq. [O‘TIL 2006: 205]. M: *Rahmatli biror nima qoldirgan chiqar, - deb tusmolladi mulla Doniyorning kenjasi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 67].

G‘ujanak - oyoq qo‘llari yig‘ilgan tanasi egik boshi bukik holat. [O‘TIL V, 2008: 458]. M: *Qoratoy egasining qarashiga chiday olmadi, poxol ustida g‘ujanak bo‘lib, yana ko‘zlarini yumdi* [Murod Muhammad Do‘st 2013].

Tang‘iydi - mahkam siqib, o‘rab aylantirib bog‘lamoq [O‘TIL 2006: 670]. M: *Kimdir albatta boshida bo‘ladi, o‘layotganini ko‘radi, qovoqlarini yopadi, iyagini tang‘iydi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 30].

Qaznoq -Ombor vazifasini bajaruvchi xona, hujra. [O‘TIL V,2006: 210]. M: *Qaznoqni ochadilar, xaltadan un va yog‘ olib chalpak pishiradilar*. [Murod Muhammad Do‘st 1983: 36].

Yolg‘izoyoq yo‘l -faqat piyodalar yurishi mumkin bo‘lgan tor yo‘l, so‘qmoq. [O‘TIL 2006: 33]. M: *Yolg‘izoyoq yo‘lning chetlarida - pastu baland lekin usti birday yasi tepachalar…*[Murod Muhammad Do‘st 1983: 14].

Merov - xushyor, ziyrak bo‘lmagan odam, angraygan, anqov. [O‘TIL 2006: 58]. M: *Biz ularga merov bo‘lib ko‘rinamiz* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 47].

Epkin-1. Shamol, suv va shu kabilarning oqimi shu oqimdagi ta’siri, urinishi. 2. Umuman, narsaning yo‘nalishi, yo‘nalishdagi urinish kuchi. [O‘TIL 2006: 14]. M: *Bir mahal havo dim tortganini sezdi. Dim, epkinsiz quyuq*. [Murod Muhammad Do‘st 2013].

Pastqam-kishi nazari tushmaydigan; odamlar kam bo‘ladigan; hilvat odamlardan holi joy; ovloq. [O‘TIL 2006: 236]. M: *O‘zini ko‘rganda pastqamga tashlab ketasizu, bu yerda gardankashlik qilasiz*. [Murod Muhammad Do‘st 1983: 65].

Xesh- o‘z, o‘zi, qarindosh, yaqin kishilar. [O‘TIL 2008: 394]. M: *Uni Sho‘rquduqdan qo‘shilib chiqqan kelinning xeshlari boshladi*. [Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Xezlanmoq- tez harakat bilan oldiga intilmoq, tashlanmoq [O‘TIL 2006: 393]. M: *Ikki piyola aroq ichguncha har ne janjalga xezlanib o‘tirdi*. [Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Cho‘kich -qattiq toshloq yerni va shu kabi. qazish, kovlash uchun ishlatiladigan uchi o‘tkir po‘lat asbobi ; metin [O‘TIL 2006: 521]. M: *Yeri naq metin- cho‘kich tegsa chaqin chiqadi* [Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Chaqin -o‘t, o‘t uchquni [O‘TIL 2006: 466]. M :*Cho‘kich tegsa chaqin chiqad*i [Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Kapa- vaqtincha yashash uchun darxt shoxlari va yirik o‘t-o‘lanlar bilan o‘rab quriladigan xona, yozlik uy, chayla [O‘TIL,. 2006, 315). M: *Ammo g‘aflatda qoldi, kapadek bo‘lib ag‘darilib tushdi* [Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Chalg‘i- Uzun dastali katta o‘roq [O‘TIL 2006: 452]. M: *Chalg‘ini tishini* ***peshladi*** (Murod Muhammad Do‘st, 2013). **Peshlamoq-** o‘tkirlamoq [O‘TIL 2006: 221].

Cho‘ltoq -Yulungan, kesilgan, to‘mtoq (O‘TIL 2006: 524). M: *... qo‘lida cho‘ltoq supurgi…*[Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Qavat-bu so‘zning bir necha ma’nolari mavjud, biz keltiradigan gapdagi ma’nosi : Yon, atrof [O‘TIL 2006: 200]. M: *Yolg‘iz emas qavatida yana ikki otliq* …[Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Ilviramoq- yiring suv olib ketmoq (O‘TIL 2006: 188). M: Bemor uzoq vaqt qadalib yotsa, terisi ilvirab salga shilinadigan bo‘p qoladi [Murod Muhammad Do‘st 1983: 33].

Barkash- jez yoki misdan tayyor. va patnis o‘rnida ishlatiladigan, doira yoki to‘rtburchak shakldagi ro‘zg‘or asbobi [O‘TIL 2006: 169]. M:*Tandir supasida yotgan eski mis barkashga o‘tirdi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 6].

Ijirg‘anmoq- nojo‘ya yoki yoqimsiz ish gap qiliq, voqea hodisa, va shu. k. dan g‘ashi kelib g‘injimoq [O‘TIL 2006: 175]. M: G‘aybarov ijirg‘andek Mannoning qo‘lidan yulqinib chiqdi [Murod Muhammad Do‘st 1983: 8].

Orqavoratdan-Birovning orqasidan o‘zi yo‘g‘ida, zimdan (gapirmoq) [O‘TIL 2006: 143]. M: *Oravoratdan cholim deb ataydi…*[Murod Muhammad Do‘st 1983: 17].

Burov- asl. m. burash aylantirish, ko‘ch. m. avj, siquv (O‘TIL 2006: 381). M: *Uyga qaytib, xotinini burovga oldi. (siquvga olish, qistovga olish m.)* [Murod Muhammad Do‘st, 2013].

Nuqsi urmoq- ta’siri o‘tmoq (O‘TIL 2006: 68). M:*Turish-turmushiga shahar nuqsi urgan* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 67].

Rangpar-fors. Rangi o‘chgan, yo‘qolgan (O‘TIL 2006: 349). M: O‘tlar endigina nish urgan, rangpar, **aftodahol…**[Murod Muhammad Do‘st 1983: 52].

Aftodahol- ayni m. yiqilgan darmonsiz. [O‘TIL 2006: 119].

Zang‘ar-fors. axloqsiz ayolga nisbatan ishlatilgan [O‘TIL 2006: 131]. Biz keltirgan gapda esa, vulgarizm bo‘lib kelgan. M: *Zang‘ar Jalil oyoqlarimga tirmashib yig‘ladi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 61].

Baloq-ayn. shev. pocha, shimning pastki qismi [O‘TIL 2006: 152]. M:...*yenglariyu ishtonining baloqlarigacha ro‘dapoday osilib yotibdi* [Murod Muhammad Do‘st, 1983].

Entikmoq-ayni ma’nosi xo‘rsinmoq, ko‘ch. m. juda ehtiyoj sezmoq, orziqmoq [O‘TIL 2006: 17]. M: *Boshqa odam bo‘lsa entikib o‘lardi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 60].

Qimtinmoq-qimtimoq-lablarini bir biri yokitishi orasiga olib qismoq, yig‘ishtirmoq [O‘TIL 2006: 295]. M: *Raim oqsoqolularning qarshisida sal qimtinib turadi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 27].

Pishang bermoq-biror hatti harakatga undamoq, ataylab gij-gijlamoq. [O‘TIL 2006: 320]. M: *Balki Raim oqsoqolning o‘zi pishang bergandir* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 77].

O‘ng‘aysiz- Hijolatga soladigan; hijolatli; noqulay. (O‘TIL,.5-tom, 2008, 156). M:*Zokirdan so‘rash ham o‘ng‘aysiz* (Murod Muhammad Do‘st 1983: 30). Yuqorida keltirilgan dialektizmlar O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilgan ya’ni izohlangan dialektizmlar edi.

Endi O‘zbek tilining izohli lug‘ati(5 tomlik)da izohlanmagan leksik dialektizmlar tahliliga to‘xtalamiz**:**

Bexroq- Yaxshiroq. M: *Lekin bari bir Mahanboy sendan behroq* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 6].

Olachag‘ir- ola bula kulrang. M: *Ko‘zlari olachag‘ir, kelbatidan odam cho‘chiydi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 12].

Ko‘yindi – go‘r, qabr. M:*Bir ko‘nglim, bolani ko‘yindidan olib, enasining yoniga qo‘yay dedim, lekin odamlarni o‘yladim, o‘zingiz bilasiz, mulla, udumi shu, bolani ena qavmiga qo‘shib bo‘lmaydi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 18]. **Mehmonko‘rsatar-** uyga kelganda mehmonni tanishtirish maqsadida mahalladan yoki qishloqdan yaqinlarni chaqirish. M: *Mehmonko‘rsatar qilib butun ovulni yig‘ib kelishadi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 40].

Nuqmoq-barmoq bilan ishora qilmoq. M: *Mulla barmog‘ini nuqib G‘aybarovni ko‘rsatdi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 28].

Toriqmoq-Ichi yuragi siqilmoq, ko‘nglini qorong‘u bosishi, ilojsizlikdan hech joyga sig‘maslik kayfiyati, zerikmoq, ziq bo‘lmoq. M: *Polvonning yuragi toriqdi*. [Murod Muhammad Do‘st 2013].

Iyartib ketmoq-Ergashtirib ketmoq. M: *Xadicha uzoqlabdi, Sho‘rquduqning yo‘lida qizini iyartib ketyabdi* [Murod Muhammad Do‘st 2013].

Taqron- taqir, o‘t -o‘lan o‘smaydigan, qattiq qatqaloq bilan qoplangan yer. M: *Taqron joyda toq o‘zi o‘tiribdi* [Murod Muhammad Do‘st 2013].

Toyxar- eshak bolasi, xo‘tik. M: *Boshidan tuproq sochganmi, aft -basharasining kulga yumalagan toyxardan farqi kam* [Murod Muhammad Do‘st, 2013]. **Yakqat** - birqat -bir qavat. M*: Kiyim-piyimi bilan yakqat ko‘rpachada yotibdi* [Murod Muhammad Do‘st 1983: 43].

To‘nbichar – nikoh to‘ylaridan oldin o‘tkaziladigan marosim. M: *To‘ydan oldinroq, to‘nbicharga odam chaqirishganda, u o‘gay opasini tizzasida bichiq, qo‘lida qaviq igna bilan ko‘rdi…* ([Murod Muhammad Do‘st 1983: 19].

Ko‘pyurishli – ko‘p narsani ko‘rgan, biladigan, ko‘zi ochiq ma’nosida (odamga nisbatan). M: *– Siz ko‘pyurishli odamsiz, qassob, – dedi Mahanboy, – Murod amakigayam bitta shunday narsadan topib bersangiz bo‘lardi. [*Murod Muhammad Do‘st 1983: 67]. Yuqorida tahlilga solgan – “Galatepaga qaytish” va “Dashtu dalalarda” asarlarimizda uchragan shevaga oid so‘zlarimiz ya’ni dialektizmlardan tashqari nozik ma’no qirralariga ega bo‘lgan xalq iboralari-yu, o‘ziga xos dialektal frazeologizmlar ham keng qo‘llanilgan. Bularga yaqqol misol qilib, “qutqusiga qul bo‘lmoq” (qutqu- yomon ishga, yo‘lga undovchi, oyoqlantiruvchi da’vat; teskari tashviqot [O‘TIL 2006: 324]), ”damida osh pishgan paytlari”, ”echkini tuya desam ham ishonishadi”, “o‘ksasi qurimoq”, “olam zamondan beri”, ”sirtiga suv yuqtirmay”, “ jo‘jabirday jonman”, “ sochi uzunlik qilmoq”, “toza tomiriga suv yetmoq”, “ ajinasi tutmoq”, “xusuri qonmoq”, “ tutgan iskanasi but “ va shu kabilarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Murod Muhammad Do‘st o‘z asarlarida dialektizmlardan unumli hamda o‘rinli, ulardan ya’ni dialektizmlardan asardagi obrazlarni oddiy xalq vakili ekanligini namoyon qilish uchun foydalangan. M. M. Do‘stning “Galatepaga qaytish” va “Dashtu dalalarda” asarlari, nafaqat bu asarlari, balki uning butun ijodi hamon adabiyotshunoslik uchun hamda tilimizning keng ifoda imkoniyatlarini o‘rganishda tadqiq va tahlil etish uchun muhim bir manba bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: 2013.
2. M. M. Do‘st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G‘aybarov rivoyati. –T. : G‘afur G‘ulom nashriyoti 1983.
3. M. M. Do‘st. Dashtu dalalarda. 2008.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-II-III-IV-Vтомлар. – Т. : “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти.2006-2008.
5. Nazar Eshonqul. Otdan tushmagan yozuvchi. Xurshid Davron kutubxonasi. https://kh-davron. uz/kutubxona/uzbek/nazar-eshonqul-otdan-tushmagan-yozuvchi. html
6. Adabiyot majmua. –T. :Cho‘lpon nomidagi nashriyoti. 2007.

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “O’ZBEKLAR” HIKOYASIDA SHEVAGA XOS SO’ZLARNING ISHLATILISHI VA ULARNING “DEVONI LUG‘OTIT TURK” ASARIDAGI SHAKLLARI

(THE USE OF DIALECTAL WORDS IN SHUKUR KHOLMIRZAYEV'S STORY "UZBEKS" AND THEIR FORMS IN "DEVONU LUG'OTIT TURK")

Boxodirova Irodaxon Sobitxon qizi
Alisher navoiy nomidagi Toshkent davlat
O’zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
irodaboxodirova26@gmail.com

Annotatsiya. *O’zbek shevalarining tarixi va taraqqiyotini o’rganishda sheva,dialekt,lahja kabi terminlar ishlatiladi.Sheva ayni bir hududga tegishli bo’lgan leksemalar bo’lsa,dialekt ularning yig’indisidir,lahja esa o’zbek tilining taraqqiyotiga asos bo’lgan sheva va dialektlarning yig’indisidir. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “O’zbeklar” hikoyasidagi shevaga xos so’zlar va ularning “Devoni lug’otit turk” asaridagi shakllari tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar*: Sheva, dialektal leksemalar, frezeologizmlar, shevaga xos so’zlar, adabiy tilda mavjud so’zlar, dialektal lug’at.*

Abstract. *When studying the history and development of Uzbek dialects, terms such as dialect, dialect, and dialect are used. If the dialect is lexemes belonging to the same region, the dialect is their sum, and the dialect is the basis of the development of the Uzbek language. is a collection of dialects and dialects. In this article, dialectal words in Shukur Kholmirzayev's story "Uzbeks" and their forms in "Devoni lug'otit turk" were analyzed.*

Key words: *Dialect, dialectal lexemes, phraseologisms, dialectal words, literary words, dialect dictionary.*

O’zbek adabiyotining nasrda ijod qiluvchi yozuvchilaridan biri Shukur Xolmirzayevning hikoyalarini o’qimagan kishi bo’lmasa kerak. O’zbek adabiyotida Abdulla Qahhordan so’ng o’ziga xos hikoyanavislikka asos solgan yozuvchi. [E.Ismoilova,2023,1]. Uning hikoyalari sodda, ravon, tushunarli, hayotiy va shevada yozilganligi bilan ajralib turadi. Masalan, adibning “O’zbeklar” hikoyasi. Ushbu asarda haqiqiy o’zbekning qanday bo’lishi , mehmondo’st, barchaga birdek mehribon bo’lish, har qanday vaziyatda ham o’zini tuta olish kabi ezgu fazilatlar Surxon vohasiga oid so’zlar orqali yanada ta’sirchan tasvirlab berilgan.

Hikoyada bir necha guruhga oid leksemalar uchraydi. Masalan, adib asar qahramonlaridan biri Botir cho’ponning ayolini ertalab turib sigir sog’ishini, uy yumushlarini bajarishini keyin yana har kuni qiladigan ishi “o’rmak” to’qishini aytadi. Shu o’rinda to’quvchilikka oid leksemalar uchraydi. Bular, ”o’rmak”, ”kalava”, ”qatim” kabi so’zlardir. O’rmak- bu sholchadir. Namangan viloyatida uni “shalcha” tarzida ishlatiladi. Kalava so’zi esa ip ma’nosida. ”Devoni lug’otit turk” asarida ushbu so’z “лgrik” shaklida berilgan. Bu yigirilgan ip degani, ya’ni kalava. G’altak kabi ko’rinishi ham mavjud. Bu Qashqadaryo, Namangan viloyatlarida keng qo’llaniladi. Qatim so’zi tikish asbobi ignadir.Bu so’z ham “Devoni lug’otit turk” asarida “igna,yigna,niyna” kabi ko’rinishlarda berilgan. Ustachilikka oid leksemalardan “loysuvoq”, ”guvala”, ”g’ishtin”, ”poxol” kabi so’zlar ishlatilgan. Loysuvoq so’zinng “loyshuvoq” kabi ko’rinishi bor. Guvala-bu uyda loydan yasalgan g’isht, g’ishtin esa g’ishtdan yasalgan narsani bildiradi. Poxol so’zi somon ma’nosida qo’llangan. Bu so’z “Devoni lug’otit turk” asarida “saman” shaklida ifodalangan.Asarda bir nechta o’simlik nomlari ham uchraydi. Bular,”ituzum”,”qiyoq”,”gulbo’ta”,”tarrak”,”yovvoyi supurgi”, ”ajriq” kabilardir. Qiyoq, gulbo’ta kabilar ko’p yillik o’t nomlari. Ba’zi o’simlik nomlari “Devoni lug’otit turk”da ham uchraydi. Bularga, ituzum-oq gulli,mayda qora yoki qizil mevali bir yillik yovvoyi o’simlik. Asarda “љuğlu” shaklida uchraydi. Ajriq-u yumshoq bir o’t. Turklar uni اذرِيق deydilar. O’g’uzlar ذ harfini ى ga moslashtiradilar.Tarrak- bu poliz ekinlaridan qovunning bir turi. Hikoyada sinonim so’zlarni ham uchratish mumkin. Birgina nam, sovuq joy ma’nosini ifodalash uchun “namxush”, ”namchil”, ”zax” kabi so’zlardan foydalanilgan. Zax so’zini Namangan viloyati hududida “zak” shaklida ishlatiladi. ”Zak” so’zi esa Qashqadaryo viloyati hududida temirning turib-turib sarg’ayib qolganiga aytiladi, ya’ni “temir zaklab ketibdi” kabi. Bu esa Namanganda “zang” so’zi orqali ifodalanadi. Surxondaryo viloyatining shevasiga xos xususiyatlardan biri o’tgan zamon fe’lini -gan, -kan, -di kabi qo’shimchalar bilan emas, balki “toza bo’lgich edi”, ”momo bo’lgichi edi” kabi ifodalanishidadir. Bundan tashqari asarda maqol va frezeologizmlar ham uchraydi. ”Olovim chiqib ketdi”, ”tutab ketasan kishi” singari iboralar bor. Bu iboralar qattiq jahli chiqqanini ifodalash uchun ishlatiladi. Ularning “nervim chiqib ketdi”, ”asabim buzilib ketdi” kabi shallari ham mavjud.”Uyat o’limdan qattiq”,asar qahramoni kasal bo’lib,shamollaganiga qaramasdan paxta termay uyda o’tirishdan uyaladi.Aynan,shu vaziyatni ifodalash uchun ushbu maqoldan foydalanilgan.Shamollash,tumov so’zini “Devoni lug’otit turk”da “ucĝuq” shaklida berilgan.”Sochbog’” so’zi soch o’rilganda unga taqiladigan narsani bildiradi.O’rilgan sochning “Devoni lug’otit turk”da bir necha ko’rinishdagi variantlari bor.Bular, “цrgüč”,” цrčük”,”цrмд säč”. Цrčük-o’rilgan soch (o’g’uzcha),bu so’z “цrküč” so’zining o’zgartirilganidir.Asardagi qahramonlardan biri Maymoq ota-bu oqsoq degani. Oqsoq so’zi lug’atda “axsaq” shaklida

berilgan. Yakkamoxov - bu bir o’zi qolishni yaxshi ko’radigan, do’sti yo’q, gapirishni xush ko’rmaydigan odamga nisbatan aytiladi. Bu so’z moxov kasalligi sifatida lug’atda “ anumп” shaklida berilgan. Bu kasallik bo’lib,yo’q qilish,chetlatish degan ma’noni ham bildiradi. Yakkamoxov so’zi moxov so’zining ma’nosiga yaqin va bog’liqdir. Hikoyada “jo’ngina” so’zi ham qo’llanilgan bo’lib, ushbu so’z “oddiy” degan ma’noni bildiradi va “Devoni lug’otit turk”da “arsu” tarzida berilgan. Bu so’z o’g’uzcha va har bir jo’n narsa uchun ishlatiladi. Hikoyada uchraydigan shevaga xos leksemalarni boshqa hududlarda ishlatilmaydigan yoki ayni shaklda,ma’noda emas shunga o’xshash shaklda ishlatiluvchi va adabiy tilda ham mavjud bo’lgan dialektal leksemalarni uchratish mumkin. Ayni shu hududga, ya’ni Surxondaryo viloyati Boysun tumaniga xos leksemalarga:

- gardi-chekka, chakka;
- otar-yaylovda qo’shib boqish va saqlash uchun shakllantirilgan qo’y podasi;
- rangi o’ngib ketgan-rangi bir biriga singishib ketgan;
- suqatoy-ochko’z bola;
- yazna-pochcha, opaning eri;
- oshalol-pochachilarga taom bersih odati;
- soyapar-dangasa kabi so’zlarni uchratish mumkin.

“Tors-tors yorilgan ko’sak” ushbu jumlada ham shevalarning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rish mumkin. Tors-tors Surxondaryoda ko’sakning yorilganiga nisbatan ishlatilsa, bu so’z Namangan viloyatida tars-tars shaklida tarvuzning yetilib pishganiga nisbatan aytiladi. Bu shevadagi so’zlarning turli hududlarda turlicha shaklda yoki turlicha ma’noda ishlatilishidir. Adabiy tilda ham mavjud bo’lgan so’zlarga peshayvon, sahar, g’ujg’on-to’planib o’sgan, mahtal bo’lmoq kabi so’zlarni kiritish mumkin. Qirqoyoq-oyoqlari ko’p bo’lgan, kichik hasharotga o’xshash, sariq rangdagi narsa bo’lib, uning Namangan viloyatida “mingoyoq” shaklida ishlatilishi ham bor.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida shevaga xos so’lar bilan birgalikda bir qancha adabiy tilda mavjud bo’lgan leksemalar bor. Shevaga xos so’zlarning ko’p qismini XI asrda yaratilgan “Devoni lug’otit turk” asarida ham uchratish mumkin. Ularning izohi juda keng yoritib berilgan. Adib tomonidan o’z yurti Surxondaryo viloyati Boysun tumanining shevasiga xos so’zlari orqali bu joyning chiroyli tabiatini, mehmondo’st insonlarini tasvirlab berilgan. Ayni shu asarlar orqali dialektal lug’atlarni ham tuzish mumkin. Chunki shevaga xos so’zlar, milliy an’analar, urf-odatlar orqali yozilgan asar dialektal lug’at uchun jonli manba vazifasini bajaradi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 2016.
2. E.Ismoilova.Shukur Xolmirzayev asarlarida qo’llanilgan dialektizmlar tahlili.”JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME1, ISSUE 4, 2023. JULY.
3. I.Bo’ronov.Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi obrazlarning o’ziga xosligi.https://doi.org/10.5281/zenodo.7825247
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. I, II, III, IV, V jildlar. T.: "O'ZBEKISTON". 2020.
5. Mahmud Koshg’ariy.Devoni lug’otit turk.-Toshkent:1960.-B.56

TOG’AY MURODNING ‘’YULDUZLAR MANGU YONADI’’ QISSASIDAGI SHEVAGA OID SO’ZLARNING LEKSIK TAHLILI

LEXICAL ANALYSIS OF DIALECTAL WORDS IN TOGAY MURAD'S STORY “YULDUZLAR MANGU YONADI”

Yangiboyeva Sabina Baxriddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
ssabina040201@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning ‘‘Yulduzlar mangu yonadi’’ qissasida qo‘llanilgan shevaga oid so‘zlarning tasniflari va boshqa shevada ham shu ayrim leksemalarning muqobillari bilan keltirilib o’tiladi.*
Kalit so’zlar: *sheva,dialekt, lahja,leksema,shevaga xos so‘zlar.*

Abstract. *In this article, the classification of dialect words used in Togay Murad's story "Yulduzlar mangu yonadi" and whether there is an alternative in another dialect will be compared.*
Key words: *dialect, lexeme, dialectal words.*

Tog’ay Murodning nomini mashhur qilgan asari bu “Yulduzlar mangu yonadi’’ asari hisoblanadi.Bu qissa 1976-yilda yozilgan. Asarda kurash, kurashchi polvonlar, ular o'rtasidagi munosabatlar xalqimizning azaliy urf odatlari, to‘y - hashamlari aks ettirilgan. Asarda Tog‘ay Murodgagina xos bo‘lgan o‘ziga xoslik - shevalardan, xalq maqollari va iboralaridan unumli foydalanishining guvohi bo‘lasiz. Polvonlarning samimiy suhbati, or - nomus uchun kurashi juda jonli tasvirlangan. Tog‘ay Murodning asarlari sof shevada yaratilishi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Biz mazkur qissada qo‘llanilgan shevaga doir so‘zlar, ayrim dialektal frazeologizmlar bilan tanishib chiqamiz. Sheva ayni bir hududga tegishli bolgan leksemalar bo’lsa, dialekt ularning yigindisidir, lahja esa o’zbek tilining taraqqiyotiga asos bolgan sheva va dialektlarning yig‘indisidir. Qissada bir necha turdagi leksemalar uchraydi.Bundan tashqari iboralarga ham duch kelish mumkin.Masalan, asarda shevaga oid “chinachoq’’ so‘zi berilgan. Asarda qo‘llanilgan “chinachoq’’– bu qo‘ldagi barmoqlarning eng kichkinasi.Bu leksema Qoraqalpog’iston Respublikasi, Amudaryo tumanida – “kichkina bo‘bak” tarzida qo‘llanadi, Qorabuloq shevalar leksikasida – “Čürmaltak”, Qahqadaryo viloyati ayrim hududlarida “chinaqay”, “jimjimaloq”, Uchqo‘rg‘onda “sinchaloq” shaklida ham qo‘llaniladi. “Zax” (Polvonlar oyog‘iga zax o‘tmasin uchun davraga somon sepiladi). Nam, sovuq joyga nisbatan zax so‘zi qo‘llanilgan. Namanganda “zak” shakli mavjud. Qashqadaryoda esa “zak” leksemasi temirning turib-turib sariq rangga kirib qolgan holatini anglatadi. (Temir zaklabdi). Shuningdek asardaTovon ma’nosida “taqim” leksemasi ishlatilgan.(Bir oltin taqimiga boshsiz uloq bosib to‘yxonadan chiqdi). Likopcha “toboq” shaklida qo‘llanilgan. Qashqadaryo Shahrisabzda “lali” ,Namanganda “tovoq” shakli ham mavjud. (Toboq-toboq palov suzildi). “Shu ekan” so‘zi “shuyakan” tarzida fonetik hodisaga uchragan holda qo‘llanilgan. Yana shunday qilib leksemasi “shuytib-shuytib” shaklida qo‘llanilganini kuzatishimiz mumkin. Biyov-biyov -bu so‘z fors-tojikcha so‘z bo‘lib kel ma’nosida qo‘llangan. Chapak – ikki qo‘lni bir-biriga urishdan chiqadigan ovoz.(Chapak chaldi).Qabatiga fors-tojikcha yoniga degani.(Otasining qabatiga o‘tib o‘tirdi). Chordona fors-tojikcha tizzalab o‘tirish.(O‘rtada chordona qurib o‘tirgan polvon Ro‘zi polvon).Kuchlirog‘i ma’nosida ‘’dadilrog’i’’leksemasi qo’llangan.(Bir-ikkita dadilrog’i bilan bizning Tilovberdini oxirrog’iga asra).Yaqin,jonajon ma’nosida “qalin’’ so’zi ko’chma ma’noda qo’llangan.(U qalin oshnamni yiqitdi).SHevadagi “tumonat’’ (tumonat odam yig’ildi)so’zi ko’p ma’nosida, “o’jarrog’i’’ qaysar , “gurunglashib’’ leksemasi gaplashib ma’nosida qo’llangan.Erta bormoq,vaqtidan oldin bormoq so‘zlari “elburuttan’’ leksemasi orqali ifodalangan.(Yana,tag’in,elburuttan bordi).Bobo so‘zi “bova’’shaklida qo‘llanilgan.Bu leksema Toshkentda “doda’’ Namanganda “opoqi ota’’ shaklida, Qashqadaryoda “boba buva’’shaklida qo‘llaniladi. Qashqadaryo viloyati ayrim hududlari jumladan, G‘uzor tumani,Qorakamar

qishlog‘ida otasidaan katta akalarini amakiga nisbatan “buva” deyiladi. Qissada jinnixona “jayraxona” leksemasida(Jayraxona-Termizdagi jinnilarni davolaydigan dargoh ma’nosida) qo’llangan. Kuch ma’nosida “darmon” leksemasi(oyog’imda darmon yo’q).O‘g‘li leksemasi “uli” (Kim aytadi seni raisning uli deb), ko‘p vaqt o‘tmadi ma’nosida “xiyol” leksemasi(Xiyol o‘tmasdan keldi) mavjud. Kamsitishga doir va qarg’ish so‘zlarga ham duch kelish mumkin;’’ukkag’aree’’, “bachchag’ar’’, “poshikastalar’’(oyog’i singurlar).Qissada juda ham ajoyib bir leksemaga duch keldim ‘’ityiqilish’’ bu leksema ikki polvon baravariga yiqilsa,ikkovi ham mag’lub ma’nosida qo’llangan.Uzoqroqdagi, nariroqdagi leksemasini ifodalovchi leksema mavjud; “adog’roqdagi’’ (Adog’roqdagi chiroqlar).Mol,hayvonlar boqiladigan joyga “og’ilxona” leksemasi,

- To‘yning xo‘jasi, “xo’jasi’’ so‘zi “egasi” ma’nosida ya’ni (To’yning egasi). “Choriq’’ qalin xom teridan tayyorlangan, kalta qo‘njli, tagi qalin, uchi yuqoriga biroz qayrilgan oyoq kiyimi(O’zbek tilining izohli lug’ati).(Oyoqlariga choriq kiydi). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot asli ‘’charuq’’ tarzida talaffuz qilingan . Qirg‘iz tilida bu ot charïk tarzida talaffuz qilinadi.
- Somon,o’t,bedalarni yig’ishda ishlatiladigan asbobga “panshaxa’’ leksemasi qo‘llangan. (Chol panshaxa bilan yoyilib ketayotgan somonlarni ho’kizlar oyog‘i ostiga tashlab turdi).
- “Galagov” leksemasi yer haydash uchta-to‘rtta sigirning boshidan ip o’tkazib bug’doy,arpa,no’xat yanchish. (Bo‘ri uch xo‘kizni bir-biriga baynidan matab,galagovga qo‘shdi). Bu so‘z Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani ayrim tog’li hududlardagi qishloqlarda iste’molda.

Asarda istarasi issiq, yuzi chiroyli ma’nosida “yuzlaridan qon tomardi’’ iborasi qo’llangan. Qissada o‘yin turkumiga oid leksemalar ham mavjud, girboydi,chillak,quloqcho’zma,chushmak kabi va h.k.

❖ G‘irboydi

Bu o‘yinda ikki bola bellashadi. O‘rtaga doira chiziladi. Doira o‘rtasida o‘yinchilardan birining qalpog‘i qo‘yiladi. Ikkinchi o‘yinchi 20 qadamlar chamasi uzoqlikdan turib chillikning enasopi bilan qalpoqni urib doiradan chiqarishi kerak. Yoki qalpog‘iga necha marta tegsa, shuncha marta ochko yig‘adi. Do‘ppiga tegdira olmasa, navbat ikkinchi o‘yinchiga beriladi.

Yutgan kishi qalpoqni qirra likopchaday qatlab, besh marta irg‘itadi. Beshinchi marta irg‘itganda qalpoq qayerga borib tushsa, yutqazgan o‘yinchi o‘sha joydan to poyga joyigacha zuvillab borib kelishi kerak. O‘yin yana boshdan boshlanadi va shu tartibda davom etadi.

❖ Chillik o‘yini — O‘zbek xalq milliy o‘yini. O‘yin uchun uzunligi bir metr atrofida bo‘lgan tayoq "Enasop" va chilligi tayyorlanadi. Chillikning uzunligi 15-20 sm, ikki uchi qalam shaklida yo‘nilgan bo‘ladi. Bundan maqsad chillik yerda turganda uchiga urib, havoga ko‘tarish. Havoga ko‘tarilgan chillikni enasop bilan urib, uzoqqa yo‘naltiriladi. Chillik o‘yini so‘nggi yillarda iste’moldan chiqa boshladi. Navro‘z xalq sayllarida eslanib, o‘ynalmoqda.

❖ Quloqcho’zma o’yini - bekinmachoqqa o‘xshash bolalar o‘yini (bu o‘yinda bir bola marra poylaydi, qolganlari unga tutqizmasdan marraga yetib kelishga harakat qiladi, poyloqchi qaysi bolani quvib yetib, ushlab olsa, marragacha uning qulog‘idan cho‘zib keladi).

(Bolalar to‘da-to‘da bo‘lib, oshiq quloqcho‘zma o‘ynashadi.T.Murod).

Taom nomlari ham keltirilgan;bo’g’irsoq ,shirguruch,qatlama va h.k.

- Bo’g’irsoq – hamir qilinib,uni yoyib har xil shaklda kesvolib yog’ga pishiriladigan taom.
- Shirguruch – sut, guruch, shakardan tayyorlanadigan taom. Bu taomni boshqa shevalarda sirguruch,shirbirinch deb nomlanadigan variantalari ham mavjud.
- Qatlama – hamir qilinib, yupqa qilib yoyilib,yog’lab o’rab keyin nonga o’xhatib yasab olib,ustiga nonpar bilan shakl berib,yog’ga pishirilgandan so’ng shakar sepib yeyiladigan taom.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki, Tog‘ay Murod asari orqali tug‘ilib o‘sgan hududining qanaqaligini, shevasini, taomlari, o‘yinlarini qanaqa ekanligini kitobxon yoshlarga shevasidagi go‘zal,betakror so‘zlar bilan ifodalab bergan. O‘zbek tilining dialektal qatlami nechog‘lik boy ekanligini yana bir karra isbotlab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.
2. Qorabuloq shevasi leksikasi(Disertatsiya,Begaliyev.M).
3. Ma’rufjon Yo‘ldoshev “Badiiy matnning lisoniy tahlili” Tosh.:2008.
4. Samixon Ashirboyev “O‘zbek dialektologiyasi”. – Tosh.: Nodirabegim, 2021.
5. “O‘zbek tilining xorazm shevalari” Fattoh Abdullayev O‘zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, Tosh.:1961.

QORAQOLPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI SHEVALARNING O‘ZBEK SHEVALARIGA TA’SIRI
(To‘rtko‘l tumani turkman tili misolida)

Allamuratova Jannat Maqsad qizi
ToshDO‘TAU talabasi
J92245215@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur ishimizda Qoraqolpog‘istonda yashovchi turkman millatiga mansub(o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasida muloqot qiluvchi)shaxslarning dialektal nutqini va shevalarining leksik-semantik xususiyatlarini ochiqlashga, ularni qisman bo‘lsada, qardosh turkiy tillar bilan ham taqqoslab o‘rganishga harakat qildik. Dialektal nutqning nozik qirralarini baholi qudrat tasvirlash uchun dialektal matnlar to‘pladik, mazkur manbalarni tasviriy va qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalangan holda tahlil qildik.*

Kalit so‘zlar: *dialektologiya, omonimiya, lahja, umumiy tavsif, xususiy tavsif, sinonimiya, antonimiya.*

Abstract. *In this work, we tried to clarify the dialectal speech and the lexical-semantic features of the Turkmen people living in Karakalpakstan (who communicate in the Oghuz dialect of the Uzbek language), and to study them by comparing them with the related Turkic languages. We have collected dialectal texts to describe the delicate aspects of dialectal speech, and analyzed these sources using descriptive and comparative-historical methods.*

Key words: *dialectology, homonymy, dialect, general description, specific description, synonymy, antonymy.*

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida dialektologiya sohasiga oid monografiyalar nashr etildi, dissertatsiyalar yozildi, lug‘atlar tuzildi. Shunga qaramasdan, o‘zbek tilshunosligining ushbu sohasini barqarorlashtirishda bir qator murakkab va dolzarb masalalar haligacha o‘z yechimini topgan emas. Diqqatimiz markaziga olingan mazkur region shevalarini fonetik, morfologik va leksik sathda tadqiq etish, xususan, Qoraqolpog‘iston Respublikasidagi o‘zbek shevalarini lingvogeografik usulda o‘rganish shunday muammolardan biridir. Ushbu usulda shevalarni tadqiq etish uchun esa olimlarning ilmiy ishlarini chuqur o‘rganish talab etiladi. Ilmiy ishimiz mavzusi shevashunoslik bo‘yicha bo‘lib, hududimiz shevasining leksik tadqiqiga bag‘ishlanadi. Avvalo, dialektologiya tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud dialektlarini, ya’ni mahalliy sheva va lahjalarni o‘rganadi. Jahon tilshunosligida dialektologiya yo‘nalishi o‘zining taraqqiyoti bosqichlariga egadir. Shevalarni o‘rganish turkologiyada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atut-turk” asaridan boshlangan bo‘lsa, Dialektologiya fan sifatida XVII asrning oxirlarida Germaniyada shakllandi.

O‘zbek tilshunosligida ushbu sohaga oid tadqiqotlar XX asr boshlarida boshlangan edi. E. D. Polivanov, K. K. Yudaxin, I. I. Zarubin kabi rus olimlari tomonidan qilingan ishlar mavjudki, ular bu sohaning rivojlanishi uchun ta’siretmay qolmagan. Rus olimlari ilmiy ishlarida o‘zbek adabiy tilini me’yorga keltirish, ularning shevalarini atroflicha o‘rganish orqali amalga oshishi mumkinligini aytib o‘tganlar. O‘zbek

tilshunosligida shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga oid T. Yo‘ldoshev, S. Ibragimov, Q. Muhammadjonov, N. Rajabov, Olim X. Doniyorov o‘zbek xalqining shakllanishida qipchoqlar asosiy o‘rinni egallagan deb hisoblaydi.[1]

O‘zbek shevalari 2 xil tavsif etilgan bo‘lib:

1) shevalarning umumiy tasnifi (mamlakat yoki davlatlar nuqtai nazaridan); 2) shevalarning xususiy tavsifi (voha yoki viloyat doirasida).

Zarubin o‘zbek shevalarini to‘rtta asosiy guruhga bolib tavsif qildi: 1. Xiva. 2. Farg‘ona. 3. Toshkent. 4. Samarqand-Buxoro kabi guruhlar. Yudaxin esa ko‘proq shevalarimizning tojik tili bilan o‘zaro munosabati tahliliga, ulardagi singarmanizm hodisasiga diqqatini qaratdi. Zarubin tasnifiga qo‘shimcha qilib: qipchoq-j guruhni va shimoliy o‘zbek shevalari guruhini qo‘shdi (Samarqand-Buxoroni olmadi)5 . Ammo keyinchalik mufassil tanishgan holda shevalarni 5 guruhga: 1. Toshkent. 2. Farg‘ona. 3. Qipchoq. 4. Xiva (Xiva o‘g’uz). 5. Shimoliy o‘zbek shevalariga bo‘lib, Boysun shevasini qipchoq guruhiga ajratadi.[2]

Har qanday til qurulishida bo‘lgani kabi, shevaga oid so‘zlar tarkibida ham ko‘p ma’nolilik, omonimlik, sinonimlik, antonimlik hodisalari kuzatiladi. Shevalarning shakl va ma’no-munosabat shakllari yuzasidan rus olimlaridan P. I. Avenesov, L. P. Jukovskiy, V. I. Karpov kabi olimlar tadqiqotlar olib borgan bo‘lasa-da, o‘zbek olimlardan A. Hojiyev, M. Mirtojiyev, S. Isamuhammedova, M. Rahmatullayeva, A. . Doniyorov, B. To‘ychiboyev, R. Yunusov, B. Umrqulov kabilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.[3]

Shevalarda polisemiya va omonimiya hodisasi har qanday til qurulishida bo‘lgani kabi, shevaga oid so‘zlar tarkibida ham ko‘p ma’nolilik, omonimlik, sinonimlik, antonimlik hodisalari kuzatiladi. Omonimlarning til taraqqiyotidagi o‘rni beqiyosdir. So‘zlarning leksik-semantik xusisiyatlari haqida gap ketganda omonimiya masalasiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. O‘zbek tilining umumiy lug’at fondidagi so‘zlarning 1,32% gina bir ma’noli dialektizmlar tashkil etishidan ham bilishimiz mumkinki, o‘zbek shevashunosligi polisemiya, omonimiya, sinonimiya hodisalarga boy, lug‘at fondi rang-barangdir.[4] Qoraqolpog‘istonda istiqomat qiluvchi turkman vakillari shevalarining leksik boyligiga kuzatishdan mazkur shevada xilma-xil sabab va omillar ta’sirida omonimlarning yuzaga kelganligi va jonli nutqda tez-tez qo‘llanilib turganligi ayon bo‘ldi. Avvalo, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, o‘rganilgan obyektda adabiy tilda qo‘llaniluvchi leksemalar bilan shevada ishlatib kelayotgan leksik birliklarning ayrimlari omonimik qatorlarni tashkil etadi. Biz omonim so‘zlarni shevalar doirasida ham uchrata olamiz. Ya’ni shevadagi so‘zlarning o‘zi ham omonim bo‘lishi mumkin. Buni To‘rtko‘l tumanidagi quyidagi shevalar misolida kuzatamiz. Masalan: ***Aq jalïq*** - oq ro‘mol. Mazkur birikmaning ikkita ma’nosi bo‘lib birinchisi, *unashtirilgan qiz*ga nisbatan ishlatilsa, ikkinchi ma’nosi *aza bo‘lgan uyda vafot etgan insonning yaqinlari qirq kun oq ro‘mol o‘rashadi va boshqalar uning azadorligini ro‘molidan bilishi mumkin bo‘ladi.*

I:l so‘zining omonimlik xususiyati nisbatan ko‘proq deyishimiz mumkin.

1.El, xalq

2. Qulflash

3. Osish

Salma

1.Ariq(Ot)

2.Solmoq(fe’l)

Märäkä so‘zining ham ikkita ma’nosi bor

1.Aqiqa ma’nosida

2. Azaga nisbatan ishlatiladi.

Shevalaring maxsus so‘zlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

[1] Raimnazarova N.X. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning berilishi. -Termiz-2022 66-bet

[2] Xolova M.A. O‘zbek milliy korpusi tadqiqi. Termiz-2022yil,7-bet.

[3] Xolova M.A. O‘zbek milliy shevalari korpus tadqiqi. -Termiz-2022. 60-bet

[4] Usmonova.S. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida omonimlar va sinonimlar. -Toshkent- 1959-yil. 86-bet.

1. O‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadagan so‘zlar. Bunday so‘zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo‘llanadi.Masalan, To‘rtko‘l shevalarida ***jeznä***-pochcha, ***čaŋalaq***-paxta terilgandan keyingi qoladigan gulsimon shakl. 2. Kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar.

Ushbu hududdagi shevalar nafaqat omonimlik jihatidan farqlamay boshqa jihatlardan ham farqlash mumkin. Adabiy tilimizdagi ayrim so‘zlarning shevalarda boshqacha aytilishini kuzatamiz. Bu holatni biz o‘zmizning hududdagi so‘zlarda ko‘rib chiqdik. Masalan:

Joryan-ko‘rpa

Ataγïz-ombur

Čokič-tesha

Dodak-lab. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki dodak so‘zi turk tilida “dudak” tarzida ishlatiladi. Ya’ni barcha turkiy tillar bir oiladan va shuning uchun ham ularning bir-biriga ta’sirini nafaqat adabiy tilda balki shevada ham uchratamiz.

Kunduk-obdasta

Arǯa-sandiq

Čïra- Shamchiroq. Bu so‘z turk tilida mavjud bo‘lib , tutandiriq, ya’ni olov yoqish uchun ishlatiladigan vosita ma’nosini bildiradi.

Jalïq-ro‘mol

Aynan shu so‘zlarni S.Ashirbayev tasnifiga ko‘ra birinchi guruhga kiritishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili shevalarga boy tillardan biri. Shu qatorda Qoraqolpog‘istondagi o‘zbek shevalari ham tabiiyki, bu boylikdan foydalanib keladi. Shu bois shevada umumadabiy tilga xos leksema birliklar faol qo‘llanilib turiladi, ammo tadqiqotimizda o‘rganilganda shevada adabiy tilda ishlatilmaydigan ko‘plab so‘z va terminlar borligiga ishonch hosil qilindi. O‘zbek adabiy tilida va affikslarida uchrovchi omonimiya, sinonimiya, polisemiya kabi holatlar ona tilimizning qay darajada serjiloligini anglatadi.

Bilamizki, til bevosita shevalardan oziqlangan holatda rivojlanib, sayqal topib boradi. To‘rtko‘l shevasida so‘zlarning shakl va ma’nosiga ko‘ra turlarida, ayniqsa, omonimiya va leksik munosabati misolida ko‘rib chiqib o‘zbek shevalarining ma’noviy ko‘lami kengligi -bu o‘zbek adabiy til qo‘llanish imkoniyatilari darajasi ichki manbayi hisobiga ham tengsizligidandir dalolatdi. Bundan tashqari etnik aholi badiiy asarlarda keltirilgan so‘zlarning ma’nosini kuchaytirib, uslubiy-ekspressiv ma’noda qo‘llashi milliy madaniyatimizning bir bo‘lagi va ushbu so‘zlar nafaqat shevashunosliknuqtai nazaridan, balki boshqa aspektlarda (masalan, etnopsixo-lingvistik, lingvokulturologik) tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ammagul Normuhammedova “Surxandaryo shevalarining lingvistik xususiyatlari”. -Termiz-2023;
2. Raimnazarova N.X. “O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning berilishi”. -Termiz-2022;
3. Xolova M.A. “O‘zbek milliy korpusi tadqiqi”. Termiz-2022yil;
4. Usmonova.S. “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida omonimlar va sinonimlar”. -Toshkent- 1959;
5. S.Ashirboyev “O‘zbek dialektologiyasi”,Toshkent.2013

O‘ZBEK VA QOZOQ TOPISHMOQLARI QIYOSIY TAHLILI

Aziza Rustamova
ToshDO‘TAU talabasi
rustamovaaziza223@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va qozoq topishmoqlaning o‘xshashlik jihatlari taqqoslangan. Topishmoqlarning kelib chiqish tarixi ochiqlangan; ikki qardosh xalqlarning bir-biriga o‘xshash topishmoqlari keltirilgan. Topishmoq qay tarzda aytilishi va unga qanday shaklda javob berish kerakligi haqida ham tahlil keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *jumboq, topishmoq, topmacha, topar, javobi, yechuvchi, ochuvchi.*

Abstract. *The article compares the similarities between Uzbek and Kazakh riddles. The history of the origin of the riddles is disclosed; similar riddles of two brotherly nations are presented. There is also an analysis of how the riddle is told and how to answer it.*

Key words: *puzzle, riddle, riddle, finder, answer, solver, opener.*

Folklorning ko‘pgina janrlari qatorida topishmoqni ham ko`rishimiz mumkin. Topishmoq topilishi lozim bo‘lgan narsalarning o‘xshatma belgisi, bir tomondan juda erkin tanlangan bo‘lgani uchun, ikkinchidan ko`pincha singishib qolgan badiiy adabiyot normalaridan farq qilgani uchun javobni topish kishini ancha o`ylanishga, topishmoqdagi belgilarning ko`chma ma`nolarini axtarishga majbur etadi. Shuning uchun ham folklorning janrlari barcha xalqlarda, uning spesifik xususiyatlariga mos terminlar bilan nomlangan [Antologiya: 120b].

Xalq og‘zaki ijodining kichik janrlaridan biri topishmoqdir. Bu janr ko‘proq bolalarni kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka o‘rgatadi. Ammo topishmoqlar folklorda faqat yosh bolalargagina taalluqli deb hisoblash to‘g‘ri emas, chunki topishmoq aytish va topish musobaqalarida kattalar ham qiziqish bilan ishtirok etadilar. Topishmoqlar yuzaga kelishida ajdodlarning turmush tarzi bilan bog‘liq real hayotiy voqelik birlamchi asos bo‘lgan. Topishmoq aytish udumining mavsumiy xarakter kasb etganligi va yilning ma`lum vaqtlardagina o‘tqaziladi [Jo‘rayeva, 19-b].

Topishmoqlar faqatgina bir asrning mahsuli bo‘lmay, uzoq o‘tmish ibtidoiy davrdan boshlab, asrlar davomida nasldan naslga, xalqdan xalqqa o‘tib, har xil turda yaratilib, ardoqlanib saqlanib, kelajak avlodga yetkazib kelingan. Biroq xalq topishmoqlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi, takomillashish tarixi juda murakkab. Buning uchun, avvalo, topishmoqlarni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarning manbayini; topishmoq bo‘ladigan predmet va hodisalarning belgilarini o‘rganish, aniqlab chiqish talab qilinadi. Ayniqsa, ularning yuzaga kelayotgan jarayonlarni o‘rganish, unda aks etgan ijtimoiy-maishiy hayotining qadimiy izlarini qidirib topish juda murakkab ish. Bu xususda tekshirish ishlari olib borish muhim ahamyatga ega. Topishmoqlar turli xalqlarning o‘zlariga xos shart-sharoitlari bilan bog‘liq ravishda yuzaga kela boshlagan. Topishmoqlar barcha xalqlarning umumiy mulkidir. Shu sababli uning kelib chiqishi, manbayi, yuzaga kela boshlashi mushtarak bir jarayondir. Biroq uning rivojlanish tarixi, taraqqiy qilish jarayoni u yoki bu xalqning sharoitiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin [Husainova, 93-bet]. Misol uchun qozoq xalqining topishmoqlarini olib qaraydigan bo‘lsak, qozoq xalqida tashqi qiyofasini, tashqi belgilarini qisqacha tariflab, narsalarning o`z nomini aytmay, ular orqali sirli narsalarni topish **jumboq** deb ataladi. Qozoq og‘zaki adabiyotida sodir bo‘lgan ilk jumboqlar qadimda rivojlanib, o‘sib kelayotgan janrlardan biridir. Xalq amaliy san`atining sirli shaklini o`rgangan olimlarning fikriga ko‘ra, sir erta davr odamalari, butun jamoaning mehnat, kasb-hunar, turmush tajribasidan tug‘ilgan [казак халкыньн ауыз адебиemi, 88-bet]. Topishmoq aytish barcha xaqlar kabi qozoq xalqining ham azaliy an`analaridan biridir. M. Avezovning turli asarlarida qozoqlarning ilk urf-odatlaridan biri sifatida jumboq alohida o‘rin tutganligi aytilgan. Qadim zamonlarda odamning donoligi va tezligini boshqotirma bilan sinab ko‘rish odat edi. Bu tarixiy haqiqatga asoslangan fikr [казак халкыньн ауыз адебиemi 89-bet]. Qozoq topishmoqlarining mavzusi va mazmuni murakkab va ko‘p ta`lim, san`at, texnika va boshqa narsalarga bag‘ishlangan. Topishmoqlarning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ular yaqin atrofdagi

narsalarni ifodalab keladi. Shuningdek, oy va quyosh, yer va osmon, qish va yoz, kun va tun, qo‘l va oyoq kabi turli mavzularga bog’liq jumboqlar mavjud. Qozoq topishmoqlari tuzilishi va ifodalanishi jihatidan maqol va matallarga o‘xshash bo‘lib, ko‘pincha ohang va ritmni saqlagan holda she`riy shaklda keladi. O‘zbek topishmoqlari esa she’riy va nasriy shaklda uchrashi bilan farqlanadi. Buni misollarda ko’rib chiqishimiz mumkin:

O‘zbek topishmoqlari:

1. Nasriy topishmoqlar:

Tomdan tuxum irg‘itdim. (do‘l)

Novcha yigit tom teshar. (yomg‘ir)

2. She’riy topishmoqlar:

U yoqqa o‘tdim, bildingmi?

Bu yoqqa o‘tdim, bildingmi?

Oq quvrayning boshini,

Chertib o‘tdim, bildingmi? (shamol)

“Uzun-uzun iz ketdi,

Uzun bo‘yli qiz ketdi.

Toshga tegdi tarq etdi,

Sirg‘alari yarq etdi” (Suv).

Yuqorida aytib o‘tilgandek, qozoq topishmoqlari she`riy shaklda keladi. Misol uchun**:**

Біреудін бір улы бар жэне кызы,

Біледі ол екеуін дуние жузі.

Уйыктайды улы тунде, кызы кундіз,

Жургенде білінбейді баскан ізі.

Ma`lumki, o‘zbek topishmoq janirining ijro usuli ikki kishi tomonidan aytish, ya`ni jumboqni aytuvchi va qo‘yilgan jumboqni yechuvchi shaxsi bilan bog‘liqligiga ko‘ra o‘ziga xoslik kasb etadi. Topishmoqlar aytish jarayonida qatnashayotgan kishilar qo‘yilgan jumboqning javobini topish uchun nomi yashiringan narsa-predmetning u yoki bu belgisiga doir savollar berishlari mumkin. Biz ham o‘zbek xalqining ijodiy materiallari asosida ba`zi mulohazalarimizni bildirmoqchimiz. Jondorlarning hammasi odamlarning tilini tushunadi, degan tasavvurda jonivorning aniq o‘z otini aytishdan cheklanganlar. Ularning otini boshqa o‘xshash narsa nomi bilan almashtirib aytishgan [Husainova, 94-bet]. Bunga misol keltiradigan bo`lsak:

O‘zbek topishmog‘i

Yo`l-yo`l yo`nib bor

<u>Odam qo`rqar turi bor (yo`lbars)</u>

Qozoqlarda ham jonivorlar haqida topishmoqlar bor. Ulardan namuna keltirib o‘tamiz:

Қілемнің турлеріндей жундері бар,

Айбатты, жан шыдамас ундері бар,

Шаршы бой, сулу қуйрық, қысқа қулақ,

Қететін зиян қылып бір жері бар.

Jonovorlarninggina emas, balki quyosh, oy, suv, chashma, havo, bulut, shamol kabi tabiat hodisalarining ko‘zga ko‘rinmaydigan ruhlari bor, degan tushuncha bilan yashirin ko‘chma ma`nodagi so‘zlar orqali gaplashganlar. Masalan: Biri quvlar, biri qochar. (quyosh, oy)

Davrlar o‘tishi bilan so‘zlashuv tilidagi yashirin nutq estetik mohiyati kasb etib, topishmoqqa aylanish imkoniyatini yaratgan. Shuni ham aytish kerakki, o‘sha davrdagi yashirin so‘zlashuv nutqi butunlay yo‘qolib ketmagan. Nutqimizdagi bunday holat hozirgi kunda ham o‘z ahamyatini saqlab kelmoqda [Husainova, 94-bet]. Topishmoqlarning keyingi tarixi taraqqiyotini o‘rganishda ularning aynan qaysi davrda yaratilgani aniqlash juda qiyin. Topishmoq janrining kengayib o‘sib borishiga boshqa xalqlarning bir-biri bilan yaqindan aralashuvi, bir-biri bilan aloqa qilishi ham sabab bo‘ladi. Ayniqsa, turkiy xalqlar folklorining keyingi davrda bir xalqdan ikkinchi xalqqa tarqalishi, ulardan foydalanishga imkon beradi. Shuning uchun topishmoqlar turli shaklda, turli ko‘rinishda kelishi mumkin.

O‘zbek folklorida:

a) Oltin kelganda, kumush ketar
Kumush kelganda, oltin ketar. (quyosh va oy)
b) Onasi bitta
Bolasi mingta. (oy va yulduzlar)
Ko‘k ko‘ylakka qo‘l yetmas. (osmon)
Kecha tomda bir patir ko‘rdim,
Erta qarasam — yo‘q. (oy)

Yuqoridagi topishmoqda “ona” so‘zidan murod oy nazarda tutilgani ehtimolga ko‘proq yaqin. Bir qancha xalqlarda, jumladan o‘zbeklarda ayolni oyga o‘xshatish birmuncha urfga aylangan. Topishmoqda quyosh, oy, yulduzlar va tabiat hodisalarini har xil obrazlar orqali gavdalantirilishi asosida, ko‘pincha juda qadimiy tushunchalar yotadi. Odatda, ularni jonli metaforik o‘xshatishlar bilan berish kuchlidir. Bu borada Z. Husainovaning xalq orasida horib, izlanib to‘plagan topishmoqlarining tahlili alohida e’tiborga molik. [Antologiya, 2017] Yuqorida aytib o`tilgan topishmoq turlaridan osmon jismlari haqidagi, ya’ni kosmogonik topishmoqlarning paydo bo`lishi haqida Mamatqul Jo`rayevning oy va quyosh haqidagi maqolasida yozilgan. Quyosh bilan oy qadimgi davrlardanoq muqaddaslashtirilgan. Chunki charag‘on quyoshning har tongida ufq uzra bosh ko‘tarib, samo gumbazining aylanib turishini ilohiy hodisa, tangri tomonidan ato etilgan ulug‘ mo‘jiza deb bilgan ibtidoiy odam nazarida oftob hayotning boqiyligini ta’monlovchi buyuk kun edi. Bu samo kuchlarning vaqti-vaqti bilan tutilishi ularni tashvishlantirgan, chunki ajdodlarimiz bu hol samo yoritkuvchilarining harakat yo‘nalishi davomida ro‘y beradigan tabiiy hodisa ekanligini bilmaganlar. Oy va quyoshdan tashqari boshqa jism yoki texnika vositalari haqida ham topishmoqlar bor. Misol:

G`ildiraksiz parovoz,
Parovozki juda soz.
Dengizlarda suzadi,
Baliqlardan o`zadi. (paroxod)

Ammo inson zoti o‘sha sirni yechishga harakat qilgan, atrofdagi tabiat olamni, uning hodisalarini, mehnat qurollarini, turli hayvonlarini bir-biriga qiyoslab bilishga harakat qilingan. shu maqsadda ular tanish predmetni boshqa notanish predmet bilan solishtirish yoki shu predmetlarni o‘xshatish belgilarni ko‘rib chiqish orqali ularning qanday narsa ekanligini va nimadan yasalganligini aniqlaganlar. Vaqt o‘tishi bilan inson tafakkuri, dunyo bilimi, bilim miqdori ortib borar ekan, olamning yaratilish sirlari, narsalarning kelib chiqish asrori ochila borgan va topishmoqlar o‘zgara boshlagan: Аягы жок журеді, аузы жок сэйлейді (хат).

Jumboqning ilk namunlari ilk davrlarda odamlarning turmush tarzi, mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda tug‘ilgan, keyinchalik xalq hayoti bilan qorishib kelgan. Qozoqlar bundan tashqari jumboqlarni odamlarga o`rgatib, bilmaganlarini bilishga undash yaxshi deb hisoblaydi. [казак халкыньн ауыз адебиемі 89-bet]

Qozoq topishmoqlaridan namunalar:

Конантап кунде келер су бетіне,
Пар келмес гауһар затты келбетіне.
Мекені су жузінде кеірнеді
Тамаша, карап турсам суретіне.

Yuqoridagi topishmoqlarda osmon jismlari yashiringan. Yulduzlar ko‘pincha topishmoqlarda oq munchoq, marvarid, sochilgan tariq, mayda tosh yoki qiz shaklida ta’riflanadi. Oyni majozlarga yashirganda uning uch shakli (yangi oy, yarim oy, to‘lin oy) farqlangan.

Farqli xususiyatlari bo’lganidek, ikki xalqdagi topishmoqlarning o‘xshash jihatlari ham bor. Misol uchun:

Бір нерсэ білмегенді білгіземі.
Өзінді карап турсан култгіземі,
Жалганда энімесі сондай қызық.
Жанынды тындай берсең кіргіземі,

Topishmoqlarning javobi turli hududlarda turlicha beriladi. Javobi, yechuvchi, ochuvchi deb yuritilishi haqida manbalarda o‘qiymiz. O’zbek adabiy tilida “javobi” tarzida aytiladi. Qozoqlarda esa “шешуи” deyiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek folklorining boshqa jarlarida kabi topishmoqlar ham xalqning turmushi dunyoqarashi va ruhiyatini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan xazinadir. Shunday qilib, chiston, muammo, tarix janrlaridagi boshqotirgichlar xalq og‘zaki ijodidagi topishmoqlar bilan mushtaraklikni belgilaydi. Topishmoqlarda ham, yozma adabiyotdagi uchta janrda ham insonni o‘ylashga, qiyoslashga, izlashga chorlovchi fazilat namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, topishmoqlar mohiyat jihatidan millat vakillarining ziyrak, sinchkov, kuzatuvchan bo‘lishlari uchun xizmat qiladi. Qozoq va o‘zbek xalq topishmoqlarining ham o‘xshash, ham farqli jihatlari mavjud. Lekin ular orasidagi tafovut topishmoqlarning qardoshlararo aloqasining ahamiyatini kamaytirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husainova Z. XX asr O‘zbek folklorshunosligi. Antalogiya. – Toshkent, 2017. – B.120.
2. Husainova Z. Topishmoqlarning tarixiy asoslari // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2013. 5-son. – B. 93-96.
3. Jo‘rayeva M. Topishmoq va marosimlar // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2009. 2-son. – B. 19-20.
4. Jo‘rayeva M. Topishmoqlar bilan bog‘liq atimlar // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2013. 6-son. – B. 52-53.
5. Мәлик Габдуллин. Қазақ халқының ауыз әдебиеті. – Алматы: Мақал-матәл жұмбақтар, 2017. – B 88-96.

“SHOHIDU-L-IQBOL” ASARIDAGI RUBOIYLAR POETIKASI

POETICS OF RUBAIYS IN "SHOHID-UL-IQBAL"

Qodirova Nazokat Ulug'bek qizi
Xorazm viloyati Xonqa tumani
ixtisoslashitirilgan maktabi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Shohidu-l-iqbol” asaridagi ruboiylar poetikasi xususida ma’lumotlar berishga harakat qilingan va she’riy san’atlar qo‘llanilgan baytlar izohlangan.

Kalit so‘zlar: Chorizm istilosigacha bo‘lgan davr, lirik asar, she’riy san’at, go‘zal, tashbeh, tazod, husni ta’lil va tamsillar.

Annotation: In this article, the Rubaiyats from the work "Shahidu-l-Iqbal".It was tried to give information about poetics and the verses where poetic arts were used were explained.

Key words: the period before the conquest of Tsarism, lyrical work, poetic art, beautiful, tashbeh, tazad, husni talil and examples.

Har bir ijtimoiy-siyosiy davr, albatta, adabiy jarayonga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu uzoq tarixdan isbotlangan xulosa.

Bugungi kunda avlodlarimiz kamoloti yo‘lida xizmat qiladigan mumtoz adabiyotimizning muqaddas namunalarini chuqur ilmiy talqin etish , omma ongiga singdirishning naqadar muhimligi haqiqatdir.

Chunki, adabiyotini, tarixini, mumtoz merosini haqiqiy tanish xalqni yuksakka ko’taradi. Ma’naviy dunyosini teranlashtirib, xalqlar o’rtasida qadr-qimmatini oshiradi.

O’zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiy qoldirgan ilmiy, tarixiy va adabiy meros uzoq asrlar davomida butun dunyo tadqiqotchilarining diqqat-e’tiborini o’ziga tortib kelmoqda. Muhammad Rizo Ogahiy ijodida inson, uning zohiriy va botiniy dunyosi

turli ko’rinishlarda talqin qilinib, adolat, haqiqat, mehr, saxovat, vafo, sadoqat ulug’lanadi, jabr-zulm, jaholat, adolatsizlik va nohaqlik qoralanadi.
O’zbek adabiyoti tarixida Muhammad Rizo Erniyozbek o’g’li Ogahiy qoldirgan adabiy meros o’z badiiy qimmati va salmog’i bilan yetakchi o’rinlardan birini egallaydi. Uning ilk bor to’liq holda nashr etilgan “Shohid ul-iqbol” asari umrining oxirida Xiva xonligi taxtiga o’tirgan ikkinchi Muhammad Rahimxon Feruz hukmronligining chorizm istilosigacha bo’lgan davrini (1864-1872) rangin bo’yoqlarda aks ettiradi. Asar Ogahiyning she’riyatdagi yuksak badiiy imkoniyatlari va nasrdagi beqiyos mahoratini namoyish qilishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.
Shu bilan birgalikda Ogahiy ijodiyotida badiiy so’z qudrati ham ustunlik qiladi. Har bir shoirning salohiyatini belgilashda uning nimalarni tasvirlagani emas, balki qanday tasvirlagani muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, lirik asarlarda she’riy san’atlardan foydalanish mahorati barcha davrlarda badiiy san’atkorlikning asosiy omillaridan biri sifatida baholanganligini unutmaslik kerak. Har bir ijodkorning yaratgan lirik merosini o‘qir ekanmiz, diqqatimizni bevosita o‘sha she’riy shakl badiiyatiga qaratishimiz tabiiydir.
O‘zbek mumtoz adabiyotidagi estetik go‘zallikni yuzaga keltirishdagi omillardan biri – she’riy san’atlardir.

Ogahiy o‘z asarlari badiiyati ustida ishlar ekan, she’riy san’atlarni qo‘llashda ularning nafisligi, go‘zalligi, o‘quvchida ijobiy hissiyotlar, zavq-u shavqni ro‘yobga chiqarish imkoniyatiga ham alohida diqqat qiladi. Bu o‘rinda ham shoir mumtoz Sharq adabiyotiga xos yana bir badiiy tamoyilning davomchisi bo‘lib maydonga chiqqanini ta’kidlashimiz lozim. Gap shundaki, mazkur tamoyilga ko‘ra har qaysi ijodkor u yoki bu she’riy san’atga murojaat etar ekan, chizilayotgan tasvir o‘quvchida nafis hissiyot uyg‘otishiga e’tibor berishi lozim. Bu xil talabdan har qanday chekinish esa munaqqidlarning kuchli e’tiroziga sabab bo‘lgan. Jumladan, turk adabiyotshunos olimi Tohir ul-Mavlaviy o‘zining „Adabiyot lug‘ati“ kitobida bir shoirning

Kokilinda shona qolmish sonma, ey xurshidro‘,
Chok-chok o‘lmish, osilmish qalbi so‘zon zulfina

baytini shu nuqtayi nazardan tanqid qilar ekan: „Parcha-parcha bo‘lmish qonli bir yurakning kokillarga yopishib sollanishi nihoyatda bir jirkanch manzarani tashkil etgan deb hisoblayman“, deb yozgan edi. Shuning uchun ham shoirlarimiz o‘z asarlarida bunday tasvirlardan foydalanishni o‘zlari uchun nomunosib ko‘rganlar. Ogahiy qo‘llagan san’atlar, u chizgan badiiy lavhalar o‘zining nafosat-u nazokati bilan ajralib turadi. Uning

Kel, ey laylivashimkim, bazmi vasling orzu aylab,
Balo dashtida kezgan oshiqi majnunshioringman[1]

Kiprik chekib supurgu yo‘lidin oritib xas,
Ko‘z ashki qatrasidin lo‘lunisor keldi

kabi go‘zal tasvirlarni ro‘yobga chiqaradi. Shoir ijodida zaif mazmunli she’riy san’atlar mutlaqo uchramaydi desak, xato bo‘lmas.
Ogahiy badiiyatiga xos bo‘lgan yana bir tamoyil chizilgan tamsillar-u lavhalarning sharqona odob qoidalariga ham muvofiqligidir. Shoir azaliy ma’naviy qadriyatlarimizga to‘la muvofiq keluvchi badiiy tasvirlar yaratadi. Jumladan,

Ey, janobingg‘a yuz ursa tavba aylab dushmaning,
Afving oni emin aylab xurram-u xandon qilur.
Kelsa ehsoning umid aylab gadoyi ochko‘z,
Lutfing oni serchashm ne’mati alvon qilur.

Mumtoz she’riyatimizda keng qo‘llanib kelingan xilma-xil she’riy san’atlarning asosiy vazifasi shoir ifodalayotgan muhim ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarning o‘quvchi to‘laroq va chuqurroq anglab yetishiga, chizilayotgan tasvirlarning mohiyati va ko‘lamini atroflicha va aniq tasavvur eta bilishiga xizmat qilish, ayni vaqtda uning badiiy-estetik didini shakllantirib va rivojlantirib borishdan iboratdir. Ogahiy ham mutafakkir va kashfiyotchi ijodkor sifatida o‘zi tarannum

qilayotgan hayotbaxsh g‘oyalarni yorqin va purmazmun lirik va liro-epik timsollar vositasida mujassamlashtirishga intilib, ko‘plab an’anaviy she’riy san’atlarga murojaat etadi, badiiy tasvirning rang-barang usullaridan mohirona foydalanib, nihoyatda „ko‘p va xo‘p“, betakror va bezavol, munaqqash va serjilo lavhalar yaratadi. Nafis mubolag‘alar, bejirim tashbehlar, jozibali tashxis-u talmehlar, purmazmun tazodlar, hayratomuz husni ta’lil va tamsillar shoir ijod etmish lirik timsollarga beqiyos ko‘rk bag‘ishlaydi. Xilma-xil she’riy san’atlar zaminida chizilmish tarovatli badiiy lavhalarning aksariyati ilk bor Ogahiy tomonidan kashf etilgan bo‘lib, ijodkorning yuksak san’atkorligidan, badiiy xayolot olamining bepayonligi-dan, teran tafakkur-u zakovatidan dalolat beradi.

Ogahiyning „Shohidu-l-iqbol“ asaridagi ruboiylarda qo‘llangan badiiy san’atlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu janr badiiyatini oshirishda ham she’riy san’atlarni mohirona qo‘llagan.

Mubolag‘a – Sharq adabiyotida, xususan, arab, fors-tojik va turkiy she’riyatlarda juda keng qo‘llangan tasvir vositalaridan biridir.

Shoir ijodida deyarli biron obida yo‘qki, unda mubolag‘a san’ati o‘z aksini topmagan bo‘lsin. Uning ilohiy muhabbat madhi bilan yo‘g‘rilgan she’riyatida ham, tabiat manzaralari chizilgan g‘azal va masnaviylarida ham, ijtimoiy-axloqiy muammolarga bag‘ishlangan asarlarida ruboiylarida ham mubolag‘a inson ruhiyat, tuyg‘ularini jo‘shqin bir tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Har biri karam sipehrida najmi xudo,
Bo‘lmoqqa zalolat elig‘a rohnamo,

Husni ta’lil – baytda tasvirlanayotgan biron tabiiy holat yoki hodisaga g‘ayritabiiy sabab ko‘rsatishni nazarda tutuvchi husni ta’lil (chiroyli dalillash) san’ati mumtoz she’riyatimizda juda keng qo‘llangan tasviriy vositalardan sanaladi. Uning ajoyib namunalarini Atoiy va Lutfiy, Navoiy va Bobur , Mashrab va Huvaydo ijodida uchratish mumkin. Ushbu san’atning lirik va epik timsollar yaratishdagi ahamiyatini teran anglagan Muhammad Rizo Ogahiy ham husni ta’lil asosida yorqin va ta’sirchan baytlar bitdi.

Ogahiyning husni ta’lil san’ati asosidagi baytlari talqinning yangiligi bilangina emas, qolaversa badiiy timsolning hayot mantiqiga muvofiqligi bilan ham alohida ajralib turadi. Gap shundaki, ushbu san’at zaminidagi baytlarda g‘ayritabiiy sabab keltirilsa ham mantiqiy asosning buzilmasligi talab qilinadi.

Ul shohi haqiqiyg‘a „sazo“ hamdu sano-
Kim, ko‘rguzubon ulusg‘a in’omu ato,
Shahlarni alar boshi uza qildi panoh,
To topg‘ay alar rafohiyat olam aro

Tanosub – ma’no jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lgan so‘zlarni bir baytda to‘plab, ular vositasida nafis timsollar yaratish san’ati tanosub deb atalishi mumtoz she’riyatimiz muxlislariga yaxshi ma’lum. Ushbu usuldan foydalanmagan, ma’nolar munosabati zaminida yangi va betakror badiiy obidalar bitishga intilmagan ijodkor adabiyotimizda topilmasa kerak. Mazkur san’at qo‘llangan baytlarni ko‘plab shoirlar ijodida uchratamiz. Muhammad Rizo Ogahiy ham shu an’ana izidan borib, o‘zining tanosub san’atidan mohirona foydalanish salohiyatini namoyish qildi.

Ogahiy avvalo baytda to‘plangan ma’nodosh so‘zlarning mazmunan to‘la yaqin bo‘lishiga, ma’lum bir masala, mavzuning eng muhim qirralarini aks ettirishiga alohida e’tibor berdi. Shoirning

Bu **qasr**ni **shah**g‘a qil humoyun, yo rab,
Firdavsdin et fayzini afzun, yo rab.
Anda tun-u kun **soqiyi ishrat** qo‘lidin
Ro‘ziy qil ango **bodai gulgun**, yo rab.

Tazod – she’r baytlarida o‘zaro zid ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarni jamlab, ular asosida qarama-qarshi mazmundagi fikrlarni ifodalash bilan lirik timsollar qiyofasini yorqinroq namoyon qilish tazod san’atining mohiyatini tashkil etadi. Muhammad Rizo Ogahiy she’riyatimizda keng ko‘lamda qo‘llanib kelingan ushbu san’atdan o‘z ijodida barakali foydalandi.

Shoir „Shohid-ul-iqbol“ asarida keltirilgan ruboiylarida ham xilma-xil mazmundagi zid ma’noli so‘zlarga murojaat qilgan. Ijodkor o‘z fikrlarini, xususan, ichki kechinmalarini to‘laroq va ta’sirchanroq aks ettirishga intiladi. Masalan:

Har biri **karam** sirehrida najmi xudo,
“Bo‘lmoqqa **zalolat** elig‘a rohnamo,

Biz hozir tahlil qilgan ruboiylarimiz ijodkorning qanchalik teran fikr sohibi ekanligidan dalolat beradi. Har bir badiiy san’at, janrlar takomili, har ikkala asar o‘rtasidagi o‘xshashlik, ma’no jihatdan yaqinliklardan shuni anglashimiz mumkinki Ogahiyning o‘zbek mumtoz adabiyotida o’rni juda yuksak pog‘anadadir. O‘zidan keyingi adabiyot namoyondalari uchun haqiqiy ustoz yo‘lboshchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev V.A. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Toshkent,1964.
2. Abdullayev H. Badiiy so‘z fayzi. – T. 2009.
3. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr 1-yarmi) – T. “Fan” 2009. (o’quv qo’llanma)
4. Ahmedov A. Ogahiyga armug‘on. – Urganch. 2009.
5. Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. – T. “O’qituvchi” 1996.
6. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Shohidu-l-iqbol. – Toshkent “Muharrir”, 2009.
7. Xolliyeva G. Badiiy san’atlar. – Urganch, 2002.

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE’RIYATIDA SHEVAGA XOS SO’ZLAR

(Dilaect words in the poetry of Matnazar Abdulhakim)

DIALECT WORDS IN THE POETRY OF MATNAZAR ABDULHAKIM

(Dilaect words in the poetry of Matnazar Abdulhakim)

Baratova Sarvinoz Sherbek qizi
ToshDO‘TAU talabasi
Sherbekovna104@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shoir Matnazar Abdulhakim she’riyatida qo‘llangan leksik dialektizmlar – Xorazm shevasiga xos so‘zlar va ularning vazifasi tahlil qilingan, she’rlarda estetik jozibadorlik kasb etishi e’tiborga olingan.*

Kalit so’zlar: *Xorazm shevasi, dialektizm, leksik dialektizm, estetik funksiya.*

Abstract. *In this article, the lexical dialectics used in the poetry of the poet Matnazar Abdulhakim – words specific to the Khorezm dialect and their fumctions are analyzed and it is noted that they acquire aesthetic appeal in the poems.*

Key words: *Khorezm dialect, dialectism, lexical dialectism, aesthetic function.*

Milliy tilning turli dialekt va shevalariga xos bo’lgan so‘zlar faqat tilshunos va dialektolog olimlar uchun ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘lib qolmay, balki muhim badiiy-tasviriy vosita sifatida so‘z san‘atkorlari bo‘lgan shoir va yozuvchilarning ham diqqatini tortadi. Yozuvchi va shoirlar ijodida shevaga xos so‘zlarni qo‘llash orqali o’z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan muhitdan ayirmagan holda ishonarli va jonli ifodalaydilar. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirish bilan birga badiiy nutqda muayyan estetik funksiya bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmati ularning badiiy nutqdagi me’yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liq.[1]

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik dialektizmlar, leksik dialektizmlar, grammatik dialektizmlar va sintaktik-stilistik dialektizmlar sifatida tasnif

[1] Ma’rufjon Yo’ldoshev “Badiiy matnning lisoniy tahlili” Tosh.:2008.

qilinganligini kuzatish mumkin.[1] Bugungi kunda o‘z tili, uslubi va ovoziga ega bo‘lgan ijodkorlardan sanalgan Matnazar Abdulhakim she’rlarida, asosan, Xorazm shevasiga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlar obrazlilikni ta’minlab, badiiy asarning jozibadorligi va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Ushbu maqolada Matnazar Abdulhakim she’rlarida qo‘llangan leksik dialektizmlarni tahlilga tortamiz.

Shoir ijodida ko‘plab Xorazm shevasiga oid so‘zlar uchraydi. Ular she’rga o‘zgacha estetiklik baxsh etish bilan birga, o‘quvchi lisonini boyitadi. Masalan, “Ellikqal’a haqida qo‘shiq” she’riga e’tibor qarataylik:

Boshi osmon, agarchi u yerlik qal’a,
Ming-ming yoshda har otiz, har chellik qal’a,
Sertakalluf, mehmondo’st, “kel-kel”lik qal’a,
Temirbilak hamda po‘lat bellikqal’a –Ellikqal’a.

Arnolarin chuquri bor, sayozi bor,
Shoirlarin go‘zal-go‘zal bayozi bor,
Ayollarin qizil guldek hayosi bor,
Sovuq urmas rahmdil bir Ayozi bor,
Nigohlari moziyga ko‘p serlik qal’a –Ellikqal’a.[2]

She’rda qo‘llangan *otiz* – dala, *chel* – marza, bo‘g‘at [3], *arno* – kanal so‘zlari Xorazm shevasi namunasi bo‘lib, misralardagi qofiya talablariga javob beradi, shu bilan Xorazm diyorining qadimiy shahri ta’rifiga jonli ruh baxsh etadi.

“Qo‘ng‘iroq” she’rida ham sheva so‘zlarini uchratamiz:

Yillar sahrosida qolmadik tentib,
Shogirdlar azamat, misli narvonlar.
Arzir Taganrogga yo‘l olsa endi,
Ezgulik ortilgan qator karvonlar.[4]

Shoir she’rda o‘tgan umrini yodga olar ekan, shogirdlari ham borligini eslab, ularni *narvonlarga* – shevada, qayrog’ochning bir turi(aravaga ishlatiladigan turi, tik o‘sadi, g‘oyat mustahkam, chidamli bo‘ladi)[5] o‘xshatmoqda.

Matnazar Abdulhakimning Abdulla Ahmad g‘azaliga bog‘lagan muxammasida ham xorazm shevasiga oid dialektizmlarni uchratish mumkin:

Dil o‘zi mashhur yurakda, ne uchun aytmoq “adan!”
Ona yurt koshona, to‘r har parchasi “yo‘qdir adan”,
Baxt kelar mehnat bilan, kelmas also daf’atan,
Dovrug‘i doston bo‘lib gullarga burkandi vatan,
Keng quloch yozdik fazoga shavkat-u shonlar bilan.[6]

Birinchi va ikkinchi misralarda qo‘llangan *adan* – xorazm shevasida poygoh, ostona ma’nosida qo‘llanadi. Bu so‘z band misralarida qofiya talablariga javob berish bilan birgalikda o‘zgacha estetiklik ham kasb etadi.

Shoirning “Sonetlar chambari” turkumidagi 11-sonetiga e’tibor qaratamiz:

Mahzun un chekadi nay yoralari,
Jarohatdan zada qalbni yongsilab.
Hajringda dilimning sadporalari,
Otib kelayotir asta tong silab.[7]

Yongsilamoq – taqlid qilmoq ma’nosini anglatib, shoirning zada qalbiga hamohang yangrayotgan nayga nisbatan qo’llangan.

---

[1] Samixon Ashirboyev “O’zbek dialektologiyasi”. – Tosh.: Nodirabegim, 2021.
[2] “Ko’prik” Matnazar Abdulhakim, “Yangi asr avlodi” Tosh.:2009, 7-bet.
[3] “O’zbek tilining xorazm shevalari”Fattoh Abdullayev O’zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, Tosh.:1961, 97-bet
[4] “Ko’prik” Matnazar Abdulhakim, “Yangi asr avlodi” Tosh.:2009, 26-bet.
[5] “O’zbek tilining xorazm shevalari” Fattoh Abdullayev O’zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, Tosh.:1961, 69-bet.
[6] “Ko’prik” Matnazar Abdulhakim, “Yangi asr avlodi” Tosh.:2009, 28-bet.
[7] “Ko’prik” Matnazar Abdulhakim, “Yangi asr avlodi” Tosh.:2009, 63-bet.

“Tavallud” turkumi she’rlaridan VIII rivoyatda ham dialektizmlarni uchratamiz:

Mening kasbim mehr, korim muhabbat.
O‘zim asragayman. Suvlarni sayr et,
Doim qo‘lla shunday xor, aftodani.
Xalqdan bir k ‘z tashlash bilan qil ayrit.[1]

Ayrit qilmoq – ajratmoq, saragini sarakka, puchagini puchakka ayirmoq.

“Yo‘lovchi qiz” da o‘ziga xos sheva so‘zlari uchraydi:

Duxobaga do‘nmas sen yurgan yo‘llar,
Daraxtlar qoladi izingdan ketmay.
Guldek qizarsang ham sovqotib gular
Ko’milib yotadi uyalmay netmay.[2]

Do‘nmoq – adabiy tilda aylanmoq, o‘zgarmoq so‘zlarining Xorazm shevasidagi shakli bo‘lib, mumtoz adabiyotda ham qo‘llanadi. Bu so‘z shoir she’rlarida ko‘p uchraydi.

Mayli. Har qadaming men uchun faxr,
Sira elashtirib bilmayman sani.
Tushunaman, sevish og‘ir…ko‘p og‘ir
Hamma odamni va hamma narsani.[3]

“Elashtirmoq” – yozg’irmoq, ayb izlamoq(Gurlan shevasi)[4]

Quyidagi “Ta’birsiz tush” she’rida ham Xorazm shevasiga xos bo‘lgan *horimoq, o‘ngarib* kabi so’zlarni uchratish mumkin. *Horimoq* so’zi adabiy tilda charchamoq ma’nosini, *o‘ngarmoq* so‘zi minmoq ma’nosini anglatadi:

G‘alati tush ko‘rdim tunov kun,
Mizg‘irkanman peshinda horib.
Kattakon bir laqqa baliqni
Borardim oq otga o‘ngarib…[5]

Xulosa qilib aytganda, Xorazm diyorining otashqalb shoiri Matnazar Abdulhakim she’riyatida tabiiy til sehri yaqqol seziladi, ijodida sheva elementlaridan foydalanish orqali tasvirni aniq va jonli ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Fasllar qo‘shig’i” Matnazar Abdulhakim, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Tosh.:1986.
2. “Ko‘prik” Matnazar Abdulhakim, “Yangi asr avlodi” Tosh.:2009.
3. “Mangulik jamoli” Matnazar Abdulhakim. Xorazm Ma’mun akademiyasi nashriyoti. Xiva:2009.
4. “Tanlangan asarlar” Matnazar Abdulhakim. 1-jild. G‘afur G‘ulom nashriyoti. Tosh.:2017.
5. Ma’rufjon Yo‘ldoshev “Badiiy matnning lisoniy tahlili” Tosh.:2008.
6. Samixon Ashirboyev “O‘zbek dialektologiyasi”. – Tosh.: Nodirabegim, 2021.
7. “O‘zbek tilining xorazm shevalari” Fattoh Abdullayev O‘zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, Tosh.:1961.

O‘ZBEK MIFOLOGIYASIDA ALVASTI OBRAZINING GENEZISI

GENESIS OF THE IMAGE OF ALVASTI IN UZBEK MYTHOLOGY

Axmedova Aynura Quanishbay qizi

[1] “Ko’prik” Matnazar Abdulhakim, “Yangi asr avlodi” Tosh.:2009, 90-bet.
[2] “Fasllar qo’shig’i” Matnazar Abdulhakim, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, Tosh.:1986, 54-bet.
[3] “Fasllar qo’shig’i” Matnazar Abdulhakim, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, Tosh.:1986, 55-bet
[4] “O’zbek tilining xorazm shevalari” Fattoh Abdullayev O’zbekiston SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, Tosh.:1961, 41-bet.
[5]“Fasllar qo’shig’i” Matnazar Abdulhakim. –T.: G’ofur G’ulom,1986. –B. 47.

ToshDO‘TAU talabasi
aynuraaxmedova203@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mifologik obrazlar, xususan, Alvasti obrazining mohiyati, vazifasi, genezisi qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvurlari, e’tiqodiy qarashlari, diniy-mifologik dunyoqarashlari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan, ma’lumotlar qiyoslangan.*
Kalit so‘zlar: *mifologik obraz, Alvasti, Umay, Sari ena, Qorabosti, Diana ma’budi.*

Abstract. *In this article the essence, function and genesis of mythological images, in particular, the image of Alvasti are analyzed in connection with the primitive imaginations, religious views and religious-mythological worldviews of our ancient amcestors and the information is compared.*
Key words: *mythological image, Alvasti, Umay, Sari ena, Karabosti, goddess of Diana.*

Mifologik obrazlar mifologik dunyoqarash hosilasi bo‘lib, ular ibtidoiy insonning mental faoliyati jarayonida uning qiziqishi va bilish ehtiyoji natijasida o‘zi uchun mavhum bo‘lgan hodisalar (masalan, tabiat voqeliklari, turli kasalliklar)ni idrok etishi, tushunishi va umumlashtirishi orqali yuzaga kelgan.[Jo‘rayev 2019: 432]

Qadimgi ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvur-tushunchalari, e’tiqodiy qarashlari, diniy-mifologik dunyoqarashi zamirida kelib chiqqan hamda o‘zida mifik inonchlar mohiyatini ifoda etgan an’anaviy personaj yoki obraz “mifologik personaj” yoki “mifologik obraz” deb yuritiladi. O‘zbek mifologiyasining yetakchi obrazlari mifologik afsona, rivoyatlarda hamda aksariyat qismi folklor namunalari tarkibida badiiy talqinlarda yashab kelmoqda. Masalan, dev, pari, alvasti, Xizr, Olanqasar, Doroko‘z, Asqartog‘, g‘oz, o‘rdak kabi.[Turdimov 2023: 36]

Alvasti (Albasti) xalq tasavvurida odamlar bilan birga doimo yonma-yon yashagan, yashayotgan va yashaydigan mavjudot bizning uch o‘lchamli dunyomizga yondosh boshqa o‘lchamdagi “jin-u ruhlar” dunyosining vakili, deb tasavvur qilinadi. Alvastining tashqi qiyofasi naqllarda bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki xilda tasvirlanadi: a) uzun sariq (oltin rangli) sochlari butun gavdasini yopgan, ko‘zlari yoniq, kiyimsiz ayol / qiz; b) tishlari og‘zidan chiqqan to‘zg‘igan sochlari yalang‘och gavdasini yopgan, ikki uzun siynasini yelkasidan oshirib orqaga tashlagan ayol.[Turdimov 2023:38]

Alvastiga berilgan ta’riflardan ushbu obrazning salbiy va ijobiy ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan deyishimiz mumkin. Sh.Turdimov Alvasti obrazining asoslarini yoritishda muhim o‘rin egallovchi quyidagi inonchlarini ham sanab o‘tadi: a) Alvastining orqa bel tomoni eski yog‘och tog‘oraga o‘xshashligi; b) Alvasti qonining qancha oqsa ham tugamasligi; v) Alvastining tulporlar yolini kechalari kelib o‘rib ketishi, boylog‘dagi otlarni minib, chopib xoritishi (39). Olim shu xususiyatlarini sanay turib, Alvastini rimliklarning mo‘l hosil va baraka timsoli Dianaga qiyoslaydi: *“Alvasti mohiyatan rimliklarning hosildorlik va barcha o‘simlik-u jonzotlarga homiylik qiluvchi ma’budasi Dianaga to‘g‘ri keladi. Xususan, Diananing ulkan eman daraxti timsolida tasavvur qilinishi, uni ayollarning ko‘zi yorishini yengillatadi, deb anglanishi, ayni paytda uning “yog‘och Diana” deyilishi, Alvastining yetakchi belgi xususiyatlariga mos keladi. Ya’ni Alvastini yong‘oq daraxti bilan bog‘lash, uning belini yog‘och tog‘oraga o‘xshaydi, deb tasavvur etish, uning otlar yolini o‘rib chiqadi, deb bilish shular jumlasiga kiradi. Demak, qadimda Alvasti hosildorlik, oila, uy o‘chog‘i, o‘rmon va daryolar, uy hayvonlari, umuman, tug‘ilish tabiatning tug‘ilishi – ko‘klam (yoz) homiysi, ma’budasi bo‘lib, Qorabosti esa uning aksi sifatida Alvastiga qarshi ish yuritadi, deb qaralgan”*.[Turdimov 2023:41]

Alvasti so‘zining tuzilishiga qaraydigan bo‘lsak, *“al”* – qizil, qizg‘ish, to‘q sariq, alvon ma’nosiga ega; *“basti”* esa – bosli / boshli, “qizil, qizg‘ish boshlik” demakdir. Chunki *ol boshliq* (sariq bosh, sariq sochlilik) Alvastining yetakchi xususiyatidir. Bu o‘rinda boshning “iloh” ma’nosi borligini ham unutmaslik kerak (40). Demak, Alvasti Sariq ma’buda, iloh degan ma’noni ham beradi. Darhaqiqat, Alvasti ayrim viloyat va shevalarda *Soriqiz, Soriqqiz, Sariqqiz* deb ham yuritilishi ma’lum. Xalq tomonidan bosli-boshlining *bosti / bosmoq* deb talqin etilishi, so‘nggi

davrlarga kelib Alvasti obrazining o‘ziga qarama-qarshi bo‘lgan sherigi – Qorabosti xususiyatlarini ham to‘laligicha o‘zlashtirishi tasavvurlar unutilishi natijasidir, bu ikki mustaqil obrazning qo‘shilishidir. Aslida, Al bos(sh)li Qora (bosh)liga zid vazifa bajargan. Qora bos(sh)li yovuz kuchlar tomonida turgan. Xalq o‘rtasida biror ayol farzand ko‘rib xalok bo‘lsa, uni “qora bosibdi” deyishadi.[Turdimov 2023:40]

Biz yuqorida Alvasti obrazining tashqi ko‘rinishini tasvir etishda ikkinchi (b) guruhga ajratgan xususiyatlar: tishi og‘zidan chiqib, uzun siynasi yelkasidan oshib turuvchi qo‘rqinchli ayol aynan Qorabostining tasviridir (qadimda Qorabostining sochi ham qora bo‘lgan bo‘lishi kerak). Chillalik kelin-kuyov, chaqaloqlarga, aslida, Alvasti emas, Qorabosti xavf solgan.

Alvastining Qorabostiga teskari xususiyatlaridan kelib chiqsak, bu obraz Umay ona obraziga ham yaqinligini payqashimiz mumkin. Xususan, Umay obrazi qadimgi davrda Ko‘k Tangrining umr yo‘ldoshi, oilaga baraka beruvchi va bolalarni yovuz ruhlardan asrovchi personaj, deb tasavvur qilingan. Bu haqda “Devonu lug‘otit turk” asarida ham aytib o‘tilgan: *“Umayqa topinsa, o‘g‘il bo‘lur, degan masal bor. Ma’nosi: o‘shanga xizmat qilgan o‘g‘il ko‘radi. Xotinlar shunga e’tiqod qilishadi.*[Mahmud Qoshg‘ariy 2016:144] Shuningdek, L.P.Potapov 1930-yilda Xorazmda olib borgan ekspeditsiya ma’lumotlarida ayol jinsidan bo‘lgan albasti (alvasti) va sari ene (sariq ena) haqida ma’lumot beradi. Uningcha, albasti jinlar, sari ena farishtalar turkumiga mansubligini aniqlaydi. Sari ena o‘zining uzun sochlari bilan homilador ayollarni alvastilardan asraydi, deb ishonganlar. Tunlari bunday ayollar yolg‘iz yurishmagan. L.P.Potapov o‘zbeklardagi bu obrazni qadimgi turkiy bitiktoshlardagi Umay bilan qiyoslaydi.[Потапов 1973:286] Bundagi Sari ena aslida Alvastidir. Keyinchalik, Alvasti salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan va u Xorazmdagi Sari ena obraziga to‘la mos keladi. Tahlillarga qaraydigan bo‘lsak, Alvasti, Umay ona, Sari ena vazifalari bir-biriga o‘xshash, deyarli bir xil. Xalqimiz bu obrazlarga homilador ayollar, yosh bolalar homiysi, ularni balo-qazolardan asrovchi ma’buda deb, ishonishgan, sig‘inishgan.

Bugungi kunga kelib Alvasti butun xususiyatlari bilan xayolimizda faqatgina salbiy assotsiatsiyalarni paydo qiladi. Jumladan, olim M.Jo‘rayev ham ushbu obrazni quyidagicha ta’riflagan edi: “Alvasti – juda oriq-novcha, beso‘naqay, badanini jun qoplagan, qorachadan kelgan, uzun to‘zg‘igan sochlari yelkalari osha yoyilgan, tirnoqlari o‘sgan, qo‘llari va ko‘kraklari ham juda uzun, osilgan bir ko‘kragini yelkasi osha orqasiga tashlab olgan, bir yelkasiga xurjun ilgan, juda iflos, kiyimlari yirtiq, tasqara maymunsiman qiyofadagi yovuz kampir”.[Jo‘rayev 2019:443]

Xulosa qilib aytganda, mifologik obrazlarda va ularning vazifalarida zamonlar, davrlar o‘tishi bilan o‘zgarish yuz beradi. Ijobiy obrazlar salbiy vazifalarga, salbiy obrazlar esa ijobiy vazifalarga, xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Xususan, avval ijobiy mifologik obraz bo‘lgan Alvasti obrazi o‘ziga Qorabosti obrazining salbiy xususiyatlarini olgani uchun keyingi folklor asarlarda salbiy, ayollar, bolalar, umuman, insonlarga yomonlik qiluvchi yovuz personaj sifatida gavdalangan. Bu esa har bir mifologik obrazning tadrijiy taraqqiyotini, genezisini sinchiklab o‘rganishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdimov Sh. O‘zbek mifologiyasi va folklori. – Toshkent: Ilm va fan, 2023.
2. Jo‘rayev M. O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Потапов.Л.П. Умай – божество древних тюрков в свете этнографичесних данных // Тюркологический сборник, 1972. Наука – М.: 1973.
4. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. III jild. – Toshkent: Mumtoz soz, 2016.
5. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2009.
6. Imomov Q. Yolmog‘iz-jodugar obrazi talqiniga doir // Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan o‘rni. – Toshkent: Fan, 1978.
7. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va tasavurlari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

ESKI O‘ZBEK ADABIY TILI VA O‘G‘UZ SHEVALARIDA KELISHIK SHAKLLARINING QO‘LLANISHIGA DOIR

ON THE USE OF CASE FORMS IN OLD UZBEK LITERARY LANGUAGE AND OGUZ DIALECTS

Rahimquliva Ohista Annaqul qizi
ToshDO‘TAU talabasi
ohistarahimqulova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada eski o‘zbek adabiy tilida va o‘g‘uz shevalarida ishlatilgan va hozirgi kunda ham o‘g‘uz lahjasi vakillari tomonidan ishlatilib kelinayotgan kelishiklar muqoyasa qilindi.*
Kalit so‘zlar: *eski o‘zbek adabiy tili, o‘g‘uz lahjasi, kelishik, qaratqich, tushum, jo‘nalish, chiqish.*

Abstract. *This article compares the cases used in the old Uzbek literary language and Oghuz dialects, and which are still used today by representatives of the Oghuz dialect.*
Key words: *the old Uzbek literary language, Oghuz dialect, case, genitive, accusative, dative, ablative.*

O‘zbek tili tarixini davrlashtirishda turlicha qarashlar mavjud. S.E.Malov, A.N.Samoylovich, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, O.Usmonov, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Sodiqov, B.Abdushukurov kabi olimlar o‘zbek tili tarixini davrlashtirish yuzasidan o‘z qarashlarini bayon etishgan. Biz ishda B.Abdushukurovning davrlashtirishiga tayangan holda ish ko‘ramiz. Olim eski o‘zbek adabiy tilini XIV asrning ikkinchi yarmi XX asrning 30-yillarigacha amal qilganini qayd qiladi [Abdushukurov 2021: 185].

Ushbu davr tilida ko‘plab mumtoz asarlar yaratildi. Lutfiy, Alisher Navoiy, Sakkokiy, Bobur, Durbek, Ogahiy kabi klassik adiblar eski o‘zbek adabiy tili takomilida katta xizmat qildilar. Ular yaratgan yozma yodgorliklarda dialektal farqlar yo‘qola borib, yagona o‘zbek adabiy tili shakllandi. Shunisi xarakterliki, Navoiygacha bo‘lgan shoirlarning asarlarida eski til an’analari davom ettirilishi bilan birga, ularda jonli til xususiyatlari ko‘proq o‘rin egalladi.

Eski o‘zbek adabiy tilida hozirgi o‘zbek tilidagidek 6 ta kelishik shakllari: bosh kelishik, qaratqich (-nïŋ / -niŋ / -nuŋ / -nüŋ, -ïŋ / -iŋ / -uŋ), tushum (-nï / -ni / -n, -ï / -i), jo‘nalish (-qa / -γa / -kä / -gä, -a / -ä, -na / -nä), o‘rin-payt (-da / -dä / -ta / -tä), chiqish kelishiklari (-dïn / -din / -tïn / -tin) mavjud bo‘lgan. Turkiy tillar tarqqiyotining qadimgi davrlari uchun xarakterli bo‘lgan vosita kelishigi shakli XIII-XIV asrlarga oid yozma yodgorliklar tilida ham ma’lum darajada qo‘llangan. XV asr va undan keyingi davrlarda vosita kelishigining qo‘llanishi ancha chegaralangan. Grammatik xususiyatini yo‘qotgan va kelishik kategoriyasi sifatida iste’moldan chiqqan. Shu davrdan boshlab vosita kelishigi shaklida qo‘llangan so‘zlar ravish kategoriyasiga o‘tgan yoki o‘tish jarayonida bo‘lib, payt, holat ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan [Abdushukurov 2021: 185].

Āh urub,farjād etar-men senisizin (Lutfiy).

Bolsa jannatda Atāji sensizin, qilγaj fiγān (Atoiy).

Ma’lumki, turkiy tilning dastlabki taraqqiyot davrida 7 ta kelishik shakli bo‘lgan, hozirgi o‘zbek adabiy tili 6ta kelishik shakliga asoslanadi [Ashirboyev 2021: 50]. Adabiy tildan farqli o‘laroq, o‘zbek shevalarida kelishiklarning qo‘llanilishida farqli xususiyatlar bor. Masalan, qarluq va ayrim o‘g‘uz shevalarida kelishiklar soni 5ta bo‘lib, qaratqich bilan tushum kelishigi bir xil *(-ни)* ko‘rsatkichga ega, shuningdek, Qarshi, Shahrisabz, Yuqori Qashqadaryo (oraliq) kabi shevalarda kelishiklar soni 4tagacha kamayadi: bosh, qaratqich-tushum, jo‘nalish-o‘rin-payt, chiqish kelishiklari [Ўзбек халқ шевалари морфологияси 1984: 35].

O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, F.Abdullayev, O.Madrahimov, Y.Jumanazarov, E.O‘rozov, Z.Xidraliyeva va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. F.Abdullayev o‘zining “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi” monografiyasida bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki hudud Janubiy Xorazm va Shimoliy o‘zbek o‘g‘uz shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beradi [Абдуллаев 1978]. Keyingi adabiyotlarda o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi vakillari Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako‘l tumanlarida, Samarqand viloyatining ayrim qishloqlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog‘istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent aholi punktlarida istiqomat qilishi qayd qilinmoqda [Ashirboyev 2021: 90].

Ishda Xorazm va shimoliy o‘zbek o‘g‘uz shevalarining kelishiklar tizimi eski o‘zbek adabiy tili davridagi manbalar, asosan, Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur asarlariga muqoyasa qilinadi.

Xorazm o‘g‘uz shevalarida aksar hududlarda 5ta kelishik qo‘llaniladi (Urganch, Xiva, Bog‘ot, Shovot, Qo‘shko‘pir, To‘rtko‘l, Toshhovuz): bosh, qaratqich-tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari. Hazorasp-Yangiariq tip shevalarida va shimoliy o‘zbek o‘g‘uz shevalarida (Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent) esa, kelishiklarning soni 6tadir: bosh, qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari.

Ushbu kelishiklarni endi yozma adabiyotda va o‘g‘uz lahjasida kelish o‘rinlari haqida to‘xtalib o‘tsak:

Dastlab Navoiy nazmdagi kelishiklarning qo‘llanish o‘rni xususida:

Bir gül γamïdïn dedim qojaj bayrïma dāγ,
Bergäjmu debān atrï dïmāγïmγa farāγ,
Bärgin ču mulavvas äjlädi bum ilä zāγ,
Emdi āni islämāqqajuz häjf dïmāγ

Yuqoridagi ruboiyda biz kelishiklarning quyidagi ko‘rinishlarini uchratishimiz mumkin:

γamïdïn – g‘amidan chiqish kelishigining orqa qator *-dïn* shaklini, Shimoliy o‘zbek o‘g‘uz shevalarida chhiqish kelishigining *-din / -dïn* yolg‘iz Mankent shevasida shu bilan bir qatorda *-dan / -dän* shakllari ham tez-tez uchrab turadi.

Bärgin – bargini tushum kelishigining qisqargan shaklini, Qarnoq va Iqon qishloqlarida egalik bilan qo‘llangan ot tushum kelishigida ko‘p vaqt qisqargan shaklda qo‘llanadi: *atïn minib kädi* kabi.

Bayrïma – bag‘rimga jo‘nalish kelishigining *-a* shakli va *dïmāγïmγa* so‘zida esa, *-γa* shaklida, o‘g‘uz shevalarida ham undosh bilan tugagan so‘zlardan so‘ng *-a / -ä*, Iqon-Qorabuloq shevalarida undosh bilan tugagan so‘zlarga -γa / -gä qo‘shimchalari qo‘shiladi.

γurbatqa tušub zaifu bemār oldïm,
Därdü γamu mehnät iligidä zār oldïm,
Sarāsar ajal tāšïdïn afgār oldïm,
Sensiz ne balālarγa giriftār oldïm.

Ushbu ruboiyda esa:

γurbatqa – g‘urbatga jo‘nalish kelishigining *-qa* shakli va yuqoridagi kabi *-γa* shakli g‘azallarda ham uchraydi:

Jigitlik bārïbān, keldi bašïma qarïlïγ,
Fanā jolïda bu jaŋlïγ emiš bāriš-u keliš.

bašïma – boshimga jo‘nalish kelishigining *-a* shakli yuqoridagi misollar kabi, o‘g‘uz shevalarida undoshdan so‘ng *-a\\-ä* unlidan so‘ng *-gä / -jä / -γa* uchinchi shaxs egalik olgan otlarga *-na / -nä* shaklidagi affikslar qo‘shiladi.

Lutfiy sheriyati qo‘llanilgan kelishiklar:

Janïm čïqadur därd ilä, jananïma äjtïŋ,
Men xasta gädā hālïnï sultānïma äjtiŋ.

Lutfiy ijodida ham yuqoridagi kelishiklarning yuqoridagi kabi qo‘llanishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Meni häddim emäski,istäsä väsl,
“Köz üči birlä bāq gāh-gāh”- dermän

Jamāliŋ Lütfi sözin qïldï räŋin
Seniŋ husnuŋa "šajanlillāh" dermän.

Meni – tushum kelishigi,

Köz üči – "ko'zining uchi (qiri) bilan qara" misrasida esa qaratqich kelishigining belgisiz shakli qo'llanmoqda. Biz buni oldindagi egalik qo'shimchasi orqali bilib olishimiz mumkin.

Sözin – so'zini tushum kelishigining belgisiz shakli, yoki

Jïγlatmāqtïn közdä nurïm qalmadï

Jïγlatmaqtïn - yig'latmoqdan chiqish kelishigining orqa qator *-tïn* shakli, Janubiy Qozog'istondagi o'g'uz shevalarida chiqish kelishigining qadimgi formasi saqlangan. Mankentda esa epizodik tarzida bo'lsa ham bu affiksning *-dan / -dän, -tan / -tän* shakllari qayd qilingan.

Bobur asarlarida ham davrning kelishik affikslari o'ziga xos ravishda o'rin egallagan. *Köŋlimgä därd kelgäli* – jo'nalish kelishigining old qator *-gä* ko'rinishi qo'llangan.

Xoǯanddïn Samarqand häm jigirmä beš jïγač joldur, qadïm šähärlärdindur.

Xoǯandïn chiqish kelishigining orqa qator *-dïn* variant.

Sabā, ul gül harïmïγa güzär qïl,
Meniŋ hālïmdïn ul güläg xabar qïl.

Harïmïγa – harimig'a jo'nalish kelishigining *-γa* shakli

Hālimdan – holimdin chiqish kelishigining *-din* shakli

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili tarixidagi, shu jumladan, eski o'zbek adabiy tili davridagi ba'zi kelishik affikslari adabiy tildan farqli ravishda o'zbek tilining o'g'uz lahjasida saqlangan. Qaratqich, tushum, jo'nalish, chiqish kelishiklari shakllari shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
4. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984.
5. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978.
6. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
7. Zahriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 2015.

XX ASR II YARMI MUXAMMASLARIDA AN'ANA, VORISLIK VA IZDOSHLIK MASALASI

THE ISSUE OF TRADITION, SUCCESSION AND FRIENDSHIP IN MUHAMMADS OF THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY

Jo'rayeva Mahliyo Dusmurod qizi

ToshDO'TAU tayanch doktorant
mjurayeva093@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-6255-3008

Annotation. This article examines the issues of tradition, succession, and succession using the example of the mukhammas of the second half of the 20th century. Excerpts from the mukhammas of such authors as Habibiy, Chustiy, Charkhiy, and Erkin Vohidov to the ghazals of such master poets as Yassaviy, Fuzuliy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Mukimiy, Furqat, and Makhmour are presented. Through these mukhammas, the issues of tradition, succession, and succession are comprehensively covered in the poetry of the second half of the last century. The mukhammas of

Charkhiy and Kamil Jo'ra to the ghazal of Surmaniso, and the mukhamma of Boqiy to the ghazal of Habibiy reveal the issue of literary influence among contemporary poets.

Key words: ghazal, mukhammas, literary influence, verse, tradition, succession, succession.

An’ana, vorislik va izdoshlik masalalari XX asr II yarmi shoirlari ijodida uchrovchi bir qancha janrlar qatori muxammaslarda ham ko‘zga tashlanadi. Bilamizki, muxammas yaratish shoirdan yuksak mahorat talab etadi. Muxammas bog’lanayotgan g’azaldagi uslubni, vaznni, mavzuni, kerak bo’lsa, qofiya va radifni saqlagan holda o’sha g’azal darajasida badiiy asar yaratish oson emas. Yigirmanchi yuzyilning ikkinchi yarmida ijod qilgan ba’zi g’azalnavis shoirlar ko’plab salaflar g’azallariga bog’lagan muxammaslari orqali bu vazifani bajara olishlarini isbotladilar. Chustiyning Yassaviy va Navoiy g‘azaliga muxammaslari; Charxiyning Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Muqimiy g‘azallariga muxammaslari, Charxiyning Maxmur va Muqimiy g‘azaliga javob tariqasida yozilgan “Bugungi Hapalak” muxammasi; Habibiyning Fuzuliy, Navoiy va Furqat g‘azallariga muxammaslari, yoki Erkin Vohidovning Fuzuliy va Navoiy g‘azallariga muxammaslari shular jumlasidandir.

Xususan, Chustiyning Navoiy g‘azaliga muxammasi shoir iste’dodidan darak beradi. Adibning g‘azal mulkining sultoni Navoiy izidan borib, unga ergashib, uning g‘azaliga bog‘lagan muxammasi mahorat bilan yozilgan bo‘lib, buni muxammas misralarining bir-biriga shakl va mazmun jihatdan g‘oyat uyg‘un ekanidan ham bilsa bo‘ladi:

(Chustiy) *Quyosh yuzluk meni o‘z tal’atiga intizor etmish,*
Dilimni dardu hijron iztirobi beqaror etmish,
Nazar tashlab raqib qalbin misoli navbahor etmish,
(Navoiy) *Meni sargashta jismim dog‘ ila qon lolazor etmish,*
Quyun yohud to‘kilgan lolazor ichra gulzor etmish.

Muxammasni tashkil etuvchi g‘azalga kiritilgan avvalgi uch misra g‘azal mavzusining debochasi, go‘yo muxammas bog‘lanayotgan g‘azal dastlabki uch misraning izchil davomi kabi namoyon bo‘ladi:

Emas qushlar navosi benavo nolonlari go‘yo,
Cho‘zilgan tog‘u qirlar gavdasi qurbonlari go‘yo,
Ko‘zi o‘q yog‘dirarmu sanchilib mujgonlari go‘yo,
Tanimdan qon chiqorg‘on har taraf paykonlari go‘yo,
*Erur yomg‘urki, tuprog‘din chechaklar oshkor etmish[*Чустий, 1992;260*]*.

G‘azalning *hazaji musammani solim*da yozilgani o‘z-o‘zidan muxammasning ham shu vaznda bo‘lishini taqozo etadi. Navoiyning mazkur hasbu hol g’azali muxammasdagi dastlabki uch misra orqali ishqiy mavzuni o’zida mujassam etadi. Muxammas bog’langan g’azal o’n baytli bo’lib, g’azaldagi oltinchi, sakkizinchi va to’qqizinchi baytlar tushurib qoldirilgan, natijada yetti bandli muxammas hosil bo’lgan. Muxammasda tashbih, tashxis, tanosub, tajohilu orif, istiora, sifatlash, mubolag’a va yana boshqa ko’plab she’riy san’atlardan foydalanilgan.

Shoir Habibiyning ham Navoiy g‘azaliga muxammasi mavjud bo’lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

(Habibiy) *Vaslidin qildim umid andishayi xomim bila.*
Kelmadi bir yo‘l kutib taklifu e’lomim bila,
Qayda bo‘lsin shodlig‘ bu qora ayyomim bila,
(Navoiy) *Bir qadah may ichmadim sarvi gulandomim bila.*
Bir nafas uyrilmadi[][1] *davron mening komim bila*[Ҳабибий, 1975; 390].

G‘azal ham, u asosida yaratilgan muxammas ham ramali musammani mahzufda yozilgan. Ushbu muxammas bog‘langan g‘azal Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” devonining “Badoye ul-vasat” qismidagi 566-g‘azal bo‘lib, undagi “may”, “bud”, “kufr” obrazlari g‘azalning tasavvufiy mazmun

[1] G‘azalda “evrilmadi”. Qarang: Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Бадое ул-васат. – Б. 298.

kasb etgan orifona g‘azallar sirasiga kirishidan dalolat beradi. G’azal mavzusi muxammasda ham davom ettirilgan. Jumladan bir bandni ko’zdan kechiramiz:

Bodayi no’sh etmasan o’z ilgidin to bir ayyog’,
Zohid ahlin talx ta’nidin qolib ko’ksida dog’,
Og’darilg’ay boshim uzra bu malomat birla tog’,
Ko’nglim ichra bud g’ami kufr ichra o’lsam yaxshiroq,
Ahlidin ollig’a borguncha bu islomim bila[Ҳабибий, 1975; 390].

XX asr ikkinchi yarmida bu kabi to’lig’icha islomga da’vat etuvchi orifona g’azallarga muxammas bog’lash hammaning ham qo’lidan kelavermagan va shoir Habibiy buning uddasidan chiqib, Navoiy darajasidagi she’riy asar yaratishga harakat qilgan.

O’tgan asr ikkinchi yarmi g’azalnavis ijodkorlardan yana biri Charxiy bo’lib, u Lutfiyning mashhur “Bu ko‘ngildur – bu ko‘ngul” g‘azaliga muxammas bog‘lab, o‘z iste’dodini ushbu muxammas orqali namoyon etgan:

(Charxiy) *Ishq da’vo qiladirgan, bu ko‘nguldir – bu ko‘ngul,*
Yana g‘avg‘o qiladirgan, bu ko‘nguldir – bu ko‘ngul,
Dard paydo qiladirgan, bu ko‘nguldir – bu ko‘ngul,
(Lutfiy) *Meni shaydo qiladirgan, bu ko‘nguldir – bu ko‘ngul,*
Xoru rasvo qiladirgan, bu ko‘nguldir – bu ko‘ngul[Чархий, 1972; 121].

G‘azal ham, u asosida bitilgan muxammas ham ramali musammani maxbuni mahzuf vaznida yozilgan (afoyili va chizmasi: foilotun, failotun, failotun, failun – V – – / V V – –/ V V – –/ V V –). Muxammasda Lutfiyning ishqiy g‘azali mavzusi izchil davom etgan. Radifning bir emas bir nechta so’zdan iborat bo’lishi zulradifaynlikni yuzaga chiqargan. G’azalning zulradifayn turi muxammasning dastlabki bandida ham ushbu hodisani saqlab qolishni taqozo etadi va shoir Charxiy buning uddasidan chiqib, g’azalni mukammal boshlanish bilan boshlab bera olgan. Lutfiyning mazkur g’azali yetti baytdan iborat bo’lib, muxammasda ikki, uch va oltinchi baytlar tushurib qoldirilgan va u to’rt banddan iborat. Shuningdek, g’azalning “*qiladurg’on bu ko‘nguldir – bu ko‘ngul*” so’zlaridan iborat radifi muxammasda “*qiladirgan, bu ko‘nguldir – bu ko‘ngul*” jumlalariga o’zgartirilgan. Muxammasda o’xshatish, sifatlash, jonlantirish asosiga qurilgan she’riy san’atlardan foydalanilgan.

Shuningdek, Sobir Abdulla g‘azaliga Habibiy va Charxiyning muxammaslari, Surmaniso g‘azaliga Charxiy va Komil Jo‘ra muxammasi[Чархий, 1972; 115], Charxiyning Uyg‘un g‘azaliga muxammasi[Чархий, 1972; 109] yoki Boqir, Sayfi, Boqiy kabi shoirlarning Habibiy g‘azaliga muxammaslari o‘tgan asr ikkinchi yarmi ijodkorlarining o‘zaro adabiy-ijodiy ta’siri haqida ma’lumot beradi.

Habibiy g‘azaliga Boqiy muxammasi:

Na yanglig‘ xush xabar topdim men mushtoqu hayroning –
Ki yozmush shodlik kilkini xatti anbarafshoning,
Bezalmish bo‘yla qutlug‘ yangi tug‘ro birla devoning,
Muborak ulfato zo‘r obro‘ying shonli unvoning,
Sharafli ham saodatli Alishering g‘azalxoning[Ҳабибий, 1975; 408].

Yoki Surmaniso g‘azaliga Charxiy bilan Komil jo‘ra muxammasi ham e’tiborga loyiq:

Tun qorong‘isidin o‘tgay shomi hijron kechasi,
Yor vaslin topmagan oshiqqa armon kechasi,
Partavi husningni tashlab lutfu ehson kechasi,
Bazmdin beparda chiq zinhor jonon kechasi,
*Orazingdin burqa och ey, mohitobon kechasi[*Чархий, 1972; 115].

Ramal bahrining musamman vaznida yozilgan ushbu muxammasda g‘azal mavzusining izchil davom ettirilganining guvohi bo‘lamiz. Yuqorida keltirilgan muxammaslar, ma’lum ma’noda, XX asr II yarmi shoirlarining mumtoz an’analar izidan borgani, izdoshlik hamda vorislik masalasini, shuningdek, adabiy ta’sirning shoirlar ijodidagi o‘rnini o‘zida namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
2. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
3. Муллахўжаева К.Т. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатларнинг уйғунлиги. // Филология фанлари номз. ...дисс. – Т., 2005.
4. Тўхлиев Б. Навоий ғазаллари. Bayoz. – Т.: 2014.
5. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: 2004.
6. Ҳабибий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.
7. Чархий. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
8. Чустий. Садоқат гуллари. – Т.: Внешторгиздат, 1992.

O‘ZBEK TILINING PAXTAXCHI TUMAN SHEVASIGA OID AYRIM SO‘ZLAR TAHLILI

ANALYSIS OF SOME WORDS RELATED TO THE DIALECT OF THE UZBEK LANGUAGE

Xasanova Bahoroy Olimjonovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya. *Maqola o‘zbek tilining Paxtachi tumani “Qora nayman” qishlog‘i shevasida keng qo‘llanilayotgan ayrim so‘zlar adabiy tildagi va mavjud shevalardagi so‘zlar bilan qiyoslanib taxlil qilingan hamda bu to‘g‘risida fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek dialektdagi leksik birlik ya‘ni so‘zlar “Devoni lug‘atit turk” va o‘zbek shevalariga qiyoslangan.So‘zlar tahlilida taqqoslash hamda qiyosiy-tarixiy kabi bir qator lingvestik usullardan keng foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar*: “Qora nayman” qishlog‘i shevasi, dialektalogiya, qipchoq lahjasi, leksik xususiyatlar.*

Abstract. *The article analyzes some words that are widely used in the dialect of the village “Qora Nayman” of the Pakhtachi district of the Uzbek language in comparison with the words in the literary language and existing dialects, and opinions and comments are made about it. Also, the lexicon in dialect units, that is, words are compared to “Devoni lug‘attit turk” and Uzbek dialects. In the analysis of words, a number of research methods, such as comparison and comparative-historical, are widely used.*

Key words: *"Kora Naiman" village dialect, dialectology, Kipchak dialect, lexical features.*

Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir.Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o‘z onasini ko‘rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: “Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas

maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin” [Mirziyoyev 2019]

1989-yil 21-oktyabr… Aynan shu kunda o‘zbek tilining haqiqiy jozibasini anglashni boshlashga imkoniyat berildi. O‘zbek millati uchun dunyoga tuynuk ochildi.

2020-yil 21-oktyabr… Roppa-rosa o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligiga 31 yil to‘ldi. Xo‘sh, mana shu davr mobaynida o‘zbek tilining haqiqiy jozibasi, uning go‘zalligini dunyoga tanitish uchun qanday ishlar amalga oshirildi?

Ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. O‘zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng barcha davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritila boshlandi, gazeta va jurnallarning o‘zbek tilida chop etilishi yo‘lga qo‘yildi. 1993-yil 2-sentyabrda “Lotin tiliga asoslangan o‘zbek alifbosini tuzish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingandan so‘ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o‘rin egallashiga yo‘l ochdi. Shu o‘rinda statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratsak: dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma’no va jozibadorligining yorqin dalilidir. Rossiyalik tilshunos olima, professor A. M. Kozlyanina “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deb bejiz ta’kidlamagan edi [Ametova 2020].

O‘zbek tili leksikasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘zbek tili shevalari va ularning leksikamizda boyishi hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. Chunki S.Ashirbayev ta’kidlaganidek, shevalar to‘xtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarni to‘xtovsiz nazariy jihatdan o‘rganishni taqazo etadi [Ashirboyev 2021: 8].

Shuningdek, shevalarni o‘rganish hamisha o‘z ahamiyatini yuqotmaydigan jiddiy masaladir. Tilimiz turkiy tillar ichida ko‘p lahjaliligi bilan ajralib turadi, hatto shevalarimiz ham bir biridan fonetik, morfologik va leksik jihatdan, shuningdek, so‘zlarning ma’noviy jihatidan ham bir biridan keskin farq qiladi. Paxtachi tumani “Qora nayman” qishlog‘i da hozirgi kunda amalda bo‘lgan qipchoq lahjasi ham shu qatorda desak yanglishmaymiz.

Samarqand viloyati sharqiy hududlari qipchoq shevasini etnogenitik(kelib chiqishiga) va lingvistik jihatdan o‘rganishda X.Donyorovning olib borgan tadqiqot va ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega. Olimning “O‘zbek xalqining shajara va shevalar”, “O‘zbek tilining j-lovchi dealektlarini adabiy til bilan qiyoslab o‘rganish”, “Qipchoq dialektining leksikasi”, “Eski O‘zbek tili va qipchoq dealektlari” kabi asarlarnini alohida ta’kidlashimiz lozim.

O‘zbek tili shevalarini o‘rganish faqatgina lingvistik jihatdan bo‘libgina qolmay bu uning etnogenitik kelib chiqishi, shakillanish tarixini ham o‘rganishdir. O‘zbek tilining qipchoq lahjasiga kiruvchi Paxtachi tuman shevasi ham shular jumlasidandir.Maxmud Koshg‘ariynin “Devoni lug‘attit turk "asarida ham bevosita tilshunoslikning ko‘plab sohalari, shuningdek, dialektalogiya haqida ham ko‘plab ma‘lumotlar aks etgan.

Paxtachi tuman shevasini o‘rganishda ba’zi so‘zlar fonetik o‘zgarishga uchraganligi ba’zilar esa fonitik jihatdan o‘zgarishga uchragan.

Misol uchun “Devoni lug‘attit turk” asarda **ziq** -so‘zi noaniq deb berib o‘tilgan ekan lekin Paxtachi tuman shevasini bu so‘z ziq bulmoq yani tang ahvolga tushish ichi tor felli ma‘nosida ishlatiladi.

Adaq so‘zini oladigan bo‘lsak bu oyoq ma‘nosida berilgan hozzirda bu so‘z ham ishlatiladi bunda ma‘no ko‘chishi ham bor desak mubolag‘a emas, ya’ni Paxtachi tuman shevasida boshdan odaq qarab chiqdi -Boshdan oyoq qarab chiqdi ma‘nosida hamda *odaq* leksimasi biror bir hovlining,bog‘ning kokida dala maydonining tugash qismi, to‘r qismi ma‘nosida ishlatiladi Misol:Bog‘ning odag‘ida beda ekilgan.

Og‘il leksimasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu so‘z “Devoni lug‘attit turk” asalida qo‘y xona dib aytib o‘tilgan ekan ammo Paxtachi tuman shevasida bu molxona dib yuritiladi,qo‘yxona esa aloxida Qo‘ton so‘zi ishlatiladi.

Utuk leksimasi bu so‘z asarda ich ketishi va qusush kasalligi dib qayd qilingan va quydagi misol bn yoritilgan: Utuq tutti -kasal bo‘ldi

“Qora nayman” qishlog‘i shevasida esa buning qisqargan shakli utmoq va ayni shakli istemolda bo‘lib faqatgina ich ketishi ma‘nosida qo‘laniladi.

Ilik bu so‘z ham “Devoni lug‘atit turk” asarida izohlangan unda bu so‘z yog‘ manosi qo‘llanilgan hammda buning boshqa Sheva vakillari nutqida Jillik shaklida ham mavjud deyilgan ,aynan Qoranayman qishlog‘ida Jillik ma‘nosida suyakning ichki g‘ovak qismidagi yog‘ga ishlatiladi.

Quyida Paxtachi tuman “Qora nayman” qishlog‘ida istemolda bo‘lgan ayrim so‘zlarni adabiy til bilan solishtirib ko‘ramiz:

Qoranayman qishloq shevasida:	Adabiy tilda	Izohi
Poycha	lozim	Ayollar kiyimi
Bo‘rboyli	etik	Qisda kiyiladigan oyoq kiyim
Jilov	paypoq	Oyoqning pastgi qismiga kiyiluvchi kiyim
To‘qim	egar	Chamandoz o‘tiradigan ot,eshak ustiga qo‘yiladigan narsa
Pidana	yalpiz	Bahorda ariq yoqalaridan chiqadigan yeyiladigan o‘simlik
Ushak	g‘iybat	Yolg‘on, tuxmat
Chipta	savat	Tut daraxti shoxlaridan to‘qilgan non yoyish uchun idish
Sebat	savat	Tut daraxti shoxlaridan to‘qilgan tovuq ko‘payganda ichida saqlash uchun buyum.
Chorpiya	Suri	
Nampar	Adabiy tilda muqobili yuq	Non yoki patir yopilyotganda gul berish uchun ishlatiladi
Barak	Chuchvara	
Qotti glam	Gilam	Hayvonlar yungidan to‘qilgan gilam
Attova	Obi dasta	
Qonar	Qop	
Tula	G‘or	Yerdan kovlab qilingan xona
G‘altak	Arava	Oyoq arava

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki shevalarimizdagi so‘zlar adabiy til bilan manoviy uzulishga uchragan bulsa ham ancha yilllar mobaynida shakillangan bo‘lsa ham ular hozirgi kunda ham viloyatlarimiz chekka qishloqlarida istemolda yana shuni takidlash lozimki, shevalarning haqiqiy jozibasi ham jonli tilimiz bo‘lgan shevalarimizda saqlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektalogiyasi. Toshkent 2021.

2. Abdushukurov B. “Devoni lug‘atit turk” va o‘zbek tili shevalari. O‘zbek shevalari tadqiqotlari:amaliyot,metadologiya va yangicha yondashuv mavzusidagi Respublika konferensiyasi materialari.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. Т.: Фан, 1960-1963.
4. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.
5. R.Suvonova. Qipchoq shevalariga xos so‘zlar lug‘ati. – Samarqand: 2019.

O‘ZBEK VA QOZOQ TILLARIDA KIYIM-KECHAKKA OID MAISHIY LEKSIKANING IFODALANISHI

EXSPRESSION OF HOUSEHOLD LEXICON RELATED TO CLOTHES IN UZBEK AND KAZAKH LANGUAGES

Usenbayeva Gulnura Kanat qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi
usenbayevag@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy xalqlar, jumladan o‘zbek va qozoq xalqlarining kiyim-kechakka oid leksemalari tarixiy-etimologik, semantik jihatdan xususiyatlari o‘zaro qiyoslanib tadqiq qilingan.*
Kalit so‘zlar: *turkiy tillar, o‘zbek tili, qozoq tili, maishiy leksika, kiyim-kechak leksemalari, libos, ro‘mol, кимешек, кәжекей, chakmon, yaktak.*

Abstract. *In this article, historical, etymological, and semantic features of clothing lexemes of the Turkish peoples, including the Uzbek and Kazakh peoples, have been compared.*
Key words: *Turkish languages, Uzbek language, Kazakh language, household lexicon, clothing lexemes, dress, scarf, kimeshek, kêjekey, chakmon, yaktak.*

Tillar taraqqiy etar ekan, uning rivojlanish omillari bevosita intralingvistik va eksralingvistik omillarga bog‘liq jarayondir. Bizga ma’lumki, bugungi kunda turkiy tillar guruhiga 30 ga yaqin tillar kiradi. Xususan, o‘zbek va qozoq tillari qardosh tillar hisoblanib, ikki til leksik qatlamida ichki va tashqi ta’sirlar natijasida leksemalar semantikasida, uning taraqqiyotida o‘zgarishlar yuz berayotgan jarayondir. Jumladan, maishiy leksikaga doir so‘zlar ikki tilda ham tarixiy-etimologik jihatdan rivojlanganligi, shu bilan birgalikda farqli jihatlari borligini alohida ta’kidlash lozim.

Hozirgi kunga qadar turkiy tillar leksikasi bo‘yicha R.Sobirova, Sh.Usmanova, S.Ibrohimov [Ibrohimov, 1956] kabi, qozoq lingvistlaridan G.Do‘sjanova [Do‘sjanova, 2011] , J.Esenaliyeva [Esenaliyeva, 2014] singari tilshunoslar bir qancha ishlar olib borishdi. Bundan tashqari kiyim-kechak leksikasiga oid bo‘lgan D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova [Rahmatullayeva, Xodjayeva, Ataxanova, 2015], A.Doniyorov, O.Bo‘riyev, A.Ashirov [Doniyorov, Bo‘riyev, Ashirov, 2020], G‘.Qaydauliqizi [Qaydauliqizi, 2012] kabi tilshunoslar sezilarli ishlar qilishgan.

Kiyimlar moddiy madaniyatning asosiy qismlaridan bo‘lib, ularda shu xalqning milliy xususiyatlari va madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Har bir xalqning an’anaviy mashg‘ulot turi, fasl va yoshdagi o‘zgarishlar, hatto o‘sha xalqning fe’l-atvoridagi nozik tomonlari ham kiyimlarda mujassamlashgan [Usmanova, 2014:161]. Atash-nomlash jarayoni asosida borliqning ongdagi milliy tasviri yotadi. Milliy tasvir milliy ong, u asosda shakllangan milliy dunyoqarash, milliy mentalitet asosida hosil qilinadi [Sobirova, 2021:11]. Ko‘p asrlar davomida qozoq liboslarining matolari o‘zgardi, bichimlarga o‘zgarishlar kiritildi, kiyimda bezaklar paydo bo‘ldi. Tabaqalar orasidagi farq asosan kiygan kiyimlaridan yaqqol ajratish mumkin edi. Bu farq ayniqsa, mato turi va tayyorlanish sifatida bilinib turgan. G‘arbiy Qozog‘istonda bayramlarda kiyiladigan ayollar va qisman erkaklar kiyimlari qimmatbaho duxoba, ipak-shohi matolardan tikilgan, kumush

tangachalar bilan bezalgan. Ko‘ylaklar zarli iplar bilan kashta qilib tikilgan, bosh kiyimlarga esa kumush qimmatbaho toshlar qadalgan, patlar qistirilib, marjonlar terilgan [Rahmatullayeva, 2015:197].O‘rta asrlarga oid miniatyuralar o‘zbek kiyimlarining ham o‘ziga xos uslubi, ya’ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini ko‘rsatuvchi noyob namunalardir. Xususan, **ro‘mol** fors-tojikchada “yuz” ma’nosini anglatadigan ro‘ oti bilan (TjRS, 331) “bisotdagi narsalar” ma’nosini bildiruvchi arabcha mol otidan (ARS, 774) so‘zlaridan shakllangan bo‘lib, ayol-qizlar boshiga o‘raydigan matodan tarkib topgan buyum hisoblanadi (O‘TEL, II, 203). Eski turkiy va eski o‘zbek tilida qayd etilgan ma’noni ***bo‘ro‘ncho‘k, sarag‘uch*** (DLT, I, 467, 449), ***burunchak/buranchak, yog‘liq*** (NAL, 137, 213) kabi leksemalar ifodalagan. XX asr Qodiriy asarlarida ushbu leksemaning semasi ma’no kengayishiga uchragan, ya’ni “Mehrobdan chayon” asari tilida ***ro‘mol*** so‘zining ikki xil sememasini uchratishimiz mumkin: 1) boshga o‘raladigan buyum: *Ra’no Anvarning qarshisig‘a o‘lturdi o‘lturishi bilan kuchlik shamol yurib boshidag‘i* ***ro‘ymolini*** *uchurdi* (MCh, 156); 2) yuz-ko‘zni, burunni artish uchun mo‘ljallangan buyum, dastro‘molcha*: Sallasini chiqarib yostiqning ustiga tashladi va* ***ro‘ymoli*** *bilan manglayidag‘i terlarini artib o‘zini yelpidi* (MCh, 52). Shuningdek, ro‘mol so‘zi bilan birga atlas parchasi birikmasi ekvivalent sifatida ishlatilgan: *Har zamon titrab uchib ketishka hozir turg‘an boshidag‘i sarig‘* ***atlas parchasini (ro‘ymolni)*** *bir qo‘li bilan bosib ushlagan edi* (MCh,92). Ayollarning aksariyati vaqt o‘tib an’anaviy bosh kiyimi salladan voz kechib, har xil rangdagi turli matolardan to‘qilgan ro‘mol yopina boshlagan. Ro‘mol o‘rash yoki yopinish ham turlicha bo‘lgan. Faslga qarab katta, rangli, gulli, to‘qilgan ro‘mollar keng tarqalgan. Yoshi katta ayollarning oq doka ro‘mol o‘rash odati hozirgacha saqlangan. Qozoqlardagi *орамал*ning kelib chiqishi ham shu ma'lumotlarga tayanadi. Bu turdosh otning birinchi qismi “yuz”, ikkinchi qismi esa “mato” degan ma’noni anglatgan: ***Орамал*** *тоңға жарамаса да, жолға жарайды (ҚХМ).* Hozirda qozoq millatiga mansub yosh qizlarning ro‘mol o‘rashi ayrim Qozog‘iston viloyatlarida butunlay ruxsat etilmagan bo‘lsa, ayrim viloyatlarida esa qisqa cheklovlar qo‘yilgan. Sababi орамал kelin va yoshi katta ayollarga mo‘ljallangan deb qaraladi. Boshiga oq ro‘mol o‘ragan ayollarni ko‘rgudek bo‘lsak, demak u erli ayol ekanligini bildiradi. Hozirda ham qozoqlardagi “olib qochish” marosimini ro‘mol hal qiladi. Qizni yigitning uyiga olib kelishlari bilan yoshi katta ayollar uning boshiga ro‘mol tashlashadi. Ro‘mol qizning boshiga tushishi bilan u kelin hisoblanadi. O‘zbeklarning motam marosimida ham ro‘mol alohida ahamiyatga ega. Azador xonadonlarga bosh kiyimsiz borish uyat hisoblanadi. Marhumning yaqinlari 40 kun ustiga ko‘k kiyib, boshiga ro‘mol bog‘laydi. Bu ularning azador ekanini ko‘rsatib turadi.

Qadimda vohaning o‘spirin qizlari do‘ppisifat qalpoqcha kiyishib, uning ustidan kichikkina turli rangdagi ro‘mol o‘rashgan. O‘rta yoshli ayollar esa bu qalpoqcha ustidan hajmi katta ro‘mol o‘rashgan bo‘lsa, keksalar katta oq ro‘mol o‘rab yurishgan. O‘z davrida bu bosh kiyim *kiygich* yoki *bosh* deb ham atalgan. Bu bosh kiyim baland silindr ko‘rinishida bo‘lib, tepa qismi keng hisoblanadi. Farzandi bor o‘rta yoshli va qo‘ng‘irotning keksa ayollari sallasimon – bir necha qavatdan iborat murakkab tuzilishga ega *kiygich*ni kiyib yurganlar. Hozirgi kunda bu bosh kiyimni Surxandaryoning chekka hududlaridagi va shu kabi ayrim viloyatlarda yoshi katta momo, chechalarimizning kiyib yurganiga ko‘zimiz tushishi mumkin.

Кимешек – ko‘chmanchi xalq orasida shakllangan, ekologiyalik talablarga javob beruvchi qozoq ayollarining bosh kiyimidir. Ushbu leksemaning o‘zbekcha varianti *kiygich* hisoblanadi. *Кимешек*ning xalq orasida rivojlanishiga, birinchidan, ekologiyalik sharoit ta’sir etgan. Qozog‘istonni Yevropa bilan solishtirsak atmosferalik changining ko‘pligi bilan ajraladi. Tuproq tarkibi va qattiq esadigan, quruq shamol bunga sabab bo‘la oladi. Shu sharoitda *кимешек* – yozning issig‘i va qishning qattiq sovug‘ida, qattiq shamol va chang-to‘zonning ta’sirlaridan himoyalanishda foyda bergan. Bu bosh kiyimning bir xususiyati shundaki, odam yuzining formasi o‘yib qoldirilib, qolgan qismi tugal tikiladi va faqat boshnigina emas, odamning tanasini bel qismigacha butunlay yopib turadi. *Кимешек* – erga tekkandan so‘ng kiyiladigan bosh kiyim ekanini hisobga olsak, uning juda qadimdan qoliplashgan, ma’noga to‘la, til-ko‘zdan saqlovchi, himoyachi kiyimi ekanligini ham ta’kidlab o‘tishgan: ***Кимешек*** *кийген қыз, келін болмас*. Ya’ni bu qozoq xalq maqolida, ‘‘кимешек kiygan qiz kelin bo‘lishga arzimaydi’’ degan mazmun yotadi.

Ikkinchidan esa, Osiyodagi ko‘plab xalqlarda va shu jumladan qozoq elida ham, juda qadimdan qoliplashgan odat bo‘yicha ayol kishi sochini yopib yurishi zarur bo‘lgan. Qiz bola *telpak, taqiya* kiyib, sochlarini o‘rib yurishlari go‘zallik deb qaraladigan bo‘lsa, erga tekkanda buning bariga ta’qiq qo‘yilgan. Bu Osiyo xalqlarining deyarli barchasiga taaluqli bo‘lganligi belgili [Kamalashuli, 2006]. Demak, bu faraz bizning o‘zbek xalqimizdagi *kiygich* deb ataluvchi bosh kiyimning kelib chiqishiga ham bevosita daxldor bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda qozog‘istonlik ayollar bu bosh kiyimni asosan, milliy tadbirlarda, to‘y-ma’rakalarda kiyishi mumkin. Ammo kundalik hayotda iste’moldan chiqqan leksema deb hisoblasak adashmaymiz.

Кәжекей – qozoq milliy kiyimi bo‘lib, o‘zbek tilidagi *kamzul,* leksemasiga mos keladi. Bu so‘zning qadimgi varianti *kurta, jelek* tarzida ifodalangan. *Kurta – kur-‘‘*bog‘lamoq’’ fe’lidan tarqqiy etgan deb qaraladi[Usmanova, 2014:184]. *Jelek* esa, yel kirib turadigan yengsiz kiyimni anglatgani sababli *jel* ‘‘yel’’ va + *-e(k)* buyum yasovchi qo‘shimchadan tarkib topgan deb qarash mumkin. Qadimgi turkiy tilda ‘‘ko‘ylak’’, ‘‘to‘qilgan nimcha’’, ‘‘kalta ustki kiyim’’ semalarida ishlatilgan [Usmanova, 2014:187]. O‘sha davrlarda havo sovuq kezlarda, yomg‘irli kunlarda, isintirish vazifasini o‘tagan. Bugungi kunda ham bu leksema o‘zining tub ma’nosini yo‘qotgan emas. Hozirgi paytda qozoq tilida *кәжекей* so‘zi astari bor, yoqasi keng o‘yilgan, yengsiz, etagi bilan yoqasi toshlar bilan, kumush tangalar bilan bezalgan, juda uzun emas, beldan salgina pastga tushib turuvchi ayollarning yengil, yupqa kiyimi ma’nosida ishlatiladi: *Balki o‘rtacha bo‘yi, baxmal* ***kamzuli*** *mahkam quchoqlab olgan nozik beli bilan tanish ko‘ringandir (FTO, 2010).* O‘zbek tilidagi *kamzul* leksemasi esa astar-avrali, oldi ochiq, tugmali, ko‘ylak ustidan kiyiladigan, yoqasi yo‘q, yengiz, uzunligi ba’zan tizzagacha tushuvchi ustki kiyim mazmunida qo‘llaniladi.

Erkaklarning keng tarqalgan kiyimlaridan biri **chakmon** bo‘lib, uning qoqma, tivit, bosma va boqoti chakmon kabi turlari mavjud bo‘lgan. Chakmon yengi uzun, yelkaga tashlanadigan ustki kiyim hisoblangan. Rangiga qarab oq chakmon, ko‘k chakmon, malla chakmon deb atalgan. Chakmon bichimiga ko‘ra, to‘nga o‘xshash bo‘lib, asosan, qo‘y va tuya terisidan faqat avradan tikilgan hamda chopon ustidan kiyilgan. Chopon ustidan bog‘lanadigan belbog‘, bo‘z, chit, satin va beqasam kabi matolardan tikilgan [Doniyorov, Bo‘riyev, Ashirov, 2020:72]: *Choyxonaning burchagida, kunning dahshatli yonuviga qaramay, qalin, qora jun* ***chakmonga*** *o‘ralgan qozoq devorda suyanib mudrar edi (TA, 1957).* Bir qancha olimlarning fikricha, *chekmen//chekman* so‘zi *chek-* ‘‘chekmoq, tortmoq, cho‘zmoq’’ va *-men,//-man* qo‘shimchasidan yuzaga kelgan [Usmanova, 2014:180]. Chakmon so‘zi *chek* ‘‘yirmoch’’ o‘zagidan taraqqiy etgan. Cho‘ponlar bu kiyimni *kebenek* deb ham atashgan. Ya’ni chakmon so‘zining sinonimi *kebenek* hisoblangan. Esk.o‘zb.ad. *kipenk* ‘‘ko‘ylak’’, *kipek* ‘‘yomg‘irda kiyiladigan jun chakmon’’, *kevanak* ‘‘astari kigizdan issiq chakmon’’ ma’nolarida ishlatilgan. Bundan tashqari, *kebanak* ‘‘bir tur echki kasalligi’’ ma’nosini ham ifodalagan. Tilshunoslikda *köpen* so‘zi *köp* ‘‘shishmoq, ko‘pchimoq’’ sinkretik fe’l o‘zagidan o‘sib chiqqan bo‘lishi mumkin degan faraz aytilgan [Levitskaya, Dibo, Rassadin, 1997:108]. Bugungi kunda *kebenek* iste’moldan chiqib, *chakmon* keng qo‘llaniladi. Ammo hozirda qozoq xalqida *chakmon* emas, *kebenek* leksemasi iste’molda. *Kebenek* so‘zi kigiz astarli to‘n mazmunida ham ishlatilgan: *Ерді* ***кебенек*** *ішінде таны (KXM).* Yani *kebenek* kiygan insonning er kishi ekanligini anglaymiz. Bu kiyim ayollarga tegishli emas, shu sababli mardlik, jasurlik ma’nosi ham ushbu maqolda aks etayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yaktak yoki **aktay** – ustma-ust kiyiladigan ko‘ylak. Uning ko‘krak qismi qirqimining ichki tarafiga chok berib, qaytarib tikilgan va uning ikki tarafidan huddi shu matodan bostirib tikilib, yoqa oldiga bog‘ichlar bilan chatib qo‘yilgan kiyim bo‘lib, etimologik jihatdan forscha *“yak”* sanoq soni bilan “ost”, “pastki qism” ma’nosini anglatuvchi *tag* (TjRS, 375) so‘zidan tuzilgan, tojik tilida oxirgi *g* tovushi *k* tovushiga almashgan bo‘lib (O‘TEL,III,111), o‘zbek adabiy tilida “bir qavat”, “astarsiz kiyim” – uzun, ko‘krak oldi ochiq, erkaklar ko‘ylagi (O‘TIL,V,103) ma’nosini ifodalaydi: *Chang va terdan hosil bo‘lgan kirni* ***yaktak*** *etagi bilan yuzidan sidirib tashladi (TA, 1957). Yaktak* so‘zi yozma manbalarda XII-XIII asrdan ishlatila boshlagan. Chunonchi, “Muqaddimat ul-adab”da: *yektoyi*, *yektayni kiydi*, turkiy va uyg‘ur tilida *yaktak*, turkman tilida *yektay,* hozirgi zamon o‘zbek tilida *yaktak, yaktakcha (shevalarda: yaktay, yaxtak, yaxtay)* shakllari mavjud bo‘lgan bo‘lsa [Ziyotova, 2023], qozoq tilida ***jeyde*** leksemasi bilan

ifodalangan, bugungi kunda qozoq xalqi yangi rusumdagi ko‘ylaklarni ham shunday atay boshlashgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bu ikki til kelib chiqishi, qadriyat, urf-odat, til tomonlaridan ildizi bir hisoblanadi. Kiyim-kechak terminlari ikkala xalqda ham tarixiy-etimologik jihatdan ma’lum bir jihatdan o‘zgarishga uchraganligini ta’kidlash lozim hamda qozoq tilida o‘zbek tiliga qaraganda singormonizm hodisasi saqlanib qolganligini yuqorida keltirilgan so‘zlarning fonetik xususiyatidan ham aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doniyorov A., Bo‘riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Toshkent, 2020.
2. Есеналиева Ж. Түркі тілдерінің генеалогиялық және типологиялық сипаты. Мақала. Алматы, 2014.
3. Кәмәлашұлы Б. “Қазақтың байырғы киім-кешегіне қатысты салт-дәстүрлері. Өнер. Алматы, 2006.
4. Левитская Л.С., Дыбо А.В., Рассадин В.И. Этимологический словар тюриских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы ‘‘К’’,‘‘Қ’’ – М: Языки русской культуры. 1997.
5. Қайдауылқызы Ғ. Киелі кимешек. Өнер. Алматы, 2012
6. Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Libos tarixi. ‘‘Sano-standart’’ nashriyoti. Toshkent, 2015.
7. Собирова Р. Уй-рўзғор буюмлари лексикаси микромайдонининг лингвокултурологик талқини. Фил. фан. бўйича фал.док. ... дисс. – Андижон, 2021
8. Sodiqova N. O‘zbek milliy bosh kiyimlari. Sharq, 2014.
9. Усманова Ш. Олтой тилларидаги муштарак маиший лексика тадқиқи. Фил. фан. бўйича фан.док. ... дисс.2014.
10. Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси. – Тошкент: Bookmany print, 2023.

Shartli qisqartmalar

ARS – Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. М.: Русский язык,1976.

DLT – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент,1960.

FTO – Исмоилий М. Фарғона тонг отгунча. ‘‘Шарқ’’. Тошкент,2010.

KXM – Қазақ халық мақалы.

MCH – Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси. – Тошкент: Bookmany print, 2023

NAL – Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Адабиёти ва санъат, 1972.

TA – Ойбек. Танланган асарлар. Тошкент,1957.

TjRS – Таджикско-русский словарь. – М.: Государственное издательство иностранных и национальный словарей, 1954.

O‘TEL – Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, Университет, 2009.

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент Ўзбекистон миллий энсиклопедияси, 2006-2008. V. 2008.

“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANIDAGI MAQOLLARGA BIR NAZAR

LOOK AT THE PROVERBS IN THE NOVEL “OTAMDAN QOLGAN DALALAR”

Nosirov Jaloliddin Muhiddin o‘g‘li
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
nosirovjaloliddin74@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida qo‘llanilgan maqollar va ularning ba’zi tasnif va tavsiflari yoritib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: “*Otamdan qolgan dalalar”, maqol, “O‘zbek xalq maqollari”, ma’nodoshlik, jumlalar.*

Abstract. *In this article, mentions the proverbs used in Togay Murad’s novel “Otamdan qolgan dalalar” and some of their classifications and descriptions.*

Key words: *“Otamdan qolgan dalalar”, proverb, “O‘zbek xalq maqollari”, synonymy, sentences.*

Ma’lumki, har bir asar o‘zining ma’lum jozibasi, usuli va uslubi bilan kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Bu kabi o‘ziga jalb qiluvchi omillar ma’noviy jihatdan, hayotiylik jihatdan yo shakliy jihatdan bo‘lishi mumkin. Tog‘ay Murodning asarlari har uchala ta’rifga mos kela oladi va, ayniqsa, ular orasida shakliy tuzilish jihati boshqa asarlardan butunlay farqlantiradi, u asarlarni o‘qir ekanmiz, ko‘z oldimizga Tog‘ay Muroddan o‘zga yozuvchi kelishi imkonsiz. Uning asarlari sof shevada yaratiladi va shu tufayli ham o‘zining ma’lum jozibasiga ega – uni o‘qigan odam, tabiiyki, Surxon muhitida o‘zini ko‘ra oladi.

Shakliy jihatdan o‘z tuzilishiga ega bo‘lgan “Otamdan qolgan dalalar” romani folklor materiallar, ya’ni maqollar bilan boyitilganligi bilan ham alohida ajaralib turadi. Romanda yigirmadan ziyod maqollar qatnashgan va bu maqollarni har biri o‘z xususiyatiga ega. Biz ana shu xususiyatlarga qisman nazar tashlab o‘tamiz.

Birinchi navbatda, romanda qo‘llanilgan maqollarning “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida mavjud yoki mavjudsizligini ko‘rib o‘tish lozim. Bu taraflama biz maqollarni 3 qismga: “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida ayni shaklda qo‘llanilgan maqollarga, mutlaqo qo‘llanilmagan maqollarga hamda ma’nodoshlik jihatdan to‘plamdagi maqollarga o‘xshash maqollarga bo‘lamiz:

1) To‘plamda qo‘llanilmagan maqollar:

1. Bo‘laman degich el, bir-birini botirim deydi,
Bo‘lmayman degich el, bir-birini etini yeydi.
2. a) Dini boshqa el bo‘lmas. b) Tili boshqa el bo‘lmas.
3. Ilmda kamchilik ko‘p.
4. Bolamni to‘ygunimcha boqaman, nevaramni o‘lgunimcha.
5. Dehqon davlati – yer.
6. O‘zbaki – zo‘raki.

2) To‘plamda qo‘llanilgan maqollar:

1. Yon qo‘shni – jon qo‘shni. (“O‘zbek xalq maqollari”. T., “Sharq” nashriyoti. 2013. 250-bet)
2. Mehnat, mehnatning tagi – rohat. (Yuqoridagi manba. 32-bet)
3. Vatan gadosi – kafan gadosi. (Yuqoridagi manba. 9-bet)
4. Yomondan qochib qutul, yo – tonib. (Yuqoridagi manba. 60-bet)
5. Holvani hokim yer, kaltakni – yetim. (Yuqoridagi manba. 487-bet)
6. Qish – oladan, yoz – moladan. (yuqoridagi manba. 479-bet)

7. Xalq qarg‘asa, xor bo‘lasan,
Xalq qo‘llasa, bor bo‘lasan. (Yuqoridagi manba. 20-bet)

8. Yomon qovunning urug‘i ko‘p. (Yuqoridagi to‘plam. 24-bet) (To‘plamda *“yomon”* so‘zi o‘rnida *“bemaza”* so‘zi qo‘llanilgan. Ammo har ikki ma’no ham ta’mga qaratilgan.)

9. Dehqon – bag‘ri qon. (“O‘zbek xalq maqollari. I tom”. T., “Fan” nashriyoti. 1987. 129-bet)

10. Yer haydasang, kuz hayda,
Kuz haydamasang, yuz hayda. (Yuqoridagi manba. 149-bet) (To‘plamning 2013-yilgi versiyasida *“Yer haydasang”* birikmasi o‘rnida *“Dehqon bo‘lsang”* birikmasi mavjud: *“Dehqon bo‘lsang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda”.* 404-bet)

3) Ma’nodoshlik jihatdan to‘plamdagi maqollarga o‘xshash maqollar:

1. Xalq bor – haq bor. *“O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida (2013) bu maqolga ma’nodosh sifatida* “Xalq bor yerda haqlik bor” *maqolini qabul qilish mumkin.(19-bet.)*

2. Aql yoshda emas, aql boshda. *To‘plamda ma’nodosh sifatida* “Aql bo‘yda emas, o‘yda” *maqoli berilgan (121-bet). To‘plamdagi yana bir maqolda esa* “aql” *so‘zi* “ulug‘lik” *so‘zi bilan almashingan:* “Ulug‘lik yoshda emas, boshda”. *(135-bet)*

3. Olisning sho‘rvasidan yaqinning yovg‘oni yaxshi. *To‘plamda bunga o‘xshash ko‘plab sinonim maqollarni uchratish mumkin:*

a) Olisning oti o‘zguncha, yaqinning toyi o‘zsin. *(369-bet)*

b) Olisdan arbalagandan ko‘ra, yaqindan to‘rvalagan yaxshi. *(369-bet)*

c) Olisdagi otdan yaqindagi eshshak yaxshi. *(369-bet)*

d) Uzoqning palovidan yaqinning sho‘rvasi yaxshi *(369-bet)* va hokazo.

4. Qilmish – qidirmish. *To‘plamda sinonim maqol qilib* “Har kim o‘z qilmishidan topar” *(78-bet) maqolini kiritish mumkin.*

5.Mehmon rizqi o‘zidan oldin keladi. *Sinonim maqol* – “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan”. *(166-bet)*

6. Eshak semirsa oxurini bulg‘aydi. *Sinonim maqol* – “Eshak semirsa, egasini tepar”. *(332-bet)*

7. Eshakning xizmati halol – o‘zi harom. *Ushbu maqol to‘plamda so‘zlar o‘rnining o‘zgarishi bilan, ayrim so‘zlarning boshqa so‘zga o‘tishi bilan farqlanadi:* “Eshakning go‘shti harom, mehnati – halol”. *(43-bet)*

Biz yuqorida romandagi maqollarni ko‘rib chiqdik. Ammo asarda shunday jumlalar uchraydiki, ushbu jumlalarni maqoldek qabul qila olamiz, chunki undagi maqolga o‘xshash jihatlar (qisqaligi, fikrning lo‘ndaligi, qofiyaviyligi va hokazo) bizni shunga undaydi. Misol uchun:

- Qon rang – jallod rang (Aqrab tilidan);
- Paxtazor – daftar, g‘o‘zalar – husnixat (direktor tilidan);
- Kattalar tinch – quloq tinch (katta do‘xtir tilidan);

Agar e’tibor berilsa, bu gaplar o‘sha davr uchun tom ma’noda maqoldek vazifa bajarar edi. Adib ushbu so‘zlarni qo‘llar ekan, so‘zlovchi nutqida ta’sir yana ham ortadi. Qisqa qilib aytganda, yuqoridagi jumlalar maqol hisoblanmasligi mumkin, amo nutq jarayonida bemalol maqol vazifasini bajara olgan.

Asar voqealarining asosiy qismi Dehqonqul hayoti va faoliyati bilan ifodalangan. Dehqonqulning kasbi dehqon ekanligini hisobga olsak, adib Dehqonqulning tilidan dehqonchilikka aloqador maqol va iboralarni qo‘llashi tabiiy edi, ya’ni asarda qo‘llanilgan ba’zi dehqonchilikka oid jumlalar nutq davomida maqol vazifasini bajargan, maqol kabi ta’sir doirasi kengaygan, ammo bu maqollar faqat tor jamoa doirasida tushunarli bo‘lishi mumkin. Masalan, dehqonlar uchun yoki chorvadorlar uchun.

a) Yer nima – dehqonning yelkasi nima?

b) Sharbat suv – shakar suv.
c) Bechirindi go‘ng – besamar go‘ng.
d) Chilla suv – tilla suv.
e) Yakkabarg g‘o‘za – chala g‘o‘za.
f) Ketmonsiz dala – dala bo‘lmas.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Tog‘ay Murod tom ma’noda xalq og‘zaki ijodidan boxabar inson, uni o‘z asarlariga singdira olgan mohir adibdir. Ayniqsa, uning “Otamdan qolgan dalalar” romani bu gaplarimizning eng yorqin cho‘lpon yulduzi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti. (2018).
2. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: “Sharq” nashriyoti. (2013).
3. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: “Fayz” nashriyoti. (1987).

DOSTON VA AFSONALARDAGI QUDUQ RAMZIY OBRAZINING MAISHIY HAYOT BILAN UZVIYLIGI

THE CONTINUITY OF THE SYMBOLIC IMAGE OF THE WELL IN EPIC AND LEGENDS WITH DOMESTIC LIFE

Mardonova Fazilat Faxriddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek folklorining epik janrlaridan mifologik obrazlar, xususan, quduq obrazi bilan bog‘liq tahlillar olib borilgan. Quduq obrazi mifologik qarashlar negizida ma’lum bir o‘ziga xos poetik ifodalarni, ruhiy kechinmalarni namoyon etishga xizmat qiladi. Doston, afsona va ertaklarda quduq obrazining o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ularning xalq dunyoqarashi bilan bog‘liq uzvlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *obraz, tahlil, afsona, ertak, quduq obrazi, cyujet.*

Abstract. *The article analyzes mythological images, especially the image of a well, in the epic genres of Uzbek folklore. The image of a well serves to express certain unique poetic expressions and spititual experiences based on mythological views. In epics, legends and fairy tales, there are unique manifestations of the image of the well, and their links with the worldview of the people have been studied.*

Key words: *image, analysis, myth, fairy tale, well image, plot.*

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi ramziy obrazlar xalqning maishiy hayoti bilan uzviy bog‘liqdir. Xalqning doston, afsona va rivoyatlarida juda ko‘p ramziy obrazlar bo‘lib, bizning maishiy hayotimiz bilan bog‘liq bo‘lgan obrazlar daraxt, suv, daryo, buloq, quduq va boshqa ramziy obrazlarni keltirishimiz mumkin. Birgina “Quduq” ramziy obrazi xalq og‘zaki ijodida ko‘plab ertak, rivoyat, afsona hattoki, dostonlarda ham mavjud.

Quduq o‘zi asosan aholini suv bilan ta‘minlash va sug‘orish uchun yer osti suvlarini yig‘ish maqsadida quriladigan suv to‘plovchi yer osti suvlarini yer usti suvlari bilan qo‘shish; ko‘l, daryo, suv omborlaridan olinadigan suvlarni rostlash vazifasini o‘taydi.

Xalq orasida: “Quduq yaxshi narsaga o‘xshaydi: kerak bo‘lganida, u doimo yordam beradi” degan tushuncha bor. Haqiqiatdan ham ba‘zi viloyatlardagi suv yetib bormaydigan, cho‘l joylar bo‘lib, qirg‘oqchilik bilan bog‘liq mushkul vaziyatlarda albatta, xalqning, o‘simliklarning xizmatiga quduq suvi yordamchi bo‘la oladi. Faqatgina suv yetib bormagan joylarda, yoki cho‘l hududlarda emas, yurtimizning turli vohalarida bundan keng foydalanishadi va xo‘jalikni suv bilan ta‘minlash maqsadida qaziladi.

“Ipak yo‘li afsonalari”da aytilishicha “Jabborquduq” degan bir quduq afsonasi bo‘lgan ekan. Unda aytilishicha bir qishloqqa yov bostirib keladi. Qishloqda mish-mishlar tarqalib, yovdan qo‘rqqan xalq vahimaga tushibdi. Shunda bir Jabbor ismli cho‘pon yov lashkari tomon yo‘l olib, o‘z eli, yurti, vatandoshlari uchun kurashadi.

Yovga yaqinlashgan Jabborga lashkarboshi quduq yo‘lini ko‘rsat, debdi. U esa “Ularni quduq yo‘lidan adashtirsam, marra meniki” – deb o‘ylab, maqsadiga erishish uchun ularni adashtiribdi. Yov lashkarlari suvsizlikdan qiynalibdi va qattiq shamol ko‘tarilib, ularni qum bosibdi. Navkarlar esa qayoqqa borishini bilmasdan o‘sha joyda jon ta’slim qilibdilar. Qishloq esa dushman hujumidan omon qolibdi. Keyinchalik Jabbor dushmanlarni adashtirgan joyda qazilgan quduq ”Jabborquduq” deb atala boshlanibdi.

Aytishadiku, “Suvsiz quduq – ruhsiz odamga o‘xshaydi” deb. Bu gap xalqimiz tomonidan be’jizga aytilmagan. Suv bo‘lmas ekan inson bu hayotda yashay olmaydi. Suv – hayor manbai. Suvga bo‘lgan intilishlar, morfologik munosabatlar ham buni dalillab turadi. Oddiygina “Sust xotun” marosimining asl mohiyati ham suvga bo‘lgan e’tiqod negizida shakllangan.

“Ipak yoli afsonalari”da “Murodboyquduq” degan yana bir afsona mavjud.

Qadim zamonda Murodboy degan juda badavlat kishi bo‘lgan ekan. Eng qizig‘i u boyning boy bo‘lish sababi Murodboy yashayotgan hududda suv tanqis bo‘lib, faqat uning qudug‘idagina suv qolgan ekan. U esa, qultum suvni ham tillaga sotib boy bo‘lib ketgan, farzandlarining tarbiyasiga esa e‘tibor bermagan ekan. Murodboy quduq yaqinida Oqqiz degan chiroyi, go‘zalligi uzoq-uzoqlarga ketgan qiz yasharkan. Kunlardan bir kuni o‘sha Murodboyning o‘g‘illari uni izlab yo‘lga chiqib, uni qochib ketishiga qaramasdan tutub olgan. Shu payt Oqqiz oyga qarab onalik qil Oymomojon deya yolvoribdi. O‘shanda Oy qizni oppoq tog‘ga aylantiribdi. Buni bilgan onasi esa oyga yolg‘iz qolgan qizim oldiga olib bor, - “Bolalarim va erim uchun to‘kilgan ko‘z yoshlarimni shu yerda qoldir” – deb nola qilibdi. Shunda Oymomo ko‘z yoshlari to‘kilgan o‘tov oldidan biqirlab buloq ko‘z ochibdi. Uni esa, odamlar yomon ko‘zdan asrash uchun devor bilan o‘rabdi. Tomdibuloq deb nomlashibdi. Murodboyning qudug‘idan suv qurib ketibdi.

“Quduq yurakka o‘xshaydi, agar u qurib qolsa, unda hayot bo‘lmaydi” – xuddi Murodboy kabi.

“Quduq oynaga o‘xshaydi: haqiqat va haqiqatni aks ettiradi” – bu esa, Oqqiz onasining ko‘z yoshlaridan yaratilgan buloq kabi.

Quduq haqida ertaklar ham yaratilgan. Bunda birgina “Ayyor tulki” o‘zbek xalq ertagini oladigan bo‘lsak, bunda bir tulki qarg‘ani tutib olmoqchi bo‘lib, quduqqa tushib ketadi. Afsuski, quduqning chuqurligi bois u yerdan chiqib keta olmadi. Shu vaqti yo‘ldan echki o‘tib qoldi. Tulki dam olib o‘tiribman, salqingina joy ekan deya avrab, echkini ham quduq ichiga tushurdi. Shu zahoti tulki esa, bir sakrab quduqdan chiqib olib, echkiga bir qarab, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Echki esa, tulkiga aldanib quduqda qolaveribdi.

Bu ertakda berilgan voqeaga asosan hayotda hammaga ham ishonib ketavermaslikni bilib olish mumkin. Hatto bu borada “Alpomish” dostonida va “Yusuf alayhissalom” afsonalarida ham ko‘rishimiz mumkin.

“Alpomish” dostonida Alpomishning zindonda qolishi unga eng yaqin do‘sti va sevimli otidan boshqalar o‘ldi deya, umid ham qilmay qo‘yganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Alpomishning zindondagi tor, judayam kichkina bo‘lgan quduqda malum bir davrda qolishi, unga

Olloh tomonidan bir sinov desak xato boʻlmaydi. Alpomishning quduqda qolishi unga katta kuch va hayot sinovlarini berdi.

“Yusuf alayhisalom” afsonasi. Bu afsonada hatto yaqinlari, aka-ukalari koʻrolmaslik qilib, hatto ukasini oʻldirishga ham tayyor boʻlgan jigarlarni koʻrishimiz mumkin. Oilada eng suyukli farzand, aqlli, oʻz bilimi va zakovati bilan koʻplarni lol qoldira olgan. Yusufni akalari quduqqa tashlab yuboradi. Ota-onasiga Yusufni boʻri yeb qoʻydi deb qonli koʻylagini ularga koʻrsatadi. Lekin uning oʻlmaganiga, tirikligiga ular ishonardi va kun kelib u otasining yoniga qaytishini chin dildan xohlardi. Yusuf tashlangan zah quduq, ilonlari boʻlgan, hatto suv bilan toʻldirilgan quduq edi. Lekin, Ollohning moʻjizasi bilan Jabroil alayhisalom tomonidan Yusufga yordam beriladi, quduqda bor zaharli narsalarni yer qariga uloqtiradi. Yusuf barcha xavf xatarlardan qutqariladi. Unga Olloh tomonidan sabrini sinash uchun sinovlar beriladi.

Bu jihatdan “Yusuf alayhisalom” afsonasi va “Alpomish” dostoni oʻxshashdir. Ikkisida ham Olloh tomonidan quduq sinovi beriladi. Shundan ham bilishimiz mumkinki, Olloh suygan bandasigagina sinov beradi. Suygan bandasigina sinaladi. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida maishiy hayot bilan uzviy bogʻliq bunday poetik obrazlar oʻziga xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алпомиш. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Фан, 1999. – Б.160.
2. Eshonqulov J. Tush, marosim va epos // Oʻzbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: Fan, 2010. – B.189.
3. Жўраев М, Худойқулова Л. Маросимнома. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси. 2008. – 207 б.
4. Murodova M. Samarqand folklorida yor-yor // O’zbek tili va adabiyoti jurnali. 2012, 4-son. – B. 43.
5. Murodova M. Toʻy marosimlarida toʻsh qaytarar udumi // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. 2011, 2-son. – 51 b.
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Madvaliyev A. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1996. – 66 b.

XALQ MAQOLLARINING VARIANTLARI
(Chiroqchi tuman Arabbandi va Dam qishloqlari misolida)

VERSIONS OF FOLK PROVERBS
(In the example of Arabbandi and Dam villages of Chirakchi District)

Nurqulova Ozoda Berdimurod qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Maqol – ogʻzaki ijodning eng faol janri. Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli soʻzlarga aytiladi. Maqol oʻzbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli soʻzlashuvda) naql, turklarda *ata* soʻzi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamasi arabcha – qavlun – gapirmoq, aytmoq soʻzidan olingan[Mirzayev, Turdimov, Joʻrayev, Eshonqulov, Tilavov: 2020. 201]. Ming yillar davomida xalqimiz tomonidan shakllantirilgan, doim yaratib borilgan va yillar davomida sayqallanganligi bilan xususiyatlidir. Maqollar uchun koʻp hollarda qofiyadoshlik, ba’zan koʻp ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ham koʻp uchraydi. Misol uchun:

Chiyirlini bolasi oʻn beshda ham bosh boʻlar,

Chiyirsizni bolasi qirq beshda ham yosh bo‘lar.

Bu yerda chiyirli va chiyirsiz so‘zlar o‘zaro zid ma‘noli. O‘shbu maqol “O‘zbek xalq maqollar” kitobida keltirilgan *Bo‘laman degan bola boshidan ma‘lum* maqolining variant, ma’nodoshi sifatida qipchoq shevasida ishlatiladi [O‘zbek xalq maqollari,2014].

Maqollar hayotimizning qomusi, xalqimizning ensiklopediyasi, badiiy-tarixiy solnoma deyish ham mumkin. Ular insonlarni muammolar va jumboqlarni to‘g‘ri yecha olishga, hayot yo‘llarimizni to‘g‘ri tanlay olishimizga, nutqimizni ravshan va ta‘sirchan qilishimizga o‘rgatadi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy-maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir. Xalqimiz kabi qadimiy bo‘lgan maqollarning qachon paydo bo’lgani ma‘lum emas. Lekin ayrim maqollarni o‘sha davr muammolaridan, turmush tarzidan kelib chiqib qachon paydo bo‘lganligini taxmin qilsak bo‘ladi. Misol uchun:

Erga tegsang cholga teg, armiyaga olmaydi,

Eshak olsang kurra ol, dagavorga olmaydi.

maqolini urush yillari paydo bo‘lganligini taxmin qilish mumkin . Chunki o‘sha paytlarda yigitlarni armiyaga majburan olib ketganligi sababli qanchadan qancha ayollar turmush o‘rtog‘idan ayrilib beva qolgan. Shuningdek, har bir ro‘zg‘ordagi yuk tashishda foydalanadigan eshaklarni askarlarga qurol-yarog‘, oziq ovqat tashish uchun mas’ul shaxslar tomonidan yig‘ib olib ketilgan. Yoshi o‘tib urushga yaramaydigan yoshi katta chollarni armiyaga olib ketmaganidek, hali kichkina bo’lgan kurralarni ham yuk tashishga yaramaganligi uchun olib ketishmagan. Bu maqol o‘z ma‘nosida bo‘lib, ijtimoiy hayot tarzini aks etadi.

Maqollarda har bir so‘zga alohida e‘tibor berish kerak, ularda qo‘llanilish o‘rniga qarab ularni ma‘nosi o‘zgarib ketaveradi. Masalan, *tel* so‘zni qipchoq shevasida *maqtash, ma‘qullash* (seniki to‘g‘ri) manosida ishlatiladi [Saida moma,Dam qishlog‘i] va quyidagi maqol mazmunidan tentak bo‘lsa ham maqtab ishlatsang, undan foyda ko‘rasan. Tentakdan ham foydalansang bo‘ladi. Xuddi shuningdek, har qanday insonni ham yaxshi gapirib, maqtab ishlatsang ishlaydi degan ma‘no anglashiladi:

Tentakka tel ber, Ikki qo‘liga bel ber.

Shuningdek *suq* so‘zi qipchoq shevasida kuchli fonetik o‘zgarishga uchrab *six* tarzida ishlatiladi. Tarixan bu so‘zni qipchoq shevalarida *ochko‘z* degan ma’noni anglatgan va hozirgi kunda ham bu so‘z nutqimizda saqlanib qolgan. *Kunda yegan six bo‘lar, Oyda yegan to‘q bo‘lar.* Bu maqolda qanoat va nafs haqida so‘z boradi.

Biz xalq maqollaridan o‘zaro muloqat jarayonida o‘z fikrimizni dalillash uchun ko‘p foydalanamiz. Bu narsa bizga nutqimizni go‘zal, jozibali va ishonchli bo‘lishida yordam beradi. Masalan, qishloq sharoitida ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida, farzandlarining sen-menga bormasligi uchun shunday maqoldan foydalanadi :

Cho‘pon ko‘paysa, qo‘y harom o‘ladi.

Bu maqol chorvachilikda ham keng qo‘llaniladi. Maqollar, xususan, iqtisodiyotning bosh masalasi – boylik va uning manbasi to‘g‘risida; mehnat, ishlab chiqarish sohasi – hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik borasida ko‘p uchraydi. Misol uchun:

Chorva qirq yilda yetiladi, Dehqon bir yilda yitiladi; Qo‘y ko‘rmagan quva-quva o‘ldiradi kabi maqlollari chorvachilik va dehqonchilikda keng qo‘llaniladi.

Maqollar qo‘llanishda hudud, urug‘ doirasidan birgina so‘z, satrlarning o‘rin almashilishi va harflar almashishi bilan ham farq qiladi. Maqolda qatorlar almashuvida ham ma’no o‘zgachaligi yuzaga kelgan. Aynan Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tuman shevalarining Dam qishlog‘ida yashovchi Qaziyaqli urug‘ vakillarida*:*

Bovlasang botir bo‘lar, Terbasang tentak bo‘lar

tarzida ishlatilgan bu maqolda, urishib – ursangiz qo‘rqib tentak bo‘lib qolishi haqida borayotgan bo‘lsa, shu hududa yashovchi Arabbandi qishlog‘ining Qirqayoq urug‘i vakillarida quydagicha qo‘llaniladi:

Turtsang tentak bo‘lar, Bovlasang botir bo‘lar.

Bu shaklda qo‘llangan maqolda esa bag‘ringga olib yaxshi gapirib tarbiyalasang botir bo‘lishligi aytiladi. Bu holatlarda ma’no urg‘usi, odatda, ikkinchi misraga tushadi. O‘shbu maqollar yaxlit holda farzandlariga to‘g‘ri tarbiya berganligi yoki to‘g‘ri tarbiya bermaganligi uchun kattalar tarafidan ogohlantirish sifatida ishlatiladi. O‘zbek xalq maqollar to‘plamida *Tergasang tentak bo‘lur, Bovrasang botir* varianti shaklida keladi.

Maqollar janr xususiyatlari jihatidan quydagilardan iborat[Mirzayev, Turdimov, Jo‘rayev, Eshonqulov, Tilavov. 2020. 202]:

1. Maqollarni hajmi qisqa va cheklangan bo‘ladi;
2. Maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma’noni anglatadi;
3. Shaklan she’riy va nasriy shaklda bo‘ladi . Misol uchun:

Erga tegsang cholga teg,armiyaga olmaydi .

Eshak olsang kurra ol ,dagavorga olmaydi.

Urish yillarida paydo bo‘lgan bu maqol shaklan va mazmunan she’riy shaklda. Shuningdek, risq-nasiba haqidagi quyidagi maqol ham bunga misol bo‘la oladi:

Beraman degan quliga ,eltib berar yo‘liga.

Bermayman degan quliga,topilmaydi puliga .

Ammo nasriy maqollar ham she’riy misralarni eslatadi. Masalan:

Teng tengi bilan, Tezak qopi bilan .

4. Maqollarda hayotiy voqea-hodisa haqida qat’iy hukm ifodalanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy aks etadi;
5. Maqollar shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma hayot nuqtayi nazardan umumlashtiradi;
6. Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi;

O‘zbek xalqi mehmondo‘st, mehnatkash xalq bo‘liganligi uchun ham maqollarimiz an’analarimizni, qadriyatlarimizni, turmush tarzimizni yoritib berishga qaratilgan. Xalqimizda yangi kelinni ko‘rgani borish urf-odati bor, quyidagi maqol ham o‘sha odatlarimiz negizida paydo bo‘lgan. *Biz keldik kelin ko‘rgani, Kelin ketibdi tezak tergani*. Maqol ko‘chma ma’noda bo‘lib, kimnidir yo‘qlab borganda o‘sha inson o‘zining muammosi, ishi bilan boshqa joyga ketgan bo‘lsa o‘sha vaziyatda ishlatiladi. Chiroqchi tumani odamlari mehmondo‘st bo‘lishi bilan birga, etnik jihatdan go‘sht va go‘sht mahsulotlarini ko‘p istimol qiluvchi, yaxshi ko‘ruvchi xalq hisoblanadi. Shu jihatdan quydagi maqoldan ko‘p foydalanadi;

Ming mizi-bizidan , bir jizi-bizi yaxshi.

Bu maqol o‘z ma’nosida qo‘llanilib mehmonga borganda qo‘yuqdan qo‘yuq salomlar qilib yaxshi gaplar bilan quruq qaytargandan ko‘ra mehmonni oldiga biror ovqat pishirib quygan, qornini to‘qlagani yaxshi kabi ma’noda keladi. *Jizi-bizi* Chiroqchi tumanidagi milliy toam nomi hisoblanadi.Bu maqolning *Ming siz-u bizdan bir jiz-biz yaxshi* variant kengroq qo‘llaniladi.

Chiroqchi tumanining Dam qishlog‘ida quydagi maqoldan ham ko‘p foydalanadi:

Olti ullining tili og‘ziga sig‘maydi,

Bir ullining ungiri yerga tegmaydi.

Bu maqolda ko‘p o‘g‘li bor qaynonani kelini ham ko‘p bo‘ladi, kelinlariga ish buyurib o‘tiradi. Bir o‘g‘li bor qaynona esa keliniga qo‘shilib kelin bo‘lib xizmat qiladi. Maqolda farzand qancha ko‘p bo‘lsa ham zarazi yo‘qligi haqida so‘z boradi.

Yuqorida aytganimizdek, xalqimiz mehmondo‘st va chorvador xalq bo‘lgani uchun ham yillar davomida yig‘ib farzandlari to‘yini qilib beradi. O‘sha vaziyatga nisbatan shevalarida *To‘y qilsang yeganiga chida, Qo‘y qilsang o‘lganiga chida* maqoli ko‘p ishlatiladi.

Chiroqchi tumanining Arabbandi qishlog‘ida *Bir ishim ikki ish, etigim popish* maqoli ham keng qo‘llaniladi. Tinib tinchimas xalqimizning qo‘li doim mehnatda biron ish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu paytda biron narsa olib kelgani yoki kattalarni buyrug‘i bilan o‘sha narsani olib kelishga borganda ish qilish jarayonida o‘sha ish uchun hayolidan ko‘tarilib ikki marta borib kelgan vaziyatda ishlatiladi. Xalqimiz buni esa hayolparastlikni oqibati deb biladi va hayolparastliging sababli bir ishingni ikki ish qilib qatnading, oqibatda etigini ko‘p yurib yemirding. Endi esa etiging yemrilib, popish bo‘lib qoldi degan ma‘noda qo‘llaniladi. Yuqorida

keltilgan *popish* so‘zi qipchoq shevasining tarixiy so‘zlaridan biri hisoblanib hozirgi kunda ham yoshi ulug‘ kishilar nutqida uchraydi,va bu so‘z adabiy tildagi *shippak* so‘zining shevadagi variant hisoblanadi. Bu maqol ishini eplab qilolmaydiganlarga nisbatan ishlatiladi.

“O‘zbek xalq maqollari” to‘plamining yil fasllari va tabiat hodisalari haqidagi maqollar bobida “*Yozning yomg‘iridan qo‘rq, Qishning – qirovidan”* maqoli uchraydi.Arabbandi qishlog‘ida esa bu maqolni manodoshi bo‘lgan *Kulib urgan erdan qo‘rq, Kun chiqib yoqqan yomg‘irdan* maqolidan keng foydalaniladi. Bu yerda ko‘rinishga qarab baho bermaslik haqida gap bormoqda. Bu maqolning *Yoz jandangni (yopinchig‘ing) tashlama, qishda o‘zing bilasan* versiyasidan ham ko‘p foydalaniladi. Shuningdek, “ O‘zbek xalq maqollar’’ to‘plami kitobida keltirilgan *Yo‘l quvgan g‘aznaga yo‘liqar, Gap quvgan baloga* maqolining shevalarimizda *Gap quvgan baloga uchrar, yo‘l quvgan g‘aznaga* kabi varianti qo‘llaniladi. Ko‘plab maqollarning o‘rnini almashtirib talafuz qilish orqali shevalarga moslashtirib olingan: *Yomon bo‘lsa ham o‘g‘il yaxshi, Qiyshiq bo‘lsa ham yo‘l yaxshi* kabi qipchoq shevasida qo‘llaniladigan bu maqolning asl variant *Qiyshish bo‘lsa ham yo‘l yaxshi , Yomon bo‘lsa ham – o‘g‘il* kabi keladi.

Maqollarni tasnif qilishning har bir turida mazmun yetakchi hisoblanadi. Unga ko‘ra Vatan, mehnat, xalq, ilm-hunar, mardlik, mehmon, tadbirkorlik, muhabbat va vafo, yaxshi so‘z kabi 30 ga yaqin mavzular qayd etilgan. Ammo bu mavzularni yanada kengaytirish ham mumkin. Chiroqchi shevasidagi yuqorida keltirilgan maqollarni o‘rganish jarayonida quyidagi mavzularga bo‘ldik.

Sog‘lik: *Yelkang borida kiy, Tishing boride ye*.

G‘am-tashvish: *To‘qqiz qizni to‘lg‘og‘i bir kelar, // O‘tiruvdim o‘ysiz eshagim keldi quloqsiz.*

Tarbiya: *Bo‘lmaganga bo‘lishma, // Xotin olsang yoshdan ol, Jilovini boshdan ol, // Ha deganni hayosi yo‘q, Qo‘rqadigan momo, bobosi yo‘q, // Bola bo‘lar boshidan, Maxov bo‘lar qoshidan.*

Mehnat: *Qizni joni qirqta, Qirqtasi ham qilday. O‘g‘ilni joni o‘nta, o‘ntasi ham uxlovday.*

Tejamkorlik: *Yozni jug‘indisi qishga osh qatiq,// Bozori yaqin boy bo‘lmas.*

Qarindosh-urug‘chilik: *Yo‘ldan chiqqan jo‘ra bo‘lmas, // Uzoqdagi quyruqdan , Yaqindagi o‘pka yaxshi, // Og‘am to‘ni jonim to‘ni, Qaqa bersa tikay uni, Yorim to‘ni jonim to‘ni, Jonim bilan tikay uni*, //*Ovdarilsa ovzi bir, To‘nkarilsa to‘zi bir.*

Sabr*: O‘tirgan qiz o‘rnini topar, Oq uylarni to‘rini topar*.

Mehr-oqibat: *Bozoring bozor emas, Hamsiyang bozor, // O‘zingniki o‘zagingdan tishlar, // Yetimni egasi ko‘p joniga foydasi yo‘q.*

Tenglik: *Hamma joyda bir xo‘roz qichirar*.

Risq-nasiba : *Molim-molim deyersan, Buyurganni yeyersan,// Hut yaxshi kelsa, qozon-qozon sut, Hut yomon kelsa, eyri-beyri tut.(Yaxshi kelgan hutti ko‘r–kadi-kadi sutni ko‘r, Yomon kelgan hutni ko’r – chappa-chappa putti ko‘r).*

Kamtarlik: *Jigitti jandani ichida tani.*

Do‘st-dushman: *Biroring(birodaring) bir or, Biroring bo‘lmasa ko‘tarib urar, // Eski paxta bo‘z bo‘lmas, Eski dushman do‘st bo‘lmas.*

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodining maxsus turiga kiruvchi maqollar xalqning manaviy boyligi hisoblanadi. Maqollar hajm jihatidan kichik, ammo mazmun jihatidan esa katta ma‘noni jamlagan hikmatli so‘zlardir. Maqollarda xalqimizning kechmishi, hayot tarzi, urf-odat va an‘analari, o‘z aksini topadi. Maqollarda asosan tasviriy vositaning qofiyadoshlik, kinoya va majoziy turidan keng foydalaniladi. Biz maqollardan kundalik hayotimizda unumli foydalanamiz. Butun umri davomida maqollardan foydalanmagan insonni o‘zi yo‘q. Ota-bobolarimiz tomonidan ishlatiladigan maqollarning farzand tarbiyasida ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov O‘zbek folklori. – Toshkent:2020,201-202-bet.

2. To’ra Mirzayev, Asqar Musoqulov,Bahodir Sarimsoqov O‘zbek xalq maqollari. Toshkent Sharq:, 2005.
3. O‘zbek xalq maqollari, Toshkent, 2014.

“BOZIRGON” DOSTONIDAGI METAFORALAR TAHLILI

ANALYSIS OF METAPHORS IN “BOZIRGON” EPISODE

Xaytaxmatova Dilnavoz Alijon qizi
ToshDO‘TAU talabasi
dilnavozxaytaxmatova174@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumiga kiruvchi “Bozirgon” dostonida qo‘llanilgan metaforalar tahlilga tortildi. Tahlillar natijasiga ko‘ra dostonda qo‘llanilgan metaforalarning aksariyati o‘xshatish asosiga qurilgan. Dostondagi 90% metaforalar “day” affiksi orqali hosil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *Metafora, Bozirgon, doston, ko‘chma ma‘no ,o‘xshashlik.*

Abstract*. In this article, the metaphors used in the “Bozirgon” saga, part of the “Eagle” Saga series, were subjected to analysis. According to the results of the analysis, most of the metaphors used in the Epic are built on the basis of analogy. 90% of the metaphors in the saga are generated by the affix “day”.*
Keywords: *metaphor, Bosirgon, epic, portable meaning, similarity.*

Narsa-buyum, voqea va hodisalar o’rtasidagi o’zaro o’xshashlikka asoslangan ma'no ko’chishiga metafora deyiladi. Metafora ko’chma ma'no hosil qilishning eng kenq tarqalgan usullaridan biri bo’lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “istiora” deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. «Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo’yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi». Faqatgina ma’lum bir so’zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi.[1]

“Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumiga kiruvchi “Bozirgon” dostoni hajman qisqa bo‘lsa-da, til imkoniyatlaridan yaxshigina foydalanilgan. Dostonda Go‘ro‘g‘li, Misqol pari, Avazxon, Bozirgon, Manjalaqixon, Qaldirg‘och, Mahmud bozirgon, Qora dev singari obrazlar galereyasi uchraydi. Asarda Bozirgon hech kim bilan ishi yoq, men senga tegmayman sen ham menga tegma qabilida ish ko‘radigan, biroq ancha baquvvat va bir so‘zli, gina saqlamaydigan obraz deyishimiz mumkin. U Rayhon arabning jiyani bo‘ladi. Ot ko‘tarolmaganidan fil minib, karvonboshilik qiladi. Zabiliston yurtining havosi yoqib, o‘sha yerga hovli joy qiladi. Karvonboshilik qilib yurgan vaqtda uni Go‘ro‘g‘liga qarshi qayrashadi. Bu yoqda Go‘ro‘g‘lini Bozirgon arabga qarshi kurashga da’vat qilishadi. Umuman, dostondagi aksar metaforalar saj’larni yuzaga keltirganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan:” *Bozirgon arabning har murti shop**day**, og'zi ko'hna qop**day**, ko'zlari kosa**day**, kipriklari six**day**, burnining teshiklari tulkining ini**day**, boshi chayla**day**, har panjalari o'n yashar bola**day** bo'lib, tuya ko'tara olmaganidan bir filni olti oylik kurra**day** qilib minib yurar edi*”,[2]- deyilganda metaforalar orqali folklor janrlaridan bo‘lgan dostonlarga xos bo‘rttirish, behad orttirilgan mubolag‘a san’atini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili fanidan ma’lumki, metaforalar ma’no ko‘chishiga xizmat qiladi.[3]*Ma’noning ko’chishi - bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki*

[1] Badiiy matnning lisoniy tahlili. -Nukus 2012,49.
[2] O ‘zbek xalq dostonlari. Bozirgon. -Toshkent: Sharq,2006.392
[3] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2013,

hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi.

Dostonda parilarni ta'riflash uchun ham metaforalardan foydalanilgan*: "Parilar qanday, badandagi jon**day**, bihishtning shamshodi**day**, sarv bo'yli, muloyim xo'yli"*[1]

Metraforada ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakliy o'xshashlik ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik narsa-predmetlarning u yoki bu qismlarini o'rin nuqtayi nazaridan o'xshatish bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida ma'no ko'chiriladi[2].

Doston syujetidagi ayrim detallarni kitobxonga emotsional-ekspressiv ta'sir kuchi balandroq bo'lishi uchun ham metaforalardan foydalanilgan: "*Bozirgon arab kelib, daryoning nargi labiga tushib, fillarning bir yeriga qistirilgan, yuzi o'tovning o'rnini olgu**day** katta bir ketmon bilan abil-g'ubil bir o'choq kovlab, tag'i bir filning bir yonboshiga osib qo'ygan qirq quloqli bir qozonni olib keltirib, o'choqqa osib, o'zining tuyalarini o'ldirishga ko'zi qiymay, ovqatlikka so'ymoqqa bir nima izlab, qo'riqda o'tlab yurgan, Go'ro'g'li sulton minib borgan yo'rg'ani tutib, tag'i bir no'g'oyning otini tutib, ikkovini ikki tustovuq**day** qilib, qo'lida shalbiratib kelib, bo'lak-bo'lak qilib qozonga solib, o'choqqa o't qo'yib, qozonni qaynatib, o'choqdan tekislikka tushirib olib, go'shtlarni junbozlab og'ziga tiqib, gumpillatib yutib yuborgan tovushi daryoning barcha betiga kela berdi*."[3] Otning tustovuqday qozonga solinish, albatta, aqlga sig'maydigan darajadagi bo'rttirish va bu shakl metaforani yuzaga keltiruvchi *-day* affiksi bilan ifodalanmoqda.

Xalq og'zaki ijodida doston epik janr hisoblansa-da, ayrim syujet liniyalari she'riy shaklda ham ifodalanadi. Xususan, Bozirgonning Go'ro'g'liga aytgan quyidagi gaplari ham aynan she'riy shaklda yozilgan:

"*Azobning otiga minmayin turgin,*
*Lochin**day** ustimga do'nmayin turgin.*
*G'ajir**day** lo'kanglab qo'nmayin turgin,*
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li."[4]

Asarda metaforalar nafaqat morfemalar, balki leksemalar orqali ham ifodalangan:

"*Tarzingga qarasam, **misli** gul g'uncha,*
Sultonni so'raysan, ukam, na muncha,
Biz bo'lamiz Go'ro'g'lining navkari,
Shu yerda turibmiz o'zi kelguncha"[5]

Yuqoridagi parchada Go'ro'g'li yigit suratiga kirib olgan Qaldirg'ochoyimga gapirganlaridan olingan. Umuman, dostonning to'liq matni bilan tanishar ekanmiz, 90 % metaforalar o'xshatish affikslari orqali ifodalanganini ko'ramiz. Asarda qo'llangan metaforalar doston kompozitsiyasidagi muhim belgilardan bo'lgan saj' san'atini yuzaga keltirishda, ritmik qoliplarning ohangdorligiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Nukus 2012
2. Jamolxonov.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti,2013,
3. Turdimov Sh. Go'ro'g'li dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. -Toshkent: Fan ,2011
4. O 'zbek xalq dostonlari. Bozirgon. -Toshkent: Sharq, 2006.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gorogli.

262

[1] O 'zbek xalq dostonlari. Bozirgon. -Toshkent: Sharq,2006.392
[2] Jamolxonov.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti,2013,263
[3] O 'zbek xalq dostonlari. Bozirgon. -Toshkent: Sharq,2006.395
[4] O 'zbek xalq dostonlari. Bozirgon. -Toshkent: Sharq,2006.399
[5] O 'zbek xalq dostonlari. Bozirgon. -Toshkent: Sharq,2006.404

JUMANIYOZ SHARIPOVNING “XORAZM” ROMANIDA QO‘LLANILGAN LEKSIK DIALEKTIZMLAR

LEXICAL DIALECTISMS USED IN JUMANIYOZ SHARIPOV'S NOVEL “KHORAZM”

Ollamova Kiyishjon Erkin qizi,
ToshDO‘TAU talabasi
ollomova.kiyishjon@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jumaniyoz Sharipovning “Xorazm” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar haqida so‘z boradi.*
Kalit so'zlar: *dialektizm, leksik dialektizm, dialektal so‘z, adabiy til, badiiy adabiyot, Jumaniyoz Sharipov, “Xorazm”.*

Abstract. *This article talks about the lexical dialectics used in the novel "Khorazm" by Jumaniyaz Sharipov.*
Key words: *dialecticism, lexical dialecticism, dialectal word, fiction, Jumaniyaz Sharipov, “Khorazm”.*

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlaming aks etishi dilektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizm, morfologik dialektizm va leksik dialektizm turlariga ega bo‘ladi [Ashirboyev, 2016:76]. Milliy tilning ajralmas qismi sifatida badiiy asarlarda ham alohida o'ringa ega bo'lgan dialektizmlardan kerakli vaziyatlarda unumli foydalana olish yozuvchining yetuk mahoratidan dalolatdir. Ushbu maqolamizda Jumaniyoz Sharipovning "Xorazm" romanida qo'llanilgan shevaga oid so'zlar, ya'ni leksik dialektizmlar haqida to'xtalib o‘tamiz.

1. Cho'girma – qo'y terisidan qilingan xorazmcha telpak: *Ibrohim ota kir **cho'girmasini** yechib qo'ydi-da, peshona terini artdi.*
2. Ulli – katta
3. Qurg'un – boy: *...Islomxo'jani o'zingiz bilasiz, **qurg'un** odam...*
4. Salma – kichkina ariq: *Sigir qoziqni uzib **salma**dan sakrab o'tibdi-da, Matjon to'raning paxtazoriga kirib g'o'zalarni yamlay boshlapti.*
5. Begor – xashar: *- Bunga aqlim yetadi, lekin bularni **begor** yo'li bilan soldirmoq kerak, xazinadan pul chiqarish kulgili.*
6. Pashshob – mirshab: *Darvoza oldida turgan **pashshob** chilimni yangilab o'zi bir tortdo-da: -To'ram, chilim, – dedi.*
7. G'o'ch – mard, botir: *– Osilgan kim? – Qiyotlik bir **go'ch** yigit*
8. Ajab – xo'p: *– Polvon, Madrayim qorani chaqir, pullarini keltirsin**.** – **Ajab**, og'a.*
9. Yovon – qishloq: *–**Yovonga** borgach, boqqa suv och, – degan edi.*
10. To'ssayadi – rangi ro'yi o'zgaradi, qovog'ini soladi ma'nosida: *Bir ishni buzdingmi, darhol **to'ssayadi.***
11. Asirtiradi – mast qiladi, quturtiradi: *-Mol-dunyo kishini **asirtadi**, - dedi yo'talib turib chol va o'zini rostlab olgach.*
12. O'mcha – o'tin: *– Qatorimiz ko'payar ekan, endi g'iring dab go'r-chi, belingda **o'mcha** sinadi.*

13. Uchak – tom, qap – eshik: *Kecha Ko'hna ark oldidan o'tgandim, ko'zim do'koningga tushdi, devor qiyshaygan, **qopisi** singan, **uchag**i bosay deb turibdi.*

14. Yezna – pochcha: – *Uh, noinsof! Pirnafas **yezna**ng, opang, jiyaning ahvoli ne kechar ekan, - dedi xafa bo'lib O'tar buva.*

15. Toza – yangi: ***Toza** maktab ochsang, kofir deydi, gazeta o'qisang, dahriy deydi.*

16. Kapcha – belkurakning kichik turi.

17. Badlanib – xo'mrayib

18. Qaptali – yon tomon: – *Kechasi chorsudan yerga qarab o'ylanib o'tib ketayotgan edim, birdan chap **qaptali**mdan Muslim eshon chiqib qolib: "Ha, Avaz, nega salom bermaysan?"- deb badlanib gapirdi.*

19. Doyradast – childirmachi: *Sheroziy "ajab" deb, aytgan kuniga Matyoqub **doyradast**ni olib to'yga boribdi.*

20. Nag'al – taqa*: -Xizmat janoblari, otlaringizga **nag'al** qoqaymi? - deb so'radi temirchi.*

21. Adanda – pastda, eshik oldida: *Sheroziy **adanda** tiz cho'kib, titrab-titrab, Durdibika buyurgan qo'shiqlarni aytibdi.*

22. Siyosat – do'q ma'nosida: - *Og'alar, "**siyosat**" qilmanglar, daxillashmanglar, - dedi.*

23. Dandona – pishiq g'isht terilgan joy: *U qozining qarshisida **dandona** ustida tiz cho'kib turdi.*

24. Chiqon – dugona: *"Yo'li oson, **chiqon**", - dedi darhol.*

25. Eltibiyi – eshon-imomlar xotinlari: *Enaga esa "Men bir **eltibiyi** bilan gaplashib kelay" -deb chiqib ketdi.*

26. Duziy – oltin-kumushdan qilingan bezaklar: *"Hoy qizlar, Osiljonni yaxshilab yuvintiringlar, yaxshi kiyimlarini olib kelinglar, **duziylarini** taqinglar", - deb o'zi xon oldiga chopdi.*

27. Taxya – do'ppi, Xorazm taxyasi chust, buxoro, tagdo'zi do'ppilaridan tamom farq qiladi. U hech buklanmaydi va taxlanmaydi, xuddi toshday qattiq bo'lib, chertsangiz jaranglaydi. Xorazm taxyasining bir necha xillari bor: *kimxob taxya, yopun baxmal taxya, oltin qozma taxya, toz taxya, ipak sochiqli baxmal shoyi taxya*.

28. Rosh – ariq anhorlar ichidan qirg'oqqa chiqarilgan loy, tuproq, yop - kanal: ***Yop** ichinda chumoliday harakat qilayotgan xalq birdan **rosh** ustiga chiqib ot qorasi ko'ringan tomonga tiz cho'kib qoldi.*

29. Kat – karavot: – *Galing, galing, to'rga, **katga** chiqing, - dedi kampir mulozamat qilib.*

30. Tavil – baraban: *"Biz indinga, xo'rozlar ikkinchi qichqirganda, pashshoblar **tavilini** urib o'tgach..."*

31. Deravarsin – joyi jannatda bo'lsin.

32. G'izal – bekor qilish, o'rnidan olish: *...qal'a hokimlarini daf'atan mansablaridan **g'izal** qilinib, agar xavainliklari hozir va sobit bo'lsa jazoga giriftor qilguzsinlar.*

33. Nishatamiz – nima ish qilamiz: – ***Nishatamiz** o'g'lim, taqdir, - dedi xo'rsinib ona.*

Romanda adib dialektizmlardan ikki o'rinda foydalanadi:

1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida: *ulli, qurg'un, salma, yap, begor, pashshob, g'o'ch, ajab, yovon, o'mcha, uchak, yezna, badlanib, doyradast, nag'al, chiqon, kat, g'izal, qap, toza, nishatamiz;*

2) adabiy tilda muqobili bo‘lmagan so‘zlarni majburan qo‘llaydi: *cho'girma, taxya, to'ssayadi, asirtiradi, kapcha, qaptali, adan, dandona, eltibiyi, duziy, rosh, tavil, deravarsin.*

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, muallif yirik hajmli asarida, garchi Xorazm tarixi haqida bayon qilsa-da, leksik dialektizmlardan uncha ko'p foydalanmagan. Buning asosiy sababi, Xorazm shevasi leksikonida aksariyat o‘zbek shevalaridan farq qiluvchi kuchli fonetik o'zgarishga uchragan dialektal so'zlarning ko'pligi, ulardan ko'p foydalanish kitobxonning diqqatini bo'lishi,

har bir dialektizm izohini sahifa ostidan topib o'qib borish ma’lum darajada noqulayliklarni yuzaga keltiradi, nazarimizda. Shularni inobatga olgan yozuvchi xalq jonli tiliga xos so‘z va iboralarni o‘rnida oz va soz qo‘llagan, shubhasiz.

Milliy tilimizning boyliklarini aks ettiruvchi, badiiy adabiyotda o‘rinli qo‘llanayotgan bunday dialektizmlar adabiy tilning rivoji va takomilida ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO‘Z, 2016.
2. Sharipov J. Xorazm. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
3. Abdullayev F. O‘zbek tilining Xorazm shevalari. – Toshkent: 1961.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.

XALQ MAQOLLARI VOSITASIDA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA XULQ-ATVOR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI VA METODIK ASOSLARI

CONTENT AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SHAPING A CULTURE OF BEHAVIOR IN SCHOOL-AGE CHILDREN THROUGH FOLK PROVERBS

Azizbek Turdiyev
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotation. *The article analyzes the pedagogical potential of Uzbek folk proverbs in shaping the culture of behavior among school-age children. Selected examples from the "Uzbek Folk Proverbs" collection are examined in terms of their artistic structure, moral content, and methodological application across six educational domains: patriotism, diligence and honesty, truthfulness, friendship and loyalty, justice and conscience, and the culture of speech. The mechanisms through which proverbs influence children (mnemonic, metaphorical, normative, and reflective) are substantiated, as are the methodological conditions for their use that align with age-specific characteristics.*

Key words: *folk proverbs, culture of behavior, spiritual-moral upbringing, educational domain, metaphorical image, reflection, age-specific characteristics.*

Xalq og‘zaki ijodi janrlari orasida maqol alohida ahamiyat kasb etadi: unda ixchamlik va chuqur mazmun, soddalik va falsafiylik uyg‘unlashadi. Maqol – til va axloqiy idrok nihoyatda ixcham shaklda mujassam bo‘lgan noyob hodisasidir. Maqolning tarbiyaviy imkoniyatlari uning janr xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ertak yoki doston axloqiy g‘oyani sarguzasht va obrazlar tizimi orqali bilan yurakka yetkazadi. Maqol esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ammo ko‘rsatma sifatida emas, balki obraz orqali ta’sir qiladi.

O‘zbek xalq maqollarining xulq-atvor madaniyatini shakllantirish yo‘nalishlari bo‘yicha tematik tasnifi. 1. Vatanparvarlik. Vatanga muhabbat – xulq-atvor madaniyatining boshqa barcha fazilatlari tutashadigan markaziy halqadir.

“Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas” – maqolning badiiy tuzilishida takror (iteratsiya) ishlatilgan: “qadr” so‘zi ikkala yarmida ham bor, ammo mazmun turlicha. Vatan qadri va inson qadri bir narsa emas – biroq maqol ularni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini aytadi. Bu axloqiy-falsafiy qonuniyatdir: o‘zini to‘la idrok etgan insongina o‘ziga tegishli yaxlitlikni – xalq va vatanni ham – idrok eta oladi. O‘qituvchi “Vataningizni yaxshi ko‘rasizmi?” deb so‘ramaydi – bu savolning javobi hamisha “ha” bo‘ladi. To‘g‘ri yo‘l boshqacha: “Vatandan uzoqda yashagan odam nimani eng ko‘p sog‘inadi?” – shunda bola o‘z ichki javobi orqali maqolning ma’nosiga o‘zi yetib keladi.

“Elga xizmat – oliy himmat”. “Oliy himmat” – arabcha himma (“yuksak intilish”) so‘zidan olingan. Demak, maqol elga xizmatni burch emas, insonning eng yuksak hayotiy maqsadi deb ta’riflaydi. Bu g‘oya Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi to‘rt ramziy obraz konsepsiyasiga [Qutadg‘u bilig 1971], Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi komil inson obraziga uyg‘un [Forobiy 1993]. Maqol shaklan maqtov, mohiyatan yo‘l ko‘rsatuvchidir.

2. Mehnat va halollik. To‘plamda mehnat va halollik mavzusidagi maqollar soni oltmishdan oshib ketadi – bu boshqa hech bir mavzudan ko‘p. Xalqning mehnatga munosabati nechog‘lik teran va ko‘p qatlamli ekanligini ana shu raqamning o‘zi aytib beradi. Mazmun jihatidan ular uch yo‘nalishga tarqaladi: mehnatning sharaf-u hurmati, tekinxo‘rlikning ayovsiz tanqidi, halol mehnat natijasining qadri.

“Ishlab topganning oshi – lazzatli” – mazmunan juda sodda ko‘rinadi. Ammo “osh” so‘zi o‘zbek madaniyatida “nasiba”, “rizq”, “umr” ma’nosini ham ko‘taradi; “lazzatli” esa moddiy ta’mdan ko‘ra ko‘proq ma’naviy qoniqishni ifodalaydi. Shu tariqa maqol bolaga “oziq-ovqat” haqida emas, mehnatdan tug‘iladigan ichki xotirjamlik haqida gapiradi. Sinfda: “Onang pishirib bergan ovqatni va o‘zing tayyorlagan ovqatni kim ko‘proq xush ko‘radi?” degan savol bolani tajriba orqali maqolning hikmatiga olib keladi.

“Manglay teringiz bilan topilgan mol – halol” – somatik metafora: manglay ter – mehnatning jismoniy, his etish mumkin bo‘lgan obrazi. “Halol” tushunchasi – diniy va axloqiy jihatdan nihoyatda og‘ir – ana shu ter orqali bolaga “osmondan tushmaydi” deb tushuntiriladi. J.Brunerning bilim uzatish nazariyasiga ko‘ra [Bruner 1966], somatik obraz bolaga enaktiv – tana tajribasiga ulangan – tarzda ta’sir qiladi, bu esa g‘oyaning xotirada muhrlanishini ta’minlaydi.

“Dili pokning ishi – pok” – garchi “halollik” bo‘limidan joy olgan bo‘lsa-da, u aslida xulq-atvor madaniyatining umumiy falsafiy asosini bayon etadi: ichki va tashqi poklikning ajralmasligi. Bola ko‘ngli pok bo‘lsa – ishi ham pok bo‘ladi; aksi mumkin emas. L.Kolbergning axloqiy taraqqiyot bosqichlari nazariyasidagi oltinchi – “universal axloqiy prinsip” – darajasi aynan shu haqda: inson tashqi nazorat uchun emas, ichki e’tiqod uchun yaxshi ish qiladi [Kohlberg 1981]. Maqol bu g‘oyani bolaga to‘liq ishontira olmaydi, ammo uning ongida urug‘ini ekib qo‘yadi.

3. To‘g‘riso‘zlik va va’daga sadoqat. “Aytilgan so‘z – otilgan o‘q” – o‘zbek maqollari orasida metafora jihatidan eng kuchlilaridan biri. “So‘z” va “o‘q” o‘rtasidagi o‘xshatishning aniqligi hayratomuz: ikkalasi ham otilgandan keyin qaytib olinmaydi, ikkalasi ham “yaralaydi” – yoki zarar, yoki naf keltiradi. Bu metafora bolaga so‘zning voqelikni o‘zgartiruvchi kuchga ega ekanligini ko‘rsatadi – ya’ni til faqat axborot emas, balki amal hamdir. Y.M. Lotmanning semiosfera nazariyasiga ko‘ra [Lotman 1996] so‘z belgi tizimidagi eng kuchli “dastak” bo‘lib, ijtimoiy reallikni qayta tuzadi. O‘n ikki yashar bolaning tilida buni his qildiradigan savol shunday: “Bunday bo‘lishi noto‘g‘ri emasmi?”

“Bilmaganni bildim dema, qilmaganni qildim dema” – parallelizm tuzilishi maqolga ritmik kuch beradi: ikkala misra bir xil qurilgan, ammo mazmun – ikki turli yolg‘onni, bilim sohasidagi va amal sohasidagi yolg‘onni – aynan bir xil kesimda qoralaydi. Pedagogik natijasi: bolada kamtarlik va rostgo‘ylik bir emas, ikkita alohida fazilat sifatida seziladi va ularni aralashtirmaslikka o‘rgatadi.

“Asli qora oqarmas, asli buzuq tuzalmas” – tabiiy qonun orqali axloqiy hukm chiqariladi: rang o‘zgarmasligi fizik haqiqat, yomonlikning tuzalmasligi – axloqiy ogohlantirish. Bu analogiya usulida bolaning tabiat haqidagi bilimi axloqiy tushuncha uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bunda ikkita tarbiyaviy ta’sir mavjud: birinchisi – yolg‘on va munofiqlikni “tabiatga zid” deb idrok etish; ikkinchisi – illatni o‘z vaqtida bartaraf etishga undash. Tarbiyaviy fursat: “Asli yaxshi degan odam mavjud emasmi?” degan suhbatni boshlash mumkin.

4. Do‘stlik va sadoqat. O‘smirlik davrida tengdoshlar munosabati birinchi o‘ringa chiqadi – E. Erikson buni shaxs “identiklik” inqirozi deb nomlagan [Erikson 1968]. Qanday odamlar bilan do‘stlashaman, do‘stga qanday odamman – o‘n uch yashar bolani aynan shu savollar bezovta qiladi. Xalq maqollari aynan shu psixologik ehtiyojga mos tarzda gapiradi; o‘smir ularda o‘z savoliga javob topadi.

“Daraxt – ildizi bilan, odam – do‘stlari bilan” – maqolning obrazli yadrosi “daraxt – odam” muqoyasasidan iborat. Daraxtni tuproqdan ajratsak – xazon; odamni do‘stlardan ajratsak – ma’nosizlik. “Ildiz” ko‘rinmaydi, ammo tiriklik undan. Shu tariqa do‘stlik “ko‘zga yaxshi ko‘ringan narsa” sifatida emas, yashashning asosi sifatida taqdim etiladi. Bola maqol orqali do‘stni qadrlamasdan yashash mumkin emasligini o‘zi his etgan narsaga ulanib anglaydi.

“Sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi” – maqol sadoqatni inson umrining eng uzun o‘lchami – o‘lim – bilan bog‘laydi. Bu giperbolaning kuchi shundaki, “sodiq do‘st” tushunchasiga berilayotgan vazn nechog‘lik katta ekanligi seziladi. Refleksiv savol: “Hayotingizda ana shunday do‘st bormi? Unda nima bor?” – bolani konkret tafakkurdan umumlashgan axloqiy xulosaga olib boradi.

5. Adolat va vijdon. Adolat mavzusidagi maqollar – to‘plamning falsafiy jihatdan eng og‘ir, mulohazaga da’vat etuvchi guruhi. L.Kolberg o‘zining axloqiy hukm intervyusida bolalarga aynan adolat haqidagi dilemma-vaziyatlarni taqdim etgan edi [Kohlberg 1981]. Xalq maqollari o‘sha turdagi dilemmalarni bolalarga madaniy-tarixiy zaminda, jonli badiiy shaklda taqdim etishning mukammal yo‘lidir.

“Vijdondan kechgan yiqilar” – maqol vijdonni tashqi ijtimoiy tartibning emas, ichki nazoratchining o‘rniga qo‘yadi. Vijdonsiz odam boshqalarga zarar berishi mumkin, ammo maqol boshqa narsani ta’kidlaydi: u oxir-oqibat o‘zi yiqiladi. Bu – axloqiy jazo tashqaridan emas, balki ichdan keladi degan g‘oyadir. Kolbergning yuqorida tilga olingan oltinchi bosqichi aynan shunga mos: inson ichki prinsiplari asosida hukm chiqaradi, tashqi sanksiyadan qo‘rqib emas. Sinfda suhbat mavzusi: “Vijdonsizning o‘zi nima yo‘qotadi?”

“Adovat emas, adolat yengar” – tuzilishi paradoksal: adovat kuchli, jasur, ochiq ko‘rinadi; adolat esa tinch, kam gapiruvchi. Ammo maqol “yengadi” deydi. Bu bolaga kuch nimada – jismoniy ustunlikdami, prinsipdami – degan savolni uyg‘otadi. Konfutsiyning axloqiy ta’limotidagi [Confucius 1979] va Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi [Confucius 1979] “ma’rifat – kuch” g‘oyasiga bu maqol tayyor badiiy hujjatdir.

“Birovni qarg‘asang, o‘zingga urar” – “bumerang” prinsipi: yomonlik niyat qilingan tarafga emas, niyat qiluvchining o‘ziga qaytadi. I.Kantning axloq falsafasidagi “kategorik imperativ” talabi – “shunday tutki, xulqing umumiy qonun bo‘la olsin” – aynan shu mantiqqa asoslanadi [Kant 1997]. Maqol bolaga yomonlik tilashning nafaqat axloqan noto‘g‘ri, balki o‘ziga ham zararli ekanini ko‘rsatadi – bu esa hatto egoistik yoshga ham ta’sir qiladigan dalildir.

6. So‘z va muomala madaniyati. “Bir shirin so‘z bitkazar, ming ko‘ngilning yarasin” – badiiy jihatdan eng mukammal maqollardan biri. Son kontrasti (bir – ming) giperbolani yaratadi: bittagina so‘z – minglab jarohatga malham. “Yara” – jismoniy metafora: his-tuyg‘u jismoniy zararga tenglashtiriladi, bola esa hamdardlik tuyg‘usini go‘yo bevosita his etganday idrok etadi. Bunda shirin so‘z go‘zal narsa sifatida emas, ta’sir kuchiga ega vosita sifatida taqdim etiladi.

“Anjom – uy ziynati, so‘z – inson ziynati” – parallelizm: “uy – inson” muqoyasasi. Uyni har xil anjomlar ziynatlaydi; insonni – nutqi, gapirish tarzi, so‘z tanlashi. “Ziynat” so‘zi estetik ma’no qo‘shadi: chiroyli nutq nafaqat axloqiy, balki estetik qadriyat hamdir. Nutq madaniyatini me’morchilikka tenglashtirish bolaga tuyg‘ular orqali yo‘l ochadi.

“Hikmat – bir hovuch oltin” – o‘zi hikmat haqidagi hikmat. “Bir hovuch” – kichik, ammo oltin. Ixcham, nuqtaga to‘g‘ri gap – ko‘p so‘zdan qimmatliroq. Bola uchun saboq: ko‘p gapirish donishmandlik emas – kam, ammo vaznli gapirish. Tarbiyaviy ta’siri: “O‘ylab, o‘lchab gapir” o‘gitini butun bir falsafaga aylantiradi.

Maqollarning xulq-atvor madaniyatini shakllantirish mexanizmlari. Olti yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan tahlil maqollarning bolaga qanday ta’sir qilishini tushuntirib beradigan to‘rtta mexanizmni ajratishga imkon berdi.

Birinchi mexanizm – mnemonik. Maqollarning ohangdorligi, ritmik tuzilishi va parallelizmi ularni xotiraga oson muhrlaydi. Muhrlangan maqol tegishli vaziyatda bolani ichidan “uyg‘otadi”: yolg‘on gapirishga og‘iz ochilgan damda “Aytilgan so‘z – otilgan o‘q” ongda o‘z-o‘zidan jonlanadi. Bu – tashqi nazoratning o‘rnini ichki dastak egallaydigan lahzadir.

Ikkinchi mexanizm – metaforik obraz. Maqol axloqiy g‘oyani mavhum ko‘rsatma emas, konkret obraz orqali ko‘rsatadi: “manglay teri”, “otilgan o‘q”, “ildiz”. Obrazli til bolalarning obrazli tafakkuriga mos tushadi va axloqiy g‘oyaning avval emotsional, keyin ongli tarzda qabul qilinishini ta’minlaydi – ya’ni bola “bu to‘g‘ri” deb his qiladi, so‘ngra tushunadi.

Uchinchi mexanizm – normativ baho. Maqol xalqning o‘ziga xos “axloqiy sudi” – muayyan xulq yoki holat haqida berilgan tayyor hukmdir. Bola maqol orqali kimningdir shaxsiy fikrini emas, ko‘p avlod sinovidan o‘tgan me’yorni ishonch bilan qabul qiladi.

To‘rtinchi mexanizm – mustaqil refleksiya. Maqolning ko‘p ma’noli tuzilishi bolani matn ostidagi qatlamni o‘zi kashf qilishga undaydi. “Bu maqol nimani bildiradi?” degan savol passiv tushuntirishga olib keladi. “Bu maqol hayotingizda bor-yo‘qmi?” degan savol esa bolani o‘zini tahlil qilishga chorlaydi. Aynan ikkinchi savol – tarbiyaviy lahzaning haqiqiy boshlanishidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollari maktab yoshidagi bolalarda xulq-atvor madaniyatini shakllantirishning boy va o‘ziga xos pedagogik resursidir. Ularning tarbiyaviy kuchi ixchamlik, obrazlilik va ko‘p ma’nolilikning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi: maqol axloqiy g‘oyani tayyor ko‘rsatma sifatida emas, bola o‘zi kashf etadigan hikmat sifatida taqdim etadi. Olti tarbiyaviy yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil maqollarning mnemonik, metaforik, normativ va refleksiv mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi, bu esa ularni nafaqat yodlatish, balki bolani mustaqil axloqiy mulohazaga undash vositasi sifatida qo‘llash zarurligini asoslaydi. Maqollardan foydalanishning samaradorligi bolani faol mulohaza yurituvchi sifatida jalb etish va tanlangan namunalarni yosh xususiyatlariga moslashtirish shartlariga rioya etilgandagina ta’minlanadi. Ushbu yondashuv maktab amaliyotida xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning ilmiy-metodik asosini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. (tuzuvchilar). O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (nashrga tayyorlovchi Q. Karimov). – Toshkent: Fan, 1971.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri (tarj. A. Irisov, M. Mahmudov, U. Otajon). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Bruner J.S. Toward a Theory of Instruction. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1966.
5. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. I: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981.
6. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек - текст - семиосфера – история. – Москва: Языки русской культуры, 1996.
7. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 1968.

8. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. I: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981.
9. Confucius. The Analects (transl. by D.C. Lau). – London: Penguin Classics, 1979.
10. Navoiy A. Mahbub ul-qulub // Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998.
11. Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals (transl. by M. Gregor). – Cambridge: Cambridge University Press, 1997.

MUSTAQILLIKKACHA BO’LGAN DAVRDA BOLALAR ADABIYOTIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI

THE CONCEPT OF THE HERO IN CHILDREN'S LITERATURE OF THE PRE-INDEPENDENCE PERIOD

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi v.b. dotsenti, (PhD)
Uzaqova Lola Abdurashitovna
ORCID:0009-0006-0060-2708

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek bolalar adabiyotida qahramon konsepsiyasining badiiy-estetik va mazmuniy transformatsiyasi tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotida bola qahramonining dunyoqarashi, ruhiyati, individual “men”i, ijtimoiy faolligi hamda zamonaviy hayotga munosabati yangicha talqin etilgani yoritiladi. Qahramon obrazining an’anaviy axloqiy-didaktik mezonlardan individuallik, mustaqil fikrlash, kreativlik va raqamli muhit bilan bog‘liq yangi xususiyatlar tomon evolyutsiyasi ochib beriladi. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bola qahramoni xarakteri va dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada mustaqillik davri bolalar adabiyotida qahramon konsepsiyasining yangilanish tendensiyalari badiiy matnlar asosida ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *mustaqillik davri, o‘zbek bolalar adabiyoti, qahramon konsepsiyasi, bola obrazi, badiiy-estetik tafakkur, individuallik, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, zamonaviy qahramon, psixologizm.*

Abstract. This article analyzes the artistic, aesthetic, and conceptual transformation of the hero concept in Uzbek children’s literature of the independence period. It examines the new interpretation of the child character’s worldview, psychology, individual identity, social activity, and attitude toward contemporary life in children’s literature after independence. The study highlights the evolution of the hero’s image from traditional moral and didactic models toward individuality, independent thinking, creativity, and characteristics associated with the digital environment. It also explores the role of national and universal values in shaping the character and worldview of the child hero. The article theoretically examines the emerging trends in the transformation of the hero concept in Uzbek children’s literature of the independence period based on selected literary texts.

Key words: *independence period, Uzbek children’s literature, hero concept, child character, artistic and aesthetic thinking, individuality, national values, universal values, contemporary hero, psychologism.*

“She’riyatda lirik qahramon masalasi ancha murakkab hisoblanadi. Shoir “men”i bilan she’rda ifodalanayotgan poetik obraz ko‘p hollarda muvofiq kelsa, ba’zan bir-biridan farqlanadi” [Карамова 2012;20]. Bolalar she’riyatida esa bu masala ikki karra murakkablik kasb etadi. Avvalambor shuni ta’kidlash kerakki, bolalar uchun yozilgan she’riy asarlarda lirik qahramonning muallif “men”i bilan aloqasi uzviy bo‘lmaydi. Lirik qahramon tushunchasiga berilgan ta’riflar shunchalar ko‘pki, ular ayrim o‘rinlarda chalkashliklarni ham keltirib chiqaradi. Shunga qaramay qancha fikr mavjud bo‘lsa, lirik qahramonning shuncha talqini bor deb baholash mumkin.

Umuman olganda bolalar adabiyotidagi qahramon konsepsiyasida lirik maqomidan ko‘ra, uning obrazlik masalasi birinchi planga chiqadi. Birinchida, bolalalar she’riyatidagi lirik qahramon she’riy asardagi bolaning ichki kechinmalari, tuyg‘ulari, orzu-istaklari, atrofdagi olamga munosabatini ifodalaydigan badiiy obraz sanaladi. U aksariyat holatlarda bola obrazi bilan hamohanglik kasb etadi, shunga qaramay uning hamisha shoirning “men”i yoki real vaziyatdagi haqiqiy bola bo‘lishi majburiy emas. She’rda u shunday obrazki, u orqali boshqalar ham tashqi olamni uning ko‘zlari bilan kuzatadi, ichki olami bilan ham do‘st bo‘la oladi, ya’ni u o‘ziga hamdam qahramondir, (o‘zi bilan gaplashadi, yolg‘izlikda o‘zini, harakatlarini tahlil qiladi va h.k.) shu bilan birga u boshqa bolalar uchun borliqni anglashda ko‘makchi, dunyoni anglash tarzini o‘zida mujassamlashtiruvchi badiiy subyektdir.

Zamonaviy bolalar adabiyotidagi qahramon portretini shakllantirishda qiyosan tahlil qilish maqsadga muvofiq. Avvalgi asrlarda bolalar adabiyotidagi qahramon qiyofasi qandayligi, uning ichki kechinmalari, maqsadlari nimalar bilan bog‘liqligini o‘rganish orqali zamonaviy bola obrazi bilan o‘xshashlik va tafovutlari o‘rtaga chiqadi.

Zotan mustaqillikkacha bo‘lgan davrda bolalar adabiyotida ham lirik qahramon erkinlik istagan, hurlikka intilgan obraz o‘laroq namoyon bo‘lgan edi. Bu davrda “...o‘zlikni anglash, ayniqsa asrning dastlabki o‘nyilliklarida kuchli tus oldi. Milliy mustaqillikka erishish, Vatan ozodligi tuyg‘ulari tarannumi tuyg‘ulari bu davr publitsistikasi, she’riyatining bosh mavzularidan biriga aylandi” [Тўлаков 1995;25]. So‘z erkinligi cheklangan muhitda o‘z ichki og‘riqlari-yu o‘kinchlarini baralla she’rga sololmagan shoirlar-u yozuvchilar bolalar adabiyotiga yuzlandilar. Bu paytda ramzlardan foydalangan holda bolalar uchun yaratilgan asarlarda erk mavzusi tarannum etildi.

Bunday asarlardagi bola qahramon ham o‘zlikni anglashga intilgan, o‘z ma’naviy qiyofasini tanishga harakat qilayotgan farzand siymosida gavdalanganini ko‘ramiz. Milliy mustaqillik erishib bo‘lmaydigan cho‘qqidek ko‘ringan o‘sha yillarda bolalar she’riyatining bosh mavzusi ham aynan shu mazmun tegrasida aylanavergan. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi eng muhim evolyutsiya sifatida uning erkka tashnaligini olish to‘g‘ri bo‘ladi.

Mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi bolalar she’riyatini ham bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganish kerak. Chunki bu davr keng qamrovda. Masalan, XIX asr oxiridan boshlab XX asr boshlaricha bo‘lgan davrda bolalar adabiyoti deb hisoblash mumkin bo‘lgan asarlarda bola qahramoni o‘ta odobli, o‘zidan kattalarga itoatda, ilmga qisman intiladigan, shu bilan birga diniy-axloqiy tarbiya olishga e’tiborini qaratadigan shaxs sifatida tasvirlanib keladi. Bu davrda yaratilgan asarlardagi bosh g‘oya odob-axloq, yaxshilik, ilm (ko‘proq diniy) mavzulari atrofida aylanadi. Bunday bola boshqalarga o‘rnak qilib ko‘rsatiladi, u yoki butunlar salbiy bo‘yoqlarda, yoki aksincha ijobiy ranglarda tasvirlanadi.

Shu o‘rinda jamiyatning bola shaxsiga munosabati ham she’rlarda aks etishini ta’kidlash kerak. Qolaversa, ma’lum davrda yaratilgan obrazlar o‘sha muhitdagi jamiyatning estetik ideallari bilan hamohanglik kasb etadi. “Estetik ideal muammosi nafaqat adabiyotshunoslik, balki san’atshunoslik, estetika va falsafaning ham obyekti hisoblanadi” [Хализев 2002]. O‘sha davrda jamiyat qabul qilgan bola obrazi aynan shu ko‘rinishda bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Insonlarning estetik ideallari go‘zallikka, ezgulikka qarashlari aynan odobli, tarbiyali, itoatkor bola timsolida o‘rtaga chiqqan.

Shu jihatdan bola qahramonning to hozirgi kungacha bo‘lgan evolyutsiyani tarbiya obyektidan mustaqil badiiy jihatdan shakllangan subyektgacha bo‘lgan tizimda ko‘rib chiqish mumkin. Jadid davrida bola obrazini bir nom bilan “ma’rifatli” deb atash mumkin. Sababi u

savodli bo‘lishni istaydi, maktabga intiladi, ma’rifatsevar, yurt va millat istiqboli uning kelajagi bilan bog‘langan. Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” asarida tasvirlangan bola obrazi ham o‘qimagani sabab ota qotiliga aylangani ta’kidlanadi. Bu davrda yaratilgan asarlardagi bola obrazi ma’rifat nurlari bilan ozuqlanmagani uchun afsus chekuvchi, uyg‘onishga da’vat qilinayotgan, milliy tafakkur tushunchasiga ega bo‘lishga chorlanayotgan farzanddir. Asarlardagi yetakchi g‘oya ham aynan shular atrofida aylanadi.

1920-1930-yillar qisman oraliqda qolgan davr sanaladi. Bu muhitda jadidlar ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi, ammo ko‘zlangan maqsadga to‘la yetib bormagani uchun keyingi bosqich sifatida ham e’tirof etish mushkul. Ammo ushbu oraliqdagi yillarda jadid davridagi bola obrazida farqli ravishda eski qarashlardan voz kechishga harakat qiladi, yangi maktab hamda yangi hayot tarafdori ekanini his qila boshlaydi. U nofaol emas, balki faol qahramon sifatida maydonga chiqadi. Asosiy g‘oya sifatida anglam, jasorat, mehnat singari elementlarni keltirish mumkin. Bu davrda yaratilgan asarlarda urush nafasi ham seziladi. Birinchi jahon urushidan keyingi xalq kayfiyati bolalar qiyofasida ham aks etadi. G‘afur G‘ulomning “Mening og‘rigina bolam” hikoyasidagi o‘g‘ri bola misolida bu manzara yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan bu davrda yaratilgan bola qahramonni “urush bolasi” deb atash mumkin.

1940-1950-yillar ham urush yillari bo‘lgani sababli jamiyatning kayfiyati ijodkor laboratoriyasida ko‘rinadi. Bolalar obrazi ham shu kayfiyatga mos tarzda shakllangan bo‘ladi. Aslida “... obrazning yozuvchi tasavvuridagi ko‘rinishi, uning konkret namoyon bo‘lishi estetik ideal tushunchasining asosiy mohiyatini belgilaydi... Ijodkor har bir obrazni estetik normalar asosida badiiy jihatdan mukammal yaratibgina qolmay, ayni bir vaqtning o‘zida shu obrazga o‘zining munosabatini ham bildiradi, ya’ni uni yo tasdiqlaydi, yo inkor etadi...” [Хотамов 1973; 359]. Ammo bu davrda yaratilgan asarlarda estetik ideal obraz ko‘zga tashlanmaydi, bu yoziqlarda bolalar ayniqsa o‘zbek adabiyotida hali vatan nima ekanini to‘liq anglab yetmagan, ammo urush nafasini ikki karra his qilgan, boshidan o‘tkazgan qahramonlardir. Shu sababli ular ancha-muncha qiyinchiliklarga chidamli qilib tasvirlanadi. Asarlardagi yetakchi g‘oyalar sifatida anglanmagan vatan falsafasi, urush nafasi, mehnat kabilarni keltirish mumkin. Shu jihatdan bu davrdagi bola konsepsiyasi “katta bola” g‘oyasi asosida shakllanganini ko‘rish mumkin. Chunki ular kichik yoshli bola emas, allaqachon hayotning achchiq-chuchugini totgan katta insondir.

1960-1980-yillar o‘zbek bolalar she’riyatida qahramon biroz bolalikka qaytgan holatda tasvirlanadi. U birmuncha qiziquvchan, sho‘x, xayolga beriluvchan, tabiatni ham sevadigan, maktabni yaxshi ko‘radigan, do‘stlikni qadrlaydigan pozitsiyada namoyon bo‘ladi. Yetakchi g‘oyalar esa bolalik, maktab, do‘stlik kabilardir. Yuqoridagi xususiyatni inobatga olib bu davrda yaratilgan asarlardagi qahramon “bolalikka qaytayotgan obraz” ekanini ko‘ramiz. Bundan avvalgi davrlarda kattalarda xos qiyinchiliklarni yengib o‘tayotgan qahramon endi yana qayta chinakam bola obrazga aylanish yo‘lidan boradi. Chunki u yana osmondek orzulari bilan yashay boshladi, urushdan keyingi nisbatan turg‘unlik yillarida insonlar birlamchi ehtiyojlarda boshqa ma’naviy zaruratlar haqida ham eslay boshladi.

1990-yillar bolalar she’riyatida yuqorida ta’kidlangandek, mustaqillikka intiladigan bola qahramonlar uchraydi. Ular milliy o‘zligini anglayotgan, Vatan va mustaqillik tushunchalarini his qiladigan bolalardir. Yillar davomida bolalar she’riyati o‘z ideal bola qahramoni izlab keldi. Ammo bolalar she’riyatidagi qahramonlarga “ideal” maqomini yuklash qanchalik to‘g‘ri degan savolga javob izlanmadi. Darhaqiqat, inson ideallikka intilib yashaydi. Uning yetuklikka bo‘lgan ehtiyojini turli manbalar bilan qondirishga urinish seziladi, ana shunday unsurlardan biri adabiyot ekani ham hech kimga sir emas. Ammo bu vazifani kattalar uchun yaratilgan asarlar qahramonlariga tegishli deb bilgan, boladan ideal qahramon yasashni majburiylashtirmaslik lozim degan qarashni ilgari surgan bo‘lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карамова Ш.Л. Ўзбек шеъриятида поэтик тасвир ва лирик қаҳрамон талқини (Жуманиёз Жабборов шеърияти мисолида). Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 20.

2. Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини. Филол.фан.док...дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 25.
3. Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002.
4. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 165-359.

CHET TILLARINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TASHKILIY-PEDAGOGIK BOSHQARISH

ORGANIZATIONAL-PEDAGOGICAL MANAGEMENT OF THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Nilufar Bo‘riyeva
Yangi O‘zbekiston universiteti, magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘rgatish samaradorligini oshirish maqsadida sun’iy intellekt hamda interaktiv raqamli vositalar integratsiyasini tashkiliy-pedagogik jihatdan boshqarish muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagoglarning AI-kompetentligini bosqichma-bosqich shakllantirish, hamda o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy raqamli platformalarni maqsadli joriy etishga qaratilgan boshqaruv mexanizmi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: ta’lim menejmenti, sun’iy intellekt, AI-kompetentlik, raqamli texnologiyalar, chet tilini o‘qitish, tashkiliy-pedagogik boshqaruv, interaktiv metodlar.

Abstract. *This article analyzes the organizational and pedagogical challenges associated with integrating artificial intelligence and interactive digital tools to enhance the effectiveness of foreign language instruction in educational institutions. Furthermore, it substantiates a management mechanism aimed at the phased development of educators' AI competence and the targeted implementation of modern digital platforms within the educational process.*

Key words: *educational management, artificial intelligence, AI competence, digital technologies, foreign language teaching, organizational-pedagogical management, interactive methods.*

Kirish.

Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi o‘quv-tarbiya faoliyatini tashkil etish va boshqarishga doir yondashuvlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Xususan, chet tillarini o‘qitish amaliyotiga sun’iy intellekt

(AI) texnologiyalari, jumladan, intellektual chat-botlar, topshiriq generatorlari hamda adaptiv ta’lim platformalarining kirib kelishi o‘quv mashg‘ulotlarini individuallashtirish va samaradorlikni oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aksariyat ta’lim muassasalarida ushbu texnologiyalardan foydalanish tizimli tavsifga ega emas va asosan o‘qituvchilarning shaxsiy tashabbuslariga tayangan holda amalga oshirilyapti. Sun’iy intellekt imkoniyatlarini pedagogik jarayonga oqilona va doimiy integratsiya qilishni ta’minlaydigan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmagani mazkur ilmiy izlanishning dolzarbligini ifodalaydi.

Tahli va natijalar.

Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini oshirishga yo‘naltirilgan sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishni tashkiliy-pedagogik boshqarish modelini hamda uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy mazmuni va natijalar.

Chet tillarini o‘qitishda AI texnologiyalarini boshqarish faqatgina texnik ta’minot bilan cheklanib qolmay, balki u muassasa darajasidagi strategik va metodik qarorlar majmuini o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari ajratib ko'rsatilishi zarur.

Institutsional va texnik imkoniyatlar diagnostikasi.

Muassasada mavjud raqamli infratuzilma holatini, o‘quv-metodik bazani va pedagogik jamoaning amaliy ehtiyojlarini har tomonlama baholash.

Pedagoglarning AI-kompetentligini tizimli rivojlantirish.

Chet tili o‘qituvchilarida promt-injenering ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv materiallarini avtomatlashtirilgan tarzda moslashtirish, test va interaktiv topshiriqlar yaratish hamda akademik etika (plagiat, ma’lumotlar xavfsizligi) qoidalariga rioya etish madaniyatini qaror toptirish, tushuntirish ishlarini olib boorish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prompt engineeringni yaxshi o‘zlashtirgan talaba yoki tadqiqotchi AI’dan shunchaki foydalanibgina qolmay, kerakli natijani olish uchun uni to‘g‘ri boshqara oladi. Akademik yozuvda esa bu ko‘nikma:

- yozish jarayonini tezlashtiradi;
- tadqiqot va ma’lumot izlashni tartibga soladi;
- matn sifatini yaxshilashga yordam beradi;
- AI imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Boshqaruv va monitoring tizimini maqbullashtirish.

Ta’lim jarayoniga AI vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali dars samarasini doimiy baholab borish mexanizmini yaratish. Aynan shu nuqtai nazardan, chet tili mashg‘ulotlarida AI imkoniyatlarini boshqarishning uch bosqichli modeli taklif etiladi:

Kognitiv-tayyorgarlik bosqichi.

O‘qituvchilar uchun sun’iy intellekt va interaktiv platformalarning yangi versiyalari bo‘yicha mahorat darslari, amaliy treninglar va uslubiy seminarlar tashkil etish.

Amaliy-texnologik bosqichi.

O‘quv mashg‘ulotlarida AI generatorlari, o‘yinlashtirilgan (gamification) topshiriqlar, tog‘ri va ishonchli prompt yozish va avtomatlashtirilgan baholash vositalarini integratsiya qilish.

Analitik-monitoring bosqichi.

AI vositalarining talabalar/o‘quvchilar til o‘zlashtirish dinamikasi va motivatsiyasiga ko‘rsatayotgan ta’sirini tahlil qilish hamda zarur tuzatishlarni kiritish.

Xulosa.

Xorijiy tillarni o‘qitishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni tashkiliy-pedagogik boshqarish o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun maqbul sharoit yaratishga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan yondashuv o‘qituvchilarning rutinali, ko‘p vaqt talab etadigan ish hajmini qisqartirish, darslarning interaktivlik darajasini oshirish, hamda ta’lim muassasasida zamonaviy raqamli-pedagogik muhitni barpo etishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son. – T., 2020.

2. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – T.: Fan, 2006.

3. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence In Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.

4. Louie Giray (2023), “Prompt Engineering with ChatGPT: A Guide for Academic Writers”.

ETNIK BELGILI TOPONIMLAR TAHLILI
ANALYSIS OF ETHNIC IDENTIFIED TOPONAMES

Sardor Islomov

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotation: *This research material analyzes the issue of the reflection of ethnic signs in toponyms, which are considered one of the main levels of the onomastic system. In classifying these linguistic units, called ethnotoponyms, the existing scientific data in world and Uzbek linguistics are analyzed. Examples of ethnotoponyms located in Uzbekistan are given and their relationship is expressed.*

Key words: *ethnolinguistics, toponym, ethnic characteristics, ethnotoponym, historical and modern ethnotoponyms, Toylaq, Karamuyin.*

Etnolingvistik tadqiqotlar har qanday holatda ham murakkabdir. U turli madaniy kodlardan olingan ma’lumotlarga asoslanib, dunyoning an’anaviy manzarasining ma’lum bir qismini tasvirlashga yoki tilda mavjud bo‘lgan ma’naviy madaniyatni aks ettirish xususiyatlarini (boshqa madaniy kodlar fonida) aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Tabiiy tilning har qanday qatlami, shu jumladan, umumiy denotativ yo‘nalishga ega birliklar, xususan, onomastik tushunchalar ham voqelikning ma’lum bir qismi haqidagi ma’lumotlarni kodlaydi, ma’lum bir tilida so‘zlashuvchining ichki dunyosi, tafakkur tarzi bilan bog‘liq holda qayta ishlanadi va shunga mos ravishda ularning ma’naviy madaniyatining xususiyatlarini o‘zida ifoda etadi [Березович, 1998]. Madaniy kodlar xalq tarixi bilan bevosita bog‘liqligi bois etnolingvistik tahlilni ham talab etadi. Bunday tahlillar esa shu sohaga oid tushunchalar sharhi va terminlar mohiyatiga asoslanadi. Shuningdek, etnik o‘ziga xoslik ham ahamiyatlidir.

Etnik xoslanishlar onomastik tizimning deyarli barcha sathlarida o‘z ifodasini topadi. Chunki kishilar, ko‘pincha, biror bir nom qo‘yayotganda o‘z ajdodlari, ota-bobolari va urug‘iga ham ishora qiladilar. Shunga ko‘ra, etnoantroponimlar, etnotoponimlar, etnooykonim kabi onimlar yuzaga keladi.

Toponimiyaga etnolingvistik tadqiqotlar uchun manba sifatida murojaat qilish dolzarbdir. Toponimiyani etnolingvistik o‘rganishning dolzarbligi shundan kelib chiqadiki, xalq ma’naviy madaniyatining bu yetarlicha o‘rganilmagan qatlami insonni o‘rab turgan makon haqidagi ma’lumotlarni kodlaydi va uni idrok etish dunyoning milliy modelining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Toponimlar, ayniqsa, etnotoponimlar, ma’lum bir hudud aholisining etnik tarkibi bilan chambarchas bog‘liq, chunki ular ularni yaratgan xalqlarning tafakkuri mahsulidir. Ko‘pgina hollarda, turli xalqlarning geografik joylashuvi ularning toponimlari bilan aniqlanishi mumkin. Etnotoponimlar deb nomlanuvchi geografik nomlar mahalliy aholining etnik yoki madaniy xususiyatlarini ifodalovchi nomlardir. Ular ma’lum etnik guruhlar bilan qandaydir tarzda bog‘liq bo‘lgan shaharlar, hududlar, daryolar, tog‘lar va boshqa tabiiy xususiyatlarning nomlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Natijada, tarixchilar va etnologlar o‘zbek xalqining etnik tarixi, ayrim hududlarda aholining joylashishi tarixi va ularning kundalik va madaniy hayotining o‘ziga xos jihatlariga oid turli mavzularni chuqur o‘rganish va tadqiq qilishda muhim rol o‘ynaydi [Meyliyeva, 2024]. Etnotoponimlarning quyidagi turlari bor deb hisoblanadi:

Abstrakt joylarning etnik nomlari. Shaharlar yoki qishloqlarga ba’zan ma’lum bir etnik jamoa u yerda asos solgan yoki yashaganligi sababli nom berilgan. Masalan, Armaniston arman etnonimidan olingan va Gruziya millatni gruzin madaniyati va tiliga mansub deb hisoblanadi.

Muayyan etnik guruh bilan bog‘liq geografik obyektlar nomlari. Bunday obyektlarga ko‘llar, daryolar va tog‘lar kabi tabiiy obyektlarning nomlari ham etnotoponimlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, *Oltoy* nomi bilan tanilgan tog‘ tizmasi ko‘plab Markaziy Osiyo etnik guruhlari uchun geografik uchrashuv nuqtasi bo‘lib xizmat qila boshladi.

Tarixiy va madaniy toponimlar. Migratsiya, urushlar va istilolarning tarixiy voqealari ba'zi etnotoponimlar bilan bog‘liq. Qadimgi xalqlar tomonidan ishlatilgan etnonimlardan kelib chiqqan Hindiston yoki toponim mo‘g‘ul xalqini bildiradigan Mo‘g‘uliston kabi nomlar bunga misol bo‘la oladi.

Til xususiyatlari bilan bog‘liq toponimlar. Geografik nomlar ba'zan tarixan bir joyni uy deb atagan til guruhi bilan bog'lanishi mumkin. Masalan, Tatar ko‘chasi va Yakutsk Sibirdagi turli turkiy yoki fin-ugor etnik guruhlaridan kelib chiqqan nomlarga ega joylarning misolidir. Geografik nomlar tildan tashqari xususiyatlar bilan ajralib turadi, ya'ni jamiyat va siyosiy tizimlardagi o‘zgarishlar toponimlarning kelajakdagi taqdiriga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbek tilshunosligida ham etnotoponimlar bo‘yicha tadqiqotlar mavjud. olimlar tomonidan etnotoponimlarning etimologiyasi, sistem-struktur va semantik jihatlari o‘rganilgan. Xususan, A.Turobov Samarqanddagi joy nomlari borasida fikr yuritar ekan, Tayloq tumaniga ham to‘xtalib o‘tadi. Tayloq – Samarqand viloyati tumanlarining birining nomi. Tayloq tumani markazi. Bu yerda Tayloqota nomli muqaddas joy ham mavjud. 1904-1905-yillar manbalarida *Tayloqipoyon* va *Tayloqibolo* nomlari keltirilgan. *Tayloq, toyloq* – urug‘ nomi. *Oqtayloq, qoratayloq* tarmoqlari bor. *Tayloq, toyloq* – bir yoshdan oshgan tuya bolasi. Tayloq totem, shu asosda urug‘ nomi yasalgan. Urug‘ nomidan qishloq nomi yuzaga kelgan. Toyloq – etnooykonimi *toy* so‘ziga o‘zakdan anglashilgan predmet, narsaning mo‘lligini, ko‘pligini, bildiradigan o‘rin-joy oti yasovchi *-loq* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.

"Toyloq" so‘zi tarixiy manbalarda o‘zbek va turkiy xalqlar tarixida chorvachilikka aloqador bo‘lgan. Toyloq kichkina *"o‘yinchoq, toycha; erka, erkatoy"* ma'nosini ifodalaydi. Toyloq – ko‘pincha ot (yoki tuya)ning hali to‘liq o‘rgatilmagan, yosh, lekin ishga yaroqli naviga aytiladi. Bu esa mazkur joyda tarixan chorvachilik bilan shug‘ullangan xalq yashaganini ko‘rsatadi. Toyloq vodiysi tarixan boy tabiat va chorvachilikka qulay sharoitga ega bo‘lgan. Bu ham nomning kelib chiqishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek, qoraqalpoqlarda *toyloq* (to‘g‘risi *toyloqli*) degan urug‘ bor [https://samarqandim.uz/news/279].

Etnotoponimlar masalasiga e'tibor qaratar ekanmiz, Surxondaryo viloyati hududida mavjud *Qorabo‘yin* etnotoponimiga ham to‘xtalishni lozim deb hisobladik. Qorabo‘yin – Boysun tumanidagi Rabot qishlog‘iga tegishli joy nomi. *Qorabo‘yin / qoramo‘yin* – turkiy xalqlarga, qipchoqlarga, xususan, qo‘ng‘irot urug‘iga xos etnonim. U o‘rta asrlarda qipchoq lahjasida so ‘zlashuvchi qo‘ng‘irot urug‘iga tegishli urug‘ bo‘lgan. Ko‘chmanchi qipchoqlar bilan O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston (aniqrog‘i Movarounnahr)ga kelib, turli urug‘, qabilalar bilan qo‘shilib ketgan, ularga tobe turli urug‘ yo tarmoqqa aylangan. Buxoro va Samarqand qoraqalpoqlari, Farg‘ona qipchoqlari, Surxondaryoning To‘palang daryosi chap irmog‘i Sharg‘unsoy bo‘ylaridagi qarluqlar, Boysun qo‘ng‘irotlari *tortuvli* bo‘limining *maydato‘ba* urug‘i tarkibida *qorabo‘yin / qoramo‘yin* etnonimining mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Qoraqalpoq va turkmanlarning ham *qaramoyo‘n, garamoyon* urug‘i bo‘lgan [Турсунов, 2016; 99]. Demak joy nomi etnonimga asoslanganligi borasidagi fikrlarimiz to‘g‘ri.

Yig‘ilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, toponimlarda etnik jihatlarning aks etish ko‘lami birmuncha keng va rang-barangdir. Bu borada berilgan ilmiy xulosalarni tahlil qilish hali mazkur lingvistik birliklarning tadqiqi uchun ko‘plab izlanishlar olib borilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan dabiyotlar

1. Березович Е.Л. Русская топонимия в этнолингвистическом аспекте: дис.док.фил.наук. – Екатеринбург, 1998.

2. Meyliyeva G.R. Definition to Ethnotoponyms and research the ethnic history of the Uzbek people // Texas Journal of Philology, Culture and History. ISSN NO: 2770-8608 https://zienjournals.com December 2024.

3. Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент, 2016. – Б. 99.

4. https://samarqandim.uz/news/279

MUNDARIJA

YALPI YIG‘ILISH MA’RUZALARI

1	**Hamidulla Dadaboyev** Toshkent viloyati o‘zbek shevalari – til xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan muhim manba	**3**
2	**Salida Sharifova** Şota Rustavelinin “Pələng dərisi geymiş pəhləvan” əsərinin Şərq intibahına aid olması və Türk folkloru əsasında yaradılması haqqında	**7**
3	**Güntəkin Binnətova** Çağdaş Azərbaycan ədəbi dili və şivələrinin qarşılıqlı münasibətləri	**12**
4	**Murodqosim Abdiyev** Dialektal terminologiya – adabiy til lug‘at boyligini oshiruvchi manba	**16**
5	**Baxtiyor Abdushukurov** Kul tigin bitigtoshi va o‘zbek tili shevalari	**20**
6	**Berdak Yusufov** Alisher Navoiy leksikasi va o‘g‘uz shevalari	**26**
7	**Abdulhay Sobirov** Andijon dialektal zonasi haqida ba’zi bir mulohazalar	**31**
8	**Нұрлан Мыңбаев** Түркі фольклоры және топан су тақырыбы	**35**
9	**Kifayət İmamquliyeva** Azərbaycan dialektlərində özbək dilinin elementləri	**44**
10	**Yo‘ldosh Ibragimov** Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarining lingvoareal talqini	**48**
11	**Zulxumor Xolmanova** O‘zbek shevalaridagi frazemalarning aksiolingvistik tadqiqi	**51**
12	**Botir Elov,** **Oqila Abdullayeva** Dialektal korpusni qurish va uning ahamiyati	**56**
13	**Samixon Ashirboyev,** **Nafisa Qilichova** O‘zbek shevalari matnlarining audio variantini transkripsiya qilish muammolari	**60**

1-SHO‘BA. SHEVALAR VA FOLKLORNING ILMIY MUAMMOLARI XORIJLIK OLIMLAR NAZDIDA

1	**Özeren Mehmet** Çolpan’in “Buzulgan Ölkege, Köŋil, Tün, Ziyay-yi Kamer” şiirlerine semiyotik bakiş	**63**
2	**Babazadə Rəxşanə** Azərbaycan dilinin Salyan dialektində milli leksik arxaizmlər	**67**
3	**Ерсайын Молдасанов,** **Нуржан Абдувалитов** Ұлттық бағыт және қазақ жазуы	**75**
4	**Qüdsiyyə Qəmbərova** Azərbaycan şivələrindəki bəzi feillərin özbək dili ilə ortaq paralelləri	**84**
5	**Yarmuxammat Madaliyev,** **Hulkar Aliqulova** Xalq qo‘shiqlarida “bo‘z” so‘zining ma’no ko‘chish bilan bog‘liq jihatlari	**87**

6	**Бекжан Әбдуәлиұлы** Көне тұлғалы кісі есімдерінің тарихи-этимлогиялық негіздері және шығу уәждері	**92**
7	**Садыгова Саялы** Особенности, присущие терминологическим словосочетаниям	**99**
8	**Ülkər Mirzəyeva** Qədim yunan mənbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik - semantik təhlili	**104**
9	**Тотанов Нурлан Карсыбаевич,** **Дуйісова Алмагул Қонысбайқызы** Қазақ және өзбек халық мақал-мәтелдеріндегі ұқсастық пен ортақ сарындар	**109**

2-SHO‘BA. **O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI**

1	**Sulton Normamatov** G‘ozi Olim Yunusovning o‘zbek tili siyosiy-huquqiy terminologiyasi shakllanishidagi o‘rni	**114**
2	**Munavvara Qurbonova** Bolalar nutqining hududiy xoslanishi	**119**
3	**Mardon Rahmatov** Sho‘rrabod qishlog‘i shevasining grammatik xususiyatlari	**121**
4	**Ibrohim Darvishov** Namangan shevalardagi fonetik-fonologik xususiyatlar	**129**
5	**Nurmurod Chiniqulov** “Devonu lug‘atit turk” va o‘zbek shevalari	**133**
6	**Muqaddas Abdurahmonova** O‘zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning shevalarga munosabati	**135**
7	**Saodat Shínnazarova** H.Hamidovtıń qaraqalpaq tili tariyxı boyınsha miynetleri	**138**
8	**Alisher Ubaydullayev** G‘allaorol tumani Kashshof qishlog‘i shevasi leksikasi xususida	**140**
9	**Zaynidin Kurbonov** **Muqaddas Bo‘riboyeva** Qipchoq lahjasidagi qarg‘ish va olqishlarga oid ayrim so‘zlar izohi	**145**
10	**Zoxira Xidraliyeva** Iqon shevasi leksikasining semantik xususiyatlari	**148**
11	**Iqbol O‘razova** “Layli va Majnun” dostonidagi ayrim leksemalarning hozirgi o‘zbek shevalari frazemalari tarkibida qo‘llanishi	**154**
12	**Abdumannon Hasanov** Binokorlik leksikasini sheva so‘zlari bilan boyitish haqida	**158**
13	**Фархад Халилов** О творческом сотрудничестве русских и узбекских языковедов	**161**
14	**Anvarbek Turdialiyev** Surxondaryo dialektal zonasida fokus nuqta masalasi	**167**
15	**Elyor Alimardanov** Xorazm dialektal zonasidagi turkman shevalarida δ, θ tovushlarining qo‘llanilishiga doir	**170**
16	**Baurjan Sayfullayev** Til kontaktlari va uning badiiy adabiyotdagi xususiyatlari	**173**

17	**Nargiza Xolbekova** Folklor tilshunoslikda metatilning poetik mazmunni ochib berishdagi o‘rni	**180**
18	**Sadoqat Rajabova** Etnik arablar va ularning shevalari	**183**
19	**Sanobar Tursunova** “Judolik diyori” romanida dialektal so‘zlarning ifodalanishi	**189**
20	**Ramazon Ortiqov** O‘zbek adabiy tilidagi perifraza va o‘zbek shevasidagi “ikkilamchi nominatsiya” hodisasining qiyosi	**193**
21	**Adolat Bekturdiyeva** Xorazm shevalariga xos bo‘lgan ayrim sintaktik xususiyatlar	**195**

3-SHO‘BA. **DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA**

1	**Mo‘minjon Turdibekov** Toponimik birliklarning o‘ziga xos jihatlari	**200**
2	**Zamira Ibragimova** Dialektal korpus yaratish tamoyillari	**206**
3	**Muhayyo Hakimova** Abstraksiya ilmiy tadqiqot metodi sifatida	**208**
4	**Marhabo Umurzoqova** Olqishlar – lisoniy shaxs milliy-madaniy o‘ziga xosligini ifodalovchi vosita sifatida	**214**
5	**Shukurjon Norbayeva** Xorazm shevalaridagi ayrim so‘zlarning onomasiologik tahlili	**218**
6	**Dilbar Duysabayeva** Диалектикалық тәжірибе және лингвомәдениеттану	**222**
7	**Bazargúl Qurbanbayeva** Qaraqalpaq tiliniń arqa dialektinde tabu sózlerdiń qollanílíwí	**227**
8	**Nodira Ergasheva** Qo‘shma toponimlar izohi	**232**
9	**Sofiya Usmonova** O‘zbek tilining Qo‘qon shevalariga xos ayrim xususiyatlar	**234**
10	**Xusan Berdiyev** O‘tovsozlik leksemalarining tarixiy manbalarda berilishi va leksikografik talqini	**238**
11	**Abdug‘afur Mamatov** Frazeologik dialektizmlarning shakllanish masalalari	**241**
12	**Furqat Nurmanov** Adabiy til va o‘zbek shevalari tovushlar tizimi	**244**
13	**Nasiba Raimnazarova** O‘zbek tilidagi shevaga oid so‘zlarni semantik teglash masalasi	**248**
14	**Navro‘z Raxmonov,** **Qilich Bozorov** Hududiy tilga sintagmatik munosabat asosida yondashuv	**254**
15	**Xurshidjon Xayrullayev** Lisoniy sath haqida	**256**
16	**Shahnoza Alimova** Xorazm qipchoq shevalarida rus va Yevropa tillariga mansub leksika	**265**
17	**Akbar Ruziyev** Tarixiy diskursning sotsiopragmatik aspekti	**268**

18	**Zilola Tillabayeva** Samarqand viloyati qarluq shevalarida qo‘llaniluvchi frazeologizmlar yuzasidan mulohazalar	**272**
19	**Nodirjon Qurbonov** Figurative toponyms in the uzbek and english languages and their lexical-semantic classification	**276**
20	**Dilbar Xalmuratova** Kórkem shıǵarmalarda dialektke tán frazeologiyalıq variantlardıń qollanıwı	**281**
21	**Dildora Rayimqulova** O‘rta Chirchiq tumani shevasida etnografik xususiyatlarning nomlarini va nomlar bilan bog‘liq dialektal so‘zlar	**284**
22	**Dilnoza Qabulova** Dialektal antroponimlar mintaqaviy antroponimikaning asosiy xususiyati sifatida	**289**
23	**Charos Karimboyeva** Toponimlar bilan bog‘liq o‘zbek laqablarining etimologiyasi	**292**
24	**Sohiba Otaxonova** Antroponimlar lingvomadaniy sath birligi sifatida	**295**
25	**Durdona Sayfutdinova** Salbiy tilaklarning funksional mazmunlari xususida	**298**
26	**Dilmurod Eshanqulov** Qoraxoniylar davrida qarluq dialekti	**300**
27	**Gulchehra Ahatova** Tayloq shevasining ba`zi xususiyatlari	**303**
28	**Nodir Muxammadiyev** O‘zbek shevalari o`rganilishi tarixiga qisqacha ekskurs	**305**
29	**Nilufar Azizova** “Devonu lug‘otit turk”dagi ijtimoiy munosabat semali leksemalarning o‘zbek shevalariga munosabati	**309**
30	**Ozoda Sharipova** Paremalarning lingvistik va lingvomadaniy tadqiqi	**312**
31	**Gulnoza Sayfiddinova** Said Ahmad ijodida qo‘llangan xalq maqollarining uslubiy xususiyatlari	**316**
32	**Maftuna Ahmadjonova** “Devonu lug‘atit-turk” asaridagi toponimik terminlar turkolog olimlar nigohida	**321**
33	**Vazira Alimbekova** Janubi-sharqiy Andijon shevalarining o‘ziga xos leksik xususiyatlari	**327**
34	**Gulshoda Ruziyeva** Xushmuomalalik (hurmat) nazariyasi dunyo tilshunoslari nigohida	**333**
35	**Nigora Kadirova** O‘zbek tilida “farzand” konsepti va uning maqollar orqali voqelanishi	**337**
36	**Muhabbat Matkurbanova** Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida leksik va frazeologik dialektizmlar	**341**
37	**Kamola Nasirova** Xalq allalari leksikasining tuzilishi va lug‘aviy qatlamlari	**344**
38	**Muzaffarov Kamoliddin Abdusalom o‘g‘li** “Mahbub ul-qulub” asarida ijobiy mazmundagi kontekstual antonimlarning berilishi	**349**
39	**Norbekova Madina**	**353**

	Ilmiy matnlar tipologiyasida birlamchi matn va unga munosabat bildiruvchi ikkinchi turdagi matnlar haqida	

4-SHO‘BA. **O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI**

1	**Nilufar Chuliyeva** Yazar Nazar Eshankul'un eserleri ve halk bilimi	**355**
2	**Matluba Murodova** O‘zbek xalq qahramonlik eposida nikoh to‘yi marosimlari talqini	**359**
3	**Ma’rifat Xusanova** O‘zbek folklorshunosligida xalq dostonlarining o‘rganilishiga doir	**363**
4	**Nurjan Abduvalitov,** **Xaliqberdiyev N.** Түркі тілдес халықтар фольклорында наурыз өлеңдерінің келіп шығу тарихы жайлы	**365**
5	**Mamlakat Mamadaliyeva** O‘zbek-turk bolalar o‘yinlarida bo‘ri obrazi	**368**
6	**Shohista Eshankulova** Turkiy xalqlarning mehmondo‘stlik an’ana va qadriyatlarini aks ettirgan maqollarning konseptual tushunchalari	**372**
7	**Umurzaqova Nargiza** O‘zbek folklorshunosligida alla janrining tadqiqi	**374**
8	**Shohinur Rahmataliyeva** G‘olima Musina ijodida “Alpomish” dostonidagi Barchin obrazining o‘rganilish darajasi	**380**
9	**Maftuna O‘rinova** Bolalar folklorshunosligi tarixi va taraqqiyot bosqichlari	**383**
10	**Nigora Abdusalomova** Rahmatulla Yusuf o‘g‘li repertuaridagi “Zevarxon” dostoniga oid mulohazalar	**387**
11	**Nasrullo Ergashov** Bashariyatning birinchi shoiri	**391**
12	**Кдырбаева Улзада** Параллелизмниң эстетикалық функциясы	**394**
13	**Bekzod Ibragimov** Elbek – folklorshunos	**397**
14	**Orzuboy Yulchurayev** Aza marosimiga aloqador poetik obrazlar	**401**

5-SHO‘BA. **FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR**

1	**Salimakhon Mirzayeva** Abdulla Kadiri and folklore	**408**
2	**Abdumurod Tilavov,** **Oynisa Hojiyeva** Bilmecelerin cazibesi (Özbek ve Türk bilmeceleri örneğinde)	**413**
3	**Gulnoza Abdullayeva** Folklor va bugungi bolalar she’riyati	**425**
4	**Dilbar Nasriyeva** O‘zbek folklori – tarbiya vositasi sifatida	**430**

5	**Shamsiya Egamberdiyeva** O‘zbek va turk allalarida ijtimoiy hayot ta’siri ostida va xalqning inonch-e’tiqodlari zamirida yaratilgan obrazlar	**434**
6	**Shahnoza Nurmatova** O‘zbek va xitoy xalq ertaklarida ayol obrazi	**438**
7	**Kamoliddin Egamqulov** Shomurod shoir ijodida an’anaviylik	**447**
8	**Ismailov Jahongir,** Diskursiv tahlilda pragmatik va milliy mental omillar	**451**
9	**Nigora Xaytaliyeva,** Shoiralar she’riyatidagi metaforik obraz va ramziylik	**454**
10	**Shoira Axmedova,** **Nazarova D.** Folkorshunos olim portretiga chizgilar	**457**

6-SHO‘BA. **UMIDLI TADQIQOTCHILAR**

1	**Mahliyo Darvishaliyeva** Namangan viloyati qarluq sheva areallarining o‘rganilishi	**459**
2	**Oydin Shuxratova** Qo‘shrabot hududida qiz bolalar o‘ynaydigan o‘yinlar	**461**
3	**Masturaxon Sotvoldiyeva** Qo‘qon arealida to‘y-marosim qo‘shiqlarining til xususiyatlari	**464**
4	**Sevinch G‘afforova** Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarida Hasanxon obrazi tahlili	**467**
5	**Naimaxon Eraliyeva** Andijon viloyatida qoraqalpoq shevasining lingvistik tadqiqi	**470**
6	**Gulshoda Jumaboyeva** “Jaziramadagi odamlar” romanida etnofolklorizmlar	**472**
7	**Ozoda Abdusalomova** Andijon viloyati kontinuumlari	**475**
8	**Nargiza Abduraxmonova** O‘zbek va ingliz dialektologiyasini qiyosiy o‘rganish tajribasidan: unlilar qiyosi	**478**
9	**Nodira Mahmudova** The study of Uzbek wedding songs (yor-yor and kelin salom) in folk art on the example of Chortoq area	**480**
10	**Maftuna Annamurodova** “Qutadg‘u bilig” asarida mifologik rudimentlar	**482**
11	**Javlonbek Anarboyev** O‘zbek va turk ertaklaridagi umumiy va farqli motivlar	**486**
12	**Xayrulla Rajabov** Baxshichilikda mazmun, ohang va musiqa uyg‘unligi	**489**
13	**Shahlo Ergashova** Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani shevasidagi ba’zi leksemalar tahlili	**492**
14	**Shaxlo Xoliqulova** Yor-yorlarda turli timsollar va ramzlarning o‘rni va vazifasi	**495**
15	**Farog‘at Tursunova** O‘zbek xalq qo‘shiqlarida qadimgi inonchlarning poetik ko‘rinishlari	**497**
16	**O‘g‘iloy Odiljonova** Mahmud Koshg‘ariy fonetik-fonologik qarashlari va Norin shevasi	**499**

17	**Oltinoy Razzaqberganova** Xorazm “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining badiiy xususiyatlari	**502**
18	**Kumushoy Xoliqulova** Bahodir Qobulning “Otachiroq” asaridagi qipchoq lahjasiga oid dialektizmlar	**506**
19	**Gulnoza Samadova** O‘zbek xalq ertaklarining o‘rganilishi va tasnifi	**509**
20	**Mohinur Turobova** O‘zbek va turk laparlarining qiyosiy tahlili	**511**
21	**Mohina Solijonova** Nazar Eshonqul asarlarida mifologik talqin namunalari	**508**
22	**Dilso‘z Rahmonova** Samarqand viloyati qipchoq lahjasining o‘rganilish tarixi	**512**
23	**Ozoda Rajabbayeva** Turkiy mifologiyaning qadimgi turkiy yozma manbalari tasnifi	**517**
24	**Gavhar Toshtemirova** Qashqadaryo shevasi leksik qatlamidagi so‘zlar	**520**
25	**Xumora Ro‘ziqulova** O‘zbek va ingliz xalq maqollarida oila tushunchasi masalalari	**524**
26	**Dilyayra Erkinova** Bolalar qo‘shiqlarida rang simvolikasi va mifologik tizimlar	**526**
27	**Asalxon Yusupova** To‘rtko‘l hududidagu to‘y marosimlarining lokal xususiyatlari	**529**
28	**Mahliyo Xudoyberdiyeva** “Oltin beshik" afsonasi yoxud tarixiy haqiqat ifodasi	**532**
29	**Muhayyo Rahimqulova** Folklorshunoslar tomonidan dostonchilikni o‘rganish an’analari	**535**
30	**Ohista Rahimqulova** Xalq dostonlarida go‘zal yor tasviri va tahlili	**538**
31	**Dilafruz Qurbonova** O‘g‘uz lahjasining fonetik tabiati	**540**
32	**Elinor Bozorova** Surxondaryo viloyati qipchoq lahjasiga oid qaydlar	**542**
33	**Anvar Eshnazarov** O‘zbek dialektologiyasining taraqqiyoti va unga aloqador hodisalar	**545**
34	**Rahmatova Marg‘iyona** Dialektologik tadqiqotlarning lingvistik ekspertizadagi roli va ahamiyati	**554**
35	**Dilhayot Sotiboldiyev** “Bonu” asarida qo‘llanilgan dialektizmlar	**558**
36	**Nilufar Mamayusupova** Qipchoq lahjasidan olingan matnlarning sintaktik tahlili va statistik yondashuv	**562**
37	**Karimova Mahliyo Atobayevna** O‘zbek tilida tarz shakllarining leksik va uslubiy voqelanishi	**564**
38	**Shohsanam Hazratqulova** Xushchekka qishlog‘i shevasidagi ayrim dialektal so‘zlar xususida	**566**
39	**Ruxshona Adahamova** O‘zbek folklorshunosligida hayvonlar haqidagi ertaklarning etimologik asoslari	**569**
40	**Guljahon Isoqova** Murod Muhammad Do‘st asarlarida dialektizmlar	**571**

41	**Irodaxon Boxodirova** “O‘zbeklar” hikoyasi va “Devoni lug‘otit turk” dagi shevaga xos so‘zlar	**586**
42	**Sabina Yangiboyeva** “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidagi dialektizmlarning leksik tahlili	**588**
43	**Jannat Allamuratova** Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi shevalarning o‘zbek shevalariga ta’siri	**590**
44	**Aziza Rustamova** O‘zbek va qozoq topishmoqlari qiyosiy tahlili	**593**
45	**Sarvinoz Baratova** Matnazar Abdulhakim she’riyatida shevaga xos so‘zlar	**597**
46	**Aynura Axmedova** O‘zbek mifologiyasida alvasti obrazining genezisi	**600**
47	**Ohista Rahimqulova** Eski o‘zbek adabiy tili va o‘g‘uz shevalarida kelishik shakllarining qo‘llanishiga doir	**602**
48	**Qodirova Nazokat Ulug'bek qizi** “Shohidu-l-iqbol” asaridagi ruboiylar poetikasi	**604**
49	**Jo‘rayeva Mahliyo Dusmurod qizi** XX asr II yarmi muxammaslarida an’ana, vorislik va izdoshlik masalasi	**607**
49	**Bahoroy Xasanova** O‘zbek tilining Paxtachi tuman shevasiga oid ayrim so‘zlar tahlili	**610**
50	**Gulnura Usenbayeva** O‘zbek va qozoq tillarida kiyim-kechakka oid maishiy leksikaning ifodalanishi	**612**
51	**Jaloliddin Nosirov** “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi maqollarga bir nazar	**616**
52	**Fazilat Mardonova** Doston va afsonalardagi quduq ramziy obrazining maishiy hayot bilan uzviyligi	**618**
54	**Ozoda Nurqulova** Chiroqchi xalq maqollari (Arabbandi va Qaziayaqli qishloqlari misolida)	**621**
55	**Dilnavoz Xaytaxmatova** “Bozirgon” dostonidagi metaforalar tahlili	**624**
56	**Kiyishjon Ollamova** Jumaniyoz Sharipovning “Xorazm” romanida qo‘llanilgan leksik dialektizmlar	**626**
57	**Azizbek Turdiyev** Xalq maqollari vositasida maktab yoshidagi bolalarda xulq-atvor madaniyatini shakllantirish mazmuni va metodik asoslari	**630**
58	**Lola Uzaqova** Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda bolalar adabiyotida qahramon konsepsiyasi	**634**
59	**Nilufar Bo‘riyeva** Chet tillarini oliy ta'lim muassasalarida o‘qitishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishni tashkiliy-pedagogik boshqarish	**637**
60	**Sardor Islomov** Etnik belgili toponimlar tahlili	**639**